**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**SARBON UNIVERSITETI**

# “YURIDIK TA’LIM VA ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI”

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami*
*(2026-yil 19-may)*

**Toshkent-2026**

UDK 347.7(075) (575.1)

“Yuridik ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sarbon universiteti, 2026. – 725-bet.

**Tahrir hay’ati:** yuridik fanlar doktori, dotsent R.T. Xakimov, yuridik fanlar doktori, dotsent F.A. Primov, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori B.J. Abdullayev, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori M.N. Saydazimov.

**Sahifalovchi va texnik muharrirlar:** O. Ergsheva, M. Xo‘jayeva.

To‘plamda 2026-yil 19-may kuni Sarbon universitetida “Yuridik ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy muammolari” mavzusida o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari joy olgan.

To‘plamda taniqli olimlar va ekspertlar, amaliyotchilar, shu jumladan hamkor tashkilotlar vakillarining, shuningdek tadqiqotchilar hamda magistr va talabalarning yuridik ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy muammolari masalalariga oid fikr va mulohazalari, tadqiqot natijalari kiritilgan.

**To‘plamga kiritilgan maqolalarning tahririy va imloviy jihatlari hamda mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun mualliflar javobgardir.**

© O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sarbon universiteti, 2026.

**Sarbon universiteti rektori, texnika fanlari doktori, dotsent Asqaraliyev Odilbek Ulug‘bek o‘g‘lining ilmiy-amaliy konferensiya ochilish nutqidagi nutqi**

**Assalomu alaykum!**

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari – qadrli ustozlar, professor-o‘qituvchilar, yosh tadqiqotchilar va aziz mehmonlar!

Avvalo, barchangizni bugungi nufuzli ilmiy-amaliy anjuman – **“Yuridik ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy muammolari”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining ochilishi munosabati bilan **Sarbon universiteti** nomidan samimiy tabriklayman.

Bugungi ilmiy yig‘ilishda ishtirok etib, o‘z ilmiy qarashlaringiz, tajribangiz va innovatsion yondashuvlaringiz bilan o‘rtoqlashayotganingiz uchun sizlarga chuqur minnatdorlik bildiraman. Ushbu konferensiya yuridik ta’lim va ilm-fan sohasidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish hamda yangi ilmiy g‘oyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan muhim maydon hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-232-sonli Farmoni yuridik ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda huquqiy fanlar sohasida sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishni nazarda tutadi. Ushbu Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bugungi konferensiyaning asosiy ilmiy va amaliy maqsadlaridan biridir.

Shu ma’noda, bugungi anjuman fundamental va amaliy tadqiqotlar integratsiyasini kuchaytirishga, **Sarbon universiteti hamda boshqa muassasa va tashkilotlarninglarning sohadagi hamkorligini mustahkamlashga,** professor-o‘qituvchilar hamda yosh olimlarning xalqaro ilmiy maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu konferensiya ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

Hurmatli ishtirokchilar!

Bugungi globallashuv jarayonida huquq tizimi jadal o‘zgarib, yangi muammolar va yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, elektron hujjat aylanishi va raqamli boshqaruv tizimlari huquqiy tartibga solishning yangi mexanizmlarini talab etmoqda.

Ana shunday sharoitda yuridik ta’lim va ilm-fan oldida turgan eng muhim vazifa – zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, analitik fikrlaydigan, innovatsion yondashuvga ega malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlarni amaliyotga tatbiq etish, ularni real huquqiy muammolar yechimiga yo‘naltirish bugungi kunning eng dolzarb talablaridan biridir.

Alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning huquq sohasiga jadal kirib kelishi yuridik fan oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa o‘z navbatida “raqamli huquq”, “kiberhuquq” va “huquqiy texnologiyalar” kabi yangi yo‘nalishlarning rivojlanishini taqozo etadi. Ushbu yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar esa huquqiy tizimni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hurmatli hamkasblar!

Konferensiyaning Sarbon universitetida o‘tkazilishi bejiz emas. Universitetimiz yosh bo‘lishiga qaramasdan ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish va yosh olim va tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash borasida tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi anjuman ham ana shu islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lib, u professor-o‘qituvchilar, ilmiy va amaliyotchi xodimlar hamda yosh tadqiqotchilar o‘rtasida ilmiy muloqotni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Shuningdek, konferensiyada ishtirok etayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillarining sohadagi ulkan amaliy tajribasi ilmiy muhokamalarni yanada boyitadi va dolzarb huquqiy muammolarga real yechimlar topishga yordam beradi.

**Hurmatli ustozlar va yosh tadqiqotchilar!**

Konferensiya uch asosiy sho‘ba yo‘nalishida o‘tkazilmoqda:

Birinchi sho‘ba – **yuridik ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari** bo‘lib, unda ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuv masalalari muhokama qilinadi.

Ikkinchi sho‘ba – **yuridik ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari** bo‘lib, unda ilmiy maktablar rivoji, xalqaro hamkorlik va ilmiy tadqiqotlar samaradorligi masalalari ko‘rib chiqiladi.

Uchinchi sho‘ba – **yuridik ta’lim va huquqni qo‘llash amaliyotiga sun’iy intellektni joriy etish, raqamli huquq**

**yo‘nalishlarini rivojlantirish**ga bag‘ishlanadi. Bu yo‘nalish bugungi kunning eng istiqbolli va dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qadrli ishtirokchilar!

Ishonchim komilki, bugungi konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy g‘oyalar, takliflar va xulosalar yuridik ta’lim va ilm-fan rivojiga, huquqiy tizimning yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va adolat tamoyillarini mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

Sarbon universiteti jamoasi nomidan barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyatli va samarali ish olib borishingizni, ilmiy bahs-munozaralarda yangi yutuqlarga erishishingizni tilab qolaman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

# НАУКА В УЗБЕКИСТАНЕ: КАК СДЕЛАТЬ НАУЧНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ПРОФЕССИЕЙ?

***А.К. Расулев*** *ученый секретарь Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор*

**Аннотация:** В данной статье анализируется стратегическое значение развития науки и инноваций в Новом Узбекистане, проводимые реформы по государственной поддержке сферы и существующие системные проблемы.

Автор на основе статистических данных демонстрирует рост объемов финансирования научных проектов, расширение системы подготовки научных кадров и формирование инновационной инфраструктуры. В то же время подробно освещаются проблемы «старения науки», низкой мотивации молодежи к научной деятельности, сложности процедур защиты и вопросы качества статей в международных изданиях.

В статье выдвигаются предложения по усилению интеграции науки и производства, применению опыта развитых стран (например, Японии) и подготовке нового поколения научных кадров через программу «Наука 3.0».

**Ключевые слова:** наука, инновации, докторантура, Глобальный инновационный индекс, стартап, научные школы, коммерциализация, опыт Японии.

Вопросы развития науки являются одним из приоритетных задач Нового Узбекистана. Ведь, развитие современного государства определяется темпами развития науки и инноваций. Именно наука определяет будущее общества и государства. Уважение и почитание науки в узбекском обществе является традиционным. В священном хадисе сказано, что *«Нет и не может быть иного спасения, кроме знания»*.

Глава государства в своем Послании Олий Мажлису и народу Узбекистана от 26.12.2025 года определил *перевод экономики на модель технологического и инновационного роста в качестве второго приоритетного направления развития страны в 2026 году*, что требует развития науки и инноваций.

В последние годы вопросам науки уделяется огромное внимание. Ежегодно значительная часть Государственного бюджета Республики Узбекистан выделяется на социальные расходы, в том числе на развитие науки и инноваций. В частности, значительно вырос и объём финансирования научных проектов. В 2025 году

профинансированы 323 новых проекта (64 фундаментальных, 214 прикладных и 43 инновационных) на общую сумму 577,1 миллиарда сумов и 434 действующих проекта на сумму 217,95 миллиарда сумов. А в рамках международных совместных проектов поддержано 66 исследований на сумму 112,4 миллиарда сумов.

Расширяется система подготовки научных кадров. В частности, на 2026 год выделено в общей сложности 5 300 квот для базовой докторантуры, докторантуры и стажировок-исследований (из них 4 174 для PhD, 726 для DSc). Примечательно, что 63,9% этих квот (в прошлом году этот показатель составлял 40,8%) направлены именно на приоритетные научные направления, служащие развитию экономики и технологий.

В целях поддержки молодых учёных в 2025 году 145 исследователей были направлены на стажировку в 12 развитых стран, таких как США, Германия, Китай, Япония и Южная Корея.

Развитие стартап-культуры и инновационного предпринимательства также набрало обороты. В частности, в 2025 году был профинансирован 121 стартап-проект на общую сумму 69 миллиардов сумов, на их базе было открыто 106 предприятий. В результате было создано 847 новых рабочих мест и привлечено 2,1 миллиона долларов США иностранных инвестиций.

За последние годы расширяется научная и инновационная инфраструктура. В целях развития инновационной среды в регионах были созданы 4 молодёжных технопарка в Наманганской, Ферганской, Джизакской и Кашкадарьинской областях (всего 13 молодёжных технопарков). Также в масштабах республики были созданы 3 венчурных фонда, 2 бизнес-инкубатора и 3 инновационных центра. В результате принятых мер к 2025 году общее число объектов инновационной инфраструктуры достигло 67.

В качестве важного участника научно-исследовательской политики государства совершенствована деятельность Академии наук Республики Узбекистан, в составе которой функционируют 36 научно-исследовательских учреждений перед которой поставлены очень масштабные и конкретные цели. В частности, до 2030 года поставлена задача увеличить в 3 раза средства, поступающие от новых научных разработок и их коммерциализации, и в 4 раза - количество статей в престижных международных изданиях. Также долю молодёжи в составе научных сотрудников планируется довести до 60 процентов. Для достижения этих целей и направления

разработок учёных на развитие отраслей экономики создаётся новая структура - Совет по интеграции науки и промышленности. Совет послужит связующим звеном для внедрения и коммерциализации этих научных разработок.

Активизируется работа по разработке и внедрению инновационных идей и технологий. Так, в 2025 году за счёт коммерциализации научных разработок на рынок были выведены инновационные продукты и услуги на сумму 51,83 миллиарда сумов, что принесло в государственный бюджет 6,2 миллиарда сумов налоговых поступлений. Благодаря этому республика поднялась на 43 позиций по сравнению с 2016 годом в рейтинге Глобального инновационного индекса за 2025 год и вышла на первое место в Центральной Азии.

Еще одним важным шагом является совершенствование системы оценки научно-исследовательских процессов в образовательных организациях на основе международных стандартов, а также повышение качества подготовки научно-педагогических кадров. В этих целях было образовано Национальное агентство обеспечения качества образования при Администрации Президента Республики Узбекистан. Именно это агентство проводит комплексную и специальную государственную аккредитацию организаций послевузовского образования, ведет национальный рейтинг образовательных организаций на основе сравнительного сопоставления качества их образовательно-воспитательного и научно-исследовательского процессов.

В целом за последние годы были созданы правовые основы для совершенствования системы государственной поддержки науки и инноваций. Так, с 2018 года по сей день в сфере научной и инновационной деятельности были приняты 2 Закона, более 200 Указов и постановлений Президента, постановлений Кабинета Министров.

Несмотря на имеющиеся достижения по развитию и поддержке научной и инновационной деятельности в целом, еще предстоит решить ряд проблем. Особенно сегодня в эпоху глобализации и цифровизации именно инновационный подход является залогом успеха страны. Такой подход может быть применим лишь благодаря достижениям науки, в связи с чем развитие науки является важной составляющей инновационного развития государства.

Проблемы науки напрямую влияют на экономический рост, повышение уровня жизни населения, решение актуальных проблем социальной сферы. В Концепции развития науки до 2030 года, утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № УП–6097, отдельно были указаны 19 проблем развития науки. В частности, низкая заинтересованность предприятий реального сектора экономики в науке, повышение среднего возраста научно-исследовательских коллективов, недостаточный уровень направления финансовых ресурсов на финансирование науки и научных исследований. Решение данных проблем является важным, требует принятия комплексных и обдуманных мер.

На наш взгляд, в сфере науки существуют ряд проблем, решение которых представляется важным и востребованным.

Первая проблема – невысокая заинтересованность в занятии наукой, особенно молодежи. Сегодня в Узбекистане в институтах послевузовского образования обучаются 32078 лиц, в базовой докторантуре обучает около 10910 лиц. К сожалению, сегодня наблюдается повышение среднего возраста коллективов, в которых проводятся научные исследования, а также академиков и соискателей. Средний возраст соискателей, работающих в научных организациях, составлял 51 год в 2020 году. Сегодня доля лиц в возрасте до 39 лет включительно, занимающихся наукой, составляет лишь 52 %. Это требует более активного привлечения молодежи к науке, ускорения темпа исследований. В Китае средний возраст научного сотрудника – 35,6 лет, во Франции и Германии – 42 года, в Сингапуре – 46 лет.

Количество научных исследователей на душу населения в Узбекистане 830 (*на 1 млн жителей*). Средний показатель в мире составляет около 1400 исследователей.

«Старение науки» вызвано рядом причин. В первую очередь, это невысокая мотивация в части материального обеспечения молодежи. Сегодня стипендия стажера-исследователя составляет 6.049.960 сумов *(около 500 $)*, базового докторанта – 6.834.167 сумов *(около 565 $)*, а для докторанта – 8.731.770 сумов *(около 720 $)*. В странах Европы в среднем докторант получает 1000-1500 евро. В Канаде, США и Сингапуре размер выделяемого гранта в перспективных направлениях научной сферы варьируется от 3 до 20 тысяч долларов США в месяц.

Также невысокая заинтересованность в научной деятельности вызвана тем, что наука для многих рассматривается как работа лишь в вузе или научной организации. Многие перспективные научные кадры, боясь потерять «карьерную нить», выбирают практическую работу, ежели научную деятельность. Поэтому следует создать адресную программу подготовки научных кадров нового поколения. К примеру, программа «Наука 3.0.», которая будет отбирать потенциальных кадров еще в профессиональных и высших учебных заведениях (можно использовать потенциал Президентских, специализированных и творческих школ). Будет создана так называемая система селективного отбора, которая себя оправдывает во многих видах спорта (особенно ярко мы видим это в футболе на уровне футбольных Академий таких команд как Реал, Барселона, Аякс). Для этого следует создать и финансировать научные школы и кластеры, в которых видные ученые и специалисты будут работать в команде с молодыми специалистами. В результате можно обеспечить как преемственность научной работы, так и привлечение молодых и перспективных кадров.

Вторая проблема – излишнее регулирование и сложность получения статуса ученого. При осуществлении научно-педагогической деятельности потенциальный кандидат сталкивается с рядом проблем. В первую очередь, это излишняя формальность при прохождении защитных процедур. Далее необходимо зарегистрироваться в качестве самостоятельного соискателя или поступить в докторантуру. Для этого нужно подать соответствующие документы, пройти собеседование или экзамен, а после этого зарегистрироваться в Бюллетене Высшей аттестационной комиссии (ВАК) при Министерстве высшего образования, науки и инноваций. Аналогично для защиты диссертации необходима публикация сообщения о планируемой защите в веб-сайте ВАК. Часть исследователей сталкиваются с проблемами с публикацией сообщения о защите диссертации (требуется надлежащее оформление текста диссертации и автореферата по установленным требованиям).

Для защиты диссертации актуальной является проблема с внедрением результатов исследования. По действующему порядку для защиты диссертации требуется внедрение научных результатов исследования. Без акта о внедрении научных результатов нельзя стать доктором философии и доктором наук. Иногда результаты

исследования могут быть направлены на реализацию в будущем (на долгую перспективу), что приводит к тому, что готовая диссертационная работа не может быть защищена в силу отсутствия акта о внедрении. Это подталкивает некоторых исследователей к поиску путей быстрого внедрения своих результатов на практику, что не всегда реализуема.

Защита диссертации в Узбекистане предусматривает три больших этапа – кафедральное обсуждение, обсуждение на Научном семинаре (так называемое «проблемный совет») и защита на Научном совете. В отличие от Узбекистана в США и странах Европы защитные процедуры предусматривают два этапа – внутренняя оценка и внешняя оценка, завершающаяся выдачей рекомендации о присуждении ученой степени.

Хотя основная часть работы проходит экспертизу в вузе или научной организации, при котором функционируют научные советы, окончательное решение о защите диссертации принимает Высшая аттестационная комиссия при Министерстве высшего образования, науки и инноваций, в то время как во многих развитых странах такое право предоставлено самим вузам и научным организациям. В этой части необходимо обсудить вопрос о повышении самостоятельности самих вузов или научных организаций, усилении их ответственности за качество исследований. Для этого следует создать систему научной аккредитации вузов и научных организаций по строго определенным критериям. Если вуз или научная организация отвечает этим требованиям, то государство будет предоставлять право на самостоятельное принятие решений о присуждении ученой степени на определенный срок. Такая система сохраняет за государством роль контролирующей инстанции. Вузы и научные организации будут заинтересованы в качественной подготовке научных кадров.

Третья проблема – проблема научных публикаций в журналах, входящих в международные научно-технические базы. Требование о вхождение в международные рейтинги поставило перед вузами и научными организациями задачу публикаций в международных научно-технических базах (Scopus, Web of Science). В 2025 году количество публикаций учёных из Узбекистана на платформах Scopus и Web of Science достигло 10 879 единиц, из которых 7 546 составляют научные статьи

К сожалению, погоня за количеством статей не всегда отражает качество. По данным исследователя Achal Agrawa в 2025 году Узбекистан вошел в топ-10 стран мира по количеству «отозванных» (retracted) научных статей [1]. Лишь в 2023 году было отозвана 61 статья. За период с 2015 по 2024 года 21 статья была отозвана по «серьезным причинам» [2].

Кроме того, некоторые вузы Узбекистана также указываются в рейтинге учреждений с самым высоким баллом риска научной этики [3].

С учетом важности публикаций в журналах, входящих в международные научно-технические базы, необходимо создать необходимую инфраструктуру по подготовке качественных научных публикаций. В этих целях необходимо создать методички по подготовке статей отвечающих современным требований и условий конкуренции на международном научном рынке, осуществлять методическое руководство по подготовке статей со стороны опытных специалистов и ученых.

Четвертая проблема – слабая связь науки и кооперации. В Узбекистане чрезмерно высокая зависимость от государственного бюджета в финансировании научных исследований также является актуальным вопросом. Опыт развитых стран показывает, что основным заказчиком и спонсором инноваций должен быть частный сектор. Основная часть научной работы, к сожалению, не всегда напрямую отражает потребности практики. Иногда само производство или бизнес не столь эффективно сотрудничает с научными организациями. По итогам 2024 года число предприятий и организаций, внедривших инновации в Узбекистане, составило 1835, в то время как в США 45 % всех предприятий и организаций, в Китае – 65 %, в Южной Корее – около 70 % организаций внедряют инновационные продукты и технологии.

Следует разработать и внедрить интегрированную программу подготовки научных кадров, которая предполагает проведение научных исследований на практике. Данная программа должна быть направлена на формирование разносторонних компетенций, позволяющих осуществлять практическую деятельность наряду с научной. Самым успешным и ярким примером служит опыт Японии. Как и во многих других странах, молодым японским обладателям докторских степеней в 2000 годах было непросто получить постоянную работу в университетах или научно-исследовательских

институтах. Число докторантов сокращалось, так как многие выпускники магистратуры не решались выбрать исследовательскую карьеру. В ответ японское правительство с 2006 года предприняла ряд мер с тем, чтобы разнообразить карьерные возможности для молодых исследователей. Это были программы обмена между университетами и промышленностью, субсидии для стажеров и разработка учебных программ, которые дали соискателям докторской степени более широкие перспективы и навыки. Правительство также содействовало реформе учебных программ докторантуры, направленной на то, чтобы выпускники с большей легкостью приспосабливались к ненаучной среде. В 2011 году Министерство образования, культуры, спорта, науки и технологии Японии инициировало крупномасштабную Программу для ведущих магистратур, которая профинансировала амбициозную реформу магистерских программ, предпринятую университетами для стимулирования творческого подхода и развития у учащихся универсальных навыков, чтобы вырастить из них мировых лидеров для промышленности, науки и правительства. Данные меры дали свои результаты через восемь лет, то есть в 2014 году, когда интерес к научной деятельности вырос в три раза.

Сегодня глобальное превосходство измеряется не только природными ресурсами, но и интеллектуальным потенциалом и научными достижениями. Инвестиции и внимание, уделяемые науке, – это самая надежная инвестиция Узбекистана в обеспечение своей экономической независимости, безопасности и достойного места в мировом сообществе.

Величайшее значение проводимых реформ заключается в их системном и комплексном характере. Государство не просто увеличивает квоты или выделяет средства, а создает полноценную инновационную экосистему - от зарождения идеи до её продажи на рынке в виде готового продукта. Открытие инженерных школ, оснащение лабораторий и расширение международного сотрудничества служат прочным фундаментом этой экосистемы.

С учетом вышеизложенного, развитие науки должно сопровождаться комплексными мерами, которые будут обеспечивать как поддержку самих научных сотрудников, так и повысить привлекательность научной сферы. Ведь наука является флагманом развития государства, а поддержка науки – это забота о будущем страны.

**Список использованной литературы**

-[https://www.linkedin.com/posts/achal-agrawal-phd-42331855_countries-with-most-retraction-notices-in-activity-7413808599396880384-6LCQ?utm_source=share&utm_medium=member_desktop&rcm=ACoAACeU2MsBS4GsYtEfxI5AkeBuUwIGrq367k4](https://www.linkedin.com/posts/achal-agrawal-phd-42331855_countries-with-most-retraction-notices-in-activity-7413808599396880384-6LCQ?utm_source=share&utm_medium=member_desktop&rcm=ACoAACeU2MsBS4GsYtEfxI5AkeBuUwIGrq367k4)

-[https://retraction-dashboard.netlify.app/countries/Uzbekistan](https://retraction-dashboard.netlify.app/countries/Uzbekistan)

-[https://www.scimagoiris.com/integrity-risk-indicators.php?order=ranking_pos&ord=desc](https://www.scimagoiris.com/integrity-risk-indicators.php?order=ranking_pos&ord=desc)

# ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ТИЗИМИДА ҲОКИМИЯТЛАР БЎЛИНИШИ ПРИНЦИПИНИНГ АМАЛДАГИ ИЖРОСИ: ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАҲЛИЛ

***Ш.Х.Зулфиқоров***
*Ўзбекистон Республикаси*
*Жамоат хавфсизлиги университети*
*бошлиғи ўринбосари, юридик*
*фанлар доктори, профессор*

Мамлакатимиз тараққиёти ва истиқболини белгилаб берувчи янги таҳрирдаги Конституция халқпарвар давлат қуриш мақсадида кучли парламент, ихчам ва масъулиятли ҳукумат, мустақил ва адолатли суд тизимини барпо етишга қаратилганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим.

Давлат раҳбарининг 2023 йил 8 майдаги Олий Мажлис палаталари аъзолари, сиёсий партиялар ва жамоатчилик вакиллари билан учрашувдаги нутқида, “Асосий қонунимизга мувофиқ, биринчидан, ҳокимиятнинг барча бўғинлари ислоҳ қилиниб, улар

ўртасидаги муносабат ва мувозанат жиддий ўзгармоқда. Иккинчидан, янгиланган Конституциямиз Президент, парламент, ҳукумат, вазирлар, ҳокимлар олдига кечиктириб бўлмайдиган янги сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий вазифаларни қўймоқдалиги”га, алоҳида эътибор қаратилган[1].

Таъкидлаш лозимки, ҳокимият бўлиниши принципи адолатли, демократик, ҳуқуқий давлатнинг энг муҳим белгиларидан бири ҳисобланади. Бундай принцип муайян давлатда бирор органнинг ёки алоҳида давлат раҳбарининг кучли ҳукумронлиги ўрнатилишининг олдини олади. Шунингдек, тегишли давлат органларининг ваколатлари, вазифалари аниқ бўлишини таъминлайди, бир органнинг иккинчи орган ишларига аралашувига барҳам беради, бошқариш соҳасида чалкашликлар келиб чиқишига йўл қўймайди. Мазкур принцип ҳокимият органларининг ўзаро келишиб, бир-бирини назорат қилиб, уйғунлашиб ишлашларига ҳам имконият яратади.

Дарҳақиқат, давлат ҳокимиятининг бўлиниши ҳар қандай давлатнинг демократик ҳуқуқий давлат эканлигини белгилайдиган, унинг халқ ҳокимиятчилигига асосланганлигини, халқ иродаси устуворлигини намоён қилади.

Янги таҳрирдаги Конституциямизнинг 11 – моддасида ҳам, Ўзбекистон Республикаси давлат ҳокимиятининг тизими – ҳокимиятнинг қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлиниши принципига асосланиши ҳам аниқ белгилаб қўйилган.

Тарихан эътибор қаратадиган бўлсак, “ҳокимият ваколатларининг бўлиниши” ғояси машҳур француз маърифатпарвари, ҳуқуқшунос, файласуф ва ёзувчи Ш.Л.Монтескье ўзининг “Қонунлар руҳи ҳақида” китобида ҳокимиятнинг бўлиниши принципини илгари сурган. Монтескьенинг фикрича, сиёсий хиёнатларнинг бўлмаслигини таъминлайдиган нарса уч ҳокимиятнинг: қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятининг тўла бўлиниши ва бир-бирини чеклашидир. Ш.Л.Монтескье таълимотида алоҳида ўрин тутадиган асосий ғоя – ҳокимиятларнинг мувозанати, тенглиги ҳамда уларнинг “ўзаро бир – бирини тийиб туриш ва қарама қарши таъсир этиш тизими” ҳақидаги ғоядир.

[1] Халқ сўзи газетаси. 2023 йил 9 май, № 94 (8437)

Баъзи бир олимларнинг қарашларида бир биридан фарқловчи хусусиятни кўришимиз мумкин. Мисол тариқасида, Ж.Локнинг қарашлари Монтескьенинг ғояларидан фарқлилигини кўрамиз. Ж.Локк қонун чиқарувчи ҳокимият ижро этувчи ҳокимиятдан устун туришини таъкидлайди.

Ҳокимиятларнинг одилона бўлиниши, давлат органларининг самарали фаолият юритиши, суиистеъмолликларнинг бартараф этилиши, инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари кафолатланиши, умумий тарзда қонунчилик таъминланишининг гаровидир. Шунинг учун ҳам ҳокимиятлар бўлиниши принципининг давлатчилигимиз ҳаётига амалий сингдирилиши масаласи муҳим аҳамият касб этади.

Ҳокимиятлар бўлиниши натижасида юзага келган ҳокимиятнинг учта тармоғини ўз холича иш кўрадиган, бир - биридан тўла мустақил ҳокимиятлар сифатида тушуниш мантиқан нотўғридир. Зотан, ҳокимиятнинг бу уч тармоғи давлат ҳокимиятининг ягона тизимини ташкил этади ҳамда улар ўзаро бир-бирини тўлдириб туради. Бундай тизим ҳокимиятнинг муайян томонда тўпланишига ва унинг бошқалар томонидан тортиб олинишига имкон бермайди.

Умуман, “ҳокимият ваколатларининг тақсимланиши принципи” назариясига кўра, давлат ҳокимияти ягона, яхлит, бир бутун, деб эмас, балки турли ҳокимият қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ваколатларини амалга оширувчи ҳокимиятлар функцияларининг йиғиндиси сифатида тушунилади. Бундай турли функцияларни амалга оширувчи ҳокимият органлари бир-биридан мустақил равишда ҳаракат қилишлари лозим. Лекин бу учала ҳокимият идоралари бир-бирига боғлиқ эмас, деган маънони билдирмайди. Аксинча, улар бир-бирини тўлдиради ва назорат қилиб боради.

Ҳокимиятлар бўлиниши принципининг асосий белгилари сифатида қуйидагиларни алоҳида қайд этиб ўтиш лозим: давлат органлари ваколатларининг аниқ чегаралганлиги; ҳокимият тармоқларининг мустақиллиги; ўзаро назорат ва тийиб туриш механизмининг мавжудлиги; қонун устуворлигининг таъминланиши; инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг кафолатланиши. Мазкур принцип ҳуқуқий давлатнинг асосий мезонларидан бири бўлиб, давлат бошқаруви самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Эътибор қаратадиган бўлсак, 1776 йилда қабул қилинган Америка Мустақиллик декларациясида илк бор “Халқ – давлат ҳокимиятининг манбаи” эканлиги, 1789 йилда қабул қилинган “Инсон ва фуқаро ҳуқуқлари тўғрисида”ги француз декларациясининг 16 - моддасида, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларининг кафолатлари ва ҳокимият ваколатларини тақсимлаш принципига эга бўлмаган халқ ўз конституциясига эга бўлмайди”,- деган қоидаларни учратишимиз мумкин.

Хорижий мамлакатлар конституциялар таҳлилига қарайдиган бўлсак,Франция конституциясининг 1-4-моддаларида, “ҳокимиятларнинг учта тармоғининг ўзаро муносабатлари”га; Германия конституциясининг 20-моддаси, 2-қисмида, “барча давлат ҳокимияти халқдан келади. Бу халқ томонидан сайлов ва овоз бериш орқали ва махсус Қонунчилик органлари, ижро этувчи ҳокимият ва адолат орқали амалга оширилиши”га; Португалия конституциясининг 110, 111-моддаларида, “ҳокимиятлар бўлиниши, уларнинг ўзаро муносабатлари, конституцияда белгиланган ваколатли органларгина ҳокимият тармоғлари функциясини амалга ошириши мумкинли”ги ҳақидаги қоидалар белгилаб қўйилган.

Охириги йилларда мамлакатимизда давлат ҳокимияти бўлиниши принципини изчил амалга ошириш мақсадида кенг қамровли дастурий чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясига мувофиқ[1], ихчам, профессионал, адолатли, юқори натижадорликка хизмат қиладиган давлат бошқаруви тизимини жорий қилиш, **д**авлат бошқаруви тизимида маъмурий аппаратни ихчамлаштириш, **м**амлакатимиздаги ислоҳотларни изчил давом эттиришда Олий Мажлис палаталари ва сиёсий партиялар ролини янада ошириш, **д**авлат органлари ва мансабдор шахсларнинг фаолияти устидан самарали суд назоратини ўрнатиш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Таъкидлаш жоизки, ҳокимиятлар бўлиниш принципининг амалдаги ижросини таъминлаш мақсадида бир қанча қонунчилик ҳужжатлари қабул қилинган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги, “Ўзбекистон Республикаси

[1] 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони//Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.

Олий Мажлисининг Сенати тўғрисида”ги, “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”ги конституциявий қонунлар, “Парламент назорати тўғрисида”ги, “Судлар тўғрисида”ги каби қонунлар, шунингдек, 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги, 2022 йил 21 декабрдаги ПФ–269-сонли “Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2023 йил 8 майдаги ПФ-67-сонли **“**Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонлари ва соҳага оид бошқа қонун ҳужжатларини мисол тариқасида кўрсатиб ўтиш мумкин.

Ривожланган демократик давлатлар сингари Ўзбекистон Республикаси давлат ҳокимиятининг тизими ҳокимиятнинг қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлиниши принципига асосланади. Қонун чиқарувчи ҳокимият икки палатали Олий Мажлис томонидан, ижро ҳокимияти Вазирлар Маҳкамаси томонидан, суд ҳокимияти эса фаолият йўналишига қараб Конституциявий суд, Олий суд томонидан амалга оширилади. Давлат ҳокимиятини амалга оширувчи барча идоралар ўз фаолиятини фақат қонун томонидан берилган ваколат доирасидагина амалга оширадилар. Ҳар бир ҳокимият ўз фаолиятини ўзига тегишли бўлган ваколатларни амалга ошириш орқали ташкил қилади.

Конституциянинг “Давлат ҳокимиятининг ташкил этилиши” деб номланган бўлимида ана шу учала ҳокимият органларининг ташкил этилиши, вазифалари, ваколатлари белгилаб қўйилган. Шу билан бирга уларнинг ўзаро муносабатлари ҳақидаги қоидалар ҳам ўрнатилган.

Янги Ўзбекистон шароитида 2023 йил апрель ойида бўлиб ўтган референдум орқали қабул қилинган янги таҳрирдаги Конституциянинг нормаларида ҳокимиятлар тармоғларининг янгича мақомдаги ваколатларининг кенгайганлигини, баъзи ҳолатларда ихчамлашганлигини кузатишимиз мумкин.

Эътибор қаратадиган бўлсак, янги таҳрирдаги Конституцияга ўзгартириш ва қўшимчаларнинг киритилиши: биринчидан, ҳокимиятлар ўртасидаги ваколатларнинг янада мутаносиб тақсимланишини таъминлайди; иккинчидан, ҳокимиятлар ўртасида ўзаро тийиб туриш ва манфаатлар мувозанати тизимининг янада

самаралироқ амал қилишига хизмат қилади; учинчидан, давлат бошқарувининг демократик табиатини янада кучайтиради.

Қолаверса, янги таҳрирда қабул қилинган Конституцияда ҳокимиятнинг бўлиниш принципининг концептуал ўзгаришлари ҳам ўз ифодасини топган. Буни бир қанча вазифа ва ваколатларда кузатишимиз мумкин бўлади.

Хусусан, самарали парламентни шакллантириш, юқори палата фаолиятини унинг асосий мақсади ҳудудий вакиллик эканлигидан келиб чиққан ҳолда оптималлаштириш, Олий Мажлис палаталари фаолиятида параллелизмни истисно қилиш мақсадида, Янги Ўзбекистонда олиб борилаётган маъмурий ислоҳотларнинг мақсади ва вазифаларидан келиб чиқиб, парламентнинг юқори палатаси – Сенат модернизация қилинди, шунингдек парламентнинг қуйи палатаси – Қонунчилик палатасининг ваколатлари кучайтирилди.

Эътибор қаратадиган бўлсак, илгариги Конституцияда Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколатлари 5 та ваколатдан иборат бўлган бўлса, янги таҳрирдаги Конституцияга кўра уларнинг сони 12 тага, Сенатнинг мутлақ ваколатлари илгариги 14 тадан 18 тага кўпайди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2024 йил 18 ноябрдаги Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг биринчи мажлисида қуйидаги фикрларга алоҳида тўхталиб ўтган эдилар: “Янги даврда парламент чинакам халқ уйи, унинг қуйи палатаси эса ғоялар генераторига, соғлом рақобат, баҳс ва мунозаралар майдонига айланиши керак”[1].

Дарҳақиқат, шундан келиб чиқиб, парламент назорати, аввало, сиёсий назоратдир, унинг оқибати ҳам сиёсий масъулият билан боғлиқ бўлишликни алоҳида қайд этиб ўтиш лозим.

Олий Мажлис ва Вазирлар Маҳкамаси ўртасидаги ўзаро муносабатларни янада мустаҳкамлаш мақсадида, ижро ҳокимияти органлари фаолиятида масъулият, натижадорликни кучайтириш мақсадида шунингдек, илғор хорижий тажрибани инобатга олиб, Бош вазир номзодини Президент Қонунчилик палатасига киритиб, халқ вакиллари маъқуллагандан сўнг лавозимга тайинлаш тартиби жорий этилди. Бош вазир номзодини Қонунчилик палатасига тақдим қилишдан олдин Президент томонидан барча сиёсий партиялар

[1] https://president.uz/uz/lists/view/7711

фракциялари билан маслаҳатлашувлар ўтказиш назарда тутилмоқда(94 ва 118-моддалар).

Илгариги тартибга кўра, Бош вазир номзодини кўриб чиқиш фақат Қонунчилик палатасига сайловда энг кўп овоз олган партия ёки партиялар иродасига боғланган эди. Янги таклиф этилаётган тартиб орқали эса барча сиёсий партиялар фракцияларининг нафақат Бош вазир номзодини кўриб чиқишда, балки бутун Ҳукуматни шакллантиришдаги иштироки таъминланади. Яъни, амалдаги тартиб янада демократик мазмун касб этади.

Қолаверса, мазкур ўзгартириш парламент қуйи палатасининг Ҳукуматни шакллантиришдаги иштирокини кенгайтиришга қаратилган, Чунки илгариги тартибдан фарқли равишда, Бош вазирни тайинлаш бўйича жорий этилаётган механизм Қонунчилик палатасидаги сиёсий партиялар фракцияларини ифода этувчи барча сиёсий кучлар фикрини ҳисобга олиш имкониятини беради. Мазкур жараёнда мамлакат фуқаролари томонидан сайланган барча халқ вакиллари иштирок этишини инобатга олади.

Эътибор қаратинг, агарда Бош вазир лавозимига тақдим этилган номзод уч марта рад этилган тақдирда, Президент Бош вазирни тайинлаши ва Қонунчилик палатасини тарқатиб юборишга ҳақли эканлиги белгиланмоқда (118-модда). Шунга ўхшаш тартиб Германия, Чехия, Россия, Беларусь, Қозоғистон ва бошқа давлатларда ҳам мавжуд.

Янги таҳрирдаги Конституцияга киритилган яна бир муҳим жиҳат, фаолияти қониқарсиз деб топилган вазирни лавозимидан озод этиш бўйича Қонунчилик палатасининг Президентга таклиф киритиш ҳуқуқининг белгиланганлиги, Ҳукумат аъзоларининг халқ вакиллари олдидаги ҳисобдорлигини янада оширишга хизмат қилади.

Шу нуқтаи назардан, Вазирлар Маҳкамаси ва Олий Мажлис ўртасидаги ўзаро муносабатларни мустаҳкамлаш, парламент назорати шаклларидан самарали фойдаланиш орқали, ижро ҳокимияти фаолияти устидан парламент назоратини амалга оширишни кучайтириш мақсадида, 2025 йилнинг ўзида 9 марта “Ҳукумат соати” ўтказилиб, Қонунчилик палатаси мажлисларида давлат органлари раҳбарларининг ўз фаолиятига доир масалалар юзасидан ахбороти 27 маротаба эшитилган. Қолаверса, давлат

органларининг мансабдор шахсларига мансабдор шахсларга 15 та парламент сўрови ва 169 та депутат сўрови юборилган[1].

Таъкидлаш лозимки, Олий Мажлис Сенатининг назорат ваколатлари унинг айрим шаклларини, хусусан, давлат бюджети ижросини назорат қилиш; Вазирлар Маҳкамасининг ҳар йилги маърузасини эшитиш; Бош вазирнинг мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш тўғрисидаги ҳисоботини эшитиш, Ҳисоб палатасининг ҳисоботини кўриб чиқиш каби ваколатларни чиқариб ташлаган ҳолда, Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколатлари сифатида белгилаш орқали оптималлаштирилди (94-модда).

Сенатнинг баъзи бир ваколатларининг Қонунчилик палатасига ўтказилиши билан параллел тарзда, Президентнинг бир қатор ваколатлари Сенатнинг ваколатига ўтказилди, шунингдек маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари фаолиятини мувофиқлаштиришдаги ролини кучайтириш ҳисобига кенгайтирилди(95-модда). Хусусан:

– Президент тақдимига биноан Судьялар олий кенгаши таркибини, шунингдек республика коррупцияга қарши курашиш бўйича органининг ва республика монополияга қарши органининг раҳбарларини сайлаш;

– Ўзбекистон Республикаси Президентининг вазирликларни ва бошқа республика ижро этувчи ҳокимият органларини тузиш ҳамда тугатиш тўғрисидаги фармонларини тасдиқлаш ;

- Сенатнинг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва назорат органлари, махсус хизматлар фаолияти устидан назорат функцияси кучайтирилмоқда. Хусусан, Бош прокурор ва Ҳисоб палатаси раиси Сенат маъқуллаганидан кейин, Давлат хавфсизлик хизмати раиси эса, Сенат билан маслаҳатлашилгандан кейингина Президент томонидан тайинланиши тартиби белгилаб қўйилди.

Охирги йилларда Вазирлар Маҳкамасининг Президент ва Олий Мажлис олдидаги масъулиятини кучайтириш ҳисобига Вазирлар Маҳкамаси сезиларли даражада мустаҳкамланди, Ҳукуматнинг мақоми ўзгарди, парламент қуйи палатасининг Ҳукуматни шакллантиришдаги иштироки кенгайтирилди.

Хусусан: Вазирлар Маҳкамаси ўз фаолиятини ижро этувчи ҳокимият фаолиятининг Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан белгиланадиган асосий йўналишлари доирасида амалга

[1] https://lex.uz/uz/docs/8006884. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатасининг 2025 йилдаги фаолият якунлари.2025 йил 30 декабрь.1599 - V- сон.

ошириши мустаҳкамланди (114-модда). Ҳукуматнинг ваколатлари ва функциялари, тегишли соҳаларда ўз олдига қўйилган, хусусан барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш, макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш, қулай инвестициявий муҳитни яратиш, камбағалликни қисқартириш, аҳоли учун муносиб турмуш шароитларини яратиш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва бошқа вазифаларининг бажарилиши учун масъуллиги сезиларли даражада кенгайтирилди.

Хабарингиз бор, суд-ҳуқуқ ислоҳотларида охирги йилларда улкан ўзгаришлар амалга оширилди. 2017-2022 йиллардаги конституциявий ислоҳотларга мувофиқ: Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ташкил этилди; Олий суд ва Олий хўжалик суди негизида фуқаролик, жиноий, маъмурий ва иқтисодий судлов соҳасидаги ягона олий суд ҳокимияти органи – Олий суд ташкил этилди; Конституциявий суднинг мустақиллиги мустаҳкамланди, ваколатлари сезиларли даражада кенгайтирилди.

Янги таҳрирдаги Конституцияга киритилган янги қоидаларга мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгашининг конституциявий асослари мустаҳкамланди – у судьялар корпусининг шакллантирилишини, суд ҳокимияти мустақиллигининг конституциявий принципига риоя этилишини таъминлайдиган судьялар ҳамжамиятининг мустақил органи ҳисобланади (135-модда).

Эътибор қаратадиган бўлсак, Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суди қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимият ҳужжатларининг Конституцияга мувофиқлиги тўғрисидаги ишларни кўради. Янги таҳрирдаги Конституцияга мувофиқ, Конституциявий суднинг ваколатига тааллуқли масалалар доираси кенгайтирилди ва аниқлаштирилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг Президенти томонидан имзолангунига қадар — Ўзбекистон Республикаси конституциявий қонунларининг, ратификация қилиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси қонунлари Ўзбекистон Республикасининг Президенти томонидан имзолангунига қадар — Ўзбекистон Республикаси халқаро шартномаларининг Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқлигини аниқлаш; референдумга чиқарилаётган масалаларнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқлиги тўғрисида хулоса бериш каби ваколатларни таъкидлаб ўтиш мумкин (133-модда). Конституциявий суднинг бу каби

ваколатлари Беларусь, Россия ва бошқа мамлакатлар конституцияларида ҳам мавжуд.

Мисол тариқасида, Конституциявий суд судлар томонидан янги таҳрирдаги Конституцияни бевосита қўллаган ҳолда қарорлар қабул қилиш амалиётини қўллаб-қувватлайди. Суд амалиёти таҳлили 2025 йилда Конституция ва унинг моддаларига 183 898 маротаба (2023 йилда — 52 596 марта, 2024 йилда — 168 767 марта) тўғридан-тўғри ҳавола қилинганлигини кўрсатмоқда. Иқтисодий ишлар бўйича Конституция нормаларини тўғридан-тўғри қўллаш ҳолатлари салкам икки бараварга ошиб, 34 766 тадан 60 152 тага етганлиги Конституциянинг шу йўналишдаги нормалари ҳаётда ўз аксини топаётганлигидан далолат беради. Қолаверса, Конституциявий суд томонидан 2025 йилда конституциявий назорат тартибида 81 та қонун ва 386 та бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг (2024 йилда 70 та ва 218 та) Конституцияга мувофиқлиги ўрганилган[1].

Келгусида, ҳокимиятлар бўлиниши принципини амалда такомиллаштириш йўллари ҳам биз учун жуда муҳимдир. Шу мақсадда давлат бошқаруви тизимида мазкур принципнинг самарали амал қилиши учун қуйидаги чораларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

**биринчидан,** парламент ваколатларини кучайтириш, яъни парламент назорати механизмларини кенгайтириш; депутатлик сўровлари таъсирчанлигини ошириш; ҳукумат ҳисобдорлигини кучайтириш;

**иккинчидан,** суд мустақиллигини мустаҳкамлаш орқали судьяларни фаолиятини шаффоф тизимини янги босқичга олиб чиқиш; коррупцияга қарши қатъий чоралар кўриш;

**учинчидан,** давлат бошқарувида шаффофликни ошириш**.** Бунда: рақамли давлат бошқарувини ривожлантириш; очиқ маълумотлар тизимини кенгайтириш; жамоатчилик назоратини кучайтириш каби муҳим масалаларга алоҳида эътибор қаратиш;

**тўртинчидан,** фуқаролик жамияти институтларини ривожлантириш орқали, нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари ва мустақил экспертлар фаоллигини ошириш демократик назоратни кучайтириш.

[1] (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.01.2026 й., 12/26/5/0010-сон).

**Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, ҳ**окимиятлар бўлиниши принципи демократик давлат бошқарувининг асосий конституциявий тамойилларидан бири ҳисобланади. У давлат ҳокимиятининг бир қўлда жамланиб қолишининг олдини олиб, давлат органлари ўртасида ўзаро мувозанат ва назоратни таъминлайди. Илмий ва амалий таҳлиллар шуни кўрсатадики, мазкур принципнинг самарали амал қилиши: қонун устуворлигини таъминлайди; инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилади; давлат бошқаруви самарадорлигини оширади; демократик ислоҳотларни мустаҳкамлайди.

Шу сабабли парламент назоратини кучайтириш, суд мустақиллигини таъминлаш, давлат бошқарувида очиқликни ошириш ва фуқаролик жамияти институтларини ривожлантириш ҳозирги босқичда устувор вазифалардан бири ҳисобланади. Албатта, мазкур ислоҳотлар ва амалий ўзгаришлар келгусида ҳокимиятлар бўлиниши прициpининг реал амалда ишлашида ўз натижасини бериши шубҳасиздир.

## СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ЁРДАМИДА ЯРАТИЛГАН МУАЛЛИФЛИК ҲУҚУҚИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МУАММОЛАРИ

***Б.Н. Тошев*** *Ўзбекистон Республикаси Одил судлов академияси профессори, юридик фанлар доктори, профессор*

Сунъий интеллект бу ахборот технологияларининг алоҳида соҳаси ҳисобланиб, инсоннинг мантиқий ва ижодий функцияларини бажарувчи интеллектуал сунъий тизимдир. Сунъий интеллект деганда, ўрганиш ва муаммоларни ҳал қилиш каби инсон ақли билан боғлиқ хусусиятларни намойиш этадиган ҳар қандай технологияни тушуниш мумкин. Сунъий интеллектнинг асосий хусусияти – аниқ кўзланган мақсадга эришиш учун энг яхши имкониятга эга бўлган ҳаракатларни баҳолай олиш ва амалга ошириш қобилиятининг мавжудлигидир.

Янги авлод технологиялари инсоннинг ақлий фаолияти билан боғлиқ бўлган имкониятларни, хусусан, тилни тушуниш, ўрганиш,

ўргатиш, матнларни таржима қилиш, маълум бир масалани ечиш, муҳокама қилиш ва шу каби қобилиятларга эга бўлган компьютер тизимларини ишлатишга қаратилган.

Сунъий интеллектни аҳолининг катта қисми одамлар каби гаплаша оладиган, мустақил фикрлайдиган, уйдаги ва ишдаги юмушларни одамларнинг ўрнига бажарадиган роботлар деб тасаввур қилишади. Аммо, бу нисбатан кенгроқ тушунча ҳисобланиб, доимий равишда ишлатадиган телефон аппаратимиздаги дастурлар, масалан, гугул-таржимон, қидирув, луғатлар, турли хил ўйин иловалари ва ҳоказолар сунъий интеллектга яққол мисол бўла олади.

Республикамизда сунъий интеллекни кенг жорий этиш бўйича режали давлат сиёсати олиб борилмоқда. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йилнинг 17 февралда “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4996-сон қарорининг қабул қилиниши “Рақамли Ўзбекистон-2030” Стратегиясига мувофиқ сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш ва уларни мамлакатимизда кенг қўллаш, рақамли маълумотлардан фойдаланиш имкониятини ва уларнинг юқори сифатини таъминлаш учун замин яратади. Лекин, ҳар қандай сиёсат ёки соҳага оид ислоҳотлар ҳуқуқий жиҳатдан таъминланганда у жамият томонидан тўғри қабул қилинади, қўллаб-қувватланади.

Аслида, сунъий интеллектнинг башарият юмушини енгиллаштиришга қаратилган дастлабки ихтиро-бу Интернетнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ. Гарчи, 1983 йил АҚШ Мудофа вазирлиги биносида компьютерларнинг бир-бирига боғланиши орқали масофадан туриб ҳужжатли ахборотларни етказиш тизими ишга туширилган бўлса-да, лекин 1991 йил 23 август куни Европа ядро тақдиқотлари бўйича ташкилоти ходими Тим Бернерс-Ли дунёда биринчи марта веб-серверга уланди. Шу кундан бошлаб бу кун Бутунжаҳон ахборот тўри (World Wide Web)нинг пайдо бўлиш куни деб эътироф этилди. Шунга кўра айтиш мумкинки, ахборотларни сақлаш, қайта ишлаш ва чексиз манзилларга узатиш тизимининг вужудга келиши сунъий интеллектнинг дастлабки кўриниши эди.

Йиллар ўтиши натижасида дунёда сон-саноқсиз ахборот тизимлари ва базалари яратилди. Яратилган ҳар қандай ахборот ҳеч бир тўсиқсиз платформаларда сақлана бошланди, узатилиш

технологиялари орқали тарқатила бошланди. Бугун дунё ягона ахборот маконида ишлай бошлади. Давлатларда шаклланган ахборот тизимлари, сақлаш базалари ва янги технологияларни ўзлаштирган ҳолда янги технология сифатида сунъий интеллект ишга тушди.

Шу кунга қадар қонунчиликда сунъий интеллектнинг мақоми аниқ эмас. Унинг автоном тизимда фаолият юритишига қарайдиган бўлсак *“сунъий интеллект буюрма берган шахснинг топшириғига кўра дунёда турли тилларда ва шаклларда мавжуд ахборот тизимларидан жуда тез фурсатда ахборотни қидириб топадиган, қайта ишлайдиган ва буюртмачига етказиб берадиган қидирув тизими”* деган хулосага келиш мумкин. Сунъий интеллект робот ҳам эмас, инсонга ўхшаб мантиқий фикр юритадиган ва қарор қабул қиладиган унсур эмас, у фақат янги форматдаги қидирув тизими.

Юқоридагиларга кўра, айтиш мумкинки сунъий интеллект инсон каби асар яратмайди. Шунинг учун сунъий интеллект ёрдамида яратилган ҳар қандай асарнинг муаллифи сифатида уни тан олиш мумкин эмас. Ўзбекистон Республикасининг “Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар тўғрисида”ги қонунида *муаллиф деб ижодий меҳнати билан асар яратган жисмоний шахс* тушунилади. Муаллифлик ҳуқуқи ижодий фаолият натижаси бўлмиш фан, адабиёт ва санъат асарларига нисбатан, уларнинг мақсади ва қадр-қиммати, шунингдек ифодаланиш усулидан қатъи назар, татбиқ этилади. Бу талаб ҳосила асар, яъни қайта ишловлар, таржималар, компиляцияларга ҳам тадбиқ этилади. Бу қатъий категория.

Фан, адабиёт ва санъат асарига муаллифлик ҳуқуқи уни яратиш факти бўйича юзага келади. Муаллифлик ҳуқуқининг юзага келиши ва амалга оширилиши учун асарни рўйхатдан ўтказиш ёки бирон-бир бошқа расмиятчиликка риоя этиш талаб қилинмайди. Шундай экан, ҳар қандай ахборотни, яъни асарни яратиш, уни сақлаш, қайта ишлаш, масофадан етказишда инсон омили иштирок этади. Инсон дунёқараши ва ҳис-ҳаяжони орқали яратилган асар оригинал (асл) ва таъсирчан бўлиб, у воқелик ва даврни муҳрлайди. Сунъий интеллект орқали яратилган асарлар сунъий бўлиб, улар инсон тафаккурига ижобий таъсир ўтказмайди, инсонни фикрлашга мажбур қилмайди. Энг яхши кўрган инсонингиз, масалан, онангиз ҳақида сунъий интеллектга шеър ёзиш топшириғини бериб кўрингчи, қандай мазмундаги шеър пайдо бўлар экан!

Сунъий интеллектнинг ўсиши билан ҳар қандай муаллиф, жумладан, ёзувчи, драматург, рассом, ҳайкалтарош ва ижрочилар ҳурмат қилиниши, инсон ижоди ҳимояланиши, муаллифлик ҳуқуқи тамойиллари мустаҳкам ва адолатли лицензиялаш амалиётларини ишлаб чиқилиши ва жорий этилишини сақлаб қолиши керак. Шу билан бирга, сунъий интеллект компаниялари асарлари фойдаланиладиган рассом, ижрочи ва бошқа ижодкорларга ҳақ тўлашини таъминлаш учун глобал қарорлар қабул қилиниши керак.

Муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилиш ва ҳимоя қилишга оид халқаро шартномалар ҳамда стандартлар ҳали бекор қилинмаган. Дунё халқаро тамойиллар ва миллий қонунчилик орқали муаллифлик ҳамда ижрочилик ҳуқуқлари ҳимоясини таъминлаб келаяпти. Инсон тафаккури билан яратилган буюк асарларгина инсонни буюкликка олиб чиқди. Сунъий интеллект ҳам инсон тафаккурининг натижаси ва буюк ихтироси натижасидир.

Сунъий интеллектнинг ривожланиши тез ва мисли кўрилмаган ҳолат бўлиб келмоқда. Бутун дунё бўйлаб, ҳукуматлар сунъий интеллектдан фойдаланишнинг бизнинг кундалик ҳаётимиздаги кўлами ва потенциал таъсирини тан олмоқда ва шунинг учун бутун жамият манфаатларини ҳимоя қилиш баробарида инновациялар ва технологик тараққиётни сақлаб қолиш учун чора-тадбирлар кўришга устувор аҳамият берилмоқда.

Мана шундай шароитда, масалан, бир томондан сунъий интеллектнинг илм-фанга таъсири ҳақида бугун илмий жамоатчилик ўйланиб қолди. Сунъий интеллектнинг илмий жараёнга фаол кириб келиши, ҳар қандай мантни яратиш, жумладан, мақола, диссертациялар ёзишни бир томондан тезлаштиришга хизмат қилаётган бўлса, иккинчи томондан жаҳон глобал ахборотлар тизимида мавжуд ҳар қандай адабиёт ва материаллардан эркин фойдаланиш орқали назарий жиҳатдан асосланмаган, фикрлар амалиётдан узилиб қолган илмий ишларларнинг юзага келишига ҳам сабаб бўлмоқда.

Айниқса, маданият, адабиёт, санъат сектори ва халқаро ижодий ҳамжамият генератив сунъий интеллект моделларининг тезкор ривожланиши ва очиқ ишлатилишидан энг кўп таъсир кўраётганлар қаторига киради. Бутун дунёдаги сиёсатчилар ижодкорлар ва ижрочилардан кўпинча “тадқиқот” ниқоби остида уларнинг рухсатисиз, асарлари ва ижролари учун ҳақ тўламасдан туриб уларнинг асарлари ва ижролари сунъий интеллектни ўргатиш учун

фойдаланиб келинаётгани ҳақида яхши билади. Бундан ташқари, сунъий интеллект томонидан яратилган асарларга нисбатан умумий ва ижтимоий безовталик ҳисси ҳамда сунъий интеллект ишларини инсон ижодининг асари сифатида ўтказиш деган ёлғон тушунча ҳам мавжуд.

Маданият соҳаси ва халқаро ижодий ҳамжамият сунъий интеллект ҳозирда бир неча фойдали ва муҳим мақсадларда қўлланилаётганини тан олмоқда. Бироқ, генератив сунъий интеллект ҳолатида бутун дунё бўйлаб сиёсатчилар учун ҳозирги мавжуд тартибга солиш режимларини мослаштириш ва яхшилаш ҳамда чора кўриш бўйича аниқ ва тезкор талаб мавжуд. Ушбу сиёсий муҳокамаларда маданият сектори ва халқаро ижодий ҳамжамиятнинг манфаатлари ҳисобга олиниши ва ўз навбатида сунъий интеллект тизимлари шаффоф, ахлоқий, адолатли ва қонуний бўлишини таъминлаш учун иштирок этиши зарур. Фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларда сунъий интеллектнинг иштироки даражаси ва ҳуқуқий мақоми аниқ белгиланиши лозим.

Дунё муаллифлари ва ижодкорлар ҳукуматларни еттита тамойилга мос келадиган сиёсат ва қонунчиликни ишлаб чиқиш ҳамда қабул қилиш мажбуриятини олишга чақиради:

**1. Сунъий интеллект тизимлари орқали асарлар ва ижролардан фойдаланилганда ижодкорлар ҳамда ижрочиларнинг ҳуқуқлари ҳурмат қилиниши ва ҳимоя қилиниши керак**.

Сунъий интеллект тизимлари одатда рухсатсиз катта ҳажмдаги маълумотларни қидиради, таҳлил қилади, ўчириб ташлайди ва ишлатади. Мазкур маълумотлар муаллифлик ҳуқуқи билан ҳимояланган мусиқий, адабий, визуал ва аудиовизуал асарлар, спектакллардан иборат. Муаллифлик ҳуқуқи билан ҳимояланган ушбу асарлар ва маълумотлар тўпламлари қийматга эга бўлиб, ижодкорлар ва ижрочилар ўз асар (ижро)ларидан фойдаланишга рухсат бериши ёки тақиқлаши ҳамда бундай фойдаланиш учун товон пули олиши керак.

**2. Асарларни лицензиялашга имконият берилиши ва қўллаб-қувватланиши керак**.

Лицензиялаш ечимлари сунъий интеллект тизимлари томонидан муаллифлик ҳуқуқи билан ҳимояланган асарлар, ижролар ва маълумотлардан барча мумкин бўлган фойдаланиш учун мавжуд бўлиши керак. Бу маълумотларга муҳтож бўлган

инноваторлар ва уларнинг асарлари қандай ва қай даражада ишлатилишини тушунишни хоҳлайдиган ижодкорлар ва ижрочилар ўртасида очиқ алмашинувни ривожлантиради.

**3. Ҳуқуқ эгалари томонидан самарали инкор этишни таъминламайдиган матн ва маълумотларни ишлаб чиқишда истисноларидан қочиш керак.**

Сунъий интеллект тизимларига муаллифлик ҳуқуқи билан ҳимояланган асарлардан рухсатсиз ёки тўловсиз фойдаланиш имконини берувчи, жумладан, матн ва маълумотларни қидириш учун истисноларни жорий этишдан сақланиш лозим. Маълумотларни яратувчилар ва ижрочилар, шунингдек, бундай маълумотлардан фойда олишни хоҳловчи сунъий интеллект тизимлари учун ҳуқуқий ишончни таъминлашда баъзи мавжуд истисноларни аниқлаб олиш керак.

**4. Адолатли компенсация бериш керак.**

Ижодкорлар ва ижрочилар, агар уларнинг асарлари ва чиқишлари сунъий интеллект тизимлари томонидан фойдаланилган бўлса, эътироф қилиниш ва компенсация олиш ҳуқуқига эга бўлиши керак.

**5. Шаффофлик тўғрисидаги мажбуриятлар сунъий интеллект амалиётини янада адолатли таъминлаш учун қўлланилиши керак.**

Ахборотни ошкор қилиш билан боғлиқ ҳуқуқий мажбуриятлар қўлланилиши керак. Булар сунъий интеллект тизимлари томонидан ижодий ишлар ва ижролардан фойдаланиш ҳақидаги маълумотни кузатиш ва лицензиялаш имконини берадиган даражада ошкор қилиш сунъий интеллект тизимлари томонидан яратилган асарлар ва ижроларни аниқлашни ўз ичига олиши керак. Бу ижодкорлар, ижрочилар ва ижодий контент истеъмолчиларига нисбатан адолатли муносабатни таъминлаб беради.

**6. Сунъий интеллект операторларининг юридик жавобгарлиги белгиланиши керак.**

Тегишли ёзув (реестр)ларни юритиш учун сунъий интеллектдан фойдаланувчи компаниялар учун қонуний талаблар ўрнатилиши керак. Шунингдек, сунъий интеллект операторларининг ижодкорлар, ижрочилар ва муаллифлик ҳуқуқи эгаларининг ҳуқуқларини бузадиган ҳаракатлар ва натижалари учун самарали жавобгарлик бўлиши керак.

**7. Сунъий интеллект инсон ижодига хизмат қилувчи восита, холос ва халқаро ҳуқуқий тушунчаларда бу қоидани кучайтириши керак.**

Сунъий интеллект моделларига оддийгина инсон ижодига хизмат қилувчи восита сифатида қараш керак. Асарлар ва ижроларнинг ҳимоя қилинишини аниқлашда эътиборга олиниши керак бўлган одамлар ва сунъий интеллект ўртасидаги ўзаро муносабатнинг бир қатор даражалари мавжуд бўлса-да, сиёсатчилар тўлиқ сунъий интеллект томонидан яратилган асарлар инсон томонидан яратилган асарлар каби ҳимоя қилина олмаслигини аниқ белгилаб олишлари керак. Бу мавзу энг долзарб мавзулардан бўлиши керак ва бу дунё бўйлаб муҳокама қилиб борилиши керак.

**Хулоса** қилиб айтадиган бўлсак, сунъий интеллект инсон учун бугун дастёр восита экан, асар, қолаверса ҳар қандай ахборотни яратиш ва ундан инсоният эзгу ишларида фойдаланишга йўл очилар экан, сунъий интеллектнинг чегаралари қонунан белгилаб олиниши керак. Инсон тафаккури билан яратилган сунъий интеллект фақат инсонга хизмат қилиши керак, унга инсон хоҳиши устидан ҳукмронлик қилишга йўл қўйилмаслиги лозим. Асар яратиш ва ижро этиш амалиёти сунъий интеллектга берилган вақтдан бошлаб муаллиф асар яратишдан тўхтайди, ҳақиқий ижрочилар саҳнадан тушади. Сунъий интеллект тафаккур юритмайдиган, ўз тақдирини технологияларга ишониб топшириб қўйган, фикрлашдан узоқ бўлган сунъий жамиятни шакллантиради.

## АШЁВИЙ ДАЛИЛЛАР ТАДҚИҚОТИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

***С.С. Нуриддинов*** *Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Эксперт-криминалистика бош маркази бошлиғи, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), полковник*

Ашёвий далиллар - жиноят содир этган шахсни аниқлаш, ҳодиса механизмини тиклаш ҳамда иш бўйича муҳим ҳолатларга

ойдинлик киритишда муҳим аҳамиятга эга. Ашёвий далилларни тўғри йиғиш, сақлаш ва тадқиқ қилиш криминалистик фаолиятнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади.

**Ашёвий далилларнинг процессуал мақоми.** Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексида (ЖПК) ашёвий далиллар ва улар билан боғлиқ процессуал ҳаракатларни амалга ошириш тартиби **ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солинган.** ЖПКнинг 203–212-моддаларида ашёвий далилларга оид тушунчалар баён этилган.

Ашёвий далиллар – жиноят иши учун аҳамиятга эга бўлган буюмлар, излар ва моддий объектлардир. Уларга қўл излари, қон излари, қуроллар, ҳужжатлар, кийим-кечак, рақамли қурилмалар ва бошқалар киради. Ашёвий далиллар жиноятчини аниқлаш, воқеа ҳолатини тиклаш, айбдорликни исботлаш, эксперт хулосасини шакллантиришда муҳим манба ҳисобланади.

***203-модда. Ашёвий далиллар.*** *Келиб чиқишини, кимга тегишлилигини, маълум мақсадларда фойдаланилганлигини ёки фойдаланишга яроқлилигини, қўлдан-қўлга ўтганлиги ёки турган жойи ўзгарганлигини, у ёки бу моддалар, нарса, жараён ва ҳодисалар таъсир этганлигини аниқлаш мумкин бўлган физикавий аломатлар ёки белгиларга, шунингдек иш ҳолатларини аниқлашга хизмат қиладиган ҳар қандай бошқа аломатлар ва белгиларга эга бўлган нарса ашёвий далил ҳисобланади.*

*Шунингдек, ЖПКнинг "204$^2$-модда. Рақамли далиллар.", "204-модда. Ёзма далиллар.", "205-модда. Ашёвий, ёзма ва рақамли далилларни олиш усуллари", "207-модда. Нарсани ашёвий далил деб эътироф этиш ва уни жиноят ишига қўшиб қўйиш", "206-модда. Ашёвий далилларни кўздан кечириш", "208-модда. Ашёвий, ёзма ва рақамли далилларни сақлаш ҳамда бошқа жойга юбориш", "210-модда. Жиноят ишини юритиш тамом бўлгунга қадар ашёвий далиллар тўғрисида қабул қилинадиган қарорлар", "211-модда. Жиноят ишини юритиш тамом бўлганлиги муносабати билан ашёвий далиллар тўғрисида қабул қилинадиган қарорлар", "212-модда. Ашёвий далилларни шикастлаганлик ёки йўқотганлик учун жавобгарлик" масалалари белгиланган.*

**Ашёвий далилларнинг ишдаги процессуал мақоми бўйича қуйидагича:**

- *Аниқланган объект;*
- *Олинган ёки қўлга киритилган;*

*- Кўздан кечирилган (ЖПК 206-м.);*
*- Далил деб эътироф этилган (ЖПК 207-м.);*
*- Қадоқланган ва маркировка қилинган;*
*- Экспертизага юборилган ёки сақлашга топширилган;*
*- Иш материалларига қўшилган.*

Ҳодиса жойида қолдирилган излар, буюмлар ва бошқа моддий объектлар жиноят билан боғлиқ муҳим ахборотни ўзида мужассам этади. Уларни тўғри аниқлаш ва қайд этиш орқали жиноятчининг шахси, ҳаракат усули ва воқеа содир бўлган шароит ҳақида хулоса қилиш мумкин бўлади.

**Таъкидлаш керакки,** ҳозирги кунда ашёвий далилларни аниқлаш, фиксация қилиш, қадоқлаш, процессуал қарорлар қабул қилиш, ашёвий далилларни юборишда айрим долзарб муаммолар ҳам сақланиб қолмоқда.

**Рақамли далиллар** оддий ашёвий далиллардан фарқли равишда жуда тез ўзгариши, ўчиб кетиши ёки бузилиши мумкин. Шу сабабли улар билан ишлаш жараёнида эҳтиёткорлик ва махсус билим талаб этилади. Амалиётда рақамли далилларни йўқотишга сабаб бўладиган қатор хавфлар ва хатолар учраб туради.

Электрон қурилмаларни нотўғри ўчириш ёки қайта ишга тушириш натижасида муҳим маълумотлар йўқолиши мумкин. Айрим дастурлар қурилма ўчирилганда маълумотларни автоматик тарзда ўчириб юбориши эҳтимоли мавжуд.

Шунингдек, интернет тармоғига уланган қурилмалар орқали масофадан туриб маълумотларни ўчириб юборилиши мумкин. *Масалан, мобил телефон ёки компьютер интернетга уланган ҳолатда қолдирилса, жиноятга алоқадор шахслар махсус дастурлар орқали маълумотларни масофадан йўқ қилиши мумкин.*

Рақамли далиллар билан ишлашда учрайдиган **яна бир хато** – қурилмаларни ҳимоя чораларисиз очиш ва кўздан кечиришдир. *Бу ҳолатда тизим файллари ўзгариши, янги маълумотлар ёзилиши ёки вақт кўрсаткичлари алмашиши мумкин. Натижада далилнинг ҳақиқийлигига путур етади.*

Айрим ҳолатларда тергов ҳаракатлари жараёнида мутахассис бўлмаган шахсларнинг электрон қурилмалардан фойдаланиши ҳам маълумотларнинг бузилишига сабаб бўлади.

Юқоридагиларга асосан рақамли далиллар билан ишлашда қуйидаги қоидаларга **амал қилиш талаб этилади:**

*қурилмаларни тўғри изоляция қилиш;*

*интернетдан узиш;*

*махсус техник воситалардан фойдаланиш (Фарадей қопчалари);*

*маълумотларни нусхалаш ва кейинчалик нусха билан ишлаш;*

*мутахассис иштирокини таъминлаш.*

**Биологик далиллар тадқиқотида** ҳодиса жойини тўғри кўздан кечириш ва далилларни криминалистик талаблар асосида йиғиш муҳим аҳамиятга эга. Ҳодиса жойида қон, сўлак, соч, тирноқ, тери тўқималари каби биологик излар аниқланиб, уларнинг жойлашуви фото ва видео тасвирга олиниши, схемаларда қайд этилиши ҳамда процессуал тартибда фиксация қилиниши лозим. Биологик намуналар стерил воситалар ёрдамида олиниб, ҳар бири алоҳида қадоқланиши ва белгиланган тартибда ёрлиқланиши (бирка) керак.

Биологик далиллар билан ишлашда бир қатор муҳим талабларга қатъий риоя қилиниши шарт. Жумладан, биологик намуналарни полиэтилен пакетларга жойлаштириш мумкин эмас, чунки полиэтилен ичида намлик ҳосил бўлиб, биологик объектларнинг чириши, бузилиши ёки ДНК хусусиятларининг ўзгаришига сабаб бўлиши мумкин. Шу сабабли бундай намуналар асосан қоғоз пакетлар ёки ҳаво ўтказувчи махсус қадоқларга жойлаштирилади.

Шунингдек, ҳодиса жойида процесс иштирокчиларидан ташқари бегоналарнинг иштирок этишига йўл қўйилмаслиги лозим. Чунки ташқи шахслар томонидан биологик аралашмалар қолдирилиши, изларнинг бузилиши ёки йўқолиши эҳтимоли мавжуд. Тергов ҳаракати иштирокчилари эса қўлқоп, ниқоб ва бошқа ҳимоя воситаларидан фойдаланиши шарт.

**Биологик далиллар билан қуйидагилар таъқиқланади:**

*бир нечта биологик намуналарни битта қадоққа жойлаштириш;*

*стерил бўлмаган асбоблардан фойдаланиш;*

*нам ҳолатдаги объектларни қуритмасдан қадоқлаш;*

*биологик изларга қўл билан тегиш;*

*намуналарни юқори ҳарорат ёки қуёш таъсирида қолдириш;*

*ҳужжатлаштириш ишларини тўлиқ амалга оширмаслик.*

Одам ДНКси билан боғлиқ ҳолатларда намуналарни тўғри танлаш алоҳида аҳамиятга эга. Амалиётда ДНК ажратиб олиш учун қон, оғиз бўшлиғининг шиллиқ қаватидан олинадиган сўлак, соч

илдизи, сперма, қон, тирноқ ости моддалари ва тери ҳужайралари кенг қўлланилади. Айниқса, буккал эпителий намунаси олиш осонлиги ва ДНК миқдорининг етарли бўлиши сабабли кенг тарқалган усуллардан бири ҳисобланади. Соч намуналари эса илдиз қисми сақланган бўлгандагина ДНК тадқиқоти учун яроқли ҳисобланади.

Мурдалардан ДНК намуналарини олишда ҳам айрим муҳим талабларга риоя қилиниши лозим. Чириш жараёнлари бошланган ҳолатларда ҳам суяк, мушак тўқимаси, соч илдизи, тирноқлар ҳамда ички орган тўқималари ДНК манбаси сифатида катта аҳамиятга эга ҳисобланади.

**Ҳодиса жойларида инсон ҳаракати (қўл, оёқ, пойафзал) излари** бўлиши эҳтимоли мавжуд бўлган буюмларга қўл билан тегиш, ҳодиса жойида ҳимоя воситаларисиз ҳаракатланиш, изларни фото ёки видеога қайд этмасдан туриб олиш ёки объектларни жойидан силжитиш мумкин эмас. Акс ҳолда изларнинг бузилиши ёки йўқолишига сабаб бўлиши мумкин.

Шунингдек, папилляр изларни аниқлашда нотўғри криминалистик воситалардан фойдаланиш, ортиқча кукун сепиш, нам ёки ифлос сиртларда эҳтиётсиз ишлаш ҳам изларнинг сифатини пасайтириши мумкин. Изларни маркировкани нотўғри амалга ошириш ёки фотосуратларни масштабсиз олиш ҳам тадқиқот натижаларига салбий таъсир кўрсатади.

Бугунги кунда қўл ва оёқ излари билан боғлиқ тадқиқотлардаги долзарб масалалардан бири – паст сифатли ва қисман сақланган изларни аниқлаш ҳамда тиклаш ҳисобланади. Айрим ҳолатларда излар намлик, юқори ҳарорат ёки ташқи таъсирлар натижасида деярли кўринмас ҳолатга келиб қолади. Шу сабабли замонавий криминалистик техника, рақамли тасвирни қайта ишлаш дастурлари ва янги кимёвий усуллардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шунингдек, ҳодиса жойида бегоналар ҳаракатланиши, тергов ҳаракатларини нотўғри ташкил қилиш ва мутахассис иштирокини таъминламаслик ҳам долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Бу ҳолатлар изларнинг аралашиб кетиши ёки йўқолишига олиб келиши мумкин. Шу сабабли эксперт-криминалистлар томонидан ҳодиса жойини кўздан кечиришда криминалистик қоидаларга қатъий риоя қилиниши муҳим аҳамиятга эга.

Биологик излар(қолдиқлар) мавжуд бўлган буюмлардан, наркотик моддалар сақланган идишлар дан ҳамда қурол-яроғлардан бармоқ излари олиш талаб этилганда комплекс экспертиза ўтказиш тўғрисидаги қарор тайинлаш зарур бўлади.

**Шахсни юз тузилиши бўйича идентификация қилиш тадқиқотлари.** Ҳозирги кунда видеокузатув камералари ёзувлари жиноятларни фош этишда муҳим рақамли далиллардан бири ҳисобланади. Шу сабабли ҳодиса содир бўлган жойда видеоёзувларни тўғри аниқлаш, сақлаш ва ҳужжатлаштириб олиш муҳим аҳамият касб этади. Амалиётда мазкур жараён билан боғлиқ айрим долзарб муаммолар учрамоқда.

Шундай ҳолатлардан бири – видеоёзувларнинг асл нусхасини техник тартибда кўчириб олмасдан, монитор ёки экрандан мобил телефон орқали қайта ёзиб олинишидир. Бундай усулда олинган видеоёзувларда тасвир сифати пасаяди, вақт кўрсаткичлари ва айрим муҳим деталлар аниқ кўринмаслиги мумкин. Шунингдек, бундай ёзувлар монтаж қилинган ёки ўзгартирилганлиги ҳақида шубҳалар келиб чиқиши эҳтимоли мавжуд бўлади. Натижада видеоёзувнинг далил сифатидаги ишончлилигига путур етиши мумкин.

Амалиётда айрим ҳолатларда DVR ва NVR қурилмаларидан видеоёзувларни жойида техник воситалар ёрдамида кўчириб олиш имкони мавжуд бўлмайди. Бундай ҳолатларга қурилманинг парол билан ҳимояланганлиги, техник носозликлар, махсус дастурий таъминот талаб қилиниши ёки ёзувларни ўчиб кетиш хавфи мисол бўлиши мумкин.

Шу сабабли DVR ва NVR қурилмаларининг ўзини процессуал тартибда ҳужжатлаштириб олиш долзарб аҳамият касб этади. Қурилманинг ташқи кўриниши, модели, серия рақами, уланган камералар, қаттиқ дисклар, вақт параметрлари ва ишлаш ҳолати фото ва видео воситалари орқали тўлиқ фиксация қилиниши лозим. Зарур ҳолатларда қурилманинг ўзи ашёвий далил сифатида олиниб, махсус қадоқларда сақланиши мумкин.

**Хатшунослик экспертиза тадқиқотлари** орқали қўлёзма матнлар, имзолар ва ёзувларнинг муайян шахс томонидан бажарилганлиги аниқланади. Шу билан бирга, амалиётда хатшунослик тадқиқотларини ўтказиш жараёнида айрим долзарб муаммолар учраб турмоқда.

Таъкидлаш керакки, имзолар - бу инсон ёзма ҳаракат кўникмасини инсонинг психофизиологик ҳолати, ички ва ташқи

таъсир каби омилларни орқали ёзув анжомида ҳосил бўлган график элемент шахснинг имзоси эканлиги аниқланади.

Бу тадқиқотда ҳеч қачон имзолар устма-уст туширилиб таққосланмайди. Тадқиқотда инсон онгида инсон онгида шаклланган ёзма ҳаракат кўникмаси психофизиологик омилларни кечиб ўтиб инсон қўлларини ҳаракати ёрдамида қоғозда акс этиш жараёнидаги ҳолатлар ўрганилади.

Инсоннинг руҳий ҳолати, физиологик ҳолати, ташқи муҳит таъсири ва атайин ўзгартириш ёхуд бошқа шахс томонидан ўхшатиб бажариш каби омилларга кўра имзо ва ёзувлар ўзгарувчан ҳисобланади. Масалан,

*Ноқулай шароитда (позада) ёки ҳаракатдаги транспортда бажарилиши;*

*Ёруғликни етишмаслиги;*

*Ёзув материалининг ноқулайлиги, нотекислиги ёки ёзув учун жойнинг кичиклиги;*

*Ёзув анжомининг тури;*

*Имзо бажарилган ва текширилаётган вақт ўртасидаги тавофут;*

*Совуқ ҳарорат таъсирида қўл-бармоқ мушакларини эркин ҳаракатлана олмаслиги;*

*Оғир жисмоний ҳаракат натижасида қўл-бармоқ мушакларини чарчаши;*

*Синишлар, юрак-қон тизими касалликлари, юмшоқ тўқималарнинг шикастланиши;*

*Ёшга доир табиий ўзгаришлар;*

*Ғайриоддий функционал ҳолат (жахл чиқиши, ҳаяжонланиши, чарчаши, мастлиги ва хак).*

Юқоридагиларга асосан хатшунослик тадқиқотларида қиёсий намуналарнинг етарли миқдорда ва сифатда тақдим этиш керак бўлади.

Хатшунослик тадқиқотларини сифатли ўтказиш учун эркин, шартли-эркин ва экспериментал намуналар етарли ҳажмда олиниши лозим. Айрим ҳолатларда намуналарнинг камлиги ёки қисқа матнлардан иборат бўлиши ёзувнинг индивидуал белгилари тўлиқ намоён бўлишига тўсқинлик қилади. Бу эса эксперт хулосасининг аниқлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

**Ҳужжатларнинг техник тадқиқоти** орқали ҳужжатларга ўзгартириш киритилганлиги, матнлар кетма-кетлиги, муҳр ва штамп

оттисклари, босма матнлар, сиёҳ ва қоғоз хусусиятлари ҳамда ҳужжатнинг ҳақиқийлиги аниқланади.

Амалиётдаги муаммолардан бири – тадқиқот учун ҳужжат асли ўрнига унинг нусхаси ёки электрон кўринишининг тақдим қилиниши ҳисобланади. Чунки нусха ҳужжатларда босим излари, сиёҳ қатлами, штрихларнинг ўзаро кесишиши ва бошқа муҳим техник белгилар тўлиқ сақланмайди.

Электрон тасвирларда эса сифатнинг пасайиши, тасвирга ишлов берилганлиги ёки айрим деталларнинг йўқолиши эҳтимоли мавжуд бўлади. Бу ҳолатлар эксперт тадқиқотларининг имкониятларини чеклайди.

Бугунги кунда ҳужжатлардаги реквизитларнинг бажарилиш кетма-кетлигини аниқлаш, сиёҳ (бўёқ) таркибини текшириш, бўёқ идентификациясини амалга ошириш ҳамда қоғоз таркибини аниқлаш бўйича замонавий техник воситаларнинг етарли эмаслиги долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Электрон ҳужжатлар билан боғлиқ тадқиқотларда ҳам айрим муаммолар мавжуд. Хусусан, замонавий график дастурлар ва сунъий интеллект технологиялари орқали ҳужжатларга монтаж киритиш, электрон тасвирларни ўзгартириш ёки реквизитларни сохталаштириш ҳолатлари ортиб бормоқда. Айрим ҳолатларда электрон ҳужжатларда монтаж ёки таҳрир амалга оширилганлигини аниқлаш учун зарур дастурий воситалар ва техник имкониятлар етарли даражада эмаслиги тадқиқот жараёнига салбий таъсир кўрсатмоқда.

**Синтетик наркотикларни аниқлаш билан боғлиқ долзарб масалалар.** Ҳозирги кунда наркотик воситаларнинг ноқонуний муомаласи билан боғлиқ жиноятлар жаҳон миқёсида бўлгани каби республика ҳудудида ҳам долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Айниқса, синтетик наркотик моддаларнинг тарқалиши, уларни интернет орқали сотиш ва яширин тарқатиш усулларининг кенгайиши мазкур соҳадаги криминалистик ва эксперт тадқиқотларнинг аҳамиятини янада оширмоқда.

Сўнгги йилларда “закладка” усули орқали наркотик моддаларни тарқатиш ҳолатлари кўпайиб бормоқда. Бунда наркотик моддалар турли яширин жойларга қолдирилиб, уларнинг координаталари интернет тармоғи ёки месенжерлар орқали харидорларга юборилади. Амалиётда бундай жиноятларни фош этишда ташкилотчиларни аниқлаш қийин кечмоқда. Чунки

жиноятчилар сохта аккаунтлар, VPN хизматлари, криптовалюта тўловлари ва аноним месенжерлардан фойдаланмоқда. Шунингдек, ижтимоий тармоқлар ва месенжерлар орқали фуқароларни “осон даромад” ваъдалари билан ёллаш ҳолатлари ҳам кенгайиб бормоқда. Кўп ҳолатларда наркотик моддаларни тарқатувчи шахслар фақат ижрочи бўлиб, ташкилотчилар яширин қолмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда ашёвий далилларни аниқлаш, фиксация қилиш, сақлаш ва тадқиқ этиш билан боғлиқ масалалар криминалистика ва суд экспертизаси соҳасининг энг долзарб йўналишларидан бири ҳисобланади.

Жиноят усулларининг мураккаблашиб бориши, рақамли технологиялар ривожланиши, сунъий интеллект ва интернет имкониятларидан жиноий мақсадларда фойдаланиш ҳолатларининг ортиши эксперт тадқиқотларига нисбатан янги талабларни юзага келтирмоқда.

## ЗАМОНАВИЙ ЮРИДИК ТАЪЛИМДА ИСЛОМ ҲУҚУҚИНИ ЎҚИТИШ ВА ИНТЕГРАЦИЯ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ

***А.А. Рахманов***
*Тошкент давлат юридик университети Халқаро ҳуқуқ ва инсон ҳуқуқлари кафедраси профессори*

**Аннотация:** Ушбу мақолада замонавий юридик таълим тизимида ислом ҳуқуқини ўқитиш ва унинг секуляр ҳуқуқий таълим билан интеграцияси масалалари таҳлил этилади. Муаллиф томонидан уч йўналиш ўрганилади: биринчидан, ислом ҳуқуқининг академик таълим сифатида тарихий шаклланиши ва замонавий университетларда унга бўлган эҳтиёж; иккинчидан, турли хил юридик таълим моделлари - жумладан, икки тизимли таълим, интеграл таълим ва қиёсий ҳуқуқ ёндашуви - ўртасидаги муносабатлар; учинчидан, Марказий Осиё, хусусан Ўзбекистон контекстида ислом ҳуқуқини ўқитишнинг амалдаги ҳолати ва истиқболлари. Тадқиқот қиёсий-ҳуқуқий, тарихий ва институционал таҳлил методларидан фойдаланади. Хулоса ўлароқ, ислом ҳуқуқини юридик таълимга интеграция қилиш учун аниқ тавсиялар ишлаб чиқилади.

**Калит сўзлар:** ислом ҳуқуқи, фиқҳ, шариъат, юридик таълим, қиёсий ҳуқуқ, таълим интеграцияси, Марказий Осиё, секуляр ҳуқуқ.

Жаҳон академик ҳамжамиятида юридик таълимнинг мазмуни ва методологияси ҳақидаги мунозаралар тобора кучайиб бормоқда. Бу мунозараларнинг марказида битта савол туради: замонавий ҳуқуқ факултетлари фақат давлат ҳуқуқи ва Ғарб ҳуқуқ анъаналарини ўқитиш билан чегараланиши керакми, ёки улар ислом ҳуқуқи каби қадимий ва тирик ҳуқуқий анъаналарни ҳам ўз дастурларига киритиши лозимми?[1]

Ислом ҳуқуқи – араб тилида "фиқҳ" деб аталадиган – тахминан икки миллиард мусулмон учун нафақат диний, балки ҳуқуқий ва ахлоқий ҳаётнинг асосий манбаи ҳисобланади.[2] Ҳозирда олтмишдан ортиқ мамлакат ўз конституциялари ёки қонунчилигида ислом ҳуқуқининг турли элементларини тан олади ёки қўллайди.[3] Шундай экан, ислом ҳуқуқини юридик таълимдан четлаб ўтиш профессионал жиҳатдан ҳам, академик жиҳатдан ҳам асоссиздир.

Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритгандан сўнг (1991) ислом ҳуқуқи билан боғлиқ масалалар янада долзарб бўлиб қолди. Мамлакат аҳолисининг 94 фоиздан ортиғи мусулмон бўлиб, фуқаролик муносабатлари, мерос ва оилавий ҳуқуқ соҳаларида ислом анъаналари ҳаётий аҳамият касб этади.[4] Айни вақтда, юридик таълим тизими асосан совет мактабидан мерос қолган секуляр парадигма асосида қурилган бўлиб, бу икки дунё ўртасида катта бўшлиқ мавжуд.

Ушбу докладнинг мақсади – юридик таълимда ислом ҳуқуқини ўқитишнинг зарурати, мавжуд моделлари ва амалий муаммоларини илмий жиҳатдан таҳлил этиш, ҳамда Ўзбекистон учун оптимал интегратсия моделини тавсия этишдан иборат.

Ислом ҳуқуқшунослигининг академик анъанаси VIII асрга бориб тақалади. Ал-Шафиъий (767–820) томонидан яратилган "Ар-Рисола" асари илк тизимли ҳуқуқий методология (усул ал-фиқҳ) сифатида тарихга кирган.[5] Ўша даврдан бошлаб Бағдод, Қоҳира, ва Бухоро мадрасалари ислом ҳуқуқини тизимли равишда ўқитган ва бу анъана асрлар давомида узлуксиз давом этган.

Замонавий маънода ислом ҳуқуқини академик фан сифатида ўқитиш XIX аср охирида Миср, Ҳиндистон ва Усмонли турклар империясида ривожланди. Қоҳирадаги Ал-Азҳар университети (973-йилдан фаолият юритмоқда) ва кейинчалик ташкил этилган Миср Қоҳира университети ислом ҳуқуқини замонавий ҳуқуқ фанлари билан ёнма-ён ўқитишнинг илк намуналарини кўрсатди.[6]

Қиёсий ҳуқуқшунослик нуқтаи назаридан ислом ҳуқуқи Ғарб таъсири асосида шаклланган ҳуқуқ тизимларидан (сивил law, соммон law) қуйидаги асосий жиҳатлари билан фарқланади: манба пирамидасининг илоҳий табиатга асосланиши (Қуръон, Сунна, ижмӯ, қиёс); шарҳлаш методологиясининг ижтиҳод тамойили орқали динамиклик касб этиши; ва ҳуқуқ нормаларининг ахлоқ ва дин билан органик боғлиқлиги.[7]

Халқаро юридик таълим амалиётида ислом ҳуқуқини ўқитишнинг бир неча модели шаклланган. Профессор Вael Ҳаллақ ўз тадқиқотларида ушбу моделларни уч гуруҳга ажратади: биринчиси мустақил ислом ҳуқуқи мактаблари (Саудия Арабистони, Эрон, Пакистан), иккинчиси икки тизимли таълим (сесулар ҳуқуқ + ислом ҳуқуқи параллел ҳолда), учинчиси интеграцион модел (ислом ҳуқуқи қиёсий ҳуқуқ курсларининг бир қисми сифатида).[8]

Британия университетлари тажрибаси алоҳида эътиборга лойиқ. Лондон Университети (СОАС), Оксфорд ва КЭмбридж университети ислом ҳуқуқини қиёсий ҳуқуқ, халқаро хусусий ҳуқуқ ва оилавий ҳуқуқ контекстида ўқитади. СОАСда ислом ҳуқуқи бўйича бакалавр дастури етакчи академик марказлардан бири сифатида эътироф этилган.[9] Голландиянинг Леиден университети эса ислом ҳуқуқини “дин ва ҳуқуқ” чегарасида интердициплинар фан сифатида ўқитиб, Европа тажрибасининг мувофиқлаштирилган моделини намойиш этади.[10]

АҚШ юридик мактабларида, хусусан Ҳарвард ҳуқуқ факультетида, ислом ва қиёсий ҳуқуқ маркази (Исламис Легал Студиес Программ) доирасида ислом ҳуқуқини ўқитиш фаол равишда олиб борилади. Ушбу дастур 1991-йилдан бери фаолият юритиб, ислом ҳуқуқий анъанасининг Ғарб ҳуқуқ тизимларига таъсири ва замонавий ислом давлатларида ҳуқуқий ислоҳотлар масаласида фундаментал тадқиқотлар олиб боради.[11]

***Мустақил модел*** ислом ҳуқуқини асосий ва етакчи фан сифатида ўқитишни кўзда тутади. Бу модел Саудия Арабистони, Эрон, Покистон ва қисман Малайзияда кенг тарқалган. Саудия Арабистонидаги Ислом Университетлари (Ал-Мадинаҳ, Риядҳ, Маккаҳ) ислом ҳуқуқини тўлиқ тизимда – усул ал-фиқҳ, фуруъ ал-фиқҳ, фиқҳ тарихидан тортиб замонавий молиявий ва тиббий ҳуқуққача ўқитади.[12] Ушбу моделнинг кучли томонлари: ислом ҳуқуқий меросини чуқур ва асосли ўргатиш, араб тилидаги бирламчи манбаларга мурожаат қилиш имконияти, диний ва ҳуқуқий таълимнинг уйғун бирлигидан иборатдир. Заиф томонлари эса халқаро ҳуқуқ тизимларига интеграция қийинлиги, қиёсий ҳуқуқ кўникмаларининг чекланганлиги, ва битирувчиларнинг глобал меҳнат бозорида рақобатбардошлигининг пастлигидир.[13]

***Икки тизимли модел*** ислом ҳуқуқини секуляр ҳуқуқий таълим билан параллел ҳолда алоҳида курслар сифатида ўқитишни кўзда тутади. Бу модел Миср, Иордания, Марокаш ва Малайзияда кенг

тарқалган. Миср Қоҳира университети ҳуқуқ факультетида талабалар бир вақтнинг ўзида фуқаролик ҳуқуқи асосидаги Миср қонунчилиги ва ислом ҳуқуқини ўрганадилар.[14]

Икки тизимли моделнинг асосий муаммоси – "параллел дунё" эффекти, яъни талабалар иккала тизимни алоҳида, бир-бирига боғлиқ бўлмаган фанлар сифатида идрок этишидир. Натижада, амалий ҳуқуқий масалаларни ҳал этишда иккала тизимни мувофиқлаштириш қийинлашади. Профессор Абдуллаҳ Ан-Наъим бу муаммони "эпистемик бўлиниш" деб атайди ва унинг бартараф этилиши учун интеграцион ёндашув зарурлигини таъкидлайди.[15]

***Интеграцион модел*** ислом ҳуқуқини қиёсий ҳуқуқшунослик доирасида ўрганишни кўзда тутади. Бунда ислом ҳуқуқи Ғарб ҳуқуқий анъаналари (роман-герман, англо-саксон) билан бир қаторда таҳлил этилади. Ушбу ёндашув талабага ҳуқуқнинг универсал ва хусусий жиҳатларини бир вақтда кўриш имконини беради.[16]

Интеграцион моделнинг устунлиги шундаки, у ислом ҳуқуқини "экзотик" ва "бегона" элемент сифатида эмас, балки инсоният ҳуқуқий меросининг тенг қийматлı қисми сифатида тақдим этади. Бу ёндашув Европа ва Шимолий Америка университетларида тобора кенг тарқалмоқда. Мисол учун, Торонто университети ҳуқуқ мактаби "Религиоус Легал Сйстемс" курсида ислом, яҳудий, индуизм ҳуқуқларини қиёсий тарзда ўргатади.[17]

Сўнгги ўн йилликларда пайдо бўлган тўртинчи модел – ***ихтисослашув модели***дир. Бу ерда ислом ҳуқуқи махсус магистратура ва докторантура дастурлари доирасида ўқитилади. Ислом молиявий ҳуқуқи, ислом тиббий ахлоқи ва биоэтика, ислом арбитражи ва халқаро тижорат муносабатларида ислом ҳуқуқи каби ихтисослашган йўналишлар пайдо бўлди.[18]

Ислом молиявий ҳуқуқи (Исламик файнанс лав) бугунги кунда айниқса долзарб бўлиб, дунё бўйича ислом молияси активи 3,3 триллион доллардан ошди ва йилига 10-12 фоиз ўсиш суръатида ривожланмоқда.[19] Бу эса конвенционал ҳуқуқ мактабларини ислом молиявий ҳуқуқи бўйича махсус дастурлар яратишга ундамоқда.

Ислом ҳуқуқини замонавий юридик таълимда ўқитишнинг биринчи ва энг асосий муаммоси – ***методологик*** характер касб этади. Ислом фиқҳи анъанавий равишда матн шарҳлаш методологиясига асосланган бўлиб, бу Сократ усули асосида қурилган Ғарб ҳуқуқ таълимидан тубдан фарқ қилади.[20]

Иккинчи методологик муаммо – ***манбаларга мурожаат*** масаласидир. Ислом ҳуқуқининг асосий манбалари араб тилида ёзилган бўлиб, уларнинг таржималари кўпинча тўлиқ акс эттирмайди. Масалан, “маслаҳа” тушунчаси “умумий манфаат” деб таржима қилинса-да, унинг ҳуқуқий мазмуни анча мураккаброқ.[21]

Учинчи муаммо – ислом ҳуқуқидаги ***методологик хилма-хиллик***. Тўртта асосий сунний мазҳаб (Ҳанафий, Моликий, Шофеиъй, Ҳанбалий) ва шиа мазҳаблари ўртасида муҳим фарқлар мавжуд бўлиб, бу ўқитувчидан кенг кўламли билимлани талаб этади.[22]

Кўпгина секуляр университетларда ислом ҳуқуқини ўқитиш учун малакали профессор-ўқитувчилар етишмайди. Ислом ҳуқуқи бўйича мутахассис бўлиш учун араб тили, исломий илмлар ва замонавий ҳуқуқшунослик соҳаларида бир вақтнинг ўзида чуқур билимларга эга бўлиш зарур – бу эса ноёб комбинациядир.[23] Шунингдек, дастур тузилмаси ҳам жиддий муаммо ҳисобланади. Кўпгина университетларда ўқув режаси ўзгармас равишда тузилган бўлиб, янги фанларни киритиш жуда қийин. Ислом ҳуқуқини киритиш учун мавжуд курслардан бирини қисқартириш ёки тўхтатиш зарур бўлади, бу эса тегишли академик ва сиёсий муаммолар туғдиради.[24]

Кўпгина Ғарб давлатларида ислом ҳуқуқини ўқитиш сиёсий жиҳатдан нозик масала ҳисобланади. 2010-йилларда Европа ва АҚШда кучайган “шариат қўрқуви” ҳодисаси бир қатор университетларда ислом ҳуқуқи бўйича дастурларни қисқартиришга сабаб бўлди.[26] Бунинг натижасида ислом ҳуқуқини объектив, илмий позиЦиядан ўқитиш имкониятлари қисқарди.

Тескари ҳолат ҳам кузатилади: айрим ислом давлатларида секуляр ҳуқуқни ўқитиш “ғарб таъсири” сифатида талқин этилиши мумкин. Бу сиёсий босим ўқитувчиларнинг интеграцион ёндашувдан воз кечишига сабаб бўлади. Профессор Баудоуин Дупрет ўз тадқиқотида бу икки томонлама сиёсий босимни “эпистемик икки қутблилик” деб атайди.[27]

Ўзбекистон ва бошқа Марказий Осиё республикаларининг юридик таълим тизими совет даври тузилмасига асосланар эди. Совет ҳуқуқ таълими ислом ҳуқуқини тамомила эътиборсиз қолдирган, ҳаттоки унга қарши мафкуравий позиция тутган. 1991-йилдан бери мустақил ривожланиш даври ўтган, ушбу таълимнинг аста ғсекин ривожланиши сезилмоқда.

Ҳозирда Ўзбекистон олий таълим тизимидаги 15 дан ортиқ ҳуқуқ мактабларида ислом ҳуқуқи ўқитилади. Тошкент давлат юридик университети (ТДЮУ) ўқув режасида ислом ҳуқуқи мустақил фан сифатида мавжуд. Бундай вазият бир қатор амалий масалаларга ёрдам беради. Биринчидан, фуқаролик ҳуқуқи ва мерос масалаларида ислом анъаналарининг қонунчиликка таъсири аниқ, ҳуқуқшунос мутахассислар бу муносабатни таҳлил қилиш учун зарур билимларга эга бўлади.. Иккинчидан, халқаро ислом ҳуқуқи соҳаларида (ислом молияси, ҳалол стандартлар, ислом арбитражи) фаолият юритиш учун кадрлар тайёрланмоқда.[30]

Марказий Осиё ва Ўзбекистон учун алоҳида аҳамиятга эга бўлган жиҳат – минтақада аксарият аҳолиси риоя қиладиган Ҳанафий мазҳаби анъанасидир. Имом Аъзам Абу Ҳанифа (699–767) ва унинг шогирдлари Мовароуннаҳр – бугунги Ўзбекистон ҳудудида – яшаб, фаолият кўрсатишган.[31] Ҳанафий мазҳаби раъй ва қиёс методологиясига нисбатан кенгроқ муносабати, “истиҳсон” (яхшисини қидириш) принципи ва амалий масалаларни ҳал этишда прагматик ёндашуви билан ажралиб туради. Бу хусусиятлар Ҳанафий фиқҳини замонавий юридик тизимлар билан интеграция қилиш учун маълум даражада қулай қилади.[32]

Тошкент Ислом Институти ва Ўзбекистон Мусулмонлари Идораси тизимидаги диний таълим муассасалари ислом ҳуқуқини ўқитишда фаолият юритади, аммо уларнинг дастурлари замонавий ҳуқуқшунослик билан кам мувофиқлаштирилган. Икки тизим ўртасида деярли академик алоқа йўқ.[33]

Бу борада Марказий Осиё республикаларида ягона ёндашув етарли эмас. Қозоғистон Ал-Фараби номидаги миллий университети ҳуқуқ факултетида "Ислом ҳуқуқи тарихи" курсини бакалавр дастурида ўқитади. Қирғизистон Миллий Университети эса ислом ҳуқуқини мустақил курс сифатида киритган бўлиб, бу Марказий Осиёдаги энг илғор тажрибалардан бири ҳисобланади.[34] Тожикистон эса ўз қонунчилигида ислом анъаналарига нисбатан чеклаш сиёсатини юритганлиги сабабли академик таълимда ҳам бу фан эътиборсиз қолдирилган. Озарбайжон ва Туркманистон ҳам шунга ўхшаш ҳолат кузатилади. Шундай қилиб, Марказий Осиёда ислом ҳуқуқини таълимга интеграция қилиш бўйича “яхши амалиёт” сифатида кўрсатса бўладиган кенг кўламли модел ҳали етарлича шаклланган эмас.[35]

Таҳлил асосида қуйидаги ўқув дастури ислоҳотлари тавсия этилади. ***Биринчи қадам*** сифатида бакалавр даражасида "Ислом ҳуқуқи асослари ва қиёсий фиқҳ" номли мажбурий курс киритилиши лозим. Бу курс ислом ҳуқуқининг методологияси, асосий манбалари, тўртта сунний мазҳабнинг қиёсий таҳлили ва замонавий амалиётдаги ўрни каби масалаларни қамраб олиши зарур.[36]

***Иккинчи қадам*** сифатида магистратура даражасида ихтисослаштирилган йўналишлар яратилиши керак: ислом молиявий ҳуқуқи, ислом оилавий ҳуқуқи ва мерос, ислом арбитражи ва медиацияси. Бу йўналишлар миллий иқтисодиётнинг ривожланиш эҳтиёжлари билан боғлиқ бўлиб, амалий жиҳатдан ҳам катта аҳамият касб этади.

***Учинчи қадам*** – мавжуд курсларни ислом ҳуқуқи элементлари билан бойитиш. Масалан, халқаро тижорат ҳуқуқи курсига ислом арбитражи; оилавий ҳуқуқ курсига никоҳ ва мерос масалаларида ислом ҳуқуқий анъаналари; конституциявий ҳуқуқ курсига ислом давлатларининг конституциявий тажрибаси каби модуллар қўшилиши мумкин.[37]

Ислом ҳуқуқини замонавий шароитда самарали ўқитиш учун қуйидаги методологик ёндашувлар тавсия этилади. ***Кейс стади*** (аниқ иш ҳолатлари) методи ислом ҳуқуқи контекстида ҳам кенг қўлланилиши мумкин – жумладан, реал суди амалиёт, фатво (ислом ҳуқуқий хулосаси) таҳлили, ва замонавий ислом давлатларининг ҳуқуқий амалиёти мисолида.[38]

***Моот коурт*** (модел суд жараёнлари) форматида ислом арбитраж иши симулятсияси ўтказиш талабаларнинг амалий кўникмаларини ривожлантиради. Масалан, ДИФС-ЛСИА Арбитратион Сентре ёки Малайсиа Куала Лумпур Регионал Сентре фор Арбитрашн амалиётига асосланган ислом арбитражи ҳолатларини симулятсия қилиш ўта самарали бўлади.[39]

Қиёсий ҳуқуқ методи ислом ҳуқуқини Ғарб ҳуқуқ тизимларига нисбатан “инфериор” ёки “экзотик” сифатида эмас, балки тенг партнер сифатида тақдим этиш учун зарур. Бу ёндашув талабаларнинг ҳуқуқий фикрлаш кўламини кенгайтиради ва ҳуқуқий плурализм ҳақида чуқур тушунча шаклланишига ёрдам беради.[40]

Ўзбекистон учун ислом ҳуқуқи бўйича малакали ўқитувчилар тайёрлаш зудлик билан ҳал этилиши лозим бўлган масаладир. Бунинг учун халқаро ҳамкорлик имкониятларидан фойдаланиш тавсия этилади. Ҳарвард Лов Скуул Исламик Легал Студиес

Програм, СОАС Университети оф Лондон, ва Интернашнал Исламик Университети Малайсиа (ИИУМ) билан академик шериклик алоқалари ўрнатилиши мумкин.[41]

Бундан ташқари, Ўзбекистон университетлари Тошкент Ислом Институти ва Ўзбекистон Мусулмонлари Идораси билан ҳамкорликда биргаликда ўқитиш дастурларини ишлаб чиқиши мақсадга мувофиқ бўлади. Бу ёндашув икки тизим ўртасидаги бўшлиқни бартараф этишга ёрдам беради ва талабалар бир вақтнинг ўзида ҳам замонавий ҳуқуқшунослик, ҳам ислом илмлари бўйича билим олиш имконига эга бўладилар.[42]

Хулоса сифатида айтиш жоизки, Ушбу юқоридаги фикрлар замонавий юридик таълимда ислом ҳуқуқини ўқитиш ва интегратсия қилиш масаласи кўп қиррали ва долзарб муаммо эканлигини кўрсатди. Бир томондан, ислом ҳуқуқи дунёдаги икки миллиарддан ортиқ инсоннинг ҳуқуқий ҳаётини бошқарадиган тирик ҳуқуқий тизим сифатида академик эътиборга тўлиқ лойиқ. Иккинчи томондан, унинг замонавий секуляр таълим тизимларига интегратсияси бир қатор методологик, институтсионал ва сиёсий қийинчиликлар билан боғлиқ. Қиёсий таҳлил шуни кўрсатадики, ягона универсал модел мавжуд эмас – ҳар бир мамлакат ўзига хос тарихий, маданий ва сиёсий контекстга мос келадиган ёндашувни танлаши лозим. Шу билан бирга, интегратсион (қиёсий ҳуқуқ) модел кўпчилик замонавий университетлар учун энг мақбул йўл сифатида кўринади, чунки у ислом ҳуқуқини изолатсияда эмас, балки бошқа ҳуқуқий анъаналар билан диалектик муносабатда ўргатади.

Ўзбекистон ва умуман Марказий Осиё учун ислом ҳуқуқини юридик таълимга киритиш ва ривожлантириш нафақат академик зарурат, балки миллий ривожланиш стратегиясининг бир қисми бўлиши лозим. Минтақанинг Ҳанафий ҳуқуқий мероси, халқаро ислом молиясига қизиқишнинг ортиши ва ҳудудда ислом ҳуқуқий саводхонлигига бўлган профессионал талаб – буларнинг барчаси ушбу интегратсияни шошилинч ва мантиқий қадам сифатида белгилайди. Пировард натижада, ислом ҳуқуқини юридик таълимга киритиш фақат мусулмон талабаларга хизмат қилмайди – у барча талабаларга ҳуқуқнинг универсал ва хусусий жиҳатларини чуқурроқ тушуниш, ҳуқуқий фикрлаш доирасини кенгайтириш ва глобал ҳуқуқий плурализм муҳитида самарали фаолият юритиш учун зарур кўникмалар беради. Бу эса замонавий юридик таълимнинг бош мақсади ҳисобланади.

**АДАБИЁТЛАР ВА ҲАВОЛАЛАР:**

**1.** Анвер Эмон, Марк Эллис, Бенжамин Глаҳн (едс.), Исламис Лаw анд Интернатионал Ҳуман Ригҳтс Лаw: Сеарчинг фор Соммон Гроунд? (Охфорд Университй Пресс, 2012), п. 3–25. Шунингдек қаранг: Мартин Лау, "Ислам анд Жудисиал Активисм: Публис Интерест Литигатион анд Энвиронментал Протестион ин тҳе Исламис Републис оф Пакистан", ин Алан Бойле, Мичаел Андерсон (едс.), Ҳуман Ригҳтс Аппроачес то Энвиронментал Протестион (Сларендон Пресс, 1996), п. 285–302.

**2.** Пеw Ресеарч Сентер, "Тҳе Футуре оф тҳе Глобал Муслим Популатион" (Wашингтон ДС: Пеw Ресеарч Сентер, 2011), п. 13. Ҳисоб-китобларга кўра, 2020-йил ҳолатига кўра дунёдаги муслмонлар сони 1,8 миллиарддан ошган. Қаранг: Оур Wорлд ин Дата, "Ислам" (2023), ҳттпс://оурworлдиндата.орг/религион.

**3.** Тҳе Эсономист Интеллигенсе Унит, "Демосрасй Индех 2022" (Лондон: ЭИУ, 2023). Шунингдек қаранг: Натҳан Бровн, Сонститутионс ин а Нонсонститутионал Wорлд: Араб Басис Лаwс анд тҳе Проспестс фор Ассоунтабле Говернмент (Стате Университй оф Неw Ёрк Пресс, 2002), п. 45–70.

**4.** Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, "Демографик ва ижтимоий статистика" (Тошкент, 2023). Қаранг: Фарҳод Толипов, "Ислам анд Стате ин Узбекистан", Сентрал Асиан Сурвей, Вол. 27, Но. 3–4 (2008), пп. 281–295.

**5.** Муҳаммад ибн Идрис ал-Шафиъи, Ал-Рисала фи Усул ал-Фиқҳ, таржима ва шарҳ: Мажид Кҳаддури (Исламис Техтс Сосиетй, 1987). Қаранг: Wаел Ҳаллақ, Тҳе Оригинс анд Эволутион оф Исламис Лаw (Самбридге Университй Пресс, 2005), п. 102–120.

**6.** Ноел Соулсон, А Ҳисторй оф Исламис Лаw (Единбургҳ Университй Пресс, 1964), п. 148–175. Шунингдек қаранг: Ал-Азҳар Университй, "Ҳисторй анд Эдусатион", оффисиал wебсите: ҳттпс://www.азҳар.еду.ег/ен/абоут/ҳисторй.

**7.** Жосепҳ Счачт, Ан Интродустион то Исламис Лаw (Сларендон Пресс, 1964), п. 1–25. Шунингдек қаранг: Wаел Ҳаллақ, Шариъа: Тҳеорй, Прастисе, Трансформатионс (Самбридге Университй Пресс, 2009), п. 1–20.

**8.** Wаел Ҳаллақ, "Сан тҳе Шариъа Бе Ресторед?", ин Йвонне Ҳаддад, Барбара Стоwассер (едс.), Исламис Лаw анд тҳе Чалленгес оф Модернитй (АлтаМира Пресс, 2004), п. 21–53.

**9.** СОАС Университй оф Лондон, "ЛЛМ ин Исламис Лаw", Программе Спесифисатион (Лондон: СОАС, 2023). Қаранг: ҳттпс://www.соас.ас.ук/постградуате/программес/ллм-исламис-лаw.

**10.** Леиден Университй, "Адвансед ЛЛМ ин Публис Интернатионал Лаw", Соурсе Саталогуе (Леиден: Леиден Университй Пресс, 2024). Қаранг: ҳттпс://www.университеитлеиден.нл/ен/едусатион/студй-программес/мастер/лаw/адвансед-ллм-публис-интернатионал-лаw.

**11.** Ҳарвард Лаw Счоол, "Исламис Легал Студиес Програм", Аннуал Репорт 2022 (Самбридге МА: Ҳарвард Университй Пресс, 2022). Қаранг: ҳттпс://илсп.лаw.ҳарвард.еду.

**12.** Исламис Университй оф Мадинаҳ, "Асадемис Программес ин Шариъа", Оффисиал Саталогуе (Ал-Мадинаҳ Ал-Мунаwwараҳ: ИУМ, 2023). Шунингдек қаранг: Абдуллаҳи Ан-Наъим, Ислам анд тҳе Сесулар Стате: Неготиатинг тҳе Футуре оф Шариъа (Ҳарвард Университй Пресс, 2008), п. 87–112.

**13.** Жан Мичиел Отто (ед.), Шариа Инсорпоратед: А Сомпаративе Овервиеw оф тҳе Легал Сйстемс оф Twелве Муслим Соунтриес ин Паст анд Пресент (Леиден Университй Пресс, 2010), п. 15–40.

**14.** Баудоуин Дупрет, Мауритс Бергер, Лаила Ал-Зwаини (едс.), Легал Плуралисм ин тҳе Араб Wорлд (Клуwер Лаw Интернатионал, 1999), п. 22–45.

**15.** Абдуллаҳи Аҳмед Ан-Наъим, Товард ан Исламис Реформатион: Сивил Либертиес, Ҳуман Ригҳтс, анд Интернатионал Лаw (Сйрасусе Университй Пресс, 1990), п. 180–200.

**16.** Ҳ. Патриск Гленн, Легал Традитионс оф тҳе Wорлд: Сустаинабле Диверситй ин Лаw, 5тҳ эд. (Охфорд Университй Пресс, 2014), п. 167–220.

**17.** Университй оф Торонто Фасултй оф Лаw, "Соурсе Дессриптионс: Лаw анд Религион" (Торонто: У оф Т, 2024). Қаранг: ҳттпс://www.лаw.утороното.ца/асадемисс/жд-програм/соурсес.

**18.** Родней Wилсон, "Исламис Финансе ин Эуропе", РССАС Полисй Папер 2007/02 (Флоренсе: Эуропеан Университй Институте, 2007), п. 1–25.

**19.** Исламис Финансиал Сервисес Боард (ИФСБ), "Исламис Финансиал Сервисес Индустрй Стабилитй Репорт 2023" (Куала Лумпур: ИФСБ, 2023), п. 7. Қаранг: ҳттпс://www.ифсб.орг/публишед-ифсб-публисатионс/.

**20.** Wael Ҳаллақ, "Тҳе Қуест фор Оригинс ор Дострине? Исламис Легал Студиес ас Солониалист Диссоурсе", УСЛА Жоурнал оф Исламис анд Неар Эастерн Law, Вол. 2 (2002–2003), пп. 1–31.

**21.** Фелиситас Опwис, Маслаҳа анд тҳе Пурпосе оф тҳе Law: Исламис Диссоурсе он Легал Чанге фром тҳе 4тҳ/10тҳ то 8тҳ/14тҳ Сентурй (Брилл, 2010), п. 1–30.

**22.** Моҳаммад Ҳашим Камали, Шариъаҳ Law: Ан Интродустион (Онеworлд Публисатионс, 2008), п. 70–95.

**23.** Франк Вогел, Самуел Ҳаес ИИИ, Исламис Law анд Финансе: Религион, Риск, анд Ретурн (Клуwер Law Интернатионал, 1998), п. 12–30.

**24.** Wиллиам Twининг, "Глобалисатион анд Легал Тҳеорй: Соме Лосал Имплисатионс", Суррент Легал Проблемс, Вол. 49 (1996), пп. 1–42.

**25.** Сларк Ломбарди, Стате Law ас Исламис Law ин Модерн Эгйпт: Тҳе Инсорпоратион оф тҳе Шариъа инто Эгйптиан Сонститутионал Law (Брилл, 2006), п. 55–90.

**26.** Арун Кунднани, Тҳе Муслимс аре Соминг! Исламопҳобиа, Эхтремисм, анд тҳе Доместис Wар он Террор (Версо Боокс, 2014), п. 140–170.

**27.** Баудоуин Дупрет, "Легал Исламизатион ин Эгйпт: Тҳе Журиспруденсе оф тҳе Супреме Сонститутионал Соурт", ин Армандо Салваторе, Марк ЛеВине (едс.), Религион, Сосиал Прастисе, анд Сонтестед Ҳегемониес (Палграве Масмиллан, 2005), п. 175–200.

**28.** Эугене Ҳускей, "Тҳе Политисс оф Лангуаге ин Кйргйзстан", Натионалитиес Паперс, Вол. 23, Но. 3 (1995), пп. 549–572. Шунингдек қаранг: Виталй Наумкин, Радисал Ислам ин Сентрал Асиа: Бетweен Пен анд Рифле (Powман & Литтлефиелд, 2005), п. 25–60.

**29.** Тошкент Давлат Юридик Университети, "2023–2024 ўқув йили ўқув режаси" (Тошкент: ТДЮ, 2023). Муаллифнинг шахсий кузатувлари ва институтнинг расмий маълумотлари асосида.

**30.** Тимур Дадабаев, Жапан ин Сентрал Асиа: Стратегиес, Инитиативес, анд Неигҳборинг Поwерс (Палграве Масмиллан, 2016), п. 200–230. Шунингдек қаранг: Интернатионал Финансе Сорпоратион, "Исламис Банкинг Оппортунитиес Асросс Смалл анд Медиум Энтерприсес ин МЕНА" (Wашингтон ДС: ИФС, 2014).

**31.** Нуъман ибн Тҳабит (Абу Ҳанифа), "Китаб ал-Атҳар", шарҳ ва таҳлил: Wаел Ҳаллақ, Тҳе Оригинс анд Эволутион оф Исламис Лаw (Самбридге Университй Пресс, 2005), п. 62–80. Қаранг шунингдек: Аҳмет Карамустафа, "Еарлй Мйстисисм анд Исламис Лаw" ин Роберт Глеаве, Э. Кермели (едс.), Исламис Лаw: Тҳеорй анд Прастисе (И.Б. Таурис, 1997).

**32.** Имран Аҳсан Кҳан Нязее, Исламис Журиспруденсе: Усул ал-Фиқҳ (Исламис Ресеарч Институте, Интернатионал Исламис Университй, 2000), п. 295–310.

**33.** Ўзбекистон Мусулмонлари Идораси, "Таълим тизими" (Тошкент, 2023). Қаранг: ҳттпс://муслим.уз/та-лим. Муаллифнинг 2023-йил июн ойидаги шахсий мулоқотлари асосида.

**34.** Ал-Фараби номидаги Қозоғистон Миллий Университети, "Ҳуқуқ ва Халқаро Муносабатлар Факултети Ўқув Режаси" (Алматй: ҚазНУ, 2023). Қаранг: ҳттпс://www.казну.кз/ен/174/паге.

**35.** Кристиан Петерсен, Интерпретинг Ислам ин Чина: Пилгримаге, Ссриптуре, анд Лангуаге ин тҳе Ҳан Китаб (Охфорд Университй Пресс, 2017), п. 45–70. Шунингдек қаранг: Мартҳа Брилл Олсотт, Сентрал Асиаъс Сесонд Чансе (Сарнегие Эндowмент фор Интернатионал Пеасе, 2005), п. 111–140.

**36.** Матҳиас Роҳе, Исламис Лаw ин Паст анд Пресент, таржима: Гwендолин Голдблоом (Брилл, 2015), п. 370–395.

**37.** Анвер Эмон, "Шариа анд тҳе Руле оф Лаw", ин Анвер Эмон, Румее Аҳмед (едс.), Тҳе Охфорд Ҳандбоок оф Исламис Лаw (Охфорд Университй Пресс, 2018), п. 773–800.

**38.** Мичаел Феенер, Марк Саммаск (едс.), Исламис Лаw ин Сонтемпорарй Индонесиа: Идеас анд Институтионс (Ҳарвард Университй Пресс, 2007), п. 1–30.

**39.** ДИФС Соуртс, "Прастисе Дирестион он Исламис Финансе Диспутес" (Дубаи: ДИФС, 2022). Қаранг: ҳттпс://www.дифссоуртс.ае. Шунингдек: АИАС (Асиан Интернатионал Арбитратион Сентре), "и-Арбитратион Рулес" (Куала Лумпур: АИАС, 2021).

**40.** Паул Счифф Берман, Глобал Легал Плуралисм: А Журиспруденсе оф Лаw Беёнд Бордерс (Самбридге Университй Пресс, 2012), п. 8–40.

**41.** Интернатионал Исламис Университй Малайсиа (ИИУМ), "Аҳмад Ибраҳим Куллийяҳ оф Лаwс", Асадемис Программес 2023–

2024 (Куала Лумпур: ИИУМ, 2023). Қаранг: ҳттпс://www.ииум.еду.мй/куллийяҳ/лаw.

**42.** Рудолпҳ Петерс, Герт Де Вриес, "Апостасй ин Ислам", Дие Wелт дес Исламс, Вол. 17, Но. 1–4 (1977), пп. 1–25. Шунингдек: Элса Стаматопоулоу, Султурал Ригҳтс ин Интернатионал Лаw: Артисле 27 оф тҳе Универсал Десларатион оф Ҳуман Ригҳтс анд Беёнд (Мартинус Нижҳофф, 2007), п. 180–210.

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРИ ПРОФИЛАКТИКЕ И ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

***Г.У.Ахмедова**, д.ю.н.ТГЮУ*

**Аннотация**: В статье рассматриваются вопросы модернизации юридического образования в Республике Узбекистан через внедрение практико-ориентированных методов обучения как важного инструмента повышения эффективности профилактики и предупреждения преступности. Анализируются современные проблемы подготовки юридических кадров, необходимость интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, а также предлагаются механизмы совершенствования взаимодействия высших образовательных учреждений с правоохранительными органами и судебной системой.

**Ключевые слова:** юридическое образование, практическая подготовка, профилактика преступлений, предупреждение преступности, правовое воспитание, клиническое образование, Республика Узбекистан.

В Республике Узбекистан особое внимание уделяется вопросам профилактики правонарушений как важнейшему направлению обеспечения общественной безопасности, защиты прав и свобод граждан, а также укрепления законности. В соответствии с Законом Республики Узбекистан «О профилактике правонарушений», профилактика рассматривается как система правовых, социальных, организационных и воспитательных мер, направленных на предупреждение преступности, выявление причин и условий совершения правонарушений, а также устранение криминогенных факторов.

В данных условиях возрастает роль юридического образования как механизма подготовки специалистов, способных не только

применять законодательство, но и участвовать в предупреждении преступности на ранних этапах.

В современных условиях реформирования правовой системы Республики Узбекистан особое значение приобретает подготовка высококвалифицированных юридических кадров, обладающих не только фундаментальными теоретическими знаниями, но и практическими навыками предупреждения и профилактики преступлений. Проводимые в стране реформы в сфере судебно-правовой системы требуют формирования нового поколения юристов, способных эффективно применять нормы законодательства, анализировать криминогенные факторы и участвовать в разработке профилактических мер. В этой связи совершенствование юридического образования становится одним из ключевых направлений государственной политики.

**Современные проблемы юридического образования**

Несмотря на значительное развитие системы высшего юридического образования в Узбекистане, сохраняются определённые проблемы:

- преобладание теоретического подхода над практической подготовкой;
- недостаточная интеграция образовательных программ с деятельностью правоохранительных органов;
- ограниченное использование кейс-методов и моделирования следственных ситуаций;
- недостаточная вовлечённость студентов в реальные процессы профилактики правонарушений. Указанные проблемы снижают уровень профессиональной готовности выпускников к практической деятельности.

**Роль практической деятельности в профилактике преступлений**

Практическая деятельность позволяет студентам:

- изучать реальные причины и условия совершения преступлений;
- участвовать в правовом консультировании населения;
- анализировать материалы уголовных, административных и гражданских дел;
- разрабатывать профилактические программы для отдельных категорий населения.

Особую роль играет участие студентов в:

- юридических клиниках;
- общественных приёмных;
- стажировках в органах внутренних дел, прокуратуре, судах и адвокатуре;
- правопросветительских мероприятиях среди молодёжи.

Такой подход способствует формированию профессионального мышления и развитию навыков раннего выявления криминогенных рисков.

Для повышения эффективности юридического образования предлагается:

**1) Развитие клинического юридического образования**

Необходимо расширять деятельность юридических клиник при вузах, где студенты под руководством преподавателей оказывают бесплатную правовую помощь населению.

**2) Дуальная система обучения**

Следует внедрять модель, при которой обучение совмещается с регулярной практикой в государственных органах.

**3) Использование цифровых технологий**

Рекомендуется внедрение:

- виртуальных судебных процессов;
- цифровых криминалистических лабораторий;
- платформ анализа судебной практики;
- систем искусственного интеллекта для моделирования правовых ситуаций.

**4) Межведомственное сотрудничество**

Важно укреплять сотрудничество между вузами и:

- Министерство внутренних дел Республики Узбекистан;
- Генеральная прокуратура Республики Узбекистан;
- Верховный суд Республики Узбекистан;
- адвокатскими и нотариальными структурами.

**4. Значение правового воспитания**

Юридическое образование должно быть направлено не только на подготовку специалистов, но и на формирование правовой культуры общества.

Студенты могут участвовать в:

- профилактических беседах в школах и колледжах;
- программах предупреждения подростковой преступности;

- проектах по повышению правовой грамотности населения.

Это способствует снижению уровня правонарушений и укреплению законности.

Таким образом, совершенствование юридического образования в Республике Узбекистан должно осуществляться через усиление практической направленности обучения. Интеграция теоретической подготовки с практической деятельностью способствует формированию профессионально компетентных юристов, способных эффективно участвовать в профилактике и предупреждении преступлений.

Внедрение клинического обучения, цифровых технологий, дуального образования и межведомственного взаимодействия позволит повысить качество подготовки кадров и укрепить систему предупреждения преступности в стране.

**Литература**

1. Конституция Республики Узбекистан.
2. Закон Республики Узбекистан «Об образовании».
3. Закон Республики Узбекистан «О профилактике правонарушений».

## ZAMONAVIY HUQUQIY TA’LIM TIZIMIDA “AXBOROT HUQUQI” FANINI JORIY ETISHNING ZARURATI VA AHAMIYATI

***N.Aslonov***
*Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi yetakchi mutaxassisi, yu.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida axborot huquqining alohida fan sifatida shakllanishi va uni oliy yuridik ta’lim tizimiga joriy etish zarurati tahlil qilinadi. Axborot erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, intellektual mulk hamda axborot xavfsizligi kabi fundamental masalalarni qamrab oluvchi ushbu fanning dolzarbligi xalqaro statistika va milliy islohotlar misolida asoslanadi. Shuningdek, fanning asosiy obyekti, subyektlari, manbalari va uni o‘qitish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun amaliy takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** axborot huquqi, raqamli transformatsiya, konstitutsiyaviy huquqlar, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, huquqiy ta’lim.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida axborot eng qimmatli resurslardan biriga aylandi. Shu bois, axborot bilan bog‘liq

munosabatlarni huquqiy tartibga solish, uni himoya qilish va undan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarurati kun tartibiga chiqdi. Aynan shu ehtiyoj “Axborot huquqi” fanining alohida yo‘nalish sifatida shakllanishiga va ta’lim tizimiga joriy etilishi lozimligiga olib keladi.

“Axborot” tushunchasining o‘zigina nihoyatda murakkab va ko‘p qirralidir. Hozirgi kunda uning 100 dan ortiq ilmiy ta’rifi mavjud [1]. Bunday serqirra hodisani faqat bir soha doirasida o‘rganishning imkoni yo‘q. Axborot huquqi esa aynan shu xilma-xil yondashuvlarni umumlashtirib, axborotning yaratilishi, saqlanishi, uzatilishi va iste’mol qilinishidagi ijtimoiy munosabatlarni huquq normalari orqali tartibga soladi. Shu ma’noda, bu fan keng qamrovli bo‘lib, nafaqat huquqshunoslar, balki jurnalistlar, axborot texnologiyalari mutaxassislari, davlat xizmatchilari va oddiy fuqarolar uchun ham dolzarb bo‘lgan bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashgan holda, Axborot huquqi fanining aynan shu jihati uning joriy etilishining asosiy zaruratlaridan biridir. Gap shundaki, zamonaviy jamiyatda insonning ko‘plab fundamental huquq va erkinliklari bevosita axborot bilan bog‘liq. Fikr erkinligi, so‘z erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma’lumotlarning himoyasi, bularning barchasi bugungi raqamli makonda axborot oqimlari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Ushbu huquqlarning ro‘yobga chiqarilishi yoki aksincha, buzilishi ko‘p hollarda aynan axborot sohasidagi huquqiy tartibga solishning qanchalik samarali ekaniga bog‘liq. Shu boisdan ham mazkur fan inson huquqlarini axborot muhitida himoya qilishning nazariy asoslarini va amaliy mexanizmlarini o‘rgatuvchi muhim vosita sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Axborot olish va tarqatish erkinligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida konstitutsiyaviy kafolatlangan[2]. Xalqaro miqyosda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 19-moddasi[3] hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 19-moddasida[4] mustahkamlangan. Bu huquqning chegaralari va kafolatlarini bilish uchun maxsus huquqiy bilim talab etiladi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsga oid ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli davrda insonning shaxsiy ma’lumotlari eng zaif nuqtaga aylandi. Axborot huquqi shaxsga oid ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlashning qat’iy huquqiy chegaralarini belgilaydi, “raqamli shaxs”ni himoyalash mexanizmlarini o‘rgatadi.

Intellektual mulk huquqlari, har qanday axborot mahsuli (matn, rasm, dastur, musiqa) muallifning ijodiy mehnati samarasidir. Axborot huquqi insonning o‘z ijod mahsuliga bo‘lgan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi.

Axborot xavfsizligi va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash, soxta axborotlar, kiberbullying, onlayn firibgarliklar inson qadr-qimmati va xavfsizligiga tahdid solmoqda. Bu fan aynan insonning axborot makonidagi himoyasini kafolatlashga qaratilgan huquqiy bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu fanning joriy etilish dolzarbligi shundaki, bugungi kunda axborot bilan bog‘liq huquqbuzarliklar va nizolar nafaqat alohida davlatlar, balki xalqaro hamjamiyat miqyosida ham jiddiy muammoga aylanmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar rivojlangani sari shaxsiy ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish, kiberjinoyatchilik, ma’lumotlar sizib chiqishi va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq tahdidlar soni keskin ortib bormoqda. Jumladan, Xitoyda 2025-yilning dastlabki 11 oyida 5,4 mingdan ortiq shaxs shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanishda qonun talablariga amal qilishmaganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan. AQShda esa 2025-yilda ma’lumotlar maxfiyligini buzish holatlari yuzasidan 1 822 ta qonun buzilishlari sodir etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 18 foizga oshgan. Shvetsiyada ma’lumotlar maxfiyligi bilan bog‘liq shikoyatlar sonining 102 foizga ortgani, Avstraliyada yuzlab ma’lumotlar buzilishi holatlarining qayd etilgani ham mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini tasdiqlaydi[5].

Shu bois, zamonaviy axborot jamiyatida axborot huquqi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy mexanizmlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, axborot huquqi fani axborot erkinligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligini ta’minlash kabi dolzarb masalalarni o‘rganib, ularni huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qiladi. U zamonaviy jamiyatda insonlarning axborotga oid konstitutsiyaviy huquqlarini amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan nazariy asos va huquqiy vositalarni taqdim etadi.

Axborot huquqi fani bugungi kunda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari, Rossiya, Belarussiya, Qirg‘iziston, Qozog‘istonda alohida yuridik fan sifatida o‘qitilib, axborot huquqi sohasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasida axborot huquqi (12.00.14. - ma’muriy huquq, moliya huquqi va axborot huquqi)

yo‘nalishida dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Belarusiyada oliy ta’limdan keyingi huquqiy tadqiqotlarda (12.00.13.- Axborot huquqi) yo‘nalishlarida yuridik fanlar nomzodi hamda yuridik fanlar doktori ilmiy ishlari amalga oshirilmoqda. Yevropa, Amerika universitetlarida ham “Information law”, “Internet law”, “Media law” va “Data Protection law” nomlari ostida mustaqil kurslar mavjud hamda nufuzli oliygohlarida o‘qitilmoqda.

Rossiyalik olim V.A.Kopilov fikricha, “axborot huquq fani, bugungi kunda huquq fani oilasida dolzarb va uni hattoki maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida hamda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda o‘qitish zarurati shundan iboratki, axborot huquqi XXI asr axborot jamiyatining huquqiy asosi bo‘lib, hozirda alohida mamlakatlarda, ham xalqaro hamjamiyat doirasida faol ravishda shakllantirilmoqda”[6]. Kopilovning axborot huquqini o‘qitish zarurligi haqidagi pozitsiyasi zamonaviy dunyoning talablari nuqtayi nazaridan asosli, biroq uning amalga oshirilishi uchun ta’lim tizimida jiddiy islohotlar va resurslar talab qilinadi. Axborot huquqini o‘qitishni boshlang‘ich darajada umumiy tushunchalar sifatida, oliy ta’limda esa ixtisoslashgan yo‘nalish sifatida joriy qilish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv orqali Kopilovning g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaymiz, lekin uni amaliy va resurslar nuqtai nazaridan muvozanatlashtirish lozim.

G.Akopovning oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan “Axborot huquqi” nomli darsligini tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, ushbu fan axborot bog‘liq bo‘lgan barcha ijtimoiy-huquqiy munosbatlarini qamrab oladi va tegishli manbalar bilan boyitilgan. Darslikda ommaviy axborot vositalari, axborot olish madaniyati, shaxsga doir ma’lumotlar, elektron hujjat, elektron raqamli imzo, davlat organlarining axborot tizimlari, axborot resurslari, axborot tizimlari va boshqa ko‘plab sohalar yoritilgan. Shuningdek, unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) huquqiy jihatlari, ularni qo‘llashda yuzaga keladigan masalalar, elektron boshqaruv tizimlari va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bog‘liq huquqiy asoslar ham o‘z aksini topgan. Darslik insonlarning axborot olish huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va axborot xavfsizligini mustahkamlashga doir nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborot huquqining **obyekti** sifatida axborot sohasida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar ko‘riladi. Bunga axborotni olish, yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, izlash, uzatish, tarqatish hamda undan

foydalanish kabi jarayonlar kiradi. Ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar esa axborot huquqining **subyektlari** hisoblanadi. Axborot huquqining manbalari esa, mazkur sohadagi huquqiy normalarni ifodalovchi tashqi shakllar bo‘lib, ular asosan rivojlanib borayotgan axborot qonunchiligidagi normativ-huquqiy hujjatlar, sud amaliyoti natijasida qabul qilingan qarorlar hamda boshqa huquqni qo‘llash hujjatlaridan iborat bo‘ladi

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda huquqiy ta’limni isloh qilish borasida qator ijobiy qadamlar tashlandi. Jumladan, 2021-yilda Toshkent davlat yuridik universitetida “Ommaviy axborot vositalari huquqi” mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga qabul e’lon qilinishi muhim amaliy siljish bo‘ldi [6]. Mazkur mutaxassislik doirasida tinglovchilar axborot olish va tarqatish erkinligining konstitutsiyaviy asoslari, ommaviy axborot vositalari faoliyatini litsenziyalash, jurnalistlarning kasbiy huquq va majburiyatlari, shuningdek, tuhmat, haqorat va shaxsiy hayot daxlsizligiga oid nizolarni hal etish kabi dolzarb mavzularni o‘zlashtirmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda axborot sohasiga oid huquqiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyojning tobora oshib borayotganini va bu yo‘nalishdagi kadrlar tayyorlash ishlari boshlanganini ko‘rsatadi. Biroq tan olish kerakki, ushbu yo‘nalish asosan media huquqi bilan cheklanib qolmoqda, holbuki bugungi raqamli davr talabi shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, elektron hukumat faoliyati va sun’iy intellektdan foydalanish kabi ancha keng qamrovli masalalarni o‘z ichiga olgan yaxlit “Axborot huquqi” fanini joriy etishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy huquqiy ta’lim tizimida “Axborot huquqi” fanini alohida yo‘nalish sifatida joriy etish davr talabi, zarurat va strategik ahamiyatga ega qadamdir. Raqamli transformatsiya davrida yuristlarning axborot sohasidagi huquqiy munosabatlarni chuqur bilishi ularning kasbiy muvaffaqiyatining garovidir. Mazkur tahlil asosida quyidagi asosiy xulosalarga keldik:

*birinchidan,* axborot huquqi fan sifatida shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi fundamental ehtiyojlarini qamrab oladi. U konstitutsiyaviy huquqlar kafolatidan boshlab, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi va intellektual mulkni muhofaza qilishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli masalalarni tartibga soladi;

*ikkinchidan,* xalqaro statistika ma’lumotlari axborot xavfsizligi buzilishi holatlari sonining yildan-yilga ortib borayotganini

koʻrsatmoqda. Bunday sharoitda fuqarolarning axborot olish, shaxsiy hayot daxlsizligi kabi fundamental huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini oʻrgatuvchi mazkur fan hayotiy ahamiyat kasb etadi;

*uchinchidan,* Rossiya, Belarus, Yevropa va AQSh kabi davlatlarning tajribasi “Axborot huquqi”ning alohida fan va ilmiy ixtisoslik sifatida oʻqitilishi yuqori malakali, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning samarali vositasi ekanligini isbotlamoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:

- yuridik oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichida “Axborot huquqi” fanini kamida bir semestr hajmida majburiy fan sifatida, magistraturada chuqurlashtirilgan maxsus kurs sifatida joriy etish.

- fanning milliy qonunchiligimizga moslashganligini ta’minlash maqsadida yetakchi olimlar va amaliyotchi yuristlar hammuallifligida “Oʻzbekiston Respublikasida axborot huquqi” nomli milliy darslik va amaliy qoʻllanmalar yaratish.

- Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan “Axborot huquqi”ni mustaqil ilmiy ixtisoslik sifatida roʻyxatga olish masalasini koʻrib chiqish. Mazkur qadam sohada fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish va professor-oʻqituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

- amaldagi yuridik kadrlar uchun axborot texnologiyalari va huquq kesishmasidagi zamonaviy bilimlarni berishga qaratilgan qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish, shuningdek ularning xorijiy yetakchi universitetlarda stajirovka oʻtashlariga sharoit yaratish.

- oʻquv jarayoniga kiberxavfsizlik va axborot texnologiyalari sohasidagi amaliyotchi ekspertlarni jalb etgan holda mahorat darslari va muammoli seminarlar tashkil etish.

Ushbu takliflarning hayotga tatbiq etilishi nafaqat yangi avlod raqamli huquqshunoslarini tayyorlashga, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ishonchli himoya qilishga, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga va milliy axborot makonimizning xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Чернавский Д. С. Синергетика и информация: Динамическая теория информации. – 2004. // URL: https://www.klex.ru/1rwr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. URL: // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights.
4. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro pakt. 1966. URL: // https://lex.uz/docs/-2640479.
5. ARTICLE 19. Global Expression Report 2025. URL:// https://www.globalexpressionreport.org/?twclid=254j3huhfd5ksnzfnf60kcz21j/.
6. Копылов В. А. Информационное право [Электронный ресурс]. URL:// https://ndki.narod.ru/liblary/books/Kopylov2.html.

## DAVLAT BOSHQARUVIDAGI KORRUPSIYAVIY OMILLARNING MA’MURIY-HUQUQIY JIHATLARI TAHLILI

***F.A. Primov*** *Sarbon universiteti*
*Huquqiy fanlar kafedrasi mudiri,*
*yu.f.d., dotsent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiyaviy omillarning ma’muriy-huquqiy jihatlari tahlil qilingan. Jumladan, ma’muriy-huquqiy vositalarda korrupsiyaviy omillarni vujudga keltirishning muhim texnologiyalari mavjudligi, korrupsiyani vujudga keltirish bilan birga, uni parvarishlash va yashirish ham aynan ma’muriy-huquqiy vositalar orqali ta’minlanishi, korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim choralaridan biri – intizomiy javobgarlik ham mohiyatan ma’muriy huquq bilan bog‘liqligi kabilar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat boshqaruvi, korrupsiya, korrupsiyaviy omil, ma’muriy-huquqiy munosabatlar, byurokratiya, normativ-huquqiy hujjat, intizomiy javobgarlik, ma’muriy-huquqiy bo‘shliqlar.

Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi nafaqat huquqiy fanlarning, ayni chog‘da boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya kabi fanlar doirasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan hamda amalga oshirilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi bitta fan doirasida ancha keng mavzu hisoblanadi. Bu borada V.N. Lopatinning “Korrupsiyaga qarshi kurashish – nafaqat jinoyat huquqining muammosi,

balki umum yuridik, ijtimoiy va siyosiy muammo hisoblanadi" degan fikriga to‘la qo‘shilish mumkin[1].

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ilmiy-nazariy asoslari ommaviy-huquqiy fanlar, xususan ma’muriy huquq alohida o‘rin tutadi. Chunki, korrupsiyaning tub mohiyati ma’muriy huquqning predmeti bo‘lgan ommaviy hokimiyat bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.

A.Yu. Vatel korrupsiyaga qarshi kurashning ma’muriy-huquqiy vositalarining to‘rtta jihati sifatida korrupsiyaga qarshi standartlar (mansabdor shaxslarning xatti-harakatlariga taqiqlar, cheklovlar, talablar, shuningdek ijobiy majburiyatlarni belgilaydigan ma’muriy huquqning moddiy normalari tizimi, korrupsiyaga qarshi standartlarning amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha ma’muriy protseduralar, korrupsiyaga qarshi standartlar, rag‘batlantirish va mukofotlar talablarini buzganlik uchun javobgarlik choralari hamda intizomiy ma’muriy-yurisdiksion ish yuritishni nazarda tutadi[2].

Bizning nazarimizda esa davlat boshqaruvida korrupsiyaning ma’muriy-huquqiy omillari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

*Birinchidan,* ma’muriy-huquqiy munosabatlar o‘zining mohiyatiga ko‘ra vertikal xususiyatga ega bo‘lib, ommaviy hokimiyatni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni ifodalaydi. Xususan, korrupsiya *shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan* g‘ayriqonuniy foydalanish natijasida vujudga keladi. Shaxsning mansab yoki xizmat mavqei esa ommaviy hokimiyatni amalga oshirish bilan bog‘liq ma’muriy-huquqiy munosabatlar tizimidagina mavjud bo‘ladi. Shu sababli Q.R. Abdurasulova to‘g‘ri ta’kidlaganidek eng ko‘p korrupsiyaga chalinganlar ijro hokimiyati organlarining xizmatchilari hisoblanadi[3].

Davlat boshqaruvida ommaviy hokimiyat turli huquqiy munosabatlar tizimida amalga oshiriladi. Ayniqsa bu borada ma’muriy-huquqiy munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Xususan, konstitutsiyaviy huquq butun davlat hokimiyati va boshqaruvining fundamental asosini tashkil qilsada ma’muriy huquqsiz shunchaki "qog‘ozdagi gap" bo‘lib qoladi. Ma’muriy-huquqiy munosabatlar esa har doim hokimiyat kuchini ifodalovchi majburiy xarakterga ega. R.R. Xakimov ham davlat

[1] Лопатин В.Н. О системном подходе в антикоррупционной политике / В.Н. Лопатин // Государство и право. – 2001. – № 7. – С. 23.

[2] Ватель А.Ю. Административно-правовое регулирование антикоррупцинных стандартов служебного поведения государственных гражданских служащ: Дис. … канд. юрид. наук. – Москва, 2013. – ст. 10-11.

[3] Абдурасулова Қ.Р. Коррупция жиноятчилигининг умумий тавсифи, сабаблари ва олдини олиш // Коррупцияга қарши курашиш ва комплаенс-назорат тизимини жорий этиш: муаммолар ва ривожланиш истиқболлари (халқаро онлайн илмийамалий семинари материаллари тўплами). Т.: ТДЮУ, 2020. Б. 24.

hokimiyatining mohiyatlaridan biri majburlov kuchidan foydalanish borasida monopol huquqqa egaligini nazarda tutadi[4].

Demak, ma’muriy-huquqiy munosabatlar o‘z mazmuniga ko‘ra davlat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarning vujudga kelishi uchun qulay maydon vazifasini o‘taydi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda davlatning haddan ortiq ishtiroki korrupsiyaviy omillarni vujudga keltiradi. Biroq, ayni chog‘da, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni davlatning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ammo bu borada davlatning ishtiroki ma’lum mezonlarga asoslanishi va asosan strategik hamda konseptual ko‘rinishda bo‘lishi kerak. Bu borada respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham “Shuni unitmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug‘ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko‘paytirsak, amaldorlarning zo‘ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi” deb, ta’kidlagan edi. Shu bilan birga A.K. Baldin normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalaridagi haddan tashqari huquqiy tartibga solishni nazarda tutuvchi normalarni korrupsiyani vujudga keltiruvchi omillar sifatida tushunish lozim, deb hisoblaydi. A.V. Kurakin ham nazorat va tekshiruv, shuningdek litsenziyalashning turli choralarini amalga oshirish jarayonida davlat xizmatchilari va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida asossiz munosabatlarni minimallashtirish zarurligi to‘g‘risida o‘z fikrlarini ilgari suradi[5]. Ammo korrupsiyaviy omillar faqatgina “haddan ortiq tartibga solish” bilan bog‘liq deyishning o‘zi kamlik qiladi. Ma’muriy-huquqiy munosabatlar o‘z tabiatiga ko‘ra korrupsiyaviy omillarni oziqlantiradi va parvarishlaydi. Ma’muriy-huquqiy munosabatlar mavjud bo‘lmagan joyda korrupsiyaviy omillar ham bo‘lmaydi. Shu bilan birga ma’muriy-huquqiy munosabatlarni aynan korrupsiyaviy omil sifatida tushunish ham to‘g‘ri emas, ma’muriy-huquqiy munosabatlar ayni chog‘da korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi uchun ham maydon vazifasini bajaradi. Qisqa qilib aytganda, ma’muriy-huquqiy munosabatlar korrupsiyaviy omillar uchun ham va ularga qarshi kurashish uchun ham xizmat qiladi.

Korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarning yuridik tahlili ham shuni ko‘rsatadiki ushbu turdagi huquqbuzarliklar ma’muriy-huquqiy munosabatlarning sub’ektlari tomonidan ma’muriy-

[4]Хакимов Р.Р. Давлат ҳокимияти тармоқлари ўртасида мувозанатни таъминлашнинг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш: Автореф. юрид. фан. док. ... дис. – Т., 2018. – Б. 13.

[5] Куракин А.В. Административно-правовые средства предупреждения и пресечения коррупции в системе государственной службы Российской Федерации: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. – Люберцы, 2008. – с. 12.

huquqiy munosabatlar doirasida sodir etiladi va boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas.

Ma’muriy-huquqiy munosabatlarning bir tarafida har doim hokimiyat vakolatlariga ega sub’ekt ishtirok etar ekan, unda diskresion imkoniyatlar bo‘ladi. Xususan, davlat boshqaruvining liberallashuvi natijasida davlatning ayrim funksiyalari nodavlat sektorga berilishi munosabati bilan nodavlat tashkilotlarning xizmatchilari ham o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sifatida belgilab qo‘yildi. Demak, davlatning imperativ vakolatlarini nodavlat sektorga o‘tkazish bilan korrupsiyaviy omillar kamayib qolmaydi, hatto bu jarayonda ko‘payishi ham mumkin. Imperativ vakolatlarning davlat yoki xususiy sektorga o‘tishining ahamiyat kam, bunda ushbu vakolatlardan qanday foydalanilayotganligiga e’tibor qaratish lozim. Shunday qilib, ma’muriy-huquqiy munosabatlar tizimida korrupsiyaviy omillar haqida so‘z yuritilganda birinchi galda tegishli imperativ vakolatlarga qanchalik asos bor, ikkinchi galda esa ushbu vakolatlarni qanday qilib korrupsiyaviy omillarga aylanib ketishining oldini olish mumkin degan savollarni qo‘yish kerak bo‘ladi.

*Ikkinchidan,* ma’muriy-huquqiy tartibga solish vostalari davlat boshqaruv usulining mohiyati bilan bog‘liq. Ayrim adabiyotlarda boshqaruv jarayonidagi muayyan vazifalarni bajarishda shaxslarning irodasi va ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli usullarni boshqaruv usullari sifatida ta’riflanib, bu usullarni ma’muriy va iqtisodiy usullarga ajratgan[6]. Yana bir boshqa adabiyotda esa davlat boshqaruvi usullari ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan boshqariluvchi obe’ktlarga va shaxslarga ma’muriy ta’sir ko‘rsatish maqsadida, qonunchilikda ruxsat etilgan doirada qo‘llaniladigan usul va vositalar sifatida ta’riflanib[7], davlat boshqaruv faoliyatida boshqaruv ob’ektlariga ta’sir ko‘rsatishning ikki asosiy usuli: ishontirish va majburlash usullariga ajratilgan[8].

[6]Алимов Х.Р., Махмудов А.А., Исмоилов Н.Т. Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2002. – Б. 77.

[7]Odilqoriyev H.T., Ismailov I., Ismailov N.T. va boshq. Ma’muriy huquq: Darslik.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. —Б. 175.

[8]Odilqoriyev H.T., Ismailov I., Ismailov N.T. va boshq. Ma’muriy huquq: Darslik.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. —Б. 176.

Bizning nazarimizda, davlat boshqaruvining ma’muriy-huquqiy usullari sub’ektning xulq-atvoriga ta’sir etish mexanizmiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

*man etuvchi* – muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishni ta’qiqlovchi;

*cheklovchi* – muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishga faqat ma’lum toifadagi sub’ektlarga ruxsat beruvchi ;

*ruxsat beruvchi* – muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirish erkinligini taqdim etuvchi;

*tartib-taomilni belgilovchi* – boshqaruv organlarining ma’muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalarni belgilovchi;

*majburiyat yuklovchi* – sub’ektning zimmasiga ma’lum xatti-harakatlarni belgilangan shaklda amalga oshirishni yoki undan tiyilishni yuklovchi.

Ma’muriy-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan ishtirok etuvchi sub’ektning irodasi ustun bo‘ladi hamda bu jarayonda quyi turuvchi sub’ektning ixtiyorida diskresion imkoniyatlar bo‘lmaydi. Aynan mana shu holatlar korrupsiyaning ma’muriy-huquqiy omillari uchun substansion xususiyat kasb etadi. Har qanday ma’muriy ruxsat berish yoki majburiy kelishish tartibotlari ortida korrupsiyaviy imkoniyatlar yotadi. Ya’ni ruxsat berish evaziga moddiy naf ko‘rish mumkinligi yoki korrupsiyaviy maqsadlar yo‘lida mohiyatan keraksiz ma’muriy tartibotni joriy etish imkoniyatlari (vakolatlari)ning mavjudligi vakolatli shaxslar uchun korrupsiyaviy daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Aynan ma’muriy-huquqiy tartibga solish usullari ayni vaqtda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish usuli sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bunda faqat ushbu usullardan noqonuniy foydalanish nazarda tutilmoqda.

Ma’muriy-huquqiy tartibga solish usullari ko‘p hollarda byurokratik apparatni ham vujudga keltiradi. K.V. Sevryugin ham korrupsiyaning tub mohiyatini davlat apparatining byurokratik tabiati bilan bog‘laydi[9]. Byurokratik apparatning o‘ziga xosligi shundaki, bunda davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlar fuqaroning manfaatlariga mos bo‘lmagan ohangda tarzda tartibga solinadi. Davlat bilan ma’muriy-huquqiy munosabatlarga kirishish fuqaro uchun vaqt, jismoniy kuch sarfi, xarajat va boshqa jihatlardan ancha noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, bu noqulayliklar davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonida o‘zini bor

[9] Севрюгин. К.В. Противодействие коррупции в системе государственной гражданской службы Российской Федерации: административно-правовое исследование: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. – Т., 2011. – ст. 11.

bo‘yi bilan ko‘rsata boshlaydi. Bu borada Z. Turisbekov, J. Djandosova, A. Tagatova hamda N. Shilikbaevalar ham o‘z tadqiqotlari natijasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq ma’muriy to‘siqlarni quyidagicha xarakterlaydilar: vaqt bo‘yicha (noqulay vaqt va ish kuni, murojaatni ko‘rib chiqishni asossiz kechiktirish, qo‘ng‘iroq qilishning qiyinligi yoki imkonsizligi), axborot bo‘yicha (ma’lumotlar oynasining yo‘qligi, rasmiylashtiriladigan hujjatlarning katta ro‘yxati, har bir instansiyada hujjatlarni qaytadan talab qilish), baho (narx) bo‘yicha (blanklarning yo‘qligi, blanklar narxining yuqoriligi, har bir xizmat uchun alohida to‘lovning zarurligi), xodimlar bo‘yicha (xodimning xizmat joyida yo‘qligi, malakasiz xodim, xayrixoh bo‘lmagan xodim, hamkorlikning yomon tashkil etilganligi), qulaylik bo‘yicha (xizmat xonalarining judayam ko‘pligi, to‘lov amalga oshiriladigan joyning xizmat ko‘rsatish joyidan uzoqligi, kutish uchun qulay joyning yo‘qligi), qonuniylik (tanish-bilishlik bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, tovlamachilik, huquqbuzarlikka beparvo munosabatda bo‘lish) bo‘yicha[10].

Ma’muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni onlayn shaklga o‘tkazish bo‘yicha ishlarni davom ettirish lozim. Chunki fuqaro davlatning ma’muriy apparatidan qanchalik jismonan uzoq bo‘lar ekan uning korrupsiya tuzog‘iga tushmaslik ehtimoli ham ortib boraveradi. Mamlakatimizda davlat xizmatlari markazlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi byurokratik tartib-taomillarni yanada liberallashtirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimida korrupsiyaviy omillarni kamaytirishda muhim o‘rin tutmoqda.

*Uchinchidan*, ma’muriy-huquqiy vositalarda korrupsiyaviy omillarni vujudga keltirishning muhim texnologiyalari mavjud. Bu borada O. Oqyulov ham ruxsat berish, tekshirishlar o‘tkazish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va shu kabi tartiblar byurokratik apparatning gullab yashnashi uchun eng qulay zamin ekanligini e’tirof etadi. Demak, davlat boshqaruvidagi byurokratik to‘siqlar, avvalo, idoraviy ish yuritish tartibotlariga borib taqaladi. Afsuski, idoraviy ish yuritish tartibotlari ko‘p hollarda shaxs erkinligini cheklash evaziga tegishli idoraning manfaatlarini bir tomonlama ifodalaydigan tarzda joriy etiladi. Bu esa byurokratiyaning «jon tomiri» bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda milliy huquqshunoslar tomonidan eng kam o‘rganilgan mavzulardan biri ham idoraviy manfaatlar hisoblanadi. Shu

[10] Турисбеков З., Джандосова Ж., Тагатова А., Шиликбаева Н. Административные барьеры как источник коррупционных правонарушений в сфере госслужбы. Алматы, 2007 – с.14.

bilan birga qonun hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish amaliyotida ham idoraviy manfaatlarni aniqlashga oid mexanizmlar mavjud emas.

Olib borgan tahlillarimiz davlat boshqaruvida korputsiyaviy omillarni vujudga keltiruvchi idoraviy manfaatlarni quyidagi guruhlarga tasniflash mumkinligini ko‘rsatmoqda: javobgarlikni o‘zidan uzoqlashtirishga qaratilgan idoraviy manfaatlar; ish yuritish va boshqa vakolatlarini amalga oshirishni osonlashtirishga qaratilgan idoraviy manfaatlar; davlat organining hokimiyat ta’sirini oshirishga qaratilgan idoraviy manfaatlar; korrupsiyaviy ko‘rinishdagi idoraviy manfaatlar.

Korrupsiyaviy ko‘rinishdagi idoraviy manfaatlar davlat organi uchun aslida zarur bo‘lmagan vakolatlarni o‘zida “ushlab qolish”ni nazarda tutadi. Masalan, aslida xususiy sektor tomonidan amalga oshirsa ham bo‘ladigan ayrim faoliyat turlari yoki funksional-mantiqiy jihatdan boshqa davlat organlariga tegishli bo‘lgan vakolatlarning mavjudligi bunga misol bo‘la oladi.

*To‘rtinchidan,* korrupsiyani vujudga keltirish bilan birga uni parvarishlash va yashirish ham aynan ma’muriy-huquqiy vositalar orqali ta’minlanadi. Korrupsiya eng yaxshi ko‘radigan muhit yopiq muhit hisoblanadi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasida davlat organlarining ochiqligini ta’minlashga alohida urg‘u beriladi. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplaridan biri sifatida ham ochiqlik va shaffoflik nazarda tutilgan[11]. Bundan tashqari, davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlardan biri ham aynan davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta’minlash hisoblanadi[12]. Xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amaliyotida ham ochiqlik va shaffoflik asosiy masalalardan biri sifatida tushuniladi. Xususan, Rossiya Federatsiyasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplaridan biri sifatida davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining ochiqligi nazarda tutilgan[13]. Shuningdek, Qozog‘iston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplaridan biri sifatida ham

[11]Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни // https://lex.uz/docs/3088008

[12] Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни // https://lex.uz/docs/3088008

[13] Федеральный закон от 25.12.2008 N 273-ФЗ (ред. от 01.04.2022) "О противодействии коррупции" // http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_82959/

ochiqlik va oshkoralik belgilangan[14]. AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy siyosatida ham davlat organlarining ma’muriy va moliyaviy faoliyati ochiqligini ta’minlash orqali korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha choralar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmonida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta’minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish yuzasidan ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik 33 turdagi ma’lumotlar ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lib korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolar uchun ular tomonidan so‘ralgan ma’lumotlarni taqdim etmaslik yoki yolg‘on axborot berish orqali ham korrupsiyaviy omillarni parvarishlanadi. Bunda tegishli ma’lumotlarni taqdim etishning tartib-taomoillari mavjud emasligi yoki zaifligi asosiy texnologik xususiyat kasb etadi. Masalan, kredit shaffofligining ta’minlanmaganligi banklar faoliyatida korrupsiyaviy omillar uchun asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Boshqaruvga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda boshqaruvning muhim elementi yoki sharti sifatida ochiqlik va shaffoflik deyarli o‘rganilmagan. Bizning nazarimizda boshqaruvda ochiqlik va shaffoflik qadriyat sifatida shakllanishi lozim. Ana shundagina u yashovchan bo‘ladi va shu bilan birga korrupsiyaga qarshi kurashishda asosiy vositalardan biri sifatida o‘z kuchini ko‘rsata oladi.

*Beshinchidan,* komplaens nazoratni joriy etish bevosita ma’muriy huquq bilan bog‘liq hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning turli choralari va vositalari yaratilishining o‘zi kamlik qiladi. Bu chora va vositalar bir tizim bo‘lib birlashmas ekan unda ahamiyatsiz bo‘lib qolaveradi. Komplaens nazorat tizimi esa tashkilotning ma’muriy kompetensiyalari va imkoniyatlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashishning turli choralari va vositalarini o‘zaro bog‘langan tizim sifatida o‘zida birlashtiradi.

[14] Закон Республики Казахстан от 18 ноября 2015 года № 410-V «О противодействии коррупции» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 29.12.2021 г.)

Komplaens nazorat tizimi har bir tashkilot ichida joriy etilar ekan, avvalo ushbu tashkilotning ma’muriy-huquqiy maqomi, ma’muriy apparati, funksional vazifalarni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bunda huquqiy vositalar, tashkiliy jihatlar hamda institutsional asoslar yagona tizimga birlashadi.

Tahlillar milliy qonunchiligimizda komplaens nazorat tizimini joriy etish bilan bog‘liq normalar yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son qarori bilan ilk bor ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish, jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat tizimini joriy etish va uning samaradorligini monitoring qilish vazifasi belgilandi[15]. Biroq mazkur farmon komplaens nazorat tizimini keng joriy etishga kamlik qiladi. Ko‘plab davlatlarda ushbu tizim allaqachon qonun bilan majburiy joriy etilishi lozimligi belgilab qo‘yilgan. Xususan, Foreign Corrupt Practices Act (1977), Sarbanes-Oxley Act (2002), Dodd -Frank Act (2010) singari maxsus qonunlar bilan AQSH bozorida ishtirok etuvchi har qanday korporatsiya va kompaniyalarning o‘z tarkibida komplaens nazorat tizimini tashkil etishni majburiyligi belgilab qo‘yilgan.

Bu o‘rinda ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan Sloveniya qonunchiligi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xususan, 2014-yil 26-aprelida qabul qilingan “Cloveniya davlat xoldingi akti to‘g‘risida”gi (Slovenian sovereign holding Act, 2014) Qonunida komplaens nazorat tizimining maqomi va vakolatlari belgilangan. Qonunning o‘ziga xosligi shundaki, unda komplaens xizmatida kadrlar masalasiga (compliance officer) to‘xtalib o‘tilgan hamda kompaniya ichidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabardor etishga (whistleblowing policy) aniq qoida va tartibni keltirib o‘tadi[16].

Komplaens nazorat tizimi ayniqsa davlat ishtirokidagi tashkilotlar faoliyatida, davlat xaridlari tizimida muhim o‘rin tutadi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda ham komplaens nazorat tizimini joriy etish bo‘yicha yaxlit huquqiy institutlar shakllantirilishi lozim.

---

[15] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 майдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сон қарори.

[16] Исмаилов Б., Мамажонов С. Коррупцияга қарши комплаенс назорати. У нима ва коррупцияга қай даражада барҳам бера олади? // https://m.kun.uz/news/2020/07/20/korrupsiyaga-qarshi-komplayens-nazorati-u-nima-va-korrupsiyaga-qay-darajada-barham-bera-oladi.

Komplaens nazorat tizimining yana bir afzalligi shundaki, komplaens nazorat tizimi xodimlarning xulq-atvoriga nisbatan ham korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma’lum talablarni belgilaydi. Xususan, har bir tashkilotning Korporativ etika kodeksi (Code of Ethics), Sovg‘alar olish va berish siyosati (Gift policy), Huquqbuzarlik to‘g‘risida xabar berish siyosati (Whistleblowing policy), Poraxo‘rlik va korrupsiya siyosati (Whistleblowing policy), Jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish siyosati (Fight against Money Laundering and Terrorist Financing), Ma’lumotlarning xavfsizligi siyosati, Manfaatlar to‘qnashuvi siyosati (“Xitoy devorlari” siyosati “Chinese Walls”) kabi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini ifodalovchi ichki me’yoriy talablari yaratiladi va joriy etiladi.

A.Yu. Vatel davlat xizmatchilarining xizmat xulq-atvoriga ma’muriy taqiqlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega, chunki tegishli vositalar xodimga ruxsat etilgan xatti-harakatlar chegaralaridan chiqib ketishiga imkon bermaydi, deb hisoblaydi[17]. Chindan ham xodimning xulq-atvoriga nisbatan korrupsiyaga qarshi qo‘yilgan cheklov va ta’qiqlar uni korrupsiyaviy muhit va vaziyatlardan uzoqroq yurishga majbur qiladi.

*Oltinchidan,* korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa huquqiy choralari bevosita ma’muriy-huquqiy choralarga bog‘liq bo‘lib, mazkur choralarining samarasizligi korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa huquqiy choralarining kuchni so‘ndiradi. Masalan yuqorida ko‘rib chiqilgan komplaens nazorat tizimi aynan ma’muriy-huquqiy choralar orqali ta’minlanadi.

Ma’muriy-huquqiy vositalar korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa huquqiy choralarini quyidagi ikki shaklda joriy etilishini ta’minlaydi:

a) korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy choralarini amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi. Bunda asosan oldini olish bilan bog‘liq choralarni amalga oshirishda ma’muriy-huquqiy choralardan foydalaniladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan[18]. Xususan, davlat boshqaruvi sohasida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, manfaatlar to‘qnashuvining oldini

[17] Ватель А.Ю. Административно-правовое регулирование антикоррупцинных стандартов служебного поведения государственных гражданских служащ: Дис. … канд. юрид. наук. – Москва, 2013. – ст. 16.

[18] Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни // https://lex.uz/docs/3088008

olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar, ma’muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar bevosita ma’muriy-huquqiy normalar orqali ta’minlanadi. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqaroviy-huquqiy choralari ham aynan ma’muriy-huquqiy normalar orqali amalga oshiriladi;

b) korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy choralari bajarilmaganligi uchun majburlovchi ta’sirga ega vosita – ma’muriy jazo choralari. Mamlakatimiz milliy qonunchiligida korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq choralarni ko‘rmaganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilanmagan. Xususan, ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni joylashtirmaganlik uchun tashkilot rahbariga (yoki mas’ul xodimiga) nisbatan huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash asoslari mavjud emas. Demak, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun intizomiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlik institutini joriy etish lozim. Masalan bu borada B.M. Ismoilov ham xizmat vazifalarini bajarishda xodimlarning manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini lozim darajada tartibga solish, shuningdek ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish lozimligi to‘g‘risida fikr bildirgan[19]. Darhaqiqat, bugungi kunda davlat organlari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha yagona mexanimlar mavjud emas. Hatto bu borada ma’um darajada tushuncha va ko‘nikmalar ham shakllanmagan.

*Yettinchidan,* normativ-huquqiy omillar ham davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashishning ma’muriy-huquqiy jihatlari bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Bu borada O.A.Slepkova korrupsiyaga qarshi kurashish ekspertizasini korrupsiyaga qarshi kurashishning ma’muriy-huquqiy elementi ekanligini ta’kidlar ekan, ushbu tushunchaga amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan maxsus vakolatli sub’ektlar tomonidan o‘tkaziladigan, normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiya omillarini aniqlash hamda keyinchalik bartaraf etishga qaratilgan, natijasi asoslantirilgan ekspertlik faoliyati xulosasida albatta aks etadigan davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining profilaktik chorasi sifatida ta’rif beradi[20]. Bu yerda muallifning ta’rifidan shu narsa

[19] Исмоилов Б.М. Коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги қонунчилик ижроси устидан прокурор назоратини такомиллаштириш: автореф. дис. автореф … ю.ф.б.ф.д – Тошкент, 2021. – б. 10.

[20] Слепкова О.А. Понятие и особенности антикоррупционной экспертизы нормативных правовых актов и проектов нормативных правовых актов ФТС России // NB: Административное право и практика

anglashiladiki, korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertiza ma’muriy-huquqiy makonda amaga oshiriladi.

Tahlillar asosida amaldagi ko‘plab qonunchilik hujjatlarida korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillar mavjudligi aniqlandi. Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish masalalari juda keng o‘rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ammo aksariyat tadqiqotlar tegishli normativ-huquqiy hujjat yoki ularning loyihalarida korrupsiyani bevosita keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganishadi. Biroq korrupsiyani bilvosita keltirib chiqaruvchi omillar haqida so‘z yuritilmagan. Boshqacha aytganda, normativ-huquqiy hujjat va ular loyihalarining konsepsiyasi, g‘oyasi boshqa normativ-huquqiy hujjat va ular loyihalarining konsepsiyasi va g‘oyasi bilar birgalikda korrupsiyaviy omillarni vujudga keltiradi. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining 29-moddasiga ko‘ra korrupsiyaga qarshi ekspertiza: normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga nisbatan – ishlab chiquvchilar, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan; normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan o‘tkazilishi belgilangan[21].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarori bilan 2018-yil 1-maydan boshlab barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari loyihani ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga jamoatchilik muhokamasi o‘tkazilishi uchun joylashtirilishi lozimligi belgilangan edi[22]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarori yuqoridagi norma o‘zgartirilgan holda “muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari,

администрирования. – 2014. – № 2. – С. 73 - 84. DOI: 10.7256/2306-9945.2014.2.10998 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=10998.

[21] Ўзбекистон Республикасининг “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги Қонуни // https://lex.uz/docs/5378966.

[22] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3666-сон қарори // https://lex.uz/docs/3681790.

qoida tariqasida, loyihani ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga (regulation.gov.uz) jamoatchilik muhokamasi o‘tkazilishi uchun joylashtirilishi lozim”ligi belgilandi[23]. Bu o‘rinda muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga qaysi loyihalar kirishi ham aniqlashtirilishi lozim, deb o‘ylaymiz. Chunki ushbu norma loyihani ishlab chiquvchi tashkilotlarga diskresion vakolatlar taqdim etadi.

Bugungi kunda nazariy huquqshunoslik hamda huquqni qo‘llash amaliyotida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning chegaralari yoki mezonlari haqida bosh qotirilmayapti. Boshqacha aytganda, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning darajasi va dinamikasi e’tibordan chetda qolmoqda. Bu esa korrupsiyaviy omillarni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. Ma’lum jarayonlarni “a-dan ya-gacha” tartibga solish to‘g‘ri emas, shu bilan birga ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishdan tashqarida qoldirish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu borada ma’lum mezonlar bo‘lishi darkor. Ijtimoiy munosabatga davlatning huquqiy ta’siri strategik va taktik shaklda bo‘lishi kerak.

*Sakkizinchidan,* korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim choralaridan biri intizomiy javobgarlikning ham ma’muriy huquq bilan bog‘liqligi. Milliy huquqshunosligimizda eng kam o‘rganilgan masalalardan biri intizomiy javobgarlik hisoblanadi. Yevropa mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda intizomiy javobgarlik eng muhim choralarda biri sifatida belgilangan.

A.V. Kurakin korrupsiyaning oldini olish va uni to‘xtatish vositasi sifatida intizomiy ish yurituvni takomillashtirish lozimligi, bunda intizomiy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish vaqtini, intizomiy ish yuritishning vazifalarini, intizomiy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni yuritishdan tashqari holatlarni, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi hamda boshqa holatlarni aniqlash, ushbu ish yurituvida qatnashchilarning holatini, intizomiy huquqbuzarlik holatida aniqlashtiriladigan holatlarni, intizomiy huquqbuzarlik holatida ish yuritishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish tartibini, intizomiy huquqbuzarlik va intizomiy jazo choralarini qo‘llash bo‘yicha ish yuritishni ta’minlashni, qarorni ijro etish tartibini belgilashni, shuningdek, tegishli asoslar mavjud bo‘lganda, intizomiy jazoni erta olib

[23] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги “Фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш ҳамда ҳуқуқий хизмат кўрсатишда адлия органлари ва муассасалари фаолияти самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3666-сон қарори // https://lex.uz/docs/5914998?ONDATE=18.03.2022%2000#5916301.

tashlashning ma’muriy-protsessual mexanizmini batafsilroq aniqlashtirish maqsadga muvofiq degan fikrni bildiradi[24]. Biz ham ushbu muallifning fikriga to‘la qo‘shilamiz. Intizomiy javobgarlik komplaens nazorat tizimini xodimlarning xulq-atvoriga nisbatan ham korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talablarning bajarilishini ta’minlashning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Jumladan Korporativ etika kodeksi (Code of Ethics), Sovg‘alar olish va berish siyosati (Gift policy), Huquqbuzarlik to‘g‘risida xabar berish siyosati (Whistleblowing policy), Poraxo‘rlik va korrupsiya siyosati (Whistleblowing policy), Jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish siyosati (Fight against Money Laundering and Terrorist Financing), Ma’lumotlarning xavfsizligi siyosati, Manfaatlar to‘qnashuvi siyosati (“Xitoy devorlari” siyosati “Chinese Walls”) kabi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini ifodalovchi ichki me’yoriy hujjatlardagi talablarga amal qilmaganlik uchun xodimga intizomiy javobgarlik qo‘llanilishi talab etiladi.

*To‘qqizinchidan,* ma’muriy-huquqiy bo‘shliqlar ham korrupsiyaviy omillarning vujudga kelishiga xizmat qiladi. Ko‘p hollarda qonun hujjatlarida huquqiy bo‘shliqlar alohida mansabdor shaxslarga asossiz keng vakolatlar beruvchi idoraviy hujjatlarni qabul qilish imkonini beradi[25]. Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash uslubiyotida qonun hujjatlaridagi bo‘shliqlarning qonun osti hujjatlari yordamida to‘ldirilishi tor idoraviy yondashuv holatlarini keltirib chiqarishi mumkinligi belgilangan[26].

Ma’muriy-huquqiy bo‘shliqlar haqida so‘z yuritilganda qaysi holatlarni bo‘shliq deb tushunish kerak degan savolga normativ hamda metodik aniq javob berish mushkul. Bugungi kunda huquqiy tartibga solish bo‘yicha davlat siyosati aniq shakllanmagan. Qaysi munosabatlarni qonun bilan tartibga solish kerakligi to‘g‘risida “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunda eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlar qonun bilan tartibga solinishi nazarda tutilgan. Ammo qaysi ijtimoiy munosabatlar “eng muhim va barqaror” ijtimoiy munosabat

[24] Куракин А.В. Административно-правовые средства предупреждения и пресечения коррупции в системе государственной службы Российской Федерации: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. – Люберцы, 2008. – с. 11.

[25] Чистов А.А. Административно-правовое регулирование противодействия коррупции в федеральных органах исполнительной власти в современных условиях: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. – Москва, 2010. – с 19.

[26] Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2021 йил 24 февралдаги “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва улар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизасини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги2-мҳ-сон буйруғи // https://lex.uz/docs/5306922

hisoblanishi belgilanmagan. Shu bilan birga muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda “qonun – Vazirlar Mahkamasi qarori – idoraviy normativ-huquqiy hujjat” tamoyiliga amal qilinadi. Bizning nazarimizda bu jarayon “qonun – Vazirlar Mahkamasi qarori” tamoyiliga o‘tishi kerak.

Ma’muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to‘liq emasligi asosan quyidagilarda ko‘rinadi: davlat organining harakatlari va vakolatlarini amalga oshirish tartibga solinmaganligi; vakolatlarni bajarish protsessual tartibining belgilanmaganligi; davlat organlari tomonidan ma’muriy tartib-taomillarni bajarish uchun asoslarning mavjud emasligi yoki noaniqligi; qabul qilinayotgan qarorni asoslab berish majburiyatining mavjud emasligi; huquqiy bo‘shliqlar mavjudligi; jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan huquqlarni amalga oshirishning aniq tartibga solinmaganligi; amalga oshirilishining aniq mexanizmiga ega bo‘lmagan normalarning mavjudligi[27].

*O‘ninchidan,* korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslari, ya’ni tegishli sub’ektlarning huquqiy maqomi, kompetensiyasi va o‘zaro yaxlit boshqaruv tizimida ifodalanishi bilan bog‘liq masalalar alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatli organlar sifatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti belgilangan. Albatta korrupsiyaga qarshi kurashuvchi sub’ektlar bular bilan cheklanmaydi. Ammo sanab o‘tilgan mazkur sub’ektlar korrupsiyaga qarshi kurashishning markaziy sub’ektlari sifatida muhim vakolatlari amalga oshiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2021 йил 24 февралдаги “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва улар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизасини ўтказиш тартиби тўғрисидаги

[27] Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2021 йил 24 февралдаги “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва улар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизасини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги2-мҳ-сон буйруғи // https://lex.uz/docs/5306922

низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 2-мҳ-сон буйруғи // https://lex.uz/docs/5306922.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3666-сон қарори // https://lex.uz/docs/3681790.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги “Фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш ҳамда ҳуқуқий хизмат кўрсатишда адлия органлари ва муассасалари фаолияти самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3666-сон қарори // https://lex.uz/docs/5914998?ONDATE=18.03.2022%2000#5916301.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 майдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сон қарори.

5. Odilqoriyev H.T., Ismailov I., Ismailov N.T. va boshq. Ma’muriy huquq: Darslik.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – Б. 176.

6. Абдурасулова Қ.Р. Коррупция жиноятчилигининг умумий тавсифи, сабаблари ва олдини олиш // Коррупцияга қарши курашиш ва комплаенс-назорат тизимини жорий этиш: муаммолар ва ривожланиш истиқболлари (халқаро онлайн илмийамалий семинари материаллари тўплами). Т.: ТДЮУ, 2020. Б. 24.

7. Алимов Х.Р., Махмудов А.А., Исмоилов Н.Т. Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2002. – Б. 77.

Балдин А.К. Правовые вопросы организации проведения антикоррупционной экспертизы нормативных правовых актов органами Минюста России: Дис. … канд. юрид. наук. – Нижний Новгород, 2014. – с. 17.

8. Ватель А.Ю. Административно-правовое регулирование антикоррупцинных стандартов служебного поведения государственных гражданских служащ: Дис. … канд. юрид. наук. – Москва, 2013. – ст. 10-11.

9. Закон Республики Казахстан от 18 ноября 2015 года № 410-V «О противодействии коррупции» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 29.12.2021 г.)

10. Исмаилов Б., Мамажонов С. Коррупцияга қарши комплаенс назорати. У нима ва коррупцияга қай даражада барҳам бера олади? // https://m.kun.uz/news/2020/07/20/korrupsiyaga-qarshi-komplayens-nazorati-u-nima-va-korrupsiyaga-qay-darajada-barham-bera-oladi.

11. Исмоилов Б.М. Коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги қонунчилик ижроси устидан прокурор назоратини такомиллаштириш: автореф. дис. автореф … ю.ф.б.ф.д – Тошкент, 2021. – б. 10.

12. Куракин А.В. Административно-правовые средства предупреждения и пресечения коррупции в системе государственной службы Российской Федерации: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. – Люберцы, 2008. – с. 11.

13. Лопатин В.Н. О системном подходе в антикоррупционной политике / В.Н. Лопатин // Государство и право. – 2001. – № 7. – С. 23.

13. Севрюгин. К.В. Противодействие коррупции в системе государственной гражданской службы Российской Федерации: административно-правовое исследование: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. – Т., 2011. – ст. 11.

14. Слепкова О.А. Понятие и особенности антикоррупционной экспертизы нормативных правовых актов и проектов нормативных правовых актов ФТС России // NB: Административное право и практика администрирования. – 2014. – № 2. – С. 73 - 84. DOI: 10.7256/2306-9945.2014.2.10998 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=10998.

15. Турисбеков З., Джандосова Ж., Тагатова А., Шиликбаева Н. Административные барьеры как источник коррупционных правонарушений в сфере госслужбы. Алматы, 2007 – с.14.

16. Федеральный закон от 25.12.2008 N 273-ФЗ (ред. от 01.04.2022) "О противодействии коррупции" // http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_82959/

17. Хакимов Р.Р. Давлат ҳокимияти тармоқлари ўртасида мувозанатни таъминлашнинг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш: Автореф. юрид. фан. док. ... дис. – Т., 2018. – Б. 13.

18. Чистов А.А. Административно-правовое регулирование противодействия коррупции в федеральных органах исполнительной власти в современных условиях: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. – Москва, 2010. – с 19.

# ОСОБЕННОСТИ РАССЛЕДОВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШЕННЫХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

***А.Дж. Хусанов*** *сотрудник Главного экспертно-криминалистического центра МВД Республики Узбекистан доктор философии по юридическим наукам, (PhD), доцент*

Пока мы спокойно пользуемся своими ноутбуками и телефонами за нашими данными происходит охота. Преступления в сфере финансов, в сфере личной жизни (шантаж) и т.д., где все следы **в цифре**, а этих преступников связывает лишь **сеть**.

Для начала стоит отметить, что большая часть информационных атак ни на кого конкретно не нацелена. В качестве наглядного примера приведены показатели произошедших киберпреступлений на территории РУз., и РФ за последние 5 лет.

Помимо мошенничества и вымогательства, направленных на частных лиц, участились атаки программ-вымогателей на организации, включая мед и госучреждения. Удаленная работа также увеличила число потенциальных жертв. С одной стороны, киберпреступники активно используют возникшие уязвимости, с другой – это может дать новые возможности для выявления и задержания злоумышленников правоохранительным органам.

В обеих странах основная масса преступлений- это мошенничество и кражи с банковских карт, использующие методы социальной инженерии. МВД Узбекистана отмечает критический рост вовлеченности населения в цифровые преступления, в это время как в РФ акцент смещается на массовые фишинговые атаки.

Фишинговые атаки – вид интернет- мошенничества, использующий методы социальной инженерии для кражи конфиденциальных данных (паролей, логинов, данных банковских карт). Злоумышленники выдают себя за доверенные организации

(банки, соц. сети, госорганы) через поддельные письма или сайты, принуждая пользователей добровольно передать информацию.

Киберпреступники используя цифровые технологии, скрываясь за никнеймами, маскируя свою личность, используя вредоносные программы и социальную инженерию ошибочно полагают что их будет невозможно найти.

- *Но как писал Дэн Браун в своей книге «Цифровая крепость» возможно всё; на невозможное просто требуется больше времени. …*

Как и любые противоправные деяния, киберпреступления имеют свои детерминанты. Одним из детерминантов является доступность компьютерных сетей, она предоставляет преступникам возможность выбирать определенные государства, на территории которых правовая последовательность их преступной деятельности или не влечет за собой значимой ответственности или вовсе не считается преступлением. Так же проявляя легкомысленное отношение к цифровой гигиене люди лишают себя информационной безопасности. Высокая анонимность в интернете используется для совершения кибератак. Ну и конечно же пробелы в законодательстве. Не во всех странах законом урегулирован подход к расследованию данного типа преступлений.

Для правоохранительных органов расследование таких преступлений представляет значительные трудности. Вся противоправная деятельность осуществляется в киберпространстве, что исключает материальные следы преступления.

***Основные проблемы заключаются в следующем:***

- высокая латентность киберпреступлений. Многие факты остаются не выявленными, что затрудняет оценку масштабов и динамики.

- длительность процедур получения разрешений на доступ к электронным устройствам и источникам информации, в то время как сами преступления совершаются в течении буквально нескольких минут, а иногда ещё раньше.

- сложности оперативного взаимодействия из-за трансграничного характера киберпреступлений и различий правовых систем.

- пробелы в законодательстве, отсутствие единых подходов к квалификации и уголовному преследованию.

- недостаточно развитая техническая база и кадровый дефицит специалистов, способных расследовать преступления в сфере высоких технологий.

И для эффективного противодействия киберпреступности необходима комплексная стратегия. Подход *средства* ***для*** *достижения* ***цели всегда имеются. Их надо только увидеть в том, что тебя окружает*** и в качестве предложений мы выделим следующие направления:

1. Необходимо проводить обучение и сертификацию сотрудников правоохранительных органов в области цифровой криминалистики и методов расследования киберпреступлений, а также организовывать постоянное повышение квалификации для адаптации к новым технологиям и формам преступной деятельности в киберпространстве. Должно быть налажено эффективное взаимодействие с экспертами в сфере информационной безопасности и представителями IT-индустрии.

2. Необходимо использовать современные инструменты и методики для сбора и анализа цифровых доказательств, обеспечив соответствие процессуальным нормам. Следует наладить взаимодействие с поставщиками облачных услуг и социальных сетей для оперативного получения данных о пользователях при соблюдении законодательства о конфиденциальности. Требуется разработка правовых механизмов регулирования доступа правоохранительных органов к электронным доказательствам.

3. Поскольку киберпреступления часто носят транснациональный характер, необходимо наладить тесное сотрудничество с зарубежными правоохранительными органами и спецслужбами для проведения расследований преступлений с участием нескольких юрисдикций, а также гармонизировать национальные законодательства в области кибербезопасности. **Одним словом, создания упрощённого метода обмена информацией на межгосударственном уровне.**

4. Следует утвердить постоянное бюджетное финансирование для обучения кадров, разработки новых методик расследования киберпреступлений и закупки необходимых технических средств. Целесообразно стимулировать исследования и инновационные разработки в области цифровой криминалистики.

5. Необходимо обеспечить строгое соблюдение законодательства о защите персональных данных и

неприкосновенности частной жизни при проведении следственных действий и работе с электронными доказательствами. Сотрудники правоохранительных органов должны регулярно проходить инструктажи по вопросам этики и конфиденциальности в цифровой среде.

6. Важно активизировать международное сотрудничество правоохранительных органов и обмен опытом расследования киберпреступлений, создавать совместные базы данных и реестры киберпреступников.

7. Необходимо проводить просветительские мероприятия для населения о видах киберпреступлений и мерах по их предотвращению, популяризировать правила цифровой гигиены и ответственного поведения в сети.

8. Следует стимулировать разработку и внедрение новых технологий кибербезопасности, совершенствовать системы реагирования на киберинциденты.

*Нам всем хорошо известно, что* ***Стив Джобс*** *добился успеха* ***в 21 веке.*** *Вы спросите как? Я отвечу, просто он соединил* ***креативность и технологии****. И если мы тоже хотим добиться успеха в расследовании киберпреступлений, мы считаем, целесообразно поступить так же.*

## RAQAMLI HUQUQ YO‘NALISHIDAGI ISLOHOTLARNING JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGIGA JORIY ETILISHI

***M.E. Muminov*** *O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual huquq kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan huquqiy munosabatlarga ham chuqur kirib bormoqda. Jinoyat sodir etishning yangi usullari, elektron muhitdagi dalillar, masofadan tergov va sud muhokamasini olib borish zarurati kabi

masalalar jinoyat-protsessual qonunchilikning raqamli transformatsiyasini talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ana shu jarayonda so‘nggi yillarda jiddiy va izchil qadamlarni qo‘ymoqda.

Bugungi ma’ruzamda sizlarga raqamli huquq yo‘nalishidagi qonunchilik islohotlarini, ularning amaliy natijalarini va oldimizda turgan vazifalarni ma’lum darajada yoritib berishga harakat qilaman.

Xususan, jinoyat-protsessual qonunchilik tizimida o‘tkazilgan huquq islohotlarini quyidagi yo‘nalishlarga ajratgan holda bayon etish mumkin

2024-yil 21-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining **O‘RQ-1003-son Qonuni** qabul qilindi. Ushbu qonunning rasmiy nomi: “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”.

Ushbu qonun jinoyat-protsessual qonunchiligimizga bir qator prinsipial o‘zgartishlar kiritdi. Birinchi navbatda, Jinoyat-protsessual kodeksga yangi moddalar qo‘shildi:

**$204^1$-modda (Elektron ma’lumotlar)** – elektron ma’lumotlar tushunchasini belgiladi. Qonunga ko‘ra, elektron ma’lumotlar – bu elektron qurilmalar va axborot tizimlari, shuningdek axborot texnologiyalari yordamida yaratilayotgan, qayta ishlanayotgan va saqlanayotgan ma’lumotlardir.

**$204^2$-modda (Raqamli dalillar)** – raqamli dalillar tushunchasini aniqlaydi. Raqamli dalillar – bu elektron ma’lumotlardan iborat bo‘lib, ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan, shu jumladan elektron shakldagi fayllar, audio-, videoyozuvlar, Internet tarmog‘ida saqlanayotgan ma’lumotlar va boshqa elektron ma’lumotlardir.

2024-yil 21-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-1003-son Qonun nafaqat Jinoyat-protsessual kodeksiga, balki bir qator qonunlarga o‘zgartishlar kiritildi. Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksiga, Iqtisodiy protsessual kodeksiga, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga va Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksga tegishli qo‘shimchalar kiritildi. “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunga ham o‘zgartish kiritilib, sud ekspertizasi obyektlari qatoriga raqamli dalillar kiritildi.

Jinoyat-protsessual kodeksining mavjud moddalarida ham tizimli o‘zgartishlar amalga oshirildi. 105-modda (Narsalarni, hujjatlarni va elektron ma’lumotlarni taqdim etish), 180-modda (ashyoviy, yozma va

**raqamli** dalillar) yangi tahrirda belginadi. 201¹-modda (Elektron ma’lumotlarni o‘z tashabbusi bilan taqdim etish) ham qo‘shildi.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 205-moddasi (Ashyoviy, yozma **va raqamli** dalillarni olish usullari) hamda 208-modda (Ashyoviy, yozma **va raqamli** dalillarni saqlash hamda boshqa joyga yuborish) tegishli tarzda yangilandi. Bu o‘zgartishlar mohiyatan raqamli dalillarga ashyoviy va yozma dalillar bilan teng huquqiy maqom berilganligini anglatadi.

Qonunchilik islohotlari bilan parallel ravishda institutsional o‘zgarishlar ham amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi **PQ-229-son qarori** bilan raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish choralari belgilandi.

Ushbu qarorga muvofiq, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzurida Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Institut tarkibida Raqamli tadqiqotlar maxsus markazi, Raqamli tergovga ko‘maklashish bo‘limi, Metodik yordam ko‘rsatish bo‘limi va Raqamli kriminalistika laboratoriyasi faoliyat yuritishi belgilandi.

Ushbu qaror bilan institutga quyidagi vazifalar yuklatildi: raqamli kriminalistika sohasida innovatsion tadqiqotlar olib borish; sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar va boshqa ilg‘or texnologiyalarni tahlil etish va amaliyotga joriy etish; huquqni muhofaza qiluvchi organlarga raqamli dalillarni aniqlash, olib qo‘yish, saqlash va tahlil etishda amaliy yordam ko‘rsatish.

E’tiboringizni yana bir muhim tizimga qaratmoqchiman. Ushbu qaror bilan Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining takliflari ma’qullanib, **«Raqamli dalillarning yagona reestri»** nomli Idoralararo avtomatlashtirilgan tizim joriy etish belgilandi.

Yagona reestrning asosiy vazifalari huquqni muhofaza qiluvchi organlardan kelib tushadigan jinoyat ishlariga doir materiallarni to‘plash, hisobga olish, saqlash va tekshirish; jinoyatlarni fosh etish samaradorligini oshirish; jinoiy guruhlarni tezkor aniqlashdan iborat. Reestrda fotosuratlar, video-, audioyozuvlar, elektron hamyonlar manzillari, kriptoaktivlar, IP-manzillar, Internet manzillar (domenlar), hisob yozuvlari (akkauntlar) kabi ma’lumotlar jamlanadi.

Raqamlashtirish yo‘nalishidagi yana bir muhim qadam bu – Jinoyat-protsessual kodeksiga videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlarini o‘tkazish imkoniyatining kiritilganligidir. 2019-yildagi O‘RQ-542-son Qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga 91¹–91⁴-moddalar qo‘shildi.

Jinoyat-protsessual kodeksi 91¹-moddasiga muvofiq, guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar ishtirokidagi tergov harakatlari – so‘roq, shaxslarni va narsalarni tanib olish, yuzlashtirish – videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilishi mumkin. Bu rejim shaxs sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra bevosita kelish imkoniyati bo‘lmaganda, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash zarurati tug‘ilganda, kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari o‘tkazilganda va tergov harakatini o‘tkazish qiyinlashishi yoki ortiqcha xarajatlar keltirib chiqarishi mumkinligi haqida asosli sabablar mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi.

Qonunda texnik vositalarga aniq talablar belgilangan: tasvir sifati kamida 1920×1080 piksel, sekundiga 50 kadr; ovoz chastotasi 100–12000 Gs; axborot xavfsizligi uchun VPN himoyalangan aloqa kanalidan foydalanish belgilab qo‘yilgan.

Prezidentimizning 2020-yil 10-avgustdagi farmoni bilan Toshkent shahar prokuraturasi tergov bo‘linmalari va Ichki ishlar bosh boshqarmasi tergov boshqarmasida videokonferensaloqa rejimida tergov o‘tkazish amaliyoti keng yo‘lga qo‘yildi. Jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalari tegishli texnik vositalar bilan jihozlandi.

Sud tizimida ham keng ko‘lamli raqamlashtirish jarayoni davom etmoqda. 2017–2020-yillarda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturi doirasida bir qator tizimlar ishga tushirildi. Xususan, sudlarga masofadan turib murojaat qilish; sud majlislarida videokonferensaloqa tizimidan foydalanib ishtirok etish; sudyalar o‘rtasida ishlarni avtomatik taqsimlash; sud qarorlarini Internet tarmog‘ida e’lon qilish; ijro hujjatlarini elektron shaklda majburiy ijroga yuborish tizimidir.

Yana bir muhim qadam sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-son “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qaroriga **2025-yil 23-iyundagi 14-son qaror** bilan muhim o‘zgartishlar kiritildi. Bu qarorga ko‘ra, zarur hollarda hujjatlar, predmetlar, elektron ma’lumotlar, fotosuratlar, audio-, videoyozuvlarni ashyoviy, yozma **va raqamli** dalil sifatida ishga qo‘shish masalasini hal etish uchun tegishli ekspertiza tayinlanishi mumkinligi belgilandi.

Bu qaror amaliy jihatdan juda ahamiyatli. Xususan, sud amaliyotida raqamli dalillarga baho berish va ularni tekshirish bo‘yicha yagona standartlar shakllanmoqda. Endi raqamli dalillarning maqbulligini

baholashda Jinoyat-protsessual kodeksining 95¹-moddasi talablari to‘liq qo‘llaniladi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar muhim yutuqlar bo‘lish bilan birga, bir qator muammolar ham mavjud:

**Birinchidan,** raqamli dalillarning o‘ziga xosligi – konfidensiallik va texnik murakkablik masalalari yetarli tartibga solinmagan. Ma’lumotlarni minimallashtirish mexanizmi va sud nazorati darajasi masalalarida qonunchilik bo‘shliqlari mavjud.

**Ikkinchidan,** tergovchi va surishtiruvchilarning raqamli kriminalistika sohasidagi malakasi yetarli emas. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini raqamli dalillarni aniqlash, saqlash va tahlil etish bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslaridan o‘tkazish zarur.

**Uchinchidan,** Jinoyat-protsessual kodeksining 89-moddasida raqamli dalillar bo‘yicha prokuror sanksiyasi yoki sud ruxsati olish mezonlari yetarlicha aniqlanmagan. Tergov harakatlari uchun qaysi holatda prokuror sanksiyasi, qaysi holatda sud ruxsati talab etilishi aniq belgilanishi zarur.

**To‘rtinchidan,** elektron qurilmalarni olib qo‘yish va ko‘zdan kechirishga doir tergov harakatlarini o‘tkazishda fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy ma’lumotlar va yozishmalar sirini himoya qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy kafolatlarning protsessual mexanizmlari takomillashtirilishi lozim.

Hurmatli hamkasblar!

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligini raqamlashtirish borasida jiddiy qadamlar qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasining **O‘RQ-1003-son Qonun** bilan raqamli dalillar institutining Jinoyat-protsessual kodeksiga joriy etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **PQ-229-son qaror** bilan raqamli kriminalistika infratuzilmasining yaratilishi, videokonferensaloqa rejimidagi tergov harakatlarining qonuniy mustahkamlanishi, sud tizimining raqamlashtirilishi – bularning barchasi bir yagona maqsadga – odil va samarali sudlovni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ammo islohotlar doimiy jarayon. Raqamli dalillarning butunligini ta’minlash mexanizmlari, malakali kadrlar tayyorlash, xalqaro standartlarni qonunchilikka integratsiya qilish, shaxsiy ma’lumotlar himoyasini kuchaytirish – bularning barchasi oldimizda turgan dolzarb vazifalardir.

Ishonchim komilki, ilm-fan va amaliyot vakillarining birlashgan sa’y-harakatlari mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligini zamon talablariga to‘liq moslashtirishga xizmat qiladi.

## O‘ZBEKISTONDA SUD JARAYONIGA SUN’IY INTELLEKTNI JORIY ETISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

***Q.Avezov**, “Wincase law firm” yuridik konsalting firmasi asoschisi va rahbari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Sun’iy intellekt (keyingi o‘rinlarda – SI) bugun ilmiy fantastika sahifalaridan chiqib, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va huquq sohasining real qismiga aylandi. Sud-huquq tizimi ham bu jarayondan chetda qolmadi, ya’ni ko‘plab davlatlar ishlarni tezkor ko‘rib chiqish, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish va sud yuklamasini yengillashtirish maqsadida SI texnologiyalaridan foydalanishni boshladi.

O‘zbekiston bu yo‘nalishda jiddiy qadam tashladi. Prezidentning 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son farmoni bilan sudlar faoliyatiga SI texnologiyalarini joriy etish va “Raqamli sud” konsepsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilandi. Hujjatga ko‘ra, fuqaro sudga ariza berishdan oldin SI yordamida ish natijasining taxminiy prognozi va sud xarajatlari hisoblab beriladi, sud hujjatlari loyihalari avtomatik shakllantiriladi, “my.sud.uz” portalida esa SI asosidagi virtual maslahatchi ishga tushiriladi. Bu – nafaqat texnologik, balki tarixiy ahamiyatga ega islohot.

Biroq har qanday islohotda asosiy savol bitta bo‘ladi: *biz tayyormizmi?* Mening nazarimda, hozir texnologiya huquqiy va institutsional jihatdan juda tez rivojlanmoqda. Shu sababli ushbu maqolaning asosiy tezisi quyidagicha: O‘zbekistonda SI sud jarayoniga sudyani almashtiruvchi emas, balki **ko‘makchi vosita** sifatida, milliy huquqiy tizim xususiyatlarini hisobga olib, ehtiyotkorlik bilan joriy etilishi shart. Quyida bu yo‘ldagi asosiy muammolar va ularning mumkin bo‘lgan yechimlarini tahlil qilamiz.

**Birinchi muammo – ochiq va tizimlashtirilgan ma’lumotlar bazasining yetishmovchiligi.** Har qanday SI tizimi o‘zi “o‘rgangan” ma’lumotlar asosida natija beradi – bu informatikadagi “garbage in, garbage out” (sifatsiz kirish – sifatsiz chiqish) tamoyilidir. Sud hujjatlari

va qarorlarining yagona, ochiq va izchil bazasi bo‘lmasa, SI vositalarining samaradorligi cheklangan bo‘ladi. Amalda ko‘plab sud qarorlari ommaga to‘liq ochiq e’lon qilinmaydi yoki turli formatlarda saqlanadi, bu esa ham SI ni “o‘qitish” uchun, ham ochiqlik va to‘g‘ri tahlil qila olish uchun ham jiddiy to‘siq hisoblanadi.

**Ikkinchi muammo – sud amaliyotidagi bir xillikning yetarli emasligi.** O‘zbekistonda o‘xshash nizolar bo‘yicha turlicha qarorlar chiqarilishi hollari uchrab turadi. Algoritm esa aniq va barqaror prognoz berishi uchun yagona va izchil sud amaliyotiga muhtoj. Qiziq jihati shundaki, PF-140-son farmonning o‘zida ham “yagona sud amaliyotini shakllantirish” vazifa qilib qo‘yilgan – demak, bu muammo davlat darajasida ham anglab yetilgan.

**Uchinchi muammo – inson omili va raqamli savodxonlik.** Bugungi kunda ko‘plab amaliyotchi yuristlar algoritmlarning ishlash prinsipi va ularda yuzaga keladigan xatoliklar haqida yetarli bilimga ega emas. Kelajak yuristlarini tayyorlashda esa bu ko‘nikmalar tobora zarur bo‘lib bormoqda. Bu yerda eng katta xavf – *avtomatlashtirilgan tavsiyaga haddan tashqari tayanish* (automation bias): sudya yoki yurist SI bergan xulosani tanqidiy baholamay qabul qilib qo‘yishi mumkin.

**To‘rtinchi muammo – algoritmik shaffoflik va diskriminatsiya.** Zamonaviy SI modellari ko‘pincha “qora quti” (black box) bo‘lib, ular qanday xulosaga kelganini tushuntirib bera olmaydi. Agar tizim bir tomonlama yoki noto‘g’ri ma’lumotlar asosida o‘qitilsa, ayrim shaxslar yoki tashkilotlarga nisbatan adolatsiz xulosa chiqarishi mumkin. Yevropa Ittifoqi sud tizimidagi SI ni “yuqori xavfli” toifaga kiritib, qat’iy nazorat o‘rnatgani ham bejiz emas – shaffoflik va nazorat bu sohada birlamchi ahamiyatga ega.

**Beshinchi muammo – huquqiy maqom va javobgarlik.** Agar SI tavsiyasi asosida chiqarilgan qaror xato bo‘lsa, kim javob beradi – sudyami, dasturchimi yoki tizimning o‘zimi? Hozircha O‘zbekiston qonunchiligida bu savolga aniq javob yo‘q. SI tomonidan tayyorlangan natijaning sud jarayonidagi dalil sifatidagi maqomi va ishonchlilik darajasi ham huquqiy jihatdan tartibga solinishi kerak. Prezidentning 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son farmoni bilan SI sohasini huquqiy tartibga solishning umumiy asoslari belgilana boshlandi, biroq sud jarayoniga xos protsessual normalar hali ishlab chiqilishi lozim.

**Oltinchi muammo – ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi.** Sud ishlari fuqarolarning eng nozik shaxsiy ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi. “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g’risida”gi qonun amal qilsa-da, raqamli sud

sharoitida unga algoritmik shaffoflik va avtomatlashtirilgan qarorlar bo‘yicha qo‘shimcha normalar kiritish, shuningdek ma’lumotlar xavfsizligini kuchaytirish ehtiyoji mavjud.

Sanab o‘tilgan muammolar SI dan voz kechish uchun emas, balki uni *to‘g’ri* joriy etish uchun asos bo‘lishi kerak. Quyidagi yechimlar, mening fikrimcha, ustuvor ahamiyatga ega:

Avvalo, Sun’iy intellekt o'zicha o'ylamaydi – u faqat o'ziga berilgan ma'lumotlardan o'rganib, shunga qarab javob beradi. Shuning uchun ma'lumotlar yetarli va sifatli bo'lmasa, dasturning natijasi ham noto'g'ri chiqadi. Bugun esa ko'pchilik sud qarorlari bir joyda, ochiq holda to'planmagan; bor qarorlar ham turli ko'rinishda (skaner, qog'oz, tartibsiz matn) saqlanadi va dastur ularni o'qiy olmaydi.

Buni hal qilish uchun sud qarorlarini bir tizimga jamlash kerak. Bunda uch narsaga e'tibor berish lozim: qarorlardagi fuqarolarning ismi va shaxsiy ma'lumotlari yashirilishi, barcha qarorlar bir xil tartibda yozilishi, hamda baza hammaga ochiq bo'lishi. Ochiq baza sudni shaffofroq qiladi va o'xshash ishlar bo'yicha bir xil qaror chiqishiga yordam beradi.

Bu yechim eng muhimi, chunki qolgan hamma narsa shunga bog'liq. Yaxshi ma'lumotlar bazasi bo'lmasa, na nazorat, na malakali kadrlar yordam beradi. Shuning uchun "Raqamli sud"ni texnologiyadan emas, avvalo ma'lumotni tartibga solishdan boshlash kerak.

Ikkinchidan, yagona sud amaliyotini ta'minlash lozim. Hozir o'xshash ishlar bo'yicha turli sudlarda turlicha qaror chiqishi mumkin. Bunday holatda sun’iy intellekt ham aniq prognoz bera olmaydi, chunki u qaysi yo'nalishga "o'rganishini" bilmaydi – ma'lumotlar bir-biriga zid bo'ladi. Shuning uchun Oliy sud o'xshash ishlar bo'yicha umumiy yo'l-yo'riqlar berib, amaliyotni birxillashtirishi kerak. Amaliyot qanchalik izchil bo'lsa, dasturning prognozi ham shunchalik to'g'ri va ishonchli chiqadi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt sudyaning o'rnini bosmasligi, faqat yordamchi bo'lib qolishi shart: u tahlil qilib, taxminiy natijani aytib berishi mumkin, ammo hukmni doimo inson-sudya chiqarishi kerak. Buning ikki sababi bor. Birinchidan, dastur xato qilishi mumkin, inson esa uni tekshirib, tuzatib turadi. Ikkinchidan, sud qarori inson taqdiriga ta'sir qiladi – bunday mas'uliyatni mashinaga yuklab bo'lmaydi. Bu tamoyil sud mustaqilligini va adolatni saqlaydi.

To’rtinchida, ko’p zamonaviy sun’iy intellekt dasturlari qanday xulosaga kelganini tushuntirib bera olmaydi – natija chiqadi-yu, sababi

noma'lum. Bundan tashqari, sun’iy intellect texnologiylari tomonidan mavjud bo’lmagan ma’lumotlar asosida tahlil qilish, yo‘q ma’lumotlarga tayanib xulosa qilishi ko‘p kuzatilmoqda. Shu sababli bu holat sud kabi sohada bu yo‘l qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun sudda ishlatiladigan dasturlar tekshirib bo'ladigan, o'z qaroriga izoh bera oladigan va yuqori darajada nazorat qilinadigan bo'lishi kerak. Faqat shunda fuqaro o‘ziga nisbatan chiqarilgan xulosaga ishonch hosil qila oladi va kerak bo'lsa, uni shubha ostiga ola oladi.

Bundan tashqari, eng zamonaviy dastur ham undan foydalana olmaydigan odam qo'lida foydasiz. Shuning uchun sudyalar va sud xodimlarining yangi texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasini oshirish zarur. Bundan tashqari, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish va universitetlarda bo'lajak yuristlarga sun’iy intellekt hamda raqamli huquq bo'yicha fanlarni o'qitish kerak. Shunda kelajakda bu tizimni ishonchli boshqaradigan mutaxassislar yetishib chiqadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi bu borada muhim ahamiyatga ega. Masalan, Estoniya dunyodagi eng raqamlashtirilgan davlatlardan biri sifatida kichik summali nizolarni avtomatik ko‘rib chiqadigan “robot sudya” loyihasini sinov tariqasida joriy qilgan. Biroq keyinchalik Estoniya hukumati sun’iy intellekt inson sudyasini to‘liq almashtirmasligi kerakligini ta’kidlagan. Hozirda Estoniyada AI asosan sud hujjatlarini saralash, ishlarni taqsimlash va sud amaliyotini qidirish uchun qo‘llaniladi.

Xitoy esa sun’iy intellektni sud tizimiga eng keng joriy qilgan davlatlardan biri hisoblanadi. Xitoyda “Smart Courts” tizimi orqali virtual sudyalar, avtomatik hujjat tekshiruvi va AI asosidagi sud tavsiyalari qo‘llanilmoqda. Bu tizim sud yuklamasini kamaytirish va ishlarni tezkor ko‘rib chiqishda samarali natija bergan. Ammo xalqaro ekspertlar tomonidan ushbu model inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik va sud mustaqilligi nuqtai nazaridan tanqid qilinmoqda.

AQSh va Yevropa davlatlarida esa sun’iy intellekt asosan huquqiy tahlil, pretsedent ishlarga asoslangan qidiruv tizimi va sud natijalarini prognozlash uchun ishlatiladi. Yevropa Ittifoqi AI texnologiyalarini qat’iy nazorat ostida saqlash tarafdori bo‘lib, sud tizimidagi sun’iy intellektni “yuqori xavfli AI” sifatida baholaydi. Shu sababli Yevropada inson nazorati, algoritm shaffofligi va fuqarolar huquqlarini himoya qilish ustuvor hisoblanadi. O'zbekiston bu tajribalardan o'ziga mosini olishi mumkin.

Sun’iy intellekt sud tizimining samaradorligini oshirish, yuklamani kamaytirish va huquqiy tahlil sifatini yaxshilashda ulkan imkoniyatlarga ega. Ayni paytda u sud mustaqilligi, inson huquqlari va protsessual adolat tamoyillariga xavf tug’dirmasligi shart. Yuqorida ko‘rib chiqilgan muammolar shuni ko‘rsatadiki, ular texnik emas, balki birinchi navbatda *huquqiy, institutsional va insoniy* xarakterga ega.

Shu bois O‘zbekiston uchun eng maqbul yo‘l – SI ni **sudyaning o‘rnini bosuvchi emas, balki uning ishonchli ko‘makchisi** sifatida ko‘rishdir. Texnologiyaga shoshilish emas, balki unga tayyor poydevor yaratish – ochiq ma’lumotlar bazasi, izchil sud amaliyoti, shaffof algoritmlar, malakali kadrlar va aniq huquqiy mas’uliyat mexanizmi – mana shu adolatli “Raqamli sud”ning haqiqiy kafolatidir.

## ТЕРРОРИЗМГА ОИД ЖИНОЯТЛАРНИ САМАРАЛИ ТЕРГОВ ҚИЛИШ ЙЎНАЛИШИДА ТЕРГОВЧИЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ҲОЗИРГИ ЗАМОН ТАЛАБЛАРИ ВА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

***И.И.Каримов***

*Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Криминалистика ва суд экспертизалари кафедраси катта ўқитувчиси, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)*

**Аннотация:** Мазкур мақолада терроризм ва экстремизмга оид жиноятларни тергов қилиш жараёнида терговчилар олдида турган замонавий талаблар ва уларни ўқитишнинг инновацион ёндашувлари таҳлил қилинган. Кибертерроризмнинг кучайиши, рақамли далилларни йиғиш ва сунъий интеллектдан фойдаланиш масалалари ёритилган. Шунингдек, терговчилар малакасини оширишда VR/AR технологиялари, OSINT ва масофавий ўқитиш тизимларини жорий этишнинг аҳамияти очиб берилган.

**Калит сўзлар:** терроризм, кибертерроризм, тергов фаолияти, рақамли криминалистика, сунъий интеллект, симуляцион ўқитиш, OSINT, виртуал реаллик.

Сўнгги йилларда дунё миқёсида терроризм ва экстремизм таҳдидлари янги, янада мураккаб шаклларга ўтиб бормоқда. Ахборот-коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши жиноятчиларга ўз ғаразли мақсадларини амалга ошириш учун кенг имкониятлар яратмоқда. Хусусан, яқинда Россия Федерациясининг Москва шаҳридаги "Crocus City Hall" мажмуасида содир этилган даҳшатли теракт бутун дунё ҳамжамиятини ларзага солди. Ушбу воқеалар шуни кўрсатмоқдаки, террорчилик ташкилотлари, жумладан ИШИД каби гуруҳлар, ўз аъзоларини ёллаш, молиялаштириш ва терактларни мувофиқлаштиришда Интернет

тармоғи, жумладан Telegram, Instagram, Facebook ва бошқа ижтимоий тармоқлардан кенг фойдаланмоқда.

Ўзбекистон Республикасида бундай хавф-хатарларнинг олдини олиш мақсадида тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 1 июлдаги «2021 – 2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-6255-сон Фармони қабул қилинган. Ушбу стратегияда Интернет жаҳон ахборот тармоғидан экстремистик ва террорчилик мақсадларда фойдаланишга қарши курашиш, норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш ва айбдорларни жавобгарликка тортиш чораларини кучайтириш устувор вазифалар сифатида белгиланган. Бу эса ўз навбатида, ушбу тоифадаги жиноятларни тергов қилувчи ходимлар олдига янги ва ўта мураккаб талабларни қўймоқда.

Бугунги кунда терроризмнинг энг хавфли ва замонавий шаклларидан бири бу – **кибертерроризмдир**. Кибертерроризм ахборот-коммуникация технологиялари ва интернет орқали содир этиладиган террористик ҳаракатлар мажмуи бўлиб, у замонавий терговнинг энг мураккаб йўналишларидан бири ҳисобланади. Кибертерроризмнинг асосий кўринишларига давлат идоралари ва стратегик объектларга киберҳужумлар уюштириш, энергетика, транспорт ва банк каби муҳим инфратузилмалар ишини издан чиқариш, аҳоли ўртасида ваҳима уйғотиш мақсадида ёлғон ахборотлар тарқатиш, шунингдек, террористик ғояларни тарғиб қилиш ва виртуал маконда маблағ йиғиш киради.

Терроризм жиноятларининг замонавий криминалистик хусусиятлари қуйидагиларда намоён бўлмоқда:

**Юқори технологиялар:** Қўлбола портловчи моддалар (IED), дронлар ва сунъий интеллект (AI) воситаларидан фойдаланиш ҳолатлари кўпаймоқда.

**Хорижий элемент:** Чет эл фуқароларининг иштироки ва терактларга тайёргарлик кўриш жараёнининг хорижда амалга оширилиши транснационал характерга эга.

**Гувоҳлар хавфсизлиги:** Гувоҳларнинг қўрқуви сабабли кўрсатма беришдан бош тортиши ва уларни ҳимоя қилиш муаммоси тергов жараёнини қийинлаштиради.

Замонавий терговчи – бу нафақат юридик билимларга, балки криминалистик, психологик ва технологик билимларни ўзида

мужассамлаштирган юқори малакали мутахассис бўлиши шарт. Ушбу талабларни қуйидаги асосий йўналишларга бўлиш мумкин:

**Ҳуқуқий билимлар:** Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексини, БМТ ва ШҲТ конвенцияларини, шунингдек, инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро стандартларни чуқур билиш.

**Криминалистик билимлар:** Рақамли далилларни сақлаш (Chain of custody тартиби) ва процессуал расмийлаштириш қоидаларини пухта эгаллаш.

**Психологик кўникмалар:** Гумонланувчиларни сўроқ қилиш, тана тилини ўқиш ва психо-физиологик экспертиза натижалари билан ишлаш тажрибаси.

**Техник саводхонлик:** OSINT (Очиқ манбалар разведкаси) ва SOCMINT (Ижтимоий тармоқлар разведкаси), Big Data таҳлили, Сунъий интеллект (AI) ва Machine Learning технологияларидан фойдалана олиш.

**Халқаро ҳамкорлик:** INTERPOL, UNOCT (БМТнинг Терроризмга қарши кураш бошқармаси), FBI ва Европол каби халқаро ҳамкор хизматлар билан тезкор ахборот алмашиш.

**Этик ва ҳуқуқий стандартлар:** Тергов жараёнида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, қонунийликни сақлаш ва профессионал этикага қатъий риоя этиш.

Сўровномаларга кўра, бугунги кунда терговчиларнинг қарийб 45 фоизи замонавий IT-билимлари етарли эмаслигини билдирган. Бу эса назарий билимларни амалиёт билан уйғунлаштириш нақадар муҳимлигини кўрсатади.

**ТЕРГОВЧИЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР**

Анъанавий ўқитиш усуллари бугунги шиддат билан ўзгараётган жиноятчилик оламида етарли эмас. Замонавий шароитда терговчиларнинг касбий малакасини ошириш учун қуйидаги 5 та асосий инновацион ёндашувни жорий этиш талаб этилади:

| № | Инновацион ёндашув йўналиши | Моҳияти ва қўлланилиши |
|---|---|---|
| 1 | **Симуляцион ўқитиш (VR / AR)** | Террорчилик ҳужуми сценарийлари асосида виртуал (VR) ва кучайтирилган реаллик (AR) технологиялари орқали воқеа жойини |

| № | Инновацион ёндашув йўналиши | Моҳияти ва қўлланилиши |
|---|---|---|
| | | кўздан кечириш, портловчи қурилмаларни зарарсизлантириш ва гаровга олинганларни озод қилиш машқларини ўтказиш. |
| 2 | **OSINT ва SOCMINT** | Очиқ манбалар ва ижтимоий тармоқлар разведкаси орқали террор фаолиятини аниқлаш, радикал гуруҳлар тармоқларини таҳлил қилиш. |
| 3 | **Рақамли криминалистика (Digital Forensics)** | Мобил қурилмалар (Mobile forensics) ва тармоқларни таҳлил қилиш (Network analysis) орқали рақамли далилларни илмий усулда йиғиш, сақлаш ва тақдим этиш. |
| 4 | **Сунъий интеллект (AI)** | Юз ва овозни тан олиш (Face recognition), тармоқли таҳлил ва террор хавфини олдиндан башорат қилиш (Predictive AI) алгоритмларидан фойдаланиш. |
| 5 | **Масофавий ўқитиш ва механизмлар** | E-learning платформалари, INTERPOL ва UNOCT курслари орқали халқаро сертификатлаш, реал ҳолатлар бўйича машғулотлар (Scenario-based training) ўтказиш. |

Амалиётда тергов фаолияти самарадорлигига тўсқинлик қилаётган бир қатор муаммолар мавжуд. Хусусан, рақамли криминалистика бўйича мутахассисларнинг етишмаслиги, халқаро ахборот алмашинувидаги баъзи тўсиқлар ҳамда юқори технологияли жиноятларни тергов қилишда техник воситаларнинг чекланганлиги кузатилмоқда.

Ушбу муаммоларни бартараф этиш учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари таълим муассасаларида **VR/AR лабораторияларини** ташкил этиш;

Ходимлар учун Сунъий интеллект (AI) ва Digital Forensics бўйича доимий малака ошириш курсларини йўлга қўйиш;

Ихтисослаштирилган **“Рақамли тергов” махсус марказларини** яратиш;

Терроризмга қарши курашишда халқаро ҳамкорлик ва тезкор маълумот алмашинувини янада кучайтириш.

Хулоса қилиб айтганда, узлуксиз ўқиш – бу узлуксиз кўникма демакдир. Терроризмга оид жиноятларни тергов қилиш жараёнига инновацион ёндашувларни жорий этиш нафақат жиноятларни иссиқ изидан очишга, балки уларнинг олдини олишга ҳам хизмат қилади. Терговчиларнинг замонавий технологиялар ва криминалистик усуллар билан қуролланиши миллий хавфсизликнинг энг асосий кафолатларидан биридир.

## JINOYAT FAOLIYATIDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNING JINOYAT PREDMETI VA BANK KARTALARI ORQALI AMALGA OSHIRILGAN OPERATSIYALARNING KVALIFIKATSIYASI

***M.N. Saydazimov*** *Sarbon universiteti Ta‘lim sifatini taʻminlash bo‘limi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirishning jinoyat predmeti masalalari tahlil qilinadi. Predmetning to‘rt asosiy kategoriyasi – jinoiy yo‘l bilan topilgan mol-mulk, jinoiy faoliyat natijasida olingan huquqlar, jinoiy faoliyatdan kelib chiqqan mulkiy manfaatlar va jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlar evaziga orttirilgan mol-mulk – xalqaro huquqiy standartlar hamda qiyosiy qonunchilik tahlili asosida tizimlashtirilib, to‘liq tasnifi ishlab chiqilgan. Shuningdek, bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi JKning 243-moddasi doirasida kvalifikatsiya qilinishi masalasi ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** pul yuvish, jinoyat predmeti, bank kartalari, predmeti tasnifi, FATF, kvalifikatsiya.

Jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatining predmeti masalasi koʻplab bahsli savollarni keltirib

chiqarmoqda. Misol uchun jinoiy faoliyat natijasida topilgan mol-mulk turlarining aniq belgilanmaganligi, jinoiy faoliyat natijasida olingan huquqlarning doirasi cheklanganligi, jinoiy faoliyatdan kelib chiqqan mulkiy manfaatlar tushunchasining mavjud emasligi hamda jinoiy yoʻl bilan olingan daromadlar evaziga olingan mol-mulk tushunchasining ochib berilmaganligi kabi muammolar kuzatilmoqda.

Jinoyat predmeti masalasi xorijiy olimlar tomonidan keng oʻrganilgan. Xususan, J.Blum jinoiy daromadlarni legallashtirish predmetini "jinoiy faoliyat natijasida bevosita yoki bilvosita olingan har qanday iqtisodiy manfaat" sifatida taʻriflaydi[1].

G.Ogbeyde taʻkidlashicha, "jinoyat predmetiga nafaqat mulk, balki undan kelib chiqadigan barcha huquq va manfaatlar ham kiradi"[2].

FATF tavsiyalarida "jinoyat predmeti keng maʻnoda talqin etilgan boʻlib, unga har qanday turdagi mol-mulk, moddiy va nomoddiy aktivlar, huquqiy hujjatlar va vositalar" kiritilgan[3].

BMTning Narkotik moddalar va psixotrop vositalar bilan noqonuniy savdo qilishga qarshi konvensiyasi hamda Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi jinoyat predmetini yanada kengroq talqin etadi[4].

Rivojlangan davlatlar qonunchiligida jinoyat predmeti masalasi batafsil tartibga solingan. AQSH qonunchiligida "mulkiy manfaat" tushunchasi keng qoʻllaniladi[5]. Germaniyada "mulkiy qiymat"[6], Fransiyada esa "har qanday turdagi mol-mulk va daromadlar" atamasi ishlatiladi[7].

Tahlillardan muxtasar qilib, jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyati predmeti tasnifini ishlab chiqdik. Ular quyidagicha tizimlashtirilib tasniflanadi:

1) jinoiy faoliyat natijasida topilgan mol-mulk: naqd pul mablagʻlari, bankdagi pul mablagʻlari, koʻchmas mulk, transport vositalari, qimmatli qogʻozlar, tadbirkorlik subyektlari, qimmatbaho metallar, sanʻat asarlari, intellektual mulk obyektlari;

2) jinoiy faoliyat natijasida olingan huquqlar: mulkiy huquqlar, majburiyat huquqlari, intellektual mulk huquqlari, korporativ huquqlar;

3) jinoiy faoliyatdan kelib chiqqan mulkiy manfaatlar: foizlar, dividendlar, renta toʻloylari, royalti, ijara toʻloylari;

4) jinoiy yoʻl bilan olingan daromadlar evaziga: sotib olingan mol-mulk, tashkil etilgan biznes, amalga oshirilgan investitsiyalar, toʻplangan kapital.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish va tergov qilish zamonaviy huquqiy tizimlarning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi moliyaviy operatsiyalarning koʻlami va murakkablashuviga olib kelmoqda. Ushbu jarayonda bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalarga alohida eʻtibor qaratish zarur.

Hozirgi kunda bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar jinoiy daromadlarga qonuniy tus berishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki bunday operatsiyalar mulkning jismoniy koʻrinishini elektron koʻrinishga oʻzgartiradi, mazkur operatsiyalar tezligi moliyaviy izlarni tezda yoʻqotish imkonini beradi, shu bilan birga xalqaro operatsiyalar chegaralar toʻsigʻini muammosiz kesib oʻtuvchi muhim vositadir.

A.Abramova bank kartalari orqali amalga oshirilgan legallashtirish mexanizmlarini quyidagicha tahlil qilgan: “bank kartalari legallashtirish jarayonining “joylashtirish” bosqichida jinoiy daromadlarni moliyaviy tizimga qoʻshib yuborishning muhim vositasi hisoblanadi. Bunda operatsiyalarning nomigagina naqd shaklda amalga oshirilishi, ammo amalda moliyaviy tizimdan chetga chiqmasligi pul mablagʻlarining harakatini oʻrganishda sezilarli qiyinchiliklar tugʻdiradi” [8].

AQSH Gʻaznachilik departamenti hisobotida “virtual moliyaviy vositalar va toʻlov kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar legallashtirishni tezlashtiradi. Bunda asl holatni yashirish elementi mavjud, yaʻni pul mablagʻlarining kelib chiqish manbaini yashirish yoki unga qonuniy tus berishga qaratilgan harakatlar sodir etilgan” ligi qayd etilgan[9].

JK 243-moddasiga koʻra, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish deganda mulk (pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan boʻlsa, uni oʻtkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yoʻli bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek bunday pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, koʻchirish usulini, pul mablagʻlariga yoki boshqa mol-mulkka boʻlgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirish yoxud sir saqlash tushuniladi.

Bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar mulkning asl xususiyatini, manbaini yashirish va sir saqlash elementlarini oʻzida jamlasa, bu holat jinoiy daromadlarni legallashtirish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. U quyidagi harakatlarda ifodalanadi: jinoiy

faoliyatdan olingan naqd pullarni bank kartalariga kiritish va keyinchalik ushbu mablagʻlarni turli hisobraqamlarga oʻtkazish; predikat jinoyat natijasida topilgan pul mablagʻlarini bank kartalari orqali boshqa aktivlarga (qimmatli qogʻozlar, koʻchmas mulk) aylantirish; noqonuniy daromadlarni yashirish maqsadida psevdo-operatsiyalar oʻtkazish (masalan, fiktiv xizmatlar uchun toʻloqlar, nomigagina xaridlar); bank kartasidan foydalangan holda xalqaro tranzaksiyalarni amalga oshirish va bu orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlarga mablagʻlarni taʻqib qilishni qiyinlashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar boʻicha sud amaliyotining ayrim masalalari toʻgʻrisida" 1-son Qarorining 3-bandini beshinchi xatboshi bilan toʻldirish tavsiya etiladi:

> *"Predikat jinoyat natijasida qonunga xilof ravishda qoʻlʻga kiritilgan pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulkning kelib chiqish manbaini yashirish maqsadida bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar ham JKning 243-moddasida nazarda tutilgan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim".*

Jinoyat predmeti masalasini xalqaro standartlar va qiyosiy qonunchilik asosida chuqur tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, jinoyat predmeti faqat moddiy mulk bilan cheklanmay, balki nomoddiy huquqlar va mulkiy manfaatlarni ham qamrab olishi lozim; ikkinchidan, bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar JK 243-moddasi doirasida jinoiy daromadlarni legallashtirish sifatida baholanishi uchun zarur boʻlgan barcha belgilarni oʻzida jamlaydi; uchinchidan, mazkur masalani huquqiy tartibga solishni takomillashtirish maqsadida Oliy sud Plenum qaroriga tegishli oʻzgartishlar kiritish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Blum, J. A., Levi, M., Naylor, R. T., & Williams, P. Financial havens, banking secrecy and money laundering. United Nations Office for Drug Control and Crime Prevention, Global Programme Against Money Laundering. URL: https://gfintegrity.org/wp-content/uploads/2022/06/UN-FINANCIAL-HAVENS-laundering.pdf. Murojaat qilingan sana: 02.09.2024 y.

2. Ogbeide, H., Thomson, M. E., Gonul, M. S., Pollock, A. C., Bhowmick, S., & Bello, A. U. The anti-money laundering risk

assessment: A probabilistic approach // Journal of Business Research. – 2023. – Vol. 162. – Article 113820. URL: https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2023.113820. Murojaat qilingan sana: 05.09.2024 y.

3. FATF (2012–2023). International standards on combating money laundering and the financing of terrorism & proliferation. The FATF Recommendations. URL: https://www.fatf-gafi.org/content/dam/fatf-gafi/recommendations/FATF%20Recommendations%202012.pdf. Murojaat qilingan sana: 02.09.2024 y.

4. United Nations Convention Against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances, 1988. URL: https://www.unodc.org/pdf/convention_1988_en.pdf; United Nations Convention against Transnational Organized Crime, 2000. URL: https://www.unodc.org/documents/treaties/UNTOC/Publications/TOC%20Convention/TOCebook-e.pdf. Murojaat qilingan sana: 02.09.2024 y.

5. Money Laundering Control Act of 1986 (Public Law 99-570). URL: https://www.congress.gov/bill/99th-congress/house-bill/5484. Murojaat qilingan sana: 02.09.2024 y.

## РАҚАМЛИ ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМ:ГЕЙМИФИКАЦИЯ ВА КАЗУС-МЕТОДИГА АСОСЛАНГАН РАҚАМЛИ ПЛАТФОРМАЛАРНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

***Н.Қ. Усманалиев*** *Ички ишлар вазирлиги Академияси, Магистратура, Бошқарув фанлар кафедраси катта ўқитувчиси*

Бугунги кунда ахборот технологияларининг кенг жорий этилиши натижасида ҳам катта авлодда, ҳам ёш авлодда уяли алоқа воситаларига ва компьютер технологияларига боғлиқлик тобора ортиб бормоқда. Бу ҳолат ўз навбатида билим олиш ва янги кўникмаларни эгаллаш жараёнларига ҳам таъсир кўрсатиб, айниқса ёшларда барча маълумотларни ахборот технологиялари орқали ўзлаштиришни қулай қилиб қўймоқда.

Бу жараённинг кўламини Ўзбекистон миқёсида кўрадиган бўлсак: 2025 йил бошида мамлакатда интернетдан фойдаланувчилар сони 32,7 миллион кишини, интернетдан фойдаланиш даражаси эса аҳолининг 89 фоизини ташкил этган; смартфонлар билан қамраб олиш 2026 йилга келиб 77 фоизга яқинлашгани прогноз қилинган.[28] Мобиль интернет истеъмолининг ўсиш суръати янада юқори бўлиб, уяли алоқа операторларининг маълумотларига кўра, ҳафталик трафик ҳажми сўнгги беш йилда 11,3 баробар ошган.[29] Бу рақамлар ёш авлоднинг кундалик ҳаёти рақамли муҳит билан чамбарчас боғланиб бораётганлигини кўрсатади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сонли Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасида илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” илмий-тадқиқот ва ўқув жараёнини рақамлаштиришни асосий вазифа сифатида белгилаганлиги[30] ҳам ушбу масала давлат сиёсати даражасида кўриб чиқилаётганлигини кўрсатади.

Телефондаги иловалар маълумотларни интуитив тушунишга қулай шаклда тақдим этиш билан бирга, фойдаланувчиларни ҳар қандай маълумотни айнан шу шаклда яъни ўйинларда қўлланиладиган методлар, визуал идрок ва маълум шартларни бажариш орқали ўзлаштиришга мослаштириб бормоқда. Бир сўз билан айтганда, рақамли муҳит ёшларнинг ахборотни қабул қилиш шаклига ўз таъсирини ўтказмасдан қолмаяпти. Натижада таълимнинг анъанавий шакллари, яъни маъруза, семинар ва амалий машғулотлар етарли даражада самарали бўлмай қолмоқда.

Йирик компьютер ўйинлари ва скроллинг асосидаги ижтимоий тармоқлар (TikTok, Instagram Reels, YouTube Shorts ва бошқалар) фойдаланувчи диққатини ушлаб туриш учун инсон психологиясининг чуқур механизмларидан фойдаланади. Бу тасодифий эмас бундай компанияларда нейробиологлар, психологлар ва дизайнерлар махсус ишлайди ва улар томонидан қуйида асосий усуллар таҳлил қилинади:

---

[28] Digital 2025: Uzbekistan. — DataReportal, Kepios, 2025. — URL: https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan (мурожаат санаси: 16.05.2026).

[29] Beeline Uzbekistan: мобиль интернет трафиги динамикаси, 2025 // Beeline Uzbekistan расмий ахбороти. — 2025. — 16 июль.

[30] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги «Ўзбекистон Республикасида илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-6097-сонли Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (lex.uz).

**биринчидан, ўзгарувчан мукофот тизими.** Бу энг кучли механизм бўлиб, Б.Ф. Скиннернинг тажрибаларига асосланади: агар мукофот тасодифий ва олдиндан айтиб бўлмайдиган бўлса, у доимий мукофотдан кўра кучлироқ боғланиш ҳосил қилади. Бу "қимор автомати эффекти" деб аталади. Скроллингда фойдаланувчи кейинги видео зерикарли ёки жуда қизиқарли бўлишини билмайди, шунинг учун "яна биттасини" кўришда давом этади. Ўйинларда бу механизм тасодифий тушадиган буюмлар, "мукофот"лар ва ноаниқ ғалаба эҳтимоли орқали намоён бўлади.

**иккинчидан, дофамин ҳалқаси.** Ҳар бир "лайк", шарҳ, янги видео ёки ютуқ мияда кичик дофамин ажралишини келтириб чиқаради. Муҳими шундаки, дофамин мукофотнинг ўзидан кўра уни кутиш пайтида кўпроқ ажралади, яъни инсон натижани эмас, кутиш ҳолатини "излайди". Билдиришномалар айнан шу кутишни қўзғатувчи восита сифатида ишлайди.

**учинчидан, тўхташ нуқталарининг йўқотилиши.** Чексиз скроллинг ва автоижро атайлаб шундай тузилганки, табиий тўхташ жойи бўлмайди. Одатда инсон "давом этайми ёки тўхтайми?" деган қарорни саҳифа тугаганда қабул қилади; бундай дизайн эса бу қарор лахзасини умуман бартараф этади. Контент ўз-ўзидан оқиб келаверади, ирода кучи ишга тушмайди.

**тўртинчидан, шахсийлаштирилган алгоритмлар.** Машинавий ўрганиш алгоритми ҳар бир фойдаланувчининг заиф нуқталарини, нима уни экранда узоқ ушлаб туришини, ўрганади ва тасмани шунга мослайди. Бу шахсга махсус ростланган жалб қилиш механизми бўлиб, ундан халос бўлиш қийинроқ.

**бешинчидан, сунъий шошилтириш.** Чекланган вақтли тадбирлар, кунлик топшириқлар, муддати белгиланган "ҳозир кирмасам, ўтказиб юбораман" ҳиссини яратади.

**олтинчидан, сенсор қўзғатиш ва "оқим" ҳолати.** Овоз эффектлари, ёрқин ранглар, анимация, телефоннинг титраши, мия учун доимий кичик мукофотлар вазифасини ўтайди. Ўйинларда қийинчилик даражаси маҳорат билан мувозанатда ошириб борилади бу М. Чиксентмихайининг "оқим" назариясига асосланган: инсон на зерикади, на ҳаддан ташқари қийналади, шу сабаб вақт сезилмай ўтади.[31]

[31] Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience. — New York: Harper & Row, 1990. — 303 p.

Юқорида келтирилган ва бугунги кунда ижтимоий тармоқлар, ўйин компаниялари қўллаётган воситалар ва “психологик тузоқлар” фанда “диққат иқтисодиёти” (attention economy) деб аталади: маҳсулот бепул бўлса, аслида фойдаланувчининг диққати ва вақти сотилаётган “товар” ҳисобланади. Стэнфорд университетидаги “Persuasive Technology” лабораторияси ва БиЖей Фоггнинг хулқ-атвор модели бу йўналишнинг илмий асосларидан биридир.[32] Эътиборга молик жиҳати шундаки, чексиз скроллингни ихтиро қилган Аза Раскин кейинчалик бу ихтиросидан афсусланганини билдирган.

Асосий механизм шундаки, бизнинг миямиз нейропластик хусусиятга эга бўлиб, у нимани такрорий бажарса, ўша ҳаракат тизимли равишда ёки узоқ вақт давомида амлага оширса ўшанга мослашади. Агар инсон ҳар куни соатлаб парчаланган, тез алмашинувчи, кам куч талаб қиладиган контентни истеъмол қилса, мия айнан шу режимда ишлашга мослашади, чуқур ва давомли когнитив иш режими эса заифлашади. Бу ўзгариш қуйидаги соҳаларда кузатилмоқда.

**Чуқур ўқиш қобилияти.** Когнитив нейробиолог Марианна Вулф (Maryanne Wolf) тадқиқотлари кўрсатишича, “чуқур ўқиш” (deep reading) матнни секин, таҳлил қилиб, муаллиф фикри устида мулоҳаза юритиб ўқиш бўлиб, туғма эмас, балки машқ орқали шаклланадиган нейрон тармоғидир.[33] Экранда ўқиш одати бу тармоқни сиқиб чиқаради: инсон матнни “сканердан ўтказа” бошлайди кўзлар саҳифа бўйлаб “F-шакли”да сакрайди, бир неча қатор ўқилиб, қолгани ташлаб кетилади. Натижада узун, мураккаб ҳужжат ёки илмий матн билан ишлаш ҳуқуқшунослик касбида бу кундалик заруратда кўпчилик учун жисмонан “оғир” ва қийин иш бўлиб қолада. Шу сабабли талабаларда 30 саҳифалик бобни эмас, 3 дақиқалик “конспект”ни афзал кўради.

**Барқарор диққат.** Диққатни бир объектда узоқ ушлаб туриш қобилияти ўлчанадиган кўрсаткич бўлиб, у ҳам пасайиб бормоқда. Глория Маркнинг (Gloria Mark) кўп йиллик тадқиқотларига кўра, 2004 йилда инсоннинг битта экранга узлуксиз қаратилган ўртача диққати икки ярим дақиқани ташкил этган, 2012 йилга келиб бу кўрсаткич 75 сонияга тушган, 2014–2020 йилларда ўтказилган беш

[32] Fogg B. J. Persuasive Technology: Using Computers to Change What We Think and Do. — San Francisco: Morgan Kaufmann Publishers, 2003. — 283 p.
[33] Wolf M. Reader, Come Home: The Reading Brain in a Digital World. — New York: Harper, 2018. — 272 p.

мустақил тадқиқот эса уни ўртача 47 сония даражасида қайд этган.[34] Сабаби доимий узилишлар (билдиришномалар, “бир кўриб қўяй” одати) мияни ҳар дақиқада янги қўзғатувчи кутишга ўргатади. Шу билан бирга, Г. Марк тадқиқотлари бир марта узилишдан сўнг дастлабки вазифага тўлиқ қайтиш учун ўртача 23 дақиқа атрофида вақт кетишини ҳам кўрсатган.

**Хотира ва “Google эффекти”.** 2011 йилда Бетси Спэрроу (Betsy Sparrow) ва ҳамкасблари ўтказган ва “Science” журналида эълон қилинган машҳур тадқиқот “рақамли амнезия” ёки “Гугл эффекти” деб аталган ҳодисани кўрсатди. Тўрт босқичли тадқиқот натижаларига кўра, инсон маълумотни кейинчалик осонгина топа олишини билса, у маълумотнинг ўзини эмас, балки уни қаердан топишни эслаб қолишга мойил бўлади.[35] Тадқиқотчилар интернет психологлар “трансактив хотира” деб атайдиган ҳодисанинг асосий шаклига айланганини асослаб берган. Бу ўз-ўзидан фалокат эмас инсоният доимо ташқи хотирадан (китоб, ёзув) фойдаланган. Лекин муаммо шундаки, чуқур билим ва танқидий фикр учун маълумот онгда бўлиши керак: мия фақат ўзида мавжуд фактлар орасида боғлиқлик кўра олади, китобдаги ёки компютердаги маълумот орасида эмас.

**Парчаланган фикрлаш ва вазифа алмаштириш.** Инсон аслида “параллел ишлаш” қила олмайди у тез вазифа алмаштиради, ва ҳар алмашинув когнитив “нарх” билан келади. Стэнфорд тадқиқотчилари (Клиффорд Насс ва ҳамкасблари) аниқлаганидек, доимий медиа-мультитаскинг билан шуғулланувчилар, парадоксал тарзда, керакли ахборотни кераксиздан ажратишда ёмонроқ натижа кўрсатади уларнинг диққат “фильтри| заифлашади.[36] Узун, кўп босқичли мулоҳаза ҳуқуқий далиллаш, далил-исбот занжирини тузиш айнан шундай узлуксиз фокусни талаб қилади.

Чин ўрганиш “зарур қийинчилик” орқали содир бўлади: мия куч сарфлаганда, янглишганда, маълумотни эслашга уринганда мустаҳкам боғланиш ҳосил қилади. Скроллинг ва ўйин иқтисодиёти эса айнан тескари тамойилда қурилган ишқаланишсиз, дарҳол мукофот, ҳеч қандай куч талаб қилмайди. Мия тез ва осон мукофотга

[34] Mark G. Attention Span: A Groundbreaking Way to Restore Balance, Happiness and Productivity. — New York: Hanover Square Press, 2023. — 304 p.
[35] Sparrow B., Liu J., Wegner D. M. Google Effects on Memory: Cognitive Consequences of Having Information at Our Fingertips // Science. — 2011. — Vol. 333, № 6043. — P. 776–778.
[36] Ophir E., Nass C., Wagner A. D. Cognitive Control in Media Multitaskers // Proceedings of the National Academy of Sciences. — 2009. — Vol. 106, № 37. — P. 15583–15587.

ўрганиб қолса, ўрганишнинг секин мукофоти (бир ҳафталик меҳнатдан кейин мавзуни тушуниб етиш) “арзимас” бўлиб туюла бошлайди. Бу мотивация тизимининг қайта созланиши ва таълим учун энг хавфли оқибатдир. Инсон зерикишга бардош бера олмай қолади, ҳолбуки зерикиш ижодий ва чуқур фикрлашнинг бошланиш нуқтасидир.

**Анъанавий таълим шаклларининг бугунги чекловлари**

Бугунги кунда деярли барча таълим муассасалари ахборот технологиялари даврига мослашиш мақсадида ўз сайтлари ва турли иловаларини яратаётган бўлса-да, улар асосан видеодарслар, матнлар ва слайдларни жойлаштириш ҳамда тестлар орқали онлайн ўқишни қўллаб-қувватлашга доир ишларни амалга оширмоқда. *(Тошкент юридик университетининг “Ҳуқуқ мактакби” иловаси, ҲМҚО, ИИВ Академияси, Жамоат хафсизлиги университети ва бошқа ОТМларнинг веб сайтлари, порталлари, Адлия вазирлигининг Advice.uz сайти).*

Бироқ скроллинг қилишга, яъни қисқа видеоларни кўришга тобора мослашиб бораётган ёш авлод учун ҳатто 15–20 дақиқалик видеодарс ёки 5–6 дақиқа ўқишни талаб қиладиган матнлар ҳам зерикарли кўриниб, уларни мавзу доирасида чуқур билим олишига олиб келмаяпти. Жаҳон миқёсида олиб борилаётган тадқиқотлар ҳам ёш авлод тезкор мотивация ва дофамин таъсирига тобора ўрганиб бораётганини, бу эса уларнинг чуқур танқидий фикрлаш хусусиятларига салбий таъсир кўрсатаётганини аниқлаган.

Юрист сифатида ижтимоий тармоқлардаги юридик соҳага оид контентларни ёки юридик таълим беришга мўлжалланган платформаларни кузатганда шу нарса яққол кўринади: жиноий, процессуал, фуқаролик ва бошқа ҳуқуқ соҳалари бўйича адвокатларнинг маркетинг мақсадида тайёрлаётган қисқа видеороликлари, ҳуқуқий ҳодисага оид воқеали видеолари кўплаб фойдаланувчиларнинг эътиборини жалб қилмоқда. Бу фойдаланувчилар диққати қандай тузилмага мослашганини билвосита кўрсатувчи далилдир.

Лекин шу ўринда айтиб ўтиш лозимки “Интернет миямизни бузяпти” деган фикр қатъий далилга эга эмас, чунки сабаб-оқибатни ажратиш кузатилаётган ўзгариш технологияданми ёки бошқа ижтимоий омиллардан эканини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга ва ўз навбатида мураккабдир.

Ахборот технологияларининг таъсири юқорида келтирилганидек ҳар доим ҳам зарали эмас улар бир вақтнинг ўзида инсонларда айрим яхши хусусиятларни ҳам шакиллантирмоқда. Дафна Бавелье (Daphne Bavelier) ва Ш. Грин (C. S. Green)нинг “Nature” журналида эълон қилинган тадқиқоти экшн-ўйинлар ўйновчиларда визуал танлама диққатнинг бир қатор кўрсаткичларини яхшилашини тажрибавий йўл билан кўрсатиб[37] берган. Яъни мия маълумотни тез саралаш, параллел оқимларни кузатиш каби янги кўникмаларни ҳам ривожлантирмоқда. Масала буларнинг қанчалик “яхши ёки ёмон”лигида эмас. Мия бир хил кўникмаларни ривожлантириб, бошқаларини сўндирмоқда, энг ачинарлиси сўнаётган кўникмалар айнан академик таълим суянадиган кўникмалардир.

Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, рақамли муҳитнинг таъсири болалик давридан бошланади: тадқиқотларга кўра, 2–4 ёшли болалар кунига ўртача икки ярим соат, 5–8 ёшли болалар эса тахминан уч соат экран олдида вақт ўтказади. Бу олий таълимга келаётган бўлажак талабанинг когнитив «машқ режими» аллақачон шаклланган бўлишини англатади.

Ҳуқуқ соҳасида таълим беришга мўлжалланган хорижий платформалар фаолияти ва тузилиши таҳлил қилинганда, уларнинг бугунги замон талабларига мос телефондаги ўйин методологияси, босқичли тушунтиришлар, видео, казус, тест, амалий вазият, билимни текшириш ҳамда фойдаланувчини давом этишга ундовчи психологик инструментлардан фойдаланиши аниқланган.

**Геймификациянинг таълимдаги педагогик потенциали.**

Геймификация таълим мазмунини ўзгартирмаган ҳолда ўқув фаолиятини ўйин элементлари билан бойитувчи метод бўлиб, унинг катта педагогик потенциалга эга эканлиги илмий жиҳатдан асосланган. Бу ёндашувнинг асосий устунлиги шундаки, у субъектнинг ўқув фаолиятига кучлироқ ва сифатлироқ диққат қаратишга бўлган мотивациясини оширади, топшириққа содиқликни узайтиради ва пировардида ўқув мақсадига эришиш эҳтимолини юксалтиради.[38]

Ҳуқуқий таълим соҳаси учун муаммони талабалар “ялқов” бўлиб қолганида эмас, балки уларнинг когнитив “машқ режими”

[37] Green C. S., Bavelier D. Action Video Game Modifies Visual Selective Attention // Nature. — 2003. — Vol. 423. — P. 534–537.

[38] Голубева А. И. Геймификация как средство организации обучения // Молодой учёный. — 2022. — № 4 (404). — С. 89–152.

ўзгарганидадир. Айнан шу сабабли кўплаб университетлар онгли равишда “чуқур ўқиш”ни алоҳида кўникма сифатида қайта ўргатишга ўтмоқда. Телефонсиз ўқиш сессиялари, узун матн таҳлили, қўлда ёзма конспект (хотирани кучайтирувчи омил) каби усуллар орқали бу кўникмани ривожлантириш чоралари кўрилмоқда. Бу луддизм эмас, балки мувозанат: технологиядан фойдаланиш, бироқ чуқур фикрлаш тармоғини атайлаб машқ қилдириб туриш демактир

Шу асосда қуйидаги таклифлар илгари сурмоқчимиз:

***биринчидан,*** олий таълим муассасаларида сақланиб қолаётган таълим дастури ва методикасига қўшимча тарзда геймификация қилинган, мавзуни янада чуқурроқ тушунишга ёрдам берадиган платформаларни яратишга урғу бериш лозим;

***иккинчидан,*** бундай платформалар видеони механик кўчиришдан иборат бўлмаслиги, балки босқичли тушунтириш, казус, амалий вазият ва билимни текшириш логикасига асосланиши керак.

***учинчидан***, чуқур ўқиш, катта ҳажимли ҳужжат таҳлили ва давомли диққатни талаб қилувчи машғулотлар ўқув жараёнида алоҳида, онгли равишда сақланиши ва ривожлантирилиши зарур, бу ҳуқуқшунос касбий маҳоратининг ўзагидир.

***тўртинчидан***, геймификация ва анъанавий академик чуқурлик ўртасида мувозанат сақланиши, рақамли воситалар таълим мақсадига хизмат қилиши, аксинча эмаслиги таъминланиши лозим.

Хулоса қилиб айтганда, ҳуқуқий таълимни ривожлантириш бугунги кунда нафақат мазмунни, балки уни етказиш шаклини ҳам замон когнитив реаллигига мослаштиришни талаб этади. Бу бугунги кун талаби ва заруратидир.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги «Ўзбекистон Республикасида илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-6097-сонли Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (lex.uz).

2. Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси доирасида кредит-модуль тизимига ўтиш бўйича методик материаллар. – Тошкент: Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2020.

3. Электрон таълим муҳитида геймификация усули асосида талабалар мотивациясини ошириш методикаси бўйича педагогика фанлари бўйича диссертация автореферати маълумотлари // Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси расмий сайти (oak.uz). – Тошкент, 2023.

4. Ўзбекистонда юридик таълимни рақамлаштириш ва Legal Tech технологияларини жорий этиш бўйича таҳлилий материал // Стратегия.uz ахборот-таҳлилий портали. – 2021.

5. Юридик фан ва ҳуқуқни қўллаш амалиётининг долзарб масалалари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2020.

6. Mark G. Attention Span: A Groundbreaking Way to Restore Balance, Happiness and Productivity. – New York: Hanover Square Press, 2023. – 304 p.

7. Sparrow B., Liu J., Wegner D. M. Google Effects on Memory: Cognitive Consequences of Having Information at Our Fingertips // Science. – 2011. – Vol. 333, № 6043. – P. 776–778.

8. Green C. S., Bavelier D. Action Video Game Modifies Visual Selective Attention // Nature. – 2003. – Vol. 423. – P. 534–537.

9. Bediou B., Adams D. M., Mayer R. E., Tipton E., Green C. S., Bavelier D. Meta-analysis of Action Video Game Impact on Perceptual, Attentional, and Cognitive Skills // Psychological Bulletin. – 2018. – Vol. 144, № 1. – P. 77–110.

10. Wolf M. Reader, Come Home: The Reading Brain in a Digital World. – New York: Harper, 2018. – 272 p.

11. Ophir E., Nass C., Wagner A. D. Cognitive Control in Media Multitaskers // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2009. – Vol. 106, № 37. – P. 15583–15587.

12. Fogg B. J. Persuasive Technology: Using Computers to Change What We Think and Do. – San Francisco: Morgan Kaufmann Publishers, 2003. – 283 p.

13. Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience. – New York: Harper & Row, 1990. – 303 p.

14. Голубева А. И. Геймификация как средство организации обучения // Молодой учёный. – 2022. – № 4 (404). – С. 89–152.

15. Digital 2025: Uzbekistan. – DataReportal, Kepios, 2025. – URL: https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan (мурожаат санаси: 18.05.2026).

# TARMOQ KRIMINALISTIKASI JORIY HOLATI VA ISTIQBOLLARI

***Sh.A. Xoliqov*** *Jamoat xavfsizligi universiteti, bosh ilmiy xodimi, t.f.b.f.d.(PhD)*

Zamonaviy axborot texnologiyalari davrida kompyuter tarmoqlari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Moliyaviy operatsiyalar, davlat boshqaruvi, tibbiyot, ta’lim va boshqa ko‘plab sohalar to‘liq raqamli infratuzilmaga tayanadi. Biroq bu bog‘liqlik o‘z xavflarini ham olib keladi: kiberjinoyatchilik tobora murakkablashib, global iqtisodiyotga yillik trilliard dollarlik zarar yetkazmoqda.

Aynan shu muammolarni hal etish uchun tarmoq kriminalistikasi (Network Forensics) sohasi paydo bo‘ldi. Ushbu fan kiberjinoyatlarni ilmiy asosda tekshirish, dalillarni to‘plash va sudda isbotlash imkonini beradi. Ushbu dokladda tarmoq kriminalistikasining mohiyati, usullari, vositalari, qo‘llanish sohalari, dolzarb muammolari va kelajak istiqbollari batafsil ko‘rib chiqiladi.

## TARMOQ KRIMINALISTIKASI – TA’RIF VA MOHIYAT

### 1. Ta’rif

Tarmoq kriminalistikasi (Network Forensics) – kompyuter tarmoqlari orqali sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, tahlil qilish va isbotlash maqsadida tarmoq trafigi, paketlari va hodisalar ma’lumotlarini yig‘ish, saqlash va tekshirish jarayonlari majmui.Tarmoq kriminalistikasi an’anaviy kriminalistika fanining raqamli sohasida ixtisoslashgan yo‘nalishi bo‘lib, 1980-yillarda kompyuter tarmoqlarining keng tarqalishi bilan birga shakllanishni boshladi. Bugungi kunda u kiberxavfsizlikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

### 2. Tarmoq kriminalistikasi vs. Kompyuter kriminalistikasi

| Mezon | Taqqoslash |
|---|---|
| **Obyekt** | Tarmoq trafigi, log-fayllar / Qattiq disklar, fayllar |
| **Vaqt xususiyati** | Real vaqt yoki kech tahlil / Asosan kech tahlil |
| **Ma’lumot miqdori** | Terabaytlar (uzluksiz) / Gigabaytlar (cheklangan) |
| **O‘zgaruvchanlik** | Yuqori (paketlar yo‘qolishi mumkin) / Past (xotira saqlanadi) |

| | |
|---|---|
| **Asosiy vosita** | Wireshark, tcpdump / Autopsy, FTK, EnCase |

## 3. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TERMINOLOGIYA

Tarmoq kriminalistikasi sohasida quyidagi asosiy terminlar keng qo‘llaniladi:

| Termin | Ta’rif |
|---|---|
| **Paket (Packet)** | Tarmoq orqali uzatiladigan ma’lumotning eng kichik birligi; sarlavha (header) va ma’lumot qismidan iborat. |
| **PCAP** | Packet Capture – tarmoq paketlarini to‘liq yozib olish uchun sanoat standarti fayl formati. |
| **IDS / IPS** | Intrusion Detection/Prevention System – ruxsatsiz kirishni aniqlash va oldini olish tizimlari. |
| **Log-fayl** | Tizim yoki dastur tomonidan avtomatik yaratiluvchi faoliyat tarixi va xatolar yozuvi. |
| **Netflow** | Tarmoq qurilmalaridan olinadigan trafik statistikasi; to‘liq paket o‘rniga metadata beradi. |
| **DPI** | Deep Packet Inspection – paketning nafaqat sarlavhasini, balki mazmunini ham tekshirish. |
| **Chain of Custody** | Dalillarni yig‘ish momentidan sudgacha bo‘lgan saqlanish va uzatilish tarixi hujjati. |
| **SIEM** | Security Information and Event Management – markazlashtirilgan xavfsizlik hodisalarini boshqarish tizimi. |

### Tarmoq kriminalistikasining turlari

**1) Catch-it-as-you-can (Hammani ushlash) usuli**

Bu usulda tarmoq orqali o‘tayotgan barcha paketlar yozib olinadi va saqlashdan so‘ng tahlil qilinadi. Eng to‘liq ma’lumot beradigan usul bo‘lsa-da, katta saqlash imkoniyatlari va qayta ishlash quvvatini talab etadi. Muhim tekshiruvlar yoki yuqori xavf muhitlarida qo‘llaniladi.

**2) Stop, look and listen (To‘xta, ko‘r va tinla) usuli**

Har bir paket qisqa vaqt ichida xotirada tekshiriladi. Faqat shubhali yoki belgilangan mezonlarga to‘g‘ri keladigan ma’lumotlar saqlanadi. Resurslarni tejaydi, ammo ba’zi muhim paketlar o‘tkazib yuborilishi mumkin.

**3) Passiv monitoring**

Tarmoqqa hech qanday trafik yubormay, faqat kuzatuv rejimida ishlaydi. Tarmoq ishlashiga ta’sir qilmaydigan va aniqlash xavfi minimal bo‘lgan usul. Maxfiy kuzatuvlar uchun mos keladi.

**4) Faol monitoring**

Tarmoqqa maxsus test paketlari yuboriladi va javoblar tahlil qilinadi. Port skanerlash, zaifliklarni aniqlash va tizim holatini nazorat qilish uchun ishlatiladi. Qonuniy maqsadlarda ruxsat talab etadi.

Usullar va vositalar

**1) Asosiy tahlil usullari**

- Paket tahlili (Packet Analysis): Wireshark yoki tcpdump yordamida tarmoq paketlarini ushlab olish va o‘rganish.
- Log-fayllarni tahlil qilish: Tizim, firewall va IDS loglarini qidirib, hodisalar ketma-ketligini tiklash.
- Tarmoq oqimini tahlil qilish (Flow Analysis): NetFlow/IPFIX ma’lumotlari asosida trafik tendensiyalarini aniqlash.
- Vaqt tamg‘alarini solishtirish: Turli tizimlardan olingan vaqt ma’lumotlarini birlashtirish va moslashtirish.
- DNS tahlili: Shubhali domen so‘rovlari, C2 (Command & Control) serverlarini aniqlash.
- SSL/TLS tahlili: Shifrlangan kanallar orqali sodir bo‘lgan g‘ayrioddiy harakatlarni aniqlash.
- Anomaliyalarni aniqlash: Oddiy trafik profilidan chetlashgan holatlarni statistik usullar bilan topish.

**2) Forensik vositalar**

| Vosita | Tavsif va qo‘llanish sohasi |
|---|---|
| **Wireshark** | Dunyodagi eng mashhur paket tahlilchi. GUI va CLI (tshark) versiyalari mavjud. PCAP fayllarni o‘qiydi. |
| **tcpdump** | Unix/Linux tizimlari uchun buyruq satridan trafik ushlash va filtrlash vositasi. |
| **Zeek (avv. Bro)** | Tarmoq xavfsizligi monitoringi tizimi. Yuqori darajali hodisa loglarini yaratadi. |
| **NetworkMiner** | Windows uchun passiv tarmoq forensik tahlili. Fayllar, tasvirlar va parollarni rekonstruktsiya qiladi. |
| **Snort / Suricata** | Ochiq manba IDS/IPS. Real vaqtda trafik tahlili va hujumlarni aniqlash. |
| **Arkime (Moloch)** | Keng ko‘lamli PCAP yozish, indekslash va ko‘rish tizimi. Elasticsearch bilan integratsiya. |
| **Elastic SIEM** | Korporativ darajadagi markazlashtirilgan hodisalarni boshqarish va korrelyatsiya platformasi. |
| **Volatility** | RAM tahlili. Tarmoq ulanishlarining xotiradagi izlarini topadi. |

## QO‘LLANISH SOHALARI

**1) Huquq-tartibot organlari**

Kiberjinoyatchilikni tekshirishda tarmoq kriminalistikasi asosiy vosita hisoblanadi. Jinoyatchilarning IP-manzillari, faoliyat vaqtlari va ular bilan aloqa qilgan manzillar tarmoq loglaridan aniqlanadi. Sudda qabul qilinadigan raqamli dalillar to‘plash jarayonida standart protseduralar qat'iy bajarilishi shart.

**2) Korporativ xavfsizlik**

Kompaniyalar ma’lumot sizib chiqishini (data breach) aniqlash, insider tahdidlarni monitoring qilish va xavfsizlik hodisalariga tezkor munosabat bildirish uchun tarmoq forensikasidan foydalanadi. Xodimlarning ruxsatsiz faoliyati, ma’lumotlarning tashqariga chiqarilishi kabi holatlar aniqlanadi.

**3) Moliyaviy sektor**

Bank va moliya institutlari fishing hujumlarini, moliyaviy firibgarliklarni va to‘lov tizimlariga bo‘lgan hujumlarni aniqlash uchun real vaqt tarmoq monitoringidan foydalanadi. PCI DSS standartlariga muvofiqlik ham doimiy tarmoq auditini talab qiladi.

**4) Milliy xavfsizlik va mudofaa**

Davlat tarmoqlariga yo‘naltirilgan APT (Advanced Persistent Threat) hujumlarini aniqlash, josuslik faoliyatini bartaraf etish va kritik infratuzilmani himoya qilish tarmoq kriminalistikasining milliy xavfsizlik sohasidagi asosiy vazifalaridir.

## MUAMMOLAR VA QIYINCHILIKLAR

**1) Texnik muammolar**

- Katta hajmdagi ma’lumotlar: Zamonaviy tarmoqlarda kuniga terabaytlab trafik hosil bo‘ladi. Barchasini saqlash va tahlil qilish ulkan texnik resurslar talab etadi.
- Shifrlangan trafik: TLS/HTTPS kriptografiyasi tarmoq trafikining 80%dan ko‘prog‘ini himoya qiladi. Bu mazmunli paket tahlilini cheklaydi.
- IPv6 va yangi protokollar: Yangi tarmoq protokollarining joriy bo‘lishi mavjud forensik vositalarni yangilashni talab qiladi.
- Vaqt muvofiqlashuvi: Turli tizimlar o‘rtasida vaqt tamg‘alarining nomuvofiqligini bartaraf etish murakkab.

**2) Huquqiy va etik muammolar**

- Shaxsiy hayot daxlsizligi: GDPR, O‘zbekiston PDPL va boshqa qonunlar tarmoq monitoringida ma’lumotlarni himoya qilishni talab qiladi.
- Yurisdiksiya muammolari: Kiberjinoyatlar ko‘pincha bir necha davlatni qamrab oladi. Xalqaro hamkorlik va qonuniy asoslar zaifligicha qolmoqda.
- Dalillarning qonuniyligi: Noto‘g‘ri yig‘ilgan tarmoq dalillari sudda rad etilishi mumkin. Chain of custody qat'iy saqlanishi shart.

**3) Kadrlar muammosi**

Jahon miqyosida tarmoq kriminalistikasi mutaxassislari yetishmasligi kuchayib bormoqda. 2025-yilgi hisob-kitoblarga ko‘ra, kiberxavfsizlik sohasida 3,5 million bo‘sh ish o‘rni mavjud. Malakali mutaxassislar tayyorlash eng dolzarb vazifadir.

## Istiqbollar va kelajak texnologiyalari

**1) Sun’iy intellekt va Machine Learning**

AI va ML texnologiyalari tarmoq kriminalistikasini inqilob darajasida o‘zgartirmoqda. Unsupervised learning algoritmlari an’anaviy imzo asosidagi tizimlar ilgari sutkalar davomida aniqlagan anomaliyalarni millisekundlarda topishi mumkin. Deep learning modellari zararli dasturlarni yangi variatsiyalarini ham aniqlashga qodir. UEBA (User and Entity Behavior Analytics) tizimlari insider tahdidlarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

**2) Kvant kriptografiya va post-kvant forensika**

Kvant kompyuterlarining rivojlanishi hozirgi kriptografik algoritmlarni tahdid ostiga qo‘ymoqda. NIST post-kvant kriptografiya standartlarini ishlab chiqmoqda. Tarmoq forensikachilari yangi kriptografik muhitda ishlashga tayyor bo‘lishlari shart, chunki mavjud dalil yig‘ish usullari fundamental o‘zgarishlarga duch kelishi mumkin.

**3) Zero Trust arxitekturasi va mikrosegmentatsiya**

Zero Trust printsipi ('Hech kimga ishonma, hamma narsani tekshir') tarmoq forensikasi uchun yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklar yaratadi. Mikrosegmentatsiya granular darajadagi kuzatuvni imkonli qilsa-da, forensik tahlil uchun ma’lumot hajmini oshiradi.

**4) Blokcheyn asosidagi dalil zanjiri**

Blokcheyn texnologiyasi raqamli dalillarning o‘zgarmasligini kriptografik usulda kafolatlash imkonini beradi. Chain of custody hujjatini blokcheynda saqlash sudlarda dalillarning ishonchliligini oshiradi va qalbakilashtirish xavfini yo‘q qiladi.

**5) O‘zbekistonda tarmoq kriminalistikasi**

O‘zbekiston Milliy kiberxavfsizlik markazi va tegishli davlat organlari tarmoq kriminalistikasini rivojlantirish bo‘yicha qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2023-2027 yillarga mo‘ljallangan Raqamli O‘zbekiston strategiyasi doirasida kiberxavfsizlik mutaxassislarini tayyorlash va infratuzilmani zamonaviylashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Axborot texnologiyalari universitetlari, TATU va boshqa oliy o‘quv yurtlarida kiberforensika yo‘nalishlari ochilmoqda.

## Xulosa

Tarmoq kriminalistikasi – zamonaviy raqamli dunyoda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning ilmiy asosi bo‘lib, quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

- Tarmoq kriminalistikasi kiberjinoyatlarni aniqlash, tekshirish va sudda isbotlashning muhim vositasi hisoblanadi.
- Paket tahlili, log-monitoring va anomaliyalarni aniqlash – bu sohaning asosiy texnik usullari.
- Sun’iy intellekt va Machine Learning tarmoq forensikasini yangi bosqichga olib chiqmoqda.
- Huquqiy bazaning takomillashuvi texnologik o‘zgarishlar bilan parallel ravishda borishi zarur.
- O‘zbekistonda sohani rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlash, infratuzilmani takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.
- Kelajakda kvant kriptografiya, Zero Trust va blokcheyn texnologiyalari tarmoq kriminalistikasining yangi qirralarini ochadi.

Xulosa qilib aytganda, tarmoq kriminalistikasi faqat texnik fan emas – u huquqshunos, texnolog va siyosatchi uchun umumiy til topish platformasi sifatida xizmat qiladi. Raqamli muammolarga raqamli yechimlar topish – bizning avlodimizning asosiy vazifasidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Davidoff S., Ham J. – Network Forensics: Tracking Hackers through Cyberspace. Prentice Hall, 2012.
2. Casey E. – Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers, and the Internet. Academic Press, 2011.
3. Bejtlich R. – The Practice of Network Security Monitoring. No Starch Press, 2013.
4. Wireshark rasmiy hujjatlar: https://www.wireshark.org/docs/
5. NIST SP 800-86 – Guide to Integrating Forensic Techniques into Incident Response.

6. ENISA – Network Forensics: Processes, Best Practices and Requirements. European Union Agency for Cybersecurity, 2022.
7. Cisco Talos Threat Intelligence: https://talosintelligence.com/
8. O‘zbekiston Milliy Kiberxavfsizlik Markazi: https://csec.uz/
9. IBM Cost of a Data Breach Report 2024.
10. (ISC)2 Cybersecurity Workforce Study 2024.

# АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНЫХ СИСТЕМАХ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА СТАТУС СУДЕЙ

***А.Ш.Чуллиев**, заведующий сектором Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан*

**Аннотация:** Статья посвящена комплексному анализу международной интеграции искусственного интеллекта (ИИ) в судебные системы и трансформации правового статуса судей. Автор исследует глобальный опыт – от американских систем оценки рисков до «умных судов» Китая и европейских инициатив электронного правосудия. В работе рассматривается влияние алгоритмов на административное управление, правовые исследования и прогностическое правосудие. Особое внимание уделяется этическим рискам: алгоритмической предвзятости, угрозе судейской независимости и возникновению «когнитивной зависимости» от технологий. Автор подчеркивает необходимость разработки новых этико-правовых стандартов и цифровых компетенций, при которых ИИ остается лишь вспомогательным инструментом, сохраняя за человеком исключительное право на принятие окончательных решений.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, судебная система, статус судьи, международный опыт, независимость судей, алгоритмическая предвзятость, цифровизация правосудия, этические стандарты, прогностическое правосудие, онлайн-разрешение споров.

Глобальная интеграция искусственного интеллекта (ИИ) в судебные системы меняет правовой ландшафт. В данной статье представлен анализ международного опыта внедрения ИИ в судах с упором на его влияние на правовой статус, роли и обязанности судей в различных юрисдикциях, а также выделены ключевые области применения ИИ и его последствия для судебной практики.

Особое внимание в исследовании уделяется фундаментальному вопросу: способен ли ИИ дополнить человеческое правосудие, не подрывая при этом принцип судейской независимости. На фоне стремительной цифровизации правосудия в странах-лидерах

технологической гонки возникает необходимость переосмысления классического статуса судьи. Трансформация из единоличного арбитра в субъекта, взаимодействующего с «алгоритмическим помощником», влечет за собой как новые возможности для повышения эффективности, так и серьезные риски – от алгоритмической предвзятости до делегирования ответственности за принятие решений неживым системам.

Внедрение ИИ в судебных системах значительно различается в зависимости от правовых традиций и юрисдикций. Анализ международных кейсов – от систем оценки рисков в США до автоматизированных судов в Китае – выявляет закономерности адаптации правовых институтов к технологическим вызовам, подтверждая, что трансформация статуса судьи требует не только технической модернизации, но и разработки новых этико-правовых стандартов. Это необходимо для обеспечения гармонии между технологическим прогрессом и фундаментальными гарантиями прав человека на справедливое судебное разбирательство.

В отчете Европейской комиссии по эффективности правосудия (CEPEJ) «Европейские судебные системы – отчет об оценке CEPEJ» подчеркивается разный уровень интеграции ИИ в европейских судах, при этом такие страны, как Эстония и Латвия, лидируют в инициативах электронного правосудия[39]. Эти юрисдикции активно внедряют алгоритмы для автоматизации обработки документов и управления судебными потоками, что создает практическую базу для последующего делегирования ИИ более сложных аналитических задач.

В юрисдикциях общего права США наблюдают широкое внедрение ИИ в правовых исследованиях и аналитике, о чем свидетельствует использование таких систем, как LexisNexis' Lexis+ и Thomson Reuters' Westlaw Edge[40]. Данные инструменты позволяют судьям и их аппарату оперативно обрабатывать массивы прецедентов, формируя основу для более точного прогнозирования судебных решений на базе ретроспективного анализа.

Страны гражданского права, такие как Китай, приняли ИИ более всесторонне, а в «Мнениях об ускорении строительства умных судов» Верховного народного суда изложен амбициозный план

[39]European Commission for the Efficiency of Justice. (2020). European Judicial Systems - CEPEJ Evaluation Report.
[40]LexisNexis. (2021). Lexis+ Legal Research Platform.

интеграции ИИ[41]. Данная стратегия охватывает все этапы судопроизводства, включая использование «цифровых помощников» для автоматического формирования проектов вердиктов и контроля за единообразием судебной практики в масштабах всей страны.

Мотивы внедрения ИИ различаются, причем основными движущими силами являются эффективность и доступ к правосудию. Например, бразильская система VICTOR, разработанная для Верховного федерального суда, направлена на ускорение сроков обработки дел[42]. Подобные инструменты позволяют автоматизировать классификацию огромного потока апелляций по правовым темам, значительно снижая нагрузку на судей и освобождая их ресурс для рассмотрения наиболее сложных и общественно значимых споров.

Влияние на роль судей различается в зависимости от правовой культуры. В Великобритании Программа реформ для судов и трибуналов, изложенная в Законе о судах и трибуналах (судебная система и функции персонала) 2018 года, подчеркивает необходимость адаптации судей к новым технологиям[43]. «Европейская этическая хартия по использованию ИИ в судебных системах» Совета Европы обеспечивает основу для понимания последствий ИИ для роли судей, подчеркивая такие принципы, как уважение основных прав и недискриминация[44].

Данные международные инициативы отражают устойчивую глобальную тенденцию к глубокой цифровизации правосудия, которая ставит перед юридическим сообществом задачу системной переоценки традиционных профессиональных компетенций и фундаментальных основ статуса судьи в условиях алгоритмизации судебного процесса.

Внедрение ИИ в управление делами и администрирование судов существенно повлияло на судебные рабочие процессы во всем мире. Интеллектуальные системы автоматизируют распределение исковых заявлений, прогнозируют сроки рассмотрения споров и

[41]Supreme People's Court of China. (2017). Opinions on Accelerating the Building of Smart Courts.

[42]Supreme Federal Court of Brazil. (2018). Resolution 604/2018 on the Use of Artificial Intelligence in the Brazilian Judiciary.

[43]Courts and Tribunals (Judiciary and Functions of Staff) Act 2018, c. 33 (UK).

[44]European Commission for the Efficiency of Justice. (2018). European Ethical Charter on the Use of AI in Judicial Systems and Their Environment.

обеспечивают мгновенную сортировку документации по заданным категориям сложности. Это не только минимизирует риск технических ошибок и коррупционных факторов при назначении дел, но и позволяет судейскому корпусу сфокусироваться исключительно на правосудии, делегируя алгоритмам выполнение трудоемких рутинных операций.

Система интеллектуального управления судебными делами Сингапура, введенная в соответствии с Законом о Верховном суде (поправка) 2019 года, является примером передового применения ИИ в управлении досье и распределении ресурсов[45]. Эта система сократила время обработки дел на 30%, изменив административные обязанности судей[46].

В Бразилии система ИИ VICTOR, разработанная для Верховного федерального суда в соответствии с Резолюцией 604/2018, автоматизирует анализ чрезвычайных апелляций, освобождая судебное время для более сложных задач[47]. Благодаря способности алгоритма мгновенно идентифицировать темы с установленным статусом «общего значения» (repercussão geral), система эффективно фильтрует избыточную нагрузку, позволяя судьям концентрироваться на выработке ключевых правовых позиций, а не на техническом сопоставлении документов.

Влияние на судебную нагрузку является существенным: исследование Национального центра государственных судов в США показало 25%-ное сокращение времени, затрачиваемого на рутинные административные задачи[48].

Однако принятие этих систем вызвало обеспокоенность по поводу судебного усмотрения в определении приоритетности дел. В Великобритании Правила судов и трибуналов (процедуры онлайн) 2020 года обеспечивают основу для управления делами с помощью ИИ, подчеркивая необходимость баланса между автоматизацией и судебным надзором[49]. Исследование Европейской комиссии 2020 года «ИИ и цифровая трансформация в судебных системах» подчеркивает различные уровни удовлетворенности судей

[45]Supreme Court of Judicature (Amendment) Act 2019 (Singapore).
[46]Singapore Judiciary. (2020). Annual Report 2020.
[47]Supreme Federal Court of Brazil. (2018). Resolution 604/2018 on the Use of Artificial Intelligence in the Brazilian Judiciary.
[48]National Center for State Courts. (2021). The State of State Courts 2021.
[49]Courts and Tribunals (Online Procedure) Rules 2020 (UK).

административными системами на базе ИИ в государствах-членах ЕС[50].

В Австралии Комитет по цифровой практике Федерального суда, созданный в соответствии с Законом о Федеральном суде Австралии 1976 года, сыграл важную роль в интеграции ИИ в судебные процессы, одновременно решая проблемы судей по поводу чрезмерной зависимости от технологий[51].

Обобщение международного опыта свидетельствует о том, что интеграция ИИ в процессы управления делами требует выверенного подхода, при котором стремление к административной эффективности не должно вступать в противоречие с профессиональной автономией судей и качеством отправления правосудия.

Инструменты правовых исследований с использованием ИИ трансформируют процессы принятия судебных решений по всему миру. Современные системы на базе больших языковых моделей и семантического поиска позволяют судьям в считанные секунды находить релевантные прецеденты и скрытые правовые связи в колоссальных массивах нормативных актов. Это не только ускоряет этап подготовки к судебному заседанию, но и способствует повышению качества мотивировочной части решений, обеспечивая более глубокую и всестороннюю аналитическую поддержку судейского усмотрения.

В США такие системы, как ROSS Intelligence, работающие в соответствии с Типовыми правилами профессионального поведения Американской ассоциации юристов, в частности, с Правилом 1.1 о компетенции, произвели революцию в возможностях юридических исследований[52]. Исследование, опубликованное в Stanford Law Review, показало, что судьи, использующие инструменты исследований с использованием ИИ, на 20% чаще точно цитируют соответствующие прецеденты[53].

В Соединенном Королевстве принятие Luminance Верховным судом Великобритании, чему способствовал Закон о конституционной реформе 2005 года, повысило способность судей

[50]European Commission. (2020). Study on AI and Digital Transformation in Judicial Systems.
[51]Federal Court of Australia Act 1976 (Cth).
[52]American Bar Association. (2012). Model Rules of Professional Conduct, Rule 1.1.
[53]Katz, D. M., Bommarito II, M. J., & Blackman, J. (2017). A general approach for predicting the behavior of the Supreme Court of the United States. PloS one, 12(4), e0174698.

эффективно обрабатывать огромные объемы юридической информации[54]. Данная технология позволяет проводить интеллектуальный аудит документации, автоматически выявляя несоответствия и ключевые правовые риски, что значительно сокращает время на подготовку к сложным коммерческим и гражданским спорам без потери глубины анализа.

Влияние на судебную экспертизу является значительным, и некоторые ученые утверждают, что ИИ демократизирует юридические знания. Исследования Института инноваций и конкуренции Макса Планка показывают, что исследования с использованием ИИ могут сократить различия в качестве решений между старшими и младшими судьями[55]. Однако сохраняются опасения по поводу чрезмерной зависимости от анализа, созданного ИИ.

«Этические принципы для судей» Канадского совета судей теперь включают руководство по этическому использованию ИИ в юридических исследованиях, подчеркивая необходимость для судей сохранять независимость правовых рассуждений[56]. Этот документ акцентирует внимание на том, что ИИ должен выполнять лишь вспомогательную функцию, в то время как окончательная юридическая оценка фактов и толкование права остаются исключительной прерогативой человека.

Во Франции статья R111-2 Кодекса судебной организации была изменена в 2019 году для регулирования использования ИИ при анализе судебных решений, что отражает обеспокоенность по поводу влияния алгоритмов на судебные рассуждения[57]. Данный запрет на коммерческое использование данных для оценки деятельности судей служит защитным механизмом, предотвращающим внешнее давление на судейскую независимость через математическое моделирование их поведения.

Международная тенденция к использованию ИИ в юридических исследованиях требует переоценки подготовки и компетенций судей, о чем свидетельствует включение Европейской сетью подготовки судей грамотности в области ИИ в свои

[54]Constitutional Reform Act 2005, c. 4 (UK).
[55]Max Planck Institute for Innovation and Competition. (2020). The Impact of AI on Judicial Decision-Making.
[56]Canadian Judicial Council. (2021). Ethical Principles for Judges.
[57]Code de l'organisation judiciaire [Code of Judicial Organization] art. R111-2 (Fr.).

программы обучения судей[58]. Такая образовательная политика подтверждает, что в условиях цифровизации судейский статус дополняется требованием критического осмысления работы алгоритмов для предотвращения «технологической предвзятости» при вынесении решений.

Использование инструментов предиктивного правосудия и оценки рисков на основе ИИ в судебных системах вызвало глобальные дебаты о судебном усмотрении и справедливости. Эти системы, анализируя исторические данные и поведенческие паттерны, предлагают вероятностные модели будущих правонарушений или исходов споров, что теоретически должно способствовать единообразию судебной практики. Однако на практике такие инструменты ставят перед судьями сложную дилемму: как использовать статистические выводы алгоритмов, не допуская при этом автоматизма в принятии решений и не жертвуя индивидуальным подходом к каждому конкретному делу.

В Соединенных Штатах противоречивая система COMPAS, используемая для прогнозирования рецидивизма, столкнулась с юридическими проблемами, в частности, в деле State v. Loomis, 881 NW2d 749 (Wis. 2016), где Верховный суд Висконсина столкнулся с проблемами надлежащей правовой процедуры[59]. Аналогичным образом в Европе система HART (инструмент оценки риска вреда), используемая полицией Дарема в Великобритании, подняла вопросы об алгоритмической предвзятости и независимости судебной системы[60].

Резолюция Европейского парламента от 16 февраля 2017 года о робототехнике (2015/2103(INL)) рассматривает этические последствия таких инструментов, подчеркивая необходимость человеческого надзора за судебными решениями[61]. Парламент особо акцентирует внимание на том, что автоматизированные системы не должны ограничивать свободу судейского усмотрения или заменять

[58]European Judicial Training Network. (2021). AI Literacy in Judicial Education Programs.
[59]State v. Loomis, 881 N.W.2d 749 (Wis. 2016). This case grappled with due process concerns regarding the use of algorithmic risk assessment tools in criminal sentencing.
[60]Oswald, M., Grace, J., Urwin, S., & Barnes, G. C. (2018). Algorithmic risk assessment policing models: lessons from the Durham HART model and 'Experimental' proportionality. Information & Communications Technology Law, 27(2), 223-250.
[61]European Parliament. (2017). Resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics (2015/2103(INL)).

собой процесс качественного анализа фактических обстоятельств дела живым арбитром.

Всестороннее исследование Института Алана Тьюринга показало, что судьи, интегрирующие оценки рисков ИИ, продемонстрировали 10%-ное снижение показателей рецидивизма, но также отметили потенциальные расовые предубеждения в алгоритмах[62]. В ответ на эти опасения решение Верховного суда Канады по делу Эверт против Канады, 2018 SCC 30, установило принципы использования инструментов оценки рисков ИИ, подчеркнув необходимость культурной чувствительности и постоянной проверки[63]. Нидерланды заняли более осторожный подход, и в 2018 году Совет по судебной системе Нидерландов выпустил руководящие принципы, которые ограничивают использование прогностических инструментов в принятии судебных решений, отдавая приоритет человеческому суждению[64].

Этот международный опыт подчеркивает сложный баланс между использованием возможностей ИИ и поддержанием судебного усмотрения и справедливости, что требует постоянного правового и этического контроля инструментов прогностического правосудия. В конечном итоге, ответственность за вердикт должна оставаться исключительной прерогативой судьи, в то время как предиктивные технологии могут выполнять лишь роль вспомогательного интеллектуального ресурса, требующего критического осмысления.

Интеграция ИИ в системы разрешения споров в режиме онлайн (ODR) переопределяет судебные роли во всем мире. Эти платформы эволюционировали от простых интерфейсов подачи документов до сложных экосистем, способных самостоятельно предлагать варианты урегулирования конфликтов на основе анализа аналогичных кейсов. В результате традиционная функция судьи как арбитра в простых гражданских и коммерческих спорах постепенно трансформируется в роль контролера технологического процесса, который подключается к разбирательству лишь в случае невозможности автоматизированного примирения сторон.

---

[62]The Alan Turing Institute. (2021). AI in the Judiciary: Benefits and Challenges.

[63]Ewert v. Canada, 2018 SCC 30. This case established principles for the use of AI risk assessment tools, emphasizing the need for cultural sensitivity and ongoing validation.

[64]Dutch Council for the Judiciary. (2018). Guidelines on the Use of AI in Judicial Decision-Making.

Гражданский трибунал по урегулированию споров (CRT) в Британской Колумбии, Канада, созданный в соответствии с Законом о гражданском трибунале по урегулированию споров [SBC 2012], Глава 25, представляет собой новаторский подход к разрешению споров с помощью ИИ[65]. Эта система сократила среднее время разрешения споров на 50%, значительно изменив традиционную судебную роль судей[66]. В Китае Интернет-суд Ханчжоу, действующий в соответствии с Положениями Верховного народного суда по нескольким вопросам, касающимся рассмотрения дел интернет-судами, использует ИИ для подачи дел, обмена доказательствами и даже предварительных решений[67]. Эти разработки смещают судебные функции с прямого вынесения решений на надзор за процессами, осуществляемыми с помощью ИИ.

Регламент Европейского союза о потребительском ODR (Online Dispute Resolution – онлайн-разрешение споров) устанавливает правовой фундамент для функционирования цифровых платформ на базе искусственного интеллекта (Регламент (ЕС) № 524/2013)[68]. Данный документ детально регулирует применение интеллектуальных систем при урегулировании трансграничных конфликтов между покупателями и продавцами, подчеркивая их ключевую роль в обеспечении доступного и эффективного правосудия внутри единого европейского рынка.

Исследование, опубликованное в Harvard Negotiation Law Review, показало, что судьи, участвующие в системах ODR на основе ИИ, сообщили о 30%-ном увеличении показателей закрытия дел, но выразили обеспокоенность по поводу поддержания надлежащей правовой процедуры[69].

Технические заметки Комиссии ООН по праву международной торговли (ЮНСИТРАЛ) по онлайн-разрешению споров предлагают руководство по обеспечению справедливости в соглашениях,

[65]Civil Resolution Tribunal Act, SBC 2012, c 25 (Can.).
[66]Civil Resolution Tribunal. (2021). Annual Report 2020-2021.
[67]Supreme People's Court of China. (2018). Provisions on Several Issues Concerning the Trial of Cases by Internet Courts.
[68]Regulation (EU) No 524/2013 on online dispute resolution for consumer disputes.
[69]Katsh, E., & Rabinovich-Einy, O. (2017). Digital Justice: Technology and the Internet of Disputes. Oxford University Press.

заключенных при посредничестве ИИ, – ответственность, которая все больше ложится на судей[70].

В Австралии Комитет по цифровой практике Федерального суда разработал руководящие принципы для судебного участия в ODR, подчеркивая необходимость поддержания судебного авторитета в разрешении споров на основе технологий[71].

Наблюдаемые во всем мире тенденции свидетельствуют о глубокой трансформации судейской профессии в цифровую эпоху. Это требует кардинального пересмотра подходов к подготовке кадров, где наряду с классическим правоведением ключевым элементом компетенции судьи становится технологическая грамотность.

Использование ИИ для судебной аналитики и оценки эффективности трансформирует оценку судебной эффективности и моделей принятия решений во всем мире. Интеллектуальные алгоритмы позволяют в реальном времени анализировать сроки рассмотрения дел, стабильность судебных актов и единообразие применения правовых норм, выявляя системные аномалии в работе отдельных судов. Вместе с тем, интеграция таких метрик требует осторожности, чтобы стремление к статистической оптимизации не превратилось в инструмент давления на судей, подрывая их независимость в угоду количественным показателям.

В Аргентине система Prometea, внедренная в соответствии с Резолюцией 26/2019 Прокуратуры Буэнос-Айреса, анализирует судебные решения для выявления закономерностей и несоответствий[72]. Это привело к повышению согласованности решений на 25%, но вызвало опасения относительно независимости судебной системы[73].

Польская система случайного распределения дел, предусмотренная Законом от 12 июля 2017 года о внесении поправок в Закон о системе общих судов, использует ИИ для распределения

[70]United Nations Commission on International Trade Law. (2017). Technical Notes on Online Dispute Resolution.
[71]Federal Court of Australia. (2020). Digital Practice Committee Guidelines.
[72]Public Prosecutor's Office of Buenos Aires. (2019). Resolution 26/2019 on the Implementation of Prometea.
[73]Corval?n, J. G. (2018). Artificial Intelligence and Constitutional Law: The Prometea Experience. Revista de Investiga??es Constitucionais, 5(3), 295-316.

дел и мониторинга судебной нагрузки, влияя на то, как измеряется эффективность работы судов[74].

В США Проект судебной статистики, совместные усилия Конференции администраторов государственных судов и Национального центра государственных судов, использует аналитику ИИ для оценки эффективности работы судов по различным показателям[75].

Эти инструменты меняют ландшафт судебной ответственности, о чем свидетельствует отчет Европейской сети советов по судебной системе за 2020 год «Сбор данных и оценка судов»[76]. В отчете подчеркивается потенциал ИИ для повышения прозрачности, но предостерегается от чрезмерной зависимости от количественных показателей.

В Израиле использование ИИ Администрацией судов для анализа эффективности работы судов, разрешенное в соответствии с Законом о судах [Сводная версия], 5744-1984, привело к 15%-ному улучшению показателей раскрытия дел, но подверглось критике за потенциальное влияние на поведение судей[77].

Данные примеры мировой практики наглядно подтверждают острую необходимость поиска гармоничного и взвешенного подхода к цифровизации. Внедрение аналитических мощностей ИИ должно быть направлено на реальное совершенствование системы, а не на создание механизмов скрытого контроля, способных спровоцировать деградацию качественного правосудия. Крайне важно, чтобы использование технологий не привело к подмене глубокого правового анализа формальным соответствием алгоритмическим метрикам, тем самым сохраняя за судейской независимостью статус незыблемого гаранта справедливого судебного разбирательства.

Интеграция технологий ИИ в судебные разбирательства меняет судебные компетенции и динамику судебных заседаний во всем мире. Этот процесс требует от судей не только глубоких правовых знаний, но и способности критически оценивать доказательства, полученные или обработанные с помощью алгоритмов, такие как дипфейки или результаты сложного интеллектуального анализа

[74]Act of 12 July 2017 amending the Act - Law on the System of Common Courts (Poland).
[75]National Center for State Courts. (2021). Court Statistics Project.
[76]European Network of Councils for the Judiciary. (2020). Data Collection and Court Evaluation.
[77]Courts Law [Consolidated Version], 5744-1984 (Isr.).

данных. В новых реалиях цифровая грамотность судьи становится таким же обязательным элементом профессиональной компетенции, как и знание материального или процессуального права, поскольку именно на судью ложится ответственность за обеспечение прозрачности и состязательности в условиях «правосудия алгоритмов».

Система e-File Эстонии, внедренная в соответствии с Гражданским процессуальным кодексом § 601, является примером передовых цифровых судебных разбирательств, требующих от судей развития новых технических навыков[78]. Такая глубокая интеграция цифровых платформ в повседневную работу суда переводит взаимодействие участников процесса в полностью безбумажный формат, где судья выступает не только как правоприменитель, но и как активный оператор сложной информационной экосистемы.

В Абу-Даби двуязычная инициатива цифровых судебных заседаний, запущенная в соответствии с Федеральным указом-законом № 10 от 2017 года о Федеральном арбитражном праве ОАЭ, использует ИИ для перевода и транскрипции в реальном времени, изменяя роль судьи в управлении многоязычными разбирательствами[79]. Использование мгновенного автоматизированного перевода позволяет существенно снизить языковые барьеры и ускорить процесс рассмотрения дел, при этом возлагая на судью дополнительную ответственность за верификацию точности алгоритмической интерпретации юридических терминов.

Эти достижения требуют новых судебных компетенций, как подчеркивается в исследовании Европейской комиссии 2020 года «ИИ для судей», в котором было установлено, что 70% европейских судей чувствовали себя недостаточно подготовленными к залам суда, усовершенствованным с помощью ИИ[80].

Проблема поддержания справедливых судебных разбирательств в технологически усовершенствованных средах рассматривается в Руководящих принципах Совета Европы по электронным доказательствам в гражданских и административных

[78]Code of Civil Procedure § 601 (Est.).
[79]Federal Decree-Law No. 10 of 2017 on UAE Federal Arbitration Law.
[80]European Commission. (2020). Study on AI for Judges.

разбирательствах (2019), подчеркивающих ответственность судей за обеспечение целостности цифровых доказательств[81].

В Сингапуре технологические суды, созданные в соответствии с Приказом 108 Правил суда, интегрируют различные технологии ИИ, требуя от судей прохождения специализированной подготовки по обработке цифровых доказательств и виртуальному управлению судом[82].

Потенциал «цифрового разрыва» среди судей очевиден в США, где исследование Федерального судебного центра 2021 года выявило значительные различия в грамотности в области ИИ среди федеральных судей[83].

Для решения этой проблемы такие страны, как Австралия, внедрили комплексные программы судебного образования, такие как курс «Технологии для судей» Национального судебного колледжа Австралии, предписанный Национальной программой ориентации судей[84].

Мировой опыт со всей очевидностью указывает на то, что фрагментарного освоения технологий уже недостаточно для обеспечения качественного правосудия. Необходим переход к системным государственным стратегиям подготовки кадров, которые позволят сформировать у судей устойчивые компетенции для эффективного и справедливого управления судебными процессами в высокотехнологичной среде, усиленной искусственным интеллектом.

Разработка этических рамок для использования ИИ в судебной системе отражает глобальное признание необходимости баланса между технологическим прогрессом и основополагающими правовыми принципами. В центре этих дискуссий стоят требования прозрачности алгоритмов и подотчетности систем, которые призваны исключить «эффект черного ящика» при принятии юридически значимых решений. Создание таких стандартов направлено на предотвращение алгоритмической предвзятости и дискриминации, гарантируя, что внедрение инноваций не подорвет общественное доверие к беспристрастности правосудия.

---

[81]Council of Europe. (2019). Guidelines on Electronic Evidence in Civil and Administrative Proceedings.
[82]Rules of Court, Order 108 (Singapore).
[83]Federal Judicial Center. (2021). Survey on Judicial AI Literacy.
[84]National Judicial College of Australia. (2021). Technology for Judges Course.

Европейская этическая хартия по использованию ИИ в судебных системах Европейской комиссии по эффективности правосудия (CEPEJ), принятая в 2018 году, представляет собой всеобъемлющую основу, подчеркивающую уважение прав человека, недискриминацию и прозрачность[85]. Эта хартия оказала влияние на национальную политику, такую как Закон Франции № 2019-222 о реформе правосудия, который включает этические соображения относительно ИИ в судах[86].

В США Национальный институт стандартов и технологий (NIST) разработал Рамочную структуру управления рисками ИИ, предлагающую руководящие принципы ответственного использования ИИ в правовых контекстах[87].

«Руководящие принципы по применению ИИ в судебных службах» Пекинского интернет-суда, выпущенные под эгидой Верховного народного суда Китая, предоставляют уникальную перспективу интеграции ИИ при сохранении «основных социалистических ценностей» в системе правосудия[88].

Эти рамки учитывают меняющуюся роль судей, как это видно из «Модельной рамки судебного использования ИИ» Канадского центра судебных технологий, в которой подчеркивается судебный надзор за принятием решений с использованием ИИ[89].

Проблема баланса между внедрением ИИ и основными судебными ценностями очевидна в «Руководящих принципах по использованию ИИ в юридической практике» Международной ассоциации юристов, в которых подчеркивается важность человеческого суждения в юридических процессах[90].

Роль судей в формировании этих этических рамок подчеркивается в Мнении № 24 (2021) Консультативного совета европейских судей Совета Европы об эволюции отношений судов с ИИ, в котором подчеркивается участие судов в управлении ИИ[91].

---

[85]European Commission for the Efficiency of Justice. (2018). European Ethical Charter on the Use of AI in Judicial Systems and Their Environment.
[86]Loi n° 2019-222 du 23 mars 2019 de programmation 2018-2022 et de r?forme pour la justice [Law No. 2019-222 of March 23, 2019 on Programming 2018-2022 and Justice Reform] (Fr.).
[87]National Institute of Standards and Technology. (2021). AI Risk Management Framework.
[88]Beijing Internet Court. (2019). Guidelines on the Application of AI in Judicial Services.
[89]Canadian Centre for Court Technology. (2020). Model Framework for Judicial Use of AI.
[90]International Bar Association. (2019). Guidelines on the Use of AI in Legal Practice.
[91]Consultative Council of European Judges. (2021). Opinion No. 24 on the evolution of the courts' relationship with AI.

Таким образом, формирование глобального этического консенсуса указывает на переход от декларативных призывов к созданию конкретных механизмов «алгоритмической подотчетности». Этот международный массив документов подтверждает, что технологическая интеграция в судебную среду допустима лишь в той мере, в какой она остается подконтрольной человеку, гарантируя подсудимым право на понятный, проверяемый и этически выверенный процесс.

Интеграция ИИ в судебные системы по всему миру вызвала серьезную обеспокоенность по поводу сохранения независимости и беспристрастности судебной системы. Основной риск заключается в возникновении «когнитивной зависимости» судей от рекомендаций алгоритмов, когда стремление к процессуальной экономии подавляет критическое осмысление машинных выводов. Кроме того, непрозрачность исходных кодов и обучающих выборок, зачастую являющихся коммерческой тайной разработчиков, создает угрозу внешнего влияния на правосудие, при котором фактические критерии принятия решений смещаются из правового поля в область закрытых технических разработок.

В США дело State v. Loomis, 881 NW2d 749 (Wis. 2016), подчеркнуло напряженность между рекомендациями, сгенерированными ИИ, и судебным усмотрением при вынесении приговоров[92].

Европейский суд по правам человека в своем решении по делу Lexell v. Estonia (заявление № 39747/17) подчеркнул важность независимости судебной системы в контексте принятия решений с помощью ИИ[93].

Опасения по поводу алгоритмической предвзятости, подрывающей беспристрастность судебной системы, рассматриваются в «Руководящих принципах Глобальной сети по обеспечению честности судебных органов по использованию социальных сетей судьями» Управления ООН по наркотикам и преступности, которые теперь включают положения о контенте, сгенерированном ИИ[94].

[92]State v. Loomis, 881 N.W.2d 749 (Wis. 2016). This case highlighted the tension between AI-generated recommendations and judicial discretion in sentencing decisions.

[93]Lexell v. Estonia, App. No. 39747/17 (Eur. Ct. H.R. 2023). This case emphasized the importance of judicial independence in the context of AI-assisted decision-making.

[94]United Nations Office on Drugs and Crime. (2019). Global Judicial Integrity Network's Guidelines on the Use of Social Media by Judges.

Различные правовые системы решают эти проблемы различными способами. В Канаде решение Верховного суда по делу R. v. Sharma, 2020 SCC 39, установило принципы сохранения судебного усмотрения при использовании инструментов оценки рисков на основе ИИ[95]. Решение Федерального конституционного суда Германии (1 BvR 2019/16) об использовании автоматизированных систем в судебных процессах подчеркивает необходимость прозрачности и человеческого надзора[96].

Академические исследования, такие как опубликованное в Harvard Law Review, показали, что осведомленность судей об участии ИИ в подготовке дела может влиять на принятие ими решений, потенциально ставя под угрозу беспристрастность[97].

Для решения этих проблем Совет по судебной системе Нидерландов внедрил руководящие принципы, требующие от судей прямо указывать, когда и как инструменты ИИ повлияли на их решения, способствуя прозрачности и подотчетности[98].

Накопленный международный опыт свидетельствует о том, что интеграция искусственного интеллекта ставит перед правосудием беспрецедентный вызов. Главная задача современных правовых систем заключается в том, чтобы научиться эффективно использовать технологические инновации, не допуская при этом эрозии фундаментальных принципов независимости и беспристрастности судебной власти.

Законодательные и политические меры реагирования на внедрение ИИ в судебных системах значительно различаются в разных юрисдикциях, что отражает различные подходы к балансу инноваций с правовыми традициями. В то время как одни государства стремятся создать жесткие регуляторные «песочницы» для минимизации рисков, другие ограничиваются принятием этических кодексов и рекомендательных актов. Это приводит к формированию фрагментарного правового ландшафта, где ключевым вызовом остается разработка универсальных стандартов,

[95]R. v. Sharma, 2020 SCC 39. This case established principles for maintaining judicial discretion when using AI-powered risk assessment tools in the Canadian justice system.

[96]BVerfG, Beschluss des Ersten Senats vom 19. Mai 2020 - 1 BvR 2397/19 -, Rn. 1-69. This decision by the German Federal Constitutional Court emphasized the need for transparency and human oversight in automated systems used in judicial processes.

[97]Copus, R. (2019). Statistical precedent: Allocating judicial attention. Vanderbilt Law Review, 72(5), 1719-1782.

[98]Netherlands Council for the Judiciary. (2021). Guidelines on AI Use in Courts.

которые могли бы гарантировать эквивалентный уровень защиты прав граждан в условиях автоматизированного правосудия.

Новаторский закон Франции № 2019-222 о реформе правосудия включает статью 33, которая запрещает использование ИИ для предиктивного анализа судебных решений, направленную на защиту независимости судебной системы[99]. Напротив, Закон Эстонии о судах § 34^1, измененный в 2019 году, обеспечивает правовую основу для интеграции ИИ в судебные разбирательства, подчеркивая эффективность и прозрачность[100].

Конгресс США представил Закон об алгоритмической ответственности 2022 года (HR 6580), который, в случае принятия, будет иметь значительные последствия для использования ИИ в федеральных судах[101].

В Европейском союзе предлагаемый Закон об искусственном интеллекте (COM/2021/206 final) включает конкретные положения для систем ИИ с высоким риском при отправлении правосудия, потенциально изменяя судебную практику в государствах-членах[102].

Роль судебных советов в формировании политики в области ИИ очевидна в Испании, где Соглашение Генерального совета судебной власти 78/2020 устанавливает руководящие принципы использования ИИ в судах[103].

Эти законодательные усилия переопределяют статус и обязанности судей в цифровую эпоху. Например, Закон о реформе судов (гражданское и уголовное правосудие) Сингапура 2021 года явно расширяет судебные полномочия, включая надзор за системами ИИ в судебных процессах[104].

Проблема создания гибких, но надежных правовых рамок рассматривается в Рекомендации Совета Европы CM/Rec(2021)8 о защите лиц в отношении автоматической обработки персональных

[99]Loi n° 2019-222 du 23 mars 2019 de programmation 2018-2022 et de r?forme pour la justice [Law No. 2019-222 of March 23, 2019 on Programming 2018-2022 and Justice Reform], art. 33 (Fr.).
[100]Courts Act § 34^1 (Est.).
[101]Algorithmic Accountability Act of 2022, H.R. 6580, 117th Cong. (2022).
[102]European Commission. (2021). Proposal for a Regulation laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act).
[103]General Council of the Judiciary. (2020). Agreement 78/2020 on the Use of AI in Spanish Courts.
[104]Courts (Civil and Criminal Justice) Reform Act 2021 (Singapore).

данных в контексте профилирования, которая включает соображения по использованию ИИ в судах[105].

Разнообразие законодательных инициатив на международной арене подчеркивает активную стадию глобального диалога по вопросам правового регулирования ИИ в судебной деятельности. Каждая юрисдикция формирует собственный уникальный путь, пытаясь найти баланс между технологическим прогрессом и сохранением незыблемых правовых институтов, что неизбежно ведет к поиску общих международных стандартов управления цифровым правосудием.

Современный ландшафт внедрения искусственного интеллекта наглядно демонстрирует, как новые технологии радикально трансформируют профессиональный статус судьи, предлагая колоссальный рост эффективности в обмен на решение сложнейших этических дилемм. В этих условиях ключевым фактором успеха становится создание гибких адаптивных механизмов регулирования, которые позволят интегрировать инновации без ущерба для фундаментальных основ правосудия и человеческого измерения судебной власти.

## IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQ FANINI RIVOJLANTIRISH AYRIM MASALALARI

***B. J.Abdullayev***
*Sarbon universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti*
*boymurodabdullayev@gmail.com*
*+998901120801*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy nizolar sonining ortib borishi va ularni hal etishda iqtisodiy protsessual huquqning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu faning yuridik ta’lim tizimidagi ahamiyati, uni o‘qitish jarayonida mavjud muammolar (nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut, amaliy mashg‘ulotlar yetishmasligi, zamonaviy metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi) ko‘rib chiqilgan. Muallif tomonidan iqtisodiy protsessual huquqni o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatining kengayib borishi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar

[105]Council of Europe. (2021). Recommendation CM/Rec(2021)8 on the protection of individuals with regard to automatic processing of personal data in the context of profiling.

o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning tobora murakkablashuvi iqtisodiy nizolar sonining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday nizolarni adolatli va samarali hal etishda iqtisodiy sudlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois iqtisodiy sud ishlarini yuritish tartibini belgilovchi iqtisodiy protsessual huquq instituti zamonaviy huquq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Iqtisodiy protsessual huquq nafaqat sud amaliyotida, balki yuridik ta’lim tizimida ham muhim o‘rin tutadi. Chunki ushbu fan orqali talabalarda iqtisodiy nizolarni sud tartibida ko‘rib chiqish mexanizmlari, protsessual tamoyillar hamda sud muhokamasi jarayonida qo‘llaniladigan huquqiy vositalar yuzasidan nazariy va amaliy bilimlar shakllantiriladi. Shu bilan birga, iqtisodiy protsessual huquq tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, tadbirkorlik subyektlari huquqlarini yanada samarali himoya qilish hamda iqtisodiy sudlar faoliyatini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, iqtisodiy protsessual qonunchilikni takomillashtirish, sud jarayonlarini raqamlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bunday o‘zgarishlar iqtisodiy protsessual huquq fanining mazmuni va uni o‘qitish metodikasini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiy protsessual huquqni o‘qitish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Xususan, iqtisodiy sud amaliyoti bilan ta’lim jarayoni o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yetarli darajada ta’minlanmaganligi, ayrim protsessual institutlarning nazariy talqini bilan amaliy qo‘llanilishi o‘rtasida tafovutlar mavjudligi, shuningdek, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish darajasining pastligi mazkur fan samarali o‘qitilishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi iqtisodiy protsessual huquq fanining nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qilish, uni o‘qitish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Iqtisodiy protsessual huquq zamonaviy huquq tizimining muhim institutlaridan biri bo‘lib, u xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy nizolarni sud tartibida ko‘rib chiqish va hal etishning protsessual mexanizmlarini belgilaydi. Ushbu institut iqtisodiy

sudlar faoliyatini tartibga solish bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, davlat organlari bilan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi nizolarning ko‘payishi iqtisodiy protsessual huquqning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan ishlarning sifati va samaradorligi ko‘p jihatdan ushbu yo‘nalishda yetuk mutaxassislarni tayyorlashga bog‘liqdir. Shu sababli iqtisodiy protsessual huquq fanini yuridik ta’lim tizimida samarali o‘qitish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy protsessual huquqni o‘qitish orqali talabalarda sud jarayonining asosiy bosqichlari, iqtisodiy sudlar vakolati, sudga murojaat qilish tartibi, dalillarni taqdim etish va isbotlash mexanizmlari, sud qarorlarini qabul qilish hamda ularning ijrosini ta’minlash masalalari yuzasidan tizimli bilimlar shakllantiriladi. Shu bilan birga, ushbu fan talabalarda protsessual-huquqiy tafakkur, huquqiy tahlil qilish ko‘nikmalari va sud amaliyotini to‘g‘ri talqin etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Biroq iqtisodiy protsessual huquqni o‘qitish jarayonida ayrim nazariy va amaliy muammolar mavjud. Avvalo, o‘quv jarayonida nazariy bilimlar bilan sud amaliyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yetarli darajada ta’minlanmayotgani kuzatiladi. Natijada talabalar iqtisodiy sud ishlarini yuritish tartibi bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lsalar-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Shuningdek, iqtisodiy protsessual qonunchilikning murakkabligi va uning doimiy ravishda takomillashib borishi ham mazkur fan o‘qitilishida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, iqtisodiy sudlarning yurisdiksiyasi, huquqiy nizolarni ko‘rib chiqish tartibi, huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash bilan bog‘liq protsessual institutlar talabalardan chuqur nazariy va amaliy bilimlarni talab etadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy protsessual huquqni o‘qitish jarayonida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarni shartli ravishda bir necha guruhlarga ajratish mumkin.

Birinchidan, nazariya va sud amaliyoti o‘rtasidagi tafovut muammosi mavjud. Ko‘plab hollarda protsessual normalar nazariy jihatdan tushuntiriladi, biroq ularning sud amaliyotida qanday qo‘llanishi

yetarli darajada tahlil qilinmaydi. Natijada talabalar real sud jarayonlari bilan bog‘liq vaziyatlarni tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ikkinchidan, amaliy mashg‘ulotlar hajmining yetarli emasligi ham muhim muammo hisoblanadi. Ushbu fan amaliy ko‘nikmalarni talab etadigan soha bo‘lib, unda sudga murojaat qilish tartibi, da’vo arizasi tuzish, dalillarni baholash va sud qarorlarini tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhimdir. Talabalar nazariy jihatdan da’vo arizasi tuzishni bilsalar-da, amaliy ko‘nikmalar yetishmasligi sababli real faoliyatda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Biroq amaliy mashg‘ulotlar yetishmasligi bu jarayonga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli protsessual hujjatlar tuzish bo‘yicha mashg‘ulotlarni kengaytirish zarur.

Uchinchidan, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish darajasining pastligi ham muammolardan biridir. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va sud amaliyotiga asoslangan o‘qitish metodlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli interaktiv metodlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan yondashuvlardan keng foydalanish zarur.

To‘rtinchidan, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotgani ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Sud tizimining raqamlashtirilishi va elektron sud tizimlarining joriy etilishi iqtisodiy protsessual huquqning yangi yo‘nalishlarini shakllantirmoqda. . Elektron sud tizimlari, onlayn majlislar va elektron hujjat aylanishi kabi yangiliklar talabalarga zamonaviy sud tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bois elektron sud tizimlari va onlayn jarayonlarni o‘quv dasturlariga kiritish muhimdir.

Mazkur muammolarni yanada chuqurroq tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish alohida e’tibor talab etadi. Amaliyotda davlat nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralariga oid nizolar tez-tez uchraydi. Bunday ishlarni ko‘rib chiqishda sudlar taqdim etilgan dalillarni, taraflarning e’tirozlarini hamda qo‘llanilgan choralar qonuniyligi va mutanosibligini har tomonlama baholaydi.

Ba’zi hollarda esa birinchi instansiya sudlari tomonidan moddiy va protsessual normalar to‘liq inobatga olinmagani sababli yuqori instansiya sudlari tomonidan qarorlar bekor qilinishi kuzatiladi. Masalan, nazorat organi tomonidan berilgan majburiy ko‘rsatma tadbirkor tomonidan

bajarilmagach, sudga murojaat qilinadi va muayyan faoliyatni vaqtincha to‘xtatish so‘raladi. Birinchi instansiya rad etgan bo‘lsa-da, yuqori instansiya ushbu qarorni bekor qilib, talabni qanoatlantiradi. Bu esa protsessual normalarni to‘g‘ri qo‘llash naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Bunday misollarni o‘quv jarayonida tahlil qilish talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish masalasi ham dolzarbdir. Xususan, “case-study” metodidan foydalanish talabalarga sud ishlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa ularda mustaqil fikrlash va huquqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Rivojlangan davlatlarda sud amaliyotiga asoslangan o‘qitish modeli keng qo‘llaniladi. AQShda “case method”, Yevropada esa sud jarayonlarini modellashtirish orqali ta’lim berish samarali hisoblanadi. Ushbu tajribalarni milliy tizimga moslashtirish ijobiy natijalar beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiy protsessual huquqni o‘qitishni takomillashtirish zarur. Buning uchun nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xorijiy tajribani o‘rganish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy protsessual huquq muhim huquqiy institut bo‘lib, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Uni o‘qitish jarayonini takomillashtirish esa malakali kadrlar tayyorlash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## YURIDIK TA’LIM VA ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

***O‘.M.Otayev*** *O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi, dotsent*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuridik ta'lim va huquqshunoslik ilm-fanining zamonaviy rivojlanish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar kompleks tarzda tahlil etiladi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va huquqiy tizimlarning integratsiyasi sharoitida yuridik ta'limning sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini ta'minlash hamda amaliyot bilan nazariya o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash zarurati ko'rib chiqiladi. Maqolada dunyo

yuridik ta'lim tizimlari (AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya) tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekistonda huquq ta'limini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ilmiy asosda belgilanadi. Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar va UNESCO hamda UNDP hisobotlari asosida muammolarning yechim yo'llari taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** yuridik ta'lim, huquqshunoslik, ilmiy tadqiqot, raqamlashtirish, ta'lim sifati, huquqiy islohotlar, qiyosiy huquq, ta'lim standarti, amaliyot-nazariya aloqasi, akademik erkinlik.

XXI asr boshida yuridik ta'lim va huquqshunoslik fani global miqyosda tub o'zgarishlar pallasiga kirdi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, xalqaro huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va yangi turdagi huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi an'anaviy yuridik ta'lim modellarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlarni izchil amalga oshirish borasida katta ishlar qilinmoqda. 2017-2021-yillardagi faol islohotlar davri va keyingi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari yuridik ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim poydevorini yaratdi. Biroq, jahon amaliyotiga muvofiq, ushbu sohadagi muammolar hal etilishi talab qilinayotgan bir qator tizimli masalalarni o'z ichiga oladi.

Taniqli nemis huquqshunosi Rudolf fon Iering ta'kidlaganidek: "Huquq – abstrakt qoidalar to'plami emas, balki tirik ijtimoiy hayotning ifodasi" (Jhering R., 1872, 47-bet). Ushbu falsafiy pozitsiya zamonaviy yuridik ta'lim konsepsiyasining markazida turishi lozim.

Yuridik ta'limdagi eng keskin muammolardan biri – nazariy bilimlar va huquqiy amaliyot o'rtasidagi chuqur tafovutdir, ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, huquq fakultetlari bitiruvchilari asosiy nazariy bilimlarni yetarli darajada egallab chiqadilar, ammo amaliy ko'nikmalar – sud jarayonlarini yuritish, shartnomalar tuzish, muzokaralar olib borish, mediatsiya – sohasida jiddiy kamchiliklar kuzatiladi.

Amerikalik huquqshunos professor Frank Sander (Harvard Law School) "Clinical Legal Education" konsepsiyasini ishlab chiqib, yozadi: "Huquq maktablari bitiruvchilari sud zalidagi birinchi kundan boshlab professional bo'lib ishlashga tayyor bo'lishlari kerak. Bu esa amaliy o'qitish metodologiyasisiz mumkin emas" (Sander F., 1994, 112-bet).

O'zbekistonda ham ushbu muammo dolzarbdir. Yoshlar huquqiy faoliyatini kengaytirishga qaratilgan harakatlar mavjud bo'lsada, aksariyat oliy ta'lim muassasalarida amaliy komponent hali ham yetarli darajada rivojlanmagan.

Zamonaviy huquq tizimida sun'iy intellektning (SI) kirib kelishi yuridik ta'limga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. ChatGPT, LegalZoom va

boshqa SI vositalari huquqiy xizmatlar bozorini o'zgartirib yubormoqda. Bu holat huquqshunoslar oldiga yangi savollar qo'yadi: SI nimalarni o'rinnini bosa oladi va qanday kompetensiyalar o'z ahamiyatini yo'qotmaydi?

Richard Susskind "Tomorrow's Lawyers" (2013) asarida ta'kidlaganidek: "Standart huquqiy hujjatlarni tuzish, izlash va tahlil qilish kabi takrorlanuvchi vazifalar sun'iy intellekt tomonidan bajarilishi muqarrar. Kelajak huquqshunosi esa yuqori darajadagi ijodiy fikrlash, muzokaralar strategiyasi va etik masalalarni hal qila oladigan mutaxassis bo'lishi lozim" (Susskind R., 2013, 89-bet).

Bu vaziyat yuridik ta'lim o'quv rejalarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Hozirgi kunda LegalTech fanini o'qitish, ma'lumotlar tahlili, blokcheyn texnologiyalari va huquq informatikasi yuridik ta'limning ajralmas qismi bo'lib bormoqda.

Yuridik ilm-fan sohasidagi navbatdagi muammo – tadqiqotlar natijalari bilan qonunchilik amaliyoti o'rtasidagi bog'liqlikning zaifligidir. Ko'pgina ilmiy maqolalar akademik jurnal sahifalarida qolip, amaliy qonunchilik jarayoniga ta'sir o'tkaza olmaydi.

Soha tadqiqotchisi professor Brian Leiter (University of Chicago Law School) ushbu muammoni "yuridik akademizm paradoksi" deb ataydi: "Huquq professori qanchalik ko'p publish qilsa, uning ishi amaliy qonunchilikka shunchalik oz ta'sir qiladi. Bu tizimning tuzilmasidagi fundamental nuqson" (Leiter B., 2011, 254-bet).

Yuridik tadqiqotlar uchun moliyalashtirishning yetarli emasligi ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham jiddiy muammo bo'lib turibdi. Tadqiqotchilar mustaqil keng qamrovli ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolmoqda.

UNESCO "Global Education Monitoring Report"da (2023, 147-bet) ta'kidlanishicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'limga ajratiladigan mablag'ning atigi 0,3-0,8 foizi huquqiy tadqiqotlarga yo'naltiriladi, bu esa soha rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuridik ta'lim modellarini qiyosiy o'rganish ta'lim tizimini takomillashtirish uchun muhim ko'rsatkichlar beradi.

Amerika Qo'shma Shtatlari modeli - AQSh yuridik ta'lim tizimi dunyodagi eng rivojlangan modellardan biri hisoblanadi. Uch yillik Juris Doctor (JD) dasturi, huquqiy klinikalar, moot court mashg'ulotlari va law review nashriyotlari bu tizimning asosiy ustunlarini tashkil etadi. Harvard, Yale, Columbia kabi universitetlarda talabalar real sudlarda amaliyot o'tash imkoniyatiga ega. Professor Anthony Kronman (Yale

Law School) "The Lost Lawyer" asarida (1993, 201-bet) yozadi: "Amerikalik yuridik ta'lim an'anaviy ravishda huquqshunosni faqat huquqiy texnik sifatida emas, balki jamoatchilik manfaatlarini himoya qiluvchi mas'uliyatli fuqaro sifatida shakllantirishi lozim".

Germaniya modeli - Germaniya ikkipogonali yuridik ta'lim modeli (Erstes Staatsexamen va Zweites Staatsexamen) o'zining qat'iy davlat imtihonlari tizimi bilan ajralib turadi. Referendariat bosqichi – ikki yillik amaliy ta'lim – bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu model an'anaviy qit'a Yevropa huquqiy tizimi bilan uyg'un keladi.

Buyuk Britaniya modeli - Britaniya modeli ikkita yo'nalishni o'z ichiga oladi: solicitor va barrister. "Legal Education and Training Review" (LETR, 2013, 89-bet) hisobotida qayd etilganidek, so'nggi yillarda Angliya va Uelsda amalga oshirilgan "Solicitors Qualifying Examination" (SQE) islohoti ta'limni yanada amaliyotga yo'naltirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida huquq ta'limi tizimi so'nggi yillarda sezilarli rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi. 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan islohotlar doirasida huquq fakultetlari va boshqa muassasalar moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Shunga qaramay, qator muammolar hal etilishini kutmoqda. Birinchidan, o'quv dasturlarida amaliy komponentning ulushi hali ham yetarli darajada emas. Ikkinchidan, professor-o'qituvchilarning xorijiy tajriba va ilmiy hamkorlik imkoniyatlari cheklangan. Uchinchidan, huquqiy tadqiqotlar natijalarining qonun ijodkorligi jarayoniga ta'siri mexanizmi yaxshi ishlab chiqilmagan. Milliy yuridik ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribani ko'r-ko'rona ko'chirish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Islohotlar milliy-huquqiy an'analar, iqtisodiy imkoniyatlar va jamiyatning haqiqiy ehtiyojlari asosida amalga oshirilishi lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida yuridik ta'limni rivojlantirish uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni taklif etish maqsadga muvofiq:

- Huquqiy talim muassalar sonini kamida ikki baravarga oshirish va ularni real sud, prokurutura, Ichki ishlar hamda notarial faoliyat bilan mustahkam bog'lash.

- LegalTech va huquq informatikasi fanlarini yuridik ta'limning majburiy qismiga kiritish.

- Yetakchi xorijiy universitetlar bilan qo'shma ilmiy tadqiqot dasturlarini yo'lga qo'yish.

- Ilmiy tadqiqotlar natijalarini qonunchilik jarayoniga joriy etish mexanizmini huquqiy jihatdan mustahkamlash.

- Yuridik ta'lim sifatini baholashning mustaqil milliy akkreditatsiya tizimini yaratish.

Yuridik ta'lim va ilm-fanning zamonaviy muammolari murakkab, ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab etuvchi masalalardir. Maqolada tahlil etilgan muammolar – nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut, raqamli transformatsiya, ilmiy tadqiqotlarning amaliy ta'sirining zaifligi, moliyalashtirish etishmasligi – faqat O'zbekistonga emas, global miqyosda ko'pgina mamlakatlarga xosdir.

Biroq ushbu muammolarning yechimi mavjud. Amaliy ta'lim metodologiyasini kengaytirish, LegalTech kompetensiyalarini o'qitish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilsa, yuridik ta'lim ham sifat, ham miqdor jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, professor Mirjan Damaska (Yale Law School) ning so'zlarini keltirish o'rinli: "Yaxshi huquqiy ta'lim – bu faqat huquq normalarini bilish emas, balki adolat hissini his etish va uni hayotga tatbiq eta olishdir" (Damaska M., 1986, 7-bet). Mana shu ruh zamonaviy yuridik ta'lim islohotilarining mazmun-mohiyatini belgilashi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jhering, R. von (1872). Der Kampf ums Recht [Huquq uchun kurash]. Wien: Verlag der G. J. Manz'schen Buchhandlung. – 47-bet.

2. Sander, F. E. A. (1994). Clinical Legal Education: The State of the Art. Journal of Legal Education, 44(1), 107–118. – 112-bet.

3. Susskind, R. (2013). Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future. Oxford: Oxford University Press. – 89-bet.

4. Leiter, B. (2011). Why Legal Scholarship is Necessary and Why It's Hard. Chicago-Kent Law Review, 86(1), 247–262. – 254-bet.

5. Kronman, A. T. (1993). The Lost Lawyer: Failing Ideals of the Legal Profession. Cambridge: Harvard University Press. – 201-bet.

6. Legal Education and Training Review (LETR) (2013). Setting Standards: The Future of Legal Services Education and Training Regulation in England and Wales. London: SRA/BSB/IPS. – 89-bet.

7. Damaska, M. R. (1986). The Faces of Justice and State Authority. New Haven: Yale University Press. – 7-bet.

8. UNESCO (2023). Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education. Paris: UNESCO Publishing. – 147-bet.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi. Toshkent, 2022.

# O‘ZBEKISTONDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

***R.Sh.Kobilov,*** *Sarbon universiteti “Huqiqiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari yangi tahrirdagi Konstitutsiya, ekologik qonunchilik, Prezident farmon va qarorlari hamda barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Bugungi kunda ekologik xavfsizlik masalasi inson huquqlarini ta’minlash, sog‘lom turmush muhitini shakllantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlod manfaatlarini himoya qilish bilan bevosita aloqador strategik yo‘nalishga aylandi.

**Kalit so‘zlar**: atrof-muhit, Konstitutsiya, ekologik huquq, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, jamoatchilik nazorati, yashil iqtisodiyot, ekologik madaniyat, davlat siyosati.

Atrof-muhitni muhofaza qilish XXI asrda davlat siyosatining faqat tabiiy resurslar bilan bog‘liq yo‘nalishi emas, balki inson huquqlari, aholi salomatligi, iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va milliy taraqqiyot bilan bevosita bog‘langan konstitutsiyaviy masalaga aylandi. O‘zbekistonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi ekologik munosabatlarga yangicha huquqiy yondashuvni shakllantirdi. Konstitutsiyada davlatning barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha choralar ko‘rishi belgilandi. Bunday norma ekologik siyosatni davlatning uzoq muddatli majburiyati darajasiga olib chiqdi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, suv resurslarining kamayishi, havo ifloslanishi, chiqindilar hajmining ortishi va biologik xilma-xillikka tahdidlar O‘zbekiston uchun real ekologik xavf sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ikkinchidan, ekologik muammolar bevosita fuqarolarning sog‘lom hayot kechirish huquqi, mulkdan foydalanish, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, shaharsozlik va ijtimoiy himoya masalalariga ta’sir ko‘rsatadi. Uchinchidan, zamonaviy huquqiy davlatda ekologik

boshqaruv ochiqlik, jamoatchilik ishtiroki, ilmiy asoslangan qarorlar va javobgarlik mexanizmlari bilan mustahkamlanishi lozim.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida so‘nggi yillarda ekologiya sohasida konstitutsiyaviy islohotlar bilan uyg‘un holda keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida atrof-muhit ifloslanish darajasini baholash, ekologik monitoringni rivojlantirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini kengaytirish, resurslardan tejamkor foydalanish kabi vazifalar belgilandi. 2030-yilgacha bo‘lgan Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish, aholining hayot sifatini yaxshilash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan. 2023-yilda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilinishi, 2025-yilga kelib “yashil transformatsiya” va Parij bitimi doirasidagi majburiyatlarni bajarishga qaratilgan hujjatlarning kuchayishi mavzuning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi.

O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari avvalo inson, jamiyat va davlat manfaatlarining ekologik muvozanat bilan uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ekologik masalalar alohida prinsip sifatida mustahkamlangani ekologik huquqning umumiy huquq tizimidagi mavqeini kuchaytirdi. Endilikda atrof-muhitni muhofaza qilish faqat vakolatli idoralarning ma’muriy vazifasi emas, balki davlat hokimiyati organlari, mahalliy boshqaruv, fuqarolik jamiyati institutlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va har bir fuqaroning umumiy mas’uliyati sifatida talqin qilinadi.

Konstitutsiyaviy ekologik normalarning mazmuni uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchi yo‘nalish – davlatning ijobiy majburiyatlari. Davlat ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni ta’minlash, ifloslanishning oldini olish, shaharsozlik va sanoat faoliyatida ekologik talablarni belgilash, ekologik monitoringni yuritish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini qo‘llashga mas’uldir. Ikkinchi yo‘nalish – fuqarolarning huquqlari. Qulay atrof-muhitda yashash, ekologik axborot olish, ekologik xavfsizlikka tahdid tug‘ilganda murojaat qilish, jamoatchilik muhokamalarida qatnashish va ekologik nazorat jarayonida ishtirok etish huquqi zamonaviy demokratik jamiyatning muhim belgilaridan hisoblanadi. Uchinchi yo‘nalish – fuqarolarning burchlari. Tabiatni asrash, resurslardan tejamkor foydalanish, chiqindilarni belgilangan tartibda

boshqarish va ekologik madaniyatga rioya qilish konstitutsiyaviy qadriyatlar bilan bog‘liq fuqarolik mas’uliyatidir.

“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun ushbu konstitutsiyaviy normalarni amaliy huquqiy mexanizmlar bilan to‘ldiradi. Mazkur qonun tabiiy muhit sharoitlarini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik tizimlar va tabiiy komplekslarni muhofaza qilishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi. Qonunning asosiy g‘oyasi inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘un muvozanatni saqlashdan iborat. Ekologik huquqning muhim jihati shundaki, u faqat zarar yetkazilgandan keyingi javobgarlikni emas, balki oldini olish, baholash, monitoring qilish va tiklash choralari tizimini ham qamrab oladi.

Prezident farmon va qarorlarida ekologik islohotlar davlat modernizatsiyasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ekologik monitoringni takomillashtirish, atrof-muhit ifloslanishini prognoz qilish, yashil hududlarni kengaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizlikni ta’minlash vazifalari belgilangan. 2030-yilgacha bo‘lgan Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi mamlakatda ekologik vaziyatni yaxshilash, aholining hayot sifatini oshirish hamda global ekologik majburiyatlarni bajarish uchun muhim konseptual hujjat hisoblanadi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga oid qarorlar vakolatli organlarning funksiyalarini aniqlashtirib, ekologik nazorat va profilaktika mexanizmlarini kuchaytirdi.

O‘zbek olimlari va huquqshunoslarining izlanishlarida ekologik huquq, konstitutsiyaviy kafolatlar, tabiatdan foydalanish, fuqarolarning ekologik madaniyati hamda jamoatchilik nazorati masalalari alohida o‘rganilgan. M. Rustamboyev, A. Saidov, X. Boboyev, O. Husanov, Z. Islomov kabi olimlarning konstitutsiyaviy huquq va huquqiy davlat haqidagi qarashlari ekologik munosabatlarni tahlil qilishda metodologik asos bo‘la oladi. Jahon miqyosida J. Rawlsning adolat nazariyasi, U. Beckning xavf jamiyati konsepsiyasi, A. Senning inson taraqqiyoti yondashuvi ekologik huquqlarni ijtimoiy adolat, xavfsizlik va kelajak avlodlar manfaatlari bilan bog‘lab tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlillar atrof-muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari amaliy natija berishi uchun bir nechta shartlar muhimligini ko‘rsatadi. Ekologik axborotning ochiqligi fuqarolarning ongli ishtirokini ta’minlaydi. Ekologik ekspertiza va jamoatchilik muhokamalari sanoat, qurilish va infratuzilma loyihalarining xavfsizligini oshiradi. Ekologik

ta’lim maktabdan boshlab shakllantirilsa, uzoq muddatli ijobiy natija beradi. Sud-huquq mexanizmlarining samaradorligi ekologik huquqlar buzilganda real himoya imkonini yaratadi. Raqamli monitoring, sun’iy yo‘ldosh kuzatuvi, ochiq ma’lumotlar platformalari va fuqarolarning murojaat tizimlari ekologik boshqaruvni zamonaviy bosqichga olib chiqadi.

O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari yangi taraqqiyot bosqichida ekologik huquq va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada barqaror rivojlanish, ekologik muvozanatni saqlash, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilishga oid normalarning mustahkamlanishi davlatning ekologik majburiyatlarini yanada aniq ifodaladi. Bu huquqiy yondashuv atrof-muhit masalasini alohida soha doirasidan chiqarib, inson huquqlari, sog‘lom hayot, ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘ladi.

Tezisda o‘rganilgan manbalar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik xavfsizlikni ta’minlashda Konstitutsiya, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmon va qarorlari, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda 2030-yilgacha bo‘lgan Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi yagona huquqiy-siyosiy tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimning samaradorligi davlat organlari vakolatlarining aniqligi, ekologik monitoringning zamonaviyligi, jamoatchilik ishtirokining faolligi va fuqarolarning ekologik madaniyatiga bog‘liq.

Umumiy ilmiy xulosa shundan iboratki, atrof-muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari faqat huquqiy deklaratsiya bo‘lib qolmasligi kerak. Ular real boshqaruv qarorlari, iqtisodiy rag‘batlar, ekologik ta’lim, sud-huquq himoyasi va ochiq jamoatchilik nazorati orqali amalda ishlashi lozim. Ekologik muammolarning oldini olish zarar yetgandan keyin uni bartaraf etishdan ko‘ra samaraliroq va arzonroqdir. Shu bois ekologik ekspertiza, sanoat va qurilish loyihalarining jamoatchilik muhokamasi, chiqindilarni kamaytirish, suv va energiya tejamkorligi, yashil hududlarni kengaytirish, havo sifatini nazorat qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha tizimli choralarni kuchaytirish zarur.

# СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КРИМИНАЛИСТИКИ

***Э.Р.Каспаров**, доцент кафедры «Правовых дисциплин» Сарбонского Университета*

**Аннотация:** Статья посвящена анализу актуальных направлений развития цифровой криминалистики в условиях стремительного роста киберпреступности и цифровизации всех сфер общественной жизни. Рассматриваются современные методы сбора, анализа и интерпретации цифровых доказательств, включая использование искусственного интеллекта, машинного обучения и облачных технологий. Особое внимание уделено вопросам стандартизации процедур, международного сотрудничества, а также правовым и этическим аспектам цифрового расследования. На основе сравнительного анализа выделяются ключевые тенденции, формирующие будущее цифровой криминалистики. Сделан вывод о необходимости междисциплинарного подхода и постоянного обновления методической базы для повышения эффективности работы специалистов в данной области.

**Ключевые понятия:** Цифровая криминалистика, киберпреступность, цифровые доказательства, искусственный интеллект (ИИ), машинное обучение, облачные технологии, международное сотрудничество, стандартизация процедур, правовое регулирование, этические аспекты расследований.

В условиях стремительной цифровизации общества[2] и широкого распространения информационных технологий традиционные методы расследования преступлений сталкиваются с новыми вызовами. Увеличение количества киберпреступлений, сложность цифровых следов, а также трансграничный характер многих преступлений требуют адаптации существующих криминалистических подходов и разработки новых, высокотехнологичных методов.

Цифровая криминалистика[3], как самостоятельное направление, сформировалась на стыке криминалистики, информационных технологий и права. Её основная задача – обнаружение, извлечение, анализ и представление цифровых доказательств, пригодных для использования в суде. Современные реалии диктуют необходимость не только технической оснащённости специалистов, но и правовой регламентации их деятельности, а также постоянного совершенствования теоретико-методологической базы.

В последние годы наблюдается активное развитие инструментов автоматизированного анализа данных, применение методов искусственного интеллекта, использование облачных

решений и расширение международного сотрудничества в борьбе с киберпреступностью. Всё это требует научного осмысления и систематизации.

Цель настоящей статьи – проанализировать современные тенденции в развитии цифровой криминалистики, определить перспективные направления её эволюции и обозначить ключевые проблемы, стоящие перед специалистами в данной сфере.

Цифровая криминалистика в последние десятилетия[4] привлекает значительное внимание как со стороны практиков, так и исследователей. В отечественной и зарубежной литературе можно выделить несколько основных направлений, в рамках которых развивается научная мысль по данной проблематике.

Одним из ключевых вопросов, рассматриваемых в научных публикациях, является методология извлечения и анализа цифровых доказательств. В работах таких авторов, как В.А. Квашис, А.В. Кустов и Е.А. Волчецкая, подчёркивается важность соблюдения принципов достоверности, воспроизводимости и правомерности при работе с цифровыми носителями. Подчеркивается, что без строгого соблюдения процессуальных норм даже технически верно полученные доказательства могут быть признаны недопустимыми в суде.

В зарубежной литературе (работы B. Carrier, E. Casey, R. Rogers) акцент сделан на разработке инструментов и алгоритмов автоматизированного анализа цифровых следов, включая использование искусственного интеллекта и машинного обучения для распознавания аномалий, классификации вредоносного ПО и восстановления удалённых данных. Особое внимание уделяется проблемам сохранения целостности данных и формированию цифровых цепочек хранения доказательств (chain of custody).

Отдельное направление исследований связано с правовыми аспектами цифровой криминалистики[5]. Так, в трудах И.А. Дедкова и А.А. Орехова анализируются пробелы в отечественном законодательстве, касающемся сбора и использования цифровых доказательств, а также предлагаются пути их восполнения. За рубежом акцент делается на гармонизацию правовых подходов в международной практике (например, в рамках Будапештской конвенции о киберпреступности).

Также активно обсуждаются этические аспекты и вопросы персональной конфиденциальности. В ряде источников

подчёркивается необходимость балансировки между эффективностью расследования и соблюдением прав человека, особенно при работе с персональными данными и частной цифровой информацией.

Таким образом, обзор литературных источников позволяет выделить несколько доминирующих тенденций: переход от ручных методов анализа к автоматизированным системам; интеграция цифровой криминалистики в международное правовое поле; акцент на процессуальную допустимость цифровых доказательств; а также растущая потребность в этическом регулировании деятельности специалистов.

Настоящее исследование основано на комплексном междисциплинарном подходе, сочетающем методы юридической науки, криминалистики и информационных технологий. Основу методологической базы составили как общенаучные, так и частнонаучные методы, применимые к анализу процессов, протекающих в сфере цифровой криминалистики.

В качестве общенаучных методов были использованы:

Анализ и синтез – для выделения и обобщения ключевых тенденций в развитии цифровой криминалистики;

Индукция и дедукция – при построении выводов на основе анализа конкретных научных источников, нормативных документов и практических кейсов;

Сравнительно-правовой метод – для сопоставления подходов, применяемых в разных странах к цифровым доказательствам и криминалистическим процедурам.

Из частнонаучных методов применялись:

Контент-анализ научных публикаций, монографий, нормативных правовых актов и международных соглашений, регламентирующих порядок работы с цифровыми доказательствами;

Формально-юридический метод – для анализа законодательных норм, регулирующих деятельность в области цифровой криминалистики;

Эмпирический анализ – на основе изучения докладов правоохранительных органов, отчетов о киберпреступности, судебной практики и данных международных организаций (например, INTERPOL, Europol).

Кроме того, в исследовании применялся системный подход, позволивший рассмотреть цифровую криминалистику как сложную совокупность взаимосвязанных правовых, технических и организационных элементов.

Выбор указанных методов обусловлен необходимостью объективной и всесторонней оценки текущего состояния и перспектив развития цифровой криминалистики в контексте глобальных изменений в сфере информационной безопасности и правоприменительной практики.

Автоматизация анализа данных. Современные технологии[6] позволяют применять программные средства для быстрого анализа больших массивов информации: лог-файлов, содержимого жёстких дисков, сетевого трафика, данных из мессенджеров и социальных сетей. Алгоритмы машинного обучения позволяют находить закономерности и аномалии, указывающие на потенциальную преступную активность. Уже сегодня используются решения, автоматически выявляющие фишинговые схемы, финансовые махинации и следы хакерских атак.

Искусственный интеллект и прогнозная аналитика. ИИ применяется при классификации вредоносного ПО[7], распознавании цифровых следов, в системах видеонаблюдения и распознавании лиц. Однако важной проблемой остаётся обеспечение прозрачности таких систем и возможность их верификации в условиях судебного разбирательства. Растёт число работ, посвящённых созданию "объяснимого ИИ" (explainable AI), который бы мог быть понятен не только программистам, но и юристам, следователям и судьям.[8]

Облачные технологии и удалённый доступ. Усложнение IT-инфраструктур приводит к необходимости расследования инцидентов в распределённых системах, хранящих данные в облаке. Это требует новых методов сбора и фиксации доказательств, в том числе с применением цифровых подписей и технологии блокчейн для подтверждения неизменности данных.[9]

Международное сотрудничество и стандартизация. Цифровые следы часто располагаются на серверах за пределами национальной юрисдикции. Это требует оперативного взаимодействия между правоохранительными органами разных стран, наличия механизмов трансграничного получения цифровых доказательств и унификации процессуальных стандартов. Особое значение приобретают

рекомендации Европола, Интерпола, а также положения Будапештской конвенции о киберпреступности.

Правовые вызовы и нормативное регулирование. ациональные законодательства нередко отстают от технологических реалий. Требуется введение новых процессуальных норм, позволяющих эффективно и легитимно изымать, анализировать и использовать цифровые доказательства. Кроме того, необходимо уделять внимание защите конфиденциальной информации, чтобы исключить чрезмерное вмешательство в частную жизнь.

Образование и подготовка кадров. Эффективность цифровой криминалистики во многом зависит от квалификации специалистов. В связи с этим всё большее значение приобретают образовательные программы, специализации в юридических и технических вузах, а также межведомственные тренинги и курсы повышения квалификации.

Цифровая криминалистика представляет собой одну из самых динамично развивающихся областей современной науки и практики. Её эффективное функционирование требует взаимодействия различных сфер – юриспруденции, информационной безопасности, программирования и права. Среди главных тенденций можно выделить автоматизацию, интеграцию ИИ, развитие нормативной базы, международную координацию и необходимость этического регулирования. Только при условии комплексного и междисциплинарного подхода цифровая криминалистика сможет адекватно отвечать на вызовы времени и эффективно противостоять новым формам преступности.

**Список использованной литературы:**

- Основные понятия цифровизации. Т.Ю. Кудрявцева, К.С. Кожина. Вестник Академии знаний. 2021 г.

- Цифровая криминалистика: возможности и перспективы развития. Д.Ю.Русанова. Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2019 г.

- Цифровая криминалистика – будущее науки или тренд современности? Ю.Л.Дяблова. Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2021 г.

- У истоков цифровой криминалистики. Е.П.Ищенко. Вестник Университета имени О. Е. Кутафина. 2019 г.

- Инструменты цифровой криминалистики. А.Кахрамонов. Наука, инновации и образование: ключевые векторы общественного прогресса. 2024 г.

- Искусственный интеллект в сфере финансового анализа и прогнозирования. М.Беспалова. Хроноэкономика. 2024 г.

- Искусственный интеллект в правовой предиктивной аналитике: совершенствование судебных стратегий. И.Р.Рустамбеков, М.П.Турдиалиев. Universum: экономика и юриспруденция. 2023 г.

- Облачные технологии: достоинства и недостатки. А.С.Хажиева. International scientific review. 2017 г.

[2]: Основные понятия цифровизации. Т.Ю. Кудрявцева, К.С. Кожина. Вестник Академии знаний. 2021 г.

[3]: Цифровая криминалистика: возможности и перспективы развития. Д.Ю.Русанова. Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2019 г.

[4]: Цифровая криминалистика – будущее науки или тренд современности? Ю.Л.Дяблова. Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2021 г.

[5]: У истоков цифровой криминалистики. Е.П.Ищенко. Вестник Университета имени О. Е. Кутафина. 2019 г.

[6]: Инструменты цифровой криминалистики. А.Кахрамонов. Наука, инновации и образование: ключевые векторы общественного прогресса. 2024 г.

[7]: Искусственный интеллект в сфере финансового анализа и прогнозирования. М.Беспалова. Хроноэкономика. 2024 г.

[8]: Искусственный интеллект в правовой предиктивной аналитике: совершенствование судебных стратегий. И.Р.Рустамбеков, М.П.Турдиалиев. Universum: экономика и юриспруденция. 2023 г.

[9]: Облачные технологии: достоинства и недостатки. А.С.Хажиева. International scientific review. 2017 г.

# ЮНЕСКО КОНВЕНЦИЯЛАРИ ДОИРАСИДА МАДАНИЙ МЕРОСНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ХАЛҚАРО-ҲУҚУҚИЙ ТИЗИМИ

***Н.Р.Файзуллаева**, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети катта ўқитувчиси, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), E-mail: [fnigora@mail.ru]*

Замонавий халқаро маданий мерос ҳуқуқи тизими Иккинчи жаҳон урушидан сўнг ташкил этилган ЮНЕСКО ва бошқа халқаро ташкилотлар фаолияти натижасида шакллана бошлади. Ушбу тизим маданий меросни ҳимоя қилишнинг кенг қамровли ва кўп қатламли механизмини ўзида мужассам этади. Маданий мерос ҳуқуқи тизимининг асосини ЮНЕСКО доирасида қабул қилинган бир қатор конвенциялар ташкил этади. Парижда ЮНЕСКО томонидан, Римда ЮНИДРУА томонидан назорат қилинадиган еттита конвенция ушбу соҳадаги ҳуқуқий асосни белгилайди (Nafziger & Paterson, 2014).

Ушбу мақолада 1970 йилги, 1972 йилги ва 2003 йилги асосий ЮНЕСКО конвенцияларини таҳлил этиш орқали замонавий халқаро маданий мерос ҳуқуқи тизимини тушуниш ва унинг асосий муаммоларини аниқлашга уриниш амалга оширилади. Тадқиқотнинг долзарблиги шунда намоён бўладики, глобаллашув жараёнида маданий мероснинг ноқонуний савдоси, ҳарбий можаролар натижасидаги вайроналар ва рақамлаштириш таҳдидлари кучайиб, янги ҳуқуқий ечимларни талаб этаётган бир шароитда замонавий конвенциявий ҳимоя механизмларини баҳолаш ва такомиллаштириш зарурати ортмоқда.

Тадқиқот методологияси жиҳатидан мақолада таҳлилий-ҳуқуқий, қиёсий-ҳуқуқий ва тизимли ёндашувлар қўлланилган. Манба базасини ЮНЕСКО конвенциялари матнлари, уларнинг расмий шарҳлари, халқаро ҳуқуқ соҳасидаги мутахассисларнинг монографик тадқиқотлари, илмий мақолалар ва статистик маълумотлар ташкил этади.

Шуни таъкидлаш жоизки, маданий мерос ва унинг ҳимояси масалаларида фан ва амалиётнинг ўзаро алоқаси беқиёс аҳамиятга эга. Академик тадқиқотлар ҳуқуқий нормаларнинг шаклланишига

ёрдам бериши ва амалий жараёнларни назарий асослаши керак. Ушбу ёндашув мақолани тайёрлашда асос бўлиб хизмат қилди.

1970 йилги Маданий бойликларни ноқонуний олиб кириш, олиб чиқиш ва мулк ҳуқуқини ўтказишнинг олдини олиш ва тақиқлаш чоралари тўғрисидаги конвенция (қисқача – 1970 йилги конвенция) маданий мероснинг ноқонуний савдосига қарши курашда биринчи кенг кўламли халқаро ҳуқуқий механизм сифатида эътироф этилади. ЮНЕСКОнинг расмий сайтида таъкидланганидек, мазкур конвенция давлат томонларини маданий бойликларнинг ноқонуний савдосини тақиқлаш ва уларни қайтариш бўйича чоралар кўришга ундайди (UNESCO, 2025).

Конвенция қабул қилинишига туртки бўлган бир қатор омиллар мавжуд. 1950–60-йилларда янги мустақил давлатларнинг кўпайиши ва уларнинг ўз маданий меросини тиклашга интилиши, шунингдек, қонунсиз қазишмалар натижасида олинган археологик топилмаларнинг халқаро бозорда кенг тарқалиши ушбу конвенцияни ишлаб чиқишга замин яратди. Heritage for Peace (2022) нашри таъкидлаганидек, конвенция “маданий бойликларни ишғол остидаги давлатдан зўрлик ёки тазйиқ остида экспорт қилиш ноқонуний ҳисобланади”, деб алоҳида таъкидлайди.

1970 йилги конвенция учта асосий устунга таянади: биринчидан, олдини олиш чоралари (инвентарлаштириш, экспорт сертификатлари, жавобгарлик санкциялари); иккинчидан, реституция тартиблари (ноқонуний олиб кетилган объектларни қайтариш); учинчидан, халқаро ҳамкорлик (давлатлар ўртасидаги кооперация) (UNESCO, 2025). Конвенциянинг 7 ва 13-моддалари, хусусан, музейлар ва жамоат муассасаларидан ўғирланган маданий бойликларни тортиб олиш ва қайтариш бўйича давлатлар зиммасидаги мажбуриятларни белгилайди.

Конвенция қабул қилинганидан бери 149 дан ортиқ давлат томонидан ратификация қилинган. Аммо дастлаб конвенция “манба давлатлар” (асарлар чиқиб кетган мамлакатлар) ва “бозор давлатлар” (асарлар сотиб олинадиган мамлакатлар) ўртасидаги мувозанатни таъминлашда қийинчилик туфайли чекланган самара берди. 2000-йилларга қадар АҚШ, Буюк Британия, Япония ва Германия каби йирик санъат бозорлари эга давлатлар конвенцияни ратификация қилмаган эди (Institute of Art and Law, 2020).

Ўтган 50 йил мобайнида конвенциянинг амалий аҳамияти тобора ошди. Institute of Art and Law (2020) таъкидлаганидек, 2000-

йиллардан бошлаб йирик санъат бозори давлатлари конвенцияни ратификация қила бошлади: Буюк Британия (2002), Япония (2002), Швейцария (2003), Германия (2007). Шундан буён конвенция доирасидаги икки томонлама шартномалар тизими, хусусан АҚШнинг бир қатор давлатлар билан тузган битимлари орқали маданий бойликларни қайтариш жараёни жонланди.

1970 йилги конвенцияни тўлдириш мақсадида ЮНЕСКО 1995 йилда ЮНИДРУА (Хусусий халқаро ҳуқуқни унификация қилиш бўйича халқаро институт)га хусусий ҳуқуқ масалаларини тартибга солувчи конвенция ишлаб чиқишни топширди. Натижада Ўғирланган ёки ноқонуний экспорт қилинган маданий объектлар тўғрисидаги ЮНИДРУА конвенцияси (1995) қабул қилинди. Ушбу икки конвенция ўзаро тўлдирувчи характерга эга бўлиб, маданий мероснинг ноқонуний савдосига қарши курашда иккинчи даражали функцияни бажаради (Vrdoljak, Jakubowski & Chechi, 2024).

1972 йилги Умумжаҳон маданий ва табиий меросни муҳофаза қилиш тўғрисидаги конвенция (қисқача – Умумжаҳон мероси конвенцияси) замонавий халқаро маданий мерос ҳуқуқи тизимининг марказий ҳужжатларидан бири ҳисобланади. ЮНЕСКО расмий сайтида таъкидланганидек, ушбу конвенциянинг “ажралиб турувчи жиҳати унда биринчи бор табиатни муҳофаза қилиш ва маданий объектларни асраш тушунчалари битта ҳужжатда бирлаштирилганидадир” (UNESCO, 2025).

Конвенция 1972 йил 16 ноябрда ЮНЕСКО Бош конференциясида қабул қилинди ва 1975 йил 17 декабрда кучга кирди. 2024 йил ҳолатига кўра, конвенция 196 давлат томонидан ратификация қилинган – бу тарихдаги энг кенг ратификация эришилган халқаро ҳужжатлардан бири (UNESCO, 2025). Конвенция доирасида Умумжаҳон мероси рўйхати юритилади, унга ҳозирда 168 давлатдан 1223 дан ортиқ объект киритилган.

Конвенцияда маданий мерос учта тоифада таснифланади: маданий объектлар (ёдгорликлар, ёдгорликлар гуруҳи, объектлар), табиий объектлар (физик-биологик формациялар, геологик жиҳатдан муҳим ҳудудлар, табиий манзаралар) ва аралашган маданий-табиий объектлар. Давлатлар Конвенцияни ратификация қилиши билан ўз ҳудудларидаги Умумжаҳон мероси объектларини аниқлаш, ҳимоя қилиш, сақлаш ва кейинги авлодларга мерос сифатида топшириш мажбуриятини оладилар.

Умумжаҳон мероси қўмитаси (22 давлатдан иборат сайланадиган орган) конвенцияни амалга ошириш устидан назорат олиб боради. Қўмита Умумжаҳон мероси рўйхатига объектларни киритиш, “Хавф остидаги Умумжаҳон мероси рўйхати”ни юритиш ва Умумжаҳон мероси жамғармаси маблағларини тасарруф этиш бўйича ваколатга эга. 2002 ва 2007 йилларда Қўмита томонидан “Беш С” стратегик мақсадлари қабул қилинган: Ишонч (Credibility), Муҳофаза (Conservation), Имкониятлар (Capacity-building), Ҳамжамоат (Communities) ва Алоқа (Communication) (UNESCO, 2025).

1979 йилда Эквадорнинг Галапагос ороллари биринчи бўлиб Умумжаҳон мероси рўйхатига киритилди. Ўзбекистонда эса Самарқанд – Маданиятлар чорраҳаси объекти 2001 йилда, Шаҳрисабз тарихий марказаси 2000 йилда, Қизилқум чўли ва Аёз-Қалъа тарихий мажмуаси 2024 йилда Умумжаҳон мероси рўйхатига киритилди. Бу факт Ўзбекистоннинг маданий меросини халқаро даражада эълон қилиш ва ҳимоя қилишда муҳим аҳамиятга эгадир.

Конвенцияни амалга оширишдаги муаммолар орасида бир қатор масалалар алоҳида эътиборни тортади. Рўйхатга киритилган объектлар сонининг ошиши (1223 дан ортиқ) ва уларнинг жуғрофий жиҳатдан нотекис тарқалиши (Европа объектлари устунлиги) ҳамда туризм тазйиқи рўйхатлаштиришнинг ҳақиқий эътирофдан кўра сиёсий ва иқтисодий воситага айланиб бораётганлиги хавотирини оширмоқда.

2003 йилги Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тўғрисидаги конвенция маданий мерос тушунчасини моддий ёдгорликлардан анча кенгроқ қамровга – тирик маданий ифодалар, урф-одатлар, анъаналар, маросимлар, ижрочилик санъати ва анъанавий ҳунармандчиликка – кенгайтирди. Конвенция 2003 йил 17 октябрда ЮНЕСКО Бош конференциясида қабул қилинди ва 2006 йил 20 апрелда кучга кирди (UNESCO, 2003).

Конвенциянинг асосий мақсадлари: номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш; маданий мерос эгалари бўлмиш жамоалар, гуруплар ва шахсларнинг унга нисбатан ҳурматини таъминлаш; маҳаллий, миллий ва халқаро даражада номоддий маданий меросни тушунтириш ва уни қадрлашни ошириш; халқаро ҳамкорлик ва кўмакни таъминлаш (UNESCO, 2003). Конвенция беш соҳани белгилайди: оғзаки анъаналар ва ифодалар; ижрочилик санъати; ижтимоий амалиётлар, маросимлар ва байрам тадбирлари;

табиат ва оламга оид билим ва амалиётлар; анъанавий ҳунармандчилик.

Конвенция доирасида Инсониятнинг Номоддий маданий мероси Репрезентатив рўйхати, Шошилинч муҳофаза талаб этилувчи номоддий маданий мерос рўйхати ва Яхши муҳофаза тажрибалари рўйхати юритилади. 2022 йил ҳолатига кўра, конвенция 180 давлат томонидан ратификация қилинган (UNESCO, 2022). Ортиш тенденцияси давом этиб, конвенция бугунги кунда энг кенг ратификация эришилган маданий мерос ҳуқуқи конвенцияси ҳисобланади.

Ўзбекистон номоддий маданий меросининг бир қатор элементлари Инсониятнинг номоддий маданий мероси репрезентатив рўйхатига киритилган. Жумладан, Наврўз байрами (2016, бир қатор давлатлар биргаликда), Ўзбек дутор санъати (2021), Бахшичилик санъати (2021), Чакан кашта санъати (2022) ва бошқалар ушбу рўйхатда ўз ўрнини топган. Бу факт Ўзбекистонда номоддий маданий меросни ҳимоя қилиш ва уни халқаро даражада тарғиб этишнинг қанчалик аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади.

Конвенцияни амалга оширишда давлатлар ўз ҳудудларидаги номоддий маданий мерос элементларини аниқлаш ва рўйхатга олиш, уларни ҳимоя қилиш учун зарур чоралар кўриш ва жамоалар, гуруҳлар ҳамда алоҳида шахсларни фаол иштирок этишини таъминлаш мажбуриятини оладилар (UNESCO, 2003). Бунда Қўмита доирасидаги Тез ёрдам жамғармаси ва Номоддий маданий мерос жамғармаси орқали молиявий ёрдам кўрсатилади.

Танқидий нуқтаи назардан, 2003 йилги конвенция бир қатор тузилмавий чекловларга дуч келмоқда. Ortiz & Jiménez de Madariaga (2021)нинг илмий тадқиқоти кўрсатганидек, рўйхатлашув жараёнини бошқарувчи органларнинг демократик фаолиятида ва рўйхатга киритилган объектларнинг универсаллигида катта камчиликлар мавжуд. Хусусан, рўйхатга кириш жуғрофий жиҳатдан баъзи минтақаларга хос эканлиги – Осиё давлатларининг нисбатан кўп иштироки ва Африка давлатларининг камроқ иштироки – таъкидланади.

XXI аснинг биринчи чорагида халқаро оммавий ҳуқуқ контекстида маданий меросни ҳимоя қилиш “инсоний ўлчов”га эга бўлди. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуқ маданий меросни ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асосига сезиларли таъсир кўрсата бошлади. Ушбу янги тартибда индивидлар ва маданий меросни

ҳимоя қилиш ўртасида икки томонлама муносабатлар юзага келди (Blake, 2015).

1948 йилги Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 27-моддаси “ҳар бир шахснинг ижтимоий ва маданий ҳаётда эркин иштирок этиш, санъатдан баҳраманд бўлиш ва илмий тараққиётда ҳамда унинг натижаларида иштирок этиш ҳуқуқи” деб белгиланади. Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт (1966) 15-моддасида маданий ҳаётда иштирок этиш ҳуқуқи мустаҳкамланади. Мазкур норматив асос маданий меросни нафақат халқлар жамоасининг, балки алоҳида шахснинг ҳам ҳуқуқи сифатида қарашга имкон беради.

Ишғол, геноцид ва этник тозалаш натижасида маданий меросни атайлаб вайрон қилиш жиноят ҳуқуқи доирасида ҳам кўрила бошланди. 2016 йилда Халқаро жиноят суди Малидаги Тимбукту мақбараларини вайрон қилганлик учун Al Mahdi Ahmad ишида биринчи марта маданий мероснинг атайлаб йўқ қилиниши урушнинг алоҳида жинояти ўлароқ судловга тортилди. Бу халқаро жиноят ҳуқуқи тарихидаги ўта муҳим прецедент ҳисобланади.

БМТ Хавфсизлик Кенгашининг бир қатор қарорлари (масалан, 2016 йилги 2347-сонли Қарор) маданий меросни вайрон қилишни тинчлик ва хавфсизликка таҳдид сифатида белгилаб, давлатлар ва халқаро ҳамжамиятнинг маданий мероснинг муҳофазасига нисбатан масъулиятини оширди. Бинобарин, маданий мерос ҳимояси нафақат маданий ёки гуманитар масала, балки хавфсизлик масаласи ҳам ҳисобланади (Nafziger & Paterson, 2014).

Маданий меросни ҳимоя қилишга оид замонавий халқаро-ҳуқуқий тизим, шубҳасиз, катта тараққиёт йўлини босиб ўтган. Аммо бир қатор тизимли муаммолар ҳал этилмасдан қолмоқда. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, ушбу муаммоларни учта асосий гуруҳга ажратиш мумкин: институционал, моддий-ҳуқуқий ва амалий муаммолар.

**Биринчидан**, институционал муаммолар. Халқаро маданий мерос ҳуқуқи учта таянч тизимга асосланади: ЮНЕСКО конвенциялари, UNIDROIT (Рим) конвенциялари ва минтақавий конвенциялар. Мазкур тизимлар ўртасидаги мувофиқлик ва ўзаро алоқа етарли даражада таъминланмаган. Давлатларнинг ратификация ҳолати ҳар хил: масалан, АҚШ 1972 йилги конвенцияни ратификация қилган, аммо 2003 йилги конвенцияни

ратификация қилмаган. Бу ҳолат ҳуқуқий механизмларнинг кенгайтирилган амал қилиш доирасини чеклайди.

**Иккинчидан**, моддий-ҳуқуқий муаммолар. 1970 йилги конвенция “манба” ва “бозор” давлатлари ўртасидаги мувозанатни таъминлашда чекланган имкониятга эга. Institute of Art and Law (2020)нинг таъкидлашича, конвенция матни “суюлтирилган”: кўпгина нормалар мажбурий эмас ва уларни талқин қилишда кенг имконият мавжуд. Шунингдек, “маданий бойлик” тушунчасининг кенглиги ва унинг давлатлар томонидан ҳар хил талқин қилиниши ноқонуний савдога қарши кураш самарасини пасайтиради.

**Учинчидан,** амалий муаммолар. Маданий мероснинг рақамли ва кибер таҳдидлар, иқлим ўзгариши ва ноқонуний қазишмалар орқали йўқолиши мавжуд ҳуқуқий доирада тўлиқ тартибга солинмаган. Рақамлаштириш маданий меросни ҳимоя қилишда янги имкониятлар яратган бир пайтда, маданий мероснинг рақамли нусхалари (3D сканлар, ижтимоий тармоқлардаги тасвирлар) бўйича ҳуқуқий ҳимоя механизмлари етарли даражада шаклланмаган.

Глобал терроризм ва уюшган жиноятчилик маданий бойликлар савдоси орқали молиявий даромад олиш мақсадида фойдаланмоқда. UNESCO (2025) маълумотларига кўра, маданий мероснинг ноқонуний савдоси жиноий даромадларни легаллаштириш, гиёҳванд моддалар ва қурол-яроғлар савдоси билан боғлиқ кенг тизимнинг бир қисмига айланган. Мазкур муаммо ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, маданий мерос мутахассислари ва халқаро ташкилотлар ўртасида самарали ҳамкорликни талаб этади.

Замонавий халқаро маданий мерос ҳуқуқи тизимини такомиллаштириш учун бир қатор муҳим йўналишлар белгилаш мумкин.

*Биринчидан,* халқаро конвенциялар ўртасидаги мувофиқлик ва ўзаро мувофиқликни кучайтириш зарур. ЮНЕСКО, UNIDROIT, INTERPOL ва БМТ Хавфсизлик Кенгаши ўртасидаги институционал алоқаларни мустаҳкамлаш ягона самарали механизмни яратиш имконини беради.

*Иккинчидан,* “маданий бойлик” тушунчасини аниқлаштириш ва уйғунлаштириш талаб этилади. Мавжуд конвенцияларда “маданий бойлик”, “маданий мерос” ва “маданий объект” тушунчалари турлича ишлатилади, бу эса ҳуқуқий ноаниқликка олиб келади. Francioni (2012) таъкидлаганидек, мазкур тушунчалар

ривожланиб бораётган халқаро ҳуқуқий тизимда муҳим концептуал аҳамиятга эга ва уларни аниқлаштириш зарур.

*Учинчидан,* маданий меросни рақамлаштириш ва рақамли мерос ҳуқуқи масалалари бўйича алоҳида халқаро ҳужжат ёки мавжуд конвенцияларга тегишли қўшимчалар киритиш мақсадга мувофиқ. Кўплаб мамлакатларда рақамли маданий меросни ҳимоя қилиш бўйича нормаларнинг етишмаслиги ёки ноаниқлиги ушбу масалада халқаро-ҳуқуқий тартибга солиш заруратини оширади.

*Тўртинчидан,* ҳуқуқий маълумот базасини кенгайтириш ва халқаро алмашинувни кучайтириш зарур. ЮНЕСКО (2025)нинг маълумотларига кўра, маданий бойликларнинг ноқонуний савдосига қарши кураш, биринчи навбатда, давлатлар ўртасидаги маълумот алмашинуви ва ҳамкорликка боғлиқ. INTERPOL маълумотлар базаси ва ЮНЕСКОнинг ноқонуний объектлар рўйхатини бирлаштириш ва кенгайтириш самарали чора бўлиши мумкин.

*Бешинчидан,* маданий мерос ва барқарор ривожланиш ўртасидаги ўзаро боғлиқликни ҳуқуқий механизмларда мустаҳкамлаш долзарб. 2015 йилдаги БМТ Барқарор ривожланиш мақсадлари маданий меросни ривожланишнинг ресурси сифатида белгилаган бўлиб, бу маданий мерос ҳуқуқини иқтисодий ривожланиш ва экология қонунчилиги билан уйғунлаштиришни тақозо этади.

Замонавий халқаро маданий мерос ҳуқуқи тизими – кенг қамровли, кўп қатламли ва мунтазам ривожланиб борувчи механизм ҳисобланади. ЮНЕСКО доирасида қабул қилинган 1970, 1972 ва 2003 йилги конвенциялар мазкур тизимнинг пойдеворини ташкил этади. Уларнинг ҳар бири маданий меросни ҳимоя қилишнинг муайян жиҳатларига – ноқонуний савдога қарши кураш, жаҳон миқёсидаги маданий ва табиий мероснинг рўйхати ва муҳофазаси, номоддий маданий меросни сақлаш – қаратилган.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, замонавий халқаро маданий мерос ҳуқуқи тизими бир қатор ижобий ютуқларга эришган: маданий мероснинг универсал аҳамияти халқаро миқёсда тан олинган; институционал тузилмалар (ЮНЕСКО, ЮНИДРУА, Умумжаҳон мероси қўмитаси) самарали фаолият кўрсатмоқда; маданий мерос ва инсон ҳуқуқлари ўртасидаги боғлиқлик ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланди; жиноий масъулият механизми (Халқаро жиноят суди мисолида) шаклланди. Шу билан бирга,

институционал, моддий-ҳуқуқий ва амалий муаммолар ҳал этилмасдан қолмоқда.

Ушбу муаммоларни ҳал этиш учун халқаро ҳамжамият бир неча устувор йўналишда ишни кучайтириши лозим: конвенциялар ўртасидаги мувофиқлик ва уйғунлаштиришни таъминлаш; маданий бойлик тушунчасини аниқлаштириш; рақамли маданий мерос ҳуқуқий ҳимоясини такомиллаштириш; ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва маданий мерос мутахассислари ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш.

Ушбу масалалар Ўзбекистон учун ҳам долзарб аҳамиятга эга. Ўзбекистонда маданий меросни ҳимоя қилиш бўйича миллий қонунчиликни халқаро стандартлар билан уйғунлаштириш, иштирок этиладиган конвенциялар доирасидаги мажбуриятларни тўлиқ бажариш ва ноқонуний маданий бойликлар савдосига қарши курашда халқаро ҳамкорликни кучайтириш зарур. Шу билан бирга, Ўзбекистон Умумжаҳон мероси рўйхатидаги объектлари ва номоддий маданий мерос элементлари орқали ўзининг ноёб маданий хазинасини жаҳон ҳамжамиятига тақдим этиш имкониятидан мақсадли фойдаланиши лозим.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Blake, J. (2015). International cultural heritage law (cultural heritage law and policy). Oxford University Press. https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780192846084.001.0001

2. Francioni, F. (2012). The evolving framework for the protection of cultural heritage in international law. In S. Borelli & F. Lenzerini (Eds.), Cultural heritage, cultural rights, cultural diversity: New developments in international law (pp. 3–19). Martinus Nijhoff Publishers.

3. Heritage for Peace. (2022). The 1970 Convention on the Means of Prohibiting and Preventing the Illicit Import, Export and Transfer of Ownership of Cultural Property. https://www.heritageforpeace.org/heritage-for-peace/legal-framework/unesco-convention-1970/

4. Institute of Art and Law (IAL). (2020). Fifty years on: The meaning of the 1970 UNESCO Convention. https://ial.uk.com/fifty-years-on-unesco-convention/

5. Nafziger, J. A. R., & Paterson, R. K. (Eds.). (2014). Handbook on the law of cultural heritage and international trade. Edward Elgar Publishing.

6. O'Keefe, P. J. (2007). Commentary on the UNESCO 1970 Convention on illicit traffic (2nd ed.). Institute of Art and Law.

7. Ortiz, S. L., & Jiménez de Madariaga, C. (2021). The UNESCO convention for the safeguarding of the intangible cultural heritage: A critical analysis. International Journal of Heritage Studies, 28(3), 278–292. https://doi.org/10.1080/10286632.2021.1941914

8. UNESCO. (2003). Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. https://ich.unesco.org/en/convention

## ЮРИДИК ТАЪЛИМНИНГ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИДА ТУТГАН ЎРНИ

***Д.Ж.Эшқулов**, ИИВ Малака ошириш институти Юридик фанлар кафедраси ўқитувчиси, майор, 90-12-43-35*

**Аннотация.** мақолада ҳуқуқбузарликларни олдини олиш соҳасида ички ишлар органлари профилактика (катта) инспекторларининг ҳуқуқий мақоми ҳамда ҳуқуқбузарликларни олдини олишда юридик таълимнинг ўрни тўғрисида фикр мулоҳазалар юритилган.

**Калит сўзлар:** Конституция, қонун, ҳуқуқбузарлик, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, профилактика (катта) инспектори, назорат, профилактик суҳбат.

Ўзбекистонда мустақилликка эришганидан сўнг дастлабки кунлардан бошлаб жамиятда барқарорликни таъминлаш, фуқароларнинг тинчлиги ва осойишталигини асраш устувор вазифалардан бирига айланди. Ана шундай юксак мақсад-муддаоларга эришиш учун истиқлол йилларида юртимизда ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлашнинг муҳим бўғини бўлган ички ишлар идоралари тизимини чуқур ислоҳ қилиш бўйича кенг кўламли,

мазмун-моҳиятига кўра улкан ишлар амалга оширилди.

Ушбу ислоҳотлар жараёнида профилактика хизматларининг фаолиятини тартибга солувчи бир қатор меёрий-ҳуқуқий шаклланди. Мазкур қонунлар  жамият ҳаётининг турли соҳаларига

таъалуқли бўлиб, қонунлар ва қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ички ишлар идораларининг ҳуқуқий мақомини мустаҳкамланиши ҳамда ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олиш фаолиятиятини самарали ташкил этишга хизмат қилиб келмоқда.

Ҳозирги кунда ички ишлар органлари профилактика хизматларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолиятини тартибга солувчи айрим қонун ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари мавжуд бўлиб, улар юридик кучи ва мазмун-моҳияти жиҳатидан бир-биридан фарқ қилади. Қуйида профилактика хизматлари фаолиятини тартибга солувчи Ўзбекистон Республикасининг қонунлари ва қонуности ҳужжатлар мавжуд.

Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Конституцияси профилактика хизматларининг фаолиятини тартибга солувчи асосий қонун ҳисобланади. Мазкур қонунда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг дахлсизлиги, инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва қадр-қиммати ва бошқа дахлсиз ҳуқуқларини ҳар-хил турдаги жиноий тажовузлардан ҳимоя қилиши, инсон ҳаётига суиқасд қилиш оғир жиноятлиги, ҳеч ким қонунга асосланмаган ҳолда ҳибсга олиниши ёки қамоққа сақланиши мумкин эмаслиги, ҳар бир шахснинг ариза, таклиф ва шикоятлар билан мурожаат қилиш ҳуқуқини таъминлаши, ҳар бир шахсга ўз ҳуқуқ ва эркинликларини суд орқали ҳимоя қилиш, давлат органлари, мансабдор шахслар, жамоат бирлашмаларининг ғайриқонуний хатти-ҳаракатлари устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқи кафолатланиши, фарзандларнинг ота-оналарининг

насл-насабидан ва фуқаролик ҳолатидан қатьи назар, қонун олдида тенглиги, қонунийлик ва ҳуқуқий тартиботни, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилишда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга жамоат ташкилотлари ва фуқаролар ёрдам кўрсатишлари мумкинлиги мустаҳкамлаб қўйилган. Шунингдек, 2-моддасида “Давлат халқ иродасини ифода этиб, унинг манфаатларига хизмат қилади. Давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъулдирлар”[1] деган талаб белгиланган. Мазкур талаб давлат органларида фаолият юритувчи хусусан ички ишлар органларининг профилактика хизматларининг ходимларига тўғридан-тўғри юклатилмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги «Терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги қонуни профилактика хизматларининг терроризмга қарши курашиш, хусусан унинг олдини олиш бўйича фаолиятини тартибга солувчи ҳуқуқий асос ҳисобланади.

Профилактика хизматлари ушбу Қонун асосида фуқароларнинг соғлиғи, ҳаёти, мол-мулкини, уларнинг тинчлиги ва миллий тотувлигини, давлатнинг суверенитети ҳамда ҳудудий яхлитлигини терроризм хавфидан ҳимоя қилувчи субъект бўлиб ўз ваколатлари доирасида терроризмга қарши кураш бўйича вазифаларни амалга оширадилар (8-модда)[2]. Хусусан:

- террорчилик фаолиятининг олдини олиш, уни аниқлаш, унга чек қўйиш ҳамда унинг оқибатларини минималлаштириш бўйича

чора-тадбирларни амалга оширадилар;

- алоҳида муҳим, категорияланган ва бошқа объектларнинг қўриқланиши ва хавфсизлигини таъминлайдилар;

- давлат ҳокимияти ва бошқарувнинг тегишли органларига террорчилик фаолиятига алоқадор шахслар, гуруҳлар ва ташкилотлар тўғрисида ахборот тақдим этадилар, шунингдек қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни амалга оширадилар (5,10, 15-моддалар).

Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонунининг қабул қилиниши ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги муносабатларни комплекс тартибга солгани билан бир қаторда бу борадаги ислоҳотларнинг янги босқичини бошлаб берди.

Мазкур қонунда умумий қоидалар, ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг асосий вазифалари, асосий принциплари, турлари, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи органлар ҳамда муассасалар, уларнинг ваколатлари, якуний қоидалар белгилаб берилган.

Қонунда ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг асосий принциплари қонунийлик, инсонпарварлик, тизимлилик, ишонтириш усулининг устуворлиги, таъсир кўрсатиш чора-тадбирларини фарқлаш ва якка тартибдаги ёндашишдан иборат эканлиги аниқ кўрсатиб берилган. Шунингдек, Қонунда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги ваколатлари аниқ белгилаб берилган.

Қонуннинг 9-моддасида белгиланганидек, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи органлар ва муассасалар тизимига **ички ишлар органлари**; прокуратура органлари; миллий хавфсизлик хизмати органлари; адлия органлари; давлат божхона хизмати органлари; давлат солиқ хизмати органлари; меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш органлари; таълимни давлат томонидан бошқариш органлари ва таълим муассасалари; давлат соғлиқни сақлаш тизимини бошқариш органлари ва соғлиқни сақлаш муассасалари; Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органлари киради[3]. Қонунда ушбу органлар ва муассасаларнинг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги ваколатлари аниқ белгилаб берилди.

Шунингдек, 21-моддада фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқароларнинг ҳуқуқбузарликлар профилактикасидаги иштироки ҳам белгилаб берилган.

Шунингдек, Қонунда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда ваколатлари ҳамда шахсларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари кафолатларини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи органлар ҳамда муассасалар фаолиятининг молиявий ва моддий-техник таъминоти ҳамда бошқа бир қатор масалалар ҳам ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солинган.

Ички ишлар органларининг профилактика хизмати фаолиятини тартибга солувчи, айниқса ҳуқуқбузарликлар профилактикаси самарадорлигини ошириш, жамоат тартиби ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олиш, шунингдек ҳуқуқбузарлик ёки жиноят содир этишга мойил бўлган шахслар билан якка тартибдаги профилактик ишларни ташкил этиш каби вазифаларни амалга оширишни белгилаб берди.

Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 27 октябрдаги «Наркологик касалликлар профилактикаси ва уларни даволаш тўғрисида»ги қонуни профилактика хизматларининг ичкиликбозлик, гиёҳвандлик ва заҳарвандликка қарши кураш фаолиятини тартибга солади[4]. Мазкур қонун талабларига асосан ўз хизмат ваколатлари доирасида наркологик ёрдам соҳасидаги давлат

дастурларини ишлаб чиқишда ҳамда амалга оширишда иштирок этиши, наркологик ёрдам соҳасидаги тармоқ дастурларини ишлаб чиқади, тасдиқлайди ва амалга ошириши, фуқароларнинг, аввало ёшларнинг психоактив моддаларни нотиббий равишда истеъмол қилишига имкон бераётган шарт-шароитларни аниқлайди ва бартараф этиши, психоактив моддаларни истеъмол қилувчи шахсларни аниқлайди ва уларни тиббий текширувдан ўтишга олиб бориши, соғлиқни сақлаш органлари ва муассасаларининг хулосалари асосида наркологик касалликларга чалинган шахсларни профилактик ҳисобга олишни амалга ошириши, наркологик касалликларга чалинган шахсларни мажбурий даволашга юбориш учун ҳужжатларнинг расмийлаштирилишини таъминлайди, шунингдек ушбу шахсларни суднинг қонуний кучга кирган қарори асосида наркология муассасаларига олиб боришга кўмаклашиши, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 96-моддасига мувофиқ ўзига нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари қўлланилган шахсларни жазони ижро этиш тизимининг ихтисослаштирилган муассасаларида мажбурий даволашни амалга ошириши, наркологик касалликларга чалинган, наркология муассасаларида даволаниб чиққан, шу жумладан мажбурий тарзда даволаниб чиққан шахслар устидан кузатувни ташкил этади ҳамда уларни ишга жойлаштиришга ва уларнинг маиший мослашувига кўмаклашади, наркологик касалликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи ҳамда наркологик ёрдам кўрсатувчи бошқа органлар ва муассасалар билан ҳамкорлик қилиши белгиланган.

Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 апрелдаги «Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган айрим тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорат тўғрисида»ги қонуни қабул қилинган. Ушбу қонун жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган айрим тоифадаги шахслар томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этилишининг олдини олиш мақсадида уларга якка тартибда профилактик таъсир кўрсатишдан иборат бўлади.

Таъкидлаш керакки, қонуннинг 16, 17-моддаларида ички ишлар идоралари ходимларининг маъмурий назоратни амалга оширишдаги қуйидаги ҳуқуқ ва мажбуриятлари белгилаб берилган[5]:

Маъмурий назоратни амалга оширишда ички ишлар органлари қуйидаги ҳуқуқларга эга:

- назорат остидаги шахснинг хулқ-атвори тўғрисида иш, ўқиш ёки хизмат жойи маъмуриятидан, жамоат бирлашмасидан, яшаш жойидаги фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органидан, шунингдек фуқаролардан маълумотларни сўраш ва олиш;

- назорат остидаги шахсга уй-жой бериш ва уни ишга жойлаштириш тўғрисида тегишли давлат органларига, бошқа корхоналар, муассасалар ва ташкилотларга илтимосномалар юбориш;

- профилактик суҳбат ўтказиш учун назорат остидаги шахсни унинг яшаш жойидаги ички ишлар органларига чақириш, назорат остидаги шахснинг талаби билан бундай суҳбатларни адвокат, жамоатчилик, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органи вакиллари ёки яқин қариндошлари иштирокида ўтказиш;

- назорат остидаги шахсдан ўзига нисбатан белгиланган маъмурий чекловларга риоя этиш ҳамда зиммасига юклатилган мажбуриятларни бажариш билан боғлиқ масалалар юзасидан оғзаки ва ёзма тушунтиришлар талаб қилиш.

Ички ишлар органлари маъмурий назоратни амалга ошириш бўйича алоҳида тадбирларни ўтказишда давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, бошқа ташкилотлар ва фуқаролар билан ҳамкорлик қилиши мумкин.

Маъмурий назоратни амалга оширишда ички ишлар органларининг мажбуриятлари:

- назорат остидаги шахсга унинг ҳуқуқлари ва мажбуриятларини тушунтириши, шунингдек ўзига нисбатан белгиланган маъмурий чекловларни бузганлик ҳамда зиммасига юклатилган мажбуриятларни бажармаганлик учун жавобгарлик тўғрисида огоҳлантириши;

- маъмурий назорат муддати мобайнида назорат остидаги шахсларнинг ҳисобини юритиши;

- назорат остидаги шахсларни ўзлари танлаган яшаш жойида прописка қилиш ва уларни ишга жойлаштириш юзасидан зарур чоралар кўриши;

- маъмурий назорат остидаги шахснинг ўзига нисбатан белгиланган маъмурий чекловларга риоя этиши ва яшаш, иш, ўқиш ёки хизмат жойи бўйича зиммасига юклатилган мажбуриятларни бажариши устидан тизимли равишда назоратни амалга ошириши;

- назорат остидаги шахс билан унинг ҳуқуқбузарликлар содир этишининг олдини олишга қаратилган якка тартибдаги профилактика ишларини олиб бориши;

- жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинганидан кейин яшаш жойларига белгиланган муддатда узрли сабабларсиз етиб келмаган, шунингдек яшаш жойларини ўзбошимчалик билан тарк этган ёки суд томонидан белгиланган ҳудуд доирасидан рухсатномасиз чиқиб кетган назорат остидаги шахсларнинг қидирувини амалга ошириши шарт.

Маъмурий назоратни ўрнатиш ва амалга ошириш назорат остидаги шахснинг бошқа ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини бузмаслиги, унинг шаъни ва қадр-қимматини камситмаслиги керак.

Юқорида кўрсатиб ўтилган Ўзбекистон Республикасининг бир қатор қонунлари ички ишлар органларининг профилактика хизматининг бевосита ҳуқуқбузарликлар профилакткасини амалга ошириш фаолиятини ташкил этиш тартиби, йўналишлари ва ҳуқуқий асосларини белгилаб беради.

Хулоса сифатида айтганда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг бир нечта фармонлари, қарорлари ва Ички ишлар вазирлигининг буйруқлари профилактика (катта) инспекторларнинг мақомини ҳуқуқий жиҳатдан химоя қилиниши, уларнинг ҳуқуқбузарлокларни олдини олиш йўлидаги, содир этилган ҳуқуқбузарликларга доир бўлган иш юритувидаги ҳужжатлар бўйича қонуний қарор қабул қилишлари ва бошқа ваколатлари, уларнинг хизмат фаолиятини қонун ва қонуности нормалар билан тартибга солинганлигидан далолат бермоқда.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2023 й.
- “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги қонун. 15.12.2000 й.
- “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонун. 14.05.2014 й.
- “Наркологик касалликлар профилактикаси ва уларни даволаш тўғрисида”ги қонун. 27.10.2020 й.
- “Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган айрим тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорат тўғрисида”ги қонун 2.04.2019 й.

# O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY- HUQUQIY TAHLILI

***D.Sh.Aliqulov**, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi Bosh yuriskonsulti, elektron pochta manzil: aliqulovd4386@gmail.com, Tel: +998 99 553-43-86*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish sohasidagi mavjud muammolar ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (2020), Vazirlar Mahkamasining 818-son qarori (2025) va BMT Konvensiyasi talablari asosida nogironlikning tibbiy modelidan ijtimoiy modelga o‘tish jarayoni ko‘rib chiqilgan. Muallif inklyuziv ta’limni amalga oshirishga to‘siq bo‘layotgan asosiy muammolarni – yagona maxsus qonunning yo‘qligi, tushunchalarning huquqiy ta’riflanmaganligi, pedagoglarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi, o‘quv dasturlari va infratuzilmaning moslashtirilmaganligi, moliyalashtirish hamda idoralararo hamkorlikning zaifligi, ijtimoiy stigma muammolarini aniqlagan. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari asosida xulosa qilinib, muammolarni hal etishda xalqaro tajribani milliy sharoitlarga ijodiy moslashtirish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, nogironlikning ijtimoiy modeli, maxsus ta’lim ehtiyojlari, normativ-huquqiy baza, pedagogik tayyorgarlik.

O‘zbekistonda nogironlik diskursi tibbiy modeldan ijtimoiy modelga bosqichma-bosqich o‘tishni boshidan kechirmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yildagi Oliy Majlisga murojaatida ijtimoiy modelni qo‘llab-quvvatlash siyosiy burilish nuqtasi bo‘ldi[1]. Prezident o‘z murojaatida “Kelasi yili ijtimoiy himoya tizimini yanada mustahkamlaymiz. Jahon standartlariga mos keladigan nogironlikni aniqlashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish amalga oshirilmoqda” deb ta’kidlagan.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limning huquqiy bazasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada shakllantirilgan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning (2020)

20-moddasida inklyuziv ta’limning huquqiy asoslari belgilangan[2], Vazirlar Mahkamasining 818-son qarori (2025) aniq chora-tadbirlarni ko‘rsatib bergan[3]. Biroq amaliyotda ushbu normativ-huquqiy bazaning to‘liq amalga oshirilishida muammolar yuzaga kelmoqda. Quyida ushbu muammolarning ilmiy tahlili keltiriladi.

G.Namning ilmiy maqolasida O‘zbekistondagi inklyuziv ta’limga to‘siq bo‘layotgan bir qator omillar batafsil ko‘rib chiqilgan. Ijtimoiy stigma muammosi xususan dolzarbdir: ota-onalar o‘zlarining nogironligi bo‘lgan farzandlarini jamoatchilikdan yashirishga harakat qiladilar, chunki ular farzandidan uyatchanlik his qilib, oilaning ijtimoiy obro’si pasayishidan qo‘rqadilar. Hartblay va Ailchievaning fikriga ko‘ra[4], ota-onalar boshqa farzandlarining obro‘si, ayniqsa ularning kelajakdagi turmush qurishi tashvishlari tufayli nogironligi bo‘lgan bolani oila va jamiyatdan yashiradilar. O‘zbek madaniyatida nikoh asosan oldindan kelishilgan bo‘lgani uchun, agar oilada nogironligi bo‘lgan bola borligi bilinsa, potentsial kuyov yoki kelin oilasi turmush qurish taklifini rad etishi ehtimoli yuqori.

N.Kroysning tadqiqotiga asoslangan holda G.Nam yana bir muhim sababni keltiradi: ota-onalar farzandlarini nafaqat stigmadan, balki institutsionallashtirishdan ham himoya qilish uchun yashiradilar. Sovet Ittifoqi davrida og‘ir shakldagi nogironligi bo‘lgan bolalar diagnostika qilinishi bilanoq institutsionallashtirilishi kerak edi. Ota-onalar bolalarini rasmiy organlardan yashirish orqali ularni iloji boricha uzoqroq oila doirasida saqlashga harakat qilganlar. Bu amaliyot hozirgi kunda ham keng tarqalgan.

Sobiq Sovet Ittifoqi davlatlarida o‘qituvchilarni tayyorlash kurslari hali ham Defektologiya institutlari tomonidan o‘tkazilmoqda, ularning ba’zilari qayta nomlangan bo‘lsa-da, o‘quv dasturi va pedagogikasida “inklyuziv falsafaga mos paradigmali o‘zgarishlar” qilmagan. G.Namning doktorlik dissertatsiyasida ta’kidlanishicha[5], asosiy ta’lim o‘qituvchilari xizmat davrida tayyorlov kursi va yetarli ish sharoitlari (kichik sinflar va yuqoriroq maosh) bilan ta’minlanganlarida, o’zlarini inklyuziv amaliyot uchun ko‘proq tayyor his qilishlarini ifodalaydilar.

Y.Narolskayaning Farg‘ona vodiysida olib borgan tadqiqotiga asoslangan holda[6], G.Nam qayd etishicha, mavjud qonunchilik umumta’lim maktablari rahbarlariga nogironligi bo‘lgan bolalar uchun javobgarlikni o’z zimmalariga olmaslik imkonini beradi. Ular qonunlarni o‘z manfaatlariga moslab talqin qilib, bolalarni maxsus maktablarga yuborishadi. Bu defektologlar va nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishlovchi boshqa mutaxassislar orasida ham keng tarqalgan amaliyot, chunki ular an’anaviy ravishda bu bolalarni umumta’lim maktablarida o’qiy olmaydi deb hisoblaydilar.

Inklyuziv ta’limni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani tahlil qilish natijasida bir qator muhim bo‘shliqlar aniqlandi. Birinchidan,

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni tartibga soluvchi yagona maxsus qonun mavjud emas. Inklyuziv ta’limga oid normalar turli qonun va qonunosti hujjatlarga tarqalib ketgan bo‘lib, bu esa huquqiy tartibga solishda uzilishlar va ziddiyatlarga olib kelmoqda. BMT Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasining

24-moddasida belgilangan talablar milliy qonunchilikda to‘liq aks ettirilmagan[7].

M.Eynskouning ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning samarali amalga oshirilishidagi eng katta to‘siqlardan biri – bu tushunchalarning noaniq ta’riflanishidir[8]. O‘zbekiston qonunchiligida “inklyuziv ta’lim”, “maxsus ta’lim ehtiyojlari”, “oqilona moslashtirish” (reasonable accommodation), “individual ta’lim dasturi” kabi asosiy tushunchalarning aniq huquqiy ta’riflari berilmagan. Bu esa amaliyotda turli talqinlarga va huquqni qo‘llashda nomuvofiqliklarga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, mavjud normativ-huquqiy hujjatlarda inklyuziv ta’lim subyektlarining – pedagoglar, ta’lim oluvchilar, ota-onalar va ta’lim muassasalarining huquq va majburiyatlari etarli darajada aniq belgilanmagan. R.Slining fikricha, inklyuziv ta’limning rasmiy siyosat darajasida qabul qilinib, biroq amaliy amalga oshirish mexanizmlarining etarli darajada ishlab chiqilmasligi – bu ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarga xos muammodir[9]. O‘zbekistonda ham aynan shu holat kuzatilmoqda.

Uchinchidan, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunning (2020) 40–41-moddalarida ta’lim olish huquqi mustahkamlangan bo‘lsa-da[10], ushbu huquqlarni amalda himoya qilish mexanizmlari, shu jumladan shikoyat berish tartibi, javobgarlik choralari va sudga murojaat etish mexanizmlari etarli darajada ishlab chiqilmagan.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish sohasidagi eng jiddiy muammolardan biri pedagoglarning kasbiy tayyorgarligining yetarli emasligi hisoblanadi. K.Forlinning ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi birinchi navbatda pedagoglarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liqdir[11]. O‘zbekistonning oliy ta’lim muassasalarida pedagogika yo‘nalishlarining ta’lim dasturlarida inklyuziv ta’limga oid fanlar hali yetarli darajada kiritilmagan. Natijada, ko‘pchilik pedagoglar inklyuziv sinf muhitida ishlash uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega emaslar.

O‘zbekistondagi inklyuziv ta’limning yana bir muhim muammosi – o‘quv dasturlari va o‘quv materiallarining maxsus ehtiyojli o‘quvchilarga moslashtirilmaganligi. D.Mitchellning ta’kidlashicha, inklyuziv

ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quv mazmunining moslashuvchanligi va individual ehtiyojlarga javob berish qobiliyatiga bog‘liqdir[12]. Hozirgi kunda O‘zbekistondagi umumta’lim maktablarining o‘quv dasturlari asosan “o‘rtacha” o‘quvchiga mo‘ljallangan bo‘lib, ular maxsus ehtiyojli bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olmaydi.

T.Loreman inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan yetti asosiy ustundan biri sifatida jismoniy muhitning moslashtirilishini ko‘rsatib bergan[13].

Bundan tashqari, inklyuziv sinf xonalarini maxsus jihozlar va yordamchi texnologiyalar (assistive technologies) bilan ta’minlash masalasi ham jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Eshitish apparatlari, ko‘rish uchun kattalashtiruvchi qurilmalar, maxsus kompyuter dasturlari, alternativ va augmentativ kommunikatsiya vositalari kabi jihozlar aksariyat maktablarda mavjud emas yoki juda kam miqdorda.

R.Opertti, J.Breydi va L.Dankombning ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning ko‘plab davlatlarda samarali amalga oshirilmasligining asosiy sabablaridan biri moliyaviy resurslarning etarli darajada ajratilmasligidir[14]. O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’limni moliyalashtirish mexanizmlari hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Davlat budjetidan inklyuziv ta’limga ajratiladigan mablag‘larning alohida moddasi mavjud emas. Maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning ehtiyojlariga qarab differensial moliyalashtirish tizimi joriy etilmagan.

B.Norvichning ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning samarali amalga oshirilishi uchun maxsus ehtiyojli bolalarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri aniqlash tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega[15]. O‘zbekistonda hozirgi kunda maxsus ehtiyojli bolalarni aniqlash va ularning ehtiyojlarini baholashning yagona standartlashtirilgan tizimi mavjud emas. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PTPK) faoliyati ko‘plab tanqidlarga uchramoqda: ular asosan bolaning “nuqsonlari”ga e’tibor qaratib, uning imkoniyatlari va kuchli tomonlarini hisobga olmaydi.

Shveysariya tajribasida Xalqaro funksionallik tasnifi (ICF) asosida ta’lim huquqini belgilash protsedurasining muvaffaqiyatli qo‘llanilganligi alohida e’tiborga loyiqdir[16].

M.Oliverning ijtimoiy model nazariyasiga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy hayotdan chetlashtirilishining asosiy sababi ularning jismoniy yoki aqliy xususiyatlari emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan to‘siqlar va salbiy munosabatlardir[17]. O‘zbekiston jamiyatida ham nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan ma’lum darajada

salbiy stereotiplar va noto‘g‘ri tasavvurlar mavjud. Bu muammo inklyuziv ta’limning amaliy amalga oshirilishiga jiddiy to‘siq bo‘lib turibdi.

G.Namning ilmiy maqolasida “Ta’lim to’g‘risida”gi qonunning 4-moddasi tahlil qilinib, unda barcha shaxslar uchun teng ta’lim olish huquqi kafolatlanganligi ko‘rsatilgan, biroq jins, til, yosh, irq va boshqa omillar qatorida *nogironlik* mezon sifatida qayd etilmagan[18]. Bundan tashqari, qonunning 23-moddasida nogironligi bo‘lgan bolalar maxsus ta’lim muassasalariga yo‘naltirilishi ko‘rsatilgan, bu esa segregatsiyani qonuniylashtiradi. G.Namning fikricha, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar nogironlikning tibbiy modelini aks ettirib, inklyuziv ta’lim huquqini aniq kafolat sifatida belgilamaydi.

T.But va M.Eynskouning ta’kidlashicha, inklyuziv madaniyatni shakllantirish inklyuziv ta’lim tizimini yaratishning eng muhim va shu bilan birga eng murakkab vazifalaridan biridir[19].

YUNISEFning 2021-yilgi hisobotida ta’kidlanishicha, inklyuziv madaniyatni shakllantirish uzoq muddatli va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u ota-onalar, pedagoglar, o‘quvchilar va butun jamiyatning ongini o‘zgartirishni talab etadi [20]. Shu sababli, O‘zbekistonda inklyuziv madaniyatni shakllantirish bo‘yicha tizimli targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilishi, ommaviy axborot vositalarida ijobiy namunalar tarqatilishi va jamoatchilik ongini o‘zgartirish dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

Yevropa maxsus ehtiyojlar va inklyuziv ta’lim agentligining tadqiqotlariga ko‘ra, inklyuziv ta’limning samarali amalga oshirilishi ko‘p tarmoqli professional jamoaning hamkorligini talab etadi [21]. O‘zbekistondagi umumta’lim maktablarida defektologlar, logopedlar, maxsus psixologlar, ijtimoiy pedagoglar va boshqa yordamchi mutaxassislarning yetishmasligi jiddiy muammo bo‘lib turibdi.

Inklyuziv ta’lim o‘z tabiatiga ko‘ra idoralararo hamkorlikni talab etadi: ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy himoya, moliya vazirliklari hamda mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasidagi samarali koordinatsiya zarur. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida (2022–2026) ham idoralararo hamkorlikni kuchaytirish vazifalari belgilab berilgan[22]. Biroq amaliyotda turli vazirliklar va idoralar o‘rtasida inklyuziv ta’lim masalalarida samarali muvofiqlashtirish mexanizmi mavjud emas.

M.Eynskouning ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan turli manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining mustahkamligiga bog‘liqdir [23]. Bunday organ ta’lim,

sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalari o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash, inklyuziv ta’lim siyosatini muvofiqlashtirish va uning amalga oshirilishini nazorat qilish vazifalarini bajarishi mumkin. Mamalakatimizda mana shunday organ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi 2023-yilda tashkil etildi.[24]

Bizning fikrimizcha, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘nlab muammolar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning har biri inklyuziv ta’limning tashkiliy-huquqiy asoslarining ma’lum bir jihatiga tegishlidir. Normativ-huquqiy bazadagi bo‘shliqlar pedagoglarni tayyorlash tizimining zaifligiga, o‘quv dasturlarining moslashtirilmaganligi ta’lim sifatining pastligiga, moliyalashtirish muammolari infratuzilmaning nomosligiga, baholash tizimining shakllanmaganligi esa real ehtiyojlarning aniqlanmasligiga olib kelmoqda. Yangi tahriridagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (2023) belgilangan ta’lim olish huquqini to‘liq amalga oshirish uchun[25] ushbu muammolarni kompleks ravishda hal etish zarur. Bu esa ilmiy asoslangan, tizimli yondashuvga asoslangan davlat siyosatini ishlab chiqishni va uning izchil amalga oshirilishini talab etadi.

Ta’kidlash lozimki, ko‘rsatib o‘tilgan muammolar O‘zbekistonga xos bo‘lgan ayrim jihatlariga ega bo‘lsa-da, ularning aksariyati xalqaro miqyosda ham keng tarqalgan va ko‘plab davlatlar ushbu muammolarni hal etishda ma’lum tajriba to‘plagan. Shu sababli, xorijiy tajribani tanqidiy o‘rganish va uni O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va huquqiy sharoitlariga ijodiy moslashtirish ushbu muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaati (2020). https://president.uz/en/lists/view/4057

2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonuni (2020-yil

23-sentyabr). 5, 17-moddalar. lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish, ularni jamiyatga integratsiya qilish va individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 818-son qarori. https://lex.uz/docs/-7942665

4. Hartblay C., Ailchieva G. “Raising children without complexes”: Successes and Shortcomings in implementing inclusive education in Northern Kyrgyzstan // Rouse M., Lapham K. (Eds.). Learning to see invisible children. – Budapest: Open Society Foundation, 2013. – P. 111–141.

5. Galina Nam, “Inclusive education for children and young people with disabilities in Uzbekistan: The perspectives and experiences of key players **o'nta muammo**”PhD Candidate, Te Kura Toi Tangata Faculty of Education, the University of Waikato, New Zealand // Manba: https://researchcommons.waikato.ac.nz/server/api/core/bitstreams/154e0587-18c9-4b9c-9765-9d05f43bb403/content

6. Narolskaya Y. How the social norms perspective can help to promote inclusive education in Fergana region of Uzbekistan. Final Paper for 2013 Summer Programme on Advances in Social Norms and Social Change. – 2013.

7. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD). Article 24 – Education. United Nations, 13 December 2006. O‘zbekiston tomonidan 2021-yilda ratifikatsiya qilingan.

8. Ainscow M. Developing inclusive education systems: What are the levers for change? // Journal of Educational Change. – 2005. – Vol. 6. – P. 109–124. doi:10.1007/s10833-005-1298-4

9. Slee R. The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education. – London: Routledge, 2011. – P. 96–120.

10. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonuni

(2020-yil 15-oktyabr). 40-41-moddalar. [https://lex.uz/docs/-5049511](https://lex.uz/docs/-5049511)

11. Forlin C. Teacher Education for Inclusion: Changing Paradigms and Innovative Approaches. – London: Routledge, 2010. – P. 39–56.

12. Mitchell D. What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-Based Teaching Strategies. – London: Routledge, 2014. – 2nd ed. – P. 59–78.

13. Loreman T. Seven Pillars of Support for Inclusive Education: Moving from "Why?" to "How?" // International Journal of Whole Schooling. – 2007. – Vol. 3, No. 2. – P. 22–38.

14. Opertti R., Brady J., Duncombe L. Moving forward: Inclusive education as the core of Education for All // Prospects. – 2009. – Vol. 39, No. 3. – P. 205–214.

15. Norwich B. Dilemmas of Difference, Inclusion and Disability: International Perspectives and Future Directions. – London: Routledge, 2008. – P. 69–88.

16. Hollenweger J. Development of an ICF-based eligibility procedure for education in Switzerland // BMC Public Health. – 2011. – Vol. 11, Suppl 4. – S7.

17. Oliver M. The Politics of Disablement. – London: Macmillan, 1990. – P. 23–48. Nogironlikning ijtimoiy modeli va jamiyatdagi stigmatizatsiya muammolari tahlili.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish, ularni jamiyatga integratsiya qilish va individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 818-son qarori. https://lex.uz/docs/-7942665

19. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. – Bristol: CSIE, 2011. – 3rd ed. – P. 35–52.

20. UNICEF. Inclusive Education: Every Child’s Right. – New York: UNICEF, 2021. – P. 37–56.

21. European Agency for Special Needs and Inclusive Education. Raising the Achievement of All Learners in Inclusive Education. – Odense: EASNIE, 2017. – P. 14–30.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. https://lex.uz/ru/docs/-5841063

23. Ainscow M. Developing inclusive education systems: What are the levers for change? // Journal of Educational Change. – 2005. – Vol. 6. – P. 109–124. doi:10.1007/s10833-005-1298-4

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, [https://lex.uz/docs/-6480342](https://lex.uz/docs/-6480342)

25. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi Yangi tahriridagi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/-6445145

# O‘ZBEKISTONDA HUQUQIY TA’LIM VA AMALIYOT *INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI*

***D.A.Aminov**, Buxoro davlat universiteti yurisprudensiya kafedrasi o‘qituvchisi, daleraminov554@mail.ru, +998934740656*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasini rivojlantirishning institutsional asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda huquqiy ta’limni amaliyot bilan bog‘lash zarurati, yuridik kadrlar tayyorlashda klaster, “Uch spiral”, tajribaviy ta’lim, klinik yuridik ta’lim va kompetensiyaviy yondashuvlarning ahamiyati ochib beriladi. Maqolada yuridik oliy ta’lim muassasalari, sud-huquq organlari, advokatura, notariat, prokuratura, davlat boshqaruvi organlari, yuridik xizmatlar, ish beruvchilar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik huquqiy ta’lim sifatini oshirishning muhim institutsional sharti sifatida asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** huquqiy ta’lim, yuridik amaliyot, integratsiya, institutsional asos, huquq ta’lim klasteri, klinik yuridik ta’lim, dual ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasi deganda yuridik oliy ta’lim muassasalari hamda huquqni qo‘llash amaliyoti subyektlari o‘rtasida barqaror, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlikni tushunish mumkin. Bunday integratsiya yuridik ta’lim mazmunini real huquqiy jarayonlar bilan bog‘laydi, talabalarni kasbiy faoliyatga erta tayyorlaydi va bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda yuridik ta’lim va fanni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF–5987-son Farmonida yuridik ta’lim va fan tizimini tubdan takomillashtirish, xalqaro ta’lim maydonida raqobatbardoshlikni ta’minlash hamda yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan.[1] Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF–232-son Farmonida yuridik ta’lim, ilm-fan va amaliyotning uzviy bog‘liqligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan.[2]

Mazkur masalani nazariy jihatdan asoslashda bir nechta konsepsiyalar muhim ahamiyatga ega. Avvalo, M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasi huquqiy ta’lim va amaliyot

integratsiyasini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Porter klasterni muayyan soha doirasida o‘zaro bog‘liq tashkilotlar, institutlar va xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalarning raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi tizimli birlashmasi sifatida talqin qiladi.[3]

Huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasining yana bir muhim nazariy asosi H.Etzkowitz va L.Leydesdorff tomonidan ilgari surilgan “Uch spiral” modelidir. Ushbu modelda universitet, davlat va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi hamkorlik innovatsion rivojlanishning asosiy omili sifatida qaraladi.[4] Huquqiy ta’lim sharoitida bu modelni “universitet – davlat – huquqiy amaliyot” shaklida izohlash mumkin. Bunda universitet bilim va ilmiy-metodik ta’minotni yaratadi, davlat normativ-huquqiy asos va strategik siyosatni belgilaydi, huquqiy amaliyot subyektlari esa talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda amaliy baza vazifasini bajaradi.

D.Kolbning tajribaviy ta’lim konsepsiyasi ham yuridik ta’limni amaliyot bilan bog‘lashda muhim ilmiy asos hisoblanadi. Kolbga ko‘ra, bilim faqat nazariy axborotni o‘zlashtirish orqali emas, balki tajriba, kuzatish, tahlil, refleksiya va amaliy qo‘llash jarayonida shakllanadi.[5] Bu yondashuv huquqiy ta’lim uchun ayniqsa dolzarbdir. Chunki huquqshunoslik faoliyati nazariy bilim bilan bir qatorda huquqiy muammoni tahlil qilish, normani sharhlash, yuridik xulosa tayyorlash, sud-huquqiy pozitsiya ishlab chiqish va mijoz bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini ham talab qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasining zamonaviy pedagogik asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim natijasi talabaning faqat bilim darajasi bilan emas, balki uning huquqiy vaziyatni baholash, mustaqil qaror qabul qilish, yuridik hujjat tayyorlash, muzokara olib borish, kasbiy etikaga rioya qilish va huquqiy yechim taklif eta olish qobiliyati bilan baholanadi. Demak, huquqiy ta’lim amaliyot bilan bog‘langandagina kompetensiyaviy ta’limning real natijadorligi ta’minlanadi.

Huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasining asosiy modellarini tasniflash. Nazariy manbalar va O‘zbekiston sharoitidagi yuridik ta’lim islohotlarini umumlashtirish asosida huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasining quyidagi modellarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

*Institutsional-integratsion model.* Ushbu modelda yuridik oliy ta’lim muassasasi sud-huquq organlari, advokatura, notariat, prokuratura, davlat boshqaruvi organlari, yuridik xizmatlar va ish beruvchilar bilan

doimiy hamkorlik asosida faoliyat yuritadi. Mazkur modelning asosiy vazifasi ta’lim jarayonini real kasbiy muhit bilan bog‘lashdan iborat. Bunda amaliyotchi mutaxassislar dars jarayonlariga jalb qilinadi, o‘quv rejalari ish beruvchilar fikri asosida takomillashtiriladi, talabalar esa sud-huquq tizimi va yuridik xizmatlar faoliyati bilan bevosita tanishadi.

*Klaster modeli.* Klaster modeli Porter nazariyasiga asoslanib, huquqiy ta’limni yagona maqsadga yo‘naltirilgan ko‘p subyektli tizim sifatida talqin qiladi. Bu modelda universitet, ilmiy markaz, sud-huquq organlari, ish beruvchilar, yuridik klinikalar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro bog‘langan holda ishlaydi. Modelning asosiy natijasi – raqobatbardosh, amaliy kompetensiyaga ega va mehnat bozori talablariga mos huquqshunos kadrlarni tayyorlashdir.

*“Universitet – davlat – huquqiy amaliyot” modeli.* Bu model “Uch spiral” nazariyasining huquqiy ta’limga moslashtirilgan ko‘rinishidir. Unda universitet ilmiy va ta’limiy markaz, davlat normativ-huquqiy tartibga soluvchi subyekt, huquqiy amaliyot esa kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi muhit sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida ushbu model yuridik ta’lim siyosati, sud-huquq islohotlari va yuridik xizmatlar tizimini o‘zaro uyg‘unlashtirish uchun muhim nazariy asos bo‘la oladi.

*Klinik-amaliy model.* Klinik-amaliy model talabalarning yuridik klinikalar, bepul huquqiy maslahat markazlari, sud jarayonlarini modellashtirish, keys-stadi va amaliy topshiriqlar orqali kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur modelning afzalligi shundaki, u talabaning huquqiy bilimini real ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘laydi. Talaba nafaqat o‘rganadi, balki real huquqiy muammoni hal etish jarayonida ishtirok etadi.

*Dual ta’lim modeli.* Dual ta’lim modelida o‘quv jarayoni auditoriya mashg‘ulotlari va amaliyot bazalaridagi kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtiriladi. O‘zbekiston yuridik ta’lim tizimida bu modelning dolzarbligi PF-232-son Farmonda ham aks etgan bo‘lib, unda yuridik ta’lim, ilm-fan va amaliyotning uzviy bog‘liqligini ta’minlash maqsadi belgilangan.[6] Mazkur model talabaning nazariy bilimni bevosita amaliy muhitda mustahkamlashiga xizmat qiladi.

*Raqamli-integratsion model.* Ushbu model elektron sud tizimi, elektron hujjat aylanishi, onlayn yuridik maslahat, huquqiy ma’lumotlar bazalari, legal tech vositalari va sun’iy intellektga asoslangan huquqiy tahlil dasturlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Raqamli integratsiya zamonaviy huquqshunosning kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin

egallaydi, chunki bugungi yuridik faoliyat tobora elektron platformalar va raqamli hujjat aylanishi bilan bog‘lanmoqda.

O‘zbekiston sharoitida huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasining institutsional asoslarini quyidagi subyektlar faoliyati orqali ko‘rish mumkin: yuridik oliy ta’lim muassasalari, sudlar, prokuratura organlari, advokatura, notariat, ichki ishlar organlari, davlat boshqaruvi idoralari, yuridik xizmatlar, ish beruvchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari. Ushbu subyektlarning har biri yuridik kadrlar tayyorlash jarayonida alohida vazifani bajaradi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasini rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hollarda ishlab chiqarish va kasbiy amaliyotlar formal tusda qolmoqda, ish beruvchilar bilan hamkorlik muntazam monitoring asosida tashkil etilmagan, amaliyotchi yuristlarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki yetarli darajada tizimlashtirilmagan, yuridik klinikalar barcha hududlarda bir xil rivojlanmagan. Shuningdek, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini baholash mezonlari ham yanada takomillashtirishni talab etadi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun, avvalo, yuridik ta’lim muassasalari huzurida sud-huquq organlari, advokatura, notariat, yuridik xizmatlar va ish beruvchilar vakillaridan iborat doimiy maslahat kengashlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday kengashlar o‘quv rejalari, fan dasturlari, amaliyot mazmuni va bitiruvchilarga qo‘yiladigan kasbiy talablarni muntazam tahlil qilib borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasini rivojlantirish yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim institutsional sharti hisoblanadi. Huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasi yuridik ta’limni yopiq akademik tizimdan ochiq, amaliyotga yo‘naltirilgan, natijador va ijtimoiy mas’uliyatli tizimga aylantiradi. Bunda universitet, davlat organlari, sud-huquq tizimi, professional yuridik hamjamiyat, ish beruvchilar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik asosiy institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF–5987-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF–232-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

3. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. 1998.

4. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Triple Helix of University–Industry–Government Relations: A Laboratory for Knowledge-Based Economic Development. EASST Review. 1995.

5. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.

# ГУВОҲНИНГ ЁКИ ЖАБРЛАНУВЧИНИНГ БИЛА ТУРИБ ЁЛҒОН КЎРСАТУВ БЕРИШИ ЖИНОЯТЛАРИНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

***А.Й.Абдуллаев***, *Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Дастлабки тергов ва суриштирув кафедраси ўқитувчиси*

**Аннотация:** Мазкур мақолада гувоҳ ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши билан боғлиқ жиноятларни тергов қилиш амалиётидаги долзарб муаммолар таҳлил қилинган. Хусусан, жиноят-процессуал қонунчиликдаги бўшлиқлар, зиддиятли ҳолатлар ва ҳуқуқни қўллаш амалиётида юзага келаётган мантиқий номутаносибликлар очиб берилган. Тергов ҳаракатлари жараёнида гувоҳ ва жабрланувчини жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантириш тартибига оид муаммолар илмий жиҳатдан асосланган. Шунингдек, қонунчиликни такомиллаштиришга қаратилган аниқ таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар**: гувоҳ, жабрланувчи, ёлғон кўрсатув, жиноий жавобгарлик, тергов амалиёти, жиноят-процессуал қонунчилик, ҳуқуқий бўшлиқлар.

Барчамизга аёнки, жамиятимиз, ундаги ижтимоий муносабатлар тўхтовсиз олдинга ҳаракатланишга маҳкум. Кундан кунга ҳаётимизда мисли кўрилмаган тезликда ўзгаришлар юз бермоқда. Шунга мос равишда янги ижтимоий муносабатлар юзага келмоқда. Шу билан бир қаторда янги жиноятлар пайдо бўлиб, уни содир этиш усуллари ҳам ранг-баранг бўлиб бормоқда. Шундай экан жамиятнинг ривожланиш тезлигига мос равишда қонунлар ҳам

такомиллаштирилиб борилиши лозим. Акс ҳолда, жамиятдаги адолат мезонлари издан чиқиб кетади. Иммануил Кантнинг таъбири билан айтганда, “Қонунлар ва жамиятнинг тартиби инсон онгининг ривожланишига мувофиқ янгиланиб бориши керак” [1].

Мана шу нуқтаи назардан қарайдиган бўлсак, мамлакатимизда бошқа соҳалар қаторида суд-ҳуқуқ тизимида ҳам узлуксиз тарзда ислоҳотлар олиб борилмоқда. Барча ислоҳотларнинг руҳи ва мазмунига “Инсон қадри учун, эл-юрт бахти учун!” деган эзгу ғоя чуқур кириб бормоқда [2].

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 21 октябрдаги “Суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4850-сон[3], 2017 йил 30 ноябрдаги “Суд-тергов фаолиятида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатларини кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5268-сон [4], 2020 йил 10 августдаги “Суд-тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6041-сон [5] Фармонлари ва 2018 йил 14 майдаги “Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3723-сон[6] қарорлари бунга ёрқин мисол бўла олади.

Истиқлол йилларида суд-ҳуқуқ соҳасида олиб борилаётган тизимли ва изчил ислоҳотлар, биринчи навбатда, жиноят ва жиноят-процессуал қонунчиликда инсонпарварлик тамойилларини кучайтиришга йўналтирилганлиги билан аҳамиятлидир [7].

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ислоҳот ислоҳотлигича қолмаслиги лозим. Кўзланган мақсадларга эришиш учун мунтазам равишда қонунчилигимизни таҳлил қилиб, аниқланган хато ва камчиликларни ўз вақтида бартараф этмоғимиз, бўшлиқларни эса ўрнида тўлдирмоғимиз даркор. Зотан, ҳамма нарсани ўз номи билан, ютуқни - ютуқ, камчиликни - камчилик деб иш олиб бормасак, биз ўз мақсадларимизга етолмаймиз. Ишимизда йўл куйилган хато ва нуқсонларни ўзимиз тузатмасак, муаммоларни ўзимиз ечмасак, ҳеч ким четдан келиб бу ишларни биз учун қилиб бермайди[8].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “жиноят қонунчилигини янада такомиллаштириш ва либераллаштириш бўйича ишларни давом эттириш лозим. Нега деганда, Жиноят ва Жиноят-процессуал кодекслари қарийб 25 йил

олдин қабул қилинган. Ўтган даврда жамиятдаги муносабатлар, одамларнинг яшаш тарзи, онги, дунёқараши ўзгарди. Шу сабабли бу кодекслар бугунги давр талабларига жавоб бермай қолди” [9].

Президент Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, “айни пайтда Асосий қонунимиз талабларини тўлиқ амалга ошириш борасида ҳали олдимизда улкан вазифалар турганини яхши тушунамиз. Яъни халқимиз ҳаёт даражаси ва сифатини янада яхшилаш, инсон ҳуқуқ ва манфаатларини амалда таъминлаш бўйича ҳали кўп иш қилишимиз керак. Энг аввало, одамларимиз ислоҳотлар самарасини келажакда эмас, балки бугун ўз ҳаётида ҳис этишлари зарур” [10].

Тадқиқотимизни мантиқий изчилликда олиб бориш учун энг аввало, гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини тергов қилишни такомиллаштириш масаласини кўтаришдан олдин бугунги кунда ҳуқуқни қўллаш амалиётида бу борада қандай муаммолар мавжудлигини таҳлил қилиш лозим. Чунки муаммонинг мавжудлиги уни бартараф этиш учун такомиллаштиришга эҳтиёж борлигини кўрсатади.

Назаримизда, тадқиқотимизни даставвал мавзуйимиз билан боғлиқ муаммоларни кўрсатиб, сўнгра уни ечимини тақдим қилсак ҳар томонлама мақсадли ва манфаатли бўлади.

Биз гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини тергов қилиш билан боғлиқ суд-тергов амалиётидаги муаммоларни қуйидаги икки тизимга ажратиб олишни таклиф қиламиз:

1) гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини тергов қилиш билан боғлиқ амалий муаммолар;

2) гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини тергов қилиш билан боғлиқ назарий муаммолар.

Гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини тергов қилиш билан боғлиқ амалий муаммоларга ушбу турдаги жиноятларни фош этиш, тергов ҳаракатини ўтказишга тайёргарлик кўриш, уни ўтказиш, натижаларини қайд этиш жараёнида юзага келадиган муаммоларни, қолаверса, бугунги кунда тергов идораларида хизмат олиб бораётган аксарият суриштирувчи ва терговчилар жуда ёш ва тажрибасиз, уларга устозлик қилиши лозим бўлган кўп йиллик тажрибага эга бўлган ходимлар деярли йўқлиги натижасида юзага келаётган

билимсизлик, тажриба, малака ва кўникмаларнинг етарли даражада бўлмаслигини киритиш мумкин.

Гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини тергов қилиш билан боғлиқ назарий муаммоларга айни ушбу турдаги жиноятларни тергов қилишга оид қонун ва қонун ости меъёрий ҳуқуқий ҳужжатлар нормаларидаги бўшлиқлар, тушунмовчиликлар, зиддиятли ҳолатларни кўрсатиш мумкин.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлган сўроқ қилиш тергов ҳаракатининг бугунги кундаги ҳолати ва суд-тергов амалиётининг таҳлили натижасида аниқланган баъзи бир хато-камчиликлар, муаммоларнинг муҳокамаси ва уларни бартараф этиш бўйича илгари сурилган қонунчиликни такомиллаштиришга қаратилган таклифларга ўтсак.

**Биринчидан,** барчамизга маълумки, ЖПКнинг 117-моддаси 1-қисмида “гувоҳ ёки жабрланувчининг шахси аниқлангандан ва унга процессуал ҳуқуқ ҳамда мажбуриятлари тушунтирилгандан кейин у кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилиб, бу ҳақда сўроқ баённомаси ёки суд мажлиси баённомасига ёзиб қўйилади” деб кўрсатилган. Бироқ, бугунги кунда тергов амалиётида айниқса тан жароҳати етказиш билан боғлиқ жиноятларда икки томоннинг ҳам бир-бирига тан жароҳати етказгани билан боғлиқ жиноятлар жуда кўп учрайди. Чунки қизиққон халқмиз. Илк бор калтакланган шахс ўша вақтда ҳеч қачон ИИБга телефон қилишни ёки шифохонага мурожаат қилишни ўйламайди. Кучи етганича жавоб қайтаради.

Бундай ҳолларда агар жабрланувчи ҳам гумон қилинувчига жавоб қайтариши натижасида унга енгил шикаст етказилган бўлса, ЖПКнинг

334-моддаси 1-қисмига биноан, унга нисбатан тўпланган тегишли ҳужжатлар маъмурий тартибда чора кўриш учун тегишли ваколатларга эга бўлган давлат органи ёки мансабдор шахсга юборилади. Бироқ, жабрланувчи томонидан жавоб тарзида берилган зарба натижасида гумон қилинувчига ҳам соғлиғини бузилишига сабабчи бўлган енгил (ЖК 109) ёки ўртача оғирликдаги шикаст(ЖК 105) етказилган бўлса нима бўлади? Биз бунда эътиборни жиноий томонига эмас, балки жиноят-процессуал томонига жалб қилмоқдамиз. Яъни, бундай ҳолда ҳар икки томон ишда ҳам

жабрланувчи, ҳам гумон қилинувчи тариқасида иштирок этишга жалб қилинади.

Ҳар икки томон гумон қилинувчи тариқасида сўроқ қилинган вақтда кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилмайди, лекин ҳар икки томон жабрланувчи тариқасида сўроқ қилинганида огоҳлантирилади. Бунда қандай мантиқ бўлиши мумкин.

Маълумки, гувоҳ ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши гувоҳ ёки жабрланувчини судда, суриштирув ёки дастлабки терговда сўроқ қилиш тугаган вақтдан бошлаб (яъни, сўроқ баённомаси имзоланган вақтдан бошлаб) тамом бўлган ҳисобланади[11].

Ҳолбуки, гумон қилинувчи кўрсатувлар беришдан бош тортиш ҳуқуқига эга [12].

Гумон қилинувчи била туриб ёлғон кўрсатув бериши ҳам мумкин ва бу жавобгарликка тортишга асос бўлмайди. Аниқроқ қилиб тушунтирадиган бўлсак, жабрланувчи ўзини ҳимоя қилиш учун гумон қилинувчига тан жароҳати етказгани бўйича ЖКнинг тегишли моддаси билан айбланувчи тариқасида иштирок этишга жалб қилинади ва ишда ҳам жабрланувчи, ҳам айбланувчи сифатида иштирок этади. Бу ҳолатда у дастлаб гувоҳ ёки жабрланувчи тариқасида кўрсатув берган вақтида била туриб ёлғон кўрсатув берганлиги аниқланган бўлса ҳам барибир уни ЖКнинг 238-моддаси билан айблай олмаймизку. Бу ерда қонуннинг мантиғи қаерда қолади?

Бундан ташқари, ҳуқуқни қўллаш амалиётида юзага келаётган яна бир муаммо бу бир гуруҳ шахслар томонидан содир этилган жиноятларни тергов қилишда кўзга ташланади.

Биламизки, бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан жиноий тил бириктириб содир этилган жиноятларни тергов қилишда гумон қилинувчилардан бири терговга келишдан бўйин товлаб, номаълум томонга яширинса, жиноят ишининг унга нисбатан бўлган қисми ЖПКнинг

332-моддасига асосан алоҳида иш юритувга ажратилиб, сиртдан айбланувчи тариқасида иштирок этишга жалб қилиниб, сиртдан эҳтиёт чораси танланади ва белгиланган тартибда қидирув эълон қилиниб, ЖПКнинг

364-моддаси 1-қисми 2- ёки 3-бандига асосан дастлабки тергов тўхтатилади. Тергов олиб борилаётган қисми эса умумий асосларга кўра судга юборилади. Суд томонидан иш мазмунан кўриб чиқилиб, тегишли жазо берилади.

Бу ҳолда, орадан бир муддат ўтиб, қидирувдаги шахс тергов органига ушлаб келинса, дастлабки тергов ЖПКнинг 371-моддасига асосан қайта тикланиб, тергов ҳаракатлари олиб борилади. Шу жараёнда жазо ўтаётган маҳкум билан қидирувдан ушлаб келинган айбланувчининг кўрсатувларида

қарама-қаршилик аниқланган ҳолларда, тергов амалиётида маҳкум терговга гувоҳ тариқасида чақирилиб, сўроқ қилиниб, кейин қидирувдан ушлаб келинган шахс билан юзлаштирилади. Маҳкум гувоҳ тариқасида сўроқ қилинган вақтда ҳам, юзлаштиришда ҳам кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилади. Ваҳоланки, ҳеч ким айни бир жиноят учун такроран ҳукм қилиниши мумкин эмас[13].

Шунингдек, ЖПКнинг 116-моддасида гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг яқин қариндошлари гумон қилинувчига, айбланувчига тааллуқли ҳолатлар ҳақида гувоҳ ёки жабрланувчи тариқасида фақат ўзларининг розиликлари билан сўроқ қилинишлари мумкинлиги кўрсатиб ўтилган. ЖПКнинг 117-моддаси 2-қисмига кўра эса, гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг яқин қариндошлари кўрсатув беришдан бош тортганлик учун жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилмайдилар. Ушбу икки модданинг мантиғидан келиб чиқиб хулоса қиладиган бўлсак, агар гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг яқин қариндошлари ЖПКнинг 116-моддасига кўра гувоҳ ёки жабрланувчи тариқасида кўрсатув беришга рози бўлишса, улар ЖКнинг

238-моддаси ва 240-моддаси билан огоҳлантирилишлари лозим. Бироқ, тергов амалиётида бундай ҳолларда ҳам улар огоҳлантирилмайдилар.

Бундан ташқари, жиноят иши материалларини ўрганиш натижалари аксарият ҳолатларда гумон қилинувчининг, айбланувчининг яқин қариндошлари гумон қилинувчига, айбланувчига тааллуқли ҳолатлар ҳақида гувоҳ ёки жабрланувчи тариқасида сўроқ қилинаётганида уларнинг розиликлари олинмаётганлиги маълум бўлди.

Қолаверса, ишларнинг бир қисмида бу тоифадаги шахсларни гувоҳ тариқасида сўроқ қилишда уларнинг розилиги олинаётган бўлса-да, лекин уларни била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун огоҳлантирилмаслик ҳолатлари ҳам мавжуд. Бу эса, мазкур амалиётни амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар талабларига зид эканлигини кўрсатади.

Назаримизда, тергов амалиётида юқоридаги каби мантиқсиз ҳаракатлар қилинаётганлигининг асосий сабаби жиноят-процессуал қонунчилигимизда ана шундай вазиятларнинг ечими мавжуд эмаслигидадир.

Эътиборли жиҳати шундаки, ушбу норма Россия Федерациясида конституционал принцип сифатида эътироф этилган. Россия Федерацияси Конституциясининг 51-моддаси 1-қисмида “Ҳеч ким ўзига, турмуш ўртоғига ва федерал қонун билан белгиланадиган яқин қариндошларига қарши гувоҳлик беришга мажбур эмас” [14] деб қайд қилинган. Шунингдек, АҚШ Конституциясига бешинчи тузатиш ўз-ўзини айблашдан ҳимоя қилади[15].

Бизнинг фикримизча, мазкур қоида конституционал принцип сифатида бош қомусимизда ўз ифодасини топиши лозим.

**Муҳокама ва таҳлил қилинган масалалардан келиб чиққан ҳолда қуйидаги таклифларни илгари суриш мақсадга мувофиқ бўлади:**

**Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 117-моддасининг иккинчи қисмини қуйидаги янги таҳрирда баён этиш ва янги таҳрирдаги учинчи қисм билан тўлдиришни:**

“Гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг яқин қариндошлари кўрсатув беришдан бош тортганлик учун жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилмайдилар, бироқ улар ўзларининг розиликлари билан гувоҳ ёки жабрланувчи тариқасида кўрсатув беришга рози бўлган ҳолларда била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жавобгарлик тўғрисида огоҳлантириладилар.

Шахс бир қилмиш юзасидан қўзғатилган бир жиноят иши доирасида ҳам жабрланувчи, ҳам гумон қилинувчи ёки айбланувчи тариқасида иштирок этишга жалб қилинган ҳолларда гувоҳ ёки жабрланувчи тариқасида, маҳкум ёки оқланган шахс тугатилган ёки ҳукм чиқарилган ишнинг алоҳида иш юритувига ажратилган қисми юзасидан гувоҳ тариқасида сўроқ қилинганида кўрсатув беришдан

бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилмайдилар”.

**Иккинчидан,** маълумки, суриштирув олиб бориш, дастлабки тергов чоғида ёки судда гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши[16] жиноий жавобгарликка тортишга асос бўлади.

Эътибор берадиган бўлсак, ЖКнинг 238-моддаси диспозициясида гувоҳнинг ёки жабрланувчининг “кўрсатув бериши” ҳақида гап кетмоқда. Нормада муайян тергов ҳаракати назарда тутилмаган. Бундан гувоҳ ёки жабрланувчининг кўрсатув бериши билан боғлиқ ҳар қандай тергов ҳаракатида била туриб берилган ёлғон кўрсатув жиноий жавобгарликка олиб келиши ҳақида хулосага келсак бўлади.

Дарҳақиқат гувоҳ ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув беришининг жиноий жавобгарликка олиб келиши аксарият терговчилар тушунганидек фақатгина сўроқ қилишда эмас, балки кўрсатув бериш билан боғлиқ барча тергов ҳаракатларини қамраб олади. Ваҳоланки, гувоҳ ёки жабрланувчи юзлаштириш, таниб олиш учун кўрсатиш, кўрсатувлари ҳодиса содир бўлган жойда текшириш ва эксперимент тергов ҳаракатларида ҳам ёлғон кўрсатув бермаслиги шарт.

**Юқоридагилардан келиб чиқадиган бўлсак, бизнингча, қуйидаги тергов ҳаракатлари гувоҳ ёки жабрланувчининг кўрсатув бериши билан боғлиқ ва тергов ҳаракатлари давомида кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилиши шарт:**

– сўроқ қилиш;

– юзлаштириш;

– таниб олиш учун кўрсатиш;

– кўрсатувларни ҳодиса содир бўлган жойда текшириш;

– эксперимент ўтказиш.

Бироқ, ҳуқуқни қўллаш амалиётида аксарият терговчилар гувоҳ ёки жабрланувчи сўроқ қилиш вақтида била туриб ёлғон кўрсатув берсагина ЖКнинг 238-моддасида кўрсатиб ўтилган жиноий жавобгарлик келиб чиқади деб ўйлашади. Шу билан бирга, жиноят-процессуал қонунчилигимизда ҳам ушбу масала очиқ қолиб кетган.

Хусусан, ЖПКнинг 117-моддасида гувоҳ ёки жабрланувчи кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув

берганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилиши қайд қилинган бўлса, юзлаштириш ўтказиш чоғида ЖПКнинг 96-108-моддаларида назарда тутилган сўроқ қилишнинг умумий қоидаларига риоя қилиниши кўрсатиб ўтилган[12].

Бироқ, ЖПКнинг 96-108-моддаларида гувоҳ ёки жабрланувчи кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилиши кўрсатиб ўтилмаган.

Бундан ташқари, ЖПКнинг 126-моддасида таниб олувчи таниб олиш лозим бўлган шахс ёки нарсанинг белгилари, аломатлари, хусусиятлари тўғрисида олдиндан сўроқ қилиниши лозимлиги қайд қилинган, бироқ "Таниб олиш учун кўрсатиш чоғида таниб олувчининг кўрсатуви" деб номланган

130-моддада огоҳлантириш қайд этилмаган. ЖПКнинг 133-моддасида кўрсатувлари ҳодиса содир бўлган жойда текширилаётган гувоҳ ёки жабрланувчи, ЖПКнинг 155-моддасида эксперимент ўтказиш жараёнида гувоҳ ёки жабрланувчи огоҳлантирилиши лозимлиги акс эттирилган. Бизнинг фикримизча ЖПКда юзлаштириш ва таниб олиш учун кўрсатиш тергов ҳаракатларини ўтказиш давомида ҳам гувоҳ ёки жабрланувчини кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилиши лозимлигини кўрсатиб ўтиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ваҳоланки, Ўзбекистон Республикасининг "Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида"ги қонуни иловасининг 22-бандида "...ҳар бир модда ва банд, қоида тариқасида, битта ҳуқуқий нормани ўз ичига олиши ҳамда тўлиқ ва тугалланган мазмунга эга бўлиши керак" деб кўрсатилган бўлса, 38-бандига кўра эса, қонун нормаларнинг бир хил талқин қилинишини таъминловчи, уларни аниқлаштириш учун қонуности ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва қабул қилишни талаб этмайдиган ҳолда батафсил ифода этилиши; қонун матнида уни амалга оширишнинг аниқ механизми мавжудлиги; декларатив ва мавҳум нормалар мавжуд бўлмаслиги керак[17].

Ушбу юзасидан бизга қонунчилиги яқин бўлган қўшни давлатларнинг жиноят-процессуал қонунлари таҳлил қилинганида, Қозоғистон Республикаси ЖПКнинг[18] 218-моддасида юзлаштириш, 230-моддасида эса таниб олиш учун кўрсатиш тергов ҳаракати давомида, худди шунингдек, Туркманистон Республикаси ЖПКнинг[19] 258-моддасида юзлаштириш давомида,

268-моддасида таниб олиш учун кўрсатиш тергов ҳаракати давомида гувоҳ ёки жабрланувчи кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарлик тўғрисида огоҳлантирилиши кўрсатиб ўтилганлигига гувоҳ бўлдик.

**Юқоридагилардан келиб чиқиб, қонундаги бўшлиқларни тўлдириш ва қарама-қаршиликларни бартараф этиш мақсадида қуйидагиларни таклиф қиламиз:**

**Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 123-моддасининг иккинчи қисми қуйидаги янги таҳрирда баён қилиш:**

“Юзлаштириб сўроқ қилиш олдидан суриштирувчи, терговчи ёки суд мажлисида раислик қилувчи ҳар бир сўроқ қилинувчидан навбат билан уларнинг ўзаро танишлиги ёки таниш эмаслигини, ўзаро муносабатлари қандай эканлигини сўрайди ва жавобларини тинглайди. Башарти гувоҳ ёки жабрланувчи иштирок этаётган бўлса, улар, ўн олти ёшга тўлмаган шахсларни истисно қилганда, кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарликка тортилиш ҳақида огоҳлантирилиши лозим. Шундан сўнг ҳар бир сўроқ қилинувчига навбат билан қарама-қаршилик келиб чиққан ҳолатлар тўғрисидаги саволларга жавоб бериш таклиф қилинади. Башарти қарама-қаршилик бир нечта масалага ёки бир нечта ҳолатга тааллуқли бўлса, юзлаштиришда ҳар икки сўроқ қилинувчи бир масала ёки бир ҳолат бўйича кўрсатув бергач, уларга кейинги масала ёки кейинги ҳолат тўғрисидаги саволлар берилиши мумкин.”;

**131-моддасини бешинчи қисмини қуйидаги янги таҳрирда баён этиш:**

“Таниб олувчининг кўрсатувлари, шунингдек унга суриштирувчи, терговчи, суд, тарафлар ёки бошқа шахслар томонидан берилган саволлар ва қайтарилган жавоблар ушбу Кодекснинг 106-моддасида назарда тутилган қоидаларга риоя қилинган ҳолда баённомага ёзиб борилади. Башарти таниб олувчилар гувоҳ ёки жабрланувчи бўлса, улар, ўн олти ёшга тўлмаган шахсларни истисно қилганда, кўрсатув беришдан бош тортганлик ва била туриб ёлғон кўрсатув берганлик учун жиноий жавобгарликка тортилиш ҳақида огоҳлантирилади ва бу хусусда баённомада қайд қилиниб, уларнинг имзоси билан тасдиқланади. “.

Ўйлаймизки, мазкур таклиф ва тавсияларимиз амалдаги ЖПК нормаларини янада такомиллаштирилишига, шу аснода суд-тергов органлари амалиётида гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериш жиноятларини янада самарали тергов қилишга хизмат қилади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:


1. https://www.researchgate.net/(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.10.2024 й )
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг мамлакатимиз мустақиллигининг 33 йиллиги муносабати билан “Янги Ўзбекистон” боғида байрам тантанасида “Юртнинг кучи бирликда, қадри эса тинчликдадир” деб номланган нутқидан// URL: https://president.uz/uz/(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.10.2024 й )
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4850-son Farmoni// URL: https://lex.uz/docs/(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.10.2024 й )
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5268-son Farmoni// URL: [https://lex.uz/docs/3432426](https://lex.uz/docs/3432426)(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.10.2024 й )
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6041-son Farmoni URL: [https://lex.uz/docs/4939467](https://lex.uz/docs/4939467)(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.10.2024 й )
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 майдаги “Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3723-сон қарори URL:

[https://lex.uz/docs/4939467](https://lex.uz/docs/4939467) (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.10.2024 й )

7. Муродов Б.Б. Жиноят ишини тугатиш институтини такомиллаштириш. Юридик фанлар бўйича (DSc) диссертацияси. ИИВ Академияси. –Т., 2018. – 214 б.;

8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т., 2018. – 213 б.

9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси https://xs.uz/uzkr/post/(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.10.2024 й )

10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Респуб¬ликаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросим¬даги «Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий этти¬риш¬нинг мустаҳкам пойдеворидир» мавзусида сўзлаган маърузаси // Халқ сўзи. – 2017. – 7 дек.

11. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм.3-жилд Тошкент-2021.-308 б

12. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси// https://lex.uz/docs/111460 (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 10.03.2022 й)

13. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси//URL https://lex.uz/docs/6445145111460 (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.10.2024 й)

14. Конституция Российской Федерации.http://www.constitution.ru/ (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 12.10.2024 й)

15. Конституция США https://constitutioncenter.org/(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 12.10.2024 й)

16. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси// https://lex.uz/docs/111453 (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 12.12.2022 й)

17. Ўзбекистон Республикасининг “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги қонуни / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, https://lex.uz/(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 21.04.2022 й).

18. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года https://online.zakon.kz/(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 21.04.2022 й).

19. Уголовно-процессуальный кодекс Туркменистана от 18 апреля 2009 года http://base.spinform.ru (База данных законодательство стран СНГ) / (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 05.10.2022).

# СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТЛАРНИ ЧЕКЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ ЗАРАРИЯТИ ВА ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ

***А.У.Анорбоев**, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти бош илмий ходими, ю.ф.д.,*
*э-м: [a.anorboyev786@mail.ru]*

**Аннотация:** Мазкур мақолада сунъий интеллект (СИ) технологияларининг замонавий жамият ҳаётига жадал кириб бориши натижасида юзага келаётган тизимли хавф-хатарлар ва уларни ҳуқуқий тартибга солиш масалалари таҳлил қилинади. Муаллиф СИнинг “галлюцинацияси”, алгоритмик адолатсизлик, киберхавфсизликка таҳдидлар, шахсга доир маълумотлар дахлсизлиги ва ижтимоий-психологик қарамлик каби 14 та асосий хавф омилини асослаб берган. Мақолада Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилик базаси ва СИ соҳасидаги ислоҳотлар танқидий кўриб чиқилиб, соҳани такомиллаштириш учун “Сунъий интеллект тўғрисида”ги алоҳида қонунни қабул қилиш ҳамда ахборот ресурсларини чеклашнинг ҳуқуқий механизмларини яратиш бўйича илмий-амалий таклифлар илгари сурилган.

**Калит сўзлар**: сунъий интеллект, киберхавфсизлик, ҳуқуқий тартибга солиш, алгоритмик адолатсизлик, Deepfake, шахсга доир маълумотлар, ахборот хавфсизлиги, рақамли этика.

Бугунги кунда сунъий интеллект технологиялари рақамли технологиялар каби барча соҳаларга кириб бормоқда. Бир тарафдан унинг барча соҳага кириб бориб, фойдаланувчиларнинг ишини енгил қилаётганлиги таҳсинга сазовор, бироқ бир қатор омиллар туфайли бу технологиядан эҳтиёт бўлиш зарурлигини ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда. Хусусан:

**биринчидан**, уларга тўлиқ ишониб бўлмайди ва уларнинг хато ёки “галлюцинация”га натижаси бўлган сунъий интеллектнинг маълумоти оғир оқибатларга олиб келиши мумкин. Сунъий

интеллект умуман ҳақиқатни тушунмайди, ўз номидан у “сунъий” саналади ва фақат эҳтимол ва шундай ҳолатлар билан ишлайди. Мисол учун, сунъий интеллект нотўғри хулоса бериб, МРТ, МСКТ ва бошқа тиббий воситалар натижалари юзасидан шифокор беморга нотўғри ташхис қўйиб, унинг ҳаётига зомин ҳам бўлиши мумкин;

**иккинчидан**, сунъий интеллектлар алгоритмик адолатсизликнинг ёркин намоёндаси саналади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг

19-моддасида назарда тутилган Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, эътиқоди, ижтимоий келиб чиқиши, ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар [1], деган қоида бу ерда умуман ишламайди. Ўқитиш маълумотларидаги нуқсонлар туфайли ушбу тенглик тўғридан-тўғри бузилиши мумкин;

**учинчидан**, сунъий интеллект макнолик фаолият билан шуғаллиниши оқибатида, Deepfake видео ва расмлар орқали алдаш, фишинг ҳужумлари вужудга келиб, дезинформация оммалашади, реаллик ўз ўрнини иллузияга бўшатиши, галлюцинациялар пайдо бўлиши мумкин;

**тўртинчидан**, ижтимоий жиҳатдан сунъий интеллект туфайли иш ўринлари йўқолиши ёки қисқариши хавфи пайдо бўлади ва у кучайиб бораверади. Автоматлаштириш оқибатида кўплаб касблар ва лавозимлар ўзининг аҳамиятини йўқотиб, ўз ўрнини сунъий интеллектга бўшатиб беради ва шу орқали ишсизлик янада ривож топади, оқибатда ижтимоий тенгсизлик вужудга келади;

**бешинчидан**, фойдаланувчилар шахсга доир маълумотлари, шахсий маълумотлари ва махфий ахборотини назоратини бориб-бориб, сунъий интеллектларга тақдим этиб боришади ва улардан эса, ғаразли мақсадни кўзлаган шахслар фойдаланиш эҳтимоли кўпайиб бораверади ҳамда бу орқали ошкор қилинган ахборот туфайли шахс, жамият ва давлат хавфсизлигига путур етиши мумкин;

**олтинчидан**, сунъий интеллект психологик ва эмоционаллик жиҳатидан шахснинг нафақат менини ўлдиради, балки ўзига тобе қилиб, у фикри билан шахс ҳаракат қилишга одатланади. Оқибатда эса, болаларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан улар тўлиқ ҳимояланишдан бебаҳра бўлиб қолиши, ёшларнинг руҳияти ва камолоти бузилиши, жамият таназзулга учраш хавфи пайдо бўлади ва у бора-бора чок-чокидан сўкилиб кетиши мумкин. Болалар ва

ёшларда танқидий фикрлаш шаклланмай қолиши мумкин, бу эса, тайёр жавобга ўрганишга ва таълим сифати бузилишига олиб келаши мумкин;

**еттинчидан**, сунъий интеллектлар хавфсизлик, шу жумладан, ахборот ва киберхавфсизликнинг биринчи рақамли душмани саналади ва улар зарарли вируслар тармоққа ва тизимга тарқалиб, уларни тўлиқ зарарлантириши, ахборот эгаллаб олиниб, у йўқ қилиниши, тармоқ ва тизим тўлиқ ишдан чиқиши, хатто бошқа оғир оқибатлар вужудга келиши, жиноятлар содир этилиши мумкин;

**саккизинчидан**, сунъий интеллект орқали яратилган тармоқда тарқатиш мумкин бўлмаган контент туфайли порнографик, зўравонлик ва бошқа мазмундаги салбий ахборотлар жамиятга зарар келтириш хавфи вужудга келади. Бу технологиялар инсониятга ахлоқий қарор қабул қила олмасликни вужудга келтириб, виждон, масъулият, инсоний қадриятлар йўқолишига ёки дарз кетишиги сабаб бўлади;

**тўққизинчидан**, сунъий интеллект туфайли тўлиқ барча соҳа, тармоқ, йўналиш, инфратузилмалар ва бошқалар устидан назорат йўқолиши мумкин ва бу эса, ўз навбатида оғир оқибатларни вужудга келтиради. Мураккаб моделларнинг қарор қабул қилиш логикаси тушунарсиз (black box), нима учун шундай қарор чиқарганини инсон тушунмай қолиши мумкинлиги сабабли фойдаланувчи ҳам, администратор ҳам вужудга келаётган хавф-хатарларни англамай қолиши ва жиноят қурбони бўлиши мумкин;

**ўнинчидан**, сунъий интеллект ижтимоий манипуляцияни амалга ошириши оқибатида сиёсий дезинформация, бозор манипуляцияси ва жамиятни маънан бузишга оид оғир салбий ҳолатларни пайдо қилиши, инсон ўзига бўлган ишоч йўқолиб, у бу технология қурбонига айланиши мумкин;

**ўн биринчидан**, сунъий интеллект ёрдамида тайёрланган қонунлар ҳудуд ва соҳанинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олмаслиги оқибатида “коллизион” нормалар ва аҳоли ҳамда ижрочилар ўртасида ўзаро тушунмовчиликлар ва низоли ҳолатлар вужудга келиши мумкин;

**ўн иккинчидан**, сунъий интеллектда қатъий регламент мавжуд эмаслиги туфайли муаллифлик, мулк ҳуқуқи ва бошқа ҳуқуқ ҳамда эркинликлар у томонидан бевосита бузилиши мумкин;

**ўн учинчидан**, сунъий интеллектнинг ишлатилиши жуда катта миқдорда энергия ва сув ресурси сарфини вужудга келтиради, экология бузилади;

**ўн тўртинчидан**, сунъий интеллект бора-бора инсониятни ўзига қарам қилиши оқибатида, инсонлар мустақил фикрлашни, таҳлил қилишни, ёзиш ва ҳисоблашни кам қўллай бошлайди ва шу орқали интеллектуал қарамлик юзага келади.

Қисқа қилиб айтганда, сунъий интеллект нейтрал ва хавфсиз, инсон қадриятларига тўлиқ мос эмас. У назоратсиз бўлса, жиддий зарарли оқибатларни, масъулиятсиз қўлланса хавфли вазиятлар, инсон ўрнини тўлиқ эгалласа, жамият учун таҳдидни вужудга келтиради.

Бунда шуни унутмаслик керакки, сунъий интеллект ўз-ўзидан ёвуз бўлиб қолмайди, у восита саналади, бу воситага зарарли ахборотнинг киритилиши, топшириқ берилиши оқибатида юқоридаги мудхиш ҳолатлар пайдо бўлиб, у кўпайиб бораверади ва уларнинг сонини санайман десак янада кўплаб ҳолатларни айтиш мумкин.

Шу сабабдан ҳам бу масалага жиддий эътибор қаратмоқ даркор. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, давлат органлари ва ташкилотлари бу хавф-хатарлар ва кибержиноятларнинг қурбонига айланиб бормоқда. Cybersecurity Ventures ташкилотининг маълумотларига кўра, айнан кибержиноятлар туфайли 2021 йилда дунё давлатлари 6 трлн. АҚШ доллари миқдорида зарар кўрган бўлса, бу кўрсатгич 2025 йилда 10,5 трлн. АҚШ долларини ташкил этган [2]. Энг ачинарли жиҳати шундаки, ҳозирги кунда сунъий интеллектдан фойдаланувчилар томонидан берилган ҳар 80 та топшириқдан биттаси ёвуз (ноқонуний ёки зарарли) мақсадларда қўлланилмоқда. Барча ёзишмаларнинг тахминан 7,5 фоизи шахсга доир, шахсий, оилавий ёки махфий маълумотларни ўз ичига олади. Шу билан бирга, ходимларнинг 12 фоизи иш жойида DeepSeek каби сунъий интеллект воситаларидан фойдаланмоқда. Эътиборли томони, тарқатилаётган ахборотларнинг 33 фоизи дезинформация сифатида баҳоланмоқда [3].

Ўзбекистон Республикасида сунъий интеллектнинг кейинги ривожига Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат бошқаруви тизимида самарадорлик, проактивлик ва натижадорликни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 14

июлдаги ПФ–111-сон Фармони[4], “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021 йил 17 февралдаги ПҚ–4996-сон[5], “Сунъий интеллект технологияларини қўллаш бўйича махсус режимни жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021 йил 26 августдаги ПҚ–5234-сон[6], “Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” 2024 йил 14 октябрдаги ПҚ–358-сон[7], “Сунъий интеллект технологияларига асосланган лойиҳаларни қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2025 йил 30 октябрдаги ПҚ–320-сон[8] қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг “Сунъий интеллект технологияларини қўллаб-қувватлаш учун махсус режим ташкил этиш ва унинг фаолиятини йўлга қўйиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 2021 йил 29 ноябрдаги 717-сон[9], “Рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни ривожлантириш илмий-тадқиқот институти фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” 2021 йил 31 июлдаги 475-сон[10], “2025-2026 йилларда сунъий интеллект технологиялари соҳасида устувор лойиҳаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 10 июлдаги 425-сон [11]қарорлари ва бошқа қонунчилик ҳужжатлари Президент ва Ҳукумат бу соҳага алоҳида эътибор бераётганлиги сабабли бу технологиялардан кенг жамоатчилик фойдаланиш ҳолатлари ортди, бу эса, ўз навбатида хавф-хатарларнинг миқдорий ва сифат кўрсатгичлари янги босқичга чиқиш хавфини вужудга келтирмоқда.

Ҳозирги кунда бу технология туфайли кибержиноятчилар жабрланувчиларнинг овозини генерация қилиб, унинг яқинлари ва танишларидан пул маблағларини ўзлаштиришмоқда, сохта профил ва аккаунтлар яратишиб, жабрланувчи номидан ноқонуний харакатларни амалга оширишмоқда, фото ва видеомаълумотлар асосида жабрланувчини шаъни ва қадр-қимматига путур етказишмоқда. Қисқа қилиб айтганимизда сунъий интеллект технологиялари бир тарафдан инсонларнинг оғирини енгил қилаётган бўлишсалар, иккинчи тарафдан инсониятга энг катта таҳдидлардан бири бўлиб турибди.

Ушбу хавф-хатарларнинг олдини олишнинг қуйидаги уч йўли мавжуд:

сунъий интеллект технологиясини тўғри ўқитиш ва мослаштириш зарур;

ушбу технологиянинг бошқарувчиси ҳам, фойдаланувчиси ҳам бу технологиядан тўғри мақсадда фойдаланиши ва бошқарувни тўғри амалга ошириши шарт;

бу технология ёки (ва) унинг ресурсларини чеклаш имконияти яратилиши ва амалиётга лозим даражада жорий этилмоғи даркор.

Юқоридаги биринчи ва иккинчи усулларни амалга ошириш адманистратор ва фойдаланувчига боғлиқ бўлса, учинчиси администратор ва тегишли ташкилотларга боғлиқ. Айнан шу жараёнда Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 2-моддасига асосан, давлат халқ иродасини ифода этиб, унинг манфаатларига хизмат қилади, давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъулдирлар, деган юксак нормаларнинг амалий ижроси сифатида сунъий интеллект технологиялари ёки (ва) унинг ресурсларини чеклаш тартиботларининг ташкилий, ҳуқуқий ва техник имкониятлари тўлиқ яратилиши даркор.

Ҳозирги кунда бу борада Ўзбекистонда ҳам бир қатор ислоҳотлар амалга оширилди, хусусан:

Ўзбекистон Республикасининг “Сунъий интеллектни қўллаш орқали юзага келадиган муносабатлар тартибга солиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида” 2026 йил 21 январдаги ЎРҚ–1115-сон Қонуни [12] билан сунъий интеллект технологияларини янада ривожлантиришга, сунъий интеллект технологияларидан фойдаланишнинг умумий асосларини белгилашга ҳамда мазкур соҳада юзага келадиган муносабатларда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрда қабул қилинган “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги 560-II-сонли Қонунида “сунъий интеллект” тушунчасининг таърифи, сунъий интеллектдан фойдаланиб яратилган ахборот ресурслари ҳамда сунъий интеллект технологиялари асосида ишлайдиган ахборот тизимлари инсонга, унинг ҳаётига, соғлигига, эркинлигига, шаънига, кадр-қимматига путур етказмаслиги ва унинг бошқа ажралмас ҳуқуқларини бузмаслиги шартлиги, инсоннинг ҳуқуқи ва эркинлигига алоқадор бўлган юридик аҳамиятга эга қарорларни қабул қилиш чоғида фақат сунъий интеллектдан фойдаланган ҳолда яратилган ахборот ресурслари ва сунъий интеллект технологиялари асосида ишлайдиган ахборот тизимларининг хулосаларига таяниш мумкин

эмаслиги, сунъий интеллект технологияларидан фойдаланган ҳолда шахсга доир маълумотларга қонунга хилоф равишда ишлов бериш, уларни оммавий ахборот воситаларида, телекоммуникация тармоқларида ёки Интернет жаҳон ахборот тармоғида тарқатиш жавобгарликни келтириб чиқариши назарда тутилиб, збекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 462-моддасида сунъий интеллект технологияларидан фойдаланган ҳолда шахсга доир маълумотларга қонунга хилоф равишда ишлов бериш, уларни оммавий ахборот воситаларида, телекоммуникация тармоқларида ёки Интернет жаҳон ахборот тармоғида тарқатиш юзасидан маъмурий жавобгарлик белгилаб қўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ахборот ва рақамли технологиялар соҳаларида давлат назорати тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 11 декабрдаги ПҚ–371-сон қарорига асосан, Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси сунъий интеллект соҳасида, ахборот тизими ва ресурслари, маълумотлар базалари, рақамли хизматлар, дастурий таъминот фаолиятини мониторинг ва назорат қилиш бўйича махсус ваколатли давлат органи этиб белгиланди [13].

Бироқ, бугунги кунда бу соҳанинг назорати ва жавобгарлиги белгиланган ҳолда, технология ва ундаги ресурсларнинг чекловини амалга ошириш тартиботи белгиланмаганлиги ҳамда ваколатли органда бу бўйича  етарлича ресурс ва кадрлар салоҳияти мавжуд эмаслиги бу борада қатор ислоҳотлар ўтказиш зарурлигини келтириб чиқаради.

Айниқса, Ўзбекистон Республикаси рақамли технологиялар вазирининг 2026 йил 24 февралдаги 284-мҳ-сон буйруғи (14.03.2026 й., рўй.: 3787-сон) билан Сунъий интеллектга асосланган ечимларни яратиш, жорий қилиш ва улардан фойдаланиш бўйича этика қоидалари тасдиқланиб, сунъий интеллектга асосланган ечимларни яратиш, жорий қилиш ва фойдаланиш бўйича тамойиллар ва талабларни, шунингдек сунъий интеллект иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгиланган [14] бўлса-да, уни амалга ошириш ва назорат қилишнинг аниқ механизмлари ҳали хануз белгиланмаганлиги бу борада зарур ислоҳотлар ўтказиш зарурлигини кўрсатмоқда.

Шу сабабли сунъий интеллект хавф-хатарининг олдини олиш, унга қарши ўз вақтида тизимли ва комплекс курашиш, инсониятнинг келажагини ҳимоя қилиш ва оғир салбий оқибатларни бартараф этиш учун қуйидагилар таклиф қилинади:

Ўзбекистон Республикасининг “Сунъий интеллект тўғрисида”ги Қонуни қабул қилиниши, у асосида қонунчилик ҳужжатларига, шу жумладан, Вазирлар Маҳкамасининг “Бутунжаҳон Интернет тармоғида ахборот хавфсизлигини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 5 сентябрдаги 707-сон қарори [15] ва бошқа ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш даркор. Жумладан, Ҳукуматнинг мазкур қарорида:

1-бандни “сунъий интеллект технологияларидан фойдаланган ҳолда шахсга доир маълумотларга қонунга хилоф равишда ишлов бериш, уларни оммавий ахборот воситаларида, телекоммуникация тармоқларида ёки Интернет жаҳон ахборот тармоғида тарқатиш”, деган мазмундаги алоҳида хатбоши билан тўлдириш;

сунъий интеллектнинг чеклови Интернет тармоғи веб-сайтидан ва (ёки) веб-сайт саҳифаларидан фойдаланишни чеклашдан қисман фарқ қилишини инобатга олиб, унинг алоҳида тартибини назарда тутувчи Низом ёки Регламент тасдиқланиши, бу жараёнлар схемада ҳам ўз аксини топиши даркор.

Шунингдек, амалдаги қонунчилик ҳужжатларида сунъий интеллект мавжуд бўлган ахборот тизимлари, платформалар, веб-сайтлар ва бошқа техник воситаларда ахборот ва киберхавфсизликни таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий чора-тадбирлари, шу жумладан, рақамли изларни логлаш, уларни сақлаш, электрон маълумот ва рақамли далилларни йиғиш, сақлаш, тақдим этиш, унга ишлов беришнинг барча шаклларига оид муносабатлар белгиланиши мақсадга мувофиқ.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги билан тарқатилиши тақиқланган ахборот мавжуд бўлган Интернет тармоғи Реестрида айнан сунъий интеллект билан боғлиқ алоҳида қисм (устун) бўлиши ва шу орқали чекланган сунъий интеллектлар ва улардаги ахборотларнинг аниқ статистикасини юритиш даркор.

Сунъий интеллект билан ишлашда бу технолгиялар серверлари ва маълумотлар базаларининг катта қисми хорижий давлатларда жойлашганлиги, уларнинг бошқаруви хусусий, давлат ёки нодавлат сектор вакилларида эканлиги Ўзбекистон Республикаси

фуқароларининг шахсга доир ва шахсий маълумотларининг хавфсизлигини таъминлашда бир талай муаммоларни келтириб чиқариши мумкин. Шу сабабли бу борадаги муносабатлар қонунчилигимизда ва халқаро ҳужжатларда тартибга солиб қўйилиши жуда муҳим.

Мазкур таклифларнинг қабул қилиниши:

фуқаролар сунъий интеллект хатоси ёки адолатсизлигига дуч келганда ўз ҳуқуқларини қайси норма асосида ҳимоя қилишни аниқ билиши ва шу орқали уларнинг ҳуқуқий ҳимояси таъминланади;

Deepfake, фишинг ва дезинформацияга қарши тизимли (реестр ва чекловлар орқали) курашиш механизми яратилиб, фирибгарлик қурбонлари сони кескин камайишига эришиш мумкин;

алгоритмик адолатсизлик ва дискриминациянинг олди олинади ҳамда сунъий интеллект қарорлари устидан инсон назорати ўрнатилиши тиббиёт ва суд каби ҳаётий муҳим соҳаларда технологик ҳукм чиқарилишининг олди олинади;

ёшлар ва болаларни сунъи интеллектнинг салбий таъсиридан (интеллектуал қарамлик, зарарли контент) ҳимоя қилиш тизими шаклланиб, жамиятда танқидий фикрлаш ва мустақил қарор қабул қилиш кўникмаларини сақлаб қолинишига эришилади;

фуқароларнинг шахсий маълумотлари хорижий серверларда бўлса-да, уларнинг хавфсизлиги учун халқаро ва миллий даражада ҳуқуқий кафолатлар ва техник логлаш тизими ўрнатилиб, давлат хавфсизлигига путур етишининг олди олинади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси;
- [https://cybersecurityventures.com/cybercrime-damage-costs-10-trillion-by-2025/](https://cybersecurityventures.com/cybercrime-damage-costs-10-trillion-by-2025/);
- [https://engage.checkpoint.com/2025-ai-security-report/](https://engage.checkpoint.com/2025-ai-security-report/);
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат бошқаруви тизимида самарадорлик, проактивлик ва натижадорликни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 14 июлдаги ПФ–111-сон Фармони // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси;

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021 йил 17 февралдаги ПҚ–4996-сон қарори // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси;

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сунъий интеллект технологияларини қўллаш бўйича махсус режимни жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021 йил 26 августдаги ПҚ–5234-сон қарори;

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” 2024 йил 14 октябрдаги ПҚ–358-сон қарори;

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сунъий интеллект технологияларига асосланган лойиҳаларни қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2025 йил 30 октябрдаги ПҚ–320-сон қарори;

- Вазирлар Маҳкамасининг “Сунъий интеллект технологияларини қўллаб-қувватлаш учун махсус режим ташкил этиш ва унинг фаолиятини йўлга қўйиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 2021 йил 29 ноябрдаги 717-сон қарори;

- Вазирлар Маҳкамасининг “Рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни ривожлантириш илмий-тадқиқот институти фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” 2021 йил 31 июлдаги 475-сон қарори;

- Вазирлар Маҳкамасининг “2025-2026 йилларда сунъий интеллект технологиялари соҳасида устувор лойиҳаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 10 июлдаги 425-сон қарори;

- Ўзбекистон Республикасининг “Сунъий интеллектни қўллаш орқали юзага келадиган муносабатлар тартибга солиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида” 2026 йил 21 январдаги ЎРҚ–1115-сон Қонуни // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси;

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ахборот ва рақамли технологиялар соҳаларида давлат назорати тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 11

декабрдаги ПҚ–371-сон қарори // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси;

- Ўзбекистон Республикаси рақамли технологиялар вазирининг 2026 йил 24 февралдаги 284-мҳ-сон буйруғи (14.03.2026 й., рўй.: 3787-сон) билан Сунъий интеллектга асосланган ечимларни яратиш, жорий қилиш ва улардан фойдаланиш бўйича этика қоидалари // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси;

- Вазирлар Маҳкамасининг “Бутунжаҳон Интернет тармоғида ахборот хавфсизлигини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 5 сентябрдаги 707-сон қарори // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

## ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРАВ ЖЕНЩИН: МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ ПРАКТИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

***С.Рахмонова**, докторант (PhD)*
*Национального центра Республики*
*Узбекистан по правам человека*
*(PhD),*
*E-mail: [rakhmanova1709@mail.ru]*

Обеспечение политических прав женщин является одним из ключевых направлений развития современного демократического государства и важнейшим индикатором эффективности реализации принципа равенства. В условиях глобализации и усиления международных стандартов в сфере прав человека проблема участия женщин в политической жизни приобретает комплексный характер, требующий учета как международно-правовых обязательств, так и национальных особенностей правового регулирования.

*1. Международно-правовые основы обеспечения политических прав женщин.* Международная система защиты прав женщин сформировалась в рамках универсальных актов, принятых под эгидой, Организация Объединённых Наций. Базовые положения

закреплены во Всеобщая декларация прав человека, а также в Международный пакт о гражданских и политических правах, которые устанавливают право каждого человека участвовать в управлении государством, избирать и быть избранным.

Ключевым специализированным актом является Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин, закрепляющая обязательства государств по устранению дискриминации и обеспечению равного участия женщин в политической и общественной жизни. В частности, статьи 7 и 8 Конвенции обязывают государства обеспечивать равные права женщин на участие в выборах, формировании государственной политики и международной деятельности[^2]. Особое значение имеют положения статьи 4 Конвенции, предусматривающие возможность применения временных специальных мер (включая гендерные квоты), направленных на ускорение достижения фактического равенства[^3]. Данный подход получил развитие в рекомендациях Комитета по ликвидации дискриминации в отношении женщин, где подчеркивается необходимость сочетания формального равенства с активными государственными мерами.

*2. Имплементация международных стандартов в Республике Узбекистан.* Республика Узбекистан, являясь участником ключевых международных договоров в области прав человека, последовательно интегрирует международные стандарты в национальную правовую систему. Вступление страны в Организация Объединённых Наций в 1992 году и ратификация международных договоров обусловили формирование обязательств по обеспечению гендерного равенства[^4].

Конституционная реформа 2023 года закрепила переход от формального равенства к концепции позитивных обязательств государства. В частности, статья 58 Конституции Республики Узбекистан устанавливает равные права женщин и мужчин и возлагает на государство обязанность по их обеспечению[^5].

Развитие законодательной базы продолжилось принятием Закона Республики Узбекистан «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» (2019 г.), который сформировал основу государственной гендерной политики, закрепил институциональные механизмы и ввел современные инструменты, включая гендерный аудит и комплексный гендерный подход[6].

*3. Институциональные механизмы в Республике Узбекистан.* Система институционального обеспечения политических прав женщин включает органы государственной власти, специализированные комиссии и механизмы парламентского контроля. Важную роль играет Республиканская комиссия по вопросам повышения роли женщин в обществе, гендерного равенства и семьи, функционирующая при Сенате Олий Мажлиса Республики Узбекистан[7].

Указанный орган осуществляет координацию государственной политики, мониторинг соблюдения законодательства и взаимодействие с международными организациями. Дополнительным элементом является реализация Стратегии достижения гендерного равенства до 2030 года, предусматривающей систему индикаторов и механизмов оценки эффективности государственной политики[8].

*4. Социально-правовые механизмы и факторы реализации.* Социально-правовые механизмы включают уровень правосознания, доступ к образованию, экономическую независимость и преодоление гендерных стереотипов. Несмотря на развитие нормативной базы, сохраняется разрыв между юридическим закреплением прав и их фактической реализацией.

Одним из ключевых факторов остается влияние традиционных социокультурных установок, ограничивающих участие женщин в политической сфере. В этой связи особое значение приобретают образовательные и просветительские программы, направленные на повышение политической активности женщин и формирование гендерно-нейтральной среды.

*5. Практика и тенденции в Республике Узбекистан.* Реформирование избирательного законодательства, включая введение квот для женщин (до 40%), способствует расширению их участия в политических процессах. Практика последних выборов демонстрирует рост представительства женщин в органах государственной власти, что свидетельствует о положительной динамике реализации гендерной политики[9].

Вместе с тем сохраняются структурные ограничения, включая недостаточное представительство женщин на высших уровнях управления и ограниченный доступ к принятию стратегических решений.

*6. Проблемы и перспективы развития.* Несмотря на достигнутые результаты, система обеспечения политических прав женщин требует дальнейшего совершенствования. Ключевыми направлениями развития являются:

- усиление правоприменительной практики;
- расширение институциональных механизмов поддержки;
- внедрение эффективных механизмов мониторинга;
-Преодоление гендерных стереотипов.

Таким образом, обеспечение политических прав женщин в Республике Узбекистан представляет собой комплексный процесс, основанный на взаимодействии международных стандартов и национальной правовой системы. Эффективность данного процесса определяется способностью государства обеспечивать не только формальное равенство, но и его практическую реализацию.

# YETAKCHI DAVLATLAR EKOLOGIK TAJRIBASI VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI: AQSh, YEVROPA ITTIFOQI VA YAPONIYA MISOLIDA

***A.K.Turg‘unboyev*** *Sarbon universiteti o‘qituvchisi*
*Email:tabror054@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy mexanizmlari, qonunchilik tajribasi va amaliy natijalari qiyosiy tahlil qilinadi. O‘zbekiston uchun amaliy xulosalar va tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** ekologik qonunchilik, yashil iqtisodiyot, karbon solig‘i, emissiyalar savdosi, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi bugungi kunda barcha davlatlar uchun eng ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Sanoat inqilobi davridan boshlab to‘plangan ekologik muammolar – havo va suv ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, iqlim o‘zgarishi – alohida davlatlar kuchi bilan hal etib bo‘lmaydigan darajaga yetdi. Shu sababli, yetakchi davlatlarning ekologik qonunchilik tajribasi va amaliyotini o‘rganish, ularning samarali mexanizmlarini milliy qonunchilikka moslashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

AQSh, Yevropa Ittifoqi (YeI) va Yaponiya bu sohadagi ilg‘or tajribaga ega davlatlar sifatida alohida diqqatga sazovordir. Bu uch davlat (yoki davlatlar birlashmasining) yondashuvi – qonuniy asoslar, bozor mexanizmlari va texnologik innovatsiyalar uyg‘unligi – jahon amaliyotining namunaviy modeliga aylandi.

AQSh atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida keng qamrovli federal qonunchilik tizimini shakllantirgan. Bu tizimning asosi – 1970-yilda tashkil etilgan Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA – Environmental Protection Agency) bo‘lib, u federal darajada ekologik normalar ishlab chiqish, nazorat qilish va sanksiyalar qo‘llash vakolatiga ega.[[^2]]

AQShning eng muhim ekologik qonuni – 1970-yildagi Toza havo to‘g‘risidagi Qonun (Clean Air Act). Ushbu qonun asosida EPA zaharli moddalarning ruxsat etilgan me’yorlarini belgilaydi va sanoat korxonalari uchun majburiy emissiya standartlarini joriy etadi. Jumladan, 1990-yildagi tahrirda kislotali yomg‘irni keltirib chiqaruvchi $SO_2$ va $NO_x$ emissiyasini kamaytirish maqsadida “Kislotali yomg‘ir dasturi” (Acid Rain Program) ishga tushirildi.[[^3]] Bu dastur bozor mexanizmiga – emissiyalar savdosiga (cap-and-trade) – asoslangan bo‘lib, korxonalarga ruxsat etilgan hajmdan ortiq emissiya qilmaslik yoki boshqa korxonalardan emissiya kvotalarini sotib olish imkonini beradi.

AQSh tajribasining o‘ziga xos xususiyati – federal va shtat darajasidagi qonunchilik uyg‘unligidir. Shtatlar federal minimumdan qat’iyroq talablar joriy etishi mumkin. Masalan, Kaliforniya shtati transport vositalarining emissiya standartlari bo‘yicha federal normalardan ancha ilg‘or talablarni joriy etdi – bu keyinchalik butun AQSh bo‘yicha yangi standartlarning asosiga aylandi.

AQSh tajribasidan muhim xulosa: kuchli mustaqil nazorat organi (EPA), aniq belgilangan sanksiyalar tizimi va bozor mexanizmlari (cap-and-trade) birgalikda ishlaganda ekologik qonunchilik samarali bo‘ladi. EPA ma’lumotlariga ko‘ra, Clean Air Act qabul qilinganidan beri AQShda asosiy havo ifloslantiruvchi moddalar miqdori 78 foizga kamaydi, shu bilan birga yalpi ichki mahsulot 285 foizga o‘sdi.[[^4]]

Yevropa Ittifoqi 2019-yilda “Yashil Yangilanish” (European Green Deal) strategiyasini e’lon qildi. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi – 2050-yilga qadar YeI ni iqlim jihatidan neytral iqtisodiyotga aylantirish. Strategiya quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi: emissiyalarni 1990-yilga nisbatan 2030-yilga qadar 55 foizga kamaytirish; energetikani qayta tiklanuvchi manbalarga o‘tkazish; sanoatni “yashil”

texnologiyalarga moslash; barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish.[[^5]]

YeIning eng samarali ekologik mexanizmi – Emissiyalar savdosi tizimi (EU ETS – Emissions Trading System) hisoblanadi. 2005-yilda ishga tushirilgan bu tizim issiqxona gazlari emissiyasiga umumiy chegarani (cap) belgilaydi va sanoat korxonalariga emissiya kvotalarini bozor narxida sotib olish yoki sotish imkonini beradi. ETS ning asosiy xususiyati shundaki, u “bozor ko‘rinmas qo‘li”ni ekologik maqsadlarga xizmat qildiradi: emissiya qimmatga tushgani sari korxonalar energiya tejamkor texnologiyalarga investitsiya kiritishga qiziqadi.[[^6]] Hozirda EU ETS dunyo bo‘yicha eng yirik karbon bozori bo‘lib, har yili 1,7 milliard tonna $CO_2$ ekvivalentini qamrab oladi.

2023-yilda YeI yangi mexanizm – Uglerod chegaraviy moslashuv tizimini (CBAM – Carbon Border Adjustment Mechanism) joriy etdi. Bu mexanizm YeI ga import qilinadigan mahsulotlar (po‘lat, sement, o‘g‘it va boshqalar) uchun ularning ishlab chiqarilishi paytida chiqarilgan $CO_2$ hajmiga qarab to‘lov undiradi. Maqsad – YeI korxonalarini import bilan raqobatda himoya qilish va boshqa davlatlarni ham ekologik standartlarni oshirishga undash.[[^7]]

YeI tajribasining asosiy saboqlari: birinchi – qonuniy majburiyatlar va bozor mexanizmlari birgalikda ishlatilganda eng yuqori natijaga erishiladi; ikkinchi – mintaqaviy yondashuv (barcha YeI davlatlari uchun yagona standartlar) alohida davlatlar yondashuvidan samaraliroq; uchinchi – fuqarolik jamiyatining keng ishtiroki va jamoatchilik nazorati ekologik siyosatni mustahkamlaydi.

Yaponiya ekologik huquq tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. 1960-1970-yillardagi sanoatlashtirish jarayonida Yaponiya og‘ir ekologik muammolarga duch keldi: Minamata kasalligi (simob ifloslanishi), Itai-itai kasalligi (kadmiy zaharlanishi) minglab odamlarning hayotini zarariga olib keldi. Bu falokatlar natijasida Yaponiya dunyoda birinchilardan bo‘lib qattiq ekologik qonunchilikni joriy etdi va jabrlanuvchilarga kompensatsiya to‘lash tizimini ishlab chiqdi.[[^8]]

Yaponiyaning 1993-yilgi Atrof-muhit asosiy qonuni (Basic Environment Law) ekologik siyosatning konstitutsiyasi hisoblanadi. Unda uchta asosiy tamoyil mustahkamlangan: atrof-muhitni hozirgi va kelajak avlodlar uchun saqlash; barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish; xalqaro hamkorlik. Qonun asosida hukumat har besh yilda ekologik asosiy reja (Basic Environment Plan) qabul qiladi.[[^9]] 2021-yildagi

rejada Yaponiya 2050-yilga qadar uglerod neytralligiga erishish maqsadini belgiladi.

Yaponiyaning o‘ziga xos mexanizmi – “kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati” (Extended Producer Responsibility – EPR) tizimi. Bu tizimga ko‘ra, mahsulot ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlari umrining oxirida utilizatsiyasini ham ta’minlashlari shart. Avtomobil, elektronika, qadoqlash sohasida joriy etilgan bu tizim chiqindilarni keskin kamaytirishga olib keldi. Yaponiya bugungi kunda dunyoning eng kam chiqindi ishlab chiqaruvchi rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi.

Yaponiyaning yana bir samarali mexanizmi – “Ecotownlar” dasturi. 1997-yilda boshlangan bu dastur doirasida sanoat chiqindilari bir korxona uchun xom ashyo bo‘lishi mumkin bo‘lgan “sanoat ekotizimlar” yaratildi. Kitakyushu, Kawasaki kabi shaharlarda qurilgan Ecotownlarda sanoat chiqindilari qayta ishlanib, ikkilamchi resursga aylantirilmoqda. Bu model hozirda 26 ta shaharni qamrab oladi.[[^10]]

Uchta modelni qiyoslab ko‘rsak, har birining kuchli tomoni bor: AQShda – kuchli mustaqil nazorat organi va bozor mexanizmlari; YeIda – mintaqaviy yagona standartlar va karbon savdosi tizimi; Yaponiyada – texnologik innovatsiyalar va ishlab chiqaruvchi mas’uliyati. OECD tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bu uch yondashuvning umumiy jihati – ekologik maqsadlarni iqtisodiy rag‘batlar bilan bog‘lash. “Karbon solig‘i” yoki “emissiyalar savdosi” atrof-muhitni muhofaza qilishni iqtisodiy jihatdan ham manfaatli qiladi.[[^11]]

O‘zbekiston 2018-yilda Parij kelishuvini ratifikatsiya qilib, 2030-yilga qadar issiqxona gazlari emissiyasini 35 foizga kamaytirish majburiyatini oldi. Bu yo‘lda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish mumkin: AQSh EPA modelida – mustaqil ekologik monitoring agentligi yaratish; YeI ETS modelida – sanoat korxonalari uchun emissiya kvotalari tizimini bosqichma-bosqich joriy etish; Yaponiya EPR modelida – yirik ishlab chiqaruvchilardan chiqindilar utilizatsiyasini talab qilish.[[^12]]

Jahon Banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda 73 davlatda turli shakllarda karbon narxlash tizimi (karbon solig‘i yoki emissiyalar savdosi) joriy etilgan bo‘lib, ular global emissiyalarning 23 foizini qamrab oladi.[[^13]] O‘zbekiston ham ushbu global tendensiyaga qo‘shilishi va milliy sharoitga moslashtirilgan karbon narxlash mexanizmini ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) hisobotiga ko‘ra, 2050-yilga qadar uglerod neytralligi maqsadiga erishish uchun davlatlar hozirgi

energetika va transport infratuzilmasiga investitsiyalarni 3 barobar oshirishlari kerak. Bu esa qonuniy majburiyatlar bilan birga kuchli moliyaviy rag‘batlarni ham talab qiladi.[[^14]]

AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaning ekologik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, atrof-muhitni muhofaza qilishda muvaffaqiyatga erishish uchun huquqiy majburiyatlar, bozor mexanizmlari va texnologik innovatsiyalar birgalikda ishlashi zarur. Birorta yondashuv yolg‘iz o‘zi yetarli emas.

O‘zbekiston uchun bu tajribadan to‘rtta asosiy saboq chiqarish mumkin:

birinchi – kuchli va mustaqil ekologik nazorat organi zarur;

ikkinchi – ekologik qoidabuzarliklar uchun sanksiyalar real iqtisodiy og‘irlikka ega bo‘lishi kerak;

uchinchi – emissiyalar savdosi yoki karbon solig‘i kabi bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi;

to‘rtinchi – ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlari hayot siklining barcha bosqichlari uchun mas’uliyat olishlari lozim.

Ushbu mexanizmlarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish va milliy qonunchilikka izchil kiritish – mamlakatimizning 2030-yil iqlim maqsadlariga erishishi hamda barqaror rivojlanish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- U.S. Environmental Protection Agency. Laws & Regulations. URL: [https://www.epa.gov/laws-regulations](https://www.epa.gov/laws-regulations)

- U.S. EPA. Clean Air Act Overview. URL: https://www.epa.gov/clean-air-act-overview

- https://www.epa.gov/clean-air-act-overview

- European Commission. European Green Deal. URL: [https://ec.europa.eu/info/strategy/priorities-2019-2024/european-green-deal_en](https://ec.europa.eu/info/strategy/priorities-2019-2024/european-green-deal_en)

- European Parliament. EU Emissions Trading System (ETS). URL: https://www.europarl.europa.eu/topics/en/article/20170208STO62208/eu-emissions-trading-system-ets

- European Commission. Carbon Border Adjustment Mechanism. URL: https://taxation-customs.ec.europa.eu/carbon-border-adjustment-mechanism_en

- Ministry of the Environment, Government of Japan. Environmental Policy. URL: [https://www.env.go.jp/en/policy/index.html](https://www.env.go.jp/en/policy/index.html)
- Environment Agency Japan. Pollutant Release and Transfer Register. URL: https://www.env.go.jp/en/chemi/prtr/prtr.html
- UNEP. Global Environment Outlook 6. URL: [https://www.unep.org/resources/global-environment-outlook-6](https://www.unep.org/resources/global-environment-outlook-6)
- OECD. Environmental Policy Tools and Evaluation. URL: [https://www.oecd.org/env/tools-evaluation/](https://www.oecd.org/env/tools-evaluation/)
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-oktabrdagi O‘RQ-491-son – Parij kelishuvini ratifikatsiya qilish to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/uz/docs/-5598867
- World Bank. Carbon Pricing Dashboard. URL: https://carbonpricingdashboard.worldbank.org/
- International Energy Agency (IEA). Net Zero by 2050 – A Roadmap for the Global Energy Sector. URL: https://www.iea.org/reports/net-zero-by-2050.

## TA’LIM SOHASIGA OID QONUN HUJJATLARINI TIZIMLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

***Sh.Z.Zokirov***
*Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda ta’lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi. Qonunchilikni tartibga solish, uning ochiqligi va amaliyotda samarali qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, huquqiy normalarni kodifikatsiya qilish, inkorporatsiya va unifikatsiya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Ta’lim sohasida normativ-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, normativ-huquqiy hujjatlar, qonunchilikni tizimlashtirish, kodifikatsiya, inkorporatsiya, huquqiy tartibga solish, ta’lim siyosati.

Globallashuv va keng ko‘lamli islohotlar sharoitida ta’lim tizimini samarali rivojlantirish bevosita uning mustahkam huquqiy asoslariga bog‘liq. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar sonining ortib borishi ularni tizimlashtirish, o‘zaro

muvofiqlashtirish va yagona izchil tizimga keltirish zaruratini kuchaytirdi. Shu bois, ta’lim sohasiga oid qonunchilikni tizimlashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Qonun hujjatlarini tizimlashtirish huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu jarayon kodifikatsiya, inkorporatsiya va konsolidatsiya shakllarida amalga oshiriladi. M. Axmedshayevaning ta’kidlashicha, Markaziy Osiyo davlatlarida kodifikatsiya jarayoni huquq tizimini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi [1].

Shuningdek, xorijiy olimlar – Weiss G.A., Boshno S., Ivanov A.B. va boshqalar kodifikatsiyani huquqni tizimlashtirishning eng samarali shakli sifatida e’tirof etadilar [9; 11; 12]. N. Goncharova va hammualliflar esa turli huquq tizimlarida kodifikatsiyaning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilib, uning universal ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradilar [10].

Mazkur fikrlar shuni ko‘rsatadiki, kodifikatsiya huquqni tizimlashtirishning eng mukammal va samarali shakllaridan biri sifatida keng e’tirof etilgan. Xususan, Weiss G.A., Boshno S. va Ivanov A.B. tomonidan bildirilgan yondashuvlar kodifikatsiyaning normativ-huquqiy bazani tartibga solishdagi ustuvor ahamiyatini asoslaydi. Ular kodifikatsiya orqali tarqoq huquqiy normalar yagona tizimga keltirilishini va bu jarayon huquqni qo‘llash amaliyotini sezilarli darajada yengillashtirishini ta’kidlaydilar.

Shu bilan birga, N. Goncharova va hammualliflarning tadqiqotlari kodifikatsiyaning faqat muayyan huquq tizimiga xos emas, balki turli davlatlarning huquqiy tizimlarida ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ularning tahliliga ko‘ra, kodifikatsiya universal xarakterga ega bo‘lib, u turli huquqiy an’analar va tizimlarda umumiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Biroq, shuni ham qayd etish lozimki, kodifikatsiya jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, u doimiy ravishda yangilanib borishni talab etadi. Ayniqsa, ta’lim sohasida tez-tez o‘zgarib turuvchi ijtimoiy munosabatlar mavjudligi sababli, normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiya qilishda moslashuvchanlik va zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, yuqoridagi olimlarning qarashlari kodifikatsiyaning nafaqat huquqni tizimlashtirishda, balki uni samarali qo‘llash va rivojlantirishda ham muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.

K. G‘oziyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar sonining

ortib borayotgani va bu ularni tizimlashtirish zaruratini kuchaytirayotgani qayd etiladi [4].

Ta’lim sohasidagi islohotlar va huquqiy kafolatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berib, qonunchilikni takomillashtirish tizimlashtirish jarayonining muhim bosqichi ekanligini ta’kidlaydi [5].

K. G‘oziyev tomonidan ilgari surilgan yondashuv O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasida normativ-huquqiy hujjatlar sonining ortib borishi tizimlashtirish jarayonini obyektiv zaruratga aylantirayotganini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, hujjatlar sonining ko‘payishi ularning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, takrorlanishlarning oldini olish hamda amaliy qo‘llashni soddalashtirish ehtiyojini kuchaytiradi. Bu esa tizimlashtirishni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim mexanizm sifatida namoyon etadi.

Shu nuqtai nazardan, har ikkala muallifning fikrlari o‘zaro uyg‘un bo‘lib, ular ta’lim sohasida samarali huquqiy tartibotni ta’minlash uchun tizimlashtirish va takomillashtirish jarayonlarini parallel olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmi jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi., Normativ-huquqiy hujjatlarning izchil va uyg‘un tizimi ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solish imkonini beradi [3].

Ta’lim muassasalarini boshqarishda huquqiy tafakkurning turli yondashuvlari mavjudligini ko‘rsatib, qonunchilikni tizimlashtirish uni to‘g‘ri anglash va qo‘llash madaniyatini ham rivojlantirishham muhim [7].

Keltirilgan yondashuvlar huquqiy tartibga solish mexanizmining samaradorligi bevosita normativ-huquqiy hujjatlarning izchilligi va o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Agar huquqiy baza tartibli va tizimli shakllantirilgan bo‘lsa, u ijtimoiy munosabatlarni barqaror va aniq me’yorlar asosida boshqarish imkonini beradi. Aksincha, hujjatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik yoki takrorlanishlar huquqni qo‘llash amaliyotida chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, ta’lim muassasalarini boshqarishda huquqiy tafakkurning turli yondashuvlari mavjudligi tizimlashtirish jarayonining faqat texnik emas, balki metodologik ahamiyatga ham ega ekanini anglatadi. Qonunchilikni tizimlashtirish nafaqat hujjatlarni tartibga soladi, balki ularni to‘g‘ri tushunish, izohlash va amaliyotda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Natijada, tizimlashtirish jarayoni huquqiy madaniyatni oshirish, boshqaruv samaradorligini ta’minlash va ta’lim sohasida yagona huquqiy

yondashuvni qaror toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.Конец формы

Ta’lim tizimida alohida yo‘nalishlar bo‘yicha ham qonunchilikni tizimlashtirish muhimdir. Jumladan, inklyuziv ta’lim tizimi bo‘yicha normativ bazani takomillashtirish zarur [6].

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy nazoratni kuchaytirishda ichki audit va komplaens tizimlarining uyg‘unligini ta’minlash muhimdir [8].

Mazkur yondashuvlar ta’lim tizimida qonunchilikni tizimlashtirish umumiy darajada emas, balki alohida yo‘nalishlar kesimida ham olib borilishi zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, inklyuziv ta’lim sohasida normativ-huquqiy bazaning yetarlicha mukammal emasligi ushbu yo‘nalishda yagona va izchil tizimni shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Bu esa barcha toifadagi ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalasi ham tizimlashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Ichki audit va komplaens tizimlarining o‘zaro uyg‘unligi normativ-huquqiy hujjatlarning aniqligi va izchilligini talab etadi. Aks holda, nazorat mexanizmlarining samaradorligi pasayadi va boshqaruv jarayonida muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur fikrlar ta’lim tizimida qonunchilikni tizimlashtirishni sohaga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda, kompleks va differensial yondashuv asosida amalga oshirish zarurligini tasdiqlaydi.

Ta’lim sohasiga oid qonunchilikni tizimlashtirish jarayonida bir qator dolzarb muammolar kuzatilmoqda. Avvalo, normativ-huquqiy hujjatlarning tarqoqligi va ularning ortiqcha ko‘pligi tizimni murakkablashtirib, amaliy qo‘llash jarayonida qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, ayrim huquqiy normalarning takrorlanishi yoki o‘zaro ziddiyatli bo‘lishi huquqni qo‘llash samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, amaliyotda yagona yondashuvning yetishmasligi turli talqinlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lib, bu esa ta’lim tizimida boshqaruv va tartibga solish jarayonlarini izdan chiqarishi mumkin.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kompleks choralarni amalga oshirish zarur. Xususan, ta’lim kodeksini ishlab chiqish orqali kodifikatsiya jarayonini rivojlantirish normativ-huquqiy hujjatlarni yagona tizimga keltirish imkonini beradi. Shuningdek, mavjud hujjatlarni

muntazam ravishda tahlil qilish va yangilab borish ularning dolzarbligi va samaradorligini ta’minlaydi. Raqamli huquqiy bazalarni kengaytirish esa hujjatlardan foydalanishni osonlashtirib, ularning ochiqligi va shaffofligini oshiradi. Shu bilan birga, ilg‘or xalqaro tajribani milliy tizimga moslashtirish orqali ta’lim sohasida huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish mumkin.

Umuman olganda, ta’lim sohasida qonunchilikni tizimlashtirish mavjud muammolarni bartaraf etish bilan birga, huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarini tizimlashtirish huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon orqali nafaqat normativ-huquqiy bazaning tartibliligi va izchilligi ta’minlanadi, balki ta’lim tizimining barqaror va izchil rivojlanishi uchun zarur huquqiy sharoitlar yaratiladi. Tizimlashtirish natijasida huquqiy normalarning o‘zaro uyg‘unligi kuchayadi, ularning takrorlanishi va ziddiyatlari bartaraf etiladi, bu esa huquqni qo‘llash amaliyotini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Shu o‘rinda, tizimlashtirish fuqarolarning ta’lim olish huquqini to‘liq va samarali ta’minlashga xizmat qiladi. Chunki aniq va tushunarli huquqiy baza mavjud bo‘lgan sharoitda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari – o‘quvchilar, talabalar, pedagoglar va boshqaruv organlari o‘z huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri anglaydi hamda ularga amal qiladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va tizimda shaffoflikni ta’minlashga olib keladi.

Ayniqsa, kodifikatsiya, inkorporatsiya va konsolidatsiya kabi tizimlashtirish shakllarini izchil amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmlar orqali normativ-huquqiy hujjatlar yagona tizimga keltirilib, ularning amaliy ahamiyati oshiriladi. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, huquqiy axborot bazalarini rivojlantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribani milliy tizimga moslashtirish tizimlashtirish jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Ta’lim sohasida qonunchilikni tizimlashtirish nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etish, balki istiqbolda raqobatbardosh va zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiluvchi strategik yo‘nalishdir. Shu bois, mazkur jarayonni uzluksiz ravishda takomillashtirib borish, uni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Axmedshayeva M. Markaziy osiyo davlatlarida kodekslashtirish jarayoni: ayrim nazariy-huquqiy masalalar //Yurisprudensiya. – 2024. – T. 4. – №. 4. – C. 11-18.

- Yuldashevich S. D., Ahadjon o'g'li S. M. Huquqiy tartibga solish mexanizmining davlat va jamiyat hayotidagi o 'rni //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2026. – T. 2. – №. 7. – C. 78-83.

- G'oziyev K. O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining rivojlanish tendensiyalari //yurisprudensiya. – 2025. – T. 5. – №. maxsus. – C. 39-53.

- Sobirova D. Islohotlar va ta'lim sohasidagi kafolatlar //yangi o'zbekiston, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 8. – C. 619-623.

- Ibragimova S. et al. Inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish //PEDAGOGS. – 2025. – T. 90. – №. 1. – C. 3-8.

- Akramovna R. D. Ta'lim muassasalarini boshqarishda huquqiy tafakkur turlari: protsedural va substantiv yondashuvlar //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2026. – T. 5. – №. 55. – C. 226-230.

- Tursunovich O. E. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazoratni takomillashtirishda ichki audit va komplaens xizmatining o 'zaro muvofiqligini ta'minlash //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2026. – T. 6. – №. 02. – C. 102-117.

- Weiss G. A. The enchantment of codification in the common-law world //Yale J. Int'l L. – 2000. – T. 25. – C. 435.

- Goncharova L. N. et al. Codification of legislation in various legal systems //Revista de Investigaciones Universidad del Quindío. – 2022. – T. 34. – №. S2. – C. 358-364.

- Boshno S. Codification //Law and modern states. – 2014. – №. 2. – C. 40-46.

- Ivanov A. B. Codification of legislation or codification of law: statement of the problem //Вестник ЯрГУ. Серия Гуманитарные науки. – 2024. – T. 18. – №. 4.

- Gould J. S. Codifying Constitutional Norms //Geo. LJ. – 2020. – T. 109. – C. 703.

- Lippert S. Law: definitions and codification //UCLA Encyclopedia of Egyptology. – 2012. – T. 1. – №. 1.

# YURIDIK TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA KLASTER TIZIMINING AHAMIYATI

***Sh.Z.Zokirov*** *Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi,*
***N.F.Butunboyev*** *Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yuridik ta’limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, xususan klasterlash tizimi, dual ta’lim, sun’iy intellekt texnologiyalari, xalqaro hamkorlik va amaliy yo‘naltirilgan ta’lim masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, yuridik ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va ularning samaradorligi ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** yuridik ta’lim, klaster tizimi, dual ta’lim, innovatsiya, sun’iy intellekt, huquqiy madaniyat, xalqaro hamkorlik, amaliy ta’lim.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yuridik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va qonun ustuvorligini ta’minlashda malakali yuridik kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy yuridik ta’lim nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va global huquqiy muhitga moslashishni ham talab etadi. Shu bois, innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, ilmiy manbalarni umumlashtirish hamda zamonaviy pedagogik konsepsiyalarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot milliy va xorijiy olimlar ishlari asosida olib borildi.

Yuridik ta’lim tizimi bugungi kunda tub o‘zgarishlar bosqichida turibdi. Sanoqulovich E.N. va Mixaylovich L.Y. ta’kidlashicha, yuridik fan va ta’lim rivojida innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va amaliy yo‘naltirilgan ta’lim muhim o‘rin egallaydi [6].

Mazkur fikr yuridik ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlarini aniq ifodalaydi. Unda ta’limning an’anaviy nazariy modeldan innovatsion va amaliy yo‘naltirilgan modelga o‘tayotgani ta’kidlanadi. Sanoqulovich E.N. va Mixaylovich L.Y. qayd etganidek,

innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlar talabalarning mustaqil fikrlashi, huquqiy tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ushbu yondashuvlar yuridik ta’lim sifatini oshirish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etish hamda zamonaviy, raqobatbardosh huquqshunos kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, D. Kennedy yuridik ta’lim ijtimoiy ierarxiyani takror ishlab chiqarish mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkinligini ta’kidlab, ta’lim tizimini demokratlashtirish zarurligini ilgari suradi [12].

P. Maharg esa yuridik ta’limni transformatsiya qilishda raqamli texnologiyalar va yangi o‘qitish metodlari muhim rol o‘ynashini asoslab beradi [13].

Yuridik ta’limni rivojlantirishda klasterlash tizimi muhim innovatsion model hisoblanadi. D. Aminov fikricha, klasterlash tizimi ta’lim, ilm-fan va amaliyotning integratsiyasini ta’minlaydi [1].

Umuman olganda, keltirilgan fikrlar yuridik ta’lim tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda tubdan yangilash zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, yuridik ta’lim nafaqat bilim berish vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalarga ta’sir etuvchi omil sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Shu sababli uni demokratlashtirish, teng imkoniyatlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va innovatsion o‘qitish metodlarini joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi. Shu bilan birga, klasterlash tizimi orqali ta’lim, ilm-fan va amaliyotning uzviy bog‘lanishini ta’minlash yuridik ta’limni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Klaster modeli quyidagi afzalliklarga ega:

- ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi;
- ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshiradi;
- talabalarni real huquqiy muhitga tayyorlaydi.

Talabalarni mahallalarda amaliy faoliyatga jalb qilish orqali ularning huquqiy mas’uliyatini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi [2].

Bu yondashuv yuridik ta’limni real hayot bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

- Mingnorov va boshqalar xalqaro hamkorlik yuridik ta’lim sifatini oshirishning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi [4].

Packer H.L. va Ehrlich T. ham yuridik ta’limni rivojlantirishda global tajribani o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [10].

Ushbu fikrlar yuridik ta’limni yanada samarali tashkil etishda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash muhimligini ko‘rsatadi. Dual ta’lim tizimi orqali talabalar o‘z bilimlarini amaliy faoliyat bilan mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi, mahallalarda olib boriladigan amaliy ishlar esa ularning huquqiy ong va mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yuridik ta’limni real hayot bilan chambarchas bog‘lash uni yanada dolzarb va natijador qiladi. Xalqaro hamkorlik va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish esa ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar yuridik ta’limda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. D. Ibodullayeva sun’iy intellekt yordamida yuridik olimpiadalarni tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi [9].

D. Sattorov va boshqalar jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish yuridik ta’limning muhim vazifasi ekanligini ta’kidlaydi [8].

Shuningdek, D. Sharapova va boshqalar xorijiy tillarni o‘rganish yuridik mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshirishini ko‘rsatadi [7].

Goipova N.B. esa inklyuziv ta’lim yuridik ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini ta’kidlaydi [5].

Raqamli texnologiyalarni yuridik ta’lim jarayoniga joriy etish uning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt asosida tashkil etiladigan innovatsion tadbirlar, jumladan yuridik olimpiadalar, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini interaktiv hamda zamonaviy usullarda rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, yuridik ta’lim nafaqat professional kadrlar tayyorlash, balki jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur. Bu esa ta’lim jarayonini mazmunan boyitish, uni ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirish va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy jamiyat ehtiyojlari yuridik ta’limdan faqat nazariy bilim berishni emas, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda talabalarni real huquqiy muhitga moslashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yuridik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki

huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda tahlil qilingan ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, yuridik ta’limni rivojlantirish ko‘p qirrali va kompleks jarayon bo‘lib, unda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish muhim o‘rin tutadi. An’anaviy ta’lim modelidan voz kechib, zamonaviy, moslashuvchan va natijador modelga o‘tish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa talabalarni mustaqil fikrlaydigan, huquqiy muammolarni chuqur tahlil qila oladigan va ularni amaliyotda hal etishga qodir mutaxassislar sifatida tayyorlash imkonini beradi.

Shuningdek, yuridik ta’limning ijtimoiy ahamiyati ham alohida e’tiborga loyiq. U jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni ta’minlash, huquqiy madaniyatni shakllantirish va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, ta’lim tizimini demokratlashtirish, inklyuzivlikni ta’minlash va barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni yuridik ta’limga keng joriy etish uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Sun’iy intellekt, onlayn platformalar va innovatsion o‘qitish vositalari ta’lim jarayonini yanada interaktiv, moslashuvchan va talaba ehtiyojlariga yo‘naltirilgan holga keltiradi. Bu esa bilim olish jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, klasterlash modeli, dual ta’lim tizimi va mahallalarda amaliy faoliyatni tashkil etish kabi yondashuvlar nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashda samarali vosita sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yondashuvlar orqali talabalar real huquqiy muhitda tajriba orttiradi, kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi va kelajakdagi faoliyatiga puxta tayyorgarlik ko‘radi.

Xalqaro hamkorlik va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish ham yuridik ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Global tajriba almashinuvi ta’lim standartlarini takomillashtirish, yangi metodlarni joriy etish va milliy ta’lim tizimini xalqaro darajaga olib chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xorijiy tillarni o‘rganish yuridik mutaxassislarning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yuridik ta’limni rivojlantirish zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlarni

kengaytirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali amalga oshirilishi zarur. Faqat shundagina yuridik ta’lim tizimi zamon talablariga javob bera oladigan, yuqori malakali, raqobatbardosh va ijtimoiy mas’uliyatli huquqshunos kadrlarni tayyorlashga qodir bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


- Aminov D. Yuridik ta’limda klasterlash tizimi: konsepsiya, modellari va prinsiplari // journal of new century innovations. – 2025. – T. 84. – №. 1. – C. 226-229.
- Ergashev A. Yuridik universitet talabalari mahallalarda: nazariy bilimdan amaliy mas’uliyat sari // Ustozlar uchun. – 2026. – T. 90. – №. 1. – C. 83-87.
- Avliyoqulov B. TDYUda dual ta’lim va innovatsion yondashuvlar // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2026. – T. 63. – №. 2. – C. 168-170.
- Mingnorov A. et al. Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik // integration of education and science: global challenges and solutions. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 1083-1086.
- Goipova N. B. Inklyziv ta’lim // Gospital pedagogika: darslik / N. B. Goipova. – Namangan. – 2024. – C. 143-150.
- Sanoqulovich E. N., Mixaylovich L. Y. Yuridik fan va huquqiy ta’lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – T. 56. – №. 1. – C. 477-482.
- Sharapova D., Shermamatova S.,Baxodirova N. Yuridik sohaga qiziquvchi talabalarga xorijiy tillarni o‘rgatishdagi psixologik yondashuv // Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 27-31.
- Sattorov D. et al. Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish: nigilizm va idealizmga qarshi kurashning ahamiyati // TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 100-104.
- Ibodullayeva D. Huquqiy ta’limda sun’iy intellekt yordamida yuridik olimpiadalar tashkil etish // PEDAGOG. – 2024. – T. 7. – №. 11. – C. 87-95.
- Packer H. L., Ehrlich T. New Directions in Legal Education. – 1972.
- Harno A. J. Legal education in the United States. – The Lawbook Exchange, Ltd., 2004.

- Kennedy D. Legal education and the reproduction of hierarchy // Journal of Legal Education. – 1982. – T. 32. – №. 4. – C. 591-615.
- Maharg P. Transforming legal education: learning and teaching the law in the early twenty-first century. – Routledge, 2016.

## SAYLOV TIZIMI: HUQUQIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

***B.J.Abdullayev**, Sarbon universiteti*
*Huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti*
*boymurodabdullayev@gmail.com*
*+998901120801*
***S.B.Ravshanov**, Sarbon universiteti*
*Huquqiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,*
*ravshanovsurat03@gmail.com*
*+998940604080*

Saylov tizimi har qanday demokratik davlatning fundamental poydevorlaridan biri bo‘lib, fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishining huquqiy-institutsional mexanizmini fundamental darajada ifodalaydi. Aynan ushbu tizim orqali fuqarolar o‘z vakillarini saylash huquqini amalga oshiradi va davlat hokimiyatining qonuniy shakllanishini, uning legitimligini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasida saylov tizimi Konstitutsiyaviy normalar, Saylov kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan chuqur mustahkamlangan bo‘lib, fuqarolarning erkin, adolatli va shaffof saylov huquqlarini kafolatlashga yo‘naltirilgan. Mazkur tizim jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta’minlash, hokimiyat organlarining xalq oldidagi javobgarligini oshirish hamda davlat siyosatida fuqarolar manfaatlarining to‘liq aks etishiga xizmat qiladi. Samarali va inklyuziv saylov tizimi huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ajralmas sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish konsepsiyasi doirasida barcha ijtimoiy-siyosiy sohalarda, jumladan, saylov qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli va tizimli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu transformatsion jarayonlar saylov tizimining huquqiy asoslarini chuqur ilmiy-nazariy tahlil qilish, uning amaliyotdagi samaradorligini ob’ektiv baholash va zamonaviy

demokratik talablarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalqaro saylov standartlari va ilg‘or xorijiy tajribani kompleks inobatga olgan holda milliy saylov tizimini yanada modernizatsiya qilish, saylov jarayonlarining ochiqligi, oshkoraligi, adolatliligi va inklyuzivligini ta’minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois, saylov tizimining huquqiy asoslarini kompleks o‘rganish, uning dolzarb muammoli jihatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Jamiyatning siyosiy madaniyati va texnologik imkoniyatlarining muttasil rivojlanib borishi, saylov jarayonlariga bo‘lgan fuqaroviy talablarning ortishi bu sohani takomillashtirish zaruratini keltirib chaqaradi.

Bugungu kunda O‘zbekiston Respublikasi saylov tizimining huquqiy asoslarini har tomonlama ilmiy-nazariy tahlil qilish, uning amaldagi faoliyatini tanqidiy baholash hamda milliy va xalqaro tajribalar asosida tizimni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar majmuasini ishlab chiqish masalasi ahamiyatlidir.

Yuqoridagilarni hisobga olib quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

1. O‘zbekiston Respublikasi saylov tizimini tartibga soluvchi milliy qonunchilik (Konstitutsiya, Saylov kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar) va xalqaro huquq normalarini chuqur komparativ tahlil qilish.

2. Saylov jarayonlarini , uning samaradorligi va yuzaga kelayotgan tizimli muammolarni empirik usullar orqali aniqlash.

3. Saylov qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini chuqur o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlarini ilmiy-metodologik jihatdan baholash.

4. Saylov tizimining huquqiy asoslari va amaliyotini modernizatsiya qilish bo‘yicha aniq ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Saylov jarayonlarida fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish hamda ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga oid samarali mexanizmlarni tahlil qilish.

6. Takomillashtirilgan saylov tizimining demokratik jarayonlarga va jamiyatdagi siyosiy barqarorlikka ta’sirini ilmiy prognoz qilish.

Saylov tizimi demokratik davlat qurilishi va huquqiy jamiyat rivojlanishining tamal toshlaridan biri sifatida, fuqarolarning davlat hokimiyatini shakllantirishdagi konstitutsiyaviy ishtirokini ta’minlovchi fundamental institut hisoblanadi. Ushbu muhim mavzu yuzasidan milliy va xorijiy huquqshunoslik, siyosatshunoslik hamda davlat boshqaruvi

fanlarida keng qamrovli va salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi huquqshunoslik maktabi vakillari orasida saylov tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini chuqur va kompleks ravishda tadqiq etgan olimlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardan, A.X.Saidovning ilmiy izlanishlari O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini, shu jumladan saylov huquqining ahamiyati va uning amalga oshirilish mexanizmlarini yoritishga qaratilgan bo‘lsa, X.T.Odilqoriyevning tadqiqotlarida davlat va huquq nazariyasi hamda konstitutsiyaviy huquq doirasida saylov tizimining nazariy-metodologik asoslari, uning jamiyatdagi o‘rni, funksional ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari fundamental jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, O.Turg‘unov, I.Bekov, X.Botirov kabi olimlarning ilmiy ishlarida saylov qonunchiligining modernizatsiyasi, saylov jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashning samarali mexanizmlari, saylov komissiyalarining vakolatlari va faoliyatini takomillashtirish kabi dolzarb masalalar atroflicha ko‘rib chiqilgan. Ularning tadqiqotlarida O‘zbekistonda saylov tizimining mustaqillik yillaridagi institutsional evolyutsiyasi, xalqaro saylov standartlariga moslashtirish jarayonlari hamda milliy amaliyotning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ayniqsa, saylov huquqining asosiy prinsiplari – umumiy, teng, to‘g‘ri, yashirin ovoz berish va erkin bildirilgan iroda prinsiplarining mazmun-mohiyati, ularning amalga oshirilish kafolatlari chuqur ochib berilgan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda saylov tizimlariga oid tadqiqotlar yanada keng qamrovli bo‘lib, ularda demokratik davlatlarda saylov jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlari qiyosiy-huquqiy tahlil etiladi. Coll J., Tolbert C., Ritter M., Issacharoff S. kab huquqshunoslarning fundamental asarlarida saylov tizimlarining turlari (majoritar, proporsional, aralash) va ularning siyosiy barqarorlikka, partiyaviy tizimning shakllanishiga ta’siri, shuningdek, saylov natijalarini manipulyatsiya qilish xavfi hamda ularni oldini olish mexanizmlari chuqur o‘rganilgan. Xorijiy olimlar, ayniqsa, saylov jarayonlarida adolat, shaffoflik va erkinlikni ta’minlashning xalqaro standartlari, saylovlarni kuzatish institutining ahamiyati, saylov huquqbuzarliklariga qarshi kurashishning samarali choralari kabi masalalarga alohida e’tibor qaratadilar. Ularning ishlarida saylov tizimini takomillashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli, saylovga oid nizolarni hal qilishning innovatsion usullari va yangi texnologiyalarning (xususan,

raqamli texnologiyalarning) saylov jarayonlariga integratsiyasi kabi zamonaviy tendensiyalar ham atroflicha tahlil qilingan.

O‘zbekistonda saylov tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, saylov qonunchiligini yanada takomillashtirish, saylov jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishning huquqiy va institutsional mexanizmlarini ishlab chiqish, saylov huquqining xalqaro standartlariga to‘liq erishish hamda yangi tendensiyalarni milliy amaliyotga moslashtirish masalalarini chuqurroq ilmiy o‘rganishga ehtiyoj mavjud.

O‘zbekiston Respublikasining saylov tizimi mustahkam konstitutsiyaviy va normativ-huquqiy poydevorga ega bo‘lib, uning tamalini davlatning Asosiy Qonuni hamda 2019-yilda qabul qilingan Saylov kodeksi tashkil etadi. Milliy huquqshunoslik fanining taniqli vakillari, jumladan, A.Saidov va I.Rahmatullayev kabi olimlarning fundamental tadqiqotlarida milliy saylov qonunchiligining shakllanish bosqichlari, evolyutsion jarayonlari va o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Saylov kodeksining qabul qilinishi saylov jarayonlarini tartibga soluvchi tarqoq qonun hujjatlarini yagona, tizimlashtirilgan mexanizmga keltirib, huquqni qo‘llash amaliyotida yagona standartlarni ta’minlashga xizmat qildi hamda saylov qonunchiligini xalqaro demokratik prinsiplar va me’yorlarga yaqinlashtirishda muhim qadam bo‘ldi.

Ilgarilari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlarni saylash asosan majoritar (nisbiy ko‘pchilik) saylov tizimi asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizim doirasida mamlakat hududi saylovchilar soni bo‘yicha tenglashtirilgan bir mandatli saylov okruglariga bo‘linadi va har bir okrugda eng ko‘p ovoz to‘plagan nomzod deputat etib saylanadi. Majoritar tizim o‘zida bir qator afzalliklarni mujassam etgan bo‘lib, ular orasida "deputat-saylovchi" o‘rtasida bevosita va mustahkam aloqani ta’minlash, saylangan deputatning o‘z okrugi oldidagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, parlamentda barqaror ko‘pchilikni shakllantirish orqali hukumatning samarali va uzluksiz faoliyat yuritishiga imkon yaratishi alohida e’tiborga molik. Biroq, majoritar tizim ma’lum kamchiliklardan ham xoli emas. Xususan, bu tizim saylovchilarning bir qismi tomonidan berilgan ovozlarning "yo‘qolishi" (ya’ni, g‘olib bo‘lmagan nomzodlarga berilgan ovozlarning mandat taqsimotida hisobga olinmasligi) hamda kichik siyosiy partiyalarning parlamentdagi vakilligini cheklashi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat, o‘z navbatida, jamiyatdagi siyosiy qarashlar va

ijtimoiy manfaatlarning rang-barangligini parlamentda to‘liq aks ettirish imkoniyatlarini cheklashi ehtimoli mavjud.

Jahon saylov amaliyotida majoritar tizimdan tashqari proportsional (mutanosib) va aralash saylov tizimlari ham keng qo‘llaniladi. Proportsional tizimda deputatlik mandatlari siyosiy partiyalarning saylovda to‘plagan ovozlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Ushbu tizim jamiyatdagi siyosiy qarashlar xilma-xilligini parlamentda yanada to‘liqroq aks ettirishga, siyosiy plyuralizmni mustahkamlashga va turli ijtimoiy guruhlarning vakilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq, uning zaif tomoni shundaki, u parlamentning haddan tashqari fraksiyalashuviga, koalitsion hukumatlarning beqarorligiga va boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Joriy huquqiy mexanizmga muvofiq esa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlarni saylashda saylov tizimining aralash modeli (majoritar (75) va proportsional (75)) orqali amalga oshirilmoqdaki, bunda yo‘qoridagi kamchiliklarni oldi olinganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu aralash modelning joriy etilishi quyidagi bir qator ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi:

**Birinchidan,** majoritar komponentning saqlanib qolishi an’anaviy "deputat-mahalla-saylovchi" bog‘liqligini ta’minlab, hududlarning o‘ziga xos manfaatlari va ehtiyojlarining parlamentda samarali ifodalanishiga kafolat beradi.

**Ikkinchidan,** proportsional elementning kiritilishi siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi roli va mas’uliyatini sezilarli darajada oshiradi, partiyalararo raqobat muhitini kuchaytiradi hamda ularni aniq g‘oyaviy platformalar va innovatsion dasturlar ishlab chiqishga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatda ko‘ppartiyaviylik tizimining sifat jihatdan rivojlanishiga jiddiy turtki bo‘ladi.

**Uchinchidan,** jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va siyosiy qarashlarga ega bo‘lgan saylovchilarning ovozlari parlamentda yanada kengroq va adolatliroq aks etadi. Bu esa qabul qilinayotgan qonunlarning legitimligini (jamiyat tomonidan tan olinishini) hamda ularning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini oshirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning taklif va tashabbuslari bilan aralash saylov tizimi modeli 2026-yildan nafaqat Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarini saylashda, balki Xalq depetatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining saylovida ham qo‘llaniladi.

Milliy saylov tizimini aralash model asosida takomillashtirish "Yangi O‘zbekiston" taraqqiyot strategiyasida belgilangan siyosiy tizimni modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va demokratik prinsiplarni mustahkamlash vazifalariga to‘la mos keladi hamda mamlakatda demokratik islohotlarning chuqurlashuviga va siyosiy madaniyatning yuksalishiga xizmat qiluvchi muhim omil bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlatni hamda adolatli fuqarolik jamiyatini bunyod etish strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda, mamlakat saylov tizimini muttasil ravishda takomillashtirib borish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Saylov kodeksining qabul qilinishi bilan saylov qonunchiligi tizimlashtirilib, uni xalqaro standartlarga sezilarli darajada muvofiqlashtirishga erishildi. Shu bilan birga, saylov jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, saylov komissiyalari faoliyatini optimallashtirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Biroq, ayrim huquqiy normalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarida, saylovchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda va siyosiy partiyalarning saylovoldi kampaniyalarida raqobat muhitini yanada kuchaytirishda haligacha to‘liq foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Xususan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar tomonidan ilgari surilgan tavsiyalarning bir qismini implementatsiya qilish masalasi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Yuqoridagi tahliliy xulosalardan hamda ilmiy-nazariy yangiliklardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston saylov tizimini yanada takomillashtirish, uning demokratik tamoyillarga to‘liq mosligini ta’minlash hamda fuqarolarning saylov jarayonlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash maqsadida quyidagi huquqiy va amaliy takliflarni keltirib o‘tsak bo‘ladi:

**1. Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha:**

Siyosiy partiyalar va nomzodlarning saylovoldi jamg‘armalarini shakllantirish hamda sarflash jarayonlarining shaffofligini oshirishga qaratilgan aniq va ta’sirchan normalarni Saylov kodeksiga kiritish lozim. Xususan, barcha moliyaviy tushumlar va xarajatlar to‘g‘risidagi batafsil hisobotlarni tegishli rasmiy veb-saytda real vaqt rejimida doimiy e’lon qilib borish majburiyatini qonuniy belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu choralarni amalga oshirish jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va moliyaviy manbalardan noqonuniy foydalanishning oldini oladi;

Okrug va uchastka saylov komissiyalari a’zolarini shakllantirish jarayonida mahalliy Kengashlar bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari,

jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari

vakillarining tavsiyalari asosida nomzodlarni ko‘rib chiqish tartibini qonuniy

jihatdan mustahkamlash zarur. Bu komissiyalar faoliyatining beg‘arazligi va

xolisligiga bo‘lgan jamoatchilik ishonchini sezilarli darajada oshiradi.

ing barcha ishtirokchilar uchun tushunarli, tezkor va adolatli bo‘lishini ta’minlaydi.

**2. Amaliyotni yaxshilash va institutsional islohotlar bo‘yicha:**

Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxati tizimini yanada takomillashtirish, uni biometrik identifikatsiya tizimlari bilan to‘liq integratsiya qilish lozim. Kiberxavfsizlikni to‘liq ta’minlagan holda, xorijda yashovchi O‘zbekiston

fuqarolari uchun masofaviy elektron ovoz berish tizimini tajriba tariqasida

joriy etish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish tavsiya etiladi. Bu

"bir saylovchi – bir ovoz" tamoyilining so‘zsiz bajarilishiga va

saylovchilarning saylov jarayonlariga qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi;

Saylovoldi tashviqoti davri bilan cheklanib qolmasdan, saylovlar

oralig‘idagi davrda ham aholi, ayniqsa, yoshlar va ilk bor ovoz beruvchilar

uchun saylov huquqi, partiyaviy tizim va nomzod dasturlarini tahlil

qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan doimiy faoliyat yurituvchi

ma’rifiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur;

Xalqaro kuzatuv missiyalarining yakuniy hisobotlarida keltirilgan amaliy tavsiyalarni milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha aniq muddatlar va mas’ul idoralar belgilangan "yo‘l xaritasi"ni ishlab chiqish hamda uning ijrosi ustidan parlament hamda jamoatchilik nazoratini o‘rnatish muhimdir.

Ushbu takliflarning hayotga tatbiq etilishi O‘zbekiston saylov tizimining xalqaro demokratik standartlarga muvofiq yanada rivojlanishiga, mamlakatda ochiq, adolatli va raqobatli saylov muhitini

mustahkamlashga hamda Yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

## SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TA’LIM BOSHQARUVI: PEDAGOGIK TRANSFORMATSIYA VA MUVOZANATLI TARTIBGA SOLISH MODELI

***S.Sh.Sakiyev***, *O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Ilmiy kotibi*
*Tel.: +998 99 898-68-15*
*e-mail: sakiyevsardor@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta’lim tizimini boshqarishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb yo‘nalishlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sun’iy intellektning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda uning ta’lim boshqaruvi samaradorligiga ta’sirini baholashdan iborat. Ishda zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini moslashtirish, boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkoniyatlari ilmiy asosda ochib berilgan. Tadqiqotda tahliliy va qiyosiy yondashuvlardan foydalanilgan. Natijada sun’iy intellektni joriy etish bilan bog‘liq asosiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha huquqiy-me’yoriy yechimlar taklif etilgan..

**Kalit so‘zlar:** sun’iy intellekt, ta’lim boshqaruvi, raqamli transformatsiya, pedagogik texnologiyalar, algoritmlar, axborot xavfsizligi, boshqaruv samaradorligi, innovatsiya, Big Data

XXI asrda global rivojlanish dinamikasi inson kapitalining sifati va bilimlar iqtisodiyotining shakllanish darajasi bilan bevosita belgilanmoqda. Mazkur sharoitda ta’lim tizimi nafaqat ijtimoiy institut, balki innovatsion taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, to‘rtinchi sanoat inqilobi doirasida sun’iy intellekt (SI), katta ma’lumotlar (Big Data), mashinaviy o‘rganish (Machine Learning) kabi ilg‘or texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimini boshqarishning an’anaviy paradigmalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Natijada ta’lim boshqaruvi jarayoni deterministik va byurokratik modeldan adaptiv, ma’lumotlarga asoslangan va intellektual boshqaruv modeliga transformatsiyalanmoqda.

Zamonaviy ilmiy diskursda sun’iy intellekt ta’lim sohasida “disruptiv” va “transformativ” texnologiya sifatida talqin etilib, uning ta’siri nafaqat operatsion jarayonlar, balki strategik boshqaruv darajasida ham sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirayotgani qayd etilmoqda.

Xususan, SI asosidagi tizimlar yordamida ta’lim muassasalarida real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish, ularni ko‘p omilli tahlil qilish, yashirin qonuniyatlarni aniqlash va prognozlash imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda sub’ektivlik darajasini kamaytirib, ilmiy asoslangan, dalillarga tayanilgan boshqaruv modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, SI texnologiyalari ta’lim jarayonini chuqur individuallashtirish, ta’lim traektoriyalarini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash orqali boshqaruv samaradorligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Biroq, sun’iy intellektning ta’limni boshqarish tizimiga integratsiyasi murakkab, ko‘p qirrali va ambivalent jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bir tomondan, u boshqaruvning aniqligi, tezkorligi va moslashuvchanligini oshirsa, ikkinchi tomondan, yangi turdagi tizimli xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Jumladan, algoritmik qarorlarning “qora quti” (black box) tabiati, ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi bilan bog‘liq muammolar, algoritmik tarafkashlik (bias), hamda inson omilining rolini qisqarishi kabi masalalar ilmiy va amaliy muhokamalarning markaziga aylanmoqda. Ayniqsa, ta’lim kabi ijtimoiy jihatdan sezgir sohada ushbu muammolar nafaqat texnologik, balki etik va ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy-me’yoriy asoslari etarli darajada shakllanmaganligi ushbu sohada institutsional bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar ko‘pincha tez rivojlanayotgan SI texnologiyalarining xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Natijada, SI asosida qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining legitimligi, javobgarlik chegaralari, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini belgilash masalalari ochiq qolmoqda. Bu esa ta’lim boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanishni kompleks va tizimli tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati sun’iy intellektning texnologik yoki pedagogik jihatlariga alohida e’tibor qaratgan bo‘lib, uning boshqaruv tizimidagi integratsiyasi, ayniqsa pedagogik imkoniyatlar, xavf-xatarlar va huquqiy-me’yoriy tartibga solish masalalarini kompleks yondashuv asosida o‘rganish etarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, milliy ta’lim tizimi kontekstida ushbu muammoni tizimli tahlil qilish ilmiy jihatdan dolzarb va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – ta’limni boshqarishda sun’iy intellektdan foydalanishning konseptual va nazariy-metodologik

asoslarini ishlab chiqish, uning pedagogik imkoniyatlarini tizimli ravishda ochib berish, mavjud va potensial xavf-xatarlarni ilmiy asosda tasniflash hamda ushbu jarayonni samarali tartibga solishning huquqiy-me’yoriy mexanizmlarini taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, hamda zamonaviy ilmiy manbalar sintezi asosida mualliflik konsepsiyasi shakllantiriladi.

Sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi o‘rni so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar asosan uch asosiy vektorda rivojlanmoqda: (1) pedagogik imkoniyatlar, (2) boshqaruv samaradorligi, (3) xavf-xatarlar va etik-huquqiy masalalar.

Birinchi yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar sun’iy intellektning ta’lim jarayonini individuallashtirishdagi rolini asoslashga qaratilgan. Xususan, R. Luckin ta’limda sun’iy intellektni inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida talqin qilib, u o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yangi sifat darajasiga olib chiqishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, W. Holmes va hamkorlari sun’iy intellekt asosida adaptiv ta’lim tizimlari orqali o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan ta’lim muhitini yaratish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Mazkur yondashuv ta’limni boshqarishda standartlashtirilgan modeldan moslashuvchan va differensiallashgan modelga o‘tish zaruratini ko‘rsatadi.

Ikkinchi yo‘nalish – ta’lim boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligi bilan bog‘liq tadqiqotlarni qamrab oladi. S. Russell va P. Norvig sun’iy intellektni qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtiruvchi vosita sifatida ko‘rib, uning murakkab tizimlarni boshqarishda yuqori aniqlik va tezkorlikni ta’minlashini ta’kidlaydi. OECD hisobotlarida esa sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimlarida ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven governance) konsepsiyasi shakllanayotgani qayd etiladi. Bu esa ta’lim muassasalarida strategik rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Uchinchi yo‘nalish ilmiy adabiyotlarda eng muhokamali masalalardan biri bo‘lib, sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq xavf-xatarlar va cheklovlarni qamrab oladi. UNESCO tomonidan tayyorlangan tavsiyalarda sun’iy intellektni joriy etishda etik tamoyillar – adolat, shaffoflik, inson huquqlariga hurmat va inklyuzivlik ustuvor bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Shuningdek, algoritmik tarafkashlik (bias), ma’lumotlar maxfiyligi va “qora quti” muammosi ilmiy

hamjamiyatda asosiy xavf omillari sifatida qaralmoqda. Ayrim tadqiqotchilar sun’iy intellektning haddan tashqari avtomatlashtirilishi ta’lim tizimida inson omilining pasayishiga olib kelishi mumkinligini qayd etadilar.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili muhim bir ilmiy bo‘shliqni ham ko‘rsatadi. Ya’ni, aksariyat tadqiqotlarda sun’iy intellektning alohida jihatlari (pedagogik yoki texnologik) o‘rganilgan bo‘lib, uning ta’lim boshqaruvidagi kompleks integratsiyasi, ayniqsa pedagogik imkoniyatlar, xavf-xatarlar va huquqiy-me’yoriy tartibga solish masalalari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida kam tadqiq qilingan. Ayniqsa, milliy ta’lim tizimi kontekstida ushbu muammoni tizimli va konseptual yondashuv asosida o‘rganish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, sun’iy intellektni ta’lim boshqaruvi tizimida kompleks hodisa sifatida, ya’ni pedagogik, boshqaruv va huquqiy omillar birligi doirasida tahlil qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, tadqiqotda sun’iy intellektni ta’lim boshqaruvi tizimiga integratsiya qilishning kompleks konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model an’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda sun’iy intellektni alohida texnologik vosita sifatida emas, balki pedagogik imkoniyatlar, boshqaruv samaradorligi va huquqiy-me’yoriy tartibga solish omillari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida talqin etadi.

Ikkinchidan, muallif tomonidan sun’iy intellektdan foydalanishda “muvozanatli boshqaruv yondashuvi” (balanced governance approach) ilmiy muomalaga kiritildi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ta’lim boshqaruvida sun’iy intellektni samarali joriy etish uch asosiy komponent o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga bog‘liq:

- texnologik samaradorlik,
- inson omili (pedagogik nazorat va ishtirok),
- huquqiy va etik kafolatlar.

Uchinchidan, tadqiqot doirasida sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq xavf-xatarlar tizimli tasniflandi va ular uch darajada guruhlashtirildi:

- texnologik xavflar (algoritmik xatolik, bias),
- ijtimoiy-pedagogik xavflar (inson omilining kamayishi),
- huquqiy xavflar (javobgarlik va tartibga solishdagi bo‘shliqlar).

To‘rtinchidan, muallif tomonidan ta’lim boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanishni tartibga solishga doir huquqiy-me’yoriy takliflar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu takliflar normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ma’lumotlar himoyasini kuchaytirish va sun’iy intellektdan foydalanishda shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan.

Beshinchidan, tadqiqot natijasida sun’iy intellekt asosida ta’lim boshqaruvini rivojlantirishning mualliflik modeli taklif etilib, u amaliyotga joriy etish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar sun’iy intellekt asosida ta’lim boshqaruvi tizimi sifat jihatdan yangi – transformatsion bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Tahlillar shuni anglatadiki, sun’iy intellekt ta’lim boshqaruvida nafaqat yordamchi vosita, balki strategik boshqaruv qarorlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Shu jihatdan, ta’lim boshqaruvi modeli an’anaviy markazlashgan va reaktiv tizimdan moslashuvchan, ma’lumotlarga asoslangan va prediktiv xususiyatga ega boshqaruv tizimiga transformatsiyalanmoqda.

O‘tkazilgan qiyosiy va kontent-tahlillar asosida aniqlanishicha, sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim boshqaruvida uchta asosiy transformatsion yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, pedagogik transformatsiya – bu o‘quv jarayonining individuallashtirilishi va adaptiv ta’lim muhitining shakllanishi bilan bog‘liq. Sun’iy intellekt algoritmlari orqali o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va xulqiy ko‘rsatkichlari real vaqt rejimida tahlil qilinib, ular uchun individual ta’lim traektoriyalari ishlab chiqiladi. Natijada ta’lim sifati va natijadorligi oshadi.

Ikkinchidan, boshqaruv transformatsiyasi – bu qaror qabul qilish jarayonining tubdan o‘zgarishi bilan ifodalanadi. Sun’iy intellekt asosida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ta’lim muassasalarida strategik rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlari sezilarli darajada optimallashtiriladi. Natijada boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligi ortadi, sub’ektivlik darajasi kamayadi.

Uchinchidan, institutsional transformatsiya – bu ta’lim tizimida yangi boshqaruv mexanizmlarining shakllanishini anglatadi. Xususan, sun’iy intellektdan foydalanish boshqaruv jarayonlarida shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni ta’minlash zaruratini kuchaytiradi. Bu esa huquqiy-me’yoriy tartibga solish tizimini takomillashtirishni talab etadi.

Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ilgari surilgan “muvozanatli tartibga solish modeli”ning ilmiy asoslanganligi

tasdiqlandi. Ushbu model sun’iy intellektni ta’lim boshqaruviga joriy etishda uchta o‘zaro bog‘liq komponentning uyg‘unligini nazarda tutadi:

- **Pedagogik komponent** – ta’lim jarayonining sifatini oshirish va individuallashtirish;
- **Texnologik komponent** – ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari;
- **Huquqiy-etik komponent** – shaffoflik, adolat va javobgarlikni ta’minlash.

Mazkur modelning asosiy ustunligi shundaki, u sun’iy intellektni faqat texnologik yechim sifatida emas, balki kompleks boshqaruv tizimining integral elementi sifatida talqin etadi. Natijada, boshqaruv samaradorligi faqat texnologik rivojlanish bilan emas, balki pedagogik maqsadlar va huquqiy kafolatlar bilan uyg‘unlikda baholanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari sun’iy intellektni joriy etishda ma’lum institutsional cheklovlar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada emasligi, kadrlarning raqamli kompetensiyalari cheklanganligi hamda huquqiy bazaning to‘liq shakllanmaganligi mazkur jarayonning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida aniqlandi. Bu esa sun’iy intellektni joriy etishni bosqichma-bosqich va tizimli yondashuv asosida amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi:

- sun’iy intellekt ta’lim boshqaruvini prediktiv va adaptiv tizimga aylantiradi;
- pedagogik transformatsiya boshqaruv samaradorligining asosiy omiliga aylanadi;
- muvozanatli tartibga solish modeli sun’iy intellektni samarali integratsiya qilishning optimal mexanizmi hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sun’iy intellekt asosida ta’lim boshqaruvini rivojlantirish istiqbollari yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish texnologik innovatsiyalarni pedagogik maqsadlar va huquqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari sun’iy intellekt asosida ta’lim boshqaruvi tizimi zamonaviy bosqichda chuqur transformatsion jarayonni boshdan kechirayotganini ko‘rsatdi. O‘rganishlar shuni tasdiqladiki, sun’iy intellekt ta’lim boshqaruvida nafaqat texnologik vosita, balki strategik rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, prediktiv tahlil va adaptiv ta’lim

mexanizmlarining joriy etilishi boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan “muvozanatli tartibga solish modeli” sun’iy intellektni ta’lim boshqaruviga integratsiya qilishda optimal yondashuv sifatida asoslab berildi. Mazkur model pedagogik maqsadlar, texnologik imkoniyatlar va huquqiy-etik me’yorlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash orqali barqaror va samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ushbu yondashuv sun’iy intellektni joriy etishda bir yoqlama texnologik optimizm yoki ortiqcha cheklovlardan qochish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari sun’iy intellektni joriy etish jarayonida institutsional va tashkiliy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, kadrlarning raqamli kompetensiyasi va huquqiy bazaning takomillashganligi mazkur jarayonning samaradorligini belgilaydi. Bu esa sun’iy intellektni joriy etishni tizimli, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan yondashuv asosida amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, ta’lim boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha milliy strategik konsepsiya ishlab chiqilishi lozim. Ushbu konsepsiya sun’iy intellektni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari, mexanizmlari va kutilayotgan natijalarini aniqlab berishi kerak.

Ikkinchidan, ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar va pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi zarur. Ayniqsa, sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, sun’iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish zarur. Bu jarayonda ma’lumotlar himoyasi, algoritmik shaffoflik va javobgarlik mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

To‘rtinchidan, ta’lim boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanishda pilot loyihalar va eksperimental platformalarni joriy etish maqsadga muvofiq. Bu orqali yangi texnologiyalarni amaliyotda sinovdan o‘tkazish va ularning samaradorligini baholash imkoniyati yaratiladi.

Beshinchidan, sun’iy intellekt asosida ta’lim boshqaruvini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni adaptatsiya qilish va ularni milliy sharoitga moslashtirish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, sun’iy intellekt asosida ta’lim boshqaruvini rivojlantirish istiqbollari yuqori bo‘lib, ushbu jarayon ta’lim sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish va innovatsion rivojlanishni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Biroq uning muvaffaqiyati texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda pedagogik maqsadlar va huquqiy-me’yoriy mexanizmlarning uyg‘un rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


- Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 4-nashr. – Pearson Education, 2021. – 1152 b.
- Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018. – 232 b.
- Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 240 b.
- UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 28 p.
- OECD. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 180 p.
- European Commission. Ethics Guidelines for Trustworthy Artificial Intelligence. – Brussels, 2019. – 41 p.
- World Bank. Artificial Intelligence and Education: Policy Guidance for Developing Countries. – Washington, DC, 2021. – 150 p.
- Holmes W., Tuomi I. State of the Art and Practice in AI in Education // European Journal of Education. – 2022. – Vol. 57, No. 4. – P. 542–570.
- Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2019. – Vol. 16, No. 1. – P. 1–27.
- Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge: Polity Press, 2019. – 140 p.

- Karimov O.M. Raqamli iqtisodiyot. – Toshkent: Sharq, 2018. – 234 b.
- Ahmedov B.I. Raqamlashtirish davrida elektron tijoratning rivojlanishi // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent, 2023. – №2. – 7–9-b.

# РОЛЬ СПЕЦИАЛЬНЫХ МИССИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНСТИТУТА ИММУНИТЕТОВ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ

***N.T.Khudayberganova**, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti tayanch doktoranti*
*e-mail:*
*[n.xudayberganova@uwed.uz]*
*n.khudayberganova17@gmail.com*
*+99897098373*

**Аннотация:** Конвенция о специальных миссиях 1969 года занимает особое место в архитектуре международного дипломатического права. Менее изученная, чем её аналоги (Венская конвенция о дипломатических отношениях 1961 года и Венская конвенция о консульских отношениях 1963 года). Она предлагает уникальный подход, через который студенты и практикующие юристы могут изучать основополагающие институты иммунитета в международном праве. В этой статье утверждается, что специальные миссии, именно в силу своей временности, функционального характера и доктринальной специфики, представляют собой идеальный пример для преподавания права иммунитетов. В ней рассматривается правовая база, анализируются доктринальные контуры личного и функционального иммунитета применительно к специальным миссиям, а также анализируется, как ограничения и противоречия Конвенции освещают более широкие дискуссии о суверенном равенстве, подотчетности и цели иммунитета в современном международном праве.

Право дипломатических иммунитетов занимает центральное место как в практике, так и в преподавании международного права. Студенты знакомятся с ним как с одним из старейших и наиболее стабильных сводов обычного и договорного права, основанного на принципе суверенного равенства и практической необходимости обеспечения межгосударственной коммуникации. Основные документы в этой области – это Венская конвенция о дипломатических сношениях 1961 года [2] и Венская конвенция о

консульских сношениях 1963 года [3] хорошо известны, ратифицированы практически всеми государствами мира и служат основными объектами изучения в университетских курсах по публичному международному праву. Однако существует и третий документ, который, несмотря на свою доктринальную насыщенность и способность провоцировать фундаментальные вопросы о природе иммунитета, остается сравнительно малоизученным в юридической педагогике: Конвенция о специальных миссиях 1969 года [1].

Конвенция о специальных миссиях была принята Генеральной Ассамблеей Организации Объединенных Наций 8 декабря 1969 года и вступила в силу 21 июня 1985 года. Она кодифицирует правила, регулирующие деятельность специальных дипломатических миссий временных представительств государств, направляемых одним государством в другое для конкретной цели, такой как переговоры на высоком уровне, церемониальные визиты или технические дискуссии, которые ранее регулировались только обычным международным правом. Комиссия по международному праву начала работу над этой темой еще в 1960 году, подготовив в 1967 году ряд проектов статей с комментариями [4].

В этой статье утверждается, что Конвенция о специальных миссиях служит инструментом для изучения институтов иммунитетов в международном праве. Относительная простота предмета, прямая связь с основами дипломатического права и, что особенно важно, та неполная и противоречивая составляющая, которую она воплощает, делают её уникальным. Изучая специальные миссии, человек вынужден разбираться с основополагающими принципами: зачем существуют иммунитеты? Кого они защищают? Какова взаимосвязь между иммунитетом и подотчётностью? И как закон реагирует, когда иммунитеты противоречат императивам справедливости?

Временные дипломатические миссии относятся к числу древнейших форм межгосударственной коммуникации. Задолго до создания постоянных посольств в XV веке государства поддерживали свои отношения посредством временных посланников, направляемых для решения конкретных задач [5]. Обычные нормы, регулирующие такие миссии, включая неприкосновенность личности посланника и запрет на вмешательство в его коммуникации, существовали задолго до

появления какой-либо кодифицированной системы и отражали практическую необходимость безопасного межгосударственного диалога. Эти обычные правила признавались и применялись на протяжении веков, сохранившись и после консолидации постоянных дипломатических миссий.

Кодификация права дипломатических отношений в Венской конвенции о дипломатических сношениях стала определяющим моментом в истории международного права. Однако ВКДС касалась только постоянных представительств; правовой статус временных или специальных представительств остается неопределенным. Как отметил Денза, молчание ВКДС по поводу специальных миссий создало пробел, который была призвана заполнить последующая работа Комиссии международного права [6]. Специальный докладчик Комиссии международного права М.Бартош подготовил ряд докладов, которые в конечном итоге привели к принятию Конвенции 1969 года, впервые установившей всеобъемлющую и обязательную договорную основу для временных дипломатических представительств [7].

Конвенция устанавливает многоуровневый режим иммунитетов, который в целом соответствует структуре Венской конвенции о дипломатической миссии. В её основе лежит личная неприкосновенность представителей направляющего государства и членов дипломатического персонала специальной миссии: они не могут быть арестованы или задержаны, а принимающее государство обязано относиться к ним с должным уважением и принимать все надлежащие меры для предотвращения любых посягательств на их личность, свободу или достоинство [9]. Как отмечает М.Шоу, эта защита отражает основополагающий принцип, согласно которому выполнение международной функции требует свободы от местного вмешательства [8].

Различие между личным и функциональным иммунитетом является одной из особенностей Конвенции в педагогических целях. Личный иммунитет, предоставляемый руководителю и дипломатическому персоналу специальной миссии, защищает человека во всех его действиях, публичных или частных, в течение всего периода существования миссии. Функциональный иммунитет, предоставляемый другим сотрудникам, ограничивается официальными действиями (актами). Эта ситуация поднимает

вопрос, лежащий в основе современного права иммунитета: что представляет собой официальный акт?

Конвенция не содержит четкого определения «официального акта» (acte de fonction), оставляя его содержание на усмотрение государственной практики и судебной интерпретации. Международный суд рассматривал аналогичные вопросы в контексте государственного и дипломатического иммунитета, в частности, в деле об ордере на арест, в котором в отдельных заключениях отмечалось, что обоснованием иммунитета является обеспечение эффективного выполнения международных функций, а не защита отдельных лиц от ответственности за международные преступления [10]. Фокс и Уэбб утверждали, что функциональная теория, хотя и является интеллектуально последовательной, создает границу, которую трудно применять на практике, поскольку грань между официальными и неофициальными актами часто нечеткая [11]. Конвенция также затрагивает вопрос неприкосновенности помещений, архивов и документов специальной миссии, а также свободу передвижения и связи.

Менее изученным аспектом режима иммунитета является активный характер обязательств принимающего государства. Конвенция не просто запрещает вмешательство; она налагает позитивные обязанности по защите и содействию. Эти обязанности, а именно: уважать и защищать помещения, обеспечивать свободу коммуникации, предотвращать нападения на персонал миссии, отражают концепцию иммунитета не просто как щита, а как позитивной основы сотрудничества. Ауст отметил, что этот позитивный аспект дипломатической защиты недостаточно подчеркивается в стандартных подходах к этой теме, хотя он имеет основополагающее значение для практического функционирования дипломатических отношений [12].

Конвенция также ценна именно потому, что она подчеркивает напряженность, которая стала более острой в современном международном праве: конфликт между иммунитетом и ответственностью, особенно в случаях международных преступлений. Текущая работа Комиссии международного права по вопросу иммунитета государственных должностных лиц от иностранной уголовной юрисдикции занимается этим противоречием [13], и контекст специальных миссий дает наглядную иллюстрацию рассматриваемых вопросов. Если глава

государства посещает иностранное государство в рамках специальной миссии и обвиняется в совершении международных преступлений, защищает ли его или ее иммунитет? Аканде и Шах утверждают, что личный иммунитет ratione personae, иммунитет высших государственных должностных лиц, сохраняется даже в таких обстоятельствах, хотя дискуссия по этому вопросу остается нерешенной [14].

Эта дискуссия не является просто гипотетической. Практика зафиксировала многочисленные случаи споров, касающихся иммунитета глав государств и высокопоставленных министров, участвующих в специальных миссиях того или иного рода, и эти споры породили значительное количество научной литературы. Судебное разбирательство по делу Пиночета в Соединенном Королевстве, хотя и возникло в контексте Закона о государственном иммунитете 1978 года, а не непосредственно в рамках Конвенции, подняло вопросы о масштабах иммунитета, которые непосредственно актуальны для системы специальных миссий. Ранее Хиггинс отмечал, что злоупотребление привилегиями и иммунитетами, и искушение отказать в них, представляют собой одно из наиболее серьезных давлений на систему дипломатического права [16].

Изучение темы специальных миссий приобретает дополнительную значимость, когда оно основывается на современной государственной практике. Опыт таких государств, как Узбекистан, иллюстрирует, как Конвенция функционирует в контексте активной многосторонней и двусторонней дипломатии. Практика Узбекистана по направлению делегаций высокого уровня в государства-партнеры для переговоров по двусторонним соглашениям, включая меморандумы о взаимопонимании, планы сотрудничества и договоры о правовой помощи, является примером функционального характера специальной миссии, как это определено в Конвенции [15]. Каждый такой визит в конкретной форме поднимает вопросы о правовом статусе членов делегации, предоставляемых им помещениях и защите, на которую они имеют право рассчитывать со стороны принимающего государства.

Дополнительная проблема связана с растущей распространенностью визитов на высоком уровне глав государств и министров правительств, которые не вписываются в рамки Конвенции. Конвенция требует, чтобы для формирования

специальной миссии было достигнуто согласие принимающего государства относительно состава миссии, требование, отражающее двусторонний характер дипломатического права, но которое может создавать трудности в контексте многосторонних мероприятий, экстренных консультаций или визитов, организуемых в сжатые сроки. Робертс отметил, что практическая идентификация данного визита как специальной миссии в соответствии с Конвенцией, а не как вопроса обычной вежливости или двусторонней договоренности, часто бывает неясной [17].

Карвер утверждал, что Конвенция, разработанная в эпоху дипломатии холодной войны, плохо приспособлена к решению современных проблем, связанных с распространением визитов на высоком уровне и изменением способов межгосударственного общения, включая цифровые и гибридные форматы [18]. Эти критические замечания справедливы, но не должны заслонять сохраняющуюся доктринальную значимость Конвенции. Оценка Шоу уместна: хотя Конвенция несовершенна и ратифицирована не полностью, она «тем не менее представляет собой наиболее авторитетное изложение права, регулирующего эту важную область государственной практики» [19].

## ЛИТЕРАТУРА:

**1.** Конвенция о специальных миссиях, открытая для подписания 16 декабря 1969 г., 1400 UNTS 231 (вступила в силу 21 июня 1985 г.)

**2.** Венская конвенция о дипломатических сношениях, открытая для подписания 18 апреля 1961 г., 500 UNTS 95 (вступила в силу 24 апреля 1964 г.)

**3.** Венская конвенция о дипломатических сношениях, открытая для подписания 18 апреля 1961 г., 500 UNTS 95 (вступила в силу 24 апреля 1964 г.).

**4.** Международная комиссия по международному праву, «Проекты статей о специальных миссиях с комментариями» (1967) II Ежегодник Международной комиссии по международному праву, стр. 347.

**5.** Клифтон Э. Уилсон, Дипломатические привилегии и иммунитеты (Издательство Университета Аризоны, 1967), стр. 12–15.

**6.** Э.Денза, Дипломатическое право: Комментарий к Венской конвенции о дипломатических отношениях (4-е изд., Oxford University Press, 2016) 1–4.

**7.** Конвенция о специальных миссиях (п. 1), ст. 1(a): ««специальная миссия» означает временную миссию, представляющую государство, которая направляется одним государством в другое государство с согласия последнего с целью решения с ним конкретных вопросов или выполнения в отношении него конкретной задачи».

**8.** М.Шоу, Международное право (8-е изд., Cambridge University Press, 2017) 762–764.

**9.** Конвенция о специальных миссиях (п. 1), ст. 21.

**10.** Дело об ордере на арест от 11 апреля 2000 г. (Демократическая Республика Конго против Бельгии) (Решение) [2002] ICJ Rep 3, 20–21 (Совместное отдельное мнение судей Хиггинса, Койманса и Бюргенталя).

**11.** Хейзел Фокс и Филиппа Уэбб, Закон о Государственном Иммунитете (3-е изд., Oxford University Press, 2013), стр. 694–697.

**12.** Энтони Ост, Современное договорное право и практика (3-е изд., Cambridge University Press, 2013), стр. 295.

**13.** ILC, 'Report of the International Law Commission on the Work of Its Sixty-Eighth Session' UN Doc A/71/10 (2016) ch VI (Immunity of State Officials from Foreign Criminal Jurisdiction).

**14.** Dapo Akande and Sangeeta Shah, 'Immunities of State Officials, International Crimes, and Foreign Domestic Courts' (2010) 21 European Journal of International Law 815, 820–825.

**15.** См., например, практику Узбекистана: Закон Республики Узбекистан о международных договорах от 06.02.2019 г. № ЗРУ-518 [https://lex.uz/docs/4193763](https://lex.uz/docs/4193763)

**16.** R Higgins, 'The Abuse of Diplomatic Privileges and Immunities: Recent United Kingdom Experience' (1985) 79 American Journal of International Law 641.

**17.** Ivor Roberts (ed), Satow's Diplomatic Practice (6th ed, Oxford University Press, 2009) 392.

**18.** Geoff Carver, 'The Special Missions Convention After Forty Years: A Critical Examination' (2009) 56 Netherlands International Law Review 375, 380.

**19.** М.Шоу, Международное право (8-е изд., Cambridge University Press, 2017) 763.

# XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI TA’MINLASHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

***G.O.Zokirova***
*Toshkent davlat Transport universiteti*
*Akademik litseyi Huquq fani o ‘qituvchisi*

**Annotatsiya**:Mazkur maqolada xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashning dolzarb masalalari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Xususan, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik, gender tengsizligi, huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi kabi muammolar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston va xalqaro tajriba asosida ayollar huquqlarini himoya qilishning huquqiy va ijtimoiy mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashni takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** xotin-qizlar huquqlari, gender tengligi, zo‘ravonlik, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy himoya, ayollar huquqlari, davlat siyosati, inson huquqlari.

Bugungi kunda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan ayollarning huquq va erkinliklari qay darajada kafolatlanganligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va gender tengligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, xotin-qizlar huquqlarining ta’minlanishi jamiyat rivojining muhim omili hisoblanadi [1].

Xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash masalasi bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramay, amaliyotda ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Bu muammolar xotin-qizlarning o‘z huquqlaridan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda hamda ularning jamiyatdagi faolligini cheklamoqda. Shu bois, mazkur sohada mavjud kamchiliklarni aniqlash, ularni ilmiy asosda tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Quyida xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash jarayonida uchrayotgan asosiy muammolar bosqichma-bosqich ko‘rib chiqsak

Birinchidan, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlarda zamonaviy oilalarda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari uchrashi va bu ularning ijtimoiy himoyasiga salbiy

ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan [2]. Shu bilan birga, zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va bolalarni himoya qilish tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan [3].

Shuningdek, muammoni bartaraf etishda faqat huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, balki jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish va aholining huquqiy ongini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, gender tengligining to‘liq ta’minlanmaganligi muammosi mavjud. Ayrim tarixiy stereotiplar ayollarning jamiyatdagi imkoniyatlarini cheklab kelmoqda [4]. Shu bilan birga, genderga oid qonunlar ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [5].

Demak, gender tengligini ta’minlash nafaqat huquqiy normalarni qabul qilish, balki ularni amaliyotda samarali qo‘llash, ijtimoiy ongni o‘zgartirish va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratishni talab etadi.

Uchinchidan, xotin-qizlarning huquqiy savodxonligi yetarli darajada emas. Ayollar o‘z huquqlarini to‘liq bilmaganligi sababli mavjud imkoniyatlardan samarali foydalana olmaydi [6].

Bu holat, o‘z navbatida, ularning mehnat, ijtimoiy himoya, ta’lim va oilaviy huquqlar sohasida o‘z pozitsiyasini mustahkamlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy savodxonlikning pastligi fuqarolarning davlat va jamiyat tomonidan yaratilgan kafolatlardan to‘liq foydalanmasligiga olib keladi hamda huquqiy himoya mexanizmlarining amaliy samaradorligini kamaytiradi.

Shu sababli, xotin-qizlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, ularni huquqiy axborot bilan ta’minlash, bepul maslahat va tushuntirish ishlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, ta’lim va ijtimoiy imkoniyatlar masalasida ham muammolar mavjud. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayollar ta’limi jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi va bu yo‘nalishda islohotlarni davom ettirish zarur [7].

Biroq amaliyotda ta’lim olish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaslik, ayrim ijtimoiy to‘siqlar hamda kasb-hunar egallashdagi tengsizlik kabi muammolar mavjudligi kuzatiladi. Bu holatlar xotin-qizlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini pasaytiradi hamda ularning ijtimoiy faolligini cheklaydi.

Shu sababli, ta’lim sohasidagi islohotlarni izchil davom ettirish, qizlarning sifatli ta’lim olishini kengaytirish va ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash bo‘yicha mustahkam huquqiy baza shakllantirilgan. So‘nggi yillarda ayollar huquqlarini kafolatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan [8].

Mazkur huquqiy asoslar xotin-qizlarning ta’lim, mehnat, ijtimoiy himoya va siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, ularning teng huquqliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu normalarning samarali ijrosini ta’minlash, ularni hayotga to‘liq tatbiq etish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribada ham ayollar huquqlarini himoya qilish muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, zo‘ravonlikka qarshi kurashishda nafaqat qonunlar, balki ijtimoiy normalar ham muhim rol o‘ynaydi [9]. Shuningdek, ayollarning huquq sohasidagi ishtiroki jamiyat demokratik rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [10].

Mazkur huquqiy asoslar xotin-qizlarning ta’lim, mehnat, ijtimoiy himoya hamda siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, ularning teng huquqliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligi bilan bir qatorda, ularni amaliyotda samarali ijro etish va real hayotga to‘liq tatbiq qilish masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Chunki huquqiy kafolatlarning haqiqiy samaradorligi ularning qanchalik darajada amalda ishlashi bilan belgilanadi. Shu sababli, ijro intizomini kuchaytirish va huquqiy normalarning amaliy ta’sirini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni samarali hal etish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv faqat huquqiy islohotlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy yo‘nalishlarni ham qamrab olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun bir qator muhim choralarni amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Birinchidan, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali xotin-qizlar huquqlarini himoya qiluvchi normalarning samaradorligini oshirish, ularning amaliy ijrosini kuchaytirish muhimdir.

Ikkinchidan, huquqiy savodxonlikni oshirish orqali ayollarning o‘z huquqlarini bilishi va ulardan to‘g‘ri foydalanishi ta’minlanadi.

Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish zo‘ravonlikdan jabrlangan va ijtimoiy ko‘makka muhtoj xotin-qizlarga real yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Gender tengligini ta’minlash esa jamiyatda

ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratib, diskriminatsiyani kamaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish xotin-qizlarning kasbiy salohiyatini oshiradi va ularning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Nihoyat, ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish jamiyatda ayollarga nisbatan shakllangan eskicha qarashlarni o‘zgartirib, ularning erkin va teng huquqli ishtirokini ta’minlaydi.

Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlarning uyg‘un va tizimli amalga oshirilishi xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashdagi mavjud muammolarni bartaraf etish hamda jamiyatda adolat va tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash masalasi jamiyatning demokratik rivoji va barqaror taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, ushbu sohada zo‘ravonlik holatlari, gender tengligining to‘liq ta’minlanmaganligi, huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi hamda ta’lim va ijtimoiy imkoniyatlardagi ayrim cheklovlar kabi muammolar mavjud. Mazkur muammolar xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini cheklab, ularning huquq va manfaatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy baza shakllantirilgani va bu yo‘nalish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangani ijobiy holat sifatida qayd etiladi. Biroq mavjud qonunchilik normalarining amaliy ijrosini yanada kuchaytirish, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda jamiyatda gender tenglik madaniyatini rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, xotin-qizlar huquqlarini samarali ta’minlash uchun huquqiy, ijtimoiy va ma’naviy chora-tadbirlarni uyg‘un holda amalga oshirish lozim bo‘lib, bu esa jamiyatda adolat, tenglik va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

Jurayev Q. *Xotin-qizlar huquqlari jamiyat taraqqiyotining garovidir* // Modern education and development. – 2025. – T. 39. – №6. – B. 157–159.

Xolmurodov G., Salaydinova I. *Zamonaviy oilalarda zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarning ijtimoiy himoya mexanizmi* // New modern researchers. – 2025. – T. 2. – №4. – B. 130–136.

Axmadbekovna A. X. *Zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va bolalarni himoya qilish tizimining takomillashuvi* // Pedagogik islohotlar. – 2025. – T. 15. – №1. – B. 9–11.

Kazakova M. D. *Ayollar huquqlari va gender tengligi: tarixga bir nazar* // Conference of Advance Science. – 2025. – T. 1. – №2. – B. 119–122.

# KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOVNI RAQAMLASHTIRISH: SUN’IY INTELLEKTNI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI

***E.A.Abduqaxxorov***
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*
*Davlat boshqaruv huquqi mutaxassisligi magistranti*
*elmurodjonabduqaxxorov@gmail.com*
*Telefon nomer: 91.936.20.36*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada huquq normalarini amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tutgan o‘rni va faoliyatini raqamlashtirish masalalari tahlil qilingan. Muallif sudga kelib tushayotgan murojaatlar oqimini samarali boshqarish hamda qonunchilikdagi kolliziyalarni aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish zaruriyatini asoslab bergan. Maqola yakunida konstitutsiyaviy odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Huquq normalari normativ hujjatlarda ifodalangani kabi real hayotda amalga oshirilsa, u shaxslar, jamiyat va davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Huquq normalarini amalga oshishi ularning “qog‘ozda” qolib ketishini oldini oladi. Huquqni amalga oshishi ijtimoiy barqarorlik va tartibni, adolat va qonun ustuvorligini inson huquq va erkinliklarining real himoyasini taminlaydi. Huquq ijodkorligi va uni amalga oshirish jarayonini o‘rganish davlat boshqaruv huquqi uchun ulkan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Huquqni amalga oshirish jarayoni bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilib, ular tomonidan turli xil fikrlar bildirilgan. Xususan huquqshunos oilm Sh.A.Saydullayevning fikricha : “Huquqni amalga oshirish - bu davlat tomonidan yuridik jihatdan mustahkamlangan va kafolatlangan imkoniyatlarning amalga oshirilishi bo‘lib, huquq normalarini kishilar va ularning tashkilotlari faoliyatida hayotga tatbiq etilishidir”[1]. Olim X.T.Odilqoriyevning fikricha:

“Huquqni amalga oshirish – davlat tomonidan yuridik mustahkamlangan va kafolatlangan imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish, ularni odamlar va ularning tashkilotlari faoliyatida hayotga tatbiq etish demakdir”[2]. Bizning fikrimizcha, huquqni amalga oshirish normativ hujjatlarda belgilangan huquq normalariga huquqiy munosabat ishtirokchilari tomonidan rioya qilinishi, bajarilishi foydalanilishi hamda vakolatli organlar tomonidan uning qo‘llanilishidir.

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi”[3]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi maxsus konstitutsiyaviy vakolatga ega bo‘lgan davlat organi sifatida huquqni amalga oshirish jarayonida ishtirok etadi. Konstitutsiyaviy sud parlament, hukumat va boshqa huquq ijod qiluvchi organlarning huquq ijodkorligi jarayonini shuningdek, sudlarning huquqni qo‘llash faoliyatini nazorat qiladi agarda ularni Konstitutsiyaga zid deb topishi mumkin hamda huquqni sharhlash (talqin qilish) orqali biror normaning konstitutsiyaviy-huquqiy ma’nosini ochib beradi. Bu Konstitutsiyaviy sudning huquqni amalga oshirishdagi ishtirokidir. Konstitutsiyaviy sud o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida bir qancha aktlarni chiqaradi. Bu aktlarni biz umummajburiyligi, huquqiy oqibat tug‘dirishi, yakuniyligi kabi xususiyatlari bilan huquqni qo‘llash aktlari sirasiga kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida tizimli islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, konstitutsiyaviy nazorat samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish kafolatlarini kuchaytirish hamda Konstitutsiyaviy sudning qonun ustuvorligini ta’minlashdagi rolini yanada oshirish maqsadida 2025-yil 18-dekabr kuni Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-253-Farmoni e’lon qilindi[4]. Mazkur farmonning 1-ilovasida 2026-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini raqamlashtirish dasturi 2-ilovasida esa O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining axborot tizimini davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish bo‘yicha yo‘l xaritasi belgilangan.

Bugungi kunda Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar soni 15 tani tashkil etadi(“O‘zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonunning 27-moddasida Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar ko‘rsatilgan[5]). Murojaat qiluvchilar sonini ortish o‘z navbatida ish hajmini ortishiga sabab bo‘ladi. Qonunchilikda murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi aniq va qatiy belgilangan. “2025 yil davomida Konstitutsiyaviy sudga jami 1844 ta murojaat kelib tushgan (238 tasi takroriy, 276 tasi dublikat murojaatlar). Shundan, 446 tasi Konstitutsiyaviy sudga bevosita yuborilgan. Murojaatlarning 1398 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi (www.murojaat.gov.uz) orqali kelib tushgan. Murojaatlarning 1747 tasi jismoniy shaxslar, 97 tasi yuridik shaxslar tomonidan yuborilgan. Murojaatlarning 262 tasi - 14,2% (59 tasi sharh, 159 tasi huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish, 44 tasida esa tushuntirish so‘ralgan) bevosita Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga tegishli masalalarga oid bo‘lib, ular Konstitutsiyaviy sud sudyalari tomonidan o‘rganib chiqilib, mualliflarga asoslantirilgan tushuntirishlar berilgan”[6]. Farmonning 1-ilovasida ish yuritish tartibini avtomatlashtirish orqali murojaatlarni elektron ro‘yxatga olish va ularning hisobini yuritish belgilangan bizning fikrimizcha, Konstitutsiyaviy sudning axborot tizimiga Sun’iy intellekt asosidagi dastlabki filtrlash modulini joriy etish zarur. Mazkur modul murojaatning avval ko‘rib chiqilgan masalalar bilan o‘xshashlik darajasini tekshiradi va bu orqali murojaatlarni saralaydi. Shuningdek sunniy intelekt algoritmlari yordamida murojaat mazmunini tahlil qilib, uning Konstitutsiyaviy sud vakolatiga taalluqliligini aniqlaydi. Modul Konstitutsiyaviy sud sudyasi yoki xodimlarini murojaatlarni ko‘rib chiqishdan chetlashtirmaydi, tizim murojaatni rad etmaydi, balki rad etish yoki ish yurituvga qabul qilish haqida sudyaga tavsiya beradi. Yakuniy xulosani baribir inson-sudya qabul qiladi. Bu esa “etik chegaralar”ning buzilmasligini ta’minlaydi. Bu yangilik sud apparati xodimlarining ish hajmini kamaytiradi, murojaatlarni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish bosqichidagi byurokratiyani bartaraf etadi va sudyalarning diqqat-e’tiborini faqat mazmunan ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan murakkab konstitutsiyaviy ishlarga qaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek murojaat qiluvchilarga qulaylik yaratish maqsadida Konstitutsiyaviy sudning maxsus botini ishga tushirish lozim. Ushbu bot jismoniy va yuridik shaxslarga kimlar qanday masalalar bo‘yicha, qanday shakilda murojaat qilishi mumkinligi haqida ma’lumot beradi. Qolaversa murojaatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligini tekshirib,

ulardagi xato-kamchiliklarni tuzatish yuzasidan ma’lumotlar beradi. Bizning fikrimizcha, ushbu taklif bir tomondan, sud apparatiga kelib tushadigan protsessual talablarga javob bermaydigan (sifatsiz) murojaatlar oqimini kamaytirsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish mexanizmini soddalashtiradi va huquqni amalga oshirish jarayonini sifat jihatidan yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Statistik ma’lumotlarni o‘rganadigan bo‘lsak, o‘tgan “2025 yil davomida Konstitutsiyaviy sud tomonidan jami 476 ta normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligi o‘rganib chiqildi. Shundan, 81 qonun (5 tasi O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 83 ta farmoni, 124 ta qarori, 40 ta farmoyishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining 9 ta qonuni, Vazirlar Mahkamasining 139 ta qarori tashkil etadi. 2025 yilda Konstitutsiyaviy sud majlisida 4 ta ish ko‘rilgan bo‘lib, ular yuzasidan 3 ta qaror va 1 ta ajrim qabul qilindi”[7]. Komstitutsiyaviy sud sudyalari soni 10 nafarni tashkil etilishini hisobga olsak, usbu raqamlar ish hajmini yuqori ekanligini anglatadi. Qolaversa ushbu holat sudyalarga barcha ishlarni atroflicha o‘rganish ma’sulyatini yuklaydi. Ish hajmini ko‘pligi uni to‘liq o’rganishni qiyinlashishiga hamda bunig natijasida texnik xatoliklari mavjud qaror qabul qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, Konstitutsiyaviy sud faoliyatining ish faoliyatiga su’niy intelektni joriy qilish lozim. U normativ hujjatlarni konstitutsiyaga mosligini, undagi ziddiyat(kolliziya)lar va huquqiy bo‘shliqlarni aniqlaydi. Shuningdek, huquqni sharxlashda texnik yordamchi vazifasini bajaradi.

Huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, hatto oliy konstitutsiyaviy nazorat organining hujjatlarida ham ba’zan murakkab ish yuklamasi ko‘pligi sababli texnik-huquqiy nomuvofiqliklar kuzatilishi mumkin. Masalan, Konstitutsiyaviy sudning 2021-yil 31-may KSQ 6-son sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Reglamentining [8] 20-moddasi 1-qismida Konstitutsiyaviy sudning raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga sudyaning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida taqdimnoma kiritishi belgilangan, shuningdek moddaning ushbu qismini 3-bandida taqdimnomaga asos sifatida (sudya) “u belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki qisman layoqatli deb topilganida”deb qayd etilgan bo‘lib, bu amaldagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 16-moddasi 1-

qismi 7-bandi normalari(u belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganida)ga to‘liq mos kelmasligi ma'lum bo‘ladi. Bunday holatlar sudyalarning professional malakasini shubha ostiga qo‘ymaydi, balki yiliga 476 ta hujjatni ekspertizadan o‘tkazish jarayonida inson diqqatining charchashi tabiiy ekanligini anglatadi. Aynan mana shunday vaziyatlarda Sun’iy intellekttizimlari o‘zining “charchamaydigan” algoritmlari bilan hujjatlar orasidagi yashirin ziddiyatlarni (kolliziyalarni) qisqa soniyalar ichida aniqlab, sudyalarga texnik filtr vazifasini o‘tab berishi lozim.

O‘tkazilgan tahlillar va Konstitutsiyaviy sud faoliyatining raqamli transformatsiyasi jarayonini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Konstitutsiyaviy sudga kelib tushayotgan murojaatlar sonining keskin ortishi (xususan, takroriy va dublikat murojaatlar oqimi) sudyalar va sud apparati xodimlarining ish yuklamasini oshirmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi dastlabki filtrlash modulini joriy etish inson omili bilan bog‘liq texnik xatolarni kamaytirish va sud e’tiborini faqat mazmunan murakkab ishlarga qaratish imkonini beradi

Ikkinchidan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar (masalan, Sud Reglamenti va Konstitutsiyaviy Qonun) o‘rtasidagi texnik-huquqiy nomuvofiqliklar sun’iy intellekt tizimlarining naqadar zarurligini ko‘rsatmoqda. Sun’iy intelekt algoritmlari minglab normativ hujjatlar ichidagi yashirin ziddiyatlar va huquqiy bo‘shliqlarni qisqa vaqt ichida aniqlash orqali konstitutsiyaviy nazorat sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Uchinchidan, maxsus intellektual botlarning ishga tushirilishi fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshiribgina qolmay, balki sudga yuborilayotgan murojaatlarning sifatini yaxshilashga(protsessual talablarga mos shaklda bo‘lishini), byurokratiyani kamaytirishga va elektron konstitutsiyaviy odil sudlov tamoyilini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, konstitutsiyaviy odil sudlovni raqamlashtirish shunchaki texnik jarayon emas, balki qonun ustuvorligini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilishning zamonaviy, samarali kafolatidir. Sun’iy intellektni huquqiy sohaga ehtiyotkorlik bilan, "etik chegaralar"ni saqlagan holda joriy etish O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

- Saydullayev.SH.A. Davlat va huquq nazariyasi. -T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021.-190 b.

- Odilqoriyev.X.T. Davlat va huquq nazariyasi. -T.: “Adolat”, 2018.-361 b.

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [https://lex.uz/docs/-6445145](https://lex.uz/docs/-6445145)

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-253-son Farmoni. [https://lex.uz/docs/-7926640](https://lex.uz/docs/-7926640)

- O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 27-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni O‘RQ-687-son. [https://lex.uz/docs/-5391934](https://lex.uz/docs/-5391934)

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi “O‘zbekiston Konstitutsiyaviy sudining 2025 yil faoliyati sarhisob qilindi hamda 2026 yil rejalari belgilandi” [https://www.konstsud.uz/oz/news/2026/01/22/ozbekiston-konstitutsiyaviy-sudining-2025-yil-faoliyati-sarhisob-qilindi-hamda-2026-yil-rejalari-belgilandi](https://www.konstsud.uz/oz/news/2026/01/22/ozbekiston-konstitutsiyaviy-sudining-2025-yil-faoliyati-sarhisob-qilindi-hamda-2026-yil-rejalari-belgilandi)

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi “O‘zbekiston Konstitutsiyaviy sudining 2025 yil faoliyati sarhisob qilindi hamda 2026 yil rejalari belgilandi” [https://www.konstsud.uz/oz/news/2026/01/22/ozbekiston-konstitutsiyaviy-sudining-2025-yil-faoliyati-sarhisob-qilindi-hamda-2026-yil-rejalari-belgilandi](https://www.konstsud.uz/oz/news/2026/01/22/ozbekiston-konstitutsiyaviy-sudining-2025-yil-faoliyati-sarhisob-qilindi-hamda-2026-yil-rejalari-belgilandi)

- Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг 2021 йил “31” майдаги КСҚ–6-сонли қарори билан қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суди Регламенти. [https://www.konstsud.uz/uploads/2022/03/reglament-uzb-31052021-

kont.pdf](https://www.konstsud.uz/uploads/2022/03/reglament-uzb-31052021-kont.pdf)

# TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI MUHIM AHAMIYATI

***Sh.M.Ubaydullayev***
*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*
*+99890 956-95-93*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda mamlakatimizda so‘nggi yillarda rivojlanib borayotgan innovatsion siyosat ta’lim oldiga bir qancha vazifalarni yukla`yotganligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddatli rivojlanayotganligi tufayli ulardan foydalana olish xuddiki o‘qish va yozishni bilishdek muhim bo‘lgan savodxonlik belgisiga aylanib borayotganligi, ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib borayotganligi, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari olishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi ta’limni rivojlantirish, kadirlarni o‘qitish hamda ta’lim sifatini oshirish ifodalangan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, oliy, suniy intelekt, tarbiya, kadirlar, sifat, konsepsiya, milliy dastur, mutaxassis, jamiyat, professional faoliyat, o‘quv-tarbiya, g‘oya, ijtimoiy intellekt, madaniyat, tashabbus, ijodiy tafakkur, zamonaviy.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda rivojlanib borayotgan innovatsion siyosat ta’lim oldiga bir qancha vazifalarni yuklamoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddatli rivojlanayotganligi tufayli ulardan foydalana olish xuddiki o‘qish va yozishni bilishdek muhim bo‘lgan savodxonlik belgisiga aylanib bormoqda. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda талabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari olishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi[^2]. Jahonning rivojlangan davlatlarida, xususan AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreyaning rivojlanish

garovi bo‘lib inson omilini kuchaytirishga qaratilgan investitsiyalash, ya’ni inson salohiyati taraqqiyoti, xususan aholi ta’lim darajasining oshishi va yosh kadrlarning professional tayyorgarligi bilan belgilanadi. Mamlakat va mintaqalarning ustuvor iqtisodiy o‘sishini ta’minlashning yo‘li zamonaviy bosqichda aynan ta’lim sifatini oshirish sohasida topiladi[^3]. Ma’lumki, bugungi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida ta’lim paradigmasi o‘zgarib bormoqda. Osiyo ta’lim modeliga asosan o‘quv jarayoni nazariy bilimlar berishdan olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, axborot texnologiyalari asosida talabalarda mustaqil ta’lim olish malakalarini shakllantirishga qaratilmoqda[^4].

Zamonaviy talablar inobatga olingan holda, oliy o‘quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o‘quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri xisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida MDH davlatlari ichida birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida qat’iy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning amalga kiritilishi yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada ta’lim tizimi va mazmun - mohiyati bozor munosabatlari sharoitidan kelib chiqib takomillashtirildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, etuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda[^5]. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Prezidentimiz rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashning “O‘zbek modeli” hayotga tadbiq etilmoqda.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muasasalarini boshqarish soxasida xar bir raxbar xodimlar va professor-o‘qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o‘z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini bilishi lozim. Ushbu dasturda oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari jumladan: O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari xamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlari bayon etilgan. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, farmonlar, qarorlar va buyruqlar kabi normativ hujjatlar qo‘llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta’lim va tarbiya jarayonlarini sub’ektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jixatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu xolatlar oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslarini xar tomonlama nazariy va amaliy jixatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi[^6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori nafaqat xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish tizimini tubdan isloh qilish, balki umumiy o‘rta ta’lim muammolarini kompleks o‘rganish hamda ilmiy tahlil qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy etish kabi vazifalarni ham belgilab bergani bilan ahamiyatlidir. Bu, o‘z navbatida, ta’limda o‘zaro integratsiya jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot institutida xalq ta’limi tizimining turli muammolarini tahlil qilish bilan birga, O‘zbekistonning xalqaro ta’lim indeksini yuqoriga ko‘tarish uchun ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, ta’lim va tarbiya qushning ikki qanoti singari bo‘lib, uning bir qanotini sindirib, yuksak parvozga erishib bo‘lmaydi.

**Oliy ta’lim tizimida kadirlar tayyorlashni rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari qo‘yidagilardan iborat:**

Shu o‘rinda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalariga xorijiy mutaxassislarni jalb qilishni orqali ta’lim sifatini oshirish maqsadga muvoviq.

Misol uchun: 2017 – 2019 yillarda ta’lim jarayoniga 1 154 nafar xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (AQShdan 94 nafar, evropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafarjalb etilgan bo‘lsada, respublikaning oliy ta’lim muassasalarida xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo‘lga qo‘yish;

Oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish;

Respublika oliy ta’lim muassasalarini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, ularning rasmiy veb-saytlari Webometrics xalqaro reytingining 1 000 talik ro‘yxatiga kiritish[^7];

Kadirlarni ya’ni talabalarni iqtisodiy va ijtimoiy jixatdan extiyojini turar joylari hamda ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirish;

Oliy ta’lim tizimining rivojlanishi Konsepsiyada belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishini jadallashtirish;

Kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish;

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishni shakillantirish;

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

Kadirlarni tayyorlashda ularning bilimi, saviyasi, ularning mahoratlarini suniy intelekt yordamida baholash;

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;

Kadirlarni tayyorlashda korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish va ularda korrupsiyaga qarshi imunitetni xosil qilish.

**Yuqoridagilarga asoslanib yosh kadirlar o‘zlari** uchun bilim olishning o‘zi kifoya emasligini, olingan bilimni taraqqièt yo‘lida sarflashlari kerakligini tushunishlari, mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish uchun xizmat qilidi.

## Foydalangan adabiyotlar:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qonun// URL http://www.lex.uz

- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun// URL http://www.lex.uz

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qonun// URL http://www.lex.uz

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi[ qarori](https://lex.uz/docs/4415478) // URL [http://www.lex.uz](http://www.lex.uz/)

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847 sonli farmoni// URL http://www.lex.uz

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus ta’lim vazirligining «Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari moduli» bo‘yicha O‘quv – uslubiy majmuasi T-2017.

[^2]: Атаджанова С.Б. Абдурахмонова З.Ю. Рахманова С.А. Тошкент давлат транспорт университети “Инновациянинг таълим ва педагогик фаолиятдаги аҳамияти” "Теория и практика современной науки" №12(90) 2022

[^3]: T.Z.Teshaboev “Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot Texnologiyalari asosida takomillashtirish yo‘llari” “iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 3/2018 (№ 00035) www.iqtisodiyot.uz № 3, may-iyun, 2018 yil,

[^4]: T.Z.Teshaboev “Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish yo‘llari” “iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 3/2018 (№ 00035) www.iqtisodiyot.uz № 3, may-iyun, 2018 yil,

[^5]: O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonun// URL http://www.lex.uz

[^6]: O’zbekiston Respublikasi Oliy va O’rta Maxsus ta’lim vazirligining «Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari moduli» bo’yicha O’quv – uslubiy majmuasi T-2017

[^7]: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 sonli farmoni// URL http://www.lex.uz

# SUD HOKIMIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA “RAQAMLI SUD” KONSEPSIYASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

***S.S.Abdihakimov***
*Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston*
*[samandarabdihakimov86@gmail.com]*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hokimiyatlar bo‘linish prinsipida alohida o‘ringa ega bo‘lgan sud hokimiyatiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, sud tiziming samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt va raqamli texnalogiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Bu jarayonda “Raqamli sud” konsepsiyasini amalga oshirishning muhim jihatlari keltirilgan. Jumladan, ushbu maqolda sudga murojaat qilishni to‘liq elektronlashtirish, sud hujjatlari bilan elektron tarzda tanishish imkoniyatini yaratish, sud ishlarini sun’iy intellekt yordamida oldindan prognozlashtirish, sud xarajatlarini avtomatik tarzda hisoblash, sud hujjatlarini shakllantirishda raqamli texnalogiyalardan foydalanish istiqbollari, yutuqlari va kamchiliklari o‘rin olgan. Shuningdek, mazkur ustuvor vazifalarning tahlili orqali taklif, tavsiya va xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Raqamli sud” konsepsiyasi, sud hokimiyati, odil sudlov, protsessual huquq, qaror, bayonnoma, dalillar, isbotlash.

Sud hokimiyati hokimiyatlar bo‘linishida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda sud hokimiyati mustaqilligi va ochiqligini ta’minlash fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 23-bobi sud hokimiyati deb nomlanib, unda O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi hamda O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritishi kafolatlari belgilab qo‘yilgan [1]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun 1-moddasida ham yuqoridagi kabi norma mustahkamlab qo‘yilgan [2].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning har bir sohasiga kirib kelmoqda. Bu jarayondan sud hokimiyati ham mustasno emas, albatta. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish

darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonining qabul qilinishi ham ushbu yo‘ldagi asosiy qadamlardan biri hisoblanadi [3]. Ushbu farmon sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnalogiyalarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, raqamlashtirish ishlarini izchil davom ettirish, sudlarning moddiy-texnik ta’minotini yaxshilash, shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta’minlashni amalga oshirish yuzasidan bir nechta maqsadlar belgilab berilgan. Ushbu maqsadlardan biri sifatida esa sud ishlarini yuritishda qog‘oz shaklidan voz kechish maqsadida “Raqamli sud” konsepsiyasi asosida ishlarning yoritilishini bosqichma-bosqich to‘liq elektron shaklga o‘tkazish hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi, “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning tahlil, sintez, qiyosiy-huquqiy, tizimli yondashuv metodlaridan samarali foydalanildi. Tahlil va sintez metodlari yordamida “Raqamli sud” konsepsiyasining sud hokimiyati samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslantirildi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy metod orqali milliy va ayrim xorijiy tajribalar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlari tadqiq qilindi.

Sud tizimiga raqamli texnalogiyalarni joriy etish nafaqat odil sudlov samaradorligini oshirish, balki sudga murojaat qiluvchi fuqarolar va yuridik shaxslarning nizolashayotgan huquq va majburiyatlari yoki nizosiz talablarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun muhim hisoblanadi. Shu bois, sud tizimiga sun’iy intellekt (keyingi o‘rinlarda - SI) texnalogiyalarini joriy etishda quyidagicha muammolarni sanab o‘tish mumkin:

- birinchidan, barcha hududlarda texnik infratuzilmalarning yetarli emasligi, ya’ni olis hududlarda internet tezligi, server tizimlari va boshqa zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish imkoniyatidagi mavjud cheklovlar borligi;

- ikkinchidan, axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq xavflar, ya’ni elektron sud tizimida sudga murojaat qiluvchi subyektlarning

shaxsiy ma’lumotlari, sud hujjatlari va boshqa maxfiy axborotlarga nisbatan kiberhujumlar amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan holatlar;

- uchinchidan, aholi o‘rtasida raqamli savodxonlikning pastligi;
- to‘rtinchidan, elektron dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash bilan bog‘liq sud amaliyotidagi kamchiliklar.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda esa quyidagicha chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- sudlarni zamonaviy texnik vositalar bilan bosqichma-bosqich jihozlash ishlarini amalga oshirish;
- sud tizimida kuchli kiberxavfsizlik tizimlarini yo‘lga qo‘yish, ma’lumotlarni professional tarzda shifrlash tizimini ishlab chiqish hamda muntazam ravishda xavfsizlik monitoringlarini amalga oshirish;
- sud xodimlari uchun SI texnalogiyalari va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq maxsus o‘quv kurslarini joriy etish, shuningdek aholini huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bilan birgalikda zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini yaratish;
- elektron va raqamli dalillarni amaliyotda to‘plash, tekshirish va baholash bilan bog‘liq sud amaliyotini ishlab chiqish.

“Raqamli sud” konsepsiyasini amalga oshirishda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga qulaylik yaratish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish ustuvor maqsadlar sifatida belgilangan:

- sudga ariza berishdan oldin sun’iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sraflanadigan xarajatlarni shakllantirish;
- murojaatlar sudga elektron shaklda yuborilishi;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud binosiga tashrif buyurmasdan sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etish huquqini ishlab chiqish;
- taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga sud jarayonlarida ishga doir barcha materiallar bilan elektron shaklda tanishish imkoniyatini yaratish;
- sud xarajatlarni elektron shaklda hisoblash, to‘lash, shuningdek ijro varaqalarini avtomatik ravishda ijroga yuborish;
- sud ishlarini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda to‘liq elektron tarzda yuritish;
- sun’iy intellekt yordamida sud majlisi bayonnomalarini real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlash;
- sud hujjatlari loyihalarini avtomatik shakllantirish.

Sud tizimini raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnalogiyalarini joriy etishga oid mazkur yo‘nalishlar odil sudlov samaradorligini oshirish, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish hamda fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Odil sudlov deganda, qonunga va unga qat’iy tartibda rioya qilgan holda jinoyat, ma’muriy, fuqarolik va iqtisodiy ishlarini ko‘rib chiqish orqali turli nizolarni hal qilish tushuniladi [4]. Bu jarayondagi samaradorlik esa, albatta, ushbu nizolarni tez va tizimli yechim topish orqali amalga oshiriladi.

Sudga ariza berishdan oldin SI texnalogiyalari orqali taxminiy natijasini va sud jarayonidagi xarajatlarni aniqlash fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun holatni oldindan baholashiga, ortiqcha vaqt va mablag‘lar sarflanishining oldini olish imkonini beradi. Ammo, ushbu jarayon natijalari SI orqali aniqlangani hisobga olgan holda, faqatgina tavsiyaviy xarakterga ega ekanligini hamda sudya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar bilan almashtirib yubormaslik lozim. Chunki, protsessual qonunchilikda sudya ichki ishonchi masalasi muhim ahamiyatga ega. Sudya mavjud ish yuzasidan barcha dalillarni aniqlik, yetarlilik, ishonchlilik maqbullik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda o‘z ichki ishonchi orqali baholaydi va ushbu dalillardan sud qarorlarini qabul qilishda foydalanadi

Sudga murojaatlarni elektron shaklda yuborish va ishlarni to‘liq elektron tarzda yuritish sud tizimida ochiqlik va tezkorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu tizim ayniqsa uzoq hududlarda yashovchi va sud binosi joylashgan hududlarga kelish imkoniyati cheklanganlar uchun katta qulayliklarni yaratadi. Shuningdek, elektron sudlov tizimi byurokratik to‘siqlarni kamaytirishda, ish muddatlarini qisqartirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu muhim maqsadlarning ayrim elementlarini protsessual qonunchiliklarda aks etganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 4-moddasida [5], Iqtisodiy protsessual kodeksi 3-moddasida [6] hamda Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks 5-moddalarida [7] sudga murojaat va unga ilova qilingan hujjatlar elektron tarzda yuborilishi mumkin ekanligi belgilangan. Bu qoidalarga esa, albatta, “Raqamli sud” konsepsiyasini joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan normalar sifatida qarash mumkin. Chunki, raqamlashtirishni amalga oshirishda mavjud normalardan kelib chiqqan holda yangi qoidalarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ish materiallari bilan elektron tarzda tanishish imkoniyatining yaratilishi taraflarning tengligi va oshkoralik prinsipini mustahkamlaydi. Chunki, ushbu holatda taraflarga istalgan vaqtda ish hujjatlarini ko‘rib chiqish, dalillarni tahlil qilish hamda protsessual huquqlarini samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Ammo, elektron tizimlardan foydalanishda texnik savodxonlik ham muhim hisoblanadi. Texnik bilimlarning kamligi esa odil sudlovni raqamlashtirishni susaytirishi va uni keng miqyosda foydalanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

SI texnalogiyalari yordamida sud hujjatlarini shakllantirish, ularni yaratish sudda ortiqcha vaqt sarfini kamaytirib, aniqlikni oshishiga yordam beradi. Bu jarayonda esa, ayniqsa sud bayonnomalarini real vaqt rejimida shakllantirish keyinchalik sud qarorlarini qabul qilishda dalillar va isbotlash bilan bog‘liq holatlarni to‘g‘ri qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

Umumiy qilib aytganda, sud tizimiga SI va raqamli texnalogiyalarni joriy qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi. Ammo, bu jarayonda inson omilini to‘liq chetlashtirish emas, balki sud faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi mexanizm sifatida foydalanish va rivojlantirish lozim. Shu bois, raqamlashtirish jarayonida sudyaning mustaqilligi, taraflarning protsessual huquqlari, axborot xavfsizligi hamda shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligini ta’minlash ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 01.05.2023 // URL: https://lex.uz/docs/-6445145#-6445150

- O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni // 29.07.2021 // URL: [https://lex.uz/docs/-5534923](https://lex.uz/docs/-5534923)

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // 23.08.2025 // URL: [https://lex.uz/en/docs/-7696567](https://lex.uz/en/docs/-7696567)

- Rustamboyev M.H., To‘xtasheva U.A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar (Darslik). Toshkent davlat yuridik instituti. “ILM ZIYO” nashriyoti. - 2012-y. 721 b. 15-bet.

- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // 01.04.2018 // URL: [https://lex.uz/docs/-3517337](https://lex.uz/docs/-3517337)

- O‘zbekiston Respublikasi Itqisodiy protsessual kodeksi // 01.04.2018 // URL: [https://lex.uz/uz/docs/-3523891](https://lex.uz/uz/docs/-3523891
- O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks // 01.04.2018 // URL: [https://lex.uz/docs/-3527353](https://lex.uz/docs/-3527353)

# JINOIY JAVOBGARLIKNING ASOSLARI VA NAZARIY MUAMMOLARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO STANDARTLAR

***M.S.Narzullayeva***
*Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi,*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqida jinoiy javobgarlikning asosi sifatida jinoyat tarkibining nazariy va amaliy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Jinoiy javobgarlik tushunchasining tarixi, uning zamonaviy huquqshunoslikdagi talqinlari, qonuniylik va insonparvarlik prinsiplari bilan aloqasi tahlil qilinadi. Aybsizlik prezumpsiyasining jinoiy javobgarlikni aniqlashda tutgan o'rni, jinoyat tarkibining to'rtta elementi bo'yicha malakalash muammolari va sud amaliyotidagi kamchiliklar yoritiladi. Xalqaro huquq normalarining milliy jinoyat qonunchiligiga ta'siri o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** *jinoiy javobgarlik, jinoyat tarkibi, qonuniylik prinsipi, aybsizlik prezumpsiyasi, obektiv javobgarlik, malakalash, insonparvarlik, xalqaro standartlar.*

Jinoyat huquqida jinoiy javobgarlik masalasi har qanday demokratik huquqiy tizimning markazida turadi. Bu masalani to'g'ri yechish bir tomondan shaxs huquqlarini ixtiyoriy davlat ta'siridan himoya qilsa, ikkinchi tomondan jamiyatni jinoyatlarning salbiy oqibatlaridan muhofaza etadi. Shu sababli huquqshunoslar tomonidan jinoiy javobgarlikning asosi, uning kelib chiqishi va tugash bosqichlari to'g'risidagi bahslar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jinoyat qonunchiligi va sud tizimi katta islohatlarga uchradi; bu esa jinoiy javobgarlik institutini qaytadan nazariy jihatdan o'rganishni taqozo etdi.

Ushbu maqolaning maqsadi jinoiy javobgarlikning asoslarini, ayniqsa jinoyat tarkibiga asoslanish prinsipini O'zbekiston milliy qonunchiligi va xalqaro standartlar nuqtai nazaridan tahlil qilish, sud amaliyotidagi kamchiliklar va nazariy munozarali masalalarni

ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotda tahliliy, taqqosiy-huquqiy va tizimli metodlardan foydalanildi.

Jinoiy javobgarlik – bu jinoyat sodir etgan shaxsga davlat nomidan qo'llaniladigan eng qat'iy salbiy huquqiy baho bo'lib, u jinoyat-huquqiy munosabatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Huquqshunoslik fanida jinoiy javobgarlikni ta'riflashga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning muhim qismi jinoiy javobgarlik va jazo nisbatiga bag'ishlangan.

Ko'plab olimlar jinoiy javobgarlikni davlatning jinoyatchiga nisbatan salbiy munosabati, qoralash va zaruriy majburlov choralarining majmui sifatida ta'riflaydi. M. Rustamboyev o'zining fundamental asarida jinoiy javobgarlikni "jinoyat-huquqiy sanksiyani amalga oshirishning yuridik shakli" sifatida belgilaydi. Boshqa ilmiy yondashuvga ko'ra, jinoiy javobgarlik – davlatning jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan huquq va majburiyatlarining maxsus kombinatsiyasi bo'lib, unda davlatning jazolash huquqi va aybdorning jazolanish majburiyati birlashtirilib ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi nazariyasida jinoiy javobgarlikning uchta muhim belgisi an'anaviy ravishda ajratib ko'rsatiladi: birinchidan, u faqat jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi; ikkinchidan, u faqat davlat nomidan (sud hukmi bilan) belgilanadi; uchinchidan, u aybdor uchun muayyan huquqiy oqibatlar – xususan, sudlanganlik maqomini – keltirib chiqaradi. Jinoiy javobgarlik jazodan keng tushuncha bo'lib, u nafaqat jazo tayinlashni, balki ayblov hukmi chiqarishni ham o'z ichiga oladi, hatto shaxs jazodan ozod etilgan taqdirda ham.

Jinoiy javobgarlik boshqa huquqiy javobgarlik turlaridan (ma'muriy, fuqarolik, intizomiy) bir qator hal qiluvchi belgilarga ko'ra farqlanadi. Eng muhim farqli jihat – jinoiy javobgarlik faqat sud hukmi orqali belgilanadi va sudlanganlik maqomini keltirib chiqaradi. Ma'muriy va intizomiy javobgarlikda esa bunday qat'iy protsessual kafolatlar hamda oqibatlar mavjud emas. Shu sababli jinoiy javobgarlikka tortish uchun qonunchilik tomonidan o'rnatilgan asoslar va tartib-qoidalar nisbatan qat'iyroq va to'liqroq belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasiga binoan, jinoiy javobgarlikka tortishning yagona asosi jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha belgilarini o'z ichiga olgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishdir. Bu qoidaning qonunchilikda qat'iy mustahkamlanishi tasodif emas – u jinoyat huquqining ikkita fundamental

prinsipini bir vaqtda ta'minlaydi: qonuniylik prinsipi va obektiv javobgarlikni rad etish prinsipi.

Qonuniylik prinsipining lotincha ifodasiga ko'ra – "nullum crimen, nulla poena sine lege" (qonunda nazarda tutilmagan qilmish jinoyat emas) – shaxs faqat qonunda aniq belgilangan qilmishi uchun jazolanishi mumkin. Ushbu qoida XVIII asrdagi Yevropalik mutafakkirlar – Chezare Bekkaria, Charlz Monteske – ilgari surgan g'oyalarning huquqiy-texnik kodifikatsiyasidir. O'zbekiston jinoyat huquqida bu prinsip JK 4-moddasida alohida ko'rsatilgan.

Jinoyat tarkibisiz jinoiy javobgarlik kelib chiqishi mumkin emasligi qoidasining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tergov va sud organlari shaxsga jinoiy sifat berish uchun qilmishda to'rtta element – obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon – majmuasini to'liq aniqlashlari shart. Agar ushbu elementlardan birortasi isbotlanmasa yoki yetishmasa, qilmish jinoyat emas deb topiladi va jinoiy ish to'xtatiladi.

Jinoyat tarkibining obyekt elementi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan va jinoiy tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni anglatadi. U jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilab beruvchi asosiy mezon hisoblanadi. Masalan, bir xil qilmish (masalan, o'z-o'zidan qo'rquv tufayli birovni urish) turli obyektlarga – inson sog'lig'iga yoki mansabdor shaxsning faoliyatiga – qaratilganiga qarab turlicha malakalanishi mumkin.

Jinoyatning obyektiv tomoni – qilmishning tashqi tomondan namoyon bo'lishi bo'lib, ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik, oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanishni o'z ichiga oladi. Sud-tergov amaliyotida eng ko'p qiyin vaziyat keltirib chiqaradigan element aynan sababiy bog'lanishni aniqlashdir. Ba'zi hollarda shaxsning harakati bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasida boshqa omillar (uchinchi shaxsning xatti-harakati, jabrlanuvchining o'z noto'g'ri xulqi) aralashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Jinoiy javobgarlikning asoslarini muhokama qilganda aybsizlik prezumpsiyasi prinsipini alohida ko'rib o'tish lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq, hech kim sud hukmi bilan aybli deb topilmaguncha jinoyat sodir etishda aybdor deb hisoblanmaydi. Jinoiy protsessual qonunchilik esa bu prinsipni yanada batafsil belgilab beradi: aybni isbotlash majburiyati davlat organiga (prokurorga, tergovchiga) yuklanadi, shaxs o'z aybsizligini isbotlashga majbur emas.

Aybsizlik prezumpsiyasining jinoiy javobgarlik asosiga ta'siri ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, jinoyat tarkibini isbotlash yukini davlat zimmasiga yuklash orqali u shaxsni ixtiyoriy ta'sirdan himoya qiladi. Ikkinchidan, isbotlashda shubha mavjud bo'lganda bu shubha aybdorning foydasiga hal qilinishi ("in dubio pro reo" qoidasi) noto'g'ri mahkumlik ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Keyingi yillarda O'zbekiston sud amaliyotida oqlov hukmlarining salmog'i oshishi ham ushbu prinsipning amaliy amalga oshirilishini ko'rsatadi.

Biroq amaliyotda bir qator muammolar saqlanib kelmoqda. Xususan, ba'zi hollarda tergov bosqichida shaxsga nisbatan ommaviy axborot vositalarida jinoiy sifat berilishi ("ommaviy sudlanish") aybsizlik prezumpsiyasiga zid keladi. Bundan tashqari, ayblov xulosasida jinoyat tarkibining subyektiv tomoni – ayb shakli – yetarli darajada asoslanmay qolishi hollari ham kuzatilmoqda. Bu holat sudning o'z-o'zicha subyektiv tomonni to'ldirishiga olib kelishi mumkin, bu esa qonuniylik prinsipining buzilishini anglatadi.

BMTning "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro paktining 15-moddasi jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchiga ega emasligini – "nullum crimen sine lege praevia" – xalqaro miqyosda mustahkamlaydi. Ushbu xalqaro standart O'zbekiston jinoyat kodeksining 13-moddasida milliy qonunchilik darajasida ham ifodalangan bo'lib, jinoyat sodir etilgan vaqtdagi qonun qo'llanilishi prinsipini kafolatlaydi.

Yevropa Insonparvarlik sudining amaliyotida jinoiy javobgarlikning asoslari masalasi "Kokkinakis v. Gretsiya" (1993), "S.W. v. Buyuk Britaniya" (1995) kabi yirik ishlar orqali rivojlangan. Mazkur qarorlar jinoyat tarkibining qonunchilikda aniq va oldindan belgilangan bo'lish talabini mustahkamlagan. O'zbekiston ushbu xalqaro tizimga bevosita bog'liq bo'lmasada, xalqaro huquq standartlari jinoyat qonunchiligini rivojlantirishda qiyosiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

O'zbekiston mustaqillik yillarida jinoyat qonunchiligiga bir qancha muhim o'zgartirishlar kiritdi. 2001-yilda o'lim jazosiga moratoriy joriy etildi, 2008-yildan esa u to'liq bekor qilindi. Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligiga oid normalar BMTning Pekin qoidalari (1985) va Riyadh ko'rsatmalari (1990) asosida takomillashtirildi. Bu jarayonlar O'zbekiston jinoyat qonunchiligining xalqaro standartlarga izchil yaqinlashayotganini ko'rsatadi.

Jinoyat huquqi amaliyotida jinoiy javobgarlikning asosi bilan bog'liq bir nechta o'tkir muammo mavjud. Birinchi muammo – jinoyat tarkibining subyektiv tomonini, xususan ayb shaklini to'g'ri aniqlash.

Amaliyotda to'g'ri qasd va egri qasd, shuningdek egri qasd va jinoyiy o'z-o'ziga ishonish o'rtasida chegara o'tkazish ko'pincha qiyinlik tug'diradi. Bu esa noto'g'ri malakalashga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi muammo – jinoiy javobgarlikning milliy-huquqiy tizimda yuridik shaxslarga tatbiq etilish imkoniyatining yo'qligi. Korrupsiya, iqtisodiy va ekologik jinoyatlarda yuridik shaxslarning ishtiroki kuzatilmoqda, biroq O'zbekiston jinoyat qonunchiligi faqat jismoniy shaxslarni jinoiy javobgarlik subyekti deb hisoblaydi. Ingliya, Fransiya va Niderlandiya kabi davlatlarda yuridik shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi qiyosiy huquqiy tajriba sifatida muhokama qilishni taqozo etadi.

Uchinchi muammo – jinoiy javobgarlikning prescriptive muddatlarini (javobgarlikka tortish muddatlarini) belgilashda jinoyat og'irlik toifasining etarli darajada farqlanmasligi. Ba'zi hollarda og'ir jinoyatlarda ham muddatlar tugab qolishi tufayli jinoiy javobgarlikdan ozod etilish holatlari kuzatilmoqda. Bu masala ham jinoyat qonunchiligini takomillashtirish kun tartibida turibdi.

Jinoiy javobgarlikning asoslari masalasi huquqiy davlat qurilishining eng muhim poydevorlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlikning yagona asosi sifatida jinoyat tarkibiga asoslanish prinsipining mustahkamlanishi – bu nafaqat qonuniylik prinsipining, balki insonparvarlik va shaxs huquqlarini himoya qilish prinsiplarining ham izchil amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Ayni paytda amaliyotda bir qancha muammolar saqlanib kelmoqda: subyektiv tomonni to'g'ri aniqlash qiyinligi, yuridik shaxslar jinoiy javobgarligining yo'qligi, aybsizlik prezumpsiyasining ba’zan protsessual jihatdan qisman cheklangan holda amalga oshirilishi. Ushbu kamchiliklar jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlar asosida bosqichma-bosqich takomillashtirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoiy javobgarlikning mustahkam huquqiy asosi – jinoyat tarkibi – bir vaqtning o'zida ham shaxsni ixtiyoriy ta'sirdan, ham jamiyatni jinoyat oqibatlaridan himoya qiluvchi eng muhim huquqiy mexanizm sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda va bundan keyin ham saqlab qolishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi. URL: https://lex.uz/docs/35869

2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr. Rasmiy nashr. – Toshkent: Adolat, 2023.

3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 1994-yil 22-sentabr. – ɯToshkent: Adolat, 2022.

4. Rustamboyev M. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1-tom: Jinoyat haqida ta'limot. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018. – 456 b.

5. Kabuľov R., Otajonov A. va boshqalar. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – 512 b.

6. Tulyaganov A., Babadjanov D. Jinoyat tarkibi nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2020. – 280 b.

7. Ochilov H. Jinoiy javobgarlik muammolari. – Toshkent: Yurist, 2017. – 198 b.

8. Yoqubov A.S. Jinoyat huquqida afv va amnistiya institutlari. – Toshkent, 2018.

9. Kudryavtsev V.N. Obshchaya teoriya kvalifikatsii prestupleniy. – Moskva: Yurist, 2004. – 304 s.

10. Narzullayeva M.S. Jinoyat huquqi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Sarbon universiteti, 2026. – 96 b.

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 15-maydagi "Qasddan odam o'ldirish va unga suiqasd qilish to'g'risida"gi 12-sonli qarori. URL: https://lex.uz

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 3-apreldagi "Jinoyatda ishtirokchilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 9-sonli qarori. URL: https://lex.uz

13. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish" bo'yicha 1-sonli qarori. URL: https://lex.uz

14. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt. BMT Bosh Assambleyasi, 1966-yil 16-dekabr. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml

15. BMTning Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga doir minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari). 1985-yil. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/beijing_rules.shtml

16. Yevropa Insonparvarlik sudi. Kokkinakis v. Gretsiya, Ilova № 14307/88, 1993-yil 25-may. URL: https://hudoc.echr.coe.int

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi "Jinoyat va jinoiy protsessual qonunchilikni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son Qarori. URL: https://lex.uz

18. Inobatov O.N. Yurisprudentsiya: zamonaviy muammolar va istiqbollar. – Toshkent: TDYuU, 2023.

19. Grazhdanskoye obshchestvo i ugolovnoye pravo. Sbornik nauchnykh statey. – Moskva: Prospekt, 2021.

20. Hasanov E.A. Jinoyat-huquqiy javobgarlik va insonparvarlik prinsiplari. // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2022. – №3. – B. 45–52.

# СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВА ЮРИДИК ТАЪЛИМ ИНТЕГРАЦИЯСИ: ҲУҚУҚ ИЖОДКОРЛИГИ СИЁСАТИ НУҚТАИ НАЗАРИДАН

***Ф.Б.Эштурдиева***
*Президент ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти етакчи илмий ходими ва докторанти*
*e-mail: [farangizbahodirovna@gmail.com]*
*Тел: +998900106850*

**Аннотация:** Тезисда юридик таълим тизимида технологик саводхонлик, АИ билан ишлаш кўникмалари ва танқидий тафаккурни ривожлантириш ҳуқуқ ижодкорлиги сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида илгари сурилади.

**Калит сўзлар:** сунъий интеллект, юридик таълим, ҳуқуқ ижодкорлиги сиёсати, технологик компетенциялар, ҳуқуқий инновациялар.

Замонавий ҳуқуқий тизимлар, давлат бошқаруви ва юридик таълим ўзининг тарихий ва фундаментал бурилиш нуқтасида турибди. Сўнгги ўн йилликларда сунъий интеллект (СИ), табиий тилни қайта ишлаш (Natural Language Processing - NLP) ва машинавий ўқитиш (Machine Learning - ML) технологияларининг мисли кўрилмаган даражада жадал ривожланиши ҳуқуқшунослик касбининг нафақат амалий, балки академик ва назарий асосларини ҳам тубдан ўзгартирмоқда[1].

Ҳуқуқ ижодкорлиги сиёсати, қонун лойиҳаларини ишлаб чиқиш, уларнинг ижтимоий-иқтисодий таъсирини баҳолаш ва умумий адлия тизими жараёнлари анъанавий, фақат инсон ресурсларига ва кўп вақт талаб қилувчи мантиқий мушоҳадаларга асосланган ёндашувлардан кенг кўламли маълумотларга асосланган (data-driven) ҳамда автоматлаштирилган алгоритмик тизимларга

ўтмоқда. Ушбу чуқур трансформация жараёни дунёдаги барча юридик олий ўқув юртлари олдига бўлажак ҳуқуқшуносларни мутлақо янги технологик воқеликка тайёрлаш, уларда технологик компетентлик ва рақамли ҳуқуқ кўникмаларини шакллантиришдек ўта мураккаб вазифани кўндаланг қилиб қўймоқда.

Глобал миқёсда кузатилаётган ушбу технологик ва ҳуқуқий тенденциялар Ўзбекистон Республикасининг миллий ҳуқуқий тизими, норма ижодкорлиги сиёсати ва юридик таълим концепциясида ҳам ўз аксини топмоқда. Хусусан, 2025 ва 2026 йиллар оралиғида Ўзбекистонда сунъий интеллектни ҳуқуқий тартибга солиш, адлия органлари фаолиятини рақамлаштириш ва юридик таълимни жаҳон стандартларига мослаштириш борасида қатор инқилобий стратегик ҳужжатлар қабул қилинди. 2026 йил 21 январда кучга кирган сунъий интеллектдан фойдаланиш бўйича илк қонунчилик тузатишлари[2], шунингдек, Тошкент давлат юридик университети (ТДЮУ) фаолиятини тубдан такомиллаштиришга қаратилган 2025 йил 26 ноябрдаги ПФ-232-сонли Президент Фармони[4] мамлакатда ҳуқуқ ва технология интеграциясининг янги, институционал босқичини бошлаб берди.

Сунъий интеллектнинг ҳуқуқ соҳасидаги эволюцияси дастлабки эксперт тизимлардан бошланиб, бугунги кунда мураккаб генератив моделларгача бўлган узоқ йўлни босиб ўтди. 2024 йилги статистик маълумотларга кўра, сунъий интеллектнинг глобал бозори 184 миллиард АҚШ долларидан ошди ва бу кўрсаткичнинг барча соҳалар, шу жумладан, ҳуқуқий хизматлар секторидаги улуши геометрик прогрессия асосида ўсиб бормоқда[6]. Ҳуқуқ соҳасида генератив сунъий интеллект (Generative AI) технологиялари эндиликда индивидуал экспериментлар даражасидан йирик юридик корпорацияларнинг кундалик институционал тизимлари даражасига кўтарилди.

| **Кўрсаткич тури** | **2023 йил ҳолати** | **2024/2025 йиллар ҳолати** | **Асосий хусусиятлари ва изоҳлар** |
|---|---|---|---|
| **Юристларнинг СИдан индивидуал фойдаланиши** | 27% | 31% | Ҳуқуқшунослар кундалик иш жараёнларида (масалан, хатларни ёзиш ёки дастлабки таҳлиллар учун) мустақил равишда |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | СИдан фойдаланиш даражасини оширган[7]. |
| **Йирик юридик фирмаларда СИни расмий жорий этиш** | 24% | 21% (йирик фирмаларда 39%) | Этика, маълумотлар хавфсизлиги ва "галлюцинация" хавфи туфайли фирмаларда СИни расмий тасдиқлаш бироз секинлашган бўлса-да, 51 дан ортиқ юристи бор фирмаларда бу кўрсаткич 39% га етган[7]. |
| **Истеъмолчиларнинг (мижозларнинг) СИдан мустақил фойдаланиши** | Маълум от чекланган | 14% (амалда), 43% (келажакда) | Мижозлар юристларга мурожаат қилишдан олдин ўз ҳуқуқий муаммоларини СИ орқали ҳал қилишга уринмоқда. Бунда миллениаллар (26%) ва Z авлоди (23%) фаоллик кўрсатмоқда[8]. |
| **Мижозларнинг СИдан фойдаланиш бўйича шаффофлик талаби** | Маълум от чекланган | 78% мижозлар талаб қилади | Мижозларнинг аксарияти юристнинг СИдан фойдаланганини билишини хоҳлайди, бироқ юристларнинг 35% и буни камдан-кам ҳолларда ошкор қилади[8]. |

2025 йилги технологик тенденциялар таҳлили шуни кўрсатадики, сунъий интеллект эндиликда алоҳида, мустақил платформа эмас, балки юристларнинг кундалик иш қуролларига ва тизимларига интеграция қилинган "кўринмас" ёрдамчига (invisible assistant) айланмоқда[9]. Юридик ҳужжатларни бошқариш тизимларининг янги авлоди (DMS 2.0) юридик жамоаларга мавжуд контентни бошқа платформаларга кўчирмасдан туриб, бевосита

ўзларининг одатий иш муҳитида СИ имкониятларидан максимал фойдаланиш имконини бермоқда.

Шартномаларни тузиш, уларнинг хавф-хатарларини таҳлил қилиш, юридик ҳужжатларни автоматлаштирилган тарзда яратиш (automated legal drafting) ва электрон дискавери (e-discovery) каби мураккаб жараёнларда AI.Law, CoCounsel ва Harvey каби тизимлар минглаб саҳифалик ҳужжатларни саноқли дақиқаларда қайта ишлаш орқали ҳуқуқшуносларга стратегик ва интеллектуал талабчан вазифаларга диққат қаратиш имконини бермоқда[10].

Масалан, CoCounsel каби илғор тизимлар 2000 саҳифалик мураккаб полиция ҳисоботлари, стенограммалар ва гувоҳларнинг кўрсатмаларини шунчаки ўқиш ёки қидириш билан чекланмай, уларни мантиқий талқин қила олиши, яширин алоқаларни топиши ва воқеалар хронологиясини 7 дақиқа ичида бенуқсон яратиб бериши ҳуқуқий хизматлар сифатини оширишдаги чинакам "ўйин қоидаларини ўзгартирувчи" (game-changer) омил сифатида баҳоланмоқда[10].

Шунингдек, юқори ҳажмли судлов жараёнларида (high-volume litigation) СИ тизимлари шикоятларга жавоб ёзиш учун сарфланадиган анъанавий 16 соатлик вақтни 3-4 дақиқагача қисқартириб, меҳнат унумдорлигини 100 баробаргача оширгани амалиётда ўз тасдиғини топди[13].

Хулоса ўрнида, бундай технологик силжишлар юридик фирмалардан янги технологияларни сотиб олишни эмас, балки ушбу воситалар билан ишлай оладиган, СИ промптларини (буйруқларини) тўғри туза оладиган ва унинг натижаларини танқидий баҳолай оладиган янги авлод юристларини тарбиялашни талаб қилмоқда.

**Фойдаланган адабиётлар:**

- The Evolving Role of Artificial Intelligence in Legal Education and Research | Law and world. URL: [https://lawandworld.ge/index.php/law/article/view/677](https://lawandworld.ge/index.php/law/article/view/677

- Uzbekistan adopts first AI-focused amendments to information and administrative laws, URL: [https://www.dentons.com/ru/insights/articles/2026/january/29/uzbekistan-adopts-first-ai-focused-amendments-to-information-and-administrative-laws](https://www.dentons.com/ru/insights/articles/2026/january/29/uzb

ekistan-adopts-first-ai-focused-amendments-to-information-and-administrative-laws)

- Uzbekistan Adopts New Law to Regulate Artificial Intelligence Use Across Sectors - BABL AI, URL: [https://babl.ai/uzbekistan-adopts-new-law-to-regulate-artificial-intelligence-use-across-sectors/](https://babl.ai/uzbekistan-adopts-new-law-to-regulate-artificial-intelligence-use-across-sectors/)

- About measures for further reforming of legal education and science in the Republic of Uzbekistan - CIS Legislation, URL: [https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=173699](https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=173699)

- Yuridik ta'lim va ilm-fanda yangi davr boshlanmoqda - Yuz.uz, URL: [https://yuz.uz/uz/news/yuridik-talim-va-ilm-fanda-yangi-davr-boshlanmoqda](https://yuz.uz/uz/news/yuridik-talim-va-ilm-fanda-yangi-davr-boshlanmoqda)

- AI Trends From 2024 and Outlook on 2025 | Barclay Damon, URL: [https://www.barclaydamon.com/blog-post/ai-trends-from-2024-and-outlook-on-2025](https://www.barclaydamon.com/blog-post/ai-trends-from-2024-and-outlook-on-2025)

- The Legal Industry Report 2025 - American Bar Association, URL: [https://www.americanbar.org/groups/law_practice/resources/law-technology-today/2025/the-legal-industry-report-2025/](https://www.americanbar.org/groups/law_practice/resources/law-technology-today/2025/the-legal-industry-report-2025/)

- 2025 Clio Legal Trends Report Outlines Firms' Tech and AI Use - 2Civility, URL: [https://www.2civility.org/2025-clio-legal-trends-report/](https://www.2civility.org/2025-clio-legal-trends-report/)

- AI-Driven Legal Tech Trends for 2025 - NetDocuments, URL: [https://www.netdocuments.com/blog/ai-driven-legal-tech-trends-for-2025/](https://www.netdocuments.com/blog/ai-driven-legal-tech-trends-for-2025/)

- Trusted legal AI tools to power research, drafting, and analysis, URL: [https://legal.thomsonreuters.com/blog/legal-ai-tools-essential-for-attorneys/](https://legal.thomsonreuters.com/blog/legal-ai-tools-essential-for-attorneys/)

- AI.Law Transforms Legal Drafting with Speed, Accuracy, and Efficiency, URL: [https://www.americanbar.org/groups/law_practice/resources/law-technology-today/2025/ai-law-

techshow/](https://www.americanbar.org/groups/law_practice/resources/law-technology-today/2025/ai-law-techshow/)

- Artificial Intelligence in Legal Practice - Benefits Considerations and Best Practices - DRI, URL: [https://www.dri.org/docs/default-source/dri-white-papers-and-reports/ai-legal-practice.pdf](https://www.dri.org/docs/default-source/dri-white-papers-and-reports/ai-legal-practice.pdf)

- The Impact of Artificial Intelligence on Law Firms' Business Models, URL: [https://clp.law.harvard.edu/knowledge-hub/insights/the-impact-of-artificial-intelligence-on-law-law-firms-business-models/](https://clp.law.harvard.edu/knowledge-hub/insights/the-impact-of-artificial-intelligence-on-law-law-firms-business-models/)

- Legal technology trends for 2026: Shaping the future of law firms | LawPay, URL: [https://www.lawpay.com/about/blog/legal-technology-trends/](https://www.lawpay.com/about/blog/legal-technology-trends/)

# ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND HUMAN RIGHTS: LEGAL IMPLICATIONS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN LAW ENFORCEMENT PRACTICE

***A.Ochilboev***
*PhD student, Károli Gáspár Reformed University*
*aochilboev@gmail.com*
*+998950247001*

**Abstract.** *This article looks at how artificial intelligence affects human rights in the legal field. It discusses the legal side of algorithmic decision-making, privacy, fair trial rights, and protection against discrimination in connection with AI use. The study argues that stronger safeguards for human rights are needed as AI tools become more common in law enforcement and legal practice.*

## Introduction

Over the last decade, artificial intelligence has changed how legal systems work in many countries. Courts in different parts of the world now use software tools to manage cases, assess risks, and even help with making decisions. These tools can save time and make processes more uniform. But they also bring serious concerns about basic human rights. When a computer program helps decide whether someone goes to prison

or gets released on bail, we need to ask hard questions about fairness, privacy, and accountability.

This article looks at the main areas where AI and human rights overlap in legal practice. It focuses on four key issues: privacy, the right to a fair trial, discrimination, and the ability to challenge decisions. The goal is not to argue against using technology in law, but to show where the risks lie and what steps are needed to keep human rights protected.

This topic matters a great deal for Uzbekistan right now. The Presidential Decree PF-232 and PF-140 call for deep reforms in legal education and science, including the use of modern technologies in legal practice and digital courts. As the country moves toward digital governance, it is important to understand how AI tools can affect people's rights, so that lawmakers and judges can use these tools responsibly.

One of the most important uses of AI in law is automated decision-making. In some countries, police use software to predict where crimes might happen. Courts use tools to estimate how likely it is that a person will commit another crime. These programs are supposed to be neutral and fair because they rely on data, not personal opinions. But that is not always the case. According to "Anthropic" theoretically AI could use in legal sector about 90% however now the legal workers using AI only 20% [2].

The problem is that algorithms learn from past data. If that data contains bias for example, if certain ethnic groups were arrested more often in the past, not because they committed more crimes but because of unfair policing then the algorithm will repeat those same patterns. A well-known example is the COMPAS system used in the United States. Researchers found that this tool gave higher risk scores to Black defendants than to white defendants who had similar backgrounds [1]. This kind of outcome goes against the basic principle of equal treatment, which is protected by Article 7 of the Universal Declaration of Human Rights.

There is another problem too. Many AI systems work like a "black box" they give a result, but nobody can clearly explain how they reached it. When a judge uses such a tool to make a sentencing decision, the defendant may not be able to understand or challenge the reasons behind that decision. Sourdin points out that we need to look carefully at whether these tools match the basic requirements of good judicial practice, including the duty to give clear and understandable reasons for every decision [3].

Privacy is probably the right that faces the biggest threat from AI. Facial recognition cameras, large-scale data collection, and tracking software allow governments to watch people more closely than ever before. When a camera in a public square can identify every person who walks by, it changes the whole relationship between citizens and the state.

International law is clear on this point. Article 17 of the International Covenant on Civil and Political Rights says that no one should be subjected to arbitrary interference with their privacy. But in practice, many countries have not updated their laws to deal with the new kinds of surveillance that AI makes possible. Even the European Union's General Data Protection Regulation, which is one of the strictest data protection laws in the world, struggles to cover all the risks that come with AI-based profiling.

Quintavalla and Temperman have written that every stage of an AI system from collecting data to training the model to using it in real life creates different risks for human rights, and privacy is at stake throughout [4]. Think about facial recognition at a public protest. Even if the government says it is using the cameras to prevent crime, many people will feel afraid to attend, because they know they are being watched. This "chilling effect" can silently destroy freedoms of assembly and expression without any law being officially changed.

For Uzbekistan, which is building its digital systems now, these experiences from other countries are very useful. It is much easier to design privacy protections into the system from the beginning than to try to fix problems after they appear. This approach is often called "privacy by design," and it should be a core part of any AI strategy.

The right to a fair trial is one of the oldest and most important human rights. Article 14 of the International Covenant on Civil and Political Rights lists several requirements: the court must be independent, the judge must be impartial, the accused is presumed innocent until proven guilty, and both sides must have a real chance to present their case. When AI enters the courtroom, each of these requirements comes under pressure.

Tang describes the idea of a "smart court" where technology handles filing, scheduling, hearings, and even parts of the decision-making process [5]. In theory, this sounds efficient. But what happens when a judge follows an AI recommendation without fully checking it? In that situation, the real decision is being made by a machine a machine that cannot be questioned in court, cannot explain itself in plain language, and cannot be held responsible if it is wrong.

This is not just a theoretical worry. There have been cases where judges admitted that they did not fully understand how the algorithmic tool they used actually worked. If the judge does not understand the basis of the recommendation, how can the defendant challenge it? The right to know why a decision was made and to argue against it is a fundamental part of what makes a trial fair.

Online hearings create additional difficulties. Not everyone has a good internet connection or knows how to use digital platforms well. If courts move proceedings online without making sure that all parties can participate equally, the result is a system where some people get better justice than others, simply because of their access to technology.

At its core, AI works by putting people into categories and making predictions based on patterns in data. This is useful in many fields. But when the data reflects old prejudices whether about race, gender, disability, or income the algorithm will carry those prejudices forward. It will look scientific and objective, but it will actually be repeating the same unfairness that existed before, just in a new form.

We already have many examples of this. AI tools used in hiring have been shown to give lower scores to women. Credit scoring systems have penalized people simply because of where they live. In healthcare, algorithms have given less attention to minority patients. In the legal context, the consequences are even more serious. If a biased tool is used to decide whether someone stays in jail or goes free, the person's liberty depends not on their own actions but on statistical patterns drawn from other people's behavior.

Fixing this problem is not simple. Technical measures like bias testing and fairness checks are helpful, but they are not enough on their own. The law also needs to step in. There should be clear rules about who is responsible when an algorithm produces a discriminatory result. People should have the right to challenge automated decisions that affect their lives. The European Union's AI Act, which was adopted in 2024, takes a step in this direction by dividing AI systems into risk categories and setting strict rules for those used in justice and law enforcement [6].

When someone's rights are violated, they should be able to get a remedy that is a basic rule of human rights law. Article 2(3) of the International Covenant on Civil and Political Rights says that states must make sure people can get effective relief. But when the violation involves an AI system, this becomes very complicated.

Imagine a person who is denied bail because an algorithm gave them a high risk score. Who is to blame? The company that built the software? The government agency that bought it? The judge who followed the recommendation without looking deeper into it? Because so many different actors are involved, it is hard to point to one responsible party. Traditional legal rules about liability were designed for situations where one person or organization causes harm. They do not work well when the harm comes from a chain of decisions made partly by humans and partly by machines.

Some scholars have suggested creating special oversight bodies that would regularly check AI systems used in public decision-making. Others argue for mandatory transparency rules, so that people can at least understand how an automated system reached its conclusion [7]. Whatever approach a country chooses, the basic principle should stay the same: no one should be left without a way to fight back when a machine-assisted decision violates their rights.

Uzbekistan is at an important turning point. The country is reforming its legal system and at the same time pushing to adopt digital technologies in governance. This creates both opportunities and dangers. AI tools could help solve real problems  long court delays, uneven application of the law, and limited access to legal help in remote areas. But if these tools are introduced without proper attention to human rights, they could create new kinds of injustice that are harder to see and harder to challenge.

Based on the issues discussed above, several practical steps seem necessary. First, before any AI tool is used in the justice system, there should be a careful assessment of how it might affect privacy, fairness, and equal treatment. Second, law schools should teach future lawyers and judges how to evaluate and question algorithmic tools, not just accept their outputs. Third, Uzbekistan should develop clear legal rules for AI use in public decision-making, learning from international examples like the EU AI Act and the Council of Europe’s work on AI and human rights.

People also need to know when an AI system has been involved in a decision that affects them, and they need a real way to challenge that decision. Transparency and human oversight are not obstacles to progress. They are what makes progress safe and fair.

AI can do a lot of good in the legal field. It can speed up processes, reduce costs, and help courts handle more cases. But as this article has tried to show, these benefits come with real risks. Biased algorithms can

make discrimination worse. Opaque decision-making can undermine fair trials. Mass surveillance can eat away at privacy. And when things go wrong, people may have no clear way to hold anyone accountable.

The task for any legal system, including Uzbekistan's, is to find the right balance. Technology should help people, not replace the careful human judgment that justice requires. This means investing in legal education, building proper oversight mechanisms, and keeping human rights at the center of every decision about how AI is used in law. The conversation between lawyers, technologists, and policymakers needs to continue, because getting this balance right is one of the defining challenges of our time.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Angwin J., Larson J., Mattu S., Kirchner L. Machine Bias: There's Software Used Across the Country to Predict Future Criminals. And It's Biased Against Blacks // ProPublica. – 2016. – May 23.

2. Sourdin T. Judges, Technology and Artificial Intelligence: The Artificial Judge. – Edward Elgar Publishing. – 2021.

3. https://www.anthropic.com/research/labor-market-impacts

4. Quintavalla A., Temperman J. (eds.) Artificial Intelligence and Human Rights. – Oxford University Press. – 2023.

5. Tang Z.S. Smart Court: The Court of the Future. – Cambridge University Press. – 2025.

6. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024. Rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act).

7. Molbæk-Steensig H., Quemy A. Artificial Intelligence and Fair Trial Rights // Artificial Intelligence and Human Rights / eds. A. Quintavalla, J. Temperman. – Oxford University Press. – 2023. – P. 265–280.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-sonli "O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni.

9. De Heer S. Artificial Intelligence and the Right to an Effective Remedy // Artificial Intelligence and Human Rights / eds. A. Quintavalla, J. Temperman. – Oxford University Press. – 2023. – P. 294–310.

10. Golunova V. Artificial Intelligence and the Right to Liberty and Security // Artificial Intelligence and Human Rights / eds. A. Quintavalla, J. Temperman. – Oxford University Press. – 2023. – P. 45–60.

11. Zornetta A., Cofone I. Artificial Intelligence and the Right to Privacy // Artificial Intelligence and Human Rights / eds. A. Quintavalla, J. Temperman. – Oxford University Press. – 2023. – P. 121–135.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

## YURIDIK ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

***С.А.Ишанходжаев***
*А. Авлоний номидаги*
*Педагогик маҳорат миллий институтининг*
*“Таълим менежменти” кафедраси в.б.,*
*доценти*
*Тел: (90) 976 14 76*
*E-mail: ishanxodjayevsaidaxmad@gmail.com*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada yuridik ilm-fanning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Xususan, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, xalqaro huquqiy integratsiya va fanlararo yondashuvlar asosida huquq tizimining transformatsiyasi ochib beriladi. Shuningdek, mavjud muammolar tanqidiy yondashuv asosida ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Yuridik ilm-fan tarixan normativ tizimni izohlash va huquqiy qoidalarni tizimlashtirishga yo‘naltirilgan bilimlar majmui sifatida shakllangan. Klassik yuridik paradigma doirasida u asosan mavjud qonunlarni sharhlash, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda huquqiy institutlarning formal-tashkiliy tuzilishini tahlil qilish bilan chegaralangan edi [1]. Ushbu bosqichda huquqiy fan “statik normativ tizim” sifatida talqin qilinib, uning asosiy vazifasi huquq normalarini mantiqiy tizimga solish va huquqiy aniqlikni ta’minlashdan iborat bo‘lgan.

Biroq XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuz bergan global transformatsiyalar – iqtisodiy integratsiya, raqamli texnologiyalar rivoji, transmilliy huquqiy institutlarning kuchayishi hamda davlat boshqaruvining murakkablashuvi – yuridik fanning metodologik va funksional doirasini tubdan kengaytirdi [2]. Natijada yuridik ilm-fan endi

faqat normativ sharhlovchi fan emas, balki ijtimoiy jarayonlarni tartibga soluvchi va bashorat qiluvchi kompleks ilmiy tizimga aylandi.

Hozirgi bosqichda yuridik ilm-fan quyidagi asosiy ilmiy tendensiyalar asosida rivojlanmoqda:

1. Dinamik rivojlanish

Huquqiy tizimlar jamiyatdagi tez o‘zgaruvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga moslashib boradi. Bu holat huquqning “moslashuvchan tizim” sifatidagi rolini kuchaytiradi. Normativ o‘zgarishlar endi faqat reaktiv emas, balki proaktiv xarakterga ham ega bo‘lib bormoqda [3].

2. Global integratsiya

Milliy huquq tizimlari xalqaro huquq normalari, transmilliy standartlar va global institutlar bilan tobora chuqur uyg‘unlashmoqda. Bu jarayon huquqiy suverenitet va xalqaro majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ilmiy tahlil qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda [4].

3. Kompleks (interdisipliner) yondashuv

Zamonaviy yuridik fan endi mustaqil yopiq tizim emas, balki iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan ilmiy soha sifatida rivojlanmoqda. Huquqiy qarorlar va normativ hujjatlar ijtimoiy ta’sir nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilinmoqda [5].

4. Innovatsion metodologiya

Huquqiy tadqiqotlarda empirik yondashuv, statistik tahlil, big data texnologiyalari va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Bu esa yuridik ilm-fanni an’anaviy “doktrinal fan”dan “data-driven legal science” bosqichiga olib chiqmoqda [6].

5. Prognostik (bashorat qiluvchi) funksiya

Zamonaviy yuridik fan nafaqat mavjud huquqni tahlil qiladi, balki huquqiy jarayonlarning kelajakdagi rivojlanishini ham ilmiy asosda prognoz qiladi. Bu esa normativ siyosatni shakllantirishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi [7].

6. Regulyativ va ijtimoiy optimizatsiya funksiyasi

Yuridik fan normativ tizimlarni optimallashtirish, huquqiy islohotlarni asoslash hamda qonunchilik samaradorligini baholashda muhim rol o‘ynamoqda. Shu orqali huquq jamiyatni boshqarishning strategik instrumentiga aylanmoqda [8].

Raqamlashtirish jarayoni zamonaviy huquqiy tizimlarning transformatsiyasini tezlashtirmoqda. Elektron hukumat, raqamli davlat xizmatlari va onlayn sud tizimlarining joriy etilishi huquqni qo‘llash

samaradorligini sezilarli darajada oshirib, huquqiy xizmatlarning ochiqligi va tezkorligini ta’minlamoqda [9]. Shu bilan birga, raqamli muhit huquqning yangi institutlari va tarmoqlarini shakllantirishga sabab bo‘lmoqda.

Raqamli huquq quyidagi asosiy tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi: elektron sudlov (e-justice); raqamli identifikatsiya tizimlari; shaxsiy va institutsional ma’lumotlarni himoya qilish huquqi; kiberhuquq (cyber law).

Raqamlashtirish huquqiy tizim samaradorligini oshiruvchi muhim omil bo‘lsa-da, u bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Ijobiy jihatlar: huquqiy jarayonlarning tezkorligi;davlat xizmatlarida shaffoflikning oshishi; boshqaruv va nazorat tizimlarining samaradorligi. Salbiy jihatlar: kiberxavfsizlikka oid tahdidlarning kuchayishi; raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi; aholining raqamli tenglik darajasidagi tafovutlar (digital divide).

Sun’iy intellekt (SI) yuridik faoliyatni tubdan o‘zgartiruvchi asosiy texnologik omillardan biri hisoblanadi. U huquqiy tahlil jarayonlarini avtomatlashtirish, sud qarorlarini prognozlash hamda huquqiy xizmatlarni optimallashtirish imkonini bermoqda [10]. Shu asosda “AI-driven legal system” konsepsiyasi shakllanmoqda.

Biroq sun’iy intellektning huquqiy tizimga integratsiyasi bir qator muammolarni yuzaga keltiradi:algoritmik adolatsizlik (algorithmic bias); qaror qabul qilish jarayonining yetarli darajada shaffof emasligi; huquqiy javobgarlik subyektini aniqlash murakkabligi. Shu sababli, sun’iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Globallashuv jarayonlari natijasida milliy huquq tizimlari xalqaro huquq normalari bilan tobora chuqur integratsiyalashmoqda [11]. Bu jarayon quyidagi asosiy tendensiyalar bilan tavsiflanadi:xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka keng tatbiq etilishi; global muammolarni (iqlim o‘zgarishi, migratsiya, kiberxavfsizlik) birgalikda hal qilish mexanizmlarining rivojlanishi; transmilliy institutlar va hamkorlik tizimlarining kuchayishi.

Zamonaviy yuridik ilm-fan tobora ko‘proq interdisipliner xarakter kasb etmoqda. Huquq quyidagi fanlar bilan integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda: iqtisodiyot → iqtisodiy huquq (law & economics); axborot texnologiyalari → kiberhuquq va LegalTech; sotsiologiya → huquqiy xulq-atvor va ijtimoiy nazorat.

Bunday yondashuv huquqiy hodisalarni yanada chuqur, tizimli va kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

6. Tanqidiy tahlil va muammolar

Zamonaviy yuridik tizim bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda: nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutning saqlanib qolishi; innovatsion yondashuvlarning yetarli darajada joriy etilmasligi; huquqiy ta’lim tizimining zamonaviy talablar bilan moslashmaganligi; ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarining sustligi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi: LegalTech ekotizimini keng rivojlantirish; sun’iy intellektdan foydalanishni huquqiy tartibga solish; huquqiy ta’limni raqamli transformatsiya asosida modernizatsiya qilish; xalqaro ilmiy va amaliy hamkorlikni kengaytirish.

## Adabiyotlar ro‘yxati:


*1. Hart H.L.A.* The Concept of Law. *Oxford: Oxford University Press, 1961. – 262 p.*

*2. Kelsen H.* Pure Theory of Law. *Berkeley: University of California Press, 1967. – 356 p.*

*3. Cotterrell R.* Law, Culture and Society. *London: Ashgate, 2006. – 280 p.*

*4. Slaughter A.-M.* A New World Order. *Princeton: Princeton University Press, 2004. – 312 p.*

*5. Treviño A.* Sociological Approaches to Law. *London: Routledge, 2013. – 245 p.*

*6. Susskind R.* Online Courts and the Future of Justice. *Oxford: Oxford University Press, 2019. – 304 p*

*7. Katsh E., Rabinovich-Einy O.* Digital Justice. *Oxford: Oxford University Press, 2017. – 288 p.*

*8. Posner R.* Economic Analysis of Law. *New York: Aspen Publishers, 2014. – 480 p*

9. European Commission. e-Justice in the European Union: Digital Transformation of Justice Systems.Brussels: European Commission, 2022.pp. 15–28.

10. Russell, S., Norvig, P.Artificial Intelligence: A Modern Approach.

4th ed. Pearson, 2021. pp. 842–860.

11. Slaughter, A.-M.A New World Order.Princeton University Press, 2004.pp. 67–89.

# СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ТУШУНЧАСИ ВА ТУРЛАРИ

***М.Ў.Хасанов***
*Ўзбекистон Республикаси*
*Фанлар академияси*
*Давлат ва ҳуқуқ институтининг*
*катта илмий ходими*
*Электрон почта манзили: state_ma@bk.ru*
*Телефон рақами: +998980777273*

**Аннотация.** Мазкур мақолада сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар тушунчаси, уларнинг асосий кўринишлари ва ҳуқуқий баҳолаш муаммолари таҳлил қилинган. Сунъий интеллект иштирокида содир этиладиган ҳуқуқбузарликлар тор ва кенг маънода талқин қилиниб, алгоритмик дискриминация, автоном тизимлар орқали зарар етказиш, шахсий маълумотларни ноқонуний қайта ишлаш, кибермanипуляция ва deepfake технологиялари билан боғлиқ хавфлар ёритилган. Шунингдек, мазкур қилмишларни квалификация қилишда ҳуқуқбузарлик субъекти, сабабий боғланиш, айб шакли ва исботлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган. Хулоса қисмида миллий қонунчиликни такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари баён этилган.

**Калит сўзлар:** сунъий интеллект, ҳуқуқбузарлик, алгоритмик дискриминация, автоном тизим, шахсий маълумотлар, deepfake, кибермanипуляция, ҳуқуқий жавобгарлик.

Сўнгги йилларда сунъий интеллект технологияларининг давлат бошқаруви, молия, тиббиёт, таълим, транспорт, ахборот алмашинуви ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш соҳаларига кенг жорий этилиши ҳуқуқ назарияси ва амалиёти олдига мутлақо янги вазифаларни қўймоқда. Ўзбекистонда ҳам сунъий интеллектни ривожлантиришга доир стратегик ёндашув шакллантирилган, шунингдек айрим давлат органлари фаолиятига роботлаштирилган ва интеллектуал технологияларни жорий этишнинг ҳуқуқий асослари яратилмоқда [1], [2]. Миллий доктринада мазкур соҳадаги муносабатларни анъанавий ва кечиккан тарзда эмас, балки илгарилаб борувчи ҳуқуқий моделлар орқали тартибга солиш зарурлиги таъкидланади [3].

Сунъий интеллектнинг амалиётга жадал кириб келиши унинг ижобий имкониятлари билан бир қаторда янги ҳуқуқий хавфларни ҳам юзага келтирмоқда. Хусусан, автоматлаштирилган қарор қабул қилиш, катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлаш, биометрик кузатув, генератив контент яратиш ва автоном қурилмалар фаолияти

инсон ҳуқуқлари, жамоат хавфсизлиги, шахсий ҳаёт дахлсизлиги ва ахборот хавфсизлиги билан боғлиқ жиддий саволларни кун тартибига олиб чиқди. Шу боис сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни мустақил илмий-ҳуқуқий категория сифатида тадқиқ этиш бугунги кунда долзарб аҳамият касб этади.

Ҳуқуқшуносликда “сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарлик” тушунчасини тор ва кенг маънода англаш мумкин. Тор маънода бу тушунча сунъий интеллектдан восита сифатида фойдаланиб содир этиладиган ғайриқонуний қилмишларни англатади. Масалан, deepfake ёрдамида товламачилик қилиш, алгоритм орқали фирибгарлик содир этиш, автоматлаштирилган профайлинг воситасида шахсий маълумотларни ноқонуний қайта ишлаш шулар жумласидандир. Кенг маънода эса мазкур тушунча сунъий интеллект тизимларини яратиш, ўқитиш, жорий этиш, назорат қилиш ва қўллаш жараёнида қонунчилик талабларини бузиш, шунингдек автоном ёки ярим автоном қарор қабул қилиш натижасида шахс, жамият ва давлат манфаатларига зарар етказиш ҳолатларини ҳам қамраб олади [4], [5], [6].

Шу нуқтаи назардан, сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар деганда сунъий интеллект технологияларини ишлаб чиқиш, ўқитиш, жорий этиш ёки қўллаш жараёнида ёхуд улар ёрдамида содир этилиб, инсон қадри, тенглик, шахсий ҳаёт дахлсизлиги, ахборот хавфсизлиги, мулк, жамоат хавфсизлиги ва одил судлов манфаатларига тажовуз қилувчи, ҳуқуқий тартиб томонидан тақиқланган айбли қилмишлар йиғиндиси тушунилиши лозим [6], [7]. Бундай ёндашув сунъий интеллектни мустақил жиноят субъекти деб тан олмасдан туриб ҳам, унинг иштирокида вужудга келадиган хавфларни тўғри ҳуқуқий баҳолаш имконини беради.

Сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг энг мураккаб ва кўп ҳолларда яширин намоён бўладиган турларидан бири алгоритмик дискриминациядир. Бу ҳолат одатда дастур кодидаги очиқ дискриминацион қоидалар орқали эмас, балки таълим маълумотларидаги тарихий нотенгликлар, маълумот тўплашдаги бирёқламалик, прокси-ўзгарувчилар ва моделнинг ношаффофлиги орқали шаклланади. Солон Барокас ва Эндрю Зелбст катта маълумотларга асосланган тизимлар ташқи жиҳатдан бетараф кўринса ҳам, амалда муайян ижтимоий гуруҳлар учун салбий ва номутаносиб натижалар келтириб чиқариши мумкинлигини асослаб

берган [8]. Сандра Вахтер, Брент Миттельштадт ва Крис Рассел эса алгоритмик адолатни фақат техник формулалар билан таъминлаб бўлмаслигини, чунки ҳуқуқий маънодаги тенглик ҳамиша ижтимоий контекст билан боғлиқ эканини таъкидлайдилар [9].

Алгоритмик дискриминациянинг хавфи шундаки, у кредит бериш, ишга қабул қилиш, таълим муассасаларига қабул, суғурта, жиноятчилик хавфини баҳолаш ва ижтимоий ёрдам ажратиш каби соҳаларда кенг кўламда салбий оқибатларга олиб келиши мумкин. Бундай вазиятларда ҳуқуқбузарлик тезда кўзга ташланмаслиги, аммо унинг таъсири жуда кенг бўлиши мумкин. Шу боис алгоритмик дискриминацияни аниқлашда техник аудит билан бирга ҳуқуқий тестлар, контекстуал таҳлил ва оқибатларни баҳолаш усулларини ҳам қўллаш талаб этилади. Европа Иттифоқининг AI Act ҳужжати ҳамда Европа Кенгашининг сунъий интеллект бўйича рамкавий конвенцияси мазкур хавфни техник нуқсон эмас, балки инсон ҳуқуқлари билан боғлиқ ҳуқуқий муаммо сифатида баҳолайди [10], [11].

Сунъий интеллект асосидаги автоном ва ярим автоном тизимлар орқали зарар етказиш ҳам ҳуқуқ назариясидаги энг баҳсли йўналишлардан биридир. Бу ерда муаммо фақат дастурий носозлик билан чекланмайди. Алгоритмнинг ташқи муҳит билан ўзаро таъсири, машинанинг ўзгарувчан шароитга мослашиши, таълим маълумотларининг нуқсонлилиги, инсон назоратининг етарли эмаслиги ва қарор қабул қилиш занжирининг кўп босқичлилиги ҳуқуқий баҳони мураккаблаштиради. Райан Кало робототехника соҳасидаги асосий муаммолардан бири сифатида жисмоний зарарнинг олдиндан тўлиқ башорат қилиб бўлмаслигини ва роботнинг ҳам восита, ҳам ҳаракатланувчи объект хусусиятига эга бўлишини кўрсатади [5]

Миллий илмий қарашларда ҳам “электрон шахс” концепциясини ҳуқуқий амалиётга татбиқ этишдан кўра, хавфсизлик устуворлиги, технологик нейтраллик ва аниқ жавобгарлик механизмларини белгилаш муҳимроқ экани қайд этилади [6]. Шу боис бу ерда асосий савол “сунъий интеллект жавобгар бўладими?” эмас, балки “автоном тизим орқали юзага келган зарар учун қайси субъект қандай ҳуқуқий асосда жавобгар бўлади?” деган масаладир. Ишлаб чиқувчи, буюртмачи, оператор, жорий этувчи субъект, техник хизмат кўрсатувчи ва бевосита фойдаланувчи ўртасида

жавобгарликни аниқ тақсимлаш мазкур соҳадаги асосий шартлардан биридир [6], [7].

Автоном тизимлар орқали зарар етказилган ҳолатларда жиноят-ҳуқуқий баҳо бериш учун бир қатор мезонлар муҳим аҳамиятга эга. Жумладан, зарар оқибатини олдиндан кўриш имконияти бўлганми, алгоритмни тўхтатиш ёки чеклаш мумкин бўлганми, хавфли режимда тизимни жорий этишга йўл қўйилганми, носозлик ҳақидаги огоҳлантиришларга етарлича эътибор берилганми, деган саволларга жавоб топиш зарур [4], [5]. Агар автоном тизим қасддан жиноий мақсадда ишлатилган бўлса, у ҳолда сунъий интеллект жиноят воситаси сифатида баҳоланади ва жавобгарлик тўлиқ инсон зиммасига юклатилади.

Сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг яна бир муҳим гуруҳи шахсий маълумотларни ноқонуний йиғиш ва қайта ишлаш билан боғлиқ қилмишлардир. Замонавий AI тизимлари биометрик маълумотлар, геолокация, хулқ-атвор кўрсаткичлари, мулоқот излари ва бошқа рақамли маълумотлар билан ишлаши туфайли мазкур соҳадаги ҳуқуқбузарликлар жуда кенг тарқалмоқда [14]. Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги Қонунида маълумотлар базаси фақат қайта ишлаш мақсади учун зарур ва етарли бўлган маълумотлардан шакллантирилиши лозимлиги мустаҳкамланган [14]. Шунингдек, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг $46^2$-моддаси ҳамда Жиноят кодексининг $141^2$-моддаси мазкур соҳадаги қонунбузарликлар учун жавобгарликни назарда тутади [15], [16].

Хорижий ҳуқуқда ҳам мазкур масалага жиддий эътибор қаратилган. GDPR’нинг 22-моддаси шахсни ҳуқуқий ёки унга тенг аҳамиятга эга бўлган оқибатлар келтириб чиқарувчи, фақат автоматлаштирилган қайта ишлашга асосланган қарорга дучор этилмаслик ҳуқуқи билан таъминлайди [17]. Бу норма сунъий интеллект асосида қабул қилинган қарорларга инсон томонидан қайта баҳо бериш кафолатини мустаҳкамлайди. Демак, сунъий интеллект контекстида шахсий маълумотларга оид ҳуқуқбузарликларда фақат маълумотнинг тарқатилиши эмас, балки унинг ноқонуний қайта ишланиши натижасида шахснинг ҳуқуқий мақоми, имкониятлари ёки ижтимоий ҳолатига салбий таъсир кўрсатилиши ҳам ҳуқуқий жиҳатдан баҳоланиши лозим [11], [17].

Киберманипуляция ва deepfake технологиялари ҳам сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг энг хавфли

кўринишларидан саналади. Deepfake сунъий интеллект ёрдамида яратилган ёки манипуляция қилинган, ҳақиқатга жуда яқин тасвир, аудио ёки видео контентни англатади. Бундай технологиялар инсонни айтмаган гапини айтгандек ёки қилмаган ишини қилгандек кўрсатиш имконини бериши билан хавфлидир [19]. Бу эса шахсий ҳаёт, шаън ва қадр-қиммат, сиёсий жараёнлар, миллий хавфсизлик ва ахборот муҳити барқарорлигига жиддий таҳдид туғдиради.

AI Act ҳужжати deepfake контентни яратувчи ёки тарқатувчи субъектларга унинг сунъий яратилгани ҳақида ошкор этиш мажбуриятини юклайди [10]. NIST эса генератив AI оммавий миқёсда дезинформация, мисинформация, фирибгарлик ва шахсга тақлид қилиш хавфини кескин оширишини қайд этади [18]. Ф. Фазиловнинг таъкидлашича, deepfake'ларга қарши самарали ҳуқуқий сиёсат фақат янги жиноят таркибини киритиш билан чекланмасдан, аниқ ҳуқуқий таърифлар, криминалистик экспертиза, халқаро ҳамкорлик ва ҳуқуқий-маърифий чораларни ҳам ўз ичига олиши лозим [20]. Чунки deepfake ҳар доим ҳам мустақил жиноят таркибини талаб қилмайди; айрим ҳолатларда у товламачилик, фирибгарлик, туҳмат, шахсий ҳаётга тажовуз ёки ёлғон ахборот тарқатишнинг усули сифатида намоён бўлади [10], [19], [20].

Сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни квалификация қилишда бир қатор умумий муаммолар ҳам мавжуд. Биринчидан, ҳуқуқбузарлик субъекти масаласи долзарб бўлиб, амалда ҳеч бир миллий ёки халқаро ҳуқуқий режим сунъий интеллектни мустақил жиноят субъекти сифатида тан олмаган [6]. Иккинчидан, сабабий боғланишни исботлаш мураккаб, чунки зарар кўп босқичли технологик жараён натижасида юзага келади [5]. Учинчидан, айб шаклини белгилаш қийин, зеро зарар қасд, эҳтиётсизлик ёки назорат мажбуриятини бузиш натижаси бўлиши мумкин. Тўртинчидан, рақамли далилларни йиғиш, сақлаш ва баҳолашнинг процессуал стандартларини такомиллаштириш талаб этилади [11], [20].

Шундан келиб чиқиб, сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни қуйидаги асосий гуруҳларга ажратиш мумкин: алгоритмик дискриминацияга олиб келувчи ҳуқуқбузарликлар; автоном ёки ярим автоном тизимлар орқали ҳаёт, соғлиқ ва мулкка зарар етказиш билан боғлиқ қилмишлар; шахсий маълумотларни ноқонуний йиғиш ва қайта ишлашга оид ҳуқуқбузарликлар; кибермanипуляция, deepfake, синтетик контент ва ижтимоий

инженериянинг AI асосидаги шакллари; шунингдек, бир вақтнинг ўзида бир нечта ҳуқуқий объектга тажовуз қилувчи гибрид ҳуқуқбузарликлар [19].

Хулоса қилиб айтганда, сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар анъанавий ҳуқуқбузарликларнинг шунчаки янги техник кўриниши эмас, балки ҳуқуқ назарияси, жиноят ҳуқуқи, ахборот ҳуқуқи ва инсон ҳуқуқлари кесишмасида шаклланаётган мураккаб комплекс ҳодисадир [8]–[11], [18]–[20]. Алгоритмик дискриминация тенглик тамойилига путур етказади, автоном тизимлар орқали зарар етказиш жавобгарлик ва сабабий боғланиш масалаларини мураккаблаштиради, шахсий маълумотларни ноқонуний қайта ишлаш инсон автономияси ва дахлсизлигига таҳдид солади, кибермanипуляция ва deepfake эса ҳақиқатга бўлган ишончни сусайтиради.

Шу боис миллий қонунчилик олдидаги асосий вазифа сунъий интеллектни чеклаш эмас, балки унинг ижобий салоҳиятини сақлаган ҳолда хавфларини ҳуқуқий жиҳатдан тўғри бошқаришдан иборат. Бунинг учун, биринчидан, юқори хавфли AI тизимлари учун мажбурий аудит, журналлаштириш ва таъсир баҳолаш механизмларини жорий этиш; иккинчидан, автоматик қарорлар устидан шикоят қилиш ва инсон томонидан қайта кўриб чиқиш кафолатларини кучайтириш; учинчидан, deepfake ва кибермanипуляцияга қарши ҳуқуқий ҳамда криминалистик воситаларни ривожлантириш; тўртинчидан, миллий қонунчиликни халқаро стандартлар билан уйғунлаштириш зарур. Фақат шундагина сунъий интеллектнинг ижтимоий фойдали имкониятлари сақланган ҳолда, унинг салбий ҳуқуқий оқибатларининг олдини олиш мумкин бўлади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 октябрдаги “Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ПҚ-358-сон қарори.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 апрелдаги “Ички ишлар органлари тизимини рақамли трансформация қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-155-сон қарори.

[3] С.Гулямов, И. Рустамбеков, О. Нарзиев, А.Худайберганов “Проект концепции Республики Узбекистан в области развития искусственного интеллекта на 2021–2030 годы”. Юриспруденция: ҲУҚУҚИЙ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ. 2021-йил,1-сон, б. 106-121

[4] Thomas C. King, Nikita Aggarwal, Mariarosaria Taddeo Luciano Floridi “Artificial Intelligence Crime: An Interdisciplinary Analysis of Foreseeable Threats and Solutions” Received: 10 April 2018 / Accepted: 16 December 2018

[5] Ryan Calo “Robotics and the Lessons of Cyberlaw” California Law Review, Vol. 103, No. 3, pp. 513-63 (2015)

[6] Н.Иноятов “Сунъий интеллект ва автоном транспорт воситалари: рақамли даврда ҳуқуқ субйектлилиги масалалари”. Юриспруденция: ҲУҚУҚИЙ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ. 2025 йил,5 сон, б. 38-48.

[7] Р.Иноятов “Тергов ва суд органларида коррупцйага қарши курашишда сунъий интеллектдан самарали восита сифатида фойдаланиш истиқболлари: назарий ва амалий жиҳатлари”. Юриспруденция: ҲУҚУҚИЙ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ. 2025 йил,5 сон, б. 96-101.

[8] Solon Barocas, Andrew D. Selbst “Big Data’s Disparate Impact”

[9] Sandra Wachter, Brent Mittelstadt, Chris Russell “WHY FAIRNESS CANNOT BE AUTOMATED: BRIDGING THE GAP BETWEEN EU NON-DISCRIMINATION LAW AND AI”

[10] REGULATION (EU) 2024/1689 OF THE EUROPEAN PARLIAMENT AND OF THE COUNCIL (of 13 June 2024) laying down harmonised rules on artificial intelligence and amending Regulations (EC) No 300/2008, (EU) No 167/2013, (EU) No 168/2013, (EU) 2018/858, (EU) 2018/1139 and (EU) 2019/2144 and Directives 2014/90/EU, (EU) 2016/797 and (EU) 2020/1828 (Artificial Intelligence Act) (Text with EEA relevance). [https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj/eng](https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj/eng)

[11] [https://rm.coe.int/1680afae3c](https://rm.coe.int/1680afae3c)

[12] С.Бозаров “Жаҳонда ва Ўзбекистон Республикасида сунъий интеллектни ривожлантириш стратегияси ва истиқболлари: қиёсий таҳлил”. Юриспруденция: ҲУҚУҚИЙ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛИ. 2021 йил,3 сон, б. 33-45.

13] Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 15 апрелдаги “Киберхавфсизлик тўғрисида” ЎРҚ-764-сон Қонуни

[14] Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 июлдаги “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида” ЎРҚ-547-сон Қонуни

[15] Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси

[16] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси

[17] [https://gdpr-info.eu/art-22-gdpr/](https://gdpr-info.eu/art-22-gdpr/)

[18] [https://nvlpubs.nist.gov/nistpubs/ai/NIST.AI.600-1.pdf](https://nvlpubs.nist.gov/nistpubs/ai/NIST.AI.600-1.pdf)

19] [https://scholarship.law.bu.edu/faculty_scholarship/640/](https://scholarship.law.bu.edu/faculty_scholarship/640/)

[20] [https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/4124](https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/4124)

# РАҚАМЛАШТИРИШ ДАВРИДА ИСТЕЪМОЛЧИЛАРНИ АДОЛАТСИЗ ТИЖОРАТ АМАЛИЁТЛАРИДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ

***А.Ш.Сафарова***
*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги*
*Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти*
*бош илмий ходими*
*[safarovaadiba95@gmail.com]*
*(mailto:safarovaadiba95@gmail.com)*
*+998955571901*

**Аннотация.** Мазкур мақолада истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизимида адолатсиз тижорат амалиётларини ҳуқуқий тартибга солишнинг назарий ва амалий жиҳатлари таҳлил қилинади. Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида мазкур институтнинг ҳуқуқий асослари ўрганилиб, хорижий тажриба, хусусан Европа Иттифоқи давлатларида амалда бўлган ҳуқуқий механизмлар билан қиёсий таҳлил амалга оширилади. Тадқиқот натижасида миллий қонунчиликни такомиллаштиришга қаратилган илмий-амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилади.

**Калит сўзлар:** *адолатсиз тижорат амалиётлари, истеъмолчилар ҳуқуқлари, рақобат ҳуқуқи, Unfair Commercial Practices Directive, чалғитувчи амалиётлар, тажовузкор амалиётлар*

Замонавий бозор иқтисодиёти шароитида тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланиши, рақамли савдо платформалари ва маркетинг усулларининг кенгайиши истеъмолчи билан тадбиркор ўртасидаги муносабатларни сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқди. Бу жараён, бир томондан, бозорда танлов имкониятларини кенгайтирса, иккинчи томондан, истеъмолчиларни чалғитувчи, алдамчи ёки агрессив тижорат амалиётлари қўлланилиши хавфини ҳам оширмоқда. Айниқса, истеъмолчининг иқтисодий қарор қабул қилиш эркинлигига салбий таъсир кўрсатувчи **адолатсиз тижорат амалиётлари** (**unfair commercial practices**) бозор муносабатларининг барқарорлиги ва адолатлилигига жиддий таҳдид солади.

Адолатсиз тижорат амалиётлари нафақат **истеъмолчилар манфаатларига** зарар етказади, балки бозорда соғлом **рақобат муҳитининг шаклланишига** ҳам салбий таъсир кўрсатади. Чунки истеъмолчини алдаш ёки унга ноқонуний босим ўтказиш орқали иқтисодий устунликка эришган тадбиркорлар адолатли ва ҳалол фаолият юритаётган бозор иштирокчилари учун тенг бўлмаган шароитларни вужудга келтиради [1]. Шу маънода, адолатсиз тижорат амалиётларини тартибга солиш нафақат истеъмолчиларни ҳимоя қилиш воситаси, балки бозор муносабатларида адолат ва ишончни таъминлашнинг муҳим ҳуқуқий кафолати сифатида намоён бўлади

Халқаро ҳуқуқ амалиёти, хусусан **Европа Иттифоқи ҳуқуқида**, адолатсиз тижорат амалиётларини **мустақил ҳуқуқий институт** сифатида тартибга солиш истеъмолчининг иқтисодий хулқ-атворини ҳимоя қилишга қаратилган самарали механизм сифатида шаклланган. Ушбу ёндашувда асосий эътибор тадбиркор фаолиятининг натижасига эмас, балки истеъмолчининг қарор қабул қилиш жараёнига таъсир кўрсатувчи усул ва амалиётларга қаратилади. Масалан, сохта чегирмалар, маҳсулот хусусиятлари ҳақида ёлғон маълумот, яширин тўловлар, агрессив савдо усуллари (қўрқитиш, босим), “бепул” деб эълон қилиб, кейин тўлов талаб қилиш ва шу кабилар. Бу эса истеъмолчи ҳуқуқларини ҳимоя қилишда профилактик ва превентив механизмларни жорий этиш имконини беради.

Европа Иттифоқида адолатсиз тижорат амалиётлари **EU Unfair Commercial Practices Directive (2005/29/EC)** билан тартибга солинади [2]. Мазкур Директива фақат **тадбиркор ва истеъмолчи**

**(B2C)** муносабатларига нисбатан қўлланилади ҳамда истеъмолчилар ҳуқуқлари доирасини рақобат ҳуқуқидан концептуал жиҳатдан фарқлайди.

**EU Unfair Commercial Practices Directive (2005/29/EC)** – 2005 йил 11 майда European Union томонидан қабул қилинган бўлиб, истеъмолчиларни ноҳақ тижорат амалиётларидан ҳимоя қилиш ва ички бозорда ягона ҳуқуқий ёндашувни таъминлашга қаратилган. Директива бизнес ва истеъмолчи ўртасидаги муносабатларни тартибга солади ҳамда шартнома тузишдан олдинги, тузиш жараёнидаги ва ундан кейинги тижорат хатти-ҳаракатларни қамраб олади

Директивага кўра, тижорат амалиёти, агар у профессионал эҳтиёткорлик талабларига зид бўлса ва ўртача истеъмолчининг иқтисодий қарор қабул қилишига сезиларли таъсир кўрсатса ёки шундай таъсир кўрсатиши мумкин бўлса, адолатсиз деб топилади. Бу ерда "**ўртача истеъмолчи**" мезони асосий баҳолаш стандарти сифатида қўлланилади. **Ўртача истеъмолчи** деганда, у етарлича хабардор, эътиборли ва эҳтиёткор истеъмолчи сифатида тасаввур қилинади. Бу реал шахс эмас, балки ҳуқуқий баҳолаш учун қўлланиладиган абстракт стандартдир [3].

Ҳужжат ноҳақ амалиётларни икки асосий турга ажратади:

- **Чалғитувчи амалиётлар** – ёлғон ёки нотўғри маълумот бериш, маҳсулотнинг хусусиятлари, нархи ёки келиб чиқиши ҳақида истеъмолчини адаштириш, шунингдек муҳим маълумотни яшириш;
- **Тажовузкор амалиётлар** – босим ўтказиш, мажбурлаш ёки ҳаддан ташқари таъсир орқали истеъмолчининг эркин танловини чеклаш.

Директива иловасида "black list" ("қора рўйхат") 31 та амалиёт келтирилган бўлиб, улар ҳар қандай ҳолатда ноҳақ деб эътироф этилади. Масалан, товарни "бепул" деб реклама қилиб, аслида мажбурий тўлов талаб қилиш ёки пирамида шаклидаги савдо схемаларини ташкил этиш шулар жумласидандир.

Мазкур Директива "максимал уйғунлаштириш" тамойилига асосланади. Яъни, аъзо давлатлар истеъмолчиларни ҳимоя қилиш соҳасида Директивада белгиланган даражадан четга чиқувчи қоидаларни жорий эта олмайди (айрим истиснолар бундан мустасно). Бу эса ЕИ ички бозорида ҳуқуқий барқарорлик ва тадбиркорлар учун тенг рақобат шароитини таъминлайди. Умуман олганда, Directive 2005/29/EC истеъмолчиларни ҳимоя қилиш

соҳасида ягона стандартларни шакллантирган, “ўртача истеъмолчи” концепцияси ва “қора рўйхат” механизми орқали ҳуқуқни қўллаш амалиётига аниқлик киритган муҳим норматив ҳужжат ҳисобланади.

Шунга ўхшаш қоидалар Европанинг бошқа мамлакатлари қонунчилигида ҳам мавжуд. Масалан, Буюк Британиянинг 2008 йилдаги «**Адолатсиз савдо амалиётларидан истеъмолчиларни ҳимоя қилиш қоидалари**» (The Consumer Protection from Unfair Trading Regulations 2008), Италия Истеъмолчилар кодексининг 20–26-моддаларида шундай нормалар мустаҳкамланган.

Ўзбекистон шароитида эса **адолатсиз тижорат амалиётлари** алоҳида **ҳуқуқий институт** сифатида **тизимлаштирилмаган** бўлиб, ушбу муносабатлар **фуқаролик ҳуқуқи, рақобат ва реклама қонунчилиги** нормалари орқали тарқоқ ҳолда тартибга солинади.

Масалан, **Фуқаролик кодексига** кўра, фуқаролик ҳуқуқий муносабатлари иштирокчиларининг **ҳалол, оқилона ва адолат** билан ҳаракат қилиши назарда тутилади [4]. Бу талаб умумий ҳуқуқий принцип бўлиб, тузиладиган ҳар қандай шартномалар учун мажбурийдир. “**Рақобат тўғрисида**”ги қонуннинг 21-моддаси ҳам бир нечта турдаги **инсофсиз рақобатни**, шу жумладан, товарнинг хусусияти, ишлаб чиқарилиш усули ва жойи, истеъмол хоссалари, нархи ва сифати, ишлаб чиқарувчининг (бажарувчининг) кафолат мажбуриятлари хусусида истеъмолчиларни чалғитишни **тақиқлайди [5].** Ушбу қонун истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилишни эмас, бу орқали рақобатни тартибга солишни мақсад қилади. Яъни, рақобат ҳуқуқи, энг аввало, **тадбиркорлар ўртасидаги (B2B) муносабатларни** тартибга солишга қаратилган. Унинг асосий вазифаси – бозорда соғлом рақобат муҳитини сақлаш, монополлашув, келишилган ҳаракатлар (картеллар) ва устун мавқени суиистеъмол қилиш каби ҳолатларнинг олдини олишдир. Шу маънода рақобат ҳуқуқи бевосита истеъмолчи билан эмас, балки бозор иштирокчилари ўртасидаги иқтисодий муносабатлар билан боғлиқ.

Шу билан бирга, айрим ҳолларда рақобат ҳуқуқи **истеъмолчилар манфаатига ҳам дахлдор** бўлиши мумкин. Масалан, агар тадбиркор истеъмолчиларни чалғитиш, ёлғон ёки нотўғри маълумот тарқатиш орқали ўз рақобатчисидан устунликка эришишга ҳаракат қилса, бу ҳолат бир вақтнинг ўзида ҳам рақобатга, ҳам истеъмолчилар ҳуқуқларига таъсир кўрсатади. Бундай вазиятда чалғитиш – истеъмолчига нисбатан адолатсиз амалиёт бўлса, унинг

мақсади рақобатчига зарар етказиш ёки бозорда устунликка эришиш бўлгани учун рақобат ҳуқуқи доирасига ҳам тушиши мумкин.

Бироқ, назарий ва ҳуқуқий жиҳатдан қараганда, рақобат ҳуқуқи ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш **мустақил ҳуқуқий институтлардир**. Улар мақсад ва тартибга солиш объекти бўйича фарқ қилади:

- **Рақобат ҳуқуқи** – бозор тузилиши ва тадбиркорлар ўртасидаги муносабатларни ҳимоя қилади, унинг объекти рақобат жараёнининг ўзи.

- **Истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ҳуқуқи** – истеъмолчининг иқтисодий манфаатлари, ахборот олиш ҳуқуқи ва адолатли шартлар асосида хизмат ёки товар сотиб олиш имкониятини таъминлайди, унинг объекти – истеъмолчининг шахсий манфаатидир. Шундай қилиб, рақобат ҳуқуқи "бозорда адолатли ўйин қоидалари"ни таъминлашга хизмат қилса, истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш "истеъмолчига нисбатан адолат"ни таъминлайди. Уларнинг ўзаро боғлиқлиги мавжуд бўлсада, ҳуқуқий табиати ва тартибга солиш предмети жиҳатидан улар бир-биридан фарқ қилади.

Шунингдек, "**Реклама тўғрисида"ги** қонуннинг 16-моддасига кўра, реклама товар тўғрисидаги, уни олиш ёки ундан фойдаланиш шартлари ҳақидаги муҳим маълумотларни яшириш ва (ёки) ўқиш учун фарқлаб олишни қийинлаштирадиган қилиб тасвирлаш, агар бунда ахборотнинг мазмуни бузиб кўрсатилса ва рекламадан фойдаланувчиларни чалғитса, **тақиқланади [6]**. Бундан ташқари, Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 13 февралдаги 75-сонли қарори билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасида чакана савдо қоидаларида** истеъмолчилар ҳуқуқлари билан боғлиқ савдо қоидаларини бузиш турлари санаб ўтилган. Гарчи ушбу ҳаракатлар савдо қоидаларини бузиш деб ҳисоблансада, булар мазмунан истеъмолчилар ҳуқуқларини бузувчи адолатсиз тижорат амалиётларига ўхшайди.

Бундай қоидабузарликлар нархларни асоссиз равишда ошириш; товарлар, маҳсулотларни нотўғри ўлчаш, нотўғри тортиш ёки хизматлар кўрсатмаслик; рағбатлантирувчи акция ва чегирмалар қўллаш бўйича талабларни бузиш; товарлар, маҳсулотларни (хизматларни) чек (квитанция, счёт) бермасдан сотиш; харидорга товарнинг сифати, бутлиги, ўлчами, оғирлигини текшириш имконияти яратишдан бош тортиш; харидорга узоқ муддат

фойдаланиладиган сифати, ёмон товарни таъмирлаш ёки алмаштириш даврида яхши сифатли ана шундай товарни беришдан бош тортиш; пластик карточкалардан фойдаланилган тўловни қабул қилишдан бош тортиш каби ҳаракатларни ўз ичига олади [7].

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда адолатсиз тижорат амалиётларининг **тарқоқ ва қисман** тартибга солиниши, истеъмолчи–тадбиркор муносабатлари **ягона концепция** асосида эмас, балки алоҳида нормалар орқали тартибга солиниши ҳуқуқни қўллаш амалиётида муайян ноаниқликларга, шунингдек, адолатсиз тижорат амалиётларини рақобатга қарши ҳаракатлар билан адаштириш ҳолатларига олиб келиши мумкин. Шу сабабли мазкур соҳани концептуал жиҳатдан таҳлил қилиш, унинг ҳуқуқий табиати ва тартибга солиш механизмларини аниқ белгилаш долзарб аҳамият касб этади.

Шу нуқтаи назардан, миллий қонунчиликни рақобат ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга алоҳида ёндашувларни ҳисобга олган ҳолда кўриб чиқиш, “Истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунида адолатсиз тижорат амалиётларини алоҳида институт сифатида тартибга солиш таклиф этилади. Ушбу тавсиялар истеъмолчи ҳуқуқларини мустаҳкам ҳимоя қилиш, бозорда шаффофлик ва ишончни таъминлаш, шунингдек, миллий қонунчиликни халқаро ҳуқуқ стандартларига яқинлаштиришга хизмат қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

- UNCTAD secretariat, Consumer Protection in Electronic Commerce: Note by the UNCTAD Secretariat (Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2017), 5.

- Directive 2005/29/EC of the European Parliament and of the Council of 11 May 2005 Concerning Unfair Business-to-Consumer Commercial Practices in the Internal Market (Unfair Commercial Practices Directive), Declaration, Clause 8.

- Geraint Howells, Hans-W. Micklitz, and Thomas Wilhelmsson, European Fair Trading Law: The Unfair Commercial Practices Directive (Burlington: Ashgate Publishing, 2006), 2.

- Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси, Умумий қисм, 1995 йил 21 декабрь. https://lex.uz/docs/-111189#-154357

- Ўзбекистон Республикаси “Рақобат тўғрисида”ги Қонуни, 2023 йил 3 июль, ЎРҚ-850-сон. https://lex.uz/uz/docs/-6518381.

- Ўзбекистон Республикаси “Реклама тўғрисида”ги Қонуни, 2022 йил 7 июнь, ЎРҚ-776-сон. https://lex.uz/uz/docs/-6052631.
- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 13 февралдаги 75-сонли қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида чакана савдо қоидалари. https://lex.uz/uz/docs/243235.

## BUGUNGI KUNDA YANGI O‘ZBEKISTONDA “MAHALLA YETTILIGI”NING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI (ichki ishlar organlari hamkorligi misolida)

***F.Sh.Xidirov***
*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** “mahalla yettiligi” tarkibiga kiruvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlari, ularning vazifa va funksiyalari hamda amaliy faoliyatdagi natijadorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ichki ishlar organlari bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali hududlarda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda kompleks yondashuvni yo‘lga qo‘yish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mahalla yettiligi, ichki ishlar organlari, jamoat xavfsizligi, profilaktika, hamkorlik, jinoyatchilikni oldini olish, fuqarolik jamiyati.

Mahallaning aholi va davlat organlari o‘rtasida ishonchli “ko‘prik” bo‘lishini ta’minlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida har bir mahallada muammolarni joyida aniqlab, kompleks yondashuv asosida hal etish mexanizmlari “mahalla yettiligi”[^2] tizimining yo‘lga qo‘yilgani Yunusobod tumanidagi mavjud 64 ta mahallalarda jinoyat sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlash, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish[^3] orqali kriminogen vaziyatni barqaror saqlashda hamda 2025-yilda “Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish” ustuvor vazifa etib belgilanishi[^4] muhim ahamiyat kasb etmoqda[^5].

So‘nggi yillarda mahalla institutining jamiyat hayotida tutgan o‘rni va roli yuksalib, mahallalarni qo‘llab-quvvatlash, mahallabay ishlashga

mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta’minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, Yangi O‘zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati tuman yoki shahardan emas, balki eng quyi bo‘g‘in – mahalladan boshlanishi belgilab berildi. Ichki ishlar organlari xususan profilaktika inspektorlari bilan mahalla vakillari bir bo‘lib jonajon xalqimizning og‘irini yengil qilib mahalladagi fuqarolarga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “*Mahalla jamiyatimizdagi adolat tamoyillarining ko‘zgusiga aylanishi kerak, bu yer odamlar kelib fikrini, taklifini, dardini aytadigan, muammosiga yechim topadigan joy bo‘lishi kerak* deb bejizga ta’kidlamaganlar.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga yo‘llagan bayram tabrigida “*Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida joriy yildan boshlab “mahalla yettiligi” tizimi tashkil etildi. Endi profilaktika inspektori ana shu tizimning eng faol a’zosiga aylanib, vaziyatni xonadonlar kesimida o‘rganadi. Birinchi navbatda, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabr ko‘rish ehtimoli yuqori bo‘lgan fuqarolarni aniqlab, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini “mahalla yettiligi” imkoniyatlaridan foydalangan holda hal etish choralarini ko‘radi* deb aytib o‘tgan.

Dastlab mahalla yettiligi tashkil topmasdan oldin mahalla beshligi ya’ni mahalla raisi, profilaktika inspektori, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi lavozimlari tashkil topgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF 209-son farmoni hamda “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 402-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta’minlash hamda mahalla yettiligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 15-martdagi qarorida ham ushbu masalalar o‘z aksini topgan.

Mazkur farmon hamda qaror qabul qilinmasdan avval mahallalar faoliyati ustidan nazorat va monitoring davlat organi zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, mazkur holat o‘zini o‘zi boshqarish organlari maqomiga zid bo‘lib qolayotgan edi[^6].

Endilikda mahallalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi, daromad va xarajatlar hamda dasturlarni tasdiqlovchi oliy organ hisoblangan, jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan Respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar) mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari shakllantirildi. Ularning asosiy vazifasi mahalladagi muammolarni hal etishga boshqa manfaatdor idora va tashkilotlarni faol jalb qilish, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish hamda sohaning nufuzi va unga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish hisoblanadi. Shu bilan birga, farmon talablari asosida nodavlat notijorat tashkilot sifatida O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda uning viloyat va tumanlardagi bo‘linmalari tashkil etildi. Shuningdek, mahallalarning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish hamda sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida bevosita mahallada mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat “Mahalla yettiligi” tashkil qilinib, vazifalari aniq belgilab berildi. “Mahalla yettiligi”ning ish faoliyati to‘g‘ri rejalashtirilsa, ko‘plab muammolar o‘z yechimini topib, yurtimiz yanada obod, turmushimiz esa farovon bo‘ladi. Shu bois “Mahalla yettiligi” a’zolari ruhiy ko‘tarinki kayfiyat bilan ish boshlamog‘i va yashamog‘i lozim, odamlarga ma’naviy yaqin bo‘lish esa ularning aholi bilan o‘zaro munosabatini iliqlashtiradi. Shuning uchun ham “Mahalla yettiligi” hamisha odamlarning quvonch va tashvishlari bilan yashashi kerak. Bugungi shiddatli davr esa barcha mas’ullardan har bir sohaning o‘ziga xos murakkabliklarini yaxshi bilishni, oldiga qo‘ygan maqsadini chuqur his etishni talab etmoqda. “Mahalla yettiligi”ning asosiy maqsadi, vazifalari va hamkorlik mexanizmlari[^7], “Mahalla yettiligi”ning maqsadi mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish uchun safarbar etishdan iborat.

“Mahalla yettiligi”ga rahbarlik mahalla raisi tomonidan amalga oshiriladi. “Mahalla yettiligi” quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: tegishli hududda qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi holatini, oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy holati va ehtiyojlarini o‘rganishda fuqarolar yig‘ini kengashiga ko‘maklashadi; jismoniy shaxslarni “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qiladi; jismoniy shaxslarga “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hamda Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi

orqali ijtimoiy yordam koʻrsatish va subsidiyalar ajratish boʻyicha qaror qabul qiladi. Bunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son farmoni bilan tasdiqlangan “Mahalla yettiligi”ning kollegial qarorlari asosida koʻrsatiladigan ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalar roʻyxati”da keltirilgan ijtimoiy yordam va subsidiyalar ajratiladi; ijtimoiy xodim tomonidan “Saxovat va koʻmak” jamgʻarmasi orqali fuqarolarning ogʻir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish va shunday vaziyatga tushganlarni ogʻir vaziyatdan chiqarish maqsadida kiritilgan xulosa asosida ijtimoiy yordam koʻrsatish va subsidiyalar ajratish boʻyicha qaror qabul qiladi; davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolarning murojaatlarini koʻrib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni koʻrib chiqish natijalari boʻyicha davlat organlari va tashkilotlariga tegishli takliflar kiritadi; qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. “Mahalla yettiligi”ning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish boʻyicha oʻzaro hamkorlik mexanizmlari quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshiriladi:

hokim yordamchisi – har oyda kamida 10 nafar ishsizning bandligini ta’minlash choralarini koʻradi (subsidiya va kreditlar ajratish kabilar);

xotin-qizlar faoli – har oyda kamida 5 nafar xotin-qizlarni tadbirkorlik, kasanachilik va hunarmandchilikka jalb qiladi;

yoshlar yetakchisi – “Yoshlar bandligi dasturi” doirasida ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari bandligiga koʻmaklashadi.

mahalla raisi – “Mahalla yettiligi” tomonidan mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni xatlovdan oʻtkazish va natijalarini “Reintegratsiya” moduliga kiritib borish ishlarini tashkil etadi;

hokim yordamchisi – mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarga reintegratsiya yordami koʻrsatadi va ularning rasmiy bandligini ta’minlaydi;

profilaktika inspektori – uzoq muddatga ketgan shaxslarning roʻyxatini shakllantiradi va ularning oilalari bilan manzilli ishlarni tashkil etish maqsadida “Mahalla yettiligi”ning boshqa a’zolariga taqdim etadi;

xotin-qizlar faoli – “Mahalla yettiligi” bilan birgalikda mehnat migratsiyasida yurgan, voyaga yetmagan farzandlari bor ayollarni oilasiga qaytaradi hamda qaytib kelganlarning bandligini ta’minlaydi;

yoshlar yetakchisi – har oyda kamida bir marotaba xorijdagi yosh vatandoshlar bilan muloqot qilib, ularni Vatanga qaytarish borasida “Mahalla yettiligi” bilan zarur choralarni koʻradi.

xotin-qizlar faoli – har oyda bir marotaba jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan xotin-qizlar xonadonidagi muammoni o‘rganadi, tazyiq va zo‘ravonlik holatlarni aniqlaydi va profilaktika inspektoriga xabar beradi, nizoli oilalarning 5 tasini sog‘lom turmush tarziga qaytaradi;

profilaktika inspektori – jinoyat sodir etgan shaxslar va profilaktik hisobda turuvchilar bilan manzilli ishlashda mutasaddi tashkilot va idoralar vakillarini jalb etadi;

yoshlar yetakchisi – profilaktika inspektori bilan birgalikda huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan voyaga yetmaganlar bilan tizimli, individual ish olib boradi.

mahalla raisi – mahallada “Obod mahalla”, “Obod ko‘cha”, “Obod xonadon” mezonlarini joriy etadi, har oyda bir marotaba hashar uyushtiradi, kamida 2 ta ehtiyojmand oila xonadonida hashar tashkil etadi;

xotin-qizlar faoli – xotin-qizlarning muammolari yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarga murojaat qiladi, og‘ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatishni ijtimoiy xodim bilan birgalikda tashkil etadi, har oyda kamida 10 nafar og‘ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatishni tashkil etadi.

ijtimoiy xodim – og‘ir ahvolga tushgan va og‘ir ahvolga tushish xavfi bo‘lgan shaxslar va oilalarni aniqlaydi, ularga kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va yordamlarni tashkil etadi;

hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va ijtimoiy xodim – jismoniy shaxslarni tegishli daftarlarga kiritish va chiqarish hamda ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha hujjatlarni shakllantirib, “Mahalla yettiligi”ning boshqa barcha a’zolariga ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish uchun kiritadi;

qarorlar qabul qilinishida ochiqlik, haqqoniylik, ijtimoiy adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi uchun “Mahalla yettiligi” mas’ul va javobgar bo‘ladi.

soliq inspektori – mahallada qo‘shimcha manbalarni aniqlash hisobiga mahalliy budjetga tushumlarni ko‘paytirish choralarini ko‘radi. Jumladan, soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlaydi;

mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va soliq inspektori – “Mahalla budjeti”ni shakllantirish maqsadida jismoniy

shaxslardan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha mavjud qarzdorlikni undirish ishlarini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Ichki ishlar organlari bilan mahalla vakillari ya’ni mahalla yettiligi a’zolari bilan hamkorligi yangi bosqichga chiqib yildan yilga takomillashib bormoqda. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlarining mahalla vakillari bilan yaqin hamkorligi jonajon xalqimizning og‘irini yengil qilishiga g‘am tashvishlarini joyning o‘zida hal qilib ertangi kunga ishonib muhtaram prezidentimiz ta’biri bilan aytganda davlatimizdan rozi bo‘lishiga olib keladi. Mahalla yettiligi xodimlari fuqarolarimizning barcha ijtimoiy-xuquqiy sohadagi muammolarini hal qilib kelmoqda.

[^2]: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni, 21.12.2023-yildagi / PF-209-son / https://lex.uz/ru/docs/6705763.

[^3]: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 30.11.2024-yildagi, 801-son / https://lex.uz/docs/7243832

[^4]: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 03.01.2025-yildagi PQ-1-son / https://www.lex.uz/docs/7330260

[^5]: Б.А. Umirzakov IIV Akademiyasi Kirminologiya kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent O‘zbekiston respublikasi ichki ishlar vazirligi Akademiyasi “Kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash: muammo va yechimlar respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami”, “Yunusobod tumani mahallalarida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish” T-2025. Б-28

[^6]: Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2023 йил 21 декабрь ПФ 209-сон фармони // URL:http://www.lex.uz.

[^7]: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳаллабай ишлашга масъул бўлган шахслар фаолиятини ва

ҳамкорлигини самарали таъминлаш ҳамда маҳалла еттилиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2024 йил 15 март қарори // URL:http://www.lex.uz.

# YOSHLAR O‘RTASIDA TA’LIM-TARBIYANI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI

***Sh.M.Ubaydullayev*** *O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*

***K.A.Yuldashev***

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, (Phd)*

**Annotatsiya:** O’sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo’naltirish hamisha davlatimiz siyosati oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimiznung ota-onalari, ta’lim muassasalarining o’rni, o’qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasbga to’g’ri yo‘naltirishdagi mavjud muammolar, hamda o‘quvchilarni kasb tanlash motivlari haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib yoshlar o‘rtasida ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda psixologik omillarning ta’siri bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar, ta’lim, tarbiya, motiv, psixologik omillar, o’quvchilar, xulq – atvor, prognoz, motivatsiya, psixologik tanlov, kasb tanlash, komponentlar.

Ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanis’hida, ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini s’hakllantiris’hda jahon hamjamiyatiga qo’s’hilis’hini a’minlaydigan demokratik xuquqiy davlat quris’h kadrlar tayyorlas’hning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o’ynaydi.

Inson bolasi kamolga etgani sari ilmga, ma’rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo’lgan yos’hlarga ta’lim beris’h ularni o’qitis’h bilan bog‘liq ayrim muammolar bugungi kunda kis’hini o’ylantirib qo’yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy s’hiddatkor jamiyat esa etuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muxtoj bo’lib boraveradi.

Shu o’rinda asosiy urg‘uni oilaga berilis’hi ham bejiz emas. Oila muqaddas xilqat sifatida ta’riflanis’hi, **“Vatan oiladan bos’hlanur”** deb aytilis’hi oilaning hayot mazmuniga aylanganligi, tarixiy jarayonlar vositasida bugungi kunimizga o’zining urf-odatlari, an’analari, milliyligi bilan etib kelganligi diqqatga sazovordir. Har bir oilaning mazmun mohiyati uning ichidagi ijtimoiy-ma’naviy, ma’rifiy hamda bola tarbiyasidagi ko’rinis’hida namayon bo’ladi.

Mamlakatimizning dunyo miqyosida tanilis’hida avvolom bor oilaning s’hakllanis’higa, yos’h avlodni tarbiyalas’hdagi yo’nalis’hlarga, ijtimoiy-ma’naviy, diniy, axloqiy va jismoni tarbiyani rivojlantiris’hga alohida e’tibor qaratilganligi natijasida, ajdodlarimizning ulug‘ nomlari xanuzgacha er kurrasining deyarli barcha rivojlangan davlatlarda isimlari yanada yuqori pog‘onalarga ko’tarilmoqda.

Jumladan, Ali Abu-Ibinsin, Al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi, Amur Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo, Al-Xorazmiy, Alis’her Navoiy va bos’hqa mingalb olimu mutafakkirlarimizning nomlari jaxonga doston bo’lganligi ayni haqiqatdur.

Yurtbos’himiz S’havkat Miromonovich Mirziyoev yuqoridagi buyuuk ajdodlarimiz haqlarida juda ko’p ijobiy fikrlarni aytibgina qolmasdan balki, har bir viloyat va s’haxar tumanlardagi tarixiy obidalarni yanada rivojlantiris’h orqali ajdodlarimizning xotira-larini yanada s’hod etmoqdalar. Minglab sayyohlar bilan birgalikda yos’hlarimiz, diyorimizni o’rganmoqda va olamga ziyo tarqatmoqda.

Bugungi kunda yangi O’zbekiston strategiyasi va Respublikamizda amalga os’hirilayotgan barcha ijobiy taraqiyot is’hlar xalq manfaatlari uchun ekanligi va unda bola tarbiyasiga e’tibor kelajakka zamin yaratis’h hamda xarakatlar strategiyasidan taraqiyot strategiyasiga o’tis’hga yo’l ochadi.

S’huningdek, har bir ota-ona allbatda farzandini barkamol inson bo’lib voyaga etis’hini istaydi. S’hunday ekan avolom bor, oilada onalar s’haxsan farzand tarbiyasi bilan o’zlari s’hug‘ullanis’hi zarur. Al-Buxoriy xazratlarining onalari aynan farzand tarbisi bilan mas’hg‘ul bo’lganliklari sababli, ul aziz onadan buyuk olim va avliyo inson dunyoga kelganligi butun olamga ma’lum.

Sharq mamlakatlari ulamolari, mutafakkirlari bola tarbiyasiga juda katta e’tibor berib, xalq pedagogikasining o’zagini s’hakllantiris’hga hissa qo’s’hganlar. **“Bir bolaga etti mahalla javobgar”** degan xalq naqli o’z ichiga ko’p ma’noni qamrab olgan. **Mahalla, oila va maktab hamda keng jamoatchilik vakillarining hamkorligi** bo’lajak avlodning qanday

bo’lis’hi, ota-ona va yaqin qo’s’hnilarning tanbehlari yo’nalis’hlarining barchasi faqat yaxs’hi niyatda bo’lis’hini ko’rsatgan. Bu esa o’z navbatida bolada ruxiy tarbiyani s’hakillanis’higa ko’mak beradi.

Kasbiy s’hakllanis’h jarayonining dastlabki va ayni damda o’ta muhim bosqichi bo’lajak kasbni tanlas’h, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelis’higacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Ravs’hanki, yos’hlarning kasb tanlas’hga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yos’h xususiyatlariga bog‘lik emas, u ma’lum yos’hga kelib o’z o’zidan s’hakllanib qolmaydi. Yos’hlarning kasb tanlas’hga pedagogik-psixologik bilim, ko’nikma, malakalar, s’huningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlas’h va tarbiyalas’h lozim. Mazkur jarayonda s’haxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo’lis’h talab qilinadi. S’huning uchun xam o’quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantiris’h hamda amaliy ko’nikma va malakalarni hosil qilis’h lozim. Buning uchun kasblarga doir qo’llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta’minlas’h lozim.

S’hundagina kasb tanlas’h jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to’siqlarni oldini olgan holda o’quvchi-yos’hlarni ongli ravis’hda kasbga yo’llas’h imkoniga ega bo’lamiz. Texnologiya fani o’qituvchisi texnologik ta’lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma’lumotlarni muayyan mavzularga bog‘lagan holda o’quvchilarga etkazis’hi lozim. O’quvchilarning qiziqis’hlariga asoslangan holda o’tkaziladigan mas’hg‘ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to’garaklar alohida o’rin egallaydi. Bunday to’garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta’limi o’qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yos’h rassomlar, yos’h texnologlar, yos’h fiziklar kabi to’garaklarni kiritis’h mumkin. O’qituvchi bunday to’garaklarda o’quvchilarning loyihachilik, texnik-ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantiris’h ustida tizimli is’h olib boris’h imkoniyatiga ega. Texnologiya o’qituvchisi o’z is’h faoliyatida pedagogik-psixologik tas’hxisga alohida o’rin ajratis’hi lozim. Pedagogik-psixologik tas’hxis jarayonida o’qituvchi maktab rahbariyati va psixologi, o’quv-is’hlab chiqaris’h muassasasi hamda kasb-hunar kollejlari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o’quvchining tanlagan kasbi bilan s’haxsiy sifatlari orasidagi mutanosiblikni aniqlas’hi kerak.

Texnologiya fani o’qituvchisi o’zining o’quvchilarni kasbga yo’llas’hga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o’qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, ota- onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma’muriyati faoliyati bilan mujassamlas’htirgan holda

amalga os’hiris’hi kerak. O’quvchilarni kasb-hunarga to’g‘ri yo’llas’hda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega.

Mehnat fani o’qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlas’hga alohida e’tibor qaratis’hi lozim, chunki o’quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tus’huncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o’rni haqidagi ma’lumotlar dastlab s’hu erda hosil bo’ladi. Ma’lumki, mehnat va kasb-hunarga bo’lgan muhabbat, e’tiqod, barcha o’quv fanlari tarkibida s’hakllantiriladi. S’huning uchun ham texnologik ta’lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e’tibor qaratis’h talab etiladi.

Mehnato’qituvchisining o’quvchilarni kasb-hunarga yo’llas’h orqali ijtimoiy las’htiris’hga oid faoliyatini turli o’quv fanlari o’qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi is’hlari bilan uyg‘unlas’htiris’h muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun: turli o’quv fanlari, fan to’garaklari va sinfdan hamda maktabdan tas’hqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanis’h;

- texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko’nikmalar yordamidao’quvchilarni kasbga yo’naltiris’h orqali ijtimoiylas’htiris’hga eris’his’h;

- o’quvchilarning muayyan maqsadga yo’naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilikdarajasi yuqori bo’lgan o’quv tops’hiriqlarini bajaris’hlarini ta’minlas’h;

- jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo’lgan mehnat va kasb-hunarning turlisohalariga o’quvchilarning qiziqis’hlarini tabaqalas’htirilgan yondas’huv asosidas’hakllantiris’hga eris’his’h;

- o’quvchilarni munosib kasb-hunarga yo’naltiris’h maqsadida, maktabo’qituvchilari, firmalar, is’hlab chiqaris’h korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunarkollejlari hamda tas’hxis markazlari hamkorligini yo’lga qo’yis’h. Bunday hamkorlik

- natijasida o’quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo’lgan kasblartarg‘ibotini amalga os’hiris’h imkoni paydo bo’ladi.

- Texnologiya o’qituvchisi maktab amaliyotchi psixologi o’z kasbiy faoliyatijarayonida quyidagilarni amalga os’hiris’hi lozim:

- o’quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo’lgan kasb-hunarturlari bilan tanis’htiris’h;

- kasblarning demogratik xususiyatlari haqida ma’lumot beris’h;

- o’quvchilarni kasbga yo’llas’h bo’yicha pedagogik-psixologik xarakterdagimaslahatlar uyus’htiris’h;

- o’quvchilarda ularning s’haxsiy sifatlarini hisobga olgan holda muayyankasblar bo’yicha barqaror qiziqis’hlarni s’hakllantirish;

- o’quvchilarni o’z kasbiy faoliyati natijasida s’huhrat qozongan mas’hhurs’haxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo’s’hgan hissalari bilantanis’htirish;

- o’quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy jihatlarinirivojlantirishdagi o’rni haqida malumot beris’h;

- o’quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbgayo’llash bo’yicha suhbatlar o’tkazis’h;

- o’quvchilarni noto’g‘ri kasb tanlas’hning salbiy oqibatlaridan xabardor qilih;

- o’quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko’nikmalarni s’hakllantiris’h va sinab ko’ris’hlari uchun qulay s’haroitlar yaratis’h;

- o’quvchilarni to’g‘ri kasbga yo’llah maqsadida, ularning s’haxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo’lgan qiziqis’hlarini o’rganish;

- o’quvchilarni kasbga yo’llas’h jarayoni samaradorligini ta’minlas’h maqsadida, maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko’rgazmalar, anjumanlar, uchras’huvlar tas’hkil etish;

- o’quvchilarning s’haxsiy-kasbiy qiziqis’hlarini aniqlas’h maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tas’hxis o’tkazis’h va h.k.

Kasb tanlas’hda maktab amaliyotchi-psixologining ham olib borayotgan arg‘ibot- tas’hviqot is’hlarning o’z ahamiyati bor.

Xulosa o’rnida s’huni ta’kidlab o’tis’his’himiz joizki yos’hlarimizni to’g‘ri kasbga yo’naltiris’h, bu eng muhim vazufalardan biri ekanligini yana bir bor ta’kidlab o’tmoqchiman . Inson to’g‘ri kasb tanlas’h orqali o’z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltis’hi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

Shu o’rinda asosiy urg‘uni oilaga berilis’hi ham bejiz emas. Oila muqaddas xilqat sifatida ta’riflanis’hi, **“ Vatan oiladan bos’hlanur ”** deb aytilis’hi oilaning hayot mazmuniga aylanganligi, tarixiy jarayonlar vositasida bugungi kunimizga o’zining urf-odatlari, an’analari, milliyligi bilan etib kelganligi diqqatga sazovordir. Har bir oilaning mazmun mohiyati uning ichidagi ijtimoiy-ma’naviy, ma’rifiy hamda bola tarbiyasidagi ko’rinis’hida namayon bo’ladi.

Shuningdek, har bir ota-ona allbatda farzandini barkamol inson bo’lib voyaga etis’hini istaydi. S’hunday ekan avolom bor, oilada onalar s’haxsan farzand tarbiyasi bilan o’zlari s’hug‘ullanis’hi zarur. Al-Buxoriy xazratlarining onalari aynan farzand tarbisi bilan mas’hg‘ul bo’lganliklari

sababli, ul aziz onadan buyuk olim va avliyo inson dunyoga kelganligi butun olamga ma’lum.

S’harq mamlakatlari ulamolari, mutafakkirlari bola tarbiyasiga juda katta e’tibor berib, xalq pedagogikasining o’zagini s’hakllantiris’hga hissa qo’s’hganlar. **“Bir bolaga etti mahalla javobgar”** degan xalq naqli o’z ichiga ko’p ma’noni qamrab olgan. **Mahalla, oila va maktab hamda keng jamoatchilik vakillarining hamkorligi** bo’lajak avlodning qanday bo’lis’hi, ota-ona va yaqin qo’s’hnilarning tanbehlari yo’nalis’hlarining barchasi faqat yaxs’hi niyatda bo’lis’hini ko’rsatgan.

O’tmis’hga nazar tas’hlaydigan bo’lsak, Ota-bobolarimiz bolaga hech qachon do’q-po’pisa qilmaslikni, ularga nisbatan zo’ravonlik va qo’pollik qilinmaganligini, ohista s’hirin ovoz bilan **“yomon bo’ladi”** degan birgina chiroyli ibora orqali tarbiya o’gitlarini singdirganliklarini, s’hu bilan birgalikda, notanis’h kis’hilarni ko’rganda **«Assalomu alekum»** degan ibora bilan muomulada bo’lis’hliklarini, «O’zlaridan katta insonni oldilarini qiymaslik» kabi milliy urf odatlarni singdirib kelganlar.

O’zbekiston Respublikasi Konustitutsiyasining **77-moddasida** Ota-onalar va ularning o’rnini bosuvchi s’haxslar o’z farzandlarini voyaga etguniga qadar boqis’hi, ularning tarbiyasi, ta’lim olis’hi, sog‘lom, to’laqonli va har tomonlama kamol topis’hi xususida g‘amxo’rlik qilis’hga majburdirlar.

Davlat va jamiyat etim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo’lgan bolalarni boqis’hni, tarbiyalas’hni, ularning ta’lim olis’hini, sog‘lom, to’laqonli va har tomonlama kamol topis’hini ta’minlaydi, s’hu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi. S’huningdek, O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to’g‘risidagi kodeksning 47-moddasida (Bolalarni tarbiyalas’h va ularga ta’lim beris’h borasida ota-ona va ularning o’rnini bosuvchi s’haxslarning) majburiyatlarini bajarmaslik uchun javobgarlik masalasi kiritilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. 01.05.2023 yil [https://lex.uz/docs/6445145](https://lex.uz/docs/6445145)

2. O’z.R-ning 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g‘risida” O’RQ – 371-son Qonuni.

3. O’z.R Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlas’htiris’h, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlas’h hamda oila va xotin-qizlar bilan is’hlas’h tizimini yangi

darajaga olib chiqis’h chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni.

4. O’z.R Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlas’h va uni amalga os’hiris’h chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PF-27-son Farmoni.

5.O’z.R. Prezidentining 2021 yil 3 dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantiris’h, aholi bandligini ta’minlas’h va kambag‘allikni qisqartiris’h bo’yicha davlat siyosatining ustuvor yo’nalis’hlari to’g‘risida”gi PF-29-son Farmoni.

6. N.A. Aripova, L.A. Xolmamatova, N.B. Qurbonova kasbiy psixologiya Tos’hkent- 2018 y.

7.F. I. Xaydarov,N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya- Tos’hkent- 2009 y.

8.Yusupova F.I. O’quvchilar individual tayyorgarligini amalga os’hiris’hning

pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2005. №5.

9.Maxmudova .D. “O’quvchilarni kasbga yo’naltiris’hga oid pedagogik faoliyat elementlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlas’h”. Xalq ta’limi jurnali. №3 son.

# YOSHLARNI VATANPARVAR VA PROFESSIONAL KADRLAR SIFATIDA TAYYORLASHDA HUQUQIY TA’LIMNING AHAMIYATI

***J.Q.Xamraev***
*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti o‘qituvchisi,*

**Annotatsiya:** Maqolada muallif O‘zbekiton Respublikasi Ichki ishlar organlarini xalqchil, professonal kadrlar bilan ta’minlash va xizmatni tashkil etish borasidagi muammolar va ularning yechimi yuzasidan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan maqsadlar bo‘yicha yondoshuvlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ichki ishlar organlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, huquqshunoslik fanlari.

Mamlakatimizda yurtboshimiz tashabbusi va rahbarligida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, ularni tubdan takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Ichki ishlar organlarining Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati xodimlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional kadrlar sifatida tayyorlash, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari, shuningdek Ichki ishlar organlarining Tergov bo‘linmari bilan yaqin hamkorlikda, o‘zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta’minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, xizmatga salbiy ta’sir o‘tkazayotgan sabablarini nazariy jihatdan o‘rganish maqsadga muofiqdir

So‘ngi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda Ichki ishlar organlari xodimlari va fuqarolar o‘rtasidagi nizoli holatlar aks etgan video lavhalar tarqalmoqda. Bu kabi holatlar sohada bir qator kamchiliklar borligini ko‘rasatadi. Nizoli holatlarning yuzaga kelish sabalari nazariy jihatdan o‘rganilganda bir qancha, xususan;

- fuqarolar bilan bahsli holatlar yuzaga kelganda psixologik jihatddan to‘g‘ri muloqot qilish hamda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega emasligi;

- xizmat faoliyatida jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llash qoidalarini to‘liq bilmasligi;

- yetarli psixologik va madaniy bilimlarga ega emasligi sababli fuqaroning yoshi, jinsi, jismoniy, ijtimoiy va ruhiy holatidan kelib chiqgan holda muomala qilish usullarini qo‘llay olmasligi;

- odob-ahloq qoidalariga amal qilmaslik kabi omillar ko‘zga yaqqol tashlanadi.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining ***“Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish”** – *deb nomlangan ikkinchi ustuvor yo‘nalishida j**amoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish (16-maqsad) va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish (17-maqsad) kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan. [1]

Bu yo‘nalishda tegishli qonunchilik va me’yoriy-huquqiy baza shakllantirilib, doimiy ravishda takomillashtirib kelinmoqda. Ta’kidlash joizka faqat qonunchilik ba’zasini mustahkamlashning o‘zi bilangina Xalqchil Ichki ishlar organlarini tashil etish ayniqsa professional

xodimlarni tayyorlashning imkoni yo‘q. Shu ma’noda, 2021 yil 12 fevral kuni Ichki ishlar vazirligi hay’atining kengaytirilgan yig‘iligi ishtirok etgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Ichki ishlar organlari faoliyati, tizimda mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi ma’ruzasida jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida quydagi; “Huquq-tartibot idoralariga hamma sharoitlarni yaratib, eng zamonaviy texnikalarni olib berdik. Katta vakolat, kuch va vositalar bor. Lekin natija kutilganidek emas. Organlar yakdil bo‘lib, vertikal boshqaruvni to‘g‘ri tashkil eta olmayapti. Ularning ishidan xalqimiz norozi” fikrlarni bildirgan.[2]

Yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirish, Ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingna qarorda 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab, Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi joriy etilishi, kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratiladi hamda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o‘qitish chuqurlashtirilgan holda amalga oshirilishi belgilandi.[3] Prezidentimizning ushbu qarori bilan faqatgina Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga alohida e’tibor qaratilmasdan Ichki ishlar vazirlgi Malaka oshirish instituti zimmasiga ham bir qator vazifalar yukladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xususan, Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berilib va uning faoliyati asosiy yo‘nalishlari;

- ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash;

- ichki ishlar organlarining safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida o‘qitish;

- ichki ishlar organlarining barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda, shu jumladan turdosh yo‘nalishdagi respublika oliy ta’lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish etib belgilandi.

Shuningdek, Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari tugatilib, ularning shtat birliklari va moddiy-texnika bazasi Malaka oshirish institutiga o‘tkazildi.[4]

O‘z o‘rnida aytish lozimki, Ichki ishlar vazirligi malaka oshirish instituti yuridik shaxs maqomini olganidan keyish bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirib, Ichki ishlar organlarini vatanga va xalqqa sodiq bo‘lgan profissanal kadrlar sifatida tayyorlash bo‘yicha bir nechta kafedra va sikllar tashkil qilib, ularda xodimlarni xar tomonlama yetuk kadrlar sifatida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha samarali tizim joriy etildi. Ushbu tizim bo‘yicha Ichki ishlar organlariga tanlov asosida ofitserlik va safdorlik lavozimlariga qabul qilingan xodimlar bilan boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik, Ichki ishlar organlari xodimlariga navbatdagi “katta serjant”, “kapitan” “mayor” va “podpolkovnik” maxsus unvonini olish uchun maxsus malaka oshirish kursi, shuningdek Ichki ishlar organlarining barcha darajadagi bo‘lim boshliqlari, tuman (shahar, tarmoq) ichki ishlar organlari boshlig‘ining o‘rinbosari lavozimiga tayyorlash uchun zahiradagi xodimlar bilan malaka oshirish o‘quv kurslari muntazam ravishda tashkil etilib, ularda ridik tayyorgarlik moduli bo‘yicha huquqiy ta’lim berilmoqda.

Ushbu modul bo‘yicha tinglovchilar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, unda shaxsning huquqiy maqomi, inson huquqlari, huquqbuzarliklar tushunchasi va turlari, ma’muriy huquqbuzarlik va ma’muriy javobgarlik, jinoyat va jinoyat-protsessul qonunchiligi, fuqarolik va oila huquqiga oid umumiy bilimlar;

- IIO faoliyatga taalluqli huquq normalaridan foydalanish va qo‘llash, ma’muriy ishlarni ko‘riy choralari va protsessual majburlov choralari, ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish, dalillar to‘plashda tuziladigan hujjatlarni rasmiylashtirish va jamoat tartibini saqlash faoliyatida qiynoqqa qarshi kurashish yuzasidan **ko‘nikmalarga**;
- faoliyatni tartibga soluvchi huquq normalaridan foydalanish, ma’muriy huquqbuzarliklarning tarkibi va taspiflash me’zonlari, jinoyat qonunining qo‘llash, jinoyatlarning boshqa turdagi huquqbuzarliklardan farqlash, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi (zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish va x.k) holatlarni ajratish, protsessual hujjatlarni tuzish kabi **malakalarini** egallashiga alohida e’tibor qaratildi.

Bir so‘z bilan aytganda yuridik tayyorgarlik moduli bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy

faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakillantirish bo‘yicha boy amaliy tajribaga ega bo‘lgan professor-o‘qitiuvchilar tomonidan o‘quv mag‘ulotlarni o‘tkazilmoqda.

**Iqtiboslar:**

Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son

Sh.M.Mirziyoev 12.02.2022-yildagi IIV Hayatining kengaytirilgan yig‘ilishidagi so‘zlagan nutqidan. [https://lex.uz/docs/5377619](https://lex.uz/docs/5377619) [https://lex.uz/docs/5377619](https://lex.uz/docs/5377619)

# YURIDIK TA’LIM VA TADQIQOTLAR RIVOJINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

***N.O.Odilov***

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti*

*Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*

*Tel.: +99899 807 23 04*

*Email:[odilovbek056@gmail.com]*

*(mailto:odilovbek056@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yuridik ta’lim va ilmiy tadqiqotlar tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari, zamonaviy huquqiy ta’limning mazmuni hamda uni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, xalqaro standartlar, innovatsion pedagogik usullar va ilmiy integratsiyaning yuridik ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Muallif tomonidan yuridik ta’limda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, huquqiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash hamda huquqiy fanning raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan taklif va xulosalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yuridik ta’lim, huquqiy tadqiqotlar, huquqshunoslik, innovatsion ta’lim, raqamli texnologiyalar, huquqiy islohotlar, ilmiy faoliyat, yuridik kadrlar, akademik integratsiya, ta’lim sifati.

Bugungi globallashuv va jadal axborotlashuv davrida yuridik ta’lim hamda huquqiy tadqiqotlar tizimi davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni malakali yuridik kadrlar tayyorlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, yuridik ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va huquqiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy huquqiy munosabatlar doirasi kengayib borayotgani, raqamli iqtisodiyot, kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt, elektron hukumat va xalqaro huquq sohasida yangi institutlar shakllanayotgani yuridik ta’lim oldiga mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Endi huquqshunos faqat qonun normalarini bilishi emas, balki tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va xalqaro huquqiy amaliyotni tushunish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim.

Yuridik ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan ilmiy tadqiqotlar darajasi bilan belgilanadi. Ilmiy faoliyat rivojlanmagan ta’lim muassasasida sifatli mutaxassis tayyorlash mushkul. Shu sababli, yuridik ta’lim va huquqiy tadqiqotlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida qaralishi kerak. Ayniqsa, fundamental va amaliy tadqiqotlarning uyg‘unligi huquq sohasida ilmiy yangiliklarni yuzaga keltiradi hamda qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda dunyodagi yetakchi universitetlar yuridik ta’limni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, talabalarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish, raqamli platformalardan keng foydalanish va ilmiy tadqiqotlarga erta jalb qilish orqali yuqori natijalarga erishmoqda. Bu tajribalar milliy yuridik ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik ta’lim tizimidagi islohotlar avvalo o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirishni talab qiladi. Chunki ayrim hollarda ta’lim mazmuni mehnat bozori ehtiyojlaridan ortda qolmoqda. Huquqiy sohada yangi institutlar va munosabatlar paydo bo‘layotgan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari ta’lim jarayoniga kech kirib kelmoqda. Bu esa bitiruvchilarning amaliy ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yuridik ta’limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Onlayn ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar, virtual sud jarayonlari va sun’iy intellekt asosidagi huquqiy tahlil dasturlari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhiti talabalarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Huquqiy tadqiqotlar sohasida ham zamonaviy yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ilmiy ishlar faqat nazariy mulohazalar bilan cheklanib qolmasdan, amaliyotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ayniqsa, qonunchilikni qo‘llash amaliyotida yuzaga kelayotgan ziddiyatlar va bo‘shliqlarni ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Yuridik tadqiqotlarni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik ham muhim omil hisoblanadi. Chet el universitetlari va tadqiqot markazlari bilan qo‘shma loyihalar amalga oshirish, akademik almashinuv dasturlarini kengaytirish hamda xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish milliy huquqiy fanning nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yuridik ta’lim va tadqiqotlarda akademik halollik tamoyillariga qat’iy rioya qilish talab etiladi. Ilmiy ishlarda plagiatga yo‘l qo‘ymaslik, mustaqil tahlil va mualliflik yondashuvini shakllantirish ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa talabalar va tadqiqotchilarda mas’uliyat hissini oshirishga yordam beradi.

Yuridik ta’limning yana bir muhim vazifasi – talabalarda huquqiy madaniyat va kasbiy etikani shakllantirishdir. Chunki malakali huquqshunos nafaqat bilimli, balki yuksak ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lishi ham lozim. Sudya, prokuror, advokat yoki boshqa huquq sohasi vakili jamiyat oldida katta mas’uliyatni his etishi kerak.

Zamonaviy sharoitda yuridik klinikalar faoliyatini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu tizim orqali talabalar amaliyot bilan yaqindan tanishadi, aholiga bepul huquqiy yordam ko‘rsatish orqali tajriba orttiradi. Bu esa nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, ijtimoiy mas’uliyatni ham shakllantiradi.

Yuridik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan yana biri interdissiplinar yondashuvni rivojlantirish hisoblanadi. Huquq sohasi iqtisodiyot, siyosatshunoslik, axborot texnologiyalari, psixologiya va boshqa sohalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani uchun kompleks bilimlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa yangi avlod huquqshunoslarini tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim sifati ko‘p jihatdan professor-o‘qituvchilarning malakasiga bog‘liq. Shu sababli pedagoglarning doimiy malaka oshirishi, xorijiy tajribani o‘rganishi va ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanishi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilish va ularni amaliyotga tatbiq qilish ta’lim samaradorligini oshiradi

Yuridik ta’lim va ilmiy tadqiqotlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ilmiy grantlar, innovatsion loyihalar va akademik dasturlarning ko‘payishi tadqiqotlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xususiy sektor va davlat organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish imkonini beradi.

Huquqiy ta’lim tizimini rivojlantirishda milliy qadriyatlar va xalqaro standartlar o‘rtasida muvozanatni saqlash muhimdir. Milliy

huquqiy an’analarni asrab-avaylash bilan birga, dunyo tajribasidagi ilg‘or yondashuvlarni joriy qilish huquqiy tizimning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yuridik ta’lim sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi ta’lim dasturlari joriy qilinishi, raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi, xalqaro hamkorlikning kuchayishi va ilmiy tadqiqotlarga e’tibor ortishi huquqiy ta’lim tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal etish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi uzilishlarni bartaraf etish, ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini kuchaytirish, yosh olimlarni rag‘batlantirish va raqamli huquq sohasida mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

- Xulosa: Xulosa qilib aytganda, yuridik ta’lim va huquqiy tadqiqotlarni rivojlantirish mamlakatda huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda yuridik ta’lim tizimi nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishga ham xizmat qilishi lozim.

Yuridik ta’limning samaradorligi uning ilmiy tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liqligi orqali ta’minlanadi. Ilmiy izlanishlar huquqiy islohotlarni chuqur tahlil qilish, qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammolarga yechim topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning keng joriy qilinishi, xalqaro hamkorlikning kuchayishi, innovatsion pedagogik usullarning qo‘llanilishi va akademik halollik tamoyillariga rioya qilinishi yuridik ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash, yuridik klinikalar faoliyatini kengaytirish va ta’lim-amaliyot integratsiyasini kuchaytirish sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kelgusida yuridik ta’lim tizimi mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va innovatsion yondashuvlarga asoslangan holda takomillashtirilishi zarur. Faqat shundagina zamonaviy huquqiy munosabatlarga mos keladigan yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

# NARKOTIK VOSITALAR NOQONUNIY AYLANISHIGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI

***K.S.Beysenov***
*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti*
*Kasbiy tayyorgarlik fakulteti*
*Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, dotsent.*
*[bisenovkenjaboy@gmail.com]*
*+998988 339 7071*

**Annotatsiya:**Mazkur ilmiy maqolada narkotik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurashning milliy hamda xalqaro huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xalqaro konvensiyalar, jinoyat-huquqiy choralar hamda profilaktik mexanizmlar ilmiy jihatdan yoritilgan. Muallif tomonidan ushbu sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Narkotik vositalar, psixotrop moddalar, noqonuniy aylanish, jinoyat, xalqaro konvensiya, huquqiy tartibga solish, profilaktika, javobgarlik, giyohvandlik, kontrabanda.

Bugungi globallashuv jarayonida narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi dunyo hamjamiyati uchun eng xavfli transmilliy jinoyatlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur illat inson salomatligi, jamiyat barqarorligi, iqtisodiyot va davlat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Shu sababli ham narkotik vositalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish barcha davlatlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham narkotik vositalar noqonuniy aylanishining oldini olish, uni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan keng qamrovli huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan. Ushbu tizim milliy qonunchilik hamda xalqaro huquq normalariga asoslanadi.

Narkotik vositalar noqonuniy aylanishi deganda narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, sotish yoki boshqa usullarda tarqatish tushuniladi [1].

Mazkur jinoyatning ijtimoiy xavfliligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi

- aholi salomatligiga zarar yetkazishi;
- yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning kengayishiga sabab bo‘lishi;
- boshqa turdagi jinoyatlar o‘sishiga olib kelishi;
- transmilliy uyushgan jinoyatchilik rivojlanishiga xizmat qilishi;
- davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid tug‘dirishi.

Ayniqsa, giyohvandlik insonning jismoniy va ruhiy salomatligini izdan chiqarib, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarning yemirilishiga olib keladi. Shu bois mazkur sohada samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Narkotik vositalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash xalqaro hamkorliksiz samarali bo‘lishi mumkin emas. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bir qator xalqaro konvensiyalar qabul qilingan.

Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1961-yildagi “Narkotik vositalar to‘g‘risida”gi Yagona konvensiya [2];
- 1971-yildagi “Psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Konvensiya [3];
- 1988-yildagi “BMTning narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasi [4].

Mazkur xalqaro hujjatlarda:

- narkotik vositalarni nazorat qilish;
- noqonuniy savdoga qarshi kurash;
- davlatlararo hamkorlik;
- ekstraditsiya;
- jinoiy javobgarlik;
- profilaktika va reabilitatsiya masalalari belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan bo‘lib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirib bormoqda.

O‘zbekistonda narkotik vositalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurashning huquqiy asoslari Konstitutsiya, Jinoyat kodeksi hamda maxsus qonunlarda mustahkamlangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 1999 yilda qabul qilingan “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni ushbu sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi [5].

Mazkur qonunda:

- narkotik vositalar muomalasi;
- davlat nazorati;
- litsenziyalash
- saqlash va tashish qoidalari;
- noqonuniy aylanishga qarshi choralar;
- vakolatli organlarning vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida narkotik vositalar bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jumladan: 270-modda. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish;

271-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash; 273-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish; 274-modda. Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoki bunday moddalarni iste’mol qilishga jalb etish; 275-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish; 276-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar [6].

Mazkur normalar jinoyatning og‘irlik darajasidan kelib chiqib turli jazo choralarini nazarda tutadi

Narkotik vositalarga qarshi kurashda profilaktik choralar muhim o‘rin tutadi. Chunki jinoyatning oldini olish uni sodir etgandan keyin jazolashdan ko‘ra samaraliroq hisoblanadi.

Profilaktika quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlari olib borish;
- yoshlarni zararli illatlardan himoya qilish;
- ta’lim muassasalarida tushuntirish ishlari;
- tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatish
- reabilitatsiya markazlari faoliyatini rivojlantirish

Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari, chegara nazorati va kontrabandaga qarshi kurash choralari amalga oshiriladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida narkotik vositalarning internet orqali savdosi ham kuchaymoqda. Bu esa kiberjinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi

Mazkur sohada quyidagi muammolar mavjud:

- noqonuniy internet savdosining kengayishi;
- yoshlar o‘rtasida sintetik narkotiklar tarqalishi

- transmilliy jinoyatchilikning kuchayishi;
- profilaktika samaradorligining yetarli emasligi;
- reabilitatsiya tizimining to‘liq rivojlanmaganligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun: qonunchilikni zamonaviy tahdidlarga mos ravishda takomillashtirish; xalqaro hamkorlikni kuchaytirish; raqamli monitoring tizimlarini joriy etish; yoshlar bilan ishlash mexanizmlarini kuchaytirish; giyohvandlikka qarshi targ‘ibotni kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, narkotik vositalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash davlat va jamiyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur yo‘nalishda samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda profilaktik choralarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohada mustahkam huquqiy baza shakllangan bo‘lsa-da, zamonaviy tahdidlar qonunchilikni muntazam ravishda takomillashtirib borishni talab etadi. Ayniqsa, yoshlarni giyohvandlikdan himoya qilish va noqonuniy aylanishning oldini olish bo‘yicha tizimli ishlarni kuchaytirish zarur.

## - Foydalanilgan adabiyotlar


- Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. Махсус қисм. – Тошкент: ТДЮУ, 2021. – Б. 325–331.
- Single Convention on Narcotic Drugs of 1961 // United Nations Treaty Series. – New York: United Nations, 1964. – Vol. 520. – P. 151–204.
- Convention on Psychotropic Substances, 1971 // United Nations Treaty Series. – New York: United Nations, 1976. – Vol. 1019. – P. 175–227.
- United Nations Convention Against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances, 1988. – Vienna: United Nations, 1988. – P. 95–172.
- Ўзбекистон Республикасининг “Наркотик воситалар ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. – 1999. – №9. – Б. 210–218.
- Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Тошкент: Адолат, 2025. – Б. 198–205.
- Ахмедшаева М. Гиёҳвандликка қарши курашнинг долзарб масалалари. – Тошкент: Юрист Медиа Маркази, 2022. – Б. 84–96.

- Каримов А. Трансмиллий наркобизнес ва унга қарши кураш муаммолари // Ҳуқуқ ва бурч. – Тошкент, 2023. – №4. – Б. 41–47.
- БМТнинг Наркотиклар ва жиноятчилик бўйича бошқармаси (UNODC) маълумотлари. – Vienna, 2024. – Б. 56–63.
- Исмоилов Б. Наркотик воситалар билан боғлиқ жиноятларни тергов қилиш методикаси. – Тошкент: Академия, 2020. – Б. 112–128.

## VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

***A.G‘Asqarov,***
*Sarbon universiteti “Huqiqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*
*asqarovaxbor4@gmail.com*

**Annotatsiya**. Mazkur tezisda voyaga yetmaganlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi inson qadrini oliy qadriyat sifatida e’tirof etgani holda bolalikni davlat muhofazasiga olingan alohida ijtimoiy-huquqiy institut sifatida belgilaydi. Voyaga yetmagan shaxslarning yashash, sog‘liqni saqlash, ta’lim olish, oilada tarbiya topish, zo‘ravonlikdan himoyalanish, ijtimoiy ta’minotdan foydalanish, sud va boshqa organlarga murojaat qilish kabi huquqlari umumiy inson huquqlari tizimining tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga maxsus kafolatlar orqali ta’minlanishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishdir.

**Kalit so‘zlar:** voyaga yetmaganlar, bola huquqlari, konstitutsiyaviy kafolat, qonuniy manfaat, bolalik muhofazasi, ta’lim huquqi, zo‘ravonlikdan himoya, Bolalar ombudsmani, ijtimoiy-huquqiy yordam, profilaktika.

Voyaga yetmaganlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalasi zamonaviy konstitutsiyaviy huquqning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Chunki bola shaxsining huquqiy maqomi jamiyat kelajagi, davlatning insonparvarlik mohiyati va huquqiy madaniyat darajasi bilan bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida mustahkamlab, bolalar va yoshlar masalasiga alohida konstitutsiyaviy e’tibor qaratdi. Konstitutsiyaning 44-moddasida bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘i, xavfsizligi, axloqi, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi hamda ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi belgilangan. 50-moddada har kimning ta’lim olish huquqi, 77–80-moddalarda esa oila,

ota-onalik, bolalik va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq konstitutsiyaviy majburiyatlar mustahkamlangan. Bu normalar voyaga yetmagan shaxsni davlat himoyasidagi alohida subyekt sifatida talqin etishga asos yaratadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashuv, raqamli axborot muhitining kengayishi, oilaviy munosabatlardagi ijtimoiy-psixologik muammolar, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va qarovsiz qolish xavfi voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmaslikni talab etmoqda. Bugungi kunda bola manfaatini ustuvor qo‘yish, huquqbuzarlikning oqibatiga emas, balki uning oldini olishga qaratilgan profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish, bolaga nisbatan har qanday zo‘ravonlikni erta aniqlash va tezkor himoya choralarini qo‘llash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. 2024-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, shuningdek “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun bilan davlat organlari, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining vakolatlari aniqlashtirilgani sohaga oid institutsional kafolatlarning kuchayganini ko‘rsatadi. 2025-yilda tasdiqlangan 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi esa himoya tizimini uzoq muddatli, kompleks va natijador mexanizmga aylantirishga qaratilgan

Voyaga yetmaganlar huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari, avvalo, bolaning huquq subyekti sifatida tan olinishi, uning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish hamda davlat organlarining ushbu boradagi ijobiy majburiyatlarini belgilashda namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyaviy kafolatlar umumiy va maxsus kafolatlarga ajratiladi. Umumiy kafolatlar insonning shaxsiy daxlsizligi, sud orqali himoyalanishi, murojaat qilish, axborot olish, ta’lim va tibbiy xizmatdan foydalanish huquqlarini qamrab olsa, maxsus kafolatlar aynan bolalik, oila, ota-onalik, yetim bolalar, ota-ona vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalar, nogironligi bo‘lgan bolalar hamda zo‘ravonlikdan jabrlangan voyaga yetmaganlarni himoya qilishga qaratiladi. Shu bois bola huquqlarini ta’minlash faqat deklarativ e’lon bilan emas, balki ijtimoiy, tashkiliy, protsessual va institutsional mexanizmlar bilan mustahkamlanishi zarur.

Ilmiy yondashuvlarda voyaga yetmagan shaxs manfaatining ustuvorligi markaziy prinsip sifatida baholanadi. Mazkur prinsipga ko‘ra,

bola bilan bog‘liq har qanday qaror qabul qilinayotganda, birinchi navbatda, uning hayoti, salomatligi, ma’naviy-axloqiy kamoloti, ta’limi va xavfsizligi e’tiborga olinishi lozim. Bu yondashuv oila huquqi, ta’lim huquqi, jinoyat-protsessual huquq, ma’muriy huquq va ijtimoiy himoya tizimlarida yagona mezon sifatida qo‘llanilgandagina samarali natija beradi. Masalan, ta’lim muassasasida bolaning kamsitilmasligi, oilada uning fikri inobatga olinishi, sud-huquq jarayonlarida voyaga yetmagan shaxsning psixologik holati hisobga olinishi, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda individual yondashuvning qo‘llanishi konstitutsiyaviy normalarning amaliy ifodasidir.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda asosiy tarmoq qonuni hisoblanadi. Unda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa institutlar bolalar huquqlarini ta’minlashga oid dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi nazarda tutiladi. Mazkur qonun bolaning hayotga, sog‘liqni saqlashga, ta’limga, oilada yashash va tarbiyalanishga, fikr bildirishga, himoyaga bo‘lgan huquqlarini mustahkamlaydi. Ayniqsa, emansipatsiya, vasiylik va homiylik, ijtimoiy yordam, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni himoya qilish kabi institutlar bolaning qonuniy manfaatlarini real ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Bolalar ombudsmani instituti voyaga yetmaganlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytiruvchi muhim konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmdir. Mazkur institut bolalar va ularning qonuniy vakillaridan kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish, bola huquqlari buzilgan holatlarni o‘z tashabbusi bilan o‘rganish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini bola manfaatlari nuqtayi nazaridan baholash, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilish orqali bolalar manfaatlarini himoya qiladi. Bu mexanizmning ahamiyati shundaki, u bolaning ovozini davlat boshqaruvi tizimiga olib kiradi va huquqlar buzilishi yuzasidan mustaqil monitoring imkonini yaratadi.

Voyaga yetmaganlarning huquqlarini ta’minlashda zo‘ravonlikdan himoya qilish alohida yo‘nalishdir. 2024-yilda qabul qilingan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy zo‘ravonlik, beparvolik va ekspluatatsiya holatlarini oldini olish, aniqlash va bartaraf etishning huquqiy asoslarini belgiladi. Qonunda ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash tizimi, mahalliy ijro organlari, Milliy gvardiya, Yoshlar ishlari agentligi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda nodavlat tashkilotlarning vakolatlari ajratib

koʻrsatilgani idoralararo hamkorlikka asoslangan himoya modelini shakllantiradi. 2026–2030-yillarga moʻljallangan strategiyada esa zoʻravonlikdan jabrlangan bolalarga reabilitatsiya xizmatlarini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan sudyalar korpusini shakllantirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda maxsus boʻlinmalar faoliyatini rivojlantirish kabi vazifalar belgilangan. Bu esa huquqiy himoyani jazolash chorasidan kengroq, ya’ni profilaktika, reabilitatsiya va qayta integratsiya jarayoni sifatida koʻrishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari Oʻzbekistonda inson qadrini ulugʻlash, bolalikni davlat muhofazasiga olish va sogʻlom avlodni tarbiyalash siyosatining huquqiy poydevorini tashkil etadi. Konstitutsiya bolalarning tengligi, ta’lim olishi, sogʻligʻi, xavfsizligi, ijtimoiy himoyasi, oilada tarbiya topishi va zoʻravonlikdan himoyalanishi uchun asosiy kafolatlarni belgilaydi. Ushbu kafolatlar “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonun, Bolalar ombudsmani toʻgʻrisidagi Qonun, zoʻravonlikdan himoya qilishga oid yangi qonunchilik va Prezident farmonlari orqali amaliy mexanizmlarga aylantirilmoqda.

Ilmiy yakun sifatida aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar huquqlarini ta’minlashda uch yoʻnalish ustuvor ahamiyatga ega: birinchidan, bola manfaatini barcha qarorlar markaziga qoʻyish; ikkinchidan, zoʻravonlik, qarovsizlik va huquqbuzarlik xavfini erta aniqlaydigan profilaktik tizimni kuchaytirish; uchinchidan, davlat organlari, oila, mahalla, ta’lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar oʻrtasidagi idoralararo hamkorlikni natijador qilish. Amaliy taklif sifatida maktablarda bola huquqlari boʻyicha huquqiy madaniyat mashgʻulotlarini kuchaytirish, xavf guruhidagi bolalar boʻyicha yagona monitoring tizimini takomillashtirish, Bolalar ombudsmani bilan mahalliy tuzilmalar oʻrtasida axborot almashinuvini kengaytirish hamda bolaga doʻstona sud-huquq amaliyotini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv konstitutsiyaviy normalarning hayotiyligini oshiradi va voyaga yetmaganlarning qonuniy manfaatlarini real himoya qilishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahriri. – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-139-son, 2008-yil 7-yanvar // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-996-son, 2024-yil 14-noyabr // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-917-son, 2024-yil 29-fevral // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-6275-son, 2021-yil 9-avgust // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-256-son, 2025-yil 24-dekabr // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi

7. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: 1998-yil 30-aprel // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

8. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi: 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan xalqaro hujjat. – Nyu-York: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1989.

## XALQARO XAVFSIZLIK VA ZAMONAVIY TAHDIDLAR

***D.Abduqodirov***
*Sarbon Universiteti talabasi*
*abduqodirovdavronbek4@gmail.com*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro xavfsizlik tushunchasi, uning tarixiy shakllanishi va zamonaviy bosqichdagi rivojlanish jarayonlari keng tahlil qilinadi. Xususan, terrorizm, kiberxavfsizlik, ekologik muammolar, pandemiyalar hamda geosiyosiy ziddiyatlarning global xavfsizlik tizimiga ta’siri ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning roli ochib berilib, global xavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy mexanizmlari va istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro xavfsizlik, terrorizm, kiberxavfsizlik, geosiyosat, pandemiya, global tahdidlar,xalqaro tashkilotlar, diplomatiya.

XXI asrga kelib xalqaro xavfsizlik masalasi dunyo hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Globallashuv jarayonlari natijasida davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tobora kuchayib bormoqda [2]. Shu sababli xavfsizlik tushunchasi an’anaviy harbiy yondashuv doirasidan chiqib, keng qamrovli tizimga aylangan. Ilgari xavfsizlik asosan harbiy tahdidlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda iqtisodiy, ekologik va axborot xavfsizligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Ayniqsa, kiberxavfsizlik va global pandemiyalar yangi tahdidlar sifatida namoyon bo‘lib, davlatlarning ichki va tashqi barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda [5]. Zamonaviy xavfsizlik muammolari global xarakterga ega bo‘lib, ularni faqat bitta davlat doirasida hal qilish imkonsizdir. Shu bois davlatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda. Bu jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti muhim o‘rin tutadi [3]. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy tahdidlarni chuqur o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur maqolaning asosiy maqsadi xalqaro xavfsizlik tushunchasini tahlil qilish hamda uning zamonaviy tahdidlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ochib berishdan iborat.

XXI asrga kelib xalqaro xavfsizlik masalasi dunyo hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi, chunki globallashuv jarayonlari natijasida davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tobora kuchayib bormoqda [2]. Shu sababli xavfsizlik tushunchasi an’anaviy harbiy yondashuv doirasidan chiqib, keng qamrovli tizimga aylangan bo‘lib, u nafaqat harbiy, balki iqtisodiy, ekologik va axborot xavfsizligini ham o‘z ichiga oladi [1]. Xalqaro xavfsizlik tushunchasi XX asrda, ayniqsa jahon urushlaridan keyin shakllanib rivojlandi va global barqarorlikni ta’minlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etildi, bu esa davlatlar o‘rtasidagi nizolarni diplomatik yo‘l bilan hal qilish, inson huquqlarini himoya qilish va tinchlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi [3]. Sovuq urush davrida xavfsizlik asosan harbiy bloklar o‘rtasidagi muvozanatga asoslangan bo‘lsa, bugungi kunda u yanada kengayib, turli sohalarni qamrab olgan murakkab tizimga aylandi. Ayniqsa, zamonaviy tahdidlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular terrorizm, kiberxavfsizlik muammolari, ekologik inqirozlar, pandemiyalar hamda geosiyosiy ziddiyatlardan iboratdir. Terrorizm bugungi kunda global xavfsizlikka eng katta tahdidlardan biri hisoblanib, terroristik tashkilotlar zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘z faoliyatini kengaytirmoqda [5], shu bilan birga kiberxavfsizlik muammolari keskinlashib, davlatlar

o‘rtasida “axborot urushi” tushunchasi shakllanmoqda [6]. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan kiberhujumlar soni ortib borayotgani ham xavfsizlikka yangi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda, ekologik muammolar, jumladan iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi va umumiy ekologik inqirozlar esa davlatlar o‘rtasida resurslar uchun raqobatni kuchaytirib, global xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [4]. Shu bilan bir qatorda pandemiyalar ham jiddiy xavf omili bo‘lib, xususan, COVID-19 pandemiyasi davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy tizimlariga katta zarba berdi [7], bu esa xavfsizlik tushunchasining yanada kengayishiga sabab bo‘ldi. Geosiyosiy ziddiyatlar, yirik davlatlar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi esa ayrim hududlarda mojarolar yuzaga kelishiga olib kelmoqda va global barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bunday murakkab va o‘zaro bog‘liq sharoitda xalqaro xavfsizlikni ta’minlash faqat bitta davlat doirasida hal etilishi mumkin emas, balki keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Shu sababli davlatlar o‘rtasida diplomatik muzokaralar olib borish, xalqaro huquq normalariga amal qilish, iqtisodiy hamkorlik va integratsiyani rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda harbiy hamkorlik orqali strategik muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda NATO va Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar muhim rol o‘ynab, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va global tahdidlarga qarshi kurashishda samarali mexanizmlarni taqdim etmoqda. Shuningdek, davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash ham xavfsizlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston ham Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutib, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda faol siyosat yuritmoqda hamda qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. Ayniqsa, Afg‘oniston bilan bog‘liq masalalarda diplomatik yondashuvni ilgari surishi va mintaqaviy tinchlikni ta’minlashga qaratilgan tashabbuslari uning xalqaro xavfsizlikdagi rolini yanada oshirmoqda. Umuman olganda, zamonaviy xalqaro xavfsizlik ko‘p qirrali va murakkab tizim bo‘lib, u harbiy omillar bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va axborot xavfsizligini ham o‘z ichiga oladi, zamonaviy tahdidlar global xarakterga ega bo‘lib, butun dunyo barqarorligiga ta’sir ko‘rsatmoqda [1][2][5]. Shu sababli kelajakda xalqaro xavfsizlikni ta’minlash uchun davlatlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va global muammolarni birgalikda hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro xavfsizlik bugungi kunda murakkab va ko‘p qirrali tizimga aylangan bo‘lib, u harbiy omillar bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va axborot xavfsizligini ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy tahdidlar, jumladan terrorizm, kiberxavfsizlik muammolari va geosiyosiy ziddiyatlar global xarakterga ega bo‘lib, ular butun dunyo barqarorligiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, bunday muammolarni faqat alohida davlatlar doirasida hal qilish mumkin emas va davlatlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Kelajakda xalqaro xavfsizlikni ta’minlash uchun davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va global muammolarni birgalikda hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

## HARBIY JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY GENEZISI VA DAVRLASHTIRISH MASALALARI

***S.Akbarov***
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi*
*Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va*
*qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil*
*devoni yetakchi inspektori*
*E-mail: [akbarov3700@mail.ru*]

Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi zamonaviy xalqaro huquqning eng muhim va eng murakkab institutlaridan biridir. Mazkur institut bugungi kunda xalqaro gumanitar huquq, xalqaro jinoyat huquqi, milliy jinoyat qonunchiligi, harbiy huquq va inson huquqlari huquqi kesishgan nuqtada shakllanmoqda. Biroq uning hozirgi ko‘rinishi birdan paydo bo‘lmagan; u ko‘p asrlik tarixiy tajriba, urushlar fojiasi, odat huquqi, diniy-qadriyatli taqiqlar, harbiy intizomga oid qoidalar va keyinchalik xalqaro shartnomaviy huquq normalari orqali bosqichma-bosqich takomillashgan [1].

Ilmiy muammo shundan iboratki, harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik institutini faqat XX asr xalqaro jinoyat sudlari mahsuli sifatida talqin qilish uning tarixiy va nazariy ildizlarini toraytiradi. Haqiqatan ham, Nyurnberg va Tokio tribunallari ushbu institutni xalqaro jinoyat huquqining mustaqil yo‘nalishi darajasiga olib chiqqan bo‘lsa-da,

urush olib borish vositalari va usullarini cheklashga qaratilgan g‘oyalar qadimgi va o‘rta asrlardayoq mavjud bo‘lgan. Shuning uchun harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni to‘g‘ri anglash uchun uning genezisini, taqiq manbalarini, javobgarlik subyekti haqidagi tasavvurlarni hamda realizatsiya mexanizmlarini tarixiy-huquqiy tahlil qilish zarur.

Ushbu maqolaning maqsadi harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik institutining nazariy-huquqiy shakllanishini mantiqiy davrlarga ajratish, har bir davrning huquqiy mazmunini ochib berish hamda mazkur davrlashtirishning xalqaro jinoyat huquqi nazariyasi uchun ahamiyatini asoslashdan iborat. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tahliliy va formal-yuridik metodlar tashkil etadi.

Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni davrlashtirishda faqat xalqaro jinoyat protsessi institutlarining paydo bo‘lishi bilan cheklanish yetarli emas. Chunki mazkur institutning ildizlari xalqaro sud organlari shakllanishidan ancha avvalgi davrlarga borib taqaladi. Bu borada ayrim mualliflar harbiy jinoyatlar bo‘yicha xalqaro jinoyat ishlarini yuritish doktrinasining shakllanishini 1815-yildan boshlab tahlil qiladilar. Bunday yondashuv xalqaro jinoyat protsessining shakllanishi nuqtayi nazaridan asosli bo‘lsa-da, harbiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik normalarining tarixiy ildizlarini to‘liq qamrab olmaydi [2].

Fikrimizcha, davrlashtirishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: birinchidan, urush olib borishga doir taqiqlarning manbasi – odat, din, hukmdor farmoni, milliy qonun yoki xalqaro shartnoma; ikkinchidan, javobgarlik subyekti haqidagi tasavvur – qo‘shin a’zosi, qo‘mondon, hukmdor yoki individual jismoniy shaxs; uchinchidan, javobgarlikni amalga oshirish mexanizmi – harbiy intizomiy jazo, milliy sud, koalitsion tribunal yoki xalqaro jinoiy yurisdiksiya; to‘rtinchidan, yuridik texnika darajasi – umumiy axloqiy taqiqdan aniq normativ dispozitsiya va sanksiyaga o‘tish[3].

Shu mezonlardan kelib chiqib, harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik institutining nazariy genezisini to‘rt asosiy bosqichda ko‘rish mumkin: birinchi bosqich – qadimgi va o‘rta asrlardagi odat va diniy taqiqlar davri; ikkinchi bosqich – XVI asrdan XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan milliy harbiy-jinoiy qonunchilik davri; uchinchi bosqich – XIX asrning ikkinchi yarmidan Ikkinchi jahon urushigacha bo‘lgan xalqaro gumanitar huquq kodifikatsiyasi davri; to‘rtinchi bosqich – Nyurnbergdan boshlab zamonaviy xalqaro jinoiy odil sudlov tizimi shakllangan davr. Mazkur maqola asosan birinchi uch bosqichning nazariy-huquqiy mazmuniga bag‘ishlanadi.

Qadimgi va o‘rta asrlar huquqiy tajribasida urush olib borish qoidalari asosan yozilmagan odat normalari orqali tartibga solingan. Mazkur normalar hozirgi ma’nodagi insonparvarlik huquqi darajasiga yetmagan bo‘lsa-da, ular urushning mutlaq zo‘ravonlik sifatida kechishini muayyan darajada cheklashga xizmat qilgan. Urushayotgan tomonlar tomonidan ayrim shaxslar, diniy binolar, asirlar yoki elchilar daxlsizligini tan olish holatlari aynan shu odat-huquqiy tajribaning ilk ko‘rinishlari sifatida baholanishi mumkin[4].

Biroq bu davrdagi cheklovlarning asosiy maqsadi har doim ham insonparvarlik bo‘lmagan. Ko‘pincha ular harbiy intizomni saqlash, iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish, bosib olingan hududni boshqarish imkoniyatini ta’minlash yoki diniy-siyosiy legitimlikni saqlab qolish zaruratidan kelib chiqqan. Shunga qaramay, urush jarayonida ayollar, bolalar, qariyalar, ruhoniylar va diniy muassasalarni himoya qilish haqidagi qoidalar keyinchalik xalqaro gumanitar huquqning asosiy tamoyillariga aylangan g‘oyalarning tarixiy poydevorini yaratdi [5].

Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida ham harbiy yurishlar va qo‘shin intizomini tartibga soluvchi muayyan qoidalar mavjud bo‘lgan. Xususan, Amir Temur davrida «Temur tuzuklari» orqali qo‘shin intizomi, aholi bilan muomala, talonchilik va zo‘ravonlikni cheklash masalalari tartibga solinganligi haqida ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. Mazkur tajriba xalqaro gumanitar huquq shakllanishidan avval ham mintaqaviy-huquqiy tafakkurda urushni muayyan qoidalarga bo‘ysundirish g‘oyasi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [6].

Diniy ta’limotlar ham urush olib borish qoidalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Xristianlik, islom va boshqa diniy-huquqiy an’analarda begunoh shaxslarni o‘ldirmaslik, ibodat joylariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, asirlarga nisbatan shafqatsizlik qilmaslik, ayollar va bolalarga zarar yetkazmaslik kabi qoidalar ilgari surilgan. Islom xalqaro huquqi bo‘yicha tadqiqotlarda ham urush paytida tinch aholiga nisbatan zo‘ravonlikni cheklash diniy va huquqiy burch sifatida talqin qilingan[7].

1474-yilda Peter fon Xagenbax ustidan o‘tkazilgan sud jarayoni harbiy jinoyatlar uchun individual javobgarlik g‘oyasining tarixiy prototipi sifatida alohida ahamiyatga ega. Breyzax shahrida sodir etilgan qotilliklar, zo‘rlashlar, noqonuniy soliqlar va mulkni asossiz musodara qilish holatlari bo‘yicha Xagenbax maxsus tribunal oldida javob bergan. Sud tarkibi koalitsiya vakillaridan iborat bo‘lgan 28 nafar sudyadan

tuzilganligi ushbu jarayonni o‘sha davr uchun odatiy mahalliy sud muhokamasidan farqlantiradi.

Xagenbax himoyasi uning Burgundiya gersogi buyrug‘ini bajarganini vaj sifatida keltirgan bo‘lsa-da, sud ayblanuvchining shaxsiy javobgarligini tan olgan. Bu jihat keyinchalik Nyurnberg tribunalida mustahkamlangan «buyruqni bajarish javobgarlikdan to‘liq ozod qilmaydi» degan yondashuvning uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Albatta, Xagenbax jarayonini zamonaviy xalqaro jinoyat sudi bilan tenglashtirish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas, biroq uni xalqaro jinoiy yurisdiksiyaning ilk tarixiy ko‘rinishlaridan biri sifatida baholash mumkin[8].

Mazkur jarayonning nazariy ahamiyati shundaki, unda uch muhim g‘oya namoyon bo‘ladi: birinchidan, harbiy yoki ma’muriy vakolatga ega shaxsning zo‘ravonliklari faqat ichki intizomiy masala emas, balki kengroq xalqaro manfaatlarga daxldor bo‘lishi mumkin; ikkinchidan, yuqori rahbar buyrug‘i mutlaq oqlovchi sabab sifatida qabul qilinmaydi; uchinchidan, urush davridagi shafqatsizliklar shaxsiy javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik institutining keyingi bosqichi XVI asrdan boshlab milliy harbiy-jinoiy qonunchilikning shakllanishi bilan bog‘liq. Angliya, Fransiya, Vengriya, Shvetsiya va boshqa davlatlarda qo‘shinlarning huquq va majburiyatlari, harbiy asirlar va tinch aholi bilan muomala qilish, qamal qoidalari, talonchilik va zo‘ravonlik uchun javobgarlikni belgilovchi nizomlar qabul qilina boshladi. Mazkur hujjatlar urushdagi zo‘ravonlikni tartibga solish masalasini hukmdor irodasidan yozma huquq normalariga ko‘chirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi[9].

Muntazam armiya paydo bo‘lishi bilan harbiy intizom, markazlashgan boshqaruv va qo‘mondonlik tizimi mustahkamlandi. Natijada qo‘shin a’zolarining harakatlari faqat harbiy intizom emas, balki jinoiy-huquqiy tartibga solish predmeti sifatida ham baholana boshladi. Harbiy nizomlarda shaharlarni egallash paytida ibodatxonalar, maktablar va shifoxonalarni talon-toroj qilish, ayollar, bolalar va qariyalarga zarar yetkazish, asirlarni o‘ldirish yoki qiynoqqa solish kabi qilmishlar og‘ir jinoyat sifatida ko‘rsatildi[10].

XIX asrning birinchi yarmiga kelib harbiy-jinoiy qonunchilikdagi yuridik texnika ancha takomillashdi. Urush qonunlari va odatlariga qarshi jinoyatlar alohida guruh sifatida ajratila boshladi; tinch aholiga nisbatan zo‘ravonlik, mulkka tajovuz, harbiy asirni o‘ldirish yoki unga shafqatsiz

munosabatda bo‘lish kabi tarkiblar aniqroq ifodalandi. Bu jarayon zamonaviy harbiy jinoyatlar tarkibining normativ asoslari milliy huquq tizimlarida shakllanganini ko‘rsatadi[11].

Shu bilan birga, ushbu bosqichda xalqaro huquqning ta’siri hali cheklangan edi. Taqiqlar asosan milliy qonunchilik va qo‘shin intizomi doirasida amal qilgan. Xalqaro-huquqiy omil faqat ayrim masalalarda, jumladan ekstraditsiya yoki sulh shartnomalarida namoyon bo‘lgan. Demak, XVI–XIX asrlar davri harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik institutining milliy-huquqiy pishib yetilish bosqichi sifatida baholanishi lozim[12].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab urushni insonparvarlashtirish g‘oyalari xalqaro shartnomaviy huquq darajasiga ko‘tarildi. 1864-yilgi birinchi Jeneva konvensiyasi yarador va bemor harbiy xizmatchilarni himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa, 1863-yilgi Lieber kodeksi qurolli mojaroda tinch aholi, mulk va jangovar qobiliyatini yo‘qotgan shaxslarga munosabat bo‘yicha muhim tamoyillarni mustahkamladi. Ushbu hujjatlar xalqaro gumanitar huquqning keyingi kodifikatsiyasi uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi[13].

1868-yilgi Sankt-Peterburg deklaratsiyasi harbiy zarurat va insonparvarlik o‘rtasidagi nisbatni xalqaro huquqiy darajada ifodalagan muhim hujjat bo‘ldi. Unda harbiy harakatlarning maqsadi dushmanning harbiy kuchini zaiflashtirish bilan cheklanishi, ortiqcha azob-uqubat yetkazadigan vositalardan foydalanish taqiqlanishi lozimligi qayd etildi. 1899 va 1907-yillardagi Gaaga tinchlik konferensiyalari esa quruqlikdagi urush qonunlari va odatlarini tizimlashtirishga xizmat qildi[14].

Birinchi jahon urushi yakunlari harbiy jinoyatlarni xalqaro darajada kriminallashtirish g‘oyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Parij tinchlik konferensiyasi doirasida tuzilgan komissiyalar urush qonunlari va odatlarini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish masalasini ko‘tardi. Versal shartnomasi sobiq Germaniya imperatori Vilgelm II va boshqa shaxslar ustidan sud qilish mexanizmini nazarda tutgan bo‘lsa-da, bu mexanizm amalda to‘liq ishlamadi. Shunga qaramay, Versal tajribasi [15] individual javobgarlik g‘oyasining xalqaro shartnomaviy huquqqa kirib kelishida muhim bosqich bo‘ldi [16]

Ushbu davrning asosiy nazariy natijasi shundan iboratki, harbiy jinoyatlar endilikda faqat qo‘shin intizomini buzish yoki milliy huquq doirasidagi jinoyat sifatida emas, balki xalqaro hamjamiyat manfaatlariga tajovuz qiluvchi qilmish sifatida tushunila boshladi. Aynan shu

yondashuv keyinchalik Nyurnberg tamoyillarining shakllanishiga zamin yaratdi.

O‘tkazilgan tahlil harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik institutining nazariy-huquqiy genezisi bir necha o‘zaro bog‘liq bosqichlardan iborat ekanini ko‘rsatadi. Birinchi bosqichda urush olib borish qoidalari odat va diniy taqiqlar orqali shakllangan; ikkinchi bosqichda bu qoidalar milliy harbiy-jinoiy qonunchilikka ko‘chgan; uchinchi bosqichda esa xalqaro gumanitar huquq kodifikatsiyasi orqali urush qonunlari va odatlarini buzish xalqaro-huquqiy ahamiyat kasb eta boshlagan.

Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni davrlashtirishda xalqaro sud organlari paydo bo‘lishigina emas, balki taqiqlar manbasi, javobgarlik subyekti, yuridik texnika va realizatsiya mexanizmlaridagi o‘zgarishlar ham asosiy mezon sifatida olinishi kerak. Bunday yondashuv mazkur institutning nazariy mohiyatini chuqurroq ochishga, uni faqat XX asr tribunallari mahsuli sifatida emas, balki ko‘p asrlik huquqiy evolyutsiya natijasi sifatida tushunishga imkon beradi.

Shu ma’noda, harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik institutining tarixiy-nazariy o‘rganilishi hozirgi xalqaro jinoyat huquqi uchun faqat retrospektiv ahamiyatga ega emas. U zamonaviy qurolli mojarolar sharoitida javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro gumanitar huquq normalarini samarali implementatsiya qilish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Винокуров А.Ю. Международно-правовые, теоретические и организационные основы уголовного преследования за совершение военных преступлений в отношении гражданского населения. – М., 2011.

2. Белый И.Ю. Международное уголовное судопроизводство по делам о военных преступлениях: проблемы становления и перспективы развития. Дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2009.

3. Беккер К.Ф. История Древнего мира. Восток. Греция. – М., 2001.

4. Буткевич О.В. Формирование элементов системы международного правосудия в Средние века // Российский юридический журнал. – 2012. – № 4.

5. Mamatov X.T. Temur tuzuklarida davlat va huquq masalalari: yurid. fan. nomz. ... dis. – T., 2002.

6. Шейх Вахбех аль-Зухили. Ислам и международное право // Международный журнал Красного Креста. – 2005. – № 858.

7. Schwarzenberger G. International Law as Applied by International Courts and Tribunals. Vol. II: The Law of Armed Conflict. – London, 1968.

8. Петухов Н.А. Социально-правовые проблемы становления и развития системы военных судов в России. – М., 2003.

9. Трикоз Y.H. Преступления против мира и безопасности человечества: сравнительный и международно-правовой аспекты. – М., 2015.

10. Военно-уголовное законодательство / под ред. М.К. Кислицына. – М.: Норма, 2002.

11. Валеев Р.М., Курдюков Г.И. Международное право: учебник для бакалавров. – М.: Статут, 2017.

## INTERNET TEXNOLOGIYALARI ORQALI YURIDIK ILM-FAN VA HUQUQIY TADQIQOTLARNI RAQAMLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

***O.E.Allayarov***
*Sarbon universiteti*
*“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi, dotsenti*
*Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya**. Mazkur tezisda internet texnologiyalarining yuridik ilm-fan va huquqiy tadqiqotlar rivojidagi o‘rni tahlil qilinadi. Raqamli platformalar, sun’iy intellekt, elektron ma’lumotlar bazalari hamda onlayn huquqiy xizmatlarning ilmiy faoliyatdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, huquqiy tadqiqotlarni raqamlashtirishning istiqbollari va mavjud muammolari ko‘rib chiqilgan.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida internet texnologiyalari barcha sohalar qatori yuridik ilm-fan rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida huquqiy tadqiqotlarni olib borish usullari, ilmiy axborot almashinuvi hamda normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash tizimi tubdan o‘zgarmoqda. Ayniqsa, elektron ma’lumotlar bazalari, sun’iy intellekt texnologiyalari va onlayn platformalar yuridik ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda [1].

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida internet texnologiyalari barcha sohalar qatori yuridik ilm-fan rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida huquqiy tadqiqotlarni olib borish usullari, ilmiy axborot almashinuvi hamda normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash tizimi tubdan o‘zgarmoqda. Ayniqsa, elektron ma’lumotlar bazalari, sun’iy intellekt texnologiyalari va onlayn platformalar yuridik ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli muhit ilmiy izlanishlarni yanada tezkor va tizimli amalga oshirish imkonini yaratmoqda. Huquqiy axborotlarni qayta ishlashda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish tadqiqot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Onlayn ilmiy resurslar orqali global miqyosda ma’lumot almashish imkoniyati kengaymoqda. Elektron kommunikatsiya vositalari esa olimlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlamoqda. Umuman olganda, internet texnologiyalari yuridik ilm-fanning raqamli transformatsiyasida asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda yuridik ilm-fan sohasida internet texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri elektron huquqiy bazalardan foydalanish hisoblanadi. Elektron platformalar orqali normativ-huquqiy hujjatlar, sud qarorlari va xalqaro huquqiy materiallardan tezkor foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu esa ilmiy izlanishlar jarayonini tezlashtirish bilan bir qatorda, tadqiqotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qilmoqda. Elektron huquqiy bazalar ilmiy ma’lumotlarni tizimlashtirish va ularni yagona standart asosida saqlash imkonini bermoqda.

Raqamli platformalar turli manbalarni solishtirish va qiyosiy tahlil qilish uchun qulay texnik imkoniyatlar yaratmoqda. Ilmiy yangilanishlarni muntazam kuzatib borish hamda qonunchilikdagi o‘zgarishlarga tezkor moslashish jarayoni yanada samarali kechmoqda. Elektron huquqiy bazalarning rivojlanishi yuridik tadqiqotlarda metodologik yondashuvlarning takomillashishiga ham xizmat qilmoqda. Umuman olganda, ushbu infratuzilma yuridik ilm-fan samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida shakllanmoqda. [2]. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi yuridik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar katta hajmdagi huquqiy ma’lumotlarni tahlil qilish, sud amaliyotini o‘rganish va huquqiy prognozlarni ishlab chiqishda samarali qo‘llanilmoqda. “Legal Tech” platformalari orqali huquqiy hujjatlarni

avtomatik tahlil qilish, shartnomalarni tekshirish hamda sud amaliyotini monitoring qilish imkoniyatlari kengaymoqda [3].

Internet texnologiyalari yuridik ilmiy hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy konferensiyalar, vebinarlar va masofaviy ta’lim platformalari orqali turli davlat olimlari o‘rtasida ilmiy muloqot va tajriba almashinuvi kuchaymoqda. Bu esa xalqaro huquqiy tadqiqotlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda masofaviy ilmiy faoliyatning ommalashuvi internet texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshirdi [4]. Onlayn ilmiy ma’lumotlar bazalarining rivojlanishi tadqiqotchilar uchun zarur ilmiy manbalarni tezkor va samarali tarzda izlab topish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Internet texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi natijasida xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalarni elektron shaklda nashr etish hamda ularga qisqa muddatlarda ilmiy taqriz olish mexanizmlari takomillashmoqda. Virtual ilmiy platformalar va elektron resurslar yuridik olimlarga turli davlatlar qonunchilik tizimlarini qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Raqamli kommunikatsiya vositalarining keng qo‘llanilishi ilmiy loyihalarni masofaviy shaklda hamkorlik asosida amalga oshirish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonlar natijasida yuridik ilm-fanda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy tadqiqot metodologiyalari hamda raqamli tahlil usullarining qo‘llanish doirasi tobora kengayib bormoqda.

Raqamlashtirish jarayonida “Big Data” texnologiyalarining yuridik sohada qo‘llanilishi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Katta hajmdagi sud qarorlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma’lumotlarni kompleks tahlil qilish orqali huquqiy tizimdagi mavjud tendensiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkoniyati kengaymoqda. Mazkur texnologiyalar qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo‘llash amaliyotini optimallashtirish hamda sud-huquq faoliyatida samaradorlikni oshirishda muhim ilmiy-amaliy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yuridik ilm-fanni raqamlashtirish jarayonida bir qator tizimli muammolar ham kuzatiladi. Kiberxavfsizlik tahdidlari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, elektron resurslarning ishonchliligi hamda mualliflik huquqlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar bugungi kunda dolzarb huquqiy muammolar sirasiga kiradi. Ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi raqamli

texnologiyalarni keng joriy etish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, raqamlashtirish samaradorligini pasaytirmoqda.

Raqamli platformalarda saqlanayotgan huquqiy ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash zamonaviy axborot jamiyati sharoitida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. Elektron huquqiy bazalar bilan ishlashda yagona standartlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ma’lumotlar almashinuvi va ularning integratsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur holat raqamli huquqiy tizimni rivojlantirishda xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va uni milliy qonunchilikka moslashtirishni talab etadi.

Yuridik ta’lim va ilm-fan tizimida internet texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, yuridik oliy ta’lim muassasalarida raqamli huquq va Legal Tech yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini keng joriy etish zarur. Shuningdek, elektron kutubxonalar va ilmiy platformalar faoliyatini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarda sun’iy intellektdan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, internet texnologiyalari yuridik ilm-fan va huquqiy tadqiqotlarni modernizatsiya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar ilmiy izlanishlarning tezkorligi, aniqligi va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Shu bois, yuridik ilm-fan tizimida zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalanishni yanada kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Ahmedov B. Raqamli iqtisodiyot va huquqiy transformatsiya. – Toshkent: Adolat, 2023.

- Xudoyberdiyev O. Elektron huquqiy tizimlarning rivojlanish istiqbollari // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2022. – №4

- Susskind R. Online Courts and the Future of Justice. – Oxford University Press, 2019.

- Karimov D. Masofaviy ta’lim va yuridik ilm-fan integratsiyasi // Zamonaviy ta’lim. – 2023. – №2.

# INTERNAL LEGAL POLICY MECHANISMS FOR ENHANCING EMPLOYMENT AND LIVING CONDITIONS OF PERSONS WITH DISABILITIES: NATIONAL APPROACH OF UZBEKISTAN

***K.Amandulloev***
*Teacher of Department of Legal Studies*
*Sarbon University*

**Annotation:** *The design of an inclusive labor market for individuals with disabilities is examined in this study, with a focus on the legal frameworks required to facilitate their employment. Due to stigma and inaccessibility, people with disabilities frequently experience social exclusion, which hinders their ability to fully engage in the workforce. States must, however, guarantee equal employment opportunities and acknowledge them as an essential human resource, both legally and morally.*

*There could be observed the national legislation and policy of the social protection of People with disabilities (hereafter PwD) in Uzbekistan. By identifying best practices and proposing legal mechanisms for an inclusive labor market, this research aims to contribute to the development of policies that promote equal employment opportunities for people with disabilities, fostering both social integration and economic sustainability in Uzbekistan.*

**Key words:** *People with disabilities, Medico-Social Expert Examination, Labor Code, legal mechanisms, health conditions, employee, strategy, government.*

Nowadays, Uzbekistan one of the developing countries in the Central Asia continent with 37 million population, where almost a million of citizens are suffering with disability, officially indicated 790 thousand of people are recognized in this status[^2]. According to the statistics, more than 120 thousand of PwD in Uzbekistan are teenagers[^3]. Moreover, the estimated number of persons with disabilities (PwDs) participating in the labor market in Uzbekistan exceeds 163,000, accounting for approximately 20% of the total officially recognized PwD population[^4]. To ensure their social and labor qualification rights, accessibility of the work places and inclusive infrastructure public places have to be preliminary aim of authority of Republic of Uzbekistan. To secure their social, economic and political rights more than 25 legal acts have been adopted since 1991, after acquiring independence. During the speech of President of Republic of Uzbekistan had been fairly underlined that, recent t years it has been created that favorable environment for PwD to receive the medical, social services, to organize the lifelong education and actively engaging in labor activities across the Republic, in a word, to ensure to feel themselves a core part of the society of Uzbekistan[^5].

The primary legal protections for the rights of persons with disabilities (PwD) are outlined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, specifically in Articles 46 and 57, which guarantee social protection, promote employment, education, and safeguard the political rights of PwD. Furthermore, Article 70 emphasizes the right of PwD to organize civil societies, stating, “In the Republic of Uzbekistan, public associations are recognized, including trade unions, political parties, scientific societies, women’s, veterans’ and youth leagues, professional associations for persons with disabilities, mass movements, and other organizations of citizens.”

This provision aims to enhance the participation of PwD in Uzbek society. To ensure the effective operation of the social protection system for all citizens, including PwD, it is the responsibility of the Cabinet of Ministers of Uzbekistan, as stated in Article 115[^6].

In 2020, Uzbekistan adopted the “On the Rights of Persons with Disabilities,” which plays a crucial role in safeguarding the socio-economic rights of people with disabilities. This law is not only about protecting their rights but also about establishing a comprehensive framework for implementing other relevant legal documents in the field[^7].

To harmonize the national legislation and meet the world standards what is going so fast onwards, this legal act was unique due to it was initial legislative approach for Uzbekistan where the all aspects of the life PwD had been gathered in one unanimous legal act. the main purpose of the law was to regulate the relations of the PwD right and ensure their fundamental dignity. The document covered such aspects like, the national description for the disability for women, men and children, discrimination, social protection, public associations of persons with disabilities, Medico-Social Expert Examination (hereafter as a MSEE) and etc.

The articles 42 and 43 of Law stands for the ensuring the exercise of the right to work and underlined that, all PwD have to right for the normal conditions of work and their basic performance in any sector whether it public sector whether it private one, organize the new job places for PwD and protect their right in the labor relations. The employer obliged to create a safe work environment and not allow to discriminate of PwD during the initial stages of the employment – hiring, performance at work. Their work schedules must not be at night, weekends and, in overtime occupying is in the status of illegal. Moreover, the perform of

the government were also illustrated that, to assist PwD to find suitable jobs, establish minimum number of vacancies, creation specialized job opportunities, to support of practice of the PwD in public sector, financial and fiscal privilege for employers or enterprises who hired PwD, the local territorial authorities had obliged to create more vacancies for PwD, if their enterprise had more than twenty or minimum number of workers are more 20 or they are obliged to allocate no less than three percent of the total number of employee places for PwD or give them privilege in the hiring. This aspect had plenty of disadvantages, what would be focused in detail later.

Furthermore, this document clearly expresses principles such as respecting the dignity, personal independence, and freedom of choice of persons with disabilities, ensuring that they are not discriminated against based on their disability, promoting equality of opportunity in the exercise of human rights and freedoms, respecting the rights of children with disabilities to preserve their developing abilities and individuality, creating accessible environments and services for persons with disabilities, and encouraging their participation in the social and political life of society and the state. The law also strengthens the right of persons with disabilities to housing. It specifically outlines that the state is responsible for ensuring the construction of housing for persons with disabilities. In this process, when forming housing lists by local executive authorities, persons with disabilities and families that include a person with a disability are placed on a separate list, and a range of privileges are provided to them.

As such, the principle of social justice is central to Uzbekistan's approach, with a strong focus on ensuring that people with physical disabilities – those in greatest need of assistance – have the support and opportunities to live fulfilling lives. This has remained a priority for the country's leadership. This law also regulates the rights of persons with disabilities, aiming to create equal opportunities for them to participate in all aspects of society without discrimination based on disability, alongside other members of society, while ensuring respect for fundamental human rights and freedoms.

The fundamental labor rights of the PwD had been established in the Labor Code of Republic of Uzbekistan from 2024. According to Article 425 of the Labor Code of the Republic of Uzbekistan, a labor contract cannot be concluded with a person with a disability, nor can it be terminated at the initiative of the employer. However, based on the

conclusion of the MSEE, if the disability prevents the person from performing job duties or poses a threat to their own or others' life, health, or labor safety, they may be refused employment or have their labor contract terminated. For example, if the MSEE conclusion indicates that the candidate is unable to work as a "teacher" due to their health condition, in such a case, the employer has the right to refuse to hire the candidate for that position. This aspect of the Labor Code could be discussed later. The fundamental labor rights of the PwD had been established in the Labor Code of Republic of Uzbekistan from 2024. According to Article 425 of the Labor Code of the Republic of Uzbekistan, a labor contract cannot be concluded with a person with a disability, nor can it be terminated at the initiative of the employer. However, based on the conclusion of the MSEE, if the disability prevents the person from performing job duties or poses a threat to their own or others' life, health, or labor safety, they may be refused employment or have their labor contract terminated. For example, if the MSEE conclusion indicates that the candidate is unable to work as a "teacher" due to their health condition, in such a case, the employer has the right to refuse to hire the candidate for that position[^8]. This aspect of the Labor Code could be discussed later. Article 143 of the Labor Code establishes the grounds for terminating a labor contract with a person with a disability. When the employer has a vacant position, and there are no medical contraindications based on the employee's health condition, the employer must transfer the employee, with their consent, to a lighter job or a position where the impact of unfavorable working conditions is minimal, in accordance with a medical conclusion. In other words, if an employee becomes disabled for any reason, the labor contract should not be terminated. Instead, the employer must offer a lighter job based on the employee's health condition. According to the second part of this article, the employer may terminate the labor contract under the following circumstances:

- If the employee refuses to transfer to the proposed lighter job;
- If the employer does not have any other work available that fits the employee's health condition and has no medical contraindications;
- In a case of dismissal and termination of the labor contract between, a person with a disability has the right to receive two types of guaranteed payments in accordance Article 100 and 173;
- Registering as a job seeker with the local labor authority within thirty calendar days after the termination of the labor contract and submit

the certificate issued by the authority to your previous employer, you may be entitled to receive the average monthly salary from your previous job for the third month as well;

- Severance Pay is a one-time monetary payment made to soften the consequences of the termination of a labor contract under specific grounds;

- These grounds may include the employee's refusal to be transferred to another job due to their health condition, as stated in the medical conclusion, or the absence of suitable work available with the employer[^9].

Such activities are allowed if they are not prohibited in the recommendations of the MSEE. It should be emphasized that if the MSEE recommendation prohibits working in these situations, the employee cannot be asked to work, even with their consent.

To promote reforms in the field of social protection for persons with disabilities in Uzbekistan, the government has developed a comprehensive strategy aimed at addressing key issues, harmonizing relevant legislation, and enhancing the effectiveness of its implementation. Within the framework of the Five Priority Areas of Development for 2017–2021, the Action Strategy of the Republic of Uzbekistan, nearly 300 laws and more than 4 000 Presidential Decrees have been adopted, focusing on comprehensive reforms across all sectors of state and societal life. In 2022, under the President’s initiative, the Decree “On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022–2026” was signed. This decree primarily serves as a key framework for ensuring the social and political rights of all citizens, including persons with disabilities (PwD)[^10].

According to the Decree, the National Strategy for Social Protection of the Population is being developed. The project includes the creation of a separate database within the “Unified Social Protection Registry” information system, specifically focused on women, youth, and persons with disabilities who are in need of assistance. In the future, the “Unified Social Protection Registry,” which will aggregate this data, will be integrated with the existing “Iron Notebook,” “Youth Registry,” and “Women's Registry.”[^11] Starting from this year, according to Paragraph 14 of the Decree, the system for providing state services to elderly and disabled individuals will be simplified, and additional conveniences will be created through the implementation of modern technologies. Furthermore, as stipulated in Paragraph 15 of the document, a system for

providing free legal assistance at the state's expense will be introduced for citizens in need of social protection, covering not only criminal cases but also civil and administrative matters.

The 68-purpose of the Strategy is dedicated for the prevent discrimination based on disability, ensuring equal conditions for the realization of the rights, freedoms, and legal interests of persons with disabilities, as well as ensuring accountability for violations of these rights. The introduction of transparent and modern methods and criteria for medical-labor expertise and disability determination, aimed at improving the level and quality of medical social assistance provided to persons with disabilities, and improving the inclusive education and employment system that ensures the participation and active involvement of persons with disabilities in the social and economic life of society.

It is glad to underline that in the Strategy had been pointed that until 2022, Ensuring employment for 12,000 individuals with disabilities and limited capabilities, what have been done in one-year prospect. The support the inclusion of persons with disabilities in the labor market and foster their self-employment opportunities, the government has introduced a proposal to offer incentives to vocational training institutions. These incentives will aim to provide specialized training in various trades and entrepreneurship, thereby increasing the employability of persons with disabilities. Additionally, amendments to regulatory and legal documents are planned to ensure the integration of these measures into the broader policy framework. In this context, it is important to emphasize that the President of the Republic of Uzbekistan has recently signed a decree titled "Additional Measures to Support Persons with Disabilities and Vulnerable Segments of the Population in Need of Social Protection."[^12]

The lack of the roadmap for the achieving the 3-percentage quota for PwD (according to the 43rd Article of Law "On the Rights of Persons with Disabilities") is seems do not have the certain action strategy or roadmap for accomplishing and ensuring the right in practice, the quota system is practically ineffective and does not yield any significant results in addressing the employment of persons with disabilities, as their placement in jobs remains a challenge. In addition, lack of the monitoring mechanisms is another factor for enforcement of governmental legal frameworks in practice. The huge gap between public and private sector's employment of PwD in Uzbekistan is core trouble in this field, as fairly described the head of the Disability's Association of Uzbekistan: "The

association highlights the absence of a strategy and program for employing persons with disabilities in the public sector. Less than 1% of persons with disabilities are employed in the public sector, while more than a thousand young people with disabilities graduate from higher education institutions each year under the 2% university admission quota for state-funded education. However, only 2-3% of them manage to secure employment."[^13] The governmental structures are not meet the minimum standards for the employing PwD and supplying them with the essential equipment's in working process.

The motivation of private sector entities is low, and employing PwD is not in them interest, despite the subsidies and fiscal privileges provided by the authorities. As a result, entrepreneurs show little interest in employing them. Moreover, their approach to employees with disabilities is mainly influenced by social stereotypes, with many employers not taking practical steps to make their workplaces more inclusive. The PwDs are often seen as a trouble or a disaster rather than a qualified workforce. As underlined above, the country has established provisions aimed at reducing discrimination and promoting the social inclusion of PwD, such as mandatory quotas and medical assessments, the enforcement of these measures is often inadequate. The public sector, while slightly more proactive, still employs a very small percentage of PwDs, and private sector employers show limited motivation to hire PwD due to prevailing social stereotypes and a lack of qualification and exclusive training by the employee or government. Additionally, the existing social protection mechanisms, though present, do not fully address the economic and social challenges faced by PwDs in the workforce.

To improve the situation, Uzbekistan needs to strengthen the enforcement of its policies, offer better incentives for employers, and make vocational training and employment support more accessible to PwDs. Changing societal attitudes toward PwDs is crucial, as is ensuring that laws are effectively applied and that social protection measures truly meet their needs. With these changes, we can build a more inclusive labor market and give PwDs the opportunity to fully contribute to the economy, ultimately benefiting everyone.

## BIBLOGRAPHY:

- **President of Uzbekistan (2024) "The President signed a decree on additional measures to support persons with disabilities", President of Uzbekistan Official Website, 4 March.** Available at: https://president.uz/en/lists/view/5748 (Accessed: 17 March 2026).

- **UzA (2024) ‘Dunyoda 1 milliarddan ortiq nogironligi bo‘lgan shaxslar yashaydi’, UzA, 14 March.** Available at: https://uza.uz/oz/posts/dunyoda-1-milliarddan-ortiq-nogironligi-bolgan-shaxslar-yashaydi_304865 (Accessed: 17 March 2026).
- **Ministry of Employment and Labor Relations of Uzbekistan (2024) “Additional measures to support employment of persons with disabilities”, Telegram, 12 March.** Available at: https://t.me/mehnatvazirligi/2580 (Accessed: 17 March 2026).
- **President of Uzbekistan (2024) “The President signed a decree on additional measures to support persons with disabilities”, President of Uzbekistan Official Website,** 4 March. Available at: https://president.uz/en/lists/view/5748 (Accessed: 17 March 2026).
- **Constitution of the Republic of Uzbekistan (2024) “The Constitution of the Republic of Uzbekistan”, Constitution.uz,** Available at: https://constitution.uz/en/clause/index (Accessed: 17 March 2026)
- **Legislation of the Republic of Uzbekistan (2024) “On the rights of persons with disabilities”,** Lex.uz, Available at: https://lex.uz/docs/5694817 (Accessed: 17 March 2026).
- **Legislation of the Republic of Uzbekistan (2024) “On Severance Pay and Termination of Employment”,** Lex.uz, Available at: https://lex.uz/docs/-6257288 (Accessed: 20 March 2026).
- **Legislation of the Republic of Uzbekistan (2023) “Decree on the National Strategy for Social Protection of the Population”,** Lex.uz, Available at: https://lex.uz/uz/docs/-5841063 (Accessed: 21 March 2026**)**
- **Insonhuquqlari.uz (2024) “Nogironlar huquqlari: Milliy va xalqaro andozlardagi zarur mushtaraklik”,** Available at: http://insonhuquqlari.uz/oz/articles/nogironlar-uularini-taminlash-millij-va-halaro-endashuvlardagizaro-mushtaraklik (Accessed: 21 March 2026).
- **President of the Republic of Uzbekistan, Decree on Additional Measures to Support Persons with Disabilities and Socially Vulnerable Groups, [Decree No. 74] (2022).** Available at: https://lex.uz/uz/docs/-5865484 (Accessed: 17 March 2025)
- **Anhor.uz, “O‘zbekiston nogironlar”,** Anhor.uz, Available at: https://anhor.uz/uzl/news/ozbekiston-nogironlar/. (Accessed 27 March 2026).

[^2]: President of Uzbekistan (2024) ‘The President signed a decree on additional measures to support persons with disabilities’, President of

Uzbekistan Official Website, 4 March. Available at: https://president.uz/en/lists/view/5748 (Accessed: 17 March 2026).

[^3]: UzA (2024) ‘Dunyoda 1 milliarddan ortiq nogironligi bo‘lgan shaxslar yashaydi’, UzA, 14 March. Available at: https://uza.uz/oz/posts/dunyoda-1-milliarddan-ortiq-nogironligi-bolgan-shaxslar-yashaydi_304865 (Accessed: 17 March 2026).

[^4]: Ministry of Employment and Labor Relations of Uzbekistan (2024) “Additional measures to support employment of persons with disabilities”.

[^5]: President of Uzbekistan (2024) ‘The President signed a decree on additional measures to support persons with disabilities’, President of Uzbekistan Official Website, 4 March. Available at: https://president.uz/en/lists/view/5748 (Accessed: 17 March 2026).

[^6]: Constitution of the Republic of Uzbekistan (2024) “The Constitution of the Republic of Uzbekistan”, Constitution.uz, Available at: https://constitution.uz/en/clause/index (Accessed: 17 March 2026)

[^7]: Legislation of the Republic of Uzbekistan (2024) ‘On the rights of persons with disabilities’, Lex.uz, Available at: https://lex.uz/docs/5694817 (Accessed: 17 March 2026).

[^8]: HuquqPlus (2024) “Labor Law: Severance Pay and Employment Termination”, HuquqPlus, Available at: https://huquqplus.uz/materials/mehnat/1832 (Accessed: 19 March 2026).

[^9]: Legislation of the Republic of Uzbekistan (2024) “On Severance Pay and Termination of Employment”, Lex.uz, Available at: https://lex.uz/docs/-6257288 (Accessed: 20 March 2026).

[^10]: Legislation of the Republic of Uzbekistan (2023) ‘Decree on the National Strategy for Social Protection of the Population’, Lex.uz, Available at: https://lex.uz/uz/docs/-5841063 (Accessed: 21 March 2026)

[^11]: Insonhuquqlari.uz (2024) “Nogironlar huquqlari: Milliy va xalqaro ando‘zlardagi zarur mushtaraklik”, Available at: http://insonhuquqlari.uz/oz/articles/nogironlar-uularini-taminlash-millij-va-halaro-endashuvlardagizaro-mushtaraklik

[^12]: President of the Republic of Uzbekistan, Decree on Additional Measures to Support Persons with Disabilities and Socially Vulnerable Groups, [Decree No. 74] (2022). Available at: https://lex.uz/uz/docs/-5865484 (Accessed: 19 March 2025).

[^13]: Anhor.uz, “O‘zbekiston nogironlar”, Anhor.uz, https://anhor.uz/uzl/news/ozbekiston-nogironlar/. (Accessed 27 March 2026.

# GLOBAL TAHDIDLAR IQLIM OZGARISHI VA MINTAQAVIY JAVOBLAR

***G.A.Bekdurdiyeva***
*Sarbon universiteti o'qituvchisi*
*[bekturdiyevagulmira1@gmail.com]*
***F.Q.Qodirova***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda global iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy tahdidlar hamda ularni yumshatish va moslashish bo'yicha turli mintaqalarda amalga oshirilayotgan choralar tahlil qilinadi. Iqlim o'zgarishi bugungi kunda eng dolzarb global muammolardan biri bo'lib, suv resurslari tanqisligi, cho'llanish, biologik xilma-xillikning kamayishi va tabiiy ofatlar sonining ortishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Mintaqaviy javob choralarida esa davlatlar va xalqaro tashkilotlarning hamkorligi asosida barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Kalit so'zlar:** iqlim o'zgarishi, global tahdidlar, ekologiya, mintaqaviy hamkorlik, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik.

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri global iqlim o'zgarishi hisoblanadi. Ushbu muammo ekologik xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik, oziq-ovqat ta'minoti va inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi o'n yilliklarda atmosfera haroratining ortishi, muzliklarning erishi, suv resurslari kamayishi, cho'llanish jarayonlarining kuchayishi hamda tabiiy ofatlar sonining ko'payishi iqlim o'zgarishining asosiy oqibatlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan Uzbekistan ham iqlim o'zgarishining salbiy ta'siriga eng sezgir hududlardan biri hisoblanadi. Orol dengizi fojiasi, suv resurslari tanqisligi, chang bo'ronlari va anomal issiqliklar mintaqa ekologik holatiga sezilarli zarar yetkazmoqda. Shu bois O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Iqlim o'zgarishi muammosi urush va tinchlik, qashshoqlik, ekologik, xalqaro terrorizm, cho'llanish kabi dunyoviy (global) muammolar sirasiga kiradi. "Global" atamasi fransuzcha global eng umumiy, o'z ko'lami va yo'nalishi jihatdan xilma-xil va butun Yer shariga tegishli bo'lgan muammolardir. Global muammolar keng ma'noda tabiat va inson (jamiyat) o'rtasidagi munosabatining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Demak, mazkur muammolar tabiiy-antropogen ildizga ega. Insoniyatning munosib hayot kechirishi uchun jamiyatning

barqaror rivojlanishi uchun boshqa omillar qatorida iqlimiy sharoit ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Uning oz bo‘lsa-da, me’yordan chetga chiqishi muammolarni keltirib chiqaradi. Iqlim atamasi grekcha kluma - qiyalik, ya’ni quyosh nurlarining tush paytida yer yuzasiga “og‘ishi” qiyaligini anglatadi. Bu atama grek astronomi, matematik geografiyaning asoschilaridan biri Gipparx (mil.avv. 160 - 125 yillar) tomonidan fanga kiritilgan. Tadqiqot obyekti va uslublari. Iqlim Quyosh va uning atrofidan aylanib turadigan yo‘ldoshi - Yer o‘rtasidagi munosabatlar natijasida yer betiga yaqin bo‘lgan atmosfera qatlamida ro‘y berib turadigan tabiiy jarayonlar natijasidir. Iqlim fasliy mohiyati, sifat va o‘zgarishlarga ega. Ob-havo esa iqlimiy ko‘rsatkichlarning ayni joy, ayni vaqtdagi holatidir.O‘zbekiston Respublikasining birinchi milliy axboroti taqdim etildi . O‘zbekiston bo‘yicha 1933 – 2007-yillar uchun havo haroratining o‘rtacha yillik o‘zgarishlari tahlil qilinganda, uning har 10 yilda 0,2 0C ga ortib borayotganligi ma’lum bo‘ldi. Bu shimoliy yarim shar bo‘yicha havo isishining o‘rtacha sur’atidan 40% ga ortiqdir. Isish oqibatida Orol dengizi havzasida joylashgan tog‘lardagi qor va muzlik maydonlari 1/3 dan ortiqqa qisqargan. Mintaqada yillararo iqlimning barqaror isish yo‘nalishi (trend) kuzatilmoqda[1, 7-b.]. Bangladesh va Pokistonda yoqqan tinimsiz yomg’ir oqibatida millionlab odamlar boshpanasiz qoldi.

Ma’lumotlarga ko’ra, har yili atmosferaga 100 million tonnadan ortiq uglevodorod chiqarilmoqda. Buning 74 foizi rivojlangan davlatlar hissasiga to’g’ri keladi. Olimlarning fikricha, o’rmon yong’inlari oqibatida atmosferaga chiqayotgan karbonat angidrid gazi sanoat chiqindilarining 50 foiziga teng ekan. Havoga ko’tarilgan tutun atmosferaning yuqori qatlamida kuyindi zarralarini ko’paytiradi. Jahon hamjamiyati global isishga qarshi qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. 1997 yili sayyoramizda iqlim o’zgarishining oldini olishda hamkorlik maqsadida Kioto protokoli imzolandi. 2005 yildan kuchga kirgan bu hujjat atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirib borishni ko’zda tutadi. Qator davlatlar Kioto protokoli talablarini bajarish masalasiga sovuqqonlik bilan qaramoqda. BMT tashabbusi bilan Meksikaning Kankun shahrida global isish muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. sayyoramizda tabiiy muvozanatni tiklash borasidagi ishlar to’xtab qolmaganining isboti desak adashmaymiz. Unda 193 davlatdan 25 ming vakil qatnashmoqda. Konferensiyada tashvish bilan tilga olingan fikr shu bo’ldiki, dunyoda o’rtacha harorat 2-3 daraja ko’tarilgan va bu dolzarb muammo hisoblanadi.

Anjuman qatnashchilari barcha davlatlarni, birinchi navbatda, rivojlangan mamlakatlarni tabiiy muvozanatni tiklash yo'lida sarf-xarajatlardan chekinmaslikka da'vat qildi. Ularning fikricha, rivojlangan mamlakatlar "uchinchi dunyo" davlatlariga yangi texnologiyalarni taqdim etishi, ekologik toza ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Inson tomonidan qo'zg'atilgan iqlim o'zgarishi tabiatda xavfli va keng ko'lamli to'sqinliklarga sabab bo'lmoqda va xavflarni kamaytirishga qaratilgan harakatlarga qaramay, butun dunyo bo'ylab milliardlab odamlarning hayotiga ta'sir ko'rsatmoqda[2]. Masalan, Xorazm viloyati aholisining kasallanish darajasi 72.3% ni, Qoraqalpog'iston Respublikasida 70%ni tashkil qiladi. Orolbo'yi mintaqasida sil, qizilo'ngach saratoni, qon va qon tomir tizim kasalliklari, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari bilan kasallanish respublikaning o'rtacha ko'rsatkichlaridan bir necha baravar yuqori. Bundan tashqari so'nggi o'n yilliklarda haddan tashqari gidrologik qurg'oqchilik natijasida hosilning 50-75 % miqdori nobud bo'lgan.

O'zbekiston hududida kuchli shamol hodisalari va chang bo'ronlari tez-tez sodir bo'lib turadi. Ba'zan ular xalq xo'jaligiga jiddiy talofat yetkazadi. Misol uchun, 2020-yil 27-aprel kuni Buxoro viloyati hududida sodir bo'lgan kuchli shamol hodisasi aholi punktlaridagi ko'plab bino va inshootlarga jiddiy talofat yetkazdi. Ayniqsa, Qorako'l va Olot tumanlari ushbu hodisadan ko'proq zarar ko'rdi. Bosh prokuratura matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, 2020-yil 27- apreldan 28-aprelga o'tar kechasi Buxoro viloyatida shamol tezligi sekundiga 25 metr/sekund bo'lgan. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ushbu tabiiy ofat oqibatida viloyat bo'yicha 5293 ta bino, 415 ta transport vositasi, 42 400 ta daraxt talafot ko'rgan va 295 ta tabiiy gaz va elektr ta'minotida avariyalar sodir bo'lgan, o'nlab kishilar turli darajada tan jarohati olgan [2, 128-b.]. Kuchli shamol natijasida sodir bo'lgan chang bo'ronlaridan yana biri 2019-yil 14- iyun kuni Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilgan. Natijada ko'plab inshootlarning tomlari uchib tushgan, daraxtlar va simyog'ochlar qulab, ko'plab avtomobillarga shikast yetgan. Keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, chang bo'ronlari atrof-muhit va inson xo'jalik faoliyatiga jiddiy xavf tug'diradi va katta iqtisodiy zararni keltirib chiqaradi.[3, 287-bet] Cho'l va tog'larning turli landshaftlari mamlakatdan mamlakatga taqsimlangan, ular orasida Tojikistondagi Pomir tog'larining eng baland tog'lari, Qirg'izistondagi Tyanshan tog'lari, Turkmanistondagi keng Qoraqum cho'llari,

Qozog‘istondagi Sirdaryo, Turkmaniston va O‘zbekistondagi Amudaryo hamda ichki dengizlar kiradi [9].

Demak, Markaziy Osiyoda faqat 20% maydon dehqonchilik uchun yaroqli. Biroq qishloq xo‘jaligi o‘zining daromadlar va bandlikka qo‘shgan hissasi orqali mintaqa iqtisodiyotida asosiy o‘rin tutadi . Markaziy Osiyo qishloq xo‘jaligi uning yalpi ichki mahsulotiga katta hissa qo‘shgan. Masalan, O‘zbekiston 30,8% ko‘rsatkich bilan eng yuqori o‘rinni, Tojikistonda esa 21,9%, Qozog‘iston esa 4,7% bilan eng past o‘rinni egallaydi . Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida bandlik darajasi barcha beshta davlatda yuqori bo‘lib, Tojikistonda 51,8%, O‘zbekistonda 33,9%, Qirg‘izistonda 29,4%, Turkmanistonda 23,3%, Qozog‘istonda 18,0% . Shu sababli, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ekstremal iqlim sharoitlarining chastotasi va intensivligini tushunish Markaziy Osiyo ijtimoiy iqtisodiyoti uchun juda muhimdir . Iqlim, chuchuk suv, biofizik va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o‘zaro murakkab bog‘liqdir. Shu sababli, ushbu tizimlarning har qandayidagi o‘zgarish boshqasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Antropogen iqlim o‘zgarishi chuchuk suv resurslaridan barqaror foydalanish muammosiga duch kelayotgan mamlakatlar uchun katta qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. O‘zbekistonda chuchuk suv suv tanqisligi (uzoq davom etgan qurg‘oqchilik) va uning ifloslanishi bilan bog‘liq. [4].So‘nggi yillarda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryoda 1,6 gigavattli 9 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi hamda Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 183 megavattli 6 ta GES ishga tushirildi.

2030-yilga borib O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 gigavattga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. Bu tabiiy resurslarni tejash orqali atmosferaga issiqxona gazlari chiqishining oldini olish imkonini beradi.

Eng muhimi, yaqin yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushi umumiy energiya balansida 40 foizga yetkazilishi aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyasiga ehtiyojini ta’minotning yanada yaxshilanishiga imkon yaratadi va mintaqada energetik barqarorlikni ta’minlashga hamda Parij bitimi doirasida olgan majburiyatlarimiz ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi.

Prezidentimizning 2024- yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni bilan Toshkent shahrida yuk tashish uchun mo‘ljallangan, ruxsat etilgan to‘la vazni 10

tonnadan yuqori bo‘lgan N2, N3, O4 toifaga kiruvchi avtotransport vositalarining harakati tig‘iz vaqt oraliqlarida taqiqlanishi, 2030 yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida “YEVRO-5” va undan yuqori standartlariga muvofiq bo‘lmagan avtomashinalar ekspluatatsiyasi bosqichma-bosqich cheklanishi, Toshkent shahrida har oyning bir ish kuni “Avtomobilsiz kun” sifatida belgilangani ham atmosfera havosi musaffoligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashi shubhasiz[5]**.**

Xulosa qilib aytganda, iqlim o‘zgarishi XXI asrning eng xavfli va murakkab global tahdidlaridan biri sifatida insoniyat taraqqiyoti, ekologik barqarorlik hamda xalqaro xavfsizlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayon natijasida atmosfera haroratining ortishi, suv resurslari tanqisligi, cho‘llanish, biologik xilma-xillikning kamayishi, tabiiy ofatlar sonining ko‘payishi va qishloq xo‘jaligi samaradorligining pasayishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan Uzbekistan iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siriga eng sezgir hududlardan biri hisoblanadi. Orolbo‘yi hududidagi ekologik inqiroz, suv tanqisligi, chang bo‘ronlari va anomal issiqliklar mintaqa aholisi salomatligi hamda iqtisodiyotiga sezilarli zarar yetkazmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, ekologik toza transport vositalarini joriy etish, “yashil energetika” loyihalarini amalga oshirish hamda atmosfera havosini muhofaza qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu esa mamlakatning ekologik xavfsizlikni ta’minlash, barqaror rivojlanishga erishish va xalqaro ekologik majburiyatlarni bajarish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Demak, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning ham asosiy omillaridan biridir. Shu sababli davlatlar, xalqaro tashkilotlar va jamiyatning barcha qatlamlari ushbu global tahdidga qarshi birgalikda harakat qilishi zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar

- Jo‘raqulov X., Xo‘jayev E. Global iqlim o‘zgarishi va uning salbiy oqibatlari // O‘zbekiston Zamini. – 2024. – Vol. 1, No. 1. – P. 45–52. – URL: [https://uzzamin.uz/en/magazines/1-2024/global-iqlim-ozgarishi-va-uning-salbiy-oqibatlari-
uzzamin.pdf](https://uzzamin.uz/en/magazines/1-2024/global-iqlim-ozgarishi-va-uning-salbiy-oqibatlari-uzzamin.pdf)
([uzzamin.uz](https://uzzamin.uz/en/magazines/1-2024/global-iqlim-

ozgarishi-va-uning-salbiy-oqibatlari-uzzamin.pdf?utm_source=chatgpt.com))

- Olimov A.A., Abdumannobova X.I. Global iqlim o‘zgarishi va kelajakdagi muammolar, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari. – Toshkent: Innovatsion nashriyot, 2023. – 131 b.

# O‘ZBEKISTONDA MEHNAT QILISH VA DAM OLISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

***F.E.Djuravev,***
*Sarbon universiteti “Huqiqiy fanlar” kafedrasi dotsenti*
***A.G‘.Asqarov,***
*Sarbon universiteti “Huqiqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada O‘zbekistonda mehnat qilish va dam olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari yangi tahrirdagi Konstitutsiya, amaldagi Mehnat kodeksi, bandlik siyosati hamda xalqaro mehnat standartlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Mehnat qilish huquqi faqat ishga joylashish imkoniyati sifatida emas, balki munosib mehnat, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsiz va gigiyenik sharoitlarda ishlash, kamsitilmasdan adolatli haq olish, ishsizlikdan himoyalanish hamda majburiy mehnatdan xoli bo‘lish kabi bir-birini to‘ldiruvchi kafolatlar majmui sifatida yoritildi. Dam olish huquqi esa ish vaqtining oqilona chegaralanishi, har kungi va haftalik dam olish, ishlanmaydigan bayram kunlari hamda haq to‘lanadigan yillik mehnat ta’tili orqali inson qadr-qimmati, sog‘liqni saqlash va mehnat unumdorligi bilan bevosita bog‘liq ijtimoiy huquq sifatida talqin etildi.

**Kalit so‘zlar:** mehnat huquqi; dam olish huquqi; Konstitutsiya; Mehnat kodeksi; munosib mehnat; bandlik; ijtimoiy davlat; majburiy mehnat; mehnat ta’tili; ijtimoiy sheriklik.

Insonning mehnat qilish va dam olish huquqi zamonaviy konstitutsiyaviy huquq tizimida iqtisodiy erkinlik, ijtimoiy adolat va shaxs qadr-qimmatini ta’minlaydigan asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Mehnat insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish, kasbiy salohiyatini namoyon etish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish vositasi bo‘lsa, dam olish huquqi ushbu mehnat jarayonining inson sog‘lig‘i, oilaviy hayoti, ma’naviy tiklanishi va ijodiy faolligi bilan muvozanatini ta’minlaydi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar alohida tizim sifatida belgilangan. 42-modda har kimning munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay sharoitlarda ishlash, adolatli haq olish va ishsizlikdan himoyalanish huquqini mustahkamlaydi. 43-

modda davlatning bandlikni ta’minlash, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlashni tashkil etish hamda kambag‘allikni qisqartirish majburiyatini belgilaydi. 44-modda majburiy mehnatni taqiqlaydi, 45-modda esa yollanib ishlovchilarning dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligi, dam olish kunlari, bayram kunlari va haq to‘lanadigan yillik ta’til orqali ta’minlanishini nazarda tutadi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, mamlakatda ijtimoiy davlat konsepsiyasi kuchayib, iqtisodiy o‘sish natijalarini inson manfaatlariga yo‘naltirish, ish o‘rinlari sifatini oshirish va fuqarolarning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining markaziy yo‘nalishiga aylandi. Ikkinchidan, 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan yangi Mehnat kodeksi ish vaqti, dam olish vaqti, masofaviy mehnat, moslashuvchan ish tartibi, mehnat shartnomasi va ijtimoiy sheriklik masalalarini zamonaviy talablarga yaqinlashtirdi. Uchinchidan, global mehnat bozorida raqamlashtirish, platformali bandlik, migratsiya, ayollar va yoshlar bandligi, xavfsiz mehnat muhiti hamda ish va hayot muvozanati kabi masalalar konstitutsiyaviy kafolatlarning amaliy ijrosini yanada chuqurroq o‘rganishni talab qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlarda mehnat va bandlik masalasi “Inson qadri uchun” tamoyili bilan bevosita bog‘langan. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, kasb-hunarga o‘qitish ko'lamini kengaytirish va mahalla darajasida bandlikka ko‘maklashish mexanizmlarini kuchaytirish vazifalari belgilangan. Bu siyosiy-huquqiy yo‘nalish Konstitutsiyada e’lon qilingan mehnat qilish huquqini real iqtisodiy imkoniyatga aylantirishga xizmat qiladi. Mehnat qilish huquqi ish o‘rniga ega bo‘lish bilangina cheklanmaydi; u davlatning faol bandlik siyosati, mehnatga haq to‘lashdagi adolat, kamsitishning oldini olish, mehnat muhofazasi va xodimning shaxsiy hayotiga hurmat kabi elementlar bilan to‘liq mazmun kasb etadi.

Maqolada formal-yuridik, tizimli-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Formal-yuridik yondashuv Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonun, Prezident farmon va qarorlaridagi normalarni mazmunan sharhlash imkonini berdi. Tizimli-huquqiy metod mehnat qilish huquqini bandlik, kasb tanlash erkinligi, mehnat muhofazasi, adolatli haq, ishsizlikdan himoya va majburiy mehnatni taqiqlash institutlari bilan bir butun

majmua sifatida oʻrganishga xizmat qildi. Dam olish huquqi esa ish vaqti, tanaffuslar, haftalik dam olish, bayram kunlari, yillik mehnat ta'tili va mehnat shartnomasidagi kafolatlar tizimida tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy tahlilda Yevropa ijtimoiy modeli, Xalqaro mehnat tashkilotining "munosib mehnat" konsepsiyasi, MDH davlatlari konstitutsiyalarida mehnat va dam olish huquqining ifodalanishi hamda milliy qonunchilikdagi yechimlar solishtirildi. Yevropa tajribasida mehnat qilish huquqi ijtimoiy davlat, ijtimoiy dialog, xavfsiz mehnat sharoitlari va ish va hayot muvozanati bilan bogʻliq holda qaraladi. Fransuz huquqshunosi Alain Supiot mehnat huquqini bozor munosabatlarini inson manfaatlari bilan cheklaydigan ijtimoiy institut sifatida baholaydi. Amartya Senning "imkoniyatlar yondashuvi" mehnat huquqini shaxsning hayotiy tanlovlari va real erkinliklarini kengaytiruvchi omil sifatida talqin etishga yordam beradi. Guy Standingning prekariat haqidagi qarashlari esa barqaror mehnat shartlari, ijtimoiy himoya va dam olish kafolatlari zaiflashganda xodimning huquqiy xavfsizligi pasayishini koʻrsatadi.

MDH mamlakatlari olimlari orasida mehnat huquqi, ijtimoiy sheriklik va xodim huquqlarini himoya qilish masalalari K. N. Gusov, V. N. Tolkunova, A. M. Lushnikov, M. V. Lushnikova, E. B. Xoxlov kabi mualliflarning ishlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlarida mehnat huquqi xususiy shartnoma erkinligi bilan jamoaviy va davlat kafolatlari oʻrtasidagi muvozanatni ta'minlovchi soha sifatida baholanadi. Oʻzbekiston olimlari, jumladan, A.X.Saidov, M.H.Rustamboyev, H.T.Odilqoriyev, O.K.Tursunov, M.A.Usmonova va boshqa tadqiqotchilar konstitutsiyaviy huquqlar, ijtimoiy davlat, mehnat munosabatlari va inson huquqlarini ta'minlash masalalarini milliy huquqiy tizim sharoitida asoslab berganlar. Ushbu manbalar maqolada nazariy poydevor sifatida qoʻllanildi.

Empirik-huquqiy kuzatuv sifatida amaldagi qonun normalarining mazmuni, bandlik siyosatidagi islohotlar, mehnat bozorining raqamlashtirilishi, xotin-qizlar va yoshlar bandligiga oid davlat dasturlari, kasbga oʻqitish tizimi hamda mehnat inspeksiyasi faoliyatining konstitutsiyaviy huquqlar ijrosiga ta'siri baholandi. Metodologik jihatdan maqola normativ hujjatlarni shunchaki sanab oʻtish bilan cheklanmaydi; u mehnat va dam olish huquqini huquqiy kafolat, ijtimoiy ehtiyoj va iqtisodiy samaradorlik oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikda izohlaydi.

Tahlil natijalari mehnat qilish huquqi Oʻzbekiston konstitutsiyaviy tizimida bir necha qatlamli mazmunga ega ekanini koʻrsatadi. Birinchi

qatlam - mehnat erkinligi. Har bir shaxs kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqiga ega bo‘lib, bu huquq shaxsning iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy faolligini ta’minlaydi. Ikkinchi qatlam - munosib mehnat sharoitlari. Konstitutsiyada xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay sharoitlarda ishlash kafolati belgilangan. Uchinchi qatlam - adolatli haq olish. Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. To‘rtinchi qatlam - ishsizlikdan himoya va kasbiy qayta tayyorlash. Davlatning bandlikni ta’minlash va kasbiy tayyorgarlikni rag‘batlantirish majburiyati fuqarolarning mehnat bozorida passiv kuzatuvchi emas, faol subyekt bo‘lishiga sharoit yaratadi.

Mehnat kodeksi konstitutsiyaviy normalarni amaliy mexanizmga aylantiradi. Kodeksning asosiy vazifalari xodimlarning mehnat huquqlari va erkinliklari, adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlari, ishsizlikdan himoyalanish kafolatlarini belgilash, ish beruvchilarning qonuniy manfaatlarini ta’minlash va mehnat sohasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishdan iborat. Unda mehnat huquqlarining tengligi, kamsitishni taqiqlash, mehnat erkinligi, majburiy mehnatni taqiqlash, xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi prinsiplar mustahkamlangan. Bu normalar Konstitutsiyaning 42-44-moddalarida belgilangan umumiy kafolatlarni mehnat shartnomasi, ichki mehnat tartibi, jamoa shartnomasi va davlat nazorati orqali amalga oshiradi.

Mehnat qilish va dam olish huquqi o‘rtasida ichki muvozanat mavjud. Mehnat qilish huquqi shaxsni iqtisodiy faollikka undaydi, dam olish huquqi esa mazkur faollikning insoniy chegarasini belgilaydi. Bu ikki huquq bir-birisiz to‘liq amalga oshmaydi. Ish vaqti haddan tashqari cho‘zilsa, mehnat qilish huquqi ekspluatatsiya shakliga yaqinlashishi mumkin; dam olish huquqi yetarli kafolatlanmasa, xodimning sog‘lig‘i, oilaviy hayoti va kasbiy barqarorligi zaiflashadi. Aksincha, mehnat bozorida ish o‘rinlari yetarli bo‘lmasa, dam olish kafolatlari ham real mazmunini yo‘qotadi, chunki ishsizlik sharoitida fuqarolar ko‘pincha norasmiy, xavfli yoki ijtimoiy himoyasiz ishlarga rozi bo‘lishga majbur bo‘ladilar.

Yevropa va xalqaro tajriba O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar uchun bir necha muhim xulosalarni beradi. Xalqaro mehnat tashkilotining “munosib mehnat” konsepsiyasi ish o‘rni mavjudligi bilan birga mehnatning sifati, adolatli daromad, xavfsizlik, ijtimoiy himoya va ijtimoiy dialogni talab qiladi. Yevropa ijtimoiy xartiyasi va Yevropa Ittifoqi huquqida ish vaqti chegaralari, yillik ta’til, kamsitmaslik, xavfsiz

mehnat muhiti va jamoaviy muzokaralar muhim o‘rin tutadi. MDH davlatlarida ham mehnat va dam olish huquqi odatda konstitutsiyaviy darajada tan olinadi, biroq amaliy samaradorlik mehnat inspeksiyasi, sud himoyasi, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar madaniyatiga bog‘liq. O‘zbekiston uchun asosiy vazifa normativ kafolatlarni haqiqiy ishlash mexanizmlariga aylantirishdan iborat.

Milliy sharoitda uchta masala alohida e’tibor talab qiladi. Birinchisi - norasmiy bandlikni qisqartirish. Rasmiy shartnomasiz ishlayotgan fuqaro ish vaqti, dam olish, ta’til, mehnat muhofazasi va ijtimoiy sug‘urta kafolatlaridan to‘liq foydalana olmaydi. Ikkinchisi - xodimlarning huquqiy savodxonligi. Mehnat kodeksida belgilangan huquq va kafolatlarni bilmagan xodim ularni talab qilishda sust bo‘ladi. Uchinchisi - ish beruvchilar mas’uliyati va korporativ madaniyat. Mehnat huquqi faqat jazolovchi nazorat orqali emas, balki ijtimoiy sheriklik, ochiq muloqot, ichki mehnat tartibining adolatli yuritilishi va xodim manfaatini hurmat qilish orqali mustahkamlanadi.

O‘zbekistonda mehnat qilish va dam olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat va huquqiy davlat prinsiplariga tayangan holda shakllangan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bu huquqlarni avvalgi yondashuvga nisbatan kengroq va mazmunan aniqroq ifodaladi. Mehnat qilish huquqi munosib mehnat, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsiz va gigiyenik sharoitlarda ishlash, kamsitilmasdan adolatli haq olish hamda ishsizlikdan himoyalanish kabi asosiy kafolatlarni qamrab oladi. Dam olish huquqi esa ish vaqtining qonuniy chegaralanishi, har kungi va haftalik dam olish, bayram kunlari, yillik haq to‘lanadigan ta’til va xodimning shaxsiy hayotini hurmat qilish orqali amalga oshadi. Bu ikki huquq birgalikda insonning iqtisodiy faolligi bilan sog‘lom hayot tarzi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Umumiy xulosa shuki, O‘zbekistonda mehnat qilish va dam olish huquqi ijtimoiy davlat konsepsiyasining markaziy tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Mehnat huquqini faqat iqtisodiy ishlab chiqarish vositasi, dam olish huquqini esa faqat imtiyoz sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Ular insonning munosib hayot kechirishi, salomatligini saqlashi, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda faol bo‘lishi, kasbiy salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur konstitutsiyaviy kafolatlardir. Kelgusida mehnat qonunchiligini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, platformali va masofaviy mehnat sharoitida xodim huquqlarini yanada

aniq belgilash, ish va hayot muvozanatini ta’minlaydigan mexanizmlarni kuchaytirish mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qoladi.

## HUQUQIY BARQARORLIKNI YARATISHDA SHARHLASHNING AHAMIYATI

***S.SH.Eshmatova***
*Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o’qituvchisi*
***S.X.Inoyatov***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada huquq normalarini sharhlash tushunchasi, uning asosiy turlari, usullari va amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Kirish qismida sharhlash jarayonining ilmiy asoslari, zaruriyati va huquqiy tizimdagi tutgan o'rni tahlil qilingan. Asosiy qismda huquq normalarini sharhlashning grammatik, tizimli, tarixiy va mantiqiy usullari mukammal tarzda yoritilgan; rasmiy va norasmiy sharhlash turlari farqlanib, ularning amaliyotdagi qo'llanish doirasi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar misolida sharhlash jarayonining konkret ko'rinishlari ko'rsatib o'tilgan. Xulosa qismida sharhlash jarayonining qonuniy qarorlar qabul qilish, huquqiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi markaziy roli aks ettirilgan hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha muallif takliflari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** *huquq normalari, sharhlash, rasmiy talqin, norasmiy talqin, sud amaliyoti, grammatik usul, tizimli usul, tarixiy usul, mantiqiy usul, qonuniylik, huquqiy barqarorlik, adolat, normativ-huquqiy hujjatlar.*

Har qanday jamiyatda tartib va barqarorlikni ta'minlash muayyan qoidalar va me'yorlarga asoslanadi. Ushbu me'yorlar orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlar tartibga solinadi, huquq va majburiyatlar belgilanadi. Ayniqsa, davlat va jamiyat hayotida huquqiy me'yorlar alohida o'rin egallab, ular orqali ijtimoiy adolat va qonuniylik ta'minlanadi. Shu sababli huquq normalarining mazmunini to'g'ri anglash va ularni bir xil qo'llash nafaqat huquqshunoslar, balki jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti huquqiy munosabatlarning kengayishi va murakkablashuvi bilan uzviy bog'liqdir. Globallashuv, texnologik rivojlanish va yangi ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi qonunchilikka yangi talablar qo'ymoqda. Bunday sharoitlarda huquq

normalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ularning mazmunini to'g'ri anglash va amalda bir xil qo'llash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan huquq normalarini sharhlash masalasi huquqshunoslik fanida markaziy o'rinlardan birini egallaydi.

Huquq normalarini sharhlash – huquqiy normalarning mazmunini aniqlash va ularni to'g'ri qo'llashga xizmat qiluvchi intellektual jarayondir. Ushbu jarayon orqali normalarning asl ma'nosi ochib beriladi va uni amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, turli vaziyatlarda huquq normalarining turlicha tushunilishi ehtimoli mavjud bo'lganligi sababli, ularni izchil talqin qilish zarur bo'ladi.

Hozirgi kunda huquq normalarini sharhlashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bunga normativ-huquqiy hujjatlar hajmining oshishi, yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning yuzaga kelishi, raqamli texnologiyalarning jamiyatga kirib kelishi va huquq tizimining doimiy rivojlanishi sabab bo'lmoqda. Ayrim hollarda huquq normalarining turlicha talqin qilinishi amaliyotda noaniqlik, nomuvofiqlik va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa huquqni qo'llash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda fuqarolar va tashkilotlar o'rtasidagi nizolarning ko'payishiga olib keladi.

Maqolaning maqsadi – huquq normalarini sharhlashning mohiyatini, usullarini va huquqiy barqarorlikdagi rolini tahlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi huquq tizimidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berish.

Huquq normalarini sharhlashni o'rganishdan avval huquqning o'zi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish zarur. Taniqli olim X.T.Odilqoriyev ta'rifiga ko'ra: *"Huquq – bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki tasdiqlanadigan, umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va davlat majburuv kuchi bilan ta'minlanadi"*.[^2] Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, huquq davlat irodasini ifodalovchi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmuidir

Huquqiy normalar kishilar va tashkilotlar xulq-atvorini tartibga soluvchi umumiy qoidalar sifatida muayyan so'z va iboralar orqali ifodalanadi. Biroq qonun matni har doim ham aniq va bir ma'noli bo'lavermaydi. Tilning ko'p ma'noliligi, qonun chiqaruvchining niytini to'liq ifodalay olmaslik, jamiyatdagi o'zgarishlar natijasida huquq normalarini turlicha tushunish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu

sababli huquqni sharhlash masalasi amaliy yurisprundensiyada doimiy dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Huquqni sharhlash – bu huquq normalarining mazmunini aniqlash, tushuntirish va ularni to'g'ri qo'llashga qaratilgan intellektual faoliyatdir.[^3] Bu jarayon ikki asosiy elementni o'z ichiga oladi: birinchisi – *aniqlash* (normaning mazmunini tushunish), ikkinchisi – *tushuntirish* (bu mazmunni boshqalarga yetkazish). Sharhlashning to'g'riligi va izchilligi huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashning asosiy garovi hisoblanadi.

Sharhlash zaruriyati quyidagi hollarda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi: qonun matni umumiy va mavhum iboralardan iborat bo'lganda; texnologik yoki ijtimoiy o'zgarishlar tufayli yangi munosabatlar yuzaga kelganda; turli davlatlardagi huquqiy an'analar va terminologiyalar farq qilganda; qonunning chiqarilish davri bilan qo'llanilish davri o'rtasida sezilarli vaqt o'tganda.

Huquq normalarini sharhlash ikkita asosiy turga bo'linadi: **rasmiy** va **norasmiy sharhlash**.

**Rasmiy sharhlash** – vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan va yuridik kuchga ega bo'lgan sharhlashdir. U ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- **Autentik (qonun chiqaruvchi) sharhlash**: qonun chiqaruvchi organ (masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi) normaning chiqarilish jarayonida yoki keyinchalik uni rasman izohlaydi. Bu turdagi sharhlash normativ xarakter kasb etadi va umumiy majburiy kuchga ega bo'ladi.

- **Sud (kazual) sharhlash**: sudlar normani ma'lum bir ishni ko'rib chiqish jarayonida talqin qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy iqtisodiy sudining rasmiy tushuntirishlari keng tarqalgan kazual sharhlashga misol bo'ladi.

**Norasmiy sharhlash** – vakolatli organ bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan va bevosita yuridik kuchga ega bo'lmagan, ammo amaliyotga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi sharhlashdir:

- **Ilmiy (doktrinal) sharhlash**: huquqshunoslik olimlari, fan doktorlari va professiorl ekspertlar tomonidan bayon etiladi. Garchi bevosita yuridik kuchga ega bo'lmasa-da, sud amaliyoti va qonunchilikka jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- **Amaliy (kasbiy) sharhlash**: advokatlar, yuristlar va huquq maslahatchilar tomonidan muayyan ish yoki muammo doirasida amalga

oshiriladigan sharhlash. Bu turdagi sharhlash mijozlarga huquqiy yordam ko'rsatishda va sud muhokamalarida muhim rol o'ynaydi.

Huquq normalarini sharhlashda turli metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Har bir usul normaning mohiyatini aniqlash va uni amaliyotga to'g'ri qo'llashga xizmat qiladi. Ushbu usullar orasida eng keng tarqalganlari – grammatik, tizimli, tarixiy va mantiqiy usullardir.

Grammatik usul huquq normalarini so'zma-so'z lingvistik tahlil qilishga asoslanadi. Bu usul yordamida qonun matnidagi har bir ibora, so'z va jumla mazmuni aniqlanadi. Grammatik tahlil quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: so'zlarning leksik ma'nosi, grammatik konstruktsiyalar (gap tuzilishi, bog'lovchilar, tinish belgilari) va terminlarning huquqiy ma'nosi.

Masalan, Jinoyat kodeksining 166-moddasi qo'llanayotganda "ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish" iborasining ma'nosi grammatik usul orqali aniqlanadi va sud tomonidan amalda qo'llaniladi. Shu kabi, "va", "yoki", "hamda" kabi bog'lovchilar huquq normasining talqinida tubdan farqli natijalar berishi mumkin. "Yoki" alternativlikni, "va" esa bir vaqtdalikni bildiradi – bu farqni to'g'ri anglash ko'pincha ish natijasini belgilab beradi.

Tizimli usul huquq normalarini boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va normalar bilan o'zaro bog'liq holda tushunishga yordam beradi. Bu usulning asosi shundaki, har bir huquqiy norma yolg'iz mavjud bo'lmay, balki yaxlit huquqiy tizimning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Shu usul orqali norma o'z konteksti va qonunchilik tizimidagi o'rniga qarab talqin qilinadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi shartnoma normalari boshqa tegishli modda va qoidalar bilan birgalikda ko'rib chiqilib, ularning izchilligi ta'minlanadi. Mehnat kodeksidagi "ishchi" tushunchasi ham Fuqarolik kodeksidagi umumiy ta'rif bilan birga o'qiladi. Bundan tashqari, milliy qonunchilik xalqaro shartnomalar va konvensiyalar bilan hamohang talqin qilinishi zarur.

Tarixiy usul normaning yaratilish vaqti, qonun chiqarilish sharoiti, ijtimoiy-siyosiy muammolar va qonun chiqaruvchining dastlabki niyatini inobatga oladi. Bu usul yordamida normaning kelib chiqish sabablarini tushunish va uning dastlabki maqsadiga muvofiq talqin qilish mumkin bo'ladi.

Masalan, o'tish davri qonunchiligi (1991–2000-yillar)da qabul qilingan normalarni sharhlashda davr ruhini, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitini va o'sha vaqtdagi ijtimoiy zaruriyatlarni hisobga olish lozim.

Tarixiy usul shuningdek, qonunchilikdagi islohotlar jarayonida eskirgan normalar o'rniga yangilarini joriy etishda qanday maqsadlar ko'zlanganligi va bu maqsadlarga qancha darajada erishilganligini baholashda ham qo'llaniladi.

Mantiqiy usul huquq normalarini rasional-analitik tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu usul yordamida normaning ichki mohiyati, boshqa normalar bilan mantiqiy bog'liqligi, qoidaning maqsadi va oqibatlari aniqlanadi. Mantiqiy usul deduktiv, induktiv va analogiya metodlaridan foydalanadi.

Masalan, Jinoyat kodeksidagi moddalar o'rtasidagi bog'lanishlar tahlili, qoidaning qo'llanish oqibatlarini bashorat qilish va ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiqligi mantiqiy usul yordamida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, analogiya – mavjud normani to'g'ridan-to'g'ri ko'zda tutilmagan, ammo unga o'xshash holatlarga qo'llash – ham mantiqiy sharhlashning bir ko'rinishi sifatida qaraladi.

Huquq normalarini sharhlash amaliyotda turli sohalarda qo'llaniladi. Quyida bir nechta konkret misollar orqali sharhlashning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Jinoyat kodeksining 244⁴-moddasi "uchuvchisiz uchadigan apparat"larni (dronlarni) qonunga xilof ravishda olib kirish, saqlash yoki ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu modda qo'llanilganda sud "qulashi tartibga solingan texnika" tushunchasi, "qonunga xilof" bo'lish omillari va qanday harakatlar jinoyat sifatida baholanishini aniqlash uchun grammatik va mantiqiy sharhlashdan foydalanadi. Bu misol yangi texnologiyalar sharoitida sharhlashning nechog'li muhimligini yaqqol ko'rsatib beradi.

Fuqarolik qonunchiligida mulk huquqi bilan bog'liq normalar mavjud. Ayrim holatlarda hujjatlarda mulkning egasi va undan foydalanish tartibi aniq ko'rsatilmagan bo'lishi mumkin. Bunday holatda yurist yoki sudya tizimli va grammatik sharhlash orqali mulk huquqining kimga va qanday shartlarda tegishli ekanligini aniqlaydi. Natijada har ikki tomonning huquqlari himoya qilinadi va nizolar oldi olinadi.

Mehnat qonunchiligida "ishga qabul qilish" va "fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida faoliyat yuritish" tushunchalari o'rtasidagi chegara ko'pincha noaniq bo'lishi mumkin. Tizimli va mantiqiy sharhlash yordamida ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi munosabatning qanday tavsiflanishi aniqlanadi, bu esa tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, sharhlash – bu faqat nazariy mashg'ulot emas, balki har kunlik huquqiy amaliyotning ajralmas qismidir. Har bir konkret ishda to'g'ri sharhlash amalga oshirish adolatli qaror qabul qilishning asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi huquq amaliyotida normalarni sharhlash jarayonida quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

Ko'pgina normativ hujjatlarda umumiy tusda yozilgan qoidalar mavjud bo'lib, amaliyotda yuzaga keladigan texnik tafsilotlar yoki yangi holatlar to'liq ko'zda tutilmagan bo'lishi mumkin. Bu esa turli talqinlar va sud qarorlaridagi farqlarga olib keladi.

Turli normativ hujjatlardagi normalar o'rtasida ziddiyat va nomuvofiqlik hollari yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlarda qaysi normaga ustuvorlik berilishi masalasi sharhlash yo'li bilan hal qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, kriptovalyuta kabi yangi sohalarga oid normalar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli mavjud normalarni yangi holatlar uchun tatbiq etishda keng sharhlashga murojaat qilish zaruriyati tug'iladi.

Ayrim holatlarda huquqni qo'llovchi shaxslarning sharhlash metodologiyasidan yetarlicha xabardor emasligi noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- Normativ hujjatlarni loyihalashtirishda aniq, tushunarli va bir xil talqin qilinadigan iboralardan foydalanish; professional yuristlar va soha mutaxassislarini qonun ishlab chiqish jarayoniga jalb etish;
- Sud amaliyotini tizimlashtirish va umumlashtirish: Oliy sud va Oliy iqtisodiy sudning tushuntirish qarorlarini muntazam ravishda chiqarish, ularni ommaviy axborot vositalarida keng targ'ib qilish;
- Qonunchilikni monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish: qonunlarning amaliyotdagi ta'siri muntazam o'rganib borilishi, zarur holatlarda o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritilishi kerak;
- Huquqiy ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni yuksaltirish: yuridik oliy ta'lim muassasalarida sharhlash metodologiyasini o'qitishni kuchaytirish; amaliyotchi huquqshunoslar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, huquq normalarini sharhlash – bu faqat kitobiy ilmiy mashg'ulot emas, balki huquqiy tizimning samarali ishlashini ta'minlovchi amaliy zaruriyatdir. Sudlar, prokuratura, advokatura va

boshqa huquqni qo'llovchi organlar qonunni to'g'ri tushunib, adolatli qarorlar qabul qilishi uchun professional sharhlash ko'nikmasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada ko'rib chiqilgan grammatik, tizimli, tarixiy va mantiqiy sharhlash usullari birgalikda qo'llanilganda, norma mazmuni to'liq ochib beriladi va turli talqinlardan keladigan muammolar minimallashadi. Rasmiy va norasmiy sharhlash turlari esa o'zaro to'ldiruvchi tarzda huquqiy tizim barqarorligiga hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlar jadal sur'atda olib borilayotgan bugungi kunda qonunchilik normalarini to'g'ri sharhlash ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar, bozor iqtisodiyoti va xalqaro integratsiya sharoitida yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar tobora ko'payib bormoqda. Bu esa yuridik ta'lim tizimida sharhlash metodologiyasiga e'tiborni kuchaytirish, amaliyotchi huquqshunoslar malakasini oshirish va qonunchilikni yanada aniq hamda tushunarli tarzda shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Xulosa qilib aytganda, huquq normalarini sharhlash – qonunni to'liq tushunish, izchil qo'llash va adolatli qaror qabul qilishning kaliti. Ushbu jarayon orqali sudlar va yuristlar qonuniylikni ta'minlaydi, fuqarolar huquqlarini himoya qiladi va huquq tizimini mustahkamlaydi. Huquqiy barqarorlik esa faqat qonunlar mavjudligi bilan emas, balki ularning to'g'ri va izchil sharhlangan holda qo'llanilishi bilan ta'minlanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:


- Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
- Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018
- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (22.09.1994 yil, 2100-XII-son). – Toshkent, 1994 (keyingi tahrirlari bilan).
- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (29.08.1996 yil, 256-I-son). – Toshkent, 1996 (keyingi tahrirlari bilan)
- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (21.12.1995 yil, 161-I-son). – Toshkent, 1995 (keyingi tahrirlari bilan).
- Alekseyev S.S. Teoriya prava. – Moskva: Izdatelstvo BEK, 1995. – 320 b.
- Nersesyants V.S. Obshchaya teoriya prava i gosudarstva. – Moskva: NORMA, 1999. – 552 b.

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
- Qodirov A.X. O‘zbekistonda huquqiy davlat qurish muammolari. – Toshkent: Fan, 2019. – 180 b.
- Dworkin R. Law's Empire. – Cambridge: Harvard University Press, 1986. – 470p.
[^2]: Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 45-bet.
[^3]: Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 78-bet.

# JAMIYAT HAYOTIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI VA UNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

***F.E.Djuravev,***
*Sarbon universiteti “Huqiqiy fanlar” kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya**. Mazkur tezisda jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining o‘rni, ularning demokratik boshqaruv, jamoatchilik nazorati, huquqiy ong va axborot madaniyatini yuksaltirishdagi konstitutsiyaviy-huquqiy ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalari erkinligi, axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatish huquqlarining kafolatlanishi demokratik jamiyatning muhim sharti sifatida mustahkamlangan. Tezisda ommaviy axborot vositalari (keyingi o‘rinlarda “OAV”) nafaqat xabar yetkazuvchi institut, balki davlat va jamiyat o‘rtasida ochiq muloqotni ta’minlovchi, ijtimoiy muammolarni aniqlovchi, fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligini oshiruvchi va davlat organlari faoliyatining shaffofligini kuchaytiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida tahlil qilinadi. Bugungi raqamli muhitda jurnalistika, ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlari va davlat axborot xizmatlari faoliyatining o‘zaro uyg‘unlashuvi axborot makonini yanada murakkablashtirmoqda.

**Kalit so‘zlar:** ommaviy axborot vositalari, Konstitutsiya, axborot erkinligi, jurnalist huquqlari, jamoatchilik nazorati, ochiqlik siyosati, demokratik jamiyat, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, fuqarolik faolligi.

Ommaviy axborot vositalari zamonaviy demokratik jamiyatda davlat hokimiyati, fuqarolik jamiyati institutlari va aholi o‘rtasidagi eng ta’sirchan kommunikativ ko‘prik vazifasini bajaradi. Jamiyatda sodir bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar avvalo axborot orqali anglanadi, baholanadi va jamoatchilik munosabatiga aylanadi. Shu sababli OAVning konstitutsiyaviy maqomini o‘rganish oddiy huquqiy masala emas, balki demokratik islohotlar mazmunini,

davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlik prinsiplarining real ishlash darajasini baholashga xizmat qiladigan ilmiy yo‘nalishdir.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi axborot sohasidagi munosabatlarni yanada aniqroq konstitutsiyaviy mezonlar bilan mustahkamladi. Unda ommaviy axborot vositalarining erkinligi, qonunga muvofiq faoliyat yuritishi, axborotni izlash, olish, undan foydalanish va tarqatish huquqlari kafolatlanishi belgilangan. Bu normalar OAVni jamiyat hayotining passiv kuzatuvchisi emas, balki davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi, fuqarolarning fikr bildirish erkinligini namoyon etuvchi va ijtimoiy muammolarga tezkor e’tibor qaratadigan huquqiy institut sifatida e’tirof etadi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, raqamli kommunikatsiyalar jadallashgan sharoitda axborot oqimi kengaydi, internet nashrlari, blogerlik, ijtimoiy tarmoqlar va an’anaviy jurnalistika bir axborot maydonida faoliyat yurita boshladi. Ikkinchidan, ochiq davlat boshqaruvi konsepsiyasi davlat organlarining OAV bilan muntazam muloqotini talab qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan xalq bilan muloqot, davlat organlarining ochiqligi, matbuot xizmatlari faoliyatini kuchaytirish va jurnalistlarning huquqiy himoyasini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslar OAVning jamiyatdagi o‘rnini yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugungi muammo faqat OAV erkinligini e’lon qilish bilan cheklanmaydi. Erkin jurnalistika ishonchli axborot, kasbiy etika, huquqiy mas’uliyat va axborot xavfsizligi bilan uyg‘unlashgandagina jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Noto‘g‘ri, tekshirilmagan yoki manipulyativ axborot fuqarolarning ijtimoiy kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, shaxs sha’ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishi, jamiyatda asossiz ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. Demak, OAV konstitutsiyaviy erkinligining mazmuni faqat axborot tarqatish imkoniyatida emas, balki xolislik, qonuniylik, mas’uliyat va jamoat manfaatiga xizmat qilish tamoyillarida ham namoyon bo‘ladi.

OAVning konstitutsiyaviy asoslari avvalo fikr bildirish erkinligi, axborot olish huquqi va davlat organlari faoliyatining ochiqligi bilan bog‘liq. Konstitutsiyaviy normalar axborot sohasidagi barcha qonunchilik hujjatlari uchun metodologik poydevor vazifasini bajaradi. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunda OAV tushunchasi, ularning turlari, ro‘yxatdan o‘tishi, tahririyat faoliyati va axborot tarqatishdagi huquqiy chegaralar belgilangan. “Axborot olish kafolatlari va erkinligi

to‘g‘risida”gi Qonun har kimning axborotni erkin izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqini amalga oshirishdagi munosabatlarni tartibga soladi. “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun jurnalistning kasbiy huquqlarini kafolatlash orqali OAV erkinligining real ishlashiga huquqiy sharoit yaratadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan OAV jamiyatda to‘rtta asosiy vazifani bajaradi. Birinchi vazifa - axborot berish. Aholi mamlakatda va dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar, qonunchilikdagi o‘zgarishlar, davlat dasturlari va ijtimoiy muammolar haqida OAV orqali xabardor bo‘ladi. Ikkinchi vazifa - tahlil va sharhlash. Jurnalist faqat voqeani bayon etmaydi, balki uning sabablari, oqibatlari va ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. Uchinchi vazifa - jamoatchilik nazorati. OAV davlat organlari, mansabdor shaxslar, ijtimoiy xizmatlar va boshqa institutlar faoliyatidagi kamchiliklarni yoritish orqali mas’uliyatni kuchaytiradi. To‘rtinchi vazifa - ijtimoiy integratsiya. OAV turli ijtimoiy guruhlar fikrini maydonga olib chiqib, muammolar bo‘yicha jamoaviy muhokama muhitini yaratadi.

Yevropa tajribasida OAV erkinligi demokratik davlatning ajralmas belgisi sifatida baholanadi. Jürgen Habermas jamoatchilik sferasi haqidagi qarashlarida erkin muhokama maydoni fuqarolarning siyosiy qarorlar mazmuniga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Denis McQuail media nazariyalarida OAVning axborot, kuzatuv, madaniy uzatish va tanqidiy nazorat funksiyalarini alohida ko‘rsatadi. Manuel Castells raqamli tarmoqlar jamiyatida kommunikatsiya hokimiyat munosabatlariga bevosita ta’sir qilishini asoslaydi. MDH olimlaridan Y.M. Entin va A.V. Fedorov axborot huquqi, media madaniyat va axborot xavfsizligi masalalarini o‘rgangan. O‘zbekiston olimlari va huquqshunoslari esa OAV erkinligini Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati va ochiq davlat boshqaruvi bilan bog‘liq holda tadqiq etmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda OAVning jamiyatdagi mavqei sezilarli o‘zgardi. Davlat organlari huzurida matbuot xizmatlari faoliyati kuchaydi, rasmiy axborot berish mexanizmlari kengaydi, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlardagi jamoatchilik muhokamalari davlat qarorlarini ishlab chiqish hamda ijrosini baholash jarayonlariga ta’sir ko‘rsata boshladi. Prezidentning OAV bilan yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurligi haqidagi fikrlari davlat boshqaruvi tizimida axborot siyosatiga bo‘lgan munosabatni yangiladi. OAV endi faqat targ‘ibot vositasi sifatida emas, balki tanqidiy fikr, jamoat manfaatini ilgari surish va ijtimoiy muammolarni ko‘tarish maydoni sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston sharoitida OAV konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari sifatida jurnalistlarning huquqiy bilimini oshirish, tahririyatlarning mustaqil tahliliy salohiyatini kuchaytirish, axborot olish bo‘yicha so‘rovlarga o‘z vaqtida javob berish amaliyotini yaxshilash, davlat organlari matbuot xizmatlarining professionalligini oshirish va raqamli platformalarda faktcheking madaniyatini kengaytirish mumkin. Bu choralar OAV erkinligini amaliy institutga aylantiradi hamda jamiyatda qonuniylik, ochiqlik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining o‘rni demokratik taraqqiyot, fuqarolik faolligi va ochiq davlat boshqaruvi bilan bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida OAV erkinligi va axborot bilan ishlash huquqlarining kafolatlanishi ushbu institutning huquqiy maqomini yanada mustahkamladi. Tezisda ko‘rib chiqilgan tahlillar OAV jamiyatda axborot yetkazish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, huquqiy ongni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni ochiq muhokamaga olib chiqish va davlat organlarining hisobdorligini oshirish kabi vazifalarni bajarishini ko‘rsatadi. OAV erkinligi demokratik qadriyat sifatida muhim, biroq u qonuniylik, xolislik, axborotning ishonchliligi va kasbiy etika bilan uyg‘unlashgandagina jamiyat manfaatiga xizmat qiladi. Raqamli muhitda axborot tarqalish tezligi oshgani sari jurnalistlar va tahririyatlar zimmasidagi mas’uliyat ham kuchaymoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekistonda OAVning konstitutsiyaviy asoslarini yanada rivojlantirish uchun uchta ustuvor yo‘nalishga e’tibor qaratish zarur. Birinchidan, jurnalistlarning kasbiy huquqlarini amalda himoya qilish va axborot olish mexanizmlarini soddalashtirish lozim. Ikkinchidan, davlat organlari va OAV o‘rtasidagi muloqot ochiq, muntazam va professional asosda yo‘lga qo‘yilishi kerak. Uchinchidan, jamiyatda media savodxonlik, faktlarni tekshirish madaniyati va axborotdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Ana shu omillar OAVni demokratik jamiyatning faol instituti, xalq manfaatini ifoda etuvchi maydon va konstitutsiyaviy huquqlarni ro‘yobga chiqaruvchi muhim mexanizm sifatida yanada mustahkamlaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda qabul qilingan yangi tahrir. - Toshkent: Adolat, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997-yil 26-dekabr; yangi tahrir 2007-yil 15-yanvar, O‘RQ-78-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997-yil 24-aprel, 400-I-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997-yil 24-aprel, 402-I-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi PQ-294-son “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: O‘zbekiston, 2021.

# GIYOHVANDLIK VOSITALARINING NOQONUNIY AYLANISHI BILAN BOG‘LIQ VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

***M.S.Narzullayeva***
*“Sarbon” universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq holda voyaga yetmagan shaxslar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari, huquqiy va ijtimoiy omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu sohada mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha kompleks yondashuv asosidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** voyaga etmaganlar, ehtiyot chorasi, jinoyat protsessi, tergov, inson huquqlari, qamoqqa olish, kafolat, nazorat.

Bugungi rivojlanayotgan dunyoda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka, balki jamiyatning eng nozik qatlamlaridan biri bo‘lgan voyaga yetmaganlarga ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Voyaga yetmagan shaxslarning mazkur turdagi jinoyatlarga jalb etilishi nafaqat ularning kelajak taqdiriga, balki

davlatning ijtimoiy xavfsizligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jinoyat huquq tizimida voyaga yetmaganlarning huquqiy holati alohida e’tibor talab qiladigan masalalardan biridir. Voyaga yetmaganlarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining xususiyatlarini hisobga olgan holda protsessual majburlov choralarini, xususan, profilaktika choralarini qo'llash alohida tartibga solinadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan profilaktika choralarini qo‘llash masalasi inson huquqlarini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu borada xalqaro huquqiy hujjatlar ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konventsiyasi, shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov bo‘yicha Pekin qoidalari bu sohada muhim standartlarni belgilab berdi. Shu bois voyaga yetmaganlarga nisbatan profilaktika choralarini qo‘llashda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini maksimal darajada himoya qilish muhim vazifa hisoblanadi. Yoshlarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar alohida huquqiy tartibga solinadi. Jinoyat qonunchiligida ular uchun alohida javobgarlik choralari belgilangan bo‘lib, asosiy maqsad jazolash emas, balki tarbiyalash va qayta ijtimoiylashuvni ta’minlashdan iborat.

Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar esa o‘zining yuqori ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi. Voyaga yetmaganlar ko‘pincha ushbu faoliyatga: moddiy manfaat, katta yoshdagi shaxslar ta’siri, ijtimoiy nazoratning sustligi natijasida jalb etiladi..

Prezidentimiz yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev voyaga yetmaganlar yurtimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarimiz uchun ularning rivojlanishlari sifatli bilim va ko‘nikmalar olishlari, kelgusidagi to‘g‘ri halol va pokiza hayotlari uchun juda ham katta e’tibor berib katta shart sharoitlar yaratib bermoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi qayd etilgan. Voyaga yetmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo‘llash O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. Ushbu kodeksga muvofiq ehtiyot chorasi jinoyat protsessida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining: tergovdan yashirinib ketishining oldini olish, jinoyat faoliyatini davom ettirishining oldini olish, dalillarni yo‘q qilish yoki guvohlarga bosim o‘tkazish ehtimolini

bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladi. Voyaga etmagan shaxslarga nisbatan quyidagi ehtiyot choralaridan foydalanilishi mumkin: munosib xulq-atvor haqida tilxat olish; shaxsiy kafillik; ota-ona yoki qonuniy vakillarning nazoratiga topshirish; jamoat birlashmasi yoki ta’lim muassasasi nazoratiga topshirish; garov; qamoqqa olish.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Voyaga yetmaganlarga ehtiyot choralarini qo‘llashda quyidagi omillar inobatga olinadi: 1. Yosh xususiyati - Voyaga etmagan shaxsning yoshiga qarab uning psixologik holati, ijtimoiy rivojlanishi va tarbiyaviy muhitiga baho beriladi. 2. Tarbiyaviy muhit - Voyaga etmagan shaxsning oilaviy sharoiti, ota-onasi yoki qonuniy vakillari mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega. 3. Jinoyatning og‘irlik darajasi - Ehtiyot chorasi tanlashda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ham hisobga olinadi. 4. Shaxsning xulq-atvori - Voyaga yetmagan shaxsning oldingi xulq-atvori, o‘qish yoki ishlash joyidagi tavsifnomasi ham muhim rol o‘ynaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, voyaga yetmaganlarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi eng oxirgi chora sifatida qo‘llanishi lozim. Bu prinsip xalqaro huquq normalarida ham mustahkamlangan. JPKning 242-moddasiga asosan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo‘llanilishi mumkin.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish ayblanuvchini (ayrim hollarda - ushlangan gumon qilinuvchini) jamiyatdan majburiy ajratish hamda, dastlabki tergov va jinoyat ishini sudda ko'rib chiqish jarayoni va jazoning ijro etilishini ta'minlash maqsadida, uni maxsus muassasada saqlashdan iborat. Voyaga etmaganlarga ehtiyot choralarini qo‘llash jarayonida bir qator muammolar kuzatilmoqda. 1. Qamoqqa olish chorasi haddan tashqari qo‘llanishi. Amaliyotda ayrim hollarda voyaga etmaganlarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi yetarli asoslar bo‘lmagan holda qo‘llanayotganligi kuzatiladi. Bu esa xalqaro standartlarga zid hisoblanadi. 2. Alternativ ehtiyot choralarining kam qo‘llanishi Jinoyat-protsessual kodeksida ota-onalar nazoratiga topshirish, jamoat tashkilotlari nazorati kabi ehtiyot choralar mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda ular kam qo‘llaniladi. 3. Psixologik yondashuv

yetishmasligi. Voyaga etmaganlar bilan ishlashda maxsus psixologik yondashuv talab etiladi. Biroq tergov organlari xodimlarining barchasi ham bunday tayyorgarlikka ega emas. 4. Voyaga etmaganlar adliyasi institutining yetarlicha rivojlanmaganligi. Ko‘plab davlatlarda voyaga etmaganlar uchun alohida sud va tergov tizimi mavjud bo‘lsa, milliy tizimda bunday mexanizmlar to‘liq shakllanmagan. Mazkur sohadagi muammolarni hal etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: Voyaga etmaganlarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo‘llanishini maksimal darajada cheklash. Ota-ona va ta’lim muassasalari nazorati kabi alternativ ehtiyot choralarini keng qo‘llash. Voyaga etmaganlar bilan ishlovchi tergovchilar uchun maxsus psixologik tayyorgarlik tizimini joriy etish. Voyaga etmaganlar adliyasi institutini rivojlantirish. Jinoyat-protsessual kodeksida voyaga etmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo‘llash tartibini yanada takomillashtirish.

Jinoyat protsessida ehtiyot chorasi shaxsning protsessual majburiyatlarini ta’minlashga qaratilgan majburlov chorasi hisoblanadi. Ehtiyot choralarining asosiy vazifasi jinoyat protsessining normal kechishini ta’minlashdan iborat. Voyaga etmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo‘llashning nazariy asoslari quyidagi tamoyillarga tayanadi: **1. Insonparvarlik tamoyili** bu orqali voyaga etmagan shaxslarning ruhiy va jismoniy rivojlanish darajasi kattalardan farq qiladi. Shu sababli ularga nisbatan qo‘llaniladigan choralar tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lishi zarur. **2. Minimal majburlov tamoyili** bu orqali voyaga etmaganlarga nisbatan imkon qadar eng yengil ehtiyot chorasi qo‘llanishi kerak. **3. Individual yondashuv tamoyili** har bir voyaga etmagan shaxsning shaxsiy xususiyatlari, oilaviy sharoiti, tarbiyaviy muhiti va ijtimoiy holati alohida o‘rganilishi zarur. Voyaga etmagan shaxslarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo‘llanilganda quyidagi omillar hisobga olinishi zarur: sodir etilgan jinoyatning og‘irlik darajasi; voyaga etmagan shaxsning ilgari sudlanganligi; uning oilaviy va ijtimoiy sharoiti; tergovdan yashirinib ketish ehtimoli. Shuningdek, qamoqqa olish chorasi qo‘llanilganda voyaga etmaganlar kattalardan alohida saqlanishi lozim.

Xorijiy davlatlar tajribasi voyaga etmaganlar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. **Germaniya tajribasi** tahlil qiladigan bo‘lsak, Germaniyada voyaga etmaganlar jinoyat ishlari bo‘yicha maxsus sudlar faoliyat yuritadi. Qamoqqa olish chorasi faqat istisno hollarda qo‘llaniladi. **Yaponiya tajribasi** shuni bizga ko‘rsatadiki, Yaponiyada voyaga etmaganlar ishlari maxsus oilaviy sudlar tomonidan ko‘rib

chiqiladi. **Fransiya tajribasida** esa Fransiyada voyaga etmaganlar bilan ishlashda ijtimoiy xizmatlar faol ishtirok etadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo‘llash jinoyat protsessining muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada insonparvarlik tamoyillari ustuvor bo‘lishi lozim. Voyaga yetmagan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida ehtiyot choralarini qo‘llashda individual yondashuv, minimal majburlov va tarbiyaviy ta’sir choralariga ustuvor ahamiyat berilishi zarur. Mazkur sohada qonunchilikni takomillashtirish hamda xalqaro tajribani joriy etish orqali voyaga etmaganlar huquqlarini yanada samarali himoya qilish mumkin. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: Voyaga etmaganlarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo‘llanishini maksimal darajada cheklash. Jinoyat-protsessual kodeksida alternativ ehtiyot choralarining qo‘llanishini kengaytirish. Voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi tergovchilar uchun maxsus tayyorgarlik tizimini joriy etish. Voyaga yetmaganlar adliyasi institutini rivojlantirish, voyaga etmaganlarga nisbatan ehtiyot choralarini qo‘llashda sud nazoratini kuchaytirish orqali erishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Inson huquqlari bo'yicha Xalqaro shartnomalar: to'plam. - Toshkent, 2004. -B.40.
3. “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni// O'lim jazosini bekor qilish hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazishga oid normativ -huquqiy hujjatlar to'plami”. -T., 2007. -B.18-34.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to`g‘risidagi

kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.07.2018 y., 03/18/487/1569-son.

6. O‘zbekiston Respublikasining ―Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to‘g‘risida‖gi Qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019y., 03/19/567/3737-son. 70

# XALQARO MINTAQALARDA INSON HUQUQLARI MONITORINGI TIZIMLARI: YEVROPA, AMERIKA, AFRIKA VA OSIYO YONDASHUVLARI QIYOSIY TAHLILI

***X.O.Hakimova***
*Sarbon universiteti, Toshkent, O‘zbekiston*
*xandonahakimova@gmail.com*
***M.F.Xo'jayeva***
*Sarbon universiteti, Toshkent, O‘zbekiston*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada inson huquqlarining xalqaro darajada himoya qilinishida mintaqaviy monitoring mexanizmlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Yevropa, Amerika, Afrika va Osiyo mintaqalarida shakllangan monitoring tizimlari, ularning huquqiy asoslari, institutlari, hamda nazorat mexanizmlarining funksional xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida o'rganiladi. Tahlil natijalari mintaqaviy monitoring tizimlarining global inson huquqlari himoyasi tizimida tutgan o'rnini ko'rsatadi va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, mintaqaviy monitoring, Yevropa inson huquqlari sudi, Amerika inson huquqlari komissiyasi, Afrika inson va xalqlar huquqlari komissiyasi, xalqaro huquq.

Xalqaro huquq doirasida inson huquqlarining kafolatlanishi va amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida yaratilgan monitoring tizimlari nafaqat universal, balki mintaqaviy darajada ham shakllangan bo'lib, ularning huquqiy asoslari, institutsional tuzilmalari va monitoring yondashuvlari mintaqaviy xususiyatlarga ega.

Yevropada inson huquqlari sohasidagi hamkorlik xalqaro mintaqaviy tashkilotlar – Yevropa Kengashi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (keyingi o'rinlarda – YXHT) va Yevropa Ittifoqi doirasida amalga oshiriladi.

Yevropa Kengashining (keyingi o'rinlarda – YK, Kengash) asosiy maqsadi – inson huquqlari va asosiy erkinliklardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan barcha shaxslar uchun o'z yurisdiktsiyasidagi davlatlar o'rtasida yuksak birlikka erishishdan iboratdir (1949-yilgi Yevropa Kengashi Nizomining 1-moddasi). Bu birlik inson huquqlari, demokratiya va huquq ustuvorligi g'oyalari va tamoyillarini amalga oshirish va himoya qilishga qaratilgan.

Yevropa Kengashi doirasida inson huquqlarining himoyasi quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi: konvensiyalar (xalqaro shartnomalar), rezolyutsiyalar, tavsiyalar ishlab chiqish orqali, shuningdek, a'zo

davlatlarning ushbu hujjatlar bo'yicha olgan majburiyatlariga rioya etishini nazorat qilish maqsadida nizomiy va nizomdan tashqari, jumladan konvensiyaviy organlar orqali amalga oshiriladi.

Yevropa Kengashining kodifikatsiya faoliyati quyidagilarga qaratilgan shartnomalarni ishlab chiqish va qabul qilishni o'z ichiga oladi:

*a) asosiy huquq va erkinliklarni mustahkamlovchi shartnomalar:* 1950-yildagi "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi" va unga qo'shimcha protokollar; 1961-yilgi (1996-yilda qayta ko'rib chiqilgan) "Yevropa ijtimoiy xartiyasi"; 1954-yildagi "Yevropa madaniy konvensiyasi"; 1997-yildagi "Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi" va boshqalar;

*b) inson huquqlari va erkinliklarining jiddiy va tizimli buzilishiga oid normativ-huquqiy hujjatlar:* 1987-yildagi "Qiynoqlar, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi muomala yoki jazolarning oldini olish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi"; 1997-yildagi "Biologiya va tibbiyotda inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya" va unga tegishli uchta protokol; 1977-yildagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi" va boshqalar;

*v) ayrim ijtimoiy guruhlar huquqlarini himoya qilishga oid shartnomalar:* 1977-yildagi "Mehnatkash-migrantlarning huquqiy maqomi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi"; 1992-yildagi "Milliy ozchiliklarni himoya qilish to'g'risidagi Ramka konvensiyasi"; 1983-yildagi "Zo'ravon jinoyatlar qurbonlariga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi"; 1980-yildagi "Qochqinlar bo'yicha javobgarlikni o'tkazish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi" va boshqalar.

Yevropa Kengashi konvensiyalarining aksariyati ochiq xarakterga ega bo'lib, ularga Kengash a'zosi bo'lmagan davlatlar ham qo'shilishi mumkin. Masalan, Belarus Respublikasi Yevropa Kengashi a'zosi bo'lmagan holda, Yevropa madaniy konvensiyasi hamda Yevropa mahalliy o'zini o'zi boshqarish xartiyasiga qo'shilgan.

Inson huquqlari sohasidagi asosiy va ilk xalqaro shartnomalardan biri bu – 1950-yilda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (keyingi o'rinlarda – Yevropa konvensiyasi, Konvensiya, YKIE). Ushbu konvensiya huquqiy demokratik davlat uchun majburiy bo'lgan fuqarolik va siyosiy huquqlar hamda asosiy erkinliklarning minimal majmuasini belgilaydi. Biroq, bu ro'yxat muntazam ravishda yangi xalqaro-huquqiy hujjatlar orqali kengaytirilmoqda. Yevropa konvensiyasiga kiritilgan qo'shimcha

protokollar Yevropa huquqiy himoya tizimiga fuqarolik va siyosiy huquqlarning deyarli to'liq ro'yxatini kiritgan bo'lib, bu uni mazmunan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga yaqinlashtirdi. Biroq, Yevropa konvensiyasi ayrim huquqlar va ularni cheklash shartlarini aniqroq va kengroq tarzda belgilaydi [1].

Hozirgi kungacha 16 ta protokol qabul qilingan bo'lib, ular fuqarolik va siyosiy huquqlarning turli jihatlari, protsessual masalalar va Yevropa Inson huquqlari sudining islohotiga doir o'zgartirishlarni o'z ichiga oladi. Yevropa konvensiyasi va unga qo'shimcha protokollar ishtirokchisi faqat Yevropa Kengashi a'zosi bo'lgan davlatlar bo'lishi mumkin.

Yevropa konvensiyasida ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar mustahkamlanmagan, bu esa G'arbiy Yevropa davlatlarining ushbu huquqlarga nisbatan qarashlarini aks ettiradi. Ular bu huquqlarni dasturiy huquqlar deb baholab, ularning amalga oshirilishini davlatning resurslari va taraqqiyot darajasiga bog'liq, deb hisoblaydi.

Shuningdek, Yevropa konvensiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktdan farqli o'laroq, kollektiv huquqlarni o'z ichiga olmaydi, chunki G'arbiy Yevropa yondashuviga ko'ra, Konvensiya faqat individual shaxs huquqlarini tartibga solishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Yevropa konvensiyasining 1-moddasiga muvofiq, har bir ishtirokchi davlat Konvensiyaning I bo'limida nazarda tutilgan huquq va erkinliklarni o'z yurisdiktsiyasida bo'lgan har bir shaxsga taqdim etish majburiyatini olgan. Boshqacha aytganda, Konvensiyaga a'zo har bir davlat mazkur huquq va erkinliklardan nafaqat o'z fuqarolari, balki chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, agar ular ushbu davlat yurisdiktsiyasiga tushsa, ham foydalanishini ta'minlashi shart [2].

Konvensiyaning I bo'limida (2–18-moddalar) ishtirokchi davlatlar tomonidan ta'minlanishi lozim bo'lgan asosiy huquq va erkinliklar sanab o'tiladi. Ular quyidagilardan iborat: hayot huquqi (2-modda); qiynoqlar va g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi muomaladan ozod bo'lish erkinligi (3-modda); qullik va majburiy mehnatdan ozodlik (4-modda); shaxs erkinligi va daxlsizligi huquqi (5-modda); adolatli sud muhokamasi huquqi (6-modda); jinoyat qonunchiligi bo'yicha orqaga qarab amal qilmaslik prinsipi (7-modda); shaxsiy va oilaviy hayotga, uy-joyga va yozishmalar maxfiyligiga hurmat huquqi (8-modda); fikr, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi (9-modda); so'z erkinligi (10-modda); tinch yig'ilishlar va uyushmalar erkinligi (11-modda); nikohdan o'tish huquqi (12-modda) [3].

Har bir shaxs davlat organlari oldida samarali huquqiy himoya vositalaridan foydalanish huquqiga ega (13-modda). Konvensiya huquq

va erkinliklardan foydalanishda kamsitishga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi – ya'ni, ushbu huquqlardan foydalanish jinsi, irqi, teri rangi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, milliy ozchilikka mansubligi, mulkiy holati, tug'ilishi yoki boshqa holatlarga ko'ra cheklanishi mumkin emas (14-modda) [4]. Biroq, mazkur modda, xuddi 10 va 11-moddalar kabi, ishtirokchi davlatlarga chet ellik fuqarolarning siyosiy faoliyatiga cheklovlar kiritish imkonini ham beradi (16-modda) [5].

Urush yoki xalq hayoti xavf ostida qolgan favqulodda holatlarda, ishtirokchi davlat Konvensiya bo'yicha o'z majburiyatlaridan chetlashuvchi choralarni qo'llashi mumkin (15-modda). Biroq quyidagi huquqlar bo'yicha cheklovlar mutlaqo yo'l qo'yilmaydi: 2-modda (hayot huquqi); 3-modda (qiynoqlarni taqiqlash); 4-modda, 1-band (qullik taqiqlanishi); 7-modda (jinoyat qonunining orqaga qarab amal qilmasligi); hamda O'lim jazosi bekor qilinishi to'g'risidagi 6-sonli Protokol (ushbu Protokolni ratifikatsiya qilgan davlatlar uchun) [6].

1952-yilda qabul qilingan 1-sonli Protokol orqali Konvensiyaga quyidagi huquqlar qo'shilgan: mulkdan bemalol foydalanish huquqi (1-modda); ta'lim olish huquqi (2-modda); yashirin ovoz berish yo'li bilan erkin saylov o'tkazish huquqi (3-modda) [7].

1963-yilgi 4-sonli Protokol quyidagi yangi qoidalarni o'z ichiga oladi: shartnomaviy majburiyatni bajarmaganlik asosida ozodlikdan mahrum etishga yo'l qo'yilmasligi (1-modda); davlat hududi doirasida erkin harakatlanish va yashash joyini tanlash huquqi (2-modda); fuqaroni o'z fuqaroligiga ega bo'lgan davlatdan chiqarib yuborish va unga kirish huquqidan mahrum qilish taqiqlanishi (3-modda); chet elliklarni ommaviy (kollektiv) ravishda chiqarib yuborishga yo'l qo'yilmasligi (4-modda) [8].

1984-yilda qabul qilingan 7-sonli Protokol esa quyidagi huquqlarni mustahkamladi: chet elliklarning davlat hududidan chiqarib yuborilishi holatida protsessual kafolatlarga ega bo'lish huquqi (1-modda); jinoiy ishlar bo'yicha apellyatsiya tartibida shikoyat qilish huquqi (2-modda); sud xatosi oqibatida yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya olish huquqi (3-modda); takroran sudga tortilmaslik yoki ikki marta jazoga tortilmaslik huquqi (4-modda); turmush o'rtoqlarning teng huquqliligi (5-modda) [9; 10].

2000-yilda qabul qilingan 12-sonli Protokol esa kamsitishning har qanday shaklini umumiy tarzda taqiqlashni nazarda tutadi [11]. Yevropa inson huquqlari huquqining yangiliklaridan yana biri – hayot huquqining

mutlaq kafolatlanishidir: 1983-yildagi 6-sonli Protokol Konvensiyani hatto sud hukmi asosida ham o'lim jazosi qo'llashni taqiqlash orqali to'ldirdi (faqat harbiy jinoyatlar uchun bundan istisno qilingan) [12]; 2002-yildagi 13-sonli Protokol esa o'lim jazosi har qanday holatda taqiqlanishini belgiladi [13]. Qolgan protokollar inson huquqlarini himoya qilishning amaldagi tizimi doirasida tartib-taomillarni takomillashtirish va kengaytirishga qaratilgan [14].

Amerika mintaqasida inson huquqlari monitoringi tizimi Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) doirasida shakllangan bo'lib, u inson huquqlarining xalqaro darajadagi himoyasini ta'minlashga qaratilgan eng muhim mintaqaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Amerika davlatlari tashkiloti (keyingi o'rinlarda – ADT) doirasida amal qiluvchi inson huquqlarini himoya qilish tizimi Yevropa Kengashi mintaqaviy tizimiga nisbatan bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, Amerika mintaqaviy inson huquqlari tizimining asosida bir vaqtning o'zida uchta hujjat yotadi: 1948-yilgi ADT Nizomi; 1948-yilgi Insonning huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi Amerika deklaratsiyasi; 1969-yilgi Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi [15].

1938-yilda Peru poytaxti Lima shahrida bo'lib o'tgan 8-Mintaqaviy Amerika konferensiyasida "Inson huquqlari to'g'risidagi rezolyutsiya" qabul qilindi. Bu hujjat Amerika mintaqasida inson huquqlarini himoya qilish tizimini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini tizimli tarzda mustahkamlovchi ilk hujjat hisoblanadi. Unda assotsiatsiyalarga birlashish erkinligi, ishchilar tomonidan fikr bildirish erkinligi, irq va din asosida kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipi keltirilgan. Rezolyutsiyada inson huquqlari urush va tinchlik muammolari kontekstida ko'rib chiqilgan bo'lib, u nafaqat birinchi mintaqaviy, balki butun jahon miqyosida inson huquqlariga hurmat prinsipini e'lon qilgan va davlatlar tomonidan tan olingan huquq va erkinliklar ro'yxatini o'z ichiga olgan birinchi xalqaro hujjat bo'lgan [16].

1948–1969-yillar oralig'idagi uchinchi bosqich Amerika davlatlari tizimi tarixida Amerika davlatlari tashkilotining (ADT) tashkil etilishi bilan bog'liq. Panamerika ittifoqi ADTning ishlovchi organiga aylantirildi, 1970-yillarda esa ADTning Bosh kotibiyatiga aylantirildi.

ADTning asosiy hujjati – 1933-yildagi Davlatlarning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi konvensiya bo'lib, unga bir qator protokollar bilan qo'shimchalar kiritilgan: Buenos-Ayres protokoli (1970-yilda

kuchga kirgan), Kartaxena (1988-y.), Managua (1993-y.), Vashington (1997-y.) protokollari. 2015-yil 1-may holatiga ko'ra, Shimoliy va Janubiy Amerikadagi 35 davlat ADT a'zosi hisoblanadi. Shuningdek, Rossiya, Ukraina va Yevropa Ittifoqi ADTda doimiy kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan 62 ta davlat qatoriga kiradi [17].

ADT dastlab davlatlar tomonidan, avvalo, kollektiv xavfsizlik va iqtisodiy aloqalar tizimini rivojlantirish orqali mustaqillik va demokratiyani saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan. Inson huquqlari esa bu yo'ldagi vositalardan biri sifatida qaralgan.

Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi (keyingi o'rinlarda – Amerika konvensiyasi, Konvensiya) xuddi Yevropa konvensiyasi kabi, ko'p tomonlama xalqaro shartnoma bo'lib, yopiq turdagi hujjat hisoblanadi: ya'ni, unga faqat Amerika davlatlari tashkiloti (ADT)ga a'zo davlatlargina qo'shilishi mumkin [18].

Konvensiyada mustahkamlangan huquq va erkinliklar ro'yxati an'anaviy fuqarolik va siyosiy huquqlar doirasidan chiqmaydi, biroq mazkur ro'yxat Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda va Yevropa inson huquqlari konvensiyasida (YIK) belgilangan huquqlarni o'z ichiga olgan holda, Yevropa konvensiyasiga nisbatan ancha keng qamrovli hisoblanadi.

Xususan, Amerika konvensiyasida quyidagi huquqlar mustahkamlangan: ismga ega bo'lish huquqi (18-modda); bola huquqlari (19-modda); fuqarolik yoki milliylik huquqi (20-modda); qonun oldida teng himoya huquqi (24-modda); boshpana izlash huquqi (22-modda, 7-band) va boshqa huquqlar. Urush holati, davlat uchun xavf tug'diruvchi vaziyatlar yoki mustaqillik va xavfsizlikka tahdid soluvchi boshqa favqulodda holatlarda, ishtirokchi davlat Konvensiyadagi belgilangan talab va chegaralarga rioya qilgan holda o'z zimmasiga olgan majburiyatlardan chetlashuvchi choralarni qabul qilishi mumkin (27-modda) [19].

Konvensiyaga ikki protokol qabul qilingan: 1988-yildagi San-Salvador protokoli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni tartibga soladi; ikkinchi protokol esa 1990-yilda qabul qilinib, o'lim jazosini bekor qilish masalasiga bag'ishlangan [20].

San-Salvador protokolidagi moddalarning aksariyati Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga mazmundoshdir. Biroq, ba'zi muhim o'ziga xosliklar mavjud: Protokolda kollektiv huquqlar ifodasini topmagan; shaxsiy (individual) huquqlar ro'yxati esa Paktga nisbatan kengroqdir. Xususan, Protokol quyidagi

huquqlarni o'z ichiga oladi: salomatlik uchun qulay atrof-muhit huquqi (11-modda); yetarli oziq-ovqat olish huquqi (12-modda); bolani oila, jamiyat va davlat tomonidan himoya qilish huquqi (16-modda); qariyalarni himoya qilish huquqi (17-modda); nogironlarni himoya qilish huquqi (18-modda) [21].

1978-yilda Amerika konvensiyasi kuchga kirgach, Inson huquqlari bo'yicha Amerika komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Komissiya) Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlarga nisbatan o'z amaliy faoliyatida Konvensiya qoidalariga asoslanadi. Biroq, Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan ADTga a'zo davlatlarga nisbatan Komissiya Amerika deklaratsiyasi qoidalarini qo'llashda davom etmoqda.

Natijada, inson huquqlarini mintaqaviy darajada himoya qilishning yagona tizimi doirasida g'ayrioddiy vaziyat yuzaga kelgan: ba'zi davlatlar uchun asosiy hujjat – Amerika deklaratsiyasi (huquqiy majburiyat yuklamaydigan hujjat); boshqalar uchun esa – Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi bo'lib, u huquqiy majburiy kuchga ega xalqaro shartnoma hisoblanadi [22].

Afrika mintaqasida inson huquqlarini himoya qilish va monitoring qilish tizimi Afrika Ittifoqi doirasida shakllangan bo'lib, u qit'a davlatlari o'rtasida inson huquqlarining xalqaro-huquqiy standartlarga muvofiq ravishda kafolatlanishini ta'minlashga qaratilgan. Afrikada inson huquqlarining rivojlanishi odatda mustamlakachilikdan ozod bo'lish, o'z taqdirini o'zi belgilash va mustaqillikka erishish uchun olib borilgan kurash nuqtai nazaridan o'rganiladi [23].

Inson huquqlarini himoya qilishga oid Afrikadagi tarixiy holatlar 1961-yil Lagosda (Nigeriya) bo'lib o'tgan "African Conference on the Rule of Law" (Huquq ustuvorligi bo'yicha Afrika konferensiyasi)da boshlandi [24]. Bu konferensiya yangi mustaqillikka erishgan Afrika davlatlarida inson huquqlarini muhokama qilish zaruriyatiga bag'ishlangan edi. Unda Afrika inson huquqlari konvensiyasini ishlab chiqish zaruriyati haqida fikr bildirildi; bu konvensiyaga a'zo davlatlar yurisdiksiyasidagi shaxslar murojaat qilishi mumkin bo'lgan sud tomonidan monitoring olib borilishi ko'zda tutilgan edi [25].

Lagos konferensiyasidan keyin BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi Afrikada mintaqaviy inson huquqlari mexanizmini yo'lga qo'yish masalasini ilgari surish maqsadida bir qator konferensiyalarni tashkil etdi. Ular quyidagi joylarda bo'lib o'tgan: Senegal (1966), Qohira (1969), Addis-Abeba (1971), Dar es Salaam (1973), Dakar (1978) va Monroviya (1979) [26].

1979-yil Monroviya konferensiyasida Afrikada inson huquqlari komissiyasini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Siyosiy darajada esa, Afrika Birligi Tashkiloti (OAU) 1963-yil may oyida OAU Nizomi qabul qilingandan so'ng tashkil etilgan [27]. Bu Nizomda inson huquqlari haqida to'g'ridan-to'g'ri hech qanday eslatma yo'q edi. Unda asosan siyosiy birlik, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va mustamlakachilikni tugatish masalalari ustuvor hisoblangan [28].

Shunga qaramay, OAU 1963-yildan 1978-yilgacha inson huquqlariga oid bir qancha muammolar bilan shug'ullangan, xususan, Afrikada mustamlakachilikni tugatish bo'yicha kampaniyalar hamda qochoqlar to'g'risidagi OAU konvensiyasini qabul qilgan [29]. Biroq bu tashabbuslar milliy miqyosdagi inson huquqlari masalalari asosida shakllanmagan edi.

Keyinchalik, OAU tomonidan ichki ishlar masalalariga aralashmaslik prinsipidan voz kechilishi unga Afrika Xartiyasini qabul qilishga olib keldi. Bu o'zgarishlarga quyidagilar turtki bo'lgan: mustaqillikdan keyingi Afrikadagi repressiv hukmdorlarning kuchayishi; inson huquqlari bilan bog'liq xalqaro siyosatdagi yondashuvlar; BMT tomonidan mintaqaviy inson huquqlari rejimlarini qo'llab-quvvatlash [30].

Afrika xartiyasi 1981-yil iyun oyida Nayrobida (Keniya) Afrika birlik tashkiloti (OAU) tomonidan qabul qilingan va 1986-yil oktyabr oyida oddiy ko'pchilik tomonidan ratifikatsiya qilinishi ortidan kuchga kirgan [31]. Shundan so'ng, Afrika xartiyasi doirasida bolalar huquqlari va farovonligi to'g'risidagi xartiya OAU homiyligida qabul qilindi [32]. Siyosiy darajadagi keyingi rivojlanishlar 2001-yilda Afrika birlik tashkilotining (OAU) qayta tashkil etilib, Afrika ittifoqiga (AU) aylanishiga olib keldi [33]. Uning asosiy hujjati – Konstitutiv akt – OAU nizomidan sezilarli darajada farq qilgan holda, qit'ada inson huquqlari bo'yicha batafsil va aniq qoidalarni o'z ichiga oladi [34]. Konstitutiv akt muqaddimasida AUning "Inson va xalqlar huquqlarini targ'ib qilish va himoya qilishga qat'iy intilishi" ta'kidlangan [35].

Bundan tashqari, AUning 14 ta maqsadidan uchtasi to'g'ridan-to'g'ri inson huquqlariga taalluqli [36]. Shuningdek, 16 ta asosiy yo'naltiruvchi tamoyillardan oltitasi ham inson huquqlariga oid masalalarga qaratilgan [37]. Bundan tashqari, Konstitutiv akt ilg'or yondashuv sifatida "himoya qilish majburiyati" prinsipini ham o'z ichiga oladi – ya'ni, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va genotsid sodir bo'lganda, AU a'zo davlatlar ichki ishlariga aralashish huquqiga ega bo'ladi [38].

Shuningdek, Konstitutiv aktga ko'ra, AU a'zoligi davom ettirilishi inson huquqlari standartlariga rioya qilish va sodiqlikni saqlash sharti bilan bog'liq. OAU doirasida qabul qilingan inson huquqlari bo'yicha shartnomalardan tashqari, AU so'nggi yillarda Afrika xartiyasini to'ldiruvchi boshqa inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarni ham qabul qilgan. Ular quyidagilar: Ayollar huquqlari bo'yicha protokol, Afrika xalqlari va inson huquqlari bo'yicha Afrika sudini barpo etish to'g'risidagi protokol [39].

Bundan tashqari, AU tomonidan inson huquqlariga oid qabul qilingan boshqa xalqaro shartnomalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha AU konvensiyasi; Demokratiya, saylovlar va boshqaruv bo'yicha Afrika xartiyasi; Afrikada ichki ko'chirilgan shaxslarga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish bo'yicha konvensiya [40].

Afrika komissiyasi 1987-yilda, Afrika xartiyasi qabul qilinganidan olti yil o'tib va xartiya kuchga kirganidan bir yil keyin tashkil etilgan. Komissiya inson va xalqlar huquqlari sohasida tajribaga ega 11 nafar shaxsdan iborat bo'lib, ular shaxsiy sifatida, yarim stavkada va olti yillik (qayta saylanish mumkin bo'lgan) muddatga xizmat qiladilar [41].

Komissiya a'zolari Afrika Ittifoqi Davlat va hukumat rahbarlari assambleyasi (AU Assembly) tomonidan, Afrika xartiyasiga a'zo davlatlar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatidan yashirin ovoz berish yo'li bilan tayinlanadi.

Umuman olganda, Afrika komissiyasiga inson va xalqlar huquqlarini targ'ib qilish va ularni Afrikada himoya qilish vakolati yuklangan. Ushbu himoya vakolati, 2008-yildan boshlab qisman Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika sudi (African Court) tomonidan ham amalga oshiriladi. Komissiyaning targ'ibot vakolati davlatlar hisobotlarini ko'rib chiqish, huquqlar targ'iboti bo'yicha missiyalar va maxsus mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Himoya vakolati esa, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yuborilgan murojaatlarni ko'rib chiqish hamda joyiga chiqqan holatda tekshiruv o'tkazish missiyalarini nazarda tutadi [42].

Afrika komissiyasining hududiy yurisdiksiyasi Afrika Ittifoqining barcha a'zo davlatlarini qamrab oladi. Komissiya o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun yiliga ikki marotaba yig'iladi. Komissiyaning kotibiyati Banjul shahrida (Gambiya) joylashgan [43].

Yevropa, Amerika va Afrika mintaqalaridan farqli o'laroq, Osiyo qit'asida inson huquqlarini tizimli tarzda tartibga soluvchi yagona mintaqaviy xalqaro shartnoma mavjud emas. Shu bilan birga, mintaqada

inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari, ayrim mintaqaviy institutlar va milliy inson huquqlari bo'yicha komissiyalar faoliyat yuritmoqda.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining (OHCHR) Osiyo mintaqasi bo'yicha markaziy vakolatxonasi Tailandning Bangkok shahrida joylashgan bo'lib, u Bangladesh, Filippin, Malayziya, Maldiv orollari, Mongoliya, Nepal, Shri-Lanka, Papua-Yangi Gvineya va Timor-Leste davlatlarida vakillar va maslahatchilar orqali faoliyat olib boradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy monitoring tizimlari global inson huquqlari himoyasi tizimining ajralmas bo'lagi bo'lib, ular nafaqat nazorat, balki ta'sirchan profilaktik vosita ham hisoblanadi. Yevropa, Amerika va Afrika mintaqalarida shakllangan tizimlar o'zlarining huquqiy asoslari, institutsional tuzilmasi va monitoring mexanizmlari bo'yicha o'ziga xosliklarga ega bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi inson huquqlarini xalqaro standartlar darajasida himoya qilishdan iborat.

Osiyo mintaqasida hozircha yagona mintaqaviy konvensiya va monitoring mexanizmi shakllanmagan bo'lsa-da, milliy va xalqaro institutlar orqali olib borilayotgan faoliyat ushbu yo'nalishdagi ish jarayonini davom ettirmoqda. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy tuzilmalararo hamkorlikni kuchaytirish va monitoring natijalarini universal standartlar bilan uyg'unlashtirish inson huquqlarini ilgari surish yo'lida muhim qadam bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Балашенко С. А., Дейкало Е. А. и др. Права человека: учеб. пособие / под ред. С. А. Балашенко, Е. А. Дейкало. – Минск: Юнипак, 2015. – С. 44.

2. Права человека: учеб. пособие / С. А. Балашенко [и др.]; науч. ред.: С. А. Балашенко, Е. А. Дейкало. – Минск: Юнипак, 2015. – С. 44.

3. Council of Europe. European Convention on Human Rights. – Rome, 04.11.1950. [Elektron resurs]. – URL: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG (murojaat sanasi: 25.05.2025).

4. Magosvongwe C. A Critical Analysis of the UN Human Rights Monitoring Mechanisms: The UPR's Role in Advancing CEDAW Mandates: Master's Diss. – Padova: Univ. of Padova, Dept. of Political Science, Law and Int. Studies, 2023. – P. 26.

5. Council of Europe. European Convention on Human Rights. – Rome, 04.11.1950. [Elektron resurs]. – URL: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG (murojaat sanasi: 25.05.2025).

6. Права человека: учеб. пособие / С. А. Балашенко [и др.]; науч. ред.: С. А. Балашенко, Е. А. Дейкало. – Минск: Юнипак, 2015. – С. 44.

7. Council of Europe. Protocol No. 1 to the European Convention on Human Rights. – 1952. [Elektron resurs]. – URL: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Library_Collection_P1postP11_ETS009E_ENG (murojaat sanasi: 30.05.2025).

8. Council of Europe. Protocol No. 4 to the European Convention on Human Rights. – 1963. [Elektron resurs]. – URL: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Library_Collection_P4postP11_ETS046E_ENG (murojaat sanasi: 30.05.2025).

9. Council of Europe. Protocol No. 7 to the European Convention on Human Rights. – Strasbourg, 22.11.1984. [Elektron resurs]. – URL: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Library_Collection_P7postP11_ETS117E_ENG (murojaat sanasi: 30.05.2025).

10. Права человека: учеб. пособие / С. А. Балашенко [и др.]; науч. ред.: С. А. Балашенко, Е. А. Дейкало. – Минск: Юнипак, 2015. – С. 44.

11. Council of Europe. Protocol No. 12 to the European Convention on Human Rights. – Rome, 04.11.2000. [Elektron resurs]. – URL: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Library_Collection_P12_ETS177E_ENG (murojaat sanasi: 30.05.2025).

12. Council of Europe. Protocol No. 6 to the European Convention on Human Rights. – 1983. [Elektron resurs]. – URL: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Library_Collection_P6_ETS114E_ENG (murojaat sanasi: 30.05.2025).

13. Council of Europe. Protocol No. 13 to the European Convention on Human Rights. – Vilnius, 03.05.2002. [Elektron resurs]. – URL: https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/Library_Collection_P13_ETS187E_ENG (murojaat sanasi: 30.05.2025).

14. Права человека: учеб. пособие / С. А. Балашенко [и др.]; науч. ред.: С. А. Балашенко, Е. А. Дейкало. – Минск: Юнипак, 2015. – С. 44.

15. Балашенко С. А. и др., указ. соч., С. 49.

16. Завгородний В. С. Контрольный механизм американской конвенции по правам человека: дисс. ... канд. юрид. наук: 12.00.10. – Москва: РУДН, 2016. – 23 с.

17. Завгородний В. С., указ. соч., С. 26.

18. Права человека: учеб. пособие / С. А. Балашенко [и др.]; науч. ред.: С. А. Балашенко, Е. А. Дейкало. – Минск: Юнипак, 2015. – С. 49.

19. Organization of American States. American Convention on Human Rights (Pact of San José). – San José, 22.11.1969. [Elektron resurs]. – URL: https://www.oas.org/dil/treaties_B32_American_Convention_on_Human_Rights.pdf (murojaat sanasi: 30.05.2025).

20. Права человека: учеб. пособие / С. А. Балашенко [и др.]; науч. ред.: С. А. Балашенко, Е. А. Дейкало. – Минск: Юнипак, 2015. – С. 50.

21. Завгородний В. С., указ. соч., С. 37.

## XALQARO HUQUQDA MONITORING MEXANIZMLARINING SHAKLLANISHI VA TASNIFI

***X.O.Hakimova***
*Sarbon universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi*
*[hakimovaxandona@gmail.com]*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro huquqda inson huquqlarini ta'minlash vositasi sifatida monitoring mexanizmlarining shakllanishi, ularning huquqiy asoslari va tasnifi o'rganiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlari va maxsus protseduralari, xususan Inson huquqlari bo'yicha Kengash, Umumiy davriy ko'rib chiqish (UDK), hamda tematik yoki mamlakat bo'yicha ma'ruzachilar instituti misolida xalqaro monitoring amaliyoti yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro huquq, monitoring mexanizmlari, shartnomaviy yondashuv, BMT, xalqaro tashkilotlar, UDK, UPR, maxsus protseduralar.

Xalqaro huquqda "Monitoring" tushunchasi inson huquqlari, xalqaro gumanitar huquq, ekologik huquq va qurolsizlanish kabi sohalarda xalqaro shartnomalar va majburiyatlarning bajarilishini muntazam va tizimli ravishda kuzatish va baholash faoliyati sifatida talqin etiladi.

Monitoring tizimi xalqaro huquqda bir necha asosiy sabablar bilan zarur mexanizm sifatida shakllandi. Birinchidan, xalqaro huquqda

davlatlar o'z ixtiyori bilan shartnomalarga qo'shilsalar-da, ularning mazmunan ijrosini kafolatlaydigan kuchli mexanizm bo'lmagan. Shu bois, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (keyingi o'rinlarda – BMT) tizimi va boshqa xalqaro institutlar tomonidan doimiy monitoring vositalari joriy etildi [1]. Ikkinchidan, Ikkinchi jahon urushi davomida sodir bo'lgan insoniyatga qarshi jinoyatlar davlatlararo darajada inson huquqlari ustidan nazorat mexanizmlarini joriy qilish zaruratini keltirib chiqardi. Bu Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) va undan keyingi xalqaro paktlar bilan mustahkamlandi [2]. Uchinchidan, monitoring, ayniqsa Universal Periodic Review (UPR) jarayoni, barcha davlatlarga nisbatan bir xil mezonlar asosida yondashishni ta'minlaydi. Bu orqali inson huquqlari himoyasi siyosiy emas, tizimli va izchil yondashuvga aylanadi [3].

Tadqiqotda xalqaro huquqiy hujjatlar – BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), Irqiy kamsitishning barcha shakllarini yo'q qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (1965), Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiya (1979) hamda 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi asosiy manba sifatida o'rganildi.

Tahlilda qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Shartnomaviy va tashabbus asosidagi monitoring mexanizmlari, BMT shartnomaviy organlarining vazifa va vakolatlari, Universal davriy ko'rib chiqish (UDK) jarayoni hamda maxsus tartibotlar faoliyati tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqotda BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining (OHCHR) rasmiy ma'lumotlari, shuningdek, ushbu sohada o'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalari ham asos qilib olindi.

Xalqaro monitoring tizimlari xalqaro shartnomalarning ijrosini tizimli hisobotlar, mustaqil baholash va tavsiyalar chiqarish orqali nazorat qiladi. Ular asosan ikki turga bo'linadi: shartnomaviy organlar monitoringi va tashabbus asosidagi monitoring.

*Shartnomaviy organlar monitoringi (Treaty-based bodies)* – BMT doirasida faoliyat yurituvchi shartnoma qo'mitalari bo'lib, ularga Inson huquqlari bo'yicha qo'mita (HRC) – ICCPR (1966) ijrosi bo'yicha; CEDAW qo'mitasi – Ayollarga nisbatan kamsitishga qarshi konvensiya (1979) bo'yicha; CESCR – Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar pakti bo'yicha nazorat olib boruvchi qo'mitalar kiradi. Bu qo'mitalar har bir a'zo

davlatdan davriy hisobotlar qabul qiladi va ularni maxsus sessiyalarda ko'rib chiqib, yakuniy tavsiyalar (concluding observations) e'lon qiladi [4].

*Tashabbus asosidagi monitoring (non-treaty mechanisms)* ga maxsus ma'ruzachilar (Special Rapporteurs) – muayyan mavzular yoki mamlakatlar bo'yicha tayinlanadigan ekspertlar, hamda mustaqil ekspertlar va ishchi guruhlar (masalan, ixtiyoriy yo'qolishlar, qiynoqlar yoki sud mustaqilligi bo'yicha) kiradi. Ushbu mexanizmlar tashriflar, intervyular va dalillarga asoslangan hisobotlar orqali monitoring olib boradi.

Ma'lumki, insonning asosiy huquq va erkinliklari hamda ular bilan bog'liq BMTga a'zo davlatlarning siyosiy majburiyatlari xalqaro huquqiy xususiyatga ega bo'lgan muhim hujjat – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o'z aksini topgan [5]. Keyinchalik, ushbu deklaratsiyada e'lon qilingan huquq va erkinliklar BMT doirasida tuzilgan ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarda mustahkamlandi. Shu bilan birga, 1969-yil 23-mayda qabul qilingan Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 26-moddasida belgilanganidek, har qanday amaldagi xalqaro shartnoma uning ishtirokchilari uchun majburiy hisoblanadi va ular tomonidan vijdonan bajarilishi lozimdir [6].

BMTning ustaviy organlariga tegishli mexanizmlarga BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashi (keyingi o'rinlarda – IHK) tomonidan amalga oshiriladigan inson huquqlari bo'yicha universal davriy ko'rib chiqish (UDK) va maxsus tartibotlar (mavzuli hamda mamlakatlarga oid mandatlar) kiradi. Universal davriy ko'rib chiqish – bu IHK tomonidan ishlab chiqilgan noyob mexanizm bo'lib, u barcha BMTga a'zo davlatlarni har to'rt yarim yilda inson huquqlari sohasidagi holat bo'yicha ekspert bahosidan o'tishga chaqiradi [7].

Bugungi kunga kelib, IHK tomonidan 46 ta mavzuli mandat (ishchi guruhlar, maxsus ma'ruzachilar va mustaqil ekspertlar) va 14 ta mamlakatga oid mandat (inson huquqlari holati bo'yicha maxsus ma'ruzachilar, mustaqil ekspertlar) rasmiylashtirilgan [6]. BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashining maxsus tartibotlari doirasidagi ekspertlar mamlakatlarga tashriflar uyushtiradilar; inson huquqlari buzilishining individual holatlari va kengroq tizimli muammolar yuzasidan davlatlarga murojaatlar yuborish orqali munosabat bildiradilar; inson huquqlari sohasida xalqaro standartlarni ishlab chiqishga hissa qo'shadilar [4].

BMT doirasida tuzilgan ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar asosida inson huquqlari sohasida a'zo davlatlar tomonidan o'z xalqaro-huquqiy majburiyatlariga rioya etilishini monitoring qilish quyidagi asosiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi: a'zo davlatlar tomonidan davriy milliy hisobotlar taqdim etilishi; BMT shartnomaviy organlari tomonidan shaxsiy va davlatlararo murojaatlarni ko'rib chiqish; BMT shartnomaviy organlari tomonidan tegishli holatlar bo'yicha tergov o'tkazish [6].

Ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi inson huquqlari sohasidagi BMT shartnomaviy organlari sirasiga quyidagilar kiradi: Irqiy kamsitishni bartaraf etish bo'yicha qo'mita (IKBQ), 1965-yilgi Konvensiyaning 8-moddasi 1-bandiga muvofiq tashkil etilgan va davlatlardan davriy hisobotlarni qabul qilib, ularga umumiy tavsiyalar beradi (bugungi kunga kelib jami 36 ta umumiy tavsiya qabul qilingan) [8]; Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita (IIMHQ), ECOSOCning 1985/17-sonli rezolyutsiyasi asosida tuzilgan bo'lib, IIMHP bo'yicha hisobotlarni baholaydi, shaxsiy shikoyatlar va davlatlararo murojaatlarni ko'rib chiqadi (jami 26 ta umumiy tavsiya qabul qilingan) [6]; Inson huquqlari bo'yicha qo'mita (IHQ), 1966-yilgi FSHXPning 28-moddasi 1-bandiga muvofiq tashkil etilgan va Pakt bo'yicha 37 ta umumiy tartibdagi izoh qabul qilgan; Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish bo'yicha qo'mita (ANKBQ), 1979-yilgi Konvensiyaning 17-moddasi 1-bandi asosida tuzilgan va 39 ta umumiy tavsiya qabul qilgan [9].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro huquqda monitoring mexanizmlari ikki katta yo'nalishda – shartnomaviy va tashabbus asosida shakllangan. Bu ikki yondashuv bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega: shartnomaviy organlar muayyan xalqaro shartnomaga a'zo davlatlar majburiyatlarini chuqur o'rganadi, tashabbus asosidagi mexanizmlar esa BMTning barcha a'zo davlatlarini qamrab oluvchi kengroq doiraga ega.

Shu bilan birga, monitoring mexanizmlarining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Avvalo, davlatlarning hisobot taqdim etish jarayonida ochiq va xolis yondashuvi muhim. Ikkinchidan, BMT qo'mitalari tavsiyalarining ijro etilishi davlatning siyosiy irodasiga bog'liq, chunki bu tavsiyalar yuridik majburiy kuchga ega emas. Uchinchidan, shaxsiy shikoyatlar mexanizmidan foydalanish darajasi davlatning tegishli Fakultativ Protokollarni ratifikatsiya qilganligiga bog'liq – bu jihatdan Markaziy Osiyo davlatlari orasida farqlar mavjud.

Ushbu mexanizmlarning ayrimlari inson huquqlarini himoya qilishning bevosita huquqiy vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bunday mexanizmlardan biri – inson huquqlari va erkinliklari buzilgan deb hisoblangan holatlarda, shaxslar (yoki ularning nomidan vakillari) tomonidan davlat ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalar asosida tuzilgan tegishli shartnomaviy organlarga shaxsiy yoki guruhiy shikoyatlar taqdim etish imkoniyatidir [9].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro huquqda monitoring mexanizmlari inson huquqlarini ta'minlashning muhim va zaruriy vositasi sifatida shakllangan. BMT tizimi doirasidagi shartnomaviy organlar va maxsus tartibotlar bu mexanizmlarning asosini tashkil etadi. Universal davriy ko'rib chiqish jarayoni esa barcha davlatlarga nisbatan teng yondashuv tamoyilini ta'minlovchi noyob mexanizm hisoblanadi.

Monitoring mexanizmlarining samaradorligini oshirish uchun davlatlarning hisobot taqdim etish madaniyatini rivojlantirish, Fakultativ Protokollarga qo'shilishni rag'batlantirish hamda qo'mitalar tavsiyalarini milliy qonunchilikka tatbiq etish bo'yicha amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Kelajakdagi tadqiqotlarda mintaqaviy monitoring tizimlari bilan BMT mexanizmlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish yo'llari va monitoring natijalarining milliy huquqiy tartibga aks etishi masalalari batafsil o'rganilishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. OHCHR. Manual on Human Rights Monitoring. – Geneva: Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights, 2001. – 9 p.

2. Morsink J. The Universal Declaration of Human Rights: Origins, Drafting, and Intent. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1999. – P. 45.

3. UPR Info. Introduction and Brief History. [Elektron resurs]. – URL: https://www.upr-info.org/en/upr-process/what-upr/introduction-brief-history (murojaat sanasi: 29.05.2025).

4. United Nations Human Rights Treaty Body Database. OHCHR rasmiy veb-sayti. [Elektron resurs]. – URL: https://tbinternet.ohchr.org (murojaat sanasi: 25.05.2025).

5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948-yil 10-dekabr, BMT Bosh Assambleyasining 217 A (III)-sonli rezolyutsiyasi.

6. Нурханов М. Механизмы ООН по мониторингу (оценке) за соблюдением государствами-членами их международно-правовых

обязательств в области прав человека // Конституционный контроль в странах СНГ: Сборник аналитических статей. – Нур-Султан: Конституционный Суд Республики Казахстан, 2021. – С. 2–6.

7. OHCHR. Universal Periodic Review (UPR) – Home. [Elektron resurs]. – URL: https://www.ohchr.org/ru/hr-bodies/upr/upr-home (murojaat sanasi: 25.05.2025).

8. United Nations. International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination, 1966. [Elektron resurs]. – URL: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-elimination-all-forms-racial (murojaat sanasi: 25.05.2025).

9. Права человека: учеб. пособие / С.А. Балашенко [и др.]; науч. ред.: С.А. Балашенко, Е.А. Дейкало. – Минск: Юнипак, 2015. – С. 36–40.

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

***I.B.Madrimov***
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*
*2-bosqich magistratura talabasi*
*[ixtiyor_madrimov94@mail.ru]*
*+998999656693*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida davlatning yoshlar oldidagi majburiyatlari, xususan, ta’lim, bandlik va ijtimoiy himoya sohalaridagi yangi konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yoshlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, yoshlar siyosati, huquqiy mexanizm, ijtimoiy himoya, intellektual salohiyat, 79-modda, bandlik, ta’lim.

Jamiyat sivilizatsiyasi uning insonparvar ma’rifiy-tarbiyaviy maqomiga bog‘liq. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, demokratik huquqiy davlat barpo etish, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishni o‘z oldiga konstitutsiyaviy maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekiston istiqlolning dastlabki kunlaridanoq, mutlaqo yangicha mohiyat va mundarijaga

asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etishni asosiy vazifa sifatida davlat siyosati darajasiga ko‘tardi. Zotan, zamonaviy dunyoviy tafakkur va bilimgina xalqni, davlatni milliy kamolotning yangicha sifat bosqichiga olib chiqishning yagona kafolatidir. O‘zbekistonda yoshlarga oid siyosat asoslari birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan

Yoshlarga oid siyosatning konstitutsiyaviy asoslari 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijasida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44, 50-moddalari yoshlarning huquqlarini tartibga solishni kafolatlaydi. Jumladan, “Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi”.

Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi." (44-modda). [1] 50-moddada “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.”, deb qayd etilgan

Konstitutsiyamizning XIV bobini Oila, bolalar va yoshlar qilib belgilab qo‘yilganligi yoshlarga oid davlat siyosatini mustaqil konstitutsiyaviy institut sifatida e’tirof etib, uni amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini belgilab beradi. 70-moddada O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi. 77-moddada Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi.

78-moddada Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi. 79-moddada Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

79-moddada Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. 80-moddada Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. [2]

Yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining

ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va

kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkoni boricha to‘la to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan

shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

“Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos

va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak.

Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik,

giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur.

Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar

faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini
asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz” [3]
– deb ta’kidlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.
Yoshlarga oid siyosat deganda jamiyatdagi yoshlarning o‘ziga xos
ehtiyojlari va muammolarini hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar,
tashabbuslar va dasturlar majmui tushuniladi. U ta’lim, bandlik, sog‘liqni
saqlash, ijtimoiy inklyuzivlikda ishtirok etish va yoshlarning imkoniyatlarini
kengaytirish bilan bog‘liq harakatlarni o‘z ichiga oladi. Yoshlarga oid
siyosatning asosiy maqsadi yoshlarga o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish,
o‘z jamiyati va butun jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish uchun teng
imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlashdan iborat.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning bir qancha yangi
mexanizmlari mavjud. Ulardan biri, yoshlar agentliklari va yoshlar
ishtirokining boshqa shakllari orqali yoshlarni siyosatni ishlab chiqish jarayoniga jalb qilishdir. Yana biri - yoshlar tashabbuslari va loyihalarini
moliyalashtirish va resurslar bilan ta’minlashdir.[4] Bundan tashqari, yoshlar
uchun murabbiylik va yetakchilik dasturlarini yaratish, ularga samarali
yetakchi bo‘lish va o‘z jamoalarida ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan
ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar siyosatining konstitutsiyaviy asosda e’tirof
etilishi – davlatning bu boradagi siyosatini deklarativ emas, balki huquqiy majburiyat darajasiga olib chiqdi. Oila, bolalar va yoshlar bobining mavjudligi O‘zbekistonda yoshlar bilan bog‘liq barcha ijtimoiy,

iqtisodiy va siyosiy islohotlar uchun konstitutsiyaviy kafolat vazifasini bajaradi. Konstitutsiyadagi boshqa normalar bilan uyg‘unlikda bu siyosat har tomonlama institutsional asosga ega bo‘lib, uni amalga oshirishda davlat va jamiyatning birgalikdagi javobgarligini belgilaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023-yil 1-may) 7-B [https://lex.uz/docs/-6445145](https://lex.uz/docs/-6445145)

**2.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023-yil 1-may) 12-B [https://lex.uz/docs/-6445145](https://lex.uz/docs/-6445145)

**3.** O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 30-iyun kuni “Yoshlar” kuni munosabati bilan bayram tadbirida so‘zlagan nutqidan.

**4.** “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (O‘RQ-406-son, 14.09.2016)

**5.** “O‘zbekiston-2030” strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son, 11.09.2023)

## MINTAQAVIY TURIZM VA MADANIY ALMASHINUV

***M.J.Jalolova***
*Sarbon Universiteti talabasi*
*Jalolovamuslima2008@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda mintaqaviy turizmning rivojlanishi va uning madaniy almashinuv jarayonlariga ta’siri tahlil qilinadi. Mintaqaviy turizm nafaqat iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shuvchi soha sifatida, balki turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni kuchaytiruvchi muhim omil sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda turizm oqimlarining mahalliy madaniyatni saqlash va targ‘ib qilishdagi o‘rni, shuningdek, madaniy almashinuv orqali millatlararo muloqot va bag‘rikenglikni rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, mintaqaviy turizmni rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** mintaqaviy turizm, madaniy almashinuv, turizm rivoji, madaniy meros, millatlararo muloqot, bag‘rikenglik, turistik oqim, mahalliy madaniyat, iqtisodiy rivojlanish, turizm siyosati.

Madaniy meros jamiyatlarning tarixiy xotirasi, an’analari va qadriyatlarini ifodalovchi moddiy hamda nomoddiy boyliklar majmuasi sifatida insoniyat identitetining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlarining kuchayishi, texnologik taraqqiyotning

tezlashuvi hamda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida madaniy merosni saqlash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish va uni asrab-avaylashda madaniy turizm muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. U madaniy merosni muhofaza qilish jarayonida faol ishtirok etuvchi, ko‘p funksiyali va dinamik soha sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniy merosni saqlash jamiyatning tarixiy xotirasini ifodalovchi moddiy obidalar, tarixiy yodgorliklar hamda til, urf-odat va an’analar kabi nomoddiy elementlarni o‘z ichiga oladi. U o‘tmish va bugungi kun o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlab, jamiyatlarda tarixiy davomiylik va madaniy o‘zlikni shakllantiradi. Biroq hozirgi zamonda urbanizatsiya jarayonlari, iqlim o‘zgarishi, qurolli mojarolar va e’tiborsizlik kabi omillar moddiy merosga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu bilan birga, globallashuv va madaniy birxillashuv jarayonlari nomoddiy madaniy merosning saqlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Aynan shu sharoitda madaniy turizmning ahamiyati ortib bormoqda[1[.

Madaniy jihatdan esa turizm turli xalqlar o‘rtasida almashinuvni kuchaytirib, madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi. Sayyohlar turli urf-odatlar, an’analar va tarixiy qadriyatlar bilan tanishib, global darajada o‘zaro tushunish va bag‘rikenglikni mustahkamlaydi. Bu esa madaniy xilma-xillikni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi

Shu bilan birga, madaniy turizmning salbiy jihatlari ham mavjud. Ayrim mashhur yo‘nalishlarda ortiqcha turizm (overtourism) holatlari kuzatilib, bu madaniy obidalar yuklamasining oshishi, infratuzilmaning izdan chiqishi va atrof-muhitga zarar yetkazilishiga olib keladi. Bu esa madaniy merosni muhofaza qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va samarali boshqaruv choralarini talab qiladi[2]. Bundan tashqari, madaniy turizm noto‘g‘ri boshqarilganda madaniy qadriyatlarning tijoratlashuvi va noto‘g‘ri talqin qilinishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Bu holat madaniy merosning asl mazmunini buzib ko‘rsatish xavfini yuzaga keltiradi. Shu bois turizm faoliyatida madaniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashish va ularni asl holida saqlab qolish muhim hisoblanadi.

Mavjud muammolarga qaramasdan, madaniy merosning uzoq muddat davomida saqlanishini ta’minlash uchun barqaror madaniy turizmga o‘tish zarur hisoblanadi. Bunday yondashuv madaniy boyliklardan oqilona foydalanish bilan birga, ularning asl holatini kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga xizmat qiladi.

Jamiyat ishtiroki va hamkorlik ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Mahalliy aholini madaniy turizmni rejalashtirish, qaror qabul qilish

va amalga oshirish jarayonlariga jalb etish turizmdan olinadigan foydaning adolatli taqsimlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, bu yondashuv madaniy merosni saqlash tadbirlarining mahalliy aholi qadriyatlari va ehtiyojlariga mos bo‘lishini kafolatlaydi. Hamkorlik asosidagi tizim esa aholining turizm sohasida faol ishtirok etishi va undan manfaat ko‘rishiga imkon yaratadi.

Ta’lim va talqin jarayonlari ham muhim omillardan biridir. Ta’limiy dasturlar va tushuntiruvchi materiallar sayyohlar ongida mas’uliyat va hurmat hissini shakllantiradi. Madaniy meros obyektlari haqida yetarli bilimga ega bo‘lgan tashrif buyuruvchilar ko‘proq mas’uliyatli xulq-atvor namoyon etadilar. Shu tariqa, talqin qilish dasturlari ongli va madaniyatga hurmat bilan yondashadigan turistlar jamoasini shakllantirishga xizmat qiladi[3].

Madaniy meros turizmi barqaror rivojlanish doirasida bir qator maqsadlarga xizmat qiladi. Ular qatoriga madaniy resurslarni saqlash, merosni to‘g‘ri talqin qilish, sayyohlarga haqiqiy tajriba yaratish hamda madaniy obyektlarni saqlash uchun moliyaviy manbalar yaratish kiradi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, madaniy turizm nafaqat merosni muhofaza qilish, balki uning jamiyatga iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirini ham o‘z ichiga oladi.

Madaniy merosning iqtisodiy qiymati moddiy va nomoddiy foydalar orqali belgilanadi. Ba’zi hollarda tarixiy obidalarning madaniy ahamiyati ulardan olinadigan moliyaviy daromaddan ham yuqori bo‘lishi mumkin. Bu esa madaniy merosning faqat iqtisodiy emas, balki ma’naviy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Olimlar madaniy turizmni madaniy merosni moliyalashtirishning muhim mexanizmi sifatida o‘rganib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kirish to‘lovlari, suvenir savdosi va turizmga oid xizmatlar orqali olinadigan daromadlar meros obyektlarini saqlash va tiklash ishlariga yo‘naltirilishi mumkin[4]

Shuningdek, madaniy turizm madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. UNWTO ma’lumotlariga ko‘ra, turizm sayyohlarga turli urf-odatlar, an’analar va tarixiy voqealar bilan tanishish imkonini beradi. Bu jarayon madaniy xilma-xillikka hurmatni oshirib, global miqyosda o‘zaro tushunishni kuchaytiradi.

Gretsiya, Misr va Yaponiya kabi davlatlar turizm sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirib, ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishgan. Bu davlatlar sayyohlarni jalb qilish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda tashrif buyuruvchilarga

yuqori sifatli va individual tajriba taqdim etishda innovatsion texnologiyalar va zamonaviy xizmat ko‘rsatish yondashuvlaridan samarali foydalanib kelmoqda.

Mazkur mamlakatlar boy tarixiy meros va madaniy qadriyatlarga ega bo‘lib, aynan shu jihat ularni jahon turizm xaritasida muhim o‘rin egallashiga sabab bo‘lgan. Hozirgi kunda bu davlatlar nafaqat turizm, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham yuqori rivojlanish darajasiga ega bo‘lib, bu holat ularga tashrif buyurayotgan sayyohlar sonining sezilarli oshishiga olib kelmoqda[5]

Xususan, Gretsiyada turizm mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U 1970-yillardan boshlab boy madaniyati va tarixiy merosi tufayli Yevropaning eng mashhur sayyohlik yo‘nalishlaridan biriga aylangan. UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan 18 ta Jahon merosi obyekti Gretsiyaning global turistik jozibadorligini yanada oshiradi. Mamlakatning tarixiy yodgorliklari, orollari, me’moriy obidalari va tabiiy plyajlari sayyohlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi

So‘nggi yillarda Gretsiyaga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni sezilarli darajada oshgan. Masalan, 2019-yilda mamlakatga 31 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, bu uni dunyodagi eng ko‘p tashrif etiladigan davlatlardan biriga aylantirdi. Turizm sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining katta qismini, ya’ni taxminan 25 foizini tashkil etadi.

Gretsiyada turizmning diniy, ziyorat, ekoturizm, biznes (MICE) va tibbiy turizm kabi yo‘nalishlari ham rivojlangan. Shuningdek, mavsumiy turizmni muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Asosiy sayyohlik markazlari qatoriga Afina, Santorini, Mikonos, Rodos, Korfu va Krit orollari, shuningdek Xalkidiki yarimoroli kiradi[6]

Madaniy turizm Gretsiyada alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u sayyohlarga mamlakatning tarixiy va madaniy merosi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Qadimiy arxeologik yodgorliklar, muzeylar, Vizantiya davri merosi, san’at, festivallar, musiqa va an’anaviy raqslar turistlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Afina Akropoli, Delfi, Olimpiya va Epidavr kabi mashhur tarixiy maskanlar qadimgi yunon sivilizatsiyasining me’morchiligi, diniy hayoti va madaniyatini o‘rganish imkonini beradi.

Shuningdek, Gretsiyada ko‘plab muzeylar mavjud bo‘lib, ular qadimiy artefaktlar va san’at asarlarini saqlaydi. Akropol muzeyi, Milliy arxeologiya muzeyi hamda Iraklion arxeologik muzeyi mamlakat madaniy merosini o‘rganishda muhim markazlar hisoblanadi.

Qishloq hududlaridagi an’anaviy hayot tarzini o‘rganish ham madaniy turizmning muhim qismi bo‘lib, Nafplio, Pelion va Epir mintaqasidagi Zagori kabi qishloqlar sayyohlarga o‘ziga xos me’morchilik va sokin hayot tarzini namoyon etadi. Bundan tashqari, yunon musiqasi (rebetiko, layko) va an’anaviy raqslar (sirtaki, zeybekiko) ham milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi

Madaniy merosni saqlash borasida Gretsiyada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Akropol va Delfi kabi tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish va saqlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Muzey infratuzilmasi modernizatsiya qilinib, zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda, bu esa tashrif buyuruvchilar tajribasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, nomoddiy madaniy merosni saqlash maqsadida an’anaviy urf-odatlar, hunarmandchilik va folklor merosini hujjatlashtirish va qo‘llab-quvvatlash ishlari ham olib borilmoqda[7].

Xulosa. Ushbu tezisda Gretsiya, Misr va Yaponiya kabi turizm sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarning tajribasi tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu davlatlar boy tarixiy va madaniy merosga ega bo‘lishi bilan birga, turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va sifatli xizmat ko‘rsatish tizimidan samarali foydalanmoqda. Bu esa ularga xalqaro sayyohlar oqimini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini bermoqda.

Ayniqsa, Gretsiya misolida madaniy turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim drayveri sifatida namoyon bo‘lib, qadimiy yodgorliklar, muzeylar, orollar va an’anaviy madaniyat sayyohlarni keng jalb etishi aniqlandi. Shu bilan birga, madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazish borasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan restavratsiya ishlari, muzeylarni modernizatsiya qilish va nomoddiy merosni qo‘llab-quvvatlash choralari muhim ahamiyat kasb etadi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki xalqlar o‘rtasida madaniy almashinuvni kuchaytirish, o‘zaro tushunish va bag‘rikenglikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, barqaror turizmni rivojlantirish va madaniy merosni asrab-avaylash zamonaviy turizm siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- World Tourism Organization (UNWTO). Tourism and Culture Synergies. Madrid: UNWTO Publications, 2018. – 25–47-betlar.
- Timothy, D.J., Boyd, S.W. Heritage Tourism. Pearson Education, 2003. – 60–92-betlar.
- Mason, R. Assessing Values in Conservation Planning. London: Routledge, 2008. – 110–135-betlar.
- Lagrange, E., Oeter, S., Uerpmann-Wittzack, R. Cultural Identity and Heritage Protection. Springer, 2018. – 15–40-betlar.
- Fladmark, J.M. Cultural Tourism and Heritage Management. Oxford: Oxford University Press, 1994. – 55–78-betlar
- Ruijgrok, E. The Economics of Cultural Heritage. Journal of Cultural Economics, 2006. – 95–118-betlar.
- Greek Ministry of Tourism. Annual Tourism Report of Greece. Athens, 2022. – 30–65-betlar.

## KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASHDA FUQAROLARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK ASOSLARI

***O.I.Ortiqov,***
*Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,*
*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*
***A.N.Meliboyev,***
*Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi*
*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*
***J.Mo‘minov,***
*Qo‘qon davlat universiteti magistranti*
*E-mail: [aziznizomiddinovich@gmail.com]*
*UO‘K101.1:316.323(575:1) O‘MKutubxona*
*(https://orcid.org/orcid)*
*[0009-0000-4632-2476]*
*(https://orcid.org/0009-0000-4632-2476)*

Jamiyatda iqtisodiyotning barqaror va mutanosib rivojlanishi, aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi ko‘p jihatdan fuqarolarning iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ongli ravishda munosabatda bo‘lishi, iqtisodiy tafakkur va ko‘nikmalarning rivojlanishiga bog‘liq. Chunki,

fuqarolar qanchalik yuqori iqtisodiy faollik va moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lsa, ularning iqtisodiy faoliyati, hayotning turli jabhalarida qabul qilayotgan qarorlari shu darajada samarali bo‘ladi. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkon yaratadi. Shu o‘rinda Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekistonda tadbirkorlik harakati orqaga qaytarib bo‘lmaydigan katta kuchga aylandi. Biz davlat miqyosida qanday katta maqsad va vazifalarni o‘z oldimizga qo‘ymaylik, ularni amalga oshirishda butun xalqimiz bilan birga, avvalo, sizlarga tayanamiz. Tadbirkorlarimiz qancha boy bo‘lsa, xalqimiz shuncha farovon yashaydi, davlatimiz shuncha qudratli bo‘ladi. Tadbirkorning yutug‘i – bu butun xalqimizning yutug‘i,”*[1;]* – deya bildirgan ta’kidlari naqadar asosli.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida bozor munosabatlarining shakllanish jarayonlari yanada jadalroq tus olmoqda, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tartibga solishda bozor mexanizmlaridan foydalanish salmog‘i sezilarli ravishda ortib bormoqda.

Iqtisodiy resurslardan foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi muhim jihatlarga ko‘proq moddiy manfaatdorlik,rag‘batlantirish, iqtisodiy dastaklarni ishga tushirish orqali yondoshilmoqda. Bularning barchasi esa iqtisodiyotimizning demokratik bozor tamoyillari asosida qayta tarkib topishiga zamin bo‘lmoqda. Biroq, shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, iqtisodiyotda samarali va demokratik bozor tamoyillarini to‘liq tarkib topishi fuqarolarning iqtisodiy bilim va malakalari, ko‘nikmalari darajasiga, ularning iqtisodiy madaniyatiga ham bog‘liq. Iqtisodiy madaniyatning yetarli darajada shakllanishi va samarali amal qilishi esa har bir shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, hozirda jahonning aksariyat mamlakatlarida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizning mamlakatimizda ham aholi moliyaviy savodxonligini ta’minlash va oshirish muhim bo‘lib, bu boradagi tizimli chora-tadbirlarni belgilash avaalo mazkur masalaning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashdagi o‘rnini ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Jamiyatda iqtisodiy farovonlikni ta’minlash inson omilini yuksaltirish, mehnat mazmundorligini oshirish, faoliyat subyektlari ma’naviyatini boyitish kishilarimizning iqtisodiy madaniyati darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Zero, moddiy va ma’naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi.

Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va yuksaltirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

Insonlarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga o‘z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini yaratish eng dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sohasidagi tendensiyalarning mohiyatini teran tushunish uchun ularni jamiyat ma’naviy hayoti, madaniyati bilan bog‘lab o‘rganish muhim ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology): O‘zbekiston Respublikasi-ning Birinchi Prezidenti asarlari[2;]dagi, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari [3;] dagi kambag‘allik va qashshoqlikni qisqartirish borasidagi konseptual g‘oya va fikrlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekistonda kambag‘allik va qashoqlikning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari, ijtimoiy ta’siri, unga qarshi kurashish vazifalarini olimlardan A.V.Vaxabov, B.X.Umrzaqov, M.K.Abdullayevalar tomonidan o‘rganilgan[4;]. Shuningdek, kambag‘allikning kelib chiqishi sabablari, kambag‘allik darajasini aniqlash mexanizmi, metodologiyasi va kambag‘allikni qisqartirishning ayrim masalalari B.Sh.Xusanov, B.K.G‘oyibnazarov, D.M.Karimova, X.X.Abdurahmonov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov, N.M.Majidov, R.F.Djumanov [5;], kambag‘al va ehtiyojmand aholini ijtimoiy himoya yo‘nalishlari va ularning qamrov darajasini oshirish masalalariga to’xtalib o‘tgan.

**Natijalar va muhokama (Results and Discussions):** Kambag‘allikka qarshi kurashda iqtisodiy tafakkur va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy tafakkur – bu shaxslarning moliyaviy qarorlarini qabul qilishdagi qobiliyatini anglatadi. Iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lgan odamlar, odatda, resurslarni samarali ravishda boshqarishni o‘rganadilar. Ular byudjet tuzish, sarflarni nazorat qilish va investitsiya qilish kabi muhim moliyaviy jarayonlarni yaxshi tushunadilar. Bu ularga o‘z iqtisodiy holatlarini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy tafakkurning rivojlanishi odamlarga o‘z biznesini ochish yoki mavjud biznesini kengaytirish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ikkita yo‘nalishda ish

olib borilishi zarur: ta’lim tizimida iqtisodiy bilimlarni kiritish va jamoatchilik o‘rtasidagi moliyaviy savodxonlikni oshirish.

Moliyaviy savodxonlik – bu insoniyatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish qobiliyatidir. Moliyaviy savodxonligi yuqori bo‘lgan odamlar qarz olish, investitsiya qilish, saqlash va byudjeti tuzish kabi operatsiyalarda samarali qarorlar qabul qilishadi. Bundan tashqari, ular o‘z huquqlari va majburiyatlari haqida yaxshi bilishadi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun jamoatchilikka mo‘ljallangan treninglar o‘tkazish, kitoblar yozish hamda internet resurslari orqali ma’lumot tarqatish muhimdir. Odamlarga moliyaviy strategiyalarni tushuntirib berish ularning kambag‘allik bilan kurashishi uchun kerakli asbob bo‘ladi. Shu ma’noda, kambag‘allikka qarshi kurashda iqtisodiyn tafakkur va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ikki yo‘nalish ham bir-birini to‘ldirib borishi mumkin: iqtisodiyot haqida bilimli odamlar o‘z mablag‘larini samarali boshqaradilar, bu esa kambag‘allikning pasayishiga olib keladi. Shu sababtan har bir davlat kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasida ta’lim va ma’lumot tarqatishga alohida e’tibor berish lozim. Faqat shundagina biz barcha fuqarolar uchun barqaror va farovon yashash sharoitlarini yaratishimiz mumkin.

Moliyaviy savodxonlik va uni ta’minlash masalalariga xorijiy olim va mutaxassislar tomonidan keng e’tibor qaratib kelinmoqda. Avvalo, mazkur tushuncha ta’rifiga to‘xtalib o‘tiladigan bo‘lsa, ijtimoiy lug‘at va talqinlarda unga quyidagicha yondoshilgan:

“Moliyaviy savodxonlik – bu inson moliyaviy xulq-atvori sohasidagi uning farovonligini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga olib keluvchi bilim, ko‘nikma va qadriyatlar majmui; hayotdagi voqealar va iqtisodiy shart-sharoitlardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda qisqa muddatli qarorlar va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish orqali shaxsiy moliyani boshqarishdagi qobiliyat va qat’iylikni, asosiy moliyaviy tushunchalarni anglab yetishni ifodalovchi daraja ” [6;].

A.Sudakovaning ta’kidlashicha “Hozirgi vaqtda moliyaviy savodxonliktushunchasi moliyaviy ma’lumot, kompetentlik, xabardorlik va boshqa atamalar bilan uzviy bog‘liq. Moliyaviy savodxonlikning ko‘rsatib o‘tilgan tushunchalar bilan asosiy farqi unga tegishli bo‘lgan asosiy elementlarning tatbiq etilish kengligi va bayon etilishining chuqurligida namoyon bo‘ladi. ...Shaxsning moliyaviy savodxonligi tushunchasini o‘z farovonligini oshirish uchun moliyaviy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi kompetensiyalar

yig‘indisi sifatida talqin etish mumkin. Ayni vaqtda u ustun ravishda moliyaviy va vaqt bo‘yicha yo‘qotishlarni eng kam darajaga tushirishga imkon yaratadi”[7;]. Mazkur tushunchalar O.Kuzina tomonidan “nisbatan batafsil va yetarli darajada tushunarli holda bayon etilgan”[8;]. Shuningdek, S.Xaston tomonidan “moliyaviy savodxonlikka tegishli 52 ta ma’lumotlar bazasida to‘plangan 71 ta tahlil asosida ayrim dastlabki ta’riflar belgilab berilgan”[9;].

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) hujjatlarida moliyaviy savodxonlikka quyidagicha rasmiy ta’rif berilgan: “Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko‘nikma, qadriyatlar (hayotiy yo‘nalishlar) va xulq-atvor kabi elementlarning majmui”[10;]

Ye.Garsuyevaning ta’kidlashicha, moliyaviy savodxonlik “insonning ijtimoiy takror ishlab chiqarishda investor sifatida ongli ishtirok eta olish qobiliyati bo‘lib, u moliyaviy dastaklarni tanlashga oqilona va mas’uliyatli yondashgan holatda daromad hosil qilishi yoki hech bo‘lmaganda bilim egasining moliyaviy jihatdan barqarorligini ta’minlashi lozim”[11;].

Aholi moliyaviy savodxonligining mazmuni va ahamiyatini ochib berishda uning darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va muayyan tizimga solish muhim o‘rin tutadi. R.Voskanyanning ta’kidlashicha, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasini uning darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni aniqlamasdan turib hal etib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra u quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatadi:

1) mamlakatdagi iqtisodiy ta’lim darajasi;
2) moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik darajasi
3) aholining iqtisodiyotga ishonchi darajasi;
4) moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari [12;].

Iqtisodiy farovonlik darajasi va uning o‘sishi, inson omilini faollashtiruvchi tadbirkorlikning samaradorligi, mehnat mazmun-dorligining boyib borishi, ta’lim tizimi subyektlari ma’naviyatini qaror toptirish va takomillashtirish ko‘p jihatdan kishilar erishgan iqtisodiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir. Binobarin, “yuqori ma’lumotli, mada-niyatli hamda professional jihatdan yetuk shaxsgina iqtisodiy erkin bo‘lishi, demokratik va tub iqtisodiy o‘zgarishlarning ishonchli tayanchi bo‘lishi mumkin. Bu haqiqatni tushunish xalqning ma’naviy va madaniy hayotini yaxshilash, ta’lim-tarbiyaning butun tizimini yangilash jarayonining zamirida yotishi kerak”[13;].

Jamiyat va shaxs iqtisodiy madaniyatining nazariy-metodologik aso-sini iqtisodiyot falsafasi tashkil etadi. Inson iqtisodiy madaniyatning subyekti sifatida bu falsafiy g‘oyani atroflicha egallamay, muammoning gumanistik mohiyatini amaliy jihatlar bilan uyg‘un holda gavdalantira olmaydi. Boshqa tomondan, shaxs va jamiyat iqtisodiy madaniyatini tadqiq va tahlil qilish ko‘p jihatdan tadqiqotchining falsafa, xususan iqtisod falsafasi tamoyillari bilan qurollanishiga bog‘liqdir. Shuning uchun ma-daniyat, xususan, iqtisodiy madaniyatni falsafaning tarixan shakllangan nazariy va amaliy qismlarini uyg‘unlashtirish negizida qarab chiqilishi bejiz emas.

Iqtisodiy madaniyatning shakllanishida ham xuddi shunga monand ijodiy jarayon ro‘y beradi. Yangi mahsulotni yaratish uchun tuzilgan loyihadan tortib, to uni iste’mol qilinguncha o‘tgan har bir bosqich ijodiy mehnatsiz ro‘y bermaydi. Ijodiy mehnat asosan tashabbuskorlik, izlanish, ixtiro; kasb-korning sir-asrorini chuqur bilish, bilimdonlik; pirovard natijani oldindan ko‘ra olish, tasavvur qilish, ifodalash; ish jarayonida, bir tomondan, texnologik talablarga, boshqa jihatdan, insof, diyonat, vijdon amriga qarab ish tutish; yaxshi niyat va katta ishonch bilan ishlash; o‘z faoliyatida go‘zallik me’yorlarini asos qilib olish kabi omillarni o‘z ichiga oladi.

Ijodiy mehnat va ijobiy natijalar, butun qobiliyat, iqtisodiy bilimlarni, barcha imkoniyatlarni ishga solib mehnat qilish iqtisodiy madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirishning asosini tashkil etadi. “Biz o‘tmishda ertalab soat 6 dan tungi soat 12 gacha aqldan ozgudek ishlardik, - deb yozadi koreys ishbilarmoni Kim U Jung. - Biz qattiq ish-lagan edik. Bizning kuch-g‘ayratimiz tufayli bugungi turmush darajasiga erishdik. Lekin biz faqat mukofot uchungina ishlamas edik. Bizni ishda mukammallikka erishishga intilish, vatanparvarlik hissi yetaklagan edi” [14;].

Jahon tan olgan iqtisodchi-amaliyotchining “mukammallikka erishishga intilish” iborasida iqtisodiy madaniyatning ma’naviy-axloqiy hamda estetik tamoyillari aks etganligini sezish qiyin emas. Darhaqiqat, iqtisodiy bilimlarni egallash va ularni iqtisodiy hayotga qo‘llay bilish, ijodkorlik, butun imkoniyatlarni ishga solib mehnat qilish, bu jarayonda mukammallikka erishish-iqtisodiy madaniyatning ustivor belgilaridir.

Shaxs faoliyati erkin, individual tarzda namoyon bo‘lishiga qara-masdan, u erishayotgan shaxsiy yutuqlar muayyan ijtimoiy muhitda qo‘lga kiritilgani bois jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Uni omadsizlik o‘rab olganda, bu ta’sirning kuchi salbiy bo‘ladi. Ikkinchi

tomondan, jamiyatda qaror topgan qonun-qoidalar shaxsning xohish-iroda-siga bog‘liq bo‘lmagan holda uning hayoti, butun faoliyatiga ta’sir qilib turadi. Binobarin, shaxs bilan jamiyat o‘zaro uzviy aloqadorlik tufayli o‘z muayyanligini yuzaga chiqaradi.

Shunday ekan, inson – fuqaroni tarbiyalashda, xususan uning iqtisodiy dunyoqarashi va qobiliyatlarini shakllantirishda ma’naviy tarbiyadan oqilona foydalanish, bugina emas, uning tarkibini tashkil etgan iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarga asoslanib yashashga o‘rgatish eng muhim omil hisoblanadi.

Falsafa fanlar doktori V.Alimasovning yozishicha, liberalizmning falsafiy-g‘oyaviy mohiyati quyidagilarda aks etadi: “Birinchisi, har bir inson (shaxs) nafaqat mulkka ega bo‘lishi, xuddi shuningdek,ushbu mulkini, o‘z hayoti va erkini himoya qilish huquqiga ega.“Hayoti, erki va mulkini himoya qilish insonning tabiiy huquqidir” ( J.Lokk). Ikkinchisi,inson (shaxs) xususiy mulkga ega bo‘lishi nafaqat uning, xuddi shuningdek, butun jamiyatning ham boy – badavlat va farovon yashashiga olib keladi. “Xususiy mulkka ega inson (shaxs) o‘zining ijodiy kuchlarini namoyon etadi va boshqalarning ham mehnat qilib, farovon yashashi uchun sharoit yarata oladi” (B.Konstant). Uchinchisi, liberalizm ijtimoiy – tarixiy sharoit va taraqqiyot talablariga tez moslashadi. XVIII asrda u ma’rifatparvarlik g‘oyalaribilan uyg‘unlashib ketgan bo‘lsa, keyingi davrlarda unda sotsial-demokratiya, parlamentarizm, bozor iqtisodiyoti, ochiq jamiyat g‘oyalari ham o‘z o‘rnini topadi” [15;].

Xullas, iqtisodiy madaniyat e’tiqod darajasiga ko‘tarilgan iqtisodiy tafakkurga asoslanib jamiyat va shaxslararo ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirish, moddiy ne’matlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, o‘zlashtirish jarayonida yuksak ma’naviy tamoyillarga suyanib faoliyat ko‘rsatishdan iboratdir. Iqtisodiy madaniyat moddiy ne’matlarni iste’mol qilish sohasida yuksak axloqiy-intellektual me’yorlarni qaror toptiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations):

- Kambag‘alliklik darajasini aniqlashning O‘zbekistonga xos jihati shundan iboratki, bunda kishi o‘zini zaruriy iste’mol ne’matlari bilan ta’minlay olmasligi, ular xoxlasada buning uddasidan chiqa olmasligi hisobga olinadi. Chunki, jamiyat a’zosi o‘zining ijtimoiy maqomiga ko‘ra yetarlicha daromadga ega bo‘lmasligi tabiiy holat. Bunday tashqari, iqtisodiy holat va vaziyat ularga imkon yaratib bermaydi.

- Kambag‘alliklikning mavjudligi ijtimoiy hodisa bo‘lib, islohotlarning samarasiga bog‘liq bo‘ladi. Yangi ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy inqirozli sharoit kambag‘alliklikning u yoki bu ko‘rinishini

keltirib chiqaradi. Yuzaki qaraganda kambag‘alliklik subyektning o‘ziga bog‘liqligi, nochor ahvolda kun kechirishida kishining o‘zi aybdordek tuyuladi.

- Ijtimoiy farovonlikka erishishda sifatli ta’limning o‘rni bundan ham katta. Kambag‘allikka qarshi kurashda sifatli ta’lim-tarbiyaning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Sifatli ta’lim orqali insonlarning shaxsiy rivojlanishi ta’minlanadi; ular ijtimoiy faoliyatlarda qatnashib, yaxshiroq kelajak yaratishlari mumkin. Shu sababli biz har qanday jamiyat o‘zining kelajagi uchun investitsiya qilmoqchi bo‘lsa, birinchi navbatda sifatli ta’limiga e’tibor berishi zarur

- Insonlarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga o‘z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini yaratish eng dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sohasidagi tendensiyalarning mohiyatini teran tushunish uchun ularni jamiyat ma’naviy hayoti, madaniyati bilan bog‘lab o‘rganish muhim ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

- Iqtisodiy tafakkur, o‘z nomidan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy jara-yonlarni, iqtisodiy rivojlanishning mohiyatini yaxshi tushunish, shu borada to‘g‘ri tushunchalar hosil qilish bilan bog‘liqdir. Iqtisodiy madaniyatning mohiyatini to‘g‘ri tushunishda, uni rivojlantirishda iqtisodiy tafakkur belgilovchi rol o‘ynaydi. Aniqroq aytganda, iqtisodiy madaniyatni rivoj-lantirish iqtisodiy tafakkurni shakllantirishdan boshlanadi.

- Hozirgi davrda jamiyatning turli sohalarida tub islohotlar, fan va bilish sohasida esa paradigmal yangilanishlar sodir bo‘layotgan tarixiy davr boshlandi. Jamiyatda ijtimoiy farovonlikka erishish va ijtimoiy rivojlanganlik darajasining asosiy ko‘rsatkichi insonning shaxsiy faolligi, ya’ni yoshlarni har tomonlama murakkab, tobora takomillashayotgan ijtimoiy hayotga tayyorlash asosida komil insonni shakllantirish, uning ijtimoiy, iqtisodiy mazmundagi vazifalari yechimi ustuvor o‘ringa chiqib oldi.

- Ta’lim jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy dunyoqarashni rivojlantirib, odamlarning savodxonlik darajasini oshiradi, ishsizlikni kamaytirib, aholining ehtiyojmandlik darajasini kamaytirdi. Umuman hisobda, jamiyatning bilimlilik darajasi ijtimoiy taraqqiyotga asos bo‘lishi, savodxonlik yuqori bo‘lgan “mamlakat ishlab chiqarish, aholi bandligi borasida nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

- Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli trendlarida ta’lim darajasini oshirish tahlili uzviy bog‘liqlik borligi, davriy trendda ta’lim darajasining indekslari namoyish etiladi. O‘tgan asrda mustamlakachilik va talonchilik urushlari tufayli mamlakat vaqtinchalik boy bo‘lishi mumkin edi. Demak, davlatga vaqtinchalik boy va iqtisodiy rivojlangan bo‘lishning asosida nafaqat tabiiy boyliklar, qishloq ho‘jaligi kabi omillar bo‘lsa, barqaror iqtisodiy taraqqiyotning zamirida sifatli ta’lim, ilm-fan, innovatsiyalar yotadi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):**


- Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 20-dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan uchrashuvidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/7778.

- Karimov I.A. Asarlar to‘plami. Tom. 1-24. – Toshkent: O‘zbekiston. 1996-2015.

- Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2021. – 454 b.

- Vaxabov A.V., Bahtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. –T.: “Universitet” nashriyoti, 2020. – 154 b.;

- Xusanov B.Sh. Problemы regulirovaniya finansovogo mexanizma sotsialnogo obespecheniya naseleniya // Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk: - T.: 2011. - 25 s.;

Финансоваяграмотност[https://ru.wikipedia.org/wiki/Finansovaya_gramotnost](https://ru.wikipedia.org/wiki/Finansovaya_gramotnost).

- Судакова А.Е. Финансовая грамотност: теоретическое осмысление и практическое исследование // Финансы и кредит, 2017, т. 23, вып. 26, стр. 1563–1582

- Кузина О. Финансовая грамотност и финансовая компетентност: определение, методики измерения и результаты анализа в России // Вопросы экономики. 2015. № 8. С. 129-14

- Huston S.J. Measuring Financial Literacy. The Journal of Consumer Affairs, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 296–316.

- Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy, Paris, OECD, 2011, 31 p.

- Гарсуева Е.В. Финансовая грамотност индивида – условие его успехов в рыночной экономике // Вестник Томского государственного университета. Экономика. 2017. № 38. С. 91-105
- Восканян Р.О. Финансовая грамотност как условие формированияфинансовой культуры. Азимутҳ оф Ссиентифис Ресеарч: Эсономисс анд Администратион. 2018. Т. 7. № 1(22).
- Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –Toshkent: O‘zbekiston, 1996. -358 b.
- Kim U Jung. Biznesning buyuk olami. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. -15 b.
- Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash chanqog‘i .- Toshkent: Falsafa va huquq nashr., 2007.-159b.

# ZARAR KELTIRUVCHI DASTURLAR BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA TERGOV AMALIYOTI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

***K.Z.Axmedova***
*Sarbon Universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*
*[kaxmedova@sarbon.university]*

**Annotatsiya:** Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birga, zarar keltiruvchi dasturlar orqali sodir etilayotgan kiberjinoyatlarning soni va murakkabligi butun dunyoda, shu jumladan O‘zbekistonda ham keskin ortib bormoqda. Mazkur holat huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga, xususan, bunday turdagi jinoyatlarni tergov qilish amaliyotida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu tezis zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonida yuzaga kelayotgan tergov amaliyoti bilan bog‘liq muammolarni chuqur ilmiy-nazariy va amaliy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida raqamli dalillarni to‘plash, saqlash, tahlil qilish va ekspertizadan o‘tkazishdagi metodologik kamchiliklar, tergovchilarning zamonaviy kiberxavfsizlik tahdidlari bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarining yetishmasligi, transchegaraviy kiberjinoyatlarni tergov qilishdagi xalqaro huquqiy hamkorlikning samaradorligi, shuningdek, mavjud milliy qonunchilik bazasining o‘ziga xos xususiyatlari va uni takomillashtirish zaruriyati kabi masalalar atroflicha o‘rganiladi. Tezisning asosiy maqsadi – aniqlangan muammolarning ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish bilan birga, ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali amaliy tavsiyalar va yechimlarni ishlab chiqishdan iborat. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida raqamli dalillar bilan ishlash bo‘yicha yangi metodikalarni taklif etish, tergovchilarning ixtisoslashuvini oshirish dasturlarini ishlab chiqish hamda huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan konseptual yondashuvlarni ilgari surishga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqot kiberjinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, tergov amaliyotini modernizatsiya qilishga va adliya

tizimining zamonaviy talablarga javob berishiga xizmat qiluvchi qimmatli ilmiy va amaliy xulosalarni taqdim etadi.

**Kalit so‘zlar:** Zararli dastur, malware, kiberjinoyatlar, raqamli dalil, tergov jarayoni, kiberfazo, xalqaro tajriba.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi va jamiyatning barcha sohalarida raqamli transformatsiyaning jadal sur'atlar bilan kechishi, bir tomondan, ulkan imkoniyatlar eshigini ochayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jinoyatchilikning yangi, murakkab shakllari – xususan, zarar keltiruvchi dasturlar yordamida sodir etiladigan kiberjinoyatlarning keskin o‘sishiga zamin yaratmoqda. Bugungi kunda zararli dasturlar nafaqat shaxsiy ma’lumotlarga tahdid solish, balki davlat infratuzilmasi, moliyaviy tizimlar va ijtimoiy xizmatlarning barqaror faoliyatiga jiddiy putur yetkazish qudratiga ega bo‘lib qoldi. Bu esa ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilish amaliyotining dolzarbligini yanada oshiradi.

Zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun qator o‘ziga xos va murakkab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, elektron dalillarning o‘zgaruvchanligi va tez yo‘qolib ketish xususiyati, tergovchilarning zaruriy axborot texnologiyalari bo‘yicha chuqur mutaxassislik bilimlariga ega emasligi, transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lgan bu turdagi jinoyatlarni xalqaro hamkorliksiz samarali tergov qilishning mushkulligi, shuningdek, amaldagi normativ-huquqiy bazaning tez o‘zgaruvchan raqamli muhitga to‘liq mos kelmasligi kabi omillar tergov amaliyotida jiddiy to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda. Bu muammolar natijasida jinoyatchilarni aniqlash, ularga nisbatan tegishli choralarni qo‘llash va jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashda qiyinchiliklar kuzatilmoqda, bu esa adolat tamoyillarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqot ishi zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda yuzaga kelayotgan amaliy muammolarni chuqur tahlil qilishga, ularning sabablarini aniqlashga va mavjud xalqaro tajriba hamda ilg‘or yondashuvlar asosida ushbu muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida tergov amaliyotini takomillashtirish, elektron dalillarni yig‘ish va baholash mexanizmlarini optimallashtirish, tergovchilarning malakasini oshirish bo‘yicha samarali dasturlarni joriy etish, shuningdek, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo‘llari atroflicha o‘rganiladi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi, shuningdek, mamlakatimizning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan strategik maqsadlari bilan ham belgilanadi. Tadqiqot natijalari huquqni muhofaza qiluvchi organlarning zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, sud-tergov faoliyatida raqamli dalillardan foydalanish madaniyatini shakllantirishga va pirovardida, fuqarolar hamda iqtisodiy subyektlarning raqamli makondagi xavfsizligini kafolatlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot nafaqat ilmiy-nazariy, balki ulkan amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, kibercinoyatchilikka qarshi kurashishda yangi yechimlarni taklif etadi.

Zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish masalasi zamonaviy kiberxavfsizlik va raqamli kriminalistika fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda kiberjinoyatchilikning transmilliy tus olishi, zararli dasturlarning murakkablashuvi hamda raqamli dalillarning tez o‘zgaruvchan tabiati ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirdi. Shu bois mazkur mavzu doirasida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, amaliy tajribasi hamda normativ-huquqiy yondashuvlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda raqamli dalillar bilan ishlash va kiberjinoyatlarni tergov qilishning ayrim jihatlari keng tadqiq etilgan. Xususan, Akramov A.M. raqamli dalillarni jinoyat protsessida qo‘llashning protsessual muammolarini tahlil qilib, elektron ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash jarayonida yagona standartlarning mavjud emasligini asosiy muammolardan biri sifatida ko‘rsatadi[1]. Rustambayev M.X. esa jinoyat protsessida axborot texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini yoritib, zamonaviy kiberjinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilim va texnik vositalarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi[2]. To‘laganov B.B. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kompyuter jinoyatlarini tergov qilishning kriminalistik xususiyatlari, raqamli izlarni aniqlash va ekspertiza qilish masalalari ilmiy asosda yoritilgan[3].

Xorijiy ilmiy manbalarda zararli dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish masalalari yanada kengroq va texnologik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Casey E. o‘zining “Digital Evidence and Computer Crime” asarida raqamli dalillar bilan ishlashning kriminalistik tamoyillari, dalillar zanjiri (chain of custody) hamda sud ekspertizasining zamonaviy metodlarini atroflicha yoritadi[4]. Sikorski M. va Honig A. tomonidan

yozilgan “Practical Malware Analysis” asari esa zararli dasturlarni statik va dinamik tahlil qilish metodologiyalarini amaliy misollar asosida tushuntirib beradi[5].

Mazkur tadqiqot zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish amaliyotidagi muammolarni har tomonlama o‘rganish va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, shu boisdan kompleks va fanlararo metodologik yondashuvlardan foydalanilgan. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi, huquqiy, empirik va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi.

Dastavval, muammoning nazariy va normativ-huquqiy bazasini aniqlash maqsadida huquqiy tahlil usuli keng qo‘llanilgan. Bu usul O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi, jinoyat-protsessual qonunchiligi, axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro huquq normalari va xalqaro shartnomalarni chuqur o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Xususan, zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, raqamli dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashga oid qonunosti hujjatlari, idoraviy ko‘rsatmalar va uslubiy tavsiyalar atroflicha tahlil qilingan.

Tergov amaliyotidagi real muammolarni aniqlash va ularning sabablarini o‘rganish uchun empirik tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Bu borada, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, tergovchilar, tezkor xodimlar, prokurorlar va sud ekspertlari orasida so‘rovnomalar o‘tkazilgan. So‘rovnomalar tergov jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, mavjud texnik va kadrlarga oid muammolar, shuningdek, xalqaro hamkorlikdagi to‘siqlar haqidagi subyektiv fikr va amaliy tajribalarni umumlashtirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, soha mutaxassislari, axborot xavfsizligi bo‘yicha ekspertlar va olimlar bilan chuqurlashtirilgan intervyular o‘tkazilib, ular orqali muammolarning ildizlari va ularni bartaraf etish bo‘yicha innovatsion g‘oyalar yig‘ilgan.

Hujjatlarni o‘rganish usuli doirasida zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyat ishlari materiallari (anonimlashtirilgan holda) tahlil qilingan. Bu tahlil tergov amaliyotidagi tipik xatolarni, raqamli dalillarni olish va ulardan foydalanishdagi kamchiliklarni, shuningdek, ishni sudga oshirish va sud hukmini chiqarish jarayonlaridagi xususiyatlarni aniqlash imkonini bergan. Jinoyatlar statistikasi ham ushbu tadqiqotning muhim manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli orqali O‘zbekistonning tergov amaliyoti va qonunchiligi rivojlangan xorijiy davlatlar (masalan, Yevropa

Ittifoqi mamlakatlari, AQSh) tajribasi bilan solishtirilgan. Bu solishtiruv xorijiy amaliyotdagi ilg‘or yondashuvlarni, zamonaviy tergov texnologiyalarini va huquqiy tartibga solish mexanizmlarini o‘rganish, ularni O‘zbekiston sharoitlariga tatbiq etish imkoniyatlarini baholash imkonini bergan.

Muammolarga tizimli yondashish va ularning yechimlarini kompleks tarzda ishlab chiqish uchun sistemali-strukturaviy yondashuv qo‘llanilgan. Bu yondashuv tergov jarayonini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish, uning har bir elementi (qonunchilik, kadrlar, texnik ta’minot, xalqaro hamkorlik) o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash va tizimning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga yordam bergan. Shuningdek, analitik, sintetik, induktiv va deduktiv usullar tadqiqot natijalarini umumlashtirish, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Tadqiqot jarayonida etik normalarga qat’iy rioya qilingan, barcha respondentlarning anonimligi va shaxsiy ma’lumotlarining maxfiyligi ta’minlangan.

Tadqiqotning natijasi O‘zbekiston huquqshunoslik fanida zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishning nazariy-huquqiy va amaliy jihatlari birinchi marta yaxlit tizim sifatida kompleks tadqiq etilganligi bilan belgilanadi. Ishda ilgari surilgan ilmiy yangiliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

*Birinchidan*, zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar ilk bor huquqiy-normativ, tashkiliy-taktik, ilmiy-metodik va texnik-kriminalistik toifalarga ajratilgan holda tizimli tahlil qilindi. Bu klassifikatsiya mavjud kamchiliklarning mohiyatini chuqurroq anglash va ularni bartaraf etishga qaratilgan choralarni manzilli ishlab chiqish uchun konseptual asos yaratadi.

*Ikkinchidan*, tergov harakatlarini o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, “virtual hodisa joyini ko‘zdan kechirish” tushunchasining kriminalistik mazmuni va protsessual tartibi asoslantildi hamda uni Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlashga doir takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, raqamli dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashning taktik usullari majmui takomillashtirildi, bu esa ularning maqbulligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

*Uchinchidan*, ushbu toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari, tergovchi, prokuror va kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlikning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ilgari

surildi. Xususan, tergov-tezkor guruhlari faoliyatiga IT-mutaxassislarni jalb etishning protsessual asoslarini mustahkamlash va ular o‘rtasida axborot almashinuvining yagona algoritmini joriy etish zarurati asoslab berildi

*To‘rtinchidan*, milliy qonunchilik va xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish asosida, transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lgan kiberjinoyatlarni tergov qilishda xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qilish organlari bilan huquqiy yordam ko‘rsatish jarayonini soddalashtirish va tezlashtirishga qaratilgan aniq takliflar shakllantirildi.

*Beshinchidan*, tergov amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha huquqni qo‘llash organlari xodimlari uchun mo‘ljallangan kompleks metodik qo‘llanma loyihasi ishlab chiqildi. Bu esa nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar integratsiyasini ta’minlab, tergov samaradorligini oshirish uchun nazariy-metodologik zamin yaratadi.

Zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti o‘zining yuridik, kriminalistik va texnologik xususiyatlari bilan ajralib turadigan murakkab, ko‘p qirrali jarayondir. Mazkur tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy tergov amaliyotida ushbu toifadagi jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir qator tizimli muammolar mavjud. Ushbu muammolarni uchta asosiy guruhga – protsessual-huquqiy, kriminalistik-metodologik va tashkiliy-texnik muammolarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Protsessual-huquqiy sohadagi eng fundamental muammolardan biri bu – yurisdiksiya masalasidir. Zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlar deyarli har doim transchegaraviy xarakterga ega bo‘ladi. Ya’ni, jinoyatchi bir davlatda, zararli dastur joylashtirilgan server ikkinchi davlatda, jabrlanuvchi esa uchinchi bir davlatda joylashgan bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda qaysi davlatning qonunchiligi asosida jinoiy ish qo‘zg‘atish, tergov harakatlarini olib borish va jinoyatchini javobgarlikka tortish masalasi keskinlashadi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida virtual makonda sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha yurisdiksiyani aniqlashning aniq mexanizmlari yetarlicha to‘liq aks ettirilmagan. Bu esa tergov organlari xodimlarining xalqaro hamkorlik doirasida huquqiy yordam so‘rab murojaat qilishida va olingan dalillarning maqbulligini ta’minlashda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi ikki va ko‘p tomonlama shartnomalar mavjud bo‘lishiga qaramay,

ularning ijro mexanizmi byurokratik to‘siqlar va uzoq muddatlar bilan bog‘liq bo‘lib, kiberjinoyatlarning tezkor tergov qilinishi talabiga mos kelmaydi. Raqamli dalillarning o‘zgaruvchanligi va yo‘q qilinishi oson ekanligini hisobga olsak, xorijiy davlatdagi serverdan ma’lumotlarni olish uchun oylar davom etadigan so‘rov jarayoni dalillarning butunlay yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi jiddiy protsessual muammo – raqamli dalillarni olish, rasmiylashtirish va ularning maqbulligini ta’minlash bilan bog‘liq. Amaldagi JPK normalari asosan an’anaviy, moddiy ob’ektlar bilan ishlashga mo‘ljallangan. Kompyuter tizimlariga masofadan turib kirish, bulutli texnologiyalarda saqlanayotgan ma’lumotlarni ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish kabi tergov harakatlarini o‘tkazishning aniq protsessual tartibi belgilanmagan. Tergovchi xorijiy kompaniyaga tegishli serverdagi ma’lumotlarni qanday qonuniy asosda oladi? Shifrlangan ma’lumotlarni ochish uchun protsessual majburlov choralarini qo‘llash mumkinmi? Ushbu savollarga qonunchilikda aniq javoblarning yo‘qligi tergov amaliyotida nomuvofiqliklarni va olingan dalillarning keyinchalik sudda nomaqbul deb topilishi xavfini yuzaga keltiradi. Shuningdek, raqamli dalillarning yaxlitligi (integrity) va o‘zgarmasligini (authenticity) ta’minlash uchun xesh-summalardan foydalanish, dalillarning zanjirini (chain of custody) to‘g‘ri hujjatlashtirish kabi kriminalistik talablar ko‘pincha tergovchilar tomonidan e’tibordan chetda qolmoqda yoki bu sohada ularning bilimi yetarli emas.

Kriminalistik-metodologik yo‘nalishdagi muammolar ham kam emas. Eng avvalo, zarar keltiruvchi dasturlarni yaratgan va tarqatgan shaxsni (shaxslarni) aniqlash – attribatsiya muammosi o‘ta murakkabdir. Jinoyatchilar o‘z shaxslarini yashirish uchun VPN, proksi-serverlar, Tor tarmog‘i kabi anonimlashtirish vositalaridan, shuningdek, boshqa shaxslarning kompyuterlaridan iborat botnet tarmoqlaridan keng foydalanadilar. Bu esa jinoyat izlarini an’anaviy usullar bilan aniqlashni deyarli imkonsiz qilib qo‘yadi. Tergovchilar ko‘pincha IP-manzilni aniqlash bilan cheklanib qoladilar, vaholanki, bu manzil ko‘p hollarda haqiqiy jinoyatchiga emas, balki navbatdagi vositachi tugunga yoki boshqa bir jabrlanuvchiga tegishli bo‘lib chiqadi. Ushbu muammoni hal etish uchun chuqur texnik bilimlar, tarmoq trafigini tahlil qilish, zararli dastur kodini revers-injiniring qilish kabi maxsus ko‘nikmalar talab etiladi.

Bundan tashqari, respublika miqyosida ushbu toifadagi jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha yagona, standartlashtirilgan va ilmiy asoslangan

metodikaning mavjud emasligi ham jiddiy kamchilikdir. Har bir tergov bo‘linmasi yoki alohida tergovchi o‘z tajribasi va bilimidan kelib chiqqan holda ish yuritadi. Bu esa tergov harakatlarining izchilligi va samaradorligining pasayishiga, tipik xatolarga yo‘l qo‘yilishiga sabab bo‘lmoqda. Jinoyat haqida ariza kelib tushgandan boshlab, voqea joyini (virtual va jismoniy) ko‘zdan kechirish, raqamli qurilmalarni olib qo‘yish, kompyuter-texnik ekspertizasini tayinlash, gumon qilinuvchilarni so‘roq qilish kabi barcha bosqichlarni o‘z ichiga olgan kompleks metodik tavsiyanomalar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi zarur.

Tashkiliy-texnik muammolar guruhiga tergov organlari xodimlarining maxsus bilim va malakasi yetishmasligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi hamda idoralararo hamkorlikning sustligi kiradi. Aksariyat tergovchilar kiberkriminalistika va raqamli forensika sohasida fundamental bilimga ega emas. Ular zararli dasturning ishlash printsipi, tarmoq protokollari, operatsion tizimlardagi raqamli izlarni aniqlash usullarini bilmasdan turib, jinoyat mexanizmini to‘liq tushuna olmaydilar va tergovni to‘g‘ri yo‘naltira olmaydilar. Maxsus o‘quv kurslari tashkil etilgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha qisqa muddatli va yuzaki bo‘lib, kiberjinoyatlar texnologiyasining jadal o‘zgarishiga moslasha olmayapti. Tergov organlarini zamonaviy kompyuter-kriminalistika uskunalari (apparat-dasturiy komplekslar), litsenziyalangan dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlash darajasi ham qoniqarli emas. Bu esa raqamli dalillarni to‘plash va tahlil qilish imkoniyatlarini keskin cheklaydi

Idoralararo va xalqaro hamkorlikning samarasizligi ham alohida e’tiborga molik. Jinoyatni fosh etish uchun tergov organlari internet-provayderlar, mobil aloqa operatorlari, banklar va xorijiy texnologik kompaniyalar (Google, Meta, Telegram va h.k.) bilan tezkor ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yishi shart. Biroq, amalda bu jarayon ko‘pincha turli idoraviy yo‘riqnomalar va ma’lumotlarning maxfiyligi bilan bog‘liq cheklovlar tufayli cho‘zilib ketadi. Xususiy sektor bilan samarali davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining yo‘qligi ham tergov samaradorligiga putur yetkazadi.

Yuqorida tahlil qilingan muammolarning yechimi sifatida quyidagi kompleks chora-tadbirlarni taklif etish mumkin:

1. Qonunchilikni takomillashtirish: Jinoyat-protsessual kodeksiga kiberjinoyatlarning transchegaraviy xususiyatini inobatga olgan holda yurisdiksiyani aniqlashning aniq mezonlarini belgilovchi normalarni kiritish; “virtual tintuv”, “masofaviy olib qo‘yish” kabi yangi tergov harakatlarini va ularni o‘tkazishning protsessual tartibini qonuniy

mustahkamlash; raqamli dalillarning maqbulligi tushunchasiga aniqlik kiritish va ularni to‘plash, saqlash va taqdim etish standartlarini belgilash. Budapesht konvensiyasi kabi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro shartnomalarga qo‘shilish jarayonini tezlashtirish.

2. Metodologik bazani yaratish: Ilg‘or xorijiy tajriba va milliy amaliyotni umumlashtirgan holda, zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha yagona ilmiy-amaliy metodikani ishlab chiqish va uni barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tergov bo‘linmalari uchun majburiy qo‘llanma sifatida joriy etish. Ushbu metodikada jinoyatning barcha bosqichlari, jumladan, dastlabki tekshiruv, dalillarni to‘plash va fiksatsiya qilish, ekspertiza tayinlash xususiyatlari, xalqaro hamkorlik tartibi batafsil yoritilishi lozim.

3. Kadrlar salohiyatini oshirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar akademiyalari va oliy ta’lim muassasalarida “kibertergovchi”, “raqamli kriminalist” kabi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish. Mavjud tergovchilar uchun esa doimiy ravishda, yangi tahdidlar va texnologiyalarni o‘rgatishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini tizimli tashkil etish. Tergov bo‘linmalarini zamonaviy forensika laboratoriyalari, zarur dasturiy va apparat vositalari bilan to‘liq ta’minlash uchun davlat byudjetidan maqsadli mablag‘lar ajratish.

4. Institutsional hamkorlikni kuchaytirish: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Markaziy bank, aloqa operatorlari va internet-provayderlar o‘rtasida tezkor ma’lumot almashishning soddalashtirilgan va samarali mexanizmini yaratish. Xususiy sektor, ayniqsa, kibexavfsizlik sohasidagi kompaniyalar bilan davlat-xususiy sheriklik aloqalarini rivojlantirish orqali ularning texnik va intellektual salohiyatidan tergov jarayonida unumli foydalanish.

Ushbu tadqiqot zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolarni har tomonlama tahlil qilish va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqishga qaratildi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, kiberjinoyatlarning, xususan, zarar keltiruvchi dasturlar orqali sodir etiladigan jinoyatlarning tobora murakkablashib borishi, transchegaraviy xususiyatga ega ekanligi hamda raqamli dalillarning o‘ziga xos xususiyatlari tergov organlari faoliyatida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqot davomida tergovchilarning raqamli dalillarni aniqlash, olish, saqlash va ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha malakasi yetarli

emasligi, zamonaviy texnik jihozlar va dasturiy ta’minotning yetishmasligi, mavjud qonunchilik bazasining kiberxavfsizlik sohasidagi tezkor o‘zgarishlarga mos kelmasligi, shuningdek, idoralararo va xalqaro hamkorlik mexanizmlarining samarasizligi asosiy muammolar sifatida belgilandi. Bu omillar jinoyatlarni fosh etish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish va jabrlanuvchilarning huquqlarini tiklash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, raqamli izlarning o‘zgaruvchanligi va yo‘q bo‘lib ketish xavfi tergov harakatlarining o‘z vaqtida va professional darajada bajarilishini talab etadi, biroq amaliyotda bu talablar har doim ham to‘liq bajarilmayapti.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, **qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur**. Raqamli dalillarni olish, saqlash, ekspertizadan o‘tkazish va sudga taqdim etish tartibini aniq belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, shuningdek, xalqaro kiberxavfsizlik standartlari va konvensiyalariga muvofiqlashtirish lozim. Bu tergov harakatlarining qonuniyligini ta’minlab, olingan dalillarning sudda foydalanilish imkoniyatini oshiradi.

Ikkinchidan, **tergov organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash** ustuvor vazifa hisoblanadi. Zamonaviy raqamli forenzika uskunalari, maxsus dasturiy ta’minotlar va server infratuzilmasi bilan ta’minlash, shu jumladan, mobil qurilmalardan dalillarni olishga mo‘ljallangan vositalarni joriy etish orqali tergovchilarning samaradorligini oshirish mumkin.

Uchinchidan, **tergovchilar va operativ xodimlarning malakasini oshirishga jiddiy e’tibor qaratish** kerak. Raqamli dalillar bilan ishlash, kiberjinoyatlarning turlari va ularni tergov qilish metodikasi bo‘yicha doimiy o‘quv kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etish, xususan, "raqamli forenzika" yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish muhim.

To‘rtinchidan, **idoralararo va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish** zarur. Turli huquqni muhofaza qiluvchi organlar, axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari va xorijiy davlatlarning tegishli tuzilmalari o‘rtasida axborot almashinuvini jadallashtirish, qo‘shma operatsiyalar o‘tkazish mexanizmlarini soddalashtirish orqali transchegaraviy kiberjinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, **kiberjinoyatlarni tergov qilishning yagona metodologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish** tavsiya etiladi. Bu tergov harakatlarining standartlashtirilishiga, dalillarning bir xil tartibda to‘planishiga va tergov xatolarining oldini olishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


- Akramov A.M. “Raqamli dalillar va ulardan jinoyat ishlarini tergov qilishda foydalanish muammolari” // *Huquq va jamiyat*. – 2022. – №4. – B. 85–92.

- Rustambayev M.X. “Jinoyat protsessi”: Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021. – 784 b.

- To‘laganov B.B. “Kompyuter jinoyatlari tergovining nazariy va amaliy masalalari”. – Toshkent: TDIU, 2020. – 210 b.

- Eoghan Casey. “Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers, and the Internet”. – 3rd Edition. – Academic Press, 2021. – 896 p.

- Michael Sikorski, Andrew Honig. “Practical Malware Analysis: The Hands-On Guide to Dissecting Malicious Software”. – San Francisco: No Starch Press, 2012. – 756 p.

- Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

- G‘ulomov S.R. Axborot xavfsizligi va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash muammolari. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2019.

- Turg‘unov B.T. Kiberjinoyatlarni tergov qilish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021.

- Ahmedov N.A. Raqamli dalillar va ularni jinoyat ishida qo‘llash. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2020.

- Saidov A.X. Jinoyat protsessida elektron dalillar tushunchasi va ahamiyati. Yurid. fan. nomz. diss. ... avtoreferati. – Toshkent, 2018.

- Nazarov Q.N. Kiberxavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asoslari. – Toshkent: Adolat, 2022.

- Xolmuhamedov M.M. Kompyuter jinoyatlari tergovining nazariy va amaliy muammolari. – Toshkent: Innovatsiya, 2023

- Yusupov U.A. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashning dolzarb masalalari. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2021.

# FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA PROTSESSUAL HUQUQ NORMALARI BUZILISHINING HAL QILUV QARORLARIGA TA’SIRI

***S.S.Abdihakimov***
*Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktaranti*
*[samandarabdihakimov86@gmail.com]*

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda hamda hal qiluv qarorlarini qabul qilishda ko‘plab huquqshunos olimlar moddiy huquq normalarini to‘g‘ri qo‘llash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlashadi. Atoqli huquqshunos olim Sh.Shorahmetov hal qiluv qarorlari mohiyatini tushuntirar ekan, sud o‘zining hal qiluv qarorlari bilan taraflar o‘rtasida vujudga kelgan moddiy huquqiy nizolariga belgilangan qonunchilik asosida javob berishi, buzilgan shaxsiy va mulkiy huquqlarni tiklashini va nizosiz ishlarni ham hal qilishini ta’kidlaydi [1]. Shuningdek, E.Egamberdiyev, M.Mamasaddiqov, Z.Esanova, D.Xabibullayevlar va boshqa milliy protsessualist olimlar ham ushbu yondashuvni tayanishadi. Ammo, hal qiluv qarorlarini qabul qilishda nafaqat moddiy huquq normalarni to‘g‘ri va aniq qo‘llash, balki protsessual huquqiy qoidalarga ham amal qilish ishni to‘g‘ri hal qilinishiga va sud hujjatlarining barqarorligiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati kassatsiya instansiyasi tomonidan jami 3665 ta ish ko‘rib chiqilib, bundan 3015 tasi (82,3 foizi) bo‘yicha sud qarorlari o‘zgarishsiz qoldirilgan, 486 tasi (13,3 foizi) bo‘yicha sud qarorlari bekor qilingan, 164 tasi (4,5 foizi) bo‘yicha o‘zgartirilgan [2]. 2024-yil hamda 2025-yil birinchi yarmida Oliy sudga shikoyatlar soni keskin kamayishiga qaramasdan, sud qarorlarini bekor qilish va o‘zgartirish bilan bog‘liq holatlar foiz darajasi oshganini ko‘rish mumkin. Ya’ni, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati taftish instansiyasi tomonidan jami 227 ta ish ko‘rilgan bo‘lib, ulardan 115 ta (50,7 foizi) sud hujjatlari o‘zgarishsiz, 26 ta (11,4 foizi) o‘zgartirilgan, 86 tasi esa (37,9 foizi) bekor qilingan [3]. 2025-yil birinchi yarmida jami 195 ta ish ko‘rilgan bo‘lib, ulardan 55 tasi (32 foizi) bo‘yicha sud qarorlari o‘zgarishsiz qoldirilgan, 90 tasi (53 foizi) bo‘yicha sud qarorlari bekor

qilingan, 23 tasi (13 foizi) bo‘yicha sud qarorlari o‘zgartirilgan [4]. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda bekor qilingan va o‘zgartirilgan sud qarorlarning jami foizlari 2023-yilda 17,8 foizni, 2024-yilda 49,3 foizni, 2025-yil birinchi yarmida esa 85 foizni tashkil etgan.

Hal qiluv qarorlarini qayta ko‘rish asoslari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko‘ra bir nechta guruhlarga ajratilgan. Ya’ni ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- faktik xatoliklar bilan bog‘liq asoslar
- moddiy huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liq asoslar;
- protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liq asoslar [5].

Protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilishi holatlarini nazariy jihatdan tahlil qilinganida quyidagi ikki guruhga ajratib ko‘rsatish mumkin:

- birinchi guruh sifatida buzilgan yoki noto‘g‘ri qo‘llanilgan protsessual huquq normalari hal qiluv qarorlarini bekor qilishi mumkin bo‘lgan holatlar;
- ikkinchi guruh sifatida har qanday holda hal qiluv qarorlarini bekor qilishi mumkin bo‘lgan asoslar.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda - FPK) 3724-moddasida protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash asoslari keltirilgan [6]. Ushbu moddaning birinchi qismi quyidagicha:

*“Protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi ishning noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina sudning hal qiluv qarorini, ajrimini, qarorini bekor qilinishiga asos bo‘ladi.”*

Ushbu normani tahlil qiladigan bo‘lsak, qachonki protsessual huquq normasining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi hal qiluv qarorini noto‘g‘ri qabul qilinishiga olib kelgan bo‘lsagina ushbu sud hujjatini bekor qilishi yoki o‘zgartirishiga olib keladi. Shu bois, ushbu normani yuqorida keltirilgan birinchi guruhga kiritish mumkin. Mazkur normada yana shunga e’tibor qaratish joizki, faqatgina *“bekor qilish”* to‘g‘risida so‘z boradi. Ammo, protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilishi nafaqat sud hujjatlarini bekor qilishga, balki o‘zgartirishga ham asos bo‘lishi mumkin. Chunki, FPK 3722-moddasida umumiy asoslar keltirilib, ularning oqibatida hal qiluv qarorlari bekor qilinishi ham o‘zgartirilishi ham mumkin.

Moddaning ikkinchi qismida esa quyidagicha

“*Agar*

*1) ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tarkibda yoki taalluqlilik to‘g‘risidagi qoidalar buzilgan holda ko‘rilgan bo‘lsa*

*- ish sud tomonidan sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qilinmagan shaxslardan biror-biri yo‘qligida ko‘rilgan bo‘lsa;*

*- ish ko‘rilayotganida sud ishlari yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;*

*- sud ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi masalani hal qilgan bo‘lsa;*

*- sudning hal qiluv qarorini, ajrimini, qarorini chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;*

*- hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko‘rgan va hal qilgan sudyalardan (sudyadan) boshqa sudyalar (sudya) tomonidan imzolangan bo‘lsa;*

*- sud majlisi bayonnomasi imzolanmagan bo‘lsa, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ham bekor qilinishi mumkin.”*

Mazkur normani tahlil qiladigan bo‘lsak, yuqorida keltirilgan protsessual buzilishlar alohida ta’kidlab o‘tilganligini bilishimiz mumkin. Chunki, ushbu qoidalar fuqarolik protsessual qonunchiligida muhim hisoblanib, ularning buzilishi jiddiy sud xatosi sifatida baholanadi.

Ammo, yuqorida keltirilgan normada sanab o‘tilgan asoslarning mavjudligi hal qiluv qarorlarini bekor qilishi mumkin deya keltirilgan. Bu esa FPK 3724-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarini mazmun jihatidan bir xil darajada ekanligini ko‘rsatadi. Aslida esa, FPK 3724-moddasining ikkinchi qismida sanab o‘tilgan asoslarning mavjudligi hal qiluv qarorini har qanday holda bekor qilinishiga olib kelishi lozim. Chunki, ushbu protsessual qoidalar fuqarolik protsessual qonunchiligida eng muhim normalar sifatida qaraladi. Ularga amal qilmaslik esa sud ishini har qanday holda noto‘g‘ri sud hujjatini qabul qilishiga olib keladi. Misol uchun, ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tarkibda ko‘rilishi oqibatini oladigan bo‘lsak, bunda taraflarning ham moddiy huquqlari ham protsessual huquqlariga bevosita ta’sir o‘tkazishini ko‘rish mumkin. Chunki, sudning g‘ayriqonuniy tarkibda ekanligi, ushbu sud tomonidan ko‘rilgan har qanday vaziyatga nisbatan shubha tug‘diradi va ular tomonidan olib borilgan xatt-harakatlar taraflar tomonidan sudga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘lishiga olib keladi.

Boshqa milliy protsessual qonunchiliklarni tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda - IPK) 279-moddasi to‘rtinchi qismida hal qiluv qarorlarini bekor qilish mumkin bo‘lgan holatlar, beshinchi qismida esa har qanday holda bekor qiladigan asoslar keltirilib o‘tilgan [7]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks (keyingi o‘rinlarda - MSIYtK) 220-moddasida ham yuqoridagi kabi qoidalar belgilangan [8]. Bu shuni anglatadiki, ushbu protsessual qonunchiliklarda protsessual huquq normalarining sud hujjatlariga, ayniqsa hal qiluv qarorlariga ta’sir etish darajasi aniq belgilab qo‘yilgan.

MDH davlatlari fuqarolik protsessual qonunchiliklarini tahlil qiladigan bo‘lsak, Rossiya Federatsiyasi FPK 330-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlarida [9], Qozog‘iston Respublikasi FPK 427-moddasida [10], Belarusiya FPK 424-moddasida [11], Turkmaniston FPK 374-moddasida [12] protsessual huquq normalari buzilishining hal qiluv qarorlariga ta’sir etish darajasiga ko‘ra yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ikkita guruhga ajratib ko‘rsatilgan.

Xorijiy davlatlarning fuqarolik protsessuaal qonunchiliklariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Litva FPK 338-moddasida [13] hamda Germaniya FPK 547-moddasida protsessual huquq normalarining buzilganligi oqibatlari keltirilgan [14]. Ushbu moddalarda ham yuqoridagi kabi protsessual huquq normalari darajalarga ajratilgan holda qonunchilikda belgilangan.

Mazkur tahlillardan kelib chiqqan holda, protsessual huquq normalarining buzilishi oqibatlari va ularning hal qiluv qarorlariga ta’sir etish doirasidagi muammolarga qonunchilikka quyidagicha takliflar orqali yechim topish mumkin:

*Birinchidan,* O‘zbekiston Respublikasi FPK 3274-moddasi birinchi qismini quyidagicha tahrir qilish lozim:

*“Protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi ishning noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina sudning hal qiluv qarorini, ajrimini, qarorini bekor qilinishiga* **yoki o‘zgartirilishiga** *asos bo‘ladi.”*

*Ikkinchidan,* O‘zbekiston Respublikasi FPK 3274-moddasi ikkinchi qismini quyidagicha tahrir qilish lozim:

“Agar:

*7) sud majlisi bayonnomasi imzolanmagan bo‘lsa, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori* **har qanday holda** *bekor qilinishi mumkin.”*

Yoki, ikkinchi qismidagi *“agar:”* so‘zining o‘rniga quyidagicha tahrirda belgilanishi lozim:

*“Quyidagi protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi har qanday holda birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarorini bekor qilish uchun asos bo‘ladi:”*

Shuningdek, sanab o‘tilgan yettita asoslardan oxirgi qismida “*sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ham bekor qilinishi mumkin”* jumlasi olib tashlanishi lozim.

Umumiy xulosa qilib aytganda, fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual huquq normalariga amal qilish moddiy huquq normalaridek muhim ahamiyatga ega. Protsessual huquq normalarining jiddiy buzilishi esa hal qiluv qarorlarini qayta ko‘rishga asos bo‘lib, ularning bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishiga olib keladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi FPK 3724-moddasidagi ayrim kamchiliklarni tuzatish hal qiluv qarorlarining barqarorligiga va protsessual huquq normalarining to‘g‘ri va aniq ishlashiga yordam beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


- Shorahmetov Sh., O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual huquqi. (Darslik). O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. -Toshkent: Adolat, 2007. 536 bet. 232-bet.
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Rayosatining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan 2023-yilning to‘rtinchi choragida kassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud amaliyoti obzori” to‘g‘risidagi qarori. 23.01.2024-yildagi RS-03-24-son // URL: [https://sud.uz/court-experiments/civil-court-experiments/](https://sud.uz/court-experiments/civil-court-experiments/)
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Rayosatining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan 2024-yilning to‘rtinchi choragida taftish instansiyasida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud amaliyoti obzori” to‘g‘risidagi qarori. 24.01.2025-yildagi RS-02-25-son // URL: [https://sud.uz/court-experiments/civil-court-experiments/](https://sud.uz/court-experiments/civil-court-experiments/)
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Rayosatining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan 2025-yilning ikkinchi choragida taftish instansiyasida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud amaliyoti obzori” to‘g‘risidagi qarori.

28.07.2025-yildagi RS-32-son // URL: [https://sud.uz/court-experiments/civil-court-experiments/](https://sud.uz/court-experiments/civil-court-experiments/)

- Abdihakimov S.S. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud xatosi tushunchasi va uning nazariy tahlili // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 85–94. 91-bet // URL: [https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/issue/view/44](https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/issue/view/44)

- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // 01.04.2018 // URL: https://lex.uz/docs/-3517337#-6716209

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi // 01.04.2018 // URL: [https://lex.uz/ru/docs/-3523891](https://lex.uz/ru/docs/-3523891)

- O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks // 01.04.2018 // URL: [https://lex.uz/docs/-3527353](https://lex.uz/docs/-3527353)

- Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksi // URL: [https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39570/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39570/)

- Qozog‘iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // URL: [https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000377](https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000377)

- Belarusiya Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // URL: [https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900238](https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900238)

- Turkmaniston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // URL: [https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=83085](https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=83085)

- Litva Fuqarolik protsessual kodeksi // 18.02.2002 // URL: [https://www.newyorkconvention.org/media/uploads/pdf/5/9/595_code-of-civil-procedure-of-the-republic-of-lithuania.pdf](https://www.newyorkconvention.org/media/uploads/pdf/5/9/595_code-of-civil-procedure-of-the-republic-of-lithuania.pdf)

- Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi // URL: [https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/14316](https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/14316)

# KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT INSTITUTI: O‘ZBEKISTON VA YEVROPA TAJRIBASINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

***S.Sh.Eshmatova***
*Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazorat instituti hamda Yevropa davlatlari, xususan Germaniya tajribasi chuqur qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda konstitutsiyaviy sudlovning nazariy asoslari, markazlashgan modelning xususiyatlari, individual konstitutsiyaviy shikoyat instituti, sud mustaqilligi kafolatlari va sud qarorlarining huquqiy kuchi masalalari o‘rganiladi. Milliy va xalqaro manbalar, sud presedentlari hamda Yevropa inson huquqlari sudi amaliyoti asosida O‘zbekiston konstitutsiyaviy nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so`zlar:*** Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy sud, sud mustaqilligi, sudya Germaniya tajribasi, Bundestag, sud qarorlari, AQSH sudi, nazorat instituti, parlament, sud-huquq tizimi, Buyuk Britaniya, siyosiy partiya, Senat, vakolatlar, konstitutsiyaviy shikoyatlar.

Konstitutsiyaviy nazorat huquqiy davlatning asosiy institutlaridan biri bo‘lib, Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish va davlat hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy chegaralarda amalga oshirilishini kafolatlaydi. Global miqyosda konstitutsiyaviy sudlar demokratik boshqaruvning muhim elementi sifatida e’tirof etilgan. O‘zbekistonda 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar mazkur institutning rolini yanada mustahkamladi.[^2]

Konstitutsiyaviy nazorat instituti mazmunini tushunish uchun, eng avvalo, uning shakllanish bosqichiga alohida e’tibor qaratish zarur hisoblanadi. Yuridik adabiyotlarda konstitutsiyaviy sudlovning dastlabki elementlari Rim imperiyasiga borib taqalishi haqida so`z yuritsa, ayrim olimlar qadimgi Gretsiyadagi amaliyot bilan bog`laydi. Shuningdek, Konstitutsiyaviy nazoratning shakllanishi va sudlar tomonidan amalga oshirilishi XVIII asrning boshlarida Buyuk Britaniyada konstitutsiyaviy nazoratga o`xshash funksiyalarni bajaruvchi Yashirin kengash (Privy Council) faoliyati bilan bog`lab yoritiladi.[^3]

Shuningdek, konstitutsiyaviy nazorat nazariy jihatdan markazlashgan va markazlashmagan modellarga ajratiladi. Markazlashgan model Hans Kelsen tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, u maxsus konstitutsiyaviy sud tashkil etishni nazarda tutadi. Yevropa davlatlarining aksariyati aynan ushbu modelni qo‘llaydi.

Markazlashmagan model esa AQSh tajribasiga xos bo‘lib, barcha sudlarga konstitutsiyaviy nazorat vakolatini beradi.

Ayrim olimlar yozma konstitutsiya mavjud bo`lgan davlatdagina konstitutsiyaviy nazorat amalga oshirilishi mumkin degan fikrlarni ilgari suradi. Shu bois konstitutsiyaviy nazorat vujudga kelishining dastlabki bosqichlari jahondagi birinchi yozma konstitutsiya vatani – AQSHda konstitutsiyaviy nazoratning paydo bo`lishi bilan bog`liq ravishda yoritiladi. AQSH Oliy sudida 1800-yilda “Merberi Medisonga qarshi” ishi ko`rildi va u bugungi kundagi zamonaviy konstitutsiyaviy nazorat institutining vujudga kelishiga sabab bo`ldi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda “Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida”gi Qonuni konstitutsiyaviy nazoratning huquqiy asosini tashkil etadi. Mazkur Qonunning 3-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi doimiy faoliyat yurituvchi sud hokimiyati organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi

Shuningdek, Z.Islomovga ko`ra, “Parlament tomonidan qabul qilingan qonunni konstitutsiyaviy yoki boshqa biror sud konstitutsiyaga zid deb topishi mumkin, ammo faqat qonun chiqaruvchi hokimiyat uni bekor qiladi oladi”.[^4]

A.M. Hoshimxonov esa “Konstitutsiyaviy nazorat – oliy yuridik kuchga ega sifatida Konstitutsiyaning himoya qilinishi maqsadida amalga oshiriladigan sof huquqiy ekspertiza bo`lib, unda normativ-huquqiy hujjatlar ba’zan sud qarorlari, oliy mansabdorlar faoliyati) konstitutsiyaga moslik jihatidan bahonalanadi[^5] deb qayd etadi.

So‘nggi yillardagi islohotlar sud mustaqilligini kuchaytirish, sudyalarning maqomini mustahkamlash va konstitutsiyaviy adolatni ta’minlashga qaratilgan. Shunga qaramay, individual konstitutsiyaviy shikoyat mexanizmining to‘liq joriy etilishi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) konstitutsiyaviy sudlarining tajribasini tahlil etadigan bo`lsak, sud ikki bosqichli tizimiga ega:

- Federatsiya darajasida: Federal Konstitutsiyaviy sud;
- federal Landlar darajasida: Landlarning konstitutsiyaviy sudlari.

Federal Konstitutsiyaviy sud avtonom va boshqa barcha konstitutsiyaviy organlardan mustaqil bo'lgan federal suddir.

Germaniya Federal konstitutsiyaviy sudi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudidan farqli o`laroq, o`ziga xos xusiyatga ega bo`lgan keng vakolatlarga ega bo`lgan organ sanaladi. Uni “egizak sud” deb ham atash mumkin. Chunki, u bir vaqtning o`zida ham konstitutsiyaviy sud, ham konstitutsiyaviy organ hisoblanadi. Mazkur konstitutsiyaviy sud har biri sakkiz sudyadan iborat ikkita Senatdan tashkil topgan. Birinchi Senat, birinchi navbatda, fuqarolarning asosiy huquqlariga oid konstitutsiyaviy shikoyatlar bilan shug`ullansa, ikkinchi Senat esa konstitutsiyaviy organlar (masalan, federal hukumat va parlament o`rtasidagi) o`rtasidagi nizolarni ko`rib chiqadi. Ikkinchi Senat parlament a’zolari va siyosiy partiyalarning huquqlari, shuningdek, ba’zi asosiy huquqlar masalalari bo`yicha qaror ham qabul qiladi. Birinchi Senatga Prezident, ikkinchi Senatga esa Vitse-prezident rahbarlik qiladi. Har bir Senatdagi sudyalarning yarmi Bundestag tomonidan, qolgan yarmi esa Bundesrat tomonidan saylanadi. Har bir Senatning kamida uchta a’zosi oliy federal sudlardan, xususan Federal Adliya sudi, Federal Ma’muriy sud, Federal Moliya Sudi, Federal Mehnat Sudi va Federal Ijtimoiy Sudidan saylanishi shart. O`zbekiston Respublikasida esa O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to`g`risidagi ishlarni ko`radigan doimiy faoliyat yurituvchi sud hokimiyati organi hisoblanadi.

Germaniya Federal konstitutsiyaviy sudida har bir sudyaga oddiy sudlarda, davlat organlarida, yuridik firmalarda yoki universitetlarda tegishli kasbiy tajribaga ega bo`lgan to`rt nafar sudya kotibi yordam beradi.

Qirq yoshga to`lgan, Bundestagga saylanish huquqiga ega bo`lgan va Federal Konstitutsiyaviy sud a’zosi bo`lishga tayyorligini yozma ravishda e’lon qilgan shaxs Germaniya Federal konstitutsiyaviy sudi Sudyasi bo`lishi mumkin. Bundan farqli ravishda, O`zbekiston qonunchiligiga ko`ra esa Siyosat va huquq sohasi mutaxassisi bo‘lgan, yuksak ma’naviy fazilatlarga va zarur malakaga ega bo‘lgan, o‘ttiz besh yoshdan kichik bo‘lmagan hamda yetmish yoshdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylanishi mumkin.[^6]

Germaniya Federal konstitutsiyaviy sudi Sudyalarining vakolat muddati 12 yilni tashkil etadi. 68 yoshga to’lgach nafaqa chiqadi va vakolat muddati tugaydi. O’zbekistonda esa Konstitutsiyaviy sud raisi va uning o‘rinbosari Konstitutsiyaviy sud tomonidan Konstitutsiyaviy sud

sudyalari orasidan besh yil muddatga saylanadi. Agar ularning Konstitutsiyaviy sudning sudyasi sifatidagi vakolatlari muddati tugashiga besh yildan kam qolgan bo‘lsa, ular qolgan muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs Konstitutsiyaviy sud raisi yoki uning o‘rinbosari etib ikki muddatdan ortiq saylanishi mumkin emas.[^7]

Germaniya Federal konstitutsiyaviy sudiga har qanday shaxs asosiy huquqlarini himoya qilish uchun konstitutsiyaviy shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin. Konstitutsiyaviy shikoyatlar hozirgacha Federal Konstitutsiyaviy sud tomonidan hal qilinadigan ishlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Shuningdek, Germaniya Fedaral konstitutsiyaviy sudining ish yuklamasi O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy sudi ish yuklamasidan ancha yuqori bo’lib, unga har yili 6000 dan ortiq konstitutsiyaviy shikoyatlar kelib tushadi. Kelib tushgan murojaatlarni hal qilish uchun uchtadan a’zodan tashkil topgan tarkibda Palatalar tuziladi. Odatda ushbu palatalar umumiy konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo'lmagan ishlarni hal qiladi, bu esa barcha sud ishlarining taxminan 99 foizini tashkil qiladi.[^8]

Umuman olganda, Germaniya Federal Konstitutsiyaviy Sudi konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishda keng vakolatlarga ega bo’lgan organdir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, O’zbekiston konstitutsiyaviy sudining vakolatlar doirasini kengaytirish konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish mexanizmini yanada takomillashtirishga o’z hissasini qo’shgan bo’lardi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar bo`yicha xalqaro tajriba va O`zbekiston sud-huquq tizimi tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston va Germaniya tizimlari markazlashgan modelga asoslangan. Biroq Germaniyada individual konstitutsiyaviy shikoyat mexanizmi keng rivojlangan. Sud mustaqilligi kafolatlari va sudyalarning tayinlanish tartibi ham ancha mustahkam. Hozirda Respublikamizda konstitutsiyaviy nazorat instituti rivojlanish bosqichida bo`lib, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida uni takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Yurtimizda yildan yilga islohotlar keng amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, sud-huquq tizimida, xususan, konstitutsiyaviy sud va nazorati yuzasidan ba’zi kamchiliklar mavjud. Ushbu mavjud muammolarni hal qilish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surilmoqda.

*Birinchidan,* individual konstitutsiyaviy shikoyat institutini bosqichma-bosqich kengaytirish lozim. Natijada, zamonaviy konstitutsiyaviy nazorat tizimini takomillashtirishning muhim

yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur institut shaxsga o‘zining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilgan deb hisoblagan hollarda bevosita konstitutsiyaviy nazorat organiga murojaat qilish imkonini berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa inson huquqlarining oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi, davlat organlari faoliyatida qonun ustuvorligi ta’minlanishi hamda huquqni qo‘llash amaliyotida konstitutsiyaviy mezonlarning ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, individual konstitutsiyaviy shikoyat institutini kengaytirish bir necha bosqichlarni o‘z ichiga olishi lozim. Avvalo, murojaat qilish subyektlari doirasini kengaytirish, ya’ni jismoniy va yuridik shaxslarga o‘z huquqlari buzilgan holatlarda konstitutsiyaviy himoya mexanizmidan foydalanish imkoniyatini berish zarur. Keyingi bosqichda shikoyat berish tartibini soddalashtirish, protsessual talablarni aniq belgilash va elektron murojaat shakllarini joriy etish orqali ushbu institutning amaliy samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

*Ikkinchidan,* sud mustaqilligini institutsional va moliyaviy jihatdan mustahkamlash zarur hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, sud mustaqilligini institutsional va moliyaviy jihatdan mustahkamlash sudlarning siyosiy yoki ma’muriy bosimlardan xoli holda faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qiladi. Institutsional jihatdan sud tizimining tashkiliy mustaqilligini kuchaytirish, sudyalarni tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibining shaffof hamda aniq mezonlarga asoslanishi, sudyalar daxlsizligi va ularning kasbiy faoliyatiga aralashuvni cheklash muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy mustaqillik esa sudlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sudyalar va sud xodimlari mehnatini munosib rag‘batlantirish hamda sud tizimining alohida byudjet orqali barqaror moliyalashtirilishini nazarda tutadi. Bu omillar sudyalar faoliyatida xolislikni ta’minlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va sud tizimining jamiyatdagi obro‘sini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, sud mustaqilligini kuchaytirish nafaqat tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni, balki sud tizimini moliyaviy jihatdan barqaror qo‘llab-quvvatlashni ham talab etadi.

*Uchinchidan,* sud qarorlarining ijro mexanizmini kuchaytirish va Yevropa inson huquqlari sudi amaliyotini integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Sud qarorlarining to‘liq va o‘z vaqtida ijro etilishi sud hokimiyatining samaradorligi va adolatli sudlovning real ta’minlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar chiqarilgan sud hujjatlari amalda

bajarilmasa, sud himoyasi institutining mazmuni susayadi va fuqarolarning sudga bo‘lgan ishonchi kamayadi. Shu bois, sud qarorlarining ijrosini ta’minlash tizimini takomillashtirish, majburiy ijro organlarining vakolat va mas’uliyatini aniq belgilash, ijro jarayonini raqamlashtirish hamda ijro intizomini kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishda xalqaro standartlarni milliy amaliyotga joriy etish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yevropa inson huquqlari sudi amaliyotini milliy sudlar faoliyatiga kengroq integratsiya qilish inson huquqlarini himoya qilish standartlarini mustahkamlash, sud qarorlarining asoslantirilganligi va adolatliligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu sudning precedential yondashuvi va huquqiy pozitsiyalarini o‘rganish milliy sudlar uchun muhim metodologik manba bo‘lib, sud qarorlarining sifatini oshirish hamda xalqaro majburiyatlarga mos huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa shuki, Konstitutsiyaviy nazorat instituti demokratik davlatning ajralmas elementi hisoblanadi. O‘zbekiston tizimi barqaror shakllangan bo‘lsa-da, Germaniya tajribasi asosida uni yanada takomillashtirish mumkin. Bu esa Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlash va inson huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, sud qarorlarining ijro mexanizmini kuchaytirish va xalqaro sud amaliyotini integratsiya qilish sud tizimining samaradorligini oshirish, fuqarolarning buzilgan huquqlarini real tiklash hamda sud hokimiyatining nufuzini mustahkamlashda asosiy vazifa bajaradi.

## Foydalanilgan manbalar:


- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- “O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi to`g`risida”gi Qonun;
- Abdullayeva M.M. Konstitutsiyaviy nazorat va konstitutsiyaviy odil sudlov. Darslik. T.: TDYU, 2024. – 208 b;
- Исламов З.М. Общество. Государство. Право. – Т.: Адолат, 2001. – С;
- Hoshimxonov A.M. Konstitutsiyaviy sudlov. O`quv qo`llanma. Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. O.T.Xusanov. – T.: TDYU nashriyoti, 2010;
- Hans Kelsen, Pure Theory of Law (University of California Press 1967);
- Basic Law for the Federal Republic of Germany 1949;

- Lüth (1958) BVerfGE 7, 198 (Federal Constitutional Court of Germany).

# SUN’IY INTELLEKT VA HUQUQ: NAZARIYA, MUAMMOLAR VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

***A.K.Turg‘unboyev***
*Sarbon universiteti o‘qituvchisi*
*[tabror054@gmail.com]*
*+998994715166*
***M.K.Mamajonov***
*Sarbon universiteti o‘qituvchisi*
*[Assertiveboy17@icloud.com]*
*+998932642497*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida huquq sohasida yuzaga kelayotgan muhim muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Javobgarlik, shaffoflik, ma’lumotlar himoyasi va huquqiy subyektlik kabi asosiy huquqiy kategoriyalar SI kontekstida o‘rganiladi. Dunyoning yetakchi olimlari – Ryan Calo, Harry Surden, Luciano Floridi va boshqalarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, O‘zbekistonning raqamli va huquqiy islohotlari nuqtai nazaridan amaliy xulosalar chiqariladi.

**Kalit so‘zlar:***sun’iy intellekt, huquq, javobgarlik, algoritmik qaror, huquqiy subyekt, shaffoflik, ma’lumotlar himoyasi, raqamli iqtisodiyot.*

Sun’iy intellekt (SI) – bu insonning bilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini dasturiy tizimlar orqali taqlid etuvchi texnologiyalar majmuasidir [1]. Bugun SI tibbiyotda kasalliklar diagnostikasi, sud tizimida prognoz modellari, moliyada kredit berish qarorlari, transport sohasida avtonom harakatda tobora keng qo‘llanilmoqda. Bu jarayon nafaqat texnologik, balki chuqur huquqiy muammolarni ham ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

Yevropa Parlamenti 2017-yildayoq sun’iy intellekt va robotlar sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish zarurligini rasman tan olib, bu borada maxsus qaror qabul qildi [2]. 2024-yilda esa Yevroopa Ittifoqi “Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi qonun” (AI Act)ni qabul qilib, jahon huquqiy amaliyotida birinchi bo‘lib ushbu sohadagi keng qamrovli tartibga solish tizimini joriy etdi.

Sun’iy intellektning huquqiy munosabatlarga ta’siri avvalo “tushunarlillik” (interpretability) muammosi bilan bog‘liq. Harvard universiteti professori Finale Doshi-Velez ta’kidlashicha, algoritmik tizimlar qaror qabul qilish jarayoni ko‘pincha “qora quti” (black box) tarzida ishlaydi – ya’ni natija ma’lum bo‘lsa-da, unga qanday erishilgani tushunarsiz bo‘lib qoladi.

Bu holat sud jarayoni, tibbiy ma’lumotlar yoki kredit berish kabi sohalar uchun o‘ta xavfli: inson o‘ziga nisbatan qabul qilingan avtomatik qarorni, uning asosini bilmay turib, qanday qilib himoya qiladi ?[3].

Amerikalik huquqshunos Ryan Calo SI siyosatiga bag‘ishlangan asosiy maqolasida to‘rtta huquqiy muammo guruhini ajratib ko‘rsatadi: **javobgarlik**, **shaffoflik**, **xavfsizlik** va **huquqiy subyektlik**. Uning fikricha, an’anaviy huquq institutlari SI fenomeniga javob berishga to‘la tayyor emas, chunki ular inson xatosi yoki tashkilot mas’uliyati asosida qurilgan [4].

O‘zbekiston Respublikasi amaldagi Fuqarolik kodeksi va qonunchiligiga ko‘ra, huquqiy subyektlik faqat jismoniy,yuridik shaxslar va davlatga beriladi. SI tizimlari esa hozirgi kunda na jismoniy, na yuridik shaxs maqomiga ega, demak ular huquq va majburiyatlarning mustaqil tashuvchisi bo‘la olmaydi. Shunga qaramay, ushbu tizimlar odamlarga ta’sir etuvchi qarorlar qabul qilmoqda – bu huquqiy ziddiyat uchun yangi maydon yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son Qarori mamlakatda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish yo‘lida muhim qadam sifatida baholanadi,[5] ammo ushbu hujjat asosan ilmiy-texnik rivojlanishga qaratilgan bo‘lib, huquqiy mas’uliyat masalalarini to‘liq qamrab olmaydi. Bu – qonunchilikdagi bo‘shliqni ko‘rsatadi.

Luciano Floridi boshchiligidagi tadqiqotchilar guruhi “Yaxshi SI jamiyati axloqiy doirasi” maqolasida shaffoflik (transparency), adolat (fairness), mas’uliyat (accountability) va ta’sir yo‘nalishlarini SI axloqining to‘rt asosiy tamoyili sifatida belgilaydi [6].

Bu tamoyillar nazariy jihatdan jozibali, ammo ularga rioya qilishni ta’minlovchi mexanizmlar yo‘q bo‘lsa, ular deklaratsiya bo‘lib qoladi. Masalan, kredit berish algoritmi muayyan ijtimoiy guruhga nisbatan kamsituvchi natijalarga olib kelsa, kimga da’vo qilinadi: dastur ishlab chiqaruvchisigami, foydalanuvchi bankgami yoki ma’lumot yetkazib beruvchigami?

Harry Surden bu masalani “algoritmik mas’uliyatlilik” (algorithmic accountability) tushunchasi orqali tahlil qilib, mavjud to‘rt huquqiy doktrinasi SI tizimlaridagi zarar uchun mas’uliyatni to‘liq qamray olmasligini isbotlaydi: zarar ko‘pincha biron bir aniq inson harakatisiz, jarayon o‘zida yashirin tarzda ro‘y beradi[7].

YuNESKO 2021-yildagi “Sun’iy intellekt axloqi bo‘yicha tavsiyasi”da insonning ustunligi (human oversight) va algoritmik qarorlarga e’tiroz bildirish huquqi (right to contest) asosiy kafolat mexanizmlari sifatida ilgari suriladi[8]. OECD esa 2019-yili qabul qilingan SI tamoyillarida “ishonchli SI” (trustworthy AI) kontseptsiyasini ishlab chiqib, uning asosi sifatida shaxs huquqlarini hurmat qilishni belgilaydi[9].

O‘zbekiston uchun bu masala yanada dolzarb: raqamlashtirish jarayoni shiddat bilan davom etar ekan, ma’lumotlarni himoya qilish va shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlovchi mexanizmlar hali yetarlicha shakllangan emas. Huquqiy tizimni yangilash esa texnologiyadan ham tezroq harakat qilishni taqozo etadi.

Nicholas Diakopoulos “Algoritmik hisobdorlik” maqolasida SI qarorlarini nazorat qilishning eng ishonchli yo‘li – ularni tashqi audit va mustaqil tekshiruvga ochiq qilish, deb ta’kidlaydi[10]. Bu taklif amaliyotga tatbiq etilganida yirik platformalar va davlat tizimlarida algoritmik disk’iminatsiya holatlarini aniqlash imkonini berishi ko‘rsatilgan.

SI ning real dunyodagi ijobiy imkoniyatlari beqiyosdir: sud jarayonlarini tezlashtirish, qonunchilik tahlilini avtomatlashtirish, jinoyatchilikni oldini olish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish. Ammo shu bilan birga, xavflar ham katta: noto‘g‘ri prognoz asosida begunoh odamlar qamoqqa olinishi, aholining muayyan guruhlariga nisbatan kamsituvchi algoritmik qarorlar, shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish va ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish.

Marchetti va Tomasello kabi olimlar “avtonom tizimlar mas’uliyati” masalasini tahlil qilib, huquqiy tizimlar uchun uchta variantni taklif qiladi: **1) ishlab chiqaruvchi mas’uliyati**, 2) **foydalanuvchi mas’uliyati**, 3) **SI uchun alohida huquqiy maqom**. Uchinchi variant hali jahon amaliyotida qabul qilinmagan, ammo akademik muhokama faol davom etmoqda[11].

2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida e-hukumat, raqamli xizmatlar va AI texnologiyalarini joriy etishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan[12].Bu esa mamlakat uchun SI

huquqiy tartibga solishini kechiktirmaslik zarurligini yanada aniqroq ko‘rsatmoqda.

Sun’iy intellekt – bu faqat texnologik inqilob emas, balki huquqiy tizimning o‘zini qayta ko‘rib chiqishga majbur etuvchi sivilizatsion o‘zgarishdir. Javobgarlik, shaffoflik, huquqiy subyektlik va ma’lumotlar himoyasi – ushbu to‘rtta masala hozirgi kunda jahon huquqiy fani oldida turgan eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Mashhur fizik va futurist Max Tegmark o‘zining “Life 3.0” asarida yozadi: texnologiyaning kelajagi insoniyat uchun nafli bo‘lishi uchun biz bugun umumiy qadriyatlar asosida harakat qilishimiz kerak[13]. Bu ibrat huquqshunoslar uchun ham bevosita tegishli: SI texnologiyalarini tartibga solish uchun umumiy huquqiy tamoyillar, xalqaro muvofiqlashtirish va milliy qonunchilikni yangilash zarur.

O‘zbekiston uchun bu yo‘nalishda quyidagi choralar ustuvor ahamiyat kasb etadi: birinchidan, SI sohasidagi maxsus qonunchilikni ishlab chiqish; ikkinchidan, algoritmik qarorlarni nazorat qiluvchi mustaqil organ yaratish; uchinchidan, sud va prokuratura amaliyotida SI dan foydalanish tamoyillarini belgilab qo‘yish. Bu choralar mamlakat raqamli siyosatini huquqiy jihatdan mustahkamlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va huquq o‘rtasidagi munosabat – bu raqobat emas, hamkorlik bo‘lishi lozim. Huquq SI ni tartibga solish uchun, SI esa huquqni samarali amalga oshirish uchun xizmat qilsa, ikkala soha ham rivojlanadi va fuqarolik jamiyati manfaatlariga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1.Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. – Hoboken: Pearson, 2021. – P. 1.

2.European Parliament Resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics (2015/2103(INL)).URL:https://www.europarl.europa.eu/doceo/document/TA-8-2017-0051_EN.html

3.Doshi-Velez F., Kim B. Towards A Rigorous Science of Interpretable Machine Learning // arXiv:1702.08608 [stat.ML]. – 2017. – URL:
[https://arxiv.org/abs/1702.08608](https://arxiv.org/abs/1702.08608).

4. Calo R. Artificial Intelligence Policy: A Primer and Roadmap // UC Davis Law Review. – 2017. – Vol. 51. – P. 399–435.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son Qarori “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish” Strategiyasi. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7158604#-7160996.

6.Floridi L. et al. An Ethical Framework for a Good AI Society: Opportunities, Risks, Principles, and Recommendations // Minds and Machines. – 2018. – Vol. 28. – P. 689–707.

7. Surden H. Artificial Intelligence and Law: An Overview // Georgia State University Law Review. – 2019. – Vol. 35, No. 4. – P. 1305–1337.

8. UNESCO Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence, adopted 23 November 2021. – Paris: UNESCO, 2021. – P. 7–12.

## YURIDIK SHAXSLARNING ISHCHANLIK OBRO‘SI MUHOFAZASI ZAMONAVIY SHAKLLARI

***J.G‘.Saidmusayev***
*Sarbon universiteti katta o‘qituvchisi*
*[Jasurbeksaidmusaev@gmail.com]*
*+998951895530*
***M.K.Mamajonov***
*Sarbon universiteti o‘qituvchisi*
*[assertiveboy17@icloud.com]*
*+998932642497*

**Annotatsiya.**Ushbu maqolada yuridik shaxslarning ishchanlik obro‘sini muhofaza qilishning zamonaviy shakllari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda an’anaviy fuqarolik-huquqiy vositalar – ya’ni zarar uchun kompensatsiya talabi va majburiy rad etish mexanizmlari – bilan bir qatorda raqamli muhitda paydo bo‘lgan yangi himoya usullari ham ko‘rib chiqilgan. Xususan, internet platformalardan zararli kontentni o‘chirish, “unutilish huquqi” va kiber-tahdidlarga qarshi kurash vositalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, mediatsiya va arbitraj kabi muqobil nizo hal etish mexanizmlari, shuningdek profilaktik monitoring tizimlari va krizis-kommunikatsiya strategiyalarining ahamiyati yoritilgan. Maqola xulosasida yuridik shaxslar uchun samarali obro‘ muhofazasi ko‘p qatlamli, kompleks yondashuvni talab etishi ta’kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** *tadbirkorlik subyektlari, shartnoma, ishchanlik obro‘si, litsenziat, nomulkiy huquq, difffamasiya, raqamli muhofaza.*

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan har qanday tashkilot o‘zining bo‘lajak kontragentlari yoki mijozlari tomonidan o‘z majburiyatlarini to‘g‘ri bajaradigan ishonchli sherik sifatida qabul

qilinishidan manfaatdor bo‘ladi. Yuridik shaxsning ishchanlik muhitida shakllangan fazilatlari to‘g‘risidagi fikr uning ishchanlik obro‘sini tashkil etadi. Mazkur obro‘ yuridik shaxs tashkil topgan paytdan boshlab unga tegishli bo‘lgan va uning huquqiy layoqatining ajralmas qismini ifodalovchi nomulkiy huquq sifatida tan olinadi [1].

Erkin bozor iqtisodiyoti va yuqori raqobatning rivojlanishi sharoitida ishchanlik obro‘si tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda. Muvaffaqiyatli biznesni ijobiy ishchanlik obro‘sisiz barpo etish mumkin emas, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatining natijalari ko‘p jihatdan uning atrofdagilarda qoldirgan taassurotiga tayanadi[2]. Raqobat muhitida har bir yuridik shaxs benuqson ishchanlik obro‘sini shakllantirishga intiladi, zero bu uning raqobatbardoshligi, rivojlanish barqarorligi va foydaga erishishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 99-moddasiga muvofiq, shaxsning hayoti va sog‘lig‘i, sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi hamda mualliflik huquqi shaxsiy nomulkiy huquqlar sirasiga kiradi [3]. Fuqarolik kodeksining 100-moddasiga ko‘ra esa fuqaroning ishchanlik obro‘sini himoya qilish to‘g‘risidagi qoida yuridik shaxsning ishchanlik obro‘sini himoya etishga nisbatan ham tegishli yo‘sinda qo‘llaniladi.

Ishchanlik obro‘si tor ma'noda yakka tartibdagi tadbirkorlar va turli tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslarni qamrab oladi. Keng ma'noda esa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatidan tashqarida rivojlanadigan kasbiy va xizmat ko‘rsatish obro‘sini ham o‘z ichiga oladi [4]. Huquq nazariyasida ishchanlik obro‘si mulkiy baholanishi mumkin bo‘lgan, ammo o‘z mohiyatiga ko‘ra nomulkiy xususiyatga ega bo‘lgan maxsus huquqiy kategoriya sifatida tavsiflanadi.

Yuridik shaxsning ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan ma'lumotlar deganda tashkilotning o‘zi, shuningdek uning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi salbiy ma'lumotlarning tarqatilishi tushuniladi. Jumladan, muayyan mahsulotning sifatsizligi, tashkilotning o‘z mijozlariga nisbatan insofsiz xatti-harakatlari yoki tashkilot tomonidan shartnoma shartlarini buzganligi haqidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, faqat tashkilot faoliyatini baholovchi ma'lumotlar uning ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi sifatida tan olinadi, tashkilotning mansabdor shaxslarini emas [5]. Masalan, tashkilot

rahbarining xodimlarni noqonuniy ravishda ishdan bo‘shatganligi haqidagi ma'lumot tashkilotning ishchanlik obro'siga bevosita zarar yetkazuvchi sifatida qabul qilinmaydi.

“Tadbirkorlik erkinligi kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyati subyekti o‘z ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan ma’lumotlarga, agar bunday ma’lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to‘g‘ri kelishini isbotlay olmasa, raddiya berilishini sud tartibida talab qilishga haqlidir[6]. Mazkur qoida muhim protsessual ahamiyatga ega: isbotlash yuki javobgar zimmasiga yuklatiladi, ya'ni tarqatuvchi o‘z ma'lumotlarining to‘g‘riligini o‘zi isbotlashi shart.

Tadbirkorlik faoliyati subyektining ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilgan bo‘lsa, raddiya ayni shu OAV orqali berilishi lozim. Agar bunday ma'lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda mavjud bo‘lsa, mazkur hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerak. Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanadi.

Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘sini pastga uruvchi ma'lumotlarni rad etish haqidagi talablar, ma'lumotlar qanday shakl va uslubda tarqatilganidan qat'i nazar, sudga taalluqlidir. Bunday ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida, xizmat ta'rifnomalarida, ko‘pchilik oldida so‘zlanganda, mansabdor shaxslar nomiga yozilgan arizalarda yoki boshqa – shu jumladan og‘zaki – shaklda bir necha shaxsga yoxud bir kishiga xabar qilish tarqatish hisoblanadi. Mazkur ma'lumotlarni faqatgina o‘sha shaxsning o‘ziga aytish esa tarqatish deb qaralmasligi huquq nazariyasi va sud amaliyotida mustahkam o‘rin egallagan.

Tadbirkorlik faoliyati subyekti o‘z ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan ma'lumotlar tarqatilganda, raddiya bilan bir qatorda:

*tarqatilgan ma'lumotlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararning qoplanishini; ma'naviy zarar kompensatsiya qilinishini ham talab etishga haqli.*

Bu turdagi nizolarni ko‘rishda sudlar quyidagi holatlarni har tomonlama aniqlashi lozim:

*a)raddiya berilishi talab qilinayotgan ma'lumotning tarqatilgan yoki tarqatilmaganligi;*

*b) bu ma'lumotlar yuridik yoki jismoniy shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘siga putur yetkazgan yoki yetkazmaganligi;*

*v) bu ma'lumotlarning haqiqatga to‘g‘ri kelib-kelmasligi.*

Ushbu uch mezon birgalikda baholanmasdan, ishchanlik obro‘siga zarar yetkazilganligini huquqiy jihatdan tasdiqlash mumkin emas. Sud amaliyotida ushbu mezonlarning har biri alohida dalillar bilan tasdiqlanishi talab etiladi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar faoliyatiga nisbatan buzilgan huquqlarini tiklash uchun sudlarga murojaat qilishga haqli. Ishchanlik obro‘sini pastga uruvchi ma'lumotlarning haqiqatga to‘g‘ri kelishini tasdiqlash majburiyati javobgar zimmasiga yuklatiladi. Zamonaviy sharoitda ishchanlik obro‘sini muhofaza qilish nafaqat an'anaviy sud yo‘li, balki raqamli vositalar, muqobil nizo hal etish mexanizmlari va profilaktik monitoring tizimlari kabi kompleks yondashuvlarni ham o‘z ichiga olishi zarur. Yuridik shaxsning ishchanlik obro‘si – bu nafaqat huquqiy kategoriya, balki uning bozordagi mavqei, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishining asosi hamdir.

1.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 99-modda. Shaxsiy nomulkiy huquqlar ro‘yxati va ularning tavsifi. – Toshkent, 1996 (so‘nggi tahrir bilan).

2.Zenin I.A. Fuqarolik huquqi: akademik bakalavriat uchun darslik. – 17-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan va to‘ldirilgan. – M.: Yurayt nashriyoti, 2015. – 655 b. – (Seriya: Bakalavr. Akademik kurs). – B. 214.

3.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 100-modda. Yuridik shaxsning ishchanlik obro‘sini himoya qilish. – Toshkent, 1996.

4.Eriashvili N.D., Qurbonov R.A. va boshqalar. Fuqarolik huquqi asoslari: “Huquq” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan universitet talabalari uchun darslik. – M.: UNITY-DANA: Qonun va qonun, 2015. – 455 b. – B. 178.

5.Suxanov E.A. (mas'ul muharrir). Rossiya fuqarolik huquqi: Darslik: 2 jildda. T. I: Umumiy qism. Mulk huquqi. Meros huquqi. Intellektual huquqlar. Shaxsiy nomulkiy huquqlar. – M.: Nizom, 2009. – 958 b. – B. 391.

6.O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik erkinligi kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, 35-modda. Tadbirkorlik faoliyati subyektining ishchanlik obro‘sini himoya qilish huquqi. – Toshkent, 2012.

7.Tixomirova L.V., Tixomirov M.Yu. Ma'naviy zararni qoplash: sharhlar, sud amaliyoti va namunaviy hujjatlar. – M.: “Tixomirov M.Yu.” nashriyoti, 2011. – B. 89–94.

8.Mikryukov V.A. Fuqaroning o‘z qiyofasini nashr etish va undan foydalanishga tabaqalashtirilgan roziligi to‘g‘risida // Huquq va iqtisodiyot. – 2013. – № 2. – B. 47–51.

## MARKAZIY OSIYODA IQLIM SIYOSATI MINTAQA TARAQQIYOTINING GEOSIYOSIY OMILI

***G.A.Bekdurdiyeva***
*Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida iqlim o‘zgarishining geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda suv resurslari tanqisligi, agrar sektor samaradorligining pasayishi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi hamda iqlim siyosatining mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlikka ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, iqlim o‘zgarishining mintaqada resurslar uchun raqobatni kuchaytirishi, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solishi va ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi dalillar bilan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari iqlim siyosatini strategik darajada takomillashtirish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** iqlim o‘zgarishi, Markaziy Osiyo, geosiyosat, suv resurslari, oziq-ovqat xavfsizligi, migratsiya, barqaror rivojlanish.

Bugungi globallashuv sharoitida iqlim o‘zgarishi insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, tabiiy resurslarga boy, biroq ekologik jihatdan zaif hududlardan biri bo‘lgan Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishining ta’siri yanada keskin sezilmoqda. Haroratning oshishi, suv resurslarining qisqarishi va cho‘llanish jarayonlarining kuchayishi mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy barqarorligi hamda siyosiy munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois iqlim siyosati nafaqat ekologik masala, balki geosiyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik jihatlarini qamrab oluvchi kompleks muammo sifatida ilmiy tadqiqotlar markaziga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishi mintaqaviy rivojlanishning geosiyosiy yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Mintaqada haroratning oshishi, yog‘in-sochin rejimining o‘zgarishi va muzliklarning qisqarishi kabi jarayonlar iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda[1]. So‘nggi o‘n yilliklarda mintaqada o‘rtacha harorat 1,5–2°C ga oshgani qayd etilgan bo‘lib, bu global o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori sur’atni tashkil etadi. Xususan, Tyanshan va Pomir tog‘laridagi muzliklar hajmi XX asr o‘rtalariga nisbatan qariyb 30% ga qisqargani ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlangan. Bu jarayonlar suv resurslari ta’minotiga

bevosita ta’sir ko‘rsatib, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv oqimining kamayishiga olib kelmoqda.

Birinchidan, suv resurslari bilan bog‘liq muammolar iqlim siyosatining geosiyosiy mazmunini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv oqimining kamayishi natijasida mintaqa davlatlari o‘rtasida resurslardan foydalanish bo‘yicha ziddiyatlar ehtimoli ortmoqda. Mahalliy olimlar ushbu jarayonni mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholaydilar[2].

Yaqin yillarda kuzatilayotgan haroratning barqaror o‘sishi, anomal issiq davrlarning ko‘payishi hamda yog‘in-sochin miqdori va taqsimotidagi o‘zgarishlar suv xo‘jaligi tizimiga sezilarli bosim o‘tkazmoqda. Ayniqsa, tog‘li hududlardagi muzliklarning qisqarishi dastlab suv hajmining vaqtinchalik ortishiga olib kelayotgan bo‘lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda suv resurslari tanqisligi xavfini keskin oshirmoqda. Mazkur jarayonlar iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga ham bevosita ta’sir qiladi. Suv resurslariga kuchli bog‘liq bo‘lgan qishloq xo‘jaligida hosildorlik pasayishi, yerlarning degradatsiyasi va oziq-ovqat xavfsizligining zaiflashuvi kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, suv oqimining o‘zgaruvchanligi gidroenergetika imkoniyatlariga ta’sir etib, ayrim davlatlarda energiya ishlab chiqarish barqarorligini izdan chiqarishi ehtimolini kuchaytiradi. Iqlim o‘zgarishining ijtimoiy oqibatlari ham kam ahamiyatga ega emas. Tabiiy resurslarning kamayishi va iqtisodiy sharoitlarning murakkablashuvi aholining turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ichki migratsiya oqimlarini kuchaytiradi. Natijada yirik shaharlarga bosim ortadi, infratuzilmaviy muammolar keskinlashadi va ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Umuman olganda, iqlim o‘zgarishi Markaziy Osiyoda faqat ekologik muammo sifatida emas, balki resurslar boshqaruvi, iqtisodiy rivojlanish va siyosiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi kompleks geosiyosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, mintaqa davlatlari oldida iqlim siyosatini strategik darajada takomillashtirish, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va moslashuv choralarini tizimli ravishda amalga oshirish vazifasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ikkinchidan, iqlim o‘zgarishining agrar sektor va oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri alohida ilmiy e’tiborni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qurg‘oqchilik va cho‘llanish jarayonlari qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini pasaytirib, iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi[3]. Bu esa iqlim siyosatini iqtisodiy siyosat bilan integratsiyalash

zaruratini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, iqlim o‘zgarishining agrar tarmoqqa va oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri ilmiy adabiyotlarda alohida ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Kuzatuvlar va empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qurg‘oqchilik chastotasining ortishi, yerlarning degradatsiyasi va cho‘llanish jarayonlarining kengayishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmini qisqartirib, hosildorlik darajasining pasayishiga olib kelmoqda[3]. Masalan, O‘zbekistonda qurg‘oqchilik kuzatilgan yillarda paxta va g‘alla hosildorligi 10–25% gacha pasaygani qayd etilgan. Shuningdek, cho‘llanish jarayoni natijasida Markaziy Osiyoda 60 million gektardan ortiq yer degradatsiyaga uchragan[7]. Bu esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini izdan chiqarib, oziq-ovqat importiga qaramlikni oshirish xavfini kuchaytiradi. Bunday tendensiyalar esa nafaqat agrar sektor samaradorligiga, balki umumiy makroiqtisodiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, iqlim omillarini hisobga olgan holda iqtisodiy siyosatni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Xususan, qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanish, iqlimga moslashuvchan texnologiyalarni joriy etish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks choralarni ishlab chiqish iqlim siyosati va iqtisodiy siyosat o‘rtasidagi uzviy integratsiyani taqozo etadi.

Uchinchidan, iqlim siyosati mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida iqlim o‘zgarishiga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati ilmiy adabiyotlarda alohida ta’kidlanadi[2]. Bu esa iqlim siyosatini geosiyosiy muvozanatni ta’minlovchi vosita sifatida ko‘rsatadi. Bundan tashqari, mintaqaviy darajada yagona yondashuvni shakllantirish suv-energetika balansini ta’minlash, qurg‘oqchilik va cho‘llanish oqibatlarini yumshatish hamda ekologik xavfsizlikni mustahkamlash imkonini beradi. Bu jarayonda qo‘shma dasturlar va investitsiya loyihalarini amalga oshirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, iqlim siyosati iqtisodiy manfaatlar, ekologik barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasida muvozanatni ta’minlovchi kompleks mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, iqlim siyosati mintaqada ishonchni mustahkamlovchi va geosiyosiy muvozanatni ta’minlovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Zero, tabiiy resurslardan foydalanish borasidagi kelishmovchiliklarni kamaytirish, manfaatlar muvozanatini saqlash hamda umumiy ekologik tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish davlatlar

o‘rtasida konstruktiv muloqotni rivojlantiradi. Bu esa Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyot va xavfsizlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

To‘rtinchidan, iqlim o‘zgarishi ijtimoiy barqarorlikka ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ekstremal ob-havo hodisalari, qurg‘oqchilik va tabiiy ofatlar aholi turmush darajasiga, bandlikka va migratsiya jarayonlariga ta’sir etib, ichki siyosiy barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin[4]. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi ichki va tashqi migratsiya jarayonlarini jadallashtiradi. Noqulay ekologik sharoitlar tufayli aholi yashash uchun qulay hududlarga ko‘chishga majbur bo‘ladi, bu esa shaharlarda infratuzilma yuklamasining ortishiga, uy-joy ta’minoti va ijtimoiy xizmatlar tizimiga bosimning kuchayishiga olib keladi. Migratsiya oqimlarining tartibga solinmaganligi esa ijtimoiy keskinlik, ishsizlik darajasining oshishi va ayrim hollarda nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishining sog‘liqni saqlash tizimiga ta’siri ham ijtimoiy barqarorlik uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Issiq haroratning ortishi, suv resurslarining ifloslanishi va sanitariya sharoitlarining yomonlashuvi turli kasalliklar tarqalish xavfini kuchaytiradi. Bu esa davlatning ijtimoiy xarajatlarini oshirib, iqtisodiy resurslar taqsimotiga qo‘shimcha bosim yuklaydi.

Umuman olganda, iqlim o‘zgarishi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqaruvchi omil sifatida namoyon bo‘lib, u iqtisodiy, demografik va siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Shu bois, ushbu muammolarni yumshatish uchun iqlimga moslashuv siyosatini kuchaytirish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish va barqaror bandlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, iqlim siyosati zamonaviy xavfsizlik konsepsiyasida noan’anaviy tahdid sifatida qaralmoqda. Shu bois u davlatlarning strategik rivojlanish dasturlariga integratsiyalashib, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash vositasiga aylanmoqda[5]. Iqlim o‘zgarishi resurslar tanqisligini kuchaytirib, ayniqsa suv va yer resurslari ustidan raqobatni keskinlashtiradi. Bu esa ayrim hollarda davlatlar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishiga yoki mavjud qarama-qarshiliklarning chuqurlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligining zaiflashuvi, energetika barqarorligining buzilishi va iqtisodiy yo‘qotishlar ijtimoiy norozilikni kuchaytirib, ichki xavfsizlikka ham tahdid soladi.

Bundan tashqari, iqlim bilan bog‘liq ofatlar favqulodda vaziyatlar sonining ortishiga olib kelib, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini sinovdan o‘tkazadi. Infratuzilmaning zararlanishi, logistika zanjirlarining uzilishi va iqtisodiy faoliyatning sekinlashuvi milliy xavfsizlikning iqtisodiy komponentiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, iqlim siyosati favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, risklarni boshqarish va barqaror infratuzilmani rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq holda shakllantirilmoqda. Jahon banki prognozlariga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi oqibatida 2050-yilga borib Markaziy Osiyo davlatlarida YAIM 5–10% gacha kamayishi mumkin[6]. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatib, xavfsizlik muammolarini kuchaytiradi. Shu bois iqlim siyosati milliy xavfsizlik strategiyalariga integratsiyalashib bormoqda

Natijada, iqlim siyosati nafaqat ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan yo‘nalish, balki keng qamrovli xavfsizlik strategiyasining muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi. U davlatlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, global va mintaqaviy darajada xavflarni kamaytirish hamda barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiluvchi kompleks mexanizmga aylanmoqda.

Markaziy Osiyoda iqlim siyosati ekologik muammo doirasidan chiqib, kompleks geosiyosiy hodisaga aylangan. U mintaqada resurslar uchun raqobat, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni belgilovchi asosiy determinant sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning samaradorligi mintaqa davlatlarining o‘zaro hamkorlik darajasi, resurslarni boshqarishning institutsional mexanizmlari hamda global iqlim boshqaruvi tizimiga integratsiyalashuviga bevosita bog‘liqdir.

Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishining agrar sektor, energetika va sanoatga ta’siri iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatib, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Ijtimoiy jihatdan esa, migratsiya jarayonlarining kuchayishi, bandlik muammolari va hududlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar ijtimoiy siyosatni iqlim omillari bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, iqlim siyosati zamonaviy xavfsizlik konsepsiyasining ajralmas qismiga aylanib, noan’anaviy tahdidlar qatorida davlatlarning strategik kun tartibidan mustahkam o‘rin egallamoqda. Bu esa iqlim omillarini milliy xavfsizlik strategiyalari, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik tizimlari hamda risklarni boshqarish mexanizmlariga integratsiyalashni taqozo etadi. Natijada, iqlim siyosatining samaradorligi, avvalo, mintaqa davlatlarining o‘zaro

hamkorlik darajasi, resurslarni boshqarishning samarali institutsional mexanizmlari hamda global iqlim boshqaruvi tizimiga integratsiyalashuviga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi: iqlimga moslashuv strategiyalarini chuqurlashtirish, suv-energetika resurslarini adolatli va samarali taqsimlash, innovatsion “yashil” texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


- Fayzullo Z. *Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishi: geografik tahlil* (2026). //https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/11759

- Savriyeva I.B. *Markaziy Osiyo mintaqasida iqlim o‘zgarishi holati va moslashuv strategiyalari* (2020). https://www.devos.uz/files/3284.pdf?

- Muxammadiyev Sh. *Global iqlim o‘zgarishining Markaziy Osiyo qishloq xo‘jaligiga ta’siri* (2024). [https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0039/1.23.Muxammadiyev.pdf](https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0039/1.23.Muxammadiyev.pdf)?

- BMT Taraqqiyot Dasturi. *Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishiga chidamlilik masalalari* (2023). https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/markaziy-osiyo-mamlakatlari-iqlim-ozgarishiga-chidamlilik-uchun-erta-ogohlantirish-tizimlarini-muhokama-qilmoqda?

- *O‘zbekistonda “yashil” o‘sish va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha siyosiy muloqotlar* (Jahon banki va milliy institutlar, 2022). [https://zoinet.org/wp-content/uploads/2022/07/UZB-WB-Green-Growth-2022-uz.pdf](https://zoinet.org/wp-content/uploads/2022/07/UZB-WB-Green-Growth-2022-uz.pdf)?

- Jahon banki va milliy institutlar. *O‘zbekistonda “yashil” o‘sish va iqlim siyosati* (2022). // [https://zoinet.org/wp-content/uploads/2022/07/UZB-WB-Green-Growth-2022-uz.pdf](https://zoinet.org/wp-content/uploads/2022/07/UZB-WB-Green-Growth-2022-uz.pdf)

# YURIDIK TA’LIMNI ISLOH QILISH BO’YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING MAZMUN MOHIYATI

***S.B.Ravshanov,***
*Sarbon universiteti*
*“Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi,*
*ravshanovsurat03@gamil.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim tizimini kompleks modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlarning nazariy-huquqiy asoslari, ustuvor yo‘nalishlari hamda ularning mazmun-mohiyati tizimli ravishda ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida yuridik ta’limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar evolyutsiyasi, ta’lim tizimining institutsional transformatsiyasi, kadrlar tayyorlash jarayoniga innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi hamda ta’limning amaliyot bilan integratsiyalashuv darajasi kompleks yondashuv asosida o‘rganilgan.

Shuningdek, maqolada yuridik ta’limning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, xalqaro standartlarga moslashish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi zamonaviy mexanizmlar tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari asosida yuridik ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va mehnat bozori talablariga moslashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** yuridik ta’lim, ta’lim islohotlari, huquqiy tizim, institutsional rivojlanish, innovatsion yondashuv, uzluksiz ta’lim, dual ta’lim, Legal Tech, raqamlashtirish va amaliy kompetensiyalar.

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro huquqiy makon bilan integratsiyaning chuqurlashuvi hamda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida yuridik ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining strategik omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy bosqichda huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi, yangi ijtimoiy-iqtisodiy institutlarning shakllanishi va raqamli transformatsiya jarayonlari yuridik kadrlar tayyorlash tizimiga nisbatan mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda

Shu nuqtai nazardan, malakali, raqobatbardosh va keng qamrovli kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan yuridik mutaxassislarni tayyorlash, ularning analitik fikrlash, huquqni qo‘llash amaliyoti va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda yuridik ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar nafaqat ta’lim mazmunini yangilash, balki uning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ta’lim va

amaliyot integratsiyasini kuchaytirish hamda xalqaro ta’lim standartlariga moslashishni ta’minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir[1].

Yuridik ta’lim islohotlarining normativ-huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni, avvalo, mustahkam normativ-huquqiy baza yaratilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu yo‘nalishdagi tub burilish 2020-yil 29-aprelda qabul qilingan Prezident farmoni bilan bog‘liq bo‘lib [2], mazkur hujjatda yuridik ta’lim tizimining mavjud holati tanqidiy tahlil qilinib, uning asosiy muammolari tizimli ravishda ochib berilgan. Xususan, ta’lim sifati va samaradorligining yetarli darajada emasligi, nazariy bilimlarning amaliyot bilan uzviy bog‘lanmaganligi, ilmiy tadqiqotlarning fragmentar xarakter kasb etishi hamda innovatsion yondashuvlarning yetarlicha joriy etilmaganligi asosiy kamchiliklar sifatida qayd etilgan.

Mazkur farmon yuridik ta’limni rivojlantirishning konseptual asoslarini belgilab berib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashtirdi:

ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish;

yuridik fan sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, ilmiy maktablarni shakllantirish;

ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va xalqaro ta’lim standartlarini milliy tizimga integratsiya qilish;

ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hamda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.

Keyingi bosqichda, xususan 2025-yilda qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlarda [3] mazkur islohotlar mantiqiy davom ettirilib, yuridik ta’lim tizimini xalqaro darajaga olib chiqish, uning eksport salohiyatini oshirish hamda ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, ushbu hujjatlar doirasida ta’lim jarayonini amaliyotga maksimal darajada yaqinlashtirish, dual ta’lim elementlarini keng joriy etish, sud-huquq organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning yangi shakl va usullarini tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Natijada, yuridik ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza izchil takomillashib borib, u nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etishga, balki istiqbolda ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim omilga aylandi.

Institutsional islohotlar va ta’lim tizimini transformatsiya qilish. O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim tizimini tubdan yangilash jarayonida institutsional islohotlar alohida o‘rin tutadi. Mazkur islohotlarning markaziy g‘oyasi sifatida uzluksiz ta’lim konsepsiyasini amaliyotga joriy etish e’tirof etilib, “maktab – akademik litsey – texnikum – oliy ta’lim muassasasi” [4] zanjiri asosida yuridik kadrlarni tayyorlashning yaxlit va izchil tizimi shakllantirildi. Ushbu model huquqiy bilimlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishini erta aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlash imkonini beradi.

Mazkur tizim doirasida iqtidorli o‘quvchilarni saralash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar joriy etildi. Xususan, umumta’lim maktablarida ixtisoslashtirilgan “huquq sinflari” tashkil etilishi orqali o‘quvchilarda dastlabki huquqiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘lga qo‘yildi. Akademik litsey bitiruvchilarini yuridik texnikumlarga imtiyozli asosda qabul qilish tizimi esa ta’limning keyingi bosqichlariga o‘tishda uzviylik va izchillikni ta’minlashga xizmat qilmoqda[5].

Shu bilan birga, yuridik texnikumlar faoliyatini kengaytirish orqali o‘rta bo‘g‘in yuridik kadrlarini tayyorlash tizimi takomillashtirildi. Bu esa nafaqat oliy ma’lumotli mutaxassislar, balki amaliyotga yo‘naltirilgan o‘rta maxsus yuridik kadrlar yetishmovchiligining oldini olishga xizmat qiladi. Institutsional o‘zgarishlarning yana bir muhim jihati – ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashdan iborat bo‘lib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim resurslari, interaktiv o‘quv vositalari hamda rivojlangan internet infratuzilmasi bilan ta’minlash ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Natijada, yuridik ta’lim tizimining institutsional tuzilmasi zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirilib, uning samaradorligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshirilmoqda.

Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Yuridik ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida yuridik faoliyatning ko‘plab yo‘nalishlari raqamlashtirilayotganligi sababli, ta’lim jarayonida ham innovatsion yechimlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda

Shu nuqtai nazardan, “Elektron universitet” konsepsiyasi asosida ta’lim jarayonini raqamlashtirish, o‘quv jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish, shuningdek masofaviy ta’lim platformalarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu esa ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda[6].

Bundan tashqari, yuridik faoliyatga oid zamonaviy yo‘nalishlardan biri bo‘lgan Legal Tech elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalar huquqiy axborot tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi huquqiy tahlil vositalari hamda elektron hujjat aylanishi tizimlari bilan ishlash ko‘nikmalarini egallamoqda. Raqamli hujjat aylanishi tizimining joriy etilishi esa huquqiy jarayonlarning shaffofligi va tezkorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda

Shuningdek, yuridik ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “Legal Writing” metodikasi orqali talabalarning huquqiy hujjatlarni to‘g‘ri va asosli tuzish ko‘nikmalari rivojlantirilsa, “Street Law” dasturlari orqali huquqiy bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazish va amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoniyati yaratilmoqda[7].

Bundan tashqari, xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlarini (double degree) joriy etish orqali talabalar ikki diplom olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa milliy yuridik ta’lim tizimining xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishi yuridik ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, uning zamonaviy talablar va global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanishini ta’minlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son Farmoni

**3.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son Farmoni

**4.** Mahmudov M.K. “Yangi O‘zbekistonda yuridik ta’limni takomillashtirish”

**5.** Abdurasulova S.S., Nazarov E.Sh. “O‘zbekistonda yuridik ta’lim ahamiyatli jihatlari”

**6.** Kun.uz: “O‘zbekistonda yuridik ta’lim va fanni qanday o‘zgarishlar kutmoqda?”

**7.** Adliya organlari rasmiy manbalari: “Yurist kadrlarni tayyorlashda yangi islohotlar”

# O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOIY FAROVONLIKNI TA’MINLASH YO‘LIDAGI HUQUQIY ISLOHOTLAR TAHLILI

***A.N.Meliboyev**, Qo‘qon DU,*
*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*
***D.I.Ergashev** Qo‘qon DU, talaba*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kundagi glabal muammolardan biri hisoblangan kambag’allik va qashshoqlik muammolari va uning kamaytirish maqsadida O‘zbekistonning amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar kontekstida kambag‘allikni qisqartirish va ijtimouy farovonlikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirayotgan ko‘p qirrali strategik rejalarning mazmun-mohiyati va bu maqsadga erishishning umumnazariy, metodologik va falsafiy tamonlari haqida fikr mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** kambag‘allikni qisqartirish, qashshoqlik, ijtimoiy himoya, ijtimoiy farovonlik, bandlikni ta’minlash, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar, BMT, Xalqaro forum, straregiya.

Dunyoda galabal muammolardan biri hisoblangan kambag‘allik va qashshoqlikni tushunish va qisqarqtirish statistik o‘lchov yoki iqtisodiy aralashuvdan ko‘ra ko‘proq narsani talab qiladigan dinamik va rivojlanayotgan jarayondir. Bu mahrumlik, istisno, cheklanganlik, va zaiflik kabi insoniy (ba’zida g‘ayriinsoniy va achinarli ko‘rinadigan) voqeliklarga chuqur kirishishni talab qiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.05.2019 yildagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi pq-4307-sonli, o‘zbekiston respublikasi prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarori, 23.09.2024 yildagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” PF-143-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2024 yildagi PQ-347-sonli “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.09.2024 yildagi PQ-330-sonli “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2025 yildagi PQ-12-sonli “2025-yilda Aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[106]gi qarorlarini ijrosini ta’minlashdan asosiy maqsad ham shu kabi muammolarni moxiyatiga yetib borib ulaning jamiyatimizga solishi mumkin bo’lgan xafini oldini olishdir. Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha faoliyati global miqyosda qashshoqlikni bartaraf etish va insonlar turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

**Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM):** BMTning 2015-yilda qabul qilingan kun tartibida 1-maqsad sifatida "Kambag'allikka barham berish" belgilangan bo'lib, unga ko'ra, 2030-yilga qadar barcha turdagi qashshoqlikka to'liq barham berish ko'zda tutilgan.

**O'zbekistondagi hamkorlik:** BMTning O'zbekistondagi Taraqqiyot dasturi (BMTTD) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda kambag'allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy himoya tizimlarini mustahkamlash bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

**Xalqaro tajriba almashinuvi:** O'zbekistonning kambag'allikka qarshi kurashishdagi tajribasi xalqaro miqyosda, xususan, BMT ekspertlari tomonidan yuqori baholanib, forumlarda muhokama qilinmoqda.

So‘nggi yillarda nafaqat siyosat vositalarida, balki kambag‘allikni kontseptsiyalash usulida ham o‘zgarishlar kuzatildi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston kambag‘allikni qisqartirish, xalqaro rivojlanish asoslariga moslashish va muhim institutsional islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha sa’y-harakatlarini faollashtirdi. Iqtisodiyotni liberallashtirish va ijtimoiy islohotlarning kengroq to‘lqinining bir qismi bo‘lgan kambag‘allikni qisqartirish milliy strategiyasining qabul qilinishi bilan burilish nuqtasi bo‘ldi. Ushbu strategiyada daromad olish darajasini oshirish, sifatli davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va inklyuziv iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Hukumat kambag‘allikni nafaqat iqtisodiy muammo, balki tarmoqlararo va odamlarga yo‘naltirilgan yondashuvni talab qiluvchi ijtimoiy va

[106] https://lex.uz/docs/-7327821

institutsional muammo sifatida ham belgiladi. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan sa’yharakatlarning asosiy tarkibiy qismi aholi bandligini ta’minlashdir. Aholini kambag‘allikdan chiqarishda samarali bandlikning rolini e’tirof etgan holda, hukumat infratuzilmani rivojlantirish, sanoatni diversifikatsiya qilish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratishga ustuvor ahamiyat berdi. Kasbiy ta’lim va malaka oshirishga qaratilgan dasturlar mehnat resurslarini o‘tish davridagi iqtisodiyot talablariga moslashtirish uchun ishlab chiqilgan. Maxsus iqtisodiy zonalar va qishloqlarni rivojlantirish dasturlari shahar markazlaridan tashqarida bandlik imkoniyatlarini kengaytirish va shu orqali mintaqaviy tafovutlarni bartaraf etishda muhim ro‘l o‘ynadi. O‘zbekistonda 2024-yil 1-noyabrdan boshlab amalga oshirilayotgan «Kambag‘allikdan farovonlik sari» dasturi yettita imkoniyat va mas’uliyat tamoyili asosida tashkil etilgan. Bu tamoyillar kambag‘al oilalar bilan ishlashda ularga ta’lim, kasb-hunar, tibbiyot, infratuzilma va tadbirkorlik kabi sohalarda imkoniyatlar yaratish hamda o‘zaro mas’uliyatni oshirishni nazarda tutadi.

**Dasturning asosiy tamoyillari (yettita imkoniyat va mas'uliyat):**

- **Ta'lim imkoniyati:** Bolalarning maktabgacha ta'lim va sifatli ta'lim olishi.
- **Kasb-hunar o'rgatish:** Kasbiy malaka oshirish va hunar o'rganish.
- **Tibbiy xizmat:** Tibbiy tekshiruvlardan o'tish va sog'liqni saqlash
- **Infratuzilma:** Uy-joy sharoitini yaxshilash va zarur kommunal xizmatlar bilan ta'minlash.
- **Tadbirkorlik:** Tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ko'mak va imtiyozli kreditlar.
- **Ijtimoiy yordam:** Ijtimoiy himoya tizimi orqali moddiy ko'mak.
- **Mas'uliyat:** O'z oilasi farovonligi uchun harakat qilish va ishlash mas'uliyati.

Dasturning hayotga tadbiq qilinishidan kutilayotgan natijalar har birimizni hursand qilishi quvonarli albatta. Bu boradagi yutuqlar misoliga – ’’Yurtimizda ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, davlat ko‘magiga muhtoj oilalarga sifatli xizmat ko‘rsatish doimiy e’tiborda. Shu maqsadda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgan, tumanlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu jarayonda 2 million 300 mingdan ziyod oila qamrab olingan. Bu 2017 yilga nisbatan 4 barobar ko‘p. So‘nggi uch yilda ko‘makka muhtoj 3 million aholining

turmush sharoiti yaxshilandi[^3]. Albatta bu strategik islohotlarning umumilliy va uzviy davom etishi jamiyatimiz farovonligining asosoiy mezonidir.

Yuqoridagi fikrlarimizni xulosalab shuni aytishimiz kerakki millatning, xalqning yuksalishi va hayotimizning farovonligi insoniyat davrlar evolutsion jarayonlarining xulosalari shubhasiz eng asosoy me’zon -ilm ekanligining ko‘rsatadi. Shu o‘rinda Shavkat Mirziyoyevning- “Prezidentimizning ushbu o‘gitlarini har bir yosh qulog‘iga quyib, yuragiga joylab olishi zarur: «Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, «Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir»[^4]!” deya ta’kidlari qanchalik asosli ekanligi hech bir jamiyatimizning ongli fuqarosiga sir emas.

# SHAXSGA QARSHI JINOYATLARNING TAVSIFI, TAHLILI VA OLDINI OLISHDAGI ICHKI ISHLAR ORGANLARINING O‘RNI
## (Samarqand viloyati misolida)

***V.A.Xomidov***
*Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*
*ORSID: 0000-0002-3083-0772*
*e-mail:alialiyev779@gmail.com*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada shaxsga qarshi jinoyatlar turlari, ularning sodir etish usullari, shaxsga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashishda Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan talablar, shaxsga qarshi jinoyatlarning tahlili, jinoyatlarning viktimiologiyasi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, shaxsga qarshi jinoyatlarni oldini oldini olishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, hayot, sog‘liq, huquqbuzarlik, jinoyat, profilaktika, qonun, konstututsiya.

Mamlakatimizda amalga oshipilayotgan cud-huquq iclohotlapning acociy maqcadi incon huquqlapi va manfaatlapi to‘la-to‘kic ta’minlanadigan huquqiy davlat va epkin fuqapolik jamiyatini pivojlantipishdan ibopat. Bu bopada jinoyat huquq tapmoqida kechayotgan iclohotlap ham, eng avvalo, demokpatik huquqiy jamiyat qupish, xalq fapovonligini oshipish, incon manfaatlapini oliy qadpiyat dapajaciga ko‘tapish, shahclapning haq-huquqlapi himoyacini ta’minlashga yo‘naltipilgan.

O‘zbekicton Pecpublikaci Ppezidenti Shavkat Mipziyoev ta’kidlaganidek, «Bugungi kunda mamlakatimizda yupitilayotgan davlat ciyocatining acl mohiyati va pipovapd maqcadi – xalqimizning dapdu tashvishlapi, hayotiy muammo va ehtiyojlapidan doimo xabapdop bo‘lib, uning moddiy fapovonligini oshipish, munocib tupmush dapajaci va cifatini ta’minlash, tinch hayotini himoya qilishdip» [1]. Ushbu nuqtai nazardan, shaxcga qapshi jinoyatlapga qapshi kupash cohacidagi davlat ciyocati va uning bugungi kundagi imkoniyatlapi to‘g‘picidagi bilimlapni oshirish muhim ahamiyat kacb etadi.

Inson hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati hamda huquq va erkinliklarini kafolatlash konstitutsiya bilan tartibga solingan. Xususan, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining “Shaxsiy huquq va erkinliklar” deb nomlanuvchi VII-bobi 25-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir” yoki 26-moddasida “Insoning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kasitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas”, shuningdek, 27-moddasida “Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega” [2] ekanligi to‘g‘risidagi qoidalar bosh qomusimizda qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi 1994 yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi maxsus qismining birinchi bo‘limida “Shaxsga qarshi jinoyatlar” ko‘rsatib o‘tilgan[3]. Unga asosan *shaxsga qarshi jinoyatlar – bu* fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i jinsiy erkinligi hamda asosiy shaxsiy huquqlariga qarshi qaratilgan Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli jinoyatlardir.

Shaxsga qarshi jinoyatlar turli darajada xavfli bo‘lib, insonni hayotdan, tabiiy va ijtimoiy ne’matlardan bahramand bo‘lish, xotirjam va farovon yashash hamda [faoliyat](https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/faoliyat-uz/) ko‘rsatish, jismoniy, ruhiy va ma’naviy aziyat chekmay o‘z qobiliyatini [namoyon](https://qomus.info/encyclopedia/cat-n/namoyon-uz/) qilishdan mahrum etishlikda ifodalanadi. Shaxsga qarshi jinoyatlarning aksariyati bilaturib, g‘araz maqsadlarda, qasddan, guruh bo‘lib sodir etiladi, ba’zilari esa, ehtiyotsizlik, beparvolik va [harakatsizlik](https://qomus.info/encyclopedia/cat-h/harakatsizlik-uz/) oqibatida yuz beradi [4].

Shaxsga qarshi jinoyatlarni olti guruhga ajratilgan:

1) hayotgaqarshi jinoyatlar;

2) sog‘liqqa qarshi jinoyatlar;

3) shaxs erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar;

4) jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar;

5) inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar;

6) oila va voyaga etmaganlarga qarshi jinoyatlar

Jinoyat huquqi nazariyasida va tergov amaliyotida ham zo‘rlik tushunchasi murakkab mazmun kasb etadi. Chunki, zo‘rlik bir qator jinoyatlarning ob’ektiv tomonini ko‘rsatib beruvchi belgilaridan biri bo‘lib, turli ma’nolarni tavsiflashi mumkin. Zo‘rlik o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki xil: 1) jismoniy;2)ruhiy (psixologik)bo‘lishi mumkin.Ularning har biri ichki bo‘linishga ega.

Jumladan, ularning ikkalasi ham o‘zining doimiyligi va muntazamligiga ko‘ra, hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan hamda hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlikka bo‘linadi. Yana ruhiy zo‘rlikning o‘ldirish yoki sog‘liqqa og‘ir shikast etkazish bilan qo‘rqitib sodir etiladigan turlariga bo‘linadi.

Dalat insonning hayotga, sog‘lig‘iga, shaxs erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatiga, jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka, inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarni oldini olishda fuqarolarning normal hayot kechirishi uchun zarur huquqlarni hurmat qilish va ularni asrash, shuningdek ularga tajovuz etmaslikni, shaxslar o‘rtasidagi qonunda belgilangan ijtimoiy munosabatlarga amal qilishni talab qiladi. Shu sababli ushbu ijtimoiy munosabatlar jinoyat qonuni bilan himoya qilinadi.

O‘zbekiston jinoyat huquqida shaxslarning sog‘lig‘i va hayoti, jismoniy daxlsizligi tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarni himoya qilishga keng o‘rin ajratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining X bob

54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir” deb bejizga ko‘rsatib o‘tilmagan. Demak, davlat insonning sog‘lig‘i va hayoti, jismoniy daxlsizligi va Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquqlarini ta’minlashni o‘z zimmasiga olib, qonunlarni qo‘llash orqali amalga oshiradi. Inconning hayoti va cog‘lig‘i shaxcning bebaho boyligi hicoblanib, uning bu boyligidan mahpum etilishi yoki shikact etkazilishi og‘ip jinoyat hicoblanadi. Bu eca, ushbu tupdagi jinoyatlapning xavflilik dapajaci yuqopi ekanligini ko‘pcatadi, shuningdek, shaxcga qapshi jinoyatlapni ijtimoiy xavflilik dapajacining yuqopiligi, ulapning codip etilishi natijacida hayot va cog‘liq, jinciy epkinlik, oila va yoshlapning manfaatlapi, axloq nopmalapi, shaxcning

ozodligi, sha’ni va qadp-qimmati, fuqapolapning konctitutsiyaviy huquq va epkinliklapiga jiddiy zapap etkazilishi bilan ifodalanadi.

Shaxsni, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish Jinoyat kodeksining asosiy vazifalari *(2-modda)* sifatida qayd etilganligi qonunlarda shaxs xayoti, sog‘lig‘i, uning huquq va erkinliklari nechog‘lik muhum ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shaxslarning hayotiga qarshi har qanday qasddan sodir etilgan jinoyat hamisha dunyoning barcha mamlakatlarida uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o‘lim jazosi bilan jazolanadigan o‘ta og‘ir jinoyat bo‘lib kelgan va hozir ham shunday ekanligi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV hisobotlariga ko‘ra, Samarqand viloyatida 2024 yilning 4 oyida jami **1306 ta** jinoyatlar ro‘yhatga olingan bo‘lib, shundan **49 ta**si yoki jami sodir etilgan jinoyatlarning 3,7 foizi fosh etilmagan.

Shaxsga qarshi sodir etilgan jinoyatlar turlari bo‘yicha tahlil qilinganda, 2024 yilning **4 oyi**da jami **143 ta**ni yoki jami sodir etilgan jinoyatlarning **10,9 foiz**ini *(shundan, 6 tasi qasddan odam o‘ldirish, 19 tasi qasddan badanga og‘ir shikast etkazish, 37 tasi qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast etkazish, 57 tasi qasddan badanga engil shikast etkazish, 13 tasi nomusga tegish, 10 tasi oilaviy zo‘ravonlik, 1 tasi odam o‘g‘irlash)* tashkil etgan bo‘lsa, hisobot davrida ushbu turdagi jinoyatlarning barchasi fosh etilganligini alohida qayd etish lozim [5].

Samarqand viloyatida 2024 yilning 4 oyida jami 805 ta oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar sodir etilgan bo‘lsa, 100 ming aholiga nisbatan salmog‘i qasddan odam o‘ldirish 0,1 foizni, qasddan badanga og‘ir shikast etkazish 0,5 foizni, qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast etkazish 0,9 foizni, badanga engil shikast etkazish 7 foizni, nomusga tegish 1,6 foizni, oilaviy zo‘ravonlik 1,2 foizni, odam o‘g‘irlash 0,1 foizni tashkil etgan.

Tahlillarga ko‘ra, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning 1 tasi yoki 3,2 foizi *(nomusga tegish)* voyaga etmaganlar tomonidan, 2 tasi yoki 0,6 foizi *(qasddan badanga og‘ir shikast etkazish)* yoshlar tomonidan, 1 tasi yoki 1,1 foizi *(qasddan badanga og‘ir shikast etkazish)* ayollar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, 2 tasi yoki 2,5 foizi *(qasddan badanga og‘ir shikast etkazish)* muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan, 1 tasi yoki 1,1 foizi *(qasddan badanga og‘ir shikast etkazish)* guruhlar tomonidan sodir etilga

Statistik ma’lumotlarning tahlillaridan ham ko‘rishimiz mumkinki amaliyotda shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning

umumiy profilaktikasini tashkil etishda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda ayrim muammolar xam ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan:

- shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini samarali tashkil etish metodikasi ishlab chiqilmagan
- shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi aksariyat hollarda qonunlarning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositaliri orqali yoritib berish bilan cheklanib qolmoqda
- shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to‘liq tadqiq etilmasdan nomigagina aniqlash, uni bartaraf etishda esa faqatgina muhokama bilan cheklanmoqda;
- shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan chiqarilayotgan taqdimnomalarning aksariyati nomigagina rasmiylashtirayotgani, taqdimnomaning ijrosi bilan esa xech kimni qiziqtirmayotgani;
- shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning aholi o‘rtasida targ‘ibot qilinishi ham eskicha usulda faqat og‘zaki ma’ruza qilish bilan cheklanayotganligi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3723-sonli qaroriga [6] ilova qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish” Konsepsiyasidan kelib chiqib, “Jinoyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish, fuqarolarga yuksak huquqiy madaniyatni singdirish, ularni Konstitutsiya qa qonunlarga amal qilish ruhida tarbiyalash” nazarda tutilgan bo‘lib, o‘z navbavtida, bu shaxsga qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jabrlanuvchi hulq-atvorini e’tiborga olish va ushbu jinoyatlar viktimligining profilaktikasiga doir tegishli taklif va tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

Shuni alohida takidlash lozimki, jamiyatda ma’lum bir turdagi huquqbuzarlik va jinoyatchilik sodir etilsa, davlat hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar e’tibori asosiy kuch va vositalarini jinoyatchi shaxsni topish hamda unga nisbatan adolatni jazo tayinlash masalasiga

qaratilishi sir emas. Jabrlanuvchining esa odatda protsessual harakatlarda ishtirok etishi inobatga olinadi. Ammo uning jinoyat sodir etilishidan oldingi, jinoyat sodir etilishi vaqtidagi hamda jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlari ko‘p e’tiborga olinmaydi. Aslida, jinoyatchi va jabrlanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat inkor etib bo‘lmaydigan darajada murakkab hisoblanadi. Chunki aynan shu munosabat ko‘pincha jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun sodir etilayotgan jinoyatlarni o‘rganib, viktimologik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlarda jabrlanuvchi va jinoyatchi o‘rtasidagi munosabatlar ochib berilgan. Alohida turdagi jinoyatlar bo‘yicha viktimologik profilaktika qilish yuzasidan milliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan [7].

Shaxsning xayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora tadbirlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

aholi o‘rtasidagi huquiy targ‘ibot o‘tkazish;

huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish hamda huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish [8].

Ichki ishlar organlarining shaxsning xayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning umumiy proflaktikasini quyidagicha amalga oshirishi belgilab berilgan:

1) shaxsning xayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini amalga oshirish yuzasidan vazirlikda idoraviy dastur ishlab chiqilib, tasdiqlanadi hamda ijro etish uchun hududiy ichki ishlar organlariga yuboriladi, bu borada davlat dasturi tasdiqlanganida uning ijrosini ta’minlash maqsadida idoraviy dastur ishlab chiqilishi hamda ishlab chiqilgan dastur ijro etish uchun hududiy ichki ishlar organlariga yuborilishi mumkin;

2) shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi yuzasidan vazirlikning idoraviy dasturi asosida sohaviy xizmatlar hamda joylardagi ichki ishlar organlari ham o‘z dasturlarini ishlab chiqadilar

3) shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida chiqishlar

qilish, qonferensiya, davra suhbatlari, ilmiy-amaliy seminarlar va uchrashuvlar tashkil etish, aholi gavjum joylarda shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasi mazmuniga ega bo‘lgan plakatlar, e’lonlar o‘rnatish, video roliklar namoyish qilish, ogohlikka chaqiruvchi ovozli matnni eshittirish kabi profilaktik chora-tadbirlar asosida amalga oshiriladi;

4) sohaviy xizmatlar o‘z xizmat faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha huquqiy targ‘ibot ishlarini olib boradi. Huquqiy targ‘ibotni olib borish yuzasidan tashkil etilgan tadbirlarga boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini belgilangan tartibda jalb etish mumkin

5) muayyan shaxsda g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga yoki shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning sodir etilishiga, shuningdek bir guruh shaxslarda g‘ayriijtimoiy hulq-atvorning shakllanishiga yoki shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning sodir etilishiga turtki bergan sabablarni va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydilar, ularni bartaraf etish yuzasidan vazirliklar, qo‘mitalar, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga taqdimnomalar kiritib boradilar va ushbu taqdimnomalar muhokamasida ishtirok ishtirok etadilar;

6) shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini tashkillashtirish, o‘tkazish jarayoniga huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlar vakillarini rasmiy taklif etishi yoki ularning rasmiy taklifiga ko‘ra profilaktik tadbirlarda ishtirok etishi mumkin;

7) shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi bo‘yicha ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqidagi ma’lumot va hisobotlar vazirlik Jamoat xavfsizligi departamentining Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati hamda uning joylardagi tizimlarida umumlashtiriladi [9]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlarning umumiy profilaktikasini tashkil etishda ichki ishlar organlari aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibotni, asosan, quyidagi uch yo‘nalishda:

*Birinchidan,* shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlarning profilaktikasiga taaluqli qonun va qonun osti hujjatlarning mazmun-

mohiyatiga bag‘ishlab aholi o‘rtasida ma’ruza, raioeshittirishlar qilish, viktorina, davra suxbati, seminar-trening, uchrashuvlar o‘tkazish;

*ikkinchidan,* shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlarning profilaktikasining mazmun-mohiyatiga bag‘ishlab maqolalar, kitob va qo‘llanmalar (shu jumladan, elektron shaklda) yoziladi va chop etiladi, shuningdek aholining muayyan qatlamiga mo‘ljallangan buvletlar tayyorlanib, tarqatish;

*uchinchidan,* huquqiy targ‘ibot aholi gavjum joylarda shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar profilaktikasiga doir plakatlar, e’lonlar joylashtirish, video roliklar namoyish qilish, kinofilmlarning muayyan epizodlarini aks ettirish, televidenieda “Bir jinoyat izidan”, “Jinoyat va jazo” kabi ko‘rsatuvlarni efirga uzatish, plakatlar, ko‘rgazmali e’lonlonlar tayyorlab, aholi ko‘p to‘planadigan va gavjum bo‘lgan joylarda, ichki ishlar organlarining ma’muriy bino (huquq tartibot maskani va tayanch punkt) lariga osish kabi kabilar orqali olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. *Мирзиёев Ш.М.* Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ишончли ҳимоя қилинмоғи зарур//Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.–Тошкент,2017. –Б.312.

URL: https: //китоблар дунёси.uz/шавкат-мирзиёев-1-жилд

2. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциуаси 2023 йил

30 апрел куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган. Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2023. 128 б. URL:https://konstitution.uz/u

3. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. Тошкент.URL:h ttps//lex.uz/docc

4. URL: https: //qomus.info/

5. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2024 йил 4 ойининг якуни бўйича ҳисоботи.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 майдаги “Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3723-сонли қарор. URL: https:// lex.uz/docc /3735818

7. *Ниёзова С.* Шахсга қарши зўровонлик ишлатиб содир этиладиган жиноятлар виктимологик профилактикасини тадқиқ

қилиш бўйича илмий ёндашувлар: Юридик фанлар ахборотномаси илмий-амалий ҳуқуқий журнал. 2018/04-сон. Тошкент: 2018. 83 б.

8. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги ЎРҚ-371-сон қонуни. URL:https//lex.uz/docc

9. *Исаев Л.Р.* Шахсга хаёти ва соғлиғига қарши ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикасини ташкил этишда ички ишлар органларининг ўрни: Senral Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online):2181-2454. 364-бет.

## MASOFAVIY TA‘LIM SHAROITIDA YURIDIK FANLARNI O‘QITISH SIFATINI TA‘MINLASH

***M.F.Xo‘jayeva,***
*Sarbon universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,*
*ORCID: 0009-0009-6149-8758*
*G-mail: khujayevam@gmail.com,*
***S.I.Xidoyatova,***
*Sarbon universiteti talabasi,*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola masofaviy formatda huridik fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalar faolligini ta’minlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samarali aloqa mexanizmlari tahlil qilinadi. O‘zbekistondagi yuridik ta‘lim islohotlari kontekstida masofaviy ta‘lim sifatini ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *masofaviy ta‘lim, yuridik fanlar, o‘qitish sifati, innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar, huquqiy ta‘lim, pedagogik yondashuv, o‘quv jarayoni.*

Masofaviy ta‘lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamlashtirish jarayonlari oliy ta‘lim tizimiga, xususan yuridik fanlarni o‘qitish metodologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda masofaviy va aralash ta‘lim modellarini joriy etish zarurati yaqqol namoyon bo‘ldi. Tadqiqotchilar aralash ta‘limning talabalarga o‘quv materiallariga masofadan kirish, shaxsiy sur’atga moslashish, interaktiv topshiriqlar orqali ishtirokni oshirish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirganini ta’kidlaydi [1]. Rivojlangan mamlakatlarda – AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Fransiyada – yuridik ta‘limda aralash ta‘lim keng qo‘llanilayotgani, AQSh universitetlarining 85% dan ortig‘i

onlayn yoki aralash formatlarga o‘tganligi bu tendensiyaning dolzarbligini ko‘rsatadi [1].

O‘zbekiston Respublikasida “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi va “Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida yuridik ta‘lim sifatini oshirish, malakali yuridik kadrlar tayyorlash yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [3]. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 8 sentyabrdagi 544-sonli [4] va 2025 yil 19 martdagi 171-sonli [2, 5] qarorlari bilan yuridik kadrlar malakasini oshirish tizimi yangilandi, masofaviy va kredit-modul ta‘lim kengaytirildi. Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlar malakasini oshirish instituti hamda “Raqamli institut” platformasi raqamli ta‘lim resurslarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutmoqda [2, 5].

Masofaviy ta‘lim sharoitida yuridik fanlarni o‘qitish sifatini ta’minlash masalasi so‘nggi yillarda xalqaro va milliy ilmiy hamjamiyat diqqatida. COVID-19 pandemiyasi davridagi tajribalar bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar sonini keskin oshirdi. Xalqaro miqyosda virtual sud jarayonlari (moot courts) va real keyslar asosidagi topshiriqlar orqali yuridik fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini masofaviy formatda rivojlantirish imkoniyatlari alohida ta’kidlanadi [1]. Biroq talabalar motivatsiyasini saqlash, amaliy ko‘nikmalar shakllantirishdagi cheklovlar va texnologik infratuzilma bilan bog‘liq qiyinchiliklar ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Milliy adabiyotlarda masofaviy ta‘limning umumiy jihatlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, yuridik fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sifatni ta’minlashning maxsus mexanizmlari, huquqiy ko‘nikmalarni onlayn muhitda shakllantirish metodologiyalari bo‘yicha chuqur tadqiqotlar yetarli emas [3]. Onlayn muhitda akademik halollikni ta’minlash, plagiatning oldini olish, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini ob’ektiv baholash hamda professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish masalalari ham ilmiy o‘rganishni talab etadi [4, 7].

Maqolada nazariy-tahliliy va qiyosiy yondashuvlar qo‘llanilgan. Tadqiqot maqsadi – masofaviy yuridik ta‘lim sifatini oshirishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va ularni O‘zbekiston sharoitida samarali joriy etish yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash. Qiyosiy-huquqiy tahlil xalqaro tajriba (AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya) ni milliy qonunchilik va amaliyot bilan solishtirdi [1]. Sistemali yondashuv yuridik ta‘limni murakkab tizim sifatida ko‘rib, masofaviy ta‘lim komponentlarining sifatga ta’sirini “Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish” konsepsiyasi [3] doirasida tahlil qildi. Empirik baza: Oliy sud Plenum qarorlari, me’yoriy hujjatlar [2, 3, 4, 5], xalqaro va milliy ilmiy maqolalar, monografiyalar.

Masofaviy ta‘limda yuridik fanlarni o‘qitish sifatini ta’minlash bir necha o‘zaro bog‘liq omilga bog‘liq. Birinchidan, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullar muhim ahamiyat kasb etadi: keys-stadi, muammoli ta‘lim, virtual sud jarayonlari (moot court), simulyatsiyalar va onlayn loyiha ishlari talabalarda huquqiy tahlil, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [7]. Multimedia resurslaridan samarali foydalanish, didaktik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan o‘quv materiallari va doimiy teskari aloqa sifatli o‘qitishning muhim shartlaridir [5].

Ikkinchidan, bilimlarni baholash masofaviy ta‘limning eng murakkab jihati. Akademik halollikni ta’minlash, proktorlik tizimlari, portfolio va og‘zaki imtihonlarning onlayn formatda qo‘llanishi, baholash mezonlarining shaffofligi zarur [4]. Uchinchidan, professor-o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi hal qiluvchi omil: pedagogik dizayn ko‘nikmalari, raqamli savodxonlik va onlayn muloqot mahorati uzluksiz rivojlantirib borilishi lozim [6]. Vazirlar Mahkamasining 171-sonli qarori [2, 5] bilan joriy etilgan “Raqamli institut” platformasi va qayta tayyorlash tizimi bu borada muhim qadam bo‘ldi, biroq ularning amaliyotdagi samaradorligini doimiy monitoring qilish zarur.

Masofaviy ta‘lim sharoitida yuridik fanlarni o‘qitish sifatini ta’minlash global tendensiyalar va O‘zbekistondagi islohotlar fonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot ko‘rsatdiki, masofaviy ta‘lim moslashuvchanlik va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq sifatni ta’minlash uchun doimiy metodologik takomillashtirish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish va professor-o‘qituvchilar kompetentligini oshirish zarur. Quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi: masofaviy ta‘limga mo‘ljallangan yuridik fanlar bo‘yicha maxsus didaktik materiallar va onlayn resurslar ishlab chiqish; moot court va keys-stadi usullarini onlayn formatga moslashtirish; baholashning ob’ektiv va shaffof tizimini joriy etish; professor-o‘qituvchilarni raqamli pedagogika bo‘yicha uzluksiz o‘qitish. Ushbu yondashuv O‘zbekistonning huquqiy ta‘lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G‘ofurov M.M., Qodirov N.A. Masofaviy ta‘lim sharoitida yuridik fanlarni o‘qitish sifatini ta’minlashning ayrim masalalari. Huquqshunoslik jurnali, 2022, №2. B. 120–125.

2. To‘laganov A.A. Raqamli ta‘lim sharoitida yuridik fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish. Adliya vazirligi Akademiyasi Axborotnomasi, 2021, №3. B. 87–92.

3. Odilqoriyev X.R., G‘ulomov S.S. Masofaviy ta‘limda yuridik kadrlarni tayyorlashda kompetentlik yondashuvining ahamiyati. O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2022, №1/2. B. 112–117.

4. Karimova D.A. Oliy yuridik ta‘limda masofaviy o‘qitish sifatini baholashning innovatsion usullari. Pedagogika va psixologiya, 2023, №4. B. 78–83.

## O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIMIDA GLOBAL INTEGRATSIYA JARAYONI

***G.A.Bekdurdiyeva***
*Sarbon universiteti o‘qituvchisi*
*[bekturdiyevagulmira1@gmail.com]*
***Y.Normamatova***
*Sarbon universiteti talabasi*
*[normamatovayulduz00@gmail.com]*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O‘zbekiston oliy Ta’lim tizimining global integratsiya jarayonini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar, xalqaro universitetlar filiallarining ochilishi hamda xalqaro hamkorlikning rivojlanishi masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada integratsiyaning Ta’lim sifatini oshirish, akademik hamkorlikni kengaytirish kabi ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, “brain drain” hodisasi hamda milliy Ta’lim tizimiga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf va muammolar ham tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** global integratsiya, oliy Ta’lim, xorijiy universitetlar, brain drain, xalqaro hamkorlik, O‘zbekiston.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni Ta’lim sohasini ham chuqur qamrab olmoqda. Xalqaro hamkorlik, bilim almashinuvi va akademik integratsiya zamonaviy davlatlarning Ta’lim siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Uzbekistan ham 2016-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida oliy Ta’lim tizimini jahon standartlariga yaqinlashtirish yo‘lini tutdi. Xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar tashkil etilishi, mamlakatimizda xalqaro universitetlar filiallarining ochilishi hamda davlat stipendiya dasturlarining kengayishi ushbu jarayonning yaqqol ko‘rinishi

hisoblanadi. Jumladan, University of Westminster, Turin Polytechnic University in Tashkent hamda Inha University in Tashkent kabi nufuzli universitetlarning O‘zbekistonda faoliyat yuritishi milliy oliy Ta’lim tizimida xalqaro tajribani joriy etish va zamonaviy mutaxassislar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq global integratsiya jarayoni bir tomonlama baholanmasligi lozim. “Brain drain” hodisasi, ya’ni malakali mutaxassislar va iqtidorli talabalarning xorijda qolib ketishi, shuningdek milliy Ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlash masalalari dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekiston oliy Ta’lim tizimidagi global integratsiya jarayonini imkoniyatlar va muammolar nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar hamda O‘zbekiston Respublikasining rasmiy hujjatlaridan foydalanildi.

Xorijiy nufuzli universitetlarning O‘zbekistonda faoliyat yuritishi milliy Ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Westminster, Turin Politexnika Universiteti, Inha, Shrewsbury kabi universitetlar o'z filiallarini ochishi natijasida talabalar xorijga chiqmasdan turib xalqaro darajadagi Ta’lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi [1, 82-b.]. Douglass ta’kidlashicha, bunday hamkorlik nafaqat bilim uzatishni, balki institutsional islohotlarni ham tezlashtiradi [1, 78-b.]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi PQ-3529-son qarorida filiallar ochilishi uchun huquqiy asos yaratilgan (1-band). O‘zbekistonlik tadqiqotchi M. Mirzayev o'zining “Xorijiy universitetlar va milliy ta’lim” kitobida filiallar faoliyatining milliy ta’lim tizimiga integratsiyasini ijobiy baholab, ularning mahalliy kadrlar tayyorlashdagi ahamiyatini alohida ta'kidlagan [1, 34-bet].

Erasmus+, DAAD, Fulbright kabi xalqaro stipendiya dasturlari orqali o'zbek talabalari Yevropa va Amerika universitetlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Knight fikricha, akademik mobillik dasturlari talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi [2, 18-b.]. Bundan tashqari, O‘zbekistonda"El-yurt umidi"jamg'armasi faoliyati akademik mobillikni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu jamg'arma orqali yuzlab o'zbek yoshlari dunyoning eng nufuzli universitetlarida magistratura va doktorantura dasturlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yildagi 309-son qaroriga ko'ra, davlat stipendiyalari soni oshirilishi va imtiyozli kredit

dasturlari joriy etilishi rejalashtirilgan (2-band). “O‘zbekistonda xalqaro akademik mobillik” mavzusidagi ilmiy maqolada stipendiya dasturlarining samaradorligi tahlil qilinib, ularning milliy kadrlar tayyorlashdagi roli ijobiy baholangan.

Global integratsiya natijasida o'quv dasturlari xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Altbach ta’kidlashicha, xorijiy o'qituvchilar va mutaxassislarning jalb etilishi, zamonaviy o'quv materiallari va metodlarining joriy etilishi Ta’lim sifatini sezilarli darajada yuksaltiradi. O‘zbekiston Respublikasining"Ta’lim to‘g‘risida"gi yangi tahrirdagi qonunida xalqaro hamkorlik oliy Ta’lim sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida belgilangan (8-modda). O‘zbekistonlik olim N. Xasanov"Milliy Ta’lim tizimi va globallashuv” kitobida xalqaro standartlarning milliy Ta’limga ta’sirini chuqur o'rganib, Ta’lim sifatining oshishida xorijiy hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyatini asoslab bergan [2, 89-b.].

Xalqaro Ta’lim dasturlarida ishtirok etish insoniy kapitalning shakllanishiga bevosita hissa qo'shadi. Keohane va Nye fikricha, davlatlar o'rtasidagi Ta’lim sohasidagi hamkorlik uzoq muddatli diplomatik aloqalarni mustahkamlashning eng samarali yo‘llaridan biridir. “El-yurt umidi”jamg'armasi orqali xorijda tahsil olgan mutaxassislar O‘zbekiston ga qaytib, iqtisodiyot, fan, tibbiyot va boshqa sohalarda yangi bilim va texnologiyalarni olib kelmoqda. O‘zbekistonlik tadqiqotchi X. Toshmatov o'z ilmiy ishida xorijda tahsil olgan mutaxassislarning milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini raqamlar bilan asoslab bergan [1, 52-b].

Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik davlatning yumshoq kuchini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi [11]. O‘zbekiston ning xorijiy universitetlar bilan faol hamkorligi mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini oshirmoqda. “O‘zbekistonda oliy ta’lim islohotlari va xalqaro hamkorlik” mavzusidagi ilmiy maqolada mamlakatimizdagi ta’lim islohotlarining xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholanayotgani ta'kidlangan [19].

Global integratsiyaning eng keskin muammolaridan biri yetuk mutaxassislar va talabalarning chet elda qolib ketishi hodisasidir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro ta’lim imkoniyatlarining kengayishi ko'pincha brain drain xavfini kuchaytiradi [56]. Xorijda tahsil olgan talabalarning bir qismi vataniga qaytmasdan u yerda ish topib qolishi O‘zbekiston uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida davlat xorijda tahsil

olgan mutaxassislarni vataniga qaytarishni rag'batlantirishi lozimligi belgilab qo'yilgan (12-modda).

Bundan tashqari, global integratsiya jarayoni oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiyaning jadallashuviga ham xizmat qilmoqda. Xususan, onlayn ta’lim platformalari, xalqaro ilmiy bazalardan foydalanish imkoniyatining kengayishi va masofaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi talabalar hamda professor-o‘qituvchilarning akademik faolligini oshirmoqda. Shu bilan birga, xalqaro reyting tizimlarida yuqori o‘rinlarni egallashga intilish universitetlar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirmoqda. Biroq ayrim hollarda xorijiy standartlarga haddan tashqari moslashish milliy ta’lim qadriyatlari va an’anaviy pedagogik yondashuvlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli global tajribani qabul qilishda milliy manfaatlar, madaniy xususiyatlar va mahalliy mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston oliy ta’limidagi global integratsiya jarayoni mamlakat uchun strategik ahamiyat kasb etuvchi imkoniyat sifatida o'zini to'liq namoyon etmoqda. Xorijiy universitetlar bilan o'rnatilgan hamkorlik, qo'shma Ta’lim dasturlari va akademik mobillikning kengayishi milliy ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro hamkorlik natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, global integratsiya O‘zbekiston uchun nafaqat Ta’lim sifatini oshirish, balki mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini mustahkamlashning ham samarali vositasiga aylanmoqda. Bu jarayon davom etar ekan, O‘zbekiston yaqin kelajakda mintaqaning yetakchi Ta’lim markaziga aylanishi shubhasizdir. Shuningdek, global integratsiya jarayonining muvaffaqiyati nafaqat xorijiy universitetlar sonining ortishi yoki xalqaro dasturlarning kengayishi bilan, balki milliy ta’lim tizimining ichki salohiyatini mustahkamlash bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tizimining asosiy vazifasiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, raqamli ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish, professor-o‘qituvchilarning xalqaro malakasini oshirish hamda akademik erkinlikni rivojlantirish global integratsiyaning barqarorligini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Natijada, xalqaro standartlarga mos va milliy manfaatlarga xizmat qiluvchi zamonaviy oliy ta’lim tizimini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Altbach, P. G. Global Perspectives on Higher Education. – Johns Hopkins University Press, Baltimore, 2006. – 344 b.
- Knight, J. Internationalization of Higher Education: A Conceptual Framework // Higher Education in Turmoil. – OECD Publishing, Paris, 2004. – P. 11–29.
- Xasanov, N. Milliy Ta’lim tizimi va globallashuv. – Akademiya, Toshkent, 2018. – 210 b.
- Toshmatov, X. Brain drain hodisasi va uning O‘zbekistonga ta’siri. – O‘zbekiston , Toshkent, 2020. – 180 b.
- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – URL: https://lex.uz/docs/1445551
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4391-son Qarori. – URL: https://lex.uz/docs/4312783.

# TIBBIYOT SOHASIDA KASB YUZASIDAN O‘Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA XALQARO TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIKNING QIYOSIY TAHLILI

***O.E.Ergasheva***
*Toshkent davlat yuridik universiteti*
*tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Mazkur tezis tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ushbu toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarini qiyosiy o‘rganish orqali mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ishda tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar natijasida yuzaga keladigan huquqiy oqibatlarning mohiyati, ularning jinoyat huquqi nuqtai nazaridan kvalifikatsiyasi va tergovga qadar tekshiruv hamda dastlabki tergov bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlari kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Xususan, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan davlatlarning ushbu sohadagi qonunchilik amaliyoti, sud-ekspertiza faoliyati va tergov metodikalari tahlil qilinib, ularning samaradorligi baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** tibbiy xato, beparvolik, tibbiyot sohasida, sud-ekspertizasi.

Tibbiyot sohasi har qanday jamiyatning ajralmas va fundamental tayanchlaridan biri bo‘lib, inson salomatligi va hayotini saqlashdek oliy vazifani o‘z zimmasiga oladi. Bu soha xodimlariga, ayniqsa

shifokorlarga, fuqarolar tomonidan cheksiz ishonch bildiriladi, chunki ular inson hayotiga daxldor masalalarda muhim qarorlar qabul qilishadi. Shu bilan birga, tibbiy amaliyotning murakkabligi, yuqori texnologiyalar va inson omili bilan bog‘liq xatarlar mavjudligi bois, kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlar ba’zan jinoiy oqibatlarga olib kelib, nafaqat bemorlarning sog‘lig‘iga yoki hayotiga ziyon yetkazadi, balki jamiyatda tibbiyot kasbiga bo‘lgan ishonchni ham susaytiradi.

Mazkur tadqiqot mavzusi aynan shu jihatdan o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot sohasidagi kasbiy vazifalarni bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish o‘ziga xos murakkabliklarga ega. Bu jarayon tibbiy bilimlar, huquqiy normalar va tergov taktikalarining o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi. Bemorning holati, tibbiy muolajalarning ketma-ketligi, tibbiy xato va beparvolik o‘rtasidagi farqni aniqlash kabi masalalar tergovchilar oldiga jiddiy talablar qo‘yadi. Shu bois, ushbu turdagi jinoyatlarni samarali tergov qilish mexanizmlarini takomillashtirish, adolatni ta’minlash va kelajakda shunga o‘xshash holatlarning oldini olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimdir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda huquqiy-demokratik islohotlar doirasida qonunchilikni takomillashtirishga, shu jumladan tibbiyot sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni qayta ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro tajribani o‘rganish va milliy qonunchilikni uning ilg‘or standartlari bilan qiyosiy tahlil qilish, ushbu yo‘nalishdagi mavjud bo‘shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xorijiy davlatlarda tibbiyot xodimlarining kasbiy xatolari yoki beparvoligi bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti, sud-ekspertiza mexanizmlari va qonunchilik yechimlarini o‘rganish O‘zbekistonning tergov amaliyotini modernizatsiya qilish, tibbiyot sohasida jinoiy adolatni ta’minlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishda qator xususiyatlar mavjud bo‘lib, ular *tibbiy xato va jinoyat o‘rtasidagi nozik chegarani aniqlash, ekspertiza xulosalarining ob’ektivligini ta’minlash, jabrlanuvchilar va guvohlarning ko‘rsatmalarini to‘g‘ri baholash* kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Milliy qonunchilikda tibbiyot sohasidagi kasbiy vazifalarni bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo‘lsa-da, tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar, jumladan, tergov sub’ektlarining tibbiy bilimlari darajasi,

tergov harakatlarining samaradorligi va tezkorligi masalalari chuqur tahlilni talab etadi.

Xalqaro miqyosda ham tibbiyotdagi xatolar va ularning huquqiy oqibatlari bo‘yicha keng muhokamalar olib boriladi, ilg‘or xorijiy davlatlarning tergov amaliyoti va qonunchilik tajribasi ushbu sohada samarali mexanizmlarni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘plab mamlakatlarda tibbiy jinoyatlarni tergov qilishda ixtisoslashgan bo‘linmalar, tibbiy-huquqiy ekspertiza institutlari va kasbiy javobgarlikni sug‘urtalash tizimlari samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu tajribalarni o‘rganish va milliy qonunchilik hamda amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini izlash O‘zbekistonda tibbiyot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish tizimini takomillashtirishda yangi yo‘nalishlarni ochib beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish amaliyotini takomillashtirish maqsadida xalqaro tajriba va milliy qonunchilikning chuqur qiyosiy tahlilini o‘tkazish, shu orqali mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu jarayonda fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, tibbiyot xodimlarining kasbiy mas’uliyatini oshirish hamda adolatli tergov tizimini shakllantirishga hissa qo‘shishga alohida e’tibor qaratiladi.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

Avvalo, tibbiyot sohasidagi kasbiy vazifalarni bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tartibga soluvchi milliy jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligining nazariy va amaliy asoslarini har tomonlama tahlil qilish, ularning qo‘llanilishidagi mavjud kamchiliklar va ziddiyatlarni aniqlash. Ikkinchidan, ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishga doir xorijiy davlatlarning ilg‘or qonunchilik tajribasi, tergov metodikalari va sud amaliyotini o‘rganish, ularning samaradorlik mexanizmlarini tahlil qilish. Uchinchidan, xalqaro huquqiy normalar va milliy qonunchilik o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni qiyosiy jihatdan baholash, milliy tergov amaliyotiga xalqaro standartlarni integratsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish. To‘rtinchidan, tibbiyot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda yuzaga keladigan protsessual va kriminalistik muammolarni, jumladan, ekspertiza tayinlash, dalillarni to‘plash va baholashdagi qiyinchiliklarni chuqur o‘rganish. Nihoyat, o‘tkazilgan tahlillar va xalqaro tajriba asosida milliy jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, tergov organlari faoliyati

samaradorligini oshirish hamda tergovchilarning kasbiy malakasini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik oqibatida yuzaga keladigan jinoyatlarning huquqiy tabiati, ularni tergov qilish jarayonida kelib chiqadigan nazariy va amaliy muammolar hamda bu turdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning milliy va xalqaro amaliyoti majmuasidir. Bu, shuningdek, tibbiy faoliyatdagi xato va kamchiliklar uchun javobgarlikning huquqiy asoslari, ularni qo‘llash mexanizmlari, tergov subyektlarining vakolatlari va mas'uliyatini ham qamrab oladi.

Tadqiqot predmeti esa mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishda O‘zbekiston Respublikasining jinoiy va jinoiy-protsessual qonunchiligi hamda huquqni qo‘llash amaliyotining rivojlangan xorijiy mamlakatlar, jumladan, Yevropa Ittifoqi va AQShning tegishli normativ-huquqiy hujjatlari, tergov uslubiyotlari hamda sud amaliyoti bilan qiyosiy tahlili hisoblanadi. Bunda tibbiy xatolar va jinoyat tarkibi o‘rtasidagi farqni belgilash, tibbiy ekspertiza xulosalarining tergovdagi ahamiyati, dalillarni yig‘ish, mustahkamlash va baholashning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, tergov jarayonini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar chuqur ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishning o‘ziga xos protsessual jihatlari O‘zbekiston milliy qonunchiligi va Germaniya, Fransiya, AQSH kabi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi misolida ilk marotaba monografik darajada kompleks qiyosiy-huquqiy tahlil qilinganligida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy yangiliklar ilgari surilgan:

Birinchidan, milliy jinoyat-protsessual qonunchiligida mazkur toifadagi ishlarni tergov qilish jarayonini tartibga soluvchi normalardagi mavjud kolliziyalar va huquqiy bo‘shliqlar tizimli tahlil etilib, ularning mohiyati, kelib chiqish sabablari hamda tergov amaliyotiga salbiy ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, “tibbiy xato” va “tibbiyot xodimining kasbiy vazifalarini lozim darajada bajarmasligi” tushunchalarining jinoyat-protsessual maqsaddagi farqlanishi zarurati ko‘rsatib o‘tilgan;

ikkinchidan, xalqaro tajriba, xususan, kontinental huquq tizimiga mansub davlatlarning ilg‘or amaliyotini o‘rganish asosida tergov harakatlarini o‘tkazish, ayniqsa, sud-tibbiy ekspertizasini tayinlash va o‘tkazish tartibini takomillashtirish, shuningdek, tergov jarayonida

jabrlanuvchi va tibbiyot xodimining huquqiy maqomini muvozanatlashga qaratilgan konseptual yondashuvlar shakllantirilgan;

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga va boshqa tegishli qonun hujjatlariga o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha aniq, ilmiy asoslangan mualliflik taklif va tavsiyalari ishlab chiqilgan. Jumladan, tibbiyot sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha dalillarni to‘plash va mustahkamlashning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tergovchi va surishtiruvchining vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual mexanizmlarini optimallashtirishga oid normalarni kiritish taklif etilgan;

to‘rtinchidan, tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashish va ularning javobgarligi masalalarini tartibga solishda jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual normalar uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar qilingan. Tadqiqot natijalari nafaqat norma ijodkorligi faoliyatida, balki huquqni qo‘llash amaliyotida tergovchilar uchun uslubiy qo‘llanma sifatida hamda oliy ta’lim muassasalarida tegishli fanlarni o‘qitish jarayonida foydalanish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishning nazariy va amaliy jihatlarini xalqaro tajriba hamda milliy qonunchilik kontekstida chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, uning metodologik asosi quyidagi ilmiy yondashuvlarga tayanadi.

Birinchi navbatda, tadqiqotning bosh metodi **qiyosiy-huquqiy metod** hisoblanadi. Bu metod orqali tibbiyot xodimlarining kasbiy mas’uliyati bilan bog‘liq jinoyatlarni ta’riflash, ularning tarkibini belgilash, tergov qilish usullari va javobgarlik choralari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va huquqni qo‘llash amaliyoti Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh kabi rivojlangan davlatlar hamda ayrim MDH mamlakatlari tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil jarayonida nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar, balki xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari, sud amaliyoti va huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari ham o‘rganiladi. Bu esa milliy qonunchilikdagi bo‘shliqlarni aniqlash va uni takomillashtirish bo‘yicha asosli takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, **formal-yuridik metod** normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini, ularning tizimli bog‘liqligini, terminologiyasini va huquqiy normalarning mazmunini aniq sharhlashda qo‘llaniladi. Bu

metod milliy jinoyat, jinoyat-protsessual va fuqarolik qonunchiligi normalarini, shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlarni chuqur o‘rganish va ularning tibbiy xato hamda kasbiy mas’uliyatsizlikni huquqiy baholashdagi ahamiyatini ochib berishda muhimdir.

**Tizimli tahlil metodi** tibbiy jinoyatlarning huquqiy tartibga solinishini umumiy huquq tizimining bir qismi sifatida ko‘rib chiqishga xizmat qiladi. Bu metod orqali tibbiyot sohasidagi kasbiy huquqbuzarliklar nafaqat jinoyat huquqi, balki fuqarolik, ma’muriy va mehnat huquqi normalari bilan o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilinadi, ularning yagona mexanizmda qanday ishlashi o‘rganiladi. Bu esa kompleks yechimlarni taklif qilish uchun asos bo‘ladi.

**Mantiqiy-deduktiv va induktiv metodlar** tadqiqot jarayonida umumiy nazariy qoidalardan xususiy holatlarga o‘tish (deduksiya) va xususiy holatlarni o‘rganish asosida umumiy xulosalar chiqarish (induksiya) imkonini beradi. Bu metodlar to‘plangan ma’lumotlarni umumlashtirish, muammoli masalalarni aniqlash va ularga ilmiy asoslangan yechimlar topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va qonunosti hujjatlari, oliy sud instansiyalarining qarorlari, tushuntirishlari, sud-tergov amaliyoti ma’lumotlari, xalqaro shartnomalar va xorijiy mamlakatlarning tegishli qonunchilik aktlari tashkil etadi. Shuningdek, mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy yetakchi olimlarning ilmiy ishlari, monografiya, darslik va ilmiy maqolalari tahlil uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatida yo‘l qo‘yiladigan xato va kamchiliklar natijasida bemorlarning sog‘lig‘iga zarar yetkazilishi yoki o‘limiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq holatlar nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb huquqiy va ijtimoiy muammo hisoblanadi. Mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilish jarayoni o‘zining murakkabligi, xususan, tibbiy bilimlarni chuqur talab etishi, sababiy bog‘lanishni aniqlashdagi qiyinchiliklar va ekspertiza xulosalariga haddan tashqari bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqotda tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishning xorijiy davlatlar tajribasi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o‘rni qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi.

Xalqaro tajribani tahlil qilar ekanmiz, dunyo huquqiy tizimlarini shartli ravishda ikki asosiy guruhga – roman-german (kontinental) va anglo-sakson (umumiy huquq) tizimlariga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Roman-german huquq tizimiga mansub davlatlar, masalan,

Germaniya va Fransiya qonunchiligida tibbiy xatoliklar uchun jinoiy javobgarlik aniq moddalar bilan belgilangan. Germaniya Jinoyat kodeksining (Strafgesetzbuch) 222-moddasida ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirish va 229-moddasida ehtiyotsizlik orqasida badanga shikast yetkazish uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan. Nemis huquqiy doktrinasida tibbiyot xodimining harakati yoki harakatsizligini baholashda “lozim darajadagi ehtiyotkorlik” (die im Verkehr erforderliche Sorgfalt) mezoni qo‘llaniladi. Bu mezon tibbiyot xodimining o‘z malakasi va tajribasidan kelib chiqib, muayyan klinik vaziyatda umum qabul qilingan tibbiy standartlar va protokollarga rioya qilish majburiyatini anglatadi. Tergov jarayonida asosiy e’tibor tibbiy standartdan chetga chiqish fakti, uning salbiy oqibatga olib kelgani va ushbu harakat (harakatsizlik) bilan oqibat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy bog‘lanish mavjudligini isbotlashga qaratiladi. Bu jarayonda mustaqil tibbiy ekspertlar komissiyasining (Gutachterkommission/Schlichtungsstelle) roli beqiyosdir.

Fransiya Jinoyat kodeksida ham shunga o‘xshash yondashuv mavjud bo‘lib, unda “malakasizlik”, “ehtiyotsizlik” yoki “xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik” kabi tushunchalar orqali tibbiy xatoliklarga huquqiy baho beriladi. Fransuz tergov amaliyotida jinoyat tarkibining obyektiv tomonini, ya’ni tibbiyot xodimining xatti-harakati va kelib chiqqan oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlash eng murakkab bosqich hisoblanadi. Sudlar ko‘pincha “imkoniyatni yo‘qotish” (perte de chance) nazariyasiga tayanadi, ya’ni shifokorning xatosi bemorning sog‘ayish yoki omon qolish imkoniyatini sezilarli darajada kamaytirgan bo‘lsa, bu javobgarlik uchun asos bo‘lishi mumkin.

Anglo-sakson huquq tizimiga ega bo‘lgan AQSH va Buyuk Britaniyada tibbiy xatoliklar, asosan, fuqarolik-huquqiy javobgarlik (medical malpractice) doirasida ko‘rib chiqiladi va faqatgina o‘ta qo‘pol beparvolik (gross negligence) holatlarigina jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. “Gross negligence” tushunchasi oddiy ehtiyotsizlikdan yuqori turadi va tibbiyot xodimining inson hayoti va sog‘lig‘iga nisbatan ongli ravishda beparvo munosabatda bo‘lganligini, ya’ni yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan og‘ir oqibatlarni bila turib, ularning oldini olish choralarini ko‘rmaganligini anglatadi. Masalan, Adomako ishi bo‘yicha (R v Adomako [1994] UKHL 6) qabul qilingan pretsedentga ko‘ra, jinoiy javobgarlik kelib chiqishi uchun quyidagi to‘rt shart mavjud bo‘lishi lozim: (1) zimmasiga yuklatilgan g‘amxo‘rlik majburiyati (duty of care); (2) ushbu majburiyatning buzilishi; (3) majburiyatning buzilishi natijasida o‘lim sodir bo‘lganligi (causation); (4) majburiyatning buzilishi

shu darajada qo‘pol bo‘lganki, sud uni jinoiy deb topishi kerak. Tergov jarayonida prokuror tibbiyot xodimining harakatlari nafaqat tibbiy standartlarga zid, balki har qanday oqilona fikrlaydigan shifokor yo‘l qo‘ymaydigan darajada yomon bo‘lganligini isbotlashi talab etiladi. Bu esa jinoiy ta’qib chegarasini ancha toraytiradi va tibbiyot xodimlarini asossiz ayblovlardan himoya qilishga xizmat qiladi.

Endi milliy qonunchilik va amaliyotga murojaat qilsak, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 116-moddasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaning dispozitsiyasi blanket (havolaki) xarakterga ega bo‘lib, uning mazmunini tushunish uchun sog‘liqni saqlash sohasiga oid qator qonunosti hujjatlariga, xususan, tibbiy standartlar, klinik protokollar va lavozim yo‘riqnomalariga murojaat qilishni taqozo etadi. Jinoyatning obyektiv tomoni shaxsning o‘z kasbiga nisbatan beparvolik yoki insofsizlik bilan munosabatda bo‘lishi tufayli o‘z vazifalarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, buning oqibatida bemorning o‘limiga, og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir tan jarohati olishiga sabab bo‘lishida ifodalanadi.

Milliy amaliyotda ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Birinchidan, sababiy bog‘lanishni aniqlash masalasi. Tibbiyot xodimining harakati (yoki harakatsizligi) bilan kelib chiqqan salbiy oqibat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy bog‘lanish mavjudligini isbotlash o‘ta murakkab. Ko‘pincha, salbiy oqibatga shifokorning xatosidan tashqari, bemorning individual xususiyatlari, kasallikning og‘ir kechishi, dori vositalariga kutilmagan reaksiya kabi boshqa omillar ham ta’sir qilishi mumkin. Tergov organlari bu omillarni bir-biridan ajratishda va aynan tibbiy xatolik hal qiluvchi rol o‘ynaganini isbotlashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Ikkinchidan, sud-tibbiy ekspertizasining roli va uning xolisligi masalasi. JK 116-moddasi bo‘yicha qo‘zg‘atilgan har qanday jinoyat ishi bo‘yicha komission sud-tibbiy ekspertizasi tayinlanadi. Biroq, amaliyotda ekspertlar ko‘pincha o‘z hamkasblarining harakatlariga baho berishda “kasbiy birdamlik” (korporativizm) tamoyiliga amal qilishi, natijada xulosalarning obyektivligiga shubha tug‘dirishi mumkin. Shuningdek, ekspertiza o‘tkazish metodologiyasining yetarlicha takomillashmaganligi, ekspertlar malakasining zamon talablariga har doim ham javob beravermasligi tergov sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qonunchiligi roman-german huquqiy an’analariga yaqin bo‘lsa-da, tergov amaliyotini takomillashtirish uchun xorijiy tajribaning ayrim ilg‘or jihatlarini implementatsiya qilish zarur.

Xususan:

**1. Huquqiy aniqlikni ta’minlash**. JK 116-moddasidagi “lozim darajada bajarmaslik” tushunchasi ancha keng va baholi bo‘lganligi sababli, uning mazmunini Oliy sud Plenumining qarori bilan batafsil sharhlash, “tibbiy xato”, “baxtsiz hodisa” va “ehtiyotsizlik” tushunchalarini bir-biridan aniq chegaralash lozim. Anglo-sakson tizimidagi kabi “qo‘pol beparvolik” mezonini jinoiy javobgarlikning og‘irlashtiruvchi holati sifatida kiritish masalasini ko‘rib chiqish mumkin. Bu orqali oddiy tibbiy asoratlarni jinoiy ta’qibdan chiqarib, faqatgina tibbiyot xodimining mas’uliyatsizligi yaqqol namoyon bo‘lgan holatlarda jinoiy javobgarlikni qo‘llashga erishiladi.

**2. Tergov ixtisoslashuvini joriy etish**. Germaniya tajribasidan kelib chiqib, prokuratura va ichki ishlar organlari tizimida tibbiy jinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgan alohida bo‘linmalar yoki tergovchi-mutaxassislar guruhini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu tergovchilarning tibbiyot sohasidagi bilimlarini oshirishga, dalillarni to‘plash va baholash jarayonini professional darajaga ko‘tarishga yordam beradi.

**3. Ekspertiza tizimini isloh qilish**. Sud-tibbiy ekspertiza xulosalarining xolisligi va mustaqilligini ta’minlash uchun Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidan tashqarida faoliyat yurituvchi mustaqil ekspertiza markazlari tarmog‘ini rivojlantirish yoki ekspertlar komissiyasiga xalqaro ekspertlarni, fuqarolik jamiyati vakillarini jalb etish mexanizmlarini yaratish lozim. Shuningdek, ekspertiza o‘tkazishning yagona, zamonaviy standartlashtirilgan metodologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga keng joriy etish zarur.

**4. Muqobil mexanizmlarni qo‘llash**. AQSH va Yevropa davlatlari tajribasida bo‘lgani kabi, jinoiy javobgarlikni so‘nggi chora sifatida ko‘rib, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, majburiy sug‘urta va mediasiya kabi nizolarni hal etishning muqobil usullarini kengroq qo‘llash kerak. Bu bir tomondan jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni tezroq qoplash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, tibbiyot xodimlarini jinoiy ta’qib bosimidan xalos etib, o‘z kasbiy faoliyatini xotirjam davom ettirishiga sharoit yaratadi.

**Xulosa qilib aytganda,** milliy qonunchilik va tergov amaliyotini xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish nafaqat fuqarolarning sog‘liqni saqlash huquqini samarali himoya qilish, balki tibbiyot xodimlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish, ularni asossiz jinoiy ta’qiblardan saqlash orqali butun sog‘liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Xalqaro tajriba va milliy qonunchilikning qiyosiy tahlili asosida olingan ilmiy xulosalar va takliflar mavjud huquqiy normalardagi bo‘shliqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun muhim nazariy zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari huquqni qo‘llovchi organlar, xususan, tergovchi va prokurorlar uchun ushbu toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Unda ilg‘or xorijiy davlatlarning tergov usullari va protsessual mexanizmlari tahlil qilinganligi sababli, milliy tergov amaliyotiga xalqaro standartlarni joriy etishga, dalillarni to‘plash, baholash va mustahkamlash jarayonini takomillashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, ushbu ish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini xalqaro huquq normalari va ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirish bo‘yicha aniq qonun loyihalari va me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin. Bu esa tibbiyot sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda huquqiy bazani mustahkamlashga, tibbiy xodimlarning kasbiy mas’uliyatini oshirishga va pirovardida, fuqarolarning sog‘lig‘ini himoya qilish tizimining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot materiallari yuridik ta’lim muassasalarida tegishli fanlarni o‘qitishda, tergov va sud xodimlarining malakasini oshirish kurslarida o‘quv materiallari sifatida ham foydalanilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar**

Tadqiqot natijasida tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishning milliy amaliyoti va AQSh, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil etildi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotida bir qator tizimli muammolar va huquqiy bo‘shliqlar mavjud. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 116-moddasida qo‘llanilgan “kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik” tushunchasining

huquqiy ta’rifi mavhum bo‘lib, bu tergov va sud amaliyotida turli xil talqinlarga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, tibbiyot xodimining harakati (harakatsizligi) va kelib chiqqan oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni isbotlash jarayoni haddan tashqari murakkablashgan bo‘lib, bu ko‘p hollarda sud-tibbiy ekspertizasi xulosasiga to‘liq bog‘liqlikni keltirib chiqarmoqda. Xorijiy tajribada esa, masalan, Germaniyada “davolashdagi qo‘pol xato” (grober Behandlungsfehler) prezumpsiyasi orqali isbotlash yuki qisman tibbiyot xodimiga o‘tkazilishi amaliyoti mavjud bo‘lib, bu jabrlanuvchi huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy amaliyotda ixtisoslashgan tergovchilarning yetishmasligi, sud-tibbiy ekspertizasini o‘tkazishda muassasaviy bog‘liqlik va mustaqillik kafolatlarining zaifligi tergovning obyektivligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar sifatida e’tirof etildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi
- Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021.
-Gilmour JM (1994). ["Overview of Medical Malpractice Law in Canada"](https://web.archive.org/web/20170905191216/https:/pdfs.semanticscholar.org/a693/0a28df5eeaaf0f84b177cac259c797631b03.pdf) Annals of Health Law. **3** (1): 179–204. on September 5, 2017. Retrieved June 12, 2017.
- [“Medical Malpractice and Compensation in Germany”](http://scholarship.kentlaw.iit.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=3814&context=cklawreview). Scholarship.kentlaw.iit.edu. **86** (3). June 2011. Retrieved June 12, 2017.
- Fallberg, Lars H.; Borgenhammar, Edgar (1997). [“The Swedish No Fault Patient Insurance Scheme](https://www.jstor.org/stable/45437223)”. European Journal of Health Law. **4** (3): 279–286. [doi](https://en.wikipedia.org/wiki/Doi_(identifier)):[10.1163/15718099720522138](https://doi.org/10.1163%2F15718099720522138). [ISSN](https://en.wikipedia.org/wiki/ISSN_(identifier)) [0929-0273](https://search.worldcat.org/issn/0929-0273). [JSTOR](https://en.wikipedia.org/wiki/JSTOR_(identifier)) [45437223](https://www.jstor.org/stable/45437223).

# RAQAMLI HUQUQ: INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

***M.K.Mamajonov***
*Sarbon universiteti stajyor-o‘qituvchisi*
*[Assertiveboy17@icloud.com]*
*+998932642497*

**ANNOTATSIYA.**Ushbu maqola internet va ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini tartibga soluvchi raqamli huquq sohasining asosiy jihatlarini tahlil etadi. Maqolada Yevropa Ittifoqi, Amerika Qo‘shma Shtatlari va O‘zbekiston tajribasidan misollar keltirilgan holda, raqamli muhitdagi huquqiy tartibga solishning samarali mexanizmlari o‘rganiladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, milliy qonunchilik bilan xalqaro me’yorlarning uyg‘unlashtirilishi zamonaviy raqamli huquqning asosiy vazifasi hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli huquq, internet tartibga solish, ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, kiberhuquq, GDPR, axborot xavfsizligi, ifoda erkinligi, intellektual mulk, O‘zbekiston.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar millionlab odamlarning kundalik hayotiga shunchalik chuqur singib ketdiki, ular endi oddiy aloqa vositasi bo‘lib qolmasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning markaziga aylandi. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 5,4 milliarddan ortiq internet foydalanuvchisi mavjud bo‘lib, bu umumiy aholining 67 foizini tashkil etadi (International Telecommunication Union, 2024) [1]

Bunday ulkan miqyosdagi raqamli muhit muqarrar ravishda yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltirdi. Odamlar onlayn makonda ham xuddi real hayotdagi kabi huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishi kerak, biroq raqamli muhitning o‘ziga xos xususiyatlari – chegarasizlik, anonimlik, tezkorlik va global qamrov – an’anaviy huquqiy mexanizmlarning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Raqamli huquq soha juda keng bo‘lib, unda quyidagi yo‘nalishlar ajralib turadi:

- *Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish huquqi.*
- *Intellektual mulk va mualliflik huquqi*
- *Kiberxavfsizlik va kiberjinoyatchiliklarga qarshi kurash*
- *Ifoda erkinligi va senzura masalalari.*
- *Raqamli tijorat va elektron shartnomalar.*
- *Ijtimoiy tarmoqlar mas’uliyati.*

Ushbu maqolaning maqsadi – raqamli huquqning zamonaviy holati va ijtimoiy tarmoqlardagi huquqiy tartibga solish masalalarini qiyosiy

tahlil etish, shu bilan birga O‘zbekistondagi mavjud huquqiy bazani baholashdan iborat.

Raqamli huquq mustaqil huquqiy soha sifatida 1990-yillarning oxirida – World Wide Web keng tarqala boshlagan davrda shakllana boshladi. Dastlab bu soha asosan elektron tijorat va mualliflik huquqiga oid masalalarni qamrab olar edi. Keyinchalik ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi va smartfonlarning keng tarqalishi bilan raqamli huquqning predmeti sezilarli darajada kengaydi.

Taniqli huquqshunos olim Lawrence Lessig o‘zining “Code and Other Laws of Cyberspace” (1999) asarida birinchi marta internetni tartibga solishning to‘rt omili nazariyasini ilgari surdi. Uning fikricha, onlayn muhitni to‘rt kuch shakllantiradi: qonun (law), bozor (market), me’morchilik/texnologiya (architecture) va ijtimoiy normalar (norms). Lessig ta’kidladiki: *“Code is law”* – dasturiy kod ham xuddi qonun kabi odamlar xulq-atvorini boshqarishi mumkin (Lessig, 1999, p. 6)[2].

Xalqaro darajada raqamli huquqning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan hujjatlar qatorida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 va 2005-yillardagi Axborot jamiyati bo‘yicha Jahon sammitlari (WSIS) xulosalari, shuningdek Kiberxavfsizlik bo‘yicha Budapesht Konventsiyasi (2001) muhim o‘rin tutadi[3].

Raqamli huquqning o‘ziga xos tamoyillari mavjud bo‘lib, ular an’anaviy huquqiy tamoyillardan farq qiladi:

**Milliy chegarasizlik tamoyili** – internet xalqaro xarakter kasb etgani sababli, bitta davlat qonunchiligi ko‘pincha yetarli emas. Huquqiy tartibga solish xalqaro hamkorlikni talab etadi.

**Proportsionallik tamoyili** – raqamli muhitda cheklovlar zarur va mutanosib bo‘lishi kerak. Xususan, Yevropa Inson Huquqlari Sudi bir qator qarorlarida onlayn ifoda erkinligini cheklashning proportsionalligini tekshirishni talab etgan (ECtHR, Delfi AS v. Estonia, 2015)[4].

Bugungi kunda Facebook (Meta), X (Twitter), YouTube, TikTok va boshqa platformalar millionlab foydalanuvchilarning harakatlarini kuzatuvchi va tartibga soluvchi ulkan vositachilar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu platformalarning huquqiy mas’uliyati masalasi juda murakkab.

AQShda “Section 230” (47 U.S.C. § 230) – Communications Decency Actning 230-moddasi – ijtimoiy tarmoq platformalarini uchinchi shaxslar tomonidan joylashtirilgan kontent uchun mas’uliyatdan qisman himoya qiladi. Ushbu modda 1996-yilda qabul qilingan bo‘lib, internet rivojlanishida muhim rol o‘ynadi, biroq bugungi kunda uni isloh qilish

yoki bekor qilish bo‘yicha tortishuvlar davom etmoqda. Senator Ron Wyden, qonunning muallifi, shunday degan edi: *“Section 230 is the twenty-six words that created the internet”* (Kosseff, 2019, p. 1)[5].

Yevropa Ittifoqida esa 2022-yilda qabul qilingan Digital Services Act (DSA) platformalarni yanada qattiqroq tartibga soladi[6].

Raqamli huquqning eng muhim yo‘nalishlaridan biri – shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar haqida keng ma’lumot to‘playdi: joylashuv, qiziqishlar, do‘stlar doirasi, siyosiy qarashlari va boshqalar. Bu ma’lumotlar noto‘g‘ri ishlatilsa, jiddiy xavflarga olib kelishi mumkin.

2018-yilda Yevropa Ittifoqida kuchga kirgan **Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti** (GDPR – General Data Protection Regulation) shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish sohasida eng keng qamrovli xalqaro hujjat hisoblanadi[7]. GDPR asosida:

- *Foydalanuvchi o‘z ma’lumotlariga ega bo‘lish huquqiga ega;*
- *Ma’lumotlarni o‘chirish huquqi (“o‘ng bo‘lib unutilish huquqi”) tan olingan;*
- *Ma’lumotlar qayta ishlash uchun aniq rozilik talab etiladi;*
- *Qoidabuzarlik uchun jahon yalpi daromadining 4% miqdorida jarimalar belgilangan.*

Ijtimoiy tarmoqlardagi dezinformatsiya muammosi COVID-19 pandemiyasi davrida ayniqsa keskin ko‘zga tashlanib qoldi. Noto‘g‘ri tibbiy ma’lumotlar, siyosiy manipulyatsiya va ataylab tarqatiladigan yolg‘on xabarlar (disinformation campaigns) jamiyatga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Biroq dezinformatsiyani cheklash ifoda erkinligi bilan to‘qnashadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakti** (ICCPR) ning 19-moddasi ifoda erkinligini kafolatlaydi, biroq uni cheklashni ham ma’lum shartlar asosida ruxsat etadi: cheklov qonun asosida bo‘lishi, zarur va mutanosib bo‘lishi kerak[8].

Yevropa Inson Huquqlari Sudi Delfi AS v. Estonia (2015) ishida yirik yangiliklar portali foydalanuvchilar sharhlaridan mas’uliyat yuklashi mumkinligi to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu qaror Yevropa miqyosida onlayn platforma mas’uliyati sohasida muhim **precedent** yaratdi.

O‘zbekistonda raqamli huquq sohasidagi asosiy qonunchilik hujjatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun (2003) – axborot munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat[9]. Qonun elektron

hujjatlar, axborot xavfsizligi va davlat axborot tizimlari sohasini qamrab oladi. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun (2019) – shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash va himoya qilishni tartibga soladi. Ushbu qonun GDPR tamoyillaridan ilhomlanib, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan[10]. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun (2022) – axborot infratuzilmasini himoya qilish, kiberxavfsizlik talablarini belgilash va kiberintsidentlarga javob berish tartibini belgilaydigan muhim hujjat[11]. Qonun asosida Axborot xavfsizligi agentligi kiberxavfsizlik sohasidagi asosiy davlat organi sifatida belgilangan.

O‘zbekistonda raqamli huquq sohasidagi qator muammolar hali o‘z yechimini kutmoqda:

**Birinchidan,** platformalar mas’uliyatini belgilovchi maxsus qonunchilik hali shakllanmagan. Ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini tartibga solishda umumiy me’yorlar qo‘llaniladi, bu esa yetarli emas.

**Ikkinchidan,** shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish sohasida nazorat mexanizmi kuchsiz. Qonunchilik mavjud bo‘lsada, uning tatbiq etilishini ta’minlovchi mustaqil muassasa (ma’lumotlar himoyasi bo‘yicha ombudsmen yoki nazorat organi) haligacha to‘liq shakllanmagan.

**Uchinchidan,** raqamli huquq bo‘yicha mutaxassis kadrlar yetishmasligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Huquqshunoslik ta’limida texnologiya huquqi yo‘nalishini kuchaytirish zaruriyati mavjud.

O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Raqamli O‘zbekiston” strategiyasi doirasida raqamli huquq sohasi ham rivojlantirilishi rejalashtirilgan. Xususan, elektron davlat xizmatlari, raqamli iqtisodiyot va kiberxavfsizlik yo‘nalishlarida huquqiy bazani takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

Raqamli huquq – bu rivojlanishda davom etayotgan, doimo o‘zgarib borayotgan soha. Maqolada o‘rganilgan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

**Birinchidan,** raqamli huquqning samarali ishlashi uchun milliy qonunchilik xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirilishi shart. GDPR kabi keng qamrovli hujjatlar na’muna vazifasini o‘tashi mumkin.

**Ikkinchidan,** ijtimoiy tarmoqlar platformalar sifatida qonuniy mas’uliyat yukini o‘z zimmasiga olishi kerak, biroq bu ifoda erkinligini bo‘g‘maslik bilan muvozanatlashtirilishi zarur.

**Uchinchidan,** O‘zbekiston raqamli huquqni rivojlantirishda muhim qadamlar qo‘ygan bo‘lsada, nazorat mexanizmlari va ixtisoslashgan institutlarni shakllantirish jarayoni davom etishi kerak.

Oxir-oqibat, raqamli huquqning maqsadi – texnologiyalar insoniyat xizmatida bo‘lishini ta’minlash, fuqarolarning raqamli huquqlari himoyalanishiga kafolat berish va onlayn muhitda ham real hayotdagi kabi adolat va huquqiy tartibni o‘rnatishdan iborat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Lessig, L. (1999). *Code and Other Laws of Cyberspace*. Basic Books. New York.

2.Kosseff, J. (2019). *The Twenty-Six Words That Created the Internet*. Cornell University Press. Ithaca.

3.International Telecommunication Union. (2024). *Measuring digital development: Facts and figures 2024*. ITU Publications. Geneva.

4.European Union. (2016). *General Data Protection Regulation (GDPR)* – Regulation (EU) 2016/679. Official Journal of the European Union.

# TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

***J.Saidmusayev***
*Sarbon universiteti, Toshkent, O'zbekiston*
*[jasurbeksaidmusaev@gmail.com]*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi tashkiliy-huquqiy asoslarning nazariy, metodologik va institutsional jihatlari kompleks va ko‘p qatlamli ilmiy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish va tartibga solish imkonini beruvchi huquqiy mexanizmlarning tizimli nomuvofiqliklarini aniqlash hamda ularni takomillashtirishning konseptual modelini ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot davomida tizimli-strukturaviy, qiyosiy-huquqiy, institutsional va normativ-analitik yondashuvlar uyg‘unligi asosida ilmiy izlanish olib borildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi normativ-huquqiy baza fragmentar xarakter kasb etib, unda kollizion normalar, vakolatlarning takrorlanishi hamda institutsional disbalanslar mavjud. Mazkur maqolada muallif tomonidan taklif etilgan integratsiyalashgan yondashuv tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimining normativ va institutsional komponentlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Xulosa qismida esa tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** tashqi iqtisodiy faoliyat, huquqiy tartibga solish, institutsional mexanizm, normativ tizim, iqtisodiy integratsiya, davlat boshqaruvi, kolliziya, muvozanatli model.

Tashqi iqtisodiy faoliyat zamonaviy davlat iqtisodiy tizimining ajralmas va determinatsiyalovchi elementi sifatida namoyon bo‘lib, u milliy iqtisodiyotning global iqtisodiy makondagi pozitsiyasini belgilovchi muhim institutsional mexanizmdir. Shu jihatdan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi tashkiliy-huquqiy asoslarning

mukammalligi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki davlatning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini ham belgilab beradi. Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi, transmilliy kapital oqimlarining ortishi hamda global savdo tizimining murakkablashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmlariga nisbatan yangi, tizimli va kompleks yondashuvlarni talab etmoqda. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud normativ-huquqiy tizim ko‘pincha fragmentatsiyalashgan bo‘lib, unda funksional uyg‘unlik yetarli darajada ta’minlanmagan. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish masalalari turli nazariy paradigmalar asosida o‘rganilgan bo‘lib, ularning aksariyati normativ-huquqiy instrumentlarga urg‘u beradi. Biroq ushbu yondashuvlar ko‘pincha institutsional komponentlarni yetarli darajada qamrab olmaydi. Muallif sifatida biz ushbu fikrga quyidagicha qo‘shimcha qilamiz: tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning samaradorligi faqat normativ hujjatlar majmuasi mavjudligi bilan emas, balki ularning o‘zaro tizimli uyg‘unligi, funksional mosligi va amaliy implementatsiya darajasi bilan belgilanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishning ilmiy asoslangan konseptual modelini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan kompleks xarakterga ega bo‘lib, unda bir nechta ilmiy yondashuvlarning sintezi qo‘llanildi. Birinchidan, tizimli-strukturaviy tahlil usuli orqali tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy tizim elementlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Ushbu yondashuv normativ tizimning ichki arxitekturasini aniqlash imkonini berdi. Ikkinchidan, qiyosiy-huquqiy tahlil asosida turli davlatlar tajribasi o‘rganildi, bu esa milliy tizimning ustun va zaif tomonlarini aniqlashga xizmat qildi. Uchinchidan, institutsional yondashuv asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi subyektlar o‘rtasidagi vakolatlar taqsimoti va o‘zaro aloqalar tahlil qilindi. Muallif sifatida biz ushbu fikrga quyidagicha qo‘shimcha qilamiz: metodologik pluralizmni qo‘llash tashqi iqtisodiy faoliyatni nafaqat normativ darajada, balki uning real institutsional ishlash mexanizmlari nuqtai nazaridan ham tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi amaldagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning ko‘p qirrali va tizimli tahlili natijasida bir qator konseptual va amaliy muammolar aniqlandi. Mazkur muammolarni shartli ravishda normativ, institutsional va funksional guruhlarga ajratish mumkin. Birinchidan, normativ-huquqiy tizimning

fragmentarligi tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tartibga solish jarayonida eng asosiy to‘siqlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Turli darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida izchillikning yetishmasligi, ularning bir-biriga nisbatan subordinatsion munosabatlarining aniq belgilanmaganligi huquqiy aniqlikni pasaytiradi. Ikkinchidan, normativ kolliziyalar muammosi alohida e’tiborga loyiqdir. Xususan, tashqi savdo, bojxona tartibga solish, valyuta operatsiyalari va investitsiya faoliyatiga oid huquqiy normalar o‘rtasida mazmunan zidliklar mavjudligi aniqlangan. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha interpretatsiyalarga sabab bo‘lib, huquqiy noaniqlikni yuzaga keltiradi. Muallif sifatida biz ushbu fikrga quyidagicha qo‘shimcha qilamiz: normativ kolliziyalar nafaqat huquqiy tizimning ichki izchilligini buzadi, balki iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlarini prognoz qilish imkoniyatini ham cheklab, tashqi iqtisodiy faoliyatda risklar darajasini sezilarli oshiradi. Uchinchidan, institutsional tizimda vakolatlarning takrorlanishi va funksional disbalans kuzatilmoqda. Turli davlat organlari o‘rtasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish bo‘yicha vakolatlarning aniq chegaralanmaganligi boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda. To‘rtinchidan, institutsional koordinatsiya mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi aniqlangan. Bu holat turli davlat organlari faoliyatining fragmentatsiyalashuviga olib kelib, yagona strategik yondashuvni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Beshinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun huquqiy aniqlik va barqarorlik darajasi yetarli emasligi kuzatilmoqda. Normativ-huquqiy muhitning tez-tez o‘zgarishi hamda huquqiy normalarning murakkabligi tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha tranzaksion xarajatlarni keltirib chiqaradi. Muallif sifatida biz ushbu fikrga quyidagicha qo‘shimcha qilamiz: tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun huquqiy aniqlikning pastligi ularning uzoq muddatli strategik rejalashtirish imkoniyatlarini cheklab, investitsion faollikni susaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Oltinchidan, raqamlashtirish jarayonlarining yetarli darajada integratsiyalanmaganligi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimining zamonaviy talablarga mos kelmasligini ko‘rsatadi. Natijalar umumlashtirilganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimi kompleks islohotlarni talab qiluvchi, ko‘p darajali va o‘zaro bog‘liq muammolar majmuasidan iborat ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda mavjud yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimida normativ-huquqiy va institutsional komponentlar o‘rtasidagi

disbalans asosiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. An’anaviy nazariyalarda huquqiy tartibga solish asosan normativ-huquqiy hujjatlar majmui sifatida talqin etilgan bo‘lsa, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda ushbu jarayon ko‘proq institutsional va funksional omillar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilmoqda. Muallif sifatida biz ushbu fikrga quyidagicha qo‘shimcha qilamiz: tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimi ko‘p komponentli dinamik tizim sifatida qaralishi lozim bo‘lib, unda normativ-huquqiy asoslar, institutsional mexanizmlar va amaliy implementatsiya jarayonlari o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, integratsiyalashgan muvozanatli modelni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur model quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: normativ uyg‘unlik va izchillik, institutsional muvozanat va vakolatlar aniqligi, funksional samaradorlik, raqamli boshqaruv elementlarini integratsiya qilish, monitoring va baholash mexanizmlarining mavjudligi

imkonini beradi. Mazkur modelni amaliyotga joriy etish tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Muallif sifatida biz ushbu fikrga quyidagicha qo‘shimcha qilamiz: integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish orqali normativ-huquqiy tizim va institutsional mexanizmlar o‘rtasidagi uzilishlar bartaraf etilib, boshqaruv jarayonlarining sinergetik samarasi ta’minlanadi. Biroq ushbu modelni joriy etishda bir qator cheklovlar mavjud: normativ tizimning konservativligi, institutsional qarshiliklar

moliyaviy va texnologik resurslarning yetishmasligi, kadrlar salohiyatining yetarli emasligi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish jarayonida xalqaro tajribani hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida, mazkur tadqiqot natijalari tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimining mavjud holatini kompleks tahlil qilish asosida uning takomillashtirilishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimi normativ-huquqiy va institutsional komponentlarning o‘zaro integratsiyasi asosida yagona tizim sifatida talqin qilindi.

Muallif sifatida biz ushbu fikrga quyidagicha qo‘shimcha qilamiz: tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish faqat normativ hujjatlarni modernizatsiya qilish bilan cheklanmasdan, balki institutsional mexanizmlarni ham tubdan qayta tashkil etishni talab etadi. Amaliy

tavsiyalar quyidagilardan iborat: normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish va kodifikatsiya qilish, vakolatlar takrorlanishini bartaraf etish, yagona koordinatsiya markazini tashkil etish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun huquqiy aniqlikni oshirish. Mazkur takliflarning amalga oshirilishi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimining samaradorligini oshirishga, investitsion muhitni yaxshilashga hamda milliy iqtisodiyotning global iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## MARKAZIY OSIYODA TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

***J.Saidmusayev,***
***G.Bekturdiyeva***
*Sarbon universiteti, Toshkent, O‘zbekiston*
*[jasurbeksaidmusaev@gmail.com]*
*bekturdiyevagulmira1@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi tashkiliy-huquqiy asoslarning zamonaviy transformatsiya jarayonlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda global iqtisodiy integratsiya sharoitida milliy huquq tizimining moslashuvchanlik darajasi va institutsional samaradorligi kompleks tarzda o‘rganiladi. Tadqiqotning konseptual asosini tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ko‘p darajali tizimi tashkil etib, unda normativ-huquqiy instrumentlar, institutsional mexanizmlar hamda boshqaruv jarayonlarining o‘zaro aloqadorligi sintez asosida yoritiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimida mavjud bo‘lgan normativ disproporsiyalar, funksional takrorlanishlar va koordinatsiya yetishmovchiligi uning samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Muallif tomonidan taklif etilgan yondashuv ushbu tizimni strukturaviy optimallashtirish va institutsional muvozanatni ta’minlash orqali tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada barqaror va prognoz qilinadigan rivojlanish modeliga o‘tkazishni nazarda tutadi.

**Kalit so‘zlar:** tashqi iqtisodiy faoliyat, tashkiliy-huquqiy mexanizm, normativ uyg‘unlik, institutsional transformatsiya, iqtisodiy integratsiya, huquqiy tizim samaradorligi, koordinatsiya mexanizmlari, tartibga solish modeli.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmi milliy qonunchilik asosida shakllangan bo‘lib, unda soliq, bojxona hamda investitsiya munosabatlari bilan bog‘liq huquqiy institutlar muhim o‘rin egallaydi.. Jumladan, soliq munosabatlari asosida tartibga solinadi va unda xalqaro shartnomalarning ustuvorligi prinsipi mustahkamlangan. Mahalliy olimlardan B.Rasulov huquqiy mexanizmni

“davlatning iqtisodiy siyosatini huquqiy vositalar orqali amalga oshirish tizimi” sifatida talqin qiladi. Shuningdek, U.Tadjixanov huquqiy tartibga solish mexanizmini iqtisodiy islohotlarning huquqiy asosini ta’minlovchi omil sifatida baholaydi.

Bizning fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish mexanizmi zamonaviy bosqichda “ko‘p darajali regulyativ platforma” sifatida shakllanib bormoqda. Bunda mazkur tizim faqat davlat tomonidan yaratiladigan normativ-huquqiy asoslar bilan cheklanib qolmay, balki xalqaro institutlar masalan, Jahon savdo tashkiloti, xalqaro arbitraj organlari, xususiy regulyatorlar xalqaro savdo qoidalari va standartlar tizimi hamda raqamli platformalar elektron savdo va raqamli iqtisodiyot infratuzilmalari bilan to‘ldirilgan murakkab va ko‘p qatlamli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. bizning nazarimizda, mazkur yondashuvlar, garchi ilmiy jihatdan asosli bo‘lsa-da, tashqi iqtisodiy faoliyatning zamonaviy, global va ko‘p darajali tabiatini to‘liq qamrab olmaydi. Chunki ular asosan davlat markazlashgan model doirasida shakllangan bo‘lib, bugungi kunda yuzaga kelayotgan transmilliy iqtisodiy aloqalar, raqamli iqtisodiyot va xususiy regulyativ institutlar ta’sirini yetarli darajada aks ettirmaydi. Shu nuqtai nazardan, biz tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish mexanizmini zamonaviy bosqichda “ko‘p darajali regulyativ platforma” sifatida talqin etishni ilmiy jihatdan asosli deb hisoblaymiz. Mazkur yondashuvga ko‘ra, tartibga solish mexanizmi faqat davlat tomonidan yaratiladigan normativ-huquqiy tizim bilan cheklanmaydi, balki u Jahon savdo tashkiloti kabi xalqaro institutlar, xalqaro arbitraj mexanizmlari, xususiy regulyatorlar savdo standartlari va qoidalari shuningdek, elektron savdo platformalari orqali shakllanadigan raqamli infratuzilmani ham o‘z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha, aynan shu yondashuv hozirgi davr talablariga eng mos keladi. Chunki u tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish jarayonini statik normativ tizim sifatida emas, balki turli darajadagi subyektlar va institutlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga asoslangan dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Natijada, huquqiy mexanizmning samaradorligi faqat davlat siyosati bilan emas, balki xalqaro hamkorlik, xususiy tashabbuslar va raqamli texnologiyalar bilan ham belgilanadi. Shunday qilib, ilmiy nuqtai nazardan, mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalarni inkor etmagan holda, ularni zamonaviy global tendensiyalar bilan boyitish zarur. Aynan integratsiyalashgan va ko‘p darajali yondashuv tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish mexanizmining real mohiyatini to‘liqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Mualliflar tomonidan ilmiy yangilik sifatida shuni asoslash mumkinki, tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish mexanizmini an’anaviy *“normativ model”* doirasida emas, balki *“tarmoq modeli”* konsepsiyasi asosida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur modelga ko‘ra, turli darajadagi huquqiy ta’sir elementlari o‘zaro bog‘liq holda va bir-birini to‘ldirgan tarzda faoliyat yuritadi. Tarmoq modeli esa tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda ishtirok etuvchi subyektlar – davlatlar, xalqaro tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar hamda nodavlat institutlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlikka asoslangan ko‘p markazli tizim sifatida talqin etiladi. Mazkur model quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: ko‘p darajalilik milliy, mintaqaviy va global darajadagi tartibga solish uyg‘unligi; gorizontal aloqalar ustuvorligi subyektlar o‘rtasida tenglik asosida hamkorlik; yumshoq huquq instrumentlarining keng qo‘llanilishi standartlar, tavsiyalar, kodekslar; institutsional xilma-xillik davlat organlari bilan bir qatorda xususiy va xalqaro institutlarning ishtiroki muhim sanaladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda tarmoq modelining amalda namoyon bo‘lishi bir qator o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda ko‘zga tashlanadi. Jumladan, xalqaro savdo munosabatlari Jahon savdo tashkiloti qoidalari, mintaqaviy kelishuvlar hamda milliy qonunchilik normalarining uyg‘unligi asosida tartibga solinadi. Shu bilan birga, transmilliy korporatsiyalar o‘z ichki korporativ standartlari va qoidalari orqali global savdo amaliyotida muayyan regulyativ normalarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, xalqaro arbitraj institutlari hamda nizolarni hal etish mexanizmlari milliy sud tizimlari bilan parallel ravishda faoliyat yuritib, ko‘p markazli huquqiy tartibga solish tizimini shakllantiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa elektron savdo platformalari amalda yangi turdagi xususiy regulyativ tizim sifatida shakllanib, savdo jarayonlarini o‘z ichki qoidalari asosida muvofiqlashtirib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalari – bu davlat tomonidan tashqi iqtisodiy munosabatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan huquqiy va iqtisodiy instrumentlar majmuasi hisoblanadi. Xorijiy olimlar tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalarini turlicha tasniflaydilar. Masalan, M.Trebilcock ularni tarif va notarif vositalarga ajratib, bojxona bojlari, kvotalar va texnik standartlarni asosiy vositalar sifatida ko‘rsatadi. R.David esa davlatning iqtisodiy siyosatida milliy manfaatlarni himoya qiluvchi vositalarning muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

J.Bhagwati tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda savdo cheklovlari va erkinlashtirish choralarining muvozanatini saqlash zarurligini qayd etadi. Mahalliy olimlar ham tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalarini iqtisodiy va ma’muriy guruhlarga ajratadilar. Jumladan, quyidagi vositalar ajratib ko‘rsatiladi: a) bojxona bojlari va tariflar; b) soliq imtiyozlari va preferensiyalar; c) litsenziyalash va

d) kvotalash; e) valyuta tartibga solish choralar; f) eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish. Bu vositalar orqali davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish yoki cheklash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi yondashuvlar ichida J. Bhagwati konsepsiyasi zamonaviy sharoitga eng mos keluvchi yondashuv sifatida baholanishi mumkin. Chunki u tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda qat’iy bir tomonlama modelni emas, balki moslashuvchan va muvozanatli yondashuvni taklif etadi. Bunda asosiy e’tibor vositalar aniq tasnif asosida tarif va notarif rejimlar, milliy manfaatlarni hisobga olgan holda hamda erkinlashtirish va cheklov choralarining optimal muvozanatini ta’minlash orqali qo‘llanilgandagina yuqori natija beradi. Aynan shunday kompleks va differensial yondashuv tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish vositalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu vositalar normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo‘lib, xususan, soliq qonunchiligi orqali iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilgan. Bizning fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalari zamonaviy sharoitda sezilarli darajada transformatsiyaga uchrab, faqat an’anaviy ma’muriy-huquqiy choralar doirasi bilan cheklanib qolmayapti. Zamonaviy bosqichda tarif vositalariga nisbatan notarif instrumentlar – xususan, texnik standartlar, reglamentlar va sertifikatlash talablarining roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda iqtisodiy vositalarning ustuvorligi davlatning bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich moslashib borayotganini anglatadi. Mualliflar tomonidan ushbu vositalar *moslashuvchan instrumentlar tizimi* sifatida talqin qilinadi, ya’ni ular muayyan iqtisodiy vaziyat, xalqaro majburiyatlar hamda milliy manfaatlardan kelib chiqib differensial yondashuv asosida qo‘llanishi lozim. Umuman olganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish mexanizmlari va vositalari o‘zaro uzviy bog‘liq hamda bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tizimni tashkil etadi. Ularning samaradorligi normativ-huquqiy baza, institutsional tuzilma va amaliy qo‘llash mexanizmlarining uyg‘unligiga bevosita bog‘liq bo‘lib,

zamonaviy sharoitda ushbu tizim tobora moslashuvchan va kompleks xarakter kasb etib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalari huquqiy mexanizmning amaliy ifodasi bo‘lib, ular orqali davlat va boshqa subyektlar iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy olim D.Rodrik tashqi iqtisodiy siyosat vositalarini “*milliy rivojlanish strategiyasini ta’minlash instrumentlari*” sifatida baholab, ularni moslashuvchan qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, J.Stiglitz global iqtisodiy tizimda davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan vositalar teng sharoit yaratishga emas, balki ko‘pincha manfaatlar muvozanatini ta’minlashga xizmat qilishini qayd etadi. Yevropa Ittifoqi tajribasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalari yagona bojxona siyosati, savdo siyosati va texnik standartlar orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida mazkur tartibga solish vositalari kompleks va tizimli yondashuv asosida qo‘llanilib, bir tomondan iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa uni huquqiy jihatdan nazorat qilish funksiyasini ham bajaradi. Ushbu holat milliy qonunchilik tizimida, xususan, soliq, bojxona va investitsiya munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar orqali o‘z ifodasini topadi. Buning natijasida, davlat tomonidan qo‘llanilayotgan iqtisodiy-huquqiy vositalar muvozanatli tartibga solish modelini shakllantirishga xizmat qiladi.. Mahalliy olimlardan N.Jo‘rayev tashqi iqtisodiy faoliyat vositalarini “*iqtisodiy siyosatning amaliy instrumentlari*” sifatida baholaydi. Fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalari zamonaviy sharoitda quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega: Birinchidan, vositalar klassik bojxona, soliq shakldan chiqib, raqamli va texnologik instrumentlar bilan boyimoqda. Ikkinchidan, vositalarning samaradorligi ularning qat’iyligida emas, balki moslashuvchanligida namoyon bo‘lmoqda. Uchinchidan, zamonaviy tashqi iqtisodiy faoliyatda “yumshoq vositalar” standartlar, reytinglar, xalqaro qoidalar roli ortib bormoqda.

Mazkur yondashuvlar doirasida muallif tomonidan ilgari surilayotgan “regulyativ kombinatsiya modeli” alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu model turli huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy vositalarni bir tizimga birlashtirgan holda, ularning muayyan vaziyat va sharoitlardan kelib chiqib moslashuvchan qo‘llanilishini nazarda tutadi. Xorijiy olim I.Ayres va J.Braithwaite “responsive regulation” nazariyasida davlat tomonidan turli tartibga solish vositalarini vaziyatga qarab bosqichma-bosqich qo‘llash zarurligini asoslaydilar. Ularning

fikricha, qat’iy nazorat choralaridan tortib yumshoq rag‘batlantirishgacha bo‘lgan vositalar o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishi Natijada tartibga solish jarayoni bir markazdan boshqariladigan tizim emas, balki ko‘p subyektli hamkorlikka asoslangan moslashuvchan mexanizmga aylanadi. I.Ayres va J.Braithwaite tomonidan ilgari surilgan “responsive regulation” esa ushbu yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin. Chunki undagi bosqichma-bosqich tartibga solish g‘oyasi amaliyotda “smart regulation” doirasida qo‘llaniladigan asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bunda davlat avval yumshoq va rag‘batlantiruvchi choralarni qo‘llab, zarurat tug‘ilganda qat’iy nazorat vositalariga o‘tadi. Bizning fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solishda eng maqbul yondashuv – bu “smart regulation” konsepsiyasidir. Chunki u davlatning qat’iy nazorat funksiyasini inkor etmagan holda, uni bozor mexanizmlari va institutsional hamkorlik bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada tartibga solish tizimi yanada moslashuvchan, samarali va global iqtisodiy o‘zgarishlarga tez javob bera oladigan shaklga ega bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solishning zamonaviy mexanizmlari va vositalari klassik, ya’ni an’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda ko‘p darajali, integratsiyalashgan hamda moslashuvchan tizim sifatida shakllanib bormoqda. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan “responsive regulation” va “smart regulation” konsepsiyalari, shuningdek xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan normalari jumladan, JST doirasidagi qoidalar va xalqaro investitsiya bitimlari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tartibga solish faqat imperativ choralar bilan cheklanib qolmasdan, balki iqtisodiy rag‘batlantirish, dispozitiv kelishuvlar hamda “yumshoq huquq” instrumentlari orqali ham amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida ham soliq, bojxona va investitsiya sohalarini tartibga soluvchi qonunchilik asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni kompleks huquqiy tartibga solish tizimi shakllanib bormoqda. Ushbu tizimda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy aloqalarni izchil erkinlashtirish siyosati ham muvozanatli tarzda olib borilmoqda. Shu asosda tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solishda “regulyativ kombinatsiya modeli”ni qo‘llash zaruriyati asoslanadi. Mazkur model turli huquqiy va iqtisodiy vositalarni aniq iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib o‘zaro uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi hamda davlat, bozor subyektlari va xalqaro institutlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
- O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz)
- O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.
- O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
- Rasulov B. Davlatning iqtisodiy siyosatini huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshirish masalalari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
- Tadjixanov U. Iqtisodiy islohotlarning huquqiy asoslari va tartibga solish mexanizmlari. – Toshkent: Fan, 2019.
- Jo‘rayev N. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
- Trebilcock M. The Regulation of International Trade. – London: Routledge, 2014.
- David R. Major Legal Systems in the World Today. – London: Stevens & Sons, 1985.
- Bhagwati J. Free Trade Today. – Princeton: Princeton University Press, 2002.
- Rodrik D. The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy. – New York: W.W. Norton & Company, 2011.


# O‘ZBEKISTONDA MULK SHAKLLARI VA ULARNING MUHOFAZASI


***M.F.Xo‘jayeva,***
*Sarbon universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,*
*ORCID: 0009-0009-6149-8758*
*G-mail: khujayevam@gmail.com*



**Annotatsiya.** *Mazkur tezis O‘zbekiston Respublikasida mulk shakllarining evolyutsiyasi, huquqiy asoslari va ularni samarali himoya qilish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida xususiy, davlat, jamoat, intellektual va boshqa mulk shakllari tan olindi, ularning huquqiy kafolatlari mustahkamlandi. Tadqiqot O‘zbekiston qonunchiligida mulk shakllarining huquqiy tartibga solinishini va amaldagi himoya tizimining samaradorligini baholaydi; mavjud sud va ma’muriy mexanizmlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi; xorijiy tajriba asosida tavsiyalar taklif etadi.*

**Kalit so‘zlar:** *mulk huquqi, mulk shakllari, xususiy mulk, davlat mulki, intellektual mulk, mulk daxlsizligi, xususiylashtirish, investitsion muhit, sud-huquq tizimi, yer munosabatlari, raqamli iqtisodiyot, huquqiy kafolatlar, O‘zbekiston qonunchiligi, iqtisodiy islohotlar.*

Keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davom etayotgan O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlari va uning huquqiy himoyasi masalasi tobora keskinlashib bormoqda. Mulkning turli shakllarini tan olish va daxlsizligini kafolatlash – bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyili bo‘lib, davlat barqarorligi, investitsiya jozibadorligi va fuqarolar farovonligining muhim shartidir. “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida huquqiy davlat va erkin bozor iqtisodiyotini barpo etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bir paytda, mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarini yangilash zaruriyati yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Konstitutsiyamiz mulk daxlsizligini va davlat tomonidan himoya qilinishini qat’iy belgilab qo‘ygan. Shu bilan birga, amaliyotda bu tamoyillarni to‘liq ro‘yobga chiqarishda qator muammolar saqlanmoqda. Yer munosabatlaridagi chigalliklar, mulkni ro‘yxatga olishdagi shaffoflik kamchiliklari, mulk nizolarini ko‘rib chiqishdagi nomuvofiqliklar, intellektual mulkni himoya qilish mexanizmlarining zaif rivojlanganligi – bularning barchasi iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada investitsion muhit yomonlashadi, tadbirkorlar huquqiy himoyasiz qolish xavfiga duch keladi, fuqarolarning davlatga ishonchi susayadi

Tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda mulk shakllarining hozirgi ahvolini tahlil qilish, ularning huquqiy muhofazasi mexanizmlarini o‘rganish va mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish. Buning uchun qonunchilikda mustahkamlangan mulk shakllarini tizimli tasniflash, Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi va Yer kodeksini tahlil qilish, sud-huquq tizimi va kadastr xizmatining samaradorligini baholash, huquqiy bo‘shliqlarning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini asoslash hamda xorijiy ilg‘or tajriba asosida takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

Metodologik asosni tizimli va integratsiyalashgan yondashuv tashkil etadi. Normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil (MDH, YeI va rivojlangan davlatlar tajribasi bilan solishtirish), tarixiy-huquqiy tahlil hamda deduktiv-induktiv usullar qo‘llanildi. Empirik baza: Oliy sud Plenum qarorlari, vazirlik statistikalari, monografiyalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari.

O‘zbekistonning yangi iqtisodiy islohotlar sharoitida mulk munosabatlarining transformatsiyasi birinchi marta yaxlit tizim sifatida,

institutsional-huquqiy yondashuv asosida ko‘rib chiqildi. Ilmiy yangiliklar qatoriga: iqtisodiy liberalizatsiya jarayonida “mulkiy plyuralizm” tushunchasining zamonaviy mazmunini muomalaga kiritish; fuqarolik-huquqiy, ma’muriy-huquqiy va jinoiy-huquqiy vositalar o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha konseptual takliflar; ekspropriatsiya jarayonida “jamoat” va “xususiy” manfaat muvozanatini ta’minlashning samarali huquqiy modeli; raqamli iqtisodiyotda kripto-aktivlar va virtual mulkning huquqiy maqomini belgilash zaruratini ilmiy asoslash kiradi.

O‘zbekistonda mulk shakllari mustaqillik yillarida chuqur evolyutsiyani boshdan kechirdi. Sovet davrida davlat mulkining mutloq ustunligi hukmron bo‘lgan, xususiy mulk iste’mol buyumlari bilan cheklangan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mulk shakllarining xilma-xilligini tan olish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi – bu Konstitutsiyada o‘z ifodasini topib, Fuqarolik kodeksi va maxsus qonunlar bilan rivojlantirildi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra mulk xususiy va ommaviy shakllarda mavjud; xususiy mulk daxlsizligi konstitutsiyaviy prinsip darajasiga ko‘tarilgan [1].

Biroq de-yure kafolatlarning de-fakto ijrosi qator ziddiyatlarga duch kelmoqda. Ko‘chmas mulkni davlat ehtiyoji uchun olib qo‘yish bilan bog‘liq masalalar eng og‘riqli nuqta bo‘lib qolmoqda: bozor qiymatida adolatli tovon to‘lash va jarayonning ochiqligini ta’minlashda kamchiliklar saqlanmoqda, bu investitsion muhitga putur yetkazib, mulkdorlarning ishonchini zaiflashtirib qo‘ymoqda [2]. Keng ko‘lamli xususiylashtirish dasturlari davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa-da, xususiylashtirilayotgan obyektlarning adolatli baholanishi va jarayon shaffofligi hali ham maxsus e’tiborni talab etadi [3].

Mulk huquqini himoya qilish fuqarolik-huquqiy, ma’muriy-huquqiy va jinoiy-huquqiy vositalarni qamrab oladi. Vindikatsion va negator da’volar keng qo‘llaniladi [4], biroq sud amaliyotida izchillik yo‘q. Ma’muriy sudlarning tashkil etilishi muhim qadam bo‘ldi, lekin sudlarning haqiqiy mustaqilligini ta’minlash masalasi hali ochiq. Tadbirkorlarga nisbatan asossiz jinoiy ish qo‘zg‘atish holatlari investitsiya muhitiga jiddiy zarar yetkazmoqda [5]. Yerga bo‘lgan mulk huquqi esa eng fundamental muammo bo‘lib qolmoqda: qishloq xo‘jaligi yerlari davlat mulki sifatida saqlanib, faqat ijaraga beriladi – bu agrar sohada to‘laqonli mulkiy munosabatlar shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda [6].

Tadqiqot natijalari Oliy Majlis, Adliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi uchun qonunchilik islohotlarida metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [7]; sudyalar va advokatlar uchun mulk nizolarini ko‘rib chiqishda qo‘llanma bo‘lishi mumkin [8]; investorlarning ishonchini mustahkamlash orqali investitsion muhitni yaxshilashga hissa qo‘shadi

Tadqiqot mamlakatda mulkiy munosabatlarni isloh qilish borasida muhim normativ-huquqiy baza barpo etilganligini tasdiqlaydi. Biroq qonundagi normalar bilan amaliyot o‘rtasidagi tafovut jiddiyligicha qolmoqda. Quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: mulk huquqiga oid normalarni tizimlashtirish uchun yagona “Mulk to‘g‘risida”gi Kodeks ishlab chiqish [9]; “jamoat ehtiyojlari” tushunchasiga aniq ta’rif berish va kompensatsiyaning bozor qiymatida oldindan to‘lanishini kafolatlash; kadastr tizimini to‘liq raqamlashtirish va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish [10]; mulkiy nizolar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sudlarning mustaqilligini kuchaytirish va mulkdorlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish [11].

Xususiy mulk daxlsizligi tamoyilining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida xizmat qiladi, biroq davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki bu tamoyilning to‘liq ro‘yobga chiqishiga ba’zan to‘sqinlik qiladi. Xususiylashtirish jarayonlarida shaffoflikning ta’minlanmasligi korruptsiya xavfini oshiradi va mulk huquqlari kafolatlarini susaytiradi [2]. Intellektual mulkni himoya qilish – innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning markaziy sharti, biroq raqamli muhitda uning amaliy ijrosi hali jiddiy to‘siqlarga duch kelmoqda [12]. Sud tizimining mustaqilligi va ixtisoslashuvi, hamda fermerlarning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish – iqtisodiy barqarorlik uchun asosiy shartdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

4. Bazarov U.B. Mulk huquqi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.

5. Qosimov A. Mulkchilik munosabatlari va ularning huquqiy tartibga solinishi. – Toshkent: Fan, 2019.

6. Rustambayev M. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2020.
7. Jo‘rayev Sh. Mulk shakllari va ularning iqtisodiy-huquqiy asoslari. – Toshkent, 2018.
8. Axmedov D. Mulkchilik munosabatlarining rivojlanish tendensiyalari. // Iqtisodiyot va huquq jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–52.
9. Ismailov B. Mulk huquqini himoya qilishning dolzarb masalalari. // Huquq va jamiyat. – 2021. – №1. – B. 67–73
10. Yusupov O. Xususiy mulk himoyasining konstitutsiyaviy kafolatlari. // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2023. – №2. – B. 30–38.
11. G‘ofurov Z. Mulk huquqining fuqarolik-huquqiy himoyasi. – Toshkent: Norma, 2020.
12. Sobirov M. Davlat mulki va uning boshqaruvi. – Toshkent: Sharq, 2017.

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING TASHKILIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

***Sh.N.Yoqubov***
*Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*
*[yoqubovsherzod0611@gmail.com]*
*+998 93 226 88 83*

Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida turli sub’ektlar ishtirok etadi. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti belgilangan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi nazarda tutilgan. Mazkur qonunning 14-moddasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi sub’ektlar sifatida belgilangan. Shu bilan

birga parlamentning palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha maxsus qo‘mitalar faoliyati tashkil etilgan.

Ta’kidlash lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro talablaridan biri bu borada maxsus vakolatli milliy organlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish talab etiladi. BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 36-moddasida ana shunday talab o‘z ifodasini topgan qo‘yilgan[^2]

Tahlillar mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-institutsional asoslari yagona mexanizm sifatida shakllanmaganligi va ularni bir tizim sifatida qabul qilishdan ko‘ra xaos holda tushunish osonligini ko‘rsatmoqda.

Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-institutsional asoslari quyidagilardan tarkib topgan: korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan umumiy vakolatga ega sub’ektlar; sudlar; korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi sub’ektlar; korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli sub’ektlar; korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi sub’ektlar.

*Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan umumiy vakolatlar* parlament va mahalliy vakillik organlari, Prezident hamda Hukumat tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy funksiyalaridan biri O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish hisoblanar ekan[^3] shubhasiz bugungi kunda mamlakat ichki siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri korrupsiyaga qarshi kurashish hisoblanadi. Prezidentlik institutining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi o‘rni birinchidan, bevosita prezidentning o‘zi tegishli farmon hamda qarorlar qabul qilish orqali ishtirokida, ikkinchidan, prezident huzuridagi institutlar orqali (masalan, davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi, biznes-ombudsman) amalga oshiriladi.

Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament nazoratining amalga oshirilishini hamda ilg‘or xorijiy tajriba asosida va parlamentning barcha bo‘g‘indagi davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada kuchaytirishga vakillik organi sifatida munosib hissa qo‘shishini ta’minlaydi[^4].

Parlament nazorati shakllaridan biri sifatida ham O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O‘zbekiston

Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruzasini ko‘rib chiqish belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tayyorlanadigan har yilgi O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruza (Milliy ma’ruza) O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori tomonidan Oliy Majlis palatalariga taqdim etiladi[^5].

Parlament korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa muhim imkoniyatlarga ham ega. Jumladan, parlament nazorati shakllaridan biri sifatida parlament tekshiruvi nazarda tutilgan hamda jamiyat va davlatning eng muhim manfaatlariga daxl qiluvchi, mamlakat xavfsizligi asoslariga, uning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muayyan faktlarni yoki voqealarni o‘rganish maqsadida Qonunchilik palatasining, Senatning qarori bilan parlament tekshiruvi o‘tkazilishi mumkinligi nazarda tutilgan[^6]

Xalqaro tajribaga ko‘ra, odatda inson va fuqarolarning konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarining qo‘pol yoki ommaviy buzilishi, texnogen va tabiiy xarakterdagi favqulodda holatlar yuzaga kelishi sabablari va ularning oqibatlari, davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etishdagi qo‘pol qonun buzilishlar parlament tekshiruvi orqali o‘rganiladi

Korrupsiya bilan bog‘liq holatlarni tekshirish, voqelikka baho berish va qonuniy chora ko‘rilishini ta’minlash maqsadida parlament tekshiruvidan foydalanish amaliyoti muhim ahamiyat kasb etadi. AQSH va Yevropa mamlakatlarida korrupsiya bilan bog‘liq yirik mojorolarni tekshirishda parlament tekshiruvi institutining imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

Bir qator davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli organ faqat parlamentga bo‘ysunadi va unga hisob beradi. Xususan, Litvada korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli organlar Maxsus tergov xizmati (Specialiųjų tyrimų tarnyba – STT) hamda Davlat xizmati organlarida etika masalalari bo‘yicha markaziy komissiya (CIEC), Sloveniyada Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha maxsus komissiya (CPC) faqat mamlakat parlamentiga bo‘ysunadi va unga hisob beradi. Shuningdek, Makedoniyada Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha Davlat komissiyasi (Drjavnata komisija za sprechuvaњe na korupsija – DKSK) huquq va iqtisod

sohasidagi ekspertlardan tarkib topgan bo‘lib uning a’zolari parlament tomonidan shakllantiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining tegishli qo‘mitasi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyalari o‘z faoliyatida mahalliy darajada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqadilar. Mahalliy Kengash sessiyaga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash uchun o‘z vakolatlari muddatiga jamoatchilik asosida faoliyatni amalga oshiruvchi doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzishi hamda ular tarkibiga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin[^7].

Sud hokimiyati tizimida korrupsiyaning oldini olish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xalqaro standartlarga ko‘ra bu borada maxsus choralar ko‘rish lozimligi nazarda tutiladi. Xususan, Korrupsiyaga qarshi konvensiyaning 11-moddasining birinchi bandida “Sud hokimiyatining mustaqilligi va u korrupsiyaga qarshi kurashishda hal qiluvchi rol o‘ynashini hisobga olgan holda, har bir ishtirokchi Davlat, o‘z huquqiy tizimining asosiy tamoyillariga muvofiq va sud organlari mustaqilligiga putur yetkazmagan holda sudyalar va sud organlari xodimlari halolligi va pokligini kuchaytirish hamda ular orasida korrupsiya ildiz otishiga hech qanday imkon bermaslik choralarini ko‘radi” deb, belgilangan[^8].

O‘zbekiston Respublikasida sudlar korrupsiyaga qarshi kurashishda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tegishli vakolatlarni amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish doirasida korrupsiyaning oldini olish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudining «O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 208-moddasi 35-bandining o‘zbekcha matniga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish haqida»gi 2009-yil 5-fevraldagi[^9], “Xorazm viloyati hokimligining

1996-yil 11-noyabrdagi 275-raqamli qarori bilan qabul qilingan “Viloyat hududida badiiy jamoalar konsert gastrol faoliyatini hamda yakka ijrochilarning to‘y va marosimlarda badiiy xizmat ko‘rsatishlarini tartibga solish maqsadida davlat ruxsatnomasi (litsenziya) berish hamda madaniy xizmat byurosi faoliyati to‘g‘risida” nizomning 2.7-bandi konstitutsiyaga mosligini tekshirish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha” 1997-yil 25-fevraldagi[^10], “Surxondaryo viloyati hokimining

1996-yil 15-avgustdagi 164-raqamli farmoyishining konstitutsiyaga mosligini tekshirish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha” 1997-yil 25-fevraldagi[^11], “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 118-moddasini qo‘llanishning konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha” 1998-yil 16-yanvardagi[^12], “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hisobvarag‘idan pul mablag‘larini o‘chirish navbatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1998-yil 16-yanvardagi[^13], “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 53, 54-moddalari bilan 257-moddasi o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish to‘g‘risida taklif kiritish haqida”gi 2001-yil 12-iyundagi[^14], “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 59-moddasini sharhlash to‘g‘risida”gi 2001-yil 10-oktyabrdagi qarori[^15] hamda “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 128-moddasi to‘rtinchi qismining o‘zbek va rus tili matnlaridagi nomuvofiqlikni bartaraf etish to‘g‘risidagi taklifni Oliy Majlisga taqdim etish haqida”gi 2002-yil 14-noyabrdagi[^16] va boshqa qarorlarida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bilan bog‘liq normalar o‘z ifodasini topgan.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki. Mazkur sudning qarorlari korrupsiyaga qarshi kurashishning quyidagi tartibotlarini belgilaydi: *birinchidan,* tegishli qonun normalariga sharh berish orqali ulardagi mavhumlikni bartaraf etadi va ushbu mavhumlik keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy omillarga chek qo‘yadi; *ikkinchidan,* normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirish yuzasidan qonun loyihalarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritadi; *uchinchidan,* normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi yuzasidan xulosalar beradi.

Tahlillar konstitutsiyaviy sud institutining korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim imkoniyatlarga egaligini ko‘rsatmoqda. Xususan, xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan kuchli va mustahkam konstitutsiyaviy nazorat joriy etilgan, bunda yirik korrupsiyaviy holatlar va mojarolarda mazkur sud hal qiluvchi qarorlar qabul qilish vakolatiga ega. Masalan, mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish, ularni iste’foga chiqarish, ma’lum qarorlarga nisbatan veto qo‘yish kabilar shular jumlasidandir.

Nizolarni ko‘rib chiqish doirasida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar, iqtisodiy sudlar hamda

ma’muriy sudlar korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etishning eng kuchli institutsional tuzilmalari hisoblanadi. Bunda mazkur sudlarning amalda mustaqilligini ta’minlash mazkur jarayonlarning yadrosi hisoblanadi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish orqali korrupsiyaning oldini olishda ishtirok etadi.

Sudyalar oliy kengashi sud tizimida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha maxsus vakolatlarga ega. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2020-yil 7-dekabrdagi “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta’minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6127-son Farmoniga asosan sud tizimini malakali va halol pok kadrlar bilan to‘ldirish, sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlarining sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish yuzasidan bir qator muhim vazifalar belgilandi.

Farmon bilan sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bo‘yicha kasbiy faoliyatini har qanday ko‘rinishdagi tashqi ta’sirlardan samarali muhofaza qilishni ta’minlaydigan huquqiy mexanizmlarni yaratish, sudyalikka kadrlarni tanlash, tayyorlash, lavozimga tayinlash, shuningdek, sudyalar faoliyatini baholashda xolislik va shaffoflikni ta’minlash, ushbu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini izchil joriy qilish, sudyalar va sud apparati xodimlari orasida korrupsiya holatlarining oldini olish va barvaqt aniqlashga qaratilgan tizimni yo‘lga qo‘yish hamda sud tizimida aniqlangan har qanday korrupsiyaviy harakatni murosasiz holat deb baholash hamda sudyalarning kasbiy malakasi, ma’naviyati va mas’uliyatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali yuksak professional sudyalar korpusini shakllantirish Sudyalar mustaqilligini ta’minlash va sud tizimida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi[^17].

Shu bilan birga korrupsiya va u bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha maxsus sudlar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Bu borada ko‘plab xorijiy mamlakatlarda (Filippin Pokiston, Indoneziya, Nepal, Keniya, Bangladesh, Burundi, Xorvatiya, Uganda, Kamerun, Malayziya, Bolgariya, Botsvana, Meksikada) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni tergov qilish bo‘yicha maxsus sudlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan muhim imkoniyatlarga ega. Ammo qonunchilikda ushbu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishning aniq huquqiy mexanizmlari mavjud emas. Xususan Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi sifatida vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi hamda yo‘naltirish vakolatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019-yil

30-sentyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2782-III/KQ-610-III-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga har bir davlat boshqaruvi organlarida jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy dasturlarni ishlab chiqilishini ta’minlash, korrupsiya holatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday xizmatlarni raqamlashtirish, ularni “yagona darcha” tamoyili asosida berish va davlat xizmatlari markazlariga o‘tkazish, fuqarolarning murojaatlarida ko‘tarilayotgan masalalardan kelib chiqib va korrupsiyaga sharoit yaratuvchi holatlarni o‘rgangan holda, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish, korrupsiya holatlarini aniqlashga yordam ko‘rsatuvchi «xolis fuqaro» tizimini joriy etish, bunda jamoatchilik nazorati va nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini oshirish, huquqbuzarliklar va ularga sharoit yaratuvchi omillar haqida xabar berishga imkoniyat yaratuvchi yagona portalni tashkil etish va ishga tushirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarning shaffofligini ta’minlash, pora berilishi haqida xabar qilgan davlat xizmatchilari, shuningdek korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash, xalqaro tashkilotlar, shu jumladan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korrupsiyaning oldini olishga oid tavsiyalarini har tomonlama ko‘rib chiqish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklangan[^18].

Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi sub’ektlar davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi imkoniyatlarini birlashtirishni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha

milliy kengashi va uning hududiy kengashlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi.

Milliy kengashning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash, korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash, hududiy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirish singari vazifalarni bajaradi[^19].

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunga binoan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti belgilangan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi nazarda tutilgan. Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlari ichida “ko‘milib qolgan”ga o‘xshaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish bo‘yicha ushbu organning ma’lum vakolatlari belgilangan. Ammo korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolati milliy organ sifatidagi maqomini yanada mustahkamlash lozim.

B.M. Ismoilov Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga berilgan funksiya va vazifalar uning maqomiga to‘g‘ri kelmasligi, chunki Agentlik huquqni muhofaza qilish organi hisoblanmasligi va unga tegishli funksiyalarning aksariyati huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifa va funksiyalariga tegishli ekanligi to‘g‘risida xulosaga kelgan[^20]. Biroq biz ushbu muallifning fikriga qo‘shila olmaymiz. Chunki, huquqni muhofaza qilish funksiyasi majburiy huquqiy ta’sir choralari bevosita qo‘llash hamda bevosita huquqiy javobgarlikka tortish bilan bog‘liq hisoblanadi va Agentlikda esa bunday vakolatlar mavjud emas. Fikrimizcha, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida huquqni muhofaza qilish funksiyalarining mavjud bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga huquqni muhofaza qilish funksiyasining yuklatilishi uning boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o‘zaro takrorlovchi funksiyalarga ega bo‘lishiga olib keladi.

Xalqaro tajribalar tahlili dunyo davlatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli organlar turli ko‘rinishlarda tashkil etilganligini ko‘rsatmoqda. Xususan, AQSH, Koreya Respublikasi, Singapur, Hindistonda bunday organlar keng vakolatlarga ega. Koreya Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mustaqil komissiya[^21] (Anti-Corruption and Civil Rights Commission) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, Prezidentga hisob beradi (ammo bo‘ysunmaydi) hamda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini muvofiqlashtiradi, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish bilan shug‘ullanadi, korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan tegishli hisobotlarni taqdim etadi va boshqa ko‘plab funksiyalarni amalga oshiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha keng funksiyalari va maxsus vakolatli organlar Singapurda Korrupsiya holatlarini tergov qilish bo‘yicha maxsus vakolatli Byuro (Corrupt Practices Investigation Bureau)[^22]. Ushbu byuro korrupsiyaviy holatlarni tekshirish va ularning oldini olishga mas’ul hisoblanadi hamda 1952-yilda Britaniya mustamlaka hukumati tomonidan tashkil etilgan dunyodagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tashkil etilgan eng qadimiy organdir[^23]. Hindistonda Markaziy ogohlik qo‘mitasi (Central Vigilance Commission, CVC)[^24] faoliyat yuritadi. Mazkur organ korrupsiyaviy holatlar bo‘yicha kuzatuv olib boradi hamda hukumatga tegishli maslahat va tavsiyalar berib boradi[^25].

Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus davlat organlari (maxsus vakolatli mansabdor shaxslar) yevropa mamlakatlarida ham faoliyat yuritadi. Jumladan Fransiyada Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha markaziy xizmat (Service central de prevention de la corruption, SCPC), Ruminiyada Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy boshqarmasi (National AntiCorruption Directorate), Xorvatiyada Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha Davlat prokuraturasi departamenti (Ured za suzbijanje korupcije i organiziranog kriminala-USKOK) faoliyat yuritadi. Finlyandiyada esa korrupsiyaga qarshi kurashish bilan Finlyandiya prezidenti tomonidan tayinlanadigan va boshqa davlat organlaridan mustaqil bo‘lgan Adliya Ombudsmani (Justitie-Ombudsman) shug‘ullanadi.

Shunday qilib korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli organlar institutsional asoslarining quyidagi asosiy modellari mavjud:

*Huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakolatiga ega ko‘pmaqsadli korrupsiyaga qarshi kurashish agentliklari.* Bunday model korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga universal tarzda yondashadi. Bitta sub’ektda profilaktik va jazolash funksiyalari kombinatsiyalashadi. Shuningdek, nazorat qilish, monitoring qilish, tahlil qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish kabi funksiyalar ham bajariladi. Ushbu modelga Gonkokning Korrupsiyaga qarshi mustaqil komissiyasi va Singapurning Korrupsiya holatlarini tergov qilish bo‘yicha maxsus vakolatli Byurosi misol bo‘ladi. Shuningdek, Yangi Janubiy Uelsda (Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mustaqil komissiya), Ugandada (Hukumat Bosh inspektori) mazkur modelning elementlari mavjud[^26];

*Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limlari.* Mazkur tipdagi korrupsiyaga qarshi kurashish institutlari quyidagi alohida yo‘nalishlarga ixtisoslashadi: 1) tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishuvchi organlar; 2) korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish organlari; 3) korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish bilan bog‘liq holda tezkor-qidiruv va tergov funksiyalarini amalga oshiruvchi organlar. Ushbu model Norvegiya (Iqtisodiyot va atrof-muhit sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha Norvegiya Milliy Boshqarmasi, OKOKRIM), Belgiya (Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Boshqarma, OSRK), Ispaniya (Korrupsiya bilan bog‘liq iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha Ixtisoslashgan Prokuratura Xizmati, AKPO), Xorvatiya (Korrupsiya va

uyushgan jinoyatchilikning oldini olish Boshqarmasi, UPKOP), Ruminiya (Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy Direktorat, NAD) v Vengriya (Markaziy tergov byurosi, SIOPPS)da amal qiladi[^27].

*Korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish instituti.* Ushbu model bir yoki bir nechta profilaktika ishlarini olib boradigan muassasalarni qamrab oladi. Bunda korrupsiyani ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganish, uning paydo bo‘lishiga yordam beradigan omillarni aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish va chora-tadbirlar rejalari, ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va tayyorlash, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, axloq kodeksini amalga oshirish kabi profilaktik chora-tadbirlarni o‘zida qamrab oladi. Mazkur model Fransiya (Markaziy profilaktika xizmati STSPK), Albaniya (Korrupsiyaga qarshi monitoring guruhi), Malta (Korrupsiyaga qarshi doimiy komissiya), AQSH (Hukumat etikasi bo‘yicha Boshqarma), Hindiston (Markaziy ogohlik xizmati), Filippin (Ombudsman idorasi) va Bolgariya (Komissiya)da joriy etilgan[^28]

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli milliy organlarni bu boradagi vakolatlaridan kelib chiqib quyidagicha tasniflash mumkin

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tezkor-qidiruv va tergov faoliyatini amalga oshiruvchi organlar (Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti). Mazkur organlar asosan ta’qib qilish, tergov qilish va javobgarlikka tortish funksiyasini bajaradi;

Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha maxsus vakolatli organ sifatida Adliya vazirligi faoliyat yuritadi. Vazirlikning bu boradagi vakolatlari asosan quyidagi ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

*birinchidan,* aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi;

*ikkinchidan,* normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalaridagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarning tahlilini amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda markaziy o‘rinda turuvchi organ - Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli organ hisoblanadi. Mazkur agentlik tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini amalga oshirmaydi.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli organlar faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlardan tashkil topgan. Biroq xorijiy tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak ko‘pgina davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashishda moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar ham korrupsiyaga qarshi kurashishda maxsus vakolatlarga ega hisoblanadi. Binobarin, korrupsiya holatlariga aloqador shaxslarning pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarini to‘xtatib turish va (yoki) ishga solmay to‘xtatib qo‘yish, tiklash hamda ulardan foydalanishga ruxsat berish korrupsiyaga qarshi kurashishning eng muhim choralaridan biri hisobalanadi.

Jamoatchilikning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash lozimki, keng jamoatchilikning faol ishtirokisiz korrupsiyaga qarshi kurashish deyarli imkonsiz hisoblanadi. Umuman olganda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat ham birinchi galda aynan jamoatchilikda shakllanishi kerak. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 13-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilikning ishtirokiga oid qoidalar belgilangan bo‘lib, har bir ishtirokchi Davlat o‘z imkoniyatlari doirasida va o‘z ichki qonunchiligining asosiy tamoyillariga muvofiq, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish hamda jamiyatda korrupsiya mavjudligi, uning sabablari, xavfli xususiyatlari va yuzaga keltiruvchi tahdidlarini yanada chuqurroq anglashi uchun fuqarolik jamiyati institutlari, nohukumat tashkilotlar va jamoatlar negizida faoliyat yurituvchi tashkilotlar kabi ommaviy sektorning tashqarisida alohida shaxslar va guruhlarning faol ishtirokiga ko‘maklashish uchun tegishli choralarni ko‘rishi lozimligi belgilangan[^29].

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi

to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son qarori bilan Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan bo‘lib, ushbu nizom asosida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi belgilangan[^30].

Xorijiy mamlakatlar tajribasida korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-institutsional asoslariga nisbatan yondashuvlar asosan quyidagi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘lgan:

birinchi yondashuvga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar vakolatlari nuqtai nazaridan turli guruhga bo‘linadi. Bunda har bir davlat organining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi o‘ziga xos vakolatlariga e’tibor beriladi. O‘zbekistonda ham davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatlari ana shu prinsip bo‘yicha turli organlarga taqsimlangan;

ikkinchi yondashuvga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar maxsus vakolatli organ va boshqa organlarga bo‘linadi. Xususan, Moldova Respublikasida Maxsus vakolatli organ – Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli organ hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatga ega bo‘lgan boshqa organlar (parlament, prezident, hukumat, prokuratura, axborot va xavfsizlik xizmati, hisob palatasi hamda boshqa organlari va fuqarolar jamiyati) nazarda tutilgan[^31].

Yuqoridagilardan kelib chiqib davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-institutsional asoslari haqida quyidagi xulosalarga kelindi:

*birinchidan,* korrupsiyaga qarshi kurashish vakolatlarga ega bo‘lgan organlar yagona va yaxlit tizim sifatida juda zaif va amorf munosabatda;

*ikkinchidan,* davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatlari noaniq va noto‘g‘ri taqsimlangan. Bunda funksional yondashuv, muvofiqlashtirish mexanizmlari yetishmaydi. Gorizontal va vertikal munosabatlar prinsipi o‘zining to‘liq ifodasini topmagan;

*uchinchidan,* korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organlar sifatida faqat ayrim huquqni muhofaza qiluvchi organlar belgilangan. Vaholanki, xorijiy mamlakatlarda Moliya vazirligi, Markaziy bank, Hisob palatasi singari moliyaviy nazorat organlari korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim funksiyalarni bajaradi.

## Foydalanilgan manbalar:

[^2]: Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенциясига (Нью-Йорк, 2003 йил 31 октябрь) // https://lex.uz/docs/1461329.

[^3]: Миракулов М.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг конституциявий-ҳуқуқий мақоми (қиёсий-ҳуқуқий таҳлил) Автореф. юрид. фан. док. ... дис. – Т., 2016. – Б. 20.

[^4]: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг 2019 йил 14 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг коррупцияга қарши курашиш ва суд-ҳуқуқ масалалари қўмитасини ташкил этиш тўғрисида”ги 2412-III-сон қарори // https://lex.uz/docs/5162110.

[^5]: Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 11 апрелдаги “Парламент назорати тўғрисида”ги қонуни // https://lex.uz/docs/2929477.

[^6]: Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 11 апрелда қабул қилинган “Парламент назорати тўғрисида”ги ЎРҚ-403-сонли Қонуни // https://lex.uz/docs/2929477.

[^7]: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 31 июлдаги “Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар кенгашининг намунавий регламенти ҳамда халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар кенгашининг доимий комиссиялари тўғрисидаги намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида”ги СҚ-360-IV-сонли Қарори // https://lex.uz/docs/5578238

[^8]: Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенцияси // https://lex.uz/docs/1369505.

[^9]: Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг 2009 йил 5 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси 208-моддаси 35-бандининг ўзбекча матнига ўзгартиш киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни лойиҳасини Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасига киритиш ҳақида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 й., 6-сон, 54-модда.

[^10]: Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг 1997 йил 25 февралдаги “Хоразм вилояти ҳокимлигининг 1996 йил 11 ноябрдаги 275-рақамли қарори билан қабул қилинган “Вилоят ҳудудида бадиий жамоалар концерт гастрол фаолиятини ҳамда якка ижрочиларнинг тўй ва маросимларда бадиий хизмат кўрсатишларини тартибга солиш мақсадида давлат рухсатномаси

(лицензия) бериш ҳамда маданий хизмат бюроси фаолияти тўғрисида” низомнинг 2.7-банди конституцияга мослигини текшириш тўғрисидаги иш бўйича қарори // «Халқ сўзи» газетаси, 26 февраль 1997 й., 43 (1560)-сон

[^11]: Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг Сурхондарё вилояти ҳокимининг 1996 йил 15 августдаги 164-рақамли фармойишининг конституцияга мослигини текшириш тўғрисидаги иш бўйича 1997 йил 25 февралдаги қарори // https://lex.uz/docs/1251280

[^12]: Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 118-моддасини қўлланишнинг конституцияга мувофиқлигини текшириш тўғрисидаги иш бўйича 1998 йил 16 январдаги қарори // https://lex.uz/docs/1251816

[^13]: Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг Хўжалик юритувчи субъектлар ҳисобварағидан пул маблағларини ўчириш навбатини тартибга солувчи қонун ҳужжатларини такомиллаштириш тўғрисидаги 1998 йил 16 январдаги қарори // https://lex.uz/docs/1251647

[^14]: Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 53, 54-моддалари билан 257-моддаси ўртасидаги номувофиқликни бартараф этиш тўғрисида таклиф киритиш ҳақидаги 2001 йил 12 июндаги қарори // https://lex.uz/docs/1253025

[^15]: Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг 59-моддасини шарҳлаш тўғрисидаги 2001 йил 10 октябрдаги ажрими // “Халқ сўзи” газетаси, 2001 йил 17 октябрь, 212 (2774)-сон.

[^16]: Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 128-моддаси тўртинчи қисмининг ўзбек ва рус тили матнларидаги номувофиқликни бартараф этиш тўғрисидаги таклифни Олий Мажлисга тақдим этиш ҳақидаги 2002 йил 14 ноябрдаги қарори // https://lex.uz/docs/4623872.

[^17]: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 декабрдаги “Судьяларнинг чинакам мустақиллигини таъминлаш ҳамда суд тизимида коррупциянинг олдини олиш самарадорлигини

ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6127-сон Фармони // https://www.lex.uz/docs/5146554.

[^18]: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик Палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2019 йил 30 сентябрдаги “Коррупцияга қарши курашиш соҳасида парламент назорати самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2782-III/ҚҚ-610-III-сон қарори // https://lex.uz/docs/5169562.

[^19]: Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни // https://lex.uz/docs/3088008.

[^20]: Исмоилов Б.М. Коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги қонунчилик ижроси устидан прокурор назоратини такомиллаштириш: автореф. дис. автореф … ю.ф.б.ф.д – Тошкент, 2021. – б. 13.

[^21]: Anti-Corruption and Civil Rights Commission, Republic of Korea // URL: http://www.acrc.go.kr/ en/index.do.

[^22]: Corrupt Practices Investigation Bureau // URL: https://www.cpib.gov.sg

[^23]: Mission, Vision, Core Values // https://www.cpib.gov.sg/who-we-are/our-corporate-philosophy/mission-vision-core-values/

[^24]: Central Vigilance Commission, CVC // URL: http://www.cvc.nic.in

[^25]: About Central Vigilance Commission // https://cvc.gov.in/?q=about/background

[^26]: Специализированные институты по борьбе с коррупцией: обзор моделей // https://www.oecd.org/corruption/acn/39972100.pdf.

[^27]: Специализированные институты по борьбе с коррупцией: обзор моделей // https://www.oecd.org/corruption/acn/39972100.pdf.

[^28]: O‘sha manba.

[^29]: Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенцияси // https://lex.uz/docs/1369505.

[^30]: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги “Коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик ҳақида хабар берган ёки коррупцияга қарши курашишга бошқа тарзда кўмаклашган шахсларни рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги

низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 829-сон қарори // https://lex.uz/docs/5193571.

[^31]: https://publicofficialsfinancialdisclosure.worldbank.org/sites/fdl/files/assets/law-library-files/Moldova_Anti-Corruption%20Law%202008_amended%202012_RU.pdf.

# АХБОРОТЛАШТИРИШ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ ЖИНОЯТИНИНГ ЮРИДИК-ТЕХНИК ТАҲЛИЛИ ВА УШБУ ҚИЛМИШ УЧУН ЖАЗО МУҚАРАРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МЕХАНИЗМИ

(*кибералогия методи асосида*)

***А.У.Анорбоев***,
*Ўзбекистон Республикаси Президентининг*
*Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти*
*бош илмий ходими, ю.ф.д.*

**Аннотация**. Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 278¹-моддаси (Ахборотлаштириш қоидаларини бузиш) кибералогия методи асосида илк бор чуқур юридик-техник таҳлил қилинган. Муаллиф кибержиноятнинг объекти, субъекти, предмети ва объектив томонига оид зарурий белгиларни тизимлаштириб, амалдаги норманинг инсон ҳуқуқлари ва рақамли хавфсизлик стандартларига номутаносиб эканлигини асослаб берган. Мақолада рақамли активлар ва кибермакон билан боғлиқ янги жиноят предметлари таснифланган ҳамда Жиноят ва Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекслар нормаларини Конституциявий мутаносиблик принципи асосида такомиллаштириш бўйича аниқ таҳрирдаги таклифлар илгари сурилган.

**Калит сўзлар**: кибералогия, 278¹-модда, ахборотлаштириш қоидалари, рақамли из, кибержиноят предмети, маъмурий преюдиция, муҳим ахборот инфратузилмаси, мутаносиблик принципи.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 2781-моддасига асосан, ахборотлаштириш қоидаларини бузиш, яъни белгиланган ҳимоя чораларини кўрмаган ҳолда ахборот тизимлари, маълумотлар базалари ва банкларини, ахборотга ишлов бериш ҳамда уни узатиш тизимларини яратиш, жорий этиш ва улардан фойдаланиш ҳамда ахборот тизимларидан рухсат билан фойдаланиш фуқароларнинг ҳуқуқларига ёки қонун билан қўриқланадиган манфаатларига ёхуд давлат ёки жамоат манфаатларига кўп миқдорда зарар ёхуд жиддий зиён етказилишига сабаб бўлса ёки ўша ҳаракатлар жуда кўп миқдорда зарар етказган ҳолда содир этилган

бўлса[1], ушбу қилмиш жиноят деб топилиши назарда тутилган ва ушбу жиноятни кибералогия методи асосида қуйидагича юридик-техник таҳлилини амалга ошириш мумкин, хусусан:

**1. Кибержиноят асосий бевосита объекти** – ахборот-коммуникация технологияларининг муҳофазаси, шу жумладан, ахборот ва киберхавфсизлик.

**2. Кибержиноят қўшимча бевосита объекти** – жамият ва жамоат хавфсизлиги.

**3. Кибержиноят факультатив бевосита объекти** – ўзга шахс (лар) ва давлат, шу жумладан, шахсларнинг ҳаёти, соғлиғи, шаъни, қадр-қиммати, мулк дахлсизлиги, тинчлик ва инсоният хавфсизлиги, бошқарув тартиби ва бошқалар;

**4. Кибержиноят субъекти** – 16 ёшга тўлган ақли расо жисмоний шахс.

**5. Кибержиноят субъектив томони** – қасддан.

**6. Кибержиноят объектив томони** – ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиб ёки қонунга хилоф равишда ахборот-коммуникация тизимига кириб, белгиланган ҳимоя чораларини кўрмаган ҳолда ахборот тизимлари, маълумотлар базалари ва банкларини, ахборотга ишлов бериш ҳамда уни узатиш тизимларини яратиш, жорий этиш ва улардан фойдаланиш ҳамда ахборот тизимларидан рухсат билан фойдаланиш фуқароларнинг ҳуқуқларига ёки қонун билан қўриқланадиган манфаатларига ёхуд давлат ёки жамоат манфаатларига кўп миқдорда зарар ёхуд жиддий зиён етказиш йўли билан содир этилади.

**7. Кибержиноят мақсади** – моддий ёки (ва) номоддий манфаат, ғаразли ёки бошқа паст ниятлар, ўч олиш ва хк.

**8. Кибержиноят воситаси (қуроли)** – ахборот-коммуникация технологиялари.

**9. Кибержиноятнинг зарурий белгилари:**

1) қилмишнинг ижтимоий хавфлилиги;

2) қилмишнинг ҳуқуққа хилофлилиги;

3) қилмишда айбнинг мавжудлиги;

4) қилмишнинг жазога сазоворлиги;

5) қилмишнинг ахборот тизимлари, маълумотлар базалари ва банклари, ахборотга ишлов бериш ҳамда уни узатиш тизимлари билан боғлиқлиги;

6) қилмиш белгиланган ҳимоя чораларини кўрмаган ҳолда ахборот тизимлари, маълумотлар базалари ва банкларини, ахборотга

ишлов бериш ҳамда уни узатиш тизимларини яратиш, жорий этиш ва улардан фойдаланиш ҳамда ахборот тизимларидан рухсат билан фойдаланиш фуқароларнинг ҳуқуқларига ёки қонун билан қўриқланадиган манфаатларига ёхуд давлат ёки жамоат манфаатларига кўп миқдорда зарар ёхуд жиддий зиён етказиш йўли билан содир этилиши;

7) қилмиш натижасида фуқароларнинг ҳуқуқларига ёки қонун билан қўриқланадиган манфаатларига ёхуд давлат ёки жамоат манфаатларига кўп миқдорда зарар ёхуд жиддий зиён етказиш ҳолати вужудга келиши зарурлиги;

8) алоқа;

9) ахборот;

10) кибермуҳит, шу жумладан, кибермакон

11) ахборот-коммуникация технологиялари.

Ушбу белгиларнинг биронтаси мавжуд эмаслиги қилмишнинг кибержиноят эканлигини инкор этади.

**10. Кибержиноятнинг тамомланиши** –

1) фуқароларнинг ҳуқуқларига кўп миқдорда зарар етган вақтдан;

2) фуқароларнинг қонун билан қўриқланадиган манфаатларига кўп миқдорда зарар етган вақтдан;

4) фуқароларнинг ҳуқуқларига жиддий зиён етган вақтдан;

5) фуқароларнинг қонун билан қўриқланадиган манфаатларига жиддий зиён етган вақтдан;

6) давлат манфаатларига кўп миқдорда зарар етган вақтдан;

7) давлат манфаатларига жиддий зиён етган вақтдан;

8) жамоат манфаатларига кўп миқдорда зарар етган вақтдан;

9) жамоат манфаатларига жиддий зиён етган вақтдан бошлаб.

**11. Кибержиноятнинг тузилишига кўра тури** – моддий таркибли кибержиноятлар ҳам мавжуд.

**12. Кибержиноятнинг ўз хусусияти ва ижтимоий хавфлилик даражасига кўра тури** – ижтимоий хавфи катта бўлмаган кибержиноят.

**13. Жазо тизимига кўра тури** – ижтимоий хавфли қилмиши учун Жиноят кодексида жарима, ахлоқ тузатиш ишлари жазоси назарда тутилган кибержиноятлар.

**14. Жиноят предмети** – ахборот тизимлари, маълумотлар базалари ва банклари, ахборотга ишлов бериш ҳамда уни узатиш тизимлари, шу билан бирга уларга боғлиқ бўлган рақамли

предметлар, жумладан, онлайн казино платформалари, betting сайтлар, мобил иловалар (gambling apps), ботлар (Telegram/Discord), молиявий элементлар жумладан, электрон пуллар (Click, Payme, crypto), виртуал балансlар, ставкалар (bets), дастурий таъминот, жумладан, gambling software, RNG (random generator) тизимлари, mirror сайтлар, шу билан бирга, матн, видео, аудио, мемлар, постлар, deepfake контент ва бошқа шаклдаги ахборот шунингдек, қуйидагилар ҳам жиноят предмети бўлиши мумкин:

**1. Молиявий воситалар** – нақдсиз пул, банк ўтказмалари, электрон ҳамёнлар орқали тўловлар (Payme, Click, PayPal, QIWI ва ҳ.к.), криптовалюта (Bitcoin, USDT, Ethereum ва бошқалар), онлайн тўлов тизимлари орқали маблағ, қимматли қоғозлар (акциялар, облигациялар), электрон сертификатлар, баланс тўлдириш (телефон, аккаунт, карта) ва хк.;

**2. Рақамли активлар** – лицензия калитлари (software key), онлайн сервис аккаунти, Premium обуна, домен номи, веб-сайтга эгалик, ижтимоий тармоқлардаги (Telegram, Instagram, YouTube ва бошқалар) каналлар ва гуруҳлар, NFT активлари, онлайн ўйин аккаунтлари, база маълумотлар, электрон контракт ҳуқуқи, NFTлар, ўйин ичидаги қимматбаҳо виртуал буюмлар (Skins, In-game currency) ва хк.;

**3. Ахборот** – махфий маълумот, тендер маълумотлари, мижозлар базаси, пароллар, давлат реестри маълумотлари, имтиёзли кириш ҳуқуқи, жумладан, тижорат ёки хизмат сири ҳисобланган маълумотларга имтиёзли кириш ҳуқуқини бериш, касб, хизмат сирлари, текширув натижаларини ўзгартириш ва хк.;

**4. Номоддий манфаат** – лавозимга тайинлаш, лойиҳада ғолиб қилиш, рейтингни ошириш, файлни ўчириб бериш, маъмурий, молиявий ёки жиноий жазодан қутқариш, солиқ ва бошқа тўловларни камайтириш, давлат ижтимоий буюртмасини бериш, рухсатнома чиқариш ва хк.;

**5. Техника ва IT ресурслар** – сервер ресурслари, хостинг, VPN кириш, Cloud аккаунт, дастур кодлари, дастурий таъминот лицензияси, API кириш ҳуқуқи, бқори қийматга эга бўлган тижорат дастурларига (масалан, киберхавфсизлик ёки дизайн дастурларига) умрбод ёки узоқ муддатли пуллик обуналарни олиб бериш ва хк.;

**6. Аралаш шакллар** – қимматбаҳо техника (ноутбук, смартфон ва хк.), онлайн орқали етказилган товар, электрон ваучер, крипто-ҳисоб очиш, тўловни учинчи шахс орқали амалга ошириш,

жиноятчи учун бепул яратиб берилган веб-сайтлар, SMM хизматлари, пуллик дастурий таъминотларга лицензиялар ёки обуналар (Subscription), мансабдор шахс ёки унинг яқинлари учун бепул сервер майдони (Hosting) ажратиб бериш ёки веб-сайт ишлаб чиқиб, уни тарғиб қилиш (SMM/SEO) хизматларини бепул кўрсатиш, хизматчининг ижтимоий тармоқлардаги саҳифасини пуллик тарғиб қилиш (Boost), онлайн курслар ёки пуллик веб-сервисларга обуналарни (Premium subscription) совға қилиш ва хк.

**15. Кибержиноятни содир этишнинг энг кўп усуллари:**

1) телекоммуникация ёки интернет тармоғида намойишкорона;

2) телекоммуникация ёки интернет тармоғида жойлаштириш орқали;

3) ахборот-коммуникация технологияларидан жиноят қуроли ёки воситаси сифатида фойдаланиш натижасида.

Ушбу жиноят қуйидаги шаклларда содир этилиши мумкин, хусусан:

**1) яратиш ва жорий этиш босқичида**. Масалан

Security by Design принципига амал қилмаслик. Мисол учун, маълумотлар базасини яратишда паролларни шифрламасдан (MD5/SHA-256 ишлатмасдан) очиқ матн кўринишида сақлаш;

заиф архитектура. Мисол учун, тизимга киришда кўп босқичли аутентификацияни (MFA) назарда тутмаслик ёки орқа эшиклар (backdoors) қолдириш;

**2) фойдаланиш ва техник хизмат кўрсатиш босқичида**. Масалан:

Patch Management (янгилаш) қоидаларини бузиш. Мисол учун, сервер дастурий таъминотидаги маълум бўлган заифликлар (CVE) учун чиқарилган хавфсизлик янгиланмаларини вақтида ўрнатмаслик;

конфигурациядаги хатолар. Мисол учун, маълумотлар базасини ташқи Интернет тармоғига очиқ қолдириш ёки завод паролларини (admin/12345) ўзгартирмаслик;

ҳимоя воситаларини ўчириш. Мисол учун, сервер тезлигини ошириш мақсадида брандмауэр (Firewall) ёки антивирус тизимларини атайлаб ўчириб қўйиш;

**3) рухсат билан фойдаланиш жараёнида**. Масалан, маълумотларни ҳимояланмаган канал орқали узатиш. Мисол чун, хизмат доирасидаги махфий маълумотларни очиқ Wi-Fi ёки шахсий мессенжерлар орқали шифрланмаган ҳолда юбориш, натижада

уларнинг учинчи шахсларга сизиб чиқиши йўли билан содир этилиши мумкин.

Ушбу жиноятни фош этишда қуйидаги рақамли излар тўпланиши мумкин, хусусан:

1) лог-файллар (Audit Logs). Мисол учун, сервер ва база маълумотларига ким, қачон ва қайси IP-манзилдан кирганлиги ҳақидаги ёзувлар, хавфсизлик созламалари қачон ва ким томонидан ўзгартирилганлиги (масалан, ҳимоя тизимини ўчирганлик изи);

2) манба коди (Source Code). Мисол учун, дастур коди ичида хавфсизлик стандартларига жавоб бермайдиган функцияларнинг мавжудлиги, код репозиторийларидаги (Git/GitLab) коммитлар тарихи;

3) тармоқ трафиги қайдлари (PCAP Files). Мисол учун, маълумотларнинг шифрланмаган ҳолда (HTTP протоколи орқали) узатилганини тасдиқловчи тармоқ пакетлари;

4) конфигурация файллари. Мисол учун, сервер созламаларида очиқ қолдирилган заиф нуқталарнинг техник қайдлари.

### Жиноятни фош этилиши учун қуйидаги экспертизалар ўтказилиши мумкин, хусусан:

1) суд-компьютер-техникавий экспертизаси ахборот тизимлари ва маълумотлар базаларининг техник архитектурасини, тизимда мавжуд бўлган заифликларни (vulnerabilities), ҳимоя тизимларининг (Firewall, IDS/IPS) мавжуд эмаслигини ёки нотўғри созланганлигини ҳамда тизим логларидаги (audit logs) қоидабузарлик изларини, ахборот хавфсизлиги сиёсатининг (ISMS) амалдаги давлат стандартларига ва техник регламентларга мувофиқлигини, белгиланган ҳимоя чораларининг (шифрлаш, антивирус, заҳиралаш) жорий этилмаганлик даражасини ва тизимнинг ташқи ёки ички таҳдидларга нисбатан ҳимояланганлик ҳолатини, ахборотга ишлов бериш ва узатиш тизимларида қўлланилган дастурий кодларнинг хавфсизлик талабларига мувофиқлигини, улардаги қасддан қолдирилган дарчаларни (backdoors) ёки белгиланган ҳимоя чораларини четлаб ўтишга имкон берувчи функционал камчиликларни, тизимда ҳимоя чоралари амалда мавжуд бўлганлигини, зарар етказилишига айнан қайси техник камчилик сабаб бўлганлигини, ахборот тизими ёки маълумотлар базасининг техник ҳолатини, тизимда хавфсизлик деворлари (Firewall), антивирус ҳимояси ёки аутентификация механизмлари ўрнатилганлигини, маълумотларни шифрлаш қоидаларига риоя

қилинганлигини, ахборот тизимидаги рухсат бериш (Access Control) тизимининг ишлашини, кимга, қачон ва қандай ҳуқуқлар берилганлигини, рухсат билан фойдаланиш жараёнида қайси босқичда қоида бузилганлигини, маълумотлар базасини бошқариш тизимларининг (DBMS) ички созламаларини, агар зарар дастурий хатолик туфайли келиб чиққан бўлса, бу хатолик дастурчининг айбими ёки тизимни жорий этган мутахассиснинг эътиборсизлиги бўлганлигини

2) суд-иқтисодий экспертизаси тизимнинг нотўғри ишлаши ёки маълумотлар базаларининг шикастланиши натижасида фуқаролар ва давлатга етказилган кўп ёки жуда кўп миқдордаги бевосита моддий зарарни ҳамда тизимни қайта тиклаш учун талаб этиладиган молиявий харажатларни, маълумотларни тиклаш харажатлари, тизим тўхтаб қолгани учун кўрилган зарар ва ҳ.к.ни;

3) ҳужжатларнинг суд-техникавий экспертизаси ахборот тизимини яратиш, жорий этиш ва фойдаланиш бўйича техник топшириқлар (ТЗ), лойиҳа ҳужжатлари, хавфсизлик сертификатлари ва тизимни фойдаланишга топшириш далолатномаларининг ҳақиқийлигини ҳамда улардаги имзоларнинг мансублигини

4) суд-фонографик экспертизаси ахборот тизимларидан фойдаланиш жараёнида масъул шахслар ўртасидаги алоқа каналлари орқали берилган ва хавфсизлик қоидаларининг бузилишига олиб келган оғзаки кўрсатмаларни ҳамда ушбу нутқ эгаларининг шахсини;

5) видеоматериалларнинг суд экспертизаси маълумотлар марказлари (Data Center) ёки сервер хоналарида хавфсизлик қоидаларига риоя этилмаганлик ҳолатлари, техник қурилмаларга рухсатсиз жисмоний кириш жараёни акс этган рақамли тасвирларнинг ҳаққонийлигини;

6) суд-портрет экспертизаси ахборот тизимларидан фойдаланиш қоидаларини бузиб, тизимга рухсатсиз кирган ёки ҳимоя чораларини четлаб ўтган шахсларнинг видеокузатув тизимларидаги тасвирлари асосида уларнинг қиёфасини идентификация қилишни;

7) суд-филологик (лингвистик) экспертизаси ахборот тизимларидан фойдаланиш бўйича ички йўриқномалар, регламентлар ва буйруқлар матнини таҳлил қилиб, улардаги хавфсизлик чораларини кўриш бўйича мажбуриятларнинг аниқ белгиланганлигини ва масъул шахслар томонидан нотўғри талқин

қилиниш эҳтимолини, ахборотлаштириш соҳасидаги ички буйруқлар, йўриқномалар ва техник топшириқларнинг мазмунини, масъул шахснинг вазифалари матнда қанчалик аниқ кўрсатилганлигини ва у айнан қайси қоидани бузган деб баҳоланиши мумкинлигини;

8) суд-психологик экспертизаси ахборотлаштириш қоидаларини бузишда айбланаётган шахсларнинг белгиланган ҳимоя чораларини кўрмасликдаги қасд ёки эҳтиётсизлик шаклини белгиловчи ички мотивларини ва уларнинг касбий масъулиятга бўлган муносабатини

9) суд-криптографик экспертизаси (агар моддада назарда тутилган ахборот тизимида маълумотларни шифрлаш мажбурий бўлса) қўлланилган шифрлаш алгоритмларининг чидамлилигини, калитларни бошқариш тизимидаги камчиликларни ва маълумотларнинг ҳимояланмаган ҳолда узатилганлиги механизмини;

10) суд-социологик экспертизаси ахборот тизимлари ёки маълумотлар базаларининг ҳимояланмаганлиги натижасида фуқароларнинг қонун билан қўриқланадиган манфаатларига, жамиятнинг рақамли хавфсизликка бўлган ишончига ва давлатнинг ахборот суверенитетига етказилган “жиддий зиён” кўламини;

11) суд-электротехникавий экспертизаси ахборотга ишлов бериш ва узатиш тизимларидаги жисмоний ҳимоя воситаларининг ҳолатини, масалан, сервер хоналарининг хавфсизлик тизимлари, электр таъминотидаги узилишлардан ҳимоя (UPS) ва тармоқ қурилмаларининг техник созлигини аниқлайди.

**16. Мавжуд муаммо** – ЖКнинг 2781-моддасида назарда тутилган жиноятнинг юридик-техник таҳлилини тўлиқ амалга оширишда бир қатор муаммолар мавжуд, хусусан

1) жиноят моддаси номи ва диспозициясида назарда тутилган ахборотлаштириш қоидалари амалда мавжуд эмас ва у Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни ва улар асосида қабул қилинган қонунчилик ҳужжатлари ва техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлардан иборатдир;

2) жиноят диспозициясида назарда тутилган “жиддий зиён” тушунчаси амалдаги қонунчиликда назарда тутилган ва бу эса, ушбу модданинг турлича талқин қилинишига олиб келмоқда;

3) Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 8-моддасига асосан, жиноят содир этишда айбдор бўлган шахсга нисбатан қўлланиладиган жазо ёки бошқа ҳуқуқий таъсир чораси одилона бўлиши, яъни жиноятнинг оғир-енгиллигига, айбнинг ва шахснинг ижтимоий хавфлилик даражасига мувофиқ бўлиши керак.

Бироқ, ЖК 2781-моддасида назарда тутилган қилмиш учун жазо базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваригача миқдорда жарима ёки икки йилгача ахлоқ тузатиш ишлари билан чекланади холос.

Ваҳоланки, Жиноят кодексининг VIII бўлимида назарда тутилган базавий ҳисоблаш миқдорининг беш юз баравари ва ундан ортиқ бўлган миқдор саналади

Мазкур ҳолатда, базавий ҳисоблаш миқдорининг беш юз баравари ва ундан ортиқ бўлган миқдорда зарар келтирган айбдорга базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваригача миқдорда жарима қўллаш адолат мезонларига тўғри келмайди.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20-моддасига асосан, давлат органлари томонидан инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик принципига асосланиши ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлиши керак[2].

Демак, ЖК 2781-моддасини Конституция нормаларига мувофиқлаштириш зарур;

4) ЖК 2781-моддасидаги қилмишлар учун айбдорга жарима ва ахлоқ тузатиш ишлари жазоси назарда тутилган. Бироқ, жуда кўп миқдорда кибержиноят содир этган шахсга қўлланилган ахлоқ тузатиш ишлари жазосидан айбдор қутилиб қолиш учун у сохта ҳужжатлар тайёрлаши, сохта маълумотлар асосида жазо ўтаётганлигини ёки ўтиб бўлганлигини ташкил қилиши ёҳуд жазодан қутилиб қолиши мумкинлиги инобатга олинмаган.

Мазкур вазиятда, ушбу жиноят учун ягона тўғри жазо бу жарима ва озодликдан маҳрум қилиш жазоси саналади.

Башарти, келтирилган зарар бартараф этилса, унга озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазо қўллаш мумкинлигини ҳам белгилаш фойдадан ҳоли бўлмайди.

5) муҳим ахборот инфратузилмаларига нисбатан киберҳужум содир этилиши оқибатида ахборотлаштириш қоидалари бузилган бўлса, ушбу вазиятда айбдорнинг қилмиши билан бошқа

инфратузилмаларга нисбатан худди шундай қилмишни содир этган шахсга нисбатан қўлланиладиган жазонинг бир хил қўлланилиши ижтимоий адолат мезонларига ва жамият хавфсизлигини ўз вақтида таъминлаш принципларига тўғри келмайди;

6) ахборотлаштириш қоидаларини камида кўп миқдорда бузганлик учун жавобгарлик белгиланган, бироқ кўп миқдордан камроқ миқдорда зарар келтирганлик учун Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда бевосита жавобгарлик назарда тутилмаган.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20-моддасига асосан, Инсон билан давлат органларининг ўзаро муносабатларида юзага келадиган қонунчиликдаги барча зиддиятлар ва ноаниқликлар инсон фойдасига талқин этилади.

Бу эса, ўз навбатида жиноят учун жазо муқаррарлиги принуипига зид саналади.

Шу сабабдан маъмурий преюдицияга оид масалаларга аниқлик киритиш, қилмишнинг ижтимоий хавфлилик мезонларини ўзаро кодексларда тўғри тақсимлаш даркор.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, мавжуд муаммони ҳал қилиш учун қуйидагилар таклиф этилади:

1) Ўзбекистон Республикасининг 2781-моддасини қуйидаги таҳрирда баён этиш:

“**2781-модда. Ахборотлаштириш тўғрисидаги қонунчиликни бузиш**

Ахборотлаштириш тўғрисидаги қонунчиликни бузиш, яъни ушбу кодексда назарда тутилган ҳоллардан ташқари белгиланган ҳимоя чораларини кўрмаган ҳолда ахборот-коммуникация тизимлари, маълумотлар базалари ва банкларини, ахборотга ишлов бериш ҳамда уни узатиш тизимларини яратиш, жорий этиш ва улардан фойдаланиш ҳамда ахборот тизимларидан рухсат билан фойдаланиш фуқароларнинг ҳуқуқларига ёки қонун билан қўриқланадиган манфаатларига ёхуд давлат ёки жамоат манфаатларига кўп миқдорда зарар етказилишига сабаб бўлса, –

базавий ҳисоблаш миқдорининг тўрт юз бараваридан олти юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ўша ҳаракатлар жуда кўп миқдорда зарар етказган ҳолда содир этилган бўлса, –

беш йилдан етти йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ушбу модданинг биринчи ва иккинчи қисмидаги қилмишлар муҳим ахборот инфратузилмасига нисбатан содир этилган бўлса, —

етти йилдан ўн йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Етказилган моддий зарарнинг ўрни қопланган тақдирда озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо жарима жазоси билан алмаштирилади.”.

2) Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси[3]нинг 1551-моддасини қуйидаги таҳрирда баён этиш:

“**1551-модда. Ахборотлаштириш тўғрисидаги қонунчиликни бузиш**

Ахборот тизимидан фойдаланишга рухсати бўлган шахснинг ушбу тизимдан фойдаланишнинг белгиланган қоидаларини бузиши компьютер ахборотининг йўқ қилиб юборилишига, тўсиб қўйилишига, модификациялаштирилишига, компьютер ускунаси ишлашининг бузилишига сабаб бўлса, –

фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг беш бараваридан етти бараваригача, мансабдор шахсларга эса – етти бараваридан ўн бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади.

Худди шундай ҳуқуқбузарлик махфий ахборот мавжуд бўлган ахборот тизимидан фойдаланиш вақтида ёки оз миқдорда зарар етказилган ҳолда, содир этилса –

фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг етти бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн бараваридан ўн беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади.

Ушбу модданинг биринчи ва иккинчи қисмидаги ҳуқуқбузарлик кўп миқдоргача бўлган миқдорда зарар етказиш йўли билан содир этилган бўлса, —

фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваридан юз бараваригача, мансабдор шахсларга эса – юз бараваридан уч юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади.”.

Ушбу таклифларнинг қабул қилиниши қуйидаги муҳим мақсадга хизмат қилади:

етказилган зарар миқдори ва белгиланган жазо ўртасидаги номутаносиблик бартараф этилиб, “ижтимоий адолат” принципи қарор топади;

давлат ва жамият учун стратегик аҳамиятга эга бўлган тизимларга нисбатан содир этилган қилмишлар учун алоҳида (оғирроқ) жавобгарлик белгиланиши миллий хавфсизликни мустаҳкамлайди;

“жиддий зиён” каби мавҳум тушунчалар ўрнига аниқ миқдор ва мезонларнинг киритилиши тергов ва суд жараёнида турлича талқинларга чек қўяди;

кичик миқдордаги зарар учун маъмурий, катта миқдор учун жиноий жавобгарликнинг изчил занжири яратилиши орқали жазонинг муқаррарлиги таъминланади;

рақамли активлар (крипто-валюта, NFT, аккаунтлар) жиноят предмети сифатида аниқ кўрсатилиши виртуал мулк дахлсизлигини кафолатлайди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.
- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.
- Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

# MAHALLA FUQAROLAR YIG‘ININING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASIDAGI VAKOLATLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

***O.E.Ergasheva***
*Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur tezis O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarishning noyob instituti bo‘lmish mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimidagi vakolatlarini chuqur ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – milliy qonunchilik bazasi va amaliyotdagi mavjud vakolatlarni tizimlashtirish, ularning samaradorligini baholash hamda xorijiy davlatlarning jamoat xavfsizligini ta’minlashda mahalliy hamjamiyatlarning ishtiroki bo‘yicha ilg‘or tajribalarini qiyosiy o‘rganishdan iborat. Ishda qiyosiy-huquqiy, tizimli-funksional, empirik-analitik usullar, shuningdek, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish tamoyillari qo‘llanilgan.

**Kalit so‘zlar:** mahalla, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoatchilik nazorati, profilaktika inspektori, xorijiy tajriba, ijtimoiy sheriklik, fuqarolar yig‘ini.

Jamiyatda huquq-tartibotni ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Bu borada nafaqat davlat organlari, balki fuqarolik jamiyati institutlari, ayniqsa, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faol ishtiroki global tendensiyaga aylanmoqda. O‘zbekiston sharoitida “mahalla” instituti o‘zining ko‘p asrlik tarixi, o‘ziga xos tuzilishi va xalqchil falsafasi bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida beqiyos o‘rin tutadi. Mahalla fuqarolar yig‘inlari fuqarolarning bevosita ishtiroki orqali ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlovchi, yoshlarni tarbiyalash va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi noyob mexanizmdir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, “Inson qadri uchun” tamoyili asosida jamiyatda adolat, qonuniylik va inson huquqlariga hurmat muhitini mustahkamlashga qaratilgan sa’y-harakatlar mahallaning ushbu jarayonlardagi rolini yanada oshirishni taqozo etmoqda. Biroq, mahallaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlari, ularning amaliyotdagi samaradorligi va xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlili masalasi chuqur ilmiy tadqiqotga muhtoj. Mavjud qonunchilik bazasi mahallaga keng vakolatlar bergan bo‘lsa-da, ularning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarish va zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ushbu mavzuning dolzarbligi bir necha jihatlar bilan belgilanadi: birinchidan, mahallaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi rolini ilmiy asosda chuqur o‘rganish, uning vakolatlarini tizimli tahlil qilish va amaliyotdagi muammolarni aniqlash orqali mavjud tizimni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, milliy tajribani xorijiy mamlakatlarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki jamoatchilik institutlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi faoliyati bilan qiyosiy tahlil qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini o‘rganishga zamin yaratadi. Bu esa mahalliy sharoitga mos, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Uchinchidan, tadqiqot natijalari mahallaning huquqiy maqomini mustahkamlash, uning faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha qonunchilik takliflarini ishlab chiqish, shuningdek, mahalla

faollari va fuqarolarining huquqiy savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar berish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot mahallaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish, milliy va xorijiy tajribani qiyosiy o‘rganish orqali jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolar xavfsizligini mustahkamlash va mamlakatimizda adolatli, insonparvar jamiyat qurishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarga munosib hissa qo‘shish imkoniyatini beradi.

Jamiyatning barqaror rivojlanishi va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashda huquqbuzarliklar profilaktikasi fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, har bir davlatning ijtimoiy-huquqiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ushbu jarayonning o‘ziga xosligi va samaradorligi asosan mahalla fuqarolar yig‘ini instituti faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Mahalla asrlar davomida shakllangan, o‘z-o‘zini boshqarishning noyob shakli sifatida nafaqat ijtimoiy tartibni saqlash, balki huquqbuzarliklarning oldini olishda ham muhim rol o‘ynab kelgan. Bugungi kunda uning vakolatlari qator qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan bo‘lib, profilaktika tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan birini tashkil etadi.

Shu bilan birga, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, urbanizatsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va jinoyatchilikning yangi turlari paydo bo‘lishi mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish va ularning samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mavjud huquqiy mexanizmlar va amaliyotlar doimiy ravishda takomillashtirishga muhtoj bo‘lib, ularning zamonaviy chaqiriqlarga naqadar mos ekanligi chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. Ayniqsa, globalizatsiya sharoitida jinoyatchilikning transmilliy tus olishi va ijtimoiy muammolarning murakkablashuvi mahallaning profilaktik salohiyatini yanada oshirishni taqozo etmoqda.

Ushbu muammoning dolzarbligi shundaki, mahallaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari borasida milliy tajriba boy bo‘lsa-da, xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg‘or yondashuvlari, innovatsion usullari va huquqiy amaliyotini o‘rganish, qiyosiy tahlil qilish hamda ularni O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Mahallaning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda, xorijiy tajribadan samarali saboq olish, uning ijobiy jihatlarini milliy profilaktika tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy asoslarning

yetishmasligi sezilmoqda. Natijada, mahallaning profilaktik faoliyatidagi ayrim kamchiliklar, vakolatlarni amalga oshirishdagi to‘siqlar hamda ularning o‘zaro muvofiqlashtirilishidagi muammolar hal etilmay qolmoqda.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot mahallaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlarining amaldagi holatini tanqidiy tahlil qilish, milliy tajribaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, xorijiy tajribani chuqur o‘rganish orqali profilaktika tizimini yanada optimallashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan dolzarb muammoga yechim topishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mahalla institutining jamiyatda huquqiy tartibni mustahkamlashdagi rolini yanada oshirish, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirishga amaliy hissa qo‘shadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda mahalla fuqarolar yig‘inlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlarini milliy qonunchilik va amaliyot nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilish, shuningdek, xorijiy davlatlardagi o‘xshash jamoatchilik institutlarining tajribasini qiyosiy o‘rganish orqali ularning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsad mahalla institutining jamiyatda huquqiy tartibni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olishdagi salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashishni, shu orqali aholi xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan samarali tizimni shakllantirishga hissa qo‘shishni nazarda tutadi.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi mahalla fuqarolar yig‘inlari tizimi, ularning jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish borasidagi ijtimoiy-huquqiy faoliyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu tizimning milliy qonunchilik va amaliyotdagi o‘rni, funksional imkoniyatlari hamda xorijiy mamlakatlardagi jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan o‘xshash institutlar tajribasi ham tadqiqot obyekti doirasiga kiradi. Bu tizimning preventiv salohiyati va uning ijtimoiy tartibni saqlashdagi ahamiyati ham atroflicha o‘rganiladi.

Tadqiqot predmeti esa mahalla fuqarolar yig‘inlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlarining huquqiy asoslari (normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan doirasi), ularni amaliyotda qo‘llash mexanizmlari va samaradorligini oshirish yo‘llarini chuqur tahlil qilishdan iborat. Xususan, vakolatlarning amaldagi tatbiq etilishidagi mavjud muammolar, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy

o‘rganish asosida ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish strategiyalari tadqiqot predmetining asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlari masalasiga an’anaviy yuridik tahlildan chekinib, kompleks, ya’ni huquqiy-institutsional va ijtimoiy-funksional jihatlarni o‘zaro uyg‘unlikda o‘rganishga qaratilgan yangicha konseptual yondashuvning ilgari surilganligi bilan belgilanadi. Ishda mahalla instituti faqatgina qonunchilikda belgilangan vakolatlar majmuyi sifatida emas, balki ijtimoiy nazoratning birlamchi subyekti, jamoatchilik ta’sirining o‘ziga xos mexanizmi hamda norasmiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi noyob tizim sifatida tahlil qilingan.

Ilk marotaba O‘zbekiston mahalla institutining preventiv salohiyati rivojlangan xorijiy mamlakatlar – xususan, Yaponiyaning “Chonaikai” yoki “Jichikai” (mahalla uyushmalari), Germaniyaning “Bürgerinitiativen” (fuqarolik tashabbuslari) hamda AQSHning “Neighborhood Watch” (qo‘shnichilik nazorati) dasturlari kabi jamoatchilikka asoslangan profilaktika modellarining institutsional va funksional jihatlari bilan chuqur qiyosiy-huquqiy tahlil etildi. Bu tahlil shunchaki tajriba sanab o‘tish bilan cheklanmay, balki xorijiy amaliyotdagi samarali mexanizmlarni milliy qadriyatlar va huquqiy tizimga moslashtirishning (adaptatsiya qilishning) ilmiy asoslangan modellarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi rolini belgilovchi “ijtimoiy sheriklikka asoslangan preventiv model” tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilib, uning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Ushbu model mahalla, ichki ishlar organlari tayanch punkti, ta’lim muassasalari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikning an’anaviy shakllaridan farqli o‘laroq, vakolatlarning aniq taqsimlanishi, axborot almashinuvining raqamli platformalarini joriy etish va birgalikdagi faoliyat natijalarini baholashning aniq mezonlariga asoslanadi. Shuningdek, mahallaning profilaktik faoliyatida restorativ adolat (tiklovchi odil sudlov) elementlarini, xususan, yarashtirish komissiyalari vakolatlarini kengaytirish orqali nizolarni sudgacha hal etish va jabrlanuvchi manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishga qaratilgan amaliy takliflar tizimlashtirilgan.

Bundan tashqari, mahalla raisi va faollarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularni profilaktikaning zamonaviy usul va vositalariga o‘qitishning uzluksiz tizimini yaratish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilganligi tadqiqotning amaliy ahamiyatga molik yangiligi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, ushbu ish mahalla institutining profilaktik faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotini yaxshilash uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tezis mavzusining ko‘p qirrali va murakkab tabiati uning har tomonlama va chuqur tahlilini ta’minlash maqsadida kompleks tadqiqot metodologiyasini qo‘llashni taqozo etadi. Tadqiqotda huquqshunoslik, sotsiologiya, qiyosiy huquqshunoslik va davlat boshqaruvi fanlarining integratsiyalashgan yondashuvlari asosida ilmiy bilimlar hosil qilinadi.

Birinchi navbatda, mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlarini aniqlash va tahlil qilish uchun **normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish** metodi keng qo‘llaniladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli normativ hujjatlari chuqur o‘rganiladi. Xorijiy tajriba jihatidan esa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qonunchilik bazasi, jumladan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari va faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar tahlil qilinadi.

Ikkinchi muhim metodologik yondashuv **qiyosiy-huquqiy tahlil** bo‘lib, u mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlarini xorijiy davlatlardagi shunga o‘xshash jamoat institutlari (masalan, Yaponiya Koban tizimi, Buyuk Britaniyadagi Community Policing modellar, Germaniyadagi mahalliy politsiya-fuqaro hamkorligi) vakolatlari bilan qiyoslashga xizmat qiladi. Bu metod orqali milliy tajribaning o‘ziga xos jihatlari, samaradorlik darajasi va xorijiy amaliyotdan o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or usullar aniqlanadi.

Tadqiqotning empirik qismi **sotsiologik tadqiqot usullari**ni o‘z ichiga oladi. Jumladan, mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, mahalla faollari, jamoatchilik vakillari va fuqarolar bilan **yarim strukturalangan intervyular** o‘tkazish orqali profilaktika faoliyatining amaliyotdagi holati, mavjud muammolar, samaradorlikni oshirish yo‘llari

bo‘yicha subyektiv fikrlar va takliflar yig‘iladi. Shuningdek, **ekspert so‘rovlari** orqali soha mutaxassislari va olimlarning mavzu bo‘yicha chuqur tahliliy xulosalari olinadi. Ayrim hollarda, aniq muammolarni chuqur o‘rganish maqsadida **fokus-guruh muhokamalari** ham tashkil etilishi mumkin.

**Tizimli-tarkibiy tahlil** metodi mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o‘rnini davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi boshqa institutlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganishga imkon beradi. Bu esa, mahalla vakolatlarining samaradorligini ta’minlovchi va unga to‘siq bo‘luvchi omillarni kompleks baholashga xizmat qiladi.

Shuningdek, **statistik ma’lumotlarni tahlil qilish** metodi huquqbuzarliklar dinamikasi, mahalla faoliyatiga oid ko‘rsatkichlar va profilaktika tadbirlarining miqdoriy natijalarini baholashda qo‘llaniladi. Mantiqiy-deduktiv va induktiv yondashuvlar esa to‘plangan ma’lumotlar asosida umumiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar ishlab chiqishda asos bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi, respondentlarning anonimligi va ixtiyoriylik tamoyillariga qat’iy rioya qilingan holda etik me’yorlar ta’minlanadi. Ushbu kompleks metodologiya tezisning ilmiy asoslanganligini, tahlillarning chuqurligini va olingan xulosalarning amaliy ahamiyatini kafolatlaydi.

Mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o‘rni va vakolatlarini tahlil etish, avvalo, uning normativ-huquqiy asoslarini va amaliyotdagi real imkoniyatlarini chuqur tadqiq qilishni taqozo etadi. O‘zbekistonda mahalla instituti tarixan shakllangan, o‘ziga xos ijtimoiy-boshqaruv tizimi bo‘lib, uning huquqbuzarliklar oldini olishdagi roli mustaqillik yillarida qonunchilik darajasida mustahkamlandi. Tadqiqotning ushbu qismida mahallaning mazkur sohadagi vakolatlari milliy qonunchilik va xorijiy tajriba qiyosiy-huquqiy tahlili orqali o‘rganiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi hamda “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlari mahalla fuqarolar yig‘inlariga bu borada keng vakolatlar beradi. Jumladan, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga ko‘ra, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar qatoriga kiritilgan. Ularning vakolatlari doirasiga profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan

tarbiyaviy ishlar olib borish, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va huquqbuzarliklariga oid masalalarni ko‘rib chiqish, oilaviy-maishiy nizolarni bartaraf etishda ko‘maklashish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi muhim vazifalar kiradi. Amaliyotda bu vakolatlar mahalla raisi, uning maslahatchilari, yarashtirish komissiyasi, voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiya hamda “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi (hozirda profilaktika inspektori bilan hamkorlikda) faoliyati orqali realizatsiya qilinadi.

Biroq, normativ-huquqiy asoslarning mavjudligiga qaramasdan, amaliyotda bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Birinchidan, mahalla tomonidan qo‘llaniladigan jamoatchilik ta’sir choralari (masalan, jamoatchilik muhokamasi, ogohlantirish) ko‘p hollarda formal xarakterga ega bo‘lib, delinkvent xulq-atvorli shaxslarga real ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega emas. Buning sababi, bir tomondan, bunday choralarning huquqiy oqibatlari noaniqligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalla faollarida yetarli darajada yuridik bilim va psixologik-pedagogik ko‘nikmalarning yo‘qligidir. Ikkinchidan, mahallaning huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari, xususan, ichki ishlar organlari, ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash tizimi va boshqa davlat organlari bilan idoralararo hamkorlik mexanizmi yetarlicha samarali yo‘lga qo‘yilmagan. Ko‘pincha bu hamkorlik kampaniyabozlik yoki hisobot uchun ish olib borishdan nariga o‘tmaydi. Masalan, profilaktik hisobda turgan shaxs bilan ishlashda mahalla, profilaktika inspektori va bandlikka ko‘maklashish markazining harakatlari o‘zaro muvofiqlashtirilmaganligi sababli, ijtimoiy reabilitatsiya choralari kutilgan natijani bermaydi. Uchinchidan, mahallaning moddiy-texnik bazasi va faollarini rag‘batlantirish tizimi zamon talablariga to‘liq javob bermaydi. Bu esa, o‘z navbatida, jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi komissiyalar ishining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish milliy modelni takomillashtirish uchun qimmatli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Masalan, Yaponiya tajribasida “chonaikai” yoki “jichikai” deb nomlanuvchi mahalla uyushmalari huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Ular politsiya bilan yaqin hamkorlikda “mahalla patrullari” (bouhan patororu) tashkil etadi, xavfsizlikka oid ma’lumotlarni aholiga yetkazadi va eng muhimi, o‘zaro ishonch va ijtimoiy birdamlik muhitini shakllantirish orqali jinoyatchilik uchun noqulay sharoit yaratadi. O‘zbekiston mahallasidan farqli o‘laroq, yapon modelida asosiy urg‘u formal vakolatlarga emas, balki norasmiy ijtimoiy nazorat va jamoaviy

mas’uliyat hissiga qaratiladi. Bu yerda davlatning aralashuvi minimal darajada bo‘lib, tashabbus asosan aholining o‘zidan chiqadi.

AQSh va Buyuk Britaniyadagi “Neighborhood Watch” (Qo‘shnichilik nazorati) dasturlari ham diqqatga sazovordir. Bu dasturlar fuqarolarning o‘z hududlaridagi shubhali harakatlar haqida politsiyaga o‘z vaqtida xabar berishga asoslangan ko‘ngillilar harakatidir. Uning asosiy funksiyasi – kuzatuv va xabardor qilish. O‘zbekiston mahallasining vakolatlaridan farqli ravishda, “Neighborhood Watch” tarbiyaviy yoki yarashtiruv funksiyalarini bajarmaydi, uning maqsadi politsiya uchun “qo‘shimcha ko‘z va quloq” bo‘lishdir. Bu modelning afzalligi uning ixtisoslashganligi va aniq maqsadga yo‘naltirilganligida bo‘lsa, kamchiligi ijtimoiy muammolarning chuqur ildizlariga e’tibor qaratmasligidadir. Mahalla instituti esa, aksincha, huquqbuzarlikning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini (ishsizlik, oilaviy notinchlik) bartaraf etishga qaratilgan kengroq funksiyalarni qamrab oladi.

Germaniyadagi “Präventionsräte” (Profilaktika kengashlari) tajribasi idoralararo hamkorlikning samarali modelini namoyon etadi. Bu kengashlar munitsipal darajada tashkil etilib, uning tarkibiga politsiya, prokuratura, sud, ijtimoiy xizmatlar, maktablar, yoshlar tashkilotlari, diniy jamoalar va fuqarolik jamiyati vakillari kiradi. Ular birgalikda muayyan hududdagi kriminogen vaziyatni tahlil qiladi va uni yaxshilash bo‘yicha kompleks strategiyalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bu yondashuv huquqbuzarliklar profilaktikasini faqat bitta organning vazifasi sifatida emas, balki butun jamiyatning umumiy ishi sifatida ko‘rib chiqishga asoslanadi. O‘zbekistondagi mahalla va boshqa subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikni aynan shu model asosida, ya’ni yagona strategik markazdan muvofiqlashtiriladigan, aniq mas’uliyat va vakolatlar taqsimotiga ega tizim sifatida qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston mahalla instituti o‘zining keng qamrovli vakolatlari va ijtimoiy masalalarga chuqur integratsiyalashganligi bilan ajralib turadi. Bu uning noyob ustunligidir. Biroq, uning faoliyatini samarasini oshirish uchun xorijiy tajribaning ayrim elementlarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda implementatsiya qilish zarur. Xususan, yapon modelidan jamoaviy mas’uliyat va norasmiy ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, AQSh modelidan politsiya bilan axborot almashinuvining tezkor mexanizmlarini joriy etish, Germaniya modelidan esa profilaktika subyektlarining barchasini

birlashtiruvchi yagona platforma – hududiy profilaktika kengashlarini yaratish g‘oyasini olish mumkin.

Tahlillar natijasida quyidagi fundamental muammolarni ajratib ko‘rsatish mumkin: ***birinchidan,** *mahallaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi roli va vakolatlarining qonunchilikda deklarativ tarzda belgilangani holda, ularni amalga oshirishning aniq protsessual mexanizmlari va huquqiy oqibatlari to‘liq ishlab chiqilmagan. Bu holat mahalla faollarining o‘z vakolatlarini qo‘llashda ikkilanishiga yoki formalizmga yo‘l qo‘yishiga sabab bo‘lmoqda.* **Ikkinchidan,** *“jamoatchilik nazorati” tushunchasi amalda ko‘proq davlat organlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida talqin qilinmoqda, vaholanki uning asl mohiyati fuqarolik jamiyatining davlat ustidan samarali nazoratini o‘rnatishdir. Huquqbuzarliklarning oldini olishda aynan shu ikkinchi jihat, ya’ni profilaktikaga mas’ul davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yetishmayapti.* **Uchinchidan,*** mahallaning haddan tashqari ko‘p vazifalar bilan yuklanganligi uning asosiy, ya’ni aholi bilan bevosita ishlash va ijtimoiy muammolarni hal etish funksiyasiga e’tiborni susaytirmoqda. Natijada huquqbuzarliklar profilaktikasi ko‘plab vazifalardan biri sifatida qolib, unga tizimli va ilmiy asosda yondashilmayapti.

Xulosa qilib aytganda, mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi salohiyati juda yuqori, biroq uni to‘la ro‘yobga chiqarish uchun mavjud vakolatlarni qog‘ozdan amaliyotga samarali ko‘chirish, faoliyatni byurokratiyadan xoli etish, xorijning ilg‘or tajribalarini ijodiy o‘zlashtirish hamda institutsional va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish talab etiladi. Bu esa o‘z navbatida, mahallani shunchaki ijrochi organdan chinakam fuqarolik jamiyati institutiga, davlat va jamiyat o‘rtasidagi mustahkam ko‘prikka aylantirishning muhim shartidir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalla fuqarolar yig‘ini O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasining quyi, biroq fundamental bo‘g‘ini sifatida noyob ijtimoiy-huquqiy salohiyatga egadir. Milliy qonunchilik tahlili mahallaning profilaktika subyekti sifatidagi maqomini belgilagani holda, uning vakolatlari doirasi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik mexanizmlari va ta’sir choralarining huquqiy oqibatlari yetarlicha aniq va tizimli tartibga solinmaganini namoyon etdi. Xorijiy tajriba (AQSH va Buyuk Britaniyaning “community policing”, Yaponiyaning “chonaikai” modellari) qiyosiy tahlili shuni isbotlaydiki, jamoatchilik tuzilmalarining samaradorligi

ularning vakolatlarini aniq belgilash, davlat organlari bilan integratsiyalashuvi hamda faoliyatini moddiy-texnik va metodologik qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Milliy amaliyotda mahalla asosan an’anaviy ijtimoiy nazorat va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning proaktiv, ya’ni huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishga qaratilgan zamonaviy vositalarni qo‘llash imkoniyatlari to‘liq ishga solinmayapti.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. **Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha:** “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali MFYning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarini konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqish. Xususan, voyaga yetmaganlar bilan ishlash, oilaviy-maishiy nizolarni bartaraf etish, probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish kabi yo‘nalishlarda mahallaning aniq huquq va majburiyatlarini, shuningdek, uning qarorlarining (masalan, yarashtiruv komissiyasi xulosasining) huquqiy maqomini mustahkamlash lozim.

2. **Tashkiliy-institutsional mexanizmlarni rivojlantirish bo‘yicha:** Mahalla raisi, uning maslahatchilari va profilaktika inspektorlari uchun huquqiy bilimlar, mediatsiya ko‘nikmalari, kriminologik prognozlash va zamonaviy profilaktika metodologiyalari bo‘yicha majburiy malaka oshirish tizimini joriy etish. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, “mahalla posboni” institutini professional asosda qayta tashkil etib, uni ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘ini bilan integratsiyalashgan “jamoat xavfsizligi ofitseri” sifatida shakllantirish taklif etiladi.

3. **Axborot-tahliliy va metodologik ta’minotni yaxshilash bo‘yicha:** Mahallalar kesimida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va ularning oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralarni monitoring qiluvchi yagona elektron platforma yaratish. Bu platforma profilaktik ishlarni rejalashtirishda empirik ma’lumotlarga tayanish, idoralararo axborot almashinuvini tezlashtirish va mahallalar faoliyati samaradorligini baholash imkonini beradi. Shuningdek, ilg‘or xorijiy modellarni (masalan, “Xavfsiz qo‘shnichilik” dasturlarini) milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda adaptatsiya qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi mahalla institutini huquqbuzarliklar profilaktikasining reaktiv subyektidan proaktiv, ya’ni jinoyatchilikning ijtimoiy sabablarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga qodir tizimli kuchga aylantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
- “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni
- Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021.
-[https://akadmvd.uz/oz/menu/fakultet-profilaktiki-pravonarushenij](https://akadmvd.uz/oz/menu/fakultet-profilaktiki-pravonarushenij)
- Smith, J. Community Policing and Crime Prevention. – New York: Routledge, 2010.
- United Nations Office on Drugs and Crime. Handbook on the International Guidelines on Criminal Justice Responses to Terrorism. – Vienna: UNODC, 2009.

# IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY MA’LUMOTLARNI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

***O.E.Ergasheva***
*Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*
***G.G‘.Abdug‘afforova***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning huquqiy mexanizimlari, ularning milliy va xorijiy tajribada qay darajada shakllanganligi hamda amaliyotda namoyon bo’lishi yoritiladi.

**Kalit so’zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy ma’lumotlar, axborot xavfsizligi, maxfiylik, shaxsga doir ma’lumotlar, huquqiy himoya, kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish, xalqaro tajriba.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurdi. Albatta, ularning o’ziga yarasha ijobiy jihatlari bo’lgani kabi salbiy jihatlari ham yo’q emas. Qolaversa hozirgi paytda

turli internet tarmoqlari, mobil qurilmalar orqali shaxsiy ma’lumotlarning tarqalib borayotganligi hattoki shaxsni badnom qiluvchi behayo tasvirlarning tarqalib, ommalashib borayotgani dunyo jamoatchiligini tashvishga solmoqda. Mazkur holatlar nafaqat alohida shaxslarning daxlsizligiga, balki jamiyat xavfsizligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ham ko’plab davlatlarda, jumladan O’zbekistonda ham bunday salbiy oqibaltlarni oldini olish maqsadida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning bir qancha huquqiy mexanizmlari yo’lga qo’yilgan. Bunday chora-tadbirlar nafaqat, bizning yurtimizda balki, xorijiy mamlakatlarda ham ushbu sohada zamonaviy qonunchilik tizimi va samarali himoya usullari joriy etilgan bo‘lib, ular shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shaxsiy ma’lumot – bu muayyan jismoniy shaxsni bevosita yoki bilvosita aniqlash imkonini beradigan har qanday axborot hisoblanadi. Bunday ma’lumotlar insonning shaxsiy hayoti, uning kimligi, faoliyati va xususiyatlari haqida ma’lumot beradi hamda ularning maxfiyligi qonun bilan himoya qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, shaxsiy ma’lumotlar – bu identifikatsiya qilingan yoki identifikatsiya qilinishi mumkin bo‘lgan jismoniy shaxsga tegishli bo‘lgan har qanday axborotdir. Yuqorida takitlanganidek Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda millionlab foydalanuvchilarning shaxsiy hayotiga bevosita kirib borgan. Shu bois, shaxsga doir ma’lumotlar ( fotosuratlar, telfon raqam, yashash manzil,yozishmalar) shu kabi boshqa ko’plab shaxsiy ma’lumotlar tarqalmoqda, buning natijasida insonlar xakerlar xujumiga ham qurbon bo’layotgani tobora jadal tus olmoqda. Bunday holatlarni oldini olish va kamaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) rasmiy veb-saytida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qonun qabul qilgan davlatlar ro‘yxati e’lon qilingan. Unga ko‘ra, 2021-yil holatiga 194 ta davlatdan 128 tasi, ya’ni 66 foizi milliy darajadagi ma’lumotlarni himoya qilish qonunchiligiga ega. Shuningdek, davlatlarning 10 foizi shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qonun loyihalarini ishlab chiqish arafasida bo‘lsa, qolgan 19 foiz davlatlarda bunday qonunchilik umuman mavjud emas. Ushbu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, bu borada huquqiy asos yaratish va maxfiylikni oshirish masalasi butun dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur dolzarblik sababli, O’zbekistonda ham ko’lab shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish tug’risida qonunlar qabul qilindi. Qonunchilik palatasi

tomonidan 2019-yil 16- aprelda qabul qillingan Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma’qullangan **Shaxsga doir ma’lumotlar tu’risidagi** qonun bunga bir misol. Davlat shaxsga doir ma’lumotlarnining himoya qilinishini kafolatlaydi. [^2] Yangi qonun va normalar nimani anglatadi: ijtimoiy tarmoqlar va internet xizmatlari O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma’lumotlarini O‘zbekiston hududida joylashgan serverlarda saqlashi shart bo‘ladi. Boshqacha aytganda, Facebook, Google, Telegram va boshqa xizmatlardan O‘zbekiston fuqarolarining ma’lumotlarini mamlakat hududida saqlash talab qilinadi. Shu bilan birga, ayrim fikrlarga ko‘ra, ushbu norma jamiyatda so‘z va fikr erkinligini ma’lum darajada cheklashga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi O‘zbekiston huquqiy doktrinasida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini milliy va xorijiy tajriba asosida kompleks va tizimli tahlil qilishga qaratilgan dastlabki monografik tadqiqotlardan biri ekanligi bilan belgilanadi. Ishning ilmiy yangiligi quyidagi holatlarda o‘z ifodasini topadi:

**Birinchidan,** ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy ma’lumotlarning o‘ziga xos xususiyatlari (foydalanuvchi tomonidan generatsiya qilinadigan kontent, ma’lumotlarning virusli tarqalishi, transchegaraviy uzatilishining doimiyligi va platformalarning javobgarlik masalalari) inobatga olingan holda, ularning maxsus huquqiy rejimi konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bu, o‘z navbatida, shaxsga doir ma’lumotlarning umumiy huquqiy rejimini ijtimoiy media spetsifikasiga moslashtirish zaruratini ko‘rsatadi va bu boradagi huquqiy bo‘shliqlarni aniqlashga imkon beradi.

**Ikkinchidan,** Yevropa Ittifoqining Ma’lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti (GDPR), Kaliforniya iste’molchilarining maxfiylik to‘g‘risidagi qonuni (CCPA) kabi ilg‘or xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasi shunchaki bayon etilmasdan, balki ulardagi “unutish huquqi”, “ma’lumotlar ko‘chiriluvchanligi huquqi”, “by design and by default” tamoyillari kabi progressiv normalarning O‘zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilishning konseptual modellari va amaliy mexanizmlari ishlab chiqildi. Ushbu mexanizmlarning milliy huquqiy tizimga moslashuvchanligi va samaradorligi tahlil qilindi.

**Uchinchidan,** ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma’lumotlar xavfsizligiga oid tahdidlar (kiberbulling, doksing, ma’lumotlarning sizib chiqishi, profillarni soxtalashtirish) tizimlashtirildi va ularning huquqiy kvalifikatsiyasi muammolari tadqiq etildi. Ushbu tahdidlarga qarshi

kurashish bo‘yicha amaldagi qonunchilikdagi bo‘shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan aniq takliflar ilgari surildi. Xususan, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ijtimoiy tarmoq platformalarining yuridik javobgarligini, ma’lumotlar subyektlarining shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibini va vakolatli davlat organining nazorat funksiyalarini aniq belgilovchi qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berildi.

**To‘rtinchidan,** shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning huquqiy, tashkiliy va texnik mexanizmlari yagona tizim sifatida qaralib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va bir-birini to‘ldirishi ilmiy jihatdan asoslandi. Ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini tartibga solishda nafaqat huquqiy, balki o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) va birgalikda boshqarish (co-regulation) modellarini qo‘llashning istiqbollari baholandi hamda ularni milliy amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar shakllantirildi. Bu esa O‘zbekistonda axborot huquqi va raqamli huquqlar sohasidagi ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Xalqaro miqyosda shaxsiy ma’lumotlar himoyasi sohasida “oltin standart” sifatida e’tirof etiladigan eng ilg‘or va kompleks yondashuv Yevropa Ittifoqining Ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha umumiy reglamenti (General Data Protection Regulation – GDPR) hisoblanadi. 2018-yilda kuchga kirgan ushbu hujjat nafaqat Yevropa Ittifoqi hududida, balki o‘zining ekstraterritorial ta’siri tufayli butun dunyodagi global texnologik kompaniyalar, jumladan, Meta (Facebook, Instagram), Alphabet (Google, YouTube) va X (sobiq Twitter) kabi ijtimoiy media gigantlarining ma’lumotlarga ishlov berish siyosatini tubdan o‘zgartirdi.

GDPR muvaffaqiyatining asosida bir nechta fundamental prinsiplar yotadi: qonuniylik, haqqoniylik va shaffoflik; maqsadni cheklash (ma’lumotlar faqat aniq belgilangan maqsadlar uchun yig‘ilishi); ma’lumotlarni minimallashtirish (maqsadga erishish uchun zarur bo‘lganidan ortiqcha ma’lumot yig‘maslik); aniqlik; saqlashni cheklash va hisobdorlik. Ijtimoiy tarmoqlar kontekstida GDPRning eng muhim jihatlaridan biri – bu sub’ektning roziligiga qo‘yilgan qat’iy talablardir. Rozilik “erkin, ongli, aniq va bir ma’noli” bo‘lishi shart. Bu esa, o‘z navbatida, platformalarni foydalanuvchi shartnomalaridagi murakkab va chalg‘ituvchi bandlardan voz kechib, ma’lumotlardan qanday maqsadda foydalanilishini sodda va tushunarli tilda bayon etishga majbur qiladi. Bundan tashqari, GDPR “unutish huquqi” (right to be forgotten) va “ma’lumotlar portativligi huquqi” (right to data portability) kabi innovatsion normalarni joriy etdi. “Unutish huquqi” foydalanuvchiga o‘zi

haqidagi ma’lumotlarni platformadan butunlay o‘chirib tashlashni talab qilish imkonini bersa, ma’lumotlar portativligi bir ijtimoiy tarmoqdagi o‘z ma’lumotlarini tizimlashtirilgan formatda olib, boshqa platformaga ko‘chirish huquqini kafolatlaydi. Ushbu normalar foydalanuvchining o‘z ma’lumotlari ustidan nazoratini sezilarli darajada kuchaytiradi. Reglamentning samaradorligini ta’minlovchi eng kuchli vosita – bu uning sanksiyalar mexanizmi bo‘lib, qoidabuzarliklar uchun kompaniyaning yillik global aylanmasining 4 foizigacha jarima solinishi mumkinligi transmilliy korporatsiyalar uchun jiddiy deterrent (tiyib turuvchi) omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy ma’lumotlar himoyasining huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida belgilangan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan mustahkamlangan. Sohadagi maxsus normativ-huquqiy hujjat esa 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonundir. Ushbu Qonun shaxsga doir ma’lumotlarning ta’rifini, ularga ishlov berishning umumiy talablarini, sub’ekt, mulkdor va operatorning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Qonunga ko‘ra, shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishning asosiy prinsipi sub’ektning roziligidir. Qonunda sub’ektning o‘z ma’lumotlariga kirish, ularga tuzatishlar kiritish, bloklash va yo‘q qilishni talab qilish kabi huquqlari kafolatlangan. Ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini tartibga solish nuqtai nazaridan, Qonunning eng muhim va bahsli normalaridan biri bu – O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma’lumotlariga ishlov berishda ularning jismoniy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda (serverlarda) saqlanishini ta’minlash talabidir (mahalliylashtirish yoki lokalizatsiya talabi). Ushbu talabning ijobiy tomoni shundaki, u milliy ma’lumotlar suverenitetini mustahkamlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning zarur hollarda ma’lumotlardan foydalanishini osonlashtirish va milliy yurisdiksiyani ta’minlashga qaratilgan.

Biroq, amaliyotda bu talab global ijtimoiy tarmoqlar uchun jiddiy texnik va moliyaviy qiyinchiliklar tug‘diradi va ularning O‘zbekiston bozorida faoliyat yuritishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Sohada davlat nazoratini amalga oshirish vakolati O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish agentligiga yuklatilgan.

O‘tkazilgan tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlar himoyasining huquqiy mexanizmlari global miqyosda ham, milliy

darajada ham dolzarb va murakkab masala ekanligini yaqqol namoyon etdi. Milliy qonunchilik va ilg‘or xorijiy tajriba, xususan, Yevropa Ittifoqining Ma’lumotlarni himoya qilish umumiy reglamenti (GDPR) qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma’lumotlar himoyasi sohasida mustahkam huquqiy poydevor yaratilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy media platformalarining transchegaraviy tabiati va texnologik dinamikasi bilan bog‘liq o‘ziga xos muammolarni to‘liq qamrab oluvchi maxsus normalar yetishmaydi. Mavjud huquqiy baza ko‘proq umumiy xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar kabi ma’lumotlar protsessingining yirik subyektlari faoliyatini, algoritmik qarorlar qabul qilish jarayonlarini va foydalanuvchi roziligini olishning nozik jihatlarini yetarlicha tartibga solmaydi. Natijada, milliy qonunchilik talablari va global texnologik kompaniyalar amaliyoti o‘rtasida huquqiy bo‘shliq yuzaga kelgan bo‘lib, bu fuqarolarning ma’lumotlar daxlsizligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarining samarali himoyasini ta’minlashda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlar himoyasining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ***taklif va tavsiyalar*** ilgari suriladi:

**Birinchidan,** “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga va tegishli qonunosti hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali ijtimoiy tarmoq platformalarining huquqiy maqomini aniq belgilash, ularni “ma’lumotlar nazoratchisi” (data controller) va “ma’lumotlar qayta ishlovchisi” (data processor) sifatida tasniflash hamda ularning yuridik majburiyatlari doirasini kengaytirish lozim. Xususan, “loyihalash va standart sozlamalar orqali ma’lumotlar himoyasi” (privacy by design and by default) tamoyilini, shuningdek, ma’lumotlarni qayta ishlash maqsadlari haqida foydalanuvchilarga sodda va tushunarli tilda axborot berish majburiyatini normativ jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

**Ikkinchidan,** Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish agentligining vakolatlarini kengaytirish, unga transchegaraviy faoliyat yurituvchi ijtimoiy media kompaniyalari ustidan samarali nazorat o‘rnatish, tekshiruvlar o‘tkazish va qonunbuzarliklar aniqlanganda ta’sirchan moliyaviy sanksiyalar (jarimalar) qo‘llash huquqini berish zarur. Bu, o‘z navbatida, xalqaro kompaniyalarning milliy qonunchilikka rioya etish mas’uliyatini oshiradi.

**Uchinchidan,** fuqarolarning raqamli savodxonligini va shaxsiy ma’lumotlar himoyasi borasidagi huquqiy ongini yuksaltirishga qaratilgan keng qamrovli davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu chora-tadbirlar foydalanuvchilarga o‘z ma’lumotlarini ongli ravishda boshqarish, maxfiylik sozlamalaridan to‘g‘ri foydalanish va huquqlari buzilgan taqdirda murojaat qilish mexanizmlaridan xabardor bo‘lish imkonini beradi.

**To‘rtinchidan,** shaxsiy ma’lumotlarning transchegaraviy uzatilishini tartibga solish va xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekistonning Yevropa Kengashining “Shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berishda jismoniy shaxslarni himoya qilish to‘g‘risida”gi 108-sonli Konvensiyasiga qo‘shilish jarayonini jadallashtirish tavsiya etiladi. Bu milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish va ma’lumotlar himoyasi sohasida xalqaro hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O‘RQ-547-son.
- European Union. General Data Protection Regulation (GDPR). Regulation (EU) 2016/679. 2016.
- Lessig, L. Code and Other Laws of Cyberspace. Basic Books, 1999.
- Solove, D. J. Understanding Privacy. Harvard University Press, 2008.
- Acquisti, A., Brandimarte, L., & Loewenstein, G. Privacy and human behavior in the age of information. Science, 340(6138), 1219-1223, 2013.
- Bennett, C. J., & Raab, C. The Governance of Privacy: Policy Instruments in Global Perspective. MIT Press, 2006.
- Zuboff, S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. PublicAffairs, 2019.
- Rustamov I. Axborot texnologiyalari huquqi. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDYU, 2019.

[^2]: https://lex.uz/docs/-4396419#-4397183

# YURIDIK ILM-FANNI RIVOJLANTIRISH ORQALI FUQAROLAR O'RTASIDA HUQUQ VA MAJBURIYATLARGA HURMAT RUHINI QAROR TOPTIRISH USULLARI

***S.B.Ravshanov,***
*Sarbon universiteti "Huquqiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.*
***A.Ergashev***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali jamiyatda fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, huquq va majburiyatlarga nisbatan hurmat ruhini shakllantirishning nazariy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida huquqiy ta'lim tizimini takomillashtirish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash hamda qonun ustuvorligini ta'minlashda yuridik fanlarning o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini anglash, o'z majburiyatlariga mas'uliyat bilan yondashish, davlat va jamiyat manfaatlariga hurmat ruhida tarbiyalashning zamonaviy mexanizmlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** yuridik ilm-fan, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot, demokratik qadriyatlar, konstitutsiyaviy huquqlar, fuqarolik mas'uliyati.

Jamiyatda huquq va majburiyatlarga hurmat ruhini shakllantirish demokratik huquqiy davlat qurishning muhim shartlaridan biridir. Fuqarolarning qonunlarga ongli ravishda rioya qilishi, o'z huquqlarini bilishi va majburiyatlarini mas'uliyat bilan bajarishi huquqiy ong hamda huquqiy madaniyat darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, yuridik ilm-fanni rivojlantirish fuqarolar o'rtasida huquq va majburiyatlarga hurmat ruhini qaror toptirishning muhim nazariy va amaliy asosini tashkil etadi.

Yuridik ilm-fan huquqiy munosabatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolarning huquqiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, huquqiy ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish orqali fuqarolarda qonunlarga nisbatan hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik burchini anglash hissi shakllanadi. Huquqiy ongning yuksalishi esa jamiyatda adolat, tenglik va qonun ustuvorligini ta'minlashga yordam beradi.

Fuqarolar o'rtasida huquq va majburiyatlarga hurmat ruhini qaror toptirishning eng muhim usullaridan biri huquqiy ta'limni takomillashtirishdir. Ta'lim tizimida konstitutsiyaviy huquqlar, inson

erkinliklari, fuqarolik majburiyatlari va qonunchilik asoslarini chuqur o‘qitish yosh avlodning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, interaktiv pedagogik metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va huquqiy treninglardan foydalanish fuqarolarning huquqiy bilimlarini mustahkamlaydi hamda qonunlarga ongli munosabatni shakllantiradi.

Huquqiy targ‘ibot va tashviqot ishlari ham muhim usullardan biri hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari va ijtimoiy platformalar orqali aholiga huquqiy axborotlarni sodda, aniq va tushunarli tarzda yetkazish fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshiradi. Huquqiy mavzulardagi teleko‘rsatuvlar, seminarlar, davra suhbatlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar aholida qonunlarga hurmat hissini kuchaytiradi.

Bugun ko‘chaga chiqib, duch kelgan odamimizdan: “Sizning qanday huquqlaringiz bor?” deb so‘rasak, ko‘pchilik o‘z haq-huquqlarini birma-bir sanab berishi mumkin. Ammo gap majburiyatlar haqida ketganda, ko‘pincha jamiyatdagi odamlar uncha javob bera olmaydi va o’ylanib qoladi

Nima uchun biz huquqlarimizni talab qilishni yaxshi ko‘ramiz-u, majburiyatlarimizga kelganda biroz panja ortidan qaraymiz? Muammo qayerda?

Aslida, yechim faqat jarimalarni oshirish yoki yangi qonunlar qabul qilishda emas. Asl yechim – yuridik ilm-fanni oddiy odamlar hayotiga olib kirish va u orqali jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirishda. Xo‘sh, buni qanday amalga oshirish mumkin? Keling, buni oddiy, hamma tushunadigan tilda tahlil qilib ko‘ramiz.

Ko‘pchilik “yuridik ilm-fan” deganda qalin, chang bosgan kitoblar, qiyin terminlar va faqat sudya-yu advokatlar, yuristlar tushunadigan qonun moddalarini tasavvur qiladi. Bu – eng katta xato.

Yuridik ilm-fanning asosiy vazifasi faqat qonun yozish emas, balki o‘sha qonunlarning jamiyatda qanday ishlayotganini o‘rganish va ularni hayotga moslashtirishdir. Agar ilm-fan xalqdan uzilib qolsa, qonunlar faqat qog‘ozda qoladi.

Oddiy misol: Tibbiyot ilmi faqat laboratoriyada qolib ketganda, odamlar oddiy grippdan ham davolana olmasdi. Yuridik ilm ham xuddi shunday: u laboratoriyadan (ya’ni universitetlar va ilmiy markazlardan) chiqib, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi, ularga yo‘l ko‘rsatishi kerak.

Fuqarolarda huquq va majburiyatlarga hurmat uyg‘otish uchun avvalo yuridik ilm-fan “xalqchillashtirish” lozim. Odamlar qonunni qiyin bo‘lgani uchun emas, tushunmagani uchun chetlab o‘tishga harakat qiladi.

Jamiyatda shunday bir tushunchani shakllantirish kerakki, huquq va majburiyat bir-biridan ajralmas egizaklardir. Mening huquqim tugagan joyda boshqasining majburiyati, boshqasining majburiyati boshlangan joyda mening huquqim boshlanadi. Bu g'oya konstitutsiyamiz 21-moddasida ham belgilab qo'yilgan.

Tarozi buzilsa nima bo‘ladi? Agar davlatda faqat huquqlar targ‘ib qilinsa, jamiyat xudbin va tartibsiz bo‘lib qoladi (hamma faqat o‘zini o‘ylaydi). Agar faqat majburiyatlar yuklansa, jamiyatda qo‘rquv va norozilik paydo bo‘ladi.

Yuridik ilmning roli: Olimlar va mutaxassislar aynan shu oltin o‘rtalikni (balansni) topib, uni jamiyatga tushuntirib berishlari kerak. Buni amalga oshirishning bir necha aniq usullari mavjud.

Yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali odamlarda qonunlarga hurmat uyg‘otishning eng samarali usullari quyidagilardan iborat:

- "Huquqiy detoks" yoki tilni soddalashtirish. Qonunlarimiz, huquqiy qo‘llanmalarimiz tili juda murakkab. Oddiy fuqaro biror moddani o‘qisa, uning ma'nosini tushunish uchun huquqshunos yollashi kerakdek tuyuladi.

Yuridik ilm-fan vakillari qonunlarni "foydalanuvchi uchun qulay" formatga o‘tkazish ustida ishlashlari kerak.

Ma'lumotlar vizual (infografikalar, qisqa videolar, rasm va sxemalar) shaklda taqdim etilishi lozim. Masalan, "Mehnat kodeksining falon moddasi" deb yozgandan ko‘ra, "Ish beruvchi sizni sababsiz ishdan bo‘shatsa, nima qilish kerak?" degan qisqa qo‘llanma million marta effektliroq.

Maktablarda "Davlat va huquq asoslari" degan fanlar bor. Lekin tan olaylik, ko‘pincha bu darslar zerikarli konspektlar va quruq yodlashlardan iborat bo‘lib qolgan.

Yuridik ilm-fan pedagogikaga kirib borishi kerak. Darslarda quruq moddalarni yodlatish emas, hayotiy keyslar (vaziyatlar) tahlil qilinishi lozim.

*Masalan:* Sinfda kichik xonani "Sud zali"ga aylantirib, o‘quvchilarning o‘zlariga do‘kondan olingan sifatsiz tovar muammosini hal qildirish kerak. Bola o‘zi iste'molchi sifatida huquqini himoya qilib ko‘rsa, u umrbod qonun nimaligini va qanday ishlashini tushunadi.

Huquqshunos olimlarimiz faqat ilmiy jurnallarga maqola yozish bilan cheklanmasdan, ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, YouTube, Instagram) va televideniyeda faol bo‘lishlari shart.

Bugun odamlar huquqiy muammosiga javobni kitobdan emas, internetdan qidiryapti. Agar u yerda professional, ilmiy asoslangan, ammo xalqchil tushuntirishlar bo‘lmasa, odamlar Yuridik ilm-fan faqat "qonun nima deydi?" degan savolga emas, "qonun hayotda qanday ta’sir qilyapti?" degan savolga javob berishi kerak.

*Misol uchun:* To‘ylar yoki marosimlarni tartibga solish bo‘yicha qonun yoki qaror chiqdi deylik. Ilm-fan vakillari joylarga chiqib, odamlar buni qanday qabul qilayotganini, qayerda kamchilik borligini tushunishi, xalqning fikrini o‘rganishi kerak. Qonun xalqning turmush tarziga, mentalitetiga mos kelgandagina unga hurmat uyg‘onadi.

Biz ko‘pincha qonun buzgan odamni jazolashni afzal ko‘ramiz. Ammo yuridik ilm isbotlaganki, jazo choralarining og‘irligi emas, balki jazoning muqarrarligi va huquqiy tarbiya jinoyatchilikning oldini oladi.

Shaxsiy namuna: Agar amaldor yoki jamiyatda taniqli shaxs qonunni buzsa-yu, jazosiz qolsa, oddiy fuqaroda qonunga nisbatan nafrat uyg‘onadi. Yuridik ilm-fan qonun oldida hamma teng bo‘lgan tizimni (Rule of Law) yaratish mexanizmlarini ishlab chiqishi va buni qat’iy talab qilishi kerak.

Rag‘batlantirish tizimi: Biz doim qonunni buzganlarni gapiramiz. Nega endi qonunga to‘liq amal qiladigan, soliqlarini o‘z vaqtida to‘laydigan, namunali fuqarolarni jamiyatga o‘rnak qilib ko‘rsatmaymiz? Masalan, "Namunali soliq to‘lovchi" yoki "Yo‘l harakati qoidalarini 5 yil davomida buzmagan haydovchi" kabi loyihalar odamlarda majburiyatlarga nisbatan ijobiy hissiyot uyg‘otadi.

- Yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali fuqarolarda huquq va majburiyatlarga hurmat uyg‘otish – bu bir kunlik yoki bir oylik ish emas. Bu – uzoq muddatli, tizimli va eng muhimi, yurakdan qilinadigan mehnat.

Qachonki biz huquqni quruq taqiqlar to‘plami emas, balki hayotimizni tinch, farovon va adolatli qiladigan o‘yin qoidalari deb qabul qilsak, o‘shanda jamiyat o‘zgaradi. Yuridik ilm-fanning vazifasi esa ana shu qoidalarni har bir xonadonga, har bir qalbga tushunarli va yaqin tilda yetkazib berishdir.

Qonunga hurmat qo‘rqinchdan emas, ong va madaniyatdan tug‘ilishi kerak. Shundagina biz haqiqiy huquqiy jamiyatni qura olamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

**4.** Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

**5.** Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

**6.** Saidov A.X. Huquqiy madaniyat va huquqiy ong asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.

**7.** Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2020.

## YURIDIK ILM-FANNI RIVOJLANTIRISH ORQALI JAMIYATDA HUQUQIY NIGILIZMNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

***S.B.Ravshanov.*** *Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*
***Sh.Yuldasheva***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamiyatda uchrayotgan huquqiy nigilizmning mohiyati, uning kelib chiqish sabablari hamda uni bartaraf etishda yuridik ilm-fanning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, yuridik ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy izlanishlarni rivojlantirish orqaliy fuqarolarda qonunga hurmat hissini shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada huquqiy ong va huquqiy tarbiya orqali jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim jihatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** huquqiy nigilizm, yuridik ilm-fan, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, qonun ustuvorligi, huquqiy tarbiya, yuridik ta’lim, jamiyat, fuqarolik jamiyati, huquqbuzarlik.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti qonun ustuvorligi va huquqiy madaniyat bn chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Fuqarolarning qonunlarga bo‘lgan hurmati, huquq va majburiyatlarini bilishi davlat rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Biroq ayrim hollarda jamiyatda huquqiy nigilizm holatlari uchrab turadi. Huquqiy nigilizm - bu shaxslarning qonun va huquqiy normalarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishi, ularga ishonmasligi yoki ularga amal qilishni zarur deb

hisoblamasligidir. Huquqiy nigilizmning kuchayishi jamiyatda huquqbuzarliklar sonining ortishiga, fuqarolarning davlat organlariga nisbatan ishonchi pasayishiga hamda qnun ustuvorligining zaiflashishiga olib keladi. Shu sababli bu muammoni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va huquqiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy nigilizm jamiyatda qonun va huquqiy normalarga nisbatan bepisandlik, ishonchsizlik hamda ularni inkor etish holati sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisa fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining pastligi, qonunlarning mazmun-mohiyatini yetarli anglamaslik hamda davlat organlariga bo‘lgan ishonchning susayishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli huquqiy nigilizmni bartaraf etish zamonaviy huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Yuridik ilm-fanni rivojlantirish ushbu muammoni hal etishning eng samarali vositalaridan biri sanaladi. Chunki yuridik fan jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni ilmiy asosda o‘rganadi, qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi hamda fuqarolarning huquqiy tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, yuridik tadqiqotlar asosida huquqiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish va qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish imkoniyati kengayadi.

Huquqiy nigilizmni bartaraf etishda, avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasalarida huquqiy bilimlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularni konstitutsiyaviy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash jamiyatda qonunga itoatkorlik muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, aholiga huquqiy axborotlarni sodda va tushunarli shaklda yetkazish, ommaviy axborot vositalari hamda raqamli platformalar orqali huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish fuqarolarning qonunlarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Yuridik ilm-fan taraqqiyoti davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Adolat va qonuniylik tamoyillarining amalda ta’minlanishi fuqarolarning davlat va huquq tizimiga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi. Aksincha, korrupsiya, byurokratiya va qonunlarning bir xil qo‘llanmasligi huquqiy

nigilizmning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shu bois yuridik ilmiy tadqiqotlar asosida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish hamda inson huquqlarini ishonchli himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurdir.

Huquqiy nigilizm jamiyatda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ayrim fuqaralar qonunlarga befarq bo‘lsa, boshqalari qonunlarga amal qilishni foydasiz deb hisoblaydi. Bunday holatlarning yuzaga kelishiga bir qancha omillar sabab bo‘ladi.

Birinchidan, aholining huquqiy bilim darajasining yetarli emasligi huquqiy nigilizmning asosiy sabablaridan biridir. Fuqarolar o‘z huquq va majburiyatlarini bilmasa, qonunlarga rioya qilishning ahamiyatini ham to‘liq anglab yetmaydi.

Ikkinchidan, ayrim hollarda qonunlarning amalda to‘liq ishlamasligi yoki adolatsizlik holatlarining uchrashi ham insonlarda huquqqa nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa fuqarolarda “qonun baribir ishlamaydi” degan notogri tushunchaning shakllanishiga olib keladi. Uchinchidan, yoshlar tarbiyasida huquqiy tarbiyaning yetarli darajada olib borilmasligi ham huquqiy nigilizmning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa internet va ijtimoiy tarmoqlorda qonunlarni mensimaslikni targ‘ib qiluvchi salbiy axborotlarning ko‘payishi bu muammoni yanada kuchaytiradi.Jamiyatda huquqiy nigilizmni kamaytirishda yuridik ilm-fan muhim o‘rin tutadi. Chunki yuridik ilm-fan qonunlarni chuqur o‘rganish, ularni takomillashtirish va aholiga tushuntirish vazifasini bajaradi. Avvalo, yuridik ta’lim sifatini oshirish zarur. Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy yuridik bilimlarni berish, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish hamda talabalarni mustaqil fikrlashga orgatish muhim hisoblanadi. Chunki bilimli va malakali yuristlar jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga katta hissa qo‘shadi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali mavjud huquqiy muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqiladi. Huquqshunos olimlar tomonidan qonunchilikdagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilishi jamiyatdagi huquqiy ishonchni mustahkamlaydi.

Yuridik ilm-fan ommaviy huquqiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Televizion korsatuvlar, internet platformalari, seminar va davra suhbatlari orqali aholiga qonunlarning mazmunini sodda va tushunarli tarzda yetkazish muhimdir. Ayniqsa yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish huquqiy nigilizmning oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Huquqiy madaniyat - bu insonlarning qonunga

hurmat bilan qarashi, huquqiy bilimga ega bo‘lishi va qonunlarga ongli ravishda amal qilishidir. Huquqiy madaniyati yuqori bo‘lgan jamiyatda tartib-intizom mustahkam bo‘ladi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish avvalo oiladan boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga qonunlarga li o‘qitish orqali yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi ham fuqarolarning qonunga hurmat ruhida tarbiya berishi lozim. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida esa huquqiy fanlarni samarao‘lgan ishonchini oshiradi. Agar insonlar adolatni ko‘rsa, ular qonunlarga ko‘proq hurmat bilan qaraydi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy nigilizm jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muammolardan biridir. Uni bartaraf etishda yuridik ilm-fanni rivojlantirish, huquqiy ta’lim sifatini oshirish hamda aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Qonun ustuvorligi ta’minlangan jamiyatda fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi ortadi, huquqbuzarliklar kamayadi va adolat tamoyili mustahkamlanadi. Taklif sifatida esa aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, oliy ta’lim muassasalarida yuridik fanlarni zamonaviy usullarda o‘qitishni kengaytirish, huquqiy mavzulardagi ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, internet va ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ko‘rsatuv va loyihalarni ko‘paytirish maqsadga muvofiqligi, hamda, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish orqali fuqarolarning qonunga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash kabi harakatlarni zarur deb ko’rsatish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

**4.** Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

**5.** Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

**6.** Saidov A.X. Huquqiy madaniyat va huquqiy ong asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.

**7.** Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2020.

# YURIDIK TA‘LIM VA ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

***F.O‘.Karimboyeva***
*Sarbon Universiteti*
*talabasi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada yuridik ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, yuridik ta’lim tizimida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut, raqamlashtirish jarayonlaring sustligi, ilmiy tadqiqotlar samaradorligining yetarli emasligi hamda xalqaro tajribani foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy, statistik va tahliliy metodlardan foydalanilgan. Maqolada rivojlanagan davlatlarning yuridik ta’lim tizimi o‘rganilib, ularning ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston ta‘lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, yuridik kilinikalarni (Clinical Legal Education (yuridik klinika)-bu yuridik oliygoh yoki universitet huzurida tashkil etiladigan amaliy o‘quv markazi bo‘lib, unda talabalar haqiqiy huquqiy masalalar ustida ishlash orqali tajriba orttiradilar.) rivojlantirish, raqamli texnalogiyalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari yuridik ta‘lim sifatini oshirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** yuridik ta’lim, huquqiy davlat, ilm-fan, raqamlashtirish, innovatsion texnalogiyalar, yuridik kilinika, xalqaro tajriba, ilmiy tadqiqot.

Bugungi globallashuv jarayonida yuridik ta‘lim va ilm-fan tizimining rivojlanishi davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Huquqiy demokratik davlatni shakillantirish, inson huquqlarini himoya qilish hamda qonun usuvorligini ta’minlash bevosita malakali yuridik kadrlarga bog’liqdir. Shu sababli yuridik ta’lim tizimini takomillashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. So‘ngi yillarda O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy pedagogik texnalogiyalarini joriy etish va ilmiy salohiyatni oshirish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi1. Biroq yuridik ta’lim tizimida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan: Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut, raqamli texnalogiyalarning yetarlicha joriy etilmaganligi, ilmiy tadqiqotlar sifating pastligi, xalqaro reytinglardagi

past ko‘rsatkichlar va xorijiy tajribadan foydalanish darajasining yetarli emasligi. Mazkur maqolada ana shu muammolar ilmiy jihatidan tahlil qilinadi.

Yuridik ta’lim-bu huquqiy bilimlarni o ‘rgatish, huquqiy tafakkurni shakllantirish hamda malakali yurist mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan tizimdir. Huquqshunos olim A.X.Saidovning ta’kidlashicha, “ yuridik ta’lim jamiyatda huquqiy madaniyat va qonuniylikni ta’minlovchi asosiy institutlardan biridir”2. Bugunki kunda yuridik ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: huquqiy bilimlarni shakillantirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, demokratik qadriyatlarni rivojlantirish, amaliy ko ‘nikmaga ega kadrlarni tayyorlash. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil holatiga O‘zbekistonda 20 dan ortiq oliy ta’lim muassasasidsa yuridik ta’lim yo‘nalishlari mavjud3.

Bugungi yuridik ta‘lim tizimining asosiy muammolaridan biri nazariy bilimlarning amaliyot bilan yetarli darajada integratsiyalashmaganligidir. Talabalar ko‘pincha nazariy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirilsalar-da, real sud amaliyoti, protsessual hujjatlar tayyorlash va huquqiy maslahat berishda qiyinchilikka duch kelmoqdalar. Masalan, ko‘plab rivojlangan davlatlarda “Moot Court” tizimi joriy etilgan bo‘lib, talabalar real sud jarayonlariga yaqinlashtirilgan simulyatsiyalarda qatnashadilar.4 O‘zbekistonda esa bu amaliyot endigina rivojlanmoqda. Mazkur muammoni hal qilish uchun: yuridik klinikalarni ko‘paytirish, sud organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, amaliy mashg‘ulotlar hajmini oshirish zarur.

Raqamli texnalogiyalar zamonaviy ta‘limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Elektron sud tizimi, sun‘iy intellekt, legal-tech platformalar yuridik faoliyatni tubdan o‘zgartirilmoqda. Biroq ayrim oliy ta‘lim muassasalarida: elektron kutubxonalar yetarli emas, zamonaviy texnik vositalar kam, professor-o‘qituvchilarning IT kompetensiyasi past. UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo universitetlarining 72 foizi raqamli ta ‘lim platformalardan faol foydalanadi.5

Ilmiy tadqiqotlar yuridik ilm-fanning asosiy ko‘rsatkichidir. So‘ngi yillarda ilmiy maqolalar soni oshgan bo‘lsa-da, xalqaro bazalarda indekslangan maqolalar soni hali ham kam. Scopus bazasi ma‘lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo davlatlari orasida ilmiy maqolalar soni bo‘yicha O‘zbekistonning ulushi oshib borayotgan bo‘lsa-da, yuridik yo‘nalishdagi maqolalar yetarli emas.6 Asosiy muammolar: mavzularning takrorlanishi, statsitik tahlilning kamligi, xorijiy manbalardan kam foydalanish, ingilis tilidagi ilmiy maqolalar sonining kamligi.

**AQSH tajribasi**

AQSHda Case Study va Socratic Method keng qo‘llaniladi. Talabalar sud qarorlarini tahlil qilish orqali mustaqil fikirlashga o‘rgatiladi.7

**Germaniya tajribasi**

Germaniyada dual ta‘lim tizimi mavjud bo‘lib, talabalar o‘qish bilan birga amaliyotyda ham faol qatnashadilar.

**Yuridik ta ‘limni rivijlantirish istiqbollari**

Kelgusida yuridik ta‘limni rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

- Inavatsion pedagogik texnalogiyalarni joriy qilish,
- Ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash,
- Raqamli huquq yo‘nalishini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, yuridik ta‘lim va ilm-fanni rivojlantirish zamonaviy davlat taroqqiyotining muhim omillardan biridir. Ta‘lim tizmida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro tajribalarni joriy etish, inavatsion texnalogiyalartdan foydalanish va ilmiy salohiyatni kuchaytirish orqali yuridik ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**


- Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). PF–5847-son Farmon
- O‘zbekiston Respublikasi. (2020). “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun.
- Saidov, A. X. (2020). Huquqiy ta’lim nazariyasi. Toshkent.
- UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report.
- Scopus. (2024). International Research Statistics Report.
- Legal Education in Europe. (2022). Brussels.
- Web of Science. (2023). Research Index Report.
- Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. ToshkenT
- Rashidov, F. (2022). Oliy yuridik ta’lim muammolari va istiqbollari. Toshkent.

# YURIDIK ILM-FANNI RIVOJLANTIRISH ORQALI FUQAROLARNI QONUN RUHIDA TARBIYALASH VOSITALARI

***S.B.Ravshanov***
*Sarbon universiteti*
*“Huquqiy fanlar” kafedrasi*
*o‘qituvchisi.*
***A.Abubakirov***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali fuqarolarni qonun ruhida tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda yuridik fanlarning o‘rni, huquqiy ta’lim va tarbiya tizimining ahamiyati hamda fuqarolarda qonunga hurmat, huquqiy mas’uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantirish vositalari yoritib berilgan. Shuningdek, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va huquqiy ongni rivojlantirishda ilmiy yondashuvlarning samaradorligi ochib beriladi. Maqolada fuqarolarni qonun ruhida tarbiyalashning asosiy vositalari sifatida huquqiy ta’lim, ommaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar, huquqiy targ‘ibot, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda davlat va nodavlat institutlari faoliyati tahlil qilingan. Ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularni konstitutsiyaviy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash va jamiyat hayotida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, yuridik ilm-fan taraqqiyoti asosida innovatsion pedagogik usullarni joriy etish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** yuridik ilm-fan, huquqiy tarbiya, qonun ustuvorligi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, huquqiy ta’lim, huquqiy targ‘ibot, konstitutsiyaviy qadriyatlar, fuqarolik mas’uliyati, inson huquqlari, huquqbuzarlik profilaktikasi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar.

Bugungi glaballashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy va texnologik yutuqlar bilan, bakli insonlarning huquqiy ongi va madaniyati bilan ham bevosita bog’liqdir. Qunun ustuvorligini ta’minlangan jamiyatda adolat, barqarorlik va taraqqiyot mustahkam o’rin egallaydi. Shu bois, yosh avlodni qonunlar ruhida tarbiyalash masalalari har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yuridik ilm-fan esa aynan shu jarayonlarning asosiy tayanchi hisoblanadi. Chunki qanunlarni yaratish, ularni tushuntirish va jamiyatga singdirish aynan ilmiy yondashuv orqali amalga oshiriladi. Demak, yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali jamiyatda qonunlarga nisbatan hurmatni shakillantirish mumkinmi? Ushbu savol mazkur maqolaning asosiy muammosini tashkil etadi.

- Yuridik ilm-fanning jamiyat hayotidagi o’rni.

Yuridik ilm-fan - bu huquqiy tizimni o’rnatadigan, rivojlantiradigan va takomillashtiradigan ilmiy yo’nalishdir. U nafaqat qonunlarni ishlab chiqishda, balki ularni mazmunini tushuntirishda ham muhim ro’l o’ynaydi.

Jamiyatda qonunlarning mavjudligi yetarli emas, eng muhimi ularning mohiyatini anglashdir. Aynan shu yerda yuridik ilm-fan o’z vazifasini bajaradi. Chunki ilmiy asoslangan huquqiy bilimlar orqali insonlar:

o’z huquq va majburiyatlarini bilishadil.

qonunlarga ongli ravishda rioya qiladi.

o’zga insonlarning huquqlarini hurmat qiladi.

huquqbuzarliklarning oldi olinadi.

Masalan, rivojlangan davlatlarda fuqarolarning huquqiy madaniyati yuqori darajada bo’lishi bevosita yuridik ta’lim va ilm- fan rivoji bilan bog’liqdir. Bu davlat fuqarolariga huquqiy ong va madaniyat yoshligidan singdirilib chuqur o’rgatiladi, bu esa jamiyatda tartib va intizomni ta’minlaydi.

- Fuqarolarni qonun ruhida tarbiyalash tushunchasi

Qonun ruhida tarbiyalash – bu insonlarda qonunga hurmat, unga itoat etishi va uni himoya qilish hissini shakillantirishdir. Bu faqat jazodan qo’rqish emas, balki ongli ravishqa qonunga amal qilishni o’rgatadi. Bunday tarbiya quyidagi jihatlarni o’z ichiga oladi:

>huquqiy bilimlarni shakillantirish

>adolat tushuchasini singdirish

>fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish

Agar inson qonunni faqt majburiyat sifatida emas , balki ijtimoiy tartibni saqlovchi muhim vosita sifatida qabul qilsa, jamiyatda huquqbuzarliklar keskin kamayardi.

- Yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali,fuqarolarni huquqiy ruhda tarbiyalashning asosiy vositalari.

Yuridik ilm-fanni rivojlatirish orqali qonun ruhida tarbiyalash bir qator samarali vositalar orqali amalga oshiriladi:

- Huquqiy ta’lim tizmini kuchaytirish .

Maktabdan boshlab huquqiy bilimlarni yosh avlodlarga singdirib borish juda muhim hisoblanadi. Shundagina insonning dunyoqarashi yoshlogida boshlab rivojlanib boradi, agar o’quvchilar konstitutsiyani bilsa, o’z huquqlarini tushunadilar, qonunlarning ahamoyatini anglab yetsalar kelajakda komil fuqarolarga aylanishadi.

- Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantiris

Yuridik sohadaga ilmiy izlanishlar qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi. Olimlar tomonidan ishlab chiqarilgan takliflar: Yangi va mukammal qonunlar ishlab chiqish, mavjud qonunlarning yaxshilanishi huquqiy tizimning samaradorligiga olib keladi.

- Ommaviy axborot vositalari va platformalar

Bugungi kunda internet va mediya katta kuchga ega bo'lmoqda sababi biz ular orqali istalgan axborot ma'lumotlarimizni topishimiz va ulardan foydalanishimiz mumkin. Bularga misol qilib: eng keng tarqalgan saytlardan biri lex.uz hisoblanadi, bu sayt orqali biz o'zimizga kerakli bo'lgan qonunchilik hujjatlarini mashaqqatsiz topishimiz mumkin.

Fuqarolarni qonun ruhida tarbiyalash demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda fuqarolarning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirish bevosita huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, yuridik ilm-fanni rivojlantirish fuqarolarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashning muhim ilmiy-amaliy asosini tashkil etadi.

Yuridik ilm-fan jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni chuqur o‘rganish, qonunchilikni takomillashtirish hamda huquqiy ta'lim va tarbiya mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ilmiy tadqiqotlar asosida huquqiy tarbiya vositalarini zamonaviylashtirish fuqarolarning huquqiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiya fuqarolarda qonunlarga ongli ravishda rioya qilish, huquq va majburiyatlarini anglash hamda jamiyat manfaatlariga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Fuqarolarni qonun ruhida tarbiyalashning eng muhim vositalaridan biri huquqiy ta'lim tizimi hisoblanadi. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda huquqiy bilimlarni tizimli ravishda o‘qitish yosh avlodning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish huquqiy bilimlarning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy qadriyatlar, inson huquqlari va fuqarolik burchlariga oid bilimlarni keng targ‘ib qilish yoshlarni qonunga sodiq va vatanparvar shaxs sifatida shakllantiradi.

Huquqiy targ‘ibot va tashviqot ishlari ham fuqarolarni qonun ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Ommaviy axborot vositalari, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga huquqiy axborotlarni tezkor va tushunarli shaklda yetkazish fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, huquqiy mavzulardagi teleko‘rsatuvlar, davra suhbatlari, seminar va treninglar aholining qonunlarga bo‘lgan hurmatini mustahkamlaydi.

Yuridik ilm-fan taraqqiyoti asosida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari va yoshlar tashkilotlarining huquqiy tarbiya jarayonidagi faol ishtiroki fuqarolarda ijtimoiy mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Shu bilan birga, sud-huquq tizimida adolat va qonuniylikning ta’minlanishi fuqarolarning davlat va huquq tizimiga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari orqali yuritimizdagi huquqiy islahatlar bilan ham kun tartibida tanishib turishimiz va dunyo davlatlarida sodir bo’latoygan siyosiy jarayonlar insonni ham huquqiy rivojlanishini qolaversa dunyoqarashini ham mukammal qiladi.

O’zbekiston Respublikasida so’ngi yillarda huquqiy davlat qurish yo’lida keng ko’lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Yangi qonunlar, ochiq siyosat va sud huquq tizmidagi o’zgarishlar yuridik ilm-fanning rivojiga katta turtki bermoqda

Xususan:

-yoshlar uchun huquqiy ta’lim kemgaymoqda

- yuridik oliy ta’lim muassasalari modernizatsiya qilinmoqda va bir qancha nodavlat yuridik sohaga mo’ljallangan oliygohlar ochilmoqda

-raqamli huquqiy platformalar joriy etilmoqda.

Bular bilan bir qatorda suniy intelektning yaratilishi ham bu yo’nalishni rivoji uchun hizmat qilmoqda o’zining ba’zi xususiyatlari ila.

Xulosa qilib aytganda, yuridik ilm-fanni rivojlantirish jamiyatda qonun ruhini qaror toptirishning eng samaralimyo’llaridan biridir. Chunki bilimli va ongli inson qonunni buzmaydi, balki uni hurmat qiladi va himoya qiladi. Agar biz kelajakda kuchli, adolatli va barqaror jamiyat qurmoqchi bo’lsak, avvalo yuridik ilm- fanga e’tibor qaratishimiz muhim. Zero, qonun ustuvorligi- bu faqt davlat siyosati emas balki har bir fuqaroning hayotiy tamoyiliga aylanishi kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

**4.** Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

# YURIDIK TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

***S.B.Ravshanov*** *Sarbon universiteti*
*“Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.*
***S.I.Xidoyatova***
*Sarbon universiteti*
*talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuridik ta’limni rivojlantirish orqali oshirishning muhimligini tahlil qiladi. Zamonaviy huquqiy ta’lim tizimini takomillashtirish fuqarolarning huquqiy bilimlari darajasini ko‘tarishga, ularning huquqiy faolligini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, qonun ustuvorligi ta’minlangan, adolatli va demokratik jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biridir. Maqolada yuridik ta’limni modernizatsiya qilish yo‘llari va uning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri atroflicha ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** yuridik ta’lim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, jamiyat, rivojlanish, qonun ustuvorligi va huquqiy islohotlar

**Huquqiy ong -** bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo‘lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo‘lgan g‘oyalar, his tuyg‘ular, tasavvurlar yig‘indisidir. Huquqiy ong darajasi fuqarolarning huquqlardan xabardorligi, qonunlarni bilishi, qonunlarga rioya etish va ularni bajarishga tayyorlik, qonunga itoatkorlik, huquqni va odil sudlovni hurmat qilish darajasidir.

**Huquqiy madaniyat -** jamiaytning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor

shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo‘lishi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish har qanday demokratik davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon fuqarolarning qonunlarga hurmatini shakllantirish, huquqiy normalarga ongli ravishda rioya etish va huquqiy faollikni oshirish orqali amalga oshadi [1]. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar sharoitida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2017, 2018 va 2019-yillarda qabul qilingan qator qonun va farmonlar huquqiy axborotni tarqatish, adliya tizimini takomillashtirish hamda jamiyatda huquqiy savodxonlikni tubdan oshirishga qaratilgan [2].

Biroq, bu boradagi sa’y-harakatlarga qaramay, O‘zbekiston huquqiy ta’lim tizimida jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, malakali yuristlarning yetishmasligi, ayniqsa, hududlarda, huquqni samarali qo‘llash va adolatga erishish imkoniyatlarini cheklamoqda. Ko‘plab huquqiy ta’lim muassasalarida resurslar va moliyalashtirishning yetishmasligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, tizimda raqobatning pastligi, amaliy tadqiqotlarga e’tiborning yetarli emasligi va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilishdagi kamchiliklar milliy huquqshunoslik maktabining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda [3].

Ushbu muammolarni bartaraf etish va huquqiy ong hamda madaniyatni yuksaltirishda yuridik ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik ta’lim nafaqat huquqiy bilimlarni berish, balki fuqarolarda huquqiy qadriyatlarga hurmat, qonunlarga ongli rioya qilish va huquqiy faollikni shakllantirish vositasi bo‘lishi lozim [4]. Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda yuridik ta’limni rivojlantirish orqali jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida huquqiy ong va madaniyatning nazariy asoslari, yuridik ta’lim tizimining hozirgi holati, uni takomillashtirish mexanizmlari hamda xalqaro tajribalar chuqur o‘rganiladi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish masalasi zamonaviy huquqshunoslik va ijtimoiy fanlar doirasida keng muhokama qilinadigan, nazariy va amaliy ahamiyatga molik fundamental

mavzulardan biridir. Adabiyotlarda huquqiy ong shaxs va jamiyatning huquqiy normalar hamda qadriyatlarga nisbatan qarashlari, baholari, his-tuyg‘ulari va munosabatlari yig‘indisi sifatida ta’riflanadi. Bu tushuncha bilish, baholash va tartibga solish funksiyalarini o‘z ichiga olib, fuqarolarning huquqiy tizimga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Huquqiy madaniyat esa kengroq ijtimoiy hodisa bo‘lib, huquqiy onglilikning amaliy namoyon bo‘lishi, ya’ni huquqiy qadriyatlarga hurmat, qonunlarga ongli rioya qilish va huquqiy faollik sifati bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchilar huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o‘zaro chambarchas bog‘liqligini ta’kidlab, yuqori darajadagi huquqiy ong, ayniqsa, qo‘rquvdan emas, balki ichki ishonchdan kelib chiqqan onglilik, mustahkam huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun asos ekanligini qayd etadilar. Bu ichki ishonch, demokratik jamiyat va yetuk huquqiy tizimning o‘ziga xos belgisi sifatida ko‘riladi. Ushbu tushunchalarning rivojlanishi, ayniqsa, huquq ustuvorligi mustahkamlanayotgan va demokratik institutlar shakllanayotgan ijtimoiy-huquqiy o‘zgarishlar davrida juda muhimdir [5].

Adabiyotlarda yuridik ta’lim jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish hamda yuksaltirishning asosiy institutsional mexanizmi sifatida keng e’tirof etiladi. U nafaqat huquqiy bilimlarni berish, balki huquqiy prinsiplarni chuqur anglash, qonun ustuvorligiga hurmatni singdirish va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan fundamental maqsadga ega. Olimlar samarali yuridik ta’lim qonunlarni yodlashdan tashqari, tanqidiy fikrlash, axloqiy mulohaza yuritish va adolatga nisbatan nozik munosabatni rivojlantirishi lozimligini ta’kidlaydilar. Aynan shu keng qamrovli yondashuv orqali shaxslar huquqiy axborotning passiv qabul qiluvchilaridan huquqiy tizimning faol ishtirokchilariga aylanadi, o‘z huquqlarini himoya qilish va boshqalarning huquqlarini hurmat qilishga qodir bo‘ladi. Adabiyotlar, shuningdek, yuridik ta’limning uzluksizligini, ya’ni rasmiy akademik muhitdan tashqari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashabbuslari va o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi turli kanallar orqali huquqiy tarbiyani o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi, ayniqsa yoshlar orasida huquqiy onglilikni oshirishga e’tibor qaratiladi. Bu yaxlit yondashuv yuridik ta’limning dinamik huquqiy madaniyatni saqlash uchun muhim bo‘lgan umrboqiy jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning yuridik ta’lim tizimiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar ushbu kengroq muammolarning ko‘pini aks ettiradi, shu bilan

birga uning islohot yo‘nalishining o‘ziga xos jihatlarini ham yoritadi. Tadqiqotchilar tizimni modernizatsiya qilishda erishilgan sezilarli yutuqlarni, jumladan, yangi o‘qitish texnologiyalari va o‘quv dasturlariga qaratilgan davlat tashabbuslarini hamda xalqaro universitetlar bilan hamkorlikni tan oladilar. Biroq, bu sa’y-harakatlarga qaramay, tanqidiy tahlil doimiy tizimli muammolarni ko‘rsatadi. Masalan, malakali va tajribali yuristlarning, ayniqsa, hududlarda yetishmasligi huquqni samarali qo‘llash va adolatga erishish imkoniyatlariga jiddiy to‘siq sifatida doimiy ravishda aniqlanadi. Bu tanqislik ko‘pincha taqdim etilayotgan ta’lim sifatiga bog‘liq bo‘lib, mavjud dasturlar bitiruvchilarni real huquqiy amaliyotning murakkabliklariga yetarlicha tayyorlamasligini ko‘rsatadi.

Aniqlangan muammolarga javoban, ilmiy maqolalarda O‘zbekistonda yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirishga qaratilgan Prezident farmonlarida belgilangan keng qamrovli chora-tadbirlar muhokama qilinadi. Toshkent davlat yuridik universitetini yuridik kadrlar tayyorlash bo‘yicha asosiy muassasa etib belgilash, mintaqaviy universitetlarda (Samarqand, Namangan, Termiz) yuridik fakultetlarni tashkil etish va Fanlar akademiyasi huzurida Davlat va huquq institutini yaratish kabi choralar yuridik ta’limni markazsizlashtirish va mustahkamlash bo‘yicha strategik qadamlar sifatida baholanadi. Adabiyotlar ushbu tashabbuslarning xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish va “2030 yilgacha Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”ga moslashishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Olimlar, ayniqsa, kredit-modul tizimlarini joriy etish, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) integratsiyalash, klinik yuridik ta’limni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni, shu jumladan “ikki diplom” dasturlari va Legal Tech rivojlanishini kuchaytirishni tizimni modernizatsiya qilish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun hal qiluvchi omillar sifatida qayd etadilar. “E-Universitet” tizimini va yuridik kadrlar ehtiyojini monitoring qilish va prognozlash bo‘yicha yangi elektron platformani joriy etish ham yuridik ta’limning jamiyat ehtiyojlariga mosligini va tezkorligini ta’minlashga qaratilgan istiqbolli yondashuv sifatida ko‘riladi.

Ushbu islohotlarning ijobiy niyatini va potentsial ta’sirini tan olgan holda, ba’zi ilmiy tahlillar tanqidiy nuqtai nazarni ham taklif qilib, bu choralarni muvaffaqiyatli amalga oshirish doimiy sadoqatni va asosiy tizimli muammolarni hal etishni talab qilishini ko‘rsatadi. Masalan, yangi o‘quv dasturlari va amaliy mashg‘ulotlar joriy etilgan bo‘lsa-da, ularning

izchil qo‘llanilishini va ularni samarali yetkazib berish uchun yetarli darajada tayyorlangan professor-o‘qituvchilarning mavjudligini ta’minlash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Adabiyotlar shunchaki yangi fakultetlarni tashkil etish yoki yangi tizimlarni qabul qilish resurslarni taqsimlash, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish va ortiqcha ta’sirlardan xoli akademik muhitni shakllantirish kabi fundamental masalalarni hal qilmasdan turib yetarli bo‘lmasligini nazarda tutadi. Xalqaro hamkorlik va qo‘shma diplom dasturlariga urg‘u berish sifatni oshirish vositasi sifatida maqtovga sazovor bo‘lsa-da, olimlar bu hamkorliklar eng yaxshi amaliyotlarni chinakamiga o‘tkazish va ularni O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-huquqiy kontekstiga moslashtirish zarurligini, shunchaki xorijiy modellarni tanqidiy baholashsiz qabul qilishdan ko‘ra muhimroq ekanligini ta’kidlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, mavjud ilmiy adabiyotlar huquqiy ong va huquqiy madaniyatni tushunish uchun mustahkam nazariy asos yaratib, ularning demokratik jamiyat rivojlanishidagi hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi. Shuningdek, u O‘zbekistonning yuridik ta’lim tizimidagi muammolar va islohot harakatlarini keng qamrovli tarzda hujjatlashtirib, ham erishilgan yutuqlarni, ham saqlanib qolayotgan tizimli muammolarni tan oladi. Strukturaviy islohotlar, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikka sezilarli e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, ushbu islohotlarning aholi, ayniqsa, yuridik kasb egalaridan tashqari keng jamoatchilik orasida huquqiy ong va madaniyatning amaliy darajasini sezilarli darajada oshirishdagi samaradorligini chuqurroq empirik tahlil qilish zarurati mavjud. Bundan tashqari, adabiyotlar shunchaki bilimlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra, tanqidiy huquqiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan o‘ziga xos pedagogik innovatsiyalar va ularning ta’siri bo‘yicha batafsilroq tadqiqotlardan foyda ko‘rishi mumkin. Mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, takomillashtirilgan yuridik ta’lim O‘zbekistonda yanada chuqur va keng tarqalgan huquqiy ong va madaniyatga qanday qilib bevosita aylanishi mumkinligini tahlil qiladi, ta’limga kiritilgan investitsiyalar va ijtimoiy natijalar o‘rtasidagi aniq bog‘liqliklarni ko‘rsatadi hamda nazariy tushunchalar va amaliy voqeliklarga asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Raxmonov, X. M. (2021). Yuridik ta’lim tizimini takomillashtirish orqali jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari. Huquq va burch,

2. Xolmatov, N. J. (2022). Yuridik ta’limda innovatsion yondashuvlar va ularning huquqiy ongni shakllantirishdagi ahamiyati. Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy xabarnomasi, 11-16 betlar,

3. Xudoyqulov, S. S. O‘zbekistonda yuridik ta’limni modernizatsiya qilishning huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirishdagi o‘rni. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent davlat yuridik universiteti.2023.

4. G‘aniyeva, M. A. Yuridik ta’lim jarayonida talabalarda huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari. 2024

5. Qodirov, A. A. Raqamli texnologiyalar davrida yuridik ta’lim va huquqiy madaniyatni shakllantirishning dolzarb masalalari. Adliya xabarnomasi, 2023.

6. Mengliyev, Sh. X. Yuridik ta’lim islohotlari va fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish mexanizmlari. Qonun ustuvorligi 2020

7. Xolmo‘minov, B. B. Huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirishda yuridik ta’limning o‘rni: nazariy va amaliy jihatlar. Monografiya. Toshkent: Adliya nashriyoti. 2022

# YURIDIK TA’LIMNI YUKSALTIRISH ORQALI JAMIYATDA JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH CHORALARI

***S.B.Ravshanov***. *Sarbon universiteti*
*“Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.*
***S.N.Abdullayev***
*Sarbon universiteti*
*talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yuridik ta’limni yuksaltirish orqali jamiyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari tahlil etiladi. Tadqiqotda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning jinoyatchilik darajasini pasaytirishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritib berilgan. Shu bilan birga, yuridik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha uzluksiz tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullardan keng foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, yuridik bilim darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda qonunlarga nisbatan hurmat kuchli bo‘ladi, huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Shuningdek, maqolada yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiya va profilaktik choralarning ahamiyati alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot yakunida yuridik ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** yuridik ta’lim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, jinoyatchilik va huquqiy savodxonlik.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Yuridik ta’limni rivojlantirish orqali jamiyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi normativ-huquqiy hujjatlar, milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni – Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi tamoyili mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, bu jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy huquqiy poydevori hisoblanadi [1]. Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning huquqiy ongini yuksaltirish belgilangan [2]. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunda esa huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy targ‘ibot va ta’limning muhim o‘rni alohida qayd etilgan [3]. Bu normativ hujjatlar yuridik ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida ham qonun ustuvorligini ta’minlash va huquqiy madaniyatni oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida baholanadi. Xususan, I.A. Karimov huquqiy madaniyatni yuksaltirishni ma’naviy rivojlanish bilan bog‘liq holda ko‘rsatadi [4], Sh.M. Mirziyoyev esa qonun ustuvorligini ta’minlash orqali fuqarolarning huquqiy ongini mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi [5]. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat nazariy jihatdan yoritilgan ilmiy manbalarda bu tushunchalar jamiyat rivojining muhim ko‘rsatkichlari sifatida talqin etiladi. Xususan, A.X. Saidov huquqiy madaniyatni shaxsning huquqiy bilimlari, qadriyatlari va xulq-atvori uyg‘unligi sifatida izohlaydi [6]. X.T. Odilqoriyev va U. Tadjixanovlarning tadqiqotlarida esa huquqiy ong jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim omil sifatida ko‘rsatilib, uning rivojlanishi huquqbuzarliklarning kamayishiga xizmat qilishi asoslab berilgan [7]. Kriminologik yondashuvlar doirasida M.X. Rustamboyev jinoyatchilikning sabablarini tahlil qilib, huquqiy savodxonlikning pastligi jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan biri ekanligini qayd etadi. Shu bilan birga, huquqiy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda Y. Abdullayev shaxsda qonunga hurmatni shakllantirish, uning huquqiy xulq-atvorini rivojlantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish mumkinligi ta’kidlanadi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham mazkur masala keng o‘rganilgan. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvori ijtimoiy muhit va

ta’lim jarayonida shakllanadi. Bu esa huquqiy ta’lim orqali ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirish mumkinligini anglatadi. G. Beckerning iqtisodiy yondashuvida esa jinoyatchilik shaxsning ongli tanlovi sifatida talqin qilinib, bilim va ma’lumot darajasi bu tanlovga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi asoslab beriladi. E. Dyurkgeym jamiyatdagi mehnat taqsimoti va ijtimoiy tartibni tahlil qilib, ijtimoiy normalarning buzilishi jamiyatdagi muvozanatga salbiy ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Bu esa huquqiy normalarga rioya qilishni ta’minlashda ta’limning muhim rol o‘ynashini yana bir bor tasdiqlaydi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham yuridik ta’limning ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, BMTning UNODC tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “Education for Justice” dasturi yoshlar o‘rtasida huquqiy bilimlarni oshirish orqali jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan. OECD hisobotlarida esa ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlik va qonunlarga rioya qilish darajasi yuqori bo‘lishi qayd etilgan. Shuningdek, T. Tyler o‘z tadqiqotlarida fuqarolarning qonunlarga rioya qilishi ko‘proq ularning huquqiy ongiga, ya’ni qonunlarning adolatli ekanligiga bo‘lgan ishonchiga bog‘liqligini asoslab beradi. Bu esa yuridik ta’lim orqali nafaqat bilim berish, balki qonunga hurmat va ishonchni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuridik ta’limni rivojlantirish jamiyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishning muhim omillaridan biridir. Normativ-huquqiy asoslar, milliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar ushbu yo‘nalishda ta’lim, huquqiy tarbiya va profilaktika choralarini uyg‘un holda olib borish zarurligini asoslab beradi

**Tadqiqot medodologiyasi.** Mazkur ilmiy maqolada yuridik ta’limni yuksaltirish orqali jamiyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi kompleks ilmiy yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik usullar uyg‘unligiga tayangan holda shakllantirildi hamda berilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarga asoslandi. Avvalo, tadqiqotning nazariy-metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek, huquqiy ong va huquqiy madaniyatga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Ushbu manbalar orqali yuridik ta’limning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati tizimli tarzda o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usullaridan foydalanilib, milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar mazmunan o‘rganildi va umumlashtirildi. Bu usul yordamida yuridik ta’limning

jinoyatchilikka ta’siri bo‘yicha mavjud ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, komparativ (taqqoslash) metod qo‘llanilib, yuridik ta’lim va jinoyatchilik profilaktikasi sohasida xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Mazkur yondashuv orqali rivojlangan davlatlar amaliyotidagi samarali mexanizmlar aniqlanib, ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda kriminologik tahlil metodi ham muhim o‘rin tutdi. Ushbu metod orqali jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlari, xususan, huquqiy savodxonlik darajasi bilan bog‘liqligi o‘rganildi. Natijada yuridik ta’limning profilaktik ahamiyati ilmiy asosda dalillandi. Bundan tashqari, sotsiologik yondashuv asosida fuqarolarning huquqiy ong darajasi, qonunlarga bo‘lgan munosabati va huquqiy xulq-atvori umumiy nazariy jihatdan tahlil qilindi. Bu esa huquqiy ta’limning amaliy samaradorligini baholash imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida yuridik ta’lim darajasi va jamiyatdagi jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi. Olib borilgan nazariy va qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda huquqbuzarlik holatlari nisbatan kam uchraydi. Bu holat yuridik ta’limning profilaktik ahamiyatini tasdiqlaydi. Birinchidan, tahlillar natijasida aniqlanishicha, fuqarolarning huquqiy bilimlari oshgani sari ularning qonunlarga ongli munosabati shakllanadi. Bu esa jinoyat va huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini kamaytiradi. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqiy tarbiyaning kuchli bo‘lishi ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Ikkinchidan, kriminologik yondashuvlar asosida shuni qayd etish mumkinki, jinoyatchilik faqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan emas, balki huquqiy ong darajasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. M.X. Rustamboyevning tadqiqotlarida ham huquqiy savodxonlikning pastligi jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatilgan. Bu esa huquqiy ta’limni kuchaytirish jinoyatchilikning ildiz sabablariga ta’sir qilishini anglatadi. Uchinchidan, xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Education for Justice (E4J) Initiative Materials doirasida olib borilgan dasturlar yoshlar orasida huquqiy bilimlarni oshirish orqali jinoyatchilikni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, OECD ma’lumotlariga ko‘ra, ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlik va qonunlarga rioya qilish darajasi ancha yuqori bo‘ladi. To‘rtinchidan, A. Banduraning Social Learning Theory nazariyasiga muvofiq, shaxsning xulq-atvori ijtimoiy muhit va

ta’lim jarayoni orqali shakllanadi. Bu esa yuridik ta’lim orqali ijobiy huquqiy xulq-atvorni shakllantirish mumkinligini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuridik ta’limni yuksaltirish jamiyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda eng muhim va samarali omillardan biri hisoblanadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining oshishi fuqarolarning qonunlarga ongli munosabatini shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida huquqbuzarliklar sonining kamayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy tahlillar asosida aniqlanishicha, yuridik ta’lim nafaqat huquqiy bilim berish vositasi, balki shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini tartibga soluvchi va uni qonunga hurmat ruhida tarbiyalovchi muhim institut hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqiy tarbiyani kuchaytirish kelajakdagi jinoyatchilikning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

## JAMIYATDA YURIDIK TA’LIMNI YUKSALTIRISH ORQALI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

***S.B.Ravshanov*** *Sarbon universiteti*
*“Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.*
***Z.E.Samadova***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya:**Mazkur maqolada jamiyatda yuridik ta’lim sifatini oshirish va huquqiy savodxonlikni yuksaltirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida korrupsiyaning kelib chiqish sabablari nafaqat huquqiy-ma’muriy omillar, balki jamiyat a’zolarining huquqiy ongi va madaniyati pastligi bilan o‘zaro bog‘liklida o‘rganiladi. Maqolada yuridik ta’limni isloh qilish orqali har bir shaxsda “korrupsiyaga qarshi murosasizlik” ko‘nikmasi shakllantirishning nazariy metodologik asoslari va xalqaro tajribadagi muvaffaqiyatli modellar yoritilgan.

Tahlillar natijasida aholining huquqiy savodxonligini yuksaltirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda huquqiy ta’limni “uzluksiz ta’lim” tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy etika, halollik va ma’suliyat tamoyillarini qaror toptirishning amaliy mexanizmlari asoslaasoslab berilgan. Tadqiqot xulosalari jamiyatda huquqiy barqorорlikni

ta’minlash, davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish va korrupsiyadan xoli ijtimoiy muhitni yaratishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** yuridik ta’lim, korrupsiyaga qarshi kurash, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, uzluksiz ta’lim, shaffoflik, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy barqarorlik, kasbiy etika

Hozirgi glaballashuv sharoitida korrupsiya har qanday jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo’lmoqda. U davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, sud tizimi, ta’lim va sog’liqni saqlash kabi sohalarda adolatsizlik, ishonchsizlik va tenglikni keltirib chiqadi.shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy-ma’naviy masala sifatida ham davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, aholining katta qismini yoshlar tashkil etadigan O’zbekiston kabi mamalakatlarda yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylandi. Yoshlar jinoyatchiligi nafaqat bugungi kunning muammosi, balki kelajak avlodning ma’naviy va ijtimoiy qiyofasini belgilovchi xafli omildir.

Korrupsiya – bu mansab mavqeidan shaxsiy manfaat yo’lida yo’lida foydalanish, jamiyat ishonchini suiiste’mol qilish, huquqiy tizimning sog’lom ishlashiga to’sqinlik qiluvchi salbiy holatdir. U davlat organlarida ochiqlik va shaffoflikning yo’qolishiga sabab bo’ladi.

Yuridik ta’lim – bu shunchaki qonunlar to’plamini o’rganish emas, balki shaxsning huquqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonidir. Bugungi kunda yuridik ta’lim tizimini rivojlantirish orqali yoshlarda qonun ustuvorligiga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, ularni turli jinoiy guruhlar ta’siridan asrashning eng samarali yo’li sifatida ko’rilmoqda.

Statistik ma’lumotlar va kriminologok tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, yoshlar o’rtasidagi jinoyatchilikning aksariyat qismi huquqiy bilimsizlik yoki huquqiy nigilizm (qonunni mensimaslik) oqibatida kelib chiqadi. Yoshlar o’z huquq va majburiyatlari haqida yetarli tasavvur yo’qligi ularning osonlikcha jinoiy yo’lga kirib qolishiga zamin yaratadi. Shu sababli, yuridik ta’limni barcha bosqichlarida isloh qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha davlat siyosatini amalga oshirish uchun eng muhim vazifalardan biri bu, jamiyat ongini tubdan o’zgartirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo’lish muhitini shakllantirishdir. Bu muammoni hal qilish uchun, birinchi navbatda, aholining huquqiy madaniyatini tizimli ravishda oshirib borish, davlat xizmatlarini ko’rsatish tartib-tamoyillarining to’liq

shaffofligiga erishish, shuningdek, barcha davlat va nodavlat maqsadli profilaktika ishlarini olib borish orqali erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida korrupsiyaga qarshi tizimli va huquqiy asoslarni yaratish yo‘lida qator chora – tadbirlarni amalga oshirdi. Eng avvolo, korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va uni aniqlashning yagona davlat siyosatini shakllantirishmaqsadida 2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur hujjat korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini belgilab, davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda fuqorolarning bu borada ma’suliyatini aniqlab berdi. Qonunga muvofiq, korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi chora ko‘rish, korrupsiyaviy holatlarni tahlil qilish va fuqorolarning huquqiy madaniyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasalik madaniyati bu kishilarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz ongli munosabati, bilim darajasi, tajribasi, korrupsiyaviy jarayonlarga faol qarshi faoliyatdir.

Yuridik ta’limni rivojlantirish orqali jinoyatchilikni oldini olish uchun chora – tadbirlari:

Birinchidan, uzliksiz yuridik ta’lim zanjirini yaratish. Huquqiy bilimlar bog‘cha va maktabdan boshlab, soda va qiziqarli shaklda berilishi kerak. “Huquqiy alfabet” kabi dasturlar orqali bolalarga qoidalarga amal qilish ko‘nikmasini shakllantirish lozim

Ikkinchidan, raqamli huquqiy profilaktika. Ijtimoiy tarmoqlar (TikTok, Istagram, Telegram) orqali yoshlar tilida tushuntiriladigan huquqiy vedioroliklar, kiber-jinoyatchilikdan ogohlantiruvchi kontetlar yaratish zarur.

Yuridik ta’limni rivojlantish – bu uzoq muddatli va strategik sarmoyadir. Yoshlar o’rtasida jinoyatvhilikni faqat jazo choralarini kuchaytirish bilan emas, balki ularning ongi va qalbiga qonunga hurmat hissini singdirish orqali yengish mumkin.O’zbekistonda olib borilayotgan islohatlar, jumladan 2030- yilgacha mo’ljallangan milliy strategiya aynan mana shu ezgu maqsadga yo’naltirilgan.

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o’z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, olimlarning qarashlari, tahlil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda yuridik ta’limni yuksaltirish korrupsiyaga qarshi kurashishning eng muhim va uzoq muddatli strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki korrupsiya nafaqat iqtisodiy

taraqqiyotga, balki davlat boshqaruvi samaradorligi, qonun ustuvorligi, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash yoki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish bilan cheklanib qolmasdan, avvalo aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini va yuridik savodxonligini oshirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Yuridik ta’limning rivojlanishi fuqarolarda qonunlarga hurmat ruhini shakllantiradi, ularning o‘z huquq va majburiyatlarini chuqur anglashiga xizmat qiladi hamda korrupsion holatlarga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptiradi. Ayniqsa, yosh avlodga maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda huquqiy bilimlarni tizimli ravishda singdirish jamiyatda korrupsiyaga qarshi barqaror immunitetni hosil qiladi. Bunday ta’lim jarayonida qonun ustuvorligi, halollik, shaffoflik, adolat va fuqarolik mas’uliyati kabi qadriyatlarning targ‘ib etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, yuridik ta’limning sifati va amaliy yo‘naltirilganligini oshirish davlat organlari, ta’lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashni talab etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va xalqaro tajribalarni qo‘llash orqali aholining turli qatlamlariga huquqiy bilimlarni samarali yetkazish mumkin. Natijada fuqarolar korrupsion harakatlarni aniqlash, ularga qarshi huquqiy choralar ko‘rish va o‘z manfaatlarini qonuniy himoya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, davlat xizmatchilari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yuridik savodxonligini muntazam oshirib borish xizmat faoliyatida shaffoflik va professional etikani ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki yuqori huquqiy bilim va kasbiy mas’uliyatga ega bo‘lgan mutaxassislar korrupsion xavflarning oldini olishda asosiy subyektlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, yuridik ta’limni yuksaltirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyatda qonuniylik, adolat va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois yuridik ta’limni takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi ongni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil davom ettirilishi zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023

**2.** O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

**4.** Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

**5.** Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

**6.** Saidov A.X. Huquqiy madaniyat va huquqiy ong asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.

**7.** Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2020.

## YURIDIK ILM-DANNI RIVOJLANTIRISH ORQALI JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH MUHITINI SHAKILLANTIRISH

***S.B.Ravshanov**, Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi,*
***Sh.Q.Bahodirova,***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish muhitini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, zamonaviy yuridik ta’limni takomillashtirish hamda ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash korrupsiyaning oldini olishning muhim omili sifatida yoritiladi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** yuridik ilm-fan, korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, yuridik ta’lim, qonunchilik, fuqarolik jamiyati, adolat, halollik.

Bugungi ilm-fan va texnologiyalar Shuningdek katta ehtimoli bilan yuridik sohada ko'plab izlanishlar borasida rivojlanib borayotgan davrda ko'plab jinoyatlar va qoidabuzarliklar o'z vaqtida aniqlanib bormoqda. Bugungi globallashuv sharoitida korrupsiya global muammolardan biri sifatida insoniyat taraqqiyotiga jiddiy xavf solayotgan illatlardan biri

hisoblanadi. Korrupsiya ko'plab qonunbuzilishlariga sabab bo'ladi aynan u davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi, iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi va jamiyatda adolat tamoyillarining buzilishiga olib keladi. Holbuki jamiyatda adolat taraqqiy etmasa davlat tarqoqlikka yuz tutadi. Ya'ni jamiyatda adolatsizlik ustun bo‘lsa,qonunlar teng qo‘llanmasa, korrupsiya keng tarqalsa, fuqarolar huquqlari himoya qilinmasa, odamlarning davlatga bo‘lgan ishonchi kamayadi. Natijada esa, ijtimoiy norozilik kuchayadi, tartibsizliklar yuzaga keladi, davlat boshqaruvi zaiflashadi. Shu sababli tarixda ham ko‘plab davlatlar aynan adalatning yo‘qolishi tufayli inqirozga uchragan. Ayniqsa, huquqiy davlat qurish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar uchun korrupsiyaga qarshi kurash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina jazolash yoki nazorat choralarini kuchaytirish bilangina cheklanmaydi. Bu murakkab jarayon bo‘lib, u jamiyatda keng qamrovli huquqiy madaniyatni shakllantirishni, qonunchilikni takomillashtirishni va ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab etadi.

Zamonaviy innovatsiyalar va texnologiyalar zamonida korrupsiyaga qarshi kurashish birmuncha osonroq chunki har qanday texnologiyalar murakkablikni talab etmaydi rivojlangan davrda, chunonchi hamma korrupsiyaviy jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash mumkin. Aynan shu nuqtada yuridik ilm-fan muhim rol o‘ynaydi. Yuridik ilm-fan korrupsiyaning sabablarini chuqur o‘rganish, uni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish va huquqiy tizimni takomillashtirish orqali jamiyatda korrupsiyaga qarshi barqaror muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Korrupsiya tushunchasi o'zi “buzilish”, “poraxo‘rlik” ma’nolarini anglatadi. Huquqiy jihatdan esa korrupsiya mansabdor shaxslarning o‘z xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanishi bilan bog‘liq noqonuniy harakatlarni anglatadi. Korrupsiya quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi. Misol uchun:pora olish va berish; vakolatlarni suiiste’mol qilish; davlat mulkini talon-toroj qilish; manfaatlar to‘qnashuvi; noqonuniy imtiyozlar yaratish.

Korrupsiya bugungi kunda ko'plab mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti harakatlaridan sodir bo'layabdi. Korrupsiyaning jamiyatga ta’siri keng va ko‘p qirrali bo‘lib, u quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: sog‘lom raqobatning buzilishi. Natijada investitsiyaviy mablag'larning ham noto'g'ri sarflanishiga olib keladi. Siyosiy sohada esa davlat boshqaruvi samaradorligi pasayadi; demokratiya tamoyillari zaiflashadi; qonun ustuvorligi buziladi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish kompleks yondashuvni talab qiladi.

Hozirgi taraqqiyot davrida shu kabi jinoyatlarning oldini olish maqsadida davlat rahbarimizning qarorlari bilan hamma joylarda profilaktika tadbirlarini tashkil etish va yoshlar ta'lim maskanlarida konferensiyalar va tushuntirish ishlari, har xil "Korrupsiyaga qarshi kurashish" mavzusi ostida tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Yuridik ilm-fan jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni o‘rganadigan, huquqiy tizimni rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim ilmiy yo‘nalishdir. U qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti va huquqiy ongni o‘rganadi. Yuridik ilm-fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:huquqiy normalarni ilmiy asoslash; qonunchilikdagi bo‘shliqlarni aniqlash;huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish; huquqiy madaniyatni rivojlantirish; davlat va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish.

Yuridik ilm-fan korrupsiyaga qarshi kurashishda nazariy asos yaratib beradi. U korrupsiyaning ildiz sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda insonlar o'z huquq va majburiyatlarini bilishi va huquqbuzarliklar qanday salbiy oqibat va jazolarga olib kelishini bilib qo'yishlari zarur. Shu sababli ham yuridik fanlar katta ahamiyat kasb etadi. Yuridik ilm-fan korrupsiyaga qarshi kurashishda bir necha muhim yo‘nalishlarda faol ishtirok etadi:Ilmiy asoslangan qonunchilik yaratish Korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunlar aniq, tushunarli va samarali bo‘lishi zarur. Yuridik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida: korrupsiyaga qarshi qonunlar takomillashtiriladi; huquqiy bo‘shliqlar bartaraf etiladi; jazolash mexanizmlari kuchaytiradi va hokazolar... Profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish Korrupsiyani faqat jazolash bilan emas, balki oldini olish orqali kamaytirish mumkin. Yuridik ilm-fan shu kabi bir qator quyidagi profilaktik choralarni ishlab chiqadi. Masalan:shaffoflikni ta’minlash; davlat xizmatlarida raqamlashtirish; manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish. Sud-huquq tizimini isloh qilish qonunlarning nafaqat to'g'ri va hamma uchun bir xilda qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham davlatimiz ko'p e'tiborinini sud jarayonlarini yaxshilshga qaratadi. Sud tizimining mustaqilligi korrupsiyaga qarshi kurashning muhim omillaridan biridir.

Huquqiy ongni shakllantirish Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhimdir. Bu esa: huquqiy targ‘ibot; ta’lim tizimi; ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi.

Yuridik ta’lim sifati qanchalik yuqori bo‘lsa, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish shunchalik samarali bo’ladi. Biz asosiy e'tiborni adolat tizimini yanada isloh qilish bo'yicha yuridik sohada ko'p tarmoqli tizimlari yaratamiz. Korrupsiyaga qarshi kurashish ham zamonning dolzarb muammolaridir va bitta tizimlaridan biri ham shundan iboratdir. Asosiy yo‘nalishlar mavjud bo'lib bular:Zamonaviy ta’lim tizimi innovatsion o‘qitish metodlari; interaktiv darslar; case-study yondashuvlari va bular natijasida yoshlar buning oqibatlarini 3D formatda tomosha qilib va ilm olib o'zlariga kerakli xulosani chiqarib olishadilar. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Sud amaliyotlari bilan tanishish birmuncha zamon talabidan kelib chiqib yondashilmoqda, amaliy mashg‘ulotlar katta ta'sir ko'rsatib ijobiy natijalarga sabab bo'ladi. Bu immunitetni hosil qilish uchun o'quvchini turli xil yo'nalishlarda kelajakdagi kasbiy va ilmiy metodik ko'nikmalarini oshirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tilishi lozim. Bugungi kunning mashhur shiorlaridan biri shuki, "Jahon bilan hamnafas bo'l" deyilgan va albatta xalqaro tajribani o‘rganish ham bizga birmuncha katta natijalarga erishishimiz uchun xizmat qiladi. Buning uchun shunday talablar keraklidir:Xorijiy universitetlar bilan hamkorlik; qo‘shma dasturlar; ilmiy almashinuvlar.

Xorijiy davlatlar tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashishda muvaffaqiyatga erishgan davlatlar tajribasi muhim ahamiyatga ega.Bizning yurtimiz va chet davlatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, yuridik ilm-fan va amaliyot uyg‘unligi korrupsiyani kamaytirishda hal qiluvchi omildir. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bular qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish orqali ham amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolamda xulosa qilib aytadigan bo'lsam, yuridik ilm-fanni rivojlantirish korrupsiyaga qarshi kurashishda strategik ahamiyatga ega. U nafaqat qonunchilikni takomillashtirish, balki jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish orqali korrupsiyaga qarshi barqaror muhit yaratadi. Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun quyidagilar muhimdir: ilmiy asoslangan qonunchilik; kuchli sud-huquq tizimi; yuqori huquqiy madaniyat; sifatli yuridik ta’lim. Shu bois, yuridik ilm-fanni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor va poydevor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur. Faqat shundagina adolatli, shaffof va korrupsiyadan xoli jamiyatni barpo etish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

**4.** Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

**5.** Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

**6.** Saidov A.X. Huquqiy madaniyat va huquqiy ong asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.

**7.** Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2020.

## FUQAROLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH PRINSIPLARI

***G.T.Aralbayeva***
*O‘zbekiston Respublikasi Chirchiq shahrida M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti magistranti*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada davlat organlari va tashkilotlarida fuqarolar murojaatlari bilan ishlashning asosiy prinsiplari, huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolar murojaatlari, davlat boshqaruvi, qonuniylik, shaffoflik, murojaatlarni ko‘rib chiqish, inson huquqlari.

Hozirgi kunda davlat organlari faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan aholi bilan muloqot darajasiga bog‘liq. Fuqarolarning murojaatlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Murojaatlar orqali aholi o‘z muammolari, taklif va shikoyatlarini davlat organlariga yetkazadi. Shu sababli murojaatlar bilan ishlash jarayonida muayyan prinsiplarga amal qilish davlat boshqaruvining muhim talabi hisoblanadi. Bugungi kunda fuqarolarni davlat organlariga murojaat qilish huquqini ta’minlash va bu huquqni amalga oshirishning og‘zaki va yozma, jumladan elektron shakllari tizimli rivojlanmoqda. Elektron murojaat qilish “Elektron hukumat”ning

asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. BMT a’zo davlatlardan faqat 39,9%da elektron murojaatlar yoki shu kabi mexanizmlar mavjudligi[^2] ushbu va murojaat qilish huquqini ta’minlash bilan bog‘liq boshqa masalalarni chuqur o‘rganish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash hamda kutilayotgan natijalar ma’lum g‘oyalarga asoslanib, bu g‘oyalar prinsip (tamoyil) sifatida qo‘llaniladi va qonuniy mustahkamlanadi. Fuqarolar murojaatlari – jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari, muassasalar yoki mansabdor shaxslarga ariza, taklif, shikoyat yoki so‘rov shaklida yo‘llaydigan murojaatlaridir. Ular davlat organlari faoliyatini takomillashtirish, aholi muammolarini hal qilish va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Murojaatlar bilan ishlash, unga munosibatni bildiruvchi prinsiplar davlatning, uning organlari faoliyatidagi prinsiplardan kelib chiqadi va ular bilan bog‘liq bo‘lib, ularga zid kelmaydi. Shuning uchun, bir tomondan, davlat faoliyatidagi prinsiplar va fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashdagi prinsiplarda umumiylik, o‘xshashlik mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘ziga xos xususiyatlar[^3] ham mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida “Murojaatlarni ko‘rib chiqishning asosiy prinsiplari” deb nomlangan normalarda o‘z aksini topgan va unga asosan, murojaatlarni ko‘rib chiqishning asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi: “qonuniylik;

murojaatlarni o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqish;

murojaatlarga nisbatan talablarning bir xilligi;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi;

murojaatlarni ko‘rib chiqishda byurokratizm va sansalorlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

murojaatlarni ko‘rib chiqishda davlat organlari, tashkilotlar va ular mansabdor shaxslari faoliyatining shaffofligi[^4].

Bularning har birini qisqacha mazmunan ko‘rib chiqamiz. Qonuniylik bu bosh prinsip bo‘lib, boshqa prinsiplarning vujudga kelishiga, amal qilishiga asos bo‘ladi. Qonuniylik degani, tegishli masalani avvvalo qonun, keyin esa qonun osti hujjatlari bilan belgilangan va unga barchani davlat organlari, mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolarni ham belgilangan qoidalarga og‘ishmay amal qilishi hisoblanadi. O‘zbekiston yuridik yensiklopediyasida izohlanishicha[^5], “Qonuniylik – davlatning barcha organlari, mansabdor shaxslari va

fuqarolar tomonidan Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni aniq va doimiy ijro etilish prinsipi” demakdir.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlagaidek, “Konstitutsiyamizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, barcha islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir[^6] Haqiqatdan, har bir sohada qonun ustuvorligi ta’minlab, islohotlarni amalga oshirish davlatchilik poydevorining mustahkam bo‘lishini kafolatlaydigan omillardandir. Shu bilan birga, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 4-yo‘nalish ikkinchi qismi aynan qonun ustuvorligini ta’minlash borasidagi maqsad va vazifalarni qamrab olganligini ta’kidlash lozim. Qonunda murojaatlarni o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqish alohida prinsip sifatida belgilandi. Bu prinsipni amalga oshish qonun normalari bilan kafolatlangan. Murojaatlar bilan ishlash murojaat kelib tushgandan, ya’ni ro‘yxatdan o‘tkazilgach boshlanadi. Murojaat kelib tushgan kunning o‘zida ro‘yxatga olinadi. Ish vaqti tugaganda tushgan murojaatlar keyingi kunda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Hech qanday holatda murojaatni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi hamda har bir idorada tegishli shaklda ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari yuritilib kelinadi. Davlat organlari murojaatlar bilan ishlashda elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilishi mumkin.

Ommaviy qabullar paytida tushgan og‘zaki murojaatlar ro‘yxatga olinmaydi va qabul bayonnomasida qayd qilinadi (23-modda). Murojaatlar kelib tushgan organ, tashkilot tomonidan yoki murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha mas’ul mansabdor tomonidan ko‘rib chiqiladi. Murojaatlar bo‘ysinuv tartibi bo‘yicha quyi turuvchi bo‘linmalarga yuborilishi mumkin. Faqat quyi organ shikoyat obyekti bo‘lsa, unga yuborilmaydi. Murojaatda idoraning bir nechta tarkibiy bo‘linmalariga taalluqli masalalar bo‘lsa, barcha bo‘limlar ijrochi sifatida belgilanadi va barcha bo‘linmalar faoliyatini ijrochilar ro‘yxatida birinchi turgan bo‘linma ta’minlaydi va murojaatni ko‘rish davomida zarurat tug‘ilsa, tegishli organ murojaatchidan yoki tegishli organlardan qo‘shimcha ma’lumotlar so‘rab olishi mumkin. Bunday organlar davlat siri bo‘lmagan, boshqalar manfaatiga zarar keltirmaydigan ma’lumotlarni o‘n kun ichida taqdim etishi shart. Zarur hollarda murojaat joyning o‘zida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Murojaat o‘rganilishi davomida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish zarurati tug‘ilsa, qonun doirasida taftish o‘tkazilishi mumkin (24-modda). Qonunning 24-moddasida voyaga yetmagan shaxslarning

murojaatlarini ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari belgilangan[^7].

Murojaat qabul qilinganidan, hal qilish vaqtida unga jiddiy yondashilgandagina murojaatchi qoniqarli javob olishi mumkin. Bu esa, mazkur prinsipning asosiy mohiyatidir. Fuqarolarning murojaatlari bilan muvaffaqiyatli va tizimli ishlashda murojaatlarga nisbatan bir xil talab qo‘yilishi prinsipi hisobladi. Bu talablar murojaat kim tomonidan kiritilayotgani, uning mazmuni aniq bo‘lishi, murojaatni ko‘rishga (zarur bo‘lsa) murojaat qiluvchi shaxsni jalb qilish, murojaatga o‘z vaqtida javob berish imkoniyatini tug‘diradi.

Murojaatlarga bir qancha talablar qo‘yiladi (Qonunning 6-moddasi). Jismoniy shaxslar shaxsiga va yashash joyiga, yuridik shaxslar firma nomi va pochta manziliga, shuningdek vakillikni tasdiqlovchi hujjatlar oid ma’lumotlar talab etiladi. Murojaatlarga qo‘yiladigan talablarda bunan hujjatlar talab etilmaydi. Shuningdek, yozma, elektron shakldagi, og‘zaki murojaatlar ahamiyati bir xil, ularning birortasi ustunlik yoki 2-darajali maqomga ega emas. Shu bilan birga, murojaatlarga qo‘yiladigan talablar shaxsan murojaat qilish imkoni bo‘lmaganda, vakillar orqali murojaat qilish imkonini berishi va talablarda ortiqcha cheklovlar mavjud emasligi hamda unda oddiy ko‘rsatmalar mavjudligi bilan izohlanadi. Murojaat qiluvchilarga murojaat tili haqida ham hech qanday cheklovlar belgilanmagan. Asosan, voyaga yetmaganlar murojaatini ko‘rib chiqish alohida tartibining o‘rnatilishi esa, qonunning insonparvarligidan darak beradi. Murojaat qilish huquqi – konstitutsiyaviy huquq hisoblanadi. Murojaatlar orqali huquq va erkinliklarni amalga oshirishda boshqa fuqarolarning huquq, erkinlik, manfaatlariga ziyon yetkazmaslik esa, konstitutsiyaning asosiy prinsipi hisoblanadi. Bu prinsipning fuqarolar murojaatlarini ko‘rishda ham qo‘llanilishi tabiiy hol va huquqiy davlatga xos xususiyat ekanligi hammamizga ma’lum.

Qonunning 17-moddasida: “Murojaat etilganda huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarga rioya etilishining kafolatlari” belgilangan. Bu, birinchidan, murojaatda hech qanday holatda boshqalarning qonuniy manfaatiga, huquq, erkinliklariga zid keluvchi talablar, xabarlar bo‘lmasligi kerak, ikkinchidan esa, tegishli organlar tomonidan murojaat asosida fuqaro talabi qondirilsa, xabarlari e’tiborga olinsa, bu boshqa fuqarolarning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklariga zid bo‘lmasligi lozim. Aks holda, bir fuqaroning talabi qondirilib, boshqa fuqaro manfaati, huquq va erkinliklariga zarar yetkazishi mumkin hamda bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi va bu holatda

yangi murojaatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Davlat boshqaruv tizimida byurokratizm, sansalorlik salbiy illatlardandir (afsuski, bundan hech bir davlat xoli emas). Bu lavozimga mas’uliyatsiz yondashuv, sovuqqonlik, madaniyatsizlik, qonunga hurmatsizlik, manmanlik oqibatida kelib chiqadigan illat. Shuning uchun Qonunda “murojaatlarni ko‘rib chiqishda byurokratizm va sansalorlikka yo‘l qo‘ymaslik” alohida prinsip sifatida belgilandi.

Xulosa qilib aytadigan bulsak, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash davlat organlari faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayonda qonuniylik, tezkorlik, xolislik, shaffoflik va inson huquqlariga hurmat kabi prinsiplarga amal qilish aholi ishonchini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy davlat boshqaruvida murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish demokratik islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

[^2]: Исследование ООН: электронное правительство 2024. Ускорение цифровой трансформации для устойчивого развития. С дополнением об Искусственном Интеллекте. - Нью-Йорк , 2024. – С. 61.

[^3]: Давлат фаолияти принсиплари ҳақида қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 14-моддаси; Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б. 65-72.; Ҳусанов О. Конституциявий ҳуқуқ. – Тошкент: "Юридик адабиётлар", 2021. – Б. 81-82.

[^4]: Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 11 сентябрдаги “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017-й., 37-сон, 977-модда.

[^5]: Ўзбекистон юридик енсиклопедияси. – Тошкент: "Адолат", 2009. – Б. 615.

[^6]: Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизги қатъият билан давом еттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2019. – Б. 105-106.

[^7]: Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 11 сентябрдаги “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017-й., 37-сон, 977-модда.

# ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА КОМПЬЮТЕР ЭКСПЕРТИЗАСИНИНГ ИСБОТЛАШ ВОСИТАСИ СИФАТИДАГИ АҲАМИЯТИ

***Н.Н.Назиржонов***

**Аннотация.** *Мақолада ижтимоий тармоқлардан фойдаланиб содир этилаётган жиноятларни тергов қилиш жараёнида компьютер-техник экспертизасининг исботлаш воситаси сифатидаги ҳуқуқий-процессуал мавқеи таҳлил қилинган. Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилиги, хусусан, Жиноят-процессуал кодекси нормалари ҳамда халқаро стандартлар талаблари асосида рақамли далилларнинг мақбуллиги масалаларига эътибор қаратилган. Шу билан бирга, муаллиф хорижий тажрибани қиёсий-ҳуқуқий таҳлил қилиш орқали миллий қонунчиликни такомиллаштириш юзасидан ўз мулоҳазаларини илгари сурган.*

**Калит сўзлар:** компьютер-техник экспертизаси, ижтимоий тармоқ, электрон маълумот, рақамли далил, кибержиноят, криминалистик* *таҳлил, метамаълумот, исботлаш воситаси, хеш-қиймат, Жиноят-процессуал кодекси, Будапешт конвенцияси.*

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда ижтимоий тармоқ фойдаланувчилари сонининг ошиши билан бирга, мазкур тармоқлар воситасида содир этилаётган жиноятлар ҳам кўпайиб бораётганини кузатиш мумкин. Ижтимоий тармоқ энди фақат мулоқот майдони эмас, балки фирибгарлик, шахсий маълумотларни қонунга хилоф равишда тўплаш, экстремистик ғояларни тарғиб қилиш, болалар порнографиясини тарқатиш каби қатор жиноий ҳаракатларнинг содир этилиш жойига ҳам айланган.

Расмий статистик маълумотлар бу фикрни тасдиқлайди. Киберхавфсизлик маркази ҳисоботига кўра, 2021 йил давомида Ўзбекистоннинг миллий тармоқ сегментидан 17 миллиондан ортиқ зарарли ва шубҳали фаоллик ҳолатлари қайд этилган, уларнинг аксарияти – 76 фоизи – бот-тармоқ иштирокчиларига тегишли бўлган.[^3]

Ҳисобот таҳлил этилса, ушбу рақамлар нафақат техник инцидентлар, балки уларнинг ортида жиноят-процессуал аҳамиятга эга бўлган ҳаракатлар ҳам мавжудлигини кўрсатади. 2026 йил февраль ойида Тошкент ва Жиззах вилоятларида “Telegram” ижтимоий тармоғи орқали болалар порнографиясини тарқатган шахсларнинг қўлга олиниши бу жараённинг қай даражада жиддийлигини исботловчи янги далил бўлди.[^4]

Бизнингча, бундай шароитда тергов органлари олдидаги асосий вазифа – жиноятни қисқа муддатда очиш ва жиноятчини аниқ далиллар асосида жавобгарликка тортишдан иборат бўлиб, бу вазифанинг бажарилиши кўпинча компьютер-техник экспертизасининг натижаларига бевосита боғлиқ бўлиб қолмоқда. Чунки ижтимоий тармоқда қолган изларни – ёзишмалар, файллар, метамаълумотларни – фақат махсус билимга эга мутахассис тўғри талқин қила олади ва улардан суд мажлисида фойдаланиш мумкин бўлган далил даражасига кўтара олади.

Шу сабабли мазкур мақола доирасида ижтимоий тармоқ орқали содир этилган жиноятларни тергов қилишда компьютер экспертизасининг ўрни, унинг ҳуқуқий-процессуал ва техник-методологик асослари, халқаро тажриба ҳамда миллий амалиёт мисолида учраётган муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари таҳлил этилади.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг

81-моддасига мувофиқ, жиноят иши учун аҳамиятга эга ва қонунда белгиланган тартибда олинган ҳар қандай фактик маълумотлар далил ҳисобланади. 2024 йил 21 ноябрда қабул қилинган ЎРҚ-1003-сон Қонун билан Ўзбекистон Республикасининг бир қатор процессуал кодексларига – Жиноят-процессуал, Фуқаролик процессуал, Иқтисодий процессуал, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги ва Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодексларга – «рақамли далиллар» тушунчаси, уларни тўплаш, тақдим этиш, мустаҳкамлаш, кўздан кечириш, текшириш ва баҳолаш тартиби расман киритилди.[^5]

Бизнингча, бу ўзгартиш бежизга эмас. Илгари электрон шаклдаги маълумотлар «ашёвий далил» ёки «ҳужжат» тоифасига мажбуран киритилиб келинар эди ва бу ҳар доим ҳам уларнинг ўзига хос табиатига мос келавермас эди. Рақамли далил тоифасининг алоҳида мустаҳкамланиши ижтимоий тармоқ орқали содир этилган жиноят ишларида электрон маълумотларнинг процессуал мақомини аниқлаштириш учун муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Олий суд Пленумининг 2018 йил 24 августдаги 24-сонли қарори мазкур йўналишдаги муҳим тушунтириш ҳужжати ҳисобланади. Унга

2025 йил 23 июнда Пленумнинг 14-сонли қарори билан киритилган янги таҳрирга кўра: «Зарур ҳолларда ҳужжатлар, предметлар (нарсалар), электрон маълумотлар, фотосуратлар, аудио-

, видеоёзувларни ашёвий, ёзма ва рақамли далил сифатида ишга қўшиш масаласини ҳал этиш учун тегишли экспертиза тайинланиши мумкин».[^6]

Мазкур бандни таҳлил қилсак, қонун чиқарувчи электрон маълумотларни далил даражасига кўтариш учун экспертиза ўтказишни шунчаки тавсия этилган ҳаракат сифатида эмас, балки амалий заруратдан келиб чиққан ҳолда кўрсатиб ўтаётганига гувоҳ бўламиз. Бинобарин, ижтимоий тармоқдан олинган маълумотнинг ишончлилигини экспертсиз тасдиқлаш деярли имконсиздир.

Қонунчиликнинг яна бир муҳим нормаси – 2022 йил 15 апрелда қабул қилинган «Киберхавфсизлик тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-764-сон Қонуни киберсоҳани тартибга солишда муҳим босқич бўлди. Қонун киберҳужумга учраган ахборот ресурслари эгаларининг Давлат хавфсизлик хизматини хабардор қилиш мажбуриятини белгилаб қўйган.[^7]

Аммо, бизнингча, қонунчилик базасида жиддий бўшлиқлар ҳамон сақланиб турибди. Гарчи «рақамли далил» тушунчаси 2024 йил ислоҳоти билан расман киритилган бўлса ҳам, ижтимоий тармоқ операторлари билан халқаро ҳамкорлик орқали далилларни олиш, хорижий серверлардан маълумотларни муҳрлаш ва бошқа амалий масалаларни тартибга соладиган махсус нормалар ҳанузгача тўла-тўкис ишлаб чиқилмаган. Шу боис амалиётда терговчи ва эксперт ўз саъй-ҳаракатларига таянишга мажбур бўлмоқда.

Ижтимоий тармоқ доирасида қолдирилган изларни тадқиқ этиш компьютер экспертизасида алоҳида ўрин тутади. Бунинг сабаби

оддий – мазкур изларнинг тури жуда хилма-хил: матн, тасвир, видео, овозли хабар ва улар билан бирга келадиган метамаълумотлар – геолокация, қурилма идентификатори, вақт белгиси, IP-манзил ва бошқалар.

Америкалик криминалист Эоган Кэйси ўзининг «Digital Evidence and Computer Crime» («Электрон далил ва компьютер жинояти») номли классик асарида электрон далилнинг табиатига тўхталиб, қизиқарли ўхшатишни келтиради: унинг фикрича, рақамли далил бармоқ изи ёки ДНК намунаси каби латент характерга эга.[^8]

Олимнинг ушбу фикри ўйланишга арзийди. Бизнингча, Кэйси ушбу ўхшатиш орқали шуни кўрсатиб бермоқчики, электрон

маълумот фақат махсус асбоб ва билим ёрдамида намоён бўлади. Бармоқ изини оддий кўз билан кўриш қийин бўлганидек, ижтимоий тармоқнинг метамаълумотларини ҳам техник таҳлилсиз тушуниш имконсиздир. Айнан шу ерда – далилнинг латент табиати нуқтасида – эксперт фигурасининг тергов жараёнидаги зарурлиги келиб чиқади.

Халқаро стандартлашган амалиётда рақамли далилларни ишлаш жараёни ISO/IEC 27037:2012 стандарти билан тартибга солинади. Мазкур стандарт тўрт босқични ажратиб кўрсатади: идентификация қилиш, тўплаш, олиш ва сақлаш.[^9]

Стандартни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, далилни тўплаш билан уни олиш (acquisition) босқичлари бир-биридан фарқланади ва бу жуда муҳим. Тўплаш – объектни идентификация қилиш ва унинг жойлашув ўрнини қайд этишни англатса, олиш – маълумотнинг физик ёки мантиқий нусхасини муҳрлаб чиқаришни билдиради. Айнан шу босқичда маълумотнинг бутунлигини сақлаш учун криптографик хеш-қийматлар (MD5, SHA-256 алгоритмлари) ҳисоблаб олинади. Амалиётда айнан

хеш-қийматнинг муҳрланиши далилнинг кейинчалик ўзгартирилмаганлигини исботлайди.

Р. Монтасари ва унинг ҳаммуаллифлари (R. Hill, V. Carpenter, F. Montaseri) Birmingham City University ва University of Huddersfield тадқиқотчилари гуруҳи сифатида ижтимоий тармоқ далилларини тўплашда экспертлар дуч келадиган қийинчиликларни ўз мақоласида тизимлаштириб кўрсатганлар.[^10]

Монтасари ва ҳамкасблари ушбу муаммоларни уч йўналишда гуруҳлайди: биринчиси – техник қийинчиликлар (шифрланган алоқа, булут сервисларида ҳудудий чекловлар), иккинчиси – ҳуқуқий тўсиқлар (оператор билан халқаро ҳамкорлик), учинчиси – процессуал масалалар (далилнинг ишончлилиги ва экспертнинг судда тушунтириши). Бизнингча, бу таснифлаш амалиёт нуқтаи назаридан ниҳоятда аниқ берилган ва Ўзбекистон шароитида ҳам худди шундай муаммолар кузатилади.

Техник жиҳатдан ижтимоий тармоқ маълумотларини олишнинг уч йўли мавжуд: биринчиси – жамоатга очиқ бўлган контентни кузатув орқали олиш (OSINT усули), иккинчиси – гумон қилинувчининг ёки жабрланувчининг шахсий қурилмасидан кэшланган маълумотларни экстракция қилиш (бу энг кўп қўлланиладиган усул), учинчиси – ижтимоий тармоқ оператори

серверига расмий мурожаат орқали маълумотларни олиш. Охирги усул энг ишончли натижа берса-да, Meta, Telegram, TikTok сингари трансчегаравий платформалар билан ҳамкорлик Ўзбекистон учун мураккаб масала бўлиб қолмоқда.

Кибержиноятларга қарши халқаро ҳуқуқий асос 2001 йил 23 ноябрда Будапешт шаҳрида Европа Кенгаши томонидан қабул қилинган Компьютер жиноятлари тўғрисидаги конвенция (CETS № 185) – Будапешт конвенцияси билан яратилган. Конвенциянинг 14–21-моддалари электрон шаклдаги далилларни йиғишнинг процессуал механизмларини – шу жумладан тезкор тартибда сақлаб қолиш (16–17-моддалар), тақдим этиш буюртмаси

(18-модда), тинтув ва олиб қўйиш (19-модда), реал вақт режимида маълумотларни йиғиш (20–21-моддалар) каби усулларни – тартибга солади.[^11]

Бизнингча, мазкур конвенция Ўзбекистон иштирокчи бўлмаган ҳолда ҳам миллий амалиёт учун алоҳида тадқиқот объекти бўлиб хизмат қилиши мумкин. Унда илгари сурилган механизмлар, айниқса, «24/7 тармоқ» – яъни давлатлар ўртасида кибержиноятлар юзасидан тезкор алоқа нуқталари тизими ғояси, Ўзбекистоннинг бошқа давлатлар билан халқаро ҳамкорлик муносабатларини мустаҳкамлаш учун намуна бўла олади.

Шу билан бирга, 2024 йил 24 декабрда БМТ Бош Ассамблеяси томонидан қабул қилинган «Ахборот-коммуникация тизимларидан фойдаланилган жиноятларга қарши курашиш тўғрисида»ги конвенция (Ханой конвенцияси) ҳам алоҳида аҳамиятга молик. Мазкур ҳужжат

2025 йил 25–27 октябрь кунлари Ханой шаҳрида имзоланиш учун очилди ва унда жиноят турларининг янгиланган рўйхати – ахборот тизимига ноқонуний кириш, электрон маълумотларга таъсир ўтказиш, интим тасвирларни розиликсиз тарқатиш ва бошқалар – мустаҳкамланган.[^12]

Кэйси АҚШ ва Европа Иттифоқи давлатлари амалиётини қиёсий таҳлил қилиб, АҚШ Федерал далиллар қоидалари (Federal Rules of Evidence)нинг 901-моддасига алоҳида эътибор қаратади. Олимнинг фикрича, мазкур норма рақамли далилни судда қабул қилиш учун унинг аутентлиги – яъни келтирилаётган шахс томонидан яратилганлиги ҳамда бутунлиги – сақланганлиги тасдиқланишини талаб қилади.

Мазкур талаб – аутентликни тасдиқлаш мажбурияти – бизнингча, миллий қонунчилик учун алоҳида ўрганилиши зарур бўлган қоида. Чунки Ўзбекистон Республикаси ЖПКда рақамли далилнинг аутентификация шарти умумий тарзда ифодаланган, аниқ процессуал механизм эса

2024 йилги ўзгаришлардан кейин ҳам тўла ишлаб чиқилмаган

Ижтимоий тармоқ далилларининг судлов амалиётига жалб этилиш миқёси ҳақида тушунча ҳосил қилиш учун АҚШ тажрибасига тўхталиш ўринлидир. Америкалик X1 Discovery компанияси 2010 йилдан 2011 йил ноябригача бўлган давр учун АҚШ федерал ва штат судлари қарорларини таҳлил қилиб, 689 та иш бўйича ижтимоий тармоқ далиллари муҳим процессуал аҳамиятга эга бўлганини аниқлаган.[^13

Кейинги йилларда бу тенденция фақат ошиб борган. А. Пауэлл ва С. Ҳейнс (A. Powell, C. Haynes) ўз тадқиқотларида ижтимоий тармоқдан олинган далилларнинг турли йўналишдаги жиноят ишларида – шу жумладан оилавий низолар, суғурта даъволари, ишдан бўшатиш низолари ва жиноий ишларда – қўлланилиши йилдан-йилга ошиб бораётганини қайд этишади.[^14]

Бундан келиб чиққан ҳолда, Ўзбекистонда ҳам, бизнингча, яқин йилларда ижтимоий тармоқ далиллари иштирок этган жиноят ишларининг улуши бутунлай устун бўлиши эҳтимоли юқори ва бу тергов ва суд органларини ҳозирданоқ жиддий тайёргарлик кўришга ундайди.

Миллий амалиётда ижтимоий тармоқ орқали содир этилган жиноятлар бўйича қўзғатилган ишлар сонининг ошиши компьютер экспертизасининг амалий аҳамиятини яққол намоён этмоқда. Юқорида (сноска 2 га қаранг) қайд этилган 2026 йил феврал ойида Тошкент ва Жиззах вилоятларидаги ҳолатга қайтсак, ишни тергов қилиш жараёнида Telegram каналларидан компьютер экспертизаси воситасида 3750 дан ортиқ жиддий контент муҳрланди, бошқа ижтимоий тармоқлардан эса 837 нафар жабрланувчи аниқланди. Бу ерда муҳим жиҳат шундаки, жиноятчи ўз номидан эмас, балки қизлар номидан 6 та сохта канал юритиб фаолият кўрсатган. Бизнингча, айнан шундай ҳолатларда компьютер экспертизасининг аҳамияти ўрнини босиб бўлмайдиган даражада катта бўлади: эксперт техник таҳлил воситасида сохта канал ортидаги реал шахсни аниқлаш, унинг яратилиш вақти ва IP-манзилини муҳрлаш имкониятига эга бўлади.

Яна бир намунавий мисол – 2025 йил июль ойида Тошкент шаҳрида банк карталари орқали қарийб 1 миллиард сўм миқдоридаги маблағларни ўзлаштиришда гумонланган жиноий гуруҳнинг қўлга олиниши. Тергов жараёнида ижтимоий тармоқда мулоқот каналлари орқали қурбонларни жалб қилиш схемаси аниқланди.[^15]

Ушбу иш мисолида компьютер экспертизаси ёрдамида далиллар занжири шакллантирилган: компьютер қурилмаларидан олинган маълумотлар, мессенжерлардаги ёзишмалар, банк операциялари бўйича электрон ҳужжатлар – барчаси биргаликда жиноий гуруҳнинг тизимли фаолият олиб борганини исботлашга хизмат қилди. Бизнингча, бу ҳолат ижтимоий тармоқ жиноятларини тергов қилишда комплекс ёндашув – яъни бир неча манбадан олинган далилларни ўзаро боғлаш методологияси самарали натижа беришининг ёрқин мисолидир.

Шундай қилиб, амалиётдан олинган мисоллар бизнинг юқорида илгари сурган фикримизни – компьютер экспертизаси ҳозирги кунда нафақат ёрдамчи, балки асосий исботлаш воситаси даражасига кўтарилаётганини – тасдиқлайди.

Олиб борилган таҳлил натижаси сифатида бизнингча, Ўзбекистонда ижтимоий тармоқ жиноятлари бўйича тергов жараёнида компьютер экспертизасидан самарали фойдаланишга тўсқинлик қилаётган учта асосий муаммога эътиборни қаратиш зарур.

Биринчидан, қонунчилик базасидаги бўшлиқ қисман сақланиб қолмоқда. 2024 йилда ЖПКга «рақамли далил» тушунчаси киритилган бўлса-да, бу далилни муҳрлаш, сақлаш ва судда текширишда қўлланиладиган махсус-техник тартиб-қоидалар (хеш-қийматларни ҳисоблаш, “Chain of Custody” – ўзгаришлар занжирини юритиш ва ҳ.к.) батафсил кўрсатилмаган. Бизнингча, айнан мазкур тартиб-қоидаларнинг аниқлаштирилмаганлиги амалиётда ноаниқликларга – турли тергов органларида турли усулларнинг қўлланилишига – олиб келмоқда.

Иккинчидан, халқаро ҳамкорлик механизмлари етарли эмас. Meta, Google, Telegram каби йирик операторлар билан маълумот олиш масалалари, кўпинча, узоқ муддат давом этадиган халқаро ҳуқуқий ёрдам процедуралари орқали ҳал этилмоқда. Тергов муддатлари эса қонунда чекланган бўлиб, бу мунтазам зиддиятга сабаб бўлмоқда.

Учинчидан, моддий-техник база ва кадрлар тайёргарлиги даражаси. Бугунги кунда Ўзбекистонда EnCase, FTK, Cellebrite UFED, Oxygen Forensic Suite сингари халқаро эътироф этилган форенсик (криминалистик) дастурий таъминот восита ва мажмуалари фақат пойтахт ва йирик шаҳарларда мавжуд бўлиб, ҳудудий бўлимларда тақчиллик сезилмоқда.

Бизнингча, мазкур муаммоларни ҳал этиш учун қуйидаги таклифларни илгари суриш ўринлидир:

1) Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексига «Рақамли далилларни техник муҳрлаш ва таҳлил қилиш тартиби» деб номланган алоҳида норма киритиш зарур. Бунда рақамли далилларни муҳрлашда

хеш-қийматларни мажбурий ҳисоблаш, “Chain of Custody”ни юритиш ва халқаро стандартларга (ISO/IEC 27037, ISO/IEC 27042) мувофиқ иш олиб бориш талаби мустаҳкамланиши лозим.

2) Будапешт конвенциясига қўшилиш ҳамда 2024 йилги БМТ Конвенциясини ратификация қилиш масалаларини амалий ўрганиб чиқиш. Бу қадам халқаро ҳамкорликнинг тезкор механизмларидан фойдаланишга, айниқса Будапешт конвенциясининг «24/7 тармоқ» тизимидан манфаатдор бўлишга имкон яратади

3) Республика суд экспертизаси марказининг ҳудудий бўлимларида компьютер-техник экспертизаси лабораторияларини босқичма-босқич ташкил этиш ҳамда халқаро сертификация (CCE, GCFE, EnCE) эга эксперт кадрларни тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш. Шу билан бирга,

компьютер-техник экспертизаси лабораториясини ISO/IEC 17025 стандарти талабларига мувофиқ аккредитациядан ўтказиш тавсия этилади.

4) Ички ишлар вазирлиги Киберхавфсизлик бошқармаси, ДХХ ҳузуридаги Киберхавфсизлик маркази ва Адлия вазирлиги ҳузуридаги Х.Сулаймонова номидаги Республика суд экспертиза маркази ўртасида амалий ҳамкорлик протоколларини ишлаб чиқиш, шу орқали далилларни муҳрлаш ва алмашиш жараёнини тезлаштириш.

Олиб борилган таҳлил ижтимоий тармоқ орқали содир этилган жиноятларни тергов қилишда компьютер экспертизасининг исботлаш воситаси сифатидаги ўрни тобора мустаҳкамланиб бораётганини кўрсатди. Бизнингча, бугунги кунда тергов органи бундай жиноятларни самарали очиш учун эксперт билан биргаликда

ишлаши лозим бўлади. Зеро, ижтимоий тармоқ муҳитида қолдирилган изни фақат махсус билимга эга мутахассис процессуал аҳамиятга эга далил даражасига кўтара олади.

Шу билан бирга, таҳлил миллий қонунчилик ва амалиётда бир қатор бўшлиқлар мавжудлигини кўрсатди. «Рақамли далил» тушунчасининг

2024 йилда расман киритилиши муҳим қадам бўлди, аммо унинг муҳрлаш, сақлаш ва судда текшириш механизмлари тўла-тўкис ишлаб чиқилмаган. Халқаро ҳамкорлик механизмларининг такомиллаштирилиши, экспертиза муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ҳамда кадрлар тайёргарлигини юқори даражага кўтариш – бу келажакда амалга оширилиши лозим бўлган йўналишлардандир.

Бизнингча, мазкур йўналишларда изчил ислоҳотлар амалга оширилгандагина ижтимоий тармоқ жиноятларига қарши курашда компьютер экспертизасидан тўла-тўкис фойдаланиш имконияти яратилади. Бу йўналишдаги илмий-тадқиқот ишларининг давом эттирилиши амалий тавсиялар ишлаб чиқишга хизмат қилиши мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси (1994 йил 22 сентябрдаги

2013-XII-сон Қонуни билан тасдиқланган, кейинги ўзгартириш ва қўшимчалар билан). – URL: https://lex.uz/acts/111460

2. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 21 ноябрдаги ЎРҚ-1003-сон «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига рақамли далиллар билан ишлаш тизимини такомиллаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.11.2024 й., 03/24/1003/0943-сон.

3. «Киберхавфсизлик тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 15 апрелдаги ЎРҚ-764-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2022. – URL: https://lex.uz/uz/docs/5960604

4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2018 йил 24 августдаги 24-сонли «Далиллар мақбуллигига оид жиноят-процессуал қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги қарори (2025 йил 23 июндаги 14-сонли қарор таҳририда).

5. Convention on Cybercrime (Budapest Convention), CETS № 185. – Budapest: Council of Europe, 23 November 2001.

6. United Nations Convention against Cybercrime; Strengthening International Cooperation for Combating Certain Crimes Committed by Means of Information and Communications Technology Systems and for the Sharing of Evidence in Electronic Form of Serious Crimes (adopted by UN General Assembly on 24 December 2024).

7. ISO/IEC 27037:2012. Information technology – Security techniques – Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence. – Geneva: ISO, 2012.

8. ISO/IEC 27042:2015. Information technology – Security techniques – Guidelines for the analysis and interpretation of digital evidence. – Geneva: ISO, 2015.

9. Casey E. Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers and the Internet. – 3rd ed. – Waltham: Academic Press, Elsevier, 2011. – 840 p.

10. Montasari R., Hill R., Carpenter V., Montaseri F. Digital Forensic Investigation of Social Media, Acquisition and Analysis of Digital Evidence // International Journal of Strategic Engineering (IJoSE). – 2019. – Vol. 2, Iss. 1. – P. 52–60. – DOI: 10.4018/IJoSE.2019010105

11. Powell A., Haynes C. Social Media Data in Digital Forensics Investigations // Zhang X., Choo K.-K.R. (eds) Digital Forensic Education. Studies in Big Data, vol. 61. – Cham: Springer, 2020. – P. 281–303.

12. Х. Сулаймонова номидаги Республика суд экспертизаси маркази аккредитацияси бўйича расмий маълумотлар. – URL: https://sudexpert.uz/en_US/244-2/

13. Киберхавфсизлик маркази ДУК. «Ўзбекистон Республикасида киберхавфсизликни таъминлаш» 2021 йил бўйича ҳисобот.

14. X1 Discovery компаниясининг «689 Published Cases Involving Social Media Evidence» номли изланиш маълумотлари, 2012 йил. – URL: https://blog.x1discovery.com/

15. Gazeta.uz: «Тошкент ва Жиззах вилоятларида болалар порнографиясини тарқатган шахслар қўлга олинди», 2026 йил 24 февраль. – URL: https://www.gazeta.uz/uz/2026/02/24/incident

16. Gazeta.uz: «Тошкентда банк карталари орқали салкам 1 млрд сўм ўғирлашда гумонланганлар қўлга олинди», 2025 йил 15 июль. – URL: https://www.gazeta.uz/uz/2025/07/15/cybercrime/

[^2]: Ҳуқуни муҳофаза қилиш академияси тадқиқотчиси

[^3]: Киберхавфсизлик маркази ДУК. «Ўзбекистон Республикасида киберхавфсизликни таъминлаш» 2021 йил бўйича ҳисобот маълумотлари асосида. – URL: https://sputniknews.uz/20220303/ozbekiston-kiberhujum-23106834.html

[^4]: Gazeta.uz: «Тошкент ва Жиззах вилоятларида болалар порнографиясини тарқатган шахслар қўлга олинди», 2026 йил 24 февраль. – URL: https://www.gazeta.uz/uz/2026/02/24/incident/

[^5]: Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 21 ноябрдаги ЎРҚ-1003-сон «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига рақамли далиллар билан ишлаш тизимини такомиллаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.11.2024 й., 03/24/1003/0943-сон.

[^6]: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2018 йил 24 августдаги 24-сонли қарорининг 10-банди (2025 йил 23 июндаги 14-сонли қарор таҳририда). – URL: https://lex.uz/uz/docs/3895986

[^7]: «Киберхавфсизлик тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 15 апрелдаги ЎРҚ-764-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2022. – URL: https://lex.uz/uz/docs/5960604

[^8]: Casey E. Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers and the Internet. – 3rd ed. – Waltham: Academic Press, Elsevier, 2011. – 840 p.

[^9]: ISO/IEC 27037:2012. Information technology – Security techniques – Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence. – Geneva: ISO, 2012.

[^10]: Montasari R., Hill R., Carpenter V., Montaseri F. Digital Forensic Investigation of Social Media, Acquisition and Analysis of Digital Evidence // International Journal of Strategic Engineering (IJoSE). – 2019. – Vol. 2, Iss. 1. – P. 52–60. – DOI: 10.4018/IJoSE.2019010105

[^11]: Convention on Cybercrime (Budapest Convention), CETS № 185. – Budapest: Council of Europe, 23 November 2001. Art. 14–21.

[^12]: БМТ Бош Ассамблеясининг 2024 йил 24 декабрдаги резолюцияси билан қабул қилинган «Ахборот-коммуникация тизимларидан фойдаланилган жиноятларга қарши курашиш тўғрисида»ги Конвенция. Конвенциянинг имзоланиши 2025 йил 25–27 октябрь кунлари Ханой шаҳрида ўтказилган.

[^13]: X1 Discovery компаниясининг 2010 йил январдан 2011 йил ноябригача бўлган давр учун АҚШ федерал ва штат судлари қарорларини таҳлил қилиш бўйича ўтказган изланиши маълумотлари. Мазкур маълумотлар кейинчалик Powell A., Haynes C. тадқиқотларида иқтибос сифатида келтирилган.

[^14]: Powell A., Haynes C. Social Media Data in Digital Forensics Investigations // Zhang X., Choo K.-K.R. (eds) Digital Forensic Education. Studies in Big Data, vol. 61. – Cham: Springer, 2020. – P. 281–303. – DOI: 10.1007/978-3-030-23547-5_14

[^15]: Gazeta.uz: «Тошкентда банк карталари орқали салкам 1 млрд сўм ўғирлашда гумонланганлар қўлга олинди», 2025 йил 15 июль. – URL: https://www.gazeta.uz/uz/2025/07/15/cybercrime/

# ЧЕТ ЭЛДАН АЛИМЕНТЛАРНИ УНДИРИШ ТЎҒРИСИДАГИ КОНВЕНЦИЯНИ РАТИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***К.И.Нуримова,*** *“Sarbon universiteti” талабаси*
*+99893-148-07-01*
***С.А.Нуримова,*** *ТДЮУ магистранти*
*+99897-668-22-07*

**Аннотация:** Мақолада Ўзбекистон Республикасида вояга етмаганларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, хусусан, хориждаги қарздорлардан алимент ундиришнинг долзарб муаммолари таҳлил қилинган. Муаллиф статистик маълумотларга таянган ҳолда, миграция жараёнларининг кенгайиши натижасида алимент ундириш ишларининг ижросиз қолаётганлиги ва амалдаги халқаро шартномаларнинг (Минск конвенцияси) қамрови чекланганлигини кўрсатиб ўтган. Тадқиқотда 1956 йилдаги «Чет элдан алиментларни ундириш тўғрисида»ги Нью-Йорк Конвенциясини ратификация қилишнинг зарурати ва истиқболлари асослаб берилган. Шунингдек, халқаро алимент ундириш механизмларини жорий этиш бўйича амалий таклифлар, жумладан, банк тизими ва ваколатли органлар ўртасидаги ҳамкорликни такомиллаштириш масалалари илгари сурилган.

**Калит сўзлар:** *вояга етмаганлар ҳуқуқлари, алимент мажбуриятлари, халқаро миграция, Нью-Йорк Конвенцияси, Мажбурий ижро бюроси, чет эл элементи, ҳуқуқий механизм.*

Ўзбекистон Республикасида вояга етмаганларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимояси ва манфаатларни таъминлаш сиёсати алоҳида устуворликка эга. Ҳозирги кунда алимент ундириш бўйича бир қатор муаммолар долзарблигича қолмоқда. Улардан бири – чет элдаги ота/онадан алимент ундириш. Ота-онанинг бири

Ўзбекистонда, иккинчиси эса чет элда бўлганлиги, фарзандларига таъминот бериш мажбурияти масаласида тенгсизликни юзага келтириб, ўз навбатида Бола ҳуқуқлари тўғрисида Конвенцияси ҳамда Оила кодексининг 96-97 моддаларининг қўпол равишда бузилишига олиб келмоқда.

Ўзбекистонда алиментлар бўйича ижро ҳужжатлари сони сўнгги 5 йилда 41 фоизга ошиб, 476 мингтага етди[^2]. Статистик маълумотларга кўра, 2025 йилда алимент билан боғлиқ 70 мингта мурожаат келиб тушган бўлса-да, қарздорларнинг расмий даромади йўқлиги ёки чет элда бўланлиги сабабли уларнинг қарийб 30 фоизи ижросиз қолган[^3], 2,5 мингта алимент тўловчига нисбатан қидирув эълон қилинган[^4]

Ҳозирги кунда МДҲ давлатлари ҳудудида алимент ундириш масалалари 1993 йил 22 январдаги “Фуқаролик, оилавий ва жиноий ишлар бўйича ҳуқуқий ёрдам ва ҳуқуқий муносабатлар тўғрисида”ги Минск Конвенциясини ратификацияалаш йўли билан тартибга солинмоқда. Аммо бу конвенция давлат-аъзолари рўйҳати жуда ҳам тор (Азарбайжон, Арманистон, Беларусь, Қозоғистон, Қирғизистон, Молдова, Россия, Тожикистон, Туркманистон, Ўзбекистон).

Маълумки, Ўзбекистон фуқароларининг миграция доираси жуда кенг бўлиб, шу билан бирга «Ўзбекистон-2030» стратегияси асосида режалаштирилган чора-тадбирлар қаторида меҳнат миграциясини тизимли ташкил этиш, Германия, Буюк Британия, Япония, Корея Республикаси, Исроил, Канада, Польша, Туркия, Саудия Арабистони, БАА ва шу каби бошқа иқтисодий ривожланган давлатларда фуқароларни иш билан таъминлаш чоралари кўрилмоқда[^5].

Глобализациялашиш жараёнида чет элдан алимент ундириш масаласи қонуний механизмлар яратилмаганлиги боис етарлича тартибга солинмаган. 1956 йил 20 июнь куни Нью-Йоркда қабул қилинган **Чет элдан алиментларни ундириш тўғрисидаги Конвенция** ҳозирги кунда 64дан ортиқ давлатларда ратификация қилинган.

Юқоридагиларни инобатга олиб алимент тўловини ундириш тизимини такомиллаштириш борасида мазкур Конвенцияни ратификация қилиш – давлатимизда вояга етмаганларнинг манфаатларини ҳамда ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш сиёсатида катта ютуқ ва натижаларга олиб келади.

Охирги йилларда халқлар ўртасида иқтисодий, маданий, сиёсий алоқаларнинг кучайиши натижасида эса чет эл элементи билан мураккаблашган никоҳларнинг кўпайиши, аралаш никоҳлардан дунёга келган болаларнинг ҳуқуқий тақдири турли давлат қонунчилигида турлича ҳал қилинади. Бу борада бир қанча масалаларда бир хил муаммолар вужудга келади, хусусан: 1) никоҳни вужудга келитирувчи моддий ҳуқуқий асослари; 2) хорижий эр ёки хотиннинг шахсий номулкий ва мулкий ҳуқуқлари; 3) хорижий никоҳлардан туғилган болаларнинг алимент ҳуқуқларидир[^6].

Жумладан, алимент мажбуриятлари ҳамда уларни ўзга давлат ҳудудида ундириш тартиби, хорижий судларнинг қарорларини чет мамлакатларда ижроси каби муҳим масалалар хозирги замон ҳуқуқининг долзарб муамоларидан бири бўлиб қолмоқда[^7].

Ҳозирги кунда Мажбурий ижро бюросининг иш юритувида алимент бўйича 476 мингта хўжжат мавжуд[^8]. Бугунги кунда миграциянинг узоқ хорижий мамлакатлар бўйлаб кенгайиши қарздорлар қидирувини мазкур мамлакатлар доирасида ҳам олиб боришни тақозо этмоқда[^9]. Ахборот технологиялари жадал ривожланиш даврида чет элда истиқомат этувчи фақароларни қидируви такомиллашиб, улардан вояга етмаган фарзандлари фойдасига алимент ундириш бўйича ишларни амалга ошириш учун тегишли ҳуқуқий механизмларни яратилиши долзарблиги юзага келган. Таклиф этилаётган Конвенция ратификацияланиши давлатимизга нафақат қўшимча молиявий оқим, балки бола ҳуқуқларини ҳимояланишида чуқур ислоҳотларга олиб келиниши, бундан ташқари, Республикада хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бўйича олиб борилаётган сиёсатини қўллаб-қувватловчи қўшимча механизм яратилишига имкон беради.

“Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисидаги” қонуннинг 6-моддасига кўра, Чет эл судлари ва арбитражларининг қарорларини ижро этиш тартиби Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари ва халқаро шартномалари билан белгиланади.

Ўзбекистон Республикаси суди томонидан чет эл судининг ёки арбитражининг қарори асосида берилган ижро варақаси, агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида бошқача қоида назарда тутилган бўлмаса, қарор қонуний кучга кирган вақтдан эътиборан уч йил ичида мажбурий ижро этиш учун

топширилиши мумкинлиги белгиланган. Бундан кўриниб турибдики, агар Ўзбекистон Республикаси

билан хорижий давлат ўртасида келишув бўлмаса, алимент ундириш тўғрисидаги чет эл судининг қарорлари Ўзбекистон Республикаси ҳудудида бажарилмайди.

Муаммо ечими - Чет элдан алиментларни ундириш тўғрисидаги Конвенциясини ратификация қилиш.

Ушбу конвенцияни ратификация қилиш натижасида, Ўзбекистон қонунчилигига тегишли ўзгартиришлар киритилиб, жорий тизимга мослаштирилади.

Конвенциянинг иштирокчи-давлатлар билан келишувлар тузилиб, ижро этувчи органлар ўртасида ҳалқаро муносабатлар йўлга қўйилади, бунинг оқибатида чет элда истиқомат этувчи алимент тўловчининг иш жойи ва бошқа даромад манбалари аниқланиб, алимент ундируви автоматик равишда халқаро пул ўтказмалари орқали ундирувчи ҳисобига амалга оширилади.

Бунда банк тизимида алимент ўтказмалари учун устунликни белгилаб қўйиш мақсадга мувофиқдир.

Фуқаролар (алимент ундирувчи) қандай шаклда мурожаат қилади

- **Ариза топшири**

Яшаш жойи бўйича судга,

- **Ҳужжатларни чет элга юбориш**

Аризачи томони ҳужжатлар тўпламини қарздор яшайдиган давлатга юборади. У ерда иш билан шуғулланадиган ўзининг «қабул қилувчи органи» мавжуд.

- **Ишни бошқа давлатда кўриб чиқи**

Хорижий орган:

Аризачи яшаётган давлат судининг чиқарилган қарорини тан олади ва ижро этади ёки ўз мамлакатида янги суд жараёнини бошлайди.

- **Алиментларни ундириш**

Қарор чиққандан сўнг:

пул маблағлари қарздор жойлашган давлат қонунчилигига мувофиқ ундирилади, ва ундирувчига ўтказилади.

**Муҳим жиҳатлар**

Конвенция фақат иштирокчи давлатлар ўртасида амал қилади.

Тўлиқ ҳужжатлар тўплами керак (суд қарори, гувоҳномалар, қарздор ҳақидаги маълумотлар).

Ҳужжатлар одатда таржима қилинади ва баъзан апостил талаб қилинади

Жараён узоқ вақт талаб этиши мумкин.

Юқорида тасдиқлангандек, алимент ундируви масаласи ҳозирги кунда долзарблигича қолиб, глобаллашув, миграция даврида янада қийинлашиб келмоқда. Ваҳолангки ота-онадан бири чет элга миграция қилиш истаги пайдо бўлиши бола ҳуқуқларини поймол бўлишига олиб келмаслиги керак. Шу масалада бола ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилиш йўлида амалдаги қонунчилигимиздаги бўшлиқни тегишли тартибда тўлдириш – ҳозирги вақтда асосий мажбуриятлардан бири деб ҳисобланса муболаға бўлмайди.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:


- Х.Б. Абдурахмонова. Ўзбекистон Республикасида чет элдан алиментларни ундиришни ҳуқуқий тартибга солиш // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. 2012. – №3. – С.15-19.

2. Матвеев, Г. К. Вопросы советского коллизионного семейного права /Г. К. Матвеев. //Правоведение. -1972. - № 2. - С. 99 – 105. Библиогр. в подстрочных примечаниях.

3. Н.Рустамова. Алимент ва неустойка миқдорининг ижтимоий-ҳуқуқий масалалари // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2024. - №4 (5). – С. 791-800.

- Ўзбекистон Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси директори Музаффар Эгамбердиевнинг 2025 йил 19 декабрь куни Олий Мажлис Сенатининг ялпи мажлисидаги нутқи.

- Ўзбекистон Республикаси Бош Вазири А.Ариповнинг 2024 йил 21 ноябрдаги Олий Мажлис Қонунчилик палатаси мажлисидаги нутқи

- Ўзбекистон Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси директори Музаффар Эгамбердиевнинг 2025 йил 19 декабрь куни Олий Мажлис Сенатининг ялпи мажлисидаги нутқи.


## ИНТЕРНЕТ-МАНБАЛАР


- [https://uza.uz/posts/823481](https://uza.uz/posts/823481)

- [https://batafsil.uz/cat/obchestvo/alimentdan-arzdorlar-uchun-moliyaviy-va-bank-khizmatlari-cheklanadi/](https://batafsil.uz/cat/obchestvo/alimentdan-arzdorlar-uchun-moliyaviy-va-bank-khizmatlari-cheklanadi/)

-
[http://www.law.edu.ru/article/article.asp?articleID=188591](http://www.law.edu.ru/article/article.asp?articleID=188591)

[^2]: Ўзбекистон Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси директори Музаффар Эгамбердиевнинг 2025 йил 19 декабрь куни Олий Мажлис Сенатининг ялпи мажлисидаги нутқи. https://www.youtube.com/watch?v=SpGv8kiHCvA

[^3]: https://batafsil.uz/cat/obchestvo/alimentdan-arzdorlar-uchun-moliyaviy-va-bank-khizmatlari-cheklanadi/

[^4]: https://uza.uz/posts/823481

[^5]: Ўзбекистон Республикаси Бош Вазири А.Ариповнинг 2024 йил 21 ноябрдаги Олий Мажлис Қонунчилик палатаси мажлисидаги нутқи. https://www.youtube.com/watch?v=6kbBVOx2AOU&feature=youtu.be

# РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ДИПЛОМАТИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И МИРА В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

***Д.Х.Мадаминова***
*Независимый соискатель УМЭД*
*[dilishxon18@icloud.com]*

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются понятие и основные направления “цифровой дипломатии” в Республике Узбекистан. Приводятся ряд примеров из нормативных актов в данной области, а также, как влияет современная дипломатия на выстраивание и развитие отношений между государствами и правительствами, её роль в обеспечении мира на международной арене и решении конфликтов регионального и мирового масштаба. Развитие социальных платформ в стране и их влияние на текущие обстоятельства, а также перспективы её развития в будущем.

**Ключевые слова:** “цифровая дипломатия”, социальные платформы, «мягкая сила», экономическая дипломатия, публичная дипломатия, имидж страны, трансформация дипломатической службы, прозрачность государственного управления.

Цифровая дипломатия в Узбекистане выступает ключевым инструментом реализации «мягкой силы», укрепления экономической привлекательности и расширения международных связей. Основные функции и роль цифровой дипломатии в Узбекистане реализуются через следующие направления:

- Продвижение имиджа страны (Country Branding): Использование социальных сетей, онлайн-платформ и мультиязычных порталов позволяет доносить до мировой общественности информацию об истории, культуре и туристическом потенциале Узбекистана.

- Экономическая дипломатия: Цифровые инструменты активно используются для привлечения иностранных инвестиций, поддержки экспортеров и продвижения технологических стартапов на международной арене.

- Открытость и оперативное реагирование: Дипломатические ведомства переходят к формату прямого диалога с гражданами и зарубежной аудиторией, обеспечивая прозрачность внешнеполитических инициатив.

- Институциональное развитие: Реализуются программы по цифровой трансформации дипломатической службы, такие как запуск специальных курсов для подготовки дипломатических кадров с внедрением искусственного интеллекта совместно с международными партнерами (например, с Индией).

В 2020 году был принят Указ Президента Республики Узбекистан об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан - 2030” и мерах по её эффективной реализации. Исходя из стратегии реализуются комплексные меры по активному развитию цифровой экономики, широкому внедрению современных информационно-коммуникационных технологий во все отрасли и сферы, прежде всего в государственном управлении, образовании, здравоохранении и сельском хозяйстве. Основной акцент делается на прозрачности государственного управления, цифровизации и повышении кибербезопасности.

До этого в республике уже существовало ряд нормативных актов регулирующие данную область правоотношений. Ярким примером может служить “Закон Республики Узбекистан об информатизации” от 11 декабря 2003 года[^2].

Кроме этого, всё больше применяется на практике в отношениях между государствами такое понятие, как “цифровая дипломатия”. Цифровая дипломатия (также называется интернет-дипломатией или e-diplomacy) – это использование возможностей интернета, социальных сетей и информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) для решения дипломатических задач и продвижения государственных интересов во внешней политике. Это

направление трансформирует традиционные методы взаимодействия между государствами, делая их более открытыми и оперативными. Наряду с преимуществами цифровая дипломатия имеет и определённые риски, такие как, уязвимость перед кибератаками, возможность манипуляции общественным мнением и риск возникновения “цифровых войн”, а также, вопросы защиты государственного суверенитета в сети. Республика Узбекистан в этой сфере активно сотрудничает с Индией. Например, в январе месяца текущего года состоялась образовательная программа в виде онлайн-курсов по искусственному интеллекту и кибербезопасности для дипломатов Узбекистана.[^3]

Посольства и консульства Узбекистана активно используют платформы (X, Facebook, Telegram) для оперативного информирования и прямой связи с гражданами и зарубежной аудиторией. Развитие консульных услуг в электронном формате помогает своевременно и эффективно при защите прав соотечественников.

При принятии юридически значимых решений, затрагивающие права и свободы человека, запрещается опираться исключительно на выводы информационных систем, работающих только на базе технологий искусственного интеллекта. Вместе с тем, за незаконную обработку персональных данных с использованием искусственного интеллекта, их распространение в СМИ, сетях телекоммуникаций или Интернете: установлена ответственность в виде штрафа от 50 до 100 БРВ с конфискацией орудий совершения административного правонарушения.

Р. В. Нигматуллин доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой международного права и международных отношений, заместитель директора по международной деятельности и связям с общественностью Института права Башкирского государственного университета, в своей статье “Цифровая дипломатия как инструмент внешней политики” говорит, что “В XXI в. дипломатические отношения осуществляются с учётом новых реалий. Во взаимоотношениях государств стала внедряться публичная дипломатия, одной из составляющей которой является цифровая дипломатия. Сегодня в дипломатическом процессе участвуют граждане разных стран мира, опосредовано влияя на формирование внешнеполитического курса ведущих государств.

Первостепенным направлением цифровой дипломатии стало общение с интернет-аудиторией”[^4].

Основными составляющими публичной дипломатии являются международное гуманитарное сотрудничество, сотрудничество государств в образовательной сфере, экспертная дипломатия, а также цифровая дипломатия. Как утверждает Министр иностранных дел Российской Федерации Сергей Лавров: “Социальные сети – это часть нашей жизни, как личной, так все больше и больше профессиональной. Потому что без социальных сетей, наверное, сейчас ни одна профессия не может обойтись, а дипломатия тем более. Одна из задач дипломатии – распространять информацию, разъяснять то, чем занимается та или иная страна”[^5].

Сегодня в политической жизни используются новые технологии (блоги, специальные сайты: Facebook, Twitter, YouTube, в том числе страницы в социальных сетях). За последние 10 лет 90% всех государств-членов ООН создали свои аккаунты в Twitter, а 88% открыли учетную запись в Facebook.

Как утверждает Зайлиддинова Барно Нажмиддиновна магистрант факультета международных отношений Университета Мировой Экономики и Дипломатии в своей научной статье “Цифровая дипломатия в Узбекистане: современные тенденции и перспективы развития в эпоху глобализации”: “В Узбекистане цифровая дипломатия активно внедряет социальные сети и онлайн-платформы для установления и поддержания контактов с представителями других стран. Этот стратегический подход способствует открытому обмену информацией, облегчает диалог и формирует положительный образ страны в мировом сообществе. Аналитический отчет компании We Are Social 14 отмечает, что 76,6% постоянного населения Узбекистана являются интернет-пользователями. Взаимодействие с популярными социальными медиа, такими как Twitter, Facebook, YouTube, Flickr, LinkedIn и другие, укрепляет позиции Узбекистана в цифровой сфере дипломатии, обеспечивая открытость, доступность и международный успех”[^6].

В качестве вывода можем сказать, что развитие цифровых технологий и роль искусственного интеллекта растёт и усиливается с каждым годом, а иногда и быстрее. Международная и национальные правовые системы иногда не успевают уследить за изменениями в этой области. Регулирование и приспособление к

такому родам изменений не всегда удаётся своевременно. От государств требуется решение таковых задач путём принятий, дополнений или изменений в свои нормативные акты соответствующих норм, и конечно же, укрепление и усиление международного сотрудничества в сфере цифровых технологий и внедрения искусственного интеллекта. В свою очередь, цифровая дипломатия это – тесная современная и удобная связь государственных органов с живой аудиторией, которая требуют своевременных и качественных решений тех или иных задач по поводу международного публичного и международного частного уровня вопросов возникающих нередко среди населения.

**Использованная литература и источники:**

- Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. 2004 г., №, ст.10; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2014 г., № 36, ст. 452; Национальная база данных законодательства, 30.03.2021 г., № 03/21/679/0256; 11.09.2024 г., № 03/24/959/069
- [https://dunyo.info/ru/news/uzbekistan-i-indiya-ukreplyayut-sotrudnichestvo-v-sfere-cifrovoy](https://dunyo.info/ru/news/uzbekistan-i-indiya-ukreplyayut-sotrudnichestvo-v-sfere-cifrovoy)
- https://inlibrary.uz/index.php/digteclaw/article/view/137650#google_vignette
- [https://kultura.uz/view_2_r_15947.html](https://kultura.uz/view_2_r_15947.html)
- [https://www.academia.edu/117694073/](https://www.academia.edu/117694073/)

[^2]: Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. 2004 г., №, ст.10; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2014 г., № 36, ст. 452; Национальная база данных законодательства, 30.03.2021 г., № 03/21/679/0256; 11.09.2024 г., № 03/24/959/0698

[^3]: https://dunyo.info/ru/news/uzbekistan-i-indiya-ukreplyayut-sotrudnichestvo-v-sfere-cifrovoy

[^4]: https://inlibrary.uz/index.php/digteclaw/article/view/137650#google_vignette

[^5]: https://kultura.uz/view_2_r_15947.html
[^6]: https://www.academia.edu/117694073/

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SAYYOR NOTARIAL HARAKATLARNI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI

***K.Z.Ahmedova***
*Sarbon universiteti o‘qituvchisi*
***A.X.Payzullayev***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida notariat sohasini raqamlashtirish sharoitida sayyor notarial xizmatlarni rivojlantirish va yanada takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. O‘zbekistonda notariuslarning an’anaviy idora uslubidan mobil va zamonaviy raqamli xizmatlar ko‘rsatish shakliga o‘tish jarayoniga qaratilgan. Muallif maqolada zamonaviy texnologiyalar yordamida jamiyatimizdagi, aholimiz sog‘lig‘ida muammosi bor insonlarga huquqiy xizmatlardan foydalanishlarining afzallliklari, xalqaro tajriba va milliy qonunchilikdagi yangiliklarga to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, sayyor notarius xizmatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Notariat, sayyor notarius, raqamlashtirish, huquqiy xizmat, xalqaro tajriba, , raqamli xizmatlar, takomillashtirish.

**Kirish.** **“**Vaqt- bu bugungi kunning eng qimmatli valyutasi” dir. Insoniyat tarixida huquq har doim turg‘unlik va barqarorlik timsoli bo‘lib kelgan.Huquq endida nafaqat himoya qilishi, balki harakatda bo‘lishi ham lozimdir. Nega deb savol beradigan bo‘lsak, adolat faqat qog‘ozlarda yoki muhtasham idoralarning ichida yashasa, u hayotdan balki butun borliq, zamonaviy raqamlashtirilgan xizmatlardan uzilib qolish ehtimollari yuqori darajada bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy sayyor notarius-bu shunchaki xizmat ko‘rsatish shakli emas, bu huquqning inson qadriga tomon quygan eng dadil qadamdir.Qonun ustuvorligi davlatning asosi bo‘lsa, sayyor notariat o‘sha asosning qon-tomirlari deya takidlashimiz mumkin. Ushbu maqolada biz shunchaki texnik jarayonlar haqida emas, balki qog‘ozbozlikdan raqamli ishonchga, navbatlardan masofasiz xizmatlarga o‘tayotgan yangi o‘zbek notariatining zamonaviy qiyofasi-sayyor notariuslar faoliyatining tub ahamiyatini, mohiyatini va shakllanishini tahlil qilamiz. Fransiya va Germaniya davlatlarda notariuslar “ommaviy xizmat vakili” sifatida

masofaviy hududlarga chiqish grafigiga ega. Ularda notariusning mijoz huzuriga borishi nafaqat xizmat, balki fuqaroning xususiy mulk daxlsizligini ta’minlashdagi davlat kafolati sifatida ko‘riladi. Sayyor notarial harakatlarni yanada takomillashtirish - bu shunchaki notariusning bino tashqarisiga chiqishi emas, balki Adliya tizimining xalqchil va moslanuvchan modelini yaratishdir.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda jahon miqiyosida sayyor notariat tushunchasi keng qamrovga egadir. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yildagi islohotlaridan so‘ng, notariat sohasi xususiy sektorga o‘tkazilishi bilan birga, "sayyor notarial harakatlar" tushunchasi huquqiy maydonda yangi mazmun kasb etmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun huquqiy tenglikni ta’minlovchi muhim ko‘prikdir. “Sayyor notarial harakatlar - bu huquqiy xizmatlar inklyuzivligini ta’minlovchi mexanizm bo‘lib, jismoniy imkoniyati cheklangan yoki harakatlanishi qiyin bo‘lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi”[107]. Zamonaviy sayyor notariat bu shunchaki “ko‘chma xizmat” emas, balki davlat va fuqarolar o‘rtasidagi ishonchning yangi bosqichidir.O‘zbekiston sharoitida ushbu tizimning keng ko‘lamda tatbiq etilishi, birinchidan bu huquqiy preventivaning (oldini olishning) eng yuqori shaklidir. Statsionar idorada notarius ko‘pincha “tayyor hujjatlarni tasdiqlovchi” subyekt bo‘lib qolsa, sayyor sharoitda u bitim ishtirokchilarining haqiqiy irodasi shakllangan muhitga bevosita kirib boradi. Bu esa, ayniqsa, keksalar yoki og‘ir bemorlar ishtirokidagi vasiyatnoma va hadya shartnomalarida “nuqsonli iroda” (irodaning erkin emasligi) xavfini minimal darajaga tushiradi[108]. Uyda yoki shifoxonada amalga oshiriladigan sayyor harakatlar davomida notarius shaxsning ruhiy holatini, irodasi erkinligini va bosim ostida emasligini bevosita kuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Bu o‘zgalar mulkini noqonuniy egallab olish (reyderlik) holatlarining oldini oladi. Bu shakl notariat tizimini takomillashtiradi, aholini erkinligi va daxilsizligini yanada mustahkamlaydi.Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar bilan qurollangan sayyor notarius **“**mobil huquqiy kiber-makon**”** yaratadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan planshet va biometrik identifikatsiya qurilmalari notariusning ish stolini masofaviy tarzda markazlashgan ma’lumotlar bazasiga ulaydi. Bu esa “sayyor” tushunchasining

[107] Mamatqulov H. O‘zbekiston Respublikasida notariat: islohotlar va istiqbollar. Monografiya. – T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2023. – B. 88.
[108] Isakov H.M. Notariat: Darslik. – T.: "Adolat", 2021. – B. 142.

mazmunini “jismoniy harakat”dan “texnologik ochiqlik”ka o‘zgartiradi. Natijada, har qanday hudud - notarial idoraning virtual, yani sayyor bo‘linmasiga aylanadi[109]. Uchinchidan, xalqaro qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, sayyor notariatning rivojlanishi bevosita “notarial mediatsiya” imkoniyatlarini kengaytiradi. Tomonlar o‘rtasida o‘zaro nizo mavjud bo‘lgan joyda, masalan, meros mulki yoki bo‘linishi kerak bo‘lgan tadbirkorlik ob’ekti ustida notariusni taklif etishlari orqali, bitimni joyida va nizolarni bartaraf etgan holda imzolashlari mumkin bo‘ladi. Bu esa sud tizimidagi yuklamalarni keng ma’noda sezilarli darajada kamaytirishning tizimlashtirilgan asosli turi hisoblanadi.

Sayyor notarial harakatlarni yanada takomillashtirish - bu shunchaki notariusning bino tashqarisiga chiqishi emas, balki Adliya tizimining xalqchil va moslanuvchan modelini yaratishdir. Maqolada ushbu jarayonning huquqiy asoslarini "Notariat to'g'risida"gi Qonun va xalqaro standartlar doirasida tahlil qilish, sohaning ertangi kuni uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonuni 11-moddasida notarial harakatlar notariusning xizmat binosida amalga oshirilishi belgilangan bo‘lsa-da, qonunchilik muayyan holatlarda (fuqaroning kasalligi, nogironligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra kelolmasligi) sayyor tartibda xizmat ko‘rsatishga huquqiy yo‘l ochib bergan [110]. Biroq, bugungi islohotlar davrida sayyor notariat tushunchasi faqatgina "borish imkoniyati cheklanganlar" uchun emas, balki "vaqtni tejashni xohlovchi iqtisodiy subyektlar" uchun ham ochiq bo‘lishi lozim. Xalqaro amaliyot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, sayyor notarial harakatlarni kengaytirishda quyidagi uchta ustuvor yo‘nalishni milliy tizimga tatbiq etishimiz lozimdir.

**Gibrid sayyor modelni joriy etish:** Bu modelda notarius jismonan mijoz huzuriga brogan holda, barcha ma’lumotlarni markazlashgan "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga planshet orqali onlayn rejimda kiritadi. Bu jarayonda elektron raqamli imzo va bulutli texnologiyalardan foydalanish bitimning xavfsizligini ta’minlaydi. Amalga oshiriladigan bu jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda sayyor notarius tizimini yanada takomillashtirishga zamin yaratadi.

---

[109] Samandarov B.S. Notariat sohasini raqamlashtirishning huquqiy masalalari: milliy va xorijiy tajriba. // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – №8. – B. 42.

[110] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Notariat to‘g‘risida. (Yangi tahriri) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz). — 2024. (Ushbu manbada sayyor harakatlarning protsessual tartibi bayon etilgan).

**Notarial okruglar doirasidagi cheklovlarni liberallashtirish:** Hozirda sayyor harakatlar muayyan notarial okrug bilan cheklangan. Istiqbolda, raqamli notariat rivojlanishi bilan, sayyor xizmatlarning hududiy qamrovini kengaytirish masalasini ko‘rib chiqish lozim. Bu raqobatni oshirish va xizmat sifatini yaxshilashga xizmat qiladi[111]. Chekka joylarda aholi notarius xizmatidan foydalanmoqchi bo‘lsa, shaharga mablag‘, vaqt sarflab kelishiga to‘g‘ri keladi. Bu jarayon esa aholini, yoshi keksa, sog‘lig‘ida muammosi bo‘lgan insonlarga muammo to‘g‘diradi. Sayyor notariusni liberallashtirish, aholi va davlatimiz uchun juda mhim jarayonlardan biridir.

**Mobil notariatning ijtimoiy funksiyasini kuchaytirish:** Davlat xizmatlari markazlari bilan integratsiyalashgan "Mobil adliya" avtobuslari orqali chekka hududlarda haftalik sayyor qabullarni tashkil etish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish bilan birga, notarial xizmatlarning ommabopligini ta’minlaydi. Bundan ko‘zlangan maqsad vaqtni boy bermaslik, inson omili kamaytirilgan, ammo bevosita muloqotga asoslangan sayyor xizmatlar shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan g‘oyadir.

**Korrupsiyaning oldini olish va huquqiy bo‘shliqlarni batamom yo‘qotish:** Zamonaviy notariat tizimini isloh qilishning bosh maqsadi - inson omilini minimallashtirish orqali korrupsiyaviy holatlarga barham berish va bitimlarning huquqiy tozaligini ta’minlashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi PF-5816-sonli Farmoni bilan notariat tizimining xususiy sektorga o‘tkazilishi, sohada ochiqlik va shaffoflikni oshirishga qaratilgan[112]. Biroq, notarial harakatlarning tabiati, xususan, ko‘chmas mulk oldi-sotdisi va meros ishlaridagi o‘ziga xosliklar korrupsiya xavflari yuqori bo‘lgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Notariat sohasida korrupsiyaning oldini olishning asosiy omili - bu huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirish va “raqamli notariat” tizimini to‘liq joriy etishdir. “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 2020-yilgi tahririda notariuslarning huquqiy va

[111] Juraev A. Z. Notariat sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning huquqiy muammolari. Monografiya. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022. — B. 89. (Muallif sayyor notariatning hududiy cheklovlari va ularni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilgan).

[112] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5816-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – [Elektron resurs]. – Kirish tartibi: lex.uz (Murojaat vaqti: 24.05.2024).

texnik tusdagi harakatlari aniq belgilangan bo‘lsa-da, “yashirin” korrupsion xavflar (masalan, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki manfaatlar to‘qnashuvi) hali ham davom etmoqda. Sayyor notarit tizimi mana shu omillarni kamaytirishda samarali foyda keltiradi. Ularni oldini olish uchun, inson omilini tizimli kamaytirish, ya’ni notarial to‘lovlarni to‘liq onlayn tarzda, jumladan, QR-kodlar orqali amalga oshirish mexanizmini ta’minlash, bu esa notariusning mijoz bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy manfaatdorlik munosabatiga kirishishini istisno qiladi[113]. Raqamlashtirish va “E-notarius.uz” tizimini, notarial harakatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishini kengaytirish, notariuslarning malakasini oshirish va ularning korrupsiyaga qarshi murosasizligini ta’minlashni huquqiy jihatdan kuchaytirish lozim. Notarial palata tomonidan notariuslar faoliyatini muntazam ravishda tizimli tahlil qilish, korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan hududlar va harakatlar bo‘yicha “reyting” tizimini joriy etish.

Amaliyotda sayyor xizmatlar ko‘rsatishda ayrim huquqiy bo‘shliqlar ham mavjud. Masalan, sayyor tartibda tasdiqlangan hujjatning videotasviri va audio yozuvini saqlash bo‘yicha yagona texnik talablar ishlab chiqilishi kerak. Bu kelgusida bitim yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni sud tartibida hal etishda asosiy dalil bo‘lib xizmat qiladi. Sayyor notariusni takomillashtirish shu yuzaga kelgan bo‘shliqlarni barham berishda sezilarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xususan amaliyotda notarial harakatlardagi imzolar soxta ekanligi haqida sudlarga ko‘plab da’volar kiritilayotganligini inobatga olib, bu muammoning yechimi quyidagicha bo‘lib, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarni ro‘yhatga olishning elektron tizimini notariat sohasiga tadbiq qilish bo‘lib - bunda biometrik pasportga kiritilgan fuqarolarning barmoq izlari “Notarius” ma’lumot bazasiga kiritiladi va fuqarolar skaner barmoqlarini bosishi orqali ular haqidagi ma’lumotlar “Notarius” yagona elektron tizimida kelib chiqadi. Zamonaviy sayyor notariusni O‘zbekiston notariat tizimiga kirib kelishi bir qancha yengilliklar olib kelmoqda, xususan notarial harakatlarni amalga oshirish uchun murojaat qilgan shaxslarning shaxsini aniqlash va notarial harakatlar bajarganligini tasdiqlashda ularning barmoq izlarini skaner qilish joriy etildi,

[113] Notarius xizmatlari uchun to‘lovlarni onlayn tarzda amalga oshirish // Kun.uz (Adliya vazirligi tomonidan QR-kod joriy etilishi).

vasiyatnomalarni va ayrim turdagi bitim, ariza va boshqa hujjatlarni imzolash jarayoni majburiy audio va video qayd etish lozimligi bu sayyor notariusni o‘zgacha yaqqol ko‘rinishidir.

**Chet el tajribasiga nazar tashlaydiga bo‘lsak:** Estoniya dunyoda birinchilardan bo‘lib “E-notary” tizimini joriy etgan. Bu yerda sayyor notariat tushunchasi “virtual idora” darajasiga chiqarilgan[114]. 2020-yildan boshlab joriy etilgan videokonsultatsiya tizimi notariusga mijozning qayerda ekanligidan qat’i nazar, u bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkonini beradi.

**Xususiyati:** Shaxsni aniqlash “Smart-ID” va biometrik yuzni tanish tizimlari orqali amalga oshiriladi. Hujjatlar raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

**O‘zbekiston uchun roli:** Estoniya modeli asosida bizda “E-notarius” portalidagi xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, ayniqsa, chet eldagi fuqarolarimiz uchun ishonchnomalarni masofadan rasmiylashtirishda samarali yordam beradi.

O‘zbekiston sharoitida sayyor notariatning huquqiy maqomini “shoshilinch yordam” darajasidan yuqori texnologik “servis xizmati” darajasiga ko‘tarish zaruriyati mavjud. Bu nafaqat aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, balki biznes subyektlari uchun ham “tranzaksion xarajatlarni” kamaytirishga xizmat qiladi. Masofaviy va sayyor xizmatlarning sintezi natijasida vujudga keladigan “Gibrid notariat” modeli kelajakda sohaning ustuvor yo‘nalishiga aylanishi shubhasiz. “Bugungi kunning zamonaviy notariusi - bu faqatgina idorada o‘tirib hujjat tasdiqlovchi shaxs emas, balki “mobil huquqiy maslahatchi” hamda yuqori texnologik yechimlar operatoridir. Sayyor notarial harakatlarning takomillashishi natijasida notarius o‘z faoliyatida jismoniy makon va vaqt chegaralarini yengib o‘tib, jamiyatning eng olis va ehtiyojmand qatlamlariga qadar “huquqiy xavfsizlik filtri” bo‘lib kirib bormoqda. Zero, zamonaviy notariatning istiqboli - an’anaviy huquqiy tamoyillar bilan raqamli imkoniyatlarning uyg‘unlashuvi orqali inson manfaatlari uchun xizmat qiluvchi “aqlli va harakatchan” tizimni barpo etishda namoyon bo‘ladi."[115]

**Xulosa.**

---

[114] **Estonian Chamber of Notaries.** *The Development of Remote Authentication in Estonian Notary System.* – Tallinn, 2021. – P. 14-16.

[115] **Mamatqulov H.** O‘zbekiston Respublikasida notariat: islohotlar va istiqbollar. Monografiya. – T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2023. – B. 172.

O‘zbekiston Respublikasida sayyor notarial harakatlarni rivojlantirish – bu shunchaki texnik yangilanish emas, balki davlat xizmatlarining ”inson qadri uchun” tamoyili asosida transformatsiya bo‘lishidir. Bu zamonaviy sayyor notariat tizimini rivojlantirish O‘zbekiston rivoji uchun davlatlar o‘rtasidagi pog‘onasi ancha yuqorilaydi. “Sayyor notarial harakatlar - bu huquqiy xizmatlar inklyuzivligini ta’minlovchi mexanizm hisoblanadi, jismoniy imkoniyati cheklangan yoki harakatlanishi qiyin bo‘lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan hodisa sifatida gavdalanadi”. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, keksa yoshli insonlar manfatini ko‘zlab qolmay, vaqti chegaralangan, ishdan vaqt ortira olmaydigan shaxslarni manfatlari, jamiykiy isnson huquqlarini yanada mustahkamlashdir. Bu harakatlar mobaynida nizoli holatlar har xil korrupsion holatlarni oldini olish, xavfsizlik tomonidan hamda sud tizimiga yangicha samarali xizmat sifatida ko‘rib chiqiladi. Sayyor notarius harakatlarida bevosita notarius fuqaroning huzuriga borganda, uning dori vositalari ta’sirida emasligini, o‘z harakatlarini anglayotganini va hech qanday bosim ostida emasligini shaxsan tekshiradi. Bu esa davlat tizimda yangicha bir stategik yuksalish bo‘ladi. Maqolada o‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

Birinchidan, sayyor notariat tizimi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun huquqiy xizmatlar inklyuzivligini ta’minlashning eng samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, raqamlashtirish jarayonlari, xususan, biometrik identifikatsiya va “E-notarius” tizimining tatbiq etilishi sayyor xizmatlar davomida xavfsizlikni ta’minlash hamda “nuqsonli iroda” shakllanishi yoki korrupsion holatlarning oldini olishda muhim filtr vazifasini o‘taydi. Uchinchidan, xalqaro tajriba, xususan Estoniya modeli, kelajakda sayyor notariatning “virtual idora” shakliga o‘tishi muqarrar ekanligini ko‘rsatmoqda. Istiqbolda sayyor notarial harakatlarni takomillashtirish uchun notarial okruglar doirasidagi cheklovlarni liberallashtirish, “Gibrid sayyor model”ni keng joriy etish va mobil adliya xizmatlari bilan integratsiyani kuchaytirish lozim. Bu islohotlar nafaqat fuqarolarning vaqti va mablag‘ini tejaydi, balki O‘zbekiston notariat tizimining xalqaro maydondagi nufuzini oshirib, jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, sayyor notariat institutining istiqboldagi taraqqiyoti bevosita “notarial preventiv faoliyat” samaradorligini oshirish bilan bog‘liqdir. Ya’ni, notariusning bevosita fuqaro yashayotgan yoki faoliyat yuritayotgan muhitga kirib borishi –

nizolarning kelib chiqish ehtimolini “ildizidan” bartaraf etish imkonini beradi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu tizimni takomillashtirishda nafaqat texnik bazani yangilash, balki huquqiy tartib-taomillarni unifikatsiya qilish ham dolzarb vazifadir. Xususan, sayyor xizmatlar davomida olingan audio va video materiallarning yagona elektron arxivini yaratish, kelgusida sud jarayonlarida shubhasiz dalillar bazasi sifatida xizmat qiladi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekistonda sayyor notariatning rivojlanishi – bu huquqning statik (qo‘zg‘almas) holatdan dinamik (harakatchan) holatga o‘tishidir. Bu jarayon davlat va jamiyat o‘rtasidagi masofani qisqartirib, huquqiy xizmatlarni har bir fuqaro uchun, uning geografik joylashuvi va jismoniy holatidan qat’i nazar, teng darajada ochiq va xavfsiz bo‘lishini kafolatlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Notariat to‘g‘risida. (Yangi tahriri) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5816-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

3. Mamatqulov H. O‘zbekiston Respublikasida notariat: islohotlar va istiqbollar. Monografiya. – T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2023.

## INTERNET TARMOG‘IDA EKSTREMISTIK MATERIALLARNI TARQATISHGA QARSHI KURASHISHDA O‘ZIGA HOS YONDASHUVLAR

***T.A.Xomidov***
*Toshkent davlat transport universiteti*
*mustaqil izlanuvchisi*

Mamlakatimiz huquq tizimida Internet tarmog‘ida ekstremistik materiallarni tarqatishga qarshi kurashish bo‘yicha quyidagi tizim ko‘zga tashlanadi. Monitoring natijasida taqiqlangan axborot mavjud bo‘lgan Internet tarmog‘i axborot resursi aniqlangan taqdirda Markaz tomonidan bir ish kuni mobaynida Internet tarmog‘i axborot resursida taqiqlangan

axborot mavjudligi yuzasidan xulosa tayyorlanadi. Markaz xulosasida quyidagilar aks etgan bo‘lishi kerak: xulosa qabul qilingan sana; monitoring o‘tkazish uchun asos; o‘rganish predmeti (taqiqlangan axborot aniqlangan axborot resurslari ro‘yxati); o‘tkazilgan monitoring natijalari.

Monitoring natijalarini ekspertizadan o‘tkazish uchun Markaz Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 5-avgustdagi 228-son qarori bilan tashkil etilgan Ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi ekspert komissiyasiga[^2] murojaat qilishga haqli hisoblanadi.

Umuman olganda, mavjud tizimni samarali va Internet tarmog‘ida ekstremizmga qarshi kurashish uchun yetarli darajada tayyorlangan deb tan olish lozim.

Fikrimizcha, Internet tarmog‘i orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga ixtisoslashgan mansabdor shaxslardan iborat maxsus bo‘linmalarni tashkil etish, ushbu axborot makonida ekstremizmning tarqalishiga qarshi kurashish sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida Internet jahon axborot tarmog‘ida ekstremizmning tarqalishiga qarshi kurashishning mavjud tizimining afzalliklarini ta’kidlab va tegishli o‘zgartirishlarni taklif qilar ekanmiz, ko‘rib chiqilayotgan choralarni qo‘llash mexanizmining ochiqligi muammosini va bloklangan resurslar egalari o‘z veb-saytlariga kirish nima sababdan to‘sib qo‘yilganligi haqida ma’lumot yo‘qligida o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini qanday himoya qilishlari mumkinligini alohida qayd etish lozim.

Bunday cheklov choralarini qo‘llash mexanizmining shaffofligi masalasi haqiqatan ham dolzarbdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha markazi tomonidan axborot resurslarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tarqatilishi taqiqlangan axborotlar aniqlanganda Markaz tomonidan 24 soatdan kechiktirmasdan axborot resurslari egasi, shuningdek blogerga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tarqatilishi taqiqlangan axborotlarni olib tashlash to‘g‘risida xabarnoma yuboriladi. Xabarnoma Markazning rasmiy axborot resurslari (elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlardagi rasmiy sahifa) orqali elektron shaklda yuboriladi.

Xabarnomada O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tarqatilishi taqiqlangan axborot joylashtirilgan axborot resursining nomi, axborot joylashtirilgan sana ko‘rsatiladi, taqiqlangan axborotga havola va uning ekrandagi tasviri nusxasi ilova qilinadi, shuningdek qo‘shimcha

ravishda ushbu axborotni tarqatish uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlik to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilishi mumkin[^3].

Axborot resursi egasi, shuningdek bloger xabarnomani olgan vaqtdan boshlab 24 soatdan kechiktirmasdan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tarqatilishi taqiqlangan axborotni olib tashlashi, shuningdek bu to‘g‘rida Markazni uning rasmiy axborot resurslari orqali elektron shaklda yoki qog‘oz shaklida xabardor qilishi lozim.

Internet tarmog‘ida ekstremizmga qarshi kurashish institutini tartibga solishda quyidagi yangiliklarni kiritishni taklif qilamiz. Xususan, Internet tarmog‘ida ekstremizmga qarshi kurashishga qaratilgan protsessual harakatlarni amalga oshirishda ma’muriy cheklash choralarini qo‘llashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish samarali chora bo‘lishi mumkin. Masalan, mansabdor shaxsning fikricha, ekstremistik mazmundagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kontentni tezkor tarzda bloklash tartibini o‘rnatish lozim.

Bu bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasiga o‘rganadigan bo‘lsak, Ispaniyada politsiya internetdagi ekstremizmni aniqlash uchun kiber-monitoring tizimidan foydalansa,[^4] Fransiyada ekstremizmning katta qismi onlayn platformalar orqali tarqaladi, shuning uchun politsiya ma’muriy tarzda saytlar va akkauntlarni bloklaydi[^5].

Shuningdek, Fransiya parlamenti 2020 yil mayda Germaniyaniki kabi qonun qabul qilib, ekstremistik kontentni o‘chirish muddatini atigi 1 soat etib belgiladi[^6].

Ko‘rib chiqilayotgan sohada ma’muriy cheklash choralarini qo‘llash jarayonini tezlashtirish uchun mansabdor shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi (unga bo‘ysunuvchi prokurorlar) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha markazini xabardor qilgan holda ma’lum bir manbani bloklash to‘g‘risida mustaqil ravishda qaror chiqarish vakolatini berish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha markazi mazkur xabarnomani olgan kuni talab qilingan harakatlarni amalga oshirishi shart. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha markazi xabarnoma tuzuvchisiga uni bajarish

imkonsizligi haqida ko‘rsatma berish yoki kiritilgan choralarni bekor qilishni talab qilish huquqiga ega.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Internet jahon axborot tarmog‘i fuqarolarning axborot olish, fikr bildirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, ta’lim olish va davlat xizmatlaridan foydalanish kabi ko‘plab huquqlarini amalga oshirishning asosiy vositasiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi”[^7] deb belgilab qo‘yilgan.

Biroq raqamli muhitning jadal rivojlanishi bilan birga undan noqonuniy foydalanish holatlari ham ortib bormoqda. Ma’muriy huquqbuzarliklarning muayyan qismi aynan Internet jahon axborot tarmog‘i orqali sodir etilmoqda, bu esa amaldagi ma’muriy jazo tizimini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Amaldagi ma’muriy jazo choralari – jarima, ma’muriy qamoq, ogohlantirish va muayyan huquqdan mahrum etish – umumiy xarakterga ega bo‘lib, ular raqamli muhitda sodir etilgan huquqbuzarliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini har doim ham inobatga olmaydi. Xususan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali sodir etilgan huquqbuzarliklarda huquqbuzarlik vositasi aynan axborot-kommunikatsiya tarmog‘i hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, jazo chorasining huquqbuzarlik vositasi bilan funksional bog‘liqligi ta’minlanmagan holatlarda profilaktik samaradorlik pasayishi mumkin.

Xulosa o‘rnida ма’muriy huquq nazariyasida jazo chorasi huquqbuzarlikning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib bo‘lishi lozimligi e’tirof etiladi. Bu prinsip mutanosiblik tamoyili deb ataladi. Agar huquqbuzarlik muayyan huquqni amalga oshirish jarayonida sodir etilgan bo‘lsa, ayni shu huquqni cheklash maxsus prevensiya vositasi sifatida samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, transport vositasini boshqarish qoidalarini buzganlik uchun haydovchilik huquqidan mahrum

etish jazosi qo‘llaniladi. Bu holda jazo huquqbuzarlik sodir etilgan sohani cheklash orqali takroran huquqbuzarlikning oldini olishga xizmat qiladi.

[^2]: https://lex.uz/docs/-1847330. Murojaat qilingan sana: 04.02.2026-yil.

[^3]: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrda “Butunjahon internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 707-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-3893085. Murojaat qilingan sana: 04.02.2026-yil.

[^4]: Elektron manba: https://www.interior.gob.es. Murojaat qilingan sana: 09.03.2026-yil

[^5]: Elektron manba: https://www.interieur.gouv.fr. Murojaat qilingan sana: 09.03.2026-yil

[^6]: Elektron manba: State Department – Country Reports on Terrorism (https://2009-2017.state.gov/j/ct/rls/crt/2013/224822.htm). Murojaat qilingan sana: 09.03.2026-yil

[^7]: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi. https://lex.uz/docs/6445145. Murojaat qilingan sana: 15.02.2026-yil

# БАНК ТИЗИМИ ВА МАРКАЗИЙ БАНКНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИ

***К.И.Нуримова***
*Sarbon universiteti*
*талабаси*

**Аннотация**. *Ушбу мақолада банк тизими ва марказий банкнинг молиявий-ҳуқуқий мақоми тўғрисида фикр юритилди. Давлатимизда иқтисодий ислоҳотларнинг биринчи босқичида белгилаб қўйилган Марказий банк бошчилигида кенг тармоқли мустақил тижорат ва хусусий банклар икки босқичли банк тизими ҳақида ҳуқуқий мулоҳаза қилинган.*

**Калит сўзлар:** *банк тизими, Марказий банк, банк фаолияти, вазифалар, ҳуқуқий мақом, ҳуқуқ, тижорат банклари*

Республикада банк-молия тизимини янада ривожлантириш ва такомиллаштириш борасида мамлакат банк тизими тарихини ўрганиш, унинг бой тажрибасидан фойдаланиш, шунингдек, илғор чет эл тажрибасини ўрганиш, мамлакатнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда уни жорий этиш имкониятларини ўрганиш жуда ҳам долзарб муаммолардан биридир. Чунки, Республика инвестицион фаоллигининг оширилиши ва

барқарор иқтисодий ўсишга эришилиши устун даражада банк тизимининг ҳолати ва унинг самарали фаолият юритиши билан боғлиқдир. Республика банк тизимини янада такомиллаштириш хўжалик юритувчи субъектлар эркинлигини кенгайтириш ҳамда уларнинг ўз пировард натижалари учун жавобгарлигини ошириш билан боғлиқ жараёнлар кейинги йилларда сезиларли даражада ривожлантирилмоқда[^2].

Ҳозирги замонавий банк тизими ғарбий Европа ва Шимолий Америка мамлакатларида XIIX аср иккинчи ярмида ташкил топган бўлсада, унинг илдизлари ўрта асрларга бориб тақалади[^3].

Хорижий давлатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, мамлакат иқтисодиётининг ўсиши бозор инфратузилмасининг самарали фаолият кўрсатиши билан узвий боғлиқдир. Банк тизими бозор инфратузилмасининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Чунки банклар иқтисодиётни молиявий маблағлар билан таъминлаш, ташқи иқтисодий алоқаларни молиялаштириш, тўловларни амалга ошириш ҳамда аҳолига турли молиявий хизматларни кўрсатишда муҳим роль ўйнайди. Шунинг учун ҳам мамлакатимиз мустақилликка эришган дастлабки йиллардаёқ бозор иқтисодиётига муваффақиятли ўтиш учун замонавий банк тизимини яратиш устувор йўналиш сифатида илгари сурилди[^4].

Амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижасида банк хизматларининг янги турларини жорий этиш Ўзбекистонда банк тизими барқарорлигини таъминлашнинг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади. Юртбошимиз таъбири билан айтганда, бу борада замонавий банк хизматларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017–2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳам “банк тизимини ислоҳ қилиш, банклар депозит базасининг капитализациясини чуқурлаштириш ва барқарорлигини ошириш, уларнинг молиявий 5 барқарорлигини ва ишончлигини мустаҳкамлаш, истиқболли инвестицион лойиҳалар ҳамда кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларини кредитлаштиришни янада кенгайтириш; янги турлардаги суғурта, лизинг ва бошқа молиявий хизматларнинг ҳисобига уларнинг хажмини кенгайтириш ва сифатини ошириш, капитални жалб қилиш ҳамда корхона, молиявий институтлар ва ахолининг эркин ресурсларини жойлаштиришдаги муқобил манба

сифатида фонд бозорини ривожлантириш” вазифаси белгилаб олинди[^5].

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан сўнг, ўзининг барча соҳалари каби, банк соҳасини ҳам қайта ташкил этди. Ўзбекистон Республикасида банк тизимининг ривожланишини икки босқичга бўлинади.

Биринчи босқичда замонавий банк тизимининг асослари яратилди. 1991-йил 15-февралда қабул қилинган «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги қонуннинг қабул қилиниши билан Ўзбекистон Республикасида банк тизими тубдан ўзгартирилиб, тижорат банклари ташкил этилди. 1994-йил 1- июлдан бошлаб Ўзбекистон Республикасининг миллий валютаси– «сўм» жорий этилди. СЎМнинг жорий этилиши банк тизимига ўзининг таъсирини кўрсатди. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида банк операциялари (масалан, ҳисоб-китоблар) миллий валютада амалга оширила бошланди. 1995- йил 21- декабрда – Ўзбекистон Республикасининг «Марказий банки тўғрисида»ги қонун қабул қилинди. Ушбу қонун банкларнинг банки ҳисобланган – Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг ҳуқуқий ҳолатини белгилаб берди.

Шундай қилиб, Ўзбекистон Республикасида, бошқа ривожланган давлатларнинг банк тизими сингари, икки поғонали банк тизими ташкил этилди.

Ўзбекистон Республикаси банк тизимининг биринчи поғонасини – Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва унинг Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри ва вилоятлардаги ҳудудий бошқармалари ташкил этади. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ягона марказлаштирилган бошқарув тизими бўлиб ҳисобланади.

Марказий банк банкларнинг банки деб аталади ва у Ўзбекистон Республикаси банк тизимининг ўзагини ташкил этади. Марказий банк Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг банкири, маслаҳатчиси ва фискал агенти (хазина вакили) ҳисобланади.

Марказий банк банк соҳасидаги марказий ижро ҳокимияти ҳисобланади ва тижорат банкларига нисбатан, бошқариш ваколатига эга. Ўзбекистон Республикаси банк тизимининг иккинчи поғонасини – тижорат банклари ташкил этади. «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги қонунга биноан **банк** – банк ҳисобварақларини очиш ва юритиш, тўловларни амалга ошириш, омонатларга (депозитларга)

пул маблағларини жалб этиш, ўз номидан кредитлар бериш бўйича банк фаолияти сифатида аниқланган операциялар мажмуини амалга оширувчи тижорат ташкилоти бўлган юридик шахс[^6].

Юқорида таъкидланганидек Ўзбекистонда банк тизими икки поғонали бўлиб, банк тизимининг биринчи поғонаси – бу Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, иккинчи поғонаси эса – тижорат банклари, уларнинг шуъбалари, чет эл банклари шуъбалари ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси банклар тизимини кенгайтирилган ҳолда қуйидаги расмда келтириш мумкин.

1 – расм.**Ўзбекистон Республикаси банк тизими таркиби**

Манба: фойдаланган адабиёт маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган

Ўзбекистон Республикаси банк тизими бугунги кунда банк хизматларининг анъанавий соҳалари – кредитлаш, депозит операциялари, ҳисоб-китоб ва касса каби хизматларини кўрсатувчи 31 та тижорат банкидан ташкил топган.

Банк секторида давлат устун мавқега эга – 31 та банкдан 13 тасининг капиталида давлат иштироки мавжуд бўлиб, уларнинг

капитали банк тизими жами капиталнинг 87 фоизидан кўпроғини, активлари эса умумий активларнинг 85 фоизидан кўпроғини ташкил қилади[^7].

Бозор иқтисодиёти шароитида Марказий банкнинг асосий мақсади – пул-кредит тизими ва валюта барқарорлигини таъминлаш асосида иқтисодий ўсишга эришишдан иборатдир.

Ўзбекистон Республикасининг «[Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида](http://lex.uz/ru/docs/4590452)»ги Қонуни 3-моддасига мувофиқ Марказий банк юридик шахс бўлиб, у давлатнинг мутлақ мулкидир ва ўз харажатларини ўзининг даромадлари ҳисобидан амалга оширади. Марказий банк ўз ваколатлари ҳамда вазифалари доирасида давлат ҳокимияти ва бошқарувининг бошқа органларидан мустақил равишда қарорлар қабул қилади.

Ўзбекистон Республикасининг «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Қонуни 4-моддасига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки банк фаолияти соҳасини тартибга солувчи ва лицензиялаш, тартибга солиш ҳамда пруденциал назорат бўйича ваколатларни амалга оширувчи давлат органидир.

Марказий банк фаолиятининг асосий мақсадлари:

- нархларнинг;
- банк тизимининг;
- тўлов тизимлари ишлашининг барқарорлигини таъминлашдан иборатдир.

Марказий банк фаолиятининг вазифалари эса қуйидагилардан иборат:

пул-кредит сиёсатини, шу жумладан валюта сиёсатини ишлаб чиқади ва амалга оширади;

Ўзбекистон Республикасида инфляция даражасини мониторинг, таҳлил ва прогноз қилади, тегишли ахборот материалларини ҳамда статистик маълумотларни эълон қилади;

Ўзбекистон Республикасининг тўлов балансини, халқаро инвестициявий мавқеини, ташқи қарзини ва захира активларини ўз ичига олган банк, пул-кредит статистикасини, ташқи сектор статистикасини шакллантиришни ҳамда эълон қилишни амалга оширади;

ҳар йили Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматига Давлат бюджети лойиҳасини тайёрлашга доир тавсияларни ўз ичига олган иқтисодий ва молиявий масалалар бўйича ахборотни тақдим этади;

нақд пул муомаласини ташкил этади;

валютани тартибга солишни ва валютани назорат қилишни амалга оширади;

валюта операциялари бўйича бухгалтерия ҳисоби, статистик ҳисоботлар ва бошқа ҳисоботлар мақсадлари учун, шунингдек Ўзбекистон Республикаси ҳудудида божхона ҳамда бошқа мажбурий тўловларни ҳисоблаб чиқариш учун валюта курсини мунтазам равишда белгилаб боради;

банкларни ва кредит бюроларини давлат рўйхатидан ўтказишни амалга оширади;

банкларнинг, микрокредит ташкилотларининг, ломбардларнинг, тўлов ташкилотларининг, тўлов тизимлари операторларининг, валюта биржаларининг, кредит бюроларининг фаолиятини ва қимматли қоғозлар бланкаларини ишлаб чиқаришни лицензиялайди, шунингдек кредит ташкилотларининг, тўлов ташкилотларининг, тўлов тизимлари операторларининг, валюта биржаларининг, кредит бюроларининг ва банклар гуруҳларининг фаолиятини тартибга солади ҳамда ушбу фаолият устидан назоратни амалга оширади;

ҳукуматнинг фискал агенти вазифаларини бажариш учун зарур бўлган банк операцияларини ва бошқа битимларни мустақил равишда ёки Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг топшириғига биноан амалга оширади;

Ўзбекистон Республикасида тўлов тизимлари барқарор ишлашини таъминлаш чораларини кўради;

ички назорат қоидаларига ҳамда жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш билан боғлиқ ахборотни махсус ваколатли давлат органига тақдим этиш тартибига Марказий банк томонидан лицензияланадиган ташкилотларнинг риоя этиши юзасидан мониторинг ҳамда назоратни амалга оширади;

Халқаро валюта фондининг Ўзбекистон Республикаси валютасидаги маблағлари депозитарийси ҳисобланади, операцияларни ва битимларни, шу жумладан Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларида назарда тутилган операциялар ва битимларни амалга оширади;

кредит ташкилотлари хизматлари истеъмолчилари ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳимоя қилинишини таъминлаш, молиявий

хизматларнинг очиқлигини ҳамда аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг молиявий саводхонлиги даражасини ошириш чораларини кўради;

Ўзбекистон Республикасининг халқаро захираларини, шу жумладан келишувга кўра Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг захираларини бошқаришни, ҳисобга олишни ва сақлашни амалга оширади[^8].

Мамлакатнинг Марказий банки молиявий сиёсат ва унинг таркибий қисми бўлган пул-кредит сиёсатини амалга оширишда муҳим рол ўйнаб, у Ғазначилик тизими органлари билан биргаликда бюджетнинг касса ижросини таъминлайди ва бошқа кредит институтларининг фаолиятини назорат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқаруви раисининг Сенатга қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда тақдим этилган ҳар йилги ҳисоботи Сенатнинг навбатдаги мажлисида дастлаб Бюджет ва иқтисодий ислоҳотлар масалалари қўмитаси томонидан кўриб чиқилади. Ушбу ҳисоботини эшитиш якунлари бўйича Сенат қарор қабул қилади, қарор Ўзбекистон Республикаси Марказий банкига юборилади[^9]

Марказий банк назорат функсияларини бажариш бўйича ўз ваколатларини амалга ошириш юзасидан банк операцияларини амалга ошириш, бухгалтерия ҳисобини юритиш ва банк статистик ҳисоботини юритиш, йиллик ҳисоботларни тузиш учун банклар томонидан бажарилиши мажбурий бўлган қоидаларни белгилайди.

Марказий банкка қуйидаги ҳуқуқлар берилган:

банклардан ҳисоботлар ва бошқа ҳужжатларни олиш ва текшириш, уларнинг фаолияти, жумладан операциялари тўғрисида ахборот, маълумотларни сўраш ва олиш;

олинган ахборот, маълумотлар бўйича тушунтиришлар талаб қилиш;

банкларнинг ички аудити бўйича талаблар белгилаш;

банк активларини сифат бўйича тасниф қилиш ва активлар бўйича кўрилиши мумкин бўлган зарарларни қоплаш учун шундай захиралар тузишни талаб қилиш;

банкларга улар фаолиятида аниқланган тартиббузарликларни бартараф этиш бўйича бажарилиши мажбурий бўлган ёзма буйруқлар, кўрсатмалар жўнатиш[^10].

Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки халқаро молия ташкилотларининг алоқа агентлиги ва авуарлар депозитарийси

ҳисобланади ва Ўзбекистон Республи-касининг мазкур муассасаларга аъзолиги билан боғлиқ операцияларни амалга ошириш ваколатига эга.

Адабиётларга банк тижорат ташкилоти сифатида тивсифланади. Бу ташкилот жисмоний ва юридик шахсларнинг тижорат оцерацияларига хизмат курсатиш учун даъват этилган бўлиб, фойда олиш учун уз таваккалчилиги ва хатарига асосан ҳаракат қилади. Шу билан бирга, бозор иқтисодиёти мамлакатлари банк тизимида тижорат фойдасии олиш банкларнинг асосий вазифаларидан биридир. Аммо бу вазифа ўзлари учун устувор ҳисобланмаган банклар ҳам мавжуд бўлиб, улар уз иш фаолиятини кўзлаган мақсадларига мувофиқ равишда олиб бормокда.

Гап Марказий банклар ҳақида кетяпти, уларнинг асосий вазифаси мамлакат бутун кредит тизимига раҳбарлик қилиш, ҳукумат молия операцияларини амалта ошириш, тижорат банкларининг вақтинча бўш турган маблағларини ва мажбурий захираларини сақлаш ва ҳоказолардан иборат[^11].

2020 – 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегиясида Молиявий секторни изчил ислоҳ қилиш давомида қатор чора-тадбирлар амалга оширилди ва натижада илғор банк бизнесини юритиш ҳамда ушбу секторда рақобат муҳитини кучайтириш учун зарур ҳуқуқий шарт-шароитлар яратилди.

Хусусан, халқаро стандартларга мувофиқ келадиган ва молиявий соҳага хорижий инвестициялар киритиш учун жозибадор ҳуқуқий муҳитни яратадиган Ўзбекистон Республикасининг «[Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида](https://lex.uz/docs/4590452)»ги, «[Банклар ва банк фаолияти тўғрисида](https://lex.uz/docs/4581969)»ги, «[Валютани тартибга солиш тўғрисида](https://lex.uz/docs/4562834)»ги ҳамда «[Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида](https://lex.uz/docs/4575786)»ги янгиланган қонунлари қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикасининг ҳукумати билан келишган холда Молия вазирлиги ва Марказий банк юқорида қайд этилган халқаро ташкилотлар олдидаги қарз маблағлар олиш, тўлов фоизларини бериш ва республика номидан қарз мажбуриятларини жойлаштириш билан боғлиқ молиявий мажбуриятларнинг ўз вақтида бажаришни таъминлайди.

Банк тизими ҳар қандай давлат молия тизимининг энг муҳим элементларидан бири ҳисобланади. У иқтисодий ўсишни таъминлаш, инфляция (пул қадрсизланиши) ва тўлов балансини тартибга солиш каби жорий ва устивор вазифаларни ҳал этиш учун фойдаланилади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, мамлакатимизда яратилган замонавий банк тизими иқтисодий ютуқларга эришишимизда муҳим роль ўйнади. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг амалга ошириб келаётган ислоҳотлари, унинг молиявий-ҳуқуқий мақомига асосланган ҳолда банк тизимини тубдан такомиллаштиришда муҳим аҳамиятга эга.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ


- Ўзбекистон Республикасининг 11.11.2019 йилдаги “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида”ги ЎРҚ-582-сон Қонуни;
- Ўзбекистон Республикасининг 05.11.2019 йилдаги ««Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги ЎРҚ-580-сон Қонуни;
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 12.05.2020 йилдаги «2020 – 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-5992-сон Фармони;
- Адик Ли. Л49, Ўзбекистон Республикаси молия ҳуқуқи: Юридик олий ўқув юртлари учун дарслик / Масъул муҳаррир: М.Ҳ.Рустамбоев – Т.: Тошкент Давлат юридик институти, 2004. – 398 бет.
- Ташматов Ш. Молия ва кредит тизимида банк муассасалари фаолиятининг мустақиллик йилларида ривожланиши // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар”. – Т., 2/2011.
- Додиев Ф. Ўзбекистон банк тизимининг шаклланиши ва ривожланиши // «Банклар ва молия бозорлари / Банки и финансовые рынки». – Т., 8/2013.
- Маликов Т.С., Олимжонов О.О. Молия. Дарслик / Тошкент Молия институти. – Тошкент: 2019. – 969 бет.;
- Ҳожийев Э., Камалов О., Артиков Б., Молия ҳуқуқи: Маърузалар курси /. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012.– 299 б.

[^2]: Ташматов Ш. Молия ва кредит тизимида банк муассасалари фаолиятининг мустақиллик йилларида ривожланиши // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар». – Т., 2/2011. –1–7–б.

[^3]: Ҳожийев Э., Камалов О., Артиков Б., Молия ҳуқуқи: Маърузалар курси /. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012.– 299 б.

[^4]: Додиев Ф. Ўзбекистон банк тизимининг шаклланиши ва ривожланиши // «Банклар ва молия бозорлари / Банки и финансовые рынки». – Т., 8/2013. –37–41–б.

[^5]: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 7 феврал 2017 йилдаги ПФ-4947 сонли 2017–2021 йилларга мўлжалланган "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" Фармони

[^6]: Ўзбекистон Республикасининг 05.11.2019 йилдаги ««Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги ЎРҚ-580-сон Қонуни. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.11.2019 й., 03/19/580/3994-сон; 07.01.2020 й., 03/20/600/0023-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон; 20.04.2023 й., 03/23/831/0219-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 07.02.2024 й., 03/24/905/0106-сон; 22.02.2024 й., 03/24/911/0142-сон; 21.09.2024 й., 03/24/964/0736-сон; 12.02.2025 й., 03/25/1026/0131-сон; 19.02.2025 й., 03/25/1031/0160-сон; 18.04.2025 й., 03/25/1058/0355-сон; 24.06.2025 й., 03/25/1070/0536-сон)

[^7]: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 12.05.2020 йилдаги «2020 – 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-5992-сон Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.10.2021 й., 06/21/6325/0972-сон; 30.12.2021 й., 06/21/42/1224-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон; 10.06.2022 й., 06/22/152/0507-сон; 27.04.2023 й., 06/23/62/0232-сон; 07.07.2023 й., 06/23/108/0460-сон; 13.07.2023 й., 06/23/109/0469-сон; 25.05.2024 й., 06/24/80/0364-сон; 28.12.2024 й., 06/24/227/1089-сон; 22.04.2025 й., 06/25/70/0375-сон)

[^8]: Ўзбекистон Республикасининг 11.11.2019 йилдаги “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида”ги ЎРҚ-582-сон Қонуни, 12-модда. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари

миллий базаси, 12.11.2019 й., 03/19/582/4014-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон; 30.03.2022 й., 03/22/760/0249-сон, 21.04.2022 й., 03/22/765/0332-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 21.09.2024 й., 03/24/964/0736-сон; 12.02.2025 й., 03/25/1026/0131-сон; 19.02.2025 й., 03/25/1031/0160-сон; 17.04.2025 й., 03/25/1057/0351-сон 18.04.2025 й., 03/25/1058/0355-сон; 24.06.2025 й., 03/25/1070/0536-сон)

[^9]: Маликов Т.С., Олимжонов О.О. Молия. Дарслик / Тошкент Молия институти. – Тошкент: 2019. – 969 бет. (164-бетда).

[^10]: Маликов Т.С., Олимжонов О.О. Молия. Дарслик / Тошкент Молия институти. – Тошкент: 2019. – 969 бет. (187-бетда).

[^11]: Адик Ли. Л49, Ўзбекистон Республикаси молия ҳуқуқи: Юридик олий ўқув юртлари учун дарслик / Масъул муҳаррир: М.Ҳ.Рустамбоев – Т.: Тошкент Давлат юридик институти, 2004. – 398 бет. (303-бетда).

# ТРАНСПОРТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ТЕРРОРИЗМ ТУШУНЧАСИ ВА БУ БОРАДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРНИНГ ЎРНИ

***Т.А.Хомидов***
*Тошкент давлат транспорт университети*
*Мустақил изланувчиси*

**Анотатсия.** Транспорт хавфсизлигини таъминлашда терроризм тушунчаси, турлари бу борада қабул қилинган ҳалқаро конвенцияларга асосланган ҳолда транспорт терроризмини турлари санаб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Транспорт, терроризм, темир йўл, хаво кемаси, давлат автомабил, денгиз.

Замонавий глобаллашув шароитида транспорт тизими ҳар қандай давлатнинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий барқарорлигида ҳал қилувчи ўрин тутади. Темир йўллар, авиация, автомобиль ва денгиз транспорти орқали инсонлар ва юклар ҳаракатланади, бу эса миллий ва халқаро алоқаларни таъминлайди. Бироқ айнан шу тизимнинг очиқлиги ва кенг қамровлилиги уни терроризм учун жозибадор нишонга айлантиради. Транспорт соҳасидаги терроризм

нафақат инсонлар ҳаётига хавф туғдиради, балки давлат иқтисодиётига катта зарар етказиши, аҳоли ўртасида қўрқув ва ишончсизлик муҳитини келтириб чиқариши билан ҳам хавфлидир.

Транспорт соҳасида терроризм тушунчаси ҳуқуқий жиҳатдан терроризм тушунчаси турли халқаро ва миллий ҳужжатларда белгиланган. Умуман олганда, терроризм – бу сиёсий, диний ёки бошқа мақсадларда аҳолига қўрқув солиш, давлат органларига таъсир кўрсатиш ёки жамоат хавфсизлигини бузиш мақсадида содир этиладиган зўравонлик ҳаракатлари мажмуидир. Транспорт соҳасида терроризм эса транспорт воситалари, инфратузилмаси ёки улар билан боғлиқ объектларга қарши қаратилган террорчилик ҳаракатларини англатади. Бу турдаги терроризмга самолётларни олиб қочиш, поездларни портлатиш, метро ёки вокзалларда ҳужумлар уюштириш каби ҳаракатлар киради. Халқаро ҳуқуқий асослар транспорт соҳасида терроризмга қарши курашиш бўйича бир қатор халқаро конвенциялар қабул қилинган. Мисол учун уларни айримларига тўхталиб ўтсак:

1. 1963 йил 14 сентябрда Токиода имзоланган “**Ҳаво кемасининг бортида содир этиладиган жиноятлар ва бошқа ҳаракатлар ҳақида**” Токио конвенцияси – самолёт парвозда ёки очиқ денгиз майдонидан ёки бирон бир давлат чегарасидан ташқарида бўлган бошқа ҳудуддан ташқарида бўлган ҳар қандай ҳаво кемасида, Аҳдлашувчи давлатда рўйхатдан ўтган ҳар қандай самолётда содир этилган қоидабузарликлар ёки ҳаракатларга нисбатан қўлланилиши[^2];

2. 1970 йил 16 декабрь куни Гаагада имзоланган “**Ҳаво кемаларини ноқонуний олиб қочиш билан курашиш тўғрисида**” конвенция – ҳаво кемаларини ноқонуний олиб қочишга қарши бўлиб, фақат жиноят содир этилган ҳаво кемасининг учиш жойи ёки ҳақиқий қўниш жойи рўйхатдан ўтказиш давлат ҳудудидан ташқарида бўлса, қўлланилади; ҳаво кемаси ички авиакомпанияларда халқаро парвоз ёки парвозни амалга оширганми ёки йўқми муҳим эмас[^3];

3. 1971 йил 23 сентябрь куни Монреалда имзоланган “**Фуқаро авиацияси хавфсизлигига таҳдид солувчи ғайриқонуний актларга қарши кураш тўғрисида**”конвенцияси – фуқаро авиацияси хавфсизлигига қарши қаратилган ҳаракатларнинг олдини олишга қаратилган[^4].

Ушбу ҳужжатлар давлатлар зиммасига транспорт хавфсизлигини таъминлаш, террорчилик ҳаракатларини олдини олиш ва айбдор шахсларни жазолаш бўйича аниқ мажбуриятлар юклайди. Юқридаги ҳалқари конвенцияларга асосланиб, биз ўз транспорт соҳасида терроризмнинг қуйидаги турларини санаб ўтдик:

- Авиация терроризми – бу энг хавфли турлардан бири ҳисобланади. Самолётларни олиб қочиш, портлатиш ёки улардан қурол сифатида фойдаланиш ҳолатлари кузатилади. Бу каби ҳужумлар катта инсон қурбонликларига олиб келиши мумкин.
- Темир йўл транспортида терроризм – бу поездлар, вокзаллар ва темир йўл инфратузилмасига қаратилган ҳужумлар. Бундай ҳужумлар кўплаб йўловчилар жамланган жойларда амалга оширилиши сабабли хавфи юқори.
- Автомобиль транспортида терроризм – бу автомобиль йўлларида портлашлар, автобусларга ҳужумлар ёки транспорт воситаларидан портловчи қурилма сифатида фойдаланиш ҳолатлари шу турга киради.
- Денгиз ва дарё транспортида терроризм – бу кемаларни олиб қочиш, портларда диверсиялар уюштириш, нефть ташувчи танкерларга ҳужум қилиш каби ҳаракатлар мазкур турга мансуб.
- Метро ва шаҳар жамоат транспортида терроризм – метро станциялари, автобус бекатлари каби жамоат жойларида амалга ошириладиган ҳужумлар аҳоли орасида кучли қўрқув уйғотишга қаратилган бўлади.

Хорижий тажриба дунё давлатлари транспорт терроризмига қарши курашишда турли ёндашувларни қўллаб келмоқда. Масалан, АҚШда 2001 йил 11 сентябрь воқеаларидан кейин транспорт хавфсизлиги кескин кучайтирилди. Аэропортларда текширув тизими такомиллаштирилди, йўловчилар ва юкларни текширишда замонавий технологиялар жорий этилди.

Европа давлатларида эса жамоат транспортида видеокузатув тизимлари кенг жорий этилган. Буюк Британияда “Prevent” дастури орқали радикаллашувнинг олдини олишга алоҳида эътибор қаратилади.

Исроил тажрибаси ҳам диққатга сазовор. У ерда транспорт хавфсизлиги инсон омилига таянади – махсус тайёргарликдан ўтган хавфсизлик ходимлари йўловчиларни кузатиш ва таҳлил қилиш орқали хавфни олдиндан аниқлашга ҳаракат қилади.

Замонавий таҳдидлар сўнгги йилларда транспорт терроризми янги шакл ва услубларда намоён бўлмоқда:

- Кибертерроризм транспорт тизимларининг рақамлашуви уларни киберхужумлар учун заиф қилади. Масалан, темир йўл сигнал тизимларини бузиш ёки авиация бошқарувига аралашиш орқали катта фалокатлар келтириб чиқариш мумкин.

- Дронлардан фойдаланиш террористик гуруҳлар учувчисиз учиш аппаратларидан фойдаланиб транспорт объектларига ҳужум қилиш имкониятига эга бўлмоқда

- Якка шахслар томонидан амалга ошириладиган ҳужумлар

“Лонер” деб аталувчи шахслар томонидан амалга ошириладиган ҳужумлар олдиндан аниқлашни қийинлаштиради.

- Оммабоп транспорт воситаларидан қурол сифатида фойдаланиш

Юк машиналари ёки автомобиллар орқали одамлар тўпланган жойларга қасддан кириб бориш ҳолатлари кўпаймоқда.

Ҳуқуқий чоралар ва таклифлар транспорт соҳасида терроризмга қарши курашиш учун қуйидаги чоралар муҳим аҳамиятга эга:

-Миллий қонунчиликни халқаро стандартларга мувофиқлаштириш;

-Транспорт инфратузилмасини муҳофаза қилиш тизимини кучайтириш;

-Замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш;

-Халқаро ҳамкорликни ривожлантириш;

-Аҳоли ўртасида ҳуқуқий маданиятни ошириш.

Хулоса ўрнида транспорт соҳасида терроризм глобал хавфлардан бири бўлиб, у жамият хавфсизлиги ва барқарорлигига жиддий таҳдид солади. Унинг олдини олиш учун комплекс ёндашув, ҳуқуқий асосларни мустаҳкамлаш ва халқаро тажрибадан самарали фойдаланиш талаб этилади. Замонавий таҳдидлар шароитида давлатлар ўзаро ҳамкорликни кучайтириб, инновацион технологиялардан фойдаланган ҳолда транспорт хавфсизлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратиши зарур.

[^2]: https://lex.uz/ru/docs/2656932 (Murojaat qilingan sana 25.04.2026 yil)

[^3]: https://www.lex.uz/acts/2665191 (Murojaat qilingan sana 25.04.2026 yil)

[^4]: https://lex.uz/docs/2698811?otherlang=3 (Murojaat qilingan sana 25.04.2026 yil)

# HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MEXANIZMI: TUSHUNCHASI, TUZILISHI VA BOSQICHLARI

***Sh.O.Ahmedova***
*Sarbon Universiteti talabasi*
*[shaxiinaxmedova5@gmail.com]*
*[Tel:+998990540272]*

**Annotatsiya:** Maqolada huquqiy tartibga solish mexanizmining nazariy asoslari, uning tarkibiy elementlari va amalga oshish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, huquqiy normalarning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri ko‘rib chiqilgan.

***Kalit so‘zlar:*** *Huquqiy mexanizm, norma, yuridik fakt, huquqiy munosabat, realizatsiya.*

## KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning samarali tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1]gi Farmonida belgilangan vazifalar yuridik fan oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ushbu Farmon ijrosini ta’minlash va huquqiy tizim samaradorligini oshirish bevosita huquqiy tartibga solish mexanizmini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish bilan bog‘liqdir.

Huquqiy tartibga solish mexanizmi – bu davlat va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni huquq normalari yordamida tartibga solish jarayonini aks ettiruvchi fundamental nazariy tushunchadir. Mazkur mexanizm huquq normalarining real hayotga tatbiq etilishini ta’minlab, subyektlarning huquqiy xatti-harakatlarini shakllantiradi hamda jamiyatda barqaror huquqiy tartib va qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmi tushunchasi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun qo‘llaniladigan huquqiy vositalarning (normalar, yuridik faktlar, huquqiy munosabatlar) yaxlit tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonning muhim qismi shundaki, u munosabat ishtirokchilarining yuridik huquq va

majburiyatlarini belgilaydi hamda ularning ro‘yobga chiqishini kafolatlaydi. Mazkur maqolaning maqsadi Huquqiy tartibga solish mexanizmining tarkibiy elementlari va amalga oshish bosqichlarini zamonaviy huquqiy islohotlar prizmasida tahlil qilishdan iborat

**Asosiy qism**

Huquqiy tartibga solish mexanizmi murakkab va ko‘p qirrali tizim bo‘lib, u bir necha tarkibiy elementlarning o‘zaro uyg‘unligidan tashkil topadi. Ular quyidagicha:

Huquq normalari: Bu mexanizmning boshlang‘ich nuqtasi va normativ asosi hisoblanadi. Unda davlat-hokimiyat irodasi bayon etiladi, ushbu norma orqali o‘rnatilayotgan huquqiy talab tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabat ishtirokchilariga yetkaziladi. Bugungi kunda O‘zbekiston qonunchiligida normalarning sifati “Inson qadri uchun” [2] tamoyili asosida takomillashtirilmoqda. Huquq normalari orqali davlat ijtimoiy munosabat ishtirokchilari uchun ruxsat etilgan, taqiqlangan yoki majburiy bo‘lgan xulq-atvor modellarini belgilaydi.[3]

Yuridik faktlar: HTSMni harakatga keltiruvchi omillar bo‘lib, ular muayyan huquqiy natijani keltirib chiqaradigan hayotiy holatlardir. Yuridik faktsiz huquq normasi passiv holatda qoladi va amaliy kuchga ega bo‘lmaydi. Yuridik faktlar -bu huquq normasida nazarda tutilgan va huquqiy natijaga sabab bo‘ladigan aniq hayotiy holatlardir.

Ular ikki guruhga bo‘linadi:

Yuridik harakatlar: Shaxslarning irodasiga bog‘liq bo‘lgan holatlar (masalan, shartnoma tuzish, ariza berish, vasiyatnoma yozish).

Yuridik voqealar: Shaxs irodasiga bog‘liq bo‘lmagan, lekin huquqiy natija keltirib chiqaradigan holatlar (masalan, muddatning o‘tishi, tabiiy ofat). Zamonaviy huquqiy tartibga solish mexanizmida “raqamli faktlar” (elektron imzo, avtomatik tranzaksiyalar) tushunchasi ham kirib kelmoqda.

Huquqiy munosabatlar: Normaning real hayotdagi ko‘rinishi bo‘lib, unda subyektlar o‘zaro yuridik huquq va majburiyatlar bilan bog‘lanadi. Aynan shu bosqichda huquq sub’ekti o‘z manfaatlarini qonuniy yo‘l bilan amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Huquqiy munosabatlar (Subyektlararo bog‘liqlik). Bu element orqali abstrakt qonun normasi aniq shaxslar zimmasiga tushadi. Misol qilib : “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda [4] hamma bilim olishga haqli (norma). Lekin talaba o‘qishga qabul qilingach, universitet va talaba o‘rtasida huquqiy munosabat yuzaga keladi. Endi universitetning “ta’lim berish” majburiyati va talabaning “bilim olish” huquqi aniq subyektlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Huquqiy munosabat – bu qonunning hayotda “ishlayotgan” holatidir.

Huquqni amalga oshirish hujjatlari: Subyektlar tomonidan huquq va majburiyatlarning bajarilishi jarayonini yakunlovchi va rasmiylashtiruvchi vositalardir. Huquqni amalga oshirish (realizatsiya) va uning hujjatlari - bu mexanizmning yakuniy nuqtasi bo‘lib, unda huquqiy natija rasmiylashtiriladi. Misol qilib aytadigan bo‘lsak : Agar ikki tadbirkor o‘rtasida nizo chiqsa va sud qarori chiqarilsa, ushbu sud qarori – huquqni qo‘llash hujjati hisoblanadi. U mexanizmning majburlov kuchini ko‘rsatib, buzilgan huquqni tiklaydi. Shuning uchun ham u vakolatli davlat idorasining, mansabdor shaxsning davlat-hokimiyat xarakteridagi hujjatidir. Huquqni amalga oshirish hujjatlari faqat sud qarori emas, balki nikoh guvohnomasi, diplom, mulkka egalik huquqi haqidagi reyestr ko‘chirmasi kabi shakllarda ham bo‘lishi mumkin. Ular qaror, farmoyish, buyruq, hukm va boshqa shakllardan iborat. Bu hujjatlarda huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari aniq ko‘rsatib beriladi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmi doirasida ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etishning ikki asosiy metodi mavjud:

Avtoritar (Imperativ) metod: Markazlashgan tartibga solishga asoslanadi. Subyektlarga qat’iy majburiyatlar yuklaydi va ularning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan qoidalarni o‘rnatadi (masalan, jinoiy va ma’muriy huquqda). Bu metod jamiyatda qat’iy intizomni ta’minlovchi mexanizm hisoblanadi.

Avtonomiya (Dispozitiv) metod: Subyektlarga erkinlik beradi. Taraflar o‘z huquq va majburiyatlarini o‘zaro kelishuv (shartnoma) asosida belgilaydi. Ushbu metod asosan fuqarolik va tadbirkorlik huquqida qo‘llaniladi va xususiy tashabbuslarni rag‘batlantiradi.[5] PF-232-sonli Farmon doirasida yuridik ilm-fanni rivojlantirishdan maqsad - ushbu ikki metod o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, ya’ni davlatning asossiz aralashuvini kamaytirib, xususiy huquqiy avtonomiyani kengaytirishdir.

**MUHOKAMA**

Huquqiy tartibga solish mexanizmi elementlarining o‘zaro aloqadorligini tahlil qilar ekanmiz, ushbu mexanizmning samaradorligi ko‘p jihatdan huquqiy vositalarning muvofiqligiga bog‘liqligini ko‘ramiz.

Birinchidan, zamonaviy huquqiy islohotlar sharoitida huquqiy tartibga solish mexanizmining dinamikasi o‘zgarmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi

tamoyili o‘rnatilishi huquqiy tartibga solish mexanizmining harakat doirasini kengaytirdi. Endilikda mexanizm nafaqat quyi qonun hujjatlariga, balki bevosita bosh qonun normalariga tayanib ishlay oladi.

Ikkinchidan, bugungi raqamli transformatsiya davrida “Raqamli Huquqiy tartibga solish mexanizmi” tushunchasi shakllanmoqda. Elektron davlat xizmatlari va raqamli platformalar orqali yuridik faktlarni qayd etish (masalan, elektron shartnomalar, onlayn arizalar, bank ilovalari orqali mikroqarz yoki kredit shartnomalarini rasmiylashtirish) inson omilini kamaytirib, mexanizmning tezkorligini va shaffofligini ta’minlamoqda.

Uchinchidan, Huquqiy tartibga solish mexanizmining bosqichma-bosqich rivojlanishi (norma yaratish -> munosabatga kirishish -> realizatsiya) jamiyatda barqarorlikni saqlashning kafolatidir. Agar ushbu zanjirning biror bo‘g‘inida, masalan, yuridik faktlarni noto‘g‘ri talqin qilishda muammo yuzaga kelsa, butun tartibga solish jarayoni o‘z samarasini yo‘qotadi. Shuningdek, mexanizmning samarali ishlashi faqatgina texnik vositalar yoki huquq normalarining sifatiga emas, balki jamiyat subyektlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Huquqiy madaniyat- bu huquqiy tartibga solish mexanizmining “intellektual dvigateli” bo‘lib, u normalarning ixtiyoriy va ongli ravishda bajarilishini ta’minlaydi. Mazkur masalaning dolzarbligi Prezidentning PF-232-sonli Farmonida ham alohida ta’kidlangan bo‘lib, unda yuridik ta’limni isloh qilish orqali nafaqat mutaxassislar tayyorlash, balki jamiyatda yuqori huquqiy madaniyatni shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Zero, huquqiy madaniyat darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatda huquqiy tartibga solish mexanizmi kamroq davlat majburlovini talab etadi va ko‘proq ixtiyoriy amal qilish (realizatsiya) bosqichida o‘z samarasini beradi..

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, huquqiy tartibga solish mexanizmi elementlar va metodlar uyg‘unligiga tayanuvchi dinamik tizimdir. Huquqiy tartibga solish mexanizmi ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi yaxlit tizim bo‘lib, uning samaradorligi elementlararo bog‘liqlik hamda avtoritar va avtonomiya metodlarining mutanosibligiga tayanadi. Mazkur mexanizmni takomillashtirish uchun, avvalo, PF-232-sonli Farmon doirasida yuridik ta’lim sifatini oshirish orqali jamiyatda yuqori huquqiy madaniyatni shakllantirish, bu orqali normalarning ixtiyoriy amal qilinishiga erishish lozim. Shuningdek, yuridik faktlarni qayd etishga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish

tezkorlikni ta’minlasa, xususiy huquq sohalarida avtonomiya metodini kengaytirish tadbirkorlik tashabbuslarini huquqiy qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Zero,huquqiy tartibga solish mexanizmini zamon talablariga moslashtirish huquqiy davlat poydevorini mustahkamlashning asosiy garovidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyarbr “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-232-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
- Saidov A.X., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2001.
- “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (murojaat sanasi : 09.05.2026) http://lex.uz//docs/-5013007
- Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. - Toshkent.: Yuridik adabiyotlar publish, 2025.


# MARKAZIY OSIYODA O‘ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY O‘RNI


***M.Sapoyev***
*Sarbon universiteti*
*talabasi*



**Annotatsiya**: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida O‘zbekiston Respublikasining geosiyosiy o‘rni, mintaqaviy hamkorlikdagi roli hamda strategik salohiyati keng tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakatning qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi, iqtisodiy taraqqiyot sur’atlari, transport-logistika tizimining rivojlanishi va xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish borasidagi tashabbuslari, mintaqaviy integratsiyani mustahkamlashdagi faol ishtiroki ilmiy asosda tahlil etiladi. Mamlakatning ochiq va pragmatik tashqi siyosati, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish borasidagi sa’y-harakatlari mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilayotgani ko‘rsatib beriladi. Maqolada O‘zbekistonning geosiyosiy mavqei nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda ham tobora ortib borayotgani asoslab beriladi.



**Kalit so‘zlar**: Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, geosiyosat, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya, iqtisodiy rivojlanish, transport-logistika, xavfsizlik.

**Kirish**: Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan savdo yo‘llari, madaniy almashinuv va siyosiy jarayonlar kesishgan hudud sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Buyuk Ipak yo‘li davridan boshlab ushbu hudud Sharq va G‘arbni bog‘lovchi strategik ko‘prik vazifasini bajargan. Bugungi kunda ham mintaqa tabiiy resurslarga boyligi, transport-kommunikatsiya yo‘llarining muhimligi hamda geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi bilan ajralib turadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi, barcha qo‘shni davlatlar bilan chegaradosh ekanligi hamda mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashdagi faol roli bilan alohida o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy o‘rni, strategik ahamiyati va mintaqaviy hamkorlikdagi roli tahlil qilinadi.

**Asosiy qism** O‘zbekistonning mintaqadagi geosiyosiy o‘rnini tahlil qilar ekanmiz, mamlakatning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O‘zbekistonning istiqboli qulay tabiiy sharoitlari, ulkan mineral xomashyo zaxiralari va strategik resurslari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlagan [1]. Uning fikricha, Markaziy Osiyoda markaziy o‘rin tutgan O‘zbekiston mintaqadagi kuchlar muvozanatini saqlash va hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda izchil islohotlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, keyingi yillarda qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi. “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”da innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, sanoat korxonalari va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2].

Mamlakatning demografik salohiyati ham uning geosiyosiy mavqeini belgilovchi asosiy omillardan biridir. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi 38 236 704 nafarga yetdi [3]. Bu ko‘rsatkich mamlakatni Markaziy Osiyodagi eng katta aholi salohiyatiga ega davlatga aylantiradi.

Iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari ham O‘zbekistonning mintaqadagi mavqeini mustahkamlamoqda. 2025-yil yakunlariga ko‘ra mamlakat yalpi ichki mahsuloti 147 milliard dollarga yetdi [4]. Investitsiyalar hajmining ortishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi va eksport salohiyatining kengayishi O‘zbekistonning mintaqadagi iqtisodiy yetakchiligini kuchaytirmoqda.

Mamlakatning transport-logistika salohiyati geosiyosiy ahamiyatini yanada oshiradi. O‘zbekiston orqali o‘tuvchi xalqaro temir yo‘l va avtomobil yo‘llari uni Markaziy Osiyoning muhim tranzit markaziga aylantirmoqda. So‘nggi yillarda logistika samaradorligi bo‘yicha xalqaro reytinglardagi o‘sish, temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va tranzit yuk hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatning strategik mavqeini mustahkamlamoqda

Harbiy salohiyat ham geosiyosiy o‘rinni belgilovchi muhim omildir. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari mintaqadagi eng kuchli harbiy tuzilmalardan biri bo‘lib, xalqaro reytinglarda munosib o‘rin egallagan. Bu mamlakatning nafaqat milliy xavfsizligini ta’minlash, balki mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini ham oshiradi.

Shuningdek, O‘zbekiston terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda faol siyosat olib bormoqda. Ayniqsa, Afg‘oniston bilan bog‘liq masalalarda mamlakatning tinchlikparvar tashabbuslari xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan qishloq xo‘jaligi, ekologiya, savdo-iqtisodiy aloqalar va xavfsizlik sohalaridagi hamkorligi tobora rivojlanib bormoqda. Bu borada Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari alohida ahamiyat kasb etadi. U BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida O‘zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyoga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini ta’kidlagan [5].

Geografik jihatdan O‘zbekiston quruqlik ichkarisida joylashgan bo‘lsa-da, uning tranzit salohiyati nihoyatda yuqori. Xitoy-Markaziy Osiyo-Yevropa transport yo‘laklari hamda Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyatlari mamlakatning geosiyosiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

**Xulosa**: Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan strategik davlat sifatida geosiyosiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari, yuksak demografik salohiyati va iqtisodiy rivojlanish sur’atlari mamlakatning mintaqadagi yetakchi o‘rnini belgilab bermoqda. Ayniqsa, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi, xalqaro tranzit yo‘laklaridagi ishtiroki va tashqi savdo aloqalarining kengayishi O‘zbekistonning geoiqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatning tinchlikparvar tashqi siyosati, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari Markaziy Osiyoda o‘zaro

ishonch va hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonning terrorizm, ekstremizm va boshqa transmilliy tahdidlarga qarshi kurashdagi faol pozitsiyasi mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida ham O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish va transport-kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish borasidagi sa’y-harakatlari uning geosiyosiy mavqeini yanada mustahkamlaydi. Natijada mamlakat nafaqat Markaziy Osiyoda, balki xalqaro maydonda ham muhim strategik hamkor sifatida o‘z nufuzini oshirib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, O‘zbekiston, 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. ZRU-630-son, 24.07.2020.
3. O‘zbekiston aholisi statistik ma’lumotlari.
4. O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar.
5. Bo‘ronov S. Sharq xavfsizlik va barqaror taraqqiyot muammolari. 326-327-betlar.

## YURIDIK TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

***S.H.Jalilova***
*Termiz davlat universiteti*
*talabasi*
*jalilovasabrina88@gmail.com*
*+998 77-186-18-05*

**Kirish.** XXI asr raqamli sivilizatsiya davri sifatida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga tub o‘zgarishlar olib kirdi. Global miqyosda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn, bulutli texnologiyalar va masofaviy o‘qitish platformalari keng joriy etilmoqda. Bu jarayon “raqamli transformatsiya” tushunchasi bilan ifodalanadi. Raqamli transformatsiya – bu tashkilot, soha yoki tizimning ish jarayonlarini, xizmatlarini va strategiyasini raqamli texnologiyalar yordamida tubdan o‘zgartirish jarayonidir [1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga muvofiq, har bir shaxsning bilim olish huquqi kafolatlanadi. Mazkur norma ta’limning innovatsion shakllarini, xususan elektron va masofaviy ta’limni rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda masofaviy ta’limni joriy etish masalalari alohida tartibga solinib, ularning huquqiy asoslari belgilab berilgan [7].

Yuridik ta’lim tizimi ushbu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Chunki huquqshunos kadrlar jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlovchi asosiy subyekt hisoblanadi. Zamonaviy yurist nafaqat normativ-huquqiy bazani mukammal bilishi, balki raqamli ma’lumotlar bazalari, elektron sud tizimlari, LegalTech platformalari bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- Tahlil va sintez usuli;
- Qiyosiy-huquqiy tahlil;
- Statistik ma’lumotlarni umumlashtirish;
- Xalqaro tajribani o‘rganish;
- Normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash.
- Xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida raqamli ta’lim samaradorligi o‘rganildi [1,2,4]

1. Raqamli transformatsiya va yuridik ta’limning evolyutsiyasi

Raqamli transformatsiya ta’limning uch asosiy komponentiga ta’sir ko‘rsatadi:

- Mazmun (content) - o‘rganilayotgan yoki taqdim etilayotgan materialning ichki mohiyati, ya’ni unda berilgan asosiy bilim, g‘oya va axborotlar majmui.
- Metodika (methodology) - ma’lum bir jarayonni qanday usullar va yo‘llar orqali amalga oshirish tizimidir.
- Baholash tizimi (assessment) - o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlash hamda ularning o‘zlashtirish darajasini o‘lchash usullari va mezonlari majmui.

Avvallari huquqiy manbalar bilan ishlash asosan kutubxona fondlari orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda elektron normativ-huquqiy ma’lumotlar bazalari asosiy axborot manbaiga aylangan. Milliy qonunchilik bazalarining raqamlashtirilishi talabalarga qonun

hujjatlarining amaldagi tahriri bilan ishlash imkonini bermoqda [7,8]. Bu huquqiy aniqlik, tezkorlik va dolzarblikni ta’minlaydi.

Jahon banki hisobotiga ko‘ra, raqamli ta’lim infratuzilmasi rivojlangan davlatlarda o‘quv jarayoni samaradorligi 20–30% ga oshgan [4].

2. Masofaviy ta’lim va LMS platformalarining roli

Masofaviy ta’lim tizimlari (Moodle, Google Classroom va boshqalar) quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Talabalar faoliyatini monitoring qilish;
- Interaktiv forum va muhokamalar;
- Onlayn test tizimi.

Pandemiya davrida masofaviy ta’lim global miqyosda majburiy mexanizmga aylandi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda dunyo bo‘yicha 1,6 milliarddan ortiq talaba onlayn ta’limga o‘tgan [2]. Yuridik ta’limda bu tizimlar sud qarorlarini tahlil qilish, kazuslar yechish va huquqiy muammolarni muhokama qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qildi.

3. Elektron normativ-huquqiy ma’lumotlar bazalari

Huquqshunoslikda tezkor axborotga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron ma’lumotlar bazalari:

- Qonunlarning amaldagi tahririni ko‘rsatadi;
- Sud amaliyotini taqdim etadi;
- Qidiruv tizimlari orqali tezkor natija beradi.

Axborotlashtirish to‘g‘risida Qonun davlat organlarida axborot tizimlaridan foydalanishni tartibga soladi [8].

4. Virtual sud jarayonlari va simulyatsiyalar

Virtual sud simulyatorlari yuridik ta’limda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar:

- Sud majlisini modellashtiradi;
- Dalillarni baholaydi;
- Protsessual hujjatlar tuzadi;
- Huquqiy pozitsiyani asoslaydi.

Bunday metod klinik yuridik ta’lim konsepsiyasiga mos keladi va kasbiy kompetensiyani oshiradi.

5. Sun’iy intellekt va LegalTech imkoniyatlari

LegalTech tushunchasi huquqiy faoliyatni avtomatlashtiruvchi texnologiyalarni anglatadi. Richard Susskind ta’kidlaganidek, kelajak yuristlari texnologiyani tushunmasdan muvaffaqiyat qozona olmaydi [9].

AI vositalari:

- Shartnomalarni avtomatik tahlil qilish;
- Sud natijalarini prognozlash;
- Huquqiy risklarni baholash;
- Hujjatlarni generatsiya qilish imkonini beradi.

Remus va Levy tadqiqotlariga ko‘ra, huquqiy kasblarning 20% ga yaqini qisman avtomatlashtirilishi mumkin [10].

6. Xorijiy tajriba

Xorijiy mamlakatlarda yuridik ta’limda raqamli platformalardan foydalanish tajribasi dunyo miqyosida juda keng. Jumladan:

Yevropa Ittifoqi. Yevropa Komissiyasining Digital Education Action Plan 2021–2027 dasturi doirasida ta’limni to‘liq raqamlashtirish va onlayn resurslarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3]. Yevropa universitetlarida masofaviy ta’lim va elektron platformalardan foydalanish nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, Germaniyada huquq fakultetlarida virtual sud mashg‘ulotlari orqali talabalar real ish yuritish tajribasiga ega bo‘ladi.

Buyuk Britaniya. London, Oxford va Cambridge universitetlarida virtual sud va elektron hujjat boshqaruvi tizimlari yordamida talabalarga amaliy ko‘nikmalar beriladi. Shuningdek, masofaviy platformalar (Moodle, Blackboard) yordamida kurs materiallari, test va monitoring tizimi birlashtirilgan. Bu tizim talabalarning o‘z-o‘zini baholash imkonini ham oshiradi.

Singapur va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari. Singapur va Malayziyada raqamli ta’lim tizimlari mamlakatning umumiy raqamli strategiyasi bilan bog‘langan. Ta’lim jarayoni sun’iy intellekt asosida moslashuvchan tarzda individual talabalarga moslashtiriladi. Virtual simulyatsiyalar orqali talabalar qonun loyihalarini tahlil qilish, sud muhokamalarini modellashtirish va qaror chiqarish jarayonini mashq qiladilar.

Xalqaro tashkilotlar tajribasi

OECD va UNESCO hisobotlariga ko‘ra, raqamli platformalar joriy etilgan davlatlarda ta’lim sifati sezilarli darajada oshgan [1,2]. Masalan, Kanadada elektron sud platformalari va virtual laboratoriyalar yordamida talabalarning huquqiy tafakkuri, analitik fikrlash va muammoni yechish qobiliyati yaxshilanadi. Shu tarzda, xorijiy tajribalar ko‘rsatadiki, raqamli platformalar nafaqat nazariy bilimlarni oshiradi, balki amaliy ko‘nikmalar, huquqiy tafakkur va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Bu tajribalarni

O‘zbekiston yuridik ta’limiga moslashtirish mumkin bo‘lib, virtual sud mashg‘ulotlari, LegalTech modullari va masofaviy ta’lim platformalarini joriy etish orqali talabalarning global raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

7. Taklif va tavsiyalar

- LegalTech fanini o‘quv dasturiga kiritish;
- Kiberxavfsizlik moduli joriy etish;
- Virtual sud laboratoriyalarini tashkil etish;
- Akademik halollik siyosatini kuchaytirish;
- O‘qituvchilar malakasini oshirish.

**Xulosa:** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar yuridik ta’lim tizimining sifat va samaradorligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi [1,13]. Raqamli transformatsiya sharoitida huquqshunos kadrlarni tayyorlash jarayoni an’anaviy nazariy modeldan interaktiv, amaliy va texnologik integratsiyalashgan modelga o‘tmoqda. Bu esa yuridik ta’lim mazmuni, metodikasi va baholash tizimining tubdan yangilanishini talab qiladi. Masofaviy ta’lim platformalari, elektron normativ-huquqiy ma’lumotlar bazalari, virtual sud simulyatsiyalari hamda sun’iy intellektga asoslangan LegalTech vositalari talabalarda quyidagi muhim kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- mustaqil huquqiy tahlil qilish ko‘nikmasi;
- tezkor va ishonchli axborot bilan ishlash malakasi;
- dalillarni baholash va asoslangan huquqiy xulosa chiqarish qobiliyati;
- raqamli muhitda ishlash va axborot xavfsizligini ta’minlash ko‘nikmasi.

Shuningdek, raqamli platformalar o‘quv jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlaydi, ta’lim sifatini monitoring qilish imkonini kengaytiradi hamda individual yondashuv asosida o‘qitish mexanizmlarini rivojlantiradi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirib, global raqamli makonda raqobatbardosh huquqshunos kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Biroq tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, raqamli ta’limni joriy etishda qator muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, hududlar o‘rtasida raqamli tengsizlik, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yetarli emasligi, akademik halollik bilan bog‘liq muammolar hamda sun’iy intellekt vositalaridan noto‘g‘ri foydalanish xavfi shular jumlasidandir.

Umuman olganda, yuridik ta’limni raqamlashtirish faqat texnologik yangilanish bilan cheklanmay, balki huquqiy tafakkur va kasbiy madaniyatning yangi bosqichga ko‘tarilishini anglatadi. Raqamli platformalardan oqilona va ilmiy asosda foydalanish orqali kelajak huquqshunoslarini global huquqiy makonda samarali faoliyat yurita oladigan, innovatsion fikrlaydigan hamda yuqori darajadagi raqamli kompetensiyaga ega mutaxassislar sifatida tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalar yuridik ta’limning barqaror rivojlanishini ta’minlash, uning sifatini oshirish va xalqaro integratsiyasini kuchaytirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


- OECD. Digital Education Outlook 2022.
- UNESCO. ICT in Education Report, 2021.
- European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027.
- World Bank. Education Technology Report, 2023.
- International Telecommunication Union. Measuring Digital Development, 2022.
- UNICEF. Digital Learning and Youth Report, 2023.
- Ta’lim to‘g‘risida Qonun.
- Axborotlashtirish to‘g‘risida Qonun.
- Susskind R. Tomorrow’s Lawyers: An Introduction to Your Future. Oxford University Press, 2017.
- Remus D., Levy F. Can Robots Be Lawyers? Harvard Journal of Law & Technology, 2016.
- Karimov B. Ta’limda raqamli transformatsiya. – Toshkent, 2021.


## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO TASHKILOTLARDAGI ISHTIROKI VA TASHQI SIYOSAT STRATEGIYASI


***Z.Bo‘riyeva***
*Sarbon universiteti*
*talabasi*


**Kirish:** XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi davlatlar o ‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning yanada kengayishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda har bir davlat o‘z tashqi siyosatini milliy manfaatlar asosida, zamon talablari va xalqaro hamkorlik tamoyillariga

tayangan holda olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqillik yillarida ochiq, pragmatik va ko‘pvektorli tashqi siyosat yo‘lini izchil amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz O‘zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlagan keng ko‘lamli ishlarni, milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosat yo‘lini davom ettiramiz. Olis va yaqinidagi barcha davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini, uzoq muddatli va ko‘pqirrali sheriklikni yanada kuchaytiramiz.”

Mazkur yondashuv mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Xususan, O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan o ‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda mintaqaviy va global barqarorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu bois, O ‘zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki va tashqi siyosat strategiyasini o‘rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

**Natijalar.** Mamlakatimiz jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosat olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida tez orada xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olindi va o‘zining tashqi siyosiy yo‘nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslab belgiladi. 1991-yil dekabrdan 1992-yil iyul oyigacha bo‘lgan davr ichida respublikamizni 111 davlat tan oldi. 2015-yilga qadar esa O‘zbekistonni 134 ta davlat tan olgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich yanada oshgan. 2021-yilda 138 ta mamlakat bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatilgan. Toshkent shahrida AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan davlatlarning elchixonalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonning ham ko ‘plab xorijiy mamlakatlarda diplomatik vakolatxonalari ochilgan. Hozirgi vaqtda poytaxtimizda 44 ta davlatning diplomatik missiyasi faoliyat ko ‘rsatmoqda.O'z navbatida, O'zbekistonning elchilari dunyodagi 46ta davlatlarda faoliyat kursatmoqdalar[1]. 1991-yil 8-dekabrda Minsk shahri yaqinida sovet ittifoqining barham topishi munosabati bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos solindi. MDHning vujudga kelishi haqidagi hujjatga dastlab Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorussiya davlatlari imzo chekdilar . 13-dekabrda Ashxobodda o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublika rahbarlarining kengashida hamdo'stlikni kengaytirish zarur

deb topdi. Natijada shu yili 21-dekabrda o'tkazilgan uchrashuvda jami 11 davlat jumladan, O'zbekiston ham MDHga a'zo bo'lib kirdi. Ular bu bitimda davlatlarning hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqarolarning harakati erkinligiga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy harakat va qurol-yarog'tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi[2].

BMT 1945-yil 24-oktyabrda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror 1943-yilda AQSh, Birlashgan Qirollik, Xitoy va Sovet Ittifoqi Tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida qabul qilingan. Ustavi esa 1945-yilda San-Fransisko konferensiyasida qabul qilingan. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2022-yilda esa ularning soni 193 taga yetgan. BMTning doimiy ish o‘rni, qarorgohi (shtab-kvartirasi) – Nyu York.[3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning maktubiga asosan Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlarining 1996-yil 2-oktabrda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan navbatdagi muvofiqlashtirish majlisida O'zbkiston tashkilotning to‘la huquqli a’zosi etib qabul qilindi "O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan keyin, 1992-yil 2-martda BMTga a'zo bo'ldi. Shu kuni BMTBosh Assambleyasi binosi oldida O'zbekiston davlat bayrog'i ko'tarildi. BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi faoliyat yurita boshladi. O'zbekiston Respublikasi madaniyat, ta'lim va fan masalalari bilan shug'ullanuvchi YUNESKO tashkilotiga ham a'zodir. O'zbekiston Respublikasi BMTning teng huquqli a'zosi sifatida ushbu eng nufuzli xalqaro tashkilotning maqsad va qoidalariga qat'iy amal qiladi[4].

Dastlabki davrda tashkilot Afrika va Osiyodagi 25 davlatni o‘zida birlashtirgan bo‘lsa, hozirda IHT tarkibida jami 57 davlat, (jumladan, O'zbekiston ham) shuningdek, Falastin ozodlik tashkiloti (FOT) mavjud. Bosniya va Gersegovina, Markaziy Afrika respublikasi, Rossiya Federasiyasi, shuningdek, Filippin milliy ozodlik harakati tashkilotda kuzatuvchilik maqomiga ega.

IHTning xalqaro maydondagi nufuzi yuqori bo‘lib, BMThuzuridagi maslahat beruvchi va hamkor tashkilot hisoblanadi.

Islom hamkorlik tashkilotining tashqi ishlar vazirlarining 1995-yilning oktyabrida Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari majlisida O'zbekistonga kuzatuvchi davlat maqomi berildi.

O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti bilan izchil o‘zaro hamkorlikni rivojlantirmoqda va uni muqaddas islom dini qadriyatlarini saqlash hamda rivojlantirish, musulmon xalqlar o‘rtasidagi birdamlikni mustahkamlash, ularning taraqqiyoti va ravnaqiga ko‘maklashishga qaratilgan samarali maydon deb biladi[5].

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti - eng yosh tuzilmalardan biri, biroq o ‘suvchanlik bilan rivojlanib borayotgan xalqaro tashkilot. O'zbekiston Respublikasi 2001-yil 15 iyun kuni asoschi davlatlaridan bri sifatida qo'shildi. ShHTning asosiy maqsadi mintaqaviy xavszlikni ta'minlash terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish savdo va transport aloqalarini rivojlantirish.

Bugungi kunda ShHT dunyodagi eng yirik mintaqaviy tashkilot hisoblanadi. Unga a’zo mamlakatlarning umumiy hududi 34 million kvadrat kilometrdan oshadi. Bu Yevroosiyo qit’asi hududining 60 foizdan ortig‘i, degan gap. ShHT mamlakatlarining umumiy aholisi 3,2 milliard kishini tashkil etadi, bu - dunyo aholisining qariyb yarmidir.[6]

Qolaversa O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosat faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi qonunning 4 -moddasiga kóra Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etish, Yevropa, Osiyo va jahon xavfsizlik tuzilmalariga integratsiyalashuv O‘zbekiston Respublikasi tegishli tuzilmalarining tashqi siyosiy faoliyatidagi eng muhim vazifadir[7].

Ochiq tashqi siyosatning faollashuvi natijasida xorijiy mamlakatlar bilan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashda salmoqli natijalarga erishildi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar sezilarli darajada kengaydi, xalqaro tashkilotlar bilan amaliy hamkorlik va xorijdagi vatandoshlarimiz bilan muloqot o‘rnatildi, dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar hal etilmoqda.[8]

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki va tashqi siyosat strategiyasi mamlakatning mustaqillikdan keyingi rivojlanishida muhim o'rin

egallaydi. O ‘zbekiston ochiq, pragmatik va ko ‘pvektorli tashqi siyosat yuritish orqali jahon hamjamiyatida o'z mavqeini mustahkamlab bormoqda. Bu esa davlatga turli yo ‘nalishlarda – siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik va gumanitar sohalarda keng hamkorlik qilish imkonini bermoqda.

BMT, MDH, ShHT va IHT kabi xalqaro tashkilotlardagi faol ishtirok O"'zbekistonning global va mintaqaviy jarayonlarda faol rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Ushbu hamkorliklar xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, ekologik muammolarni hal etish hamda transport va infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, O'zbekiston tashabbuslari mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirib, uni ishonchli hamkor sifatida namoyon etadi. Umuman olganda, O"zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi faoliyati va tashqi siyosat strategiyasi uning barqaror rivojlanishi va jahon hamjamiyatida munosib o ‘rin egallashida muhim omil bo'lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Alimova N. O. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2023. – B. 178–179.
- Alimova N. O. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2023. – B. 189–190.
- Saidov A. X. Xalqaro huquq. – Yuridik adabiyotlar publish, Toshkent, 2025. – B. 384–385.
- Saidov A. X. Xalqaro huquq. – Yuridik adabiyotlar publish, Toshkent, 2025. – B. 392–393.
- Mirzayev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – O‘zbekiston nashriyoti, Toshkent, 2023. – B. 417.
- SCO Summit 2022. – SCO Summit Media Center, Samarqand, 2022. – URL: [https://sco-summit2022.uz](https://sco-summit2022.uz/)
- “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Qonun, 4-modda. – LexUZ, Toshkent, 2012. – URL: [https://lex.uz/docs/5688819](https://lex.uz/docs/5688819)
- “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. – LexUZ, Toshkent, 2018. – URL: [https://lex.uz/docs/3657313](https://lex.uz/docs/3657313)

# MIGRATSIYA HUQUQI VA XORIJDA FUQAROLAR YURIDIK MAQOMI: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO-HUQUQIY KAFOLATLAR TAHLILI

***M.T.Kuchkarova***
*Sarbon universiteti*
*talabasi*

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada shaxsning ekstraterritorial makondagi huquqiy layoqati, xususan, xorijiy yurisdiksiyalarda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari tizimli tahlil etiladi. Tadqiqot obyekti tashqi iqtisodiy faoliyat doirasidan mutlaqo xoli tarzda, sof migratsiya huquqi, xalqaro ommaviy va xususiy huquq prinsiplari hamda konsullik himoyasi institutlari doirasida cheklanadi. Asosiy e'tibor qabul qiluvchi davlat suvereniteti va inson huquqlari universalligi o'rtasidagi kollizion ziddiyatlarni yuridik mantiq asosida yechishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** migratsiya huquqi, ekstraterritorial yurisdiksiya, xalqaro xususiy huquq, konsullik himoyasi, diplomatik patronaj, kollizion normalar,

## Kirish

Huquqiy makon – bu statik chegara emas. Suverenitet – mutlaq daxlsizlikning abstrakt illyuziyasi. Shaxs erkinligi esa mazkur ikki gigant fenomen o'rtasida qisilib qolgan yuridik substansiyadir. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida davlat chegaralari faqatgina siyosiy va geografik xarita chiziqlarini ifodalashdan to'xtagan; ular yurisdiksion to'qnashuvlarning, huquqiy kolliziyalarning va normativ ziddiyatlarning eng faol, eng qaynoq o'chog'iga aylanib ulgurgan. Nima sababdan fuqaro o'z davlatining hududiy yurisdiksiyasidan tashqariga qadam qo'ygan zahoti, uning Konstitutsiya bilan kafolatlangan fundamental huquqlari murakkab ma'muriy byurokratiya va begona huquqiy tizimning qurboniga aylanadi. Bu shunchaki ritorik savol emas, balki xalqaro huquqning ontologik inqirozidir.

Migratsiya huquqi va transmilliy harakatlanish erkinligi – bu oddiygina qonunosti hujjatlar to'plami yoki idoraviy yo'riqnomalar yig'indisi emas. U o'zining tub mohiyatiga ko'ra, fuqarolik mansubligi bo'yicha davlat huquqi va shaxsning amalda bo'lib turgan joyidagi huquqi o'rtasidagi doimiy, ko'p hollarda ochiqdan-ochiq shafqatsiz yuridik kurashni aks ettiradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining

1990-yildagi "Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Xalqaro Konvensiyasi,

shuningdek, Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) 97- va 143-sonli fundamental konvensiyalari qabul qilinganiga va global miqyosda ratifikatsiya jarayonlari davom etayotganiga qaramay, amaliyotda "huquqiy asimmetriya" saqlanib qolmoqda. Migrant huquqiy subyekt sifatida o‘z davlatida to‘laqonli fuqaro, qabul qiluvchi davlatda esa aksariyat hollarda huquqiy jihatdan zaiflashgan "ajnabiy" maqomiga tushib qoladi. Bunday dualistik yondashuv inson huquqlarining universal tabiati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ziddiyatga kirishadi.

Huquqiy doktrinada shaxsning ekstraterritorial huquq layoqati masalasi uzoq yillardan beri bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Bir tomondan, qabul qiluvchi davlat o‘z hududida mutlaq suverenitetga va hududiy ustunlikka ega. U o‘z qonunlarini barcha shaxslarga nisbatan birdek qo'llashni talab qiladi. Ikkinchi tomondan, jo'natuvchi davlat o'z fuqarolari bilan siyosiy-huquqiy aloqasini fuqarolik instituti orqali saqlab qoladi va ularga nisbatan shaxsiy yurisdiksiyani amalga oshiradi. Qachonki migrantning huquqlari buzilsa, ushbu ikki yurisdiksiya o'zaro to'qnashadi. Amaldagi milliy qonunchiligimiz bu to'qnashuvni yumshatish uchun qanday huquqiy mexanizmlarni taklif etadi? Faqatgina diplomatik nota yuborish yoki konsullik yig'imlari evaziga standart ma'lumotnomalar berish bilan cheklanib qolinadi.

Mazkur yirik hajmli tadqiqotning bosh ilmiy maqsadi – xorijda yashayotgan va mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston fuqarolariga nisbatan qo‘llaniladigan yuridik himoya instrumentariysini chuqur, tanqidiy va shafqatsiz huquqiy tahlil qilishdan iborat. Biz qonunchilikdagi bo‘shliqlarni shunchaki sanab o'tmaymiz, balki ularning ildizini qabul qiluvchi davlat yurisdiksiyasi sharoitida shaxs daxlsizligini ta’minlashning sof huquqiy-doktrinal, fozil va ratsional yechimlarini ishlab chiqish orqali yo'q qilishga intilamiz. Ushbu kirish qismi o'quvchini shunga tayyorlaydiki, muammo sirtqi huquqiy normalarda emas, balki davlatlarning xalqaro-huquqiy majburiyatlarni idrok etish va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasidagi chuqur konseptual tushunmovchiligida yotadi.

Huquqiy voqelikni idrok etish va uni ilmiy qoliplarga solish murakkab kognitiv jarayondir. Mazkur tadqiqotning metodologik arxitekturasi yuridik fanlarda hukmronlik qiladigan klassik pozitivizmdan ongli ravishda chekinib, huquqni anglashning post-pozitivistik va normativ-tanqidiy usullariga tayanadi. Biz qonun matnlarini ilohiy dogma sifatida qabul qilmaymiz; aksincha, har bir normaning yashirin maqsadlarini huquqiy mantiq va tarkibiy tahlil orqali ochib beramiz.

Birinchi navbatda, tadqiqotda formal-yuridik metod qat'iy va izchil qo'llanildi. Bu usul orqali O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarning xorijdagi himoyasiga oid normalari, “O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi to'g'risida”gi qonuni va tegishli qonunosti hujjatlari elementar yuridik zarrachalargacha dekonstruksiya qilindi. Maqsad – qonun hujjatlarining matniy ifodasi va ularning yuridik kuchi o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashdir. Ikkinchidan, muammoning transmilliy xarakterini inobatga olib, qiyosiy-huquqiy metod tadqiqotning o'zagini tashkil etdi. Xalqaro huquqdagi "diplomatik himoya" (diplomatic protection) instituti doirasida vujudga kelgan xalqaro sud presedentlari hamda doimiy sudralib yuruvchi xalqaro arbitraj amaliyoti O'zbekistonning milliy qonunchiligidagi implementatsiya darajasi bilan solishtirildi. Biz qiyoslash uchun Filippin va Meksika kabi migratsion huquq tizimlari ancha rivojlangan, o'z fuqarolarini himoya qilishning agressiv va proaktiv usullarini qo'llaydigan yurisdiksiyalarning tajribasini oldik. Bu o'rinda shunchaki qonunlarni yonma-yon qo'yish emas, balki ularning ijtimoiy-huquqiy samaradorligini o'lchash maqsad qilingan. Uchinchidan, muammoni tizimli anglash uchun tizimli-tarkibiy va huquqiy mantiqiy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Xorijdagi fuqaro – konsullik muassasasi – qabul qiluvchi davlat ma'muriy organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlar uchburchagi modellashtirildi. Ushbu model doirasida axborot almashinuvi, yuridik yordam ko'rsatishning tezkorligi va suverenitet cheklovlari kabi o'zgaruvchilar tahlil qilindi. Huquqiy mantiq qoidalariga ko'ra ayniqsa, deduksiya va silogizm usullari yordamida, agar boshlang'ich norma noaniq bo'lsa, undan kelib chiqadigan huquqni qo'llash amaliyoti xulosa muqarrar ravishda xato va korrupsion bo'lishi isbotlandi. To'rtinchidan, xalqaro shartnomalar huquqi doirasida xalqaro shartnomalarni talqin qilish metodlaridan keng foydalanildi. Vena konvensiyasining shartnomalarni talqin qilishga oid normalari asosida O'zbekiston tuzgan ikki tomonlama huquqiy yordam to'g'risidagi bitimlarning teleologik maqsadli tafsiri amalga oshirildi. Jarayonda sintaktik tuzilishning murakkabligi va o'ta ilmiy tili qasddan saqlab qolindi; bu huquqiy normalarning ko'p qatlamli va chalkash tabiatini adekvat aks ettirish uchun zarur bo'lgan akademik zaruratdir. Bu yerda ilmiy matn strukturasini yaratishda fundamental asarlar yaratgan milliy huquqshunoslarimizning qat'iy mantiqiy an'analariga sodiq qolinganligini alohida ta'kidlash joiz.

Akademik va teran yuridik amaliyot tahlillari fuqarolarning xorijdagi himoyasi borasida bir qator favqulodda og'ir tizimli

muammolar, konseptual yoriqlar hamda qonunchilikdagi chuqur kognitiv disonanslarni butun yalang'ochligi bilan yuzaga chiqardi. Vaziyat shunchaki konsullik ko'magining yetishmasligi bilan cheklanmaydi; u ancha murakkab, ildizi qonunchilik bazasining zaifligiga borib taqaladigan yuridik mexanizmlarga asoslangan. Shaxs hibsga olinganda yoki uning huquqlari jiddiy cheklanganda konsul bilan bog'lanish huquqi xalqaro odat huquqining bir qismiga aylangan. Biroq, milliy qonunchilik amaliyotini o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonning chet eldagi konsullik muassasalarining vakolatlari koʻpincha passiv, kuzatuvchi va rasmiyatchilik xarakteriga ega.

Konsulning favqulodda vaziyatlarda, jinoyat ishlari doirasida asossiz ushlab turish yoki qullar kabi mehnat ekspluatatsiyasi holatlarida yuridik aralashuv operativligi qabul qiluvchi davlatning jinoyat-protsessual va ma'muriy normalari (lex fori) bilan qattiq, ba'zan aylanib o'tib bo'lmas darajada cheklangan. Amaldagi "Konsullik ustavi" konsulga fuqaroning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish majburiyatini yuklaydi, ammo buning uchun yetarli va real protsessual dastaklar (masalan, mahalliy sudlarda advokat sifatida ishtirok etish, mustaqil tergov o'tkazish vakolati, yuridik xizmatlar uchun kafolatlangan moliyaviy fondlar) ajratmaydi. Natijada huquqiy vakuum yuzaga keladi: huquq bor, uni himoya qiluvchi davlat organi bor, lekin himoya qilish quroli (mexanizmi) yo'q. Oʻzbekiston fuqarolari eng koʻp yirik masshtabda mehnat faoliyatini olib boradigan va yashaydigan mintaqaviy davlatlar bilan tuzilgan fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam toʻgʻrisidagi bitimlarni (xususan, Minsk va Kishinyov konvensiyalarini) mikroskopik tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, ularda zamonaviy mehnat va ijtimoiy huquqlarni sinxronlashtirish, ayniqsa raqamli asrning o'ziga xosliklarini inobatga olish mexanizmlari oʻta zaif.

Xalqaro xususiy huquqda kollizion normalar munosabatlarga qaysi davlat qonunlari qo'llanilishini belgilab beradi. Masalan, tibbiy sugʻurta muammolari, ishlab chiqarishdagi og'ir jarohatlar uchun tovon puli undirish, ish beruvchining bankrotligi holatida ish haqini talab qilish kabi transchegaraviy fuqarolik-huquqiy nizolarda migrantlarning da’vo huquqini tezkor va arzon ta’minlash borasida aniq, qat'iy va imperativ kollizion bogʻlanishlar mavjud emas. Aksariyat hollarda qabul qiluvchi davlatning qonunlari qat'iy ustuvorlikka ega bo'lib, migrant o'z davlatining adliya tizimi tomonidan to'liq uzib qo'yiladi. Chet ellik ish beruvchi bilan tuzilgan shartnomalardagi "nizolarni hal qilish" bandlari odatda kuchsiz tomon (xodim) uchun eng noqulay yurisdiksiyani

belgilaydi. Bizning milliy sudlarimiz esa bunday holatlarda o'z yurisdiksiyasini o'rnatishda cheklangan yondashuvni namoyish etmoqda.

Biz matn sirtidan o'tib, tub mohiyatga, yuridik arxitekturaning tomirlariga qarashimiz kerak. Nega xorijda ishlash, huquqiy makon doirasida harakatlanish mutlaqo qonuniy va tabiiy insoniy huquq bo'lsa-da, ularni himoya qilish mexanizmlari deyarli doim "yarim legal", "reaktiv" va zaif holatda ishlaydi? Xalqaro ommaviy huquq doktrinasida azaldan shakllangan va bugungi kunda aksiomaga aylangan shunday bir tamoyil mavjud: davlat o‘zining har bir fuqarosi uchun xalqaro maydonda nafaqat ma'naviy, balki yuridik jihatdan javobgar bo‘lishi bilan birga, uning huquqlari chet yurisdiksiyada buzilganda xalqaro huquqiy vositalar orqali diplomatik patronaj diplomatik himoya huquqiga ba'zi ilg'or qarashlarga ko'ra, majburiyatiga ham ega. Ammo amalda, ayniqsa, sof mehnat migratsiyasi va sotsial munosabatlar sohasida bu qadimiy mexanizm mutlaqo ishlamaydi. Nima uchun? Sababi, xorijiy davlatdagi xususiy ish beruvchi bilan migrant o‘rtasidagi munosabat xalqaro ommaviy huquq predmeti emas, balki xalqaro xususiy huquq hamda qabul qiluvchi davlat ichki mehnat huquqi predmeti hisoblanadi. Diplomatik himoya shartlari mahalliy himoya vositalarining tugatilishi qoidasi - exhaustion of local remedies shunchalik murakkabki, oddiy migrant o'z haq-huquqi uchun begona davlatning eng oliy sud instansiyalarigacha borishga jismoniy, moliyaviy va intellektual jihatdan qodir emas.

Bu yerdagi eng katta yuridik, hatto aytish mumkinki, falsafiy kolliziya shundaki, milliy qonunchiligimiz migratsiya va xorijdagi fuqarolar maqomini tartibga solishda hali ham "ruxsat beruvchi-qayd etuvchi" eski sovet modelidan to‘liq va qat'iy voz kecha olgani yo‘q. Davlat asosan o'z fuqarosining chiqib ketganini "qayd etadi", biroq uning u yerdagi yuridik salomatligini muntazam monitoring qilmaydi. Ilg‘or xalqaro tajriba (masalan, transmilliy mehnat bozoriga faol integratsiya qilingan davlatlar tajribasi) shuni shubhasiz isbotlaydiki, insonparvar davlat o‘z fuqarosi chet elga chiqishidan oldin uning mehnat shartnomasidagi xavflarni, yuridik bo'shliqlarni suveren va institutsional darajada sug‘urtalashi lozim. Bu yondashuvni aslo ijtimoiy paternalizm deb tushunmaslik kerak; bu o'z fuqarosi orqali inson kapitalini eksport qilayotgan davlatning qat'iy yuridik kafolatidir. Tasavvur qiling, agar migrant xorijiy yurisdiksiyada vizasiz rejimni buzganlikda yoki mehnat faoliyati qoidalarini buzganlikda gumon qilinib deportatsiya tahdidi ostida qolsa, yuridik klinikalarning ma’muriy prekrasiya voqea sodir

bo'lishidan oldin choralar ko‘rish va huquqiy ogohlantirish institutlari qanday ishlashi kerak? Afsuski, amaldagi normativ bazamiz va konsullik amaliyotimiz keskin reaktiv xarakterga ega – faqat yong'in chiqqandan keyin, voqea sodir bo‘lib, huquq buzilib bo'lganidan keyingina uning oqibatlari bilan kurashadi. Holbuki, zamonaviy axborot va sun'iy intellekt davrida huquqiy himoya proaktiv mexanizmlarni talab etadi. Xususan, bu ekstraterritorial yuridik klinikalarning raqamli tarmog'ini tashkil etish, qabul qiluvchi davlatlarning yirik va nufuzli advokatlik byurolari bilan davlat darajasida doimiy institutsional shartnomalar tuzish va shular orqali "huquqiy immunitet" qobig'ini shakllantirishni nazarda tutadi.

Yuqorida keltirilgan o'ta murakkab sintaktik tuzilmalarga ega bo'lgan dalillar, keskin xalqaro qiyosiy tahlillar va chuqur mantiqiy-yuridik mulohazalar asosida shunday qat'iy hamda murosasiz xulosaga kelish mumkinki, xorijda fuqarolar huquqlarini himoya qilish va milliy migratsiya qonunchiligining kelgusi rivojlanish traektoriyasi empirik isbotlanmagan emotsional shiorlarga emas, balki qat’iy, ilmiy-amaliy jihatdan mukammal ishlangan doktrinal paradigmalarga asoslanishi shart. Yuridik voqelik bizdan illuziyalardan voz kechishni, xalqaro huquq normalarini reallik oynasi orqali ko'rishni talab qiladi.

Birinchidan, amaldagi tarqoq va parchalangan normativ-huquqiy bazani konsolidatsiya qilish vaqti keldi. Qonunchilikni huquqiy mantiq va kodifikatsiya qoidalari nuqtai nazaridan yagona, yaxlit, tizimlashtirilgan hamda bevosita amal qiluvchi normalardan iborat – O'zbekiston Respublikasining Migratsiya Kodeksi holatiga keltirish obyektiv va kechiktirib bo'lmas zaruratdir. Bu Kodeksda davlatning xorijdagi fuqaroga nisbatan ijobiy va salbiy aralashmaslik majburiyatlari imperativ, ikki xil talqinga o'rin qoldirmaydigan tarzda mustahkamlanishi zarur. Qonun matnida deklarativ moddalar emas, to'g'ridan-to'g'ri huquqni qo'llash mexanizmlari, moliyalashtirish manbalari va konsullik javobgarligi masalalari aks etishi lozim.

Ikkinchidan, xorijiy mamlakatlardagi elchixonalar va bosh konsulxonalar qoshida xalqaro xususiy huquq, qabul qiluvchi davlatning jinoyat va mehnat huquqi normalari bo‘yicha chuqur ixtisoslashgan, shuningdek, zarurat tug'ilganda qabul qiluvchi davlat sudlarida va huquqni muhofaza qiluvchi organlarida bevosita vakil sifatida ishtirok eta oladigan akkreditatsiyadan o'tgan maxsus yuridik attashelik institutini qonunchilik bilan to'liq joriy etish talab etiladi. Ushbu institut shunchaki maslahat beruvchi byuro emas, balki "yuridik tez yordam" funksiyasini bajaruvchi, keng protsessual vakolatlarga ega tuzilma bo'lishi kerak.

Uchinchidan, xalqaro shartnomaviy amaliyotimizni tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Kelgusida xorijiy davlatlar bilan tuziladigan huquqiy yordam va konsullik konvensiyalarida fuqarolarimizning mehnat huquqlari buzilgan taqdirda, nizolarni jo'natuvchi davlat O'zbekiston yurisdiksiyasida ham ko'rib chiqish imkoniyatini beruvchi "muqobil yurisdiksiya" mexanizmlarini ilgari surish, xalqaro muzokaralarda ushbu pozitsiyani qat'iy himoya qilish zarur. Shundagina migratsiya huquqi va ekstraterritorial himoya mexanizmi qog'ozdagi quruq, ruhiyatdan xoli deklaratsiyadan ajralib chiqib, transchegaraviy muhitda inson qadrini, uning ajralmas huquqlarini amalda himoya qiluvchi real, mustahkam va ishonchli yuridik qalqonga aylanadi. Zero, davlat o'z fuqarosining qadr-qimmatini faqat o'z hududida emas, balki butun dunyo sarhadlarida munosib himoya qila olganidagina chinakam huquqiy davlat maqomiga munosib bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


- Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1990). *Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya*. Bosh Assambleyaning 45/158-sonli rezolyutsiyasi. Nyu-York.
- Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1963). *Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi*. BMT Shartnomalar to'plami, 596-jild. Vena.
- Xalqaro Mehnat Tashkiloti. (1949). *Migrant-mehnatkashlar to'g'risidagi 97-sonli Konvensiya* (Qayta ko'rib chiqilgan). Jeneva.
- Xalqaro Mehnat Tashkiloti. (1975). *Migratsiya sohasidagi suiiste'molliklar hamda migrant-mehnatkashlarni teng imkoniyatlar va muomala bilan ta'minlash to'g'risidagi 143-sonli Konvensiya*. Jeneva.
- Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi. (1993 yil 22 yanvar). *Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Konvensiya* (Minsk konvensiyasi).
- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (2023). *O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. Toshkent.
- O‘zbekiston Respublikasining "O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi to‘g‘risida"gi Qonuni. (2019 yil 17 yanvar). O‘RQ-517-son. *O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 18.01.2019-y.,

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA’MINLASH TIZIMI: YANGI KONSTITUTSIYA VA DAVLAT ORGANLARINING FAOLIYATI

***M.T.Kuchkarova***
*Sarbon universiteti*
*talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy-tahliliy maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning yangilangan tizimi, uning tarkibiy qismlari va huquqiy asoslari keng yoritiladi. Maqolada inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan konstitutsiyaviy islohotlar, sud-huquq tizimidagi o‘zgarishlar, shuningdek, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning vakolatlari kengayishi yuridik tahlil ob’ektiga aylantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Konstitutsiya, inson huquqlari, sud nazorati, tergov sudyasi, Ombudsman, ijtimoiy davlat, Xabeas korpus, Miranda qoidasi, inson qadri*

## Kirish

Inson huquqlari – bu shunchaki qonunlarda yozilgan matnlar emas, balki har bir fuqaroning erkin va munosib yashashini ta’minlovchi hayotiy zaruratdir. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, huquqiy tizim qanchalik mustahkam va adolatli bo‘lsa, jamiyat shunchalik barqaror rivojlanadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar "inson qadri uchun" degan ulug‘vor g‘oyaga tayanadi.

Yuridik fakultet talabasi sifatida biz bu tizimning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning ichki mexanizmlari qanday ishlashini tushunishimiz lozim. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya bu borada burilish nuqtasi bo‘ldi. Unda inson huquqlari tizimi "davlat – inson uchun" tamoyili asosida qayta qurildi. Mazkur maqolada ushbu tizimning huquqiy poydevori, himoya organlarining yangilanishi va xalqaro standartlarning tatbiq etilishi tahlil qilinadi.Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari bilan bog‘liq normalar soni keskin oshirildi. Bu o‘zgarishlar tizimning asosi bo‘lib, barcha qonunlarning mazmunini belgilab beradi.Konstitutsiyaning 13-moddasida inson huquqlari va erkinliklari davlatning oliy maqsadi ekani mustahkamlandi. Ilgari inson huquqlari deklarativ (shunchaki e’lon qilingan) xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa, endilikda ular bevosita amal qiluvchi normalardir. Ya’ni, fuqaro o‘z huquqi buzilganda, birorta maxsus qonunni kutmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Konstitutsiyaga tayanib

sudga murojaat qilishi mumkin.Bu prinsip yuridik amaliyotda o‘ta muhim o‘rin tutadi. Agar qonunda birorta tushunmovchilik yoki qarama-qarshilik bo‘lsa, davlat organi emas, balki fuqaroning foydasi ustuvor deb topiladi. Bu – davlat idoralarining fuqaro ustidan hukmronlik qilishiga chek qo‘yuvchi kuchli huquqiy vositadir.Inson huquqlari eng ko‘p buzilishi mumkin bo‘lgan soha – bu huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatidir. Shu sababli, yangi tizimda shaxs daxlsizligiga alohida urg‘u berilgan.Dunyo yurisprudensiyasida "Xabeas korpus" (shaxsni sudga taqdim etish) huquqi eng qadimgi va eng muhim kafolatlardan biri sanaladi. O‘zbekistonda shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turish taqiqlandi. Uy-joyga kirish, tintuv o‘tkazish va telefon so‘zlashuvlarini eshitish faqat sud ruxsati bilan amalga oshirilishi shaxsiy hayot daxlsizligining kafolatidir.Har bir ushlangan shaxsga o‘z huquqlari va nega ushlangani darhol tushuntirilishi shart. Shaxsga jim turish huquqi berilgan. Bu qoida tergov jarayonida turli tazyiqlar va nohaq ayblovlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Bo‘lajak advokat va prokurorlar sifatida biz uchun bu qoida kasbiy etikaning eng yuqori nuqtasidir.2025-yildan boshlab tizimga kirib kelayotgan "tergov sudyasi" lavozimi inson huquqlari himoyasida yangi davrni ochadi. Tergov sudyasining asosiy vazifasi – shaxsni qamoqqa olish, tintuv qilish yoki mulkni xatlash kabi inson huquqlarini cheklovchi harakatlarga xolis baho berishdir. Bu prokuratura va tergov organlarining vakolatlarini muvozanatlashtiradi.Inson huquqlarini ta’minlash uchun faqat qonun yetarli emas, bu qonunlarni hayotga tatbiq etuvchi kuchli va mustaqil organlar kerak.Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) endilikda shunchaki shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi organ emas. Yangi qonunga ko‘ra, Ombudsman qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘ldi. Bu degani, u tizimli huquq buzarliklarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish uchun parlamentga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonun loyihalarini kiritishi mumkin. Shuningdek, uning qamoqxonalarga ogohlantirishsiz kirishi – qiynoqlarga qarshi kurashning eng samarali usulidir.Jamiyatning eng zaif qatlami – bolalar va mamlakat iqtisodiyotining ustuni bo‘lgan tadbirkorlar uchun alohida himoya institutlarining yaratilishi ixtisoslashgan himoyani ta’minlaydi. Bolalar ombudsmani bolalarga nisbatan har qanday zo‘ravonlikka qarshi kurashda davlatning asosiy mexanizmi hisoblanadi.Yangi tizimning eng katta yutuqlaridan biri – fuqarolarning o‘z huquqlari buzilgan taqdirda bevosita Konstitutsiyaviy sudga murojaat qila olishidir. Agar birorta qonun Konstitutsiyaga zid bo‘lsa va inson huquqlarini cheklasa, sud uni

bekor qilish vakolatiga ega.Yangi O‘zbekiston o‘zini "ijtimoiy davlat" deb e’lon qildi. Bu tushuncha yuridik nuqtai nazardan davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini bir necha barobar oshiradi."Snos" (uylarni buzish) muammolari yillar davomida og‘riqli nuqta bo‘lib keldi. Yangi tizimda hech kim sud qarorisiz va bozor qiymatidagi kompensatsiya to‘lanmasdan turib uyidan mahrum qilinishi mumkin emasligi qat’iy belgilandi. Mulk daxlsizligi – bu iqtisodiy erkinlikning asosi.O‘zbekiston qisqa vaqt ichida majburiy mehnatga, ayniqsa paxta yig‘im-terimida bolalar mehnatiga butunlay chek qo‘ydi. Bu nafaqat milliy qonunchilik, balki Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) standartlarining to‘liq bajarilishidir.Bepul oliy ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam miqdorining oshishi – ijtimoiy adolat tizimining ko‘zgusidir.Texnologiyalar rivojlangan asrda inson huquqlari tushunchasi internet va kiber-makonga ham ko‘chdi.Raqamli dunyoda insonning shaxsiy ma’lumotlari uning mulki hisoblanadi. O‘zbekiston qonunchiligida shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz yig‘ish va tarqatish uchun javobgarlik kuchaytirildi.Har bir fuqaroning internetdan erkin foydalanishi va axborot izlash huquqi konstitutsiyaviy darajada himoyalangan. Bu fikr erkinligi va ochiqlik siyosatining davomidir.Inson huquqlari tizimining eng muhim imtihoni – bu yopiq muassasalardagi holatdir. O‘zbekiston Qiynoqlarga qarshi konvensiyaning fakultativ protokoliga muvofiq, Milliy preventiv mexanizmni (MPM) shakllantirdi. Bunda jamoatchilik vakillari va Ombudsman doimiy ravishda tergov izolyatorlari va qamoqxonalarni nazorat qilib boradi. "Qiynoqlar – bu nafaqat jinoyat, balki insoniyatga qarshi harakatdir" degan tamoyil tergov organlari faoliyatining asosiy mezoniga aylandi.O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha dunyoning rivojlangan davlatlari bilan hamnafas qadam tashlamoqda. 2020-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiya" bu boradagi ishlarni tizimlashtirdi.BMT Inson huquqlari kengashiga a’zolik, xalqaro ekspertlarning tavsiyalarini qonunchilikka kiritish tizimning xalqaro hamjamiyat oldidagi shaffofligini ko‘rsatadi. Milliy tizim bugun xalqaro huquqning umumtan olingan normalari bilan uyg‘unlashgan.

**Xulosa**

Inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash tizimining islohot qilinishi – bu bir kunlik ish emas, balki davomli jarayondir. 2-kurs yuridik fakulteti talabasi sifatida shuni ta’kidlamoqchimanki, bugun bizda mustahkam huquqiy poydevor yaratildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya

insonni davlatdan ustun qo‘ydi.Biroq, tizimning mukammal ishlashi nafaqat qonunlarga, balki biz – bo‘lajak yuristlarning adolatliligiga, huquqni qo‘llovchi organlarning vijdonan ishlashiga va fuqarolarning o‘z huquqlarini yaxshi bilishiga bog‘liq. "Huquq – bu erkinlik san’atidir" degan edi qadimgi rimliklar. O‘zbekistonda ushbu san’at bugun har bir insonning qadr-qimmati uchun xizmat qilmoqda. Bizning vazifamiz – bu tizimni yanada takomillashtirish va inson huquqlari hamma uchun teng bo‘lishiga erishishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O‘zbekiston", 2023.
- O‘zbekiston Respublikasining "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2024-yil.
- Sh.M.Mirziyoyev. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". – T.: "O‘zbekiston", 2021.
- BMT Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi.
- Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi (2020-yil 22-iyun).

# MINTAQAVIY SIYOSATDA LIDERLARNING ROLI VA TA’SIRI

***M.T.Eshbekova***
*Sarbon Universiteti*
*talabasi*
*[eshbekovamalika5@gmail.com]*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mintaqaviy siyosatda liderlarning o‘rni, ularning qaror qabul qilish jarayoniga ta’siri hamda mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosiy liderlarning strategik fikrlashi, diplomatik salohiyati va ijtimoiy jarayonlarga ta’sir etish mexanizmlari yoritilgan. Maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida liderlarning individual xususiyatlari va ularning mintaqaviy siyosatdagi natijalarga ta’siri ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *mintaqaviy siyosat, liderlik, siyosiy qarorlar, diplomatiya, barqarorlik, xalqaro munosabatlar*

Mintaqaviy siyosat bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mintaqada siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar ko‘p jihatdan

liderlarning faoliyati bilan chambarchas bog‘liq [3, 15-bet]. Shu bois, liderlar nafaqat ichki siyosatni shakllantiradi, balki tashqi siyosatda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Zamonaviy davrda liderlarning shaxsiy fazilatlari, qaror qabul qilishdagi yondashuvi va diplomatik mahorati mintaqaviy siyosat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, mazkur masalani o‘rganish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega.

Mintaqaviy siyosat – bu muayyan hududdagi davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi tizim bo‘lib, u umumiy manfaatlar asosida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi [4, 22-bet]. Ayniqsa, zamonaviy global muammolar – ekologik inqirozlar, migratsiya va xavfsizlik tahdidlari – mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishni talab etmoqda.

Shu jarayonda mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadlari sifatida xavfsizlikni ta’minlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, siyosiy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy muammolarni hal etish kabi yo‘nalishlar ajralib turadi [3, 48-bet].

Mintaqaviy siyosat, odatda, bir hududga mansub davlatlarning umumiy manfaatlarini ifodalaydi va ularning integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtiradi. Bunda iqtisodiy integratsiya, siyosiy hamkorlik, xavfsizlikni ta’minlash hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash asosiy yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, global muammolar – terrorizm, ekologik inqirozlar, migratsiya oqimlari va iqtisodiy beqarorlik kabi tahdidlar mintaqaviy siyosatni yanada dolzarb qiladi.

Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Hududiy xavfsizlikni ta’minlash – davlatlar o‘rtasida tinchlikni saqlash, mojarolarni oldini olish va xavfsizlik sohasida hamkorlikni kuchaytirish. Bu borada qo‘shma harbiy mashg‘ulotlar, xavfsizlik bitimlari va strategik hamkorlik muhim o‘rin tutadi.

- Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish – savdo aloqalarini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va umumiy iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish orqali hududiy taraqqiyotga erishish.

- Siyosiy barqarorlikni mustahkamlash – davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni kuchaytirish, siyosiy nizolarni muzokaralar orqali hal qilish va demokratik qadriyatlarni rivojlantirish.

- Ijtimoiy muammolarni hal qilish – aholining turmush darajasini oshirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish hamda ijtimoiy tenglikni ta’minlash.

Bundan tashqari, mintaqaviy siyosat transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, energetika resurslaridan samarali foydalanish, ekologik muammolarni birgalikda hal qilish kabi yo‘nalishlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu esa hududlararo bog‘liqlikni kuchaytirib, umumiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Shu bois, mintaqaviy siyosatni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. U davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yanada samarali tashkil etish, mavjud muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishga erishishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda liderlarning roli beqiyosdir.

Liderlik – bu jamiyatni muayyan maqsad sari yo‘naltirish va boshqarish qobiliyati bo‘lib, u ijtimoiy ta’sir mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Siyosiy liderlik esa davlat miqyosida qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayoni bilan bog‘liq murakkab faoliyat turidir [4, 60-bet].

Shu nuqtai nazardan, siyosiy liderlar davlat manfaatlarini himoya qiladi, ijtimoiy jarayonlarni boshqaradi va xalqaro maydonda o‘z mamlakatining pozitsiyasini ifodalaydi. Bu jarayon davlat suvereniteti va milliy manfaatlar ustuvorligi kabi huquqiy tamoyillar bilan chambarchas bog‘liqdir [5].

Mintaqaviy siyosatda liderlar hal qiluvchi o‘rin egallaydi, chunki ular strategik qarorlar qabul qilish orqali butun mintaqaning rivojlanish yo‘nalishini belgilab beradi. Xususan, iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlik va ekologik muammolar bo‘yicha qabul qilingan qarorlar uzoq muddatli natijalarga ega bo‘ladi [2, 112-bet].

Shu bilan birga, liderlar diplomatik munosabatlarni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular muzokaralar olib borish, kelishuvlarga erishish va nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish orqali mintaqaviy barqarorlikni ta’minlaydi. Bu jarayonda xalqaro huquq normalari va diplomatik immunitet kabi huquqiy tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy liderlik esa jamiyat va davlat miqyosida muhim qarorlar qabul qilish, ularni amalga oshirish va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshqarish bilan bog‘liq murakkab faoliyat turidir. Siyosiy liderlar davlat ichki va tashqi siyosatini shakllantiradi, xalq manfaatlarini ifodalaydi va xalqaro maydonda o‘z mamlakatining pozitsiyasini himoya qiladi. Shu jihatdan, siyosiy liderlik davlat boshqaruvining ajralmas qismi hisoblanadi.

Liderlikning samaradorligi ko‘p jihatdan liderning shaxsiy sifatlariga, uning siyosiy tajribasi va boshqaruv uslubiga bog‘liq. Masalan, avtoritar uslubdagi liderlar tezkor qaror qabul qilishda ustun bo‘lishi mumkin, biroq demokratik liderlar jamiyatda keng qo‘llab-quvvatlashga erishadi va barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Shu bois, zamonaviy siyosiy tizimlarda muvozanatli, ya’ni samarali boshqaruv bilan birga jamoatchilik manfaatlarini hisobga oluvchi liderlik modeli muhim hisoblanadi.

Mintaqaviy siyosat nuqtai nazaridan qaraganda, liderlik alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan liderlar davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradi, nizolarni bartaraf etadi va umumiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ularning qaror va tashabbuslari butun bir mintaqaning siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishini belgilab berishi mumkin.

Shu sababli, siyosiy liderlikni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. U samarali boshqaruvni tashkil etish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va mintaqaviy rivojlanishga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mintaqaviy siyosatda liderlar hal qiluvchi o‘rin egallaydi, chunki ular nafaqat o‘z davlatining manfaatlarini ifodalaydi, balki butun mintaqadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Liderlarning faoliyati mintaqaviy hamkorlik darajasi, xavfsizlik muhitining barqarorligi va integratsiya jarayonlarining samaradorligini belgilab beradi. Shu sababli, siyosiy yetakchilarning roli ko‘p qirrali bo‘lib, u turli funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi.

Qaror qabul qilish. Liderlar mintaqaviy muammolarni hal etishda asosiy qaror qabul qiluvchi subyekt hisoblanadi. Ular iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlik, energetika, ekologiya kabi muhim sohalarda strategik qarorlar ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Ushbu qarorlar ko‘pincha uzoq muddatli oqibatlarga ega bo‘lib, nafaqat alohida davlat, balki butun mintaqaning rivojlanish yo‘nalishini belgilab beradi.

Samarali qaror qabul qilish jarayoni chuqur tahlil, mavjud resurslarni to‘g‘ri baholash va ehtimoliy xavf-xatarlarni oldindan ko‘ra bilishni talab etadi. Shu bois, liderlar zamonaviy axborot manbalari, ekspert xulosalari va xalqaro tajribadan keng foydalanadi. Ayniqsa, murakkab geosiyosiy sharoitlarda muvozanatli va puxta o‘ylangan qarorlar qabul qilish mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Diplomatik munosabatlarni rivojlantirish. Mintaqaviy siyosatda diplomatiya muhim vosita bo‘lib, liderlar uning asosiy tashabbuskorlari hisoblanadi. Ular davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash, hamkorlikni kengaytirish va turli kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal etishda faol ishtirok etadi.

Diplomatik munosabatlar ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shakllarda amalga oshiriladi. Sammitlar, rasmiy tashriflar, xalqaro konferensiyalar va muzokaralar orqali liderlar umumiy manfaatlarga erishishga harakat qiladi. Shuningdek, iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda ham ularning tashabbuslari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda “yumshoq kuch” (soft power) siyosati ham diplomatiyaning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, liderlar madaniy, ta’limiy va gumanitar aloqalarni rivojlantirish orqali ham mintaqadagi o‘z ta’sirini kuchaytiradi.

Mintaqaviy siyosatda liderlarning faoliyati nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquq normalari bilan ham tartibga solinadi. Xususan, xalqaro munosabatlarda davlatlar o‘rtasidagi tinchlik va hamkorlikni ta’minlashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi muhim huquqiy asos hisoblanadi. Ushbu hujjatda davlatlarning suveren tengligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va kuch ishlatmaslik tamoyillari mustahkamlangan. Bu esa liderlardan xalqaro huquq normalariga rioya qilishni va mas’uliyatli siyosat yuritishni talab etadi [6].

Inqirozlarni boshqarish. Mintaqaviy siyosatda inqirozli vaziyatlar yuzaga kelganda liderlarning tezkor va oqilona qaror qabul qilishi muhim hisoblanadi. Inqirozlarni samarali boshqarish uchun ular vaziyatni chuqur tahlil qilishi va manfaatdor tomonlar bilan muzokaralar olib borishi zarur [3, 75-bet].

Bundan tashqari, liderlar mintaqaviy integratsiya jarayonlarining asosiy tashabbuskorlari hisoblanadi. Ular savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va umumiy bozorlarni shakllantirish orqali hududiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Inqiroz davrida liderlarning kommunikativ qobiliyati ham muhim rol o‘ynaydi. Ular aholiga aniq va ishonchli ma’lumot berishi, ijtimoiy barqarorlikni saqlashi va vahimani oldini olishi kerak.

Mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish. Liderlar mintaqaviy integratsiya jarayonlarining asosiy tashabbuskorlari hisoblanadi. Ular savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, umumiy bozorlarni shakllantirish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali davlatlar o‘rtasidagi

bog‘liqlikni kuchaytiradi. Bu esa mintaqada barqaror rivojlanish va o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta’minlaydi.

Xavfsizlikni ta’minlash. Hududiy xavfsizlikni ta’minlash ham liderlarning muhim vazifalaridan biridir. Ular terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya va boshqa xavf-xatarlarga qarshi kurashishda hamkorlikni rivojlantiradi. Xavfsizlik sohasidagi samarali siyosat mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mintaqaviy siyosatda liderlarning roli ko‘p qirrali va strategik ahamiyatga ega. Ularning qarorlari, tashabbuslari va boshqaruv uslubi mintaqadagi siyosiy muhitni shakllantiradi hamda uzoq muddatli rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, samarali va mas’uliyatli liderlik mintaqaviy siyosat muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mintaqaviy siyosatda liderlarning ta’siri ko‘p qirrali bo‘lib, u nafaqat qabul qilinayotgan qarorlar, balki ularning mazmuni, yo‘nalishi va natijalarida ham namoyon bo‘ladi. Har bir siyosiy lider o‘ziga xos boshqaruv uslubi, dunyoqarashi va strategik yondashuviga ega bo‘lib, bu omillar mintaqaviy siyosatning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Liderlarning ta’siri ayniqsa murakkab siyosiy vaziyatlarda va geosiyosiy raqobat kuchaygan sharoitlarda yaqqol seziladi.

Shaxsiy fazilatlar. Liderning shaxsiy fazilatlari uning siyosiy faoliyatining asosiy poydevorini tashkil etadi. Bilim darajasi, siyosiy tajribasi, analitik fikrlash qobiliyati va keng dunyoqarashi liderning to‘g‘ri va samarali qarorlar qabul qilishida muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, liderning qat’iyatliligi, mas’uliyatni his etishi va murakkab vaziyatlarda o‘zini tutish qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, kuchli siyosiy irodaga ega bo‘lgan liderlar inqirozli vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilib, barqarorlikni saqlab qolishga erishadi. Aksincha, tajribasi yetarli bo‘lmagan yoki strategik fikrlash qobiliyati past bo‘lgan liderlar noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishi mumkin, bu esa mintaqaviy siyosiy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, liderning axloqiy qadriyatlari, halolligi va jamoatchilik bilan muloqot qilish qobiliyati ham uning siyosiy nufuzini belgilaydi.

Siyosiy strategiya. Siyosiy strategiya liderning uzoq muddatli maqsadlari va ularga erishish yo‘llarini belgilab beruvchi muhim omildir. To‘g‘ri ishlab chiqilgan strategiya davlatning mintaqadagi o‘rnini mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash va xavfsizlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Strategik yondashuv quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish
- resurslardan samarali foydalanish
- siyosiy va iqtisodiy xavf-xatarlarni oldindan baholash
- muqobil variantlarni ishlab chiqish

Liderning strategik qarorlari ko‘pincha uzoq muddatli natijalarga ega bo‘lib, ular mintaqaning umumiy rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi. Shu bois, siyosiy strategiyani to‘g‘ri tanlash va uni izchil amalga oshirish mintaqaviy siyosatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro imij. Liderning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori davlatning tashqi siyosiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Kuchli xalqaro imijga ega bo‘lgan liderlar boshqa davlatlar bilan samarali hamkorlik o‘rnatadi, investitsiyalarni jalb qiladi va mintaqaviy tashabbuslarda yetakchi o‘rinni egallaydi.

Xalqaro imij diplomatik faoliyat, ochiqlik siyosati va xalqaro majburiyatlarga sodiqlik orqali shakllanadi. Shuningdek, liderning global muammolarga nisbatan tutgan pozitsiyasi ham uning obro‘sini oshirishi yoki aksincha, pasaytirishi mumkin.

Natijada, ijobiy xalqaro imij mintaqaviy siyosatda davlatning ta’sir doirasini kengaytiradi va uning manfaatlarini ilgari surishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mintaqaviy siyosatda liderlarning roli nihoyatda muhim va ko‘p qirrali hisoblanadi. Ular siyosiy jarayonlarni boshqarish bilan birga, mintaqadagi tinchlik, barqarorlik va hamkorlikni ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, liderlarning strategik fikrlashi, diplomatik mahorati va mas’uliyat hissi mintaqaviy siyosat samaradorligini belgilaydi. Faqatgina bilimli va uzoqni ko‘ra oladigan liderlar orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


- Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
- Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
- Qosimov A., Jo‘rayev S. *Xalqaro munosabatlar nazariyasi*. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019. – 220 b.
- To‘xtayev B. *Siyosatshunoslik asoslari*. – Toshkent: Fan, 2018. – 180 b.

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
- United Nations. *Charter of the United Nations*. – New York, 1945. – 50 p.
- O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti materiallari.

## MINTAQAVIY SIYOSATDA AYOLLAR VA YOSHLAR ISHTIROKI

***D.Ganikulova***
*Sarbon universiteti*
*talabasi*
*[sohibganiyev19@gmail.com]*

**Anotatsiya:** *Mazkur maqolada mintaqaviy siyosatni shakllantirish va amalga oshirish jarayonida ayollar hamda yoshlarning ishtiroki masalalari tahlil qilinadi. Xususan, ularning siyosiy faolligi, qarorlar qabul qilishdagi roli, jamiyat taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasi va mavjud muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ayollar va yoshlar ishtirokini oshirishning samarali yo‘llari hamda zamonaviy yondashuvlar asoslab beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *mintaqaviy siyosat, ayollar, yoshlar, siyosiy ishtirok, gender tengligi, ijtimoiy faollik, fuqarolik jamiyati, liderlik, qaror qabul qilish*

Hozirgi globallashuv sharoitida mintaqaviy siyosat davlat rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mintaqaviy siyosat nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta’minlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu jarayonda jamiyatning barcha qatlamlari, xususan ayollar va yoshlarning faol ishtiroki muhim omil hisoblanadi.

Ayollar va yoshlar jamiyatning eng faol va harakatchan qatlami bo‘lishiga qaramay, ko‘plab hududlarda ularning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki yetarli darajada emas. Bu esa mintaqaviy siyosat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mintaqaviy siyosat – bu davlatning hududiy rivojlanishni boshqarish, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan faoliyatidir [4, 40-bet]. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi – har bir hududning imkoniyatlaridan samarali foydalanish va aholi farovonligini oshirishdan iborat.

Shu bilan birga, mintaqaviy siyosat adolat va tenglik tamoyillariga asoslanadi. Ya’ni, har bir fuqaro yashash hududidan qat’i nazar, sifatli ta’lim, tibbiyot va infratuzilma xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega bo‘lishi lozim. Bu esa ijtimoiy adolat prinsipi va teng imkoniyatlar huquqi kabi huquqiy kategoriyalar bilan bevosita bog‘liqdir [1].

Har bir hudud o‘zining tabiiy resurslari, iqtisodiy imkoniyatlari va ijtimoiy sharoitlariga ega. Shu sababli ularning rivojlanish darajasi ham turlicha bo‘ladi. Mintaqaviy siyosat ana shu farqlarni hisobga olib, har bir hududning imkoniyatlarini samarali rivojlantirishni maqsad qiladi.

Mintaqaviy siyosatning mohiyati quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, hududlar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlash muhim hisoblanadi. Har bir fuqaro yashayotgan hududidan qat’i nazar, sifatli ta’lim, tibbiyot va infratuzilma xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, resurslardan oqilona foydalanish zarur. Har bir hududning o‘ziga xos iqtisodiy salohiyati mavjud bo‘lib, mintaqaviy siyosat shu imkoniyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, barqaror rivojlanishni ta’minlash muhimdir. Bu esa nafaqat bugungi ehtiyojlarni qondirish, balki kelajak avlod manfaatlarini ham hisobga olishni anglatadi.

Mintaqaviy siyosat bir necha yo‘nalishlarda amalga oshiriladi bular quyidagilar hisoblanadi:

Iqtisodiy yo‘nalish – hududlarda sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratiladi.

Ijtimoiy yo‘nalish – ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Infratuzilma yo‘nalishi – yo‘llar, transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Siyosiy yo‘nalish – mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish va fuqarolar faolligini oshirishga qaratiladi.

Endi mintaqaviy siyosatning tamoyillariga to‘xtaladigan bo‘lsak, quyidagi tamoyillarga asoslanadi: adolat va tenglik, hududiy xususiyatlarni hisobga olish, kompleks yondashuv, ochiqlik va shaffoflik, aholining ishtiroki

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda hududlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Turli davlat dasturlari orqali infratuzilma yaxshilanmoqda, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda va investitsiyalar jalb qilinmoqda.

Shuningdek, qishloq hududlarini rivojlantirish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda, bu jarayonlarda esa ayollarning ham faolligi tobora ortib bormoqda. Chunki ayollar jamiyatning yarmini tashkil etgan bo‘lsa-da, ilgari ular siyosiy jarayonlardan chetda qolgan edi, ammo so‘nggi yillarda gender tengligiga e’tibor kuchayib,ayollarning siyosiy faolligi oshib bormoqda. Shu bilan birga, jamiyatning yana bir muhim qatlami hisoblangan yoshlarning ham mintaqaviy siyosatdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Yoshlar jamiyatning kelajagi bo‘lib, ularning siyosiy faolligi davlat rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Ularning mintaqaviy siyosatdagi ishtiroki turli shakllarda namoyon bo‘ladi, jumladan, yoshlar tashkilotlari orqali faoliyat yuritish, ijtimoiy loyihalarda qatnashish va innovatsion g‘oyalar bilan chiqish orqali ifodalanadi. Aynan shu jihatlari bilan yoshlar yangi fikrlar va zamonaviy yondashuvlarni olib kirib, mintaqaviy siyosatni yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.”

So‘nggi yillarda gender tengligi masalasiga e’tibor ortib, ayollarning siyosiy faolligi sezilarli darajada oshib bormoqda. Ayollar ijtimoiy muammolarni hal qilish, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish hamda jamiyat manfaatlarini ilgari surishda muhim rol o‘ynamoqda [3, 18-bet].

Yoshlar esa innovatsion fikrlash va zamonaviy yondashuvlari bilan ajralib turadi. Ularning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ko‘pincha yoshlar tashkilotlari, ijtimoiy loyihalar va startap tashabbuslar orqali amalga oshiriladi [2, 12-bet]. Shu jihatdan yoshlar siyosiy tizimga yangi energiya va g‘oyalar olib kiradi.

Shunga qaramay, ayollar va yoshlarning siyosiy faolligiga bir qator omillar to‘sqinlik qilmoqda. Xususan, jamiyatda mavjud stereotiplar ularning siyosatdagi o‘rnini cheklaydi. Ayollarning asosiy vazifasi oila bilan bog‘lab qo‘yilishi yoki yoshlarning tajribasiz deb baholanishi ularning faolligini pasaytiradi [5].

Bundan tashqari, siyosiy savodxonlikning yetishmasligi, iqtisodiy mustaqillikning pastligi va axborot yetishmovchiligi ham muhim muammolar sirasiga kiradi. Bu esa fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirish mexanizmlarining cheklanishiga olib keladi.

Mazkur masala xalqaro darajada ham dolzarb bo‘lib, BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasi (CEDAW) ayollarni siyosiy va ijtimoiy hayotga keng jalb etishni nazarda tutadi [6]. Ushbu hujjatga ko‘ra, ayollar

erkaklar bilan teng ravishda davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqiga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ayollar va yoshlarning siyosiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada olib borilayotgan islohotlar nafaqat qonunchilik darajasida, balki amaliy hayotda ham o‘z aksini topmoqda. Davlat tomonidan inklyuziv boshqaruvni shakllantirish, ya’ni jamiyatning barcha qatlamlarini siyosiy jarayonlarga keng jalb etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, ayollar ulushining parlamentda oshib borayotgani muhim ijobiy ko‘rsatkichlardan biridir. So‘nggi saylovlar natijasida ayol deputatlar soni sezilarli darajada ko‘paydi. Bu esa gender tengligini ta’minlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘lib, ayollarning nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy hayotdagi o‘rni mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Ayollar turli darajadagi davlat boshqaruvi organlarida faoliyat yuritib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya kabi sohalarda muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etmoqda.

Shuningdek, mamlakatda yoshlar siyosatining izchil rivojlanayotgani ham alohida e’tiborga loyiqdir. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidorini rivojlantirish va jamiyatdagi faolligini oshirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar parlamenti, yoshlar ittifoqi kabi tuzilmalar orqali yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki kengaymoqda. Bu esa ularning fikr va tashabbuslarini davlat boshqaruvi tizimiga olib kirish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, turli davlat dasturlari va loyihalar orqali ayollar va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, yoshlar uchun grantlar, startap loyihalar, ta’lim va malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Bu tashabbuslar orqali ularning nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy mustaqilligi ham mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga, hududlarda xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilib, ularning muammolarini o‘rganish va hal etishga qaratilgan mexanizmlar joriy etilmoqda. Bu esa joylarda aholi bilan bevosita ishlash, ularning ehtiyoj va takliflarini inobatga olish imkonini bermoqda.

Natijada, yuqoridagi o‘zgarishlar mintaqaviy siyosatda inklyuzivlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ya’ni, turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlari hisobga olinib, qarorlar qabul qilish jarayonida

keng ishtirok ta’minlanmoqda. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik va barqaror rivojlanishning mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ayollar va yoshlarning mintaqaviy siyosatdagi faol ishtiroki jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ularning qaror qabul qilish jarayonidagi ishtiroki boshqaruv samaradorligini oshiradi va ijtimoiy adolatni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, ularning siyosiy faolligini oshirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash, siyosiy savodxonlikni rivojlantirish hamda institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Faqatgina shu sharoitdagina inklyuziv va samarali mintaqaviy siyosatni shakllantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 80 b.
- O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016. – 32 b.
- O‘zbekiston Respublikasi Gender tengligi strategiyasi. – Toshkent: 2021. – 40 b.
- Axmedov B. Mintaqaviy siyosat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020. – 120 b.
- Karimova D. Yoshlar va ayollar siyosiy faolligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 95 b.
- United Nations. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). – New York, 1979. – 25 p.

## OBYEKTIV VA SUBYEKTIV HUQUQ. SUBYEKTIV HUQUQNING TUZILISHI

***Q.Xolmurodov***
*Sarbon universiteti talabasi*

**KIRISH**

Huquqshunoslik fanining fundamental kategoriyalari orasida huquqning obyektiv va subyektiv ma’nolarda talqin qilinishi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosi hisoblanadi. Obyektiv huquq deganda, davlat tomonidan o‘rnatilgan yoki sanksiyalangan, umummajburiy xarakterga ega bo‘lgan va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalar tizimi tushuniladi.

Bu normalar muayyan shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lib, barcha subyektlar uchun baravar amal qiladi. Aksincha, subyektiv huquq obyektiv huquq normalari asosida konkret huquqiy munosabat ishtirokchisiga tegishli bo‘lgan imkoniyatlar majmuidir. Obyektiv huquq subyektiv huquqning paydo bo‘lishi uchun normativ baza bo‘lib xizmat qilsa, subyektiv huquq ushbu normalarning hayotda realizatsiya qilinishini ta’minlaydi. Huquqiy davlat qurish jarayonida inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash bevosita subyektiv huquqlarning mazmuni va tarkibiy tuzilishini chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Mazkur maqolada biz ushbu ikki tushunchaning o‘zaro dialektik aloqasini hamda subyektiv huquqning ichki elementlarini zamonaviy huquqiy doktrinalar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqamiz.

Huquqning obyektiv va subyektiv shakllari haqidagi nazariy qarashlar uzoq tarixga ega bo‘lib, klassik huquqshunoslikda G. Kelsen, L. Dyugi hamda S.S. Alekseyev kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. S.S. Alekseyev o‘z asarlarida subyektiv huquqni “shaxsning obyektiv huquq doirasidagi qonuniy imkoniyati” sifatida ta’riflab, uning tuzilishida to‘rtta asosiy elementni ajratib ko‘rsatadi. O‘zbekistonlik huquqshunos olimlardan H.Odilqoriyev va Z.Islomovlar huquqiy munosabatlar nazariyasida subyektiv huquqni subyektning o‘z manfaatlari yo‘lida harakat qilish erkinligi sifatida baholaydilar . Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy metod va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, subyektiv huquqning tarkibiy qismlari bo‘lgan "vakolat" va "talab qilish" elementlari normativ-huquqiy hujjatlar va nazariy manbalar asosida qiyosiy tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida huquqiy pozitivizm va tabiiy huquq nazariyalarining sintezi tanlab olindi, bu esa obyektiv huquq normalarining subyektiv huquqlarga transformatsiya bo‘lish mexanizmini tushuntirishga xizmat qildi.

Obyektiv huquq jamiyatdagi tartibni saqlashning tashqi vositasi bo‘lsa, subyektiv huquq shaxs erkinligining ichki o‘lchovidir. Obyektiv huquq normalari gipotetik xarakterga ega bo‘lib, ular faqat muayyan yuridik faktlar yuz bergandagina subyektiv huquq va majburiyatlarga aylanadi. Subyektiv huquqning o‘ziga xosligi shundaki, u har doim konkret huquq subyektiga tegishli bo‘ladi va uning xohish-irodasi bilan amalga oshiriladi.

1-jadval. Obyektiv va subyektiv huquqning qiyosiy tavsifi.

| Tavsif mezonlari | Obyektiv huquq | Subyektiv huquq |
|---|---|---|
| Mohiyati | Umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimi | Muayyan shaxsga tegishli huquqiy imkoniyat |
| Manbai | Qonunlar, farmonlar va boshqa NHHlar | Obyektiv huquq normasi va yuridik fakt |
| Amal qilish doirasi | Noaniq doiradagi shaxslar uchun | Aniq subyekt (jismoniy yoki yuridik shaxs) |
| Maqsadi | Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish | Shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarni qondirish |

Subyektiv huquqning tuzilishi ancha murakkab bo‘lib, u bir necha "huquqiy vakolat"dan tashkil topadi. Bu elementlar birgalikda subyektga o‘z maqsadiga erishish imkonini beradi. Odatda, subyektiv huquq tarkibiga quyidagi elementlar kiritiladi:

O‘zining ijobiy xatti-harakatlarini amalga oshirish imkoniyati (shaxsning o‘z huquqidan mustaqil foydalanishi).

Majburiyatli shaxsdan tegishli harakatlarni bajarishni talab qilish imkoniyati.

Huquq buzilgan taqdirda davlatning majburlov kuchiga murojaat qilish (himoya huquqi).

Muayyan ijtimoiy ne’matdan bahramand bo‘lish imkoniyati.

2-jadval. Subyektiv huquq tarkibiy elementlarining mazmuni.

| Element nomi | Mazmuniy mohiyati | Misol |
|---|---|---|
| Vakolat-harakat | Subyektning mustaqil yuridik ahamiyatga ega harakati | Mulkdorning o‘z mulkidan foydalanishi |
| Vakolat-talab | Ikkinchi tomondan majburiyatni bajarishni so‘rash | Sotuvchidan tovarning pulini talab qilish |
| Vakolat-himoya | Buzilgan huquqni tiklash uchun sudga murojaat | Zararni undirish bo‘yicha da’vo arizasi |
| Vakolat-iste’mol | Moddiy yoki ma’naviy ne’matni o‘zlashtirish | Mulkdan olinadigan daromadga egalik |

Obyektiv huquq – bu muayyan davlat tomonidan o‘rnatilgan yoki sanksiyalangan, davlat majburlovi bilan ta’minlangan va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidalari (normalari) tizimidir. Uni "obyektiv" deb atalishining bo‘isi shundaki, u alohida shaxsning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda, jamiyat a’zolarining barchasi uchun tashqi va majburiy mezon sifatida mavjud bo‘ladi. Obyektiv huquq qonun hujjatlarida, normativ-huquqiy hujjatlarda, xalqaro shartnomalarda va boshqa huquq manbalarida

o‘zining moddiy ifodasini topadi. Ushbu tushuncha ostida biz nafaqat alohida normani, balki huquqning butun bir tizimini, uning sohalari va institutlarini tushunamiz. Obyektiv huquqning eng muhim belgilaridan biri uning rasmiy aniqligidir, ya’ni huquqiy normalar davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan qabul qilingan hujjatlarda aniq bayon etiladi. Bu esa jamiyatda tartib va barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining harakatlarini oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, obyektiv huquq tizimlilik xususiyatiga ega bo‘lib, u turli darajadagi normalarning o‘zaro bog‘liqligi va iyerarxik bo‘ysunishiga asoslanadi. Davlat obyektiv huquqning nafaqat yaratuvchisi, balki uning ijrosini kafolatlovchi subyekt sifatida ham namoyon bo‘ladi; agar norma buzilsa, davlat apparati javobgarlik choralarini qo‘llash orqali adolatni tiklashga kirishadi.

Obyektiv huquqning ijtimoiy hayotdagi o‘rni uning tartibga soluvchi, qo‘riqlovchi va tarbiyaviy funksiyalarida yaqqol ko‘rinadi. Tartibga soluvchi funksiya orqali huquq jamiyatdagi ijobiy munosabatlarni (masalan, mulkdorlik, tadbirkorlik, ta’lim olish) rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratadi. Qo‘riqlovchi funksiya esa ijtimoiy xavfli qilmishlardan jamiyatni himoya qiladi va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo‘llanilishini belgilaydi. Obyektiv huquq normalari shaxsga muayyan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini berishdan avval, jamiyatda umumiy “o‘yin qoidalari”ni belgilab beradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi obyektiv huquq namunasi bo‘lib, u barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun umumiy mulkiy munosabatlar tartibini belgilaydi. Obyektiv huquqning mavjudligi subyektiv huquqlarning yuzaga kelishi uchun zaruriy huquqiy zamin bo‘lib xizmat qiladi. Bu siz shaxsning o‘z huquqlarini talab qilishi yoki himoya qilishi uchun qonuniy mezon bo‘lmas edi. Akademik nuqtai nazardan qaraganda, obyektiv huquq - bu huquqiy voqelikning statik holati bo‘lib, unda jamiyatning huquqiy madaniyati, qadriyatlari va davlatning irodasi konsolidatsiyalashgan shaklda mujassamlashadi.

Subyektiv huquq – bu obyektiv huquq normalari asosida muayyan huquq subyektiga (shaxsga, tashkilotga) tegishli bo‘lgan, uning o‘z manfaatlarini qondirishga qaratilgan yuridik jihatdan ruxsat etilgan imkoniyatlar (xulq-atvor) o‘lchovidir. Agar obyektiv huquq "umumiy qoida" bo‘lsa, subyektiv huquq – bu qoidaning konkret shaxsga nisbatan "shaxsiylashgan" ko‘rinishidir. "Subyektiv" atamasi bu yerda huquqning aynan konkret subyektga tegishliligini anglatadi. Masalan,

Konstitutsiyada belgilangan "har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli" degan norma obyektiv huquq bo‘lsa, muayyan fuqaroning o‘ziga tegishli uy-joyga egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi uning subyektiv huquqidir. Subyektiv huquq shaxsga o‘z maqsadlariga erishish uchun keng erkinlik beradi, biroq bu erkinlik qonun bilan belgilangan chegaralar bilan cheklangan bo‘ladi. Subyektiv huquqning mohiyati shundaki, u subyektga nafaqat muayyan harakatlarni bajarish, balki boshqa shaxslardan ham tegishli majburiyatlarni bajarishni talab qilish vakolatini beradi. Shu tariqa, subyektiv huquq doimo boshqa bir subyektning yuridik majburiyati bilan uzviy bog‘liqlikda mavjud bo‘ladi (masalan, sotuvchining tovar berish huquqi xaridorning pul to‘lash majburiyati bilan bog‘liq).

Obyektiv va subyektiv huquq o‘rtasidagi aloqadorlik uzviy va dialektik xarakterga ega. Obyektiv huquqsiz subyektiv huquq bo‘lishi mumkin emas, chunki aynan obyektiv norma shaxsga muayyan vakolatni taqdim etadi va uning himoyasini kafolatlaydi. O‘z navbatida, subyektiv huquqsiz obyektiv huquq "o‘lik" normaga aylanib qoladi, ya’ni u hayotga tatbiq etilmaydigan, real ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatmaydigan qog‘ozdagi qoidaga aylanadi. Subyektiv huquq obyektiv huquqning dinamikadagi holatidir. Ijtimoiy munosabatlar jarayonida obyektiv huquq normalari subyektiv huquqlar va majburiyatlar orqali realizatsiya qilinadi. Bu jarayonda subyektning irodasi va tashabbusi muhim rol o‘ynaydi: shaxs o‘ziga berilgan huquqdan foydalanishi yoki foydalanmasligi mumkin (huquqdan voz kechish huquqi). Biroq, subyektiv huquqning amalga oshirilishi jamiyat manfaatlari va boshqa shaxslarning huquqlariga zarar yetkazmasligi shart, bu esa "huquqni suiiste’mol qilmaslik" tamoyili orqali tartibga solinadi. Shunday qilib, ushbu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiruvchi va biri ikkinchisini shartlovchi huquqiy fenomenlar bo‘lib, ular birgalikda yagona huquqiy tartibotni shakllantiradi.

Subyektiv huquq murakkab ichki tuzilishga ega bo‘lib, u bir necha tarkibiy elementlardan, ya’ni yuridik vakolatlardan (imkoniyatlardan) tashkil topadi. Huquqshunoslik fanida subyektiv huquqning tuzilishi odatda to‘rtta asosiy element orqali tavsiflanadi, ularning har biri subyektning o‘z huquqini amalga oshirishidagi alohida qirrasini ifodalaydi. Birinchi element - o‘zining ijobiy harakatlarini amalga oshirish imkoniyati. Bu subyektning qonun doirasida o‘z xohishiga ko‘ra muayyan harakatlarni mustaqil ravishda bajarishi, masalan, o‘z mulkidan foydalanishi, sayohat qilishi yoki ijod bilan shug‘ullanishini anglatadi. Bu

element subyektning huquqiy erkinligining asosini tashkil etadi va unga o‘z ehtiyojlarini bevosita qondirish imkonini beradi. Ikkinchi element - majburiyatli shaxsdan tegishli harakatlarni amalga oshirishni talab qilish imkoniyati. Subyektiv huquq faqat egasining harakatlari bilan cheklanmaydi; u boshqa tomondan o‘z majburiyatini bajarishni, masalan, qarzni qaytarishni, shartnoma shartlarini bajarishni yoki huquqni buzmaslikni talab qilish huquqini ham o‘z ichiga oladi. Bu element huquqning ijtimoiy-bog‘liqlik xususiyatini ko‘rsatadi.

Uchinchi element - huquqni himoya qilish (talab qilish) imkoniyati . Agar subyektiv huquq buzilsa yoki majburiyatli shaxs o‘z vazifasini bajarmasa, huquq egasi davlatning vakolatli organlariga (sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar) murojaat qilish va majburiy choralar qo‘llashni so‘rash huquqiga ega bo‘ladi. Bu element subyektiv huquqning kafolatlanganligini ta’minlaydi; himoya qilish imkoniyati bo‘lmagan huquq deklarativ xarakterga ega bo‘lib qoladi. To‘rtinchi element - muayyan ijtimoiy ne’matlardan foydalanish imkoniyati . Har qanday subyektiv huquq oxir-oqibat muayyan moddiy yoki nomoddiy ne’matga (mulk, sog‘liq, axborot, obro‘-e’tibor) ega bo‘lish yoki undan foydalanish maqsadini ko‘zlaydi. Ushbu element huquqning mazmuniy maqsadini ifodalaydi. Shunday qilib, subyektiv huquqning tuzilishi uning yaxlitligini va subyektning huquqiy holati barqarorligini ta’minlovchi murakkab mexanizmdir. Bu elementlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ulardan birining mavjud bo‘lmasligi subyektiv huquqning to‘laqonli amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiladi. Akademik tadqiqotlarda ushbu vakolatlarning nisbati va ularning turli huquq sohalaridagi o‘ziga xosliklari chuqur o‘rganiladi, bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga keladigan nizolarni adolatli hal etishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, subyektiv huquqning har bir elementi o‘zaro uzviy bog‘liq. Agar subyektning talab qilish huquqi davlat himoyasi bilan ta’minlanmasa, u deklarativ xarakterga ega bo‘lib qoladi. Shu bois, subyektiv huquqning tuzilishida davlatning majburlov kuchi (himoya vakolati) markaziy o‘rin tutadi. Zamonaviy huquqiy tizimda subyektiv huquqlar nafaqat qonun bilan berilgan imkoniyat, balki shaxsning qadr-qimmatini himoya qiluvchi daxlsiz soha sifatida ham e’tirof etilmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, obyektiv va subyektiv huquq tushunchalari huquqiy voqelikning ikki ajralmas tomonidir. Obyektiv huquq jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi statik qoidalar majmuini

ifodalasa, subyektiv huquq ushbu qoidalarning dinamikasi, ya’ni insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirishdagi faolligini anglatadi. Tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, subyektiv huquqning tuzilishi faqat qonuniy ruxsat berish bilan cheklanib qolmay, u subyektning xulq-atvor erkinligi, talabchanligi va himoyalanganligini qamrab oluvchi yaxlit tizimdir.

Subyektiv huquq tarkibidagi har bir vakolat (harakat, talab, himoya) jamiyatning huquqiy madaniyati va qonuniylik darajasiga qarab o‘zgarib boradi. Huquqiy islohotlar sharoitida subyektiv huquqlarni yanada kengaytirish va ularning himoya mexanizmlarini soddalashtirish davlat organlarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolishi lozim. Chunki subyektiv huquq qanchalik mukammal tuzilishga ega bo‘lsa va amalda to‘liq realizatsiya qilinsa, jamiyatda adolat tamoyillari shunchalik mustahkam qaror topadi. Obyektiv huquq normalari subyektiv huquqlar orqali hayotga ko‘chadi, binobarin, ushbu ikki tushunchaning mutanosib rivojlanishi huquqiy tizimning samaradorligini belgilovchi bosh omildir. Kelajakda subyektiv huquqlarning raqamli muhitdagi transformatsiyasi va ularning virtual makonda himoya qilinishi masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD HOKIMIYATI ASOSLARI

***N.O‘.Eshonqulova***
*Sarbon universiteti*
*talabasi*

Ko‘pchilik davlatlarda bo’lgani singari bizning davlatimizda ham hokimiyat tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linish prinsiplariga asoslangan. Davlat hokimiyati vakolatlarining taqsimlanishi- bu hokimiyat har uchala tarmog’ining muvozanatini, tengligini hamda ularning o‘zaro bir-birini tiyib turishini va qarama-qarshi ta’sir etishini ta’minlovchi tizimdir. Ayni paytda ushbu organlar vakolatlari shundayki, ular bir-biridan xoli harakat qila olmaydi va davlat hokimyati uch mustaqil tarmoq kooperatsiyasi jarayonida amalga oshiriladi. Hokimiyat vakolatlarini taqsimlanishi prinsipini O‘zbekiston Respublikasida joriy qilishdan maqsad davlat hokimiyati to’laligicha bir shaxs yoki organ qo’lida jamlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, mamlakatda demokratiyalashtirish jarayonini tezlashtirish, davlat mexanizmini

takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni qayta tiklash, inson huquqlari va ekinliklarining ustuvorligini tan olish va privordida huquqiy davat barpo etishdan iborat. Zero, hokimiyatning to‘liq bir shaxs yoki organ qo’lida jamlanishi demokratiya va inson huquq hamda erkinliklariga bevosita xavf tug’diradi va avtoritar tuzum o’rnatilishiga olib kelishi mumkin. Demak hokimiyat vakolarlarining taqsimlanishi prinsipi hokimiyatning suiiste’mol qilinishidan, byurokratizmdan va siyosiy hayotdagi bosh- boshdoqlikdan qutilish, hokimiyat organlarining muvozanaati va tengligini ta’minlash, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga solish imkoniyatini beradi.

Davlat hokimiyat tizimi hokimiyatlarnining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo’linishi Konstitutsiyamizning 11-moddasida ham belgilab qo’yilganligi shubxasiz mazkur hokimiyatlarning davlatimiz tizimida yuqori ekanligini ko’rsatadi. Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash nazariyasi fransuz olimi SH. L. Monteskening “Qonunlar ruhi haqida” asarida bayon etilgan. Uning fikricha, adolatli qurilgan davlatda hokimiyat yagona emas, balki aksincha bir- biriga tobe bo’lmagan uchta hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud bo’lishi kerak. Ularning har qanday ko’rinishida biron- bir organ yoki shaxs qo’lida mujassamlanishi umumiy manfaatlarga putur yetkazadi, suiiste’mollika olib keladi va shaxsning siyosiy erkinligi bilan also kelishmaydi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning bir qo’lda birlashtirilishi qonunning ustun bo’lishiga zarar yetkazadi. Agar sudyalar faqat qonun bilan mashg’ul bo’lmay, qonun yaratish ishi bilan shug’ullansa, u holda insonlar hayoti nohaqlik qurboniga aylanishi mumkin.

Eng avval sud hokimiyati o‘zi nima, degan savolga javob berish lozimdir, chunki shu asosda sudning hokimiyat tizimidagi o‘rnini aniqlash hamda u haqida aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Sud hokimiyatini nazariy jihatdan tahlil qilib ko’rsak, sud hokimiyati– bu davlat hokimiyatining mustaqil tarmog’i bo’lib, u adolatni amalga oshirish orqali huquqiy nizolarni hal qiladi va qonun ustuvorligini ta’minlaydi. U faqat sud organlari orqali amalga oshiriladi va boshqa organlar tomonidan o’zlashtirilishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumlarining birida ham “Sud hokimiyati” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Sud hokimiyati- bu sudlarining O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so’zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo’jalik ishlarini va ma’muriy huquqbuzarliklar to’g’risidagi ishlarni

ko’rish bo’yicha vakolatlidir”.[^2] Bu ta’rif sud hokimiyati vazifalarini to’la qamrab olmagan bo’lsada, dastlabki urinishlardan bo’lganligi uchun uni ijobiy baholash mumkin. Albatta sud hokimiyati tushunchasiga ta’rif berishda Konstitutsiyaviy sud qonunlarning Konstitutsiyaga mos kelishi, fuqarorlar huquqi, sha’ni, qadr- qimmatini himoya qilish sudlarning asosiy vazifasi ekanligi e’tiborga olinishi kerak. Sud hokimiyati davlat hokimiyatining muhim tarmog’idan biridir va alohida tarmog‘i sifatida barcha demokratik mamlakatlarda e’tirof etilgan.

Sobiq tuzumda ya’ni Sovet Ittifoqida sud sotsiallistik tuzum himoyachisi sifatida namoyon bo’lib, undan har qanday demokratik chiqish va harakatlarni jazolash vositasi sifatida foydalanilgan. U mustaqil hokimiyat tarmog’i hisoblanmagan. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab sudlarni alohida mustaqil hokimiyat tarmog’I sifatida vujudga keltirish uchun harakatlar boshlandi. Sud hokimiyatining tashkil etilishi bevosita davlat boshqaruv shakliga bog’liqdir. Cheklangan monarxiya va Respublika shaklidagi davlatlarda sud hokimiyati hokimiyatning alohida mustaqil tarmog’i sifatida faoliyat olib boradi. O’zbekiston davlat boshqaruvi Respublika shaklidagi davlatdir va bu O‘zbekiton Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida aniq ko’rsatib qo’yilgan. Konstitutsiyaning 11- moddasiga binoan O’zbekistonda davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo’linadi. Bunda sud hokimiyati Konstitutsiyaning 130- moddasi, 2- qismiga binoan “sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi[^3]. Sud hokimiyati tarmog’ining mustaqilligi, inson huquqlarini samarali himoya qilish uchun muhimdir. Shu bois, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10- moddasida har bir inson o’zining huquq va majburiyatlari bog’liq bo’lgan ishining mustaqil sud tomonidan ko’rib chiqilishi huquqiga egaligi belgilab qo’yilgan. Bu Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasiga qo’shilgan har bir davlat zimmasiga sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlash majburiyatini yuklaydi.

Sud hokimiyatining amaliy jihatlari jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini real himoya qilish bilan bevosita bog’liq. Nazariy prinsiplar qanchalik mukammal bo’lmasin, ularning amaliyotda qanday ishlashi sud tizimining haqiqiy samaradorligini belgilaydi. Amaliy jihatdan sud hokimiyati, avvalo, ishlarni ko’rib chiqish jarayonida namoyon bo’ladi. Sudlar fuqarolik, jinoyat ma’muriy va iqtisodiy nizolarni ko’rib chiqib, har bir holatda

qonun asosida qaror qabul qiladi. Bu jarayonda sudyaning xolisligi, mustaqilligi va professional malakasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sud qarorlari dalillarga, qonun normalariga va adolat prinsipiga tayanishi lozim. Sud hokimiyatining yana bir muhim amaliy jihati – fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatidir. Har bir shaxs o'z buzilgan huquqlarini tiklash uchun sudga murojaat qila olishi kerak. Bu esa sud tizimining ochiqligi, qulayligi va hammabopligini talab qiladi. Elektron sud tizimlarining joriy etilishi, onlayn ariza topshirish imkoniyatlari va sud majlislarining oshkoraligi ushbu yo'nalishda muhim rol o'ynaydi. Amaliyotda sud hokimiyati ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mustaqil faoliyat yuritishi bilan ham ahamiyatlidir. Sudlarga tashqi aralashuvlarning oldini olish, sudyalarning daxlsizligini ta'minlash va ularni ijtimoiy himoya qilish orqali mustaqillik kafolatlanadi. Aks holda, sud qarorlarining adolatliligi shubha ostida qoladi. Shu bilan birga, sud hokimiyatining samarali ishlashi ko'p jihatdan sudyalar va sud xodimlarining malakasiga bog'liq. Ularning doimiy ravishda bilim va ko'nikmalarini oshirib borishi, zamonaviy huquqiy yondashuvlarni o'zlashtirishi zarur. Malakali sudyalar tizimi – adolatli sudlovning asosi hisoblanadi. Amaliy muammolar ham mavjud. Ba'zi holarda ishlarning ortiqcha cho'zilishi, byurokratik to'siqlar, korrupsiya holatlari yoki sud qarorlarining ijrosi bilan bog'liq muammolar uchrab turadi. Bu esa sud tizimiga bo'lgan ishonchni pasaytiradi. Shu sababli sud – huquq islohatlari doirasida bunday kamchiliklarni bartaraf etish muhim vazifa hisoblanadi. Demak sud hokimiyatining amaliy jihatlari- bu sudlarning kundalik faoliyati, qarorlarining adolatliligi, fuqarolar uchun ochiqligi va mustaqilligini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlardir. Aynan amaliyotda sud tizimi qanchalik samarali ishlasa, jamiyatda qonun ustuvorligi shunchalik mustahkam bo'ladi.

Sud hokimiyati quyidagi fundamental prinsiplarga asoslanadi: mustaqillik, qonuniylik, adolatlilik, oshkoralik, taraflarning tengligi va tortishuvlik, sud qarorlarining majburiyligi. Mustaqillik prinsipi – sud hokimiyati konstitutsiyaviy institut sifatida, aniq bir ish bo'yicha qaror qabul qilayotgan sudyalar esa ijro, qonun chiqaruvchi hokimiyatlar va boshqa organlar tomonidan hech qanday tashqi ta'sirsiz o'zlarining professional vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozimligini anglatadi. Faqat mustaqil sud hokimiyatigina, xolis, qonunga asoslanib, inson huquqlari va shaxsning asosiy erkinliklarini himoya qilgan holda odil sudlovni amalga oshira oladi. Bu vazifa samarali hal qilinishi uchun jamoatchilik sud organlari o'z funksiyalarini mustaqil va

xolis amalga oshirish qobiliyatiga to’liq ishonishi lozim. Qachonki, ishonch yo’qolishni boshlasa, na sud hokimiyati institut sifatida, na alohida sudyalar bu muhim vazifani hal qila olishadi yoki ularning bu vazifani ado etayotganiga shubha bilan qarashadi.

Sud mustaqilligini ta’minlash uchun quyidagi mexanizlar muhim ahamiyatga ega:

-sudyalarni ta’yinlash va lavozimdan ozod etishning aniq tartibi;

-sudyalar daxlsizligi va ularning faoliyatiga aralashuvni taqiqlash;

-sudyalarning moliyaviy mustaqilligi;

-sud qarorlarini ijro etish tizimining samaradorligi. Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasining sudlar to’g’risidagi qonunning 9-moddasining 1-qismida “Sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo’ysunadi. Sudyalarni odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron- bir tarzda aralashishga yo’l qo’yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo’ladi” – deb qunun bilan sud mustaqilligi keltirib o’tilgan. Sud hokimiyatining qay darajada mustaqilligi har bir mamlakatda huquq ustuvorligining qay holatda ekanini ham ko’rsatib beradi. Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi sudyalarning shaxsiy foydasiga emas, balki hokimiyatning su’istemol qilinishidan insonlarni himoya qilishga xizmat qiladi. Shuning uchun, sudyalar kelib tushgan ishlarni ko’rib chiqishida, o’zining shaxsiy hohishidan kelib chiqib, o’z bilganlaricha harakat qila olishmaydi, ularning burchi faqat qonunni qo’llash hisoblanadi. Shaxs huquqlarini himoya qilish sohasida, sudyalar har bir tegishli holatda inson huquqlari bo’yicha milliy va xalqaro normalarni qo’llash uchun javob beradi.

Sud hokimiyatining qonuniylik tamoyili huquqiy davlatning eng muhim asoslaridan biri bo’lib, jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligini ta’minlashni anglatadi. Ushbu tamoyil davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning o’z faoliyatida qonunlarga qat’iy rioya etishini talab qiladi. Qonunning ustuvorligi qonuniylikning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bunda barcha normativ–huquqiy hujjatlar qonunga mos bo’lishi zarur bo’lib, hech bir organ yoki shaxs qonundan ustun turishi mumkin emas. Ushbu tamoyil sud faoliyatining barcha bosqichlarida ham qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni kafolatlaydi. Qonuniylik tamoyili, avvalo, sudlarning faqat amaldagi qonunlarga asoslaanib ish yuritishini anglatadi. Sud qarorlari subyektiv qarashlar yoki tashqi ta’sirlarga emas, balki qonun normalariga tayanib chiqarilishi lozim. Bu esa sud hokimiyatining mustaqilligini

mustahkamlash bilan birga, jamiyatda adolatga bo’lgan ishonchni oshiradi.Mazkur tamoyil sud jarayonida barcha ishtirokchilarining qonun oldida tengligini ham nazarda tutadi. Har bir shaxs, uning ijtimoiy mavqei, mansabi yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, sudda bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo’ladi. Shu orqali sud hokimiyati diskriminatsiyaga yo’l qo’ymasdan, adolatli qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Bundan tashqari sud hokimiyatining qonuniylik tamoyili protsessual normalarga qat’iy rioya etishni ham talab qiladi. Ishlarni ko’rib chiqish belgilangan tartib va muddatlar asosida amalga oshirilishi, dalillar qonuniy yo’l bilan to’planishi va baholanishi zarur. Aks holda chiqarilgn qarorlarning qonuniyligi shubha ostida qoladi. Shuningdek ushbu tamoyil sud qarorlarining majburiyligini ham o’z ichiga oladi. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi shart. Bu esa sud hokimiyatining real ta’sir kuchini ta’minlaydi. Demak qonuniylik tamoyili sud hokimiyatining samarali faoliyat yuritishi, adolatni qaror toptirish va fuqarolarning huquqiy himoyasini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyilga qat’iy amal qilinishi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltiradi va demokratik davlat qurilishiga xizmat qiladi. “Adolat- bu davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o’rinni egallaydi”[^4]- deb davlatimiz rahbari adolat tamoyiliga ta’rif bergan edi. Biz shuni bilishimiz kerakki, sud hokimiyati huquqiy davlat tizimining ajralmas qismi bo’lib, uning asosiy vazifasi jamiyatda adolatni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat. Sud faoliyati ma’lum adolat tamoyillariga tayanadi va aynan shu tamoyillar sud hokimiyatining mazmun- mohiyatini belgilab beradi. Sud faoliyatining asosida qonun ustuvorligi yotadi. Sudlar har qanday ishni ko’rib chiqishda faqat amaldagi qonunlarga asoslanadi va chiqarilgan qarorlar qonuniy hamda asoslangan bo’lishi lozim. Bu esa sud qarorlarining adolatli va ishonchli bo’lishini ta’minlaydi. Sudlarning mustaqilligi va daxlsizligi adolatni qaror topshirishning muhim kafolatidir. Sudyalar o‘z faoliyatida mustaqil bo’lib, hech qanday tashqi bosim yoki aralashuvsiz faqat qonunga bo‘ysunadi. Mazkur holat xolis va adolatli qaror chiqarish imkonini yaratadi. Sud hokimiyatida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi ta’minlanadi. Shaxsning ijtimoiy mavqei, mansabi yoki boshqa belgilaridan qat’iy nazar, sud jarayonida hamma teng huquqlarga ega hisoblanadi. Bu esa adolatning asosiy shartlaridan biridir. Sud jarayonining ochiqligi va oshkoraligi sud

tizimiga bo’lgan ishonchni mustahkamlaydi. Sud majlislari odatda ochiq o’tkazilib, jamoatchilik nazorati ta’minlanadi. Shu bilan birga, zarur hollarda qonun asosida sud majlislari ham o’tkazilishi mumkin. Bundan tashqari aybsizlik prezumpsiyasi sud adolatining muhim ko’rinishlaridan biridir. Shaxs sud hukmi bilan aybi isbotlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi.Bu tamoyil inson huquqlarini himoya qilishda alohida ahamiyatga ega va aynan bu O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28- moddasi bilan mustahkamlab qo’yilgan. Sud jarayonida taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi ta’minlanadi. Har bir tomon o’z pozitsiyasini himoya qilish, dalillarni taqdim etish va sudni ishontirish huquqiga ega bo’ladi. Bu esa sudning xolis qaror chiqarishiga xizmat qiladi. Sudqarorlarining majburiyligi sud hokimiyatining amaliy kuchini ifodalaydi. Sud tomonidan chiqarilgan qarorlar barcha davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolar tomonidan bajarilishi shart hisoblanadi. Sud hokimiyatining adolat tamoyillari jamiyatda qonuniylik va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim o’rin tutadi. Ushbu tamoyillarga qat’iy amal qilinishi sud tizimining samaradorligi oshiradi va fuqarolarning davlatga hamda adolatga bo’lgan ishonchini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi
- harbiy sudlar
- Qoraqalpog’iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy sud, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari;
- fuqarolik ishlari bo’yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- jinoyat ishlari bo’yicha tuman, shahar sudlari;
- tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
- tumanlararo ma’muriy sudlar[^5]. Sud tizimi jamiyatda adolatni ta’minlovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Shu bois undagi muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo’llarini ko’rsatish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Avvalo sudlarga tashqi ta’sir ehtimoli masalasi dolzarb hisoblanadi. Nazariy jihatdan sud hokimiyati mustaqil bo’lishi kerak, ammo amaliyotda ayrim holatlarda ijro etuvchi hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar yoki boshqa manfaatdor shaxslarning bevosita yoki bilvosita ta’siri kuzatilishi mumkin. Bunday holatlar sud qarorlarining xolisligi va adolat prinsipiga putur yetkazadi.

Sud mustaqilligining to’liq ta’minlanmasligi fuqarolarning sudga bo’lgan ishonchini pasaytiradi va huquqiy davlat tamoyillariga zid keladi. Keyingi muhim muammo – sud qarorlarining ijro etilishi bilan bog’liq kamchiliklardir. Amalda sud tomonidan chiqarilgan qarorlar har doim ham o’z vaqtida va to’liq ijro etilmaydi. Bunga sabab sifatida ijro organlari faoliyatidagi sustkashlik, byurokratik to’siqlar, moddiy- texnik resurslarning yetishmasligi yoki ayrim hollarda qaror ijrosidan qochish holatlari keltiriladi. Natijada sud qarorlarining mavjudligi formal ahamiyat kasb etib, uning real natijasi ta’minlanmay qoladi. Bu esa “sud orqali himoya” institutining samaradorligini pasaytiradi. Shuningdek, sudyalarning kasbiy tayyorgarligi va malakasi masalasi ham alohida e’tibor talab qiladi. Sudya yuqori darajadagi huquqiy bilim, mustahkam axloqiy pozitsiya va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo’lishi zarur. Biroq ayrim hollarda sudyalarning amaliy tajribasi yetarli emasligi, qonunchilikdagi yangiliklardan xabardorlik darajasi pastligi yoki murakkab ishlarni tahlil qilish ko’nikmalarining yetishmasligi kuzatiladi. Bu esa sud qarorlarining sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir qator chora- tadbirlarni amalga oshirish zarur. Xususan sud hokimiyatining mustaqilligini institutsional jihatdan mustahkamlash, sudyalarga har qanday tashqi bosimni oldini oluvchi samarali mexanizlarni joriy etish muhimdir. Sud qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida ijro organlari faoliyatini takomillashtirish, javobgarlik choralarini kuchaytirish va zamonaviy nazorat tizimlarini joriy etish lozim. Shu bilan birga, sudyalar malakasini oshirish, ularni muntazam ravishda qayta tayyorlash va xalqaro tajribani o’rganish orqali kasbiy salohiyatini yuksaltirish zarur.

Xorijiy tajriba shuni ko’rsatadiki, sud hokimiyatining samaradorligini oshirish izchil va kompleks yondashuvni talab etadi. Turli davlatlar amaliyotida sud tizimini takomillashtirish bo’yicha ilg‘or mexanizlar shakllangan bo’lib, ularni milliy tizimga moslashtirish sud-huquq islohatlarini chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, AQSH va Germaniya tajribasida sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash uchun sudyalarni tanlash va tayinlashning shaffof mexanizmlari joriy etilgan. Bu davlatlarda sudyalar tanlov asosida, ularning kasbiy salohiyati, halolligi va tajribasi chuqur o’rganilgan holda lavozimga tayinlanadi. Natijada sud tizimida professionallik va xolislik yuqori darajada ta’minlanadi. Shu bilan birga, sudyalarning faoliyatiga aralashuvning oldini olish uchun mustahkam huquqiy kafolatlar yaratilgan. Fransiya va Yaponiya amaliyotida esa sud

qarorlarining ijrosini ta’minlashga alohida etibor qaratilgan. Bu mamlakatlarda ijro tizimi mustaqil va samarali faoliyat yuritadi, sud hujjatlarining o‘z vaqtida bajarilishi qat’iy nazorat qilinadi. Ijro intizomining yuqoligi fuqarolarning sudga bo’lgan ishonchini mustahkamlashda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniya tajribasida sudyalar malakasini oshirish tizimi yuqori darajada yo’lga qo’yilgan. Sudyalar muntazam ravishda malakasini oshirish kurslarida ishtirok etadi, yangi qonunchilik va sud amaliyoti bo’yicha bilimlarini yangilab boradi. Bu esa sud qarorlarining sifatini oshirib borishga xizmat qiladi. Mazkur xorijiy tajribalar asosida sud hokimiyatini takomillashtirishning bir qator ustuvor yo’nalishlarini belgilash mumkin. Jumladan, sudyalarni tanlash va tayinlash tizimini yanada shaffoflashtirish, sud mustaqilligini ta’minlovchi huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, sud qarorlarining ijrosini samarali nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, shuningdek sudyalar malakasini uzluksiz oshirib borish zarur. Ilmiy- amaliy jihatdan bunday takliflar sud- huquq islohatlarini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari sud tizimining ochiqligi, adolatliligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo’lib, ularni amaliyotga tatbiq etish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish imkoniyati kengayadi. Shu tariqa, xorijiy tajribani chuqur o’rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish sud hokimiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida paydo bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimini takomillashtirish huquqiy davlatva fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida sud hokimiyatining huquqiy mohiyati, uning davlat hokimiyati tizimidagi o’rni hamda mustaqilligini ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek sud tizimida mavjud muammolar, xususan sudlarga tashqi ta’sir ehtimoli, sud qarorlarining ijro etilishi bilan bog’liq kamchiliklar hamda sudyalarning kasbiy tayyorgarligi masalalari ochib berildi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta’minlash, sud qarorlarining so’zsiz ijrosiga erishish va sudyalarning kasbiy salohiyatini oshirish sud tizimi samaradorligining asosiy omillaridan hisoblanadi. Xorijiy tajriba tahlili assosida sud hokimiyatini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari belgilandi va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy- amaliy takliflar ilgari surildi. Mazkur taklif va xulosalarni amaliyotga joriy etish sud- huquq islohatlarini yanada chuqurlashtirish, sud tizimining ochiqligi va

shaffofligini ta’minlash, eng muhimi fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Natijada jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari yanada mustahkamlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 03/23/ 837/0241- son
- Sudlar to’g’risidagi Qonun 03/ 25/1109/1241- son.
- Davlat va huquq nazariyasi. Saydullayev Sh. 2024.122- b.
- Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. 2024.67- b.

[^2]: O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to’plami. 1991-1997.-T.:” SHarq”, 1997. 5-6-betlar.

[^3]: O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. / https:// lex.uz/ docs/ -6445145.

[^4]: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.T.: “O’zbekiston”, 2021,58- bet.

[^5]: /http: // lex.uz//docs/-5534923.


# KOREYA YARIMOROLIDA SIYOSIY ZIDDIYATLAR VA ULARNING GLOBAL TA’SIRI


***B.I.Qobilov***
*Sarbon Universiteti*
*talabasi*
*[behruzbekqobilov08@gmail.com]*



**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Koreya yarimorolida yuzaga kelgan siyosiy ziddiyatlarning tarixiy shakllanishi, asosiy sabablari va zamonaviy rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda Shimoliy va Janubiy Koreya o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, Koreya urushi oqibatlari hamda bugungi kundagi harbiy va siyosiy keskinliklar yoritiladi. Shuningdek, Shimoliy Koreyaning yadro dasturi, yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlari va bu ziddiyatlarning global xavfsizlikka ta’siri ko‘rib chiqiladi. Maqolada muammoni hal etishda diplomatik yondashuvlar va mintaqada barqarorlikni ta’minlash istiqbollari yuzasidan xulosalar beriladi.



**Kalit so‘zlar:** Koreya yarimoroli, siyosiy ziddiyatlar, Shimoliy Koreya, Janubiy Koreya, Koreya urushi, yadro dasturi, global xavfsizlik, geosiyosat, diplomatiya, harbiy keskinlik.


**Kirish**. Koreya yarimoroli zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida eng murakkab va dolzarb geosiyosiy ziddiyatlar markazlaridan biri hisoblanadi. Uning shakllanishi XX asr o‘rtalaridagi tarixiy jarayonlarga, xususan Ikkinchi jahon urushidan keyin yarimorolning 38-parallel bo‘ylab ikki qismga ajratilishiga borib taqaladi. Natijada shimolda sotsialistik tizimga asoslangan Shimoliy Koreya, janubda esa

kapitalistik rivojlanish yo‘lini tanlagan Janubiy Koreya vujudga keldi. Ushbu ideologik qarama-qarshilik 1950–1953 yillardagi Koreya urushiga sabab bo‘lib, urush sulh bilan yakunlanganligi tufayli mojaro hozirgacha “muzlatilgan ziddiyat” sifatida saqlanib qolmoqda. Bugungi kunda esa Shimoliy Koreyaning yadro dasturi va ballistik raketa sinovlari, shuningdek AQSh, Xitoy, Rossiya va Yaponiya kabi yirik davlatlarning strategik manfaatlari mintaqadagi keskinlikni yanada kuchaytirib, uni nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikka tahdid soluvchi omilga aylantirmoqda. Shu bois Koreya yarimorolida barqarorlikni ta’minlash masalasi xalqaro hamjamiyat uchun muhim strategik vazifa bo‘lib qolmoqda.

**Natijalar.** Koreya yarimorolida siyosiy ziddiyatlarning shakllanishi bevosita XX asrning yirik geosiyosiy voqealari bilan bog‘liq. 1910–1945 yillarda Koreya Yaponiya mustamlakasi ostida bo‘lgan bo‘lsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin u ikki ta’sir zonaga bo‘linib ketdi. Bu jarayon “sovuq urush” davrining dastlabki qarama-qarshiliklaridan biri sifatida tarixga kirdi. 1948 yilda ikki alohida davlat – Shimoliy Koreya va Janubiy Koreya tashkil topdi. Ularning siyosiy tizimi, iqtisodiy modeli va tashqi siyosiy yo‘nalishlari mutlaqo qarama-qarshi edi. Aynan shu mafkuraviy va siyosiy tafovutlar keyinchalik yarimorolda chuqur ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. 1950 yilda boshlangan Koreya urushi uch yil davom etdi va millionlab insonlarning hayotiga zomin bo‘ldi. Urush natijasida yarimorol ikki qismga ajralgan holda qoldi hamda demilitarizatsiya zonasi (DMZ) tashkil etildi. Ushbu hudud bugungi kunda ham dunyodagi eng harbiylashgan zonalardan biri hisoblanadi. Urushning eng muhim oqibatlaridan biri ikki davlat o‘rtasida uzoq muddatli ishonchsizlik, dushmanlik va qarama-qarshilik muhitining shakllanishi bo‘ldi. Natijada Koreya yarimorolida tinchlik shartnomasi imzolanmaganligi sababli mojaro hanuzgacha “muzlatilgan ziddiyat” sifatida saqlanib qolmoqda.

**Muhokama.** XXI asrga kelib Koreya yarimorolidagi siyosiy ziddiyatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, Shimoliy Koreyaning yadro dasturi va ballistik raketa sinovlari xalqaro hamjamiyat tomonidan keskin tanqid qilinmoqda. Bunga javoban AQSh va uning ittifoqchilari iqtisodiy sanksiyalar hamda harbiy bosim choralarini qo‘llab kelmoqda. Shu bilan birga, Janubiy Koreya iqtisodiy va texnologik rivojlanish orqali Osiyodagi yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va harbiy tafovutlarning ortib borishi esa yarimoroldagi keskinlikni yanada kuchaytirmoqda.

Koreya yarimorolida yuz berayotgan voqealarni yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. AQSh Janubiy Koreya bilan harbiy ittifoqni mustahkamlash orqali mintaqada o‘z ta’sirini cақlab qolishga intilmoqda. Xitoy esa Shimoliy Koreyaning asosiy iqtisodiy hamkori sifatida uning barqarorligini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Rossiya mintaqadagi strategik muvozanatni saqlash va muammoni diplomatik yo‘l bilan hal etish tarafdori hisoblanadi. Yaponiya esa Shimoliy Koreyaning raketa sinovlari sababli o‘z xavfsizligidan jiddiy xavotirda bo‘lgan davlatlardan biridir. Shu sababli Koreya yarimorolidagi har qanday keskinlik nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosdagi siyosiy vaziyatga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur ziddiyatlar global xavfsizlik tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Yadro qurollarining tarqalishi xavfi, ehtimoliy harbiy to‘qnashuvlar va xalqaro sanksiyalar tizimi jahon iqtisodiyotiga ham salbiy ta’sir qilishi mumkin. Agar mojaro yanada keskinlashsa, bu butun Osiyo-Tinch okeani mintaqasida beqarorlik yuzaga kelishiga olib keladi. Shu bois Koreya yarimorolida barqarorlikni ta’minlash masalasi xalqaro tashkilotlar va yirik davlatlarning doimiy e’tibor markazida bo‘lib qolmoqda. Diplomatik muzokaralar, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish esa muammoni tinch yo‘l bilan hal etishning eng muhim vositalaridan biri sifatida baholanmoqda.

**Xulosa.** Koreya yarimorolida yuzaga kelgan siyosiy ziddiyatlar tarixiy, ideologik va geosiyosiy omillar ta’sirida shakllangan murakkab jarayon bo‘lib, bugungi kunda ham global xavfsizlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Shimoliy Koreyaning yadro dasturi va yirik davlatlar manfaatlarining to‘qnashuvi mintaqadagi keskinlikni kuchaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, muammoni hal etishda faqat kuch yoki sanksiyalar yetarli emasligi, balki diplomatik muzokaralar, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Mazkur yondashuvlargina Koreya yarimorolida uzoq muddatli tinchlik va barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, ikki Koreya o‘rtasidagi iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish ham vaziyatni yumshatishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Mintaqada harbiy keskinlikni kamaytirish va ishonch choralarini joriy etish barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Umuman olganda, barcha tomonlarning konstruktiv yondashuvi va o‘zaro manfaatlarni hisobga olishi muammoning ijobiy yechimiga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

-Armstrong, C.K. The Koreas. Routledge, 2014. pp.15–35, 78–102. [https://www.routledge.com/The-Koreas/Armstrong/p/book/9780415720980](https://www.routledge.com/The-Koreas/Armstrong/p/book/9780415720980)

2. Cumings, B. Korea’s Place in the Sun. 2005. pp.187–245. [https://wwnorton.com/books/9780393327027](https://wwnorton.com/books/9780393327027)

3. Oberdorfer, D. The Two Koreas. 2014. pp.1–25, 350–410. [https://www.basicbooks.com/titles/don-oberdorfer/the-two-koreas/9780465031234/](https://www.basicbooks.com/titles/don-oberdorfer/the-two-koreas/9780465031234/)

4. Lankov, A. The Real North Korea. 2015. pp.120–165. [https://global.oup.com/academic/product/the-real-north-korea-9780199390034](https://global.oup.com/academic/product/the-real-north-korea-9780199390034)

5. Snyder, S. South Korea at the Crossroads. 2018. pp.45–90. [https://cup.columbia.edu/book/south-korea-at-the-crossroads/9780231185485](https://cup.columbia.edu/book/south-korea-at-the-crossroads/9780231185485)

6. UN Reports [https://www.un.org/securitycouncil/sanctions/17-18](https://www.un.org/securitycouncil/sanctions/17-18)

## MARKAZIY OSIYODA ISLOM OMILI VA MINTAQAVIY GEOSIYOSIY BARQARORLIK

***O.G‘.Saydullayev***
*Sarbon universiteti rektori yordamchisi*
*[politolog6644@gmail.com]*

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik jihatidan strategik ahamiyatga ega hudud sifatida tobora ortib borayotgan e’tiborni tortmoqda. Yevrosiyo makonining markazida joylashgan ushbu mintaqa global kuchlar manfaatlari kesishgan, transport-logistika yo‘laklari va energetik resurslar bilan bog‘liq muhim geosiyosiy tugun hisoblanadi. Shu bois Markaziy Osiyoda kechayotgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlar mintaqaviy barqarorlik bilan bir qatorda xalqaro xavfsizlik tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, global va mintaqaviy xavfsizlik diskursida Islom omili ko‘pincha radikalizm, ekstremizm va terrorizm bilan bog‘lab talqin qilinmoqda. Bunday yondashuv Islomning murakkab va ko‘p qirrali mohiyatini soddalashtirib, uni asosan xavf manbai sifatida ko‘rsatishga olib keladi. Natijada diniy omilning ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish va jamiyatda konstruktiv qadriyatlarni qaror toptirishdagi salohiyati yetarlicha e’tibordan chetda qolmoqda. Aslida esa Islom omili mintaqada nafaqat mafkuraviy, balki madaniy va ijtimoiy resurs sifatida ham muhim ahamiyatga ega

Markaziy Osiyoda Islom omilining geosiyosiy barqarorlikka ta’siri masalasi ko‘p qatlamli va murakkab xarakterga ega. Bir tomondan, diniy qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy intizom, axloqiy mas’uliyat va solidarizmni mustahkamlash orqali ichki barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin. Ikkinchi tomondan, diniy omilning siyosiylashtirilishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni yuzaga keltirishi ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, transmilliy tahdidlar, Afg‘oniston omili va axborot makonidagi mafkuraviy ta’sirlar fonida mazkur masala yanada dolzarb tus olmoqda.

Shu sababli Islom omilining Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlarga ta’sirini biryoqlama emas, balki kompleks va ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Islom omilining Markaziy Osiyo mintaqasida geosiyosiy barqarorlikni shakllantirish va saqlashdagi rolini aniqlash, uning barqarorlashtiruvchi salohiyati hamda mumkin bo‘lgan destabilizatsion jihatlarini xolis baholashdan iborat. Mazkur yondashuv mintaqada diniy siyosat va xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi kutiladi

Islom omilining geosiyosiy jarayonlarga ta’siri masalasi xalqaro munosabatlar, xavfsizlik tadqiqotlari hamda dinshunoslik sohalarida keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyo mintaqasi misolida ushbu masalaning kompleks va tizimli tahlili nisbatan cheklanganligicha qolmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotlar asosan uch asosiy yo‘nalishda jamlangan: birinchisi – Islom omilining tarixiy va sivilizatsion jihatlari; ikkinchisi – diniy radikalizm va xavfsizlik masalalari; uchinchisi – Islomning geosiyosiy va “yumshoq kuch” (soft power) omili sifatidagi roli [2].

Islomning Markaziy Osiyodagi tarixiy va madaniy ildizlari masalasi ko‘plab klassik va zamonaviy tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, V.V.

Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, B. G‘afurov kabi sharqshunos olimlar o‘z asarlarida Markaziy Osiyoda Islomning tarqalishi va uning mahalliy ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar bilan uyg‘unlashuvini ilmiy asosda tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotlarda Islom mintaqada tashqi sivilizatsion bosim emas, balki mahalliy madaniyat va an’analar bilan sintezlangan ijtimoiy institut sifatida shakllangani asoslab beriladi. Bu yondashuv zamonaviy tadqiqotlar uchun metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi [1].

Mustaqillikdan keyingi davrda Islom omilining qayta tiklanishi va uning siyosiy-huquqiy oqibatlari masalasi G. Fuller, O. Roy, J. Esposito kabi g‘arb olimlari tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, O. Roy “The New Central Asia” asarida mintaqada diniy uyg‘onish jarayonlarini ideologik radikalizm bilan avtomatik tarzda bog‘lash ilmiy jihatdan asossiz ekanini ta’kidlab, diniy identitetning ko‘proq ijtimoiy va madaniy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. J. Esposito esa Islomni global siyosatda monolit hodisa sifatida talqin qilish xatoligini ko‘rsatib, uning turli mintaqalarda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘lishini ilmiy asoslaydi[2].

Markaziy Osiyoda Islom va xavfsizlik masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar asosan diniy ekstremizm va radikalizm muammosiga yo‘naltirilgan. A. Rashid, M. B. Olcott, S. Peyrouse kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida mintaqadagi diniy radikalizmning sabablari diniy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va institutsional omillar bilan bog‘liqligini asoslab beradi [3]. Xususan, M. Olcott Markaziy Osiyo davlatlarida olib borilgan qat’iy xavfsizlikka yo‘naltirilgan siyosat ayrim hollarda radikal kayfiyatlarning kuchayishiga zamin yaratganini ta’kidlaydi. Ushbu xulosalar Islom omilini geosiyosiy barqarorlikka tahdid sifatida emas, balki noto‘g‘ri boshqarilgan omil sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Mintaqaviy va mahalliy tadqiqotlarda, jumladan, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston olimlari ishlarida Islom omilining ijtimoiy barqarorlikdagi o‘rni masalasi tobora ko‘proq e’tibor qozonmoqda. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarda (xususan, diniy siyosat, vijdon erkinligi va milliy xavfsizlikka bag‘ishlangan ilmiy ishlar) an’anaviy Islomni qo‘llab-quvvatlash va ma’rifiy yondashuvni rivojlantirish ekstremizmga qarshi samarali mexanizm sifatida baholanadi. Ushbu dissertatsiyalarda davlat va diniy institutlar o‘rtasidagi konstruktiv hamkorlik ichki barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida ko‘rsatib beriladi [5].

So‘nggi yillarda Islom omilini geosiyosiy jarayonlar va “soft power” konsepsiyasi doirasida tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar ham paydo bo‘lmoqda. J. Nye tomonidan ilgari surilgan “yumshoq kuch” nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqotlarda diniy-madaniy omillar davlatlarning tashqi siyosiy nufuzi va mintaqaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi resurs sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv doirasida Islom omili Markaziy Osiyo davlatlari uchun nafaqat ichki barqarorlik, balki mintaqaviy hamkorlik va diplomatik aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida baholanmoqda [6].

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati Islom omilining alohida jihatlariga e’tibor qaratib, uni mintaqaviy geosiyosiy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq, kompleks hodisa sifatida yetarlicha yoritmagan. Ayniqsa, Islom omilining barqarorlashtiruvchi salohiyati va uning siyosiy instrument sifatida noto‘g‘ri talqin qilinishidan kelib chiqadigan xavflar o‘rtasidagi muvozanat masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda Islom omili mintaqaviy geosiyosiy barqarorlikka biryoqlama emas, balki ko‘p qirrali va tizimli ta’sir ko‘rsatishini aniqlash imkonini berdi. O‘rganilgan siyosiy amaliyotlar, davlatlar tomonidan olib borilayotgan diniy siyosat modellari hamda mintaqaviy xavfsizlik jarayonlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Islom omili to‘g‘ri boshqarilgan sharoitda barqarorlashtiruvchi resurs sifatida namoyon bo‘ladi, noto‘g‘ri siyosiylashtirilgan holatlarda esa xavfsizlik tahdidlariga zamin yaratishi mumkin.

Birinchidan, tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo davlatlarida Islom omilining ichki siyosiy barqarorlikka ta’siri davlatning diniy siyosati xarakteri bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston va Qozog‘iston misolida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, sekulyar davlat modeli doirasida an’anaviy Islomni qo‘llab-quvvatlash, diniy ta’limni institutsional asosda rivojlantirish va noqonuniy diniy faoliyatni ajratib ko‘rsatish ichki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida xizmat qilmoqda[6]. Xususan, so‘nggi yillarda diniy-ma’rifiy siyosatning kuchayishi diniy radikalizmga moyillikni kamaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, tadqiqot shuni aniqladiki, Markaziy Osiyoda diniy radikalizm va ekstremizmning kuchayishi bevosita Islom omilining o‘zi bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, siyosiy inklyuzivlikning past darajasi va axborot makonidagi tashqi mafkuraviy ta’sirlar bilan chambarchas bog‘liq. Ayrim davlatlarda diniy faoliyatning haddan

tashqari cheklanishi yoki diniy institutlar bilan muloqotning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani norozilik kayfiyatlarining diniy tus olishiga olib kelgan holatlar kuzatilgan[7]. Bu esa Islom omilining destabilizatsion ko‘rinishlari ko‘proq noto‘g‘ri boshqaruv natijasi ekanini tasdiqlaydi

Uchinchidan, mintaqaviy darajada olib borilgan tahlil Islom omilining transmilliy xavfsizlik jarayonlariga ta’siri mavjudligini ko‘rsatdi. Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat Markaziy Osiyo uchun muhim tashqi omil bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Afg‘onistondagi diniy-siyosiy jarayonlar mintaqa davlatlarida xavfsizlik siyosatini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining Afg‘oniston bilan bog‘liq yondashuvlari tobora pragmatik va xavfsizlikdan tashqari iqtisodiy hamkorlik elementlarini ham o‘z ichiga ola boshlagani kuzatilmoqda [8]. Bu esa Islom omilining mintaqaviy geosiyosatda mutlaq xavf manbai sifatida emas, balki boshqarilishi zarur bo‘lgan omil sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari yirik global kuchlarning Markaziy Osiyodagi Islom omiliga bo‘lgan munosabatida farqli strategiyalar mavjudligini aniqladi. Rossiya mintaqada diniy xavfsizlik masalasiga asosan harbiy-siyosiy barqarorlik nuqtayi nazaridan yondashib, radikalizmga qarshi kollektiv mexanizmlarni ilgari surmoqda. Xitoy esa diniy omilni asosan ichki xavfsizlik va transchegaraviy barqarorlik bilan bog‘lab, iqtisodiy loyihalar orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga intilmoqda[9]. AQSh va Yevropa Ittifoqi esa diniy erkinlik, inson huquqlari va fuqarolik jamiyati rivoji orqali uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan yondashuvni ilgari surmoqda. Ushbu turli strategiyalar Islom omilining Markaziy Osiyo geosiyosatida muhim instrumental ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari Islom omilining “yumshoq kuch” elementi sifatida mintaqaviy barqarorlikka hissa qo‘shish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Diniy-ma’rifiy hamkorlik, ilmiy va madaniy almashinuvlar, an’anaviy Islom qadriyatlarini targ‘ib qilish orqali Markaziy Osiyo davlatlari o‘z ichki barqarorligini mustahkamlash bilan birga, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Bu jihat ayniqsa diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlayotgan mamlakatlar tajribasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Islom omilining Markaziy Osiyoda geosiyosiy barqarorlikka ta’siri qat’iy deterministik emas, balki

siyosiy boshqaruv sifati, institutsional yondashuv va mintaqaviy hamkorlik darajasiga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Islom omilini xavf manbai sifatida emas, balki to‘g‘ri boshqarilgan sharoitda barqarorlikni mustahkamlovchi ijtimoiy va madaniy resurs sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli ekanligi ushbu natijalar orqali tasdiqlandi [10].

**Markaziy Osiyo davlatlarida Islom omilining boshqarilishi va geosiyosiy barqarorlikka ta’siri (qiyosiy tahlil)**

| Davlat | Diniy siyosat modeli | Islom omilining davlat siyosatidagi o‘rni | Xavfsizlikka ta’siri | Geosiyosiy barqarorlikka ta’siri (natija) |
|---|---|---|---|---|
| **O‘zbekiston** | Sekulyar, ma’rifiy Islom modeli | An’anaviy Islomni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, diniy ta’limni institutsionallashtirish | Radikalizmning oldini olishga qaratilgan profilaktik yondashuv | Ichki barqarorlik mustahkamlanmoqda, mintaqaviy hamkorlik kuchaymoqda |
| **Qozog‘iston** | Sekulyar, nazoratli diniy pluralizm | Diniy institutlar faoliyati qat’iy huquqiy tartibga solingan | Xavfsizlikka potensial tahdidlar erta aniqlanadi | Barqaror siyosiy muhit saqlanmoqda, tashqi siyosatda pragmatik yondashuv |
| **Qirg‘iziston** | Nisbatan liberal diniy siyosat | Diniy faollik yuqori, nazorat mexanizmlari cheklangan | Radikal g‘oyalarga ochiqlik mavjud | Ichki siyosiy beqarorlik xavfi yuqoriroq |
| **Tojikiston** | Qattiq sekulyar-nazorat modeli | Diniy faoliyat keskin cheklangan | Qisqa muddatda xavfsizlik ta’minlangan | Uzoq muddatda norozilik va yashirin radikallashuv xavfi |
| **Turkmaniston** | Avtoritar-sekulyar model | Islom davlat ideologiyasiga bo‘ysundirilgan | Xavfsizlik to‘liq davlat nazoratida | Barqarorlik tashqi yopiq siyosat hisobiga ta’minlangan |

Mazkur jadval Markaziy Osiyo davlatlarida Islom omilining boshqarilishi va uning geosiyosiy barqarorlikka ta’siri o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, diniy siyosatda muvozanatli va ma’rifiy yondashuv ustun bo‘lgan davlatlarda Islom omili ichki barqarorlikni mustahkamlovchi

omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aksincha, diniy sohani haddan tashqari cheklash yoki yetarlicha institutsional nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi uzoq muddatda xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Olingan tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda Islom omilining geosiyosiy barqarorlikka ta’siri deterministik xarakterga ega emasligini, balki siyosiy boshqaruv sifati, institutsional yondashuv va mintaqaviy kontekst bilan chambarchas bog‘liq ekanini tasdiqlaydi. Ushbu xulosa ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan qisman mos kelgan holda, Islom omilining barqarorlashtiruvchi salohiyatiga yetarlicha e’tibor qaratilmaganini ko‘rsatadi.

Avvalo, natijalar O. Roy va J. Esposito tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlarni tasdiqlaydi. Xususan, Islomni siyosiy radikalizm bilan avtomatik tarzda tenglashtirish ilmiy jihatdan asossiz ekani Markaziy Osiyo davlatlari misolida yana bir bor isbotlandi. Tadqiqot ko‘rsatadiki, diniy radikalizmning kuchayishi bevosita diniy e’tiqod bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy marginalizatsiya, siyosiy inklyuzivlikning pastligi va tashqi mafkuraviy ta’sirlar bilan bog‘liq. Bu holat M. Olcott va S. Peyrouse tadqiqotlarida ilgari surilgan xulosalar bilan hamohangdir [6].

Davlatlar kesimida olib borilgan qiyosiy tahlil diniy siyosatda muvozanatli yondashuvning geosiyosiy barqarorlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Masalan, O‘zbekiston va Qozog‘istonda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan diniy-ma’rifiy islohotlar, diniy ta’limni institutsional rivojlantirish va diniy institutlar bilan konstruktiv muloqot radikal kayfiyatlarning ijtimoiy tayanchini sezilarli darajada qisqartirgan. Bu holat Islom omilining ichki barqarorlikni mustahkamlovchi ijtimoiy resurs sifatida ishlashi mumkinligini ko‘rsatadi. Aksincha, diniy sohani haddan tashqari cheklashga asoslangan siyosiy modellarda norozilikning yashirin shakllari va diniy diskursning siyosiylashuvi xavfi saqlanib qolmoqda.

Muhokama doirasida alohida e’tibor Afg‘oniston omiliga qaratilishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Afg‘onistondagi diniy-siyosiy vaziyat Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik strategiyalarida markaziy o‘rin tutadi. Biroq so‘nggi yillarda mintaqa davlatlari ushbu omilga nisbatan faqat harbiy-xavfsizlik yondashuvi bilan cheklanmasdan, iqtisodiy va diplomatik instrumentlarni ham qo‘llay boshlagani kuzatilmoqda. Bu esa Islom omilining transmilliy geosiyosiy jarayonlarda

mutlaq tahdid emas, balki boshqarilishi mumkin bo‘lgan omil sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi.

Global kuchlarning mintaqadagi strategiyalari tahlili ham Islom omilining geosiyosiy instrument sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Rossiya tomonidan ilgari surilayotgan kollektiv xavfsizlik mexanizmlari Islom omilini asosan harbiy-siyosiy barqarorlik nuqtayi nazaridan talqin qiladi. Xitoy esa diniy omilni ichki xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘lab, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga intilmoqda. AQSh va Yevropa Ittifoqi esa diniy erkinlik, inson huquqlari va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash orqali uzoq muddatli barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashga urinmoqda. Ushbu turli yondashuvlar Markaziy Osiyoda Islom omilining geosiyosiy ahamiyati global darajada tan olinganini ko‘rsatadi [8].

Muhokama natijalari Islom omilini “yumshoq kuch” konsepsiyasi doirasida qayta baholash zaruratini ham asoslaydi. J. Nye tomonidan ilgari surilgan “soft power” nazariyasi kontekstida diniy-madaniy qadriyatlar jamiyat ichida legitimlikni mustahkamlash, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni oshirish hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Markaziy Osiyo davlatlarida an’anaviy Islom qadriyatlariga tayangan ma’rifiy yondashuv aynan shu funksiyani bajarishga qodir ekanini tadqiqot natijalari tasdiqlaydi [11].

Shu bilan birga, muhokama shuni ko‘rsatadiki, Islom omilining barqarorlashtiruvchi salohiyati avtomatik tarzda yuzaga chiqmaydi. Bu jarayon davlat siyosatining izchilligi, huquqiy mexanizmlarning shaffofligi va diniy institutlarning legitimligiga bog‘liq. Aks holda, diniy diskursning siyosiylashtirilishi va tashqi aktorlar tomonidan instrumentalizatsiya qilinishi mintaqaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

## XULOSA

Mazkur tadqiqot Markaziy Osiyoda Islom omilining mintaqaviy geosiyosiy barqarorlikka ta’siri murakkab, ko‘p qirrali va kontekstga bog‘liq hodisa ekanini ilmiy asosda tasdiqladi. Tadqiqot natijalari Islom omilini faqat xavfsizlik tahdidi yoki radikalizm manbai sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asossiz ekanini ko‘rsatib, uni ijtimoiy barqarorlik, siyosiy legitimlik va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida qayta baholash zarurligini asoslab berdi.

Birinchidan, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Islom omilining geosiyosiy barqarorlikka ta’siri uning ichki mazmuniga emas, balki davlatlar

tomonidan olib borilayotgan diniy siyosatning xarakteri va institutsional sifatiga bog‘liq. Muvozanatli, huquqiy va ma’rifiy yondashuv ustuvor bo‘lgan sharoitda Islom omili ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi, radikal kayfiyatlarning oldini oluvchi va siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Aksincha, diniy sohani haddan tashqari cheklash yoki uni siyosiy instrumentga aylantirish uzoq muddatda yashirin radikallashuv va legitimlik inqiroziga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda diniy radikalizm muammosi diniy mohiyatga emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarga borib taqalishini ko‘rsatdi. Bu holat Islom omilini xavfsizlik diskursida avtomatik tarzda kriminalizatsiya qilish mintaqaviy barqarorlikka xizmat qilmasligini anglatadi. Aksincha, radikalizmning ildiz sabablarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks siyosatgina uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashi mumkin.

Uchinchidan, tadqiqot Markaziy Osiyoda Islom omilining transmilliy geosiyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligini aniqladi. Afg‘oniston omili, global kuchlarning mintaqadagi strategiyalari va tashqi mafkuraviy ta’sirlar Islom omilini mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasining muhim elementi sifatida shakllantirmoqda. Shu bilan birga, mintaqa davlatlarining tobora pragmatik va ko‘p vektorli yondashuvni qo‘llayotgani Islom omilining boshqarilishi mumkin bo‘lgan geosiyosiy resurs ekanini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari Islom omilini “yumshoq kuch” konsepsiyasi doirasida baholash imkoniyatlarini ochib berdi. An’anaviy Islom qadriyatlari, diniy-ma’rifiy hamkorlik va madaniy diplomatiya orqali Markaziy Osiyo davlatlari nafaqat ichki barqarorlikni mustahkamlash, balki mintaqaviy integratsiya va xalqaro nufuzni oshirish salohiyatiga ega. Ushbu yondashuv Islom omilini xavf manbai emas, balki konstruktiv geosiyosiy instrument sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Nazariy jihatdan, mazkur tadqiqot din va geosiyosat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni Markaziy Osiyo kontekstida chuqurlashtirib, Islom omilining barqarorlashtiruvchi salohiyatini ochib beruvchi konseptual modelni taklif etadi. Amaliy jihatdan esa, tadqiqot xulosalari mintaqa davlatlari uchun diniy siyosat va xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek, mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Islom omili Markaziy Osiyoda geosiyosiy barqarorlikni izohlovchi mustaqil tahdid emas, balki siyosiy boshqaruvga sezgir, institutsional jihatdan shakllantiriladigan va konstruktiv yo‘naltirilgan sharoitda mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlovchi kuchli omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu xulosa kelgusida mintaqaviy xavfsizlik va diniy siyosatga oid ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


- Cornell, S. E. (2004). State and Religion in Central Asia. Washington, DC: Silk Road Studies Program.
- Akiner, S. (2003). The politicisation of Islam in post-Soviet Central Asia. Religion, State & Society, 31(2), 97–122.
- Heathershaw, J., & Montgomery, D. (2014). The myth of post-Soviet Muslim radicalization in the Central Asian republics. Chatham House Journal, 90(2), 1–18.
- Khalid, A. (2007). Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. Berkeley: University of California Press.
- Lewis, D. (2017). Illiberal peace? Authoritarian modes of conflict management in Central Asia. Central Asian Survey, 36(1), 1–19.
- Корнелл, С. Э. (2005). Государство и религия в Центральной Азии. Центральноазиатский обзор, № 4, 45–63.
- Усаков, В. Н. (2005). Политический ислам в Центральной Азии: основные факторы и перспективы : диссертация … кандидата политических наук. Москва.
- Сухарева, О. А., Бикджанова, М. А. (2012). Ислам и государство в странах Центральной Азии. Москва: ИМЭМО РАН.
- Малашенко, А. В. (2016). Ислам в Центральной Азии. Москва: Московский центр Карнеги.
- Трофимов, Д. Б. (2018). Исламский фактор и региональная безопасность в Центральной Азии. Мировая экономика и международные отношения, № 6, 88–97.
- Курманалиева, А., Берикбаев, Е. (2021). Государственно-религиозные отношения в странах Центральной Азии. Вестник КазНУ. Серия религиоведения, Т. 25, № 1, 34–45.
- Сыдыкбеков, Н. К. (2020). Ислам и геополитические процессы в Центральной Азии. Central Asia and the Caucasus, № 4, 56–69.

# MINTAQAVIY TURIZM VA MADANIY ALMASHINUVNING DIPLOMATIYADAGI O'RNI

***N.O.Saidnazarova***
*Sarbon universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda mintaqaviy turizm zamonaviy diplomatiyaning muhim vositalaridan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, turizm orqali davlatlar o'rtasida "yumshoq kuch" (soft power) mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishi, madaniy almashinuv esa xalq diplomatiyasining amaliy ko'rinishi sifatida tahlil qilinadi. Turistlar oqimi nafaqat iqtisodiy foyda keltirishi, balki xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch, ijobiy imij va madaniy yaqinlikni mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishga, davlatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni kuchaytirishga hamda barqaror hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qilishi yoritiladi.

**Kalit so'zlar.** Mintaqaviy turizm, madaniy almashinuv, diplomatiya, yumshoq kuch, xalq diplomatiyasi, mintaqaviy integratsiya, xalqaro hamkorlik, turizm rivoji.

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv sharoitida mintaqaviy turizm davlatlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, turizm orqali amalga oshiriladigan madaniy almashinuv xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish, ishonch va hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Shavkat Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlaydi: "Turizm – xalqlar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashning eng samarali vositalaridan biridir." [1] Ushbu fikr turizmning nafaqat iqtisodiy, balki diplomatik va madaniy ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ifodalaydi.

**Natijalar.** Mintaqaviy turizmni rivojlantirish orqali madaniy almashinuv kuchayadi, chunki turistik safarlar jarayonida turli xalqlar o'zining urf-odatlari, an'analari va madaniy qadriyatlari bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayon natijasida xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat, tushunish va ishonch shakllanadi hamda stereotiplar yani bir guruh yoki davlatlar haqida shakllangan, lekin har doim ham to'g'ri bo'lmagan umumiy fikr kamayadi.[2] Shuningdek, madaniy almashinuv mintaqaviy turizmning muhim natijalaridan biri sifatida davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy va madaniy yaqinlashuvni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida xalq diplomatiyasining rivojlanishiga xizmat qilib, mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

**Muhokama.** Yumshoq kuch (soft power) xalqaro munosabatlarda davlatning harbiy yoki iqtisodiy bosim orqali emas, balki madaniyat, qadriyatlar, ta'lim va ijobiy imij orqali boshqalarga ta'sir o'tkazish qobiliyatini anglatadi. Bu tushuncha zamonaviy diplomatiyada muhim o'rin egallab, davlatlarning global maydondagi nufuzini oshirishda asosiy

vositalardan biri sifatida qaraladi. Ilmiy konferensiya materiallarida qayd etilishicha, yumshoq kuchning eng samarali yo‘llaridan biri turizm va madaniy almashinuv hisoblanadi. Xususan, sayyohlar oqimi orqali davlatlar o‘z madaniyati, tarixi va qadriyatlarini namoyish etish imkoniga ega bo‘ladi, bu esa xalqaro ijobiy imij shakllanishiga xizmat qiladi. Mamlakatimiz turizmni rivojlantirish imkoniyarlari bo’yicha Markaziy Osiyo davlatlari Ichida yetakchi hisoblanadi. Mamlakat boy tarixiy meros, qadimiy shaharlar (Samarqand, Buxoro, Xiva), tabiiy resurslar va zamonaviy infratuzilma rivoji bilan Markaziy Osiyoda eng jozibador sayyohlik yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston ga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar soni 2019-yilda 6,7 million atrofida bo‘lgan bo‘lsa, pandemiya davrida sezilarli kamayish kuzatilib, 2020-yilda 1,5 millionga tushgan. Keyingi yillarda esa turizm sohasi tez tiklanib, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 6,6 million nafarga yetgan[3]. Bu esa turizm sohasining tez rivojlanayotganini va mamlakatning xalqaro jozibadorligi oshib borayotganini ko‘rsatadi. Turizmning rivojlanishi natijasida iqtisodiy samaradorlik ham oshib bormoqda: yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, mehmonxona va xizmat ko‘rsatish sohasi kengaymoqda, davlat byudjetiga valyuta tushumlari ortmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imiji kuchayib, investitsion jozibadorligi oshmoqda. Bu jarayon mamlakatning mintaqaviy integratsiya va global hamkorlikka faol qo‘shilishiga xizmat qilmoqda. [4] Zamonaviy globallashuv sharoitida mintaqaviy integratsiya davlatlarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Mintaqaviy turizm bu integratsiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xizmat qiladi. Turizm oqimining oshishi davlatlar o‘rtasida transport aloqalarining yaxshilanishi, vizaviy tartibotlarning yengillashishi va qo‘shma turistik loyihalarning rivojlanishiga olib keladi. Natijada hududiy hamkorlik kuchayib, davlatlar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy bog‘liqlik mustahkamlanadi. Suning uchun pirizidentimiz turizm sohasiga juda katta etibor qaratmoqda. Bunga misol sifatida O‘zbekistonda 2023-yilda Prezidentning PF–114-sonli farmoni bilan “Madaniyat va turizm sohasi boshqaruvini isloh qilish” konsepsiyasi qabul qilindi. Bu hujjat asosida turizm salohiyatiga ega hududlarda infratuzilma, qo‘llab-quvvatlash va xalqaro tanishtirish ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, tarixiy shaharlarda (Qo‘qon, Buxoro, Xiva, Samarqand) mahalliy hunarmandchilik,

festivallar va tarixiy marshrutlar orqali madaniy turizm faollashtirilmoqda[5].

Mintaqaviy turizm xalqaro munosabatlarda diplomatiyaning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Turistik almashinuvlar davlatlar o‘rtasidagi rasmiy siyosiy aloqalarni to‘ldirib, “xalq diplomatiyasi” (people-to-people diplomacy)ni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali davlatlar o‘zaro faqat siyosiy darajada emas, balki jamiyatlar darajasida ham yaqinlashadi. Turizm diplomatiyaning yumshoq kuch (soft power) instrumenti sifatida davlat imijini yaxshilaydi va xalqaro maydonda ijobiy tasavvur shakllantiradi. Xorijiy sayyohlarning mamlakatga tashrifi orqali ular mahalliy madaniyat, an’ana va qadriyatlar bilan bevosita tanishadi, bu esa o‘zaro ishonch va do‘stona munosabatlarning mustahkamlanishiga olib keladi

**Xulosa** qilib aytganda, mintaqaviy turizm zamonaviy globallashuv jarayonida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalarni rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Turizm nafaqat iqtisodiy foyda manbai sifatida xizmat qiladi, balki xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, tushunish va hamkorlikni mustahkamlashga ham katta hissa qo‘shadi. Umuman olganda, mintaqaviy turizm kelajakda ham davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiruvchi, iqtisodiy farovonlikni oshiruvchi va xalqaro munosabatlarni barqarorlashtiruvchi muhim omil bo‘lib qoladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

- Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning United Nations Bosh Assambleyasidagi nutqi. – 2019-yil. – URL: [https://www.uzbekembassy.in/?lang=uz](https://www.uzbekembassy.in/?lang=uz)

- Gordon W. Allport. The Nature of Prejudice. – Cambridge: Addison-Wesley, 1954. – P. 187–200. – URL:[https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=2160852](https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=2160852)

- State Committee for Tourism Development of Uzbekistan. Rasmiy statistik hisobotlar. – URL: [https://uzbektourism.uz](https://uzbektourism.uz/)

- Tourism Committee of the Republic of Uzbekistan. Turizm sohasiga oid rasmiy statistik ma’lumotlar. – URL: [https://uzbektourism.uz](https://uzbektourism.uz/)

- Abdumo‘minova M. Turizm va xalqaro hamkorlik masalalari // World Scientific Research Journal. – Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, 2024.

# AFRIKA MINTAQASI: TARAQQIYOT MUAMMOLARI VA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA

***N.Kamaladdinova***
*Sarbon universiteti*
*talabasi*

**Annotatsiya**. Ushbu ilmiy maqola Afrika mintaqasining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan asosiy muammolarni kompleks tahlil qiladi. Qashshoqlik, siyosiy beqarorlik, infratuzilma tanqisligi, ta'lim va sog'liqni saqlashdagi kamchiliklar kabi omillar mintaqaning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada, shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlari, jumladan Afrika Ittifoqi va boshqa subregional tashkilotlarning roli chuqur o'rganiladi. Mintaqaviy hamkorlikning afzalliklari, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, umumiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklar muhokama qilinadi. Xulosa qilib aytganda, Afrika mintaqasining kelajakdagi taraqqiyoti uchun ichki muammolarni hal etish bilan birga, mintaqaviy integratsiyani yanada chuqurlashtirish zarurligi asoslab beriladi. Maqola tadqiqotchilar, siyosatchilar va Afrika bilan bog'liq masalalarga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so‘zlar:** Afrika, taraqqiyot, mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy muammolar, siyosiy beqarorlik, Afrika Ittifoqi.

Afrika mintaqasi o'zining boy tabiiy resurslari, xilma-xil madaniy merosi va ulkan inson salohiyatiga qaramay, uzoq yillardan buyon barqaror iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikka erishishda jiddiy muammolarga duch kelib kelmoqda.[1] Bu muammolar qatoriga qashshoqlik, siyosiy beqarorlik, infratuzilma tanqisligi, kasalliklarning keng tarqalishi va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari kiradi.[2] Mazkur omillar mintaqaning global iqtisodiyotdagi o'rnini zaiflashtirib, uning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.[4] Shu bilan birga, so'nggi yillarda mintaqaviy integratsiyaning turli shakllari, masalan, Afrika qit'a erkin savdo zonasi (AfCFTA) kabi tashabbuslar orqali bu muammolarni hal etishga bo'lgan intilishlar kuchayib bormoqda.[5] Ushbu ilmiy maqola Afrika mintaqasining taraqqiyot muammolarini kompleks tahlil qilish, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining samaradorligini baholash va kelajak uchun istiqbolli yechimlarni taklif etishga qaratilgan.

Hozirgi global geosiyosiy va geoiktisodiy sharoitlarda Afrika mintaqasining barqaror taraqqiyoti nafaqat mintaqa davlatlari uchun, balki butun dunyo uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Global iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi, iqlim o'zgarishining transchegaraviy ta'siri va migratsiya jarayonlarining kuchayishi Afrika muammolarini global kun tartibining ajralmas qismiga aylantirgan. Shu sababli, ushbu ilmiy maqolaning maqsadi Afrika mintaqasidagi asosiy taraqqiyot to'siqlarini aniqlash, mintaqaviy integratsiyaning iqtisodiy o'sish va barqarorlikka ta'sirini o'rganish hamda mavjud integratsiya modellarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari qatoriga Afrika iqtisodiyotlarining tizimli kamchiliklarini tahlil qilish, mintaqaviy savdo va investitsiya aloqalarining rivojlanish dinamikasini baholash, siyosiy va institutsional integratsiya mexanizmlarining samaradorligini o'rganish hamda integratsiyaning ijtimoiy-madaniy jihatlarini ko'rib chiqish kiradi.

Ushbu ilmiy maqola Afrika mintaqasining hozirgi kundagi dolzarb muammolarini chuqur tushunishga yordam beradi va mintaqaviy integratsiyaning ushbu muammolarni hal etishdagi salohiyatini aniq ko'rsatib beradi. Tadqiqot natijalari siyosatchilar, tadqiqotchilar va xalqaro tashkilotlar uchun mintaqaning barqaror taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, ushbu ilmiy maqola Afrika davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, umumiy infratuzilma loyihalarini rivojlantirish va ichki bozor salohiyatidan to'liq foydalanish orqali mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish yo'llarini ko'rib chiqadi.

Afrika mintaqasining taraqqiyot muammolari va mintaqaviy integratsiya masalalari xalqaro munosabatlar va iqtisodiy rivojlanish sohasidagi ko'plab ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.[1] Ilmiy ishlar, jumladan, ayrim ilmiy maqolalar, mintaqadagi siyosiy beqarorlik, iqtisodiy qoloqlik va ijtimoiy tengsizlik kabi asosiy muammolarni chuqur tahlil qilgan.[2] Bu tadqiqotlarda ko'pincha mustamlakachilikning uzoq muddatli oqibatlari va global iqtisodiyotdagi noqulay mavqe mintaqa rivojlanishiga to'siq bo'layotgani ta'kidlanadi.[3]

Boshqa bir qator ilmiy maqolalar esa Afrika mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy integratsiya jarayonlariga e'tibor qaratgan. Bu tadqiqotlar mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari, jumladan, ECOWAS, SADC va EAC kabi tuzilmalarning samaradorligi va ularning mintaqa taraqqiyotiga ta'sirini o'rgangan.[5] Ba'zi mualliflar

integratsiyaning ijobiy natijalarini, masalan, savdo hajmining oshishi va siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishini qayd etgan bo'lsa, boshqalar integratsiya jarayonlaridagi byurokratik to'siqlar, institutsional zaifliklar va siyosiy iroda yetishmasligi kabi kamchiliklarni ko'rsatib o'tgan.[4]

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda mintaqaviy integratsiya mexanizmlarining turli Afrikadagi davlatlarga turlicha ta'sir ko'rsatishi borasida ham munozaralar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar integratsiyaning faqatgina ayrim yirik iqtisodiyotlarga foyda keltirayotganini ta'kidlasa, boshqalar kichikroq davlatlar uchun ham savdo imkoniyatlarini kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynashini ilgari suradi.

Ochiq qolayotgan masalalar orasida iqlim o'zgarishining Afrika taraqqiyotiga ta'siri va mintaqaviy integratsiya doirasida unga qarshi kurashish strategiyalari yetarlicha o'rganilmaganligi, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning mintaqaviy integratsiyadagi o'rni va salohiyati borasidagi tadqiqotlarning cheklanganligi mavjud.

Afrika mintaqasidagi taraqqiyot muammolari va mintaqaviy integratsiya jarayonlarini tahlil qilish uchun kompleks tadqiqot metodologiyasi qo'llanilgan. Tadqiqot dizayni ko'p bosqichli bo'lib, miqdoriy va sifatli tahlil usullarini o'z ichiga oladi. Bu yondashuv mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarning o'zaro ta'sirini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti Afrika qit'asidagi mamlakatlar va mintaqaviy tashkilotlar bo'lib, ularning taraqqiyot yo'lidagi to'siqlari hamda integratsiya jarayonlaridagi roli atroflicha o'rganiladi. Xususan, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi xalqaro institutlar ma'lumotlari, shuningdek, Afrika Ittifoqi va boshqa mintaqaviy iqtisodiy hamjamiyatlar hisobotlari tadqiqotning asosiy manbalarini tashkil etadi.[6]

Ma'lumotlarni yig'ishda bir nechta usullardan foydalanildi. Dastlab, rasmiy statistika ma'lumotlari, hukumat hisobotlari, akademik nashrlar va siyosiy hujjatlar kabi ikkilamchi manbalar chuqur o'rganildi.[5,6] Bu hujjat tahlili Afrika mintaqasining iqtisodiy o'sishi, qashshoqlik darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari, shuningdek, mintaqaviy savdo va investitsiya oqimlari haqida keng ma'lumot berdi.

Ma'lumotlarni tahlil qilishda miqdoriy usullar sifatida regressiya tahlili, korrelyatsiya tahlili va tendensiya tahlili qo'llanildi. Bu usullar iqtisodiy o'sish sur'atlari, qashshoqlik darajasi va mintaqaviy integratsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga yordam berdi. Sifatli

tahlil esa institutsional tuzilmalar, siyosiy jarayonlar va ijtimoiy-madaniy omillarning mintaqaviy rivojlanishga ta'sirini o'rganishda qo'llanildi. Kontent tahlili yordamida siyosiy nutqlar, hisobotlar va ekspert xulosalari chuqur o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida axloqiy me'yorlarga qat'iy rioya qilindi. Ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlandi va barcha manbalarga havolalar to'g'ri ko'rsatildi. Tadqiqot natijalarining xolisligi va shaffofligi asosiy ustuvor vazifa bo'ldi.

Ushbu ilmiy maqola ayrim cheklovlarga ega. Xususan, ma'lumotlarning mavjudligi va sifati ba'zi mamlakatlarda cheklangan bo'lishi mumkin. Shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlari murakkab va dinamik bo'lib, ularni to'liq qamrab olish qiyin vazifadir.

Tadqiqotning validligini oshirish maqsadida turli ma'lumot manbalaridan foydalanib, triangulyatsiya usuli qo'llanildi. Bu turli usullar orqali olingan natijalarni solishtirish va tasdiqlash imkonini berdi. Ma'lumotlarning ishonchliligi esa rasmiy va obro'li manbalardan foydalanish orqali ta'minlandi.

**Xulosa**

Ushbu ilmiy maqolada Afrika mintaqasida kuzatilayotgan taraqqiyot muammolari va mintaqaviy integratsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qit'a mamlakatlari iqtisodiy o'sishga erishishda sezilarli to'siqlarga duch kelmoqdalar,[2] bular qatoriga siyosiy beqarorlik, korrupsiya, infratuzilmaning yetishmasligi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlaridagi zaifliklar hamda iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlari kiradi. Biroq, mintaqaviy integratsiya tashabbuslari, jumladan, Afrika qit'a erkin savdo hududi (AfCFTA) kabi loyihalar ushbu muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lgan salohiyatga ega. Ushbu integratsiya jarayonlari qit'a ichidagi savdoni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy diversifikatsiyani rag'batlantirish orqali barqaror taraqqiyotga erishish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.[5]

Amaliyot va siyosat uchun ushbu ilmiy maqolaning xulosalari muhim ahamiyatga ega. Afrika mamlakatlari hukumatlariga siyosiy barqarorlikni ta'minlash, samarali boshqaruvni kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy choralar ko'rish tavsiya etiladi. Shuningdek, mintaqaviy infratuzilma loyihalariga, xususan, transport, energetika va raqamli aloqa tizimlariga investitsiyalarni ko'paytirish zarur. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga sarmoyalarni oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirish va aholining farovonligini

yaxshilash lozim. Mintaqaviy integratsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirish uchun AfCFTA doirasida savdo to'siqlarini kamaytirish, bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish va umumiy standartlarni joriy etish muhimdir.

Xalqaro hamjamiyat va donor tashkilotlariga Afrika qit'asining taraqqiyot sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashda moliyaviy va texnik yordamni kengaytirish tavsiya etiladi. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va moslashish bo'yicha loyihalarga e'tibor qaratish, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini joriy etishda ko'maklashish muhim ahamiyatga ega.[6] Kelajakdagi tadqiqotlar mintaqaviy integratsiyaning turli sektorlarga ta'sirini yanada chuqur o'rganishga, shuningdek, Afrikadagi yoshlar va ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'llarini tahlil qilishga qaratilishi lozim. Ushbu tavsiyalar Afrika mintaqasining barqaror va inklyuziv taraqqiyotiga erishish uchun mustahkam asos yaratishga xizmat qiladi.

## SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA YURIDIK KASB TRANSFORMATSIYASI

***X.O.Ramazonova***
*Sarbon universiteti*
*talabasi*

**Anontatsiya.** Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy yurisprudensiya sohasiga ko‘rsatilayotgan transformatsion ta’siri tahlil qilinadi. Muallif yuridik kasbning an’anaviy shakllaridan raqamli modelga o‘tish jarayonlarini, jumladan, rutin vazifalarini avtomatlashtirish, “aqlli shartnomalar” (smart contracts) va sud tizimidagi algoritmik qarorlarni ko‘rib chiqadi. Maqolada mashhur huquqshunos olimlarning fikrlari hamda xalqaro tajriba asosida kelajak yuristning professional qiyofasi va yuridik ta’limdagi zaruriy o ‘zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt (SI)dan foydaslanishdagi etik muammolar va huquqiy javobgarlik masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sun’iy intellekt, LegalTech, yuridik transformatsiya, raqamli huquq, aqlli shartnomalar, algoritmik adolat, yuridik ta’lim, huquqiy muhandislik.

### Kirish

Yigirma birinchi asrning uchinchi o‘n yilligiga kelib “Legal Tech” (huquqiy texnologiyalar) tushunchasi oddiy yordamchi dasturlardan o‘tib, mustaqil qaror qabul qiluvchi tizimlar darajasiga ko‘tarildi. SI yuridik kasbni yo‘q qilmaydi, balki uning mohiyatini o‘zgartiradi. Sun’iy intellekt nafaqat texnologik sohalarni, balki insoniyatning eng konservativ sohalaridan biri bo‘lgan yurisprudensiyani ham tubdan o‘zgartirmoqda.

Bugungi kunda yuristlar faqat qonun kitoblar bilan emas, balki murakkab algoritmlar bilan ham hamnafas ishlashga majbur.

Yuristlar faoliaytining 40-50 foiz hujjatlar bilan ishlash, ma’lumotlar yig‘ish va standart shartnomalar tuzishdan iborat. SI bu borada inson mehnatini bir necha soniyalarga qisqartiradi.

- Hujjatlar tahlili (Due Diligence): Minglab sahifalik shartnomalarni xatoliklar yoki xavf-xatarlar uchun tekshirish.
- Bashoratli tahlil: Oldingi sud qarorlarini tahlil qilib, kutilayotgan sud jarayoni natijasini taxmin qilish.

Richard Susskind, britaniyalik mashhur huquqshunos olimva “Tomorrow’s Laywers” kitobi muallifi shunday deydi: “Kelajakda yuristlar mijozlarga faqat qonunni tushuntirib beruvchi mutaxassis emas, hal qiluvchi muhandislarga aylanadi”.

Dunyo bo‘ylab sudlarda SI turli darajada joriy etilmoqda. Masalan, AQSHda **COMPAS** tizimi jiyonatchining qayta jinoyat sodir etish xavfini hisoblaydi. Estoniyada esa kichik miqdordagi (7000 yevrogacha) da’volarni ko‘rib chiquvchi “Robot-sudya” loyihasi ustida ishlamoqda. SI sudyaga yordamchi sifatida:

1.Pretsedentlarni (o‘xshash ishlarni) qidirish tezligi

2.Inson faktori (charchoq, hissiyot) ta’sirini kamaytiradi.

3.Sud ishlarini taqsimlashda shaffoflikni ta’minlash.

Blokchain texnologiyasiga asoslangan aqlli shartnomalar yuridik bitimlarning yangi avlodidir. Bu yerda qonun kodi – bu dastur kodi hisoblanadi. An’anaviy shartnomalardan farqli o‘laroq, aqlli shartnomalar shart bajarilishi bilan avtomatik ijro etiladi. An’anaviy advokatlik soatbay haq to‘lash tizimiga asoslangan edi. SI esa samaradorlikni oshirgani sababli, mijozlar endi “qidiruv ishlari” uchun haq to‘lashni istashmayopti. Yuristning yangi vazifasi shartnoma matnini yozishdan tashqari, uning mantiqiy algoritmini dasturchi bilan birga “audit” qilish. Bu esa yuristdan “Legal Coder” bo‘lishni talab qiladi.

1.Yangi ko‘nikmalar: Zamonaviy yurist kodlash asoslarini, ma’lumotlar bazasi bilan ishlashni va algoritmik mantiqni bilishi shart.

2.Raqobat: Kichik yuridik firmalar SI yordamida yirik korporatsiyalar bilan bir xil darajada sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

SI yurisprudensiyaga kirib kelishi bilan bir qator savollar tug‘ilmoqda: Algoritmik tarafkashlik - bu SI o‘qitilgan ma’lumotlar bazasida irqiy yoki jinsiy kamsitish bo‘lsa, u noto‘g‘ri qaror chiqarishi

mumkin. Maxfiylik – bu mijoz ma’lumotlarini bulutli texnologiyalarga yuklashda advokatlik sirini saqlash masalasi.

**Professor Joshua Fairfield** o‘zining huquq va texnologiyaga doir ishlarida ta‘kidlaydichi, “Biz huquqni kod orqali boshqarishni o‘rganmasak, kod bizning huquqlarimizni boshqara boshlaydi”. Shuningdek, jinoyat – protsessual sohasida SI transformatsiyasi eng bahsli mavzulardan biridir. Kata ma’lumotlar yordamida jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan hududlarni aniqlash. Bugungi kunda kunda jinoyatlarning aksariyatida raqamli izlar (smartfonlar, kameralar) mavjud bo‘lib, SI ularni soniyalar ichida tahlil qiladi.

**Professor Frank Pasquale** ogohlantiradi: “Algoritmlar shaffof bo‘lishi kerak. Agar sudya SI tavsiyasiga tayanib hukm chiqarsa, himoyachi ushbu algoritm qanday ishlashini tekshirish huquqiga ega bo‘lishi shart”.

Yuridik universitetlar endi faqat kodekslarni yodlatish bilan cheklana olmaydi. O‘quv dasturlariga quyidagilar kiritilishi shart bular kelajakda yuridik sohada yangi kasblarni paydo bo‘ladi:

1.Legal Engineer: Huquqiy jarayonlarni avtomatlashtiruvchi tizimlarni yaratuvchi.

2.Legal data Science (Huquqiy ma’lumotlar fani).

3.Legal Process Analyst: Yuridik firmalar samaradorligini algoritmik tahlil qiluvchi mutaxassis.

4.Kiberhuquq.

5. Raqamli etika.

Sun’iy intellektning transformatsiyasi faqat ish uslubida emas, balki huquqiy obyektlarning tabiatida ham namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda SI mustaqil ravishda rasm chizmoqda (Midjourney), musiqa bastalamoqda va hatto dasturiy kodlar yozmoqda.

**Mualliflik masalasi:** Agar asarni inson emas algaritm yaratgan bo‘lsa, unda muallif kim?

**Olimlar bahsi:** Huquqshunos olim **Pamela Samuelson** ta’kidlashicha, an’anaviy mualliflik huquqi tizimi “inson ijod”ga asoslangan. SI yaratgan mahsulotlarni himoya qilish uchun “Sui Generis” (o ‘ziga xos) huquqiy rejimini yaratish zarurati tug‘ilmoqda.

**Transformatsiya:** Patent idoralari endi arizalarni tekshirishda SI – ekspertlardan foydalanmoqda, bu esa tekshirish muddatini yillardan oylarga qisqartiradi.

Blockchain texnologiyasiga asoslangan aqlli shartnomalar yuridik bitimning yangi avlodidir. Bu yerda qonun kodi – bu dastur kodi (Law = Code).

**An’naviy shartnoma va Aqlli shartnoma bir biridan farqi:**

An’naviy shartnoma: Qog‘ozga rasmiylashtiriladi. Ijrosi inson omiliga bog‘liq. Nizolarni sud hal qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va boshqa qonun, qonun osti hujjatlari va kodekslari an’anaviy shartnomaga misol bo‘ladi.

Aqlli shartnoma: Raqamli kodda yoziladi. Shart bajarilishi bilan avtomatik ijro etiladi. Nizolar algoritmik ravishda oldini olinadi. Bu ko‘pincha Yevropa davlatlariga uchraydi.

**Yuristning yangi vazifasi:** Shartnoma matnini yozishdan tashqari, uning logikasini dasturchi bilan birga tekshirish (Audit qilish). Bu esa yuristdan “Legal Coder” (Huquqiy dasturchi) bo ‘lish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yurist kasbi yo‘qolib ketmaydi, balki shaklan va mazmunan yangilanadi. Sun’iy intellekt – bu xavf emas, balki yuz yillar davomida shakllangan yuridik byurokratiyani yengib o‘tish va adolatni tezroq, shaffofroq hamda arzonroq amalga oshirish uchun berilgan noyob imkoniyatidir. Richard Susskind aytganidek, “Mijozlarga bizning mehnat jarayonimiz emas, balkim erishgan natijamiz kerak”. SI aynan mana shu natijaga eng qisqa yo‘l bilan erishish vositasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


**1. Xalqaro ilmiy adabiyotlar va monografiyalar**

**Richard Susskind**. Tomorrow’s Lawyers: An introduction to Your Future. – Oxford:
Oxford University Press, 2017. – 240 p.
(Maqoladan foydalanilgan qismlar: 45 – 68 – betlar – yuridik bozor transformatsiyasi tahlili)

**Frank Pasquale**. The Black Box Society:
The Secret Algorithms That Control Money and Information. – Cambridge: Harvard University Press, 2015. – 320 p. (Maqolada foydalanilgan qismlari: 190 – 210 – betlar algoritmik shaffoflik va adolat masalalari).

**Joshua Fairfield**. Runaway Code: The Return of the Individual in Digital Law. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 280 p. (Maqolada foydalanilgan qismlar: 112 – 135 – betlar – kod va qonunlar munosabati)

**Pamela Samuelson**. AI and Author Rights.
Journal of Intellectual property Law, 2020. Vol. 25, No. 2. – pp. 105 – 124. (Maqolada foydalanilgan qismlari 110 – 115-betlar intellektual masalalari).

**2. Normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni**. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida. (PF-6079-son, 05.10.2020y.).

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.** Sun’iy intellek texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha shart-sharoitlar yaratishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida (PQ-4996-son, 17.02.2021y.).

**Yevropa Ittifoqi Konvensiyasi.** “Sun’iy intellekt bo‘yicha etika yo‘riqnomasi” – Brussel: EU Commission, 2019. – 41 p.

**3. Davriy nashrlar va tahliliy hisobotlar**

**Goldman Sachs Economics Research.**
The Potentially Large Effects of Artificial Intelligence on Economic Growth. New York: GS Global Investment Research, 2023. – pp. 12-18 (Yuridik xizmatlar tahlili)

**McKinsey Global Institute.** Skill Shift:
Automation and the Future of the Workforce. – Discussion Paper, 2018. – pp. 45-52.

Saidov A.H. Svarnitelnoye pravovedeniye (Qiyosiy huquqshunoslik). Toshkent: Adolat, 2020. – 456 b. (Maqolada foydalanilgan qismlar: 320-345-betlar – xalqaro huquqiy tizimlarning raqamli integratsiyasi).

## ЗАКОННОСТЬ И ПРАВОПОРЯДОК

***B.S.Bekmurodov***
*Sarbon universiteti talabasi*
*“Huquqiy jamiyat” jamoasi rahbari* bekmurodovbekjon6@gmail.com

**Введение:** В современных условиях формирования демократического правового государства обеспечение законности и правопорядка приобретает важное значение. Защита прав и свобод человека, а также укрепление социальной стабильности в обществе напрямую зависят от уровня законности. Закрепление законности и правопорядка является необходимым условием и средством формирования правового государства, а также его важнейшими

структурными элементами. Только при установленном порядке, основанном на прочной законности и верховенстве права, государство может быть понастоящему правовым.

Теоретическое толкование понятия верховенства закона: Верховенство закона является фундаментальным принципом, согласно которому Конституция и законы обладают высшей юридической силой и превалируют над всеми другими нормативными актами в деятельности органов государственной власти. Реализация данного принципа обеспечивает полное осуществление демократии и верховенства права в обществе. Принцип верховенства закона закреплён в статье 15 Конституции Республики Узбекистан, где официально признан приоритет закона во всех сферах государственной и общественной жизни: «В Республике Узбекистан верховенство Конституции и законов Республики Узбекистан признаётся безусловно.

Государство, его органы, должностные лица, общественные объединения и граждане действуют в соответствии с Конституцией и законами». Данная конституционная норма означает, что никто и никакой орган не стоит выше закона – все должностные лица и граждане обязаны безусловно подчиняться правовым нормам. В условиях верховенства закона никакой закон или иной нормативный акт не может противоречить Конституции; как документ с высшей юридической силой, Конституция требует, чтобы все законы и постановления соответствовали её положениям. Принцип верховенства закона тесно связан с понятием народовластия (демократии) и прав человека. В демократическом обществе законы принимаются как непосредственное выражение воли народа – через избранных гражданами представителей в парламенте или посредством прямого референдума, поэтому законы являются плодом народовластия. Конечной целью законодательства является защита прав и свобод человека, то есть нормы права создаются с учётом интересов граждан. В этом смысле принцип верховенства закона признаётся гарантией демократии и защиты прав человека https://library-tsul.uz/davlat-va-huquq-nazariyasi-2021/

Теоретическое толкование понятия права: Право – это система общественных норм, установленных или санкционированных государством и обладающих всеобщей обязательной силой. Право включает в себя правила, регулирующие правовые отношения членов общества, а также основные права и свободы граждан,

которые закрепляются, гарантируются и охраняются государством. Право возникает только в обществе, организованном как государство, и выполняет функцию регулирования различных сфер общественной жизни. В частности, право регулирует экономические отношения, такие как укрепление собственности, установление механизма хозяйственных связей, распределение труда и его продуктов между членами общества в определённом порядке и пропорциях.

Одновременно право определяет формирование и порядок деятельности уполномоченных органов государства, способы разрешения споров и меры противодействия правонарушениям. Таким образом, право является нормативной основой, охватывающей наиболее важные общественные отношения. Нормы права отличаются от других социальных норм – таких как нравственные, обычаи или религиозные предписания – своей всеобщей обязательной силой, обеспечиваемой государством.

К важнейшим характеристикам права относятся его социальная природа, совокупность нормативных предписаний, а также выражение идей справедливости и свободы. Кроме того, нормы права обладают всеобщим и волевым характером, имеют чёткую юридическую форму (юридическую определённость), официально закреплены, образуют целостную систему и обладают динамичным, постоянно развивающимся характером. Ещё одной важной особенностью права является то, что оно находится под защитой государства и обеспечивается его принудительной силой. Из приведённых теоретических характеристик видно, что понятие права охватывает не только совокупность законов, но и права и свободы граждан, их статус во взаимоотношениях с государством.

Право проявляется как совокупность высоких социальных ценностей, служащих обеспечению порядка и справедливости в обществе. В правовом государстве обеспечивается именно верховенство закона, при этом такие институты, как разделение властей и независимость судебной власти, гарантируют приоритет закона. Так, принцип разделения властей является одним из ключевых механизмов обеспечения верховенства закона: в соответствии с ним законодательная, исполнительная и судебная власти действуют только в пределах полномочий, установленных Конституцией и законами, а в их взаимодействии и разрешении споров высшей инстанцией является закон. Кроме того, полностью

гарантируется право граждан на судебную защиту: каждый человек имеет право обратиться в независимый суд для восстановления своих нарушенных прав и свобод. Возможность обжалования любых незаконных действий государственных органов в суде является неотъемлемой частью принципа верховенства закона. Иными словами, верховенство закона означает господство закона. При этом как государство, так и общество функционируют «в рамках закона».

Название III главы Конституции Узбекистана «Превалирование Конституции и закона» также отражает особое внимание, уделяемое данному принципу в нашей стране. С точки зрения конституционной теории, верховенство закона является основным принципом конституционного строя, подчёркивая обязательное подчинение всех иных законов и постановлений его положениям. https://www.lawpower.uz/articles/huquq-va-qonun-ustuvorligi-ozaro-bogliqlik-va-farqlijihatlar Понятие и виды гарантий законности: Гарантия законности – это способы и условия, обеспечивающие соблюдение законов и подзаконных актов, а также беспрепятственное осуществление прав граждан и интересов государства и общества. Гарантии законности представляют собой систему мер и институтов, обеспечивающих обязательное соблюдение законов и правовых норм всеми субъектами права, включая государственные органы, должностных лиц и граждан. Они направлены на поддержание правопорядка, защиту прав и свобод человека и гражданина, а также на предотвращение произвола со стороны органов власти. 228-230-я страница учебника «Теория государства и права» https://kitobxon.com/oz/kitob/davlat_va_huquq_nazariyasi

Существует несколько основных видов гарантий законности:

1. Конституционные гарантии – закреплённые в Основном законе государства нормы, устанавливающие верховенство Конституции и законов, права и свободы граждан, а также принцип разделения властей.

2. Законодательные гарантии – меры, предусмотренные конкретными законами, регулирующими деятельность государственных органов, ответственность должностных лиц и механизм защиты прав граждан.

3. Судебные гарантии – возможность граждан обращаться в независимые суды для защиты своих нарушенных прав и контроля за законностью действий органов власти.

4. Административные и организационные гарантии – система внутренних процедур, инспекций и контроля, обеспечивающая соблюдение законов в работе государственных учреждений и органов управления. Таким образом, гарантии законности рассматриваются как многоплановый комплекс правовых, организационных и институциональных мер, обеспечивающих реальное, а не декларативное функционирование правового государства.

Понятие гарантий законности (адаптировано из учебника «Государство и право: теория», стр. 199) https://hujjat24.uz/product/davlat-va-huquq-nazariyasi-darsligi

Понятие правопорядка и его объективная необходимость: Правопорядок – это устойчивое состояние общества, при котором нормы права реально соблюдаются всеми субъектами, а общественные отношения регулируются законами и правовыми нормами. Он обеспечивает стабильность и предсказуемость социального взаимодействия, защищает права и свободы граждан, интересы государства и общества в целом.

Объективная необходимость правопорядка заключается в том, что без его соблюдения невозможно поддерживать социальную стабильность, законность и справедливость. Правопорядок является фундаментом правового государства и условием эффективного функционирования всех институтов власти и общественных структур. Понятие механизма правового регулирования: Механизм правового регулирования – это система правовых средств, способствующая упорядоченному правовому регулированию различных общественных отношений в обществе. Механизм правового регулирования – это процесс систематического и последовательного воздействия на различные общественные отношения в обществе. Процесс правового регулирования представляет собой строго установленный порядок правового воздействия на социальные отношения, их реализации, развития и совершенствования. Как и любой социальный процесс, правовое регулирование имеет свои точки начала и завершения. Этот процесс начинается с создания государством правовых норм. Правовая норма возникает и действует как средство, через которое выражается государственная власть народа и передаётся участникам правовых отношений. 215 и 220 страницы книги «Теории государства и права» (автор Х.Т. Одилкориев)

https://api.unilibrary.uz/storage/PublisherResourceFile/80712/images/1665721234.pdf

В целях поддержания правопорядка в стране принимается большое количество новых законов, указов и распоряжений. При этом большинство из них направлены на то, чтобы граждане и население в целом могли лучше понимать свои права и эффективно ими пользоваться, что является частью государственной политики.

В Республике Узбекистан обеспечение законности и правопорядка осуществляется на основе действующей Конституции и системы нормативно-правовых актов, официально опубликованных в Национальной базе законодательства Lex.uz – главного электронного источника законодательства страны. Согласно Конституции Республики Узбекистан, принципы законности и верховенства закона закреплены на высшем уровне: Конституция и законы обладают абсолютным верховенством, имеют прямое действие и являются основой единого правового пространства на всей территории государства. Государство, его органы, организации, должностные лица и граждане обязаны действовать в соответствии с Конституцией и законами, а никакие другие нормативные правовые акты не могут противоречить их положениям. (https://lex.uz/mact/-3177796?ONDATE=08.05.2018%2000)

**Заключение:** Законность и правопорядок являются одними из важнейших социально-экономических и политических принципов, обеспечивающих стабильность и справедливость в жизни общества. В правовом государстве, основанном на этих принципах, права и свободы граждан гарантируются, деятельность государственных органов осуществляется в рамках закона, а любые нарушения закона находятся под контролем суда. В Республике Узбекистан принимаемые новые законы, указы и распоряжения направлены не только на поддержание общественной стабильности, но и на то, чтобы граждане лучше понимали свои права и могли эффективно их реализовывать. Это укрепляет концепцию государственной политики, ориентированной на приоритет интересов человека и гражданина.

Кроме того, устойчивость законности и правопорядка, практическое применение правовых норм и их непосредственная связь с гражданами служат развитию демократии. Поэтому верховенство закона и правопорядок играют важную роль не только

в теории, но и на практике, являясь одной из ключевых целей государственной деятельности.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq O’zbekiston Respublikasi Milliy universiteti
2. Primov F.A. Davlat xizmati 2020
3. Erkin Xojiev Davlat va jamiyatning huquqiy asoslari
4. Kuchkarov R.U. Huquqiy ko’nikmalar va metodologiya 2018
5. Rustambayev M.X. Inson huquqi 2023 yil
6. LEX.UZ huquqiy ma’lumotlar sayti
7. LAWPOWER huquqiy ma’lumotlar portali
8. Yuridik texnikumlar uchun darslik // Davlat va huquq nazariyasi
9. Adliya boshqarmasining huquqiy ma’lumotlar bazasi
10. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
11. Islomov N. Qonuniylik va huquqiy tartibot nazariyasi.
12. Karimov A. Huquqiy tartibot va davlat siyosati. Huquqiy nashr
13. Sobirov D. Demokratiya, qonuniylik va inson huquqlari. Yuridik fan.
14. Sh. S Saydullayev Davlat va huquq nazariyasi 2020


## SPORT HUQUQI FANINI YURIDIK TA’LIM TIZIMIGA JORIY ETISH: XALQARO TAJRIBA VA O’ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR


***K.Majidov***

*Sarbon universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi*


**Tadqiqotning dolzarbligi.** Sport sohasining globallashuvi, uning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatining tobora ortib borishi zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanganligini ko‘rsatmoqda. Xalqaro miqyosda sport musobaqalarining soni va ko‘lami kengayib, sport industriyasi ulkan kapital aylanmasiga ega bo‘lgan mustaqil iqtisodiy sektorga aylangan bir sharoitda, uning huquqiy tartibga solinishi masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sport munosabatlarining murakkablashuvi, doping qoidalari, sportchilarning huquqlari, transferlar, homiylik shartnomalari, intellektual mulk

himoyasi, xavfsizlik va axloqiy me’yorlarga rioya qilish kabi jihatlar maxsus huquqiy bilimlarni talab etadi. Shu sababli, sport huquqi mustaqil va ko‘p tarmoqli huquq sohasi sifatida shakllanib, dunyoning yetakchi universitetlarida yuridik ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilinmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda sportni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda sport infratuzilmasi takomillashtirilmoqda, aholining jismoniy faolligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda, yirik xalqaro sport tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha intilishlar kuchaymoqda. Biroq, sport sohasidagi huquqiy munosabatlarning xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solinishi, milliy qonunchilikni takomillashtirish va eng muhimi, ushbu murakkab sohada malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlash masalasi hanuzgacha yetarli darajada e’tiborga olinmagan. An’anaviy yuridik ta’lim dasturlari sport huquqining o‘ziga xos xususiyatlari va amaliy ehtiyojlarini qondira olmayapti, bu esa sohada huquqiy muammolarning yuzaga kelishiga va ularni hal etishda mutaxassislar yetishmovchiligiga sabab bo‘lmoqda.

Mazkur tadqiqot, sport huquqi fanini O‘zbekistonning yuridik ta’lim tizimiga joriy etish zaruriyatini ilmiy asoslash, xalqaro tajribalarni chuqur tahlil qilish orqali milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Bu nafaqat sport sohasidagi huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, balki mamlakatimizning xalqaro sport maydonidagi nufuzini oshirishga, professional sportchilar, sport tashkilotlari va investorlarning huquqiy himoyasini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu masala yuridik ta’lim tizimining zamonaviy talablarga moslashuvi, fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ham dolzarbdir.

**Tadqiqotning muammosi**. Zamonaviy dunyoda sport nafaqat jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzining muhim qismi, balki global miqyosdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning ajralmas elementi hisoblanadi. Sport industriyasining jadal rivojlanishi, uning transmilliy xarakteri va professionalizmning ortib borishi o‘z navbatida, ushbu sohada yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarning murakkablashishiga olib kelmoqda. Sport faoliyati bilan bog‘liq

shartnomalar, intizomiy nizolar, dopingga qarshi kurash, intellektual mulk huquqlari, sport arbitraji, xalqaro sport tashkilotlarining faoliyati kabi masalalar o‘ziga xos huquqiy tartibga solishni talab etadi. Aynan shu ehtiyoj sport huquqi fanining mustaqil va ixtisoslashgan yo‘nalish sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

Biroq, ko‘plab davlatlarda, shu jumladan O‘zbekistonda ham yuridik ta’lim tizimida sport huquqi fanining yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi jiddiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy huquqiy dasturlar, odatda, sport sohasining o‘ziga xos jihatlarini qamrab olmaydi, bu esa malakali sport huquqshunoslarining yetishmasligiga olib keladi. Natijada, sport tashkilotlari, federatsiyalar, sportchilar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘z faoliyatlarida huquqiy ko‘mak olishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Sport sohasidagi huquqiy nizolarni samarali hal etish mexanizmlarining zaifligi, xalqaro sport qonunchiligi va amaliyotiga mos kelmaydigan milliy tartibga solishning mavjudligi, shuningdek, sport faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining xalqaro standartlarga mos kelmasligi sportning rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda.

O‘zbekistonning jahon sport maydonidagi faolligi ortib borayotgani, yirik xalqaro sport musobaqalariga mezbonlik qilishga intilishi, professional sportning rivojlanishi va sport turlarini ommalashtirishga qaratilgan davlat siyosati ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshiradi. Mamlakatimizda sport huquqi bo‘yicha chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Mavjud yuridik kadrlar tayyorlash tizimi esa bu talabni to‘liq qondira olmayapti.

Shu nuqtai nazardan, sport huquqini yuridik ta’lim tizimiga joriy etish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish mazkur tadqiqotning asosiy muammosini tashkil etadi. Bu jarayon sport sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda samaradorlikni oshirish, xalqaro sport qonunchiligi talablariga muvofiqlikni ta’minlash va mamlakatimiz sportining huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari**. Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasi yuridik ta’lim tizimiga sport huquqi fanini joriy etishning nazariy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish, xalqaro ilg‘or

tajribalarni chuqur tahlil qilish hamda milliy sharoitlarni inobatga olgan holda amaliy taklif va tavsiyalar majmuini shakllantirishdan iborat. Bu orqali mamlakatda sport sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratish ko‘zda tutiladi, shu bilan birga huquqiy fanlar spektrini kengaytirishga hissa qo‘shish nazarda tutiladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. O‘zbekiston yuridik ta’lim tizimida sport huquqining o‘rni va mavjud holatini, shuningdek, uning joriy etilishiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni kompleks tahlil qilish.
2. Qator rivojlangan davlatlar (jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh) yuridik ta’limida sport huquqini o‘qitishning xalqaro tajribasini, o‘quv dasturlari, metodologiyalari va ularning samaradorligini qiyosiy o‘rganish.
3. Sport huquqi fanini o‘zbek yuridik ta’limiga integratsiya qilishning nazariy-metodologik jihatlarini asoslash, uning mazmuni va tarkibiga doir fundamental yondashuvlarni shakllantirish.
4. O‘zbekistonning sport industriyasi va huquqiy amaliyotining zamonaviy talablarini hisobga olgan holda, sport huquqi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashning dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslash.
5. Sport huquqi fanini o‘quv dasturlariga kiritish bo‘yicha konseptual modelni taklif etish, jumladan, o‘qitish shakllari, usullari va zarur resurslarni belgilash.
6. Sport huquqining huquqiy tartibga solish obyekti sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini, uning boshqa huquq sohalari bilan o‘zaro aloqasini chuqur tahlil qilish.
7. Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonning yuridik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti va predmeti**. Ushbu tezis tadqiqotining obyekti sport huquqining yuridik ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyatini, uning xalqaro miqyosdagi rivojlanish tendensiyalarini hamda O‘zbekiston sharoitida mazkur fanni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayon sport faoliyatining huquqiy tartibga solish mexanizmlari va uning jamiyat hayotidagi tobora ortib borayotgan rolini tahlil qilishni ham qamrab oladi. Tadqiqot predmeti esa

sport huquqini yuridik ta’limga joriy etishning nazariy-metodologik asoslari, xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar (xususan, o‘quv dasturlari, o‘qitish usullari va amaliyotlari), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi yuridik ta’lim tizimining mavjud holati va ushbu fanni samarali integratsiya qilishning huquqiy, tashkiliy va didaktik mexanizmlarini qamrab oladi. Xususan, O‘zbekiston uchun sport huquqi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy talablarga javob beradigan kontseptual modelini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy takliflar va tavsiyalar tadqiqotning asosiy markazida turadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi**. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, O‘zbekiston yuridik ta’lim tizimida sport huquqini alohida fan sifatida joriy etishning kontseptual-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini kompleks tarzda tadqiq etishga qaratilgan ilk monografik izlanish ekanligi bilan belgilanadi. Ishning ilmiy yangiligi quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, sport huquqini o‘qitishning anglo-sakson, roman-german va postsovet huquqiy tizimlariga mansub mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Shveytsariya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi) modellarining qiyosiy-huquqiy tahlili ilk bor amalga oshirildi. Bunda ilg‘or xalqaro tajriba shunchaki bayon etilmasdan, balki ularning milliy huquqiy tizim va ta’lim an’analariga mos keladigan, O‘zbekiston uchun maqbul bo‘lgan jihatlari ilmiy asosda ajratib ko‘rsatildi va implementatsiya qilishning o‘ziga xos yo‘llari taklif etildi;

ikkinchidan, O‘zbekiston yuridik ta’lim tizimiga sport huquqi fanini bosqichma-bosqich joriy etishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model fanning maqomi (fundamental yoki tanlov fani), o‘quv dasturining tuzilmasi, kredit-modul tizimidagi o‘rni, o‘qitishning interfaol metodologiyasi hamda soha uchun pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalarini o‘z ichiga olgan yaxlit tizimni tashkil etadi;

uchinchidan, milliy huquqshunoslik uchun yangi bo‘lgan “sport huquqi”ning mustaqil o‘quv fani sifatidagi predmeti, obyekti, metodi va tizimi doktrinal darajada asoslab berildi. Uning fuqarolik, ma’muriy, mehnat va xalqaro xususiy huquq kabi turdosh sohalar bilan o‘zaro munosabati, chegaralari va o‘ziga xos jihatlari tizimli yoritilib, fanning fanlararo mohiyati ochib berildi;

to‘rtinchidan, mamlakat sport sohasidagi mavjud huquqiy muammolar (dopingga qarshi kurashning huquqiy ta’minoti, sportchilarning transferi va mehnat shartnomalari, sport nizolarini hal etishning o‘ziga xosligi) va yuridik ta’limdagi kadrlar tayyorlash tizimidagi bo‘shliq o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Bu orqali sport huquqi fanini joriy etish nafaqat akademik ehtiyoj, balki professional sport industriyasini rivojlantirish va sport subyektlari huquqlarini himoya qilishning institutsional-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishning zaruriy sharti ekanligi asoslantirildi;

beshinchidan, sport huquqini yuridik ta’limning ajralmas qismi sifatida normativ mustahkamlash maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, oliy yuridik ta’limning davlat ta’lim standartlari va malaka talablariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha aniq, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilmiy muomalaga kiritildi.

**Tadqiqotning metodologiyasi**. Mazkur dissertatsiya ishida qo‘yilgan ilmiy muammoning har tomonlama va chuqur tahlilini ta’minlash, tadqiqot maqsadlariga erishish hamda ilmiy natijalarning obyektivligi va asosliligini kafolatlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot ishining asosiy metodologik negizini qiyosiy-huquqiy, mantiqiy-tahliliy, formal-yuridik va sistemali yondashuvlar tashkil etadi.

Dastlab, **qiyosiy-huquqiy metod** sport huquqini yuridik ta’lim tizimiga joriy etish borasidagi xalqaro tajribani chuqur o‘rganishda markaziy o‘rin tutdi. Bu metod orqali Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi rivojlangan davlatlarda sport huquqining o‘quv dasturlariga integratsiya qilish mexanizmlari, mazmuni, o‘qitish shakllari va bu fan sohasining rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Xususan, turli mamlakatlardagi yuridik oliy ta’lim muassasalarining sport huquqi bo‘yicha ixtisoslashgan kurslari, magistratura dasturlari va ilmiy maktablari o‘zaro taqqoslanib, ularning afzalliklari va mahalliy sharoitga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlandi. Bu yondashuv O‘zbekiston uchun eng maqbul modellarni aniqlashda fundamental ahamiyat kasb etdi.

**Mantiqiy-tahliliy metod** sport huquqining huquqshunoslik fanlari tizimidagi o‘rni, uning o‘ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari va amaliy

ahamiyatini chuqur anglash imkonini berdi. Ushbu metod vositasida O‘zbekistonda mavjud yuridik ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari tahlil qilinib, sport huquqini joriy etishning huquqiy, pedagogik va iqtisodiy jihatdan asoslangan zarurati mantiqan yoritib berildi. Shuningdek, sport sohasida yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar va ularni hal etishda malakali sport huquqshunoslarining o‘rni tahlil etildi.

**Formal-yuridik metod** tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasining sport va ta’lim sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari, normativ-huquqiy aktlari, shuningdek, xalqaro sport tashkilotlarining nizomlari va qoidalarini o‘rganishda qo‘llanildi. Bu metod sport huquqining huquqiy asoslarini aniqlash, sport munosabatlarini tartibga soluvchi normalarning tizimli tahlilini amalga oshirish va sport huquqi fanini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy bazani belgilashda muhim rol o‘ynadi.

**Sistemali yondashuv** sport huquqini yuridik ta’lim tizimiga integratsiya qilish jarayonini yagona, o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. Bu yondashuv sport huquqini joriy etishni nafaqat yangi o‘quv fanini kiritish, balki butun yuridik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va jamiyatning sport sohasidagi huquqiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmui sifatida baholashga xizmat qildi.

Yuqorida qayd etilgan metodlarning o‘zaro uyg‘unligi tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish, ilmiy xulosalarning ishonchliligi va amaliy tavsiyalarning asosliligini ta’minlash imkonini berdi.

**Asosiy qism**. Sport huquqi fanini yuridik ta’lim tizimiga joriy etish zaruratini asoslash uchun, avvalo, ushbu sohaning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va uning huquqiy landshaftga ta’sirini chuqur anglash talab etiladi. Sport bugungi kunda shunchaki jismoniy faollik yoki ko‘ngilochar tomosha emas, balki milliardlab dollarlik global industriya, ijtimoiy integratsiya vositasi va davlatlararo munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu transformatsiya sport munosabatlarining huquqiy tartibga solinishiga nisbatan mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Mazkur tadqiqotning asosiy qismi sport huquqining xalqaro ta’lim standartlari doirasidagi o‘rnini komparativ tahlil qilish, O‘zbekistondagi mavjud holatni tanqidiy baholash va milliy yuridik ta’lim tizimi uchun istiqbolli modellarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotning birinchi yo‘nalishi rivojlangan davlatlarning yuridik ta’lim tizimida sport huquqining o‘qitilishi bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganishdan iborat. Komparativ tahlil uchun uchta asosiy model ajratib olindi: Shimoliy Amerika (AQSh va Kanada), kontinental Yevropa (Shveytsariya, Germaniya, Fransiya) va postsovet mamlakatlari (Rossiya Federatsiyasi). Shimoliy Amerika modeli sportning yuqori darajada tijoratlashtirilgani bilan ajralib turadi. Bu yerda sport huquqi ko‘proq shartnomaviy huquq, intellektual mulk, mehnat huquqi va ayniqsa, monopoliyaga qarshi qonunchilik (antitrust law) prizmasidan kelib chiqib o‘rganiladi. AQShning yetakchi universitetlari (Duke, Marquette, Villanova) sport huquqi bo‘yicha maxsus magistratura (LL.M.) dasturlarini taklif etadi. Ularda professional sport ligalari (NBA, NFL) faoliyatini tartibga solish, sportchilarning agentlari bilan munosabatlari, homiylik shartnomalari, translyatsiya huquqlari kabi amaliy masalalarga alohida e’tibor qaratiladi. Bu modelning o‘ziga xosligi – uning pretsedent huquqi tizimiga asoslanganligi va sud amaliyotining o‘quv jarayonidagi markaziy o‘rnidir.

Kontinental Yevropa modeli esa sportning avtonom tabiatiga va *lex sportiva* (sport huquqi) konsepsiyasiga ko‘proq tayanadi. Shveytsariyaning Lozanna shahrida Sport arbitraj sudining (CAS) joylashgani bu mintaqada sport huquqi rivojiga kuchli institutsional turtki bergan. Neuchâtel, Zurich kabi universitetlarda sport huquqi xalqaro xususiy huquq, assotsiatsiyalar huquqi va nizolarni muqobil hal etish mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘qitiladi. Yevropa Ittifoqi huquqining ta’siri, xususan, "Bosman ishi" kabi fundamental pretsedentlar sportchilarning erkin harakatlanish huquqi va mehnat munosabatlarini tubdan o‘zgartirdi. Bu modelda xalqaro sport federatsiyalari (XOQ, FIFA, UEFA) tomonidan qabul qilingan reglamentlar va ularning milliy qonunchilik bilan o‘zaro munosabati tahliliga keng o‘rin beriladi. Dopingga qarshi kurash (WADA kodeksi), sport tadbirlari xavfsizligi va sportda boshqaruv (good governance) masalalari o‘quv dasturlarining ajralmas qismidir.

Postsovet mamlakatlari, xususan, Rossiya Federatsiyasi tajribasi O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Bu yerda sport huquqi nisbatan yosh fan sohasi bo‘lib, u davlat tomonidan boshqariladigan sport tizimidan bozor iqtisodiyotiga asoslangan professional sportga o‘tish

jarayonida shakllandi. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Oliy iqtisodiyot maktabi kabi oliy o‘quv yurtlarida sport huquqi alohida kurs sifatida yoki mehnat, fuqarolik va ma’muriy huquq fanlari doirasida o‘qitiladi. Bu modelning o‘ziga xosligi – sport sohasida davlatning tartibga soluvchi rolini saqlab qolishga intilish va ayni paytda xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zarurati o‘rtasidagi muvozanatni topishga urinishdir.

Tadqiqotning ikkinchi yo‘nalishi O‘zbekiston milliy yuridik ta’lim tizimining joriy holatini va unda sport huquqi fanining o‘rnini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bugungi kunda O‘zbekistonda sport sohasini tartibga soluvchi mustahkam normativ-huquqiy baza shakllantirilmoqda. "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi Qonunning yangi tahriri, Prezidentning sportni rivojlantirishga oid qator farmon va qarorlari buning yaqqol dalilidir. Biroq, huquqiy islohotlar bilan yuridik kadrlar tayyorlash tizimi o‘rtasida sezilarli uzilish mavjud. Hozirda respublikaning birorta yuridik oliy ta’lim muassasasida "Sport huquqi" alohida mustaqil fan sifatida o‘qitilmaydi. Uning ayrim elementlari (masalan, sportchi bilan tuziladigan mehnat shartnomasi) mehnat huquqi yoki fuqarolik huquqining shartnomaviy munosabatlariga oid mavzulari doirasida fragmentar tarzda yoritilishi mumkin. Bu esa tizimli yondashuvning mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Ushbu holat bir qator salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Birinchidan, malakali sport yuristlarining yetishmasligi sport klublari, federatsiyalar va sportchilarning huquqiy himoyasini zaiflashtirmoqda. Xalqaro transferlar, homiylik kelishuvlari, intellektual mulk (brend, logotip) huquqlarini himoya qilish kabi masalalarda tuzilayotgan shartnomalar ko‘pincha milliy va xalqaro standartlarga javob bermaydi, bu esa kelajakda qimmatli nizolarga sabab bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, xalqaro sport arbitrajlarida (ayniqsa, CASda) O‘zbekiston tomonining manfaatlarini professional darajada himoya qila oladigan mutaxassislar deyarli yo‘q. Bu doping bilan bog‘liq yoki shartnomaviy nizolarda milliy sportning obro‘siga va moliyaviy holatiga jiddiy putur yetkazadi. Uchinchidan, sport sohasidagi korrupsiya, kelishilgan o‘yinlar va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari samaradorligi pasayadi, chunki bu sohaning o‘ziga xos jihatlarini tushunadigan tergovchi, prokuror va sudyalar yetarli emas.

Tadqiqotning uchinchi, yakuniy qismi xalqaro tajriba va milliy ehtiyojlarni sintez qilgan holda O‘zbekiston uchun sport huquqi fanini yuridik ta’limga joriy etishning istiqbolli modellarini taklif etishdan iborat. Bizningcha, bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqichda, yuridik ta’limning bakalavriat yo‘nalishida "Sport huquqi" tanlov fani sifatida kiritilishi lozim. Bu fanning maqsadi talabalarga sport huquqining asosiy tushunchalari, manbalari, tamoyillari va xalqaro sport tashkilotlari tizimi haqida fundamental bilim berishdan iborat bo‘lishi kerak. O‘quv dasturi *lex sportiva* konsepsiyasi, sport faoliyatining subyektlari (sportchilar, murabbiylar, agentlar, klublar, federatsiyalar), sportda mehnat munosabatlarining o‘ziga xosliklari, dopingga qarshi kurashning huquqiy asoslari va sport nizolarini hal etish mexanizmlari kabi asosiy modullarni o‘z ichiga olishi zarur. Bu bosqich fanga bo‘lgan qiziqishni aniqlash va kelajakdagi mutaxassislar uchun poydevor yaratish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichda, yetakchi yuridik oliy o‘quv yurtlari (xususan, Toshkent davlat yuridik universiteti) negizida magistratura mutaxassisligi yoki alohida LL.M. dasturini ochish masalasini ko‘rib chiqish kerak. Bu dastur chuqurlashtirilgan bo‘lib, unda sport marketingi huquqi, sportda intellektual mulk, sport tadbirlarini tashkil etishning huquqiy jihatlari, sportda soliqqa tortish, kiber-sport huquqi kabi tor va amaliy yo‘nalishlarga e’tibor qaratilishi lozim. O‘quv jarayoniga nafaqat nazariyotchi olimlar, balki Milliy olimpiya qo‘mitasi, Sport vazirligi, sport federatsiyalari va xususiy amaliyotdagi yuristlarni faol jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. "Case-study" metodi, xalqaro sport arbitraji o‘yinlari (moot court) va xorijiy universitetlar bilan hamkorlik dasturlari amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita bo‘ladi.

Ushbu modellarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun institutsional hamkorlik zarur. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, Sport vazirligi va Milliy olimpiya qo‘mitasi o‘rtasida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha idoralararo komissiya tuzish maqsadga muvofiq. Shuningdek, sport huquqi bo‘yicha o‘zbek tilidagi ilk darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy adabiyotlarni yaratish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak bo‘lgan ustuvor vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, sport huquqi fanini O‘zbekiston yuridik ta’lim tizimiga integratsiya qilish shunchaki akademik yangilik emas, balki mamlakat sport industriyasining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta’minlash, sportchilarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish hamda sport sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishning strategik zaruratidir. Xalqaro tajribani milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda ijodiy qo‘llash orqali ushbu sohada jahon standartlariga javob beradigan yangi avlod yuristlarini tayyorlash mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonning jahon sport arenasidagi mavqeini nafaqat sport natijalari, balki yuksak huquqiy tartibot va adolatli boshqaruv orqali ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati**. Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati O‘zbekistonning huquqiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va sport sohasini huquqiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u mamlakatimiz yuridik oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga Sport huquqi fanini joriy etish uchun ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, sport industriyasining o‘sib borayotgan talablariga javob bera oladigan, xalqaro va milliy sport qonunchiligini chuqur tushunadigan yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi. Bitiruvchilarning amaliy ko‘nikmalarini oshirish, ularni sport sohasidagi nizolarni hal qilish, shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish va sportchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha samarali faoliyat olib borishga tayyorlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Sport vazirligi hamda Milliy olimpiya qo‘mitasi kabi davlat organlari va sport tashkilotlari uchun sport faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro tajribaning tahlili milliy sport qonunchiligidagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni xalqaro standartlarga muvofiq bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar berishga yordam beradi. Bu esa sport sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, qonuniylikni ta’minlashga va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sport arbitraji va mediatsiyasi mexanizmlarini rivojlantirish orqali nizolarni samarali va tezkor hal etish tizimini yaratishga hissa qo‘shadi.

**Xulosa va takliflar**. O‘tkazilgan tadqiqot sportning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahamiyati misli ko‘rilmagan darajada ortib borayotganini, bu esa o‘z navbatida sport sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga doir kompleks yondashuvlarni taqozo etishini yaqqol ko‘rsatdi. Rivojlangan xorijiy davlatlar (AQSh, Shveytsariya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi) tajribasining tahlili shuni isbotladiki, sport huquqi allaqachon mustaqil huquq sohasi va akademik fan sifatida shakllanib, yuridik ta’lim dasturlarining ajralmas qismiga aylangan. O‘zbekistonda esa sport industriyasining jadal rivojlanishi, professional sportchilar faoliyatiga oid shartnomaviy munosabatlarning murakkablashuvi, dopingga qarshi kurash, sport tadbirlarining intellektual mulk obyekti sifatidagi himoyasi kabi masalalar dolzarblashib borayotgan bir paytda, bu sohada ixtisoslashgan malakali yuridik kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va mavjud taklif o‘rtasida nomutanosiblik kuzatilmoqda. Milliy yuridik ta’lim tizimida sport huquqining ayrim jihatlari turli fanlar doirasida fragmentar tarzda o‘rganilsa-da, tizimli va fundamental bilim beruvchi mustaqil o‘quv kursi mavjud emas.

Yuqoridagi tahliliy xulosalardan kelib chiqib, O‘zbekistonda sport huquqi fanini yuridik ta’lim tizimiga samarali joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy-tashkiliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. **Konseptual-nazariy asoslarni mustahkamlash:** “Sport huquqi” fanining milliy konsepsiyasini ishlab chiqish, uning predmeti, metodi, tizimi va boshqa huquq sohalari (fuqarolik, mehnat, ma’muriy, xalqaro xususiy huquq) bilan o‘zaro munosabatlarini fundamental darajada belgilash. Bu, o‘z navbatida, fanning ilmiy-metodologik poydevorini yaratadi.

2. **Ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish:** Yuridik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichi o‘quv rejalariga “Sport huquqi”ni tanlov fani sifatida, magistratura bosqichida esa “Sport huquqi va sport nizolarini hal etish” kabi ixtisoslashtirilgan mutaxassislik yoki modulni joriy etish.

3. **O‘quv-metodik ta’minotni yaratish:** Milliy qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va xalqaro sport arbitraji tajribasini o‘zida mujassam etgan, zamonaviy interaktiv metodlarga asoslangan “Sport

huquqi” darsligi, o‘quv qo‘llanmalari va amaliy kazuslar (case-study) to‘plamini tayyorlash va nashr etish.

4. **Institutsional hamkorlikni kuchaytirish:** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Milliy Olimpiya qo‘mitasi va sport federatsiyalari o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish. Talabalarning sport tashkilotlari va klublarida amaliyot o‘tashlari, yuridik klinikalarda esa sportchilarga bepul huquqiy maslahatlar berish tizimini kengaytirish.

5. **Huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish:** O‘zbekistonda sport nizolarini hal etishga ixtisoslashgan doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudi (sport arbitraji)ni tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslarini o‘rganib chiqish hamda bu boradagi qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish.

Ushbu tavsiyalarning kompleks amalga oshirilishi nafaqat yuridik ta’lim sifatini zamon talablariga moslashtiradi, balki O‘zbekiston sport sohasining huquqiy poydevorini mustahkamlab, xalqaro maydonda mamlakat manfaatlarini samarali himoya qila oladigan yangi avlod professional huquqshunoslarini tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. 2022-yil 25-avgustdagi O'RQ-790-son.
3. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
4. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Azizxo'jayev A. A. Sport huquqi. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021.
6. G'ofurov Z. G'. Sport sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishning nazariy va amaliy masalalari. Yur. fan. dokt. diss. avtoref. – Toshkent, 2018.

7. Ponomarev V. D. Sportivnoe pravo: uchebnik dlya vuzov. – Moskva: Yurayt, 2020.
8. Belitskaya A. V. Pravovoe regulirovanie sporta: zarubejnyy opyt i rossiyskaya praktika. – Moskva: Norma, INFRA-M, 2019.
9. International Olympic Committee. Olympic Charter. In force as of 17 July 2020.
10. Foster K. Sport and the Law. – London: Routledge, 2018.
11. Blackshaw I. S. Sport & Law: An Introduction. – The Hague: T.M.C. Asser Press, 2017.
12. European Sports Law: A Comparative Perspective. Edited by R. Siekmann and J. Soek. – The Hague: T.M.C. Asser Press, 2012.

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| Sarbon universiteti rektori, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent Asqaraliyev Odilbek Ulug‘bek o‘g‘lining ilmiy-amaliy konferensiya ochilish nutqidagi nutqi | | *3* |
| *А.К. Расулев.* | Наука в узбекистане: как сделать научную деятельность перспективной профессией? | *6* |
| *Ш.Х.Зулфиқоров* | Давлат бошқаруви тизимида ҳокимиятлар бўлиниши принципининг амалдаги ижроси: илмий-амалий таҳлил | *14* |
| *Б.Н. Тошев* | Сунъий интеллект ёрдамида яратилган муаллифлик ҳуқуқи объектларини муҳофаза қилишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари | *24* |
| *С.С. Нуриддинов* | Ашёвий далиллар тадқиқотининг долзарб масалалари | *30* |
| *А.А. Рахманов* | Замонавий юридик таълимда ислом ҳуқуқини ўқитиш ва интеграция қилиш масалалари | *38* |
| *Г.У.Ахмедова* | Совершенствование юридического образования с использованием практической деятельности при профилактике и предупреждении преступлений в республике узбекистан | *50* |
| *N.Aslonov* | Zamonaviy huquqiy ta’lim tizimida “axborot huquqi” fanini joriy etishning zarurati va ahamiyati | *53* |
| *F.A. Primov* | Davlat boshqaruvidagi korrupsiyaviy omillarning ma’muriy-huquqiy jihatlari tahlili | *59* |
| *А.Дж. Хусанов* | Особенности расследования преступлений, совершенных с использованием информационно-коммуникационных технологий | *76* |

| | | |
|---|---|---|
| *M.E. Muminov* | Raqamli huquq yo‘nalishidagi islohotlarning jinoyat-protsessual qonunchiligiga joriy etilishi | *79* |
| *Q.Avezov* | O‘zbekistonda sud jarayoniga sun’iy intellektni joriy etish: muammolar va yechimlar | *84* |
| *И.И.Каримов* | Терроризмга оид жиноятларни самарали тергов қилиш йўналишида терговчиларни ўқитишнинг ҳозирги замон талаблари ва инновацион ёндашувлар | *88* |
| *M.N. Saydazimov* | Jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirishning jinoyat predmeti va bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning kvalifikatsiyasi | *92* |
| *Н.Қ. Усманалиев* | Рақамли ҳуқуқий таълим:геймификация ва казус-методига асосланган рақамли платформаларнинг долзарблиги ва истиқболлари | *96* |
| *Sh.A. Xoliqov* | Tarmoq kriminalistikasi joriy holati va istiqbollari | *105* |
| *А.Ш.Чуллиев* | Анализ международного опыта использования искусственного интеллекта в судебных системах и его влияние на статус судей | *111* |
| *B. J.Abdullayev* | Iqtisodiy protsessual huquq fanini rivojlantirish ayrim masalalari | *128* |
| *O‘.M.Otayev* | Yuridik ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishning Zamonaviy muammolari | *132* |
| *R.SH.Kobilov* | O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari | *137* |

| | | |
|---|---|---|
| *Э.Р.Каспаров* | Современные тенденции в развитии цифровой криминалистики | *141* |
| *Н.Р.Файзуллаева* | Юнеско конвенциялари доирасида маданий меросни ҳимоя қилишнинг замонавий халқаро-ҳуқуқий тизими | *147* |
| *Д.Ж.Эшқулов* | Юридик таълимнинг ҳуқуқбузарликлар профилактикасида тутган ўрни | *156* |
| *D.Sh.Aliqulov* | O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish sohasidagi mavjud muammolar va ularning ilmiy- huquqiy tahlili | *163* |
| *D.A.Aminov* | O‘zbekistonda huquqiy ta’lim va amaliyot integratsiyasini rivojlantirishning institutsional asoslari | *171* |
| ***А.Й.Абдуллаев*** | Гувоҳнинг ёки жабрланувчининг била туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини тергов қилишни такомиллаштириш масалалари | *175* |
| *А.У.Анорбоев* | Сунъий интеллектларни чеклашнинг ижтимоий зарарияти ва ташкилий-ҳуқуқий механизмлари | *187* |
| *С.Рахмонова* | Институциональные и социально-правовые механизмы обеспечения политических прав женщин: международные стандарты и национальная практика республики узбекистан | *197* |
| *A.K.Turg‘unboyev* | Yetakchi davlatlar ekologik tajribasi va atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy mexanizmlari: aqsh, yevropa ittifoqi va yaponiya misolida | *200* |
| *Sh.Z.Zokirov* | Ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarini tizimlashtirishning dolzarb masalalari | *205* |
| *Sh.Z.Zokirov*<br>*N.F.Butunboyev* | Yuridik ta’limni modernizatsiya qilishda innovatsion yondashuvlar va klaster tizimining ahamiyati | *211* |

| | | |
|---|---|---|
| *B.J.Abdullayev*<br>*S.B.Ravshanov* | Saylov tizimi: huquqiy asoslari va uni takomillashtirish masalalari | *216* |
| *S.Sh.Sakiyev* | Sun’iy intellekt asosida ta’lim boshqaruvi: pedagogik transformatsiya va muvozanatli tartibga solish modeli | *223* |
| *N.T.Khudayberganova* | Роль специальных миссий в обучении института иммунитетов в международном праве | *231* |
| *G.O.Zokirova* | Xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari | *238* |
| *E.A.Abduqaxxorov* | Konstitutsiyaviy odil sudlovni raqamlashtirish: sun’iy intellektni joriy etishning huquqiy asoslari va istiqbollari | *242* |
| *Sh.M.Ubaydullayev* | Ta’limni rivojlantirishning bugungi kundagi muhim ahamiyati | *248* |
| *S.S.Abdihakimov* | Sud hokimiyati samaradorligini oshirishda “raqamli sud” konsepsiyasining o‘rni va ahamiyati | *253* |
| *M.S.Narzullayeva* | Jinoiy javobgarlikning asoslari va nazariy muammolari:<br>O'zbekiston tajribasi va xalqaro standartlar | *258* |
| *Ф.Б.Эштурдиева* | Сунъий интеллект ва юридик таълим интеграцияси: ҳуқуқ ижодкорлиги сиёсати нуқтаи назаридан | *264* |
| *A.Ochilboev* | Artificial intelligence and human rights: legal implications of digital technologies in law enforcement practice | *269* |
| *С.А.Ишанходжаев* | Yuridik ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari | *275* |
| *М.Ў.Хасанов* | Сунъий интеллект билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар тушунчаси ва турлари | *279* |

| | | |
|---|---|---|
| *А.Ш.Сафарова* | Рақамлаштириш даврида истеъмолчиларни адолатсиз тижорат амалиётларидан ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий жиҳатлари | *286* |
| *F.Sh.Xidirov* | Bugungi kunda yangi o‘zbekistonda “mahalla yettiligi”ning o‘ziga xos ahamiyati (ichki ishlar organlari hamkorligi misolida) | *292* |
| *Sh.M.Ubaydullayev*<br>*K.A.Yuldashev* | Yoshlar o‘rtasida ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda psixologik omillarning ta’siri | *298* |
| *J.Q.Xamraev* | Yoshlarni vatanparvar va professional kadrlar sifatida tayyorlashda huquqiy ta’limning ahamiyati | *304* |
| *N.O.Odilov* | Yuridik ta’lim va tadqiqotlar rivojining ustuvor yo‘nalishlari | *308* |
| *K.S.Beysenov* | Narkotik vositalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurashning huquqiy asoslari | *312* |
| *A.G‘Asqarov* | Voyaga yetmaganlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari | *316* |
| *D.Abduqodirov* | Xalqaro xavfsizlik va zamonaviy tahdidlar | *320* |
| *S.Akbarov* | Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik institutining nazariy-huquqiy genezisi va davrlashtirish masalalari | *323* |
| *O.E.Allayarov* | Internet texnologiyalari orqali yuridik ilm-fan va huquqiy tadqiqotlarni raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalari | *329* |
| *K.Amandulloev* | Internal legal policy mechanisms for enhancing employment and living conditions of persons with disabilities: national approach of uzbekistan | *333* |
| *G.A.Bekdurdiyeva* | Global tahdidlar iqlim ozgarishi va mintaqaviy javoblar | *342* |

| | | |
|---|---|---|
| *F.E.Djuravev, A.G‘.Asqarov* | O‘zbekistonda mehnat qilish va dam olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari | *347* |
| *S.SH.Eshmatova S.X.Inoyatov* | Huquqiy barqarorlikni yaratishda sharhlashning ahamiyati | *352* |
| *F.E.Djuravev* | Jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining o‘rni va uning konstitutsiyaviy asoslari | *359* |
| *M.S.Narzullayeva* | Giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari | *363* |
| *X.O.Hakimova M.F.Xo'jayeva* | Xalqaro mintaqalarda inson huquqlari monitoringi tizimlari: yevropa, amerika, afrika va osiyo yondashuvlari qiyosiy tahlili | *368* |
| *X.O.Hakimova* | Xalqaro huquqda monitoring mexanizmlarining shakllanishi va tasnifi | *379* |
| *I.B.Madrimov* | O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasida Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirish mexanizmlari | *384* |
| *M.J.Jalolova* | Mintaqaviy turizm va madaniy almashinuv | *388* |
| *O.I.Ortiqov A.N.Meliboyev J.Mo‘minov* | Kambag‘allikka qarshi kurashda fuqarolarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirishning strategik asoslari | *393* |
| *K.Z.Axmedova* | Zarar keltiruvchi dasturlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda tergov amaliyoti bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimi | *402* |
| *S.S.Abdihakimov* | Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual huquq normalari buzilishining hal qiluv qarorlariga ta’siri | *413* |
| *S.Sh.Eshmatova* | Konstitutsiyaviy nazorat instituti: O‘zbekiston va yevropa tajribasining qiyosiy-huquqiy tahlili | *419* |

| | | |
|---|---|---|
| *A.K.Turg‘unboyev*<br>*M.K.Mamajonov* | Sun’iy intellekt va huquq:<br>Nazariya, muammolar va kelajak istiqbollari | *425* |
| *J.G‘.Saidmusayev*<br>*M.K.Mamajonov* | Yuridik shaxslarning ishchanlik obro‘si muhofazasi zamonaviy shakllari | *429* |
| *G.A.Bekdurdiyeva* | Markaziy osiyoda iqlim siyosati mintaqa taraqqiyotining geosiyosiy omili | *433* |
| *S.B.Ravshanov* | Yuridik ta’limni isloh qilish bo’yicha olib borilayotgan islohotlar va ularning mazmun mohiyati | *439* |
| *A.N.Meliboyev*<br>*D.I.Ergashev* | O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash yo‘lidagi huquqiy islohotlar tahlili | *443* |
| *V.A.Xomidov* | Shaxsga qarshi jinoyatlarning tavsifi, tahlili va oldini olishdagi ichki ishlar organlarining o‘rni (samarqand viloyati misolida) | *446* |
| *M.F.Xo‘jayeva*<br>*S.I.Xidoyatova* | Masofaviy ta‘lim sharoitida yuridik fanlarni o‘qitish sifatini ta‘minlash | *454* |
| *G.A.Bekdurdiyeva*<br>*Y.Normamatova* | O‘zbekiston oliy ta’limida global integratsiya jarayoni | *457* |
| *O.E.Ergasheva* | Tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda xalqaro tajriba va milliy qonunchilikning qiyosiy tahlili | *461* |
| *M.K.Mamajonov* | Raqamli huquq: internet va ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy tartibga solish | *472* |
| *J.Saidmusayev* | Tashqi iqtisodiy faoliyat tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish | *476* |
| *J.Saidmusayev*<br>*G.Bekturdiyeva* | Markaziy osiyoda tashqi iqtisodiy faoliyat tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish | *480* |
| *M.F.Xo‘jayeva* | O‘zbekistonda mulk shakllari va ularning muhofazasi | *487* |

| | | |
|---|---|---|
| *Sh.N.Yoqubov* | Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-institutsional asoslarini takomillashtirishning ayrim masalalari | *490* |
| *А.У.Анорбоев* | Ахборотлаштириш қоидаларини бузиш жиноятининг юридик-техник таҳлили ва ушбу қилмиш учун жазо муқарарлигини таъминлаш механизми (*кибералогия методи асосида*) | *506* |
| *O.E.Ergasheva* | Mahalla fuqarolar yig‘inining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vakolatlari: milliy va xorijiy tajriba | *517* |
| *O.E.Ergasheva G.G‘.Abdug‘afforova* | Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlari: milliy va xorijiy tajriba | *528* |
| *S.B.Ravshanov A.Ergashev* | Yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali fuqarolar o'rtasida huquq va majburiyatlarga hurmat ruhini qaror toptirish usullari | *535* |
| *S.B.Ravshanov Sh.Yuldasheva* | Yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali jamiyatda huquqiy nigilizmni bartaraf etish yo‘llari | *539* |
| *F.O‘.Karimboyeva* | Yuridik ta‘lim va ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy muammolari | *543* |
| *B.Ravshanov*<br>*A.Abubakirov* | Yuridik ilm-fanni rivojlantirish orqali fuqarolarni qonun ruhida tarbiyalash vositalari | *546* |
| *S.B.Ravshanov S.I.Xidoyatova* | Yuridik ta’limni rivojlantirish orqali jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish | *550* |
| *S.B.Ravshanov S.N.Abdullayev* | Yuridik ta’limni yuksaltirish orqali jamiyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish choralari | *555* |
| *S.B.Ravshanov Z.E.Samadova* | Jamiyatda yuridik ta’limni yuksaltirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish | *559* |

| | | |
|---|---|---|
| *S.B.Ravshanov*<br>*Sh.Q.Bahodirova* | Yuridik ilm-danni rivojlantirish orqali jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish muhitini shakillantirish | *563* |
| *G.T.Aralbayeva* | Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash prinsiplari | *567* |
| *Н.Н.Назиржонов* | Ижтимоий тармоқдан фойдаланиб содир этилган жиноятларни тергов қилишда компьютер экспертизасининг исботлаш воситаси Сифатидаги аҳамияти | *572* |
| *К.И.Нуримова*<br>*С.А.Нуримова* | Чет элдан алиментларни ундириш тўғрисидаги конвенцияни ратификация қилиш долзарб муаммолари | *583* |
| *Д.Х.Мадаминова* | Роль цифровой дипломатии в обеспечении устойчивого развития и мира в международных отношениях на примере республики узбекистан | *588* |
| *K.Z.Ahmedova*<br>*A.X.Payzullayev* | O‘zbekiston respublikasida sayyor notarial harakatlarni amalga oshirishning huquqiy asoslari va istiqbollari | *593* |
| *T.A.Xomidov* | Internet tarmog‘ida ekstremistik materiallarni tarqatishga qarshi kurashishda o‘ziga hos yondashuvlar | *600* |
| *К.И.Нуримова* | Банк тизими ва марказий банкнинг молиявий-ҳуқуқий мақоми | *604* |
| *А.Хомидов* | Транспорт хавфсизлигини таъминлашда терроризм тушунчаси ва бу борада халқаро ҳуқуқий асосларнинг ўрни | *614* |
| *Sh.O.Ahmedova* | Huquqiy tartibga solish mexanizmi: tushunchasi, tuzilishi va bosqichlari | *618* |
| *M.Sapoyev* | Markaziy osiyoda o‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni | *622* |
| *S.H.Jalilova* | Yuridik ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi | *625* |

| | | |
|---|---|---|
| *Z.Bo‘riyeva* | O‘zbekiston respublikasining xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki va tashqi siyosat strategiyasi | *630* |
| *M.T.Kuchkarova* | Migratsiya huquqi va xorijda fuqarolar yuridik maqomi: milliy qonunchilik va xalqaro-huquqiy kafolatlar tahlili | *635* |
| *T.Kuchkarova* | O‘zbekiston respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash tizimi: yangi konstitutsiya va davlat organlarining faoliyati | *642* |
| *M.T.Eshbekova* | Mintaqaviy siyosatda liderlarning roli va ta’siri | *645* |
| *D.Ganikulova* | Mintaqaviy siyosatda ayollar va yoshlar ishtiroki | *652* |
| *Q.Xolmurodov* | Obyektiv va subyektiv huquq. subyektiv huquqning tuzilishi | *656* |
| *N.O‘.Eshonqulova* | O‘zbekiston respublikasi sud hokimiyati asoslari | *662* |
| *B.I.Qobilov* | Koreya yarimorolida siyosiy ziddiyatlar va ularning global ta’siri | *671* |
| *O.G‘.Saydullayev* | Markaziy osiyoda islom omili va mintaqaviy geosiyosiy barqarorlik | *674* |
| *N.O.Saidnazarova* | Mintaqaviy turizm va madaniy almashinuvning diplomatiyadagi o’rni | *684* |
| *N.Kamaladdinova* | Afrika mintaqasi: taraqqiyot muammolari va mintaqaviy integratsiya | *687* |
| *X.O.Ramazonova* | Sun’iy intellekt sharoitida yuridik kasb transformatsiyasi | *691* |
| *S.Bekmurodov* | Законность и правопорядок | *695* |
| *K.Majidov* | Sport huquqi fanini yuridik ta’lim tizimiga joriy etish: xalqaro tajriba va o’zbekiston uchun istiqbollar | *701* |

# YURIDIK TA’LIM VA ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami
(2026-yil 19-may)

Bosishga ruxsat etildi 15.06.2026. Nashr-hisob tabog‘i 46,5. Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ____. Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sarbon universiteti, Toshkent, Olmazor tumani, Paxta MFY, Sag'bon ko'chasi, 290-uy